Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, tatbiq etilayotgan yangiliklar, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun yaratilayotgan shartsharoitlar, xalqimizning yashash va mehnat qilish sharoitining yaxshilanishi, umuman olganda erishilgan moddiy va ma’naviy salohiyat erkinligi mamlakat mustaqilligining tuhfasi bo‘lib, erkin mehnat qilish va yashash, mustaqil fikrlash, e’tiqod va so‘z erkinligi, ijtimoiy faolligi, diniy bag‘rikenglik, umuminsoniy qadriyatlar va milliy urfodatlarning hurmat qilinishi va qadrlanishi, kuchli ijtimoiy himoya hamda bularni huquqiy asoslarining yaratilishi yoshlarni mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini obyektiv baholashga o‘rgatish yo‘nalishida o‘ziga xos vazifalar yuklaydi.

Inson ijtimoiy munosabatlar jarayonida hayot kechiradi. Ijtimoiy jamiyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlar, ularni mazmuni, g‘oya va yo‘nalishlari shaxsning ijtimoiy shakllanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Avvalambor ijtimoiylashish nima? Ijtimoiylashish – jamiyatning muvoffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan psixologik mexanizm, ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni individ tomonidan o‘zlashtirish jarayoni. Ijtimoiylashuv kishilik madaniyati, xususan, milliy madaniyat an’analarini o‘zlashtirib borish jarayoni sifatida ham talqin etiladi. Madaniy muhitga moslashish jarayoni sifatida ijtimoiylashuv insonning butun umri bo‘yi davom etadi, biroq bu jarayon bolaning 2 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan davrida boshlanadi. Mazkur davrda bola madaniy qadriyatlarni o‘rganish jarayonidan uzib qo‘yilsa ijtimoiylashuv jarayoni to‘xtab qoladi. Insonning madaniy an’analarni o‘zlashtirish jarayoni uning individualligining shakllanishi bilan hamohangdir.

Hayotga kirib kelayotgan bola va o‘smir, yigit va qiz ko‘pgina muammolarga ro‘baro keladi. Shular orasida istiqbolda na’munali jamiyatni rivojlantirishning yangi yo‘llarini, hayot – tartib qoidalari tizimini va qadriyatlarini belgilash, ijtimoiy holatlarni mustahkamlash va kasb tanlash muammolar asosiy o‘rin tutadi.

Yoshlarning ijtimoiy faolligi muammosini o‘rganish jarayoni shuni ko‘rsatmoqdaki, u hali yetarlicha o‘rganilmagan, ayniqsa, yoshlar bilan ishlash, dunyoqarash va milliy qadriyatlarni shakllantirish yo‘llari tadqiq etilgan alohida monografiya, risola yoki ilmiy tadqiqotlar yetarli emasligi muammoning dolzarbligini belgilamoqda.

Yoshlarda ijtimoiy faolligini oshirish natijaviylikni ta’minlash uchun ularning boshlang‘ich tushunchalari, ijtimoiy faolligining ahamiyati va zaruriyati haqidagi fikrlariga ilmiy

yondashish; ta’lim-tarbiya jarayoni hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida motivlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish; yoshlarda ilm olishga bo‘lgan ijobiy motivlarni shakllantirish; yoshlarda ijtimoiy faolligini oshirish uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirish; pedagogik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini ta’minlash; ijtimoiy faolligini oshirish jarayonlariga innovatsion tuzilishga ega bo‘lgan murakkab pedagogik tizim sifatida yondashish; pedagogik jarayonlarda yoshlarda o‘tmish va kelajak haqidagi boy tasavvurni shakllantiruvchi refleksiv yondashuvni joriy etish; pedagogik jarayonlarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’sirni ahamiyatini va o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish kabi shartlarning bajarilishini ta’minlash zarur.

Ijtimoiy faollik - ijtimoiy subyektlar (jamiyat, tabaqa, guruh va shaxslar)ning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma’rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo‘yilgan huquq va burchlarini to‘liq amalga oshirishga intilishi.

Buyuk davlat arbobi Islom Abdug‘aniyevich Karimov ta’kidlaganlaridek “Yoshlarimizning iymon e’tiqodini mustahkamlash irodasini baquvvat qilish, ularni o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o‘zligini unutmaslik, ota-bobolarining muqaddas qadriyatlarini asrabavaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish. Ularning men o‘zbek farzandiman, deb g‘urur va iftixor bilan yashashga erishishdir.” Ijtimoiy faollik shaxsning hamiyatda o‘z o‘rnini topishi va hulq-atvorini ongli ravishda boshqrishining asosiy sharti hisoblanadi.

Xulosa. Dolzarb muammolarni yechish, avvalo milliy mustaqillik sharoitida ta’limi tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida uni yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Keng pedagogik ma'nodagi tarbiya ma'lum maqsadga yo`naltirilgan bo`lib, jamiyat tomonidan tayyorlangan, ajratilgan kishilar yoxud o`qituvchilar yoki tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi va turli xildagi o`quv mashg`ulotlari, maxsus o`tkaziladigan bir qator tarbiyaviy tadbirlarni o`z ichiga oladi.

Ko`pchilik olimu fuzalolar tarbiya deganda faqat bolaga tarbiya berishni tushunadilar. Bizningcha, bu ancha tor tushunchadir. Chunki tarbiyaga faqat bolalar emas, balki kattalar ham muhtojdirlar. Hozirgi kunda esa ayrim yigit-qizlar, shuningdek yoshi ulardan ham ulug`lar odob-axloq aqidalariga zid ish tutadilar. Bunga dalillar ko`p topiladi.

Demak, pedagogika insonni go`dakligidan boshlab to umrining oxirigacha hayot va turmush odobiga o`rgatuvchi va shu narsalarni tahlil hamda tadqiq etuvchi fandir. Tarbiya va tarbiyashunoslik haqidagi bu ta'rif ma'no va mazmuniga odamlarning butun umri davomidagi xulq-atvori, odob-axloqi, bu boradagi milliy an'anlarga sadoqat va shularga tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchining to`la amal qilishi, milliy qadriyat, ma'naviyat va ma'rifatga hurmat, iymon va vijdon singari go`zal fazilatlar singgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. Педагогика назарияси (дарслик). – Тошкент: Фан, 2008. – 184 б.
2. Авлоний А. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ.–Т.:Ўқитувчи, 1992.–160 б
3. Жўраев Н. Мафкуравий иммунитет. Маъруза матни. –Т.: Маънавият, 2000. –116 б.
4. Bokiyev G. O. // Factors Providing Interconnectivity between Higher Education Stages and Qualification Upgrading Courses Integration as Pedagogical Phenomenom. Eastern European Scientific Journal. - GermaniY. 2019, №1. –P. 154-159. (13.00.01.№1)
5. Bokiyev G. O. Factors ensuring continuity between higher education levels and continuing education courses // The American Journal of Social Science and Education Innovations: - USA , December, 2020. –P. 115-121.

"BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH"

Boqiyev G‘ulomjon Ochilovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Eshtemirova O‘g‘iloy Sobir qizi
Shahrisabz davlat pedagogika institute, magistr

Annotatsiya: Hozirgi kunda ta'lim tizimida kommunikativ kompetensiyaga e'tibor qaratish har doimgidan ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonning ta'lim tizimida yangilanishlar va innovatsiyalarni joriy etish maqsadida, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda tarbiya darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zarurati paydo bo’lib bo‘lmoqda.Innovatsion texnologiyalar — bu zamonaviy bilimlarni joriy etuvchi, o‘zaro munosabat va muloqotni rivojlantiruvchi vositalardir. Ular orasida interaktiv doskalar, multimedia materiallari, onlayn platformalar va turli dasturlar mavjud. Tarbiya darslarida mana shunday texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning fikr almashish qobiliyatini oshiradi.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, texnalogiya, multimedia, komunikativ, kompetensiya, interaktiv, grafik material, onlayn platforma

Kirish: Kommunikativ kompetensiya — bu insonning muloqotda erkin ishtirok etish, fikrlarini yetkazish, boshqa insonlarni tushunish va ularga javob berish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu kompetensiya juda zarurdir, chunki ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari ko‘pincha muloqot qilish qobiliyatiga bog‘liqdir. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi.

Asosiy qism. O'quvchilarning o'quv materiallarini egallashga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Ta'lim jarayonida innovatsion deyilganda ta'lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish , yangicha yondashish , pedagog va talabaning hamkorligidagi jarayonini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish holati, ta'limning uslub, shakl, va vositalarining yig’indisi tushuniladi. Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish qiziqishini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki qiziqish o'quvchilarni ta'lim jarayoniga tortadi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga chorlaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim darajasini hisobga olish lozimligini sedan chiqarmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlashini shakllantirib beradi.

Tarbiya darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash usullari:

1. Interaktiv doskalar: Dars jarayonida interaktiv doskalardan foydalanish orqali o‘quvchilar nafaqat eshituvchi bo‘lmaydilar, balki yanada aktiv ishtirok etadilar. Bu esa ularda fikrlarni bayon qilish va munozara qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

2. Multimedia materiallari: Video, audio va grafik materiallar yordamida tarbiya darslarini yanada jonli va qiziqarli qilish mumkin. Multimedia vositalari bilan mavzularni yanada kengroq tushunishga erishiladi.

3.Onlayn platformalar: O‘zaro fikr almashinish uchun onlayn muhokamalar tashkil etish orqali talabalarni ijodkorlikka undaydi. Bu holat kommunikativ ko'nikmalarning mustahkamlanishi uchun katta imkoniyat yaratadi.

4. Loyihalar va guruh ishlari: O‘quvchilarni guruhlarga bo'lish orqali birgalikda loyiha tayyorlashlarini so'rab, ular orasidagi aloqani rag'batlantirish mumkin. Bu jarayon ijodiy fikrlash va jamoaviy ish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, iyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o‘qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ona tili va o‘qish savodxonligi ta’limiga o‘quv fani emas, balki, butun ta’lim tizimini uyushtiruvchi ta’lim jarayoni sifatida qaraladi. Shu bois ham, darsni tashkil qilishda unga integratsion va innovatsion yondashish davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda tarbiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Innovatsion yondoshuvlar orqali o‘quvchilarning faoliyatga jalb qilinishi, ularning ijtimoiy ko'nikmalarining rivojlanishi hamda kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ta'sir etuvchi omillar sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun pedagogik jarayonda ushbu texnologiyalarni kengaytirib qo'llash zarurdir.Ushbu maqola boshqaruv mutaxassislari, pedagogika professori va boshlang’ich sinf o'qituvchilari tomonidan e'tiborga olinishi kerak bo'lgan masalalarni yoritadi. Innovatsion texnologiyalar yordamida bolalarning ta’lim olish jarayoni yanada samarali bo'lishi mumkinligi haqida kengroq muhokama olib borilishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.G. Yeldasheva, G.Karimova -Ta’lim -tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent. 2018 yil.

2.Zimnyaya I.A. Ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning natija-maqsadli asosi sifatida asosiy kompetensiyalar. Muallif versiyasi. M.: Mutaxassislar tayyorlash sifati muammolari ilmiy markazi. 2004 yil.

3.T.N.Qori Niyoziy nomidagi ilmiy –tadqiqot institute. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. Toshkent-2015. 7-20-betlar

4.Bokiyev G. O. // Factors Providing Interconnectivity between Higher Education Stages and Qualification Upgrading Courses Integration as Pedagogical Phenomenom. Eastern European Scientific Journal. - GermaniY. 2019, №1. –P. 154-159. (13.00.01.№1)

5.Bokiyev G. O. Factors ensuring continuity between higher education levels and continuing education courses // The American Journal of Social Science and Education Innovations: - USA , December, 2020. –P. 115-121.

O’SMIRLIK DAVRIDAGI O’QUVCHILARDA XARAKTER AKSENTUATSIYASI VA UNING O’QUV FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA’SIRI.

Fayzullayeva Farida Yusufjon qizi
O’zbekiston Milliy Universiteti, doktorant
fayzullayevafarida6@gmail.com

Annotatsiya:*Ushbu maqolada inson xarakteri va xarakter aksentuatsiyasi haqida, hamda uning o’smirlarda qay ko’rinishlarda namoyon bo’lishi borasida fikr-mulohazalar bayon etilgan hamda*

xarakter aksentuatsiyasi natijasida deviant xulq-atvor kelib chiqishiga doir ma'lumotlar bayon etilgan. Xarakter aksentuatsiyasining ta'sirida o'smir o'quvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarni bartaraf etish borasida tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: o'smir, xarakter, xarakter aksentuatsiyasi, korrektsiya, temperament, gipertim, distim, kayfiyat,xulq-atvor, deviant xulq-atvor.

Kirish.O'smirlik davri yosh davrlari orasida o'zining shiddat bilan kechishi, organizmda tubdan o'zgarishlar yuz berishi hamda o'smirda anotomik hamda fizioligik jihatdan, psixologik jihatdan turli darajadagi o'zgarishlar bilan kechuvchi davr sifatida boshqa yosh davrlaridan tubdan farq qiladi. Bu yosh davrida o'quvchi yoshlar organizmida o'zgarishlar yuz berib, bu o'zgarishlar o'z navbatida organizmning psixologik holatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Ayrim o'zgarishlar organizm uchun ijobiy xususiyatlarga ega bo'lib bu o'quvchi yoshlarning ta'lim tarbiya jarayonlarida yuksalishga, rivojlanishga, yuksalishiga sabab bo'ladi. Ayrim o'zgarishlar salbiy ahamiyat kasb etib bu holat o'quvchi yoshlarning xulq-atvorida, o'quv faoliyati, ota-onalar bilan munosabatda, shaxslararo munosabatlarda muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, o'smirlik davrida o'quvchilarda uchrovchi xarakter aksentuatsiyasi ularda sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunga qadar maktab ta'limi jarayonlarida o'quvchilarda xarakter aksentuatsiyasi darajalari hamda deviant xulq-atvor turlari turlicha darajada o'rganilgan. O'smirlik davri psixofiziologiyasi (E.G'oziyev,Z.Nishonova,D.Abdullayeva,G.Baykunusova), o'smirlik davridagi hissiy o'zgarishlar (B.M.Umarov), o'smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi sabablari(A.Qodirov), xarakter aksentuatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari(Sh.Abdullayev) kabi xarakter aksentuatsiyasining ko'plab tomonlari o'rganilgan. Shu bilan birga deviant xulq- atvorga doir ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, deviant xulq-atvor sabablari, uning ijtimoiy-psixologik omillari(A.Qodirov),deviant xulq shakllanishida ijtimoiy muhitning ta'siri(F.Murodov), o'smirlarning deviant tendensiyalari(Sh.Abdullayev), deviant xulq kelib chiqishida ijtimoiy omillar va psixologik jihatlarni organilishi(D.Tursunov) kabi tadqiqot ishlari amalga oshirilib amaliyotga tadbiq etib kelinmoqda.

Metodlar. Xarakter aksentuatsiyasini ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan, tadqiqotlar o'tkazilgan. O'tgan asring 1968-yilida nemis psixiatri A.Leongard tomonidan "aksentuatsiya" tushunchasini fanga kiritdi. Ushbu atamani ma'nosini "me'yordan chetga chiqish"," individual xususiyatlarning haddan tashqari kuchayishi" deb ta'riflagan. Leongard tomonidan taklif taklif etilgan aksentuatsiyalarning birinchi ilmiy tasnifi shaxsdagi xarakter tipologiyasidir. K.Leongard qarashicha bu shaxsning atrofdagilar bilan munosabat va muloqot uslublarini baholashga asoslangan. Olim fikricha odamlarning 20-30 % qismida xarakterning ayrim xususiyatlarini haddan tashqari kuchli namoyon bo'lishini aniqlaydi. Ba'zi bir xarakter tipidagi odamlarda xarakter xususiyatlarining bunday kuchli namoyon bo'lishi kuchli ziddiyatlar, hissiy portlashlar bilan namoyon bo'lishini ta'kidlab o'tadi. Olim fikricha xarakter aksentuatsiyasi tasnifini 3 guruhga, turlari jihatdan 12 turga ajratadi.

1-guruh temperament guruhi deb nomlaydi va tabiiy tarbiya tarkibiga kiruvchi xarakter turlarini kirgizadi:gipertimik,distimik,affektivlabil,affektiv-yuksak, xavotirli va hissiy turlar.

2-guruh namoyishkorona xarakter aksentuatsiyasi turlarini olim ijtimoiy-shartli ta'lim bilan bog'laydi va pedatik, hayajonli turlarni kirgizadi.

3-guruh shaxsiy darajadagi qo'shimcha va introvert turlar kiritilgan.

Oradan biroz vaqt o'tib rus olimi A.Lichko tomonidan ham xarakter xususiyatlari bilan bog'liq o'rganilish ishlari olib boriladi. Olimning ishlari asosida Leongard hamda sovet psixiatri P.B.Gannushkinning ishlari yotadi. Olim asosan tadqiqotlarida xarakter aksentuatsiyasi va deviant xulq-atvorni aniqlashda o'smirlar va yigitlarni kuzatish orqali xulosalar qiladi. Uning xarakter aksentuatsiyasi bilan bog'liq tadqiqotlari faqatgina o'smirlik yosh davri bilan chegaralanib qolmagan.

Mavzuni o’rganish va tadqiq etish davomida o’smirlarda xarakter aksentuatsiyasi va deviant xulq-atvorni aniqlash maqsadida 11 yoshdan 14 yoshgacha bo’lgan 40 nafar o’quvchilar tanlab olindi hamda o‘smirlardagi xarakter aksentuatsiyasi va uning namoyon bo‘lish darajasini aniqlash maqsadida foydalaniladigan Shmishek tomonidan taklif etilgan “O‘smirlarda xarakter aksentuatsiyasini aniqlash” test-so‘rovnomasi qo‘llanildi. Test-so‘rovnoma asosini K.Leongardning aksentuallashgan shaxs konsepsiyasi tashkil etadi. K.Leongard fikricha, aksentuatsiya – bu har bir insonga xos bo‘lgan ba’zi bir individual xususiyatlarning “kuchayib ketishi” bo‘lib, temperament va xarakter xususiyatlarining aksentuatsiyasini farqlash mumkin.

Test-so‘rovnoma 10 ta shkaladan tuzilgan 88 ta savoldan iborat bo‘lib, sinaluvchidan ushbu savollarga bo‘lgan munosabatlarini “ha” yoki “yo‘q” tarzida ifodalash talab etiladi. Ushbu metodika bo‘yicha sinaluvchida quyidagi aksentuatsiya tiplarini aniqlash mumkin:gipertim,xavotirlanuvchi,distim,rasmiy, qo’zg’aluvchan,emotive, rigid, sikloid, ekzaltir.

Natija: o’tkazilgan tadqiqotimiz natijalari quyidagi tasvirda o’z ifodasini topgan.



Tadqiqot natijalariga ko‘ra sinaluvchilarning 37.5 foizida ekzaltir tip namoyon bo‘ladi. Bu tipdagi insonlar xarakteriga xos bo‘lgan ijobiy xislatlar xushchaqchaqlik, bag‘rikenglik, hamdardlik qila olish bo‘lsa, salbiy xislatlar qatoriga vahimachilik, kayfiyatning vaziyatga qarab tez o‘zgaruvchanligi kabilarni kiritish mumkin. Biroq, sinaluvchilar bilan o‘tkazilgan suhbat natijalarining dalolat berishicha, ularning xushchaqchaqligi va kulib turishi namoyishkorlik xususiyatiga ega.

Olingan ma’lumotlarga ko‘ra yana 37.5 % sinaluvchilar uchun aksentuatsiyaning qo‘zg‘aluvchan tipi xos. Bu tipdagilar muloqotga kirisha olmasliklari, muloqotning verbal va noverbal turlari sust rivojlanganligi bilan xarakterlanadilar. Ko‘pincha ular qovog‘i soliq holda yuradilar, surbetlik va janjalkashlikka moyildirlar. Jamoada boshqalar bilan chiqisha olmaydilar. Emotsional qo‘zg‘aluvchanlik holatida serjahl, jizzaki, o‘z xulq-atvorini boshqara olmaydilar.

Sinaluvchilarning 25 foizida xavotirlanuvchanlik aksentuatsiyasi kuzatiladi. Ular muloqotga kirishimsiz, bo‘sh, o‘ziga ishonmaydigan, ma’yus kayfiyat ustunlik qiluvchilardir. Juda kam hollarda atrofdagilar bilan kelishmovchilikka boradilar va ular ko‘pincha hazil uchun manba bo‘lib xizmat qiladilar.

Metodika natijalariga ko‘ra 12.5 % sinaluvchilar namoyishkor tipga mansubdirlar. Bu tipdagi insonlar o‘zlariga o‘ta ishonuvchanligi va o‘zlarini katta tutishlari bilan atrofdagilarning g‘ashiga tegadilar. Muntazam ravishda o‘zlari kelishmovchiliklar keltirib chiqaradilar. Ular xarakteridagi salbiy jihatlar xudbinlik, laganbardorlik, maqtanchog‘lik, ishyoqmaslik, ikkiyuzlamachilik ko`zga tashlanadi. Demak, oilada ota-onalarning farzandlariga bo‘lgan munosabati aynan destruktiv bo‘lgan o‘smirlar xarakterida xavotirlanuvchanlik, distim tip, ko‘zg‘aluvchanlik tiplariga xos bo‘lgan xususiyatlar namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Bugungi kunda yoshlar dunyoqarashi, tafakkurining jadal rivojlanishi uchun axborot vositalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demokratik jamiyat qurilayotgan ayni sharoitda axborot

vositalari orqali olinadigan ma’lumotlarning sifati shaxsni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ruhiy jihatdan o‘g‘il va qiz bolalar orasidagi farq keskin yo‘qolib bormoqda. O‘g‘il bolalar va qizlar orasidagi farq yaqqol namoyon bo‘lishi uchun ta’lim jarayonida gender muammolarining yechimiga alohida ahamiyat berish lozim. Jumladan xarakter akasentuatsiyasiga o`smirlarning gender xususiyatlari yoki tafovvutlarini aniqlash o`rganilayotgan muammoning mohiyatini yanada teranroq anglashga yordam beradi.

Muhokama: Yuqoridagi adabiyotlarni o’qib va tahlil qilish orqali shuni ta’kidlab o’tishimiz mumkinki, xarakter aksentuatsiyasi ma’lum bir vaqt oralig’ida o’zini namoyon etuvchi holatdir. Ko’pincha ota-onalar o’smir bolalardagi o’zgarishlar haqida ma’lumotlarga ega bo’lmaydilar. Ulardagi aksentuatsiyani shunchaki bolalardagi injiqlik, qaysarlik sifatida qabul qiladilar. Ta’lim muassasasi va pedagog xodimlar hamda ota-onalar hamkorligida, to’g’ri tashkil etilgan ta’lim tarbiya usullari yordamida o’smirlardagi salbiy xarakter xususiyatlarini bartaraf etish mumkin.

Xulosa: O’rganilgan adabiyotlar, o’tkazilgan tadqiqot natijalarini tahlil qilib shunday xulosa qilish mumkin-ki, o’smirlik davrida o’quvchi yoshlarning aksariyat qismida xarakter aksentuatsiyasi sababli salbiy turdagi xarakter xususiyatlari namoyon bo’ladi. Xarakterning bu xususiyatlari yosh davrlari bilan bog’liq bo’lib vaqtinchalik holat hisoblanadi. Agar korrektsiya ishlari tog’ri amalga oshirilsa mavjud salbiy xususiyatlarni bartaraf etish mumkin. O’z vaqtida korrektsiya ishlari amalga oshirilmasa bora-bora bu salbiy xususiyatlar insondagi odatiy xarakter xususiyatlari sifatida saqlanib qolishi mumkin. O’smir farzand tarbiyasidagi ota-onalar farzandlari bilan birga ko’proq vaqt o’tkazishlari, ma’lum bir faoliyatni birgalikda olib borishlari, ko’proq muloqot qilishlari o’smirlar uchun juda muhim hisoblanadi. O’smirlar mustaqillikka intiladilar, lekin ularda hali hayotiy tajribalar yetarlicha emas. Bunday holat ko’pincha ularda qiyinchilik bilan o’tadi. Bunday holatda ota-onalar tomonidan berilgan har bir yo’l-yo’riqlar ular uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Temperamentdan farqli ravishda insonda xarakter xususiyatlari ijtimoiy hayot, tevarak-atrofdagilarning munosabati va oila a’zolarning munosabati, shaxsninh hayot davomida orttirgan tajribalari asosida paydo bo’ladi. Xarakter aksentuatsiyasida ma’lum bir xususiyat ortib ketganda boshqa xususiyatlar o’z turg’unligini saqlab qolaveradi. Ya’ni, o’smirda ma’lum bir sohada iste’dod bo’lsa u xarakter aksentuatsiyasi natijasida yo’qolib qolmaydi. Demak, aytishimiz mumkin-ki o’smirlardagi xarakter aksentuatsiyasi pedagogik jamoada, oila a’zolar tomonidan beriladigan to’g’ri ta’lim-tarbiya jarayonida bartaraf etiliadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova Umumiy psixologiya.Toshkent. B-383
2.E.G’oziyev. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent. .”Noshir” 2010. 178-179 b
3. M.G.Davletshin, Sh.Do’stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To’ychieva, M. Djumabaeva Yosh va pedagogik psixologiya
4. www.e-library.namdu.uz
5. www.dislib.uz
6. www.uzedu.uz

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH METODIKASI

[1]Karshiboyev Shavkat Esirgapovich, [2]Rahmonova Xurshida G‘aybullayevna,
[1]O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
[2]Samarqand davlat universiteti Urgut filiali
shavkat.qarshiboyev.89@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarning o‘rni va laboratoriya ishlarini bajarishda virtual laboratoriyalarning ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Fizika, real virtual laboratoriya, virtual laboratoriya, talaba,raqamli texnologiya.

Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, ulardan ta’lim va tarbiya jarayonida unumli foydalanish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-sonli “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida “ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish uslublarini, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish” masalasi alohida band sifatida kiritilgan.

Oliy ta’lim muassasalari fizika darslarida laboratoriya mashg‘ulotlarini zamon talablariga mos holda tashkil etish uchun o‘quv xonalari zamonaviy jihozlar bilan ta’minlangan va bu ishlar hozirgi kunda keng ko‘lamda olib borilmoqda. jihozlardan unumli foydalanishni tashkil etishda tadqiqotchilar va pedagog xodimlar tomonidan zamonaviy ta’lim vositalari va vizuallashtirilgan ishlanmalarni yaratish va mavjudlarini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Fizika fanini o‘rganishda nazariy bilimlar, masala yechish ko‘nikmasi, laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish kabi tushunchalar bir-biriga chambarchas bog‘liqligi hamda biri ikkinchisini, ikkinchisi birinchisini to‘ldiradi. Shunday ekan fizika fanini tushuntirish, har bir mavzu misolida nazariyani amaliyotda qo‘llash va amaliy mashg‘ulotlarni bajarishda virtual laboratoriyalardan foydalanish, tahlil qilish, mushohada yuritish, xulosa chiqarish va ijodkorlik kabi tushunchalar shakllanishidan tashqari fanda,texnikada ixtirolarga bo‘lgan qiziqishlari ham shakllanadi.

Talabalarga yetkaziladigan zamonaviy tarkib zamonaviy bilim amaliyotiga mos keladigan kompetentsiyalarni rivojlantirish kabi fan bilimlarini rivojlantirishni o‘z ichiga olmaydi. Ushbu tarkib yaxshi tuzilgan va zamonaviy raqamli texnologiyalar, aloqa vositalari yordamida uzatiladigan multimedia o‘quv materiallari shaklida taqdim etilishi kerak. O‘qitishning zamonaviy usullari bu nafaqat materialni passiv idrok etish asosida, balki talabalarning o‘zaro munosabatlari va ularning o‘quv jarayoniga jalb qilinishiga asoslangan vakolatlarni shakllantirishning faol usullari. Zamonaviy talabada mustaqil o‘z-o‘zini o‘qitish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifadir. Zamonaviy oliy ta’lim o‘quv jarayoniga AKT-axborot va kompyuter texnologiyaning turli shakllari va qurilmalarini faol joriy etish orqali, talabaning mustaqil auditoriyadan tashqari faoliyatini prinsipial jihatdan ta’limning yangi shakli sifatida joriy qildi. Hozirgi vaqtda talabalar tomonidan uyda bajariladigan mustaqil ishlarning hajmi va ahamiyatini yo‘qotmasdan ko‘p sonli mavzularni o‘zlashtirilishini rivojlantirishning yangi shakli raqamli texnologiya qurilmalarining o‘rni va rolini oshirish orqali amalga oshirilmoqda.

Fizikada laboratoriya ishlarini zamonaviy usulda o‘tkazishda XXI asr texnologiyasining rivojlanishidan foydalangan holda ta’limni samaradorligini oshirishda bir qancha ishlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalarni fan va ta’limda qo‘llash mumkin bo‘lgan muhim ta’sirlaridan biri bu virtual laboratoriyalardir.

Ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish endilikda butun sivilizatsiyalashgan dunyo uchun innovatsiya emas, balki bugungi kunning haqiqatiga aylandi. Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalar ta’lim sohasiga mustahkam kirib keldi. Ular o‘quv jarayoni sifatini o‘zgartirish, darsni zamonaviy, qiziqarli, samarali qilish imkonini beradi. Virtual ta’lim axloqiy komponentni ham kiritadi - kompyuter texnologiyalari hech qachon talabalar o‘rtasidagi aloqani almashtirmaydi. U faqat yangi resurslarni birgalikda izlash potensialini qo‘llab-quvvatlashi mumkin va talabalar mavzuni o‘rganayotganda o‘rganilayotgan material bo‘yicha tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan muloqotda qatnashadigan turli xil o‘quv vaziyatlarida foydalanish uchun mos keladi.

Darsni virtual vositalardan foydalangan holda o‘tkazishda didaktikaning asosiy prinsipi – talabalar tomonidan materialni optimal o‘zlashtirishni ta’minlaydigan, hissiy idrokni oshiradigan va o‘quvchilarda fikrlashning barcha turlarini rivojlantiruvchi ko‘rinishga rioya qilinadi. Fizika fanini o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalaridan foydalanish, laboratoriya sharoitida to‘liq namoyish qilish texnik jihatdan juda qiyin yoki umuman imkonsiz bo‘lgan fizik hodisa va

jarayonlarni namoyish qilish, laboratoriya mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazish imkoniyatlarini kengaytirib, turli jarayonlar va hodisalarni simulyatsiya qilishga imkon beradi.

Fizikadan interfaol ishlar yangi bilimlarni tushuntirishda yoki muayyan mavzuni o‘rganishni yakunlashda amaliy mashg‘ulot shaklida olib borilishi kerak. Yana bir variant - ishni mustaqil, ixtiyoriy, individual darslarda bajarish. Virtual fizika ta’lim tizimidagi yangi o‘ziga xos yo‘nalishdir. Hech kimga sir emaski, ma’lumotlarning 90 % miyamizga ko‘z va asab tizimi orqali keladi, odamning ko‘zi ko‘rmaguncha, u ba’zi hodisalarning mohiyatini aniq tushuna olmaydi. Shuning uchun o‘quv jarayoni vizual materiallar bilan ta’minlanishi kerak va nafaqat biron bir hodisani tasvirlaydigan statik rasmni ko‘rishingiz, balki bu hodisani harakatda ham ko‘rish mumkin bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fizika fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalar yordamida, virtual laboratoriyalar majmuasidan foydalanib o‘quv jarayonini tashkil etish bir muncha afzalliklarga ega. - talabalarda fizika faniga bo‘lgan qiziqish, motivasiya paydo bo‘ladi va ortadi. - talabalar nazariy bilimlarni mustahkamlaydi va rivojlantiradi.

Ushbu ishda zamonaviy ta’lim tizimida virtual vositalardan foydalanish bo‘yicha ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil etildi, Shundan kelib chiqib, o‘quv jarayonida virtual laboratoriyadan foydalanishning alohida ahamiyati ochib berildi. Maqolada ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish, ta’limni virtuallashtirish masalasi, real sharoitda o‘rganish qiyin bo‘lgan jarayon va hodisalarni o‘rganishda virtual laboratoriya ishlarining imkoniyatlari va afzalliklari ko‘rib chiqiladi. O‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki darsni ushbu usulda tashkil qilish orqali darsning sifat va samaradorligi oshishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-son Qarori. – (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.03.2021 y., 07/21/5032/0226-son, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022 y., 06/22/106/0314-son, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.05.2022 y., 07/22/241/0408-son; 31.08.2022 y., 06/22/214/0791-son; 03.12.2022 y., 06/22/258/1064-son).
2. Хужанов Э.Б. Преподавание физики в общеобразовательных школах на основе статистического метода. Проблемы современного образования. Электронный журнал. http://www.pmedu.ru – Москва, 2019. – № 1. – С. 175–182.
3. Каршибоев Ш. Fizika fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini zamonaviy tashkil etish metodikasi // Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 8/S. – С. 94-101.
4. Троицкий Д.И., Дикова Е.Е.. Виртуальные лабораторные работы в естественнонаучном образовании. Тульский государственный университет. Сборник научных статей XVIII Объединенной конференции «Интернет и современное общество» IMS-2015, Санкт-Петербург, 23-25 июня, 2015 г.
5. Esirgapovich K. S. Improving the methodology of using software in organizing virtual laboratory courses in physics // International Journal of Pedagogics. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – С. 17-26.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI

Baxrom Ilxomovich Ashurov

Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filiali

ANNOTATSIYA: Maqolada jismoniy tarbiya darslarida yangi pedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati hamda sog`lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya darslarining afzalliklari xususida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: tarbiya, axloq, jismoniy tarbiya, uslub, metodika, ta`lim oluvchi, sportchi.

АННОТАЦИЯ: В статье обсуждается важность использования новых педагогических методов на занятиях по физическому воспитанию и преимущества занятий по физическому воспитанию в формировании здорового образа жизни.

Ключевые слова: воспитание, этика, физическое воспитание, стиль, методика, студент, спортсмен.

The article discusses the importance of using new pedagogical methods in physical education classes and the advantages of physical education classes in the formation of a healthy lifestyle.

Keywords: education, ethics, physical education, style, methodology, student, athlete.

KIRISH. Sport-imkoniyat. Sport mamlakatni dunyoga tanitishning eng samarali usuli. Sport-go‘zallik, halollik, salomatlik komposi. Yurtimizda yaratib berilayotgan imkoniyatlarning eng ko‘pi ham sportga bag‘ishlangan. Eng yuqori natijalar ham fan olimpiadalaridan oldin sport musobaqalariga berilishini inobatga olgan holda fanni yoshlar o‘rtasida ommalashtirish, sportchi chempionlarni yetkazishda biz pedagoglarning ham oldimizda ulkann vazifa turadi. Maqola davomida esa shunday yaxshi natijaga erishishda samarali foydalanib kelinayotgan metodlar xususida so‘z yuritmoqchimiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shu o‘rinda ayrim darsliklarga ham e’tiborni qaratar ekanmiz jismoniy tarbiyada qo‘llaniladigan metodlar xususidagi ma’lumotlarga duch kelamiz. Xususan, R.S.Salomov, A.K.Sharipovlarning “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” hamda S.R.Salomovning “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” darsliklarida metodlardan namunalar keltiriladi. Masalan, dasrlikda ko‘rgazmalilik metodi haqida to‘xtalar ekan, metod haqida quyidagi ma’lumotlar beriladi. Unda ta’kidlanishicha, bu metod jismoniy tarbiyada keng qo‘llanilar ekan. Ya’ni hamma sezgi organlariga ta’sir etib, bor narsalar bilan aloqa o‘rnatiladi. Bunda ko‘rish, harakat va boshqa sezgilardan foydalaniladi. Keng ma’nodagi ko‘rgazmalikni amalga oshirishda mashqlarning xarakteristikasi, bajarish sharoitlariga asoslangan metodlar majmuasidan foydalanib bu metodlar quyidagi guruhchalarga bo‘linadi. Ular bavosita namoyish qilishni o‘qituvchi tomonidan yoki bir o‘quvchi yordamida metodik ko‘rsatishidan iborat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mashqlarni bajarilishini harakat ta’sirining, qoidalari haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish uchun namoyishning yordamchi vositalaridan ya’ni bevosita ko‘rgazmali metodidan keng foydalaniladi. Bunday bevosita namoyish metodlari quyidagilarga bo‘linadi:

- rasm, sxema, fotosur’at va shu kabi ko‘rgazma qurollarini namoyish etish;
- Buyum modellar va maketlarni namoyish etish;
- Kino va videomagnitafonli namoyish;
- Tanlab olingan - apparatlar yordamida masalan: mikrofon,
- radioapparatura, yorug‘lik elektrosignallari;
- Yo‘naltirilgan sezish harakat metodlari (masalan, tre.-lar);
- Orientirovka (mo‘ljal) metodlari (osilgan to‘plar, bayroqchalar, zal va maydonchalardagi belgilar va h.k).
- Lider va kundalik sensor rejalashtirilgan metodlar;
- Tez informatsiya metodi (videomagnitafon).

Q

u
y
i
d
a
g
i
h
i
k
o
y
a
o

berdi. Metodning birinchi rejasi unga so‘z orqali, ya’ni Sunnatilloning sevimli sport mashg‘uloti kurash, futbolda katta yutuqqa erishish uchun faqat mashq qilish kerakligini, undan kelajakda zo‘r sportchi chiqishiga umid qilayotganini aytib ruxlantirdi. Birinchi g‘alabadan keyin Sunnatillo mashg‘ulotlarga kirishib ketdi. Barcha alamlarini sportdan olishiga qaramay, ustozi unga sportbu do‘stlik, imkoniyatlar eshigi, mehr-oqibatlar boshlovchisi ekanligini ta’kidladi.

Sportdagi g‘alabalari, ustozining qo‘llab-quvvatlashlari uni ijobiy tomonga o‘zgartirdi. Endi u ukalariga g‘amxo‘r, onasiga yelkadosh ro‘zg‘or egasiga aylandi.

Ha, boshqa fanlarga nisbatan jismoniy tarbiya darslarida o‘quv metodlar tubdan farq qiladi. Jismoniy tarbiya jarayonida o‘qituvchining asosiy faoliyati so‘z bilan amalga oshiriladi: so‘z yordamida bilimlar beriladi, tushunishni faollashtiradi va chuqurlashtiriladi, vazifalar beriladi, ularning bajarilishi boshqariladi, natijalar taxlil qilinadi va baholanadi, bolalarni intizomi boshqariladi. So‘z shug‘ullanuvchilar faoliyatini tushunishda, baholashda va o‘zicha boshqarishda kerakli vazifani hal etadi. Shu bilan bir qatorda so‘z o‘zining qo‘llanilishiga ko‘ra u yoki bu dediktiv hikoya, suhbat,muhokama va va hokozolardan iborat.

So‘z metodiga:

1) instruksiya berish;
2) qo‘shimcha tushuntirish;
3) ko‘rsatma va buyruqlar;
4) og‘zaki baholash;
5) o‘z-o‘ziga gaprish va o‘z- o‘ziga buyruq berish;
6) rag‘batlantirish,
7) so‘z orqali jabrlash;
8) umumiy buyruq;
9) tahlil qilish;
10) so‘z orqali o‘zaro munosabat

Bundan tashqari, i*nstruksiya berish* ham samarali usullardan biridir. Bunda texnikani o‘rganish faoliyatini vazifalarni yoki mashqlarni bajarish qoidalarini so‘z orqali konkret va aniq tushunarli shug‘ullanuvchilarga yetkazish.

Qshimcha tushuntirish metodida ayrim harakatlar, yoki bajarish usulini sifatini yaxshilash maqsadida chuqurroq bilim berish maqsadida turli ko‘rgazmalar orqali izohlash, tushuntirishladi.

*Ko‘rsatma va buyruqlar*da maxsus so‘z shaklida o‘quvchilar faoliyatini boshqarish. Ko‘rsatma va buyruq orqali dastlabki ko‘rsatish vazifalarni aniqlash maqsadida qo‘llaniladi hamda samarador usullardan biridir.

XULOSA

Dunyoda davlatlarini ezgu g‘oyasi do‘stlik, salomatlik, xalollik, mehr-oqibatlik shartlari bilan birlashtirgan sport faqatgina fan emas jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining hayotiy zarurati. Bir mamlakatni dunyoga tanitishda eng ilg‘or usul ham sportdir. Bugun shu maydonda, xalqaro, jahon, Osiyo sport musobaqalarida yurt bayrog‘ini ko‘klarga ko‘tarayotgan o‘g‘il-qizlarimizning yutuqlari zamirida albatta, mohir pedagoglarning ham o‘z xissasi bor. Buni e’tirof etib, yanada ko‘proq imkoniyatlar eshigini ochib, eng qimmatli sovrinlar bilan taqdirlayotgan davlatimiz rahbarining ham biz sport ustalaridan umidi katta. Shunday ekan sohada yangidan yangi metodlarni joriy qilib, jahongashta chempionlar safini kengaytirsak ulkan vazifalarni amalga oshirishda katta imkoniyatlarni yarata olamiz.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.Toshkent “O‘zbekiston” – 2017 y.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. O‘zbekiston NMIU, 2016 y.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2016 y.

4. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

5. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: «ITA- PRESS», 2014. 269 bet.

6. Salomov RS., Sharipov A.K. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: «ITA-PRESS», 2015.182 bet.

7. Goncharova O.V. “Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish” o‘quv qo‘llanma T.: O‘zDJTI nashriyoti 2005 y.

8. Davydov V.V. Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi.- M.: INTOR, 1996. -554 b.

9. Kudryavtsev M.D. Boshlang’ich maktabda jismoniy tarbiya darslarida o’quv faoliyati nazariyasini qo’llash // Boshlang’ich maktab: ortiqcha-minus. – 2000. – No 7. – B. 37–40.

10. Kudryavtsev M.D. Boshlang’ich maktabda dars paytida qiziqarli daqiqalar / M.D. Kudryavtsev, T.A. Shvaleva // Boshlang’ich maktab.-2005.- No 1.-B. 87-91.

11. Kudryavtsev M.D. Jismoniy tarbiya darslarida kichik maktab o’quvchilarining mustaqilligini rivojlantirish / M.D. Kudryavtsev, T.A. Shvaleva // Boshlang’ich maktab. – 2006. – B. 65–69.

12. Elkonin D.B. Tanlangan psixologik asarlar. – M., 1980. – 484 b. 10.

BOLALARDA IJTIMOIY KONIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Bahodirova Namuna
Samarqand davlatuniversiteti Kattaqo’rg’on filali talabasi
bahodirovanamuna663@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabga tayyorgarlikning muhim jihatlaridan biri — yosh bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish masalasi yoritilgan. Maqolada bu ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha amaliy usullar — rolli o‘yinlar, guruhli mashg‘ulotlar, hissiyotlarn ianglash va madaniyatli muomal ako‘nikmalarini o‘rgatish yo‘llari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: maktabga tayyorgarlik, ijtimoiy ko‘nikmalar, yosh bolalar, muloqot ko‘nikmalari, jamoada ishlash, emotsional rivojlanish, rolli o‘yinlar, bog‘cha tarbiyasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 11-mayda qabul qilingan PF–134-sonli “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur to‘g‘risida”gi farmonda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish, ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilash hamda bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Farmonda ta’kidlanganidek, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash, ularni maktabga tayyorlashda kompleks yondashuv zarurligi belgilangan. Ayniqsa, bolalarning jamoadagi faolligi, muloqot madaniyati va shaxslararo munosabatlarga tayyorligi ta’limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Maktabga tayyorgarlik jarayoni faqatgin bolalarning savodxonlik yoki hisob-kitob qilish malakalarin ishakllantirish bilan cheklanib qolmaydi. Asosiy va muhim yo‘nalishlardan biri bu – bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdir. Zero, bola maktabga borganda nafaqat o‘qituvchi bilan, balki tengdoshlari bilan ham muloqot qiladi, jamoada ishlashni, navbat kutishni, o‘z fikrini ifoda etishni o‘rganadi. Bu esa rivojlangan ijtimoiy ko‘nikmalarsiz amalga oshmaydi.

Maktabgacha yosh davri bolalarining tasavvuri juda boy va cheksiz bo'ladi. Ular dunyoni o'rganishda o'ziga xos fikrlash tarzidan foydalanadilar. Tasviriy faoliyat bolalarning fikrlarini, his-tuyg'ularini va orzularini ifodalashning samarali vositasi hisoblanadi. Bu faoliyat orqali ular nafaqat estetik didini rivojlantiradi, balki ijodiy tasavvurini ham kengaytiradi. Shu sababli,

maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyatni to'g'ri tashkil etish, ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy faoliyat bolalarning tasavvurini erkin ifodalashlari uchun keng imkoniyat yaratadi. Rasm chizish, bo'yash, haykaltaroshlik, kollaj yasash kabi mashg'ulotlar bolalarda ijodiy fikrlashni, fantaziyani va noan'anaviy yondashuvni rivojlantiradi. Shu jarayonlarda bolalar o'ziga xos obrazlarni yaratadi, tasavvurlarini turli shakl va ranglarda ifodalaydilar.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish ta’limning dastlabki va muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bola o‘z atrofidagi insonlar bilan muloqot qilish, his-tuyg‘ularini ifodalash, boshqalarni tinglash, o‘z navbatini kutish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, fikrini tushunarli yetkazish kabi muhim ijtimoiy tajribalarni aynan shu davrda o‘zlashtiradi.

Bunday ko‘nikmalar esa bolaning nafaqat maktab hayotiga moslashuvini osonlashtiradi, balki kelajakdagi shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatining asosiga aylanadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ijtimoiy jihatdan faol, hamkorlikda ishlashga qodir, ochiq va tashabbuskor bolalar o‘qish jarayonida ko‘proq muvaffaqiyatlarga erishadi, do‘st orttirishda va guruhda faol bo‘lishda ijobiy natijalarga ega bo‘ladi.

Shu sababli, pedagoglar va ota-onalar bolaning faqat bilim darajasiga emas, balki uning shaxslararo munosabatlardagi faolligiga, muloqot qilish madaniyatiga va guruh ichidagi o‘zini tutishiga ham e’tibor qaratishlari zarur. Bu esa maktabga tayyorlov jarayonida ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishni ta’limning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantiradi.

Ijtimoiy ko‘nikmalarni mavhumligi nega muhim?

Ijtimoiy ko‘nikmalar deganda boshqalar bilan sog‘lom munosabat o‘rnatish, hissiyotlarni boshqarish, hamkorlik qilish, muammolarni tinch yo‘l bilan halqilish, eshitish va o‘z fikrin iifoda etish kabi xatti-harakatla tushuniladi. Bu ko‘nikmalar bolaga maktab muhiti bilan moslashishda, o‘qituvchi va sinfdoshlar bilan ijobiy munosabatda bo‘lishda, shuningdek, stressli vaziyatlarga bardosh berishd yordam beradi.

Aga bola maktabga borganida bu ko‘nikmalar shakllanmagan bo‘lsa, u o‘zini yakkalangan, tushkun yoki maktabga moslasha olmayotgandek his qilishi mumkin. Bu esa ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy ko‘nikmalar qanday shakllantiriladi?

Yosh bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish oilada boshlanadi. Quyidagi usullar bu jarayonda samarali bo‘lishi mumkin:

1.**Rol o‘ynash o‘yinlari** – bolalar "do‘kon", "maktab", "kasalxona" kab o‘yinlarda turli rollarn bajarish orqali muloqotq ilish, navbat kutish, muammo hal qilish kabi ko‘nikmalarni egallashadi.

2.**Guruhli o‘yinlar** – bolalar birgalikda o‘ynaydigan o‘yinlar orqali jamoada ishlash, bo‘ysunish, boshqalarga quloq solish va yordam berishni o‘rganadilar.

3. **Hissiyotlarni tushunish va ifoda etish** – bolaning his-tuyg‘ulari haqida suhbatlashish, ularni to‘g‘ri nomlash va boshqarishga o‘rgatish ijtimoiy rivojlanishning muhim qismidir.

4. **Muomala madaniyatini o‘rgatish** – “Iltimos”, “Rahmat”, “Kechirasiz” kabi iboralarni qo‘llash, kattalar hurmat qilish, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish orqali bolada odob-axloq va madaniy muloqot shakllanadi.

5. **Kitob o‘qish va suhbat** – bolalar uchun mo‘ljallangan ijtimoiy mavzudagi hikoya va ertaklarni birgalikda o‘qish va ular ustida fikr yuritish orqali bola daempatiya (boshqalarnitushunish) va muloqot malakalari rivojlanadi.

Bog‘cha va tayyorlov guruhlarining roli

Maktabgacha ta’lim muassasalari – bog‘chalar va tayyorlov guruhlari ham ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu muassasalard bolalar tengdoshlari bilan doimiy muloqotda bo‘lishadi, belgilangan qoidalarga rioya qilishadi va turli faoliyatlar orqal

hamkorlikda ishlashn io‘rganadilar. O‘qituvchilar esa bu jarayonda bolalarning individual xususiyatlar inobatga olgan holda, ularga shaxsiy yondashuv asosida yordam berishlari lozim.

Ota-onalar uchun tavsiyalar

- Bolangiz bilan doimiy muloqotda bo‘ling, uning fikrini eshiting.
- Bola bilan birgalikda jamoat joylariga boring: bolalar maydonchasi, kutubxona, bolalar to‘garaklari – bu joylarda bola boshqalar bilan muomala qilishga o‘rganadi.
- Bolangizning har biri jtimoiy muvaffaqiyatini maqtang var ag‘batlantiring.
- Ijtimoiy vaziyatlarda qanday harakat qilishni bola bilan mashq qiling. Masalan, kimdir uni itarib yuborganidan ima qilish kerakligini muhokama qiling.

Yosh bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish – bu ularning maktabga muvaffaqiyatli tayyorlanishining muhim omillaridan biridir. Bu ko‘nikmalar orqali bola nafaqat maktabda, balki butun hayoti davomida ijtimoiy jihatdan faol, o‘z fikrini ochiq bildiradigan, boshqalarni tushunadigan va jamiyatda moslasha oladigan inson bo‘lib yetishadi. Shu sababli, ota-onalar, tarbiyachilar va o‘qituvchilar bu jarayonda birgalikda ishlashlari va bolalarga kerakli ijtimoiy tajribani taqdim etishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarn irivojlantirish. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti. 2020
2. Karimova, M., Xodjayeva, Z. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Toshkent: Ilm Ziyo. 2019
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Maktabgacha ta’limning davlat o‘quv dasturi. Rasmiy hujjat. 2022
4. Ganieva M. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik asoslari”. Psixologiya va pedagogika muammolari, 2021 №4, 45-50.

RUHIY RIVOJLANISHIDA OG‘ISH KUZATILGAN MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNING TA’LIM-TARBIYASI MASALALARI

Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali
Bahronova Muxlisa. 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ruhiy holatida nuqsoni mavjud bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berishning samarali usullari va metodik yondashuvlari tahlil qilingan. Ruhiy muammolarga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlash hamda mashg‘ulot jarayonini tashkil etishning asosiy tamoyillari yoritilgan. Maqolada berilgan tavsiyalar og‘ir darajadagi ruhiy kasalliklarga, jumladan, autizm, shizofreniya va Daun sindromiga chalingan bolalar uchun mo‘ljallanmagan bo‘lib, asosan yengil va o‘rta darajadagi muammolarga ega bo‘lgan o‘quvchilarga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Art terapiya, Harakatli o‘yinlar, Ko‘rgazmali uslubiy metod, Kundalik hayot ko‘nikmalarini o‘rgatish, Ruhiy nuqson bilan tug‘ilish sabablari, Sensor rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar, Shifokor nazorati va tashxis, Ta’lim-tarbiyani rejalashtirish va uning ahamiyati, Tabiat qo‘ynidagi faoliyat.

Ruhiy buzilishlar insoniyat tarixida qadimdan o‘rganilgan muammolardan biridir. Dastlab bu sohadagi qarashlar qadimgi yunon tabiblari, xususan Gippokratning fikrlariga borib taqaladi. U ruhiy kasalliklarni organizmga tashqi muhitning ta’siri natijasida yuzaga keladigan holat sifatida izohlagan. Bu g‘oya mashhur alloma Abu Ali ibn Sino tomonidan ham qo‘llab-quvvatlangan. Ibn Sino ham ruhiy buzilishlarning sababi sifatida inson organizmidagi ichki o‘zgarishlarni ko‘rsatgan.

So‘nggi yuz yillikda psixik kasalliklarni davolashda sezilarli natijalarga erishildi. Ilgari nogironlik bilan bog‘lanadigan ushbu holatlar uchun maxsus tashxis va davolash tamoyillari ishlab chiqildi. Jumladan, ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ta’lim-tarbiya tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Biroq ko‘plab ota-onalar farzandlaridagi ruhiy o‘zgarishlarni vaqtida sezmaydilar yoki shifokorga murojaat qilishni kechiktiradilar. Buning asosiy sababi — bolalaridagi muammoni tan olishni istamaslik, ruhiy kasallik bilan bog‘liq ijtimoiy stigmadan qo‘rquvdir. Kasallik o‘z vaqtida aniqlanmasa, uni bartaraf etish jarayoni murakkablashadi. Shuningdek, ruhiy buzilishlar chuqurlashganda bolaning tuzalishi, u bilan ishlash ancha mushkul bo‘ladi.

Psixik buzilishlar, asosan, miya faoliyatining buzilishi natijasida yuzaga keladi. Bu holatda bola atrofdagi voqelikni to‘g‘ri idrok eta olmaydi. Irsiy omillar ruhiy buzilishlarning yuzaga kelishida asosiy rol o‘ynaydi. Masalan, oligofreniya, psixosomatik buzilishlar, manik-depressiv psixoz, epilepsiya va shizofreniya ko‘pincha irsiyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Ruhiy muammolarning kuchayishiga infeksiyalar, miya jarohatlari, intoksikatsiya holatlari hamda ruhiy travmalar sabab bo‘lishi mumkin.

Onaning homiladorlik davrida kasallanishi, ota-onaning spirtli ichimliklar yoki giyohvandlikka berilishi kabi holatlar bola organizmiga, xususan, ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar bolaning holati erta aniqlansa va kerakli choralar ko‘rilsa, u to‘liq sog‘ayishi mumkin. Bu esa psixiatr, defektolog, tibbiyot xodimlari va maxsus pedagoglarning hamkorligiga bog‘liq.

Ruhiy buzilishlarning belgilari orasida gallyutsinatsiyalar, alahlash, asabiylik, haddan tashqari hayajon, ong va xotiraning susayishi kabi holatlar uchraydi. Bunday bolalarda ko‘pincha asossiz va noto‘g‘ri fikrlar paydo bo‘ladi, ularni o‘zgartirish qiyin kechadi. Kayfiyatdagi o‘zgarishlar — manik (ko‘tarinki) va depressiv (tushkun) holatlar — navbatma-navbat kechadi.

Xotira buzilganda bola oldingi voqealarni eslay olmaydi, o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarni tezda unutishi mumkin. Bolaning ruhiy holatiga tashqi muhit bilan birga tug‘ma va genetik omillar ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Agar ruhiy buzilish erta aniqlansa va kerakli pedagogik hamda psixologik yondashuv qo‘llansa, bu nafaqat bola, balki uning oilasi va jamiyat uchun ham foydali bo‘ladi. Maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarida ruhiy nuqsoni bor bolalar bilan defektolog, logoped, psixiatr va hamshira ishlaydi. Bunday bolalar ruhan va jismonan zaif bo‘lganliklari sababli, ularga individual yondashuv zarur.

Pedagogik ish usullari bolaning yoshiga, fiziologik va psixologik holatiga mos ravishda tanlanishi kerak. Masalan, musiqa orqali bola bilan ishlash samarali bo‘lishi mumkin: birga qo‘shiq kuylash, raqs harakatlari qilish orqali u topshiriqlarni bajarishga jalb etiladi. Musiqa nafaqat ruhiy holatni tinchlantiradi, balki stress darajasini kamaytiradi. Biroq kuchli shovqin salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Kunning ikkinchi yarmida bolani tabiat qo‘ynida sayr qildirish, dam olish sharoitlarini yaratish tavsiya etiladi. Shuningdek, bolaga televizor ko‘rish vaqtini cheklash zarur, chunki bu ularning asab tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aksincha, harakatli o‘yinlarga jalb etish foydali bo‘ladi.

Didaktik o‘yinlar esa bolaning fikrlash va xotira qobiliyatini rivojlantiradi. Har bir buyum yoki o‘yinchoq aniq tashqi ko‘rinishga ega bo‘lishi kerak, chunki takroriy muomala orqali bola ularning shakli, rangi va joylashuvini o‘zlashtiradi. Bunday o‘yinlar oddiy va tushunarli bo‘lishi, ko‘p marta takrorlanishi lozim.

Ta’lim va tarbiya jarayoni individual tarzda rejalashtirilishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega, chunki bola eng ko‘p vaqtni ular bilan o‘tkazadi. Ota-onasining e’tibori bolaning ruhiy barqarorligini ta’minlaydi. Defektolog esa bolaning psixologik rivojlanishini hisobga olgan holda maxsus metodlar asosida mashg‘ulotlar olib boradi va har bir bola uchun alohida ta’lim rejasini tuzadi.

Kundalik hayot ko‘nikmalarini shakllantirish va kommunikativ rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash

Maxsus ehtiyojli bolalar, xususan, autizm spektr buzilishi, intellektual zaiflik yoki boshqa turdagi rivojlanish cheklovlariga ega bo‘lgan bolalar uchun kundalik hayot ko‘nikmalarini

shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ularni ovqatlanishdan oldin qo‘l yuvish, kiyinish, tish yuvish kabi oddiy, ammo mustaqillikka olib boruvchi faoliyatlarga bosqichma-bosqich jalb qilish zarur. Bu jarayonda bolaning imkoniyatlari va holati inobatga olinib, haddan tashqari talabchanlikdan qochish lozim.

Ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutqning kechikishi, so‘zlashuv faoliyatining sustligi, muloqotga nisbatan loqaydlik kuzatiladi. Ular ko‘pincha o‘z tengdoshlariga nisbatan kam gapiradilar yoki umuman muloqotga kirishmaydilar. Bunday bolalar notanish insonlarga nisbatan ishonchsiz munosabatda bo‘lishadi, faqat yaqin oila a’zolari bilan cheklangan suhbat qurishadi va ko‘pincha savollarga qisqacha javob berish bilan kifoyalanadilar.

Biroq, maxsus maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagog va mutaxassislarning uzluksiz va tizimli ishlari natijasida bola asta-sekin atrofdagilarga ochila boshlaydi. Ustozlarga nisbatan iliq munosabatda bo‘lishi, ijtimoiy aloqalarga kirishish istagi shakllanadi. Shu sababli, bunday bolalarning ta’lim-tarbiya jarayoni ularni mustaqil hayotga tayyorlash, ijtimoiylashuv va kommunikatsion ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilishi zarur.

Nutq rivojida logopedik yondashuvning o‘rni

Nutqiy rivojlanishda nuqsoni mavjud bo‘lgan bolalar bilan ishlashda logopedik yondashuv alohida ahamiyatga ega. Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘z boyligini oshirish, grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirishga o‘rgatish logopedning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Nutqning rivojlanishi bolaning boshqa kognitiv ko‘nikmalari — diqqat, xotira, tafakkur, tushunish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

To‘g‘ri tashkil etilgan logopedik mashg‘ulotlar bolaning muloqotga kirishish qobiliyatini oshiradi, ularni o‘z fikrini ifoda eta olishga undaydi. Bu esa bolaning umumiy rivojlanishida, shaxsiy o‘sishida va jamiyatga integratsiyalashuv jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, bu sohadagi faoliyat professional mutaxassisdan yuqori darajadagi sabr, didaktik yondashuv va metodik mahoratni talab etadi.

Art-terapiya

Chizish, bo‘yash va tasviriy ijod orqali bolaning ichki dunyosini ifoda etish imkoniyati art-terapiya asosini tashkil etadi. Bunday faoliyat bola uchun nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki uning emotsional holatini tahlil qilish vositasi ham hisoblanadi. Bola o‘z his-tuyg‘ularini rasm orqali erkin bayon etadi. Masalan, agar bola rasm chizishda asosan qora rangdan foydalansa, bu holat oiladagi e’tiborsizlik, xavotir yoki qo‘rquv belgisi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Shuning uchun art-terapiya orqali boladagi ichki bezovtalik, agressivlik, qo‘rquv kabi salbiy hissiyotlarni kamaytirish, ruhiy holatni barqarorlashtirishga erishiladi. Bunday faoliyat bolani mehr va e’tibor bilan doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlashni taqozo etadi.

Tabiat qo‘ynidagi faoliyat

Maxsus ehtiyojli bolalar ta’lim-tarbiya jarayonida yopiq muhitda uzoq vaqt qolishlari salbiy fiziologik va psixologik oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, kislorod yetishmovchiligi, diqqatning susayishi va charchoq holatlari tez-tez kuzatiladi. Shu bois, bolalarni ochiq havoda faoliyatga jalb qilish muhim hisoblanadi. Tabiat bag‘rida o‘tkaziladigan o‘yinlar, qum bilan o‘ynash kabi faoliyatlar boladagi stressni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ochiq havodagi mashg‘ulotlar bolani erkin harakatga undaydi, bu esa uning harakat-motorik rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunda atrof-muhit bilan bevosita aloqa, tabiiy ranglar va tovushlarning tinchlantiruvchi ta’siri bolaning ruhiy holatini muvozanatlashtiradi.

Tibbiy nazorat va salomatlikni qo‘llab-quvvatlash

Maxsus ehtiyojli bolalarning salomatligi doimiy ravishda shifokor nazoratida bo‘lishi zarur. Vaqtida tibbiy tekshiruvlardan o‘tkazish, kerakli muolajalarni o‘z vaqtida bajarish orqali kasallikning asoratlanish xavfi kamaytiriladi. Shifokor bilan maslahatlashgan holda bolalarni tez-tez ochiq havoga sayr qildirish foydalidir. Ochiq havoda bo‘lish organizmning yurak-qon tomir, nafas olish tizimi faoliyatini yaxshilaydi, modda almashinuvini faollashtiradi va immunitet tizimini mustahkamlaydi.Ayniqsa ertalabki quyosh nurlari ta’sirida organizmda D vitamini va

boshqa foydali biologik moddalarning ishlab chiqarilishi kuchayadi, bu esa bolaning umumiy jismoniy va ruhiy salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Oila muhitining ta’siri va ruhiy salomatlik

Bola ruhiyatiga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi muhit bu — oila. Oilaviy munosabatlarning izchil va salbiy bo‘lishi bolaning ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Er-xotin o‘rtasidagi doimiy mojaro, biri ikkinchisini kamsitishi, jazo berishga moyillik kabi holatlar, ayniqsa, bolalarda ruhiy bosim va stressga sabab bo‘ladi. Bu holat bolada tashqi muhitga nisbatan ishonchsizlik, o‘zini ifoda etishda qiyinchilik va depressiv holatlar shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Oiladagi spirtli ichimliklarga ruju, tajovuzkor muhit va emotsional sovuqlik – nasl davomiyligida ruhiy nuqsonli farzandlar tug‘ilishi ehtimolini oshiradi. Shuning uchun farzand sog‘lig‘i uchun sog‘lom turmush tarziga amal qilish, psixologik osoyishtalikni ta’minlash hamda oilaviy muhitda ijobiy munosabatlarni shakllantirish muhimdir.

Ruhiy salomatlik mezonlari

Bola sog‘lig‘i – bu faqat jismoniy salomatlik bilan cheklanmaydi. Bu, avvalo, uning ruhiy barqarorligi, stressli holatlarda o‘zini boshqara olishi, ijobiy kayfiyatda bo‘lishi, ijtimoiy muhitga tez moslasha olishi va psixik muvozanatini tiklay olish qobiliyatidir. Organizmning kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyati ham bevosita ruhiy salomatlik bilan bog‘liqdir.

Shu bois, bola sog‘lom va har tomonlama yetuk bo‘lib voyaga yetishi uchun nafaqat tibbiy, balki pedagogik va psixologik yondashuvlar uyg‘un holda olib borilishi zarur.

Ruhiy ehtiyojmand bolalarni qo‘llab-quvvatlash faqatgina ularning fiziologik ehtiyojlarini qondirish bilangina cheklanmasligi lozim. Aksincha, ularning ta’lim olish, ijtimoiylashish va kommunikatsion ko‘nikmalarni rivojlantirish huquqlari to‘liq ta’minlanishi kerak. Bu esa, albatta, mutaxassislar – pedagog, logoped, psixolog va shifokorlarning samarali hamkorligida amalga oshadi.Shuningdek, har bir bola uchun alohida yondashuv zarur bo‘lib, individual rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda dars va mashg‘ulotlar rejalashtirilishi lozim. Shuni unutmaslik kerakki, “ruhiy nuqson bilan tug‘ilgan” degani – umid yo‘q degani emas. Vaqtida ko‘rsatilgan kompleks yordam va mehr-muhabbat asosidagi ta’lim-tarbiya orqali bola to‘laqonli hayotga qaytishi, o‘z qobiliyatlarini namoyon etishi mumkin.

Bolaga nisbatan e’tiborsizlik, noto‘g‘ri munosabat yoki befarqlik, nafaqat uning sog‘lig‘iga, balki ijtimoiy hayotga integratsiyalashuviga ham jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, bunday holatlarning oldini olish, kerakli chora-tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish — pedagoglar, ota-onalar va tibbiyot xodimlarining umumiy vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dalanova, Y. T. (2024). Psixosomatik kasalliklar. Journal of Innovations in Scientific and Educational Research, 7(12), 194–198.

2. Shodmonov, X. Q., Eshmurodov, X. Sh., & Tursunova, O. T. (2004). Asab va ruhiy kasalliklar. Toshkent: Bilim.

3. Sadullayeva, M. B., & Raxmatova, Z. R. Psixologik kasalliklar.

4. Zamolova, R. R. (2023). Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va inklyuziv ta’lim. Namangan: Usmon Nosir nashriyoti, 568-bet.

5. Xamidova, M. (2022). Maxsus pedagogika asoslari. Toshkent.

6. Abdug’apporova, L. Inklyuziv Ta’lim: Xalqaro Tajriba va Amaliyot, erishilgan natijalar, muammo va ularning yechimlari.

7. Kayumova, D. P. (2024). Maktabgacha 6-7 yoshdagi Bolalarning rivojlanishiga qo’yiladigan talablar.

BOLALARNI GADJETLAR TA’SIRIDAN HIMOYALASH VA MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

To‘rayeva Nilufar Rashidovna
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali
turayevanilufar34@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarda gadjetlarga nisbatan ortiqcha qaramlikning oldini olish, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning ilmiy asoslari va amaldagi talablari tahlil qilingan. Bolalarni axborot-kommunikatsiya muhitida ma’naviy yetuklik asosida tarbiyalash zarurati ta’lim-tarbiya tizimidagi vazifalar bilan uyg‘unlashtirilgan. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan gadjetlarning (smartfon, planshet, kompyuter) yosh bolalar rivojlanishiga ko‘rsatadigan psixologik, fiziologik va ijtimoiy ta’sirlari ilmiy asosda tahlil etilgan. Bolalar rivojlanishida texnologik vositalardan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinib, mavjud ilmiy tadqiqotlar natijalariga tayangan holda amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyatlar, raqamli muhit, gadjet, ma’naviy tarbiya, axborot xatarlari, bola psixologiyasi, bolaning rivojlanishi, raqamli texnologiyalar, psixologik salomatlik, ijtimoiy moslashuv, ota-ona nazorati.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan XXI asrda gadjetlar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, yosh bolalar hayotiga gadjetlarning erta kirib kelishi ularning rivojlanish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, texnologiyalardan foydalanish bolaning kognitiv (bilish), emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, ammo bu jarayonda muvozanatning buzilishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Inson kamolotining poydevori bo‘lgan bolalik davrida olingan tarbiya insonning butun umri davomida unda yashaydi. XXI asrning raqamli muhitida bolalarning jismoniy va ma’naviy rivojlanishiga yangi omillar – gadjetlar, internet va virtual muhit kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu munosabat bilan bolalarni gadjetlar ta’siridan himoya qilish, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalasi pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlari nuqtai nazaridan muhim ilmiy muammoga aylangan.

- Gadjetlarning bola rivojlanishiga ijobiy ta’siri;

Raqamli texnologiyalar ta’limiy vosita sifatida foydali bo‘lishi mumkin. Masalan, interaktiv dasturlar va o‘yinlar orqali bolalarda: til o‘rganish, rang va shakllarni ajrata olish, mantiqiy fikrlash va muammo yechish ko‘nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, vizual va audio materiallar bolalarning eslab qolish qobiliyatini mustahkamlashi mumkin,ammo ijobiy ta’siriga nisbatan bir qator salbiy jihatlarini ham sanab o’tamiz;

- Gadjetlarning bola rivojlanishiga salbiy ta’sirlari va ularning oqibatlari;

Ko‘plab ilmiy izlanishlar shuni tasdiqlaydiki, gadjetlardan ortiqcha foydalanish quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

- Kognitiv rivojlanishning sekinlashuvi. Ekran orqali doimiy passiv axborot iste’moli bolaning tafakkurini faollashtirmaydi (Christakis, 2018).
- Psixologik salomatlik muammolari. Surunkali stress, diqqat yetishmovchiligi, uyqu buzilishi.
- Ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar. Bolaning tengdoshlari bilan muloqotga kirishishiga to‘sqinlik qiladi, yolg‘izlik hissi ortadi. Oqibatda autizm kasalligini orttirib oladi.
- Jismoniy rivojlanish muammolari. Harakatsizlik, ko‘z zo‘riqishi, umurtqa shakllanishidagi buzilishlar.
- Yoshga qarab foydalanish cheklovlari, albatta ota-onani roli katta
- Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) va Amerika Pediatriya Akademiyasi (AAP) quyidagi cheklovlarni tavsiya qiladi:
- 0–2 yosh: gadjetlardan foydalanish tavsiya etilmaydi;
- 2–5 yosh: kuniga 1 soatdan oshmasligi kerak;

- 6 yosh va undan katta: ekran vaqtini nazorat ostida saqlash va faol hayot tarzini rag‘batlantirish zarur.
- Gadjetlarning bolaning rivojlanishiga ta’siri ko‘p omilli bo‘lib, ularning foydasi va zarari foydalanish usuli, davomiyligi, mazmuni hamda ota-ona nazorati darajasiga bog‘liq.
- Ota-onalar bolalarga gadjetlardan foydalanish madaniyatini o‘rgatishlari lozim;
- Ta’lim muassasalari texnologiyalardan foydalanishning pedagogik usullarini ishlab chiqishlari zarur;
- Bolalar uchun alternativ faoliyatlar (sport, rasm chizish, ertak aytish, tez aytish, har xil to’garaklarga jalb etish) ko‘proq taklif qilinishi lozim.

➢ Milliy qadriyatlar tarbiyaning ma’naviy-axloqiy asosi sifatida qo’yiladigan talablar.

- Milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviyati, urf-odatlari, an’analari, tili, madaniyati va ijtimoiy ongining ifodasidir (Qosimov, 2015). Bolalarni mazkur qadriyatlar ruhida tarbiyalash ularda milliy iftixor, odob-axloq, mehr-oqibat va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantiradi.
- Bu uchun qo’yidagi talablar tavsiya etiladi:
- Ta’lim mazmunida xalq og‘zaki ijodi, milliy ertaklar,qahramonlik rivoyatlari asosida darslar tashkil etilishi,ushbu tavsiyalarni maktabgacha yoshidagi bolalardan boshlash muhim.bolani jim qilish uchun qo’liga telefon berib,yoki televizor bilan chalg’itmasdan ,unfan vaqtni ayamasdan shug’ullanish maqsadga muvofiq bo’lar edi. Qachonki ota-ona bola bilan vaqtini mazmunli o’tkazar ekan ,bola telefonga ,televizorga har xil gadjetlarga chalg’ib qolmas edi.
- Milliy an’analarga asoslangan o‘yinlar (masalan,chillak besh tosh o’yini, oq terakmi-ko’k terak o’yinlari) bolalar mashg‘ulotlariga joriy etilishi;
- Milliy bayramlar va tarixiy sana tadbirlarida bolalarning faol ishtirokini ta’minlash ham yaxshi natija beradi.

Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, bolalarda ekranga qaramlik fenomeni 3 yoshdan boshlab namoyon bo‘ladi va bu holatda diqqat yetishmovchiligi, tafakkurning pasayishi, ijtimoiy izolyatsiya va hulq-atvor buzilishlari kuzatiladi. (Anderson & Subrahmanyam, 2017; Christakis, 2018).

Xotirani susayishi , ko’z kasalliklari,diqqatning buzilishi, bukrilik holati, beparvoliklar ham gadjetlar tufaylidir.

Talablar:

Bolalar uchun ekranda o‘tkaziladigan vaqt cheklangan bo‘lishi (2–5 yosh — 30 daqiqadan oshmasligi kerak).

Ekrandagi har xil ovozi baland, bolaning asab sistemasiga ta’sir qiladigan multfilmlar ham bola tarbiyasiga ta’sir qilishini inobatga olib, bolani yosh jihatiga mos, qisqa metrajli , tarbiyaga undovchi multfilm va videoroliklarni ko’rish (avval ota-onani o’zi ko’rib olishini tavsiya etaman)maqsadga muvofiqdur.

Axborot muhitining mazmuni pedagogik va axloqiy filtrlardan o‘tkazilishi;

Gadjetlar foydalanilayotgan paytda ota-onaning doimiy ishtiroki va kuzatuvi ta’minlanishi kerak. Bolani nafaqat uyida,balki maktabgacha ta’lim muassasalarida ham televizorni qo’yib, bolani band qilmasdan har xil o’yinlar, mashg’ulotlar bilan band qilish kerak.Mashg’ulot davomida faqat bir ikkita bola bilan shug’ullanmasdan, butun guruh bolalarini diqqatini jalb etish kerak.

Bo‘sh vaqtni jismoniy va ijodiy faoliyatlar bilan to‘ldirish lozim (rasm chizish, she’r yodlash, milliy raqslar, tez aytishlar). Rang-barang qiziqarli, har kuni har xil bir-birini takrorlamaydigan o’yinlar bo’lsagina ,bola zerikib qolmaydi, qiziqishi ortadi.

Milliy tarbiyani raqamli muhitda integratsiya qilish imkoniyatlari.

Zamonaviy ta’lim vositalariga milliy mazmun kiritish orqali bolalarda axborot texnologiyalaridan ma’naviy foydalanish madaniyatini shakllantirish mumkin. Masalan:

Milliy multfilmlar (masalan, Alpomish, To’maris, Mashrab) orqali tarixiy va axloqiy g‘oyalarni singdirish.

Milliy yozuv va so‘z boyligini rivojlantiruvchi dasturlar yaratish;

Raqamli kitobxonlik (audio kitoblar, bolalar uchun milliy she’riyat) ni keng joriy etish. Agarda ko’rgan multfilmlarini rollarda ijro etishsa, bolajonlarni qiziqishi yanada ortadi. Tayyorlov guruhi bolalari bilan birorta multfilm qahramonlarini jonlantirib, rolga kirishib ,o’zlaridan kichik guruhlarga yoritib berishsa ,har ikkala guruh ham band bo’lishadi,qiziqishadi.

Xulosa va tavsiyalar.

Bolalarda axborot xatarlaridan himoyalanish qobiliyatini shakllantirish va ularning milliy ruhda yetuk shaxs bo‘lib voyaga yetishi uchun tarbiya tizimida quyidagi ilmiy asoslangan chora-tadbirlar muhimdir:

- Milliy qadriyatlarga asoslangan ta’lim-tarbiya konsepsiyalarini ishlab chiqish.
- Ota-ona va tarbiyachilarnilarni raqamli savodxonlik va milliy tarbiya masalalarida muntazam o‘qitib borish
- Axborot makonida bolalar uchun foydali va milliy ruhdagi kontentni ko‘paytirish.
- Milliy o‘yinlar va ijodiy mashg‘ulotlarni rag‘batlantiruvchi davlat dasturlarini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, D.R., & Subrahmanyam, K. (2017). Media and Young Minds. Pediatrics Journal.

2. Christakis, D. A. (2018). Digital screen time and children development. JAMA Pediatrics.

3. Qosimov, Sh. (2015). Milliy qadriyatlar va ma’naviy tarbiya. Toshkent: Fan.

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy tarbiya asosida rivojlantirish metodikasi.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA TASVIRIY SAN’AT VOSITASIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING SHAKL VA METODLARI

Bozorova Gulbahor Rayimovna

Samarqand viloyat pedagogika texnikum psixologi

ANNOTATSIYA: Tasviriy faoliyat - bu borliqni o‘ziga xos obrazli bilishdan iborat bo‘lib, u turli xil bo‘lishi mumkin, Maktabgacha yoshdagi bolalar rasm, narsalar yasash (lepka), applikasiya mashg‘ulotlarida badiiy materiallarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar, ularda mehnat madaniyati tarkib topadi.

Rasm, narsalar yasash (lepka), applikasiya, konstruksiyalash mashg‘ulotlari rejalashtirilganda tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutk o‘stirish, badiiy adabiyotlar o‘qish, shuningdek musiqiy mashg‘ulotlar bo‘yicha olib boriladigan barcha ta’limiy-tarbiyaviy ishlar hisobga olinadi.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, tabiat, applikatsiya, loy va plastilin bilan ishlash.

Tasviriy faoliyat turlarining o‘zaro aloqasi yordamida rasm, lepka (narsalar yasash), applikasiya bo‘yicha topshiriqlar izchilligini belgilash mumkin. Masalan, dumaloq shaklni o‘zlashtirishni bolalarga dastlab applikasiyada (ayniqsa maktabgacha kichik yoshdagi bolalarga) tavsiya qilish mumkin. Bola tayyor dumaloq shaklni (sharik, koptok) qo‘li bilan konturda yuritish, aniq chizmalarini yelimlash va ko‘rishni idrok etadi. Ushbu shakllarni chizish jarayoni bola uchun qiyinroq, chunki harakatni muvofiqlashtirishni, qog‘oz varag‘ida tutash chiziq o‘tkazishni bilishni talab qiladi. Bular esa o‘z navbatida bolalarda ijodkorlikni shakllantiradi.

Atrof-borliqdan olingan taassurotlar, kuzatishlar, ertaklardagi obrazlar bolalar ishlariga mazmun bag‘ishlaydi. Rasmdagi syujet ikki o‘lchamli varaq yuzasida muayyan kompozisiyada ochiladi (maktabgacha yoshdagi bola fazoviy chuqurlikni bera olmaydi). Narsalar yasash

(lepka)da bolalar figuralarni umumiy mazmun bilan birlashtirgan holda syujetni tasvirlaydi. Applikasiyada ular soyali surat varag‘idan qirqib oldi va ularni tekislikka joylashtiradi,

Mamalakatimizda ishlab chiqilgan «Uchinchi mingyillikning bolasi» tayanch dasturida bolalarda tasviriy san’atga bo‘lgan havasni kuchaytirish va buning natijasida ularda nafosat tarbiyasining samaradorligiga erishish nazarda tutilib, quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

“Bolalarda tasviriy san’atga oid tushuncha, tasavvur, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish. Ularda tasviriy san’atni his etish, undan zavqlanish va rasmlarda aks ettirilgan qahramonlarga munosabat bildirish ko‘nikmasini shakllashtirish.

Bolalarda turli ranglardan zavqlanish, mavzuli rasmlarni idrok etish hissini tarbiyalash. Ranglar (qizil, sariq, yashil, ko‘k, jigarrang, oq, qora)ni bir-biridan ajrata olishni, ularni o‘zaro qiyoslash (qizg‘ish, ko‘kish, sarg‘ish)ni o‘rganish. Rasmdagi ranglarning ifodalilik xususiyatlaridan foydalanishni, ranglar orasidan o‘ziga ma’qul keladiganini tanlashga o‘rgatish” [2;38].

Bolalarning qalam, flomaster va mo‘yqalamdan to‘g‘ri foydalanish malakalarini shakllantira borish. Bolalarga qalam va mo‘yqalamni ushlash, mo‘yqalamni bo‘yoqka botirish, qalam va mo‘yqalamni qog‘oz ustida erkin yurgizish, ish tugagach, mo‘yqalamni yuvib, artib qo‘yishga o‘rgatish.

Bolalarga dumaloq, to‘g‘ri to‘rtburchak va uchburchak shakliga o‘xshash narsalar (meva, sabzavot, o‘yinchoqlar)ni qog‘ozning butun sathiga joylashtirib tasvirlashni o‘rgatish.

Bolalarni loy va plastilin bilan ishlash malakalarini o‘stirish.

Loy va plastilindan yumaloq, uzunchoq, tuxumsimon shakllar yasashga o‘rgatish. Loy bilan ishlash yo‘llarini yafindan tanishtira borish: barmoqlar bilan tasvirning mayda qismlarini chimdish, yapaloqlangan shakllarning chetlarini buklash va boshqalar.

Loy bo‘lagini kaftlar orasiga olib aylantirish orqali yumaloq, tuxumsimon, ustuncha shaklidagi narsalar (olma, sabzi, bodring, tuxum, baliq, toshbaqa, xo‘roz va boshqalar)ni yasashga O‘rgatish.

Bolalarni qog‘oz va kartondan tasvirlarni qirqib yopishtirish usuli bilan tanishtirish. Qirqib yopishtirish usulida sodda ko‘rinishdagi turli shakllarnn yasash orqali bolalarning tasviriy faoliyatini rivojlantirish.

Qirqilgan qog‘oz va karton bo‘laklarini bir-biriga yelimlab biron narsaning tasvirini yasashga o‘rgatish.

Qirqib yopishtirish bo‘yicha quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya qilinadi: «Kvadrat», «Doiracha», «Barglar», «Gullar», «O‘yinchoq mashina», «Sandiqcha», «Bayroqcha», «Daraxt», «Uy», «Narvon», «Panjara».

Qog‘oz yoki kartonni qirqishda qaychi (bolalar uchun maxsus uchi to‘mtoq, plastmassa qoplangan)ni to‘g‘ri ushlash va ishlatishni, kvadrat shaklini qirqishni, kvadratdan doira shaklini qirqishni o‘rgatish.

Qurish-yasash ishlariga bolalarning qiziqishlarini rivojlantirish, ularning shakli va o‘lchami har xil bo‘lgan taxtachalar, uzun va qisqa, keng va tor, uchburchak va to‘rtburchak, katta va kichik taxtachalar bilan tanishtirish. Bu materialdardan sodda ko‘rinishdagi shakllarni qurish va yasashga o‘rgatish»[1].

Dasturda belgilangan ushbu rang-barang mashg‘ulotlar mahoratli tarbiyachi tomonidan bolalar bilan qiziqarli tarzda olib borilganda, ularda nafosat tarbiyasi shakllanishi bilan birga ijodkorlikka bo‘lgan kavas ham ortib boradi. Ijodkorlikka bolalar ilk yoshligidanoq qiziqadi, o‘zlaricha bilib-bilmay, anglab-anglamay nimalarnidir ijod qilishga intiladilar.

Tarbiyachi maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ham ana shunday ijodkorlik belgilarini payqaganda, uni albatta turli xil pedagogik usullar bilan rag‘batlantirib borish zarur bo‘ladi.

Katta guruhdagi bolalar nafaqat san’atning har xil turlari bilan tanishadilar, balki ular rasmdagi, haykaltaroshlik va grafikadagi obrazni o‘zgacha idrok etadilar. Tasviriy san’atga o‘rgatishning metod va usullari xilma-xil bo‘lib, ular quyidagilardir:

1

- ta’limnnng ko‘rgazmali metod va usullari;
- ta’limning og‘zaki metod va usullari;
- ta’limning o‘yin usuli;
- amaliy metodlar;
- evristik metod,

“Tasviriy san’at ta’limnning butun tizimi asosida kuzatish metodi yotadi, chunki san’at tevarak-atrofni bilish va aks etgirish vositasidir. Bolalarda kuzata bilish, tevarak - hayotdagi hodisalar o‘rtasida aloqa o‘rnatish, umumiy va individuallikni ajrata bilish qanchalik rivojlangan bo‘lsa bu albatta ulardagi ijodiy qobiliyatning rivojlanganligiga bog‘liq. Ammo birgina kuzatish ko‘rganini to‘laligicha tasvirlash imkoniyatini ta’minlamaydi. Bolalarga maxsus tasviriy usullar, turli xil -tasviriy materiallardan foydalanish yo‘llarini o‘rgatish zarur” [3;90].

Ta’limning ko‘rgazmali metodi va usullariga naturadan, rasmlar reproduksiyasi, namunalar va boshqa usullaridan foydalanish kiradi.

Tasviriy san’atda natura deganda bevosita kuzatilganda tasvirlanadigan predmet yoki hodisalar tushuniladi. Naturada ishlash predmetni uning rasm chizuvchining ko‘ziga nisbatan qanday turganligi holatiga ko‘ra muayyan nuqtai nazardan tasvirlashni nazarda tutadi. Bu yerda ko‘rib idrok etish asos bo‘ladi, shu bilan birga tekislikda tasvirlanganda (rasm, applikasiya) predmet faqat bir tomondan idrok etiladi; narsalar yasash (lepka) va konstruksiyalashda bolalar naturani o‘chirish, har xil o‘chirishlardagi hajmli shaklni tahlil qila olish imkoniga ega bo‘ladi.

San’at bilan tanishtirish metodikasida ko‘rgazmali va og‘zaki metodlarning o‘zaro aloqasi katta ahamiyatga ega. Rasmni idrok etish jarayonida asosiy e’tibor vositasida san’atkor obraz yaratadigan rang koloriti, kompozisiyani tasvirlashga qaratiladi. Kichik shaklli haykaltaroshlik idrok etilganda, bolalar shaklni tekshirish, obrazning turli nuqtai nazardan xarakterli belgisini ko‘rish (aylanma obzor), uni og‘zaki tavsiflash, nafis tasvirlash xususiyatlarini belgilashni o‘rganadilar.

Tarbiyachi asosiy narsaga e’tiborni qaratishda, bolalarni badiiy obrazni ehtiros bilan idrok etishni o‘rgatishga yordam beradigan suhbat o‘tkazish katta ahamiyatga ega.

Suxbat paytida tasvirlashning har xil variantini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa bolalarda obraz yaratishga turli xil yondashish haqida tasavvurni shakllantiradi. Boshqa tomondan, bu bolalarga ularning amaliy faoliyatlarida rang uyg‘unligining turli variantlari, kompozision tuzilishini berishga yordam beradi. Suhbat o‘tkazish oldidan guruhda kartinalar, haykaltaroshlikning kichik shakli, grafika, dekorativ-amaliy san’at reproduksiyasidan kichikroq ekspozisiya tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday o‘ziga xos ko‘rgazma mavzuli bo‘lishi mumkin. Masalan, bolalar kuzning turli davrlari tasvirlangan rasm bilan tanishadilar, qishda ularning e’tibori yoqqan qor, bo‘ron, izg‘irindan iborat qish obraziga qaratiladi.

Bularning yordamida bolalarda kuz, qish, bahor, yozni har xil tasvirlash mumkinligi haqida yorqin tasavvur hosil bo‘ladi.

San’at bilan tanishtirish tabiatni kuzatish paytida amalga oshirilsa yaxshi bo‘ladi. Bunda bolalar hayotda ko‘rganlari bilan san’atkor tomonidan qalamda, gilda tasvirlanganlarni qiyoslashni o‘rganadi.

“Bolalar tabiatda ranglar xilma-xilligini (shunchaki oq, ko‘k, qizil, balki tuslari turli xil ekanligini) bilib oladilar. O‘zlari chizgan rasmlarda ushbu rang tuslaridan foydalanadilar. Tarbiyachi bolalarga yorug‘likdan predmetning shakli, hajmi qanday o‘zgarishini ko‘rishni o‘rgatadi. Masalan, tunda go‘yo hamma narsa qop-qora, predmetlarning ko‘rinishi soyaga o‘xshaydi. Kunduzi esa, aksincha, barcha ranglar ochiq, go‘zal, predmet yaxshi ko‘rinadi” [4;87].

Predmetlarni naturadan tasvirlaganda pedagog e’tiborni uning asosiy qismiga, shakliga karatadi.

Narsalar yasash (lepka)da shakl yoki figurani tasvirlash jarayonida tarbiyachi ko‘pincha bolalarga ishning qaysi usulini tanlashni o‘zlariga havola etadi. Biroq dastlab yaxlit bo‘lakdan loy bo‘lagini olish yo‘li bilan narsa yasash, figurani keng asosga o‘rnatish usulini ko‘rsatish lozim.

Tarbiyachi bolalarni dekorativ-amaliy san’at predmetini ko‘rib chiqish va tekshirishga o‘rgatadi. Buning uchun narsalarni tanlaydi, uni bolalarga tanishtirganda ular xajmda va tekislikda nakshlarni ko‘radilar. Idrok etish jarayonida nakshning va uning tuzilishining asosiy elementlarini ajrata olish qobiliyati shakllanadi. Pedagog mo‘yqalam bilan naqsh solish usulini ko‘rsatadi, chunki qo‘lning harakati yanada muvofiqlashgan va ishonchli bo‘lishi lozim. Kompozisiya naqshi predmet va shaklga karab o‘zgaradi.

Shunday qilib, san’at bilan tanishish bolalarning badiiy faoliyati bilan uzviy bog‘langandir.

Katta guruhlarda ijodiy topshiriqlar katta o‘rin egallaydi, chunki ta’lim jarayoni bilan ijod o‘zaro bog‘liqdir. Ushbu topshiriqlarning mazmuni borliqning hodisalari, ijtimoiy voqyealar, ertak obrazlari bo‘lishi mumkin. Bolalarni tasvirlashning ayrim usullariga o‘rgatganda tarbiyachi e’tiborni obrazning xarakterli belgisini berishga qaratadi. Ijodiy topshiriqlar paytida bolalarga g‘ayri odatiy sharoit yaratiladi va ularga rang bilan ishlash, kompozision tuzilishning turli xil variantlarini mustaqil tarzda topish taklif etiladi. Izlanish vaziyati bolalarni noma’lumlikdan aniqlik sari borishga, o‘ylab topishga tasvirlash usulini qo‘llab ko‘rishga majbur qiladi. Bunday sharoit mavzuli, kompleks mashg‘ulotlar uchun xarakterli bo‘lib, ular mazmuniga, tasvirlash usuliga ko‘ra ham murakkab bo‘lib qoladi. Ijodiy xarakterdagi topshiriqlarda tarbiyachi bolalar e’tiborini qog‘oz foniga qaratadi, bu rasm, applikasiyaning rangli obrazini yaratishga yordam beradi. Bolalarni rasmning mazmuniga ko‘ra fonni mustaqil ravishda tuzishga, uni yanada jadalroq yoki ziddiyatliroq qilishga o‘rgatish lozim.

Tabiatni tasvirlashda tarbiyachi rangning xilma-xilligidan foydalanishga o‘rgatadi.

Katta guruhlarda jamoa ishi boshqacha xarakter kasb etadi. Bolalar o‘z harakatini kelishib bajarishga o‘rganadilar. Topshiriqlar 3-4 boladan iborat kichik guruh bilan bajarilishi mumkin. Bunda bitta rasmda qanday materiallar uyg‘unlasha olishini tushuntirish lozim.

Yil oxirida tarbiyachi bolalarning badiiy tafakkuri darajasini tekshiradi. (Suhbat jarayonila bolalar san’at asarini qanday qabul qilishini bilib olali. Topshiriqlar beradi, masalan, hayvonlarni rasmda, lepkada. applikasiyada tasvirlash va hokazo.

Tasviriy metodlardan yana biri - evristik metoddir. U grekcha «Evristika» so‘zidan olingan bo‘lib, haqiqatni topish san’ati ma’nosini bildiradi. Ushbu metod topog‘onlik, faollikni rivojlantirishga yordam beradi.

Tarbiyachining vazifasi - bolalar tasviriy faoliyatini shunday tashkil qilishi kerakki, u albatta faol, ijodiy bo‘lmogi lozim. Har bir mashg‘ulot nafaqat didaktik vazifani, balki biron-bir predmetni tasvirlashga o‘rganishni, boladan ishni mustaqil bajarishni ham talab qiladi. Ana shu maqsadda pedagog topshiriq bajarishning xilma-xil usullaridan: maslahat, rag‘batlantirish, ko‘rsatish (biroq to‘liq emas), o‘yinchoklar ko‘rsatish, eslatish va shu kabi usullardan foydalanadi.

Bolaga shunday vaziyat yaratish lozimki, maqsadni bajarish yo‘lini uning o‘zi topa bilsin. Shunday qilib, u yoki bu usul va metodni tanlashda:

- ushbu mashg‘ulot oldida turgan mazmun va vazifaga tasviriy faoliyat vazifasiga;
- bolalarning yosh va rivojlanish darajasi;
- bolalar foydalanadigan tasvirlash materiallarining turiga bog‘liq.

Ayrim metod va usullar - ko‘rgazmali va og‘zaki mashg‘ulotlarda yagona ta’lim jarayonida biri ikkinchisi bilan birga amalga oshishi va ketma-ket kelishi mumkin.

Tarbiyachi katta guruh bolalari uchun davlat dasturi asosida rasm, lepka, applikasiya va konstruksiyalash bo‘yicha yillik, oylik, haftalik mashg‘ulotlarni taxminiy rejalashtiradi. Rejalashtirganda albatta bolalarning yoshi, yil fasllari e’tiborga olinmog‘i zarur.

“Katta guruhda bolalarni tasviriy san’atning har xil turlari bilan tanishtirish tizimli va izchil amalga oshiriladi. Uning asosida mavzuli prinsip yotadi, har bir chorakda muayyan mavzu ko‘rib

chiqiladi. Masalan, birinchi chorakda asosiy mavzu - badiiy obrazga emosional iltifot, san'atkor kartinada tasvirlagan kayfiyatni seza bilishdir"[5;90].

Rasm solish, lepka, applikasiya jarayonida tarbiyachi bolalarni naturadan hamda tasavvur bo'yicha predmetning shaklini yaratish, ularning nisbatan hajmini, xarakterli belgisini aniqlashga o'rgatadi.

Tabiat ijtimoiy hayot hodisalarini tasvirlaganda pedagog obrazni, syujetni (rang, shakl, kompozisiya) tasvirlash uchun tasviriy vositalardan foydalanishni o'rgatadi. Bolalar dekorativ rasmlar chizishning turli usullarini o'zlashtiradi. Ular loyning yaxlit bo'lagidan narsa yasash, nisbatan katta qog'oz varagg'larini kesish, dekorativ kompozisiya tuzishni o'rganadilar, jamoa ishlarini bajaradilar, texnik malakalarni o'zlashtirish (qalamni qattiq va yumshoq ushlash, tur yordamida narsalar yasash va shu kabi)ni o'rganadilar.

Katta guruh bolalarida tasviriy san'at namunalari asosida ijodkorlikni shakllantirish maqsadida maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan ayrim mashg'ulotlarning taxminiy konspektini ko'rib o'tamiz.

Rasm solish. «Yoz»

Dastur mazmuni. Bolalarda yoz to'g'risidagi xotiralarni uyg'otish, fikrni rivojlantirish, o'z taassurotlarini tasvirlab berish, mo'yqalam (barcha mo'yqalamlar, bo'yash) bilan chizishning har xil usullaridan foydalanish.

Material. Albom formati, turli xil rangdagi bo'yoqlar.

Tayyorgarlik ishi. Yoz haqida suhbat. Kitoblardagi rasmlarni ko'rib chiqish.

Mashg'ulotni o'tkazish metodi. Pedagog bolalarga yoz haqidagi eng yorqin taassurotlarini eslashni topshiradi. Ular yozda qayerda bo'lganlar, yoz o'zining nimalari bilan bolalarga yoqib qolgan (har xil mevalarni terish, daryo va anhorlarda cho'milish, dalalarni aylanish va h.). So'ngra ularning har biridan yoz haqida rasm solishni so'raydi, mashg'ulot oxirida barcha rasmlar stendda ko'rib chiqiladi. Bolalar rasmlariga qarab yoz nimasi bilan yoqib qolganini aytib beradilar.

Narsa yasash (lepka). «Sabzavot hosilini yig'amiz».

Dastur mazmuni. Bolalarda mehnatga hurmatni, jamoat ishlarida ishtirok etishga bo'lgan ishtiyoqini shakllantirish, shakliga ko'ra har xil sabzavotlarni yopishtirish (dumaloq, cho'zinchoq), ularning muhim belgilarini tasvirlash.

Material. Loy, taxtacha.

Tayyorgarlik ishi. Sabzavotlarni ko'zdan kechirish.

Mashg'ulotni o'tkazish metodi. Bolalarga K.Muhammadiyning «Sabzavotlar» she'rini o'qib berish. She'rda qaysi sabzavotlar haqida so'z borganligini so'rash. Ularga loydan lavlagi, sabzi, kartoshka yasashni topshirish. Yakunida bolalar ishlarini ko'rib chiqadilar, qiyoslaydilar va ularni shakliga ko'ra farqlaydilar. «Sabzavotlar» she'ri qaytadan takrorlanadi.

Applikasiya. «Mashinalar daladan yig'ilgan hosilni tashimoqda».

Dastur mazmuni. Bolalarda kattalar mehnatiga bo'lgan hurmatni tarbiyalash, mehnat qilish istagini uyg'otish, kattalar mehnati haqida o'z taassurotlarini bera bilish, kichikroq syujet tuzish (qismlardan qirqish va mashinaga yopishtirish, meva va sabzavotlarni qalam yoki flomaster bilan chizish).

Material. Yarim albom varag'ida qog'oz, rangli yul-yul mato, kvadratlar, qaychi.

Tayyorgarlik ishi. Sabzavot, meva tashiyotgan mashinani kuzatish, rasmlarni tomosha qilish, o'yinchok mashina bilan o'ynash.

"Mashg'ulot o'tkazish metodi. «Yilning eng yaxshi fasli-kuz!, -deydi pedagog. -U bizga mo'l hosil beradi, uni odamlar dalalarda, bog'larda, polizda yetishtiradi. Ularga bolalar ham yordam beradilar. Kuzda nimalar teriladi? Mo'l hosil dala va bogg'lardan qanday tashiladi? Buning uchun ko'plab mashinalar kerak bo'ladi. Bugun biz daladan hosil tashiymiz. O'zimiz mashinalarni yasaymiz, ularga sabzavot, mevalarni yuklaymiz». Bolalar mashinaning qismlarini (kuzov, kabina, g'ildirak) qirqadilar. Bolalar sabzavot, meva, haydovchini chizadilar" [6;78].

Barcha ishlar stendga qo‘yiladi, mashinalar kolonnasi hosil bo‘ladi, ular dala, bog‘lardan hosilni shaharga tashiydilar. Bolalar qaysi mashina nimani tashiyotganini aytadi.

Xulosa qilib aytganda, boshqa mashg‘ulotlar konspekti ham ana shu namunalar asosida tayyorlanadi va ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida o‘tkaziladi. Natijada maktabgacha katga yoshdagi bolalarda tasviriy san’at namunalari asosida xilma-xil metod va usullarga tayangan holda ijodkorlikka bo‘lgan ishtiyoq uyg‘otiladi va maktabgacha ta’lim jarayonida ijodkorlik bo‘yicha hosil qilingan ko‘nikma va malakalar rivojlantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Uchinchi mingyillikning bolasi, tayanch dasturi – T.: Ma’rifat-madadkor”, 2000 yil, B - .109-111

2.Abdulazizov, A. (2015). "Maktabgacha ta'limda san'at ta'limi: nazariya va amaliyot". Tashkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti.

3.Jumaniyozova, D. (2018). "Ijodkorlik va tasviriy san'at: Maktabgacha ta'limda yangi yondashuvlar". Tashkent: Fan va texnologiya.

4.Murodova, S. (2020). "Tasviriy san'at vositalari orqali bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish". Tashkent: O'zbekiston milliy universiteti.

5.Tashkent, N. (2019). "Bolalar ijodkorligini rivojlantirishda tasviriy san'atning roli". Tashkent: O'zbekiston san'at akademiyasi.

6.Yusupova, L. (2016). "Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni shakllantirish: metodlar va usullar". Tashkent: O'zbekiston ta'lim markazi.

7.Saidova, M. (2021). "Tasviriy san'at va bolalar: ijodiy faoliyat va rivojlanish". Tashkent: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining nashriyoti.

8.Qodirova, F. (2017). "Maktabgacha ta'limda ijodkorlikni rivojlantirish: nazariy asoslar va amaliyot". Tashkent: O'zbekiston ta'lim akademiyasi.

9.Ruziev, B. (2019). "Tasviriy san'at vositalari va bolalar ijodkorligi: yangi yondashuvlar". Tashkent: O'zbekiston san'at va madaniyat institutining nashriyoti.

10.Khamidova, Z. (2020). "Bolalar tasviriy san'atida ijodkorlikni rivojlantirish metodlari". Tashkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti.

11.Ismoilov, A. (2018). "Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish: tajribalar va natijalar". Tashkent: O'zbekiston ta'lim markazi.

ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ МАЗМУНИДА ХАЛҚ ҲУНАРМАНДЧИЛИГИНИ ЎРГАТИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЛМИЙ-МЕТОДИК АСОСЛАРИ

Игамов Собир Салимович

Самарқанд давлат университети Каттақўрғон филиали,

sobirigamov72@gmail.

Аннотация: Мазкур мақолада умумий ўрта таълим муассасаларида технология фанини ўқитиш жараёнида халқ ҳунармандчилигини инновацион ёндашув асосида ўргатишнинг илмий-методик механизмлари ёритилган. Мақолада таълим жараёнида фанлараро боғланишларни таъминлаш, ўқувчиларда ижодий ва дизайн-технологик компетенцияларни ривожлантириш масалалари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар :технология таълими, халқ ҳунармандчилиги, инновацион ёндашув, педагогик технологиялар, фанлараро боғланиш, ижодий компетенциялар, компетенциявий ёндашув.

Кириш

Бугунги кунда умумий ўрта таълим мактабларидан ўқувчиларга фақатгина билим бериш эмас, балки уларни хар томонлама ривожлантириш, ижтимоийлаштириш ва уларни мустақил, танқидий, инновацион фикрлаш қобилиятларини шакллантиришга йўналтирилиш талаб қилинмоқда. Ўзида ана шу имкониятларни намоён эта олган таълим шакли инновацион ёндашув асосида ташкил этилган таълимдир.

Инновацион ёндашув асосида ташкил этилган таълим – ўқувчининг фикрлаш ва ҳаракат стратегиясини инобатга олган ҳолда, уни янгича ижодий, креатив, ўзига хос хусусиятлари, қобилиятини ривожлантиришга йўналтирилган таълим туридир.

Бу таълим тури ўқитиш муҳитини ўқувчининг интеллектуал имкониятларига мослаштирилишини назарда тутади. Унга кўра таълим муҳити, педагогик ташкилий шарт-шароитлар, таълим ҳамда тарбия жараёнида тўлалигича барча имкониятларини, ўқувчининг инновацион фаолиятини рўёбга чиқариш, қобилиятини ривожлантириш, ижодий компетенцияларии шакллантириш, камолотга етишини таъминлаш, тафаккури ва дунёқарашини бойитишни назарда тутади.

Инновацион ёндашув асосида ташкил этилган таълим жараёнида шахсга йўналтирилган таълим турларидан фойдаланишда ўқитувчидан қатор шартларга қатъий риоя этишни талаб этади. Ушбу талаблар қуйидагича:

- ҳар бир ўқувчини алоҳида, индивидуал шахс сифатида кўра олиш;
- ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида ўзаро ҳурмат мухитини ярата олиш;
- ўқувчининг психалогик ҳолатини тўғри баҳолай олиш;
- ўқувчининг хоҳиш-истак, эҳтиёжларини, қизиқишларини инобатга олиши;
- ҳар бир ўқувчига яхши муносабатда бўлиши;
- ўқувчининг кучи, имконияти ва интилишларига ишонч билдириши;
- ҳар бир ўқувчи учун қулай таълим муҳитини яратиши;
- ўқувчиларнинг инновацион ёки кичик гуруҳларда эркин ишлашларини таъминлаш;
- ўқувчининг қобилиятини ўстириш, ривожлантириш, ижодкор шахс сифатида ривожланишига ёрдам бериш.

Мақолада халқ ҳунармандчилигига асосланган технология дарсларини фанлараро боғланиш ва инновацион таълим методлари асосида ташкил этишнинг услубий ечимлари илмий асосланган ҳолда биринчи бор тизимлаштирилди.

Мақолада баён этилган таклиф ва тавсиялар технология фанини ўқитиш амалиётида янги ёндашувларни жорий қилиш, ўқувчиларда ижодий ва амалий фаолликни ривожлантириш, халқ анъаналарини сақлашга хизмат қилади.

Инновацион таълимда шахсга йўналтирилган ёндашув асосида ҳар бир ўқувчининг қизиқиши, қобилияти ва эҳтиёжларидан келиб чиқиб дарс мазмуни шакллантирилади. Бу жараёнда қуйидаги методлар самарали ҳисобланади:

- **Муаммоли ўқитиш** – ижодий фикрлашни ривожлантиради;
- **Кейс-таҳлил ва лойиҳалаш** – реал муаммоларни ҳал қилиш қобилиятини шакллантиради;
- **Гуруҳда ишлаш** – ҳамкорлик ва мулоқот маданиятини ривожлантиради;
- **Интерфаол машғулотлар** – халқ ҳунармандчилигининг замонавий таълим билан интеграциясини таъминлайди.

Халқ ҳунармандчилиги орқали таълимни ташкил этишда ўқувчилар санъат, тарих, иқтисодиёт, табиатшунослик каби фанлар билан боғланишни амалий равишда ҳис қиладилар. Бу уларнинг дунёқарашини бойитади, миллий қадриятларга ҳурмат уйғотади.

Хулоса ва тавсиялар

Халқ ҳунармандчилигига таянилган технология таълими орқали:

- дизайн-технологик компетенциялар шаклланади;
- креатив ва танқидий фикрлаш қобилияти ривожланади;
- таълим жараёни миллий анъаналар асосида бойийди.

Тавсиялар:

1. Технология фанини инновацион методлар асосида ташкил этиш;
2. Халқ ҳунармандчилигини фанлараро ёндашув билан интеграциялаш;
3. Ўқитувчиларни интерфаол ва компетенциявий ёндашувлардан фойдаланишга йўналтириш.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Шарипов Ш.С. ва бошқалар. *Технология: Дарслик, 7-синф*. – Т.: “Шарқ”, 2017. – 237 б.
2. Шарипов Ш. *Ўқувчилар билиш фаоллигини оширишда ижодкорлик методларининг тутган ўрни*. // Ўзлуксиз таълим. – Тошкент, 2009. – №4. – Б.18–22.
3. Шомирзаев М.Х., Каримов И.И. *Технология фанини ўқитишда инновацион педагогик технологиялар*. – Тошкент: Университет, 2020. – 192 б.

TALABALARNI ART-PEDAGOGIKA ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK ASOSLARI

Komolova Iroda Xamidullayevna
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali
Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti Maktabgacha va boshlangich ta’lim, sport kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya.Ushbu maqolada art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari,tamoyillari.Bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda art-pedagogika asosida talabaning ma’naviy va axloqiy madaniyatini rivojlantirish jarayonida axloqi va estetikasini shakllantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlash to‘g‘risida to‘liq bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Kasb,motivasiya,konseptual asos,insonparvarlik tarbiyasi,estetik immunitet .

O’qitish bilish faoliyatining psixologik tuzilishiga ega bo’lib, uning muvaffaqiyati talabalarning faolligiga bog’liqdir. Talaba – subyekt sifatida faoliyatini tashkil etishida, u eng yuqori darajada faoliyat olib borishi hamda bilim olishi, shuningdek, o’z harakatlari uchun javobgarlikni o’z zimmasiga olishi lozimdir.

Odatda, talabalarga madaniyatli va bilim olishga intiluvchan shaxs sifatida qaraladi. Shuning uchun, talabalar jamoasi jamiyatning eng muhim intellektual guruhi sanaladi.

Kasb zamonaviy oliy ta’lim mutaxassisidan nimani talab etadi?

Birinchidan, mutaxassis umumiy fan nazariyasini bilishi, ilmiy bilimga ega bo’lishi lozim. Ilmiy bilimlarni hayotiy bilimlardan farqi shundaki, ilmiy bilim umumlashtirish natijasi bo’lib, asosiylarini ajratib, muayyan hodisalar qonuniyatini aniqlashtiradi. Agar hayotiy bilimlar sezgiga asoslangan bo’lsa, ilmiy bilimlar hodisalarni ongli tushunish va tahlil qilishga asoslanadi. Ilmiy bilimlar umumlashtirilgan tajribalar (nazariya, qoida, tamoyil) orqali beriladi.

Ikkinchidan, ilm-fan ko’p miqdorda, xilma-xil va o’ziga xos daliliy materiallarga ega bo’lib, biroq, tizimlashtirilgan, tartibga solingan bo’ladi va har bir mutaxassisga aniq muammolarni hal qilish hamda turli xil bilimlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Uchinchidan, mutaxassis o’z kasbiy sohasining konseptual asosi bilan tanish bo’lishi, tushunishi, tushunchalar bilan ishlashni, ramzlar tilini va boshqalarni bilishi lozim.

Faqatgina bunday sharoitda mutaxassis kasbiy faoliyat dalillarini ko’rishi, tasniflashi, fan qonuniyatlari nuqtai nazaridan tushuntirishi va ishlash vaqtida paydo bo’ladigan yangi amaliy muammolarni hal qila olishi mumkin. Bu kasbiy talablarga javob berish uchun talaba oliy ta’lim muassasasida ongli va maqsadli ravishda ta’lim olishi, shuningdek, bilim olishga bo’lgan ehtiyoj va qobiliyatiga ega bo’lishi, kelajakda kasbiy bilim va ko’nikmalarni mustaqil ravishda o’zlashtirib borishi zarur.

Bo’lajak o’qituvchilar uchun ta’lim olish hayot mazmuniga aylanmog’i, ularda ongni, hissiyot va irodani kuchaytirmog’i, ijodiy kognitiv faoliyatga, o’z hayotini o’zi belgilashiga hamda kasbiy tomonlama o’z o’zini anglashiga asos bo’lmog’i lozim. Bo’lajak o’qituvchilarning maqsadlarga, vazifalarga va o’quv jarayoniga bo’lgan munosabatlari ta’limiy – kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatini belgilaydi.

Tadqiqotchi olimlar, talabalarning oliy ta’lim muassasalariga kirishga bo’lgan qiziqish sabablarini turlicha talqin etishadi. Bular

- talaba yoshlar davrasida bo’lishni xohlaydi;
- kasbning nihoyatda ahamiyatli ekanligi;
- kasbning keng doirada qabul qilinishi;
- kasbning qiziqish va moyilliklarga muvofiqligi;
- kasbning namoyon bo’lishi uchun ijodiy imkoniyatlar.

Bo’lajak o’qituvchilar orasida qiz va o’g’il bola talabalar qiziqishi o’rtasida farqlar mavjudligi aniqlangan. Qizlar ko’pincha kasbning ijtimoiy ahamiyatini: uni qo’llash ko’lamini, ishlash imkoniyatini, turli to’garaklarda qatnashish istagini va kasbning moddiy tomonlama ta’minlanishiga e’tibor qaratishsa, yigitlar esa qiziqish va moyilliklariga mos kelishi kerakligini ta’kidlashgan. Ular oilaviy an’analariga borib ta’qashadilar.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalariga qabul qilingan talabalarning aksariyati 1-bosqichda oliy ma’lumot olish, ya’ni kasb egallash uchun kirishganini, kamchilik talabalargina bolalar bilan ishlash, ularga ta’lim berishi, maktabda ishlashni yaxshi ko’rishini aytishadi.

Shuningdek, ko’pchilik talabalar (70-80%) oliy ta’lim muassasiga pedagogik ma’lumot olishni va o’z mutaxassisligi bo’yicha ishlashni xohlashmasligini ta’kidlashadi. Pedagogika oliy ta’lim muassasasiga o’qishga kirish sabablari: o’qishga kirish osonligi, ball pastligi, harbiy xizmatga bormaslik yoki aksincha harbiy xizmatdan olgan imtiyozining to’g’ri kelganligi, tavakkalchilik bilan kirgani, tengdoshlari bilan muloqot qilishga imkoni bo’lishi, oliy ma’lumot bo’yicha diplomning obruligi va h.zo. Shuningdek, oliy ta’lim devalvasiyaga aylangani, ya’ni bilim yoki ta’lim muhim bo’lmay, hujjatning muhimligi bugungi kunning achinarli holatlaridan biridir.

A.N.Pechnikov, G.A.Muxinalar ta’biricha, bo’lajak o’qituvchilar uchun yetakchi ta’lim motivlariga: “kasbiy”, “shaxsiy obro’ orttirish”, “pragmatik” (oliy ma’lumotli diplom olish) va “kognitiv” (bilim olish)larni kiritish mumkin. Turli kurs bosqichlarida dominant motivlarning roli o’zgaradi. Birinchi kursda “kasbiy” qiziqish yetakchilik qilsa, ikkinchi kursda “shaxsiy obro’”, uchinchi va to’rtinchi kurslarda “pragmatik” motivlar ustunlik qiladi. Ta’limda “kasbiy” va “kognitiv” motivlar ko’proq muvaffaqiyatga olib keladi. “Pragmatik” motiv asosan yomon o’qiyotgan talabalarga xos bo’ladi.

M.V.Vovchik-Blakitnaya abituriyentning talabalik hayoti va o’qishiga o’tishida “obro’”, ya’ni “talabalik maqomi”ni boshlang’ich motiv sifatida ko’rsa, ikkinchi o’rinda “kognitiv”, ya’ni bilim olishga qiziqish, uchinchi o’rinda esa, kasbiy-amaliy motivni belgilaydi.

F.M.Raxmatullina “obro’” motivini o’rganmay, balki umumijtimoiy motivlarni (oliy ta’lim muassasasining yuqori ijtimoiy ahamiyatini) aniqlashtirgan. Uning so’zlariga ko’ra, barcha kurslarda “kasbiy” motiv birinchi o’rinni egallaydi. Birinchi kursda talabalar uchun ikkinchi o’rinda “kognitiv” motivi tursa, keyingi kurslarda uning o’rnini “umumijtimoiy” motivlar egallashini ta’kidlaydi. “Utilitar” (pragmatik) motiv barcha kurslarda to’rtinchi o’rinni egallab, kichik kursdan katta kursgacha uning reytingi pasayib, “kasbiy” va “umumijtimoiy” motivlar reyting ko’tarilishi olima tomonidan belgilab berilgan.

“Kasbiy”, “kognitiv”, “umumijtimoiy” motivlar ta’limni yaxshi o’zlashtiradigan talabalarda o’rta o’zlashtiruvchi talabalarga qaraganda yuqori bo’lgan. “Utilitar” motiv past o’zlashtiruvchilarda yuqoriligi aniqlangan. Shuni ta’kidlash joizki, “kognitiv” motiv yaxshi o’zlashtiruvchi talabalar orasida ikkinchi, o’rta o’zlashtiruvchi talabalarda esa uchinchi o’rinni egallaganlini olima F.M.Raxmatullina tomonidan tahlil etiladi.

R.S.Vaysman Psixologiya fakulteti talabalari o’rtasida 1-kursdan 4-kursgacha “ijodiy muvaffaqiyat”, “rasmiy-akademik” yutuq va “muvaffaqiyatga ehtiyoj” motivlarining o’zgarish dinamikasini kuzatgan. R.S.Vaysman “ijodiy muvaffaqiyat” motivi orqali har qanday ilmiy yoki texnik muammolarni hal qilish va ilmiy faoliyatda yutuqlarga erishish mumkinligini e’tirof etgan. “Rasmiy-akademik” yutuq motivini yaxshi o’qish va baholanishga motivasiya, deya

tushunadi. R.S.Vaysman shuni aniqladiki, “ijodiy muvaffaqiyat” va “muvaffaqiyatga ehtiyoj” motivi 3-kursdan 4-kursga oshib borsa, “rasmiy-akademik” yutuq motivi 2-kursdan 3-4-kursgacha kamayib boradi.

Ta’lim faoliyatining umumiy motivasiyasi (kasbiy, kognitiv, pragmatik, ijtimoiy va shaxsiy obru) asosida talabalarda turli o’quv fanlariga nisbatan muayyan munosabat shakllanadi. U quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- kasbiy tayyorgarlik uchun fanning ahamiyati;
- ma’lum bir sohaga fanning bir bo’lagi sifatida qiziqishi;
- ta’lim sifati (fan doirasidagi mashg’ulotlardan qoniqish);
- o’z qobiliyatidan kelib chiqib fanni o’zlashtirishi;
- fan o’qituvchisi bilan munosabat.

Oliy ta’lim muassasasining asosiy va muhim vazifasi – bu talabalarni kasbiy faoliyatiga qiziqishini shakllantirish, ularning kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirishga bo’lgan ehtiyojini rivojlantirish sanaladi. Kasbiy motivasiya mavjud bo’lganida, talabaning bilish faoliyati mas’uliyatli va talabchan xarakterda bo’ladi. Talaba shundagina ta’limdan ijobiy zavq va o’qishga bo’lgan ehtiyojni his qiladi. Muvaffaqiyatga erishish motivasiyasi ta’lim jarayonida o’qishga mehr va ishtiyoqni belgilaydi. Talabalar tashabbus ko’rsatishib, o’zining atrofida ijodiy-kognitiv muhit yaratadilar. Ular muvaffaqiyatli, samarali bo’lgan kasbiy faoliyatga tayyorligini namoyish etishadi. Muvaffaqiyatsiz holatlarda ham talabalar umidsizlikka tushmaydilar, balki qiyinchiliklarni yengib, yangi qobiliyat va imkoniyatlar kashf etishadi.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko’ra, talabalarning kasbga bo’lgan qiziqishini ta’minlash tamoyillari va pedagogik – psixologik shartlari quyidagicha talqin etiladi:

1. Talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarliklari jarayonida o’z iqtidorini namoyish etish va ko’rsatish istagini shakllantirish va qo’llab-quvvatlash. Bunda talabalarda:

- bo’lg’usi kasbiy faoliyat bilan tanishish;
- mutaxassisligi bo’yicha kasbiy faoliyat haqida tasavvur hosil qilish;
- kasbiy faoliyat bilan bog’liq holda yo’nalishlarini shakllantirish;
- adabiyotlar bilan mustaqil ishlash zarurati va ko’nikmasini shakllantirish;
- o’z-o’zini bilish, o’z-o’zini tarbiyalash, o’z-o’zini takomillashtirish uchun sharoit yaratish;
- talabalar jamoasida “bilimlilik” psixologik muhitini yaratish.

Natijada, kelajakda o’zini kasbiy faoliyatning ijrochisi sifatida tasavvuri, kasbiy model bilan shaxsiy o’ziga xoslik va vaqtinchalik istiqboli shakllanadi.

2. Bo’lg’usi kasbiy faoliyatga ishonchsiz bo’lgan ayrim talabalarning shaxsiy va muammoli vaziyatlariga yordam berish va kasbiy sifat samaradorligini rivojlantirishiga e’tibor qaratish. Shuning uchun ham talabalar uchun psixologik xizmat nihoyatda zarur.

3. Agar ta’lim muvaffaqiyat va mamnuniyat keltirsa talaba uchun hayotining ma’nosiga aylanadi. Shuning uchun, talabalarda o’z kasbiy faoliyatini qadrlashini muvaffaqiyatlar orqali oshirish mumkin.

Talabalarning kasbiy motivasiyasini ta’minlash muammosini hal qilish professor-o’qituvchilargayam bog’liqdir. Bunda:

- talabalarni turli fan bo’yicha yetuk mutaxassis sifatida shaxsiy rivojlanishi uchun muhim hisoblangan ma’lumotlar bilan boyitish;
- o’quv materialining mazmuni va yangiligini ta’minlash;
- talabalarning ijodiy qobiliyatini namoyish etishlari uchun shart – sharoit yaratib berish;
- innovasion yondashuv asosida o’quv materialini taqdim etish hamda o’z faniga qiziqishi, professor-o’qituvchi kompetenligi, o’qituvchi obro’si;
- talabalarning fan bo’yicha qiziqishlarini tizimli tahlil qilish;

- talabalarning o’z-o’zini o’qitishini rag’batlantirish, ularning kelajakda kasbiy faoliyati bilan bog’liq hamma narsaga kognitiv qiziqishini tashkil qilish.

Motivasiyadan tashqari bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorligi uning kasbiy va moddiy harakatlari hamda oliy ta’limdan keyingi faoliyati bilan tavsiflanadi.

Oliy pedagogika ta’lim muassasalari talabalari, ya’ni bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy qiziqishini tashkil etish va kasbiy faoliyatga tayyorlashda art-pedagogikadan foydalanish dissertatsiya ishimizning asosi sanaladi. Art-pedagogikaning bo’lajak o’qituvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda bu orqali ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash metod hamda texnologiyalarini ishlab chiqish zarurdir.

“San’at bilan tarbiya berish” g’oyasi asoschisi bo’lgan G.Rid («EducationthroughArt») tadqiqotlarida ushbu atamaning ma’nosiga alohida urg’u beriladi. Tadqiqotchi o’z qarashlarida “art” va “pedagogika” tushunchalarini bog’laydi va “ta’lim jarayoni”dan kattalar san’at maydonida bolaning tirik konstruktiv birlashuvi umumiy mazmuniga ongli ravishda o’tishini belgilaydi. Ushbu ta’rif “tarbiya tushunchasida majburlashlardan qochishni va san’atda tarbiya emas yoki tarbiyada san’atning o’rni emas, balki san’at orqali insonparvarlik tarbiyasi” ma’nosini beradi. G.Rid “san’at – tarbiyaning umumiy faoliyati sifatida ilgari surilgan yagona yo’li”, deya tasvirlagan.

So’nggi yillarda art-pedagogika atamasi Rossiya pedagogika va psixologiyasining eng faol tushunchasiga aylanib qolgan. Biroq, O’zbekistonda ushbu tushuncha deyarli tadqiq etilmagan yangi soha sifatida bugungi kunda ayrim manbalarda uchrayotganini ko’rishimiz mumkin. Shunday ekan, art-pedagogikaning pedagogik-psixologik tomonlarini va uni bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash asosi sifatida ayrim manbalarni tahlil qildik.

Ye.V.Taranov art-pedagogika tushunchasini zamonaviy yondashuvlar bo’yicha milliy nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida bir qancha fundamental yondashuvlarini aniqlagan. Bular: **korreksion-pedagogik, badiiy-didaktik, tor pragmatik hamda integrativ yondashuv.**

Ushbu yondashuvlarni quyida tahlilini berib o’tamiz.

Korreksion-pedagogik yondashuv. Ko’pincha art-pedagogika korreksion (tuzatish) ish sifatida qaraladi. Art-pedagogikani predmeti – rivojlanishida muammosi bor bolalarga san’at yordamida pedagogik ta’sir etish sanaladi.

Art-pedagogikaning ushbu yo’nalishi fan sifatida Rossiyalik olimlar Ye.A.Medvedeva, I.Yu.Levchenko va b.lar tomonidan “Maxsus ta’limda art-pedagogika va art-terapiya” tadqiqot ishi sifatida o’rganilgan bo’lib, unda “Art-pedagogika – ikki ilmiy bilim (san’at va pedagogika) sintezi sanalib, rivojlanishida nuqsoni bor bo’lgan bolalarni san’at orqali rivojlantirish hamda badiiy madaniyat ko’nikmalarini tarkib toptirish”, deyiladi.

Badiiy-didaktik yondashuv. Maxsus tashkil etilgan san’at ta’limi jarayonida art-pedagogika ostida turli xil metod va texnologiyalar tushuniladi. Bu yondashuv ingliz tilidagi «art-pedagogy» (art-pedagog) terminidan so’zma-so’z tarjima qilingan. Ushbu yondashuvga muvofiq badiiy-pedagogik ta’lim olgan barcha mutaxassislar art-pedagog sanaladi. Masalan, tasviriy san’at o’qituvchisi. Demak, art-pedagogika – bu turli xil toifadagi insonlarga mutaxassisning badiiy bilim va ko’nikma beruvchi kasbiy faoliyati sanaladi. Art-pedagogikaning bunday talqin etilishi xorijiy tadqiqot ishlardan art-terapiya tarjimasidan kelib chiqqan. Masalan, L.D.Lebedevaning yozishicha, “art-pedagog bolalarni badiiy tarbiyalash va tasviriy san’at masalalarini hal qiladi”.

Tor pragmatik yondashuv. Ushbu yondashuv doirasida art-pedagogika faqat amaliy ma’noda qaraladi. Ya’ni, bolalarni odatiy ishlashga yo’naltirilgan muayyan yo’nalish bilan bog’liq muammolarni hal qiluvchi tadqiq etilgan metodologiya sanaladi. Bu yondashuv V.Linkova tomonidan tavsif etilgan bo’lib, olima “Artpedagogika” nomli kitoblar turkumini yaratgan. Ularni savodxonlik samaradorligini oshirish maqsadida san’atni qo’llash birlashtiradi. Ushbu yondashuvlar art-pedagogikaning to’g’ri tushunchalarini, ya’ni ba’zi funksiyalarini subyektiv tanlashni ta’minlaydi.

Integrativ yondashuv. Bu yondashuv tanlov qoidalar (“yoki-yoki”)ga emas, balki integrativ qoidalar (“va-va”)ga asoslanadi. Integrativ yondashuvning mohiyati shundaki, art-pedagogikaning multimodal shakliga ko’ra uning barcha majmua funksiyalari faollashadi.

“Art-pedagogika – bu san’atning har xil turlarini shaxs tarbiyasiga integrasiyalashgan holda qo’llashga asoslangan pedagogik texnologiya”. Ushbu yondashuv zamonaviy san’atning barcha imkoniyatlaridan foydalanadi va uni pedagogik jihatdan keng amalga oshishiga imkon yaratadi.

An’anaga ko’ra, san’at – bu ijtimoiy ong shakllaridan biri sanalib, dunyoni o’ziga xos ma’naviy egallash turi hamda voqyelikni badiiy va xayoliy qayta ishlab chiqarish usuli hisoblanadi. San’atning psixologik va pedagogik jarayonlarga ta’siri mexanizmlarini ko’plab xorijlik (J.Demor, O.Dskroli, E.Seguin) va Rossiyalik (L.S.Vigotskiy, A.I.Graborov, V.P.Kashchenko va boshqalar) olimlar tomonidan tadqiq etilib, “San’at – shaxsning axloqiga, shuningdek, tafakkur, tasavvur, his-tuyg’ulari va hissiyotlarining shakllanishiga ta’sir etuvchi muhim ta’lim vositasi”, ekanligi e’tirof etiladi. P.P.Blonskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy va boshqa olimlar tomonidan esa, “San’at – bu insonni tarbiyalash, rivojlantirish va o’qitishda samarali omil”, deya ta’rif beriladi.

San’at odamlarni pragmatik maqsadlar chegarasidan tashqariga olib chiqib, insoniyatni hayotga qaytarish, borliqni eng yuksak qadriyatlari orqali haqiqatni o’zlashtirishiga yordam beradi. Shunday qilib, V.A.Suxomlinskiy “O’g’ilga maktublar” da shunday yozadi: “Gimnastika tanani to’g’rilaganidek, san’at ham inson ruhini “to’g’rilaydi”. V. A. Suxomlinskiy “Tarbiya to’g’risida”gi kitobida “... har xil yo’llar bilan ruhning sezgirligini rivojlantirish, vijdonni uyg’otish, ma’naviyatni qo’llab-quvvatlash kerak", deydi. “Bunday tarbiya vositalari orasida, birinchi navbatda, go’zallik bilan tarbiya berish birinchi o’rinda turadi. Aynan, go’zallikka murojaat qilish, qalbni zabt etish, go’zallikni his qilish, odamning his-tuyg’ularini shu qadar yaxshiyladiki, u so’zni qabul qila boshlaydi, demak u tarbiyali bo’la boshlaydi”.

T.A.Florenskayaning ta’kidlashicha, san’at bilan muloqot nafaqat odamlar bilan aloqa chegaralarini kengaytiradi, balki, dunyoni har xil ko’zlar bilan ko’rish imkonini beradi hamda qiyin hayotiy vaziyatlarda ma’naviy yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, badiiy idrok va ijodkorlik orqali erishiladigan va odamni tajribalar, salbiy his-tuyg’ular, o’z munosabatini yorituvchi va yuksaltirishdan ozod qiladigan katarsis alohida o’rin tutadi.

San’atning shaxsga ta’siri asosan uch darajada amalga oshiriladi:

- **birinchi daraja,** tananing fiziologik va biologik o’zgarishi orqali sodir bo’ladigan psixofiziologik, vizual (ko’rgazmali), audial (eshitish) va boshqa reseptorlarning faollashishi, ya’ni psixofiziologik ta’sir hisoblanadi (B.G. Ananyev, V.A. Ganzen, A.L. Gotsdiner, V.N. Myasiщyev, V.I. Petrushin, D. N. Uznadze va b.);
- **ikkinchi daraja,** san’atning hissiy – irodaviy tuzilmasiga ta’sir etish bilan bog’liq bo’lgan psixologik, ya’ni, tanani ruhiy bo’sh qo’yish yoki aksincha ruhiy faollashtirishga qulay yengillik sanaladi (A.V.Zaporojes, A.N.Leontyev, P.M.Yakobson va b.);
- **uchinchi daraja,** ijtimoiy – psixologik, bunda san’at shaxsga ta’sir etib, unda katartik reaksiyaga sabab bo’ladi, o’z navbatida shaxsni o’zgartiradi va uyg’unlashtiradi, ekzistensial shaxs tuzilmalarini shakllantiradi (L.V.Vigotskiy, T.A.Florenskaya va boshqalar).

San’atning o’quvchilarga tarbiyaviy ta’siri ijtimoiy – psixologik darajada amalga oshiriladi.

Ko’pincha “art-pedagogika” tushunchasi “art-terapiya” atamasi bilan birgalikda ishlatiladi. Biroq, “art-pedagogika” tushunchasini “art-terapiya” tushunchasi bilan solishtirganda shuni e’tirof etish mumkinki, “art-pedagogika” atamasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Bu ikki tushuncha bir-biriga bog’liq tushunchalar bo’lsada, biroq ular sinonim emas. L.D.Lebedevaning fikricha, “art-terapiya atamasini art-pedagogika bilan almashtirganda, asl tushunchaning mohiyati yo’qoladi”.

J.S.Valeyeva, L.D.Lebedeva, I.Yu.Levchenko, Ye.A.Medvedeva, S.V.Starikovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda “art-pedagogika” va “art-terapiya” tushunchalari qiyosiy tahlil qilingan bo’lib, ushbu tushunchalar bo’yicha quyidagi xulosa berilgan: “art-pedagogika” va “art-terapiya” tushunchalarining semantik va amaliy mazmunida umumiylik va xususiylik mavjud bo’ladi. Bunda insonlarning badiiy – ijodiy faoliyati umumiy, san’atga bo’lgan munosabatidagi “erkinlik”, ishlatiladigan asboblari va san’at turlarining shaxsga ijobiy ta’siri xususiy sanaladi.

Ye.A.Medvedeva “art-terapiya” va “art-pedagogika” tushunchalarini o’zaro solishtirib, quyidagilarni ta’kidlagan: “bu atamalarning o’xshashligi shundaki, tushunchalarning birinchi qismi –“art” – “badiiy” so’zi san’at bilan sinonim sanaladi. Ikkinchi qismida esa: terapiya – davolash ta’siri, tibbiy yo’nalish; pedagogika – ta’lim, tarbiya, rivojlanish haqidagi fan”.

Art-pedagogika inson “muammolari” bilan emas, balki uning imkoniyatlari bilan shug’ullanadi. Bunda birinchi navbatda insonning ijobiy imkoniyatlari doirasini kengaytirish turadi.

Ko’rib chiqilayotgan muammo doirasida art-pedagogika bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning o’ziga xos xususiyatlarini shakllantirishi bo’yicha quyidagilarni keltirish mumkin:

- ta’lim – tarbiya jarayonida tasviriy san’at vositalaridan foydalanish;
- ta’lim jarayonida o’qituvchi va talaba o’rtasidagi muloqotning yuqoriligi;
- o’qituvchi va talaba hamkorligida badiiy ijodiyot, auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtlardagi turli xil bir-biriga bog’liq mashg’ulotlar tashkil etish;
- turli mavzularni o’rganish va o’zlashtirishda san’at asarlaridan foydalanish;
- bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy tayyorlash muhitini va ijodiy faoliyatini tashkil etish.

Bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda art-pedagogikaning maxsus maqsadi: talabaning ma’naviy va axloqiy madaniyatini rivojlantirish jarayonida axloqi va estetikasini shakllantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlash.

Axloqiy va estetik immunitetni bo’lajak o’qituvchilarda shakllantirish oliy ta’lim muassasasi o’quv-tarbiyaviy jarayonining muhim vaziflaridan sanalar ekan, bu tushunchalarga olimlar tomonidan berilgan ta’riflar bilan izoh berib o’tamiz.

Axloqiy immunitet – bu mikro va makro muhitda axloqsiz hodisalarga qarshilik ko’rsatuvchi shaxsiy sifat sanalib, uning jamiyatda tez o’zgarib borayotgan ijtimoiy vaziyatlarga bo’lgan munosabatining yetarliligi hamda ma’naviy manbalarni salbiy axloqiy yo’nalishga olib boradigan moddiy va dunyoviy vasvasalarni yengishga safarbar etishdir, deydi A.S.Metelyagin.

Shuni aytish muhimki, bo’lajak o’qituvchilarni art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashimizda ularda axloqiy immunitetni hosil qilish birinchi vazifalardan sanaladi. Ya’ni, salbiy holatlarga va muammolarga axloqan yondashib, san’at orqali go’zallikni his qilib, turli vaziyatlarga ijodiy yondashib o’z “men”ini shakllantirishi juda muhimdir.

Estetik immunitet – bu shaxsning ma’naviy shakllanishining o’ziga xos xususiyati bo’lib, bunda go’zallikdan go’zallikni ajrata olish, san’atda uyg’unlikni uyg’unsizlikdan, tartibdan betartibliklarni farqlashi kabi qobiliyatining hamda insonning hulqida, xatti-harakatida, ijodida; ommaviy ta’sirga va madaniyatsizliklarga chidamli bo’lishi tushuniladi.

Bo’lajak o’qituvchilarda estetik immunitetning shakllanishi juda muhim sanaladi. Talabalarda estetik immunitetning shakllanishi kelgusida kasbiy-tarbiyaviy faoliyatida: tadbir, bayram kechalarini tashkil etishi; o’quvchi va ularning ota-onalari bilan muloqoti, pedagog imidjini yaratishi va boshqalarda eng muhim qurol bo’ladi.

Art-pedagogikaning asosiy tamoyillariga **insonparvarlik, ijodkorlik, integrativlik va refleksivlik** kiradi.

Insonparvarlik g’oyasi art-pedagogikada asosiy tamoyil sanalib, har bir talabaga badiiy, intellektual va boshqa qobiliyatlaridan tashqari alohida munosabatda bo’lish pedagog faoliyatining bosh g’oyasi sanaladi. Talabaning alohida qobiliyat egasi ekanligiga ishonish pedagog

munosabatida namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy maqsadlarga ustuvorlik beriladi: o'quv jarayoni yaxshilik va yomonlik, mehr-muhabbat, go'zallik va uyg'unlik kabi muammolarga boy bo'ladi.

Erkin ijodiy muhitda ijodiy jarayonni tashkil etish orqali shaxsiy ijodkorlik yaratiladi. Ijodkorlik qobiliyati majburlash orqali yuzaga chiqmaydi. Shu sababli, artpedagogdan qanday qilib qulay ijodiy muhit va shart-sharoitni yaratish masalasi turadi.

Refleksivlik g'oyasi – bu insonning muammoli – ziddiyatli vaziyatlarni ijodiy anglashi va yengib o'tishiga tayyorligi hamda g'ayrioddiy amaliy vazifalarni belgilashi va hal qilishi, shuningdek, insonlar o'rtasidagi g'ayrioddiy munosabatlarga moslashishi tushuniladi.

Integrativlik g'oyasida art-pedagogikaning mazmun mohiyati aks etadi. Avvalo, bunda pedagogika, psixologiya, san'at va inson tafakkurining boshqa sohalari integrasiyasi namoyon bo'ladi. Talabaning axloqiy va estetik qiyofasini boyitishga qaratilgan turli xil badiiy faoliyat turlari va shakllarining uyg'unlashuvi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Bulatova O.S. Art-pedagogicheskiy podxod v obrazovanii / O. S. Bulatova. - Tyumen : Izd-vo TGU, 2004. - 230 s.

2.Anisimov V. P. Artpedagogika kak sistema psixologicheskogo soprovoj¬deniya obrazovatelnogo protsessa / V. P. Anisimov // Vestnik Orenburg skogo gosudarstvennogo universiteta. — 2003. - № 4. - S. 146- 148.

3.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. – 180 b.

4.Yo'ldoshev J.F., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo'llanma. —T.: ''O'qituvchi'', 2004.

104 6.

5. Mahkamova M.Yu. Bo'lajak pedagoglarning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish: ped. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T., 1999. 22 b.

6. Медведева Е.А., Левченко И.Ю., Комиссарова Л.Н., Добровольская Т.А. Артпедагогика и арттерапия в специальном образовании / М.: Изд.Центр «Академия», 2001. -248 с., С. 24.

7.Волгина Т.Ю. Адаптация студентов к обучению в педагогическом вузе: трудности, проблемы, пути их решения [Электронный ресурс] / Т. Ю. Волгина // Вестник Омского государственного педагогического университета: электронный научный журнал. — 2007. — Режим доступа: http://www.omsk.edu.

BOLALARDA KITOBXONLIK ORQALI MA'NAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH

G.Sh Rahmatullayeva
Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi
Ilmiy rahbar- M.N.Babakulova

Annotatsiya. Ushbu maqolada kitobxonlik orqali bolalardagi ma'naviy sifatlarni shakillantirishda oila va maktabning roli, kitobxonlik orqali bolalarning komil inson bòlishing bosqichlari, ma'naviy rivojlanish.

Kalit sòzlar. Ma'naviy sifatlar, kitobxonlik, ma'naviy olam, oilada kitobxonlik, ma'naviyatini shakllantirish, kitobga muhabbat.

Bugungi kunda jamiyatning ma'naviy rivojlanishida yoshlarning tarbiyasi muhim òrin tutadi. Bolaning yutuk va barkamol avlod bòlib voyaga yetishida uning dunyoqarashi ,tafakkuri, axloqiy sifatlari va ma'naviy tarbiyasi muhum hisoblanadi. Biz bilamizki, ma'naviy tarbiyasiz inson shaxs sifatida tabiyalana olmaydi .

Bolalarga ma'naviy tarbiya berish orqali komil inson shaxsini gavdalantirish ,albatta, kitobga murojatsiz yuzaga kelmaydi. Eng birinchi navbatda, bolaning ma'naviy olami oila va maktabda shakllanadi. Birinchi Prizedintimiz Islom Karimov fikrlari bilan aytganda "Har qaysi millatning o ‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o ‘rni va ta’siri beqiyosdir.Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi." Oilada kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yosh avlodning ma'naviy -axloqiy tarbiyasi sifatlarini vujudga keltiradi. Ma'lumki , bola ona allasi, bobo va buvi ertak ,hikoya va rivoyatlari , ota mardligi ,oilaparvarligini ko'rib ulg'ayadi. Kichik maktab yoshida o'zi ilk bor mutolaa qila boshlaydi. Ota- onalar va pedagoglar bolalarga bolalik davridan boshlab kitobga muhabbatni shakllantirishi lozim. Bolalar qissalar, hikoyalar, ertaklar ,dostonlar orqali yaxshilik va yomonlikni farqlashini o'rganadi.Bolalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishimiz quydagi ma'naviy sifatlarni shaklantiradi:Halollik, sadoqat, mehribonlik, adolat, insof, vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, kattalarga hurmat kabilardir.

Hammamizga ma’lumki, XXI asr axborot texnologiyalar asridir. Texnika, elektronika va shunga o‘xshash murakkab texnologiyalarning yaratilishi inson va uning bevosita kundalik hayotidagi muammolarning ko‘payib borishi va millat genofondiga tajovuzi bilan xarakterlanadi. Tan olish kerakki, bu texnika va texnologiyalar inson hayotidagi murakkabliklarni ancha yengillashtirib, bebaho vaqtini tejashga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi jadallashish jarayoni, tezkorlik davri bir so‘z bilan aytganda globallashish insoniyatga, yoshlarning xulq-atvoriga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qo‘ymaydi.

Bu tajovuzlarning bir ko‘rinishi, bolalarimizning kitob mutolaasidan yiroqlashishidir.

Bugungi texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan davrda bolalarni elektron qurulmalardan uzoqlashtirib, kitobxolik madaniyatini shakllantirish har birimizning vazfamiz hissoblanadi..Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni qayd etib o‘tadi: “...Bugungi kunda bolalarimizni kitobxonlikka jalb etish bo‘yicha ishlamay qo‘ygan tizimni qayta tiklashimiz kerak. Axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni e’tiborga olgan holda, biz yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, ularda kitob o‘qish orqali bilim olish, ahloqiy fazilatlar darajasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim”, - deya alohida ta’kidlaydi[1].

Bolaga biz ko'zgu bòlmog'imiz ,kitobxonlikni òzimizdan boshlamog'imiz lozim .Bolalarda "kitobxonlik madaniyati" ni shakllantirish uchun qanday ishlarni amalga oshirishimiz kerak

1. Shaxsiy namuna bo'lish.
2. Kitob òqish vaqti va izchilligini belgilashi.
3. Kichik kutubxona tashkil etishni òrgatish.
4. Kitobni saqlash qoidalari òrgatilishi zarurdir.

Kitob - bizning bugunimiz va ertamiz . Kitoblardagi tarixni bilmasdan turib kelajakni qurib bòlmaydi. Avloddan -avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy -axloqiy qadiryatlarni kitob mutolaa qilish orqaligina yoshlarning ongu shuuruga singdirilishi zaruratdir .

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, Yangi O‘zbekiston kelajagi sohibi bo‘ladigan bugungi kun bolalarining tafakkurini yuksaltirishi uchun xizmat qiladigan va mustaqil fikr-mulohaza yuritishda eng asosiy omil hisoblanadigan kitobning intellektual faoliyatidagi rolini yuksaltirishimiz zarur.

Zero, birinchi navbatda biz yoshlar ham o‘z tengdoshlarimizning hayotda o‘z o‘rnini topishi, kelajakka bo‘lgan intilishining yo‘qolmasligi, oldiga qo‘ygan maksadga erishishda to‘g‘ri yo‘l tanlashlari, ma’naviy sifatlarini shakllantirilishi uchun ularga kitob o‘qish zarurligini singdirish muhim va dolzarb vazifadir.

Shunday ekan eng yaxshi do'st, hamroh kitobligini unutmang!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O’zbekiston -Yangu imkoniyatlar davri .-Toshkent:O’zbekiston,-2021y

[1] Mirziyoyev SH.M. Yangi O’zbekiston -Yangu imkoniyatlar davri .-Toshkent:O’zbekiston,-2021

2.D.A.Muminova Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi. Monografiya Namangan-2019 y
3. S.H.Nosirxo'jayev ,M.F.Lafasov,M.Z.Zaripov Ma'naviyat asoslari Toshkent 2005

INKLUZIV TA'LIM TIZIMIDA MAXSUS MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGIKASINING O'RNI VA AHAMIYATI

Raximova Feruza Shavkatovna
Samarqand pedagogika texnikumi
E-mail: raximovaferuza@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim tizimida maxsus maktabgacha ta'limning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida nogironligi bor bolalar uchun ta'lim muhitini shakllantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik metodlar va inklyuziv yondashuvning samaradorligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, maxsus pedagogika, maktabgacha ta'lim, nogironligi bor bolalar, ta'lim muhitini moslashtirish, pedagogik metodlar.

Kirish

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim butun dunyoda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim tizimi barcha bolalarning, jumladan, nogironligi bor bolalarning ham sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab taxminan 93 million bola (taxminan 5 foiz) nogironlik bilan tug'iladi yoki hayoti davomida nogironlikka ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta'limga katta e'tibor qaratilib, maktabgacha ta'lim bosqichida nogironligi bor bolalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish muhim vazifa sifatida belgilangan. 2019-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 35 mingdan ortiq nogironligi bor bola mavjud bo'lib, ulardan faqat 10-12 foizi maxsus maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan [1].

Inklyuziv ta'lim tizimi barcha bolalarning, jumladan, nogironligi bor bolalarning ham sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta'limga katta e'tibor qaratilib, maktabgacha ta'lim bosqichida nogironligi bor bolalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish muhim vazifa sifatida belgilangan. Har xil kelib chiqishi va qobiliyatiga ega bo'lgan bolalar birgalikda o'rgansa, ular do'stlik rishtalarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlovchi munosabatlar o'rnatish va bir-birining tajribasidan o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'proq ijtimoiy birdamlikka va yanada uyg'un va inklyuziv jamiyatga olib kelishi mumkin [2].

Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi ta'limni boshlash imkoniyatiga ega bo'lgan barcha bolalar, shu jumladan alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni umumta'lim jarayoniga qamrab olishdir. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarga ta'lim olishni taqdim etishi bilan katta ahamiyatga ega. Bu ana shunday bolalarni uzluksiz umumiy ta'lim tizimiga kiritishni bildiradi. Inklyuziv ta'lim tizimida maxsus maktabgacha ta'lim pedagogikasining o'rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'lim – bu barcha bolalarning teng ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan pedagogik tizimdir. U nogironligi bor bolalarni umumiy ta'lim muhitiga jalb qilish, ularga shaxsiy rivojlanish uchun qulay sharoit yaratish, ijtimoiy integratsiyani ta'minlash kabi maqsadlarni o'z ichiga oladi. Inklyuziv ta'lim tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- **Barqarorlik va tenglik** – barcha bolalar uchun ta'lim olish imkoniyati yaratilishi kerak;
- **Moslashtirish** – ta'lim jarayoni har bir bolaning individual ehtiyojlariga mos ravishda shakllantirilishi lozim;
- **Qo'llab-quvvatlash** – bolalar o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishlari uchun maxsus pedagogik yondashuvlar tatbiq etilishi kerak.

Inklyuziv ta'lim bu maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashgan va sharoitga qarab o'zgaruvchan, g'amxo'rlik bilan yondasha oladigan ta'lim tizimidir. Ushbu ishlar oddiy, me'yorda rivojlangan bolalar o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. Buni amalga oshirish

uchun har bir bolaga indi vidual yondashish, nuqsonidan kelib chiqqan holda ma’lum, u uchun qulay sharoit yaratish, kerak bo‘lsa, dastur va rejani qisman o‘zgartirish lozim. Maxsus tarbiyaga muhtoj bola uyiga yaqin, o‘ziga qulay ommaviy bog‘cha yoki maktabga qatnaydi. U yerda asosiy ishni tarbiyachi yoki sinf rahbari amalga oshiradi. Har bir maktabgacha tarbiya muassasasida yoki maktabda maxsus tayyorlangan resurs tarbiyachi bo‘lib, u guruh tarbiyachisiga maslahatlar beradi va ko‘maklashadi: maxsus o‘qitish uskunalari, jihozlari bilan ta’minlaydi; ota-onalar, o‘qituvchilar bilan tushuntirish ishlari o‘tkazadi: dars jadvali, dasturga, kerak bo‘lsa, o‘zgartirishlar kiritadi, ularni asoslab beradi; o‘qituvchilarning malakasini oshiradi, bilim mahoratini boyitadi; sog‘liqni saqlash xizmatlarini tashkil etadi, qulay psixologik muhitni yaratadi. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolani oddiy bog‘cha yoki maktabga joylashtirish integrasiya yo‘lidagi birinchi qadamdir. Ta’lim integrasiyasining turli shakllari va darajalari mavjud. Jismoniy integrasiyada maxsus tarbiyaga muhtoj va sog‘lom bola orasidagi jismoniy tafovut iloji boricha kamaytirilishi lozim. O‘qituvchilar ham inklyuziv sinf madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar o‘zlarini qadrli, hurmatli va erkin his qiladigan muhitni yaratish uchun mas’uldirlar. Bu hamkorlikni, tengdoshlarning qo‘llab-quvvatlash va o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni rivojlantirishni, noto‘g‘ri fikrlash, kamsitish yoki zo‘ravonlik holatlarini hal qilishni o‘z ichiga oladi [3].

Maxsus maktabgacha ta’limning inklyuziv ta’limdagi o‘rni

Maktabgacha ta’lim bosqichi bolaning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun bu bosqich ularning keyingi ta’lim jarayoniga tayyorgarlik ko‘rishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyat olib boriladi:

1. **Pedagogik moslashtirish** – darslar bolaning qobiliyat va ehtiyojlariga moslashtirilgan holda olib boriladi.
2. **Logopedik va psixologik qo‘llab-quvvatlash** – nutq buzilishlari yoki psixologik qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar bilan individual mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.
3. **Maxsus o‘quv dasturlari** – nogironligi bor bolalar uchun maxsus metodikalar asosida ta’lim berish tizimi joriy etiladi.
4. **Ijtimoiy integratsiya** – bolalarning tengdoshlari bilan muloqot qilishiga sharoit yaratiladi.

Maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv yondashuvning samaradorligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- **Bola rivojlanishining yaxshilanishi** – individual yondashuv orqali bolalarning intellektual va ijtimoiy ko‘nikmalari oshadi;
- **Ota-onalar bilan hamkorlik** – farzandining ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi ota-onalarni ham pedagogik jarayonga jalb etadi;
- **Jamiyatga moslashish** – nogironligi bor bolalar umumiy ta’lim tizimiga moslashib, keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatli o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Dunyo tajribasida inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha turli model va strategiyalar mavjud. **Finlandiya** davlatida ta’limning barcha bosqichlari inklyuziv tamoyillarga asoslangan. Nogironligi bor bolalar umumiy sinflarga integratsiyalangan holda o‘qitiladi va individual yondashuv orqali qo‘llab-quvvatlanadi. **Germaniya**da maxsus maktablar saqlab qolingan bo‘lsa-da, nogironligi bor bolalar umumiy ta’lim muassasalarida ham o‘qishi mumkin. Maxsus yordamchi o‘qituvchilar va qo‘shimcha reabilitatsiya dasturlari tatbiq etilgan. **AQSh**da individual Ta’lim Rejasi (IEP) tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, har bir bolaning ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’lim dasturlari ishlab chiqiladi. **Rossiyada** maxsus ta’lim muassasalari bilan bir qatorda inklyuziv maktablar ham faoliyat yuritadi. Bolalar uchun maxsus adaptiv ta’lim metodlari ishlab chiqilgan [4].

O‘zbekistonda Maktabgacha ta’lim agentligi tomonidan maxsus bog‘chalar faoliyati nazorat qilinadi. Shuningdek, inkluziv ta’lim yanada rivojlantirilmoqda, bu esa maxsus ehtiyojli bolalarning oddiy bog‘chalarda ham tarbiya olishiga imkon yaratadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston

tajribasida maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarida logopedik va psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan. 2019-yildan boshlab, inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqilgan lekin hali ham inklyuziv ta’limga moslashtirilgan umumiy maktabgacha ta’lim muassasalarining yetarli darajada emasligi kuzatilmoqda. Pedagoglarni maxsus tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi takomillashtirilmoqda[5].

Xulosa

Maxsus maktabgacha ta’lim inklyuziv ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, nogironligi bor bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. To‘g‘ri tashkil etilgan maxsus pedagogik yondashuvlar orqali bolalar o‘z salohiyatini to‘liq namoyon eta oladilar. Ta’lim tizimi o‘quvchilarning intellektini shakllantirish va rivojlantirish kabi vazifalarni ham bajarishga qodir bo‘lishi muhim. Ma’lum bir shaxs intellektual fikrlash salohiyatiga ega bo‘lishi uchun ijtimoiylashuv bosqichidan o‘tishi, ya’ni u yoshlikdan ijtimoiy munosabatlar tizimida faol ishtirok etishi kerak [6]. O‘zbekistonda ham inklyuziv ta’lim rivojlanib, maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ushbu jarayonda pedagoglar, ota-onalar va jamiyatning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajribalarni o‘rganish va ulardan samarali foydalanish orqali inklyuziv ta’limni yanada rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha ta’lim agentligi (2019). "O‘zbekistonda maxsus ehtiyojli bolalar uchun maktabgacha ta’lim statistikasi.
2. Mansurovna, A. M. (2023). Inklyuziv maktabgacha ta’lim: zamonaviy rivojlanish jarayonlari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 439-440.
3. Kobilova, S. X., Matanova, D. M., Dehqonboyeva, Z. D., & Abdushukurova, F. A. (2023). Inklyuziv ta’lim va diskriminatsion omillar. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 14, 280-283.
4. UNESCO. (2021). "Inclusive education for children with disabilities: Global Report."
5. UNICEF O‘zbekiston vakolatxonasi. (2020). "O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar."
6. M.S. Abbasova “Jamiyat ijtimoiy muhitini yangilashga sog‘lom ma’naviy raqobatning ta’siri”. Monografiya , Samarqand –2023.-87 b.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR MEDIA KOMPITENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.

Quchqorova Nargiza Mamajonovna
Oriental universiteti
Muhamedova Nodirabegim Ravshanbek qizi, magistr

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning media kompetentligini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar yoritilib, media vositalaridan samarali foydalanish, axborotni tahlil qilish va tanqidiy fikrlash orqali kasbiy tayyorgarlikni oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish va uning pedagogik ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Ommaviy axborot vositalari, media savodxonlik, ijtimoiy tarmoqlar, axborot texnologiyalari, globallashuv, sun’iy yo‘ldoshlar, internet resurslari, pedagog malakasi, axborot agentliklari, instagram.

Annotation: This article discusses methodological approaches aimed at developing media competence in future teachers, focusing on improving professional preparation through the effective use of media tools, information analysis, and critical thinking. It also justifies the integration of information technologies into the educational process and highlights their pedagogical significance.

Keywords: Mass media, media literacy, social networks, information technologies, globalization, satellites, internet resources, pedagogical qualifications, news agencies, Instagram.

O‘qituvchilarning media kompitentligini rivojlantirish hozirgi davrning eng muhim masalalaridan biridir. Elektron aloqa vositalari, internet, sun’iy yo‘ldoshlar aynan ommaviy axborot vositalarining jadal sur’atlarda rivojlanishi pedagog xodimlarning tinmay o‘z ustida ishlashini talab qilmoqda. Globallashuv jarayonida gazetalar, jurnallar, radio, televideniye, fotografiya, hujjatli va badiiy kino, axborot agentliklari, internet, global tarmoqdagi axborot resurslarining son jihatdan beqiyos o‘sishi, sifat jihatdan sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa media qurilmalariga insonlarni jalb qilayotgan facebook, twitter, tik-tok, instagram kabi ijtimoiy tarmoqlar ommaviy axborot vositalari rivojiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Media - bu yangi ta’lim madaniyatiga kirishga imkoniyat , shuningdek muhim zaruratdir. Mutaxassislarning ko‘pchiligi o‘z ustida ishlashning yuqori sifatiga yangi ommaviy axborot vositalarini darslarda qo‘llash orqali erishish mumkin. O‘quv vositalarining o‘zgaruvchan xilma-xilligi mediani ta’limning didaktik usullari bilan integratsiyasini ta’minlash, bu bilan o‘quv jarayonlarining samarali shakllanishiga erishish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

A.V. Federov tadqiqotida “O‘quvchilarni va keng jamoatchilikni ommaviy axborot vositalarini tahlil qilish, tushunish va yaratish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan ta’minlash jarayoni haqida gapirib - bu, ommaviy axborot vositalarini o‘rganishning o‘qitishdan farqli ravishda, texnologiya va madaniyatni chuqur tushunishni ta’minlashga yordam berishini.”[1]- ta’kidlaydi.

Media ta’lim- mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarish.

Media ta’limdan ko‘zlangan asosiy maqsad media savodxonlikni shakllantirishdir. Boisi savodxonlikning aynan shu turi insonga axborot maydonida televideniye, radio, video, kinematograf, matbuot, internet, media-madaniyatning tilini tushunishga axborotlarni tahlil etish yo‘li bilan qabul etishga, axborotlardan faol foydalanishga yordam beradi. Media savodxon odam sotsiomadaniy, siyosiy konteksdagi medianing faoliyatini tahlil etish, baho berish qobiliyatga ega bo‘ladi.

Media kompitentlik- insonning turli shakllarda media matnlarini tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatishga tayyorligida namoyon bo‘ladigan integral sifati, turlari, shakllari va janrlari, jamiyatdagi ommaviy axborot vositalari faoliyatining murakkab jarayonlarini tahlil qilish.

Media kompitentlik “OAVga nisbatan malakali, mustaqil, ijodiy va ijtimoiy mas’uliyatli harakat qilish” qobiliyatini anglatadi. Yana bir tadqiqotda mediakompitentlikning shakllanishiga asos bo‘ladigan 5 ta ko‘nikmalar bloki, jumladan, ommaviy axborot vositalari taqdim etayotgan narsalarni tanlash va undan foydalanish; o‘z media-mahsulotini ishlab chiqish va h.k. Shaxsning integral sifati sifatida media kompitentligi quyidagi ko‘rsatkichlar orqali namoyon bo‘ladi:

- motivatsion (OAV va OAV matnlari bilan aloqa qilish motivlari);
- kontakt (chastotali media matnlari bilan aloqa);
- axborot (media madaniyati, ommaviy kommunikatsiyalar nazariyasini bilish);
- pertseptiv (media matnlarini idrok etish qobiliyati);
- sharhlovchi/baholovchi (jamiyatdagi ommaviy axborot vositalari faoliyati jarayonini va media matnlarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyati);
- amaliy va operatsion – ommaviy axborot vositalari va media matnlarni tanlash, o‘z media matnlarini yaratish / tarqatish qobiliyati);
- ijodiy – ommaviy axborot vositalarining faoliyati bilan bog‘liq ijodkorlikning namoyon bo‘lishi.

O‘qituvchi media kompitentligi (educator’s mediacompetence) – matbuot vakolatlari, uning sabablari, bilim, ko‘nikma va malakalariga (ko‘rsatkichlari: motivatsion, axborot, amaliy-tezkor, uslubiy faoliyati, ijodiy) ega bo‘lib, barcha yoshdagi ta’lim oluvchilarga mediata’lim bilimlarini targ‘ib qilish.

1

Федоров А.В. Медиаобразование и медиаграмотность. Таганрог: Изд-во Кучма, 2004. 11 с.

Media kompitentlik o‘qituvchilarning faoliyati davomida media makondan axborot va media matnlardan to‘g‘ri tanlay olishi va samarali foydalanishi muhim o‘rin tutadi. Media kompitentlikda media-ta’lim faqat faktik va yo‘naltirilgan bilimlarni o‘zlashtirish bilan chegaralanib qolmaydi – garchi bu yangi media hodisalarini tasniflash uchun ham muhim hisoblanadi.

Biz ommaviy axborot vositalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan texnologik asrda media savodxonligi bilan ommaviy axborot vositalari taqdim etishi mumkin bo‘lgan afzalliklarni va agar u noto‘g‘ri ishlatilsa paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni yaxshi bilishimiz kerak. O‘qituvchilar, avvalo, malakali media savodxonligi bo‘yicha ta’lim berish uchun media savodxonligi bo‘yicha ta’lim olishlari kerak. Bundan tashqari, yoshlarga beriladigan media savodxonligi bo‘yicha ta’lim boshlang‘ich maktab darajasidan boshlanishi va bolalarni jalb qiladigan kontent va interaktiv ilovalar ushbu treninglarga kiritilishi kerak.

Media kompetentlikni shakllantirish o‘qituvchilarga media vositalaridan samarali foydalanish, axborot tahlili va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularga ta'lim jarayonini yanada sifatli va samarali boshqarish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, bu yondashuv axborot texnologiyalarini ta'limga integratsiya qilish va pedagogik jarayonda innovatsion usullarni qo‘llashni ta'minlaydi, bu esa o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amirov D.M., Atadjanov A.YU., Atadjanov D.YU., Ibragimov D.A., Rahimjonov Z.YO., Saidxo‘jaev S.S. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. 2010.
2. Mamatova Ya., Sulaymanova S. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyot yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. Extremum-press, 2015-y
3. Федоров А.В. Медиаобразование и медиаграмотность. Таганрог: Изд-во Кучма, 2004. 340 с

ERTAKLAR VA SHE’RIYAT OLAMINING INKLYUZIV TA’LIMGA TA’SIRI

Namozova Munisa Rizaqul qizi
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi, talaba
jamilasayfiddinova2@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola inklyuziv ta’lim tizimida nutq o‘stirishda ertaklar va she’riy asarlarning ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda, ushbu asarlarning bolalar va o‘quvchilarning til rivojlanishidagi o‘rni, nutqni ravon ifodalash, lug‘at boyligini kengaytirish, va ijtimoiy-ko‘nikmalarni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Ertaklar va she’riyatning bolalar psixologiyasiga, ularning hissiy va intellektual rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida chuqur izlanishlar olib borilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ertaklar va she’riyat bolalar tilini o‘rgatishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi, chunki ular bolalarni nafaqat lingvistik jihatdan, balki ijtimoiy, hissiy va kognitiv jihatdan ham rivojlantiradi. Maqolada inklyuziv ta’limda bu asarlarning qo‘llanilishi, bolalarning o‘ziga xos ehtiyojlariga mos yondashuvlar asosida qanday samarali natijalarga erishish mumkinligi tahlil qilinadi. Tadqiqot, shuningdek, inklyuziv ta’lim muhitida o‘qituvchilarga metodik qo‘llanma yaratish zaruratini ham ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, nutq o‘stirish, ertak, she’riyat, til rivoji, bolalar ta’limi, nutqni ifodalash, hissiy rivojlanish.

Abstract: This scientific article focuses on the impact of fairy tales and poetry on speech development within the context of inclusive education. The research analyzes the role of these literary works in the development of children’s language skills, vocabulary expansion, expressive speech, and the formation of social competencies. It examines how fairy tales and poetry influence children’s psychological, emotional, and intellectual development. The findings indicate that fairy tales and poetry are effective tools in language education as they not only enhance linguistic skills

but also contribute to social, emotional, and cognitive growth. The paper emphasizes the importance of incorporating these literary forms in inclusive education, highlighting strategies for adapting them to meet individual children's needs. The study also suggests the creation of methodological guidelines for teachers to implement these forms effectively in inclusive educational settings.

Keywords: inclusive education, speech development, fairy tales, poetry, language development, children's education, expressive speech, emotional development.

Аннотация: Данная научная статья посвящена влиянию сказок и поэзии на развитие речи в контексте инклюзивного образования. В исследовании анализируется роль этих литературных произведений в развитии речевых навыков детей, расширении словарного запаса, выразительной речи и формировании социальных компетенций. Рассматривается, как сказки и поэзия влияют на психологическое, эмоциональное и интеллектуальное развитие детей. Результаты исследования показали, что сказки и поэзия являются эффективными инструментами в обучении языку, поскольку они не только развивают языковые навыки, но и способствуют социальному, эмоциональному и когнитивному росту. Статья подчеркивает важность включения этих литературных форм в инклюзивное образование и выделяет стратегии их адаптации в соответствии с индивидуальными потребностями детей. Исследование также предлагает создание методических рекомендаций для педагогов, чтобы эффективно использовать эти формы в инклюзивных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: инклюзивное образование, развитие речи, сказки, поэзия, развитие языка, детское образование, выразительная речь, эмоциональное развитие.

KIRISH: Inklyuziv ta'lim – bu barcha bolalar uchun teng va qulay ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan ta'lim yondashuvidir. Bunda bolalarning alohida ehtiyojlari va imkoniyatlari inobatga olinadi. Nutq o'stirish esa har bir bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishida muhim o'rin tutadi, chunki nutq bolalarning fikrlash, muloqot qilish, o'zini ifoda etish va jamiyatda faol ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayonda ertaklar va she'riy asarlarning o'ziga xos ta'siri mavjud.

Ertaklar va she'riyat bolalarni nafaqat tilni o'rganishga, balki ularning o'zini va boshqalarni tushunishiga, hissiy intellektini rivojlantirishga yordam beradi. Ertaklar o'quvchilarga o'z hayotida uchraydigan murakkab vaziyatlarni tushunishga va ularga qanday munosabatda bo'lish kerakligini o'rgatadi. She'riy asarlar esa bolalarni san'at va go'zallikni his qilishga, nutqning estetik tomonini qadrlashga o'rgatadi.

Ushbu maqola ertaklar va she'riyatning inklyuziv ta'limda nutq o'stirishga qanday ta'sir ko'rsatishini, bu asarlarning bolalarning til rivojlanishidagi ahamiyatini o'rganishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ertaklar va she'riyatning nutq o'stirishdagi o'rni haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Bu asarlarning bolalar ta'limidagi roli haqida bir nechta muhim nuqtalar qayd etiladi.

Ertaklar bolalarning til rivojlanishida o'ziga xos yondashuvni ta'minlaydi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ertaklar bolalar uchun yangi so'zlar va frazalarning, grammatik strukturalarning o'rgatilishi uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular tilni o'rganishda mavhum tushunchalar, abstrakt fikrlash va o'z fikrini izchil ifodalash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Ertaklarda ishlatiladigan o'ziga xos gaplar, so'z boyligi, mavzular bolalar nutqini kengaytiradi.

Shuningdek, ertaklar bolalar o'rtasida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi. Ertaklar yordamida bolalar o'zaro muloqot qilish, boshqalar bilan hamjihatlikda ishlash, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish kabi ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Ertaklarning bosh qahramonlari orqali bolalar muammolarni qanday hal qilish, yomon xulq-atvordan qanday saqlanish va yaxshi xulqni qadrlashni o'rganadilar.

She’riyat esa tilni ifodalashda yanada murakkab vosita bo‘lib, uning yordamida bolalar nutqni aniq va izchil tarzda ifodalashni o‘rganadilar. She’riyatdagi so‘zlarning ritmi, ohangi va tasviriy elementlari bolalarda tilni estetik tushunishga yordam beradi. She’riyat orqali bolalar rasmiy va noformal nutqni birlashtirishni, fikrlarni chuqurroq ifodalashni o‘rganadilar. She’riy asarlar bolalar uchun tasavvur va tasvirlarning yangi dunyosini yaratadi, ularni emotsional jihatdan o‘stiradi.

Bundan tashqari, she’riyat orqali bolalar nutqni tinglash va eslab qolish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. She’riy asarlarda ishlatiladigan ritmik va melodik tuzilmalar tilning talaffuz va aksentlashtirish jihatlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Mazkur tadqiqotda inklyuziv ta’limda nutq o‘stirishga ertaklar va she’riy asarlarning ta’sirini o‘rganish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanilgan. O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda chiqarilgan ilmiy maqolalar, kitoblar va tadqiqotlar asosida ertaklar va she’riyatning nutq o‘stirishga ta’siri haqida mavjud ilmiy nuqtai nazarlar tahlil qilindi. Bunda asosiy e’tibor bolalar ta’limi va inklyuziv ta’limga qaratilgan asarlarga qaratildi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida o‘qituvchilar va ta’lim metodistlari bilan intervyular o‘tkazildi. Bu intervyularda inklyuziv ta’limda ertaklar va she’riyatning qo‘llanilishi, bolalarning nutq rivojiga ta’siri va o‘qituvchilarning ushbu asarlarga bo‘lgan yondashuvlari o‘rganildi.

Tadqiqot doirasida bir guruh bolalar bilan eksperiment o‘tkazildi. Bu guruhga bir oy davomida ertaklar va she’riy asarlar muntazam ravishda o‘qitildi. Tadqiqot davomida, bolalar nutqi, o‘zlarini ifodalashdagi qiyinchiliklar, nutqning ravonligi va yangi so‘zlarni o‘rganishdagi yutuqlar tahlil qilindi.

NATIJALAR. Tadqiqot davomida olingan natijalar inklyuziv ta’limda ertaklar va she’riyatning bolalar nutqini rivojlantirishdagi ahamiyatini to‘liq tasdiqladi. Eksperiment, intervyu va adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu asarlar nafaqat til rivojlanishiga, balki bolalarning ijtimoiy, hissiy va kognitiv rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotning asosiy natijalarini quyidagicha kengaytirish mumkin:

Lug‘at boyligi va til ko‘nikmalarini kengaytirish: ertaklar va she’riyat bolalarning lug‘at boyligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqotda ishtirok etgan bolalar o‘rtasida yangi so‘zlar va murakkab frazalar o‘rganishda aniq farq ko‘rindi. Ayniqsa, ertaklarda ishlatiladigan obrazli til va she’riyatdagi ritmik so‘zlar bolalar nutqini boyitdi. O‘qish jarayonida bolalar nafaqat yangi so‘zlarni o‘rganibgina qolmasdan, balki ular qanday kontekstda ishlatilishini tushunishga ham erishdilar. Bu esa bolalarning nutqining aniqligi va izchilligini oshirdi.

Nutqni aniq va ravon ifodalash: ertaklar va she’riyat bolalarga nutqni ravon va aniq ifodalashni o‘rgatadi. Tadqiqot davomida, ertaklarni o‘qigan bolalar o‘z fikrlarini yanada aniqroq ifodalashni, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni va ularni izchil ravishda qo‘llashni o‘rgandilar. She’riyat esa, o‘z navbatida, bolalarga nutqni musiqiy ohangda ifodalashni, ritmni sezishni va so‘zlarni tovushlar bilan bog‘lashni o‘rgatdi. Bu esa bolalar nutqining fonetik tomonini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Hissiy rivojlanish va emotsional intellektni oshirish: Ertaklar va she’riyat bolalarda hissiy intellektni rivojlantiradi. Tadqiqot davomida bolalar, ertaklarning mazmunidan kelib chiqqan holda, turli hissiyotlarni (baxt, qayg‘u, qo‘rquv, sevgi va boshqalar) tushunish va ularga munosabat bildirishni o‘rgandilar. Ertak qahramonlarining hissiy holatlari bolalarda empatiya rivojlanishiga yordam berdi. She’riyat esa bolalar uchun tasavvur va his-tuyg‘ularni izhor etishning yangi usulini taqdim etdi. Natijada, bolalar o‘z hissiyotlarini aniq ifodalash, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va o‘zaro aloqada bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar.

Ijtimoiy ko‘nikmalarni oshirish: ertaklar va she’riyat bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ham samarali vositalar bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotda, ertaklar orqali bolalar o‘zaro muloqot qilish, jamoada ishlash, boshqalarni hurmat qilish kabi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishgan. Ertaklarning ijtimoiy mavzulari (do‘stlik, yordam berish, halollik, mardlik va boshqalar) bolalarga o‘zaro munosabatlarni tushunishga va ijtimoiy jamiyatda muvaffaqiyatli

yashashni o‘rgatdi. She’riyat esa bolalarga tilni ishlatishda noziklik va ehtiyotkorlikni o‘rgatdi, bu esa ijtimoiy aloqalarda ham muhim ahamiyatga ega.

Kognitiv rivojlanish va analitik fikrlashni oshirish: ertaklar va she’riyat bolalar uchun murakkab tushunchalarni o‘zlashtirishda muhim vositalar bo‘ldi. Tadqiqot davomida bolalar ertaklar orqali mavhum fikrlarni tushunishga, analitik fikrlashni rivojlantirishga va tasavvurlarini kengaytirishga muvaffaq bo‘lishdi. Ertaklar va she’riyatning murakkab va ko‘pincha ikki yoki ko‘proq ma’noga ega bo‘lgan ifodalari bolalarni chuqurroq o‘ylashga, voqealarni tahlil qilishga va turli nuqtai nazarlarga qarab baholashga o‘rgatdi. Bu esa bolalarda tanqidiy fikrlash va mantiqiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirdi.

Xotira va eslab qolish ko‘nikmalarini yaxshilash: she’riyatdagi ritmik tuzilma va ertaklarning qaytariladigan strukturalari bolalar xotirasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Tadqiqotda qatnashgan bolalar she’rlarni eslab qolish va ertaklarni qayta so‘zlashda yaxshilangan natijalarni ko‘rsatdilar. Bu jarayon bolalarning xotira va e’tibor ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ayniqsa, ular ma’lumotlarni uzoq muddatli xotirada saqlash va qayta eslab chiqarish qobiliyatini oshiradi.

XULOSA VA MUNOZARA. Inklyuziv ta’lim tizimi — bu barcha bolalar, jumladan, maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan ta’lim berish muhitini yaratishga qaratilgan yondashuvdir. Ushbu ta’lim tizimining maqsadi har bir bolaga o‘zining individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ta’lim olish imkoniyatini taqdim etishdir. Tadqiqotda ko‘rsatilganidek, nutq o‘stirish jarayoni inklyuziv ta’limning ajralmas qismidir, chunki til rivoji bolalarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Nutq rivojlanishi faqat so‘z boyligini oshirish bilan cheklanib qolmaydi, balki bolalarning fikrlash, tahlil qilish, muloqot qilish va o‘zini ifodalash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Ertaklar va she’riyat bolalarning til rivoji va nutqni ifodalashda muhim vositalar sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ertaklar yordamida bolalar yangi so‘zlar, murakkab frazalar va grammatik strukturalarni o‘rganadilar, shuningdek, o‘z fikrlarini aniq va izchil ifodalashni o‘rganadilar. Ertaklar bolalarga jamiyatda uchraydigan turli xil muammolarni tushunish, hissiy holatlarni tanib olish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ertaklarda uchraydigan qahramonlar orqali bolalar moral, axloqiy qadriyatlar va jamiyatga moslashish haqida o‘rganadilar. Shu bilan birga, she’riyat orqali bolalar nutqni estetik jihatdan boyitadilar, ritmik va melodik elementlar orqali talaffuzni to‘g‘rilashadi va tilning o‘ziga xos jihatlariga yaxshiroq ega bo‘lishadi. She’riyatning obrazli tili bolalarda xayol, tasavvur va kreativlikni rivojlantiradi, bu esa ularning nutqni ijodiy tarzda ifodalash ko‘nikmalarini oshiradi.

Bundan tashqari, she’riy asarlar va ertaklar bolalarda xotirani mustahkamlash va ularning tasavvurlarini rivojlantirishda ham katta rol o‘ynaydi. Ertaklar va she’riyatdagi so‘zlar, tasvirlar va obrazlar bolalarga murakkab tushunchalarni o‘zlashtirishda yordam beradi. Bu jarayon bolalarning til o‘rganishdagi qiyinchiliklarini yengib o‘tishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, ertaklar va she’riyatni inklyuziv ta’limda qo‘llash jarayonida ba’zi qiyinchiliklar ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, ba’zi bolalar uchun she’riyatni tushunish va uning obrazli tili bilan ishlash qiyin bo‘lishi mumkin. Bu, albatta, yoshga va bolaning til rivojlanish darajasiga bog‘liq. Shu bois, o‘qituvchilar har bir bolaga mos yondashuvni tanlashlari zarur. Ertaklar va she’riyatni o‘qitishda individual yondashuvlar, bolaning ehtiyojlari va qobiliyatlari hisobga olinishi kerak. Ertaklar va she’riyatni inklyuziv ta’limda muvaffaqiyatli qo‘llash uchun o‘qituvchilar o‘z metodikalarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlari zarur. Shuningdek, bu asarlar o‘qituvchilarga bolalarning nutq rivojlanishidagi individual farqlarni aniqlashda yordam beradi va ular o‘z metodik yondashuvlarini shaxsiylashtirish imkoniyatini yaratadi. O‘qituvchilarni ushbu jarayonga tayyorlash, ular uchun maxsus metodik qo‘llanmalar va o‘quv materiallarini yaratish muhimdir. Bu esa inklyuziv ta’limni samarali va yaxshilanishga yo‘naltirish imkoniyatini taqdim etadi.

Umuman olganda, ertaklar va she’riyat bolalar nutqini rivojlantirish, ularning estetik, hissiy va intellektual rivojlanishida, shuningdek, ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bularning barchasi inklyuziv ta’lim jarayonida muhim omillar hisoblanadi, chunki ular bolalarni jamiyatga moslashish va o‘zini ifodalashda eng yaxshi shaklga keltiradi. Tadqiqotda ko‘rsatilganidek, bu asarlarning bolalar ta’limiga qo‘shgan hissasi ularning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va kelgusida inklyuziv ta’limni yanada mukammallashtirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. R. Sh. Shomaxmudova. “Maxsus va inklyuziv ta’lim” uslubiy qo‘llanma. T.:2011 yil. 192 bet
2. L.R.Muminova. Inklyuziv ta’lim. T.:- 2014 yil.
3. Ture Yonsson. . Inklyuziv ta’lim. T.: -2003.
4. R.Sh.Shomaxmudova. “Maxsus va inklyuziv ta’lim” uslubiy qo‘llanma. T.:-2011 yil.
5. R.Shomaxmudova, D.Tulaganova, A.Berdieva. Jismoniy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar bilan inklyuziv va maxsus ta’lim tizimida olib boriladigan korreksion pedagogik ishlar. Toshkent: XT «Roziqov O.J». 2007 y.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Nomozova Latofat Rustamovna
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali
Baxromova Ozoda Murodjonovna, talaba
zodabaxromova14@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalar,ularning ijodiy fikrlashi,ijodiy fikrlashning o‘zini nima, hozirgi kunda Respublikamizda kichik yoshdagi o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qanday e‘tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: Kichik maktab yoshi, ijodkorlik, qobiliyatlar, ijodiy qobiliyatlar, zamonaviy yondashuv, STEAM, ijodiy fikrlash va iste‘dod.

Hammaga malumki, har bir davrning o’ziga xos dars o’tish usul va metodlari mavjud bo’ladi. Bularning hammasi o’quvchilarning ijodiy va intelektual fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan hisoblanadi. Shu asosda Respublikamizda ta’lim sohasini rivojlantirish uchun bir qancha qarorlar va tendensiyalar qabul qilinyapti.

Kichik maktab yosh davrini o’rganish bugungi kun muammosi emas balki bu yosh davrdagi bolalarni asrlar davomida o’rganib kelinmoqda. Bunga sabab boalarning birinchi bor maktabga chiqishi ularning bilim olishlaridagi dastlabki poydevorlarini qura olishi zarur. Kichik maktab yoshidagi bolalar 7 yoshdan 12 yoshgacha bo’lgan bolarlarni aytishimiz mumkun. Bugungi kunda bu yoshdagi bolalar 1-4-sinflarni o’z ichiga oladi. Bu yillarda bolalar psixologiyasida juda katta o’zgarishlar ro’y beradi. Sababi bolalar o’yin faoliyatidan o’qish faoliyatiga o’tish jarayonida turli muammolarga duch keladi. Mamlakatimizda maktabga chuqush yoshi 7 yosh yetib belgilangan. Chunki bu yoshda bolalar miyasi yaxshigina rovojlangan va yangiliklarni o’rganishga intilishlari kuchayadi. Ammo bu yosh davrdagi bolalarning ham bazilarida ruhiy zo’riqishlar bo’ladi. Misol tariqasida bolalarning darslarda uxlab qolishi yoki uyga vazifalarni unitib quyib bajarmasdan kelishi. Ayniqsa maktabga chiqayotgan bolalarning tog’ri o’tirishiga e’tibor berishimiz zarur. Umurtqa pog’onasining to’g’ri rivojlanishi muhim hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun turli xildagi psixo-treninglardan, jumboqli savollardan rebuslardan foydalanish mumkun. Eng avvalo ijodkorlik so’ziga izoh beradigan bo’lsak bu so’z uzining o’ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Ijodkorlik bu-yangi go’ya va rejalarning paydo bo’lishi. Ijodkorlikni turli xil ko’rinishlarda sohalarda uchratishimiz mumkun. Bu tushuncha harakatchan hodisalarga nisbatan ishlatilishini ko’rishimiz mumkun. Chunki ijodkorlikni tanlagan kishilar bir joyda qotib qolishmaydi ular doim

harakatchan va yangilik tarafdorlari bo'lishadi. Ijodkorlik turli go'yalar va tushunchalar orqali vujudga keladi.

Ijodkorlik (lotincha-ijoddan) degan ma'nolarni anglatadi. U fikrlashda, muloqotda, his qilishda namoyon bo'adi. N.V.Vishnyakov shunday deydi „Ijodkorlik shaxsiy hayot istiqbollarini izlash va kashf etishdir''.Bundan tashqari bu ijodkorlik so'zining tub mohiyatiga yetish uchun biz „qobiliyat'' so'ziga yuzlanishmiz zarur. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun bir qancha olimlar izlanishlar olib borilgan.Bular D.B.Bogoyavlenskaya, A.Maslow, A.Olox, A.Tanenbaum.

Bernal «Ijodkorlikni hamma narsadan yomonroq o'rganish mumkun emas» degan fikrlarni ilgari suradi.

Qobiliyat-bu shaxsning individual psixologik xususiyatlari hisoblanadi. Qobiliyat har bir shaxsda turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Qobiliyatni rivojlantirish uchun shaxs turli usullardan foydalanish kerak. Qobiliyatlarning tipalogiyasi ham to'liq ochib berilmagan olimlar tomonidan.Ammo qobiliyatlarni kichik yoshligidan boshlab rivojlangtirish lozim. Shundagina inson o'z ustida mustaqil ishlay oladi va yangi g'oyalar yaratadi.

Ijodiy qobiliyat bu muammoli vaziyatlar yaxshi tomonga o'zgartirish yoki yaratuvchanlik imkoniyatlarini yanada rivojlantirish. Ijodiy qobiliyatlar quyidagi tarkibiy qismlarga ajratishimiz mumkin.

-ijodiy fikrlash

-ijodiy tasavvur

-ijodiy faoliyatni tashkil etish usullarini qo'llash.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.Rivojlantirishning eng muhim usullaridan biri bu mamlakatimizda STEAM dasturining joriy qilinishi hisoblanadi.

S-Fan

T-Texnologiya

E-Muhandislik

A-San'at

M-Matematika

Respublikamizda STEAM dasturining joriy etilishi kichik maktab yoshidagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishdagi zamonaviy yondashuv hisoblanadi.STEAM dasturi boalarda tabiatni his qilishni, ijodiy fikrlashni, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni, jamoa bilan ishlashni, qiyin vaziyatlardan oson yo'l bilan chiqib ketishni o'rgatadi.STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi bular;

-Muammolarni keng qamrovli tushunish

-Ijodiy fikrlash

-Muhandislik yondashuvi

-Tanqidiy fikrlash

-Dizayn asoslarini tushunish

Bu dastur juda qiziqarli va o'ziga xosligi bilan bolalarni zeriktirib quymaydi.Dars jarayonida bolalar qanday qilib vaqt o'tkanini ham sezmay qolishadi,muhimi charchashmaydi va zerikishmaydi.STEAM ta'limi 6ta bosqichdan iborat hisoblanadi.

1. Savol (vazifa) bosqichi
2. Muhokamalar bosqichi
3. Dizayn bosqichi
4. Qurilish bosqichi
5. Test bosqichi
6. Takomillashtirish bosqichi

Bu bosqichlarning asosiy maqsadi fan va texnologiyalarni bolalarda bir vaqtning o'zida rivojlantirish va yangi innovatsiyalar orqali texnika va texnologiyalar yaratish. STEAM ta'limi barcha 5ta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan hisonlanadi. STEAM

dasturining asosiy vazifalaridan biri bu kichik maktab yoshidagi bolalarning qiziqishlarini rivojlantirish uchun dastlabli qadamlarni quyishga yordam berish. Bu ta’lim sohasi orqali bolalarga amaliy ko’nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, tadqiqotlar olib borish, tajribalar o’tkazish, dasturlash, robotatexnika yaratish kabi faoliyatlar orqali ular o’z bilimlarini real dunyoda qo’llashni o’rganadi. Bundan tashqari bolalarda turli xil muammolarni hal qilishda qat’iyatlilikni rivojlantiradi.

Ijodiy fikrlash oldin hech qachon mavjud bo’lmagam, yaratilmagan narsalar yoki fikrlarning paydo bo’lishi. Ijodiy fikrlash ko’plab fazilatlarning jamlammasi hisoblanadi.

Iste’dod bu qobiliyatlarning eng yuqori darajaga chiqishi hisoblanadi. Iste’dod ilmiy tushuncha emas balki,jamiyatda ishlatiladigan kundalik tushuncha.

Xulosa qiladigan bo’lsak, kichik maktab yoshidagi bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda ularning qay darajada kitoblar o’qiganiga va o’zlarining erkin fikrlari va dunyoqarashining mavjudligiga qaraladi. Hozirgi kunda bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga maktabgacha ta’lim muassasasidan boshlab e’tibor berilmoqda. Chunki yosh bolalarning yoshlariga mos bo’lgan kitoblarning mavjudligini ko’rishimiz mumkun. Kichik maktab yoshidagi bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish yurtimiz kelajagining poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. -T.: TDPU, 2000. - 52 b.

2. Urinova Feruzakhon Uljaevna. Botirova Zuhra Abdurahmonova, Mirjalol Turgunov Mirzahamdam ugli. NECESSARY CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN FUTURE TEACHERS. Modern Journal of Social Sciences and Humanities. ISSN: 2795-4846 Vol. 4 (2022). https://mjssh.academicjournal.io/index.php/mjssh

3. Usmonova Shaxnoza. Comparative Study of Cosmonims(Sun, Moon ...) In Uzbek and English. In volume 7, of Eurasian Journal of Humanities and SocialSciences April, 2022 . ISSN (E): 2795-7683. JIF: 7.925

4. Akhmedov, B. A., Majidov, J. M., Narimbetova, Z. A., Kuralov, Yu. A. (2020). Active interactive and distance forms of the cluster method of learning in development of higher education. Экономика и социум, 12(79), 805-808.

5. Akhmedov, B. A., Eshnazarova, M. Yu., Rustamov, U. R., Xudoyberdiyev, R. F. (2020). Cluster method of using mobile applications in the education process. Экономика и социум, 12(79), 809-811.

MAKTABGACHA TA`LIMDA IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT

Nurullayeva Diyora
Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo’rg’on filiali talabasi

ANNOTATSIYA:Ushbu maqola maqola maktabgacha ta`lim tashkilotida pedagog va tarbiyanuvchilarning o`rtasidagi munosabatni ko`rish mumkin. SHuningdek, amalga oshiriladigan ijtimoiy pedagogik kasbiy faolligi mazmuni yoritilgan. Pedagogning mazkur faoliyat jarayonida o‘qitish, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatish, tarbiyalash, o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil qilish hamda maktabgacha ta`lim tashkilotlariga beriladigan imkoniyatlar.

**KALIT SO`ZLAR**: Maktabgacha ta`lim, pedagog, bolalar, ijtimoiy, ijtimoiy pedagog, agrisivlik, faoiliyat, ta`lim, tarbiya

KIRISH: Maktabgacha ta`lim uzluksiz talimning asosiy bo`g`ini hisoblanadi. Maktabgacha ta`lim - bolalar tarbiyasi va rivojlanishining asosiy bosqichi bo'lib, bu davrda bolalr dunyoqarashi,axloqiy qadritatlar asosida ta`lim- tarbiya berishdir. Bunda asosan tarbiyachi pedagogni o`rni beqiyos. Pedagogik faoliyatning mohiyati va mazmunini ko‘rib chiqishdan oldin “faoliyat” va”pedagogik faoliyat” tushunchalar to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish talab etiladi.Pedagogika (yunoncha) so`zdan olingan bo`lib “bola yetaklovchi” degan ma`noni bildiradi. Pedagog bolaga ta`lim - tarbiya berar ekan ijtimoiy pedagog esa bolalarni ta`lim -

tarbiyasi orqali jamiyatga kirib borishiga yordamlashadi.Bolalar jamiyatga kirib borar ekan o`zinog xulq -atvori bilan jamiyatga kirib boradi.unga bunga yordam beradi ijtimoiy pedagogik maktabgacha ta`lim tashkilotlariga turli hil bolalar tashruf buyuradi . Maktabgacha ta'limda ijtimoiy pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi bolalarni ijtimoiy qobiliyatlarni o'zlashtirishga, jamiyatga moslashishga va axloqiy xulq-atvorni shakllantirishga yordam berishdir. Bu faoliyat pedagoglar, ota-onalar va jamiyatning boshqa a'zolari tomonidan birgalikda amalga oshirilishi kerak. Ijtimoiy pedagogik faoliyat maktabgacha ta'limda quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Bolalar bilan muloqot va ijtimoiy muhit yaratish: Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar orasida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish, o'zaro hurmat, yordam va qo'llab-quvvatlashni targ'ib qilish juda muhimdir.

Pedagogik etika va jamiyatning ta'siri: Maktabgacha ta'limdagi pedagoglar o'quvchilarni nafaqat akademik ko'nikmalarni, balki ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni ham o'rgatishlari kerak. Bu bolalar jamiyatning to'g'ri va ahloqiy fuqarolari bo'lib o'sishi uchun zarurdir.

Oilaviy va jamiyat bilan hamkorlik: Maktabgacha ta'limda ijtimoiy faoliyat oilaning va jamiyatning maktabgacha ta'lim muassasalariga qo'shgan hissasini ham ko'rib chiqishni talab qiladi. Bolalar tarbiyasida hamkorlik va jamoaviy ish muhim ahamiyatga ega.

Bolalar huquqlari va tenglikni ta'minlash: Ijtimoiy pedagogik faoliyat, shuningdek, bolalarning huquqlarini himoya qilish va barcha bolalarga teng imkoniyatlar yaratishni o'z ichiga oladi

Ijtimoiy pedagog - ijtimoiy pedagogika mutaxassisligi bo`yicha o ’rta yoki oliy professional ma’lum otga ega bo’lgan mutaxassis, ijtimoiy pedagogik faoliyatni professional tartibda yurita oladigan mutaxassis. Bolalaning asosiy ijtimoiy muammolari ularning psixofiziologik maqom va ular yashayotgan jamiyatning ob’ektiv holatidan kelib chiqadi Haqiqiy, uyg’un oila hayotini ko`rmagan bolalar juda kam holatda to’liq oilaviy munosabatlarni qura olishadi. Bunday sharoitlarda ijtimoiy muhim qadriyatlar oila, nikoh, bolalar, ota-onalarning qadri pasayadi. So’nggi yillarda oilaviy aloqalar tizim ishida ham inqirozli o ’zgarishlari ro ’y berdi, chunki aksariyat ota-onalar bolalarini nafaqat ijtimoiy, balki fiziologik jihatdan ham ta ’minlay olmadilar. Kam- bag’allik va uning oqibatlaii bola, o ’sm ir olam ini vayron etadi, chunki uning ota-onasi, tabiiy himoyachilaii bolaning barcha ehtiyojlarini qondirishga qurbi etm aydi. Qarovsiz qolgan bolalar - oilaviy aloqalarning barbod bo’lishi natijasidir. Ijtimoiy etimlar soni borgan sari oshib bormoqda. SHuning uchun davlat birinchi navbatda bolani oilada saqlab qolish va davlat muassasasiuii tarbiyalash uchun topshirishni oldini olishga barcha kuchini ishga solmoqdi. Agar bolani oilada saqlab qolish iloji bo’lmasa, u uchun yangi oila o`tkaziladi. Biroq bolani yangi oila yoki tarbiya muassasasiga topshirayotganda bolaning etnik guruhi, mahalliy an’analari bilan bog’liq muhitda qolishi uchun barcha narsa qilinadi.Ijtimoiy pedagogika - shaxs ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o ’rganishga, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadidagi samarali metodlar va ijtimoiy pedagogik faoliyat texnologiyalarini joriy qilishga qaratilgan pedagogika sohasi.Maktabgacha ta`lim muassalarida ijtimoiy pedagog bolajonlarni oilalar bilan ham shug`ulanadi. Ijtimoiy pedagogik yordamning vositachilik yo’nalishi uch komponentdan iborat: tashkil qilishga yordam, tartibga solishga yordam va axborot berishga yordam. Tashkil qilishga yordam oilaviy dam olishni tashkil qilishga qaratilgan. Oilaviy dam olish o’z ichiga xayriya auksionlari o’tkazish, oilaviy bayramlar, tanlovlar, uy xo’jaligini yuritish bo’yicha kurslar tashkil qilishdan iborat. Tartibga solishga yordam berish muayyan oilaning muammosini hal qilish bo’yicha turli muassasa va xizmatlarni faollashtirishdir.

Bolalar bilan muloqotda ijtimoiy pedagogik qoidalarni qo'llash, ijtimoiy faoliyatlar va o'yinlar orqali bolalarga guruhda ishlashni, o'zaro muloqotda bo'lishni o'rgatish, bolalarda axloqiy qadriyatlar va mas'uliyat hissini shakllantirish, ijtimoiy yordam va empatiya

ko'nikmalarini rivojlantirish esa maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ijtomoiy-pedagogik ishning vazifalariga kiradi. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat — bu tarbiyachi, pedagog va ijtimoiy pedagog tomonidan olib boriladigan kompleks faoliyat bo‘lib, u bolalarning **ijtimoiy rivojlanishi, emosional barqarorligi, muomala madaniyati, psixologik moslashuvi** va **insoniy qadriyatlarni** o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiyati shakllanishining eng muhim bosqichi aynan 3-7 yosh oralig‘iga to‘g‘ri keladi. Bu davrda bola nafaqat jismonan, balki ijtimoiy va axloqiy jihatdan ham rivojlanadi. Shu bois maktabgacha ta’lim muassasalarida olib boriladigan **ijtimoiy-pedagogik faoliyat** muhim o‘rin tutadi. Bu faoliyat orqali bolalarda ijtimoiy muhitga moslashuvchanlik, muloqot madaniyati, axloqiy qadriyatlar, o‘z-o‘zini tutish qoidalari shakllantiriladi.

Bunday a) alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga yo‘llash bo‘yicha tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya hamda ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlarga yo‘llash bo‘yicha psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar negizida Ijtimoiy himoya milliy agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari huzurida yagona psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalarni yig`ildi. alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktab, maktab-internatlarda qisqa muddatli ta’lim va tarbiya berishga mo‘ljallangan “G‘amxo‘rlik” guruhlarini bajaradi.

XULOSA

Maktabgacha ta'limda ijtimoiy pedagogik faoliyat — bu bolalarning ijtimoiy hayotga oid ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir. Bu sohada pedagoglarning asosiy maqsadi, bolalarga jamoada ishlash, boshqa odamlar bilan muloqot qilish, o'zini tutish va o'z fikrini bildirish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatishdan iborat. Bu jarayonda o'qituvchilar turli o'yinlar, mashg'ulotlar, muloqot va boshqa faoliyatlar orqali bolalarni rivojlantiradi. Maktabgacha ta'limda ijtimoiy pedagogik faoliyat bolalarga bir-birlariga bo'lgan hurmatni o'rgatish, jamoada ishlashda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1.N. Egamberdiyeva ijtimoiy pedagogika
2.F.Ne`Matova. Ijtimoiy pedagogika 89-bet
3.Prezident Qarori, 2024 yil 25 yanivar 46-son qarori
4.A.A. Axmedov. Ijtimoiy pedagogika 70-bet 2017-yil
5.M.Umarova Qo`qon davlat pedagogika instituti, Qo`qon, O‘zbekiston
6.O.U. Hasanboyeva, M.X. Tojiyeva, Maktabgacha ta’lim pedagogikasi 2012-yil
7. H.B.Aliqulova “Ijtimoiy Pedagogika ” 2012-Yil

O‘QITUVCHINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHI

Okilova Kamola Sadulloyevna
Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya. Ushbu maqolada uzluksiz malaka oshirish ta’limi termini ta’lim oluvchilarning professional vazifalari doirasidagi bilimlarini muntazam oshirib borishni nazarda tutadi. Pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarga tutadi.

Аннотатция. В данной статье термин «непрерывное профессиональное развитие» относится к систематическому совершенствованию знаний обучающихся в рамках их профессиональных обязанностей. Преподаватель стремится создать необходимые условия для постоянного повышения профессионального мастерства и эффективности педагогического коллектива.

Abstract. In this article, the term "continuous professional development" refers to the systematic improvement of students' knowledge within the scope of their professional

responsibilities. The teacher strives to create the necessary conditions for the continuous improvement of the professional skills and effectiveness of the teaching staff.

Kalit so‘zlar: ehtiyojlar, odatlar, shaxs, tadqiqot, natija, uzluksiz, rivojlanish, rag‘batlantirish, motivatsiya, tarbiya, tayyorgarlik, shaxs, ma’lumot.

Ключевые слова: компетенции, привычки, личность, исследование, результат, преемственность, организация, мотивация, обучение, подготовка, личность, информация.

Key words: competencies, habits, personality, research, result, continuity, organization, motivation, training, preparation, personality, information.

Uzluksiz ta’lim ko‘p qirrali tushuncha bo‘lganligi sababli, uni nafaqat mohiyatan, balki davlat tomonidan boshqariladigan yagona tashkiliy tuzilma sifatida ham talqinlash mumkin. Bizning fikrimizcha, o‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlanishiga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishda uzluksizlik – shakl, uzviylik esa mazmun bo‘lib xizmat qiladi. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish (keyingi o‘rinlarda – UKR) doirasidagi amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar zamirida o‘qituvchining psixologik, pedagogik, metodik, innovatsion tayyorligi, o‘zgarishlarni qabul qilishi, ongiga singishini ta’minlovchi hodisa motivatsion kuch yotishi tabiiydir.

Shu nuqtayi nazarga ko‘ra, aytish mumkinki, mamlakatimizda ta’lim tizimi yagona va uzluksiz ravishda amalga oshiriladigan maktabgacha ta’lim va tarbiya; umumiy o‘rta va o‘rta-maxsus ta’lim; professional ta’lim; oliy ta’lim; oliy ta’limdan keyingi ta’lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta’lim kabi turlarning yaxlitligi hamda uzviyligini ifodalaydi.

Izlanishlarimiz natijasida “uzluksiz ta’lim” muammolarini tadqiq etishga oid adabiyotlarda ushbu tushunchaning bir-biridan farqlanuvchi bir nechta tavsifiy yo‘nalishlari keltirilganining guvohi bo‘ldik. Ular orasidan quyidagi uch turini alohida ta’kidlash mumkin:

1. Hayot davomidagi ta’lim (life-long learning, LLL).
2. Katta yoshlilar ta’limi (adult education).
3. Uzluksiz malaka oshirish ta’limi (continuing vocational education and training).

Hayot davomidagi ta’lim (life-long learning, LLL) – ta’limning davomiyligini inson hayoti davomida amalga oshirilishini nazarda tutadi. Hayot davomidagi ta’lim esa, davlat tomonidan belgilangan (maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, oliy, oliy ta’limdan keyingi ta’lim va malaka oshirish) ta’lim va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, takomillashtirish maqsadidagi mustaqil ta’lim kabi turli shakllarda bo‘lishi mumkin.

Katta yoshlilar ta’limi (adult education) – yangi bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalarga ega bo‘lish maqsadida tizimli va doimiy mustaqil o‘qib bilim orttirishdir [53; 7-b.]. Uzluksiz ta’lim jarayonlarining “katta yoshlilar ta’limi”da ishtirokchilarning kontengenti xususiyatlari hisobga olingan holda o‘qitish va ta’lim sifatini baholash texnologiyalari ajralib turadi. Katta yoshlilar ta’limining eng asosiy jihati shundaki, ular amaliy ish tajribalariga, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan bu davrda ta’lim berish hamda kasbiy rivojlantirishning o‘ziga xosligini, kattalarning bilim olish istagi va mustaqil yo‘naltirilishini hisobga olish talab etiladi.

Uzluksiz malaka oshirish ta’limi termini ta’lim oluvchilarning professional vazifalari doirasidagi bilimlarini muntazam oshirib borishni nazarda tutadi. Tadqiqot ishimiz misolida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilarining o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish, o‘z-o‘zini namoyon qilish, mustaqil bilim olish, idroki, tafakkuri, kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, konsultativ va innovatsion faoliyatga turg‘un motivatsiya shakllanishini nazarda tutuvchi qisqa muddatli, muammoli, mualliflik o‘quv kurslarini taklif etish ularning bilim sifati samaradorligini yanada ortishiga xizmat qilmoqda.

1984-yilda YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan “Uzluksiz kasbiy rivojlantirish” konsepsiyasida UKR tushunchasining o‘ziga xos izohini ifodalovchi quyidagicha ta’rif berilgan: “ta’lim tizimida yoki undan tashqarida hayotning turli davrlarida ro‘y beradigan, bir-birini

to‘ldiradigan, bilim olishga, shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishga, shu jumladan, o‘rganish va kasbiy vazifalarni bajarish uchun tayyorlashga qaratilgan ongli harakatlar yig‘indisidir”. Bugungi kunga kelib, respublikamizda xalq ta’limi tizimidagi islohotlar natijasida umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish zarurati yanada ortdi. Jahondagi zamonaviy ta’lim integratsiyalashuvi jarrayonlarining kuchayishi bilan bir qatorda, O‘zbekistonning innovatsion rivojlanish vazifalari pedagog xodimlar malakasini oshirish tizimining raqobatbardoshligini ta’minlash uchun alohida talablar qo‘ymoqda.

UKR tarkibini aniqlashning hozirgi konseptual yondashuvlari asosan uchta muhim tamoyilga: hayot davomidagi uzluksizlik (life-long continuing), o‘qitish ko‘lamidagi kenglik (breadth in teaching scope), o‘rganishga yo‘naltirilganlik(directed at studying)ka asoslanadi.

Bizningcha, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish malaka oshirish shakllarini tubdan isloh qilish va olib borilayotgan o‘zgartirishlarni tezroq amaliyotga kiritish, tajribada sinalganlik holatida xulosa chiqarishni talab qiladi, ya’ni:

- malaka oshirishning zamonaviy shakllarini joriy etish;
- uzluksiz kasbiy rivojlanish muhitini yaratish;
- uzluksiz kasbiy rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini tatbiq etish.

Shundan kelib chiqib o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishga motivatsion tayyorlik komptetentligini rivojlantirish bu – ularning hayoti davomida bilimi, ko‘nikma va malakasini oshirish imkonini beruvchi o‘quvchi va ta’lim o‘rtasidagi munosabatlar mavjudligini nazarda tutadi.

Mazkur yo‘nalishdagi vazifalar ijrosini samarali ta’minlash maqsadi hamda amalga oshirilajak ishlar mexanizmi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6108-sonli Farmonida o‘zining to‘liq aksini topdi. Mazkur Farmonda belgilangan quyidagi asosiy yo‘nalishlar xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish imkonini beradi hamda yetaklovchi funksiyani bajaradi:

mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish;

dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o‘quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

ta’lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o‘qituvchilari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o‘rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag‘batlantirish;

pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida takomillashtirib borish;

ilmiy-tadqiqot va ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha xususiy sektorning salmog‘ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta’lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar hamda masofaviy ta’limni yanada rivojlantirish, ta’lim oluvchilar o‘rtasida IT sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;

ta’lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta’lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish.

Shuningdek, respublikamizda “Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi”ning institusional tuzilma tarzida shakllantirishga doir harakatlarning boshlanishi ham ta’lim sifatini olshirish, mehnat bozorining talablari yoki istiqbollariga mos kasblarga o‘qitish hamda malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat bo‘lgan butun ta’lim jarayonini yangilash zaruriyatini dolzarblashtiradi. Shu maqsadda qabul qilingan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4939-sonli Qarorini ta’lim sohasida navbatdagi burilish nuqtalaridan biri sifatida ta’kidlash mumkin. Qarorda belgilangan, “ta’limning eng past darajasiga qo‘yiladigan talablarni bekor qilgan holda, har bir lavozim va kasb bo‘yicha malaka doirasiga muvofiq malaka darajasiga talablar kiritilishi”, ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish majburiyati o‘qitish tizimini o‘zgartirish, jumladan, o‘qituvchilarning kasbiy malakalarini o‘stirishga doir yondashuvlarni zamonaviylashtirish lozimligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy yondashuv hamda o‘zgarishlarni o‘zida jamlagan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4963-son Qarorida belgilangan vazifalar xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish borasidagi tom ma’nodagi yangiliklarga qaratilgan huquqiy-me’yoriy hujjat bo‘ldi, desak o‘rinli bo‘ladi .

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham “maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish” maqsadi alohida ta’kidlanib, bu borada xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirib borishga ustuvorlik qaratish, malaka oshirish turlarini kengaytirish, muqobil shakllarini iste’molga kiritish hamda o‘zaro aloqadorligini ta’minlash orqali kutilgan natijalarga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan huquqiy-me’yoriy hujjatlar uzluksiz kasbiy rivojlanish, malaka oshirish ta’lim tizimiga jiddiy o‘zgartirishlar kiritish uchun metodologik asos vazifasini o‘taydi. Bu o‘zgarishlar iqtisodiyot va jamiyat ravnaqining mavjud talablariga javob beruvchi o‘qitish madaniyatini vujudga keltirish, ta’lim nazariyasi va amaliyotini integratsiyalash, tizimning barcha ishtirokchilari hamda ish beruvchilarning muvaffaqiyatli o‘zaro ta’sirini qaror toptirishni ilgari suradi. Kutiladigan natija esa, raqobatbardosh, ijodiy tafakkurga ega, murakkab vaziyatlarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan, motivatsion tayyorlik kompetentliligi rivojlangan, mustaqil, o‘zgarishlarga chidamli, moslashuvchan, butun umri davomida o‘qishga o‘zini motivlashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan shaxslardir. Shubhaga o‘rin yo‘qki, bu maqsad va natijalarga faqatgina sifatli ta’lim hamda yuksak mahoratli o‘qituvchilar bilangina erishish mumkin.

Tadqiqot mavzusi yuzasidan olib borilgan izlanishlar fan – texnika hamda ijtimoiy munosabatlarning shiddatli rivojlanishi, ta’lim mazmuniga qo‘yilayotgan yangicha talablar ijrosi o‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlanishida motivatsion tayyorlik kompetentliligini rivojlantirishning uzluksizlik va uzviylik muammosini hal etish bilan chambarchas bog‘liqdir, degan xulosaga olib keldi. Izlanishlar o‘qituvchining UKRga motivatsion tayyor bo‘lishi uzluksiz ta’limning takomillashgan shakl, metod, usul hamda vositalarini yaratish uchun poydevor vazifasini o‘tashidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxiddinov A.G. O’quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O’qituvchi, 1995.
2. Sayidaxmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003.

3. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
4. Kudratov T. Nutk madaniyati asoslari / OUYu uchun o'quv qo'll. – T.: "Pedagog", 1993.
5. Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2009.

UZLUKSIZLIK, UZVIYLIK VA O'QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINING MOHIYATI

Okilova Kamola Sadulloyevna
Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadqiqotchi olimlar tomonidan motivlar turlicha klassifikatsiyalanadi.Olimlar tomonidan o'rganilgan va tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar talqinida motivatsion holatlarning mazmuni bo'yicha turli raqobatdosh nazariyalar taklif etilgan.

Аннотатция. В данной статье ученые-исследователи по-разному классифицируют мотивы. В интерпретации научной литературы, изучаемой и анализируемой учеными, предлагаются различные конкурирующие теории содержания мотивационных состояний.

Abstract. In this article, research scientists classify motives differently. In the interpretation of scientific literature studied and analyzed by scientists, various competing theories of the content of motivational states are proposed.

Kalit so'zlar: ehtiyojlar, odatlar, shaxs, tadqiqot, natija, uzluksiz, rivojlanish, rag'batlantirish, motivatsiya, tarbiya, tayyorgarlik, shaxs, ma'lumot.

Ключевые слова: компетенции, привычки, личность, исследование, результат, преемственность, организация, мотивация, обучение, подготовка, личность, информация.

Key words: competencies, habits, personality, research, result, continuity, organization, motivation, training, preparation, personality, information.

Dunyoda hech bir jamiyat yo'qki, uning rivojida ham, tanazzulida ham inson omili hal qiluvchi rol o'ynamagan bo'lsin. Insonlarning jamiyatdagi o'rni esa, umumiy taraqqiyotga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Xalqaro munosabatlarning integratsiyalashuvi va mamlakatlarning jahon maydonida raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy omili sifatida inson kapitalini rivojlantirishga bo'lgan zarurat, davlatlarning ta'limga oid siyosatini takomillashtirishga undamoqda. Jamiyat rivojidagi yangilanish zarurati va ehtiyoji zaminida ta'lim-tarbiya omili hamda bunda o'qituvchi asosiy poydevordir. Shu bois har bir jamiyat kelajagi uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining rivojlanish darajasi o'qituvchining mahorati bilan belgilanadi. O'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash bugungi zamonaviy ta'lim jarayonlarining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi.

Keyingi yillarda uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, unga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda umuta'lim maktablarida ta'lim berishning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bejiz emas. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning: "Agar rahbarlar, muallimlar Yangi O'zbekistonga munosib harakatlar qilsa, farzandlarimizni davr talabiga munosib o'qitishimiz mumkin. Xalqimiz bizga eng katta boyligini – zurriyodini ishonib beryapti, bu juda katta mas'uliyat. Shuni his qilib, o'zimizni qiynab, maktabni isloh qilsak, kelajakka zamin yaratamiz", – degan ta'kidlari, shuningdek, davlatimiz rahbarining maktab o'qituvchilarini yangi metodikalar asosida qayta tayyorlash bo'yicha umummilliy loyiha boshlanishini e'lon qilishi, ushbu yangi tizim doirasida kelgusi 3-4 yilda maktablardagi barcha sinf o'qituvchilari yangi metodika asosida o'qitilishi, buning uchun har bir hududdagi Malaka oshirish markazlari negizida pedgoglarni yangi metodikalarga o'rgatuvchi Milliy ta'lim markazlarining tashkil etilishi borasidagi sa'y-harakatlar mavzuni yanada mustahkam g'oyaga aylantirmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi yangilanishlar hamda mazkur ta'lim turlarining maqsadiga asosan ta'lim mazmunining belgilanishi, yangi avlod dasturlari, darsliklarining yaratilishi, shiddat bilan kirib kelayotgan o'zgarishlar – ta'lim berish muammosiga yangicha yondashuvni talab

qiladi. Shu bois keyingi yillarda pedagogika va o‘qitish metodikasi oldida turgan vazifalardan biri – nafaqat ta’lim turlari va bosqichlarini, balki, avvalo, mazmunni o‘quvchiga singdiruvchi o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini, uning o‘zgarishlarga, zamon bilan hamnafas bo‘lishga motivatsion tayyorligini ta’minlashni ilmiy asoslab berishga qaratiladi.

Zero, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida qayd qilingan “o‘quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o‘qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek, tegishli o‘quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko‘rsatish” talabini amalga oshirishda ham o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorligini rivojlantirish alohida o‘rin tutadi. Shu o‘rinda ta’limda uzviylik va uzluksizlik tushunchalarining mohiyatiga to‘xtalish o‘rinli bo‘ladi.

Pedagogikada ta’limning uzviyligi va uzluksizligi tamoyiliga alohida urg‘u berilishi bejiz emas. “Bu tamoyil, – deb yozadi professor J.Hasanboyev, – ta’limda zarur fiziologik-psixologik qonuniyat hisoblanib, bilimni mantiqiy bog‘liqlikda o‘rganishni ta’minlab beradi. Har bir fan bo‘yicha dasturiy va uslubiy tavsiyanomalar yaratishda joriy qilinadi va ular tushunchalar, dalillar va boshqa fikrlar orasidagi aloqadorlikdan kelib chiqqan qonun va qoidalar bilan amaliy ishlarni bajarish o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqliklarni o‘rganish orqali amalga oshiriladi” .

Ta’limning uzluksizligi, uzviyligi g‘oyasi uzoq asrlarga borib taqaladi. Jumladan, Aflotun, Suqrot, Konfutsiy, Arastu, Seneka, Beruniy, Imom al-Buxoriy va boshqa mutafakkirlar tomonidan ta’limning uzluksizligiga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lsa, Yan Amos Komenskiy uning maxsus tizimini yaratishga muvaffaq bo‘ldi. U birinchi marta ta’limda ketma-ketlik, tizimlilikka asos soldi. Keyinchalik I.P.Pavlov inson oliy nerv faoliyatining muhim xususiyati bo‘lgan tizimlilikning uzviylik bilan aloqadorligini tabiiy-ilmiy nuqtayi nazardan isbotladi.

Umuman olganda, uzluksizlik – o‘zaro mantiqiy izchillik asosida bog‘langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta’lim tizimi sifatida ta’riflansa , uzviylik esa ta’lim-tarbiya jarayonining muayyan ketma-ketlik asosida tashkil etilishini ifodalovchi muhim sifat bo‘lib, u ma’lum bosqichda avvalgi bosqich o‘quv faoliyati mazmunini tashkil etuvchi bilim, ko‘nikma va malakalarning mustahkamlanishi, kengaytirilishi va chuqurlashtirilishini ta’minlaydi.

O‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirishga shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘qituvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentliliklariga qo‘yilgan davlat talablari har bir fan kesimida alohida ko‘rsatilganligi, ushbu talablarni amalga oshirishda ularning ijodkorligi, tanqidiy fikrlashi, o‘z ustida ishlashi, kasbiy rivojlanishda, shaxsiy samaradorlikka erishishda tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilayotgan bo‘lsa-da, biroq ba’zan pedagog xodimlar tomonidan olib borilayotgan ishlar ko‘lamida mas’uliyatni his etmaslik holatlaridan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Holbuki, ta’lim amaliyoti uzluksizlik, uzviylik uni o‘zlashtirish samaradorligining muhim sharti bo‘lib, falsafiy, psixologik va pedagogik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, “uzviylik” kategoriyasi falsafiy jihatdan “rivojlanish” kategoriyasi bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Rivojlanish nuqtayi nazaridan uzviylik ham sifat o‘zgarishlari jarayoni, ham yangi sifatni hosil qilish maqsadida bir darajadan ikkinchi darajaga o‘tish tarzida talqin etiladi, oldingi bosqichlarda qo‘lga kiritilgan natijalarning rivojlanishini nazarda tutadi.

Psixologiyada uzviylik murakkab psixologik rivojlanish qonuniyatlari, yosh bilan bog‘liq o‘zgarishlarni o‘rganish; bilimlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish; faoliyatning yetakchi turlari o‘zgarishi doirasida ko‘rib chiqiladi.

Pedagogik jihatdan esa uzviylik, birinchidan, didaktik tamoyil, ikkinchidan, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi jarayon, harakatga keltiruvchi kuch (ta’lim jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi omil), ta’lim, rivojlanish va tarbiya jarayonida majburiy bajarilishi kerak bo‘lgan talab sifatida izohlaniladi.

Ta’lim tizimida uzviylik tushunchasiga turlicha ta’riflar berilganini kuzatish mumkin. Jumladan, taniqli rus olimi B.G.Ananyev: “Ta’limdagi uzviylik o‘quvchilar fan asoslarini egallashi jarayonida olgan bilimlar tizimining vaqt nuqtayi nazaridan rivojlanishidir” , – deb yozsa,

boshqa bir metodist Sh.I.Ganelinning fikricha, "...uzviylik – bu o‘quvchilar tomonidan o‘rganilayotgan o‘quv materiali uchun tayanch bo‘luvchi mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarning amalda shunday qo‘llanishi va istiqbol rivojlanishidirki, ular asosida bilimlar o‘rtasida turli aloqalar yuzaga keladi, kursning asosiy g‘oyalari ochiladi, eski va yangi bilimlarning o‘zaro aloqadorligi ta’minlanadi, natijada o‘quvchilarda puxta va chuqur bilimlar tizimi shakllanadi" .

S.M.Godnik tadqiqotlarida esa uzviylik qonuniyat, tamoyil, omil, sharoit, usul, qoida, vosita sifatida e’tirof etiladi. Uning xulosasiga ko‘ra, "tor ma’noda uzviylik jarayoni – bu ta’limning turli bosqichlari orasidagi ketma-ketlik uzilishlarini to‘ldiruvchi pedagogik namoyishlarning tartibi. Keng ma’noda bu namoyishlar pedagogik faoliyatning umumiy kontekstiga kiritiladi". S.M.Godnik boshqa bir asarida fikrlarini davom ettirib "pedagogik jarayon va hodisalar orasidagi uzviylik, deganda eski va yangi, yangi va eski o‘rtasidagi shunday aloqa tushuniladiki, bu sharoitda vujudga keladigan dialektik qarama-qarshiliklar mos jihatlarni tashkil qilgan aloqadorlik asosida hal qilinadi" , deb ta’kidlaydi. Ushbu ta’riflarning aynan biz ta’kidlamoqchi bo‘lgan ifodasi o‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlanishining muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Taniqli psixolog S.L.Rubinshteynning fikricha, uzviylikning mohiyati shundaki, o‘qitish jarayonining har bir bosqichi avvalgisining negizida yuzaga kelganligi, uning ichki sharoitini tashkil etganligi sababli barcha bosqichlar o‘rtasida o‘zaro aloqa mavjud.

Boshqa bir tadqiqotchi Y.A.Kustov "o‘quv bilishdagi uzviylikning mazmun-mohiyati yuqoriroq ilmiy asosdagi bilim, ko‘nikma va malakalarni kengaytirish hamda chuqurlashtirishning bosqichli jarayonida eski, yangi va istiqbol o‘rtasida zarur aloqalarni o‘rnatishdan iboratdir", – deb ta’kidlaydi.

V.E.Tamarin va Y.Y.Zaxarovalar uzviylikning har bir yangi bosqichini o‘quvchilarning mavjud tajribalariga asoslangan holda tashkil etish va shu asosda navbatdagi ta’lim o‘quvchilarning ta’lim sharoitlariga moslashuvini yengillashtiruvchi maqsadlar, ta’lim mazmuni, metodlar, ta’lim-tarbiya vositalari o‘rtasidagi munosabatlarini ta’minlovchi sharoit sifatida belgilagan bo‘lsalar, A.V.Batarshev tomonidan uzviylikning uch komponentli yaxlit pedagogik tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, u quyidagilarni qamrab oladi: shaxs shakllanishidagi uzviylik (ta’lim jarayonining rag‘batlantiruvchi-motivatsion komponentiga mos keladi); ta’lim mazmunidagi uzviylik (ta’lim jarayonining mazmunli komponentiga mos keladi); ta’lim shakllari, metodlari hamda vositalari orasidagi uzviylik (ta’lim jarayonining jarayonli-faoliyatli komponentiga mos keladi) .

I.V.Artamonovaning fikriga ko‘ra, uzviylik deganda, bilimlarni o‘zlashtirish, tushunchalarni hosil qilish, ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida namoyon bo‘luvchi muayyan vujudga kelishining zaruriy sharti sifatida o‘quv-biluv faoliyati uzluksizligini nazarda tutadi.

Ko‘p hollarda tadqiqotchilar uzviylik, uzluksizlik deganda, ta’lim bosqichlari uzluksizligini va ta’limda mavzular uzviyligini ta’minlashni tushunadilar hamda o‘quv dasturlarining uzviyligi muammosi bilan shug‘ullanadilar. Xuddi shu jarayon ta’limni isloh etish davrida ham takrorlanadi. Kasbiy rivojlanish, uzviylik va uzluksizlikda ta’lim mazmunini tanlash ham muhim ahamiyat kasb etishini unutmaslik lozim. Ta’lim mazmunini tanlash bo‘yicha juda ko‘p manbalar mavjud. Masalan, V.N.Prosvirkin uzluksiz ta’limni bog‘lovchi elementlar va unga kiruvchi komponentlardan iborat bo‘lgan faoliyat subyektlarini o‘zaro harakatdagi uchta bir-biri bilan bog‘langan bloklar tarkibida ko‘rib chiqqan: 1) blok – mazmun va metodlar (unda uzviylikning mazmuniy va metodik jihatlari ko‘rsatilgan); 2) kadrlar (pedagogik kadrlarning o‘z-o‘zini qayta tayyorlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish, shuningdek, o‘quvchilarning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan kasbiy mahoratlarini oshirishga yo‘naltirilishi lozim); 3) muhit (ta’limiy rivojlanish muhitini yaratish) .

I.P.Podlasiy mazmunni shakllantirish tamoyillari sifatida insonparvarlik, ilmiylik, ketma-ketlik, tarixiylik, tizimlilik, hayot bilan bog‘liqlik, yosh xususiyatlariga moslik, tushunarli bo‘lish tamoyillarini ko‘rsatib o‘tadi .

Bu borada muammoga keng ko‘lamda va atroflicha yondashilishi jihatidan professor Sh.Sharipovning izlanishlari alohida e’tiborga loyiq. Jumladan, olim o‘z tadqiqotlarida ta’lim-tarbiya jarayonidagi uzviylik hamda uzluksizlik fan, ta’lim va ishlab chiqarishning o‘zaro uzviyligi; ta’lim mazmuni uzviyligi; bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdagi uzviylik; o‘quvchi shaxsini shakllantirishdagi uzviylik, ta’lim metodlari hamda shakllarini qo‘llashdagi uzviylik o‘quvchilar o‘zlashtirishini baholashni tashkil qilishdagi uzviylikni ta’minlashini ta’kidlaydi.

Xuddi shuningdek, Uzviylik, bog‘liqlik muammolarini yechish fanlararo, muayyan o‘quv fanining bog‘liqlik holati va imkoniyatlarini aniqlashga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxiddinov A.G. O’quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O’qituvchi, 1995.
2. Sayidaxmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003.
3. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
4. Kudratov T. Nutk madaniyati asoslari / OUYu uchun o’quv qo’ll. – T.: “Pedagog”, 1993.
5. Husanov B., G’ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2009.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHI

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi
Qilichova Xumora 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqoladan maqsadi 6-7 yoshli bolalarning jismoniy rivojlanishi haqida ma`lumot berish.Maktabga tayyorlash jismoniy kompetensiyalarini ochib berish. Ularni sog`lom barkamol shaxs qilib tarbiyalash.

Kalit so’zlar: maktabgacha ta`lim, tayyorlov guruh, kompetensiya, jismoniy rivojlanish, yirik motorika, mayda motorika, sensamotorika, so`g`lom turmush tarzi va xavfsizlik.

6-7 yosh — bu bolaning maktabgacha yoshdan maktab davriga o‘tish bosqichi bo‘lib, bu davrda ularning jismoniy rivojlanishi juda faol kechadi. Bola o‘sadi, tana a’zolari, mushaklari va suyak tizimi mustahkamlanadi, harakatlar muvofiqlashuvi va nozik motorikasi takomillashadi. Bu bosqichda jismoniy faollik orqali bolaning sog‘ligi, harakat malakalari va mustaqillik darajasi oshadi.

6-7 yoshli bolani rivojlantirish boyicha dastur mavjud. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 8-dekabr 2018-yil „Bolalarni boshlang‟ich ta‟limga majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o‟tish chora-tadbirlari to‟g‟risida“ gi 999-sonli qarori, bu qarorga o`zgartirishlar kiritilishi natijasida O‟zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 9-mart 2020-yil «Bolalarni boshlang`ich ta`limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida» gi 132-sonli qarori, shuningdek, 132-sonli qarorga o`zgartirishlar kiritilishi natijasida vujudga kelgan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 10-fevral 2022-yil „Bolalarni boshlang`ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi 66-sonli qarori ni misol qilib olsak bo‟ladi. Umumiy olganda “Ilm yo‟li” variativ dasturi har tomonlama bolani maktab ta‟limiga sifatli tayyorlashga xizmat qiladi. Rivojlanish sohalari bo’yicha kompetensiyalarni o’zaro bog’liq holda takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, uning maktab ta'limi bo’lgan keyingi bosqichiga muammosiz o’tishi va unga tayyor bo’lishi, boshlang’ich ta'limda kompetensiyalarni shakllantirishi uchun zarurdir. Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

1. Jismoniy rivojlanish va sog’lom turmush tarzining shakllanishi;
2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

3. Nutq, muloqot, o’qish va yozish malakalari;
4. Bilish jarayonining rivojlanishi;
5. Ijodiy rivojlanish.

"Jismoniy rivojlanish va sog’lom turmush tarzining shakllanishi“ sohasidagi ta’lim va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

● o’z imkoniyatlari va yoshi bilan bog’liq jismoniy rivojlanish me’yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko’rsatadi;
● turli xil faol harakat turlarini uyg’un holda va maqsadli bajarishni biladi;
● turli hayotiy va o’quv vaziyatlarida mayda motorika ko’nikmalaridan foydalanadi;
● o’z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;
● shaxsiy gigiena malakalarini namoyon etadi;
● sog’lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;
● xavfsiz hayot faoliyati asoslari qoidalariga rioya qiladi.

Tana o‘sishi va suyak-mushak tizimining rivojlanishi

6-7 yoshli bolalar yiliga o‘rtacha 5–6 sm o‘sadi va 2–3 kg vazn qo‘shadi.Bu davrda tana tuzilmasi nisbatan muvozanatli tus oladi: bosh tanaga nisbatan kichikroq ko‘rinadi, oyoq-qo‘llar uzaya boshlaydi. Mushaklar kuchayadi, lekin hali to‘liq mustahkam emas — bu ularni haddan tashqari zo‘riqishdan asrashni talab qiladi.

Bolalar yugurish, sakrash, yugurib-to‘xtash, burilish kabi murakkab harakatlarni mustaqil va ravon bajara oladi.Harakatlarda muvofiqlik (koordinatsiya) kuchayadi: yugurish bilan to‘p otish, sakrash bilan burilish kabi bir necha harakatni uyg‘unlashtirishga qodir bo‘ladi.Sport o‘yinlari, raqs va harakatli o‘yinlar orqali harakat faoliyati kengayadi.

Soha: Yirik motorika

Kutilayotgan natijalar: bir, ikki, to’rtta bo’lib saflanadi,doira bo’lib, qator bo’lib yuradi; yurish vaqtida turli buyruqlarni bajaradi; yengil, tezkorlik bilan,to’siqlardan hatlab o’tgan holda, yo’nalish va muvozanatni saqlab yuguradi; turgan joyida burilib, oyoqlarini o’ngga-chapga qo’yib sakraydi; arqonda turli usullarda sakraydi; arqonli narvon, yo’g’on arqondayuqoriga ko’tariladi; ikki oyoqli velosipedda uchadi

Soha: Mayda motorika.

Kutilayotgan natijalar: tasavvurdagi predmetlar (gul, qush, kapalak, qulf)ni qo’llari, barmoqlari bilan ko’rsatadi; arqonlardan turli tugunlarni tugadi; o’yin faoliyati mobaynida mayda o’yinchoqlar bilan o’ynaydi; belgilangan chiziqlar bo’ylab qog’ozni batartib yirta oladi; mayda qismlardan iborat bo’lgan mozaika va pazllar yig’adi.

Soha: Sensomotorika

Kutilayotgan natijalar: koptokni pastdan, bosh ortidan otadi; koptokni yer bo’ylab iloniziqilib dumalatadi; chana, rolik, ikki g’ildirakli velosipedda uchadi; nishonni to’p bilan ag’daradi (bouling); gardish (obruch)ni qo’lida, oyog’ida, belida aylantiradi; halqalarni halqa ustuniga otib tushiradi

Soha: Sog’lom turmush tarzi va xavfsizlik

Kutilayotgan natijalar: o’zining tashqi ko’rinishiga etibor beradi; jismoniy mashqlarni mustaqil bajaradi; tabiat burchagidagi o’simliklar va jonzotlarni parvarishlaydi; salomatlikka zararli bo’lgan xulq shakllarini anglaydi (chekish, ichkilikbozlik, olov bilan o’ynash va hokazo); bog’chada, ko’chada, transportda yurish qoidalariga rioya qiladi; piyodalar va velosipedchilar uchun yo’l qoidalarini biladi; yong’in xavfsizligi – 101, milliy gvardiya – 102, tez yordam – 103, gaz xizmati - 104 telefon raqamlarini biladi; xavfli vaziyatlarda qanday yo’l tutishni biladi va tushuntiradi; supermarketda, shaharda, qishloqda, dalada yo’qolib qolsa, o’zini qanday tutish kerakligini biladi.

6-7 yoshda qo‘l barmoqlarining harakati ancha aniqlashadi. Bu yozuv, chizish, qirqish, tugma taqish kabi nozik harakatlarni bajarishda yaqqol ko‘rinadi. Bolalar oddiy geometrik shakllarni chiza oladi, o‘yinchoqlarni yig‘adi, mozaika va konstruktordan foydalanadi. Bu

bosqichda bolalarni rasm chizish, loydan yasash, rang berish kabi mashg‘ulotlar bilan shug‘ullantirish juda foydalidir.

Xulosa qilib aytganda, 6-7 yosh — bolaning jismoniy jihatdan eng faol rivojlanadigan bosqichlaridan biridir. Bu yoshda bolaning suyaklari va mushaklari mustahkamlanadi, harakatlari aniqlashadi, motorikasi rivojlanadi. To‘g‘ri jismoniy tarbiya, sog‘lom turmush tarzi va gigiyenaga amal qilish orqali bola maktabga tayyor bo‘lib boradi. Tarbiyachi va ota-onalarning yordami bilan bolaning jismoniy rivojlanishi to‘g‘ri yo‘naltiriladi va mustahkamlanadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1.“Ilm yo`li” variativ dasturi Toshkent, 2022
2.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari".
3. Karimova D. "Bola jismoniy rivojlanishining psixopedagogik asoslari". Toshkent, 2020.
4.Murodov B., Usmonova S. "Pedagogika va psixologiya asoslari". Toshkent, 2021.

BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH

Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna.
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali
Rahmonova Zohira Shavkat qizi. 2-kurs talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqola bolalarni maktab ta’limiga psixologik tayyorlashga bag’ishlangan bo’lib, maqolada bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning nazariy asoslari, usullari, metodlari, bunda pedagog bolaning qanday xususiyatlariga e’tibor qaratishi lozimligi haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim, psixologik tayyorgarlik, bola, hamkorlik, yangilik, yo’nalish, ijtimoiy- shaxsiy tayyorgarlik, intellektual tayyorgarlik, motivatsion tayyorgarlik, tarbiyachi.

Bugungi kunda Respublikamizda ta’lim sohasida katta o’zgarishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, uzluksiz ta’limning ilk pog’onasi hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish uchun ko’plab qonun va farmonlar qabul qilinishi, bundan tashqari tadqiqot va tashviqot ishlarining o’tkazilayotganligi buning yaqqol isbotidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarmog’ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan taminlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim tarbiya jarayoniga zamonaviy dastur va texnalogiyalarni joriy etish, bolalarni har tomonlama intelektual,axloqiy, estetik va jismoniy rivollantirish uchun shart- sharoitlar yaratish zarurligi takidlab o’tilgan[1].Bundan tashqari O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- maydagi “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risidagi”qarori qabul qilindi. [2]Bu konsepsiya maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini taminlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, bir so’z bilan aytganda,maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning jarayonining ustuvorliklari va boshqichlarini belgilab beradi. Bu konsepsiya asosida maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasini 2026- yilgacha 80 foizga, 2030-yilga borib, 100 %ga yetkazish maqsad qilingan.

1

Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi qaroriga

2 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- maydagi “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risidagi”qarori qabul qilindi.

Bolalarni maktabga psixologik tayyorligi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarni har tomonlama ya’ni jismoniy, aqliy va psixologik yo’nalishlarda tayyorlashni o’z oldiga maqsad qilib quygan. Mana shunday muhim yo’nalishlardan biri bu bolalarni maktabga psixologik tayyorlashdir.Bola maktabda ta’lim olish jarayonida yangi muhitga tezga moslashishi, dars davomida diqqatini bir joyda jamlab turishi, unga yuklatilayotgan yangi vazifalarni qiynalmasdan bajarishi uchun maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar har taraflama tayyorlanishi lozim. Maktabda o'qishga psixologik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari motivatsion, ijtimoiy-shaxsiy, intellektual va hissiy-irodaviy tayyorgarlikdir.

Maktab o'quvchisiga aylangan bolaning ichki ruhiy hayoti maktabgacha yoshdagi bolalikdan butunlay boshqacha mazmun, o'zgacha xususiyatga ega bo'ladi: u o'quv va o'quv ishlari bilan bog'liq bo'lib, bolaning maktabga moslashishi va o'qishdagi muvaffaqiyatiga bog'liq bo'ladi. Maktabga motivatsion tayyorgarlik kognitiv qiziqishning rivojlanish darajasi, o'rganishga ongli intilish va ta'limda muvaffaqiyatga erishish istagi bilan tavsiflanadi. Maktabga tayyor bo'lgan bola ikkalasini ham o'rganishni xohlaydi, chunki u allaqachon insoniyat jamiyatida ma'lum bir pozitsiyani egallashga muhtoj bo'lgan, ya'ni kattalar dunyosiga (o'rganishning ijtimoiy motivi) kirishni ochadigan pozitsiyaga ega. Ijtimoiy va shaxsiy tayyorgarlik bolaning ichki pozitsiyasini shakllantirish, uning yangi ijtimoiy pozitsiyani - "maktab o'quvchisi pozitsiyasini" qabul qilishga tayyorligi bilan tavsiflanadi. Bu ma'lum bir mas'uliyat doirasini nazarda tutadi. Ijtimoiy va shaxsiy tayyorgarlik bolaning maktabga, o'quv faoliyatiga, o'qituvchiga, o'ziga, o'z qobiliyatlari va mehnat natijalariga munosabatida namoyon bo'ladi va o'z-o'zini anglashning ma'lum darajada rivojlanishini nazarda tutadi. Shuningdek, ijtimoiy va shaxsiy tayyorgarlik bolalarda tengdoshlar bilan muloqot qilish va o'zaro munosabatda bo'lish uchun zarur bo'lgan muloqot qobiliyatlari va fazilatlarini, shuningdek, jamoaviy shakllarni rivojlantirish qobiliyatini shakllantirishni o'z ichiga oladi.Maktabda o'qishga intellektual tayyorgarlik ta'lim muvaffaqiyatining muhim shartidir. Chunki kognitiv faoliyat va aqliy psixik jarayonlarning rivojlanishi bilan bog'liq - atrofdagi voqelik ob'ektlarini umumlashtirish, taqqoslash, muhim belgilarga ko'ra tasniflash, sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish, mavjud ma'lumotlarga asoslanib, umumlashtirish, xulosalar chiqarish qobiliyati.Intellektual etuklik deb hodisalar orasidagi asosiy aloqalarni idrok etish qobiliyatida ifodalangan tabaqalashgan idrok, diqqatni jamlash, analitik fikrlash tushuniladi; mantiqiy eslab qolish qobiliyati, naqshni takrorlash qobiliyati, shuningdek, nozik qo'l harakatlari va sensorimotor muvofiqlashtirishni rivojlantirish. Aytishimiz mumkinki, bu tarzda tushunilgan intellektual yetuklik asosan miya tuzilmalarining funktsional yetukligini aks ettiradi.Ta'limga psixologik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi bu hissiy-irodaviy tayyorgarlik bo'lib, u o'z xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyati, hissiy barqarorlik va e'tiborni ixtiyoriy tartibga solish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ma'lum ko'nikmalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. O'quv faoliyati aqliy faoliyat rivojlanishining zarur darajasini, qiyinchiliklarni yengish va o'qituvchining muayyan talablarini bajarish qobiliyatini nazarda tutadi.Ixtiyoriy tayyorgarlik (ixtiyoriy soha) bolaning qattiq mehnat qilish, o'qishi va maktab hayoti undan talab qiladigan narsalarni bajarish qobiliyatidan iborat. Irodaviy harakat tarkibiy qismlarining yetukligi ta'lim faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan irodaviy xatti-harakatlarning o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun asosdir. Bolalarni maktabga psixologik tayyorlashda uning shaxsini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Bola shaxsini rivojlantirishda ma'lum bir tomoniga (asosan, aqliy) kuchli yo'naltirish berishga alohida e'tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki, bolani tezlash-tirilgan, jadalo'qitish zarur hisoblanadi.

Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Agar shaxsni har taraflama shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlar qo'llanilmasa, rivojlanish to'xtab qolishi mumkin yoki chetlanishlarini bartaraf etish nihoyatda og'ir kechadi.7 yosh-bola yangi sharoitga tezo'rganadigan vao'qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi. Bolaning ona maktabida 5-6 yil ta'lim-tarbiya olishini (bolaning oiladagi tarbiyasi nazarada

tutilgan) u yetarli va optimal muhlat deb hisoblagan.Maktabga tayyor bo'lgan bola jismoniy chiniqqan, har qanday ob -havoda uzoq vaqt yura oladi, asosiy harakat malakalariga ega, uo'zining harakatlarini nazorat qila oladi, tozalikka rioya qiladi.Bola bilimining rivojlanganligi uning jamiyat va tabiatdagi vo-qeahodisalami tushunib yetishi, kuzatish qobiliyati, hodisalami to'g'ri nomlas hi bilan aniqlanadi. Bola o'z fikrlarini ifoda eta bilishi kerak, ijodiy va mustaqil fikrlay olishi, aniq ko'rgazma materialga tayanib, masalalarni yecha bilishi kerak. 6-7 yoshli bola oiladan tashqarida hamo'zini dadil tutishi kerak. Shakllangan madaniy ko'nikmalari o'z tengdoshlari bilan munosabatlar o'rnatishiga yordam beradi.Bola mustaqil kiyinishni, ovqat yeyishni, narsalarini toza va tartibli saqlashni o'rganishi kerak. Bola kattalar mehnatining muhimligini tushunishi va hurmat qilishi kerak. Har qanday ishga ijobiy yondashib, uni diqqat, e'tibor bilan vaqtida bajarishi lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini pedagog – tarbiyachi amalga oshiradi. U pedagogik jarayonda markaziy o’rin egallaydi. Shuning uchun tarbiyachi o’z sohasini chuqur bilishi, har xil metodik vositalarni yaxshi egallagan, puxta pedagogik va psixologik tayyorgarlikka ega bo’lishi lozim. Shu bilan bir qatorda mutaxassislik bo’yicha fanlarni hamda bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi fanini ham puxta egallagan bo’lishi darkor. Tarbiyachi bolalarni maktabga tayyorlash davomida ota-onalar bilan doimiy aloqada bo’ladi.

Xulosa qiqlib aytganda, bolalarni maktab ta’limiga psixologik tayyorlash ularning kelajakdagi o‘qish faoliyatida muvaffaqiyat qozonishi uchun muhim omildir. Bu tayyorgarlik nafaqat bilim, balki hissiy barqarorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik va mustaqil fikrlash kabi jihatlarni ham o‘z ichiga oladi. Oila, maktabgacha ta’lim muassasalari va psixologlarning hamkorligi orqali bola ichki motivatsiyaga ega, o‘qishga ijobiy munosabatda bo‘lgan, jamoadagi qoidalarni tushunadigan shaxs sifatida maktab hayotiga muvaffaqiyatli kirishadi. Shunday ekan, bolani maktabga tayyorlashda har tomonlama, ayniqsa psixologik jihatdan puxta yondashuv zarur hisoblanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5198-son farmoni // www.lex.uz 3.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- maydagi “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risidagi”qarori qabul qilindi.// www.lex.uz 3.
3. Xalbayeva G.A. Bolalarni maktabga tayyorlashning innovatsion-psixologik mexanizmlari. Monografiya. ISBN 978-9910-9768-2-7. SamDU nashriyoti, 2023.
4. Asqarova D.Q. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2020.
5. Nishonova Z.T. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2006.

METHODICAL METHODS IN THE DEVELOPMENT OF THE SOCIAL AND PROFESSIONAL IMAGE OF THE TEACHER

Saidova Ozoda Tohirovna
Independent Researcher at Tashkent State Pedagogical University

Annotation: *Methodological approaches to developing a teacher’s social and professional image have a significant impact on their success in the educational process, as well as on their self-confidence and reputation in society. This article analyzes the methodological approaches that are important for shaping a teacher’s professional image. Developing the teacher’s communicative skills, applying a creative approach to their work, introducing innovative technologies into the teaching process, and adhering to pedagogical ethics play a crucial role in strengthening their image.*

Keywords: *Teacher’s social image, professional image, methodological approaches, communicative skills, innovative technologies, pedagogical ethics, social development, professional development, innovations in education.*

Аннотация: *Методические подходы к развитию социального и профессионального имиджа учителя оказывают значительное влияние на его успех в образовательном процессе, а также на его уверенность в себе и репутацию в обществе. В статье анализируются методические подходы, которые имеют важное значение для формирования профессионального имиджа учителя. Развитие коммуникативных навыков учителя, творческий подход к своей работе, внедрение инновационных технологий в образовательный процесс и соблюдение педагогической этики играют ключевую роль в укреплении его имиджа.*

Ключевые слова: *социальный имидж учителя, профессиональный имидж, методические подходы, коммуникативные навыки, инновационные технологии, педагогическая этика, социальное*

Introduction. The social and professional image of a teacher is not only a factor that determines the effectiveness of the educational process but also shapes the respect and attention towards teachers in society. The image of a teacher is a reflection of their pedagogical activities and directly impacts the success of the education system. A teacher finds their place in society not only through knowledge but also through responsibility towards their work, communication skills, and adherence to pedagogical ethical norms. Therefore, developing the social and professional image of a teacher is an important pedagogical issue.

Today, the professional image of a teacher is not limited to their professional skills but also depends on their communication abilities, pedagogical ethics, creativity, experience in applying innovative approaches, and the quality of their relationships with society. Teachers must continuously improve their knowledge and skills, incorporate new methodological approaches, and apply pedagogical technologies in their work. Thus, this article analyzes the role and significance of methodological approaches in shaping the teacher's social and professional image, as well as the teacher's role in society and their influence on the education system.

Literature Review. The analysis of literature on the development of the teacher's social and professional image provides an opportunity to explore the methodological approaches necessary to improve the effectiveness of the educational process. The teacher’s image is not only connected to their professional competence but also to their role in society, adherence to pedagogical ethical norms, communication skills, creative approach, and the ability to adapt to changing educational conditions.

Several studies (Sharipova, 2017; Islomov, 2019) show that a teacher's professional image strengthens their self-confidence in their professional activities and increases their respect in society. The teacher's appearance, etiquette in communication, and adherence to pedagogical ethics also shape their social image. Furthermore, a teacher’s aspiration to improve education quality through scientific research and methodological developments contributes to the development of their professional image.

The teacher's communication skills play a crucial role in their interactions with society. Zokhidov (2020) suggests that a teacher’s communication skills help improve their success in the educational process. The teacher’s approach to conversation and communication, understanding their role in education, as well as their consistency in communication with students, strengthens their social image.

The application of innovative pedagogical technologies is considered an effective tool in developing the teacher's professional image. Daminov (2021) demonstrates that the use of pedagogical technologies affects not only the teacher’s pedagogical competence but also their reputation in society. The implementation of educational technologies reflects the teacher's openness to innovations and their readiness to apply new approaches, which strengthens their social and professional image.

A teacher's social image is closely related to their adherence to pedagogical ethics and the establishment of relationships based on mutual respect with students and colleagues. Literature on

high pedagogical ethics (Isakov, 2018) shows that this helps strengthen the teacher’s position and reputation in society. Pedagogical ethics increases the teacher's social responsibility and enhances respect for their work.

The teacher's adaptability to changing educational conditions, the ability to apply new methods and technologies in their practice, is an important factor in developing their professional image. The use of pedagogical technologies, mastering new teaching methods, and their effective implementation increase the teacher's social respect and reputation (Murodov, 2020).

Discussion. Methodological approaches play a significant role in the development of the teacher's social and professional image. This process not only determines the teacher’s success in the educational process but also shapes their respect and reputation in society. The introduction of methodological approaches and technologies in pedagogical practice helps the teacher to perform their work effectively and efficiently. At the same time, the teacher’s social image is linked to their communication skills, pedagogical ethics, self-confidence, and the ability to adapt to changing conditions.

The application of innovative pedagogical technologies and mastering new teaching methods are important factors in shaping the teacher’s professional image. Openness to innovations, readiness to apply modern pedagogical approaches, and the ability to adapt to changes in the education system increase the teacher’s respect and reputation in society. However, in this process, it is essential not only to apply new technologies but also for the teacher to maintain their pedagogical ethics and feel social responsibility in education. The teacher should adhere to high moral standards, maintain respect when interacting with students, consider their opinions, and ensure fairness throughout the educational process.

Additionally, the teacher's social image and professional status are directly related to the effectiveness of pedagogical approaches. A good teacher not only presents knowledge effectively but also gains respect and reputation in society through their communication skills, social relationships, responsibility towards their work, and success in establishing positive relationships with students.

The teacher's creative approach to their work, developing new methods, and implementing innovations in the educational process leads to their professional development. In this context, the development of the teacher's social and professional image ultimately serves to improve the overall quality of the education system. Their professional and personal development enhances the effectiveness of the educational process, strengthening the trust in teachers within society.

At the same time, when developing the teacher's image, it is necessary to apply all methodological approaches and technologies correctly and together. Developing these approaches and harmonizing the teacher's personal and professional qualities is of great importance for their social and pedagogical role.

Conclusion. The development of the teacher’s social and professional image is crucial in improving the quality of the education system. A teacher must not only be knowledgeable but also possess high communication skills, be ready to apply innovative approaches, and adhere to pedagogical ethics. Their professional image, reputation, and respect in society increase their confidence in their work and ensure the effectiveness of the educational process.

Through pedagogical innovations, methodological approaches, and the development of communication skills, a teacher can strengthen their image and contribute to improving the quality of education and the respect for teachers in society. At the same time, the teacher's social and professional image requires continuous growth, and therefore teachers must improve their qualifications, learn new methods, and remain open to innovations in education.

List of literature used:

1. Axmetova, N. (2017). O‘qituvchining professional imidjini rivojlantirish. Toshkent: O‘zbekiston Xalq Ta’limi Vazirligi.

2. Sharipova, Z. (2018). Komunikativ ko‘nikmalar va o‘qituvchining ijtimoiy roli. Toshkent: Ta’lim va rivojlanish.

3. Islomov, A. (2019). O‘qituvchining pedagogik etikasi va ijtimoiy imidji. Toshkent: O‘qituvchi.

4. Daminov, F. (2020). Innovatsion pedagogik texnologiyalar va o‘qituvchining imidjini shakllantirish. Toshkent: Fan va texnologiya.

5. Murodov, T. (2021). O‘qituvchining ijtimoiy imidjini rivojlantirishdagi metodik yondoshuvlar. Toshkent: Pedagogika.

6. Isakov, R. (2020). O‘qituvchining professional va shaxsiy imidjini shakllantirishda etik yondoshuvlar. Toshkent: O‘zbek universiteti.

7. Zohidov, M. (2021). Pedagogik innovatsiyalar va ta’limdagi o‘qituvchining rolini rivojlantirish. Toshkent: Ta’lim tizimi.

8. Rasulov, A. (2022). O‘qituvchining professional imidji va uning ta'limdagi ahamiyati. Toshkent: Xalq ta'limi va pedagogika.

9. Mirkhanov, B. (2018). O‘qituvchi va jamiyat: O‘qituvchining ijtimoiy mas'uliyati. Toshkent: Ta’lim.

10. Turaeva, G. (2020). O‘qituvchining shaxsiy va professional rivojlanishi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti.

BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA IJTIMOIY PSIXOLOGIK MOSLSHTIRISH

Rajabova Zebo.

SamDUKF Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola bolalarni maktabga tayyorlashning ko’rinishlari, bolalarni maktabga tayyorlashda oilaning va mahallaning o’rni,trening mashqlari o’tkazilishi,tarbiyaviy soatlar ,nima qilsak bolalarni maktabga yaxshi moslashtiramiz ,va nima uchun maktabga moslasholmaganligini aniqlashdan iborat.

Kalit so’zlar:ta’lim, bola tarbiyasi,ta’lim tizimi.

Abstract: This article is about the forms of preparing children for school, the role of the family and neighborhood in preparing children for school, conducting training exercises, educational hours, what we can do to make children adapt well to school, and to find out why they could not adapt to school.

Key words: education, child upbringing, educational system

Аннотация: В данной статье речь идет о формах подготовки детей к школе, роли семьи и соседства в подготовке детей к школе, проведении обучающих занятий, учебных часов, о том, что мы можем сделать, чтобы дети хорошо адаптировались к школе, а также выяснить, почему они не смогли адаптироваться к школе.

Ключевые слова: образование, воспитание детей, система образования

Hozirgi kunda O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta’limiga tayyorlashga alohida e’tibor berilmoqda jumladan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev,,Zamonaviy maktabgacha ta’lim sog’lom avlodni voyaga yetkazishda muhim o’rin tutadi”.Bolalarni maktabga tayyorlashga barcha shart sharoitlar yaratish maqsadida “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomollashtirish chora-tadbirlari tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2707-sonli qarori, “Nodavlat ta’lim xizmatlarini ko’rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora -tadbirlari to’g’risida” gi PQ-3276-sonli qarori “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3261-sonli qarori, ”O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’limni tashkil etish to’g’risida”gi PQ-3305-sonli qarori , “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-5198-sonli formasi qabul qilindi .

Statistik ma’lumotlarga ko’ra insonlar umri davomida oladigan axborat va ma’lumotlarni 70% ni 7 yoshgacha bo’lgan davrda olar ekan. Ota-bobolarimizdan qolgan maqol bejiz emas “Yoshlikda olingan bilim toshga o’yilgan naqsh kabidir”. Bugungi kunda ta’lim to’g’risida turli qonun qoidalar jumladan <<Ta’lim to’g’risida gi O’zbekiston Respublikasi qonunining 8-moddasida Maktabgacha ta'lim tarbiya bolalarni o’qitish va tarbiyalashga ularni intellektual ,ma’naviy - axloqiy etik va estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga ,shuningdek bolani umumiy o’rta ta’limga tayyorlshga qaratilan ta’lim turidan biridir .Bundan tashqari bolani ruhan yetuk aqlan baqquvvat qilib,tarbiyalashda oila bilan bog’chaning o’rni juda katta ,ahamiyat kasb etadi zero tarbiya oiladan boshlanadi.Oilagadi muhit qanchalik sof va go’zal bo’lsa farzand tarbiyasi ongi va dunyoqarashi shunga monand o’sib boradi.Jumladan bola tarbiyasiga mahalla kuy ham befarq bo’lmasligi kerak zero <<Bir bolaga yetti mahalla ota-ona>>deganlari bejiz ems.

Bolalarni maktabga tayyorlashda birinchi navbatda ularning psixologiyasini o’rganish lozim.Bolaning ta’lim olish istagi o’quvchi bo’lish orzusi maktabga bo’lgan munosabatini albatta o’yg’otish kerak.Darslarni diqqat bilan tinglash ,uyga berilgan vazifalarni vaqtida bajarishi intizomga rioya qilish kerak.

Hozirgi kunda turli ta’lim muassasalarida Bolani dars jarayoniga qiziqtirish maqsadida turli metod va darsturlar asosida olib borilmoqda .Jumladan :<<ILK QADAM>> dasturi interfaol metodlar ,aqliy hujum ,test ,suhbat bumerang vahokazolar.

Bundan tashqari boshlang’ich 1-4 sinflar balki undan yuqori sinflar uchun ham trening mashqlar o’tkazib turilish maqsadga muofiq bo’ladi.Bundan ko’zlangan asosiy maqsad:bolalarni bilim malakalarini o’stirish ,jamoa bilan ishlaydi hamjihatlikda bir biri bilan fikr almashadi.Tarbiyaviy soatlar ham bugungi kunda bazi hollarda quruq gap bilan o’tib ketyabti.Qaysidir o’quvchining o’zlashtirishlari davomati xulqi va qaysidir tadbirga tayyorgarlik sinfdgi muammolarni hal etish kabi masalalar o’stida so’z yuritish lozim.

Har bir sinflarda bo’lgani kabi boshlag’ich sinflarda o’zlashtirish darajasi past va yuqori bo’lgan o’quvchilat yo’q emas albatta bor.Bu o’quvchilar bilan alohida shug’illanish lozim.Va bularni albatta nazorat qilib turish kerak.Yaxshi o’qiydigan o’quvchilarga o’zlashtirish darajasi past bo’lgan o’quvchilarni bitta bitta biriktirib nazorat qilish kerak.

Bola birinchi sinfda uch fan (o‘qish, yozuv va matematika)ning asoslarini, tabiat va jamiyat to‘g‘risida oddiy bilimlarni egallaydi. Bola odamlar, jismlar va tevarak-atrofdagi hodisalar haqida ma’lum tasawur bilan maktabga kelishi kerak. Bolaning o‘quv materialni to‘liq o‘zlashtirishi va ta’limning bola qobiliyatlariga mos kelishi uning aqliy faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Bolaning yaxshi o‘qishiga aqliy faoliyatining rivojlanish darajasi, idrok, tasavvur, xotira va tafakkur funksiyalari hamda aqliy faoliyat bilan shug‘ullanish odatlari ta’sir qiladi. Bola tahlil qilishni, ya’ni narsalarni (predmetlarni) idrok etganda muhim va muhim bo‘lmaganlarni ajrata bilish, kuzatayotgan hodisalarni umumlashtirish, guruhlash kabilarni o‘rganishi kerak. Bola zehnli, ziyrak, topqir, mustaqil bo‘lishi kerak. Zavq, xursandchilik keltiradigan aqliy faoliyatiga nisbatan bolada qiziqish paydo bo‘ladi. Ta’limning muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘p jihatdan bola nutqining rivojlanish darajasiga, uning lug‘at boyligiga, mustaqil, aniq, ifodali va grammatik jihatdan to‘g‘ri gapira olishiga bog‘liq bo‘ladi. Bolada maktabga borish bilan nafaqat hayot tartibi va asosiy faoliyatida, balki ijtimoiy o‘rnida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bola munosabatlari shakllangan tanish tengdoshlar va kattalar jamoasidan, notanish bolalar va kattalar jamiyatiga o‘tadi. Oldingi jamoada bola o‘zining huquq, burch va imtiyozlarini bilar edi, yangi shakllanayotgan maktab jamoasida esa bola o‘zini boshidan ko‘rsatishi kerak. Bolaning burch va huquqlari, maktabgacha davrga nisbatan aniqroq va qattiqroq belgilanadi. Bola faoliyatini baholashning muhim mezonlaridan biri nafaqat maktabda, balki oilada, tengdoshlar davrasida muvaffaqiyatli o‘qish bo`lib qoladi. Maktabda uzoq muddat ota-ona g‘amxo‘rligisiz bo‘lgani sababli, bola o‘z yoshiga mos his-tuyg‘u va iroda mustahkamligiga ega bo‘lishi, o‘z xulqini nazorat qila olishi kerak. Agar o‘quvchi o‘qishga ijobiy yondashsa, o‘qishni xohlab, intilsa, ta’limdagi boshlang‘ich qiyinchiliklarni tezroq va osonroq bartaraf etadi. Irodali bo‘lish bolaga

barcha maktab vazifalarini doimiy va muvaffaqiyatli bajarishida muhim ahamiyatga ega. Bilim va ijtimoiy hayot qonun-qoidalariga rioya qilish, xarakter ijobiy jihatlarining shakllanganligi bolaga boshqa bolalar bilan muloqotda, sinfdoshlar bilan do‘stona munosabat o‘rnatishda va jamoada faol ishtirok etishida juda katta yordam beradi. Bolaning maktabga umumiy tayyorgarligi deganda uning har tomonlama rivojlanganligi tushuniladi. Biror tomonining rivojlanmagani, zaifligi (aqliy, histuyg‘uli, irodaviy yoki amaliy) maktabda o‘zlashtirmaslikning sabablaridan bo‘lishi mumkin.
Shu bilan birgalikda, bolalar birinchi sinfda o‘quv fanlarining (o‘qish, yozuv, matematika) mazmunini o‘zlashtirish uchun maxsus bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak. Masalan, matematikani o‘qitishda o‘qituvchi bola narsalarning rangi, shakli, katta-kichikligi, sonini ajrata biladi deb hisoblaydi, yozuvni o‘rganishda esa bola yozuv va rasm qurollarini to‘g‘ri ishlata olishiga, grafik mashqlarni bajara olishiga tayanadi. Shu kabi bilim, malaka va ko‘nikmalar maktabga maxsus tayyorgarlikni tashkil etadi. Umumiy va maxsus tayyorgarlik bir-biriga zid kelmaydi. Maktab fanlarini o‘zlashtirishda bolaning maxsus tayyorgarligi umumiy tayyorgarlikdan kelib chiqadi, unga mos keladi, tayanadi.
Bola shaxsini rivojlantirishda ma’lum bir tomoniga (asosan, aqliy) kuchli yo‘naltirish berishga alohida e’tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki, bolani tezlashtirilgan, jadal o‘qitish zarur hisoblanadi.
Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Agar shaxsni har taraflama shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlar qo‘llanilmasa, rivojlanish to‘xtab qolishi mumkin yoki chetlanishlarini bartaraf etish nihoyatda og‘ir kechadi.
7 yosh — bola yangi sharoitga tez o‘rganadigan va o‘qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi. Y.A. Kamenskiy bola hayotining yettinchi yilini bekorchilikda buzilib ketmaslik uchun maktabda o‘qishni boshlaydigan vaqt deb hisoblagan. Bolaning ona maktabida 5-6 yil ta’lim-tarbiya olishini (bolaning oiladagi tarbiyasi nazarda tutilgan) u yetarli va optimal muhlat, deb hisoblagan.
Maktabga tayyor bo‘lgan bola jismoniy chiniqqan, har qanday ob-havoda uzoq vaqt yura oladi, asosiy harakat malakalariga ega, u o‘zining harakatlarini nazorat qila oladi, tozalikka rioya qiladi. Bola bilimining rivojlanganligi uning jamiyat va tabiatdagi voqeahodisalarni tushunib yetishi, kuzatish qobiliyati, hodisalarni to‘g‘ri nomlashi bilan aniqlanadi. Bola o‘z fikrlarini ifoda eta bilishi kerak, ijodiy va mustaqil fikrlay olishi, aniq ko‘rgazma materialga tayanib, masalalarni yecha bilishi kerak. 6—7 yoshli bola oiladan tashqarida ham o‘zini dadil tutishi kerak. Shakllangan madaniy ko‘nikmalari o‘z tengdoshlari bilan munosabatlar o‘rnatishiga yordam beradi.
Bola mustaqil kiyinishni, ovqat yeyishni, narsalarini toza va tartibli saqlashni o‘rganishi kerak. Bola kattalar mehnatining muhimligini tushunishi va hurmat qilishi kerak. Har qanday ishga ijobiy yondashib, uni diqqat, e’tibor bilan vaqtida bajarishi lozim.
Bolada estetik idrokni shakllantirish, o‘zining yoshiga mos badiiy asarlarga qiziqish uyg‘otish, yon-atrofni estetik jihatdan bezatishiga intilishini rivojlantirish kerak. Bola musiqa, adabiy so‘z, rasmlarning chiroyini sezishni o‘rganishi, ashula aytish, rasm chizish, yasash, topishmoqlar, laparlar, tez aytishlar, maqollar, ertaklarni bilishi va aytib berishi, kitoblarni avaylashni bilishi kerak.
«So’zni tushuntiring»
Bolaga bir nechta oddiy so’zlarni (tugma, qalam, velosiped va boshqalarni) taklif qiling. Vazifa-bu so’zlarni o’z nomlarini ishlatmasdan tushuntirish — Misol uchun, siz bolaga ushbu tushunchalarni ushbu mavzu bilan tanish bo’lmagan o’tmishdan begona yoki insonga tushuntirishni taklif qilishingiz mumkin. Ushbu o’yin ko’pincha bolalar uchun kurslarda qo’llaniladi va bolaning nutq rivojlanishini yaxshilashga yordam beradi.
«Umumiy nima?»
Ushbu mashqda Leonardo da Vinchi bo’sh vaqtlarida o’zini o’ziga jalb qilishni yaxshi ko’rganligi haqida fikr bor. U bir-biriga bog’liq bo’lmagan ikkita ob’ektni oldi va ular o’rtasidagi munosabatlarni topishga harakat qildi. Bolaga bunday o’yinni o’ynashni taklif qiling. Kitob va stul

o’rtasida qanday umumiylik bor? Qurbaqa va raketa o’rtasidagi munosabatlar qanday? Ushbu mashq nafaqat fikrlash tezligini va nostandart fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, balki kayfiyatni yaxshilaydi.

«So’zlarni eslab qolish»

Bolaga bir necha so’z beriladi. Uning vazifasi so’zlarni eslab qolish va ulardan hikoya qilishdir. Yod olish uchun assotsiatsiyalar, umumlashma usulini qo’llash mumkin, ammo so’zlarni yozish yoki chizish mumkin emas.

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun doimiy va samarali bo’lish uchun bolani psixolog bilan rivojlanish mashg’ulotlariga yozib olish foydali bo’ladi. “Ishlab chiqarish nomlari” bolalar markazi barcha yoshdagi barcha bolalarni bunday tadbirlarga taklif qiladi. Mutaxassislarimiz bolaning kompleks rivojlanishiga hissa qo’shadigan noyob usullardan foydalanadilar. Psixolog bilan mashg’ulotlardan so’ng, bolalar maktabga osongina moslashadilar, yaxshi o’rganadilar va tengdoshlari bilan umumiy tilni tezroq topadilar.

Bolaning ixtiyoriy sohasi rivojlanishidagi yana bir muhim o’zgarish bu uning xulq-atvor qoidalarining axloqiy mazmunidan xabardorligi va o’z harakatlarida ularga rahbarlik qilish qobiliyatidir. Bu xabardorlik qoidalarning umumlashtirilgan mohiyatini va ularning umumiy majburiyatini tushunish asosida shakllanadi. Shu sababli, bolalar jamoasida tartibni buzuvchilar haqida shikoyat qilishlari mumkin, bu aslida ularni xafa qilmagan.

Agar kattalar bolani tanimasa, unga etarlicha his-tuyg’u va tushunishsiz munosabatda bo’lishadi, bolalarda tartibsiz, qo’pol, ba’zan hatto tajovuzkor xattiharakatlar shakllanadi.

O’zlarining xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish, uni boshqarish qobiliyati bolalarning harakatlari va xatti-harakatlarini kuzatishga qodir ekanligida namoyon bo’ladi. Ammo, bu yoshda, nazorat kattalar tomonidan rag’batlantirilishi sharti bilan amalga oshiriladi, ularning ko’rsatmalariga binoan, nazorat qilish jarayoni o’z vaqtida aniqlanadi, go’yo mos keladi va boshlanadi.

Bolaning baholash va nazorat qilish harakatlarining rivojlanishi natijasida, bu vaqtda tayinlangan ish uchun javobgarlikning paydo bo’lishi ko’rib chiqilishi mumkin. Bir harakatning maqsadlarini boshqasiga bo’ysundirish, eng muhimi, shakllana boshlaydi.

Bolaning nafaqat amaliy harakatlari, balki qisman kognitiv aqliy jarayonlar (xotira, fikrlash) o’zboshimchalik bilan, qasddan boshqariladi. Kommunikativ ko’nikmalar shakllanadi, nutq odob-axloq elementlari: salomlashish, xayrlashish, boshqalarga ism va shunga o’xshash narsalar bilan murojaat qilish.

Bu yoshdagi bola mustaqil va tashabbuskor. Bu o’yin davomida yuzaga keladigan muammolarni mustaqil hal qilishda, o’yin mavzularini tanlashda, savollarni va hukmlarni chiqarishda namoyon bo’ladi.

Psixologik treninglar bolalarning amaliy faoliyati sanaladi. Shuning uchun ham psixologik treninglar bolalarning bilish faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi. Shuningdek, psixologik treninglar bolalarni tevarak-atrof to‘g‘risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o‘z shaxsiy tajribalari va mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini amalda qo‘llay bilishga o‘rgatadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlari, ijodiy kuchlar, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilariga psixologik yordam ko’rsatish

Boshlang’ich maktab o’quvchilari bilan muomala qilishda psixologik yordam zarur, tarbiyachilar va o’qituvchilar bolalar uchun xavfsiz va qo’llab-quvvatlovchi muhitni yaratishi kerak. Va albatta quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Faol Tinglash. Faol tinglash ota-onalar, va o’qituvchilarga o’quvchilarning hissiy va psixologik muammolarini tushunishga yordam beradigan muhim mahoratdir. Faol tinglash ko’z bilan aloqa qilishni, diqqatni jalb qilishni va bolaning so’zlari haqida mulohaza yuritishni o’z ichiga oladi. O’qituvchi yoki tarbiyachi diqqatli va sezgir bo’lib, o’quvchiga o’z qiyinchiliklarini etkazish uchun xavfsiz joy yaratishi mumkin.

2. Rag’batlantirish va ijobiy mustahkamlash. Rag’batlantirish va ijobiy mustahkamlash boshlang’ich o’quvchilarning ishonchini mustahkamlashda uzoq yo’lni bosib o’tadi. O’qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalar bolalar akademik yoki ijtimoiy jihatdan yaxshi ishlashganda ijobiy fikrlarni taklif qilishlari kerak. Ushbu yondashuv o’quvchilarga ijobiy imidjni rivojlantirishga yordam beradi va o’z navbatida maktab muhitida o’zlarini qulay his qilishadi.
3. Ijtimoiy qo’llab-quvvatlash. Ijtimoiy qo’llab-quvvatlash boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun maktabga moslashishda juda muhimdir. Ota-onalar, tarbiyachilar va maktab xodimlari o’yin vaqti, sport va guruh faoliyati kabi ijtimoiy tadbirlarni rag’batlantirishlari kerak. Ushbu tadbirlar bolalarga do’stlik o’rnatishga, ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirishga va o’zlariga bo’lgan ishonchni oshirishga yordam beradi.
4. Maslahat Xizmatlari. Maslahat xizmatlari hissiy yoki psixologik qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan bolalar uchun ajoyib imkoniyat bo’lishi mumkin. Maslahat xizmatlari bolalar qo’rquv, umidsizlik va tashvishlarini ifoda etishlari mumkin bo’lgan maxfiy va qo’llabquvvatlovchi muhitni taklif etadi. Maslahatchilar bolalarga yengish strategiyasini ishlab chiqishda yordam berishlari va ularga his-tuyg’ularini boshqarish vositalarini taqdim etishlari mumkin.
5. Guruh Terapiyasi. Guruh terapiyasi boshlang’ich sinf o’quvchilariga psixologik yordam ko’rsatishning yana bir samarali usuli hisoblanadi. Guruh terapiyasi mashg’ulotlari tashvish, bezorilik yoki stress kabi muayyan mavzularga qaratilishi mumkin. Bolalar o’z tajribalari bilan o’rtoqlashishlari va bir-birlaridan o’rganishlari mumkin. Bundan tashqari, ushbu mashg’ulotlar bolalarga ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirishga va yangi do’stlik o’rnatishga yordam beradi.
Boshlang’ich maktab o’quvchilarini maktabga moslashtirish-bu o’qituvchilar, ota-onalar va psixologlarning alohida e’tibor va g’amxo’rligini talab qiladigan jarayon. Ushbu davr bola hayotidagi muhim bosqichdir, chunki ularning aksariyati birinchi marta kundalik mashg’ulotlar, yangi xulq-atvor qoidalari va yangi odamlar bilan muloqot qilish zarurati bilan duch kelmoqdalar. Boshlang’ich maktab o’quvchilarining maktabga moslashishini psixologik qo’llabquvvatlash bolaga moslashish jarayonida yuzaga keladigan hissiy va psixologik qiyinchiliklarni engishga yordam beradigan bir qator tadbirlarni o’z ichiga oladi. Mana bu tadbirlarning ba’zilari:
Psixolog bilan individual suhbatlar.
O’quv yilining boshida psixolog har bir boshlang’ich maktab o’quvchisi bilan individual suhbatlar o’tkazishi mumkin. Ushbu suhbatlar davomida psixolog bola qanday his-tuyg’ularni boshdan kechirayotganini, yangi vaziyatga qanday munosabatda bo’lishini va qanday qiyinchiliklarga duch kelishini aniqlay oladi. Bunday suhbatlar natijasida psixolog bolaga kerakli maslahatlarni berishi va unga yangi maktabga moslashishiga yordam berishi mumkin.
Ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirish bo’yicha guruh darslari
Boshlang’ich maktab o’quvchilari uchun sotsializatsiya va boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati juda muhimdir. Bolaga ushbu ko’nikmalarni rivojlantirishga yordam berish uchun psixolog bolalar muloqot qilishni, bir-birlarini tinglashni va nizolarni hal qilishni o’rganadigan guruh mashg’ulotlarini o’tkazishi mumkin.O’yin terapiyasi.
O’yin terapiyasi-bu ijobiy psixologik ta’sirga erishish uchun o’yinlardan foydalanishga asoslangan psixoterapiya usuli. Bu usul bolalar uchun juda samarali bo’lishi mumkin, chunki o’yinlar ularga dam olishga, ijodkorlikni namoyon etishga va his-tuyg’ularini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.
Ota-onalar uchun psixologik treninglar.
Ota-onalar, shuningdek, boshlang’ich maktab o’quvchilarini maktabga moslashtirishda juda muhim rol o’ynaydi. Ularga o’z rolini tushunishga va farzandlarining ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga yordam berish uchun psixolog ota-onalar uchun psixologik treninglar o’tkazishi mumkin.Qo’llab-quvvatlash va monitoring tizimi.

Yosh o’quvchilarga moslashish jarayonida yordam beradigan qo’llab-quvvatlash va monitoring tizimini yaratish muhimdir. Ushbu tizim turli xil vositalar va usullarni o’z ichiga olishi mumkin, masalan, hissiy barqarorlik testlari va o’qituvchilar va psixologlarning fikr-mulohazalari.
Umuman olganda, boshlang’ich maktab o’quvchilarining maktabga moslashishini psixologik qo’llab-quvvatlash. Psixologik yordamning asosiy vazifasi bolaga yangi muhit va yangi talablar bilan bog’liq stressni engishga yordam berishdir. Psixolog bolaga tashvishlarni engishga, o’quv jarayoniga qiziqishga, o’qish uchun motivatsiyani rivojlantirishga yordam berishi kerak.
Psixologik qo’llab-quvvatlash individual va guruh mashg’ulotlari doirasida amalga oshirilishi mumkin. Shaxsiy mashg’ulotlar paytida psixolog bola bilan muloqot qiladi, uning muammolarini aniqlaydi va yechimlarni topishga yordam beradi. Guruh mashg’ulotlari ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirish va bolalar jamoasini mustahkamlashga qaratilgan.
Psixologik yordamning muhim vazifalaridan biri bu ota-onalar bilan ishlashdir. Psixolog ota-onalarga bolani maktabga tayyorlashda yordam berishi, o’quv jarayonini tashkil etish bo’yicha tavsiyalar va moslashish davrida bola bilan o’zini tutish bo’yicha maslahatlar berishi kerak.
Bolani maktabga psixologik qo’llab-quvvatlashning bir qismi sifatida psixolog bolaga tashvishlarni engishga va yangi muhitga moslashishga yordam beradigan turli xil usul va usullardan foydalanishi mumkin. Masalan, ijtimoiy ko’nikmalarni va o’z-o’zini hurmat qilishni rivojlantirishga yordam beradigan o’quv o’yinlarini o’tkazish mumkin.
Boshlang’ich maktabga moslashish qiyin jarayon bo’lishi mumkin va o’quvchilarga yangi muhitga moslashishda psixologik yordam zarur. Ota-onalar, tarbiyachilar va o’qituvchilar bolalar uchun xavfsiz va qulay muhitni ta’minlash uchun birgalikda ishlashlari kerak. Faol tinglash, ijobiy mustahkamlash, ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, maslahat xizmatlari va guruh terapiyasi psixologik yordam ko’rsatishning samarali usullaridir. Hissiy va psixologik yordam ko’rsatish orqali bolalar xavfsiz, qo’llab-quvvatlovchi muhitda o’sishi va rivojlanishi hamda akademik va shaxsiy hayotlarida muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” PF-5198-son farmoni // www.le.x.uz
2. “Bolaga yo‘naltirilgan ta’lim” dasturi. T.: 2011
3. И.В.Роберт Современные информационные технологии в образовании: Дидактические проблемы; перспективы использования. – М.: Школа– Пресс, 1994. –С. 205.
4. N.Erxonova., Sh.Isakova. Psixolog kitobi. «Evrika» nashriyoti-matbaa uyi. Toshkent-2021
5. F.Umarova. Bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim. T.: 2012

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARALI ROLI

Ch.B Abduraxmanova
Samarqand davlat unversiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur ish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini shakllantirishda mustaqil ishlar, ahamiyatini yoritishga bag‘ishlangan. Unda kichik yoshdagi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, qobiliyati, bilimini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, o’rni tahlil qilinadi. Maqolada o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirish, dars jarayonini jonlantirish va ularni faol ishtirok etishga undovchi usullar misollar orqali ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, o‘qituvchilarga boshlang‘ich sinfda mustaqil ishlarni tashkil etishda samarali metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, o‘quv-bilish kompetensiyasi, mustaqil ish, zamonaviy yondoshuv usullari, pedagogik texnologiyalar, PIRLS dasturi ijodiy fikrlash, ta’lim samaradorligi.

Boshlang‘ich ta’limda mustaqil ishlarni tashkil etish, o‘quvchilarda o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ishlash jarayoni o‘quvchilarga o‘z bilimlarini mustaqil ravishda qo‘llash va yangi bilimlarni o‘zlashtirish

imkoniyatini yaratadi. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash, refleksiya, va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Mustaqil ishlar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliy holatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini oshiradilar, bu esa ularning tahlil qilish, sintetik fikr yuritish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini kuchaytiradi. Bu jarayon, shuningdek, o‘quvchilarning shaxsiy muvaffaqiyatini ta’minlaydi va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, mustaqil ishlar o‘quvchilarga o‘z vaqtlarini samarali rejalashtirish, o‘z maqsadlariga erishish uchun strategiyalarni ishlab chiqish Mustaqil ishlar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliy holatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini oshiradilar, bu esa ularning tahlil qilish, sintetik fikr yuritish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini kuchaytiradi. Bu jarayon, shuningdek, o‘quvchilarning shaxsiy muvaffaqiyatini ta’minlaydi va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Kompetensiyani shakllantirish jarayonida o‘qituvchi axborot-bilishga yo‘naltirilgan turli testlar va vazifalardan foydalanadi. Ushbu testlar, o‘quvchilarning yangi ma’lumotlarni qanday o‘zlashtirishlari va ulardan qanday foydalana olishlarini aniqlashga yordam beradi. Shunday qilib, o‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil ishlarni amalga oshirishlarini qo‘llab-quvvatlaydi va ularning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda mustaqil ishlarni tashkil etish o‘quvchilarning o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, o‘qishga qiziqishning yo‘qligi va o‘ziga ishonmaslik muammolari o‘quv jarayonida jiddiy to‘siqlarni keltirib chiqaradi. O‘quvchilarning yaxshi o‘qishi, o‘z qobiliyatlarini anglashlari va turli topshiriqlarni sifatli bajarish ko‘nikmalari kompetentlik hissining shakllanishiga olib keladi.

Boshlang‘ich sinf bitiruvchisi, ya’ni 4-sinf o‘quvchisi, o‘quv dasturida belgilangan hajmda va darajadagi bilimlarga ega bo‘lishi, amaliy xarakterdagi turli topshiriqlarni sifatli bajarish, mustaqil o‘qish va izlanish faoliyatining faol subyektiga aylanishi kerak. Bunday o‘quvchilar reflexiv xulq-atvor ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, o‘zini adolatli baholay olishlari va o‘qish hamda tushunish darajasini tahlil qila olishlari lozim. Yoshlik xususiyatlariga ko‘ra, ular ta’lim oluvchi asosiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi, shunda kompetentli deb hisoblanishi mumkin.

Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi kompetentligi shaxsiy sifatlar tizimida ko‘rilsa, uning tarkibiy qismlari quyidagi belgi-xususiyatlar bilan namoyon bo‘ladi: tahlil qilish qobiliyati, ijodiy fikrlash, o‘z-o‘zini baholash va boshqalar. Bunday o‘quvchilar PIRLS baholash dasturi talablari va mezonlariga raqobatbardosh nomzod bo‘la olishadi. Shunday qilib, mustaqil ishlarni samarali tashkil etish orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirish, qobiliyatlarini anglash va o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshirish imkoniyatini qo‘lga kiritadilar. O‘quv-bilish kompetensiyalari quyidagi asosiy qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi:

-o‘quvchilar o‘z maqsadlarini belgilab, ularga erishish uchun reja tuzishlari zarur.

-o‘z maqsadlarini boshqalarga tushuntirish va bilganlarini og‘zaki va yozma shaklda etkazish.

-o‘quvchilar o‘z faoliyatlarini oldindan rejalashtirib, keyinchalik ularni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlari lozim.

-o‘quvchilar o‘z faoliyatlarini baholab, tushunmagan joylarini aniqlashlari kerak.

-o‘rganilayotgan matnlar va voqealar haqida savollar berish va faktlarni diqqat bilan kuzatish.

-o‘quvchilar o‘zlarini boshqarish va o‘rganayotgan materialni qanday tushunganligini ifodalash qobiliyatiga ega bo‘lishlari zarur.

-o‘quvchilar olingan natijalarni yozma shaklda ifodalay olishlari va xulosalar chiqarishlari kerak.

Ushbu qobiliyatlarni mustaqil ravishda amalga oshirish orqali, kelgusida o‘tkaziladigan PIRLS baholash dasturi bo‘yicha mamlakatimiz ta’lim tizimining reytingi oshishi mumkin. Shu sababli, o‘quv dasturlarini va mashg‘ulotlarni amaliyotga joriy qilishdan oldin, ularning samaradorligini baholash va o‘quvchilarning ehtiyojlariga mosligini tekshirish juda muhimdir. Bu

esa, o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini yaxshilash va o‘quvchilarning muvaffaqiyatini ta’minlashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari 70-85.
2. Aliyev N “Mustaqil ishlar va kompetensiyalar: O‘zbekiston va boshqa MDH mamlakatlari tajribasi”. O‘zbekiston Ta’lim Innovatsiyalari jurnali,2024-y 12(1), Bet: 60-75.
3.O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining tavsiyalari “Ta’limda innovatsion metodlar va texnologiyalarni qo‘llash” 2022-yil 15-yanvar
4. Akilov R “O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’limda kompetensiya yondashuvlari”. MDH Ta’lim Jurnali, 2023-y 9(2), Bet:
5. Tolipov O‘.K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashrièti, 2006.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Umarov Nurbek Irkinovich
SamDUKF

Annotatsiya. Ushbu maqolada didaktik o‘yinlarning o‘quvchilar faolligini oshirishda, boshlang‘ich sinf darslarida didaktik o‘yinlardan samarali foydalanish usullari hususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Didaktik o‘yin texnologiyasi, samaradorlik, ziyraklikka, ishtirok.

Аннотация. В данной статье рассказывается о методах эффективного использования дидактических игр в повышении активности учащихся в начальных классах и анализируется их с помощью примеров.

Ключевые слова. Дидактическая игровая технология, эффективность, интеллект, участие.

Annotation. This article talks about the methods of effective use of didactic games in increasing student activity in primary classes and analyzes them with the help of examples.

Keywords. Didactic game technology, efficiency, intelligence, participation.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida o‘yinlardan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar, qo‘llanilgan o‘yinlar mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, darsni qiziqarli o‘tkazishga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bugungi kunda ta’lim muassasalarining o‘quv tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor berilayotgani bejizga emas.

O‘yinni tizimli o‘rganishga urinishni birinchi bo‘lib, XIX asrning oxirida nemis olimi K.Gross amalga oshirdi. U o‘yinda kelajakda yashash uchun kurash sharoitlariga nisbatan instinktlarning ogohlantirishi bo‘lib o‘tadi, deb hisoblagan (“Ogohlantirishlar nazariyasi”). K.Byuler o‘yinni “funksional huzur” olish uchun bajariladigan faoliyat sifatida ta’riflaydi. Z.Freyd izdoshlari o‘yinda chuqur instinktlar yoki intilishlar ifodasini ko‘radilar. O‘yinning barcha bunday talqinlarida biologizatorlik yondashuvi mavjud. O‘quv jarayoni to‘g‘ri tashkil etilgandagina o‘quvchilarni bilim olish va kreativlik, jamoda ishlay olish, hamkorlik qilishga ruhlantirish mumkin. O‘quvchilarni taajjublantirish, ularni o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga qiziqtirish va ongli tarzda yaratuvchilikka undashda o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Bunday o‘yinlarni tashkil etishni imkon qadar boshlang‘ich sinflardan boshlash lozim. Pedagoglar hamda psixologlarning ta’kidlashicha, o‘quvchining o‘zi qiziqmasa, egallagan bilimlari uning hissiyotlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi va intellektual jihatdan rivojlantirishga xizmat qilmaydi. Shuningdek, o‘quvchilar mazkur bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida sinfdoshlari bilan manfaatli

hamkorlik o‘rnata olmaydi. O‘yinlar va o‘yinlarga asoslangan o‘quv mashg‘ulotlari kutilgan samaradorlikka erishish imkoniyatini berishi uchun ularni amalga oshirish jarayonida qanday vazifalarni yechish mumkinligi pedagogik jihatdan to‘g‘ri belgilanishi lozim.

Ta’limda o‘quvchilarning psixologik holatini yaxshilash, ularni turli zo‘riqishlardan asrash, bilimlarini turli o‘yinlar orqali mustahkamlab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘quvchilarni ziyraklikka, chaqqonlikka hamda fikrni to‘g‘ri va aniq ifoda etishga qaratilgan o‘yinlardan foydalanish mumkin. Shu bilan birga, tanlangan o‘yinning o‘tilayotgan mavzuga mos kelishi, qulayligi, ko‘zlangan natijaga olib kelishi ham muhim mezonlardan sanaladi. Bu esa o‘qituvchining kasbiy mahoratiga, maqsadni to‘g‘ri belgilay olishiga ham bog‘liq. Ta’lim jarayonida motivlar hosil qilishda didaktik o‘yinlarning o‘rni beqiyosdir. O‘yinsiz tom ma’nodagi aqliy rivojlanish bo‘lishi mumkin emas. O‘yin o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg‘otadigan uchqundir.

O‘yin – o‘quvchilarni bilish, ijod qilish, ma’naviy-intellektual jihatdan rivojlantirish vositasidir. O‘yin yordamida o‘quvchilar oldiga yangi olam ochiladi. O‘yindan foydalanmay, o‘quvchilarni to‘laqonli rivojlantirish imkonsizdir. O‘yin jarayonida o‘quvchilar o‘zaro munosabatlar tizimini o‘zlashtirib, hamkorlikka kirishadi, rivojlanadi, shaxs sifatida shakllanadi. O‘yin murakkab ijtimoiy-madaniy hamda didaktik hodisa sifatida alohida qimmatga ega bo‘lib, ko‘plab falsafiy madaniy, pedagogik-psixologik tadqiqotlar obyekti bo‘lgan. O‘yinlarning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida ularning alohida pedagogik qimmatga egaligi, erkinligi va ixtiyoriyligi e’tirof etiladi. O‘yinlar amaliy yo‘naltirilgan bo‘lib, kafolatlangan natija
olishga xizmat qilishi bilan alohida pedagogik qimmatga ega. O‘yinlar ko‘p vazifali bo‘lishi bilan bir qatorda turli-tuman mazmun va ko‘rinishga egaligi bilan ham ajralib turadi. O‘yinlarni tasniflashga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Ularning asosiy qismi o‘yinlarning mavjud qismlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan. Ko‘plab mutaxassislar o‘yinlarni uchta katta guruhlarga bo‘lib tavsiflashga uringan:

- ✓ tayyor va qat’iy qoidalarga asoslangan o‘yinlar;
- ✓ qoidalari aynan o‘yin jarayonining o‘zida shakllantiriladigan erkin o‘yinlar,
- ✓ qisman qat’iy va qisman o‘yin jarayonida shakllanadigan qoidalarga asoslanadigan o‘yinlar.

Biroq yuqoridagi ko‘rsatkichlar shartli xarakterga ega bo‘lib, har bir o‘yin jarayoniga ijodiy yondashish imkoniyati mavjud. Bu jarayonda ishtirokchilar muayyan qoidalarga amal qilishi talab etiladi.

O‘yinning mustaqil shakllari sifatida quyidagi guruhlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: barcha turdagi bolalar o‘yinlari; bayram o‘yinlari; xalq o‘yinlari; teatrlashtirilgan o‘yin harakatlari; o‘yin treninglari va mashqlari; o‘yin shaklidagi so‘rovnomalar va testlar; badihago‘ylikka asoslangan o‘yinlar; musobaqalar, bahs-munozaralar, qarama-qarshi kurashlar, raqobatlashishga asoslangan o‘yinlar, tanlovlar, estafetalar; to‘y an’analari, o‘yinga asoslangan urf-odatlar; aldash yo‘li
bilan o‘ynaladigan o‘yinlar, yutuqli o‘yinlar, sovrinli o‘yinlar; karnavallar, o‘yin shaklidagi kimoshdi savdolari va sh.k.

XULOSA: O‘quvchi dastlabki bilim oladigan maskani maktab ekanligi barchamizga ma’lum. Shu bois, ta’lim — tarbiyaning aynan maktab davridan qattiq nazorat ostiga olinishi katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarning har bir darsni mukammal o‘zlashtirishi muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarning darsga bo‘lgan e’tibor va intilishlarini shakllantirish o‘qituvchi oldidagi dolzarb, ayni paytda muqaddas vazifadir. O‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan har bir darsga puxta tayyorgarlik ko‘rish va uni namunali darajada tashkil etish bugungi kun o‘quvchisini ta’lim jarayonining faol sub’ektiga aylantiradi. O‘quv materialini takrorlovchi o‘yinlar, Bilimlarni nazorat qiluvchi o‘yinlar. O‘qituvchi o‘rni bilan ulardan foydalansa, muvaffaqiyatlarga erishib, o‘quvchilarning e’tiboriga tushishi aniq. Ta’limning ta’sirchanligi haqida o‘ylash muallimning faoliyatiga mezon bo‘lishi kerak.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.
1. Абдурахманов Ф.И., Рахимова. И.И. Психологическая характеристика комрьютерной игры, как вида игровой деятельности.Сборник материалов
2 .Ментс, М. ван. Эффективное использование ролевых игр в тренинге / М. ван Ментс. − СПб.: Питер, 2001. − 208 с.
3.Воронин А.С. Словарь терминов по общей и социальной педагогике. «Издательство ГОУ-ВПО УГТУ-УПИ» - Екатеринбург, 2006. 32 с.
4. Parpiev O.T. Pedagogik o‘yin turlari va ularga qo‘yiladigan talablar // Kasbhunar ta’limi. – 2009. 22-24 bet.
5. Узнадзе Д.Н. Основы экспериментальной психологии. – М., 1965.
6.Выготский, Л. С. Мышление и речь. М.-Л.: Соцэкгиз, 1934.
7. Леонтьев А. А., Леонтьев Д. А., Соколова Е. Е. Предисловие // Леонтьев А. Н. Деятельность, сознание, личность. — М.: Смысл, 2005.
8. Тюнникова С.М. Использование игры в учебно-воспитательной работе мастера производственного обучения. Мет.реком-ции.М.: 1990.-60 с
9. Куприянов Б.В. Формы воспитательной работы с детским объединением. – Кострома, 1991.
10. Крутецкий В.А. Психология обучения и воспитания школьников. Книга для учителей и кл. рук-лей. М., «Просвещение»,1976.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYAT MASHG’ULOTLARINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI

Shavqiyev Elyor Raxmonberdiyevich
p.f.f.d. (PhD), Samaraqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali dotsenti,

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatishning ilmiy nazariy asoslari va metodlari yoritub berilgan.

Tayanch iboralar: ta’lim-tarbiya, tasavvur, tayyorlov guruhi, tasviriy faoliyat, yartuvchanlik, badiiy ijod, rasm chizish, estetik sezgi, san’at asarlari.

Ushbu maqoal talabalarda maktabgacha yoshdagi bolalaming tasviriy faoliyatiga rahbarlik qilishning maqsad va vazifalari, badiiy faoliyat qobiliyatlari va ijodini tarbiyalash, oilada va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning tasviriy faoliyatiga rahbarlik qilish usullari, rasm chizish, loy ishi, applikatsiya va qurish-yasashga o‘rgatish usullari, tasviriy san’at bilan tanishtirish metodikasi haqidagi bilimlarini boyitishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). “Tasviriy faoliyatga o‘rgatish nazariyasi va metodikasi” o‘qitishiga doir eng qadimgi va o‘rta asr boshlaridagi (Misr, Yunon, qadimgi Rim) ma’lumotlar va ularning xarakteri. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasini rivojlantirishda uyg‘onish davri rassomlarining xizmatlari (Ch.Chennini, Alberti, Leonarlo da Vinchi, A.Dyurer). XVII-XIX asrlarda g‘arbiy Evropada rasm chizish va chizmachilikni o‘rgatish metodikasiga bo‘lgan turli qarashlar. XVIII-XIX asrlarda Rossiyaning pedagogika o‘quv yurtlarida tasviriy san’atning o‘rni. I.D.Preysler, A.G.Sapojnikov, G.A.Gipiuslarning tasviriy san’at o‘qitish metodlarining rivojlanishidagi ro‘li. I.A.Rastovsev, A.A.Kuzin, I.Beda, A.Suxomlinskiy, B.Neminskiy, Sakulina, Kamorova va boshqalarning pedagogik qarashlari. O‘zbek olimlaridan R.Hasanov, S.Bulatov, S.Abdurasulov, H.Egamov va boshqalarning tasviriy san’atni o‘rgatish uslublari.

Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda bolalarning aqliy, estetik rivojlanishi uchun maktabgacha bo‘lgan yoshdan boshlab shug‘ullanish zarurligi isbotlab berilgan. Tasviriy faoliyat bilan, jumladan applikatsiyalar bajarish bilan ham umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘rinli foydalanish imkoniyatlari juda ko‘p. Buni boshlang‘ich sinflarning darsliklarini tahlil qilish orqali ko‘rish mumkin.

Applikatsiyalardan tarbiyachi mashg‘ulotlarda bolalarni to‘garak faoliyatlarida foydalanishlari, ayniqsa, noan’anaviy applikatsiya turlaridan foydalanishi o‘quvchilarni ijodkorlik qobiliyalarini rivojlantirib, estetik didlarini yuqori darajaga ko‘taradi [10.5].

Sh.I.Botirova, M.S.Achilovalar hammuallifligida chop etilgan “Maktabgacha ta’limda tasviriy faoliyat” nomli o‘quv qo‘llanmasi hozirgi kunda ushbu qo‘llanma pedagogika oily o‘quv yurtlarida qimmatli metodik taklif va tavsiyalar, g‘oya va yo‘nalishlarni o‘zida mujassamlagan manba bo‘lib, fan o‘qituvchilari uchun metodik ko‘mak berib kelmoqda.

Tasviriy faoliyatga o‘rgatish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarning mazmuni va ko‘lami kelgusida yanada oshib borishiga shubha yo‘q.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mavzuga doir muhim metodologik hujjat–“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” yangi jamiyat poydevorini barpo etishdek g‘oyat ulkan va ezgu maqsadni qo‘ygan bo‘lib, uning to‘rtinchi va beshinchi ustuvor yo‘nalishlarida belgilangan maqsadlar pirovardida ma’naviy tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishish, ushbu jarayonni eng zamonaviy shakl va uslublarda tashkil etishni nazarda tutadi [1.1].

O‘zbekiston hukumatining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [3] hamda 2020-yil 6-iyuldagi Tadqiqot olib borilayotgan faoliyat va texnologiyalarni bolalarda qay darajada o‘zlashtira olish va ularni bu faoliyatni o‘zlashtirishdagi qulayliklar va qiyinchiliklarni o‘rganishdan keyingi ta’sir qilishini tahlil qilish uchun 13 ta ilmiy maqoladan iborat korpus yaratildi. (4 tasi boloalarga tasviriy faoliyatni o’rgatishda kelib chiqadigan muammolar va 9 tasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatdan foydalanishning afzalliklari bo‘yicha maqolalar). Yig‘ilgan maqolalar 2019-2023 yillar oralig‘ida xalqaro va milliy akademik jurnallarda chop etilgan. Bu maqolalar tahlil qilindi va qiyosiy tahlil olindi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bolalarga tasviriy faoliyatni o‘rgatish jarayonida umumiy bilim va tajribalarga tayangan holda yosh bola bilan muloqot qiladi ammo tasviriy faoliyatini an’anaviy ravishda o‘qitishga qaraganda ushbu maqolada qo‘llangan metodlardan qo‘llash tarbiyachi e'tiborni faol ravishda yo‘naltiradi va sharhlar orqali ularga bevosita murojaat qiladi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda bolalarga tasavvurni kengaytirish, tasviriy faoliyatni va va yaratuvchanlikni oshirish oson va qulaydir.

Respublikamizda maktabgacha ta’lim tizimini qaytadan qurish borasida olib borilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar, amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar ertangi kunimiz, qolaversa, kelajagimiz egalari bo‘lmish yoshlarga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikning yorqin ifodasidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarorining ikkinchi paragrafida Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Tasviriy faoliyat bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkiloti dasturi bolalarda tevarak atrofga nisbatan qiziqishni uyg‘otish estetik munosabatni tarbiyalash, ijodiy qobiliyat va tasvirlashni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo‘laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi – rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog‘liqdir .

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o‘rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo‘lishi, buning uchun muntazam ravishda o‘z ustida ishlashi, ilmiy-nazariy saviyasini tinimsiz ko‘tarishi, ilg‘or tajribalarga tayanishi kerak. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini rejalashtirish va hisobga olish zarur. Tasviriy san’at bo‘yicha ishni ma’lum bir vaqtga rejalashtirishda, shu davrda faoliyatning boshqa turlari bo‘yicha amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarni ham nazarda tutmoq lozim. Tasviriy san’at bo‘yicha

mashg‘ulotlarni rejalashtirishda, albatta tasviriy san’at mashg‘ulotlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni ham hisobga olmoq zarurdir. Tasviriy faoliyatning har bir turi o‘ziga xos vazifalarni hal etadi, ammo qanday bo‘lsada, ularni bir yo‘nalish, maqsad bo‘yicha (tevarak-atrof, hayotning xilma-xil, o‘ziga xos ko‘rinishlardagi tasviri) birlashadilar. Tasviriy faoliyat bo‘yicha ishni rejalashtirishda tarbiyachi, albatta har bir turdagi mashg‘ulotlar soniga qat’iy rioya qilishi lozim. Tasviriy san’at bo‘yicha mashg‘ulotlarni rejalashtirish, yuqoridagilardan tashqari, mashg‘ulot qanday materiallar bilan o‘tkazilsa, maqsadga muvofiq bo‘lishini ham tarbiyachi nazarda tutmog‘i lozim. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari – bu rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg‘ulotlaridir. Bu mashg‘ulotlar maktabgacha ta’lim tashkilotining barcha guruhlarida aniq bir vaqtda, kun tartibi asosida uyushtiriladi. Hamma faoliyatlar uch qismga bo‘linadi:–mashg‘ulotning boshlanishi–topshiriqni tushuntirish; – mashg‘ulotning borishi–topshiriqni bolalar tomonidan bajarilishi; – mashg‘ulotning yakuni–bolalar bilan bajarilgan topshiriqni tahlil qilish. Maktabgacha ta’lim tashkiloti rasm faoliyatini san’at markazlarida rejalashtiriladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o‘rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo‘lishi, buning uchun muntazzam ravishda o‘z ustida ishlashi, o‘zining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz ko‘tarishi, ilg‘or tajribalarga tayanishi kerak. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rasm chizishga o‘rgatish 3 yoshdan boshlanadi. Bu davrda bolalarni tasviriy faoliyatga tayyorlash davri hisoblanadi. Bu davrda bolalar qalamni ushlash va qog‘oz ustida yuritishga o‘rganadi. Lekin bu prosessda rivojlanmaydi, bola qalamni to‘g‘ri ushlashni bilmaydi, tarbiyachi asta sekin to‘g‘ri ushlashga odatlantiradi, bolani bajarayotganligini emas balki, qalamning harakatini uning uchi bilan qog‘oz betiga taqillatishi qiziqtiradi. Qalam bilan to‘g‘ri turli xil shtrixlar, nuqtalar chizadi, qog‘oz betida turli harakatlar qiladi, keyin sodda chiziqlar asta sekin murakkablashadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarda bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, san’at asarlarini bilan rasmga qarab hikoya qilish, maktabda esa tasviriy san’atning turlari rang tasvir, grafik, xaykaltaroshlik va dekorativ san’at asarlari bilan yanada chuqurroq tanishadilar. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari xilma-xildir: rasm chizish, loy, applikatsiya, qurishyasash mashg‘ulotlari xisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keltirilgan faoliyatlarning hammasiga katta ahamiyat beriladi. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim- tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli xal etilishi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan tasvirlash faoliyatlari bilan uzviy ravishda olib boriladi

Maktabgacha ta’lim muassasalarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida materialdan tartibli foydalanishga, ularni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan hamda ularni ishlatish yo‘llarini rejalashtirishga o‘rganadilar. Bu faoliyatlar bolalarda diqqatni va ko‘rish xotirasini rivojlantiradi. Shunday qilib, tasviriy faoliyatlarda bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o‘sadi va bu orqali maktabda o‘qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog‘lanadilar, ularning oziga xos sifatlari, shakli, rangi, katta kichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o‘xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko‘rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi.

Xulosa Maktabgacha yosh davridagi bolalarga tasviriy faoliyatni tushuntirishdagi qulayliklar tasavvur qilish, chizish va yasashni o‘rgatish jarayonida muhim ahamiyati ko‘rsatilgan bu esa o‘z o‘rnida global bilimlarni rivojlantirish va ularni to‘g‘ri yo‘naltirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. -

2. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 05.04.2018 y. PQ-3651.

3. “Maktabgacha ta’limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” Xalq so‘zi gazetasi 30.09.2020
4. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. Toshkent 2018 yil (Maktabgacha talim vazirligi)
5. Mamirova Z.U., Niyozova G.B. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish” Science and Education” Scientific Journal January 2021 / Volume 2 Issue 1
6. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. T.: Tafakkur bo„stoni, 2013
7. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. “Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‟rgatish metodikasi”. “Cho‘lpon”, T:.2010y.
8. Xaydarova M.D. Applikatsiya ishlarini bajarish metodikasi. BuxDU, 2022.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN INTERAKTIV O‘QUV PLATFORMALARINING AFZALLIKLARI

Shaxlo Butayeva Samat Qizi
Toshkent XNU 723 guruh talabasi
Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on shahar 19-DMTT tarbiyachisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar uchun interaktiv o‘quv platformalarining afzalliklari tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish, bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, interaktiv o‘quv platformalarining pedagogik ahamiyati va ularning ta’lim jarayoniga tatbiq etish usullari ham muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Interaktiv ta’lim, maktabgacha ta’lim, zamonaviy pedagogika, innovatsion texnologiyalar, o‘quv platformalari, bolalar rivojlanishi, multimediya, raqamli ta’lim, mustaqil o‘rganish.

KIRISH: Zamonaviy axborot texnologiyalari ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirib, uni yanada interaktiv va samarali qilishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘quv jarayonini qiziqarli va tushunarli qilish muhim sanaladi. Shu sababli, interaktiv o‘quv platformalarining ta’limdagi o‘rni tobora ortib bormoqda.

Interaktiv o‘quv platformalari bolalarga nafaqat bilim olish, balki uni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini ham yaratadi. Raqamli texnologiyalar yordamida bolaning individual qobiliyatlari va o‘rganish sur’ati hisobga olinib, moslashtirilgan ta’lim berish mumkin. Ushbu maqolada interaktiv o‘quv platformalarining afzalliklari, ularni joriy etish usullari va bolalar rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Interaktiv O‘quv Platformalarining Dars Jarayonida Joriy Etilishi

Zamonaviy maktabgacha ta’lim jarayonida interaktiv o‘quv platformalaridan foydalanish bolalarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning faol ishtirokini ta’minlash va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Quyida **Google Forms**, **Kahoot**, **Quizizz**, **ClassDojo**, kabi mashhur interaktiv platformalarning dars jarayonida qanday qo‘llanilishi batafsil yoritiladi.

1. Google Forms – Test va So‘rovnomalar Orqali Ta’lim

Google Forms – bu o‘qituvchilar uchun qulay bo‘lgan bepul platforma bo‘lib, u yordamida testlar, so‘rovnomalar, baholash va interaktiv mashg‘ulotlar yaratish mumkin.

Darsda qo‘llash usullari:

✓ **Bilimni baholash** – O‘quvchilar darsdan so‘ng **Google Forms** orqali berilgan savollarga javob berib, o‘z bilimlarini tekshirishi mumkin.

✓ **Rivojlantiruvchi o‘yinlar** – “To‘g‘ri va noto‘g‘ri” o‘yinini yaratib, bolalar to‘g‘ri javoblarni tanlash orqali mashg‘ulotni o‘rganadi.

✓ **Interaktiv ertak tuzish** – Bolalar uchun ertak yoki hikoya mazmunini davom ettirishga imkon beruvchi variantli testlar tuzish mumkin.
Misol: O‘yin: "Ranglarni tanib bilamiz"
– O‘qituvchi Google Forms orqali “Bu qanday rang?” nomli test yaratadi va unga qizil, yashil, ko‘k ranglarning rasmlarini joylaydi.
– Bolalar to‘g‘ri javobni tanlash orqali o‘z bilimlarini sinab ko‘radi.
– Natijalar avtomatik hisoblanib, qaysi bola qanday javob bergani ko‘rinadi.
2. Kahoot – O‘yinli Test va Viktorinalar
Kahoot – ta’limiy o‘yinlar va tezkor testlarni yaratish uchun mo‘ljallangan interaktiv platforma.
Darsda qo‘llash usullari:
✓ **Jamoaviy test o‘yinlari** – O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, viktorinalarda ishtirok etadi.
✓ **Ertaklar bo‘yicha savollar** – “Uch karra qo‘chqor” yoki “Zumrad va Qimmat” kabi ertaklar asosida savollar tuziladi.
✓ **Matematik mashqlar** – Sonlarni qo‘shish va ayirish bo‘yicha interaktiv topshiriqlar beriladi.
Misol:
O‘yin: "Hayvonlarni tanib bilamiz"
– O‘qituvchi **Kahoot** orqali hayvonlarning rasmlarini joylaydi va bolalar ularning nomini tanlashlari kerak.
– Har bir to‘g‘ri javob uchun bola ball yig‘adi.
– Eng ko‘p ball olgan bolalar rag‘batlantiriladi.
3. Quizizz – Gamifikatsiyalangan Testlar
Quizizz – o‘quvchilarga testlarni o‘yin shaklida o‘tish imkonini beruvchi platforma.
Darsda qo‘llash usullari:
✓ **Individual test topshiriqlari** – Bolalar o‘zlariga qulay vaqtda topshiriq bajarishlari mumkin.
✓ **Ovozli topshiriqlar** – Matnlarni ovozli shaklda eshittirish orqali eshitish qobiliyatini rivojlantirish.
✓ **Ranglar va shakllar** – Rasmlar yordamida bolalar ranglarni va geometrik shakllarni ajratib olishadi.
Misol: O‘yin: "Bu qanday ovoz?"
– Quizizz orqali har xil hayvonlarning ovozlari yuklanadi.
– Bolalar ushbu ovoz qaysi hayvonga tegishli ekanini tanlaydi.
– To‘g‘ri javob uchun ball to‘planadi.
4. ClassDojo – Motivatsion Ta’lim Platformasi
ClassDojo – o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini baholash, ularni rag‘batlantirish va ota-onalar bilan bog‘lanish uchun yaratilgan platforma.
Darsda qo‘llash usullari:
✓ **Ijobiy rag‘batlantirish** – Bola har bir to‘g‘ri bajargan topshirig‘i uchun “yulduzcha” yoki “medal” oladi.
✓ **Jamoaviy ishlash** – Bolalar guruhlarga bo‘linib, umumiy maqsadlarga erishishga harakat qiladi.
✓ **Ota-onalar bilan aloqada bo‘lish** – Bola yutuqlari yoki ehtiyojlari haqida ota-onalar xabardor qilinadi.
Misol: O‘yin: "Yaxshi ishlar"
– Bolalar har bir yaxshi harakatlari uchun ClassDojo orqali ball yoki yulduzcha oladi.
– Haftaning oxirida eng ko‘p yulduzcha olgan bola maxsus sovg‘a bilan taqdirlanadi.

XULOSA

Interaktiv o‘quv platformalarining dars jarayoniga joriy etilishi bolalar uchun ta’limni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Google Forms, Kahoot, Quizizz, ClassDojo kabi platformalar orqali bolalarning bilim olish jarayoni o‘yin shaklida tashkil etiladi, bu esa ularning ta’limga

bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Ushbu texnologiyalar bolalarning individual yondashuv asosida ta’lim olishlariga, o‘z ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishlariga va o‘qituvchilar bilan interaktiv aloqada bo‘lishlariga yordam beradi.

Zamonaviy maktabgacha ta’limda bu kabi platformalardan unumli foydalanish natijasida bolalar bilim olishni oson va qiziqarli jarayonga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Hasanboyeva O., Jo‘rayev R. “Maktabgacha ta’lim metodikasi” – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
2. Axmedova G. “Interaktiv o‘qitish texnologiyalari va ularning amaliyoti” – Toshkent: Fan, 2019.
3. Mayer R. E. **"Multimedia Learning"** – Cambridge University Press, 2020.
4. Papert S. **"Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas"** – Basic Books, 1993.

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARDA CHIROYLI YOZUV TEXNIKASINI SHAKLLANTIRISH

Shodiyeva Dilshoda

Samarqand davlatuniversiteti Kattaqo’rg’on filali talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda chiroyli yozuv texnikasini shakllantirishning pedagogic va psixologik asoslari, yozuvga tayyorlov jarayonining bosqichlari, did estetikasi va grafomotor ko’nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali metodlar taklif qilingan.

Kalit so’zlar: chiroyli yozuv, maktabgacha yosh, grafomotorika, estetik tarbiya, yozuv texnikasi, psixomotor rivojlanish.

Ta’limga e’tiborli bo’lish, azal-azaldan o’lkamizda yashagan va ijod qilib o’tgan buyuk bobokalonlarimizdan-bizgacha “avloddan-avlodga” o’tib, yanada rivoj topib kelmoqda. Davlatimiz Mustaqillikka erishganidan so’ng, Ta’lim tizimining barcha bo’g’inlarini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish Davlat siyosati darajasiga olib chiqildi. Bu borada qator ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, Maktabgacha va maktab ta’limiga katta e’tibor qaratildi. Uzluksiz ta’limning ilk bo’g’ini bo’lmish Maktabgacha ta’limni yanada rivojlantirish bo’yicha Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida so’nggi yillarda keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol qilib, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016yil 29-dekabrdagi PQ 2707-son “2017-2021yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yil 30-sentabrdagi PQ 3305-son “Maktabgacha ta’lim Vazirligi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi Qarori, hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018yil 30-sentabrdagi PQ-3955-son “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida”gi Qarori va O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019yil 8-maydagi PQ 43-12-son “O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030yilgacha Rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Qarorlari ishlab chiqilgan.

Ammo maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning yozuvga tayyorlash jarayoni dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yozuvga tayyorgarlik-bu nafaqat harflarni o’rganish, balki bolaning mayda motorika, tafakkur, ko’z-qo’l muvofiqligi va e’tiborni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu bosqichda bolaning chiroyli yozuv texnikasiga bo’lgan ilk qadamlarining to’g’ri tashkil etilishi, kelajakdagi yozuv malakasiga asos bo’lib xizmat qiladi.

Chiroyli yozuv bolaning estetik tarbiyasi, muloqot madaniyati va mustaqil fikrlash ko’nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, maktabga tayyorlov guruhidagi bolalar uchun bu ko’nikmalar o’z vaqtida va to’g’ri yondashuv asosida berilishi zarur.

1. Chiroyli yozuv texnikasining pedagogik asoslari:

Chiroyli yozuv texnikasi-bu harflarni belgilangan shaklda, to’g’ri, bir xil o’lchamda va muvofiqlikda yozish ko’nikmasidir. U nafaqat yozuv malakasining tashqi ko’rinishi, balki bolaning e’tibor, koordinatsiya, mantiqiy fikrlash, fazoviy tasavvuri va sabr toqatini shakllantirishda muhim rol o’ynaydi.

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarning yozuvga tayyorgarlik darajasi ularning mayda motorikasi rivojlanganligi bilan bevosita bog'liq. Psixolog L.S. Vigotskiy ta'kidlaganidek, bola harakati va nutqi bir-biriga bog'liq bo'lib, tafakkur harakat orqali namoyon bo'ladi. Demak, chiroyli yozuvni o'rgatish-bu bolaning psixik faoliyatini rivojlantirish vositasi hamdir.

2. Grafomotor ko'nikmalarini rivojlantirish usullari

Chiroyli yozuvga erishishda grafomotorik mashqlar alohida o'rin tutadi. Ushbu mashqlar bola qo'l harakati va barmoqlarining nozikligini oshirishga yordam beradi.

Asosiy mashqlar quyidagilardan iborat:

1. **To'g'ri va egri chiziqlarni chizish.** Bolaga qog'ozda chiziqlarni to'g'ri, bir tekisda chizish topshiriladi.
2. **Nutqni birlashtirish.** Harflar shaklida joylashtirilgan nuqtalarni izchil tarzda birlashtirish orqali harf tuzilishini tushunish osonlashadi.
3. **"Yo'lni top" o'yinlari.** Bu turdagi mashqlar bolada fazoviy tafakkur, diqqat va muvofiqlikni rivojlantiradi.
4. **Plastilin va mozaikalar bilan ishlash.** Ushbu faoliyatlar bolaning mayda muskullarini mustahkamlashga xizmat qiladi.
5. **Jismoniy mashg'ulotlar.** Barmoq gimnastikasi, kichik muskul mashqlari ham mayda motorikani rivojlantirish uchun katta ahamiyat kasb etadi.

3. Yozuvga tayyorlash bosqichlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni yozuvga tayyorlash bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. **Bosqich: Motorik tayyorgarlik.** Bola qo'l mushaklarini harakatlantirishni o'rganadi, qalam ushlashga o'rganadi.
2. **Bosqich: Visual-fazoviy idrokni rivojlantirish.** Harflar va shakllarni ko'rish, ularni taqqoslash, rasm orqali tushunish ko'nikmalari hosil qilinadi.
3. **Bosqich: Harflar elementlarini yozish.** Asta-sekinlik bilan harf tuzilmalari mashq qilinadi.
4. **Bosqich: Kichik so'z va iboralarni yozish.** Bola o'z ismini, tanish so'zlarni yozishga harakat qiladi. ***Bunda bizga mayda chiziqli yozuv daftari kerak bo'ladi. (Daftar gorizontal va qiya vertikal chiziqlarga ega bo'lishi shart!)*** Bunday chiziqli daftarga yozish orqali bola "husnixat"i tartibli va muvofiqlik asosida shakllanadi va rivojlanadi.

4. Estetik tarbiya: Chiroyli yozuv faqat texnik ko'nikma emas, balki estetik tarbiyaning bir qismidir. Bola yozayotgan harflarni chiroyli, ozoda ko'rinishda yozishga odatlangan bo'lsa, bu uning umumiy didini shakllantiradi.

5. Tarbiyachi va ota-onaning roli.

Tarbiyachi har bir bolaning qobiliyati va xususiyatlarini hisobga olib, individual yondashuvi, rag'batlantirishi va mashg'ulotlarni qiziqarli usullarda tashkil qilishi orqali yozuvga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Ota-onalar bilan hamkorlikda bu jarayon yanada samarali kechadi. Ota-onalar esa uy sharoitida qo'llab-quvvatlash orqali bu jarayonda muhim ishtirokchiga aylanishadi.

Xulosa qilib aytganda, chiroyli yozuv texnikasini shakllantirish - maktabgacha ta'lim jarayonining muhim bosqichidir. Bu jarayon bolaning nafaqat yozuv malakasini, balki baolada mehnatsevarlik, e'tibor, sabr-toqat, tafakkur, muvofiqlik, estetik did, intizom va o'zini ifoda etish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Yozuvga tayyorlash bosqichma-bosqich, tizimli va izchil olib borilishi zarur. Bunda tarbiyachi, uslubchi va ota-onalarning hamkorligi katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov M. Maktabgacha ta'lim metodikasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti**.** 2021
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019yil 8-maydagi PQ-4312-sonli Qarori
3. G'ulomova D., Qodirova S. Yozuv malakalarini shakllantirishda innovatsion metodlar. Toshkent. 2020

4. Vigotskiy L.S. Mind in society: The Development of Higher Pschological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press. 1978
5. Karimova Z. “Chiroyli yozuv texnikasini rivojlantirishda mayda motorikaning ahamiyati” Pedagogik izlanishlar jurnali. 2022
6. M. Montessori. The Montessori Method New York: Schocken Books 1995
7. Norqulova N. “Yozuvga tayyorlov bosqichida grafik o’yinlarning o’rni” Ta’lim va taraqqiyot, 2023. 1-2, 30-34

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK USULLAR VA TADQIQOTLARI

Shodmonov Furqat Abdimumin o‘g‘li
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali assistenti
furqateko@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik ahamiyati, usullari va istiqbolli yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Maqolada zamonaviy ta’lim texnologiyalari (VR/AR, interfaol dasturlar), xalqaro tajribalar (Finlandiya, Yaponiya, Shvetsiya) va O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan innovatsion yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, ekologik tarbiyani samarali tashkil etish uchun qo‘shimcha tadqiqotlar va amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar. ekologik madaniyat, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik usullar, ekologik tarbiya, atrof-muhit muhofazasi, xalqaro tajribalar, STEAM-ta’lim, virtual ta’lim, yashil maktab, ekologik ong.

Kirish. Atrof-muhit muammolarining kuchayishi bilan ekologik tarbiyaning ahamiyati ortib bormoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik ongni shakllantirish – kelajakda ekologik xabardor fuqarolarni tarbiyalashning asosiy bosqichidir. Ushbu maqolada ekologik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik usullari, xalqaro tajribalar va O‘zbekiston sharoitida o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha tadqiqotlar ko‘rib chiqiladi.

1. Ekologik madaniyatni shakllantirishning zamonaviy usullarini quyida ko’rib chiqamiz:

1.1. Texnologiyalar asosida ekologik ta’lim

Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) dasturlari – bolalarni tabiat qo‘riqxonalari, okeanlar va yo‘qolib borayotgan turlar bilan tanishtirish.

Interfaol elektron darsliklar – animatsion videolar, ekologik testlar va o‘yinlar orqali bilimlarni mustahkamlash.

Onlayn ekologik loyihalar – "Global Schoolyard Bioblitz" va boshqa shu kabi xalqaro dasturlarda qatnashish.

1.2. Tajriba va eksperimentlar asosida o‘qitish

- **Mini-ekotizimlar yaratish** (akvarium, terarium qurish);
- **Suv va havo ifloslanishini o‘lchash** (sodda sensorlar yordamida);
- **O‘simliklarning o‘sishini kuzatish** (fotosintez tajribalari).

2. Xalqaro tajribalar va O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari

2.1. Muvaffaqiyatli xorijiy namunalar

Finlandiya: "Tabiat maktabi" dasturi – bolalar 80% dars vaqtini ochiq havoda o‘tkazadi. **Yaponiya:** "Morinomori" loyihasi – maktablar atrofini o‘rmonlashtirish. **Shvetsiya:** Chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha maktablararo tanlovlar.

2.2. O‘zbekiston uchun moslashtirilgan yechimlar

"Yashil maktab" milliy dasturini joriy etish (har bir maktabda ekologik klub tashkil etish va yashil infratuzilmani rivojlantirish, tabiat bilan bog‘liq amaliy darslarni tashkil etish hamda o‘quvchilar uchun innovatsion ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash); **Qishloq maktablarida ekologik fermerlik loyihalarini targ’ib qilish va bolalar mehnatini shakllantirish** (bog‘dorchilik, asalchilik, gulchilikni o‘rgatish);

O‘zbekistonning noyob tabiiy resurslarini o‘rganish (Qizilqum, Orolbo‘yi ekotizimlari haqida maxsus darsliklar).

3. Qo‘shimcha tadqiqotlar va rivojlanish yo‘nalishlari

3.1. Tadqiqotlar uchun potensial mavzular

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik ong darajasini o‘lchash metodikasi (anketalar, testlar).

Ota-onalarning ekologik tarbiyaga ijobiy ta’siri (sotsiologik so‘rovnomalar).

Tabiat bilan bevosita aloqa va bolalarning psixologik farovonligi o‘rtasidagi bog‘liqlik (eksperimental tadqiqotlar).

3.2. Amaliy tavsiyalar

1. Ekologik dasturlarni STEAM-ta’lim bilan birlashtirish (masalan, robototexnika yordamida chiqindilarni saralash tizimini loyihalash).

2. Maktab o‘quv dasturlariga "Ekologik axloq" fanini kiritish.

3. O‘qituvchilar uchun ekologik trening markazlarini tashkil etish.

Xulosa. Ekologik madaniyatni boshlang‘ich sinflarda shakllantirish – nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki bolalarning ijtimoiy, intellektual va ma’naviy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish va doimiy tadqiqotlar olib borish samarali natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. UNESCO (2021). *Education for Sustainable Development: A Roadmap*.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2023). *"Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi*.
3. Wilson, E.O. (2020). *Biophilia: The Human Bond with Other Species*.
4. SamDU ilmiy axborotnomasi (2022). *Pedagogik innovatsiyalar va ekologik ta’lim*.
5. F.Shodmonov. Globallashuv sharoitida ekologik ta’limni o‘qitishning muammolari. “Boshlang’ich ta’limning zamonaviy tendentsiyalari: Ta’lim va tarbiya integratsiyasi” III Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi. (2023 йил 4 май 72-76 bet.)
6. F.Shodmonov. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida noyob o‘simliklar va hayvonlarni muhofaza qilish to‘g‘risida elementar tasavvurlarni shakllantirish. Materials of the 1st international conference: conservation of eurasian biodiversity: contemporary problems, solutions and perspectives part I 2023 69-71 bet
7. F.Shodmonov. Sun’iy intellekt orqali ekologik muammolarni oldini olish va ekologik madaniyatni shakllantirish. «Ta‘limda sun‘iy intellektning roli» mavzusidagi respublika ilmiy - amaliy konferensiyasi: materiallar to’plami. Kattaqo‘rg‘on, 16-17-iyun, 2023 yil. 254-257 bet
8. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi sayti: www.uznature.uz.
9. Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha xalqaro hisobotlar: IPCC (Intergovernmental Panel on Climate Change).

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AQLIY TARBIYALASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna.
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali
Shunqorova Ruxshona Doniyor qizi, talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda maktabgacha ta`lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo`llashning afzalliklari keng yotirilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim tizimi, bola shaxsi, jarayon, usul, texnologiya.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, ta’limning samaradorligni ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto

xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv jarayonida pedagog asosiy figuraga aylanadi.

Bugungi kunda ta’lim muassalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonda pedagogik texnologiyalardan foydalanishiga alohida e’tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan: pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunda rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Ikkinchidan: pedagogik texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan: pedagogik texnologiya pedagogni ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To‘rtinchidan: pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo‘llashga asoslanganligi sababli, ularning qo‘llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta’minlaydi.

O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik jarayonni to‘g‘ri tashkil etilishi pedagogning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa tinglovchilardan ko‘p mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab qiladi.

Har qanday pedagogik texnologiyalarning o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘lanilishi shaxsiy jihatdan kelib chiqqan holda tinglovchini kim o‘qitayotganligi va pedagog kimni o‘qitayotganiga bog‘liq. Pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar bolalarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini oshirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammoarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlarini o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarga aylanadi.

Shuning uchun ham ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta’limda qo‘llanilishiga oid bilimlar, tajriba talaba yoki o‘quvchilarning bilimli va etuk malakaga egaligini ta’minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha innavation) - yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba yoki o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol («inter»- bu o‘zaro, «akt»- harakat qilmoq)- o‘zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo‘lishni anglatadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, o‘qitishning interfaol uslubiyotlari-bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil qila bilishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilinadilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol darslarda pedagogning o‘rni qisman tinglovchilarning faoliyatini dars maqsadlariga yo‘naltirishga olib keladi. Bu uslublarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va tinglovchilar birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga:

- pedagoglarning jarayonga bo‘lgan qiziqishlarining doimiyligini ta’minlashi;
- mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;
- pedagoglarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

Milliy ta’lim ravnaqini ta’lim-tarbiya amaliyotiga samarali va tejamli, yangi shakl, vositalarni qo‘llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko‘zlovchi pedagogik texnologiyalar ta’minlaydi. Maktabgacha ta’limda yangi pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish tarbiyani ta’limga bog‘lash, har ikkisini tuzilishi va mazmun jihatdan yaxlitlashtirishga, tarbiyalanuvchi faoliyatini uyushtirishga, mustaqil fikrlashga yo‘llash uchun qulay sharoit yaratadi.

Demak, pedagogik innovatsion texnologiya ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or vositalar, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o‘qituvchi yoki tarbiyachi tomonidan yaratiladi, ta’lim-tarbiya bosqichlarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta’lim-tarbiyaning shakillari va vositalarini tayyorlash, tarbiyalanuvchida shakllantirish ko‘zda tutilgan ma’naviy sifatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni rejalashtirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Shuning uchun ta’lim jarayonida bolaning tutgan o‘rni, ya’ni bolaga kattalar tomonidan ko‘rsatilgan munosabat pedagogik texnologiyaning muxim xususiyatidir. Mashg‘ulotlar orqali samarali natijalarga erishish ilg‘or innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali yuzaga keladi. Demak, pedagogik texnologiya ta’limga tizimli yondashuv asosida tatbiq etiladi.

Tarbiyachining bu jarayon tashkilotchisi, raxbari, ijodkor sifatidagi faoliyati asosini uning bilimi va maxoratini, texnik vositalardan foydalanib, bolaning qiziqish va intiluvchanligiga ta’sir ko‘rsatish, bolani eng ko‘p darajada faollashtirishga xizmat qiluvchi usullarni qullab, kafolatlangan samaralarga erishish qobiliyati tashkil etadi.

Innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida – o‘yin, mashg‘ulot, sayr davomida qo‘llash yaxshi samara beradi.

Bugungi kunda tarbiyachi mashg‘ulotlarda nafaqat bolalarga ma’lum bilimlarni berishi, balki mashg‘ulot jarayonida bolalarning ayrim tomonlarini shakllantira yoki rivojlantira olishlari darkor. SHuning uchun maktabgacha ta’lim muassasalardagi mashg‘ulotlarni interfaol usullar yordamida o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Mashg‘ulotlar orqali samarali natijalarga erishish ilg‘or innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali yuzaga keladi. Demak, pedagogik texnologiya ta’limga tizimli yondashuv asosida tatbiq etiladi.

Ushbu tizimda:

Tarbiyalanuvchining yoshi, ruxiyati, dunyoqarashi, bilimi, faollik darajasi va boshqalar e’tiborga olinadi.

Ta’lim-tarbiyaning maqsadi, yo‘nalishi, mazmuni, shakllari, usullari.

Ta’lim-tarbiya jarayoni.

Tarbiyachining bu jarayon tashkilotchisi, rahbari, ijodkor sifatidagi faoliyati asosini uning bilimi va maxoratini, texnik vositalardan foydalanib, bolaning qiziqish va intiluvchanligiga ta’sir ko‘rsatish, bolani eng ko‘p darajada faollashtirishga xizmat qiluvchi usullarni qullab, kafolatlangan samaralarga erishish qobiliyati tashkil etadi.

Innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida – o‘yin, mashg‘ulot, sayr davomida qo‘llash yaxshi samara beradi.

Biz hozir innovatsion texnologiyalarni o‘yin va mashg‘ulot davomida qo‘llash usulini ko‘rib chiqamiz.

Ma’lumki o‘yin faoliyati bolalar hayotining mazmunini tashkil etish bilan birga, ularni atrofni, qolaversa, barcha yaqinlarini tanishga yordam beradi, kelgusi o‘quv faoliyatiga ruhan, aqlan tayyorlab boradi. Ayni paytda o‘yin bola uchun ermak, quvonch manbai hamdir. Bolaning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini hamda dunyoqarashini shakllantirishga, o‘tsirishga xizmat qiladigan vositadir. Bu jihatlar bolaning bundan buyongi xayotida muhim o‘rin tutadi.

Bola bilan uynar ekanmiz, biz xam o‘z oldimizga maqsad ko’yib borishimiz kerak. O‘yin davomida albatta biz ularning xoxishi, istagi bo‘yicha xarakat qilishimiz, bizning shu paytdagi asosiy ishimiz bolaning aytganlarini bajarib, uni xushnud qilish, vaqtini chog‘lash va shu asosda

muayyan ko‘zlagan niyatimizni amalga oshirib, bolani ma’lum maqsadga yo‘naltirishdir. Masalan, biz bola idrokini rivojlantirishni o‘z oldimizga vazifa qilib quyishimiz mumkin. Idrokni o‘stirishga qaratilgan o‘yinlar bolada narsalarning rangi, shakli, kattaligiga ko‘ra tahlil qilish malakasini shakllantiradi.

Maktabga tayyorlov davriga kelib, bolalar rang qatoridagi 7 xil rangni bemalol farqlay oladilar. Ular asosiy geomtrik shakllar (doira, turtburchak, to‘g‘ri turtburchak, uchburchaqlarni bilishlari lozim. Namunaga ko‘ra, yoki nomi aytilgan ma’lum bir shakldagi narsalarni ajrata olishlari kerak. Shundan kelib chikib, sizlarga bir necha o‘yin mashg‘ulotlarini tavsiya etamiz.

Mantiqiy juftlikni top

Rasmda turli predmetlar tasvirlangan. Ularning nomlarini ayta olasanmi? Ularning juftini top va birlashtir.



To‘rtinchisi ortiqcha

Bu-mantiqiy o‘yin bola oldiga 4 ta surat quying 3 tasi bitta umumiy tushunchaga doyr, 1 tasi boshka tushunchaga. Masalan. stol, stul, javon, olma. Bola shu surat to’plamidan ortiqchasini topib, nega aynan shu suratni ajratganini sharxlashi lozim. Bolaga o’yin qoidasi, tushunchalarning mohiyati, qaysi surat ortiqcha bulishi mumkinligini tushuntirib bering. Narsalarni umumlashtirish, farqlash malakasini hosil qilish, mustahkamlash uchun bir necha ko’rinishda mashq qilish mumkin.

1



3



2





Xulosa qilib aytish mumkinki, bu o‘yinlar orqali bolalarda mantiqiy fikrlashni, diqqatni jamlashni, sezgini, bir narsani tezda idrok etishni, umumlashtirishni, chaqqonlikni rivojlantirish mumkin. Ta’lim tizimi, shaxsni shakllantirish uchun,davlat talablari asosida o‘qituvchilar, tarbiyachilar shahsini xar tomonlama mukammal bo‘lishini talab qiladi. Yangilanayotgan

maktabgacha ta’limga davlat va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talab ta’lim sohalari bo‘yicha o‘zaro muvofiqlik va mutanosiblik to‘la taminlanishi lozim. Shu jihatdan maktabgacha ta’lim davlat talablarini belgilashda shuni hisobga olish kerakki, ta’lim jarayonning tarkibini, xuddi shu tarkibiy qismlarning mazmunini ham modernezatsiyalash, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisidagi nutq. - Toshkent: «O’zbekiston», 2016. -56 b.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli qarori. 2017 yil.

3. “Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari” T.: 2017

4. Богданова Т. Г.Диагностика когнитивной сферы ребенка.-М.:рос пед агенство, 1994г.

BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODOLOGIK TAHLILI

Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali
xalbayevagulnoza42@mail.ru

Annotatsiya. *Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda bolalarni maktabga innovatsion tayyorlashga alohida e’tibor qaratilib, yangicha psixologik usul va texnologiyalarga kiritilgan yangicha yondashuvlar asosida bolalarni maktabga tayyorlashni tashkil etish muhim masalalardan ekanligini amaliyot ko‘rsatadi. Bu borada ta’lim va maktabga tayyorlashni uzviyligini o‘rnatish jarayonida yangiliklarni izlab topish va kiritish, bolalarni maktabga innovatsion faoliyatga psixologik tayyor turish yondashuvini shakllantirish yo‘nalishlarda keng ko‘lamli ilmiy tadqiqot ishlari dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Maktabga tayyorgarlik muammosi keng o‘rganilgan bo‘lib, ular turlicha yondashishlar, pozitsiyalar, yo‘nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan.*

Kalit so‘zlar: *bola, maktabga tayyorlash, intellekt, innovatsiya, innovatsion ong, innovatsion tafakkur, innovatsion g‘oyalar, kretivlik, deviant xulq, o‘quv motivlari*

Kirish. Respublikamizda so‘nggi yillarda bolalarni maktabga innovatsion tayyorlash asosida ularni psixologik tayyorgarligini takomillashtirish davlat ciyocatining eng muhim uctuvor yo‘nalishlaridan etib belgilangan bo‘lib, zarur huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi. Taraqqiyot strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishida «Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish» va «iqtidorli yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jonlantirish, mamlakatda amalga oshiriluvchi innovatsion g‘oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiquvchi barkamol avlodni tarbiyalash» konseptual g‘oya negizida ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosati O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish muhim vazifalar belgilanganligi ularni amalga oshirishda shaxsning individual qiyofasini to‘laqonli namoyon etishga xizmat qiluvchi omillarning ahamiyatini o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirishga yetarli asos yaratilganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida»gi O‘RQ-630-son, 2021 yil 1 apreldagi «Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘RQ-0270-son, 2021 yil 28 avgustdagi «Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish

tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 0832-sonli Qarorlari, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», Farmonlari, hamda boshqa meyoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Respublikamiz olimlaridan bolalarning shakllanishi hamda ularning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan psixologik xususiyatlari muammosi G.B.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, B.R.Qodirov, B.M.Umarov, N.S.Safayev, E.G‘.G‘oziyevlar tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan G.M.Andreyeva, D.B.Elkonin, B.K.Lisina, L.S.Obuxova, C.B.Malanova, A.A.Orlov, A.N.Leontov, I.V.Dubrovina, L.S.Vigotskiy bolalarning yosh psixologiyasi va ularni shaxs kamolotidagi roli va ahamiyatini tadqiq etilganlar.

Xorij olimlari M.Bingham, J.Edmondson, J.R.Nuttin, Y.Peng, A.S.Waterman, J.Turner, S.Stryker, M.Rokeach, C.R.Rogers, G.Hofstede va boshqa olimlar bolalarni maktabga tayyorlashning turli psixologik jihatlarini o‘rganganlar.

SH.T.Kubayeva o‘z ilmiy tadqiqotlarida innovatsion-psixologik mexanizmlarni tafakkurga asoslangan yangicha g‘oyalar, konsepsiyalar va loyihalarni ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi “innovatsion tafakkur” deb belgilashga asos bor deb ta’kidlaydi. Bizningcha innovatsion tafakkurni ilmiy jihatdan tahlil qilishda bir tomonloma yondashish to‘g‘ri bo‘lmagan bo‘lar edi. Chunonchi tafakkur subyektini yosh xususiyatlari va etnopsixologik xususiyatlarning o‘rnini ham unutmaslik lozim, chunki innovatsion-psixologik mexanizmlar asosida obrazlar, ramzlar, xulosalar, hukmlarning ixtiyoriy assotsiatsiyasi, ularning o‘zaro integratsiyasi mavjud bo‘lib, yangi obraz va tasavvurlarning paydo bo‘lishida ijtimoiy identifikatsiya asosiy rolni bajaradi.

J.Baerni tadqiqotlarida, amaliyotda innovatsion-psixologik mexanizmni asosini kreativlik tashkil qilishi alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Albatta innovatsion-psixologik mexanizmlarni joriy ta’minlashda bu psixologik xususiyatni e’tibordan qochirmaslik lozim bo‘ladi. I.Abdullayeva va uning shogirdlari rivojlanayotgan jamiyatda iqtisodiy va innovatsion tafakkurning uyg‘unligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rgangan. Uning fikricha, innovatsion-psixologik mexanizmlar albatta ijtimoiy normalar asosida boshqarilib turilishi lozim. Bunda innovatsion-psixologik mexanizmlar munosabatlarni tartibga soladi hamda ularni mazmundorligini (samarali, samarasiz) ta’minlaydi. Bizningcha muallif masalani ko‘proq falsafiy-umumiy tomonlarini yoritib, uning xususiy jihatlarini o‘rni va ahamiyatini nazaridan qochirgan.

A.Saitqosimov innovatsion ong, tafakkur, kretivlik, liderlik kabi psixologik xususiyatlarni ilmiy jihatdan tadqiq etgan hamda jamiyatda innovatsiyalarni joriy etishni tartibga solish, amaliy natijalarini esa davlat siyosatiga muvofiqlashtirish uchun «Innovatsion tadqiqot markazlarini tashkil etish lozimligini» ko‘rsatib o‘tgan. Tadqiqotchining fikricha, ta’lim tizimida klaster tizimini joriy etish, oliygohlar qoshida maktablar, bog‘chalar, texnopark kabilarni tashkil etib, ishlab chiqilgan mahsulotlarni miqyosini kengaytirish uchun tijoratlashtirish lozim.

S.R.Yagolkovskiy o‘z izlanishlarini innovatsiya psixologiyasini o‘rganishga bag‘ishlagan. Olimning ta’kidlashicha, har qanday innovatsiya bevosita biron-bir faoliyat sohasiga taalluqli bo‘ladi. Ayni paytda innovatsiya muallifi o‘z g‘oyasini amaliyotda qo‘llanilishining samara berishini anglashi kerak. Buning uchun esa kasbiy motivatsiya hamda psixologik ustanovkalar to‘g‘ri shakklangan bo‘lishi kerak va psixologlar bu masalaga e’tibor qaratishlari talab etiladi.

Innovatsiyalar, insonni psixologik tahlilining mahsuli sanalib, o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi. Innovatsiyalar ilmiy izlanishlar hamda alohida ilg‘or tajribalarning natijasi ko‘rinishida boshqarishni, tatbiq etishni taqozo etadi. Bu tushuncha XIX asrda ilmiy muloqotga kiritilgan bo‘lib, XXI asrning boshlarida innovatika tushunchasi zamirida texnika sohasidagi yangiliklarni moddiy ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etishda qo‘llanildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ijtimoiy munosabatlar nazariyasini yetakchi vakili R.Mertonning ta'kidlashicha, maktabga tayyorlashning innovatsion g'oyalarni, deviant xulqning namunasi sanaladi (8(. Bunda muallif ta'lim berishning institutsional (bazaning zamirida vujudga keladigan) asoslarini ishlab chiqishda mavjud bulgan meyor va mezonlarni (aniq harakatlar ketma-ketligi, aloqadorlik va boshqalarni) inkor etib, ulardan voz kechib, iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan munosabat bildirgan

G.I.Gerasimov va L.V.Ilyuxinaning ta'kidlashicha, innovatsiya bu shaxsda ifodalangan ijodiy (kreativ) salohiyatni maqsadli namoyon qilish hisoblanib, uning faoliyat sifatidagi o'ziga xosligi shaxsning ma'lum tipini belgilab beradi. Agarda, bolani maktabga tayyorlash tizimida innovatsiyalarning qo'llashni e'tiborga olsak, bola shaxs tipologiyasini sohaviy kurinishda klassifikatsiyasini amalga oshirish mumkin buladi. G.I.Gerasimov va L.V.Ilyuxinaning fikrini S.Knowles Malcolm, F.HoltonElwood, A.SwansonRichardlar ham davom ettirib, bugungi kunda shunday bolalarni maktabga tayyorlash zarurki, ular har qanday holatda ham o'zlarining bilimlarini amaliyotda nafaqat qo'llab, balki uni rivojlantira olishga ham erishsinlar, degan fikrni ta'kidlaydilar.

K.Rodjersning fikricha, agarda insonga genetik layoqati uchun shart-sharoit yaratib berilsa, u takomillashishga erishadi. Bu esa, o'z navbatida bolaning kelajakda ham shaxsiy ham kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatli kechishini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin ekan.

Bolani maktabga innovatsion tayyorlash jarayoni bolalarni psixologik jihatdan tayyorgarligini oshirib, ularni maktabga tayyorlash jarayoni bilan bog'liq ijtimoiy tasavvurlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bolalarni maktabga psixologik tayyorlashning asosiy komponentlari quyidagilarda aks etadi:

- ijtimoiy tasavvurlarni o'zgarishi natijasida o'zi va o'z qiziqishlariga bo'lgan munosabatning o'zgarishi;
- yangi bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqni oshishi;
- orzu va istaklarni yuqori darajaga ko'tarilishi.
- Bolalarni maktabga tayyorlashni aniqlashda ularga darajaviy yondoshib amaliyot davomida psixologik jarayon sifatida inobatga olinishi lozim bo'lgan vazifalar:
- ta'lim jarayonida bolaning innovatsion faoliyatga tayyorlash davomida o'zgarishlarni belgilab olish;
- maktabga tayyorlash uchun optimal uslublarni aniqlab olish;
- ilmiy-psixologik modellashtirish;
- o'quvchilarni rag'batlantirish.

Ushbu vazifalarni yechish o'z o'rnida bolalarni maktabga innovatsion tayyorlash uchun muhim va ahamiyatli hisoblanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bolani maktabga psixologik tayyorlashda albatta uning motiv va ehtiyojlarini ham nazardan qochirmaslik lozim. J.Piaje bolaning bir yoshgacha bo'lgan davrini absolyut egotsentrizm davri deb ataydi. Bunga qarama-qarshi fikrni L.S.Vigotskiy, hatto go'dakning elementar ehtiyojlarini qondirilishi ota-onaning ishtirokisiz amalga oshmaydi, shuning uchun bola "maksimal darajada ijtimoiy mavjudod" deb hisoblaydi.

L.S.Vigotskiy qarashlariga qo'shilgan M.I.Lisina bolaning psixik rivojlanishining birlamchi faktori sifatida muloqotga ehtiyojniva L.I. Bojovich – ta'surotlarga bo'lgan ehtiyojni e'tirof etadi. M.I.Lisina bo'yicha muloqot uchta asosiy ehtiyojlarni qamrab oladi:

1. Ta'surotlarga ehtiyoj- bilish motivlari
2. Faol faoliyatga ehtiyoj- ishbilarmon motivlar
3. Tan olinish va qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj- shaxsiymotivlar

Bizning fikrimizga ko'ra ham, bolaning maktabga psixologik tayyorlashda ushbu muloqot motivi birinchi darajali ahamiyatga ega, sababi, bola birinchi kunidanoq boshlab uni bilim olish va faoliyatining markaziy obyekti hisoblangan kattalar bilan muloqot jarayonida uyg'unlashadi.

Undan tashqari ularga taqlid namunasi va bilim va ko‘nikmalarni baholovchi ekspert tariqasida qaray boshlaydi.

A.Maslou esa boladagi birinchi darajali sotsiogen ehtiyoj sifatida muloqotga bo‘lgan ehtiyoj konsepsiyasini oldinga suradi. Maslou fikricha, insontu g‘ilganda faqatgina fiziologik ehtiyojlarga ega bo‘ladi. Ma’lum muddatdan so‘ng esa bola ijtimoiy bog‘liqlikning birinchi belgilarini va atrofdagilarga nisbatan tanlovchan sevgini namoyon etadi. Yana ma’lum muddatdan so‘ng, bola ota-ona muhabbati va g‘amho‘rligini his etgandan, qondirilgandan so‘ng, unda avtonomlikka, mustaqillikka, qandaydir maqsad, maqtovga nisbatan muvaffaqiyatga erishishga intilish aniqlanadi. Demak, bolani maktabga psixologik tayyorlashda ushbu ehtiyojlarning qay darajada qondirilganligi keyingi ijtimoiy adaptatsiyasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin ekan.

Bolani maktabga psixologik tayyorlashda ulardagi psixik jaryonlarning ham shz shrni va ta’siri borligini e’tibordan iochirmaslik lozim. Bolaga ko‘rsatilayotgan psixologik ta’sirni bir xilda namoyon bo‘lish yoki bo‘lmasligi, ya’ni ekstravertlar va introvertlarda L.S.Sapojnikova (1973) o‘rgangan bo‘lib, tadqiqot natijalariga asoslanib, u muloqotga intilish va ekstra-introvertlilik o‘rtasida aniq statistik ahamiyatli bog‘liqliknitopmagan. Natijalarga ko‘ra, bolalarning muloqotga intilishlari ularning ehtiyoj, da’vogarlik, mayllarining kuchi va darajasiga bog‘liq bo‘lib chiqdi. Da’vogarlikning adekvat darajasini namoyon etuvchi bolalarda o‘zgalarga intilish meyorida namoyon bo‘ladi, noadekvat intilishlar darajasiga ega bolalarda esa yo yuqori, yo past darajada namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation). Xulosa qilib aytganda, maktabga psixologik tayyorlikning muhim tarkibiy kismi maktabga o‘qishga kirayotgan bolada atrof, dunyo hakida yetarlicha keng bilish boyligining mavjud bo‘lishidir. Bilimlarning bu zahirasi o‘qituvchi o‘z ishini tashkil etishda tayanadigan zarur asos xisoblanadi. Bolani maktabga psixologik tayyorligida bolalar egallagan bilimlarning sifati ahamiyatlidir.

Bilimlar sifatining ko‘rsatkichi birinchi navbatda ularni bolalar tomonidan ongli egallaganligi; tasavvurlarining aniq va tabaqalashtirilganligi; oddiy tushunchlar mazmuni va hajmining to‘liqligi; o‘zlariga tushunarli o‘quv va amaliy vazifalarni hal etishda bilimlarni mustaqil qo‘llana olish qobiliyatlari; muntazamlilik, ya’ni maktabgacha tarbiya yoshidagilarning narsa va hodisalar o‘rtasidagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni aks ettira bilish kobiliyatidir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil 28 yanvar
2. Kubayeva Sh.T. O‘yin va innovatsion tafakkur (ontologik va gnoseologik tahlil) // Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2019. - 49 b.
3. Baer J. Domain specificity and the limits of creativity theory // Journal of Creative Behavior, 2012. – 46 (1). – pp. 16-29.
4. Abdullaeva I.G‘. Milliy taraqqiyotning yangi bosqichida iqtisodiy va innovatsion tafakkur uyg‘unligi // Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand,
5. Яголковский С.Р. Психология инноваций: подходы, модели, процессы. – М.: Высшая школа экономики, 2011. – 272 с.
6. Организация инновационной деятельности в университетах ass: сб. информ.-аналит. материалов. – Н. Новгород: Изд-во ННГУ, 2011. – 96 с.
7. Халперн Д. Психология критического мышления. - СПб., 2000.
8. Герасимов Г.И., Илюхина Л.В. Инновации в образовании: сущность и социальные механизмы. – Ростов н/Д., 1999. - 136 с.
9. Knowles Malcolm S., Holton Elwood F., Swanson Richard A. The AdultLearner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development(Managing Cultural Differences) 5 th ed, Houston, TX: Gulf Publishing Company, 1998.

10. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека: Пер.с англ. / Общ. ред. и предисл. Исениной Е. И. – М.: Издательская группа « Прогресс» , «Универс» , 1994. – 480 с.
11. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. –Москва: Международная педагогическая академия, 1994. – 680с.
12. Маслоу А. Мотивация и личность / пер. А.М. Татлыбаевой. - СПб.:Евразия, 1999. - 478 с.
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 55 b.

INKLYUZİV TA’LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI

Yusupova Farida
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Annotasiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta’limda STEAM texnologiyasining ahamiyati yoritilgan. Turli imkoniyatga ega bolalarning ta’lim jarayoniga teng ishtirokini ta’minlashda STEAM yondashuvi samarador ekani misollar asosida asoslab berilgan.

Абстрактный. В статье подчеркивается важность технологии STEAM в инклюзивном образовании. На примерах обосновывается эффективность STEAM-подхода в обеспечении равноправного участия в образовательном процессе детей с разными возможностями.

Abstract. This article highlights the importance of STEAM technology in inclusive education. It provides case studies that demonstrate the effectiveness of the STEAM approach in ensuring equal participation of children with different abilities in the educational process.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, STEAM, texnologiya, san’at, matematika, muhandislik, imkoniyati cheklangan bolalar, interaktiv ta’lim, vizual materiallar, differensial yondashuv.

Ключевые слова: инклюзивное образование, STEAM, технологии, искусство, математика, инженерия, дети с ограниченными возможностями, интерактивное обучение, наглядные материалы, дифференцированный подход.

Keywords: inclusive education, STEAM, technology, art, mathematics, engineering, children with disabilities, interactive learning, visual materials, differentiated approach.

KIRISH.

“Inklyuziv” so’zi inglizcha “inclusive” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, o’zbek tiliga tarjima qilinganda “shu jumladan” yoki “birlashtiruvchi” degan ma’noni anglatadi. Yoshi, jinsi, etnik kelib chiqishi, jismoniy yoki intellektual qobiliyatlari, ijtimoiy mavqei va boshqalardan qat’i nazar, barcha odamlarning ishtirokini o’z ichiga olishga qaratilgan tushuncha yoki yondashuvni bildirish uchun ishlatiladi.

Inklyuziv ta’lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta’lim olishini anglatadi. Ya’ni imkoniyati cheklangan bola sog‘lom bolalar bilan bir xil e’tiborda o‘qiy olishi kerak. O‘zbekistonda oilaviy sharoitidan qat’i nazar, barcha bolalar davlat umumta’lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan.Psixolog olim professor L.S.Vigotskiy o’zinig “Defektologiyaning asosiy muammolari” nomli kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta’limni olib borish kerakligini korreksiya, kompensatsiya usullari va ulami amalga oshirish yo’llarini

Ko’rsatib berdi. Shuningek, u anomal boladagi nafaqat “salbiy”, balki “ijobiy” tomonlami ham o’rganib, aniqlab, ularga tayangan holda potensial qobiliyatni inobatga olib turib, ta’limtarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi. Unga asosan anom al bolalam ing asosiy kategoriyalari quyidagilar:

- Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar (karlar, zaif eshituvchilar, hech eshitmaydiganlar);
- Ko’rish qobiliyati buzilgan bolalar (ko‘r, zaif ko’ruvchilar);
- Nutqida nuqsoni borlar (logopedlar);
- Aqliy rivojlanish qobiliyati buzilgan (aqlan zaif bolalar, ruhiy rivojlanishi sust bolalar);

- Ruhan va jismonan rivojlanishda orqada qolgan bolalar (kar va ko‘r, soqov va aqlan zaif);
- Tayanch harakat sistemasi ishdan chiqqan bolalar.

Shunday qilib, anomal bolalar nuqsoni tufayli ruhiyih jrqada qolgan va maxsus tashkil etilagan ta’limtarbiyaga muhtoj bolalardir.[1]

STEAM Education o‘sib borayotgan ta’ lim fanlari tarmog‘ini, biznes va jamiyatni bog‘lash uchun foydalaniladigan asosni ta’minlaydi, bunda fuqarolar ishtirok etadigan, global mas’uliyatli, voqe’likka asoslangan dasturlarni yaratish mumkin. Ushbu yondoshuv samarasi o’laroq olingan bilim o’z tajribalari va ta’lim, ixtiro, tadbirkorlik va hayotga ta’siri haqida yangi va chuqurroq yo’llar bilan o’ylashga majbur qiladi.

STEAM ta’limi o’zi nimani anglatadi? Ushbu savolga javob quyidagicha ta’limni integratsiyalashgan holda olib borish yani barcha sohalarni ta’lim, fan va texnologiyani va ishlab chiqaish, bizness sohalari aloqasini etirof etgan holda, muhokama va tanqidiy fikrlash qobilyatlarini o’rganadigan tizimdir. Jahondagi ta’lim bo’yicha ekspertlarning ta’kidlashicha, STEAM ta’limi o’quvchilarda quyidagi qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. O’ylab tavakkal qilingan ma’noli o’quv faoliyati bilan shug’ullaning bardoshli muammolarni hal qiluvchilarga aylaning hamkorlikni quchoqlang va qadrlang ijodiy jarayon orqali ishlang.

- S – science (tabiiy fanlar)
- T – technology (texnologiya)
- E – engineering (muhandislik ishi)
- A- art (san’at)
- M – mathematics (matematika) [2]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

STEAM texnologiyasi orqali inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish mumkin. Chunki bu yondashuvda o‘quvchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini nazariy emas, balki amaliy mashg‘ulotlar, loyiha asosidagi ishlar, guruhli faoliyatlar orqali o‘zlashtiradilar. Bu jarayonda har bir bola, u qanday imkoniyatga ega bo‘lishidan qat’i nazar, faol qatnashadi, o‘z fikrini bildirishga, tashabbus ko‘rsatishga undaladi. Natijada, inklyuziv muhitda har bir bola teng sharoitda ta’lim oladi, bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Masalan, *eshitishida muammosi bor bola* uchun vizual (ko‘rgazmali) materiallar, grafiklar, rasmlar, animatsiyalar yoki subtitrlar orqali tushuncha berish mumkin. Bu orqali u tinglamasdan ham tushunishga erishadi. Shuningdek, imo-ishora tili yoki maxsus dasturlar yordamida muloqot qilish imkoniyati yaratiladi.

Harakatida muammosi bor bolalar uchun esa dars jarayonlari raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilishi mumkin. Masalan, planshetlar, sensorli ekranlar, virtual laboratoriyalar orqali u boshqa bolalar bilan teng qatnashadi. U kompyuter orqali tajriba bajaradi, loyihalarda ishtirok etadi, fikrlarini raqamli vositalar orqali ifodalaydi.

Ko‘rishida nuqsoni bor bolalar uchun esa audio materiallar, braille yozuvidagi darsliklar, sensorli o‘yinlar kabi vositalardan foydalanish mumkin. Masalan, tajriba jarayonida fizik hodisalarni ovozli tasvirlash yoki maxsus tovushli qurilmalar orqali ishtirok etish imkoniyati yaratiladi.

STEAMning “A” — san’at yo‘nalishi ham inklyuziv ta’limda muhim o‘rin tutadi. Musiqa, rasm, teatr yoki hunarmandchilik orqali bolalar o‘zlarini erkin ifodalaydi, his-tuyg‘ularini namoyon qiladi. Bu esa ularning ruhiy holatini barqarorlashtiradi, o‘zini jamiyatda qadrlangan inson sifatida his etishiga yordam beradi.

Shuningdek, guruhli ishlar orqali bolalar o‘zaro muloqotga kirishadi, bir-birlarini tushunishga harakat qilishadi. Bu esa ijtimoiy inklyuziyani — jamiyatga to‘laqonli qo‘shilishni ta’minlaydi. Bolalar bir-biriga yordam berishadi, hurmat qilishadi va ijobiy muhitda rivojlanadilar. STEAM texnologiyasi o‘qituvchiga ham ko‘p imkoniyat beradi. U har bir bolaning o‘ziga xos

ehtiyojini hisobga olib, turlicha yondashuvlar bilan dars o‘tadi. Bu yondashuv differensial ta’lim prinsiplariga ham mos keladi. Misol uchun, bir vazifa bir nechta variantda taklif qilinadi: oddiy, murakkab va kreativ yo‘nalishlarda. Bola esa o‘z imkoniyatiga qarab o‘zi tanlaydi. STEAM texnologiyasi nafaqat o‘qitish, balki tarbiyaviy jihatdan ham muhim rol o‘ynaydi. Bu yondashuv orqali inklyuziv ta’lim muhitida bolalar orasidagi tafovutlar kamayadi, o‘zaro tushunish va hurmat shakllanadi, har bir o‘quvchining qiziqishi va salohiyati ochiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, STEAM texnologiyasi inklyuziv ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim vosita bo‘lib, bolalarning intellektual, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishini ta’minlaydi. Bu texnologiya yordamida biz barcha farzandlarga — imkoniyatidan qat’i nazar — sifatli, teng va quvnoq ta’lim muhitini yaratishga erishamiz. STEAM texnologiyasi darslarni interaktiv, vizual va amaliy shaklda olib borish orqali har bir bolaning faol ishtirokini ta’minlaydi. Bu esa inklyuziv muhitda bilim olishda tenglik, hurmat va hamkorlik muhitini shakllantiradi. Har bir bola o‘z qobiliyati va imkoniyatiga qarab o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Zamilova, Rimma Ramilevna/Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va inklyuziv ta’lim: darslik / – Namangan: “USMON NOS1R MEDIA” nashriyoti, 2023
2. Jumaniyazova, Z. A. (2024). Increasing creative competence of students and strengthening educational efficiency based on individual approach. Web of humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research
3. Vygotskiy, L. S. (1983). Defektologiyaning asosiy muammolari. Moskva: Pedagogika.

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA INKLYUZIV TA’LIMNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Z.T.Nazarova
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali
Mardonova O‘g‘iloy, talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz ta’lim tizimi va unëi yanada samaradorligini oshirish chora tadbirlari va “Eng insonparvar ta’lim turi” sifatida e’tirof etilgan Inklyuziv ta’lim tizimining dolzarbligi va uni joriy etish orqali erishilishi mumkin bo‘lgan yutuqlar to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Inson kapitali, Inklyuziv ta’lim, Korreksion pedagogika, Reabilitatsiya, Surdopedagogika, Teflopedagogika, Oligofrenapedagogika, Logopediya va boshqalar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev inson qadri tushunchasini ifodalar ekan, “Inson qadr deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz” deb ta’kidlaydi.[1]

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning zamirida inson manfaatlariga ustuvorlik berilgan bo‘lib, yuz berayotgan o‘zgarishlarni o‘z hayotida his etishlari uchun salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tibor, xususan, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, professional ta’lim va oliy ta’lim sohasidagi islohotlarni olida e’tirof etish lozim. [1]

Darhaqiqat, bugungi kunda yoshlarning sifatli ta’limi uchun respublikamizda bir qator samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, misol qilib shuni ko‘rsatishimiz mumkinki, uzluksiz ta’lim tizimida inklyuziv ta’limning o‘rnini oshirishdir. Inklyuziv ta’lim tan olish kerakki, hali bizga to‘liqligicha o‘zlashtirilib ulgurmadi. Inklyuziv so‘zi inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “uyg‘unlashmoq” degan ma’noni anglatadi. Bundan ko‘rinadiki, ushbu ta’lim turidan ko‘zlangan asosiy maqsad: sog‘lom jamiyat vakillari va nosog‘lom jamiyat vakillarini integratsiya orqali o‘qitishdir.

Inklyuziv ta’lim (ya’ni, imkoniyati cheklangan bolalar va maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilarni umumiy ta’lim tizimiga qo‘shish) O‘zbekistonda rasman 2018-yildan boshlab joriy etila boshladi. Aynan shu yili Prezident qarori bilan “ Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida” gi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida inklyuziv ta’limni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar belgilanib, ayrim maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida tajriba tariqasida inklyuziv ta’lim joriy etildi. 2020-yilga kelib, inklyuziv ta’lim bo‘yicha maxsus dasturlar va o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqildi. Shu tariqa inklyuziv ta’lim bosqichma-bosqich Respublika bo‘yicha kengaytirib kelinmoqda.

Aynan, inklyuziv ta’lim bo‘yicha respublikamizda Ta’lim vazirligi statistik ma’lumotlariga qaraganda, quyidagi ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin:

-2020/2021-o‘quv yillarida: 42 ta umumta’lim maktabida inklyuziv ta’lim joriy etilib, 76 nafar imkoniyati cheklangan bolalar qabul qilingan;

-2022/2023 o‘quv yilida: inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablar soni 195 taga yetib, ularda 504 nafar imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim olgan;

-2023/2024- o‘quv yili: Yangi o‘quv yilida inklyuziv ta’lim joriy etilishi tavsiya etilgan maktablar soni yana 390 taga ko‘paytirilib, respublikaning barcha tuman va shaharlarida inklyuziv maktablar tashkil etilmoqda.

-2024-yil sentabr holatiga ko‘ra: 530dan ortiq maktabda 1,195 nafar imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim olishgan.

YUNESCO ma’lumotiga ko‘ra: Nogironligi bo‘lgan bolalar soni 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 0 dan 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar soni 92,067 nafarni tashkil etgan (bu yosh guruhidagi bolalarning 1 foizi), bu ko‘rsatkich 2013-yilga nisbatan 15,7 foizga oshgan deya ko‘rsatilmoqda. [2]

Bundan ko‘rinadiki, respublikamizda inklyuziv ta’lim bilan qamrab olish salmoqli ravishda oshib bormoqda. Albatta, bu hol bir tomondan quvonarli holat bo‘lsa, bir tomondan esaachinarli hamdir. Inklyuziv ta’lim o‘ziga rivojlanishdagi turli xil nuqsoni bo‘lgan bolalarni qamrab olishi jihatidan dunyodagi eng insonparvar ta’lim turi sifatida e’tirof etilgan. Jumladan, ushbu ta’lim samaradorligi jihatdan ham anchagina ildamlab bormoqda. Biz ushbu insonparvar ta’lim turli bilan “inson kapitali” ni ham bog‘lay olishimiz mumkin. Chunki har ikkalasida ham ilgari surilgan eng ulug‘ g‘oya bu-inson ekanligi va uning rivojlanishi uchun imkoniyatlarning yaratilishidadir.

Inklyuziv ta’lim bevosita Korreksion pedagogika bo‘limlari va turlari orqali o‘z faoliyatini olib boradi. Ya’ni ushbu ta’lim korreksia(tuzatish) ga qaratilganligi bilan e’tiborga molikdir. Korreksion pedagogika turlari:

1.Surdopedagogika- bunda asosan, eshitishida muammosi mavjud bo‘lgan bolalar bilan ishlash jarayoni

2.Teflopedagogika-ko‘rish tizimidagi muammolari bo‘lgan bolalar bilan ishlash

3.Logopediya- nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar bilan ishlash jarayonlari nazarda tutiladi

4.Oligofrenopedagogika- aqliy zaif bolalar bilan maxsus usullar bilan ishlash va ularni tuzatishga qaratilgan fan turidir.

Bular ichidan mening e’tiborimni tortgani bu – Logopediya ya’ni turli darajadagi nutqiy buzilishlarga uchragan bolalar bilan ishlash jarayonidir. Ushbu sohaga mening alohida to‘xtalishimga sabablar ham mavjud. Ya’ni aynan nutq buzilishlari sabablari shunchalik biz oddiy va odatiy tuyulgan sabablar bilan ko‘rsatilganki, unga bevosita to‘xtalib o‘tmaslikning hech ham ilji yo‘q. Demak, ular turli sabablarga ko‘ra yuzaga kelar ekan:

-noto‘g‘ri ekologik muhit;

-tilning nisbatan kalta va yo‘g‘on bo‘lishi;

-qo‘rquv va hayojon kuchli bo‘lishi;

-yosh bolalarga yoshi kattalar tomonidan buyumlar va hayvonlar nomi qisqartirilgan, talaffuz uchun qulay bo‘lgan turli xildagi “nom” lar bilan atab o‘rgatilishi. (mushukni-miyov, kuchukni-vov-vov va h.z)

Demakki, biz ko‘pincha oddiy hol sifatida talqin etadigan holatlar ham yosh bolalar nuqsonga duchor bo‘lib qolishining bosh omillaridan ekan. Nutq buzilishining yana bir turi esa duduqlanishdir. Duduqlanish asosan, quyidagi uch sabab orqali yuzaga kelar ekan:
-kuchli qo‘rquv;
-stress va depressiya;
-nerv sistemasidagi buzilishlar va miya jarohatlari bilan bog‘liq ekan.
Nutqiy buzilishlar birdaniga yaqqol namoyon bo‘lmasdan, ma’lum bosqichlar asosida shakllanib borar ekan:
-deslaliya- so‘zlarni to‘g‘ri ayta olmaslik;
-deskrafiya-nutq to‘g‘ri shakllanmaganidan, so‘zlarni to‘g‘ri yoza olmaslik;
-alaliya-fikrni bayon etishda so‘zlarni qoldirib talaffuz etish;
-afaziya-nutqning mutlaqo yo‘qolishi bilan ifodalanadi.

Ushbu holatlar reabilitatsiyasi (tuzatish) bilan maxsus mutaxassislar-logopedlar shug‘ulladilar. Ular turli metodlar orqali bolada mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda chora-tadbirlar olib boradilar.

Samaradorligi bilan bir qatorda Inklyuziv ta’lim oldida yechimi topilishi zarur bo‘lgan bir qator muammolar ham mavjud bo‘lib, ular:
-moddiy-texnik baza;
-kadrlar masalasi;
-maxsus resurlarning yetishmasligi;

Bulardan ko‘rinib turibdiki, ushbu muammolarga maxsus yechimlar zarur. Men ushbu muammolarga yechim va takliflar berib o‘tishga harakat qildim;

1.Moddiy-texnik baza. Demak, bunda asosan, o‘quv maxsus binolarni faoliyatini yo‘lga qo‘ymoqlik va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali binolalar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Chunki, biz bilamizki, xorij mamlakatlari ushbu ta’lim yuzasida bizdan ko‘ra anchagina ilgariroqda;

2.Kadrlar masalasi. Bunda ham asosan, hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan holatlardagi seminar-treninglarni tashkil etish va maxsus o‘rnak bo‘la oladigan shaxslardan foydalanish. Men aytmoqchimanki, ayni maxsus o‘rnak bo‘la oladigan shaxslar deyilganda, ya’ni dars beruvchi o‘qituvchi ham inklyuziv jamiyat vakilidan bo‘lganligi ko‘proq samaralidir. Chunki ko‘pchilik hollarda maxsus ehtiyojga muhtoj bolalar orasida o‘z kelajaklarini tasavvur eta olmaslik, to‘rt devor orasida qolib ketishlik kabi streotplarning mavjudligi alohida o‘ringa ega. O‘qituvchining ham ushbu jamiyatdan bo‘lishligi, yoshlar o‘rtasida ertangi kuni uchun umiq va qiziqish holatlarini kuchaytiradi;

3.Maxsus resurslar kamligi. Men ushbu muammo yechimini bevosita moddiyat bilan bog‘lagan holda, turli sohalarga tikilayotgan investitsiyalarning ma’lum qismini ushbu ta’lim tizimiga joriy etilishida deb bildim. Ya’ni maqsadli tikilgan sarmoya o‘z natijasini ko‘rsata oladi, faqatgina u aniq reja va loyihalar orqali amalga oshirilsa. Inklyuziv ta’lim ham aynan resurslari jihatidan kapital kiritilishi lozim bo‘lgan samardorligi yuqori bo‘lgan ta’lim tizimidir!

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’limning uzluksiz ta’lim turlariga joriy etilishida ma’lum maqsadlar mujassamdir. Ya’ni bolalar orasidagi nuqsonlarni bartaraf etish, ularda o‘ziga nisbatan ishonch hissini shakllantirish, imkoniyatlarni kashf etishga qaratilgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) “Inklyuziv ta’lim” Madatov I.Y. darslik/ 2024
2) “Umumiy pedagogika” X. Ibraimov; M. Quronov/darslik/ 2023
3) “Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar diagnostikasi” D. Nurkeldiyeva; M.U.Hamidova

TA’LIM SIFATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.

Z.T.Nazarova
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali

ANNOTASIYA. Ushbu maqolada Yaponiya, Fransiya va Germaniya ta’lim tizimlari tahlil qilinadi. Ularning o‘ziga xos jihatlari, ta’lim darajalari, ta’lim oluvchilarga qo‘yiladigan talablar, bolalar tarbiyasiga yondashuv va oliy ta’limga qabul tartiblari o‘rganiladi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari haqida fikr yuritiladi. Maqola ta’lim tizimining zamonaviylashuvi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yo‘lida xalqaro tajribani o‘rganish muhimligini asoslaydi.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируются системы образования Японии, Франции и Германии. Изучаются их особенности, уровни образования, требования к учителям, подходы к воспитанию детей, процедуры приема в высшие учебные заведения. В статье также рассматриваются образовательные реформы, реализуемые в Узбекистане на основе международного опыта. В статье обосновывается важность изучения зарубежного опыта модернизации системы образования и подготовки конкурентоспособных кадров.

ABSTRACT. This article analyzes the education systems of Japan, France, and Germany. Their specific features, levels of education, requirements for teachers, approaches to child education, and admission procedures to higher education are studied. It also discusses the educational reforms being implemented in Uzbekistan based on international experience. The article substantiates the importance of studying international experience in the modernization of the education system and training competitive personnel.

Kalit so‘zlar. *Ta’lim tizimi, Yaponiya ta’limi, Fransiya ta’limi, Germaniya ta’limi, xalqaro tajriba, maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, oliy ta’lim, zamonaviy maktab, innovatsion yondashuv.*

Ключевые слова. *Система образования, японское образование, французское образование, немецкое образование, международный опыт, дошкольное образование, начальное образование, высшее образование, современная школа, инновационный подход.*

Keywords*: Education system, Japanese education, French education, German education, international experience, preschool education, primary education, higher education, modern school, innovative approach.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida har bir davlat o‘z ta’lim tizimini isloh qilish, uning sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, innovatsion yondashuvlar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar va xalqaro ta’lim tizimlaridagi yutuqlarni o‘rganish hamda milliy tizimga moslashtirish orqali ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Ayniqsa, Yaponiya, Fransiya va Germaniya kabi mamlakatlar ta’limidagi ilg‘or jihatlar, o‘qituvchi maqomi, o‘quvchilarning erkin rivojlanishi va sifat nazorati tizimlari o‘rnak bo‘la oladi. Masalan, Yaponiya va Germaniyada o‘qituvchilik kasbining ijtimoiy maqomi juda yuqori baholanadi. Shu sababli, ularning ta’lim tizimiga oid ilg‘or tajribalarini o‘rganish va milliy ta’lim tizimimizga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Zero, raqobatbardosh, kuchli bilimga ega avlodni shakllantirish – har qanday jamiyatning ustuvor vazifasidir.

Muhokama va natijalar. *Yaponiya ta’lim tizimi*. Yaponiya ta`limida, ”iqtidorli o‘quvchi” tushunchasi yo‘q. Chunki har bir o‘quvchi alohida iqtidor sohibidir. Ilg‘or mamlakatlar ichida Yaponiya ta’limi o‘ziga xos yo‘nalishi yetakchi o‘rinni egallaydi. Jumladan, Yaponiya ta’lim tizimining tarkibi quyidagicha:

- maktabgacha ta’lim,
- boshlang‘ich maktab,
- kichik o‘rta maktab, yuqori o‘rta maktab,
- oliy ta’lim tizimlariga kiruvchi oliy o‘quv yurtlari.

Boshlang‘ich maktabda o‘qituvchilar bolalarni tanqidga, ya’ni o‘z xulqining yomon jihatlarini, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o‘rgatishadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi faqat ta’lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga tasir etadi. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o‘qituvchining maoshi davlat rahbarlari orasida ham yuqori bo‘lgan yagona davlat.

Majburiy ta’lim muhiti. Ta’limning bu pog‘onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha. bo‘lgan bolalarni o‘z ichiga oladi. Muhtoj oilalarning bolalariga moddiy yordam ko‘rsatiladi. Yuqori o‘rta maktab 10-11-12-sinflarni o‘z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo‘limlari mavjud. Yuqori bosqich o‘rta maktablarda butun o‘quv jarayonida o‘quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O‘quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o‘z xohishlariga ko‘ra ingliz tili, texnik ta’lim va maxsus sinovlarga jalb etiladi.

Universitetlariga yuqori va o‘rta maktabning yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o‘quvchilari qabul qilinadi.

Yaponiyada oliy ta’lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta’limi bilan uzviy bog‘liqdir. Yaponiyada bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas’uliyati ayniqsa kattadir. Ular farzandlarining aqlli, dono va mehnatsevar bo‘lib o‘sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o‘zlarini ma’sul deb hisoblaydi. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko‘plab metodik qo‘llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televideniya orqali ko‘plab pedagogik maslahatlar berib boriladi.

Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal, yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo‘llib, parta ustida kitob javoni, yoritkich, soat, qalam, qog‘oz, mikrokalkulyator va boshqa zaruruy ashyolar, shuningdek kerak bo‘lib qolgan taqdirda ota-onalarini chaqiradigan signal tugmachalarigacha o‘rnatilgan.[1]

Fransiya ta’lim tizimi. Fransiyada ta’lim sifati ta’lim, sport va tadqiqotlar bo‘yicha bosh inspeksiya tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu bosh inspeksiya 4 ta vazirlik uchun faoliyat ko‘rsatadi. Bosh inspeksiya 4 ta vazifani bajaradi:

1. Qo‘llab-quvvatlash - ta’lim, fan, sport, madaniyat boshqaruv idoralarini oliy ta’lim rektoratlarini.

2. Ekspertiza qilish–vazirliklar, idoralar, shartnomalar, rahbarlar faoliyati, xizmatlar, tuzilmalar va boshqalar.

3. Baholash - tashkilotlar, muassasalar, tuzilmalar, ijtimoiy siyosiy ahvol,kadrlar.

4. Nazorat qilish–tashkilotlar, muassasalar, xizmatlar va kadrlar. Bosh inspeksiyada to‘planadigan tajribalarning xilma–xilligi, bolalar bog‘chasidan doktoranturaga qadar davlat siyosatini muvofiqlashtirish imkonini beradi.Bu esa ta’lim, fan va yoshlarni rivojlantirishga, o‘quvchilarni sport, jamiyat hayoti va jamoat o‘qishiga jalb etishga ta’sir qiladi. Fransiya ta’lim tizimiga ko‘ra bola 6-7 yoshida tayyorlov sinfga boradi, keyin shu maktabda 4 yil boshlang‘ich sinfda o‘qiydi. Bu boshlang‘ich sinflar odatda alohida boshlang‘ich maktab sifatida faoliyat ko‘rsatadi hamda ularning inspeksiyasi ham, alohida bo‘ladi. Keyingi bosqich o‘rta ta’lim kollej deb ataladi. U yerda bola 4 yil o‘qiydi va yakunida to‘liqsiz maktab bitiruvchisi deb hujjat beradi. Keyingi 3 yil davomida turli yo‘nalishdagi litseylarda o‘qiydi hamda yakunida bakalavr imtihonini topshirib uning natijasiga qarab OTM larga qabul qilinadi. O‘qituvchilarni ishdan olishni maktab direktori amalga oshirmaydi.Yaxshi ishlamaydigan o‘qituvchilarni direktor tavsiyasiga muvofiq ta’lim inspeksiyasi tomonidan taftish qilinadi. Uning intizomi, o‘qituvchilik faoliyati, bolalar, ota-onalar o‘rtasidagi obro‘si diqqat bilan o‘rganiladi va tegishli chora ko‘riladi. Maktab o‘qituvchilariga qo‘yilgan talab Fransiyada o‘ta yuqori. Ayniqsa boshlang‘ich maktablarda o‘qituvchi o‘z kasbining ustasi, ajoyib notiq, san’atkor, musiqachi, sportchi, tashkilotchi, namunali xulq egasi bo‘lmog‘i lozim. Fransiya ta’lim tizimlarida maktabdan va sinfdan tashqari muassasalari ko‘zda tutilmagan. Biroq maktablarda, litseylarda turli to‘garaklar mavjud.[2]

Germaniya ta’lim tizimi. Germaniya jahon ma’rifat va madaniyat o‘choqlaridan biri. Ushbu davlatda har bir fuqaro o‘z shaxsini erkin rivojlantirish, o‘z iqtidori moyilligi va

qobiliyatiga qarab maktab, o‘qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega. Maktab ta’lim tizimi boshlang‘ich va o‘rta ta’lim muassalaridan iborat. Barcha davlat maktablarida o‘qish bepul. Germaniyada maktab ta’limi quyidagi maktab tiplariga bo‘linadi: boshlangi’ch maktab;

- yo‘nalish maktablari;
- asosiy maktab;
- real maktab;
- gimnaziya;
- umumiy maktab ;
- maxsus maktab.

Boshlang‘ich maktab ta’lim tizimining poydevori hisoblanadi. Boshlang‘ich maktabdan so‘ng o‘quvchilar yo‘nalish maktabga o‘tishadi. Asosiy yoki to‘liq xalq maktabi boshlang‘ich maktabni bitirib, real maktab yoki gimnaziyaga bormagan barcha o‘quvchilar uchun majburiydir. Asosiy maktab o‘qituvchilari o‘zlarini o‘qituvchi emas, ijtimoiy pedagog, deb his qiladi. Lekin asosiy maktabdagi o‘quvchilar yomon o‘zlashtirishiga qaramasdan kasbiy ta’lim olishiga majbur bo‘lishadi. Real maktablar ikkinchi bosqichga qarashli bo‘lib, odatda 5-10-sinflarni o‘z ichiga oladi. Real maktab yuqori darajali kengaytirilgan umumiy ta’lim beradi va o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mas’uliyat hissi, insonlarga rahbarlik qilish ko‘nikmalariga yuqori talab qo‘yadigan kasb egalari bo‘lishi uchun kasbiy ta’lim kurslariga tayyorlaydi. Germaniya ta’limi o‘ziga xos yo‘nalishga juda murakkab tizimga ega. Germaniya avlatida taraqqiy etgan davlatlar orasidan o‘rin olishda o‘zini oqlab kelayotgan ta’lim tizimi mavjud.[3]

Xalqaro tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o‘rganish orqali ta’lim tarbiyada qotib qolgan, o‘z dolzarbligini yo‘qotb borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo‘lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo‘shimcha boy manbalarga ega bo‘lamiz. Davlatimiz rahbari mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarga islohotlar sur’atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi. Shu maqsadda butun ta’lim tizimi takomillashtirilmoqda. Maktabgacha ta’lim rivojlantirilayotganini maktab saboqlariga puxta zamin bo‘lmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim sifati ilg‘or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda. Prezident maktablari, buyuk allomalarimiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari, Temurbeklar maktablari kabi zamonaviy va innovatsion ta’lim maskanlari tashkil etildi.Ularda xalqaro tajribalar yo‘lga qo‘yilganligi kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishidan dalolat beradi. 2019-yil 26- noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, , Zamonaviy maktab” larni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida“gi qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq 2021-yilgacha maktablarnng kamida 3 foizi, 2025-yilgacha 20 foizi 2030- yilga qadar esa 50 foizini, zamonaviy maktab” larga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi.[4]

Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish muhimdir. Masalan, Yaponiyada har bir o‘quvchi iqtidorli hisoblanib, ularning qiziqishlari erta aniqlanadi, ota-onalar esa ta’lim jarayonida faol ishtirok etadi. Fransiyada esa ta’lim sifati mustaqil inspeksiyalar orqali nazorat qilinadi, o‘qituvchilardan esa keng ko‘lamli ko‘nikmalar talab qilinadi. Germaniya ta’limida esa o‘quvchilar iqtidoriga qarab yo‘naltiriladi va kasbga yo‘naltirish tizimi samarali yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirib, o‘qituvchi malakasini oshirish, interaktiv metodlarni qo‘llash va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Xulosa. Ta’lim sifatini oshirishda har bir mamlakatning yondashuvi o‘ziga xos. Yaponiya, Fransiya va Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli ta’lim tizimi o‘zida yuqori malakali ustoz, o‘quvchining individual imkoniyatlarini e’tiborga olish, amaliyotga asoslangan yondashuv va ta’limda adolat tamoyillariga amal qilishni talab etadi. O‘zbekistonda xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish orqali sifatni oshirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. UNESCO Education Systems Analysis – www.unesco.org

2. Fransiya Ta’lim agentligi ma’lumotlari –www.education.gouv.fr
3. Germaniya Ta’lim vazirligi rasmiy sayti – www.kmk.org
4. Toshpo‘latova Dilafro‘z Muxtorovna /ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE /International scientific-online conference.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTINING OILA VA JAMOAT BIRLASHMALARI BILAN O’ZARO ALOQASI

Ziyodullayeva Jasmina
Samarqand davlatuniversiteti Kattaqo’rg’on filali, talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali maktabgacha ta’lim, oila va boshqa jamoat birlashmalari bilan hamkorligi,tarbiyachi va ota-onalar o’rtasidagi munosabatlar,bolaning rivojlanishida hamkorlikning ahamiyati, bolaning ijtimoiylashuvini ta’minlovchi hamkorlik metodlari haqida ma’lumotlarga ega bo’lasiz. Maqolada MTT, oila hamda jamoat birlashmalarining bola rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila, jamoat birlashmalari,hamkorlik,oila-kichik davlat,ta’lim-tarbiya,pedagogning roli.

Ota-onalar va tarbiyachining hamkorligi sheriklarning teng huquqli pozitsiyasini, o’zaro ta’sir qiluvchi tomonlarning indivudial imkoniyatlari va qobilatlarini hisobga olgan holda hurmat qilishni anglatadi va tarbiyachilar, ota-onalar va jamiyat o’rtasidagi hamkorlikni amalga oshirishning enh muhim usuli buz o’zaro munosabatdir, bunda ota-onalar passiv kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchilar bo’lib, o’quv jarayoni, bolalarni parvarish qilish sifatini oshirish va rivojlantirish bilan bog’liq muammolarni hal qilishda jamoaning to’liq a’zolari sanaladi. Bularning barchasi biz ota-onalar va jamoatchilik bilan ishlashni MTT faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etish va pedagogic faoliyatining muhim sharti sifatida ko’rib chiqishga imkon beradi.

Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ishi mazmuniga quyidagilar kiradi:

• ota-onalarga o‘z farzandlarining tarbiyasi uchun davlat va jamiyat oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish;

• ota-onalarni bola tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan bilim, malakalardan xabardor qilish (bolalarning yosh, anatomik,fiziologik va ruhiy xususiyatlari, ularni oilada tarbiyalashning mazmuni, metodi, shart-sharoitlari bilan tanishtirish);

• bola tarbiyasida oila bilan hamjihatlik, bolani to‘g‘ri tarbiyalashni nazorat qilib borish, oila tarbiyasining eng yaxshi namunalarini o‘rganish va ommalashtirish. Bola MTTda egallagan eng yaxshi fazilatlarni oila sharoitida davom ettirib, oilada egallagan eng yaxshi fazilatlarini MTTda namoyon qilsa ,istalgan ijobiy natijalarga erishish mumkin. Tarbiyachilar oila tarbiyasiga doir ijobiy ishlarni ko‘ribgina qolmay, balki uni qo‘llab-quvvatlash va shu asosida ota-onalar e’tiborini bola tarbiyasida hali hal etilmagan vazifalarga qaratishlari lozim. Yuqoridagi ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va ularga rahbarlik qilishda mudira javobgar shaxs hisoblanadi. Ota-onalar bilan ishlash bo‘yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiy va guruhiy majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshik kunlari, suhbat va maslahatlar,tashkilotlarda ko‘rgazmalar tashkil etish va konsertlar qo‘yib berish, shuningdek, bu tadbirlarni o‘tkazish vaqtlari va unga mas’ul bo‘lgan shaxslar belgilanadi.

Ota-onalar va maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o’zaro hamkorligi kamdan kam hollarda darhol yuzaga keladi.Bu sabr-toqatni, tanlangan maqsadga qat’iy rioya qilishni va ota-onalar bilan hamkorlik qilishning yangi usullarini doimiy ravishda izlashni talab qiladigan uzoq jarayon, uzoq davom etadigan mashaqqatli mehnatdir.

Oila bilan ishlashning turli shakllaridan foydalanish ota-onalarning maktabgacha ta’lim tashkilotiga joylashishi va ishonchini uyg’otishga imkon beradi. Oila va jamiyat a’zolarini bolalarda nutq hamda savodxonlikninmg rivojlanishiga jalbetishda biz foydalana olishimiz mumkin bo’lganko’plab usullar mavjud.Biz bolalarga sevimli ertaklarini o’qib yoki aytib berish

uchun ularning guruhga kelishlarini so’rashimiz mumkin bo’ladi.Biz shuningdek, ertakchilarni chaqirishimiz yoki ularning oldiga bolalarni olib borishimiz ham mumkin.Oila va jamoatchilik a’zolarining hikoya ,ertaklarni yozishga jalb etilishi ularning o’z farzandlari uchun muhim pedagoglar sifatidagi rolini kengaytiradi.Bu ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi va ularning o’z farzandlari bilan munosabatlarini boyitadi.Yaratilgan kitoblar o’z farzandlariga berish uchun qimmatli sovg’aga aylanadi. MTT pedagoglari ota-onalarga ularning o’z farzandlari uchun dastlabki ilk pedagoglar sifatidagi rollarini mustahkamlash maqsadida resurslarni topishga yordam berishlari va tadbirlarda ishtirok etishlariga ko’maklashadi.Oilaviy yig’inlar,huquq va imkoniyatlarni kengaytirish dasturlari,oilani qo’llab-quvvatlash guruhlari mana shular biz oilalarga axborotarni bera olishimiz va ular bilan bog’lana olishimiz mumkin bo’lgan usullardan ayrimlaridir.

Ota-onalar burchagi va ko‘rgazma tashkil etish. Ota-onalar burchagi ularni tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jurnallar, rasmlar, bolalaming ishlari, bolalar ovqatining xillari, bolaning uyidagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e’lonlar joylashtiriladi. Burchak vaqt-vaqti bilan tarbiya vazifasiga qarab o‘zgartirib turiladi. Pedagogik bilimlarni targ‘ib qilish bo‘yicha tashkil etiladigan ko‘rgazmalar ko‘pincha ota-onalar konferensiyalari, majlislari, konsultatsiyalar oldidan tashkil etiladi. Unda xalq ta’limi to‘g‘risidagi qonun va qarorlar, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmoqlari va undagi tarbiyalanuvchilar sonining o'sishini ko‘rsatuvchi diagrammalar, bolalar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonlari, bolalar hayotini aks ettiruvchi fotosuratlar, kitob va o‘yinchoqlar, bolalaming ishlari o‘rin oladi. Ota-onalar burchagi — oila bilan olib boriladigan ishning ko‘rgazmali usuli, uning did bilan bezatilishiga alohida e’tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarga tarbiya tog‘risidagi filmlar namoyish etiladi, bular ko‘pincha ota-onalarni qiziqtiradigan bahslar boshlanishiga sababchi bo‘ladi. Ota-onalar uchun ochiq kunlar tashkil etilishi ham maktabgacha ta’lim muassasalari ishida muhim o‘rin egallaydi. Bunday kunlarda ota-onalarga bolalaming mashg‘ulotlari, mehnat, o‘yin faoliyatlari, sayrlar va bolalaming jamoada o'zlarini qanday tutishlari va shunga o‘xshashlar ko‘satiladi.

Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim otaonalami bog‘chaga taklif etish, alohida esdaliklar va ko‘chma papkalardan foydalanish. Bolaning uyiga borishdan ko‘zlangan maqsad — oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi, qiziqishlari, ota-onasi va oila a’zolari bilan tanishish, shuningdek, ota-onalami bola tarbiyasining samarali usullari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarini o‘rganib, ommalashtirishdir.

Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do‘st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a’zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga borishidan avval o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o‘ylangan bo‘lishi kerak. Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-ona birbirlarini yaxshi tushunishlari, ular o‘rtasida ishonchli aloqa o‘rnatilishi darkor. Oilaga borishdan oldin tarbiyachi shu oila to‘g‘risida (ota-onalarning fe’l-atvori, oilaviy munosabatlar, bolaning rivojlanish darajasi) to‘g‘risida ma’lum tasavvurlarga ega bo‘lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar hurmati va ishonchini qozonmoq uchun awal ota-onalarga bolaning ijobiy fazilatlari to‘g‘risida fikr, mulohazalarini bildiradi va bolaning uyidagi hayotini qanday tashkil etish kerakligi, unga nimalami o‘qib va hikoya qilib berish mumkinligi, bolaning kun tartibi, uni oila mehnatida qatnashtirish, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ta’lim-tarbiya ishlari mazmuni va usullari bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. O'.Otavaliyeva. Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. T.:1994-y.

2. O.U. Hasanboyeva, M.X. Tojiyeva, Sh.K. Toshpo'latova va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Pedagogika kollejlari uchun o 'quv qo'llanma. (To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri) . T.: «ILM ZIYO», 2011.

3. Fayziyeva Z. “MTM va oila hamkorligi” Maktabgacha ta’lim” jurnali 2/2016

4.”Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik” metodik o’quv qo’llanma 1-nashr Toshkent- 2020

BOLALARNING DIALOGIK VA MONOLOGIK NUTQNING MAZMUNI VA VAZIFALARI

Z.Sh. Qarshiyeva.
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali
R.Musurmonova, talaba

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalarning dialogik nutqini shakllantirish, maxsus mashg‘ulotlarda dialogik nutqqa o‘rgatish uslubiyotlari va usullari, monologik nutqqa o‘rgatish bo‘yicha ish mazmuni va vazifalari, dialogik nutqning mazmuni va vazifalari, bolalarning ijtimoiy va shaxs sifatida shakllanishida dialogning ahamiyati, bolalarni monologik nutqqqa o‘rgatish, turli yosh bosqichlarida monologik nutqni o‘rgatish ishining mazmuni va uning vazifalari haqida fikr yuritilgan.

Ka’lit so‘zlar: dialog, monolog, bola, shaxs, nutq, ijtimoiy, shakllantirish o‘rgatish, vazifa, o‘rgatish.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “ILK QADAM” Davlat o‘quv dasturi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan. Bu maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayonida bolalar faoliyatining turli-tuman turlarida shakllanadigan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Jumladan, “kommunikativ kompetensiya – atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo‘lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o‘yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati. Bu kompetensiyaga nutqni rivojlanish ham kiradi.

Nutq bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi hamda dunyoni bilishi uchun zarur vositadir.Mazmunga boy va rag‘batlantiruvchi ta’lim muhitida bolalar og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, bu ularga o‘zlariga ishonishga, boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnatishga, dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirishga, mashg‘ulotlarda ishtirok etishga va loyiha ishlarini jamoa bo‘lib bajarishga yordam beradi.

Bolalar kattalar va boshqa bolalar tomonidan tushunilishlari uchun o‘zlarini namoyon etishlari mumkin. Ular aytilganlarni tushunish uchun tinglaydilar va kuzatadilar; savol va topshiriqlarni eshitadilar va shunga mos javob berishadi. Ular nutqni, ayniqsa, o‘qish va yozishni o‘z ichiga olgan mashg‘ulotlarga ijobiy qarashadi. Ular nutqning turli shakl va funksiyalarini biladilar, ulardan foydalanadilar va kerak bo‘lganda ularni turli xil muloqot holatlarida moslashtiradilar”. Ana shunday nutqning jadal rivojlanishida uni yuqori darajaga olib chiqishda pedagoglarning maqsadli rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishi va ta’lim jarayonida turli usullardan foydalanishi muhim ahamiyatga ega

Bolaning dialogik va monologik nutq asta-sekin rivojlanib boradi va bu jarayonda pedagogning roli juda ahamiyatli: u avval oddiy jumlalarni qo‘rishni o‘rgatadi, so‘ngra maktabgacha davr oxiriga kelib hikoyalar tuzish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Pedagog turli usullardan foydalangan holda bolaning faol lug‘atini boyitadi, izchil, grammatik jihatdan to‘g‘ri dialogik va monologik nutqni rivojlantiradi; nutq ijodkorligini rivojlantiradi; nutq va intonatsiya madaniyatini rivojlantiradi; kitob madaniyati, bolalar adabiyoti bilan tanishtiradi, bolalar adabiyotining turli janridagi matnlarni tinglab tushuntiradi; savodxonlikning zaruriy sharti sifatida ovozli analitik va sintetik faoliyatni shakllantiradi.

Dialog – ikki yoki bir nechta so‘zlashuvchining biron – bir vaziyat bilan bog‘liq mavzudagi fikrlarining almashinuvi bilan tavsiflanadi. Monologik nutq – bolaning o‘z fikr va hissiyotlarini tizimli ravishda ifoda etishi bo‘lib, unda ichki tafakkur va o‘zini anglash jarayonlari yotadi.

So‘zlashuv nutqi bog‘langan, tushunarli bo‘lishi kerak. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar so‘zlashuv nutqini kattalar rahbarligida egallaydi. 2 – 3 yoshli bolalar so‘zlashuv mazmunidan tez chalg‘iydilar, Ular hali tafakkur, xotira, diqqat, lug‘at boyligi, nutqning grammatik tomoni yaxshi rivojlangan. Dialog nutq esa bolalardagi tafakkurning, xotira va diqqatning, lug‘at boyligining rivojlanganligi, nutqning grammatik shakllanganligiga bog‘liq.

4 – 5 yoshli bolalar sekin – astalik bilan fikrni keng va to‘liq bayon etishga o‘ta boshlaydilar. So‘zlashganda ko‘proq savollar bera boshlaydilar. 5 yoshli bolalar uzoq vaqt davomida so‘zlashish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bola bunday so‘zlashuvda savollarga javob beradi, suhbatdoshini tinglaydi va hokazo.

Tarbiyachi bolalar bilan so‘zlashganda buyumlarning nomini so‘rab qolmasdan, balki ularning sifatlarini, qismlarini, u bilan qilinadigan harakatlarni ham so‘raydi.

Bolalarning so‘zlashuv nutqini tarkib toptirishda maxsus mashg‘ulotlar hgam olib boriladi. Bu mashg‘ulotlar: 1) suhbatlar; 2) ta’limiy o‘yinlar; 3) sur’atlarni ko‘rib chiqish va u haqda suhbat.

Suhbat mashg‘ulotida tarbiyachi quyidagilarni amalga oshiradi:

1. Bolalarning afzalligini aniqlaydi va tartibga soladi.
2. Bolalarda tevarak – atrofga to‘g‘ri munosabatni tarbiyalaydi.
3. Bolalarni suhbat mavzusidan chalg‘imay, o‘z fikrini maqsadga yo‘naltirgan holda izchillik bilan bayon etishga o‘rgatadi.
4. O‘z fikrini oddiy va tushunarli tarzda ifodalashga o‘rgatadi.
5. Bolalarning ilgari o‘zlashtirgan bilimlariga asoslanib, ularninmg fikrlarini faollashtiradi, mustaqil mulohaza va muhokama qilishga o‘rgatadi.

Bolalarni monologik nutqini rivojlantirish taxminan maktabgacha katta yoshdan boshlash zarur. Ammo bu jarayonga kichik yoshdan she’rlarni yodlash va to‘rt yoshdan turli ta’riflovchi hikoyalarni tuzish orqali tayyorgarlik ko‘rish maqsadga muvofiq. Bolalarda diqqatni aniq bir voqea yoki san’at asarida jamlay olmaslik, va unda bir vaqtning o‘zida nafaqat turli predmetlarni ko‘rish, balki ularning bir-biriga bog‘likligini ko‘ra olmaslik monologik nutqni rivojlanishiga to‘siq bo‘la oladi. Aynan shu ko‘nikmalarni rivojlanishiga xotira yordam beradi. Demak xotiraning rivojlanishi monologik nutqni shakllantirish vositasi desa bo‘ladi

Monolog nutq dialog nutqqa nisbatan anchas murakkab bo‘lib, bu bitta odam tomonidan amalga oshiriladigan nutqdir. Monolog nutqda bitta kishi gapiradi, qolganlar esa tinglaydilar. Monolog nutq ko‘pchilikka qarata aytiladigan nutq bo‘lgani uchun, u har doim mantiqiy jihatdan izchil, grammatik jihatdan shaskllangan, hammaga tushunarli va ravon bo‘lishi kerak.

Monolog nutq yaxshi xotirani, nutqning shakl va mazmuniga diqqatni yo‘naltirishni talab etadi. Shuning bilasn bir vaqtda, monolog nutq tafakkuriga tayanadi.

Dialogik nutq ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasida amalga oshiriladi. Nutqning bu ko‘rinishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega, bu nutq keng jumlalarni talab etadi. Shuning uchun dialogik nutq tarkibida to‘liqsiz gaplar juda ko‘p bo‘ladi. Bunday nutq tarkibida so‘roq va undov gaplar ham uchraydi.

Dialog – suhbat bolalarning kattalar va o‘z tengdoshlari bilan muloqotining asosiy shakli hisoblanadi.

Bolalar bog‘chasida o‘qitish ikki shaklda amalga oshiriladi:

A) Erkin nutqiy muloqot
B) Maxsus mashg‘ulotlarda

Dialog ko‘proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo‘ladi va u bolalar lug‘atini boyitishning talaffuzga oid grammatik ko‘nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirib, ravon nutq ko‘nikmalariga ega bo‘lish bazasi hisoblanadi. Dialog maxsus mashg‘ulotlarda o‘qitiladi. Dialog nutqni o‘rgatish odatda suhbat shaklida, ya’ni kattalar bilan bola o‘rtasidagi fikr almashish shaklida ro‘y beradi.

Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg‘ulotlar suhbat Metodi va imitatsiya metodi asosida o‘tkaziladi. Mzkur metodlar ko‘pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

Tayyorgarlik suhbati usullar;

Teatrlashtirish usullari.

Dialogik nutqni rivojlantirish nafaqat shunchaki nutqning muayyan kompazitsion shaklini o‘zlashtirish balki bolaning ijtimoiy va shaxs jihatdan shakllanishining muhim tarkibniy qismi hisoblanadi. Dialogik dialog nafaqat aloqa va o‘z manfaatlariga vyo‘nalishini balki sherikning nuqtaiy nazarini, istaklarini ham ko‘zda tutadi.

Monologik nutq bir kishining boshqalarga qaratilgan nutqi hisoblanadi va hikoya qilish, xabar berish, o‘qigani yoki eshitganini qayta so‘zlab berish, o‘zi savol berib o‘zi javob berish shaklida namoyon bo‘ladi.

Kattalar bilan bolalarning birgalikdagi so‘z ijodkorligi monologic nutqni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Endigina besh yoshga to‘lgan bolalar tanish ertaklarni aytib berish, voqealar to‘qish, shaxsiy tajribalardan so‘zlab berishga qiziqishni namoyon qiladilar.

Bolalarning ijtimoiy va shaxs sifatida shakllanishida til, xususan dialogik va monologic nutq asosiy vazifalardan biridir. Nutq bola tafakkurini rivojlantiradi, jamiyat bilan o‘zaro aloqasini yo‘lga qo‘yadi va uning shaxsiyatini shakllanishiga xizmat qiladi.

Dialogik va monologik nutq bolalar nutqiy rivojlanishining asosiy ko‘rinishlaridan bo‘lib, ularning muloqotga kirishish, fikr bildirish, tushuncha va hissiyotlarini ifodalash jarayonida muhim o‘rin tutadi. Dialogik nutq bola uchun kundalik hayotda doimiy muloqot qilish vositasi bo‘lsa, monologik nutq esa mustaqil fikrlash, voqeani bayon qilish, his-tuyg‘ularni ifodalashga xizmat qiladi. Har ikki nutq shakli bolaning ijtimoiylashuvi, tafakkuri, eslab qolish qobiliyati va nutq madaniyatining shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishda o‘yinlar, suhbatlar, ertak aytish va rolli mashg‘ulotlar muhim vosita sifatida foydalaniladi. Bolaning nutqiy rivojlanishi uning umumiy intellektual va ijtimoiy rivojlanishining ajralmas qismidir.

Ayniqsa, dialogik nutq orqali bola nafaqat eshitishni, balki tushunishni, javob qaytarishni, o‘z fikrini aniq ifodalashni o‘rganadi. Monologik nutq esa bola mustaqil fikr yuritishni boshlaganining belgisi sifatida qimmatlidir. Tarbiyachi yoki ota-onalar bu jarayonda faollik ko‘rsatib, bolalar bilan ko‘proq muloqot qilishlari, ularni tinglash va qo‘llab-quvvatlash orqali nutqiy rivojlanishga yordam berishlari kerak. Nutq madaniyati shakllangan bola keyinchalik ham jamiyatda muvaffaqiyatli muloqot qiluvchi, fikrini aniq ifoda eta oladigan inson bo‘lib voyaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. M.Asqarova va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. – T. 2001.
2. Q.Shodiyeva. Nutq o‘stirish uslubiyoti. ’’O‘qituvchi” nashriyoti. Toshkent – 2008.
3. D.R.Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: ”Barkamol fayz media”, 2018.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MANTIQIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA AQLIY FAOLIYATNING O‘RNI

Z.Sh. Qarshiyeva.

Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali

F. J.Davronova, talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning mantiqiy taafakkurini rivojlantirishda aqliy faoliyatning o’rni yoritilgan.Aqliy tarbiya o’z navbatida boshqa tarbiya turlari bola hayotida sekin astalik namoyon bo’la boshlashi haqida ma’lumot berilgan.Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda tevarak atrofdagi voqea hodisalarga qiziqish uyg’ona boshlaydi.Bilish jarayonlari tez takomillashishi haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: Aqliy tarbiya, sensor, metodlar, psixik rivojlanishi, intellekti, mantiqiy tafakkuri.

Aqliy tarbiya deganda ta’lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi tushuniladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma’lum maqsad bilan ta’sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirish, bolalarda bilishga qiziqish uyg’otish, aqliy ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to‘g’ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Maktabgacha ta’lim yoshida boshqa yosh davrlariga qaraganda aqliy rivojlanishning yuqori sur’atda taraqqiy etishi kuzatiladi. Ayniqsa, ilk yosh guruhi bolalarining aqliy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Zamonaviy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, ikki yoshgacha bolalarda juda katta hajmdagi bilish faolligi kuzatiladi. Bolaning ongi tez rivojlanib, u uch yoshga kelganda katta kishilarning aql kuchining sakson foiziga tenglashadi. Mazkur holat maktabgacha yoshdagi bola ongining ortiqcha zo‘riqishlardan asrashni talab etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni keyinchalik bartaraf etish qiyin kechadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar kelajakda bolaning har tomonlama rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, oilada, maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning qurilish materiallari, konstruktorlar bilan o‘ynashiga e’tibor qaratmaslik oqibatida maktabda geometriya, chizmachilik kabi fanlarni o‘zlashtirishda qiyinchilik tug’diruvchi fazoviy idrok etishning rivojlanmasligiga olib keladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishidagi asosiy o‘ziga xoslik – obrazli bilish shakllarini (idrok etish, obrazli fikrlash, tasavvur) egallashda yorqin namoyon bo‘ladi.

Bolada rivojlanadigan bilish jarayonlari xilma-xil faoliyat turlarida aks etadi. Bolada tasavvurning rivojlanishi orqali u faoliyatning manzarasini ko‘z oldiga aks ettira oladi, amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishni rejalashtiradi, undan nima talab qilinayotganligini aniqlay oladi. Bola o‘zlashtirayotgan bilimlar faqatgina uning fikrlash doirasini o‘stiribgina qolmay, balki kishilarga, ularning xatti-harakatlariga, tabiat, san’at kabilarga munosabatni qaror toptiradi. Mazkur vazifalarni maktabgacha ta’lim bilan bog’liqlikda quyida ko‘rib chiqamiz.

Ilk yoshdan boshlab bolani aqliy tarbiyalashning asosiy vazifasi ularning bilish faolligini oshirishdir. Bilish faolligini oshirish orqali bola uni o‘rab turgan tevarak-atrofni o‘rganadi. Bola atrof-muhitni o‘yin, mehnat, sayr, mashg’ulotlar, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish jarayonida anglab boradi. Bilish faoliyati idrok etish va fikrlash tarzida amalga oshadi. Idrok etish orqali bola narsa buyumlarning tashqi xususiyatlarini (rang, shakl, o‘lcham va boshqalar) anglaydi. Mazkur xususiyatlarini aks etishi orqali ongda narsa-buyumning timsoli yaratiladi.

Bolaning fikrlashida narsa-buyumlarning ichki, yashirin xususiyatlari, narsa-hodisalar orasidagi sabab-aloqadorlik aks etadi.

Fikrlashning natijasi so‘zlar yordamida ifoda etiladi. Bolalarning fikrlashlari natijasi fikr yoki savol ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Idrok etish bola hayotining ilk oylaridan shakllanadi, fikrlashning rivojlanishi esa qarib ikki yoshdan boshlanadi. Fikrlashning asosida hissiy (sensor) tajribani chuqurroq bilib olish uchun qo‘llaniladigan idrok etish yotadi. Maktabgacha ta’lim yoshida idrok etish tahlil etish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish uchun fikrlashga yordam beradi. Fikrlash esa o‘z navbatida idrok etishning takomillashuvi va rivojlanishiga, uning maqsadga yo‘naltirilganligi, samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Aql – keng ma’noda sezish va idrok etishdan boshlanib tafakkur va hayotni o‘z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig’indisidir.

Aqliy tarbiya – bu aqlni rivojlantirish maqsadida yoshlarga muntazam va maqsadga muvofiq pedagogik ta’sir ko‘rsatish. U yosh avlodning insoniyat to‘plagan bilimlar, malaka va ko‘nikmalarda, qoidalarda o‘z ifodasini topgan ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashning rejali jarayoni sifatida ro‘y beradi. Bu ta’sir kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta’minlovchi xilma-xil vositalar, metodlar, sharoitlar yaratishni o‘z ichiga oladi. Odamning aqli, uning aqliy rivojlanishi, bilimlar hajmi, xususiyati va mazmunida namoyon

bo‘ladi. Ular aqliy faoliyatning jo‘shqinligida, mustaqil ijodiy bilishga intilishda o‘z ifodasini topadi.

Aqliy faoliyat diqqatning har doir ma’lum maqsadga qaratilgan bo‘lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan belgilanadi. Aqliy tarbiyasi yetuk, o‘tkir zehnli, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik – bu donolik. Donolik insonning eng buyuk va olijanob fazilatidir. Donolik shunday bir noyob ne’matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, xalq donoligida «Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo‘lmas», - deyiladi. Insoniyat paydo bo‘lgandan beri odamlar orasida yetishib chiqqan barcha olimu fozillar, shoiru-yozuvchilarning barchasi mukammal ilm egallash orqali o‘z davrining e’tiborli kishilari darajasiga ko‘tarilganlar. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Ali Ibn Sino, Mahmud Qoshg’ariy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar, g’arb olimlaridan Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, J.J.Russo va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar. Tarixan ta’lim-tarbiya maxsus inson faoliyati sifatida shakllanib borish barobarida, ta’lim-tarbiya yakunida tarbiyalanuvchining sifatlari, yani ta’limiy maqsadlar ham aniqlanib bordi.

Aqlni ikki xil kategoriyalarga bo‘linadi.

1. Nazariy aql – borliqdagi umumiy narsalarni idrok etishdir.
2. Amaliy aql – buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko‘rinadigan qobiliyatlardan.

O‘z davrining yirik ma’rifatchilaridan hisoblangan Abdulla Avloniy ham yoshlarni ilmli bo‘lishga chaqiradi. U aql va ilmni ulug’laydi hamda «Aql insonning piri komili, murshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir» deb yozadi. Muallif o‘z fikrini aniqrok va ravshanroq anglashi uchun shunday deb aytadi. «Hayvonlar o‘zlariga bo‘laklar tarafidan qiladurg’on zulm va jabrlarni shox, tish, tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson aql idroki soyasida o‘ziga keladurg’on zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo‘ynidan bog’lab iplari uchini qo‘llariga bergan insonlarning aqlidir». Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga ta’lim berish g’oyasi birinchi bo‘lib chet el pedagogikasida chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tomonidan yaratilgan. U ona rahbarligida 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ta’lim tarbiya berish mumkinligini ko‘rsatib berdi. Shu davrda bolani yoshini e’tiborga olgan holda kishi o‘rganishi lozim bo‘lgan hamma narsaga o‘rganish lozim deydi.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ya’ni biz ta’lim-tarbiya beradigan bolalarga har tomonlama bilim, ko‘nikma va malakalarni singdirishimiz mumkin. U 19 bo‘limdan iborat maktabgacha ta’lim dasturini tuzdi. Ya.A.Komenskiy «Onalar maktabi» kitobida kichik bolalarni ta’lim-tarbiyasiga, o‘qish metodikasiga katta e’tibor bergan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolani faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma’lum maqsad bilan ta’sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg’otishni, aqliy malaka ko‘nikmalarini tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Bolalarni 6-7 yoshdan boshlab maktabda o‘qishga o‘tishi munosabati bilan ularni, maktab ta’limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlanish yetarli darajada bo‘lishini ta’minlash tarbiyachilarning javobgarligini yanada oshiradi. Aqliy kamolot – bu yoshning o‘sib tajribaning boyib borishi munosabati bilan tarbiyaviy ishlar ta’sirida bolaning aqliy faoliyatida ro‘y beradigan miqdor va sifat o‘zgarishlarining majmuasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim tez sur’atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi. Xullas, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta’minlash ularni kelajakdagi butun faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Bola ijtimoiy muhit ta’sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan tarkib topgan tushunchalar sistemasini o‘zlashtiradi. Natijada maktabgacha ta’lim yoshdagi bola tilini shunchalik egallab oladiki, unda muomala vositasi sifatida erkin foydalanadigan bo‘lib qoladi.

Aqliy rivojlanish fikrning tengligida voqealarni har xil bog'lanishlarida, munosabatlarda ko‘ra bilish, umumiylashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Aqliy rivojlanish deganda hayotiy ta'sir etish va oqibatlarning barcha miqdoriy imkoniyatlari natijasida kelib chiqadigan aql kuchi hamda fikrlashning rivojlanish jarayonini tushunish mumkin. Aqliy rivojlanish atamasi bilan bir qatorda "aqliy kamolot" atamasi ham qo‘llaniladi. Aqliy kamolot – bu yoshning o‘sib, tajribaning boyib borishi munosabati bilan bolaning aqliy faoliyatida ro‘y beradigan miqdor va sifat o‘zgarishlarining majmuasidir. Maktabgacha ta'lim yoshida bilimlar tez sur'atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab oladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlash ularning kelajakdagi butun faoliyatlari uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Tevarak-atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan birga tarkib topgan tushunchalar tizimini o‘zlashtiradi.

Natijada maktabgacha ta'lim yoshidayoq bola tilni shunchalik egallab oladiki, undan muomala vositasi sifatida erkin foydalana oladigan bo‘lib qoladi. XX asrning so‘ngi choragida psixologik va pedagogik adabiyotlarda ta'lim jarayonining samaradorligiga ta'sir ko‘rsatuvchi pedagogik yondoshuv va tamoyillarni amalga oshirish ko‘plab ta'riflanganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, "aqliy rivojlanish" tushunchasi keng qo‘llaniladi, lekin qanday belgilariga ko‘ra inson aqli, uning aqliy rivojlanish darajasi haqida fikr yuritish mumkin degan savolga bir mazmunli javob berilmaydi. Barcha psixologlar aqliy rivojlanishda ta'lim asosiy, hal qiluvchilik rolini o‘ynashini e'tirof etadi. Bu insonning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. Ma'lumki, insonning psixik rivojlanishi u yashayotgan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarda aniqlanadi.

O‘z hayotining birinchi kunidanoq bola kattalar ta'siri ostida ijtimoiy tajribani o‘zlashtira boshlaydi. Bu tajribalarni o‘zlashtirish jarayonida bolaning aqliy rivojlanishi, uning insoniy qobiliyatlarining shakllanishi sodir bo‘ladi. Olimlar orasidagi ba'zi xilma-xillik aqliy rivojlanishda bilimlarning roli qandayligi haqidagi masalani keltirib chiqaradi.

Aqliy rivojlanish – inson psixikasining individual o‘ziga xosliklaridan, u yashayotgan ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan bog'liqlikda hayotiy tajribalarni oshib borishi va uning yoshi bilan aloqadorlikdagi intellektual faoliyatidan kelib chiqadigan miqdoriy va sifat o‘zgarishlarining murakkab dinamik tizimi. Insoniyat tajribasini qanchalik o‘zlashtirganlik aqliy rivojlanishda hal qiluvchi omil sifatida aks etadi. Amaliy bilimlar zahirasi aqliy rivojlanishning tuzilishiga kiruvchi tarkibiy qismlardan biri sifatida qaralishi kerak. Amaliy bilimlar zahirasi bilan bir qatorda aqliy rivojlanishning tuzilishida ta'lim olganlik o‘z aksini topadi.

Ta'lim olganlik – bu aql sifatini shakllantiruvchi shaxs intellektual xususiyatlarining tizimi. Aqliy rivojlanish quyidagi tushunchalar tizimini o‘z ichiga qamrab oladi: aqlning teranligi bola yangi materialni egallashi mumkin bo‘lgan belgilarning muhimligi uni o‘zlashtirish bosqichi va ularning umumlashganlik darajasida namoyon bo‘ladi; aqlning sustligi qarama-qarshilikda: bir qoliplikka, fikrlashdagi odatiylikka moyillikda, bir harakatdan tizimidan boshqasiga o‘tishdagi qiyinchilikda namoyon bo‘ladi; fikrning moslashuvchanligi maqsadga muvofiq o‘zgaruvchanlikni talab etadi; aqlning barqarorligi bolaga vazifalarni fikriy hal etish, ularning butun belgilarini xotirada eslab qolishga imkon beradi. Bu sifat tasniflashga oid biror vazifani hal etishda aniq ko‘rinadi; fikriy faoliyatning anglanganligi – uning mahsuli sifatida so‘z orqali ifoda etish imkoniyatida aks etadigan aqlning sifati; aqlning mustaqilligi – yangi bilimlarni, vazifalarni hal etishning yangi yo‘llarini faol izlashda namoyon bo‘ladi; fikrning tejamkorligi – kam vaqt sarflab yetarlicha bilimlarni egallay olishda aks etadi.

Aqliy tarbiya deganda ta'lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi tushuniladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma'lum maqsad bilan ta'sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirish, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy

ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to‘g’ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak.

Aqliy tarbiya vazifalari

Aqliy tarbiyaning umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

-belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallash;

-dunyoqarashni shakllantirish;

-aql kuchi, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish;

-bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish;

-shaxs salohiyati imkoniyatlarini rivojlantirish;

-bilish faoliyatini shakllantirish;

-doimiy ravishda o‘z bilimlarini to‘ldirish, umumta’limiy tayyorgarlik darajasini oshirish ehtiyojlarini rivojlantirish;

-ta’lim oluvchilarni bilish faoliyati metodlari bilan qurollantirish;

-fikrlash qobiliyati, ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish.

Bolani maktab ta’limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning ahamiyati kattadir. Bolani bilimlarini egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko‘nikmalarini egallab olishlari ularni maktabda muvofaqqiyatli o‘tishlari uchun bo‘lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo‘lib xizmat qiladi. «Aqliy mehnat madaniyati» tushunchasiga aqliy faoliyatning umumiy tartibliligi, rejaliligi, vazifani qabul qilish va o‘rtaga qo‘yish, uni hal etish usullarini tanlash, ishlab chiqilgan harakat rejasini izchil amalga oshirish natijalarini baholash mahorati kiradi.

Maktabgacha ta’lim yoshida boshqa yosh davrlariga qaraganda aqliy rivojlanishning yuqori sur’atda taraqqiy etishi kuzatiladi. Ayniqsa, ilk yosh guruhi bolalarining aqliy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratish zarur. Zamonaviy tadqiqotlar natijalari hamda shu bilan bir qatorda M.X.Qilichovalar ilmiy izlanishlar olib borgan. B.E.Parmonov Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlari maqolasida xorijiy davlatlarning ilg’or tajribalarini yoritgan. Jumladan, Buyuk Britaniya, Rossiya federatsiyasi, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlarining ilg’or tajriblarini tahliliy o‘rgangan. I.G. Mamajonov, R.Mamatovlar esa Germaniya davlati ta‘lim tizimini o‘rganishda qisman maktabgacha ta‘lim tizimiga oid ma‘lumotlarni kiritib o‘tgan. M.X.Qilichova maktabgacha ta‘lim va tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmun- mohiyatini hamda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning o‘ziga xos jihatlarini o‘rgangan. Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat ta‘lim standartlariga ko‘ra maktabgacha ta‘lim — maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy, va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma‘naviy me‘yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko‘zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga
qaratilgan yaxlit jarayon hisoblanadi deb takidlagan. Ikki yoshgacha bolalarda juda katta hajmdagi bilish faolligi kuzatiladi.

Bolaning ongi tez rivojlanib, u uch yoshga kelganda katta kishilarning aql kuchining sakson foiziga tenglashadi. Mazkur holat maktabgacha yoshdagi bola ongining ortiqcha zo‘riqishlardan asrashni talab etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni keyinchalik bartaraf etish qiyin kechadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar kelajakda bolaning har tomonlama rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, oilada, maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning qurilish materiallari, konstruktorlar bilan o‘ynashiga e’tibor qaratmaslik oqibatida maktabda geometriya, chizmachilik kabi fanlarni o‘zlashtirishda qiyinchilik tug’diruvchi fazoviy idrok etishning rivojlanmasligiga olib keladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishidagi asosiy o‘ziga xoslik – obrazli bilish shakllarini (idrok etish, obrazli fikrlash, tasavvur) egallashda

yorqin namoyon bo‘ladi. Bolada rivojlanadigan bilish jarayonlari xilma-xil faoliyat turlarida aks etadi.

Bolada tasavvurning rivojlanishi orqali u faoliyatning manzarasini ko‘z oldiga aks ettira oladi, amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishni rejalashtiradi, undan nima talab qilinayotganligini aniqlay oladi. Bola o‘zlashtirayotgan bilimlar faqatgina uning fikrlash doirasini o‘stiribgina qolmay, balki kishilarga, ularning xatti-harakatlariga, tabiat, san’at kabilarga munosabatni qaror toptiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo‘lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida keyin esa o‘quv mehnat, samarali faoliyatlar jarayonida (rasm chizish, loy) amalga oshirib boriladi.

Hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini uzlashtirib olish, ularni jamg’arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo‘lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari deb hisoblanadi. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika-psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali xal etishda birinchidan bolaning imkoniyatlaridan to‘g’ri foydalanish, ikkinchidan bola organizmining umumiy charchashiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan ortiqcha zo‘riqish bo‘lmasligi yo‘llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonunlari va imkoniyatlarini o‘rganish bilan shug’ullanadi.

Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bularning hammasi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko‘nikmalarini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta’lim yoshining oxiriga kelib bolalar tevarak atrof to‘g’risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo‘lib qoladilar, asosiy fikrlash jarayonini egallab oladilar, narsa va buyumlardagi voqealardagi muhim va muhim bo‘lmagan tomonlarini ajrata oladigan ba’zi bir sabab natijali bog’lanishlarni bilib oladigan bo‘lib qoladilar. Ular o‘quv faoliyatining dastlabki ko‘rsatkichlari shakllandi. Shuning uchun bog’cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta’limi bo‘ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy hayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so‘z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda analitik-sintetik tafakkur faoliyati tarkib toptiriladi bu hodisalarni, vokealarni, chuqur anglab olish, ularni muhim bo‘lgan va muhim bo‘lmagan tomonlarini ajratishga o‘rgatish lozim. Qiziquvchanlik bolaga xos xususiyatdir. U bolani tevarak-atrofdagi voqea xodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashga, hamma narsani ushlab his kilib, diqqat bilan tomosha qilishni kuzatishda namoyon bo‘ladi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo‘lgan savollarga o‘z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni fikrini mustaqil javob qidirishga yo‘llab, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo‘l qo‘ymaydi. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat. Bolalar bog’chasi oldida bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirsh vazifasi turibdi. Qobiliyatlar tegishli faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi va rivojlanadi. Insonning aqliy qobiliyati aqlining ziyraklik – fahm farosatlilik, tanqidiy ko‘z bilan qarash, sermulohazalik kabi sifatlari bilan ajralib turishi mumkin. Aqliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, ya’ni eng oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo‘lmagan belgilarni ajratib ko‘rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash va hokazolarni tarkib toptirish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko‘nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo‘lib, bolani bilimlarini muvaffaqiyatli egallab olishga yordam beradi. Masalan:

o‘simliklar va hayvonlar bilan tanishtirish bo‘yicha sistemali mashg’ulotlar olib borilgandan keyin bolalar ayrim konkret o‘simliklar yoki hayvonlar to‘g’risida ma’lum bir tasavvurga ega bo‘ladilar. So‘ngra bolalardagi aqliy-ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan quyidagi mashg’ulotlarni o‘tkazishni rejalashtirishi mumkin. Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmasdan, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni xal etishda foydalanishga o‘rgatish zarur. Ilk va bog’cha yoshi davrida bolalarda tevarak-atrofga bo‘lgan qiziqish juda tez o‘sadi. Qiziqish bolaning aqliy rivojlanishini harakatga keltiruvchi qudratli kuchdir. Kattalar bolaning qiziquvchanligini, bilishga bo‘lgan har qanday hoxishini sezishlari va rag’batlantirib borishlari kerak.

Odamning aqliy faoliyati – bu umumiy ham maxsus aqliy harakatlar xilma-xil sistemalarining katta miqdoridir. Ko‘pgina vazifalarni hal etishda qo‘llaniladigan keng ko‘lamdagi aqliy harakatlarni shakllantirish ayniqsa muhimdir. Bunday harakatlarga tahlil, qiyoslash, umumlashtirish kiradi. Ham umumiy, ham maxsus aqliy harakatlarni egallash aqliy faollik va mustaqillikning rivojlanishini ta’minlaydi.

Aqliy faoliyatning moslashuvchanligi va jo‘shqinligini, hodisalarni xilma-xil aloqalar va munosabatlarda ko‘ra bilishni shakllantirishga yordam beradi. «Aqliy mehnat madaniyati» tushunchasiga aqliy faoliyatning umumiy tartibliligi, rejaliligi, vazifani qabul qilish va o‘rtaga qo‘yish, uni hal etish usullarini tanlash, ishlab chiqilgan harakat rejasini izchil amalga oshirish natijalarini baholash mahorati kirar ekan demak, Aqliy mehnat madaniyati aqliy faoliyatning maxsus malakalari va ko‘nikmalarini, kitob bilan ishlash ko‘nikmalarini egallash darajasi, ilmiy bilish usullari va metodlarini, turli yordamchi vositalardan foydalanish bilan ham bog’liqdir.

Aqliy tarbiya vazifalaridan har biri maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashni tashkil etishda hisobga olish lozim bo‘lgan bir qancha vazifalarni o‘z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

Boladagi qiziquvchanlik va aqliy faollikning qay darajada rivojlanganligini bolaning aqliy ko‘rsatkichining yuqoriligida ko‘rish mumkin. Shunday qilib Maktabgacha ta’limning pedagogik jarayonda o‘yin jarayonida, maktabgacha yoshidagi bolalarni aqliy rivojlanishiga katta ahamiyat qaratish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Xaliqov F, Qilichova M. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish usullari. Maktabgacha ta’lim elektron jurnali. Jizzax. 2021.09.11.

2. Qarshiyeva. Z. Sh. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy yondashuvlar. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishda ilmiy-amaliy Innovatsiyalarning pedagogik ahamiyati.Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya .2020 yil 11-12 noyabr.Samarqand

3. Montessori M. "O'zimga yordam bering". Sat Sost. MV Boguslavskiy, G. B. Koretov. - M .: ID "Karapuz", 2000.

4. Montessori M. Bolaning aqli. - Moskva, 1997.

METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING SYNONYMOUS REFLECTION IN STUDENTS

Dildora Isayeva Sodikovna

Assistant, Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

isayevad78@gmail.com

Abstract: This article analyzes the methodological foundations of the development of sanogenic reflection in students. Sanogenic reflection is interpreted as a reflexive activity that helps a person cope with stress and negative emotional states, adapt. The article describes methods of development based on interactive, person-oriented approaches and technologies. Also, the participation of a teacher, psychologist and group discussions in the development of sanogenic reflection is highlighted.

Keywords: sanogenic reflection, student, methodology, development, psychology, pedagogy, personality.

In the modern educational process, sanogenetic reflection plays an important role in supporting the process of personal development and social adaptation. Sanogenetic reflection is a special form of reflexive activity aimed at understanding a person's own emotional and mental state and improving these processes. Especially during student life, the basis of personal and professional development is closely related to the development of sanogenetic reflection. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of sanogenetic reflection, its development factors in students, and methods of its application in the educational process. Student years are a period of intensive development of a person's intellectual, emotional, and social skills, and the level of self-awareness of students plays a major role in this process. Therefore, sanogenetic reflection, that is, the formation of a person's skills to overcome stress, anxiety, or negative emotional situations and to rationally use personal resources, is seen as one of the priority areas of the educational process.

From a methodological point of view, sanogenic reflection is a multifaceted concept, encompassing psychological, pedagogical, and philosophical aspects. In explaining the term sanogenic reflection, it is important to first emphasize that the word “sano-” means healthy, related to maintaining health. Reflection, on the other hand, represents the process of analyzing a person’s own actions, thoughts, and experiences, understanding the reasons for their occurrence, and drawing conclusions.

Sanogenic reflection reflects reflective activity that has a positive impact on human health and contributes to socio-psychological development. This process is becoming increasingly relevant among students, especially in times of stress and tension. Sanogenic reflection is recognized as an important factor in the social and personal development of an individual. Psychologically, it allows a person to manage their emotional state, overcome stress, and ensure emotional stability. From a pedagogical point of view, when integrated into the educational process, sanogenic reflection is effective in forming competencies such as self-awareness, self-confidence, and creative thinking. Sanogenic reflection can also strengthen a student's independent thinking, critical analysis, and decision-making skills. When it comes to methodological foundations, it is necessary to emphasize interactive methods in the development of sanogenic reflection. For example, trainings, group discussions, game technologies and approaches based on research projects, in turn, deepen the process of self-awareness in students. An important principle in this is to recognize the subjective experience of the student and see it as the basis for development. Because each person's emotional experience, stress reactions and way of analyzing their own behavior are unique and unrepeatable. In the process of developing sanogenic reflection, teachers, trainers and psychologists play a great role. They should give students not only theoretical knowledge, but also skills to correctly direct their emotional state in practical exercises. In this process, the principles of an individual approach and person-oriented pedagogy are important and it is necessary to approach each student in a way that is appropriate to his individuality. Also, teachers should create favorable conditions for the development of sanogenic reflection by creating a positive communication environment, reducing stress, and strengthening motivating factors during the learning process. It is worth noting that the development of the level of sanogenic reflection also directly affects the student's success in solving problems that arise in the process of learning. For example, students who overcome their emotional barriers will acquire competencies such as deeper mastery of the subject, demonstrating a creative approach, and independent solution of complex problems. In addition, they will be able to effectively manage various stress factors that they will encounter in their professional activities in the future. Modern information technologies also play a special role in the development of sanogenic reflection. With the help of online platforms, distance learning programs and interactive applications, students have the opportunity to regularly analyze their psychological state, share their thoughts and opinions, and thereby learn from each other. The virtual environment created

by distance technologies allows students to expand their communication and exchange of experiences, regardless of time and space constraints. Sanogenic reflection serves to improve the psychological climate not only of an individual student, but also of the entire team. By using sanogenic reflection methods in group classes, students can analyze problems together, build emotional support mechanisms, and strengthen social awareness. Such a team approach gives effective results in resolving conflicts, increasing flexibility, and forming positive motivation. As a result, by creating a healthy competitive environment among students, they are inspired by each other's successes. In conclusion, the development of sanogenic reflection in students is one of the important tasks of modern education. Methodologically, this process is person-oriented, requires interactive cooperation, and is carried out in a combination of psychological and pedagogical approaches. Sanogenic reflection helps the student to realize his personal potential, eliminate stress and emotional burdens, and deeply understand his views, goals, and values. In the future, these methodological foundations should be thoroughly studied and their effectiveness should be further studied in various disciplines. After all, the development of sanogenic reflection directly serves not only the personal development of the student, but also the social and intellectual development of society. Therefore, sanogenic reflection is one of the priority areas of attention in the world education system today.

REFERENCES USED

1.Кон И.С. Психология ранней юности. – М.: Наука, 1989. – 280 с. 66 International Conference on Linguistics, Literature And Translation
2. Василюк Ф.Е. Психология переживания. – М.: МГУ, 1984. – 192 с.
3. Болдырев Н.И. Педагогика. – М.: Просвещение, 1972. – 389 с.
4. Jahongirov M. Zamonaviy ta’lim metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 215 b.
5. Baranova A.V. Sanogenic Reflection: Theory and Practice. – St. Petersburg: SPbU Press, 2018. – 312 p.
6. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice-Hall.
7. Gibbs, G. (1988). Learning by Doing: A Guide to Teaching and Learning Methods. Oxford: Oxford Further Education Unit.
8. Beck, A. T. (1997). The Past and Future of Cognitive Therapy. Journal of Psychotherapy Practice and Research, 6(4), 276–284.
9. Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. Basic Books.
10. Boyd, E. M., & Fales, A. W. (1983). Reflective learning: Key to learning from experience. Journal of Humanistic Psychology, 23(2), 99-117.
11. www.pedagoglar.org.
12. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “SMART TECHNOLOGIES AND INNOVATIVE APPROACHES IN RESEARCH: BUILDING A DIGITAL FUTURE” https://doi.org/10.5281/zenodo.14918182.
13. https://doi.org/10.5281/zenodo.14935073. https://t.me/science_innovations. scientists.uz.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV.

Z.Sh. Qarshiyeva.
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish faoliyatining yaxlit rivojlanish tizimini yaratish va atrofimizdagi dunyoni tubdan idrok etish imkonini beradigan tizimli integratsiya jarayonini ta'minlash maktabgacha ta’lim tizimidagi har bir pedagogning vazifasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi, “Sifatli ta’lim”, Individuallik tamoyili, refleksiya, kommunikativ

Maktabgacha ta’lim vazirligi tez o‘zgaruvchan dunyoning bugungi sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldiga ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari hamda “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida kattalar va bolalarning integrativ o‘zaro ta'sir qilish jarayonini muayyan bir mavzu bo‘yicha bir kun ichida barcha faoliyat yo‘nalishlarini birlashtirgan holda mashg'ulotlar rejasini ishlab chiqishdek dolzarb vazifani qo‘ymoqda.

O‘zbekiston hukumati 2017 yildan beri maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasini yuqori sifatga olib chiqishga ustuvor ahamiyat qaratayapti. Shunga ko‘ra,

2018 yil 20 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2030 yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g'risidagi qarori qabul qilindi. Ushbu hujjat o‘zida 16 ta maqsad va 225 ta vazifani qamrab olgan bo‘lib, Yurtboshimiz tashabbusi bilan qabul qilingan Harakatlar strategiyasiga to‘liq hamohangdir. Uning asosida aholi uchun qulay shart-sharoit yaratish, odamlar salomatligini muhofazalash,iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining to‘rtinchisi – “Sifatli ta’lim”ga bag'ishlangan bo‘lib, unga muvofiq, 2030 yilga qadar umumiy maktabgacha ta’limni

ta'minlash uchun qulay siyosiy muhitni va tizimli tarkibiy qismlarni yaratish ustida ish olib borilmoqda.

Zamonaviy dunyoda bolalar qaysi mamlakatda bo‘lishidan qat'i nazar, tez rivojlanayotgan jahonda qiyin hayot yo‘lidan o‘tishlari kerak. Dunyo juda tez o‘zgarayapti,yashash va mehnat sharoitlari o‘zgarmoqda, ilmiy va texnik ixtirolar natijasida yangi kasblar va texnologiyalar paydo bo‘layapti. Zamonaviy dunyoda odam doimiy ravishda o‘zgarishi, butun hayot davomida yangi narsalarni o‘rganishi kerak. “Bo‘lajak kattalar”ni ushbu keskin o‘zgarishlarga tayyorlash, dunyoda hayot uchun zarur bo‘lgan bilim va tajribasini boyitishga o‘rgatishni maktabgacha yoshdan boshlashimiz kerak.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bolalarning real shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari amalga oshiriladigan, bolalar tomonidan shaxsiy tajriba va bilimlar samarali to‘planadigan ta’lim muhitini yaratishni o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha ta’lim tizimi qayta qurila boshladi – avtoritar tizimdan pedagogik jarayonni qurishning shaxsga yo‘naltirilgan modeliga o‘tilmoqda. Ma'lumki, shaxsi-

yatning asosiy poydevori hayotning dastlabki yetti yilida qo‘yiladi: bolaning mak-

tabgacha yoshida shakllangan fazilatlari va fe'l-atvorlari keyinchalik o‘zgarmaydi.

Qisman o‘zgarib, tashqi ko‘rinishi o‘zgaradi, xolos.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – bu pedagogning e'tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas'uliyat hissini rivojlantirishga bo‘lgan e'tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘lgan ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratishdir. Ta’limning asosiy qadriyatining bunday e'tirof etilishi shaxsning o‘ziga xos shakllanishidir. Biz har bir bolaga uning xususiyatlarini,hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o‘zlarining rivojlanish yo‘llarini tanlash huquqini berishimiz kerak. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim faollik markazida tarbiyalanuvchining o‘zi, ya'ni bolani shaxs sifatida – uning xohish-istaklari, niyatlari, maqsadlari, noyob kichik hayot tajribasi ekanligi taxmin qilinadi. Shu munosabat bilan ta’lim jarayoni ta’lim “bilimlarni kattadan bolaga o‘tkazish” modelidan, “bola tashabbuslari ma'qullanadigan va bola ta’lim jarayonida faol ishtirok etadigan” modelga yo‘naltirilishi kerak.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning maqsadi: bolani o‘ziga xos shakllantirish uchun zarur bo‘lgan o‘zini-o‘zi anglash, rivojlantirish, moslashtirish, boshqarish, himoya qilish, tarbiyalash mexanizmlarini kiritishdan iborat.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli – bizning ta’lim tizimimizga tanish bo‘lgan bolaga ta’lim va intizomiy yondashuvni yengishga, pedagoglarni bolalar bilan hamkorlik ko‘nikmalariga,

shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarga ega bo‘lishdir. Bola kattalar singari jamiyatning to‘laqonli a'zosi bo‘lganligi sababli uning huquqlarini tan olish, pedagogik pozitsiyani “yuqoridan” emas, balki yonma-yon va birga olishni anglatadi.
Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modelining ijobiy tomonlarini ko‘rish uchun biz uni an'anaviy ta’lim va intizomiy yondashuv bilan taqqoslaymiz.
Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy tamoyillari .O‘zini namoyon qilish tamoyili. Har bir bolada o‘zining intellektual, kommunikativ, badiiy va jismoniy qobiliyatlarini namoyon qilish ehtiyoji bor. Bolaning tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish istagini rag'batlantirish va qo‘llab-quvvatlash juda muhimdir.
Individuallik tamoyili. Bola shaxsiyatining individual shakllanishi uchun sharoit yaratish ta’lim tashkilotining asosiy vazifasidir. Nafaqat bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, balki uning kelgusi rivojlanishiga har tomonlama hissa qo‘shish kerak.
Sub'ektivlik tamoyili. Individuallik faqat sub'ektiv kuchlarga ega bo‘lgan va ulardan faoliyat, aloqa va munosabatlarni qurish uchun mohirona foydalanadigan kishilarga xosdir. Bolaga guruh hayotidagi haqiqiy sub'ektiga aylanishiga, shaxsiy tajribasini shakllantirish va boyitishga hissa qo‘shish kerak.
Tanlash tamoyili. Tanlovsiz bolaning individual xususiyatlari va sub'ektivlikni rivojlantirish, qobiliyatlarini namoyon qilish mumkin emas. Bola doimiy ravishda tanlashi, ta’lim jarayonini tashkil etishning maqsadi, mazmuni, shakllari va usullarini tanlashda sub'ektiv vakolatlarga ega sharoitda yashashi va tarbiyalanishi pedagogik jihatdan ma'quldir. Aynan buning uchun maktabgacha yoshdagi guruhlarda ochiq rivojlantiruvchi muhit (rivojlantirish markazlari) zarur.
Faoliyat, ijodkorlik va muvaffaqiyat tamoyili. Bolani muvaffaqiyatga undash kerak. Bu bolaning faol hayotiy pozitsiyasini rag'batlantirish maqsadida o‘yin faoliyatiga kiritishdir. Bolaning o‘yinida va samarali faoliyatida ijodkorlikka maksimal darajada yo‘naltirish, o‘z ijodiy faoliyatda tajribaga ega bo‘lishi nihoyatda muhimdir. Shaxsiy va jamoaviy ijodiy faoliyat bolaning individual xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirishga imkon beradi. Ijodkorlik tufayli bola o‘z qobiliyatlarini ochib beradi, o‘z shaxsiyatining “kuchli tomonlarini” bilib oladi. Faoliyatning muayyan turida muvaffaqiyatga erishish bola shaxsiyatining ijobiy tomonlarini, “Men” kontseptsiyasini shakllantirishga yordam beradi.Ishonch va qo‘llab-quvvatlash tamoyili. Pedagogik faoliyatni insonparvarlik, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya texnologiyalari bilan boyitish muhimdir. Bolaga ishonch, o‘zini-o‘zi anglash va o‘zini “men”ligiga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, ortiqcha talablar va haddan tashqari nazorat o‘rnatmaslik kerak. Tashqi ta'sirlar emas, balki ichki motivatsiya bolani o‘qitish va tarbiyalashning muvaffaqiyatini belgilaydi.
Farqli yondashuv tamoyili – tarbiyalanuvchilarning shaxsiyatini takomillashtirishda samarali pedagogik yordam vazifalari hal qiladi, tarbiyalanuvchilarning psixofizik, shaxsiy qobiliyatlari va imkoniyatlarini ochishga yordam beradigan maxsus pedagogik vaziyatlarni yaratishga yordam beradi. Bolaning tabiatiga, uning sog'lig'iga, aqliy va jismoniy tuzilishiga, qobiliyat va moyilliklariga, idrokiga qarab rivojlanishidir.
Ushbu tamoyillarni amalga oshirish umumiy psixologik makonni yaratishni, ta’lim
jarayonini o‘yin orqali va bolalar bilan ishlashning shakli sifatida, munozaralarni, suhbatlarni, qo‘shma kuzatuvlar va eksperimentlarni tashkil qilishni o‘z ichiga oladi. Tarbiyachining oldiga qo‘yilgan vazifasi samarali muloqot tamoyillaridan foydalanishdan iborat.
Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv texnologiyalarning turlari
Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar har bir bolaning individual xususiyatlariga mos keladigan ta’lim va tarbiya usul va vositalarini aniqlaydi. Shu bilan birga, bolalarning munosabatini va faoliyati tashkil etilishini o‘zgartiradi, turli o‘quv qo‘llanmalardan foydalanadi:
● tadqiqot (muammolarni izlash, kashfiyot orqali o‘rganish, tajriba);
● (munozara, nutqni rivojlantirish, fantaziya, notiqlik);
● o‘yin (o‘yin orqali o‘rganish, ertak, vaziyat, sahnalashtirish – fantaziyaga kirish);

● psixologik (o‘z taqdirini o‘zi belgilash – bolani tanlashga o‘rgatish,o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘zini-o‘zi himoya qilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash);
● faoliyat (bola bilimlarni tayyor holda emas, balki ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zi o‘rganadi. Ta’lim-tarbiyani tuzilishi faol qadamlar tizimini o‘z ichiga oladi);
● refleksiya (individuallikni saqlash, ijodiy yaratuvchanlik, shaxsiylikni har qanday faoliyatda shaxs sifatida saqlab qolish, o‘zini-o‘zi aniqlash vositasi).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish metodik Qo'llanma (birinchi nashr) Toshkent – 2020

KO‘NGIL VA DILNING PSIXOLOGIK TALQINI

Qarshiboyeva Mavluda
SamDUKF Pedagogika yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: M.Sulaymonov

Ey ko‘ngil, ibrat ol, boq xar tushgan yaproqqa,
U ham avval ko‘kdan boqardi tuproqqa.
Mavlono Rumiy

Annotatsiya: Mazkur ishda “Ko‘ngil” va “Dil” tushunchalarining psixologik mazmuni, ularning inson shaxsiyatini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Inson ichki dunyosini anglash, uning ruhiy kechinmalari, hissiyotlari, emotsional holatlari va axloqiy qadriyatlari kabi nozik jarayonlarni yoritishda ushbu ikki tushuncha muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. “Ko‘ngil” va “Dil” so‘zlari qadimdan o‘zbek xalqining ruhiyati, axloqiy qarashlari va estetik tushunchalarida alohida o‘rin egallab kelgan bo‘lib, ular xalq og‘zaki ijodida, adabiyotda, falsafiy fikrlarda va kundalik hayotda keng qo‘llanadi.

Kalit so‘zlar: Ko‘ngil, dil, psixologiya, hissiyotlar, ruhiy holat, emotsiyalar, ichki dunyo, shaxsiyat, vijdon, shaxslararo munosabatlar, axloqiy qadriyatlar, psixik jarayonlar, ruhiy sog‘liq, tushunchalar talqini, ichki muvozanat, hissiy intellekt, tafakkur.

Kirish: Insonning ichki dunyosi, ruhiy holati va emotsiyalarini anglash psixologiyaning asosiy maqsadlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, “ko‘ngil” va “dil” tushunchalari inson psixologiyasini tushunishda muhim o‘rin tutadi. Har ikki tushuncha psixologiyada nafaqat ruhiy holatlar va hissiyotlarni, balki shaxsning ichki muvozanatini, tafakkurini, ma’naviy qadriyatlarini ham ifodalaydi. Ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ko‘plab hollarda bir xil ma’nolarda ishlatiladi, lekin har biri o‘zining psixologik, madaniy va falsafiy talqinlariga ega. Biz qalbimiz orqali ulashgan mehr, bir insonni xursand qiladi, shu insondagi xursandchilik tugagunicha, bizni hayot boshqa tarafdan xursand qiladi. Aksincha bizdan berilgan yomonlik, nafrat ham bir insonni qalbini og‘rishiga sabab bo‘lib, toki u insonni qalb og‘rig‘i bitmagunicha, og‘riq bergan insonda salbiy o‘zgarishlar kuzatilar ekan.

“Ko‘ngil” tushunchasi psixologik nuqtai nazardan insonning hissiy va ruhiy holatini aks ettiradi. Ko‘ngilning tozaligi, xotirjamligi yoki iztirobi shaxsning ruhiy salomatligi bilan bevosita bog‘liq. Shuningdek, ko‘ngil tushunchasi ko‘plab adabiy asarlarda, she’rlarda va xalq og‘zaki ijodida ko‘rsatilgan. Uning mazmuni insonning ichki kayfiyatini, yuksak his-tuyg‘ularini ifodalaydi. Ko‘ngilning ruhi, qayg‘usi yoki xursandchiligi insonning umumiy ruhiy holatini shakllantiradi.

Asosiy qism: Ko‘ngil – bu insonning ichki ruhiy holatini, kayfiyatini va hissiyotlarini aks ettiruvchi tushuncha bo‘lib, psixologiyada u ko‘proq shaxsning hissiy dunyosini ifodalaydi. Ko‘ngilning turli holatlari – xushchaqchaq, g‘amgin, xafa, shodlik yoki iztirob – insonning ruhiy holatiga ta’sir qiladi va uning harakatlarini, qarorlarini, o‘zini tutishini shakllantiradi. Ko‘ngilning turli holatlari insonning hayotidagi ijtimoiy, madaniy, va shaxsiy voqealar bilan uzviy bog‘liqdir.

Ko‘ngil tushunchasi psixologiyada ko‘plab yirik nazariyalar va modellarda muhokama qilinadi. Psixologlar ko‘ngilni o‘rganishda, uning insonning ruhiy holatini qanday shakllantirishi va boshqarishi haqida fikr yuritadilar. Ko‘ngilning iztirobi va quvonchi, salbiy yoki ijobiy holatlari

insonning psixologik holatini ta’sir qiladi. Bu, o‘z navbatida, uning hissiy va ruhiy holatini shakllantiradi, shaxsning ijtimoiy munosabatlari, mehnat qobiliyati va umuman hayotdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘ngilning xushchaqchaq bo‘lishi insonni ijobiy kayfiyatda bo‘lishiga va boshqalar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatishga undaydi. Aksincha, ko‘ngilning g‘amgin yoki iztirobli bo‘lishi odamning hissiy holatiga, ruhiyatiga, shuningdek, umidlarini va hayotga bo‘lgan qarashlarini negativ ravishda ta’sir qiladi. Ko‘ngilning salbiy holatlari psixologik kasalliklar, masalan, depressiya va bezovtalikni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, ko‘ngilni boshqarish va uning holatini barqarorlashtirish psixologik sog‘liqni saqlashda katta ahamiyatga ega. Psixoterapiya, meditasyon, ongli ravishda nafas olish kabi usullar ko‘ngilni tinchlantirish, hissiy salbiy holatlarni yengish va ichki muvozanatni saqlashda yordam beradi. Ko‘ngilning o‘zgargan holatlari, odatda, insonning ichki kechinmalarini aks ettiradi va bu kechinmalarni tahlil qilish psixologik yordam olishning birinchi qadamidir. Dil tushunchasi psixologiyada ko‘proq insonning ma’naviy va axloqiy holatini, qalbining ichki dunyosini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu tushuncha nafaqat qalbni, balki insonning vijdonini, axloqiy qadriyatlarini va ichki ongini aks ettiradi. Dilning holati, ya’ni dilning baxtli yoki xafagarchilik holatlari shaxsning ruhiy va hissiy salomatligi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuningdek, dil insonning axloqiy qarorlarida, ijtimoiy munosabatlarida va o‘zini tutishida asosiy rol o‘ynaydi. Dil tushunchasining psixologik talqini ko‘pincha qalbning ijobiy va salbiy holatlari orqali ko‘rsatiladi. Insonning dilidagi iztirob, g‘amginlik yoki baxtsizlik uning ichki qiyinchiliklari, orzu va istaklarining amalga oshmasligi, yoki ma’naviy qadriyatlaridagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Dilning og‘rig‘i yoki xursandchilik kayfiyati esa ko‘pincha shaxsning axloqiy qarashlari va shaxsiyatining shakllanishi bilan bog‘liqdir. Dilning ijobiy holatlari – sevgi, sadoqat, tinchlik va baxt – insonning hayotga bo‘lgan qarashlarini optimistik qiladi, uning ruhiy holatini yaxshilaydi va shaxsning ma’naviy o‘sishini ta’minlaydi. Dilning tinchligi va to‘g‘ri yo‘lda bo‘lishi shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, uning atrofidagi dunyo bilan uyg‘unligini ta’minlaydi va hayotdan ko‘proq qoniqish hosil qilishiga yordam beradi. Boshqa tomondan, dilning og‘rig‘i, iztirobi yoki dardlari shaxsning ma’naviy muvozanatiga ta’sir qiladi. Bu holatlar ko‘pincha stress, depressiya, xavotir va boshqa psixologik kasalliklar bilan bog‘lanadi. Dilning og‘rig‘i insonning ichki hissiyotlarini aks ettiradi va u ko‘pincha odamning o‘ziga bo‘lgan munosabatining o‘zgarishi, ichki xavotirlar yoki hayotdagi muvaffaqiyatsizliklardan kelib chiqadi. Dilning iztirobi shaxsning ruhiy holatini yomonlashtirishi, uning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Ko‘ngil va dil tushunchalari insonning ichki dunyosini ifodalovchi muhim psixologik tushunchalardir. Ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, insonning hissiy holati, ruhiy salomatligi va psixologik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ko‘ngil va dilning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi nafaqat psixologik, balki axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatdan ham ahamiyatlidir. Ko‘ngil, asosan, insonning hissiy holatini, kayfiyatini ifodalaydi, dil esa ma’naviy va axloqiy holatni, vijdon va qalbning ichki muvozanatini aks ettiradi. Bu ikkala tushuncha bir-birini to‘ldiradi va o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Masalan, ko‘ngilning baxtli holatida bo‘lishi shaxsning dilidagi ijobiy tuyg‘ularni kuchaytiradi. Insonning ko‘ngli xotirjam bo‘lsa, dilida tinchlik va baxt bo‘ladi. Aksincha, ko‘ngilning g‘amgin yoki iztirobli holatlari dilni og‘ritadi, qalbda iztirobni keltirib chiqaradi. Ko‘ngil va dilning psixologik bog‘liqligi shundan iboratki, ko‘ngilning kayfiyat holatlari ko‘pincha dilning hissiy va axloqiy qarorlarini shakllantiradi. Misol uchun, ko‘ngli yaxshi bo‘lgan shaxs odatda o‘zini boshqa odamlar bilan yaxshi muomala qilishga va ijobiy emotsiyalarni tarqatishga tayyor bo‘ladi. U o‘zining ma’naviy holatiga, dilining holatiga ko‘proq e’tibor qaratadi va bu uning atrofdagi insonlar bilan munosabatlarida muvozanatni ta’minlashga yordam beradi. Aksincha, ko‘ngli xafagarchilik, g‘am yoki stress bilan to‘la bo‘lgan odam dilidagi axloqiy qadriyatlarni zaiflashtiradi va u o‘zini iztirobda his qilishi mumkin. Bundan tashqari, ko‘ngil va dilning o‘zaro bog‘liqligi insonning psixologik kasalliklariga, xususan, depressiya va ansiyetega ham ta’sir qiladi. Ko‘ngli doimiy ravishda iztirobda bo‘lgan shaxsning dilida ham doimiy bir og‘riq yoki xavotir bo‘lishi mumkin. Bu holat odamning ichki muvozanatini buzadi va uning

psixologik salomatligiga salbiy ta’sir qiladi. Bunday vaziyatda psixoterapiya, meditasyon, ijobiy fikrlash kabi psixologik yondashuvlar ko‘ngilni va dilni boshqarish, ularni tinchlantirish va barqarorlashtirish uchun zarurdir. Ko‘ngil va dil o‘rtasidagi bog‘liqlik shuningdek, shaxsning axloqiy qarorlarida ham aks etadi. Dilning halolligi, sadoqati va o‘zining ma’naviy qadriyatlariga sodiqligi ko‘ngilning xushchaqchaq holatida bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Agar ko‘ngil xursand bo‘lsa, dil ham toza va pokiza bo‘ladi. Aksincha, ko‘ngilning xafagarchilik va iztirob holatlarida dilning axloqiy qadriyatlari, sadoqati va halolligi zaiflashadi.

Ko‘ngil mavzusini kengroq yoritish uchun xalq tilidagi iboralarga va badiiy adabiyotga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Kishining his-tuyg‘u va kechinmalari manbai; yurak, qalb, dil.

Ko‘ngilda insonning fe’l-atvori, xarakteri, xulqi ham ifodalanadi masalan “Ko‘ngli bo‘sh” yoki “Yumshok ko‘ngil” kabilar.

Ko‘ngil yozmoq (yoki ochmoq) G‘am-g‘ussani tarqatmoq, unutmoq, xursandchilik qilmoq, o‘yin-kulgi, sayr va shu kabilar bilan dilgirlikni tarqatmoq.

Ko‘ngil so‘ramoq Kishi boshiga biror musibat yoki tashvish tushganda, undan hol-ahvol, kayfiyat va shu kabilar haqida so‘ramoq.

Ko‘ngil uzmoq Bahridan o‘tmoq, kechmoq, ajralmoq, tashlab ketmoq.

Ko‘ngil qo‘ymoq (yoki bermoq) Mehr-muhabbat bog‘lamoq, sevmoq.

Ko‘ngli bor 1. Xohishi, mayli bor; moyil. 2. Yaxshi ko‘radi, sevadi.

Ko‘ngli buzuq 1. Fikri, niyati yomon, yomonlik qilishni o‘ylovchi; 2. G‘amgin, ruhan ezilgan, ko‘ngli yarimta.

Ko‘ngli bo‘shamoq G‘am-tashvishdan yengillanmoq, ko‘ngli yorishmoq.

Ko‘ngli yo‘q 1. Mayli, xohishi yo‘q; moyil emas, istamaydi. 2. Yaxshi ko‘rmaydi, sevmaydi.

Ko‘ngli keng 1. Har narsaga siqilavermaydigan, tashvish tortavermaydigan. 2. Oliyhimmat, sahovatli.

Ko‘ngli ko‘tarilmoq (yoki o‘smoq) Ruhlanmoq, ruhi, kayfiyati ko‘tarilmoq, ruhi yengil tortmoq; xursand bo‘lmoq.

Ko‘ngli ko‘tarmaydi 1. Xohlamaydi, yoqtirmaydi, tabiatiga to‘g‘ri kelmaydi. 2. Hazm qilolmaydi; yeb-icholmaydi.

Ko‘ngli ochiq yoki ochiq ko‘ngil

1. Istagini, xafa yoki xursandligini yashirmaydigan; tortinmay gaplashaveradigan.
2. Har narsaga xafa bo‘lavermaydigan, gina saqlamaydigan; beg‘araz.

Ko‘ngli oq yoki oq ko‘ngil Birovga yomonlikni istamaydigan; beg‘araz, yuragi toza, sofdil. Oq ko‘ngil odam.

Dil (jon, qalb, yurak, ko‘ngil) – ma’naviyatning g‘oyat muhim ruhiy-ma’naviy omili, unsuri bo‘lmish ushbu tushunchalar inson ma’naviyatining tub mohiyatini ifodalash uchun xizmat qiladi. «Qalb shunday bir a’zoki, – deydi Forobiy, – u badanning boshqa hech qanday a’zolari bilan idora qilinmaydi. Undan keyin miya keladi. U ham asosiy a’zo sanaladi. Lekin uning hukmronligi ikkinchi darajalidir. U barcha a’zolarni qalb amriga ko‘ra boshqaradi, idora qiladi. U faqat qalbgagina xizmat qiladi».

Demak, kishining asl mohiyatini ifoda etuvchi dil uning barcha boshqa quvvatlarining manbai ekani ayon bo‘ladi. Shuning uchun ham tasavvuf falsafasida komillikka erishmoq yo‘li qalb yo‘li, deya talqin etilgani bejiz emas. Zero, dilni poklash – ma’naviy-ruhiy jihatdan sog‘lom bo‘lish yo‘li, deb tushunilgan. Dilni poklash ikkinchi darajadagi quvvat – qalbga bo‘ysundirish orqali amalga oshiriladi. Bu bilan nafs yoki quvvatlar uyg‘unligiga erishiladi. O‘zbek tilidagi «qalb» tushunchasi yunoncha «anima» va «psyuxe» tushunchalariga mos keladi. Dil faoliyatini o‘rganish esa, shunga muvofiq ravishda «psixologiya» deb atalgan. Arastuning «Qalb haqida» nomli maxsus asari bor. Forobiy, Ibn Sino qarashlari Arastu g‘oyalariga hamohangdir. Hind

falsafasida «qalb» tushunchasi «jivo» tushunchasiga mos kelib, inson qalbi uning tanasiga tutqun deb uqdiriladi. Jon yoki qalbning tanadan qutulish, ozod bo‘lish yo‘li nirvana hisoblanadi.

Abu Hamid o‘azzoliy «Kimyoi saodat» asarida «Xudoni tanimoq podshoh dilning sifatidur. Podshoh dilni va aning sifatlarini tanimoq Allohni tanimoq kalitidur. Dil gavhari azizdur, farishtalar gavhari jinsidandur va dilning madani asli Dargohi Ahadiyatdurkim, ul dargohdan kelgandur, ya’ni ul dargohda qaytguvchidir. Dil bu olam manzilgohida g‘aribdurkim, musofirlik uchun kelibdur», – deya ta’kidlaydi. Mavlono Rumiy «Ko‘ngilga ta’rif bermoq – bandasiga g‘oyatda mushkul, ammo uning mohiyatini anglagan kishiga saodat eshiklari ochiladi. Shubhasiz, Haqiqatni anglashning o‘zi – Saodatdir», deya ta’riflagan. Allomaning nazdida, dil qanchalik sof bo‘lsa, uning ilmu hikmati, jamolining nuri shunchalik tiniq namoyon bo‘ladi.

Darhaqiqat, inson haligacha kam o‘rganilgan xilqat, uning dili, ruhiyati – sir-sinoatga to‘la murakkab dunyo. Dil va jon ruh bilan hamnafas bo‘lgani uchun xalqimizda «Jon – aziz, dil – mukarram», degan hikmat urf bo‘lgani bejiz emas.

Xulosa: Ko‘ngil va dil tushunchalari inson psixologiyasining ajralmas qismlaridir va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik insonning ruhiy holati, ijtimoiy munosabatlari va hayotdagi muvaffaqiyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘ngil va dilning psixologik talqinlari ularning bir-birini to‘ldiruvchi, bir-biriga ta’sir ko‘rsatuvchi xususiyatlarini ko‘rsatadi. Ko‘ngil, asosan, insonning hissiy kayfiyatini aks ettirsa, dil uning ma’naviy va axloqiy holatini bildiradi. Bu ikkala tushuncha bir-biriga tayanib ishlaydi va insonning ichki dunyosida muvozanatni saqlashda katta rol o‘ynaydi. Ko‘ngilning ijobiy yoki salbiy holatlari dilni boshqarishga ta’sir qiladi. Agar ko‘ngil xushchaqchaq bo‘lsa, dilning ham tinch va baxtli bo‘lishi ehtimoli yuqori. Aksincha, ko‘ngilning iztirobi yoki g‘amginligi dilni og‘ritadi va shaxsning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ko‘ngil va dil o‘rtasidagi bog‘liqlik insonning axloqiy qarorlarida va shaxsiyatining rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Ko‘ngil va dilning psixologik talqinlari, shuningdek, insonning ijtimoiy va axloqiy munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Yaxshi kayfiyat va ma’naviy poklik shaxsning boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarini yaxshilaydi, o‘zini jamiyatda muvaffaqiyatliroq namoyon etishga yordam beradi. Bu tushunchalar nafaqat psixologiyada, balki hayotda ham insonning baxtli va tinch hayot kechirishiga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, "Qalb dengizdir, so‘z esa qalb tubidagi olmosdir" degan fikr chuqur ma’no kasb etadi. Inson ruhiyatining eng yashirin qatlamlaridagi his-tuyg‘ular, fikrlar va orzular so‘z vositasida namoyon bo‘ladi. So‘z inson ichki olamining oyinasi bo‘lib, qalb sirlari so‘z orqali ochiladi va inson uchun qimmatli bo‘lgan ma’nolar yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Davlatov, M. (2011).** *Ko‘ngil va dil: Psixologik tahlil.* Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
2. **Askarova, S. (2014).** *Psixologik holatlar va hissiy o‘zgarishlar.* Toshkent: Psixologiya ilmiy markazi.
3. **Jumaniyozova, M. (2016).** *Ko‘ngil va dilning psixologik bog‘liqligi.* Toshkent: Universitet nashriyoti.
4. **Mirzaeva, T. (2010).** *Ruhiy holat va axloqiy tuyg‘ular.* Toshkent: Ma’naviyat.
5. **Tursunov, A. (2012).** *Psixologik izlanishlar va amaliyot.* Toshkent: Xalq ta’limi nashriyoti.
6. **Xudoyberdiyeva, D. (2015).** *Ko‘ngil va dilning psixologik nuqtai nazari.* Toshkent: Fan va ta’lim.
7. **Rakhmonov, S. (2013).** *Insonning hissiy holati va uning psixologik ta’siri.* Toshkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti.
8. **Akramova, N. (2017).** *Ko‘ngil va dil: Psixologik va axloqiy yondashuvlar.* Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi psixologiya instituti.
9. **Rakhimov, E. (2018).** *Psixologiya va shaxsiyat: Ko‘ngil va dil.* Toshkent: Psixologiya nashriyoti.

10. **Yuldoshev, B. (2019).** *Inson ruhi va ma'naviyat.* Toshkent: Ma'naviyat va ta'lim nashriyoti.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ УЧАЩИХСЯ С СДВГ

Турсунова Дилноза Ахат кизи
Докторант факультета Социальных наук,
Национального Университета им.Мирзо Улугбека
dilnoza.tursunova011@gmail.com

Аннотация. В статье проводится комплексный анализ эффективности преподавания в системе непрерывного образования с фокусом на учащихся с синдромом дефицита внимания и гиперактивности (СДВГ). Исследование базируется на сравнительном анализе отечественных законодательных документов и мероприятий в Республике Узбекистан и странах постсоветского пространства, а также зарубежных публикаций по данной тематике. Особое внимание уделяется инновационным педагогическим подходам, цифровым технологиям и программам подготовки педагогов. На основе проведённого анализа формулируются рекомендации для адаптации международного опыта к условиям национальной образовательной системы.

Ключевые слова: СДВГ, непрерывное образование, инклюзивное обучение, инновационные педагогические подходы, законодательство, Узбекистан.

Введение

Синдром дефицита внимания и гиперактивности (СДВГ) – одно из наиболее актуальных нейропсихологических расстройств, влияющих на познавательные и поведенческие процессы у детей. Современные образовательные системы, включая систему непрерывного образования, сталкиваются с необходимостью адаптации методик преподавания под специфические потребности учащихся с СДВГ. В Республике Узбекистан и странах постсоветского пространства вопросы инклюзии и адаптивного обучения становятся приоритетными в свете реформирования образования. Принятие закона «Об образовании» (2020) и Национальной стратегии по правам детей до 2030 года [1, 2] создают нормативную базу для совершенствования системы, однако практическая реализация этих инициатив зачастую затруднена недостатком методической поддержки и квалифицированных кадров. Зарубежный опыт демонстрирует успешное применение индивидуальных образовательных планов (IEP) и мультисенсорных технологий, что позволяет повысить эффективность обучения детей с СДВГ [3–5]. В данной статье проводится анализ существующих подходов и предлагаются рекомендации по адаптации международного опыта к отечественным условиям.

Методы

Для проведения исследования использовался комплексный методологический подход, включающий следующие методы:

1. Системный анализ нормативно-правовой базы:

Изучались законодательные акты Республики Узбекистан, такие как Закон «Об образовании» (ред. 2020 г.) и Национальная стратегия по правам детей [1, 2]. Анализ проводился с целью выявления ключевых положений, направленных на инклюзивное образование и поддержку учащихся с особыми образовательными потребностями.

2. Сравнительно-аналитический метод:

Сопоставлялись методы и подходы, применяемые в странах СНГ (Казахстан, Кыргызстан, Россия) и зарубежные практики в США и странах ЕС. Особое внимание уделялось анализу публикаций ведущих авторов в области СДВГ (Barkley, DuPaul, Kazdin) [3–6].

3. Контент-анализ педагогической литературы:

Проводился анализ научных статей, монографий и докладов, посвящённых инновационным методам обучения и цифровизации образовательного процесса, что позволило оценить перспективы интеграции данных подходов в отечественную практику.

4. Экспертное интервью и кейс-стади:

Дополнительно изучались практические примеры внедрения инновационных образовательных технологий в школах и вузах Узбекистана, а также мнения специалистов в области педагогики и психологии.

Такая методология позволила не только выявить существующие проблемы в системе обучения учащихся с СДВГ, но и определить направления для их дальнейшего совершенствования.

Результаты

Анализ нормативно-правовой базы выявил, что в последние годы правительство Республики Узбекистан предпринимает шаги по модернизации системы образования. Принятые законодательные акты, в частности Закон «Об образовании» (2020) и Национальная стратегия по правам детей до 2030 года [1, 2], декларируют принципы инклюзивного образования и равного доступа к образовательным ресурсам. Однако практическая реализация этих документов сталкивается со следующими проблемами:

Недостаточная подготовка педагогов:

Отсутствие специализированных курсов и тренингов по работе с детьми с СДВГ приводит к тому, что преподаватели зачастую не владеют современными методиками адаптивного обучения. Анализ показывает, что подготовка кадров в этой сфере требует усиления с привлечением зарубежного опыта [3, 4].

Ограниченность ресурсной базы:

В образовательных учреждениях наблюдается нехватка адаптированных учебных материалов, цифровых образовательных платформ и специализированного оборудования, что снижает возможности для внедрения инновационных методик.

Зарубежный опыт демонстрирует, что применение индивидуальных образовательных планов (IEP), активное использование цифровых технологий, мультимодальных подходов и методов когнитивно-поведенческой терапии существенно повышает вовлечённость и успеваемость учащихся с СДВГ [4–6]. Такие программы в США и странах ЕС сопровождаются постоянным мониторингом эффективности и регулярной адаптацией методик с учетом результатов независимых оценок.

Анализ полученных данных позволяет сделать вывод, что для повышения эффективности преподавания учащихся с СДВГ в Узбекистане необходимо не только совершенствовать законодательную базу, но и активно инвестировать в подготовку педагогов, развитие цифровой инфраструктуры и создание специализированных центров поддержки.

Обсуждение

Полученные результаты указывают на необходимость комплексного подхода к решению проблемы адаптации образовательного процесса под нужды учащихся с СДВГ. Ключевыми направлениями являются:

Повышение квалификации педагогов:

Создание специализированных программ повышения квалификации, семинаров и мастер-классов, ориентированных на методики работы с детьми с СДВГ, позволит педагогам освоить инновационные подходы. Обмен опытом с зарубежными специалистами может стать дополнительным стимулом для профессионального роста.

Развитие цифровых технологий:

Внедрение адаптивных цифровых образовательных платформ и интерактивных методик способствует индивидуализации обучения и созданию комфортной образовательной среды.

Цифровые решения позволяют оперативно корректировать учебный процесс с учётом потребностей каждого ученика.

Междисциплинарное сотрудничество:

Эффективное взаимодействие между педагогами, психологами, IT-специалистами и родителями является основой для успешной инклюзии. Совместная работа позволяет выработать комплексные решения, которые учитывают как педагогические, так и психологические особенности учащихся.

Мониторинг и оценка эффективности:

Регулярное проведение экспертизы внедряемых методик и корректировка программ на основе объективных данных способствуют постоянному совершенствованию образовательного процесса. Системный мониторинг позволяет своевременно выявлять проблемные зоны и внедрять необходимые коррективы.

Анализ показывает, что зарубежные модели, использующие индивидуальные образовательные планы (IEP) и мультимодальные подходы, доказали свою эффективность и могут быть адаптированы к условиям Узбекистана. Однако успешная интеграция инноваций требует не только технологических, но и культурных изменений в системе образования.

Заключение. Проведённое исследование демонстрирует, что повышение эффективности преподавания учащихся с СДВГ в системе непрерывного образования возможно при условии комплексного подхода. Необходимы системные изменения, включающие совершенствование законодательной базы, активное внедрение цифровых технологий, повышение квалификации педагогов и создание механизмов междисциплинарного взаимодействия. Применение индивидуальных образовательных планов и адаптивных методик, успешно реализуемых в США и странах ЕС [4, 5], может стать основой для модернизации отечественной образовательной системы.

Будущие исследования должны быть направлены на разработку пилотных проектов, тестирование инновационных методик и оценку их эффективности в реальных условиях. Только совместными усилиями государства, образовательных учреждений и специалистов можно создать устойчивую модель инклюзивного образования, способную обеспечить качественное обучение для всех категорий учащихся.

Список литературы

1. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» в редакции от 23 сентября 2020 года // стр. 23-45.
2. Национальная стратегия по правам детей в Республике Узбекистан до 2030 года. Постановление Кабинета Министров №666 от 23.10.2021 г.
3. Barkley R.A. Attention-Deficit Hyperactivity Disorder: A Handbook for Diagnosis and Treatment. — New York: The Guilford Press, 2020. // стр. 206-301
4. DuPaul G.J., Stoner G. ADHD in the Schools: Assessment and Intervention Strategies. — New York: The Guilford Press, 2014. // стр. 67-91
5. European ADHD Guidelines Group (EUNETHYDIS). European consensus statement on diagnosis and treatment of ADHD: Recommendations for education. — 2018. // стр. 261-263
6. Kazdin A.E. Evidence-Based Treatment and Practices for Children with ADHD. // Annual Review of Clinical Psychology. — 2017. — Vol. 13. — P. 129–153.
7. Министерство народного образования Республики Узбекистан. URL: https://www.maktab.uz

TA’LIM MUVAFFAQIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Mansurov Farrux Najmitdinovich,
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi
e-mail: farruxmansurov@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola strategik rejalashtirishning asosiy tushunchalari va terminologiyasini bayon qiladi, shu jumladan missiya va qarashlar bilan strategik rejani shakllantirishning barcha bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ta’lim sohasida muvaffaqiyatli strategik rejalashtirish misollarini tahlil qiladi va taqqoslaydi hamda ularning kuchli va ba’zi zaif tomonlarini aniqlaydi. Maqolada ta’limni rivojlantirish uchun SMART strategik maqsadlar muhimligini ta’kidlaydi, bu maqsadlar missiya va qarash bayonotlari orqali ifodalanadi. Bundan tashqari, Finlyandiya, Singapur va Avstraliya kabi mamlakatlarda ta’lim sohasida muvaffaqiyatli islohotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu davlatlarning ta’lim vazirliklari o‘z maqsad va qarashlarini barcha davlat maktablari bilan muvofiqlashtira olganligi haqida so’z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: strategik reja, SWOT, SMART, missiya, qarash, jamiyat, qadriyatlar, maqsadlar

Globallashgan dunyo O’zbekiston ta’limi hal etishi lozim bo‘lgan ko‘plab muammolarni qo‘ymoqda. Eng asosiylaridan biri bu farzandlarimizni ertangi kunga, hayotga tayyorlashdir. Buning uchun bijga strategik reja zarur. Strategik reja – bu rasmiy hujjat bo‘lib, u bitta maktab yoki butun ta’lim tizimi uchun umumiy qarash va ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi. Ta’limni rejalashtirish kelajakni belgilash va maqsadlarga erishish uchun inson resurslari va moddiy imkoniyatlarni safarbar qilishda turli manfaatdor tomonlarni jalb etadi. Bu jarayon ham strategik qarashga, ham amaliy yondashuvga ega, chunki u maktab missiyasi va qarashini, shu jumladan maktab hamjamiyatining maqsad va qadriyatlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, strategik rejalashtirish ta’lim tizimini qayta shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda siyosatchilar uchun muhim yo‘nalishlarni belgilaydi. U barcha ichki va tashqi manfaatdor tomonlarni jalb qiluvchi jonli hujjat bo‘lib, doimiy ravishda baholanib, yangilanib va monitoring qilib borilishi kerak. Strategik rejalashtirish jarayoni ta’lim tashkilotining modelini hayotga tatbiq etish va qarorlarni aniq yo‘naltirish uchun kerakli ma’lumotlar va strategiyalar bilan rahbarlarni qurollantirishga yordam beradigan uch bosqichni o‘z ichiga oladi.

1. Tadqiqot o‘tkazish – mavjud holat bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash (intervyular, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi so‘rovlar, o‘quvchilar natijalarini tahlil qilish, arxiv ma’lumotlari va boshqalar).
2. Strategik reja ishlab chiqish – missiya va qarash bayonotlarini yaratish, yaxshilash, tadqiqot natijalari asosida SMART strategik maqsadlarini belgilash (har bir maqsad aniq, amaliy natijalarga asoslangan bo‘lishi kerak).
3. Ijro rejasini ishlab chiqish – rejani hayotga tadbiq etish uchun yig‘ilishlar tashkil etish, har bir maqsad uchun aniq harakatlar rejasini belgilash, natijalarni monitoring qilish.

Strategik rejalashtirish jarayoni tadqiqot bosqichida to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish va talqin qilish, yangi ma’lumotlarni maktabning avvalgi tahlillari bilan taqqoslash, natijalarni umumlashtirish va SMART maqsadlarini belgilash kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, yillik harakat rejasini yaratish, inson va moddiy resurslarni to‘g‘ri boshqarish va ularni maqsadlarga erishish uchun safarbar qilish ham muhimdir.

Ta’limdagi strategik rejalashtirish maqsadlari maktab missiyasi va qarashiga hamda butun maktab hamjamiyatining asosiy qadriyatlariga mos kelishi kerak. Jarayon va natija maqsadlari o‘rtasidagi farqni tushunish o‘quv markaziga yo‘naltirilgan samarali SMART maqsadlarni belgilash uchun juda muhimdir. Shuningdek, maktab strategik rejasi GPS kabi bo‘lishi kerak – u maktabning hozirgi holatini "Biz hozir qayerdamiz?", kelajakdagi yo‘nalishni esa "Biz qayerga borishni xohlaymiz, qachon va qanday?" degan savollar orqali aniqlab berishi lozim. Maktab rahbari esa

kemani mohirona boshqarayotgan kapitan kabi, jamoasini qulay va og‘ir sharoitlarda samarali yo‘naltira olishi kerak.

Ta’lim vazirligi har qanday islohotni amalga oshirishdan oldin, SMART maqsadlarga asoslangan aniq va izchil strategik reja ishlab chiqishi kerak. Bundan tashqari, bu jarayonga boshqa vazirliklar hamda milliy va hududiy bo‘limlarni ham jalb qilish jamoaviy hamkorlik uchun zarur. Izchillik, sabr va davomiylik muhim, chunki ta’lim islohotlari bir necha yil, hatto o‘n yillab davom etishi mumkin. Vazirliklar uzoq muddatli strategik qarash va ustuvor yo‘nalishlarni belgilashi, yillik dasturlar va budjetlarni muvofiqlashtirishi, milliy va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik o‘rnatishi va amalga oshirilayotgan islohotlar bo‘yicha doimiy monitoring olib borishi kerak.

Ta’limdagi muhim o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun SWOT tahlili nima uchun zarur?

SWOT (Strengths – kuchli tomonlar, Weaknesses – zaif tomonlar, Opportunities – imkoniyatlar, Threats – tahdidlar) tahlili maktabning hozirgi holatini baholash, tahlil qilish va diagnostika qilish uchun ishlatiladigan muhim usul hisoblanadi. Ushbu jarayon maktabning ichki va tashqi muhit omillarini o‘rganadi va natijalar asosida maktabning haqiqiy holati bo‘yicha aniq tasavvur hosil qiladi. SWOT tahlili maktab rahbariyati, o‘qituvchilar, ota-onalar va o‘quvchilar ishtirokida o‘tkazilishi mumkin. Strategik rejalashtirish o‘z-o‘zini tahlil qilish va tadqiqot bosqichi bilan boshlanadi hamda bu jarayon kelajakdagi SMART maqsadlarni belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

SMART maqsadlar nima?

SMART maqsadlar tushunchasi Jorj Doran, Artur Miller va Jeyms Kanningem tomonidan 1981-yilda “There’s a SMART way to write management goals and objectives” maqolasida ishlab chiqilgan.

Har bir ta’lim tashkiloti o‘z-o‘zini baholash natijalari asosida SMART rejasini ishlab chiqishi kerak. SMART tushunchasi quyidagi mezonlarga javob beruvchi maqsadlarni anglatadi:

- S – Specific (aniq)
- M – Measurable (o‘lchab bo‘ladigan)
- A – Attainable (erishish mumkin bo‘lgan)
- R – Realistic (real)
- T – Timely (muayyan vaqt doirasida)

Ta’limni rivojlantirish bo‘yicha barcha maqsadlar shu mezonlarga mos ravishda belgilanishi kerak, chunki faqat javobgarlik va aniq o‘lchovga ega bo‘lgan maqsadlar ta’lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Masalan, Singapur yillar davomida dunyoning yetakchi ta’lim tizimiga ega mamlakat bo‘lib, PISA reytingida doimo yuqori o‘rinlarni egallab kelmoqda. Ular o‘z ta’lim tizimini har tomonlama rivojlantirish uchun strategik rejalar asosida aniq SMART maqsadlarni belgilaydilar. Ularning asosiy mavzusi “Fikrlash” bo‘lib, bu 21-asrning muhim ta’limiy ko‘nikmalaridan biri hisoblanadi. 1997 yilda Bosh vazir Goh Chok Tong TSLN (Thinking Schools, Learning Nation - Fikrlovchi Maktablar, O‘rganadigan Millat) konsepsiyasini Singapur ta’lim tizimining kelajagi sifatida e’lon qilgan. Bu yondashuv maktablarda fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali bolalar va kattalarni umr bo‘yi o‘rganishga undaydi, natijada ular millat va jamiyatning rivojlanishiga ijobiy hissa qo‘shadilar.

Reja bayonotida esa bu maqsadlarga qanday erishilishi ta’kidlangan: "Biz millatimiz kelajagini shakllantiramiz, chunki biz kelajagimizni belgilaydigan insonlarni tarbiyalaymiz." Ushbu yondashuv asosiy e’tiborni insonlarga qaratadi, ularni rivojlantirish va shakllantirish orqali mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas’uliyatli shaxslarni tarbiyalashni maqsad qiladi. Singapurning ushbu yondashuvi ta’limning yuqori sifatini ta’minlashga qaratilgan.

Finlyandiya ta’lim va madaniyat vazirligining hozirgi strategik rejasi qanday?

Finlyandiyaning ta’lim tizimi besh o‘n yillik davomida bosqichma-bosqich isloh qilingan va bugungi kunda dunyodagi eng muvaffaqiyatli modellar qatoriga kiradi. Fin ta’lim tizimining asosi o‘quvchilar farovonligi va akademik taraqqiyoti hisoblanadi. Har qanday ta’lim islohoti oldidan

SWOT tahlili, SMART maqsadlarni belgilash, tizimli refleksiya va bosqichma-bosqich amalga oshirish kabi jarayonlar olib boriladi.

Finlyandiya ta’lim va madaniyat vazirligi K–12 o‘quv dasturlarining muntazam isloh qilinishini nazorat qiladi. Masalan, 2015-yilda milliy ta’lim dasturining islohoti uchun 100 dan ortiq maktab o‘qituvchilari, davlat amaldorlari va universitet mutaxassislari jalb qilingan edi. Ularning asosiy vazifasi talabalarni inson va fuqaro sifatida o‘stirish bo‘ldi. Barcha fanlarda o‘zaro bog‘liq yondashuv va mustaqil fikrlashni rivojlantirish ushbu strategiyaning muhim qismidir.

Finlyandiya ta’lim va madaniyat vazirligi 2030-yilgacha bo‘lgan strategik rejani ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, madaniyat va ta’lim jamiyatning mustahkam asoslarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Strategiyada uchta asosiy yo‘nalish belgilangan:

1. Har bir inson o‘z bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.
2. Jamiyatning ijtimoiy tengligi va adolatini ta’minlash.
3. Insonlarning ijodiy va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish.

Finlyandiyada barcha maktablar teng darajada sifatli ta’lim beradi va barcha o‘quvchilar teng imkoniyatlarga ega. Finlyandiya hukumati ta’lim tizimining strategik maqsadlarini shaffof va mas’uliyatli tarzda amalga oshirishga intiladi.

O’zbekiston respublikasi ham ta’lim sohasida xuddi shunday strategik reja ishlab chiqdi. Bu «O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasadiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (29.04.2019 yildagi PF-5712-son)»da o’z aksini topgan. Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O‘zbekiston Respublikasining xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishda quyidagi ko‘rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi: STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlari joriy etiladi; xalq ta’limi tizimida o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlar va izlanishlar (PISA, TIMSS, PIRLS va boshqalar)da O‘zbekiston Respublikasining doimiy ishtiroki ta’minlanadi; ta’lim dasturlari va muassasalarini akkreditatsiya qilish uchun O‘zbekiston Respublikasining yetakchi xalqaro birlashmalarga kirishi ta’minlanadi; xorijiy til, informatika, matematika, fizika, kimyo, biologiya fanlarini chuqur o‘rganishga mo‘ljallangan didaktik materiallar va multimedia mahsulotlarining yangi avlodlari tayyorlanadi; muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatayotgan umumta’lim muassasalari negizida tarmoq maktablari yaratiladi va ushbu tarmoqqa o‘quvchilarni qamrab olish koeffitsiyenti past bo‘lgan boshqa maktablar ham kiritiladi.

Ta’lim muvaffaqiyatini ta’minlashda strategik rejalashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u tizimli yondashuv orqali ta’lim sifatini oshirish va kelajak uchun barqaror rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. Maqolada strategik rejalashtirishning asosiy bosqichlari, SWOT tahlili va SMART maqsadlarning ta’lim tizimida qo‘llanilishi batafsil yoritilgan. Shuningdek, ta’limda muvaffaqiyatli strategik rejalashtirish bo‘yicha Singapur, Finlyandiya tajribalari tahlil qilinib, ularning o‘ziga xos jihatlari o‘rganildi.

O‘zbekiston Respublikasi ham 2030-yilgacha xalq ta’limi tizimini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqib, xalqaro tajribalarga asoslangan holda ta’lim islohotlarini amalga oshirishga harakat qilmoqda. Strategik rejalashtirish nafaqat ta’lim tizimini rivojlantirishga, balki o‘qituvchilar va o‘quvchilarni yangi pedagogik yondashuvlar bilan ta’minlashga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga ham xizmat qiladi. Shunday qilib, ta’lim strategik rejalashtirish jarayoni doimiy tahlil, monitoring va moslashuvchan yondashuv talab qiladigan uzluksiz jarayon bo‘lib, uning samarali amalga oshirilishi natijasida jamiyatning kelajagi uchun raqobatbardosh, bilimli va ijodiy fikrlovchi avlodni tarbiyalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son

2. Burg, C. A. (2018). **21-asrda Finlyandiya ta’limi: Paradokslar va Vizyonlar.** *Inquiry in Education*, 2018, Jild 10, Son 1, Maqola 8.
3. ECRA. (2015). **Kelajakni yaratish: Maktablar uchun strategik rejalashtirish.** Atlantic City, NJ: ECRA Group.

JISMONIY MADANIYAT VA SPORTDA SOG’LOMLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARINING MUAMMOLARI

M.A.Hotamov
ISFT instituti Samarqand filiali
muminhotamo5@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada, sog’lomlashtirish texnologiyalarining mazmun mohiyati, maqsad, vazifalari hamda jismoniy madaniyat va sportda sog’lomlashtirish texnologiyalarining muammolari, ahamiyati uning bugungi kunda sog’lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy sog’lomlashtirish funksiyalari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: profilaktika, individualizatsiya, optimallashtirish, rekreatsion.

АННОТАЦИЯ. В статье научно обоснованы содержание, цель и задачи оздоровительных технологий, а также актуальность и значение оздоровительных технологий в физической культуре и спорте, их физкультурно-оздоровительные функции в формировании здорового образа жизни в современных условиях.

Ключевые слова: профилактика, индивидуализация, оптимизация, рекреация.

ANNOTATION. This article scientifically substantiates the essence, purpose, and objectives of health-improving technologies, as well as the relevance and importance of health-improving technologies in physical culture and sports, and their functions in shaping a healthy lifestyle today.

Keywords: prevention, individualization, optimization, recreational.

Muammolari. O’zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo’lga kiritgandan so’ng barcha sohalarda har tamonlama yuksalish yuz berayotganini ko’rishimiz mumkin. Jismoniy-siyosiy va ma’naviy o’zgarishlar umuminsoniy qadriyatlar tizimida yangilanish, insonning barcha shaxsiy extiyojlari, talablari va ma’nfaatlari birinchi o’ringa ko’tarilayotganini, ayniqsa o’sib kelayotgan yosh avlodlarning ma’naviy- axloqiy va jismoniy imkoniyatlari yanada oshayotgani bugungi kunda sir emas. Jamiyatda sog’lom turmush tarzini shakllantirish, aholi salomatligini mustahkamlsh, jismonan sog’lom, ma’nan boy yosh avlodni tarbiyalash, aholini jismoniy madaniyat va sport bilan keng jalb etishni keng jalb etishni ta’minlashga yo’naltirishda yurtboshimiz tomonidan bir qancha qarorlar va farmonlar ishlab chiqildi.

2018 yil 28 dekabrda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasida “Jamiyatda sog’lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalshtirish dolzarb vazifadir. Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag’batlantirish va qo’llab quvvatlashga bundan buyon ham kata ahamiyat beramiz”. Oxirgi yillarda Respublikamizda eng asosiy, muhim vazifalardan biri ommaviy sportni rivojlantirish masalasi turadi. Mamlakatimizning ma’naviy sog’lom avlodlarni, bo’lajak vatanparvarlarni tarbiyalash vazifasi pirovard o’qituvchilar, mutaxassislar zimmasiga tushadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga muvofiq, o’s Pedagogik fanlarni muammoli o‘qitish asosida talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish ib kelayotgan yosh avlodni jismoniy va ma’naviy salomatligini shakllantirishning, sog’lom turmush tarziga intilish va mehr muhabbatini singdirishining g’oyat muhim sharti ommaviy sportni rivojlantirishdir.” Bundan tashqari jismoniy tarbiya o’qituvchilari, sport mutaxassislarining, ustoz-murabbiylarning chuqur bilim, yuksak malaka, boy tajriba va mahoratga ega bo’lishi har tamonlama yetuk, ma’naviy barkamol kadrlar tayyorlashning garovidir.

Respublikamizning strategik vazifalaridan biri-kelajakdagi barcha ezgu ishlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan jismoniy sog'lom va ma'naviy barkamol shahsni voyaga yetkazishdan iborat. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun nazariy bilimlarni chuqur o'rganishimiz, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va takomillashtirishda yangi bilimlarni egallashimiz, zamon talablari darajasida ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, kelajak avlod vakillarini vatanparvar, o'z kasbining yetuk bilimdon egasi qilib tarbiyalamog'imiz darkordir. Bu yo'lda ta'lim va tarbiya berish barobarida o'quv ishlarini rejalashtirishga hamda ularni samarali olib borishga yangicha va ijodiy qarashimiz, ishga tashabbuskorlik bilan yondoshmog'imiz lozim.

Maqsad. Mavzuga ko'ra, jismoniy madaniyat va sportda sog'lomlashtirish texnologiyalarining muammolari va ahamiyati borasida sog'lomlashtirish texnologiyalari birinchi navbatda jismoniy madaniyat orqali inson salomatligini saqlash va mustahkamlashni ta'minlashga qaratilgan. Sog'lomlashtirish samaradorligi har qanday jismoniy mashqlar shakllarining majburiy komponenti hisoblanadi. Shu munosabat bilan jismoniy madaniyatning barcha tarkibiy qismlari (sport, asosiy, kasbiy-amaliy, sog'lomlashtirish va jismoniy madaniyat) sog'lomlashtirish funksiyalarini bajaradi. Sog'lomlashtirish texnologiyasi - tibbiy-pedagogik va ijtimoiy toifadagi fan bo'lib, ham jismonan, ham ruxan sog'lom bo'lgan millat namoyondasini tarbiyalash va takomillashtirish borasidagi zarur omillarni va uslublarni o'rganib, ularni turmushga tadbiq etish kabi vazifalarni o'z zimmasiga oladi.

Sog'lomlashtirishning asl maqsadi mauyyan shaxsning salomatligini nazorat qilish va ta'minlash orqali oilaning, jamiyatning, millatning va davlatning mustaxkam bo'lishiga asos yaratishdir. Salomatlik insonning eng katta boyligidir. Shubhasiz, salomatlik insonning biologik va ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirishning asosiy shartidir. Bu insonning o'zini o'zi anglashining asosi hisoblanadi. Ayni paytda, zamonaviy jamiyatda jismoniy madaniyat, shu jumladan yangi va rivojlanayotgan asbob-uskunalar va texnik vositalar yordamida sog'liqni saqlashni mustahkamlash zaruriyati tobora ortmoqda. Bu, birinchi navbatda, salomatlik muammolarini samarali hal etish uchun mo'ljallangan maxsus tashkil etilgan faoliyatni talab qiladi.

Jismoniy madaniyat va sportda sog'lomlashtirish texnologiyalarning asosiy maqsadlaridan biri har bir inson organizmidagi o'z ichki imkoniyatlarini mustaxkamlashga intilishi kerakligiga da'vat etish va har bir shaxs o'zi va boshqalar uchun sog'lom turmush tarzini yaratishligi hamda sog'lom avlod orzusida yashashlik va unga erishishga imkoniyat yaratish, salomatlikni saqlash, mustahkamlash va uzoq umr ko'rishga da'vat etishdan iborat.

Sog'lomlashtirish texnologiyalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyati - yoshi, jinsi, mehnat va ta'lim faoliyati va salomatligini hisobga olgan holda, odamlarning jismoniy yuklamalarini optimallashtirish va shaxsiylashtirishning maqbul mexanizmi. Sog'lomlashtirish texnologiyalarining bir turi sifatida ularning maqsadi va vazifalari mavjud. Sog'lomlashtirish texnologiyalarini qo'llashdan maqsad aholini yaxshilashdir. Sog'lomlashtirish texnologiyalarini qo'llash maqsadlari esa:

- Tananing funksional qobiliyatini oshirish;
- Kasalliklar profilaktikasi;
- Vosita rejimini optimallashtirish;
- Faol dam olish tufayli charchoqni kamaytirish;
- JSST tavsiyalari asosida sog'lomlashtirish sinflarida optimal o'quv yuklarini individualizatsiya qilish;
- Yomon axloqlarga qarshi kurashda mashqdan foydalanish;
- Turli yoshdagi, jinsiy va sog'liqni saqlash ahvoli, shu jumladan, nogiron kishilarning faol jismoniy tarbiya va sog'lik sinflariga jalb qilinishi;
- Sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida sog'liqni saqlash texnologiyalarini joriy etish;
- Professional ahamiyatga ega bo'lgan ish faoliyatini rivojlantirish.

Sog’lomlashtirish texnologiyalarining tarkibiy qismlariga muvofiq, inson faoliyati natijasida va mavzu qiymatlari majmui sifatida insonning faoliyat turi sifatida qaralishi mumkin. Sog’lomlashtirish texnologiyalari bir turdagi faoliyat sifatida qulay organizatsiya harakatlarini, shuningdek, sog'lom turmush tarziga rioya qilish bilan bog’liq faoliyatni tavsiflaydi. Shu bilan birga sog’lomlashtirish texnologiyalarining bir xil faoliyat turi sifatida sog’lomlashtirish samaradorligini shakllantirish modeli belgilanadi. Sog’lomlashtirish texnologiyalarini qo’llashdagi faoliyat, birinchi navbatda, salomatlikning eng katta ta’siriga erishishga qaratilgan.

Sog’lomlashtirish texnologiyalari ob’ektiv qiymatlar sifatida jismoniy va rekreatsion faoliyatning zarur samaradorligini ta'minlash uchun yaratilgan moddiy va ma’naviy qadriyatlardir. Bu borada sog’lomlashtirish texnologiyalarining mazmuni insonning harakatga bo’lgan ehtiyojiga va faol dam olishga bo’lgan ehtiyojini qondirish bilan bog’liq. Ushbu ehtiyojlarning to’liq amalga oshirilishi, oxir-oqibat, salomatlikni saqlash, yuqori samaradorlik va ish sharoitida ham insonning samarali hayotiy faoliyatini ta’minlaydi. Sog’lomlashtirish texnologiyalari sohasida jismoniy madaniyat, tibbiyot, psixologiya va boshqa sohalardagi ilm-fanning turli sohalaridan amaliy bilimlar tizimi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarni bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish ularni salomatligini asrab avaylash, mustahkamlash maqsadida ommaviy sport turlariga jalb etish va aholi salomatligini mustahkamlash borasida ijtimoiy muhitga ommaviy sportni jalb etish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Sog’lom turmush tarzi va tibbiy madaniyat va sport uyg’unligi borasida yosh avlodga tushnchalar berib, ongiga singdirish bugungi kunning dolzarb fazifalaridandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. A.Abdullayev. Sh. Xonkeldiyev. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi.Toshkent. 2005 yil.
2. A.N. Livisky Maktabgacha yoshdagi bolalarni Jismoniy madaniyat asoslari va metodikasi Toshkent:1995-yil.
3. R.S.Salomov Sport mashg‘ulotning nazariy asoslari – Toshkent, O‘zbekiston Davlat jismoniy madaniyat institute 2005 yil.
4. O.V. Goncharova Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish Toshkent: O‘zbekiston Davlat jismoniy madaniyat instituti 2005 yil.
5. M.X.Mirjamolov, R.F.Odilov, D.R.Zokirov “Salomatligi nogironat imkoniyatlari bo‘lgan o‘quvchilarning maxsus jismoniy tarbiyasini takomillashtirish”. Jismoniy tarbiya va sportning dolzarb muammolari. - 2020 yil.

JISMONIY TARBIYA DARSLARI JARAYONIDA HARAKATLI O‘YINLARDAN FOYDALANISH YO’LLARI

ISFT instituti Samarqand filiali Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o’qituvchisi
M.A.Hotamov muminhotamo5@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ta’lim jarayonida harakatli o‘yinlar haqida alohida to‘xtalib o‘tganmiz. Bu malumotlar orqali ta’lim jarayonida harakatli o‘yinlardan foydalanishning ijobiy va salbiy oqibatlari, harakatli o‘yinlarning turlari maqsad va vazifalari haqida fikr mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy harakatli o‘yinlar, zamonaviy milliy harakatli o‘yinlar, texnika, metodika,tayyorgarlik.

АННОТАЦИЯ. В данной статье мы подробно обсудили использование активных игр в образовательном процессе. Данная информация дает представление о положительных и отрицательных последствиях использования игр-действий в образовательном процессе, а также о целях и задачах различных видов игр-действий.

Ключевые слова: Народные подвижные игры, современные народные подвижные игры, техника, методика, подготовка.

ANNOTATION: This article focuses on the use of mobile games in the educational process. This information provides insights into the positive and negative consequences of using mobile games in the educational process, the types of mobile games, their goals and objectives.

Keywords: National mobile games, modern national mobile games, techniques, methods, preparation.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2018 yil 05-martgi PF5368-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtiish chora tadbirlari to‘g‘risida” farmoni. Mamlakatimizda milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini (etnosport) targ‘ib qilish va ommalashtirish, bolalar va o‘smirlarni ularga keng jalb qilish, xalqaro aloqalarni kuchaytirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-iyundagi PQ-5149-son qaroriga muvofiq:

Milliy sport turlari va xalq o‘yinlarining mohiyati haqida targ‘ibot materiallari (qo‘llanma, buklet, banner, flayer va boshqalar) ni tayyorlasin hamda barcha ta’lim muassasalarida ularning jismoniy, intellektual, ma’naviy-axloqiy jihatdan o‘rni haqida jismoniy tarbiya darslari hamda ma’naviyat soatlarida tushunchalar berilishini tashkil etsin;

Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarni etnosport turlariga keng jalb etish, ular o‘rtasida musobaqalarni ommalashtirishga qaratilgan motivatsion roliklar tarqatish;

Ta’lim muassasalarida milliy sport turlari va xalq o‘yinlari bo‘yicha musobaqalarning muntazam ravishda o‘tkazilishini tashkil etish, g‘olib va sovrindor bo‘lgan jamoalarni o‘z mablag‘lari hisobidan rag‘batlantirish choralarini ko‘rish;

Ta’lim muassasalarida malakali ustozlar, murabbiylar, polvonlar hamda mutaxassislar ishtirokida seminar, trening, mahorat saboqlari tashkil etilishini ta’minlasin. Harakatli o‘yinlarni to‘plash va ularni hayotga tadbiq etish, ulardan oqilona foydalanish bugungi kunda oldimizda turgan ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu vazifa yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy tarbiya oldida ham katta mas’uliyat yuklaydi. Yoshlarni har tomonlama jismonan baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, o‘quvchilar jismoniy sifatlarini rivojlanishiga qaratilgan bu muammoni umum ta’lim maktab o‘quvchilari jismoniy madaniyatini tashkiliy va pedagogik jarayonlar bilan birga bir-biriga bog‘lab kelgan uzviylikda ko‘rib chiqish lozimligini keltirib chiqaradi, bunda harakatli o‘yinlarni roli kattaligini qayta-qayta ta’kidlab o‘tmoqchimiz. Shuning uchun xalqimizning asrlardan asrlarga o‘tib kelayotgan milliy o‘yinlarini avaylab-asrab, keyingi avlodga yetkazish yo‘llarini izlab, ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish bizning maqsadimizdir. Harakatli o‘yinlar jismoniy tarbiyaning eng ta’sirchan usullaridan bo‘lib, o‘quvchilarda aqliy, axloqiy va nafosat tarbiyasini birgalikda muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim vositadir. Shuning uchun bolalar o‘yinlarining ruhi, tabiati, saviyasi, ishtirokchilarning xatti-harakatlari kabi jihatlariga ham e’tibor berish zarur.

Harakatli o‘yinlar o‘quv-mashg‘ulotlarida yordamchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Chunki o‘yin shug‘ullanuvchilarda qiziqishni oshiradi, ularga zavq bag‘ishlaydi, ish qobiliyatini tezroq tiklanishini ta’minlaydi. O‘yin tufayli charchashni unutadilar, mashg‘ulotlarini diqqat bilan bajaradilar.

O‘zbekiston Respublikasida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida ta'lim-tarbiyani takomillashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb

etib, unda o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy, jismoniy hamda estetik madaniyatini shakllantirish uchun tashkiliy, psixologik-pedagogik shart-sharoitlarning metodik tizimini ishlab chiqish dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Umum ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlar vositasida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash borasida dars jarayonini muvofaqqiyatli tashkil etish uchun ularni (milliy harakatli o‘yinlarning) rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda ta’lim tizimining umum ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yuksak ma'naviyatli, estetik didli, axloqli va ma'rifatli, bir so‘z bilan aytgada, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga alohida ahamiyat berilishi talab etilmoqda.

Bu jarayonda yosh avlodning jamiyat rivojiga mos bilim, ko‘nikma va malakalar sohibi bo‘lishi muhimligini ta'kidlaydi.

Jumladan, ta’lim va tarbiya ishlarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy harakatli o‘yinlarning estetik asoslarini anglash ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirish alohida e’tiborni talab etadi. Shu jihatdan olib qaraganda umumiy o‘rta ta’lim yo‘nalishida tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan muhim masalalar tizimida o‘quvchilarni zamonaviy usullar asosida estetik tarbiyalashda milliy harakatli o‘yinlardan foydalanishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, uni amaliyotga tatbiq etishning yangi uslubiy yondashuvlarini joriy etishning mazmuni va metodikasini ishlab chiqish muammosi utuvor tarzda qarilishi lozim.

Umum ta’lim maktabkarining boshlang‘ich sinflarida o‘qitiladigan jismoniy tarbiyadan DTS o‘zining tuzilishi va mazmuniga ko‘ra jismoniy tarbiyani o‘qitish jarayonida o‘quvchi shaxsi, uning jismoniy rivojlanishi, intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi. Ammo amaldagi dasturlar bo‘yicha tuzilgan o‘quv qo‘llanmalarda taqdim qilinayotgan topshiriqlar har doim ham harakatli o‘yinlar o‘quvchilarni estetik tarbiyalashga mo‘ljallanmagan.

Avval aytganimizdek, juda ko‘p harakatli o‘yinlar chetdan kirib kelib, milliylashib ketgan. Chunki ulaming mazmun, maqsad va mohiyati yurtimizning iqlim sharoiti, aholining ijtimoiy mehnat turmush madaniyatiga mos kelgan. Shu sababdan milliy harakatli o’yinlar tarkibida uchraydigan boshqa millatlarning harakatli o‘yinlar haqida fikr-mulohazalar yuritilsa ikkilanmasligimiz zarur. Respublikamizning atoqli olimlari; R.Abdumalikov, T.Usmonxo‘jayev M.Murodov, U.Qomboyev, M.Jabborov, J.Toshpulatov va A.Atoyev kabilaming ilmiy-nazariy mulohazalari hamda o‘yinlarning mazmunlari asosida milliy harakatli o‘yinlami quyidagi turkumlariga ajratish mumkin:

1. Tabiat manzaralari, fanlar bilan bog‘liq o‘yinlar. Bunga “Ko‘chat o‘rnat”, “Kartoshka ekish”, “Yomg‘ir”, “Ayoz bobo” kabi o‘yinlarni namuna qilib ko‘rsatish mumkin. Bu o‘yinlar ob-havoning o‘zgarishi, sovuq va yomg‘irlardan saqlana bilish kabi harakatlar asosida shug‘ullanuvchi birdamlik, hushyorlik, epchillik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlari va aqliy fazilatlarini tarbiyalashda xizmat qiladi.

2. Hayvonot olami bilan bog‘liq o ‘yinlar. Bunga “Qushlar pirr qilib uchdi”, “Kalxat keldi, qoch bolam”, “Bo‘rilar va ovchilar”, “Zovurdagi bo‘rilar”, “G‘ozlar”, “Tulki bilan xo‘roz”, “It va qarg‘a” va shu kabi juda ko‘p o‘yinlar misol bo‘la oladi. Bu o‘yinlarda do‘stlik munosabatlar, yaxshilik va yomonlik, o‘zini ehtiyot qilish kabi fazilatlar bilan birgalikda va jismoniy sifatlami tarbiyalash kayfiyatni oshiriladi. Shu asosda bolalarda hayvonot olamiga bo‘lgan qiziqish, uni asrash kabi his-tuyg‘ular uyg‘onishi mumkin.

3. Mehnat bilan bog‘liq o’yinlar. Inson faoliyati aqliy va jismoniy mehnat bilan belgilanadi. Ularni harakatli o‘yinlar mazmunida ham uchratish mumkin. Aqliy mehnatga doir o‘yinlar turkumiga” “Sanash o‘yinlari”, “Sonlarni yozish va o‘ylab top”, “Ism yoki buyumlami ketma-ket va aralash turib aytish”, “Sakrab qo‘shiq aytish”, “Kim tez rasm chizish”, “Shakllami joylashtirib o‘z holiga keltirish” (shakl yasash) va shunga o‘xshash faoliyatlami aks ettiruvchi o‘yinlar kiradi.

Jismoniy mehnatni aks ettiruvchi harakatli o‘yinlar ham juda ko‘p bo’lib, Ularga “O‘tin yorish”, “Poda to‘p” (cho‘pon), “Qo‘sh haydash” (yerni haydash, chopish), “Osilib chiqish”,

“Tortilish”, “Yuk ko‘tarish”, “Eshak mindi”, ‘Piyoda poyga”, “Poyezd” vaboshqalar kiradi. Ularning mazmunida mehnat qilish yo‘llari, uni bajarish usullari hamda chidamlilikni ifoda etuvchi xislatlar mujassamlashgan.

Umuman olganda, milliy harakatli o‘yinlaming barchasida aqliy va jismoniy mehnatlar uyg‘unlashib, asosan jismoniy barkamollikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

4. Ommaviy madaniy tadbirlar (bayramlar, to‘ylar, turli xil marosimlar, sport musobaqalari va h.k.) da qo‘llaniladigan, yana namoyish va musohaqalashish maqsadida uyushtiriladigan murakkab va oddiy harakatli o’yinlar. Ular tarkibiga kurash elementlari, ot o‘yinlari, ko‘pkari-uloq, poyga, dorbozlik, tosh ko‘tarish, arqon tortishish, yelka urishtirish, “xo‘rozlar jangi” va h.k. kiradi.

5. Jismoniy sifatlami tarbiyalashga xizmat qiluvchi o‘yinlar ham o‘z navbatida turli turkumlurga bo‘linadi. Ularga quyidagilami namuna qilib ko‘rsatish mumkin: tezlikka doir o yinlar: “Qopqon”, “Kim oldin”, “Insiz quyon”, “To‘rt oyoqlab yugurish” (emaklab yugurish), “Hakkalagan qushchalar”, “Uchinchisi ortiqcha”, turli estafetalar va boshqatar; kuchga doir o‘yinlar: “Oq suyak”, “Chillik”,
“Yelkada ko‘pkari”, “Eshakmindi”, “Arqon tortishish”, “Bilak kuchini sinash”, “Qo‘llarda tortilish” va boshqalar; chidamlilikka doir o yinlar: “Oq terakmi, ko’k terak”, “Davradan chiqish”, “Olamon poyga”, “Dorboz”, “Oqsoq qarg‘a”, “Oshiq” (gardkam), “Qilichbozlar”, “Beshtosh”, “To‘qqiz tosh”, “Orqang kuydi”, “Bo‘ta soldi”, “Tortishmachoq”, “Ko‘z bog‘lash”, “Bekinmachoq”, “Kim keldi”, “Zuv-zuv” va boshqa o’yinlar.

Yuqorida nomlari keltirilgan murakkab va oddiy o‘zbek xalq milliy o‘yinlari barcha yoshda kishilaming jismoniy sifatlarini tarbiyalasb bilan birgalikda ularda insoniy fazilatlami ham shakllantirish va ulami yanada takomillashtirishda bevosita xizmat qiladi. Bolalarda epchillik, ixchamlik, abjillik, uddaburonlik, qayishqoqlik kabi xususiyatlarni rivojlantirishda faqat jismoniy tarbiya darslaridagi harakatli o‘ymlar bilan chegaralanib qolmaslik lozim. Ularning bo‘sh vaqtlarida hovli, ko‘cha, maydonlarda erkin ravishda sport o‘yinlari, gimnastika, yengil atletika, kurash kabi sport turlarining elementlari bilan shug‘ullanishlarini ta’minlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, xilma-xil turkumlarga bo‘linadigan harakatli o‘yinlami o‘z vaqtida maqsadli qo‘llash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. T.S.Usmonxaodjayev, A.A.Pulatov, S.S.Tojiboyev, F.A.Pulatov Sport va harakatli o'yinlar (Milliy va harakatli o'yinlar) Cho'lpon nashriyoti-matbaa ijodiy uyi Toshkent -2018 yil.
2. T.S.Usmonxo’jayev, Sh.X.Isroilov, A.A.Pulatov, Sh.A.Pulatov. Milliy va harakatli o’yinlar. Darslik. Toshkent, Iqtisod - moliya. 2015 yil.
3. T.S.Usmonxo’jayev, P.A.Usmonov, X.A.Meliyev, Sh.Shofayziyev 500 harakatli o’yinlar "Bekinmachoq - Plyus". Toshkent -2011 yil
4. Raximqulov K.D. “Milliy harakatli o‘yinlari” O`quv qo`llanma T.2012 y.
5. F.Xo‘jaev, K.D,Raximqulov, B.B.Nigmanov. Harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi. Kasb-hunar kollejlari talabalari uchun o’quv qo’llanma. 2010 yil.

XOTIRA RIVOJLANISHINING MAKTABGACHA TARBIYA YOSH DAVRIDA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kalkonova Lutfiya Yusufovna,
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu tezisda maktabgacha tarbiya davrida qator bilish jarayonlarining intensiv taraqqiyoti kechishi, oliy psixik funksiyalardan diqqat, tafakkur, xotira, tasavvur va boshqa bilish jarayonlari jadal rivojlanishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: xotira, diqqat, psixika, tarbiya, tasavvur, tafakkur.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xotirasi ixtiyorsizligi hamda yaqqol-obrazli xarakterga ega bo‘lishi bilan boshqa yosh davrlaridan ajralib turadi.

Rus psixologi L.S.Vigotskiyning ta’kidlashicha, maktabgacha tarbiya yoshida aynan xotiraning rivojlanishi yetakchi ahamiyatga ega bo‘lib, uning zamirida ko‘rgazmali-obrazli tafakkur shakllanadi. “Xotira – bu aks ettirilgan narsa va hodisalarni, tajribani esda qoldirish, esda saqlash va zarur bo‘lganda esga tushirishdan iborat bo‘lgan psixik jarayondir”.

U.Djeymsning ta’biri bilan aytganda, xotira – bu ongimizga ayni damda bevosita ta’sir etmay qo‘ygan o‘tmishdagi ruhiy holatimiz yoki bizning o‘tmishimizda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, lekin hozirda bizning xayolimizda, o‘y-fikrlarimizda mavjud bo‘lmagan ma’lumotlar haqidagi bilimlarimizdir [20]. Xotira jarayoni bevosita oliy nerv faoliyati bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Nerv sistemasi juda egiluvchan va ta’sirlarga beriluvchan bo‘ladi. Shuning uchun ham bolalarda vaqtli bog‘lanishlar hosil bo‘ladi. Ashula, ritmli she’r, qiziqarli holatlar, xususan, chuqur tasir etadigan narsalar beixtiyor bolaning esida saqlanib qoladi. Nerv sistemasi yengil qo‘zg‘aluvchan bo‘lganligi uchun ilk assotsiatsiyalar beqaror bo‘ladi, yani mustaxkam bo‘lmaydi. Shuning uchun, ham idrok qilingan narsa va hodisalar tez unutiladi. Ayniqsa, bu jarayon maktabgacha tarbiya yoshida ustuvorligi bilan xarakterlanadi.

Jahon psixologlari o‘z tadqiqotlarida 3-4 yoshli bolaning xotirasini kattalarniki singari tuzilishga ega bo‘lishi, lekin funksional jihatdan bir-biridan farq qilishi mumkinligini izohlab berganlar. Bunga eng birinchi sabab sifatida biologik taraqqiyot qonuniyatlarini ko‘rsatib o‘tadilar. Masalan, gippokamp — xotira jarayonlarida faol ishtirok etadigan miya strukturasi taxminan 1-2 yoshdan so‘ng rivojlana boshlaydi. Shu boisdan, inson hayotining birinchi va ikkinchi davrlarida sodir bo‘lgan voqaye va hodisalarning esda qolishi amri maholdir. Kattalar va kichik bolalarning xotirasini fiziologik asoslaridagi yagona va eng muhim farq miya egatchalaridagi izlardir. Chunki, insoniy xotiralarning barchasi mana shu egatchalarning tuzilishi, chuqurligi va miqdoriga qarab belgilanadi.

Avvalgi paragraflardagi nazariy ma’lumotlarning tahlilidan ma’lum bo‘ldiki, maktabgacha tarbiya davridagi xotiraning rivojlanishiga psixologik, ya’ni kognitiv omillarning: diqqat, tasavvur va nutqning shakllanishi o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Bola shaxsi shakllanib, uning nutqi rivojlangani sari bola o‘ziga kerakli narsalarnigina esda olib qoladigan bo‘ladi.

Biz o‘rgangan va tahlil qilgan nazariy, ilmiy ma’lumotlarimizga tayangan holda maktabgacha tarbiya davridagi bolalar xotirasining rivojlanishiga ta’sir etuvchi qator omillarni umumlashtirgan holda to‘rt guruhga birlashtirdik. Bunda, albatta ta’sir etayotgan omillar xotira rivojlanishining qaysi jihatini intensiv ravishda takomillashuviga xizmat qilayotganligi inobatga olindi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xotirasi ixtiyorsiz xarakterga ega bo‘lishiga qaramay, o‘yin faoliyati ta’sirida u anglanganlik darajasiga ko‘tarilib boradi. Ularda xotiraning mexanik (narsa va hodisalarning mazmuniga unchalik e’tibor qaratilmydi) va mantiqiy (narsa va hodisalarning mazmuniga asosiy e’tibor qaratiladi) esda saqlab qolish jarayonlari maktabgacha yosh davri tugallanib, kichik maktab yoshi davri boshlanishi arafasida yaqqol ko‘zga tashlana boshlaydi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarda obrazli xotira (tasavvurlar va turmush manzaralari, shuning bilan birga, tovushlar, ta’mlar, ranglar shakllar, bilan bog‘liq bo‘lgan xotira turidir. Obraz xotirasi deb yaqqol mazmunni, binobarin, narsa, hodisalarning aniq obrazlarini, ularning xususiyatlari va bog‘lanishlarini esda qoldirish, ongda mustahkamlash hamda zaruriyat tug‘ilganida esga tushirishdan iborat xotira turiga aytiladi) jarayoni o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi, ya’ni bolalar eshitganlaridan ko‘ra ko‘proq ko‘rganlarini yaxshi esda olib qoladilar. J.Piajening fikricha, bog‘cha yoshidagi bola aqliy faollikning ikkinchi bosqichida bo‘ladi. 3 yoshdan 6 yoshgacha aqliy taraqqiyot obrazli xotiraga bog‘liq ravishda obrazli tafakkurning shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Maktabgacha yosh davrida xotiraning ikki darajasini funksional o‘zgarishlari kechadi. Yuqori ijtimoiy daraja o‘z tarkibiga quyi elementar darajani bo‘ysundira boshlaydi, lekin shunga

qaramay o‘zining muayyan xususiyatlarini saqlab qoladi. Xotiraning birlamchi darajasiga predmetlarni tanish jarayoni kiradi, bu jarayon maktabgacha yosh davrida jadallik bilan rivojlanadi. Predmetlarni tanish va xotiraning obrazli ko‘rinishi psixikaning elementar, individual xarakteristikasiga mansub bo‘lib, ularning shakllanishi ijtimoiy omillar, eng avvalo, nutqning rivojlanishi bilan bog‘liq. Chunki, bola atrof-muhitni o‘rab turgan predmetlarni nomlash, ya’ni verbalizatsiyalash orqali ularni tanib qoladi va xotirasida saqlaydi, shu orqali esda saqlash ixtiyoriy xarakterga ega bo‘la boshlaydi.

Oliy psixik funksiyalar — murakkab jarayon bo‘lib, ijtimoiy jarayon bilan determinantlangan bo‘ladi. Oliy psixik funksiyalar qatoriga ixtiyoriy xotira, ixtiyoriy diqqat, nutq va boshqalar kiradi. Oliy psixik funksiyalarning rivojlanishi tarixiy - madaniy konsepsiyaning mohiyatiga ko‘ra, avval bolaning atrofidagilar bilan bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi, keyinchalik u individual sohaga ko‘chadi. Bu bevosita maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar xotirasini rivojlanishining ijtimoiy omillarini belgilab, ularning ta’siri bola psixik taraqqiyotida nihoyatda katta ekanini ko‘rsatib beradi.2 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan davr mobaynida oliy psixik jarayonlar, eng avvalo, ixtiyoriy xotiraning rivojlanishi jadal kechadi. Bolalardagi ixtiyoriy xotiraning rivojlanishida tarbiyaning o‘rni beqiyosdir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning narsa va hodisalarni esda saqlab qolishi uning qiziqishlariga ham bog‘liq. Bolalar o‘zlarini qiziqtirgan ma’lumotlarni tezda eslab qoladilar. Bundan tashqari, ular predmet va voqea, hodisalarning mantiqiy mazmuniga emas, balki, ko‘rgazmalilik jihatiga jiddiy e’tibor berib, esda olib qoladilar. Demak, xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maktabgacha tarbiya davridagi xotiraning o‘ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

bu davrda ixtiyorsiz xotira yetakchi bo‘lib, bola shaxsining shakllanishi jarayonida o‘yin faoliyati orqali xotiraning ixtiyoriy turiga o‘tib boriladi;

boladagi nutq, tasavvurning rivojlanishi natijasida obrazli xotira mustahkamlanib boradi;

qolaversa, maktabgacha tarbiya davrida xotiraning rivojlanishiga qator omillar majmui ta’sir etib, ularning yaxlit tizimi bola xotirasining mustahkamligini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bola taraqqiyotini psixologik tashxis qilish. Sunnatova R.I., Irgasheva N.G. tahrirlari ostida. Toshkent: San’at. 2008 156 b.
2. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya. -M.: Yekaterenburg. 1999, -97 s.
3. Andreyev O. Texnika razvitiya pamyati – M.: Omega –L. 2007, S 71-74.
4. Atkinson R. Pamyat i uxod za ney – M.: Progress,1994.

ВОСПИТАНИЕ ЛЮБВИ К ПРЕКРАСНОМУ У ДОШКОЛЬНИКОВ В РАЗВИВАЮЩЕЙ ПРЕДМЕТНО-ПРОСТРАНСТВЕННОЙ СРЕДЕ

Темирова Барно Киемхоновна
Педагогический университет им.Низами
Руководитель: Кандидат педагогических наук, доцент, Гарифуллина Альмира Маратовна

Аннотация В статье рассматривается значение воспитания любви к прекрасному у детей дошкольного возраста через создание развивающей предметно-пространственной среды. Анализируются основные методы и приемы, способствующие формированию эстетического восприятия, творческих способностей и художественного вкуса у дошкольников. Отмечается роль педагога в организации среды и проведении эстетического воспитания.

Annotation The article examines the importance of fostering a love for beauty in preschool children through the creation of a developmental subject-spatial environment. The main methods and techniques contributing to the formation of aesthetic perception, creative abilities, and artistic

taste in preschoolers are analyzed. The role of the teacher in organizing the environment and conducting aesthetic education is highlighted.

Ключевые слова: эстетическое воспитание, дошкольники, предметно-пространственная среда, творчество, художественный вкус, педагогическая методика.

Введение Воспитание эстетического восприятия у детей дошкольного возраста играет важную роль в их гармоничном развитии. Окружающая среда влияет на формирование чувства прекрасного, художественного вкуса и творческих способностей ребенка. Как отмечает В.С. Мухина, "развитие эстетического восприятия у детей начинается с раннего возраста через наблюдение за окружающим миром и художественные впечатления" [Мухина В.С. Психология дошкольника. - М.: Академия, 2010]. Важно создать такую предметно-пространственную среду, которая способствует развитию эстетического восприятия и позволяет детям проявлять себя в творческой деятельности.

Методика воспитания любви к прекрасному Предметно-пространственная среда в дошкольных учреждениях должна быть эстетически привлекательной, насыщенной элементами искусства и природы. Она должна включать:

- Разнообразные художественные произведения (картины, скульптуры, иллюстрации);
- Природные объекты (цветы, композиции из природных материалов);
- Музыкальное сопровождение, создающее гармоничную атмосферу;
- Пространства для творческой деятельности (уголки рисования, лепки, конструирования).

По мнению Л.С. Выготского, "развитие художественного вкуса у детей происходит в процессе активного взаимодействия с искусством и эстетически организованной средой" [Выготский Л.С. Психология искусства. - М.: Искусство, 1986].

Для развития эстетического восприятия у дошкольников педагоги могут использовать различные методы:

1. **Наблюдение и обсуждение**. Рассматривание произведений искусства, обсуждение их содержания, выразительных средств.
2. **Творческая деятельность**. Рисование, лепка, аппликация, художественное конструирование позволяют детям выражать свои впечатления и эмоции.
3. **Музыкальное воспитание**. Слушание классической музыки, знакомство с народными мелодиями способствует развитию музыкального вкуса.
4. **Театрализованные игры**. Инсценировки сказок, драматизация литературных произведений развивают художественное восприятие.
5. **Экскурсии и прогулки**. Посещение музеев, парков, театров знакомит детей с красотой окружающего мира.

Результаты исследования. В результате проведенного исследования выявлено, что формирование предметно-пространственной среды, насыщенной эстетическими элементами, способствует развитию у дошкольников художественного вкуса, эмоциональной отзывчивости и творческих способностей. Дети, находящиеся в такой среде, проявляют больший интерес к искусству, более активно участвуют в творческой деятельности и демонстрируют высокий уровень эстетического восприятия. По данным исследования А.В. Запорожца, "развитие эстетической культуры в раннем детстве является важным фактором формирования личности" [Запорожец А.В. Развитие эстетического восприятия у детей. - М.: Педагогика, 1995].

Заключение. Развитие любви к прекрасному у дошкольников через предметно-пространственную среду – важная задача педагогов и родителей. Гармонично оформленная, насыщенная эстетическими элементами среда способствует формированию художественного вкуса, творческого потенциала и эмоциональной отзывчивости детей, помогая им вырасти чуткими к красоте окружающего мира. Организация эффективного

эстетического воспитания требует комплексного подхода, включающего взаимодействие педагогов, родителей и окружающей среды.

Используемая литература

1. Выготский Л.С. Психология искусства. - М.: Искусство, 1986.
2. Запорожец А.В. Развитие эстетического восприятия у детей. - М.: Педагогика, 1995.
3. Мухина В.С. Психология дошкольника. - М.: Академия, 2010.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность, сознание, личность. - М.: Наука, 1975.
5. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. - М.: Интуит, 2004.

TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PSIXOLOGIK MEXANIZMLARNING ROLI

Samarqand Davlat Chet tillar institute mustaqil tadqiqotchisi.
Nurboboyev Shokir Baynazarovich

Annotatsiya: ushbu maqola ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimlarini takomillashtirishda psixologik va motivatsion omillarni integratsiyalashni o'rganadi. Tadqiqotda yetakchilik kompetensiyalari, emotsional barqarorlik, kommunikatsiya va strategik innovatsiyalar, shuningdek, Hersey va Blanchardning situatsion yetakchilik nazariyasi va partisipativ boshqaruv yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Maqola boshqaruv tizimlarida motivatsiya va psixologik qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: ta'lim muassasalarini boshqarish, psixologik mexanizmlar, motivatsiya, yetakchilik uslublari, partisipativ boshqaruv, emotsional barqarorlik, strategik yondashuv.

РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация: в статье рассматривается интеграция психологических и мотивационных факторов в совершенствовании систем управления в образовательных учреждениях. В исследовании рассматриваются лидерские компетенции, эмоциональная стабильность, коммуникация и стратегические инновации, а также теория ситуационного лидерства Херси и Бланшара и подходы к управлению на основе участия. В статье подчеркивается важность мотивации и психологической поддержки в системах управления.

Ключевые слова: управление образовательными учреждениями, психологические механизмы, мотивация, стили лидерства, партисипативное управление, эмоциональная устойчивость, стратегический подход.

THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL MECHANISMS IN INCREASING MANAGEMENT EFFICIENCY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation: this article examines the integration of psychological and motivational factors in improving management systems in educational institutions. The research examines leadership competencies, emotional stability, communication, and strategic innovation, as well as Hersey and Blanchard's situational leadership theory and participative management approaches. The article emphasizes the importance of motivation and psychological support in management systems.

Keywords: management of educational institutions, psychological mechanisms, motivation, leadership styles, participatory management, emotional stability, strategic approach.

Ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimini samarali tashkil etish nafaqat tashkiliy va texnik omillarga, balki psixologik mexanizmlarga ham tayanadi. Boshqaruv samaradorligi pedagoglar, o'quvchilar, rahbarlar va ota-onalar o'rtasidagi psixologik muhit, motivatsiya va o'zaro muloqot sifatiga bog'liq. Sog'lom psixologik muhitni shakllantirish ishonch, hurmat va hamkorlik ruhini kuchaytirib, ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Motivatsiya tizimining to'g'ri shakllantirilishi pedagoglarning ishga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi va kasbiy o'sishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi. Bunda rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi. Rahbarlarning psixologik

yetukligi, muloqot madaniyati va stressga chidamliligi jamoaviy muhitni barqarorlashtiradi va innovatsion o‘zgarishlarga zamin yaratadi.

Stress omillarini kamaytirish va psixologik moslashuvni oshirish uchun psixologik maslahatlar, trening mashg‘ulotlari muhim ahamiyatga ega. Jamoada ijobiy muhit yaratish, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish va jamoaviy ishlash madaniyatini shakllantirish boshqaruv tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, psixologik baholash tizimlari orqali pedagog va talabalarning psixologik holatini aniqlab, mos yondashuvlarni ishlab chiqish mumkin. Psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimining kuchaytirilishi boshqaruv samaradorligini oshirib, jamoaning psixologik farovonligini ta’minlaydi.

Respublikamizda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va huquq-tartibot sohalardagi tub o‘zgarishlar ko‘p jihatdan oliy ta’lim muassasalari rahbarlarini o‘rganish bo‘yicha amalga oshiradigan tadqiqot ishlariga mukammal ravishda tayyorgarlikka ega bo‘lishi uchun yaratib berilayotgan barcha shart-sharoitlar davlatimiz siyosatidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

XXI asr axborot texnologiyalari asri deya e’tirof etilmoqda. Ammo qaysi asr, qanday davrda inson omili o‘zining muhimligi bilan o‘zgacha qiyofa kasb etadi. Ishlab chiqarish jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan ayni bir paytda inson resursidan unumli foydalana olish uchun uning ruhiyati, hayot tarzi va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda boshqaruvni yo‘lga qo‘yish zamonaviy rahbar oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Boshqaruv uslubida an’anaviy (liberal, demokratik va avtoritar) yondashuvdan tashqari, zamonaviy g‘oyalar ta’sirida yuzaga kelgan bir qator uslublar yaratildiki, buning natijasida xodim va rahbar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik paydo bo‘ldi. Shu munosabat bilan situativ ya’ni, vaziyatga oid rahbarlik uslubi haqida ma’lumot berib o‘tishni lozim deb topdik. Bu g‘oya boshqaruv sohasidagi olimlar P.Xersi va K.Blanded tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, boshqaruvning u yoki bu uslubini qo‘llash xodimlar va jamoaning ruhiy tomondan rivojlanganligiga, kasbiy barkamolligiga bog‘liqdir. Ruhshunoslarning fikricha, mutaxassisning malakasi qanchalik yuqori bo‘lsa, rahbar uni shunchalik kamroq boshqarishi va hissiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi talab etiladi va aksincha, xodim qanchalik yuqori malakaga va ruhiy yetuklikka erishgan bo‘lsa, rahbarning nazorati va boshqaruviga shunchalik kamroq zarurat tug‘iladi.

Xizmatga yo‘nalganlik yoki xodimlar bilan munosabatga yo‘nalganlik asosida besh xil boshqaruv uslubi farqlanadi. Tashkilot boshqaruvidagi yana bir uslub – partisipativlik deb atalib, unda rahbarning tashkilot maqsadiga erishish yo‘lida xodimlar bilan gorizontal yo‘ldagi munosabatlarni rivojlantirishi tushuniladi. Bu uslub rahbarning quyidagicha xulqida namoyon bo‘ladi:

1.Rahbarning xodimlar bilan muntazam fikr almashuvi.

2.Rahbar va xodim munosabatidagi ochiqlik va samimiylik.

3.Xodimlarning tashkiliy qarorlar qabul qilishga jalb etilganligi.

4.Rahbar o‘z burch va huquqlarining ma’lum qismini xodim zimmasiga yuklatadi.

5.Tashkilot vazifalarini rejalashtirish va amalga oshirishda xodimlarni jalb etish.

6.Mustaqil qaror qabul qila olish huquqiga ega bo‘lgan maxsus guruhlar tuzish (masalan, “sifat nazorati guruhi”).

Rivojlangan mamlakatlar rahbarlari quyidagi hollarda partisipativlik strategiyasiga murojaat etadilar:

- Xodimlar saviyasining yuqoriligi sharoitida, qaror qabul qilishni asta-sekin markazlashmagan tarzda amalga oshirish maqsadida.
- Qaror samarali ijro etilishi zaruriyatida (yaponiyaliklar qarorni sekin qabul qilishadi, lekin qaror ijrosi juda tez amalga oshiriladi).
- Quyi bo‘g‘in Rahbarlari va xodimlar malakasini oshirish mexanizmi yaratilganda.
- «Yangiliklarni joriy etish » yuzasidan takliflarni ko‘paytirish maqsadida.

Xo‘sh, qanday vaziyatda ushbu uslubni qo‘llash qulay? Amerikalik tadqiqotchilar B.Bass va D.Baretta fikricha, bunday vaziyatda uch omilni hisobga olish lozim: birinchidan – rahbar shaxsini, ikkinchidan – xodimlarni, uchinchidan – guruh oldida qanday vazifalar turganligini.

Zamonaviy boshqaruv uslublarini ko‘rib tahlil etar ekanmiz, “qaysi uslub yaxshi?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bunga javoban aytamizki, rahbar uslubdan yuqorida turishi lozim, u uslublarni yuqoridan “tomosha” qila olishi va vaziyatga muvofiq keladiganini tanlab qo‘llay olishi lozim. Demak, zamonaviy boshqaruvning mahorati – jamoaning maqsadga intilishini ta’minlashdir. Rahbar esa o‘z xodimlari uchun hamisha yaxshi do‘st bo‘lib qolishi zarur.

Rahbarlik qilish malakalarining zaifligi. Rahbarlik muayyan tuzilishga o‘zaro bog‘liqlikka ega bo‘lgan murakkab shaxslararo munosabatni maqsadga muvofiq amalga oshirishdir. Bundan tashqari, moliyaviydan boshlab to tarbiyaviygacha funksiyalarni bajarish, buning uchun esa ma’lum kasbiy malakalarni lozim bo‘lmasligi, ularning zaifligi, rahbarlikni qiyinlashtiradi. Boshqarish, o‘qitish, ularga saboq berish, o‘qitish o‘quvining yo‘qligi. Maktab rivojini ta’minlash kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish muayyan bilim hamda ko‘nikmalar bilan qurollantirishga ko‘p jihatdan bog‘liq. Rahbar o‘z tajribasini yoshlarga o‘rgatmas ekan, demakki, vorislik tamoyili buziladi, muayyan malakalarni ularda shakllantirmaslik istiqbolga ko‘r-ko‘rona yondashishni yuzaga keltiradi bilimlar bilan ularni qurollantirmaslik esa ravnaq opishiga to‘sqinlik qilqdi. Mehnat jamoasini jipslashtirish qobiliyatining quyi darajada ekanligi. Jamoada psixologik iliq muhit, o‘zaro yordam, do‘stlik, o‘zaro moslik, ahillik, totuvlik, o‘zaro tushunuv simpatiya singari his-tuyg‘ularning barqaror majmuasini o‘zida aks ettiradi. Jamoa fikri, guruhiy intilish, jamoaviy ong, tafakkur, umumiylik o‘rtasidagi moslik, shaxslararo munosiblik psixologik muhitning tarkibiy qismidir.

Yangiliklar bilan o‘zgalarni o‘ziga jalb qilishga uquvsizligi. Rahbarda yangi g‘oyalar tug‘ilishi bilan muayyan maqsadlar vujudga kelishi mumkin, lekin u ana shu narsalar bilan o‘zgalarni jalb eta olmasligi boshqaruv san’ati zaifligini bildiradi. Buning uchun “o‘zini reklama” qilishdan or qilmaslik lozim.

Odamlar bilan muomalaga kirishish jarayonida dilkashlik, ibolilik va nazokatlilik yo‘qligi. Rahbar etnopsixologik xususiyatlarga ega bo‘lishi orqali dilkashlilik, ibolilik va nazokatlilik fazilatlariga ega bo‘ladi. Milliy qiyofa milliy ong, milliy xarakter, milliy his-tuyg‘u, milliy shaxslararo munosabat bilan qurollanish orqali ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Aql-idrok va farosat bobida sustlashadi. Rahbarlik lavozimiga toyilish yoki ko‘tarish jarayonida shaxsning aql-idroq fahm-farosati hisobga olinadi. Chunki, yaxshi rahbar maktabning 50% kuchidir. Bilimdonlik, iste’dodlilik, aql – zakovatlilik rahbarning muhim xususiyati ekanligini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq.

Ishbilarmon qobiliyatining kuchsizligi. Hozirgi zamon rahbari ishbilarmon, uddaburon, teran fikrli, o‘ta sinchkov shaxs bo‘lishi lozim. Favquloddagi o‘zgarishlarga tez munosabatga kirishishmasdan turib, muayyan yutuqlarga erishish mumkin emas. Shuning uchun bozor iqtisodiyotiga moslashuvchi marketing xususiyatlarni shakllantirgan insonlargina rahbarlikni uddalay oladi xolos. Mazkur qobiliyatning kuchsizligi boshqaruv imkoniyati mavjud emasligini bildiradi. Har qanday vaziyat va holatdan muvaffaqiyatli chiqib olish ishbilarmonlikni taqozo etadi.

Rahbar faoliyatining nuqsonlari va ularni bartaraf etish yo‘llari. Keyingi yillarda to‘plangan materiallar tahlilining ko‘rsatishicha, rahbar faoliyatida bir qator nuqsonlar mavjuddir. O‘zini o‘zi boshqarish imkoniyatiga ega emasligi. Rahbar kadr o‘z faoliyatini rejalashtira olmaslik, o‘zini o‘zi nazorat qila bilmasligi, o‘zini o‘zi baholash imkoniyatiga ega emasligi, o‘ziga o‘zi buyruq berish, o‘zini o‘zi takomillashtirish, o‘z aqliy va jismoniy zaxiralarini o‘zi ro‘yobga chiqarish imkoniyati yo‘qligi tufayli o‘zini o‘zi boshqara olmaydi. O‘zini o‘zi boshqarishning ikki tomoni mavjud bo‘lib, uning bittasi xulq-atvorni, ikkinchisi esa bilimni jarayonda, ya’ni fikrlash, fahmlash idrok qilishni o‘zida aks ettiradi. Aql – zakovatning zaifligi, xotiraning bo‘shlig‘i, irodaning kuchsizligi,

qat’iyatsizlikning yetishmasligi oqibatida jamoa a’zolari o‘rtasida rahbarning nufuzi pasayadi, kundan-kun qadr-qiymati yo‘qola boradi.

Shaxsiy qadriyatlarga putur yetganligi. Birinchi navbatda rahbar muayyan qadriyatlari bilan jamoa o‘rtasida “Men”ining individualligini namoyish qiladi. Mavjud qadriyatlarga moslashgan maktab muassasa xodimlari rahbarni avvalo shaxs-subyekt sifatida tan oladilar. Soxta bilimdonlik, kibr-u havo, o‘z “Men”ini super “Men”ga aylantirishi, boylikka hirs qo‘yishi adolatli qarorlardan voz kechish singari illatlar paydo bo‘lishi natijasida rahbarning qadriyatlarga nisbatan munosabati o‘zgaradi. Bu o‘zgarishlar, munosabatlar jamoa a’zolari tomonidan ekspert sifatida baholanadi, ularning boshliqqa nisbatan munosabati zaiflashadi, unga e’tiqodi pasayadi.

Shaxsiy maqsadning noaniqligi. Rahbar lavozimni egallagandan keyin ulug‘vor va bosh maqsad belgilaydi, qadam – baqadam ularni amaliyotga tatbiq qilish uchun muayyan sa’y-harakatlarni amalga oshiradi. Faoliyatda faollik, aniqlik, sobitqadamlik, maqsadga muvofiq intilish ustuvorlik qiladi. Lekin, ayrim obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra, maqsadning ulug‘vorligi yo‘qola boradi, aniq xatti-harakatlar miqdori kamayadi, rejali faoliyat tashkil qilish imkoniyati tobora torayadi. Maqsadning noaniqligi, to‘g‘risi uning yo‘qligi maktab ravnaqini paymol qiladi, yuzaki intilishlar mavjudligini namoyish etadi xolos.

Umumiyatga qaratilgan maqsad – ko‘pincha shaxsiyatga yo‘naltiradi, oqibatda “Biz” bilan “Men” o‘rtasida qarama-qarshilik vujudga keladi. Rahbar bilan jamoa o‘rtasida nizo, ziddiyatli va mojaroli vaziyatlar vujudga keladi hamda ularni bartaraf qilish uchun qancha aqliy kuch-quvvat sarflanadi.

O‘zini – o‘zi kamol toptirishning izdan chiqqanligi. Rahbar o‘zini o‘zi tarbiyalash, o‘zini o‘zi kamol toptirish, mustaqil bilim olish, ma’naviy dunyosini uzluksiz ravishda takomillashtirish ustida sa’y – harakat qilsa, demakki, uning istiqboli porloq. Lekin, uning faoliyatini nazorat qilmaslik, baholamaslik, rag‘batlantirmaslik kabi omillar o‘z ustida ishlashni pasaytiradi, lavozimiga nisbatan sovuqqonlik, loqaydlik illati namoyon bo‘ladi. Shu sohada va tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan hamkasblarining maslahatlari, ishga munosabatlari uni sustkashlashtiradi, asta – sekin faollik yo‘qola boradi.

Muammolarni hal qilish malakalarining yetishmasligi. Ishlab chiqarishda har xil xususiyatli muammolar tinimsiz ravishda namoyon bo‘lib turadi. Notanish, yangi nostadart yondashishni taqozo etuvchi, yangicha yechimni talab qiluvchi, ijodiylikka asoslanuvchi vositalar bilan qurollanish rahbarning bosh vazifasi hisoblanadi. Yangi texnologiya, yangicha jihozlash, original qurilmalar, kompyuterlarning yangi modellari, universal elektr hisoblash mashinalari rahbardan ular bilan munosabatga kirishish malakalarini egallashni taqozo etadi. Malakalarga ega bo‘lmaslik rahbarni taraqqiyotdan orqada qolishga olib keladi. O‘z – o‘zidan ma’lumki, zamondan orqada qolgan qoloq rahbar maktab uchun hech qanday ahamiyat kasb etmaydi.

Ijodiy yondashuvda nuqsonlarning mavjudligi. Bozor iqtisodiyoti ijodiy izlanishni taqozo etadi, hamisha yangi texnologiya ishlab chiqishni talab qiladi. Ijodiy fikrlash, ijodiy rejalar, ulug‘vor g‘oyalar zamon ruhi bilan hamohanglikda bo‘lishi lozim. Ijodiy yondashuvdagi nuqson ham ma’naviy, ham iqtisodiy zarar keltiradi. Yangilikni sinab ko‘rish, uning samaradorligini hisoblash, istiqboli yuzasidan qat’iy qarorga kelish, bu sohada yanglishishlarga yo‘l qo‘ymaslik maktab faoliyatini takomillashtiradi, jamoa a’zolari kayfiyatini ko‘taradi, iqtisodiy foyda olishni ta’minlaydi. Ijodiylik rahbar shaxsiyatiga begona bo‘la boshlar ekan, demakki, nuqsonlar yuzaga keladi, boshqaruv sifati zaiflashadi, sifat pasayadi, ijtimoiy psixologik muhit buziladi.

Odamlarga ta’sir o‘tkazishni uddalay olmasligi. Rahbarning salohiyati, umuminsoniy madaniyati muomala maromini o‘zlashtirganlik, notiqlik san’atini egallaganlik, shaxsiy fazilati, mustahkam irodasi, rostgo‘yligi, g‘amxo‘rligi, ishchanligi kishilarga ta’sir o‘tkazishning asosiy omillari hisoblanadi. Obro‘- e’tiborning pasayishi, nutqiy nuqsonlar, iqtisodiy munosabatlarni hal qila olmaslik, qat’iyatsizlikning zaiflashuvi xulq-atvordagi tobe kishilarga ta’sir o‘tkazish darajasini keskin tushirib yuboradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, ta’lim muassasalarida boshqaruv tizimini samarali tashkil etish psixologik mexanizmlarining to‘g‘ri qo‘llanilishiga bevosita bog‘liq, shu bois, sog‘lom psixologik muhit, motivatsiya, yetakchilik, emotsional barqarorlik va ishtirokchilik asosidagi boshqaruv uslublari ta’lim sifati va jamoaviy muvozanatni ta’minlaydi. Hersey va Blanchardning situativ yetakchilik nazariyasi hamda boshqaruv matritsasi kabi zamonaviy yondashuvlar rahbarning holatga moslashuvchan va psixologik jihatdan yetuk bo‘lishini talab etadi. Shu bilan birga, rahbarlarda muloqot madaniyati, innovatsion fikrlash va o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatining shakllanganligi muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, ta’lim tizimida samarali boshqaruv — bu faqat texnik va tashkiliy yechim emas, balki chuqur psixologik asoslangan yondashuvdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Andreyeva, G. M. (2004). Psikhologiya rukovodstva [Leadership Psychology]. Moskva: Akademiya.
2. Bazarov, T. Y. (2003). Psikhologiya motivatsii [Psychology of Motivation]. Tashkent: Universitet.
3. Petrovsky, A. V. (1995). Psikhologiya liderstva [Psychology of Leadership]. Sankt-Peterburg: Rech.
4. Gordeyev, A. A. (2001). Sotsial’naya psikhologiya i motivatsiya [Social Psychology and Motivation]. Moskva: Aspekt-Press.
5. Bayer, V. (2007). Innovatsionnye tekhnologii v obrazovanii [Innovative Technologies in Education]. Moskva: VINITI.
6. Hersey, P., & Blanchard, K. H. (1982). Management of Organizational Behavior: Utilizing Human Resources. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
7. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence. New York: Bantam Books.

AUTIZM SPEKTR BUZILISHLARI: ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR

Fozilova Mavluda
Samarqand davlat unversiteti Kattaqurg’on filliali talabasi

Annotatsiya: So'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab autizm spektrining buzilishi (ASD) bo'lgan bolalar soni tez sur'atlar bilan o'sishda davom etmoqda. Hech kim kasallikning aniq sabablarini yoki bu muammoni bartaraf etishga qanday kafolat berishni bilmaydi. Faqat bir narsa aniq: kasallik qanchalik erta aniqlansa, bolaning xatti-harakatlarini to'g'rilash, uni jamiyat hayotiga moslashtirish va boshqalar bilan normal munosabatda bo'lish imkoniyati shunchalik katta bo'ladi. Bunday odamlarning qanday xususiyatlarini hisobga olish kerak va qanday ish usullarini tanlash kerak - biz maqolamizda tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar:Autizm,ASD belgilari, Pecs kartalari,gipporterapiya,sensorli integratsiya,turish terapiyasi,ABA terapiyasi

Autizm - bu psixopatologik holat bo'lib, u "o'z-o'ziga chekinish" va tashqi dunyo - odamlar, narsalar, hodisalar bilan o'zaro ta'sirning buzilishi bilan tavsiflanadi.

"Autizm" atamasi ("autismus": yunoncha autos - o'z-o'zidan) 20-asr boshlarida shveytsariyalik psixiatr Eugen Bleuler tomonidan kiritilgan. To'g'ri, dastlab bu so'z shizofreniyaning asosiy belgilaridan birini bildirgan.

"Autizm" tushunchasi o'zining zamonaviy ma'nosiga keyinchalik, 1938 yilda yaqinlashdi. Avstriyalik psixiatr Xans Asperger "autistik psixopatiya" deb atagan bolalarning o'zini do'stlashtira olmaslik, boshqa odam bilan empatiya qila olmaslik, g'alati bema'ni harakatlar va bir tomonlama qiziqishlarda namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari. Shu bilan birga, o'g'il bolalar etarlicha rivojlangan nutq va yuqori darajadagi aqlga ega edilar, shuning uchun olimning o'zi ularni "kichkina professorlar" deb atagan. Keyinchalik bu sindrom Asperger sharafiga nomlanadi.

Kasallikning birinchi ta'rifi muallifi amerikalik psixiatr Leo Kanner bo'lib, u xuddi shunday alomatlari bo'lgan 11 bolani o'rgangan - "autistik yolg'izlik", yolg'izlik istagi, harakatlar monotoniyasiga bo'lgan ehtiyoj. Shuningdek, u "erta bolalik autizmi" tushunchasini kiritdi.
Bugungi kunda mutaxassislar "autizm" tashxisi o'rniga "autizm spektrining buzilishi" (ASD) iborasini ishlatishadi. Ushbu kontseptsiya bir vaqtning o'zida bir nechta patologik sharoitlarni birlashtiradi:

- autizm (yoki Kanner sindromi);
- bolalikdagi parchalanish buzilishi;
- nospetsifik keng tarqalgan rivojlanish buzilishi (yoki atipik autizm);
- Asperger sindromi;
- Rett sindromi.

Ikkita autistik odamda kasallikning aynan bir xil kechishi yo'q. Buzilish engil bo'lishi mumkin va boshqalar uchun deyarli sezilmaydi, bu o'zini muloqotda g'alatiliklar, tezkor, formulali nutq yoki cheklangan qiziqishlar shaklida ma'lum qiladi. Autizmning og'ir shakli aqliy zaiflik, ma'nosiz, takroriy harakatlar va mutelik bilan birga bo'lishi mumkin.

ASD belgilari

1. Tashqi dunyodan izolyatsiya.
2. Boshqalar bilan aloqani saqlab qolish zarurati yo'qligi.
3. Ta'sirli blok (boshqa odam, shu jumladan qarindoshlar bilan sodir bo'layotgan voqealarga befarqlik).
4. Jonli va jonsiz narsalarga nisbatan xuddi shunday xatti-harakatlar.
5. Eshitish va vizual ogohlantirishlarga etarlicha aniq reaktsiya (psevdokarlik, psevdoko'rlik).
6. Stereotipik xatti-harakatlar: atrofdagi dunyoni o'zgarishsiz saqlash zarurati (bir xil marshrut bo'ylab yurish, ob'ektlarni qat'iy belgilangan tartibda joylashtirish), har qanday o'zgarishlardan qo'rqish, takrorlanadigan monoton harakatlar - stereotiplar (stulda tebranish, barmoqlar bilan skripka).
7. Bolalar uchun odatiy o'yinlar o'rniga pufakchalar, kalitlar, arqonlar va ba'zan hatto o'yinchoqlar bilan stereotipik manipulyatsiyalar mavjud. Autizmli bolalar go‘yo jodu ta’siri ostida bir piyoladan ikkinchisiga suv quyish, mashinani oldinga va orqaga aylantirish uchun soatlab vaqt sarflashlari mumkin va to‘xtab, boshqa narsaga o‘tishga harakat qilganda ular qichqiradi, yig‘laydi va faol norozilik bildiradi.
8. O'ziga xos vizual xulq-atvor: odamlarni yoki o'tmishdagi odamlarni ko'rish, chayqalish (bola "ko'z-ko'z" nigohiga dosh berolmaydi), vizual diqqat markazida ko'rish maydonining chetiga o'tkaziladi.
9. Yolg'iz qolish istagi.

Autizmli bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari

Autistik kasalliklarning rivojlanishiga turtki markaziy asab tizimining noto'g'ri ishlashidir, shuning uchun buzilishlar barcha kognitiv funktsiyalarga ta'sir qiladi - diqqat, xotira, fikrlash, nutq, shuningdek, bolaning hissiy, intellektual, motor sohalari, uning sezgirligi. Ko'pincha autizm belgilari uch yoshgacha bo'lgan bolalarda aniqlanadi. Birinchi ogohlantirish belgilari odatda chaqaloqlik davrida paydo bo'ladi. Masalan, chaqaloq kuchli ogohlantirishlarga zaif munosabatda bo'ladi, onasi uni ovqatlantirish uchun ko'targanida deyarli befarq qoladi va yuzida qoniqarli ifoda bilan mazali tushlik uchun "minnatdorchilik" bildirmaydi. Ammo zaif tirnash xususiyati beruvchilar, aksincha, unda butun hissiyotlar bo'ronini keltirib chiqaradi. Shu sababli, ota-onalar bolaning xatti-harakatiga ayniqsa ehtiyot bo'lishlari, yosh normasiga xos bo'lmagan barcha g'alati, shubhali daqiqalarni qayd etishlari muhimdir.

Autizmli bolalarning rivojlanish xususiyatlari qanday:

- Bolaning qichqirishi va qichqirishi yo'q yoki zaif ifodalangan.
- Bola o'z ismiga javob bermaydi, gapirmaydi va og'zaki ko'rsatmalarni qabul qilmaydi.

• Ikki yoshli bolaning so'z boyligi juda cheklangan bo'lib, uch yoshga to'lganda u iboralar yoki jumlalarni tuza olmaydi.

• Nutq butunlay yo'q bo'lishi yoki buzilishlar bilan rivojlanishi mumkin.

• Bola teginish bilan aloqa qilishdan qochishga harakat qiladi, ko'zlarga qaramaydi, tabassum qilmaydi, o'z his-tuyg'ularini bildirmaydi va boshqalarning his-tuyg'ulariga munosabat bildirmaydi, hamdardlik bildirishni bilmaydi, yolg'izlikka intiladi.

• Otistik bola yangi narsalarga befarq, o'yinchoqlarga qiziqmaydi.

• Ehtimol, oziq-ovqatga ehtiyotkorlik bilan yoki hatto jirkanch munosabatda bo'lish va aksincha, ongli yoshda yeyilmaydigan narsalarni eyishga urinish.

• Bola xavfni etarli darajada idrok eta olmaydi: u atrofga qaramasdan yo'l bo'ylab yugurishi yoki eng kichik shovqindan boshpana izlashi mumkin. • ASD bilan og'rigan bolalarda vosita rivojlanishi buzilgan: ularning qo'llari va oyoqlari muvofiqlashtirilmagan, ularning harakatlari noqulay, lekin ular odatdagidek muayyan harakatlarni takrorlashlari mumkin - tebranish, aylanalarda yugurish, qo'llarini silkitish.

• Otistik odamlar kosmosda harakat qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

• Qat'iyat va diqqatni jamlash bilan bog'liq muammolar ko'pincha paydo bo'ladi, ammo impulsivlik jadvaldan tashqarida bo'lishi mumkin.

• Yomon xotiraga qaramay, ASD bilan og'rigan bolalar uzoq vaqt davomida ular uchun muhim bo'lgan ba'zi daqiqalarni eslab qolishadi.

• Autizmli bolalar aniq fikrlashga moyil, ular sabab-oqibat munosabatlarini tushunmaydilar va ular egallagan ko'nikmalarni boshqa vaziyatga o'tkaza olmaydilar.

• Nazorat qilish uchun har qanday urinishlar - bu ko'rsatmalar, mashg'ulotlar yoki qo'shma harakatlar, odatiy harakatlar algoritmini o'zgartirish - salbiy reaktsiyaga olib keladi, shu jumladan tajovuzkorlik portlashi.

Autizmli bolalarni o'qitish usullari

Otistik kasalliklarning namoyon bo'lish spektri har bir alohida holatda keng va noyobdir. Kichkintoyning barcha xususiyatlarini bilish mutaxassisga o'zining xulq-atvori profilini yaratishga imkon beradi, bu texnikalarni, tuzatish va o'qitish usullarini tanlashga yordam beradi va maxsus bolaning atrofdagi dunyoga moslashishini osonlashtiradi.

PECS kartalari

Autizm spektrining buzilishi bo'lgan bolalar jim bo'lishadi - ular ularni nima bezovta qilayotganini, nimaga muhtojligini yoki ularni nima bezovta qilayotganini ayta olmaydi. Bu begonalar bilan muloqotni juda qiyinlashtiradi. Tushunmovchilikka duch kelganda, autizmli odamlar taranglashadi, asabiylashadi, isterik bo'lishni boshlaydilar va tajovuzkorlik portlashlari bo'lishi mumkin. PECS kartalari og'zaki bo'lmagan bolani boshqa odamlar bilan muloqot qilishni o'rgatishda yordam beradi .

Picture Exchange Communication System (PECS) kartaga asoslangan muqobil aloqa tizimi 1980-yillarning oxirida doktor Endryu Bondi tomonidan ishlab chiqilgan.

Rasmlar bilan kartalardan foydalangan holda, bola asosiy muloqot qobiliyatlarini egallaydi - u biror narsa bilan muloqot qilishi, so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan narsani so'rashi, atrofidagi ob'ektlarning nomlarini, muayyan harakatlarni tasvirlash uchun qanday so'zlar ishlatilishini eslay oladi va unga qaratilgan so'rovlarni tushuna boshlaydi.

Kartalar bilan ishlash 6 bosqichda tuzilgan:

1. Chaqaloq evaziga kerakli narsani olish uchun "aloqa sherigiga" kartani topshirishni o'rganadi. "Peri" bolani boshqaradi, lekin uning tashabbus ko'rsatishiga to'sqinlik qilmaydi.

2. Maqsadga erishish yo'li - kerakli ob'ektni olish - yanada murakkablashadi: bola turishi, kartani olishi, aloqa sherigiga borishi va ob'ekt uchun tasvirni "almashtirishi" kerak.

3. Bola kartalar uning atrofidagilarga ta'sir qilishini tushundi. Endi u tanlashni o'rganishi kerak - birinchi navbatda u nimani olishni xohlasa va nima istamaydi (konfet yoki shlyapa), keyin - bir xil toifadagi ikkita ob'ekt (masalan, konfet va olma).

4. Bola "gaplar" qurishni o'rganadi, masalan, "Men shirinlik istayman". Buning uchun u mos keladigan rasmlarni lenta yoki Velcro chizig'iga yopishtirishi kerak, so'ngra bu chiziqni kerakli narsaga almashtirishi kerak. Keyin talabaning "so'z boyligi" boyitiladi: unda ta'riflar paydo bo'ladi - ob'ektning rangi, shakli yoki hajmini yoki tana qismini bildiruvchi sifatlar. "Iboralar" 3-4 belgigacha uzaytiriladi.

5. Bola rasmlar yordamida nimani xohlashini "tushuntirishni" o'rgangandan so'ng, "Siz nimani xohlaysiz?" Degan savolga reaktsiyalarni o'zlashtirish vaqti keldi.

6. Vazifa - nima sodir bo'layotganini sharhlashni o'rganish, avval "Siz nimani ko'ryapsiz?" Degan savolga javob berish, keyin o'z-o'zidan. Natijada, chaqaloq "Men xohlayman", "Men ko'raman" iboralarini shakllantirishi va "Nima istaysiz?", "Nima ko'ryapsiz?" Degan savollarga javob berishi va eng muhimi, ular orasidagi farqni aniqlay oladi. To'g'ri ijro maqtov bilan mustahkamlanadi.

Shunday qilib, autistik bola asta-sekin boshqalar bilan muloqot qilishni o'rganadi. Rasmlar unga so'zsiz fikr-mulohazalarni qabul qilish va berishga yordam beradi.

Ushbu usulning afzalliklari: kartalar asosiy muloqot ko'nikmalarini tezda o'zlashtirishga yordam beradi, ASD bilan og'rigan bolani tashabbus ko'rsatishga o'rgatadi, so'zlarni o'z-o'zidan talaffuz qiladi va boshqa odamlar bilan muloqotni unga qulayroq qiladi.

Sensorli integratsiya-Otistik odamlarda sensorli tizim funktsiyalari buziladi, ular ma'lumotni idrok etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi va tashqi ogohlantirishlarga nisbatan sezgirlik chegarasi oshadi yoki kamayadi. Ma'lum bo'lishicha, ularning sezgi organlari xuddi o'chirilgan - miya ular uzatadigan ma'lumotni shunchaki idrok etmaydi va qayta ishlay olmaydi. Sensorli integratsiya usuli buni tuzatishga yordam beradi. Tashqi tomondan, bunday harakatlar o'yinga o'xshaydi, masalan:

- Kaftingiz va tanangizning boshqa qismlarini qalam yoki barmoq bilan kuzatib boring.
- Ko'zlaringiz bilan narsalarning harakatini yoki chiroq nurini kuzatib boring.
- Onam orqasiga, oshqozoniga yoki kaftiga qanday xat yozganini taxmin qiling.
- Kauchuk lampalarni siqib oling.
- Katta to'plarga mining.
- Shakllarni nusxalash.
- Barmoqlaringiz bilan chizish.

Ushbu oddiy mashqlar miyani tashqi ogohlantirishlarga to'g'ri javob berishga o'rgatadi. Markaziy asab tizimi, o'z navbatida, nutqning rivojlanishiga, harakatlarni muvofiqlashtirishga va e'tiborga ta'sir qiluvchi hissiy sezgilarni birlashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bunday "trening" ayniqsa, autizm spektrining buzilishi 3 yoshdan oldin aniqlangan hollarda muhimdir.

Gippoterapiya-Otlar bilan muloqot autizmli odamlarning holatiga foydali ta'sir ko'rsatadi. Gippoterapiya psixomotor sohaning rivojlanishini rag'batlantiradi - harakatlarni muvofiqlashtirish va muvozanat hissini yaxshilaydi. Hayvonlarning yaqinligi bolalarda ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi va ot minish ularni davom ettirish uchun tanani harakatga moslashtirishga o'rgatadi. Mashqlar egarsiz bajariladi, bu bolalar va otlar o'rtasida yaqin aloqani ta'minlaydi. Hayvonlar kichik chavandozlarni tanalarining issiqligi bilan isitadi, shu bilan jismoniy zo'riqishni engillashtiradi, o'zini himoya qilishni zaiflashtiradi - chaqaloq tashqi dunyodan o'zini himoya qiladigan zirhni "nozikroq" qiladi. Psixo-emotsional stress ham pasayadi, bolalar ma'lumot olishga ko'proq moyil bo'lishadi - ular bilan imo-ishoralar yoki eng oddiy suhbatlar yordamida muloqot qilish vaqti keldi.

Tutish terapiyasi-Usulning nomi inglizcha "ushlab turish" so'zidan olingan. Uning muallifi Nyu-Yorkdagi Onalar markazi direktori, doktor Marta Uelsdir. Holding terapiyasi "tizzalarda terapiya" deb ham ataladi va autizm, giperaktivlik sindromi, psixopatiya va boshqa hissiy kasalliklarni tuzatish uchun ishlatiladi.

Usulning maqsadi ona va autistik bola o'rtasidagi jismoniy aloqani qayta tiklashga harakat qilishdir, biz eslaganimizdek, teginish va har qanday tashqi ogohlantirishlar yoqimsiz.

Asosiysi: ona stulga o'tiradi, bolani ko'taradi va oyoqlari yon tomonlarga osilib turishi uchun uni tizzasiga qo'yadi. Kichkintoyning qarshiligini, quchog'idan xalos bo'lishga urinishlarini bartaraf etish, uni yuzma-yuz ushlab turish, hissiy aloqa o'rnatish va jismoniy aloqani tiklashga erishish muhimdir. Bunday mashg'ulot paytida ona bola bilan gaplashadi, uni tinchlantiradi, shunda rad etish va rad etish yo'qoladi. Avvaliga chaqaloq noqulaylik his qiladi, lekin asta-sekin himoyasizlik holati xavfsizlik hissi bilan almashtiriladi va bola qulay va xotirjam bo'ladi. Shunday qilib, onaga bog'liqlik deyarli kuch bilan shakllanadi, bu go'daklik va erta bolalik davridagi bolalar uchun xos va hayotiy ahamiyatga ega.

Usul kontrendikatsiyaga ega: bolada yoki ota-onada og'ir somatik kasalliklar (miya falaj, epilepsiya), otaning ishtirok eta olmasligi, ota-onalarning bolani rad etishi.

ABA terapiyasi yoki amaliy xulq-atvor tahlili

Xulq-atvor tahlili birinchi marta 1963 yilda Kaliforniya universitetida doktor Ivar Lovaas va uning hamkasblari tomonidan autizmli bolalar bilan ishlash uchun ishlatilgan. Usulning asosiy g'oyasi shundaki, har qanday bolaning xatti-harakati ma'lum oqibatlarga olib keladi. Chaqaloq bu oqibatlarni yoqtiradimi yoki yo'qmi, u o'z harakatlarini davom ettiradi yoki ularni to'xtatadi.

Usulning mohiyati nimada? Har bir murakkab mahorat - ijodiy o'yin, nutq, aloqa o'rnatish, ko'z bilan aloqa qilish - kichik qadamlar yoki harakatlarga bo'linadi. Bu harakatlarning har biri bola tomonidan alohida o'zlashtiriladi, so'ngra hamma narsa bir zanjirga to'planadi - murakkab harakatni ifodalovchi ketma-ketlik.

Trening kattalar tomonidan to'liq nazorat qilinadi: u autizmli odamning faoliyatini qat'iy nazorat qiladi, istalmagan harakatlarni to'xtatadi va to'g'ri qilishga undaydi. Ko'nikma ustida ishlash, agar bola 80% vaziyatlarda xatosiz harakatni bajarsagina yakunlanadi.

ABA usulidan foydalangan holda rivojlanish rejasi har bir bola uchun uning xususiyatlariga qarab alohida tayyorlanadi. Shu bilan birga, bola bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki yoki uchtadan ko'p bo'lmagan ko'nikmalarni egallaydi. Asta-sekin vazifalar murakkablashadi, ko'nikmalar to'plami yangilari bilan to'ldiriladi - kundalik, kommunikativ, kognitiv, ijtimoiy. Xulq-atvor terapiyasining natijasi bolaning dunyoni mustaqil ravishda o'rganish uchun vositalarni o'zlashtirishidir.

Maxsus bolalar bilan ishlash qoidalari

1. Rejimga qat'iy rioya qiling. Kundan kunga takrorlanadigan marosimlar autizmli bolalarning hayotini osonlashtiradi, tushunarli qiladi va eng muhimi, tinchlantiradi.
2. Nima qilish kerakligini ko'rsating. Maxsus bolalar vizual ma'lumotni yaxshiroq idrok etadilar. Shuning uchun, so'rovni 10 marta takrorlashdan ko'ra, rasmni bir marta ko'rsatish yaxshiroqdir.
3. Aniq, qisqa va aniq gapiring. Bolaga murakkab, ko'p hikoyali jumlalar kerak emas - u ularni oxirigacha diqqat bilan tinglay olmaydi va aytilganlarning mohiyatiga erisha olmaydi. Shuning uchun oddiy, qisqa iboralarga ustunlik berishga arziydi: "Sayhatga chiqmoqchimisiz?", "Boshim og'riyapti" (va bo'laklarga bo'linmaydi).
4. Sabr qiling. Otistik odamdan zudlik bilan reaktsiyani kutmasligingiz kerak, uni shoshiltirmasligingiz yoki bir xil savolni tez-tez takrorlashingiz kerak - bu vaziyatni yanada yomonlashtirishi mumkin.
5. Tinchlik bilan, zo'riqishsiz, asabiylashmasdan gapiring. Muhim silliq hissiy fon, unda tajovuz yoki xavf haqida hech qanday ishora yo'q.
6. Sensorli yengillikni ta'minlang. Tashqi ogohlantirishlarga yuqori sezuvchanlik juda charchagan. Shuning uchun chaqaloq ortiqcha kuchlanishni bartaraf etishga yordam beradigan marosimga muhtoj: kuchli quchoqlash, qorong'i xonada bir necha daqiqa sukut saqlash yoki qo'llaringizga muloyimlik bilan surtishingiz mumkin bo'lgan pufakchaning bir qismi.

Xulosa :

Autizmning aniq sababi noma'lum, ammo genetik va atrof-muhit omillarining kombinatsiyasi rol o'ynashi mumkin.Autizm tashxisi mutaxassislar (psixologlar, nevrologlar, rivojlanish pediatrlar) tomonidan xulq-atvor kuzatuvlari, intervyular va standartlashtirilgan testlar asosida qo'yiladi. Odatda, bolalikka oid davrda tashxis qo'yiladi.

Muhim jihatlar:

• Autizmga chalingan har bir inson noyobdir va o'ziga xos kuchli va zaif tomonlariga ega.

• Erta tashxis va aralashuv autizmga chalingan odamlarning hayotini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

• Autizmga chalingan odamlarni qabul qilish va qo'llab-quvvatlash ularning jamiyatga to'liq qo'shilishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev Q., Jo‘raev R. – Maxsus pedagogika va defektologiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2018.

2. Raxmonqulova D. – Maxsus pedagogika. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2017.

3. Tursunov U. – Defektologiya va maxsus ta’lim metodlari. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2019.

4. Usmonov M., Abduqodirov A. – Psixologiya asoslari. – Toshkent: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2020.

5. Niyozova G. – Psixodiagnostika va psixokorreksiya asoslari. – Toshkent: "Ma’naviyat", 2016.

6. Karimova R. – Psixologiya va pedagogik psixologiya. – Toshkent: "Sharq", 2015.

7. Bo‘ronov S. – Pedagogik psixologiya va tarbiya masalalari. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2021.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARIDA UYGA VAZIFA BERISH TARTIBI VA MUSTAQIL ISHLAR

Iskandarova Maftuna Quvondiq qizi

SamDUKF Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti o‘qituvchisi

maftunaiskandarova718@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Tezisda o‘qish darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish, ularni qanday usulda olib borish,uyga vazifa berishning ahamiyati va ijobiy tomonlari, qanday mustaqil ishlarni tashkillashtirish haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mustaqil ish turlari, ichda o‘qish, gapirib berish, anglash, tarbiya, oila, nazorat, uzviylik, fikr bildirishdi.*

Аннотация: *В статье рассматривается организация самостоятельной работы на уроках чтения, как ее проводить, какой вид самостоятельной работы следует организовать.*

Ключевые слова: *Самостоятельные виды работы, чтение, рассказывание, понимание, образование,семья, контроль, единство, высказали свое мнение.*

Annotation. *The article discusses the organization of independent work in reading lessons, how to conduct it, and what kind of independent work should be organized.*

Keywords: *Independent work types, reading, telling, understanding, upbringing, family, control, unity, expressing opinions.*

Mustaqil ish mashqning faol turi bo‘lib, uni bajarish jarayonida o‘quvchilar fikrlashga va mustaqil faoliyat yuritishni o‘rganadilar. Bir vaqtning o‘zida ikki yoki uch sinf bilan ishlanadigan oz komplektli maktablarda mustaqil ish, ayniqsa, juda zarur hamda katta ahamiyatga ega. O‘qish darslarida mustaqil ishni bajarishga bolalar taxminiy tayyorlanadi,albatta. O‘quvchilarni mustaqil ishga tayyorlashda topshiriqning maqsadi ularga qisqa va aniq tushuntiriladi. Mustaqil ish uchun tanlangan matnning hajmi kichik va o‘quvchilar saviyasiga mos bo‘lishi lozim. Mustaqil ish turlari

har xil bo‘lib, uni tanlashda o‘quvchilarning tayyorgarligi, o‘qiladigan matnning xarakteri, asarni o‘rganish bosqichi hisobga olinadi.
Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida mustaqil ishning quyidagi turlaridan foydalaniladi:
1. Asarni ichda o‘qish. 1-sinfda bu mashqni topshirishdan oldin ayrim so‘zlarni kesma harflar bilan tuzdirish va uni o‘qishni mashq qildirish maqsadga muvofiq. O‘quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab ichda o‘qib, ayrim qatnashuvchi shaxslarning gaplarini topish, uni o‘qish va o‘z so‘zi bilan gapirib berish, matndan o‘qituvchi bergan savolga javob bo‘ladigan o‘rinni topish kabi topshiriqlar berilishi mumkin.
2. O‘qilgan matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish. Bu mashq bolalarni diqqat-e`tibor bilan o‘qishga o‘rgatadi. Bu ish turidan oz komplektli maktablarda foydalanish dars tartibini belgilashga ham yordam beradi. Mashqning bu turi asta murakkablashtira boriladi: avval o‘quvchilar matnga oid savollarga javob berish bilan uning mazmunini o‘zlashtirsalar, keyin asarning asosiy G‘oyasini bilib oladilar, voqea-hodisalar o‘rtasidagi sabab-natija boG‘lanishlarini tushunadilar.
3. O‘qilgan asar mazmunini to‘liq anglash, bilib olish uchun o‘qituvchi topshiriG‘ini bajarish. Topshiriqlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:
a) O‘qing va omonatga xiyonatning jazosi qandayligini aytib bering. («Omonatga xiyonat», IV sinf) b) O‘qing va nima uchun hunarsiz kishi o‘limga yaqinligini tushuntirib bering. («Hunarsiz kishi o‘limga yaqin», IV sinf) va hokazo. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning o‘quvchilarga ta`siri ham har xil bo‘ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she`riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she`r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Topishmoqlar predmet, voqea-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikni taqqoslash orqali o‘zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. Shunga ko‘ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o‘qishda o‘qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi. O‘quvchilarda mustaqil ishlash, avvalo unga tayyorlash o‘qituvchi tomonidan materiallarni muammoli tarzda bayon etish kabi yo‘llar bilan hosil qilinadi. Bunda quyidagi topshiriqlarni muntazam ravishda tavsiya etish mumkin: materialni darslik asosida o‘rganish, namunaviy mustaqil mashqlar, yangi turdagi topshiriqlar, ijodiy ishlarni o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Mustaqil faoliyat faollikni oshiradi, bosh
o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida uyg'un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun avvalo, o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli qilib bajarishga ishonch hosil qilish lozim. Mustaqil ish turlarini qanday turlari bo‘lishi kerak? Avvalo, ish turlari o‘qituvchi tomonidan puxta o‘ylangan, ta'lim maqsadiga asoslangan va surunkali bo‘lishi kerak. Bunda har bir o‘quvchining imkoniyati hisobga olinishi, ularning yosh xususiyati, nimalarga qiziqishi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. O‘quvchilarni aqliy rivojlantirishning sifatlaridan biri topshiriqlarni to‘la eslab qolib bajarishlaridir. Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan (tasavvur qilgan) holda, uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash yo‘l qo‘yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e'tibor beriladi. O‘quvchilarning topshiriqlarni tez, to‘g'ri bajarishlari uchun qulay usullarni tanlash, uni tashkil etish uchun doimiy yetakchi savollar berib tayanch so‘zlar tavsiya etish foydalidir. O‘quvchilarda mustaqil ishlarni sifatli qilib bajarishda qiyinchiliklar paydo bo‘lishi tabiiy. Chunki hali ularning tasavvurlari yorqin, so‘z boyligi yetarli emas. Ma'lumki bola ilk bor tarbiyani oiladan oladi. Oiladagi ijtimoiy muhit uning ichki tartib intizomi ongli ravishda bola tarbiyasiga ta'sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64- moddasida belgilanishicha , ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetkunlaricha boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Ushbu qoidaga muvofiq ota-onalarning

o‘zfarzandlari oldidagi majburiyatlari huquqiy kafolatlangan va farzandini voyaga yetkazish, tarbiyalash ota-onaning burchi ekanligi uqtirilgan. Farzand dunyoga
kelganidan so‘ng, uni voyaga yetkazish, moddiy ta'minlash, o‘qitish tarbiya berish ota-ona zimmasidagi yuksak mas'ulyatdir. Ana shunday mas'ulyatli ishlarga befarqlik, bepisandlik bilan munosabatda bo‘lish kechirib bo‘lmaydigan hollarga olib kelishi hammaga ayon. Bolaga G‘amxo‘rlik, uning oiladagi huquqini ta'minlash masalalari muqaddas Qur'oni Karim, hadis kitoblarida, o‘tmish allomalarimizning pand-nasihatlarida ham teran aks etgan. Muqaddas Qur`on kitobida keltirilishicha, bola Olloh tomonidan ota-onaga omonat topshirilgan. Olloh ana shu omonatni voyaga yetkazish, ilmli, oqil, halol inson qilib tarbiyalashni esa ota-ona zimmasiga
yuklagan. Ma`lumki, bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o‘qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi va
didiga ta`sir ko‘rsatishi tabiiy holder. Bolalar ulG‘aya boshlashi bilanoq o‘z otaonalarining qayerda ishlashlari, jamiyatda tutgan o‘rinlari, ularning bilimiga qiziqa boshlaydilar. Oiladagi hamkorlikning tarbiyaviy jihatdan to‘G‘ri bo‘lishini ta`minlash maktabning muhim vazifalaridan biridir. Oilaviy tarbiyaning mazmunli tashkil etilishiga dastlabki ta`sirni maktab belgilaydi. Maktabgina oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan rahbarlik qila oladi. Bola tarbiyasi yuzasidan oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi hozirgi kunimizning dolzarb masalaligi ham mana shundadir. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bolalar O‘qituvchi rahbarligida ishlaganda tez mushohada qiladilar. Bu holga o‘rganib qolmasliklari uchun ko‘proq ularning o‘zlarini mustaqil fikrlashga davat etish lozim. O‘quvchilar e'tiborini jalb etish maqsadida matndagi voqealarni eslatib: Nega? Nega shunday bo‘ldi? Seningcha qanday bo‘lishi kerak edi? Kabi savollar
berib, uning fikrini ma'qullab, yana o‘ylasang topasan, juda yaxshi, juda soz ! kabi rag'batlantiruvchi so‘zlarni ishlatish foydalidir. Masalan, o‘roq va kombayn masalasi yuzasidan: O‘roq nega afsuslanadi? Kombayn unga nima dedi? Kabi savollar berib, har ikkisini solishtirish orqali texnikaning kuch-quvvatiga bolalar e'tiborini tortiladi, har bir texnika asbobining hayotimizdagi ahamiyatini baholashga o‘rgatiladi. Dastlabki bajargan mustaqil ishdan bola mamnun bo‘lsa, uning qiziqishlari ortib, yangi-yangi ish turlarini amalga oshirishga kirishadi. Mustaqil ish natijalarini hamisha tekshirish lozim. Tekshirish og'zaki yoki yozma tarzda bo‘lishi mumkin. Bola yozishidan oldin o‘ylaydi, fikrini og'zaki jamlaydi, so‘ng uni yozishga kirishadi. o‘z fikrini bayon qilish, yo‘l qo‘yilgan biror savol yoki masala yuzasidan mushohada yuritish uchun jiddiy fikrlaydi. Bu jarayon (og'zaki) nutq asosida paydo bo‘ladi va mustahkamlanadi. Masalan, o‘quvchi o‘z fikrini yozma ifodalashdan ilgari o‘ylaydi. Pichirlab allanimalar haqida o‘z-o‘zicha gapiradi (pedagogikada bu faol faoliyat hisoblanadi). Insho yozishning dastlabki shakllari ana shundayishlardan boshlanadi. Bola matnni o‘qib, og'zaki tahlil qiladi, sarlavhalar o‘ylab topib, qanday rasmlar ishlash lozimligini rejalaydi. O‘quvchilarni mustaqil faoliyatga o‘rgatishda quyidagilarga amal qilishi lozim:

-beriladigan har bir topshiriq o‘quvchilarning imkoniyatlariga mos bo‘lsin va qiziqish uyg'ota olsin;

-ish osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab yo‘naltirilsin, o‘quvchiga tushunarli bo‘lsin;

-ishni bajarishda bolalarda o‘ziga ishonch hissi uyg'onsin, ishga kirishishda
ular o‘zlarida dadillik sezsin;

-mustaqil bajariladigan topshiriqlar yakkama-yakka tarzda amalga oshirilsin (hamma o‘quvchi uchun bir xil topshiriq berish bu mustaqil faoliyat emasligini eslatamiz), albatta bunda bosh - topshiriqlarni doimo navbatlashtirib, turini almashtirishga alohida ahamiyat berish kerak;

-topshiriqlarni hamma bir ish joyi hamisha qulay, saramjon-sarishta bo‘lishi (parta ustida ortiqcha narsalar bo‘lmasligi) kerak;

-topshiriqlar darsning turli bosqichida bajarilishi mumkin;

-darslik, didaktik materiallar bilan ishlashda uzviylik bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Uyga beriladigan vazifalar ham mustaqil ishning bir turidir. Bolalarga, iloji boricha sinf sharoitida asosiy bilim va malakalarni singdirish, uyga vazifalar berishni me'yorlash kerak. Bolalar

darsdan keyin (og'ir, mashaqqatli mehnatdan keyin) tiniqib dam olsalar, ko‘proq ochiq havoda bo‘lib, harakatli o‘yinlar, sayr, kuzatishlar bilan vaqtlarini o‘tkazib, tunda osuda uxlab, ertangi kungi darslarga yaxshi kayfiyat bilan kelsalar, darsni o‘zlashtirish yaxshi bo‘ladi. Shuning uchun uy vazifalari oson bo‘lishi, asosan, bolalarni kuzatishlarga undashi lozim.Darslarda yangi pedagogik, zamonaviy texnologiyalar, noananaviy usullardan keng qo‘llash, ko‘rgazmali, didaktik, test, tarqatma materiallaridan keng foydalanish, o‘quvchilarga do‘stona munosabatda bo‘lish, o‘qish sifati va samaradorligiga etibor berish;

- O‘quvchilarni erkin va mustaqil fikrlashga o‘rgatishda turli mashqlardan foydalanish;
-Nutq o‘stirishga alohida etibor qaratish;
-Yanga axborot texnalogiyalardan foydalanish;
-Lug'at ustida ishlashga o‘rgatish;
-Xalq og'zaki ijodidan foydalanish;
-She'riyat gulshani,ifodali o‘qish kabi to‘garaklar tashkil etish;
-Bo‘sh vaqtlarda ulgurmovchi o‘quvchilar bilan alohida, yakka tartibda ish olib borish;
- Fanlararo bog'liqlikka ahamiyat berish.

O‘quvchilar bilishini nazorat qilib borishda, albatta, past o‘zlashtirgan o‘quvchiga alohida e'tibor qaratish lozim. Boshlang'ich sinflarda o‘quvchilarni o‘qishning bir necha turlari ya'ni, ongli, tez, to‘g'ri va ifodali o‘qishga o‘rgatib boriladi.

***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR*:**

1. Abdullaeva Q.A., Safarova R.G‘., Bikbayeva N., Baxramov U., BoshlanG‘ich ta'lim davlat ta'lim standarti. // BoshlanG‘ich ta‘lim jurnali №6 –2010 Boshlang‘ich ta‘lim konsepsiyasi // Boshlang‘ich ta‘lim jurnali № 6-1998.
3. Abdullaeva Q., Ochilov M., Nazarov K., Fuzailov S, Bikbaeva.N. Boshlang‘ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari // "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 2 May 2020 478 www.openscience.uz
4. Mavlonova R.A Raxmonqulova.N. Boshlang□ich ta□limning integratsiyalashgan pedagogikasi□T.: Ilm-Ziyo, 2009 .
5. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta'limi jarayonida fanlararo uzviylikni ta'minlash muammolari respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi.□Toshkent, 2009.
6. O‘zbekiston Respublikasining «BoshlanG‘ich sinf tarbiya va sport to‘G‘risida» qonuni (Yangi taxrirda). □T., 2000.
7. O‘zbekiston Respublikasining «Ta'lim to‘G‘risida» qonuni. 1997.

MAKTABGACHA TA’LIMDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARI

SamDU Kattaqo‘rg‘on Filiali
3- bosqich talabasi
Berdiqulova Aziza

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, ularning turlari hamda bolalarning rivojlanishiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, o‘yin texnologiyalarining ta’limiy va tarbiyaviy imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin ularning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu davrda bolalar asosan faol o‘yin orqali atrof-muhitni o‘rganadi, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi va o‘z shaxsini shakllantiradi.

Kalit so‘zlar: o‘yin texnologiyalari,o‘yin, ta‘lim, ijtimoiy hayot, qoidalar, syujetli o‘yinlar, kognitiv munosabat, kinestika, o‘yin g‘oyasi, tafakkur, rivojlantiruvchi o‘yinlar, rolli o‘zaro munosabat, intellektual,

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘lim berish,rivojlantirish va tarbiya qilish davlat ta‘lim siyosatining muhim vazifasi hisoblanadi. Uning asosiy yo‘nalishlari davlat va

hukumat ,Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining qator hujjatlarida aks etgan. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy hayotining muhim va yetakchi shakli sanaladi.

O‘yin - bu kutilmagan va faol jarayon bo‘lib,unda takakkur,his-tuyg‘ular va harakatlar rivojlanishi mumkin. Mashhur pedagog A.S.Makarenko bolalar o‘yinlarining rolini ta‘riflab,bola hayotid o‘yinni xuddi kattalarning ish faoliyati,xizmatining ahamiyati bilan tenglashtiradi. O‘yin shunday ahamiyatga egaki, 2013- yilda BMT ning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasiga uning ahamiyati haqida quyidagi izoh qo‘shildi. Unda aytilishicha, o‘yinlar va o‘yin-kulgu bolalar salomatligi va farovonligi uchun juda muhimdir va ijodkorlik, tasavvur, o‘z-o‘ziga ishonch, samaradorlik va jismoniy, ijtimoiy, kongnitiv va hissiy kuch va ko‘nikmalarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Ular ta‘limning barcha jihatlariga hissa qo‘shadilar; o‘yinlar kundalik hayotda ishtirok etish shaklu bo‘lib, bolaga faqat quvonch va zavq keltirishi nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Bola o‘yinda qanday bo‘lsa,ishda ham ko‘p jihatdan u shunday bo‘ladi deb hisoblaydi. Shuning uchun bo‘lajak arbobning tarbiyasi ko‘p tomondan o‘yin orqali amalga oshiriladi. O‘yin odatda erkin tanlangan,bolalarga qaratilgan va zavqli faoliyat sifatida belgilanadi. U ijtimoiy, kognitiv va rivojlanish xususiyatlari va bosqichlari bo‘yicha qo‘shimcha tahlil qilinadi va tavsiflanadi. Agar o‘yin rivojlantiruvchi, ijtimoiy va kognitiv afzalliklarga ega bo‘lsa,maktabgacha yoshdagi guruhlarda o‘yinni tashkil etish va pedagogning roli uchun qanday xulosalar mavjud, Agar bolalar maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida o‘ynasa, "akademik"ko‘nikma va bilimlarni qanday o‘rganadi?

O‘yin texnologiyalari esa shu ehtiyoj asosida ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi. Pedagogika fanida o‘yin texnologiyalari - bu o‘quv-tarbiyaviy maqsadlarga yo‘naltirilgan, ma’lum didaktik materiallar asosida ishlab chiqilgan metodlar majmuasidir.

O‘yin texnologiyalarining turlari

1. Didaktik o‘yinlar:Bu turdagi o‘yinlar orqali bolalar bilim oladi va mustahkamlaydi. Masalan, ranglar, shakllar, sonlar, harflar bilan bog‘liq o‘yinlar. Ular bolalarda diqqat, xotira, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.
2. Rolli o‘yinlar:Bolalar turli ijtimoiy rollarni bajarish orqali hayotiy vaziyatlarni tushunadi. Masalan, “Do‘konchi va xaridor”, “Shifokor va bemor”, “Oila” o‘yinlari orqali ular muomala qilishni o‘rganadi.
3. Harakatli o‘yinlar:Jismoniy faollikni rag‘batlantiradi. Bu o‘yinlar sog‘lomlashtirish, mushaklarni chiniqtirish, chaqqonlikni rivojlantirishda yordam beradi. Masalan: “Topni ot”, “Ushlab qol”, “Sakrab o‘t”.
4. Intellektual o‘yinlar:Bu o‘yinlar mantiqiy fikrlash, muammo hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan: “Nimani ortiqcha?”, “Topmoqchi o‘yinlar”, “Jumboqlar”.
5. Konstruktiv o‘yinlar:Mozaika, lego, qurilish konstruktori orqali bolaning tasavvuri, kreativligi, mayda motorikasi rivojlanadi.

O‘yin texnologiyalarining afzalliklari

- O‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.
- Bolalarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi rivojlanadi.
- Ijtimoiylashuv, nutq va muloqot malakalari shakllanadi.
- Pedagog va tarbiyachining bolaga individual yondashishiga imkon yaratadi.

O‘yin jarayonida ular o‘z xohishiga ko‘ra birlashadi,mustaqil harakatlanadi,o‘z g‘oya va istaklarini amalga oshiradi,dunyoni anglaydi. Mustaqil o‘yin faoliyati bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi,axloqiy-irodaviy fazilatlarining shakllanishi,ijodiy qirralarining ochilishiga zamin yaratadi.O‘yin jarayonining quyidagi jihatlarda ko‘rish mumkin:

1. Ijodiy va tasavvurga asoslangan o‘yinlar: Bolalar ushbu yoshda ijodkorlik va tasavvurni rivojlantiruvchi o‘yinlarga moyil bo‘ladilar. Masalan, rolli o‘yinlarda (doktor-doktor, oila o‘yini) ular kattalarning harakatlarini takrorlaydi va bu orqali ijtimoiy rollarni o‘rganadi.Tasavvur orqali bolalar muammolarni hal qilish, ijodiy fikrlash va yangi g‘oyalarni sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

2. Ijtimoiylashuv va muloqot ko‘nikmalari: O‘yin bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Guruhli o‘yinlarda ular birgalikda ishlashni, o‘z fikrini bildirishni va boshqalarni tushunishni o‘rganadi.O‘yin orqali bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilish, ularga moslashish va mojarolarni tinch yo‘l bilan hal qilishni o‘rganadi.

3. Hissiy rivojlanish: O‘yin bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini ifoda qilish imkonini beradi. Masalan, qurilish yoki konstruktor o‘yinlari orqali ular o‘zlarini muvaffaqiyatli his qiladi yoki murakkab vaziyatlarni yengib o‘tish yo‘llarini topadi.Hissiy o‘yinlar orqali bolalar stressdan xalos bo‘ladi va o‘zlarini xavfsiz his qiladilar.

4. Aqliy rivojlanish: O‘yin jarayonida bolalar mantiqiy fikrlash, diqqatni jamlash, xotira va aqliy faollikni rivojlantiradi.Masalan, stol o‘yinlari, konstruktiv o‘yinlar va qoidalarga asoslangan o‘yinlar bolalarda tartib-intizom va strategik fikrlashni rivojlantiradi.

5. Harakat va jismoniy rivojlanish: Bolalar harakatli o‘yinlar orqali motorika ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Yugurish, sakrash, to‘p bilan o‘ynash kabi o‘yinlar mushaklarni mustahkamlaydi va koordinatsiyani yaxshilaydi.Mayda motorika o‘yinlari (pazllar, mozaikalar, rasm chizish) esa bolaning qo‘l harakatlarini rivojlantiradi.

6. O‘yin va ta’lim birligi: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin ta’limning eng samarali shakli hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar orqali ular ranglar, shakllar, sonlar va boshqa bilimlarni osonlik bilan o‘zlashtiradiO‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining ajralmas qismidir va ularning psixologik, ijtimoiy, aqliy, hissiy va jismoniy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, kattalar bolalarning o‘yin jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashi, ularni rag‘batlantiruvchi muhit yaratishi muhimdir. Ko‘pincha turli xil o‘yinlar bolalarning yoshibilan bog‘liq. Masalan, kichik yoshdagi bolalar yakka tartibdagi va parallel o‘yin bilan shug‘ullanishlari ehtimoli ko‘proq, ammo katta bolalar o‘z fikr va his-tuyg‘ularini o‘rganishi uchun yolg‘iz o‘ynashga yoki ortiqcha rag‘batlantirishdan tanaffus olishga muhtoj. Xuddi shunday tarzda katta bolalar o‘yin va o‘yin faoliyatiga qo‘shilishdan oldin boshqalar qanday o‘ynashini tomosha qilishni istashi mumkin. O‘yinda hech qayerda uchramaydigan jihat bor: bola o‘z mustaqilligini ko‘rsata oladi; o‘yin va o‘yinchoq, o‘yindagi do‘stlarini tanlashi mumkin. Bu qobiliyat bolalarda ma‘lum ma‘noda 3-4 yoshda paydo bo‘ladi. O‘yin bolalarning muzokara qilish, hissiy muvozanatni tiklash, nizolarni hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar o‘yin va o‘yin-kulgilarda ishtirok etib, amaliy ko‘nikmalarni egallaydi; atrofdagi olamni o‘rganadi va anglaydi; yangi g‘oyalar, rollar va tajribani sinovdan o‘tkazishadi hamda shu bilan birga dunyodagi o‘z ijtimoiy mavqeini tushunish va "ko‘rishni" o‘rganishadi.

Jismoniy jihatdan o‘yin bolalarga mayda va yirik motorikani rivojlantirish hamda jismoniy malaka hamda mushaklarni boshqarishni mashq qilish va takomillashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, u bolalarning makonni tushunishi va tavakkalchilik qobiliyatini rivojlantiradi. Muntazam jismoniy faoliyat salomatlik, ovqatlanish va farovonlikka sog‘lom munosabatda bo‘lishga yordam beradi.

Kognitiv munosabatda o‘yin xotira, tasavvur, konsentrasiya va ijodkorlikni rag‘batlantiradi, shuningdek, g‘oyalar va savollarni o‘rganish va muammolarni bashorat qilish va hal qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib olganda, maktabgacha ta’limda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Bu texnologiyalar bolalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda, ijtimoiy-psixologik moslashuvni ta’minlashda katta rol o‘ynaydi. Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida o‘yinlar nafaqat dam olish va ko‘ngil ochar vosita, balki samarali o‘quv-metodik texnologiya sifatida ham qaralmoqda. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat o‘yin-kulgi, balki ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan asosiy faoliyatdir. Shu sababli, ota-onalar va pedagoglar bolalarning o‘yin faoliyatiga e’tibor qaratib, ularni rag‘batlantirish va rivojlantirishlari zarur.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. "Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya" 1989-yil 20- noyabr.

2. Grosheva.I.V., Kenjabayeva D.A., Gulyamova N.B., Miftayeva N.A., Ismailova M.A., Mikailova U.T " O‘yin orqali ta‘lim olish" metodik qo‘llanma. Toshkent-2020
3. F.Qodirova. "Maktabgacha pedagogika" TAFAKKUR" nashriyoti TOSHKENT - 2019
4. Sh.Sodiqova. "Maktabgacha pedagogika" "Tafakkur bo‘stoni" TOSHKENT-2013

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARINING O‘RTA GURUHLARDA APLEKATSIYA MASHG‘ULOTLARINI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI.

To'ychiyeva Sevinchoy Do’stmurod qiz
Samaraqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi
Rahbar. p.f.f.d.(PhD) dotsent. Shavqiyev.E.R.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarining o‘rta guruh bolalari bilan aplikatsiya mashg‘ulotlarini tashkil etish texnologiyasi, metodik yondashuvlar hamda pedagogik tamoyillar yoritilgan. Aplikatsiya orqali bolalarning mayda motorikasi, tasavvuri, estetik didi va ijodkorligi rivojlanishiga ko‘mak beriladi.

Kalit so‘zlar: O‘rta guruh, aplekatsiya, bolalar, materiallar, mashg‘ulot, ranglar, ijodiy, rivojlanish, maktabgacha ta’lim, kompozitsiya, tarbiyachi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda tasviriy san’at mashg‘ulotlari, ayniqsa aplikatsiya (yopishma) mashg‘ulotlari muhim o‘rin tutadi. Aplikatsiya – bu turli materiallardan shakl va obrazlar yasab, ularni sathga joylashtirish orqali kompozitsiya yaratish san’atidir. Ayniqsa, o‘rta guruh yoshidagi bolalar uchun bu faoliyat nafaqat ijodiy rivojlanish, balki qo‘l barmoqlari harakatlarini takomillashtirish, sabr-toqat va mustaqillikni shakllantirish vositasi hisoblanadi. O‘rta guruh bolalari (4-5 yosh) allaqachon oddiy shakllarni tanib olish, ranglarni farqlash, materiallar bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘la boshlaydilar. Shu sababli aplikatsiya mashg‘ulotlari ularning rivojlanish darajasiga mos ravishda bosqichma-bosqich tashkil etiladi: Mashg‘ulotni olib borish texnologiyasi. 1. Tayyorlov bosqichi: -Mashg‘ulot mavzusi tanlanadi (masalan: “Bahor gullari”, “Uy hayvonlari”, “Meva-sabzavotlar”).-Zarur materiallar: rangli qog‘ozlar, qaychi, elim, namunaviy rasm yoki shakllar tayyorlanadi. -Bolalarning joylashuvi va ish sharoitlari tartibga keltiriladi. 2. Kirish qismi: -Mavzu bilan tanishtirish: qisqa suhbat, savol-javob orqali bolalar mavzuga yo‘naltiriladi. -Mavzuga oid namuna ko‘rsatiladi (rasm yoki tayyor aplikatsiya). -Bolalar fikri so‘raladi: “Bu nima?”, “Qanday ranglar ishlatilgan?”, “Nimadan yasalgan?” 3. Asosiy qism: -Tarbiyachi aplikatsiya tayyorlash ketma-ketligini bosqichma-bosqich ko‘rsatadi. -Bolalar mustaqil ishlaydi. Zarur joylarda yordam beriladi. -Tashkiliy yordam: shaklni qanday qirqish, qanday elimlash, joylashtirish haqida tavsiyalar beriladi. 4. Yakuniy qism: -Tayyor ishlanmalarni ko‘rib chiqiladi, har bir bola ishi maqtov bilan baholanadi. -Ijodiy yondashuv va rang tanlash qobiliyati alohida ta’kidlanadi. -Yakuniy xulosa: “Bugun nimalarni o‘rgandik?”, “Qanday ishlash sizga yoqdi?”

Mashg‘ulotlar mavzusi fasllar, hayvonlar, tabiat, kasblar, ertak qahramonlari kabi bolalar dunyosiga yaqin bo‘lgan obrazlar asosida tanlanadi. Shu orqali bolalarda nafaqat tasviriy ko‘nikmalar, balki lug‘aviy zaxira, muloqot, tafakkur ham rivojlanadi. Aplikatsiya turlari: Yassi aplikatsiya: faqat qog‘ozdan ishlanadi. Hajmli aplikatsiya: paxta, mato, tugma, ip, yelim kabi qo‘shimcha elementlardan foydalaniladi. Erkin (kollaj) aplikatsiya: turli materiallar birgalikda qo‘llanadi.

Tarbiyachiga metodik tavsiyalar. Har bir bolaning qiziqishi va rivojlanish darajasini inobatga olish. Qaychi va elim bilan ishlashda xavfsizlik qidalarini tushuntirish. Ilg‘or tarbiyalanuvchilarga murakkabroq vazifa berish. Aplikatsiyani ertak, tabiat hodisasi, fasllar bilan bog‘lash orqali bolalarning dunyoqarashini kengaytirish.

XULOLSA. O‘rta guruhlarda aplikatsiya mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil qilish orqali bolalarning ijodiy fikrlashi, motorik ko‘nikmalari, mustaqilligi va estetik qarashlari shakllanadi. Bu mashg‘ulotlar orqali nafaqat badiiy did, balki bolalarda mehnatsevarlik, diqqat-e’tibor va sabr-toqat ham rivojlanadi. Tarbiyachi uchun esa bu jarayonni puxta rejalashtirish va bolalarning

individual xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. O‘rta guruhdagi aplikatsiya mashg‘ulotlari orqali bolalar ijodkorlik, mustaqillik, estetik did va amaliy ko‘nikmalarni egallaydilar. Tarbiyachi bu jarayonda bolani ruhlantiruvchi, yo‘naltiruvchi va ilhomlantiruvchi bo‘lishi zarur. Innovatsion yondashuvlar, didaktik o‘yinlar va interaktiv metodlar orqali mashg‘ulotlar yanada samarali bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Yassi aplikatsiya, erkin (kollaj) aplikatsiya, hajmli aplikatsiya usullari bo’yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va texnologiya darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo’ladi. Ularni o’quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko’rsatmalarini bajarishga o’rgatadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Ilk qadam” davlat dasturi T:2018.
2. Maktabgacha ta’limga qo’yiladigan davlat talablari.T.2019.
3. Amirova G.A.Sulaymonov A.P. Djurayeva B.R. Maktabgacha ta’lim muassasalarida applikatsiya mashg’ulotlari.T.2014
4. Maktabgacha ta’lim metodikasi , G.Sultonova – Toshkent: Fan, 2018.
5. www.maktabgacha.uz – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim agentligi rasmiy sayti.
6. Ziyonet.uz – Ta’lim va tarbiya elektron axborot portal.

TALABALARNING FRILANSERLIKKA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA MO‘LJALLANGAN VEB-PLATFORMA ISHLAB CHIQISH VA UNDAN FOYDALANISH METODIKASI

Himmatov Shohrux Oripovich
Samarqand davlat unversitetining Kattaqo‘rg‘on filiali

Annotatsiya*:* Mazkur maqolada talabalar uchun frilanserlikka oid kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi veb-platforma – freelance-sage.vercel.app ning ishlab chiqilishi, strukturasi va undan foydalanish metodikasi bayon qilingan. Platforma yordamida foydalanuvchilar o‘z sohalari bo‘yicha mustaqil ravishda freelance ko‘nikmalarini o‘zlashtirishlari, portfoliolar yaratishlari hamda amaliy mashqlar orqali real mehnat bozoriga tayyorlanishlari mumkin. Maqola IMRAD modeliga asoslanib yozilgan bo‘lib, metodologik yondashuvlar, texnik vositalar va dastlabki natijalar keltirilgan**.**

Kalit so‘zlar: Frilanserlik, platforma, talaba, kompetentlik, portfolio, o‘quv metodikasi, freelance-sage**.**

Annotation: This article describes the development, structure, and methodology of using a web platform designed to build and enhance students' freelance competencies — *freelance-sage.vercel.app*. Through the platform, users can independently acquire freelance skills in their respective fields, create portfolios, and prepare for the real labor market through practical exercises. The article is written based on the IMRAD model and presents methodological approaches, technical tools, and initial results.

Keywords: Freelancing, platform, student, competency, portfolio, educational methodology, freelance-sage.

Bugungi raqamli davrda talabalarning mehnat bozoriga moslashuvchanligi va mustaqil daromad topish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, frilanserlik sohasi yoshlar uchun katta imkoniyatlar ochmoqda. Ushbu maqolada talabalarning frilanserlikka oid kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga mo‘ljallangan freelance-sage.vercel.app nomli veb-platformani ishlab chiqish va undan foydalanish metodikasi ko‘rib chiqiladi.

Platforma ishlab chiqishda kompetensiyaviy yondashuv asos qilib olindi. U foydalanuvchilarning mustaqil ishlashi, real muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Veb-texnologiyalar sifatida ReactJS asosida frontend va Vercel asosida joylashtirish ishlari olib borildi. Metodik yondashuvda loyiha asosida

o‘rganish (project-based learning) usuli qo‘llanildi. Har bir modulda nazariy bilimlar va amaliy topshiriqlar uyg‘unlashtirilgan.

Platformaning dastlabki versiyasi ishlab chiqildi(1-rasm). U orqali foydalanuvchilar freelance asoslarini o‘rganish, portfolio yaratish va imitatsiya asosida buyurtmalar bajarish imkoniga ega. Kurs modullari, loyiha topshiriqlari va baholash tizimi mavjud. Hozirda platforma test sinovlaridan o‘tkazilmagan, ammo talabalar bilan ishlash uchun tayyor holatda.



1-rasm Talabalarning frilanserlikka oid kompetentligini rivojlantirishga mo‘ljallangan veb-platforma.

Platformaning imkoniyatlari boshqa xalqaro freelance platformalarga (Fiverr, Upwork, Behance) taqqoslab o‘rganildi. Uning afzalligi – mahalliy til, o‘quv dasturlariga mos keluvchi metodika va bosqichma-bosqich yondashuvda namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalaridagi talabalar uchun ushbu platforma moslashuvchan, interaktiv va real ish tajribasini shakllantiruvchi vosita bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, platforma kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi, ya’ni talabalarning bilimlari, ko‘nikmalari va qobiliyatlari umumiy natija sifatida baholanadi. Bu yondashuv zamonaviy ta’lim standartlariga mos keladi va talabalarni real mehnat bozoriga tayyorlaydi.

Frilanserlik kompetentligini shakllantirish uchun freelance-sage veb-platformasi innovatsion yondashuvga asoslangan o‘quv vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Platforma orqali talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini real ish sharoitida sinab ko‘rishlari, mustaqil daromad manbalarini topishlari mumkin. Kelgusida uni tajribadan o‘tkazish, takomillashtirish va keng miqyosda joriy etish rejalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, B. B. (2020). Raqamli texnologiyalar va ta’limda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Saidov, A. S. (2019). Zamonaviy mehnat bozori va yoshlar bandligi. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi hisobot materiallari.
3. Tashkent University of Information Technologies. (2021). Freelancing asoslari bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. TUIT nashriyoti.
4. Upwork Research. (2022). Freelancing in 2022: America’s Freelance Economy Report. https://www.upwork.com/research/freelance-forward-2022
5. Suhara, H., Xu, Y., & Pentland, A. (2019). Deep learning job compatibility from online job postings. ScienceDirect - Information Processing & Management, 56(5). https://doi.org/10.1016/j.ipm.2019.102070
6. Dac-Nhuong Le, Reddy, G. T., & Ramesh, D. (2021). Cybersecurity and data science applications for smart cities. ScienceDirect.https://doi.org/10.1016/B978-0-12-823117-1.00001-5
7. freelance-sage.vercel.app — Muallif tomonidan ishlab chiqilgan veb-platforma, 2025-yil.

1000 ICHIDA NOMANFIY BUTUN SONLAR USTIDA ARIFMETIK AMALLARNI O'RGATISH METODIKASI

Umarov Nurbek Irkinovich
SamDUKF
Xidirova Shahlo Norovnava,talaba

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda arifmetik amallarni o'rgatishda pedagogik texnologiyalar asosida zamonaviy metodlardan foydalanishning samarasi xususida so'z boradi.
Kalit so'zlar. pedagogik texnologiya, zamonaviy metodlar, samaradorlik, raqamlash, ziyraklik.
Аннотация. В данной статье рассматривается эффект использования современных методов на основе педагогических технологий при обучении арифметическим действиям в начальных классах
Ключевые слова. педагогические технологии, современные методы повышения эффективности, оцифровки, сообразительности, вовлеченности.
Annotation. This article will talk about the effectiveness of the use of modern methods based on pedagogical technologies in teaching arithmetic operations in elementary grades.
Keywords. pedagogical technology, modern methods efficiency, numbering, elegance, participation.

Ta'lim berish, tarbiyani ham o'z ichiga oladi. Ta'lim ishi – Respublikamizni aql-zakovat va ilm borasidagi kuch–quvvatini rivojlantirish, jamiyat, davlat va oila oldidagi o'z ma'suliyatini anglaydigan har jihatdan barkamol, erkin shaxslarni shakillantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Hozirgi zamonaviy bosqichlarda pedagogik dolzarb vazifalarga fan texnika, ilg'or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash o'qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni metodlarini ilmiy ta'minlash kiradi.

Maktabda matematika o'qitishning maqsadi jamiatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga insonparvarlik demokratik guruhlarga asoslangan davlat talablariga mos kelishi kerak. Matematika bolalarda tafakkur, xotira, diqqat, kuzatuvchanlik, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, matematika o'quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini o'stirishi, ularning o'z fikrlarini aniq to'g'ri va tushunarli bayon etishi uchun zamin hozirlaydi.

Maktabda matematika o'qitishning maqsadi jamiatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga insonparvarlik demokratik guruhlarga asoslangan davlat talablariga mos kelishi kerak. Matematika bolalarda tafakkur, xotira, diqqat, kuzatuvchanlik, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, matematika o'quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini o'stirishi, ularning o'z fikrlarini aniq to'g'ri va tushunarli bayon etishi uchun zamin hozirlaydi. Barkamol inson tarbiyasida boshlang'ich sinf o'qituvchilariga katta ma'sulyat yuklaydi.

Yuqoridagi fikrlarni tasdiqlagan holda Respublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev shunday fikr bildiradi "Yoshlarimiz haqli ravishda vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo`lgan, bugungi ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g`urur va iftixor bag`ishlaydi. Bu sohada olib borayotgan keng miqiyosli ishlarimizni, xususan ta`lim-tarbiya bo`yicha qabul qilingan umummilliy dasturimizni mantiqiy yakuniga etkazishimiz zarur", deb ta'kidlagan edilar.[1] Boshlang'ich sinflarga matematikani turli zamonaviy texnologiyalar, metodlar yordamida o'rgatish dolzarb hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda dars mashg'ulotlari samarali va qiziqarli o'tishi uchun o'qituvchi darsga ma'suliyat bilan yondashishi zarur.Bunda u turli xil qiziqarli metod va usullardan foydalanishi kerak. Boshlang'ich sinf matematika darslarda arifmetik amallarni o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish, pedagogik asoslarini ishlab chiqish maqsad qilib qo'ygan. Boshlang'ich sinf materiali konsentrik tuzilgan. Masalan:1-o'nlikni raqamlash o'qitilsa,keyin100 ichida raqamlash va arifmetik amallar bajarish o'qitiladi.Undan keyin 1000 ichida arifmetik amallar bajarish, keyin ko'p xonali sonlar ichida. Raqamlar o'z qiymatiga ega bo'lish bilan birga sonning yozuvidagi o'rniga qarab ham qiymatga ega bo'lgani uchun ayni bir

raqamni takrorlash bilan bir xonali, ikki xonali va h. k. sonlarni yozish mumkin. Nomerlashni o’rganishga ajratilgan butun vaqt davomida o’quvchilarga u yoki bu sonni yozish uchun hammasi bo’lib nechta raqam kerak bo’lganini, bunda necha xil raqamdan foydalanilganligini sanab chiqishlarini taklif etish, bir xil raqamlar nimani bildirishini, shuningdek, sonning yozuvidagi 0 raqami nimani bildirishini so’rash kerak O’qituvchi bergan raqamlar yordamida turli sonlarni yozish va bu sonlarni taqqoslashga doir mashqlar foydalidir. Shunday bo’lsada, tajriba ko’rsatishicha, o’quvchilarga u yoki bu xona birligi qatnashmagan sonlarni yozish ayniqsa, qiyinlik qiladi.[1]

Bu rnavzuni o'qitishda quyidagicha reja tuzish mumkin:

I-dars. 2-0'nlikdagi sonlarni raqamlash, bir xonali sonlarni raqamlash va taqqoslash asosida tuiiladi, shuning uchun darsning boshqa bir sonlarni raqamlash va uning umumiy savollari takrorlanishi kerak. Shundan keyin bir va birlik, o'n va o'nlik, o'nta narsani bitta birlikka birlashtirish haqida tushuncha.

2-dars. 2-o'nlikning har bir sonini ifodalash, uning o'nlik tuzilishi, 20 ichida hisoblash, sonlarning natural ketma-ketligi o'qitiladi. Barcha ishlar ko'rgazma asosida raqamlash qoidalari va tamoyillari asosida bajariladi.

3-dars. Detsimetr. «Detsimetr va santimetr» uzunlik birliklari va ular orasidagi bog'lanish bilan tanishtirish raqamlashni o'qitishda yordam beradi, aksincha raqamlash bilimlari bu uzunlik birliklarini yaxshi tushunishga yordam beradi. Shuningdek, sodda va murakkab ismli sonlar haqida tushuncha beriladi.

4-dars. Og'zaki raqamlash va dastlabki uch darsda hosil qilingan bilim va rnalakalarni mustahkamlash.

5-dars. 2-o'nlikdagi sonlarni yozma raqamlash: sonlarni raqam bilan ifodalash usuli va sonlarni o'qish. Bu yerda o'quvchilar diqqatini yangi sonlami raqamlash uchun yangi raqamlar kiritish talab qilinrnasligini, balki o'ngdan chapga qarab o'qishda birinchi o'rinda birliklarni, ikkinchi o'rinda o'nliklarni yozishni kelishib 01- ishni uqtirish kerak. Bu bilan o'rinlariga qarab raqamlarning qiymatini o'zgarishini o'rgatish mumkin.

6-dars. 2-o'nlik sonlarini o'qishi va yozishi uchun rnashqlar bajarish. Oldingi darslardan olingan bilimlar mustahkamlanadi. Bu yerda sonlarni mustahkamlashga doir mashqlar juda ham foydalidir.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish jarayonida o'qitish materialining mazmuni va o'quv sin fining katta-kichikligiga qar~b bu metodlardan turli o'rinlarda foydalanish murnkin.

Matematika 0 'qitishda kuzatish O'quvchilar bilan matematik faktlarni kuzatish muhim ahamiyatga ega. Natural son laming xossalari, arifmetik amallaming xossalari, geometrik figuralaming xossalarini va hokazolami kuzatish o'quvchilaming fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Arifmetik amallar va son laming ko'pgina xossalarini quyi sinflarda kuzatish bilan tushuntirilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, l-sinf o'quvchilari qo'shishining o'rin almashtirish xossasini kuzatish orqali tez bilib oladi. 5+3= 0, 3+5= 0, 6+1 =0, 1+6=0,2+7= 0, 7+2=0.

Suhbat metodi O'qituvchi biror metodni, masalan, suhbat metodini qo'llaganda o'quvchilarning bilish faoliyatini har tomonlama o'stirish mumkin. Masalan: 100 ichida raqamlashni o'qitishda o'quvchilarga qanday sonlar bir xonali va qanday sonlar ikki xonali ekanligini, undan keyin ikkita raqam bilan ifodalangan sonlami ikki xonali sonlar deyilishini aytib o'tish lozim. Shuningdek, suhbatjarayonida nechta raqam bilan nol ifodalanilishini va 1 dan 9 gacha nechta son, 10 dan 99 gacha nechta son borligini bayon qilish kerak.

Zamonaviy ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinflar matematika fanining poydevori hisoblanadi. Ayniqsa, raqamlash va arifmetik amallarni o‘rgatish orqali o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatni yechish ko‘nikmalari shakllanadi. Bugungi kunda o‘qitishda yangi

pedagogik texnologiyalar, zamonaviy yondashuvlar va raqamli resurslar keng qo‘llanilmoqda.1–4-sinflar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, hisoblash malakasi va matematik tafakkuri shakllanadigan eng muhim bosqichdir. Dastlabki yillarda raqamlar tushunchasini shakllantirish va amallarni o‘rgatish orqali o‘quvchilar kelgusida murakkab mavzularni chuqur o‘zlashtiradi.

Raqamlash tushunchasi va uni o’qitish usullari:

Raqamlash-sonlar bilan tanishish,ularni yozish,o’qish va ularning tartibini o’rganishni anglatadi.Bu bosqichda quyidagi zamonaviy metodlar qo’llaniladi:

-Vizual usullar: Raqamlar ko’rinishini rasm,grafik,shakl orqali o’rgatish.

-Manipulyativ vositalar: Hisob tayoqchalari,kubiklar,maxsus tarqatmalar.

-Raqamli resurslar: Kompyuter va planshetdagi ilovalar.

-Didaktik o’yinlar: “Qaysi son yo’qolgan?”, “Raqamni top” kabi interaktiv o’yinlar.

-Pazllar va kodlash elementlari: Sonli ketma-ketliklar orqali algoritmik fikrlashni rivojlantirish.

Arifmetik amallarni zamonaviy metodlar asosida o’rgatish

Boshlang’ich sinflarda to’rtta asosiy arifmetik amal-qo’shish,ayirish,ko’paytirish va bo’lish o’rgatiladi. Har bir amal uchun zamonaviy metodlar quyidagicha:

-Real hayotiy misollar (savdo narxlar bilan bog’liq mashqlar)

-Matematik diktantlar.

-Rangli hisob kartalari va interaktiv doskalar.

-Ko’paytirish jadvali o’yinlari.

-Bo’lishni geometric shakllar orqali tushuntirish.

-QR kodli mashqlar-o’quvchi kodni skaynerlab, topshiriqni yechadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar:

STEAM metodikasi-matimatika va informatika integratsiyasi orqali dars o’tish.

Smart doska-interaktiv topshiriqlar.

Zamonaviy metodlardan biri “Basketbol o’yini” metodi haqida mavzuni bog’lab o’rganish.

Basketbol o’yini metodi-bu interaktiv o’qitish usullaridan biri bo’lib,o’quvchilarni faollikka,jamoaviy ishlashga va tezkor fikrlashga undaydi. Ushbu metod,ayniqsa boshlang’ich sinflarda matematikani o’rgatishda juda samarali hisoblanadi. Ushbu metod nomi sportdagi basketbol o’yiniga o’xshashligi sababli shunday ataladi. Unda o’qituvchi darsni savol-javob shaklida tashkil etadi, savollarni “top” deb tasavvur qiladi. Har bir to’p o’quvchilar jamoasiga uzatiladi. To’g’ri javob bergan o’quvchi “to’pni savatga tushirgan hisoblanadi”

O’quvchilarga raqamlashni va arifmetik amallarni bajarishni o’rgatishda eng qiziqarli metod hisoblanadi.Masalan “2-sinflarga 1 dan 100 gacha bo’lgan sonlar ustida arifmetik amallarni bajarish” mavzusida ushbu metodni qo’llaymiz.

1.O’quvchilar 2 yoki 3 guruhga bo’linadi.

2.Har bir jamoaga arifmetik masalalar beriladi.

3.To’g’ri javob-“to’p savatga tushdi”ya’ni 1 bal

4.Noto’g’ri javob bo’lsa,boshqa jamoa huquqni egallaydi.

Metodning afzalliklari:

Arifmetik amallarni mustahkamlashda tezkor va samarali.

Bolalarda hamkorlik va raqobat ruhini o’yg’otadi.

O’quvchilar darsda faol ishtirok etadi, zerikmaydi.

Raqamlash va arifmetik amallarni zamonaviy usullar asosida o’rgatish o’quvchilarning matematikaga bo’lgan qiziqishini oshiradi. Interaktiv yondashuvlar ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, axborot texnologiyalariga moslashadi va kelgusida fanlarni oson o’zlashtirishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Mirzaahmedov M.,Ahmedov M.Masalalar yechish metodikasi.”Boshlang‘ich ta’lim” 014. №15.

2. M.E.Jumayev, Z.G.Tadjiyeva, O.Toshmetova, Z.Yunusova —“Boshlang’ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi” Toshkent 2005 – yil
3. Jumayev M.E.,Tojiyeva Z.G’.“Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi”.–T., 2015.
4. Jumayev M.E., Matematika o’qitish metodikasidan praktikum”—- Toshkent.: O’qituvchi, 2004
5. Boboyev O.P., Shamsiyeva G.F.” Matematikadan qo’shimcha masala, mashq va misollar” T.: Turon-Iqbol, 2017- yil
6. Jumayev E.E.” Boshlang’ich matematika nazariyasi va metodikasi” T.: Turon - Iqbol 2012- yil
7 . Ahmedov M., Abdurahmonova N., Jumayev M. Matematika 1-sinf Turon–iqbol T., 2017- yil

MAKTABGACHA VA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING NUTQI VA IJTIMOIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.

Mirzayeva Vasila Qamariddin qizi, Muzaffarova Jasmina Xusniddin qizi
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali talabalari
vasilamirzayeva45@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning maktabgacha va boshlang‘ich ta'lim yoshidagi bolalarning intellektual rivojlanishi hamda ijtimoiy ko‘nikmalariga ta'sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Raqamli vositalarning bolalar o‘quv jarayonidagi o‘rni, ularning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va ijodkorlikni rag‘batlantirishdagi afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan noto‘g‘ri foydalanish natijasida yuzaga keladigan salbiy ta'sirlar, jumladan, diqqatning bo‘linishi, ijtimoiy izolyatsiya va ko‘z salomatligi muammolari ko‘rib chiqilgan. Maqola raqamli vositalardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar, maktabgacha ta'lim, boshlang‘ich ta'lim, bolalar rivojlanishi, ijtimoiy ko‘nikmalar, kognitiv rivojlanish, raqamli vositalar, ta'lim texnologiyalari, gadjetlar.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению влияния цифровых технологий на интеллектуальное развитие и социальные навыки детей дошкольного и младшего школьного возраста. Анализируется роль цифровых инструментов в образовательном процессе детей, их преимущества в развитии познавательных способностей, формировании навыков социального общения и стимулировании творчества. В нем также рассматриваются негативные последствия неправильного использования цифровых технологий, включая отвлечение внимания, социальную изоляцию и проблемы со здоровьем глаз. В статье также приведены рекомендации по эффективному использованию цифровых инструментов.

Ключевые слова: Цифровые технологии, дошкольное образование, начальное образование, развитие ребенка, социальные навыки, когнитивное развитие, цифровые инструменты, образовательные технологии, гаджеты.

Abstract: This article is devoted to studying the impact of digital technologies on the intellectual development and social skills of children of preschool and primary school age. The role of digital tools in the educational process of children, their benefits in developing their cognitive abilities, forming social communication skills and stimulating creativity are analyzed. The negative effects of improper use of digital technologies, including attention deficit, social isolation and eye health problems, are also considered. The article also includes recommendations for the effective use of digital tools.

Keywords: Digital technologies, preschool education, primary education, child development, social skills, cognitive development, digital tools, educational technologies, gadgets.

Kirish

Hozirgi zamon ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Ushbu texnologiyalar bolalarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalar uchun raqamli texnologiyalar nafaqat o‘quv materiallarini o‘zlashtirish, balki ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq, raqamli texnologiyalarning bolalar rivojlanishiga bo‘lgan ta’siri ikki tomonlama bo‘lishi mumkin. Bir tomondan, ular bolalarning o‘quv va kognitiv faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlaydi, ijodkorlikni oshiradi va zamonaviy axborot bilan tanishtiradi. Ikkinchi tomondan, noto‘g‘ri yoki ortiqcha foydalanish natijasida e’tiborning susayishi, ijtimoiy izolyatsiya va salomatlik bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu ishda raqamli texnologiyalarning bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta’sirlari tahlil qilinadi hamda samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Metodologiya

So'nggi yillarda bolalarning elektron gadjetlar (planshetning tartiblari, o'yin pristavkalari, mobil televidenie va kelib chiqishi) bo'lgan bolalarning keng talaffuzi keng talaffuzi va asossiz tanishuvi mavjud. Ota-onalar ularni bolalar farovonligi, chalg'itishi va rivojlanishi uchun to'g'ri keladigan mablag'larni ko'rib chiqadilar. Otalar va onalarning bu lavozimi mustahkamlangan.

Shuningdek, bolalarni iste'mol qilishni istagan elektron o'yinchoqlar, ota-onalarga ish va shaxsiy hayot uchun vaqt va kuch sarflashga imkon beradi. Oiladagi aloqa usulini elektron antezat orqali almashtirish, ularda aqliy kod va aqliy, ijtimoiy, madaniyatning algoritmini buzgani uchun buni oldini olishga harakatlar qilinmoqda.

Elektron o'yinchoqlarning yosh foydalanuvchilari o'zini o'zi etarlicha zaiflashadi, ular moyillikka va ota-onalar va bolalar bilan aloqada motivatsiyada zaiflashadi. Asta-sekin, kattalar aqliy, nutq, hissiy, kommunikativ, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishga nisbatan etakchi rolini yo'qotadilar va bolaning boshqaruviga ta'sir qilish qobiliyatini yo'qotadi. Bu 21-asrning "epidemiyasi" ga aylanadigan autizm va autistik spektr kasalligi (RAS) bo'lgan bolalar sonining sezilarli o'sishining sabablaridan biridir. 2006 yilda Rossiyada "hatto eng ehtiyotkorlik bilan baholangan, kamida 150 ming bola", 2011 yilda "18 yoshgacha bo'lgan irqlar bilan kamida 250-300 ming bola" zararlangan.

2010-2013 yillarda Biz ilk va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalari bo'lgan 130 oilamizni o'tkazdik (1 yildan 5 yilgacha). Barcha bolalar 2 guruhga bo'lindi: 1-guruhda (n = 80) bolalar, 2-guruhda, bolalarda, umumiy nutqni tashxislash, muvaffaqiyatli rivojlanmaganlik bilan kasallanishning tashxislanishi aytilmoqda. Statistik ma'lumotlarni qayta ishlash statistika 6.0 dasturidan foydalangan holda amalga oshirildi. XXI asr va ularning ota-onalari 1980 yilda tug'ilgan, multimediya inqilobining avlodidir. Tadqiqotga ko'ra, 96 (74%) bolalarni muntazam ravishda, bolalarning rivojlanishi, ko'zlari, ko'zlar, ko'zlar bilan parvarish qilish va farzand ko'rish uchun, shuningdek, vrachning tayinlashicha, shuningdek, shifokorni uchratish va farovonlikni, shuningdek, vrachning tayinlanishiga va farzand ko'rish uchun ham gadjetlardan va zamonaviy texnologiyalardan kam miqdarda foydalanish aytilgan.. Shaxsiy vaqtni olish uchun (telefonda, shoshilinch ish va yolg'izlik). Ikkinchi guruhda tez-tez ko'p gadjetlar ishlatilgan.

Ushbu tadqiqotda raqamli texnologiyalarning maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish uchun quyidagi metodlar qo‘llanildi:

1. Adabiyot tahlili: Mavzu bo‘yicha ilmiy maqolalar, kitoblar va xalqaro tadqiqotlar o‘rganilib, raqamli texnologiyalarning bolalar kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri haqida ma’lumotlar yig‘ildi.
2. So‘rovnoma va intervyular: Maktabgacha ta’lim muassasalari va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, ota-onalar hamda bolalar bilan so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazilib, texnologiyalar bilan ishlash tajribasi va ta’sir haqida fikrlar yig‘ildi.
3. Kuzatuv usuli: Bolalarning raqamli vositalardan foydalanish jarayoni bevosita kuzatilib, ularning kognitiv va ijtimoiy faoliyatidagi o‘zgarishlar qayd etildi.

4. Tahliliy yondashuv: Yig‘ilgan ma’lumotlar statistik va kontent tahlili orqali tahlil qilinib, raqamli texnologiyalarning ijobiy va salbiy tomonlari aniqlandi.
Ushbu metodlar bolalar rivojlanishiga raqamli texnologiyalarning ta’sirini har tomonlama o‘rganish va mazmunli xulosalar chiqarishga imkon berdi.

Tajriba

Ushbu tadqiqotda raqamli texnologiyalarning maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga ta’sirini aniqlash maqsadida amaliy tajriba o‘tkazildi. Tajriba quyidagi bosqichlarda tashkil etildi:
1. Ishtirokchilar tanlovi: Tajribaga maktabgacha ta’lim muassasalaridan 4-6 yoshdagi 20 nafar bola va boshlang‘ich sinflardan 7-9 yoshdagi 20 nafar bola jalb qilindi. Ishtirokchilarning ota-onalari va o‘qituvchilarining ruxsati olindi.
2. Nazorat va tajriba guruhlari: Bolalar ikkiga bo‘lindi: nazorat guruhi (raqamli texnologiyalardan foydalanilmagan) va tajriba guruhi (raqamli texnologiyalardan foydalanilgan).
3. Material va vositalar: Tajriba guruhi uchun ta’limiy mobil ilovalar, interaktiv o‘yinlar va multimedia materiallari tanlandi. Nazorat guruhi esa an’anaviy ta’lim vositalaridan (kitoblar, qog‘oz va qalam) foydalandi.
4. Jarayon: 4 hafta davomida har ikki guruh bir xil mavzularni o‘rganishdi, biroq tajriba guruhi raqamli texnologiyalar yordamida, nazorat guruhi esa odatiy usullar bilan mashg‘ulot o‘tkazdi. Har bir dars so‘ngida bolalarning materialni o‘zlashtirish darajasi maxsus testlar orqali baholandi.
5. Natijalarni qayd etish: Bolalarning e’tiborini jamlash qobiliyati, ijodiy fikrlash darajasi va ijtimoiy muloqotdagi faoliyati kuzatildi.
Har ikki guruhda o‘zgarishlar solishtirildi va raqamli vositalarning ta’siri tahlil qilindi. Tajriba guruhi bolalari mavzularni o‘zlashtirishda yuqori natijalarga erishgan bo‘lsa-da, ayrim bolalarda diqqatni jamlash bilan bog‘liq qiyinchiliklar kuzatildi. Nazorat guruhi bolalari esa ijtimoiy faoliyatda biroz ustunlikka ega bo‘ldi. Ushbu natijalar raqamli texnologiyalarni me'yorida va maqsadli qo‘llash zarurligini tasdiqladi.

Natijalar

Tajriba natijalari raqamli texnologiyalarning maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga turli xil ta’sir ko‘rsatishini aniqladi. Quyidagi asosiy natijalar qayd etildi:
1. Materialni o‘zlashtirish darajasi: Tajriba guruhi bolalari ta’limiy materiallarni tezroq va qiziqarli tarzda o‘zlashtirdi. Interaktiv o‘yinlar va multimedia vositalari bolalarda mavzuga nisbatan qiziqishni oshirishda samarali bo‘ldi.
2. Ijodiy fikrlash: Raqamli texnologiyalardan foydalangan bolalarda ijodiy fikrlash ko‘nikmalari yuqori darajada namoyon bo‘ldi. Ular yangi g‘oyalar yaratish va muammolarni hal qilishda faolroq ishtirok etishdi.
3. Ijtimoiy ko‘nikmalar: Nazorat guruhi bolalarining ijtimoiy muloqotda ishtirok etish darajasi yuqoriroq bo‘ldi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish tajriba guruhi bolalarida ayrim hollarda muloqot cheklanishiga olib keldi.
4. Diqqatni jamlash: Tajriba guruhi bolalarida uzoq muddatli diqqatni jamlashda ayrim muammolar kuzatildi, bu raqamli vositalarning bolalarning e’tiborini bo‘lishishiga ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.
5. Salomatlik bilan bog‘liq jihatlar: Tajriba davomida ba’zi bolalarda ko‘z charchashi va ortiqcha ekran vaqtidan shikoyatlar qayd etildi, bu raqamli vositalardan me'yorida foydalanish zarurligini tasdiqlaydi. Tajriba shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar bolalarning kognitiv rivojlanishiga va o‘quv jarayonining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatsa-da, ijtimoiy ko‘nikmalarning rivojlanishi va sog‘liq masalalarida ehtiyotkorlik talab etiladi. Texnologiyalardan muvozanatli va maqsadli foydalanish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Raqamli texnologiyalar maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalarning intellektual rivojlanishi, ta’lim jarayonining qiziqarli va samarali tashkil etilishi uchun keng imkoniyatlar

yaratadi. Ushbu texnologiyalar bolalarning kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlab, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. Tajriba davomida aniqlangan natijalar raqamli vositalarning o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Biroq, raqamli texnologiyalardan noto‘g‘ri yoki me’yordan ortiq foydalanish bolalarning diqqatni jamlash qobiliyatiga, ijtimoiy muloqotiga va salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, raqamli vositalardan foydalanishda quyidagi masalalarga e’tibor qaratish zarur:

Texnologiyalarni bolalarning yoshiga mos va ta’limiy maqsadlarga yo‘naltirilgan tarzda qo‘llash. Raqamli vositalardan foydalanish vaqtini me’yorlash va ularni an’anaviy ta’lim usullari bilan muvozanatlash.

Bolalarning ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun texnologiyalardan tashqarida ham faoliyatlarni tashkil etish.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalarni samarali boshqarish orqali bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash mumkin. Bu esa kelajak avlodni zamonaviy jamiyat talablariga mos tarzda tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tavsiyalar

Raqamli texnologiyalarning maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga ijobiy ta’sirini kuchaytirish va salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun quyidagi tavsiyalarni beraman:

Bolalar uchun moslashtirilgan ta’limiy ilovalar va interaktiv o‘yinlardan foydalanish va texnologiyalardan faqat ta’limiy maqsadlar uchun foydalanishni nazorat qilish aytiladi.

Bolalarning raqamli vositalardan foydalanish vaqtini yoshga mos me’yorda belgilash (maktabgacha yoshdagilar uchun 30 daqiqa, boshlang‘ich ta’lim yoshidagilar uchun 1 soatdan oshmasligi tavsiya etiladi). Natijada ekran cheklovlari o'rnatiladi.

An’anaviy o‘quv usullari (kitob o‘qish, ijodiy mashg‘ulotlar) bilan raqamli texnologiyalardan foydalanishni uyg‘unlashtirish. Bolalarning ijodkorligini oshirish uchun qo‘lda ishlash va guruhli faoliyatlarni tashkil etishda an’anaviy va raqamli ta’limning integratsiyasidan foydalaniladi.

Bolalarni jamoaviy mashg‘ulotlar va muloqotga yo‘naltirilgan o‘yinlarga jalb qilishda va texnologiyalardan foydalanish jarayonida ota-onalar va o‘qituvchilar ishtirokini ta'minlashda ijtimoiy muloqotni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning texnologiyalar bilan ishlashida tanaffuslar tashkil etish va ko‘z sog‘ligini saqlash uchun ekran masofasi va yorug‘lik sharoitlariga rioya qilishda sog‘liqni saqlash bo‘yicha choralar aytib o'tilishi kerak bo'ladi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanishning to‘g‘ri usullari bo‘yicha ota-onalar va pedagoglar uchun treninglar o‘tkazish va bolalarning texnologiyalar bilan ishlash jarayonini kuzatish va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ota-onalar va o‘qituvchilar uchun treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali bolalarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axunova Z.M. (2021). "Raqamli texnologiyalar va ta'lim: zamonaviy yondashuvlar." Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Hasanov B.K. (2020). "Bolalar psixologiyasi va rivojlanishi." Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.
3. Qodirova D.M., Ismoilov N.A. (2019). "Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv rivojlanish." Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
4. World Health Organization (WHO) (2019). "Guidelines on Physical Activity, Sedentary Behaviour and Sleep for Children Under 5 Years of Age." Geneva.
5. UNICEF (2020). "Digital Learning and the Future of Education: Opportunities and Challenges."
6. Prensky, M. (2001). "Digital Natives, Digital Immigrants." On the Horizon, 9(5), 1-6.

7. Anderson, J., & Rainie, L. (2018). "The Future of Well-Being in a Tec-Saturated World." Pew Research Center.
8. Goleman, D. (2006). "Social Intelligence: The New Science of Human Relationships." Bantam Books.
9. Yuldashev R.H. (2022). "Raqamli pedagogika: bolalar rivojlanishiga ta'sir." Namangan: Namangan davlat pedagogika instituti nashriyoti.
10. Vygotsky, L.S. (1978). "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes." Harvard University Press.

DIDAKTIK O'YINLARNI MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA QO'LLASH USULLARI VA SAMARADORLIGI

Xoldarova Madina
SamDU Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishda didaktik o'yinlarni tashkil qilish va uning turli shakllari va usullarini amalda qo'llashga bag'ishlangan. Didaktik o'yinlar o'quv materialini mustahkam o'zlashtirishda ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: ta'lim, didaktika, ta'lim texnalogiyasi, ijodiy fikrlash, badiiy tasavvur, ta'lim jarayoni, o'quv materiali, sensor tarbiya , didaktik o'yinlar.

Абстрактный. Данная статья посвящена организации дидактической игры и практическому применению ее различных форм и методов в эффективной организации образовательного процесса в системе дошкольного образования. Дидактические игры помогают усвоить учебный материал.

Ключевые слова: образование, дидактика, образовательная технология, творческое мышление, художественное воображение, учебный процесс, учебный материал, сенсорное воспитание, дидактические игры.

Abstract. This article is devoted to the organization of didactic games and the practical application of its various forms and methods in the effective organization of the educational process in the preschool education system. Didactic games help to firmly master the educational material.

Keywords: education, didactics, educational technology, creative thinking, artistic imagination, educational process, educational material, sensory education, didactic games.

Bizga ma'lumki, so'ngi yillarda uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimiga yurtboshimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda va bir qator qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Bu albatta, o'z samarasini berib kelmoqda va ko'zlangan maqsadlarga erishilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorlarini ham rivojlantirish maqsadida qabul qilingan qaror va qonunlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagidagi " O'zbekiston Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ- 4312 sonli qarori amaliyotga tatbiq etildi va bu borasida samarali ishlar olib borildi. Shuningdek, ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish va bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash asosiy ilgari surilgan g'oyalardan biridir. Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim berish didaktik o'yinlarsiz amalga oshirish murakkab jarayonni yuzaga keltirishi mumkin.

Didaktik o'yinlar- ta'limning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tizimining ilmiy-texnik nazariyasini shakllantirishda davlat dasturlariga muvofiq ta'limiy, tarbiyaviy maqsadlarga yo'naltirilgan mashg'ulotlarning ahamiyati kattadir. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalariga muvofiq keluvchi dasturlar bilan birga o'quv mashg'ulotlarining konsendratsiyalashgan tamoyillariga aloqadorligini saqlagan holda tashkil qilishda maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi mutaxasislarning o'rni yuqoridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin faoliyati hisoblanadi. Didaktik o'yinlar esa bolalarni har tomonlama shakllantirishda ahamiyatli hisoblanadi. Chunki, didaktik o'yinlar va uning turli shakllari va usullari orqali bolalar o'rganishi kerak bo'lgan barcha sohalarni tarkib toptirish mumkin.

Didaktik o'yinlar orqali bolada quydagilarni shakllantirish mumkin:

- kognitiv va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish: yangi bilimlar olish, ularni umumlashtirish va mustahkamlash, obyektlar va tabiat hodisalari, tabiat haqidagi bilimlarni kengaytirish, diqqat, xotira, tafakkur va kuzata olishni rivojlantirish, o'z fikrlarini erkin bayon eta olish va xulosalar chiqara olishni rivojlantiradi;
- bolalarni nutqini rivojlantirish va lug'at boyligini oshirish va so'zlarni faollashtirish;
- bolalarning ijtimoiylashuvini rivojlantirish va axloqiy, estetik tarbiyalarini to'g'ri shakllantirish.

Didaktik o'yinlarda bolalar jonli va jonsiz tabiat obyktlari o'rtasidagi munosabatlar haqidagi bilimlar shakllanadi. Bunday o'yinlar bilan doimiy shug'ullanuvchi bolalar tengdoshlariga nisbatan sezgir munosabatda bo'ladi. Shu bilan birga insoniy fazilatlari ham shakllanadi. Didaktik o'yinlarning asosiy qoidalari mavjud. Aynan shu qoidalar orqali bolalarda insoniy fazilatlar rivojlanadi.Mavjud qoidalar quydagilardan iborat:

- navbatma-navbat ta'sir etish;
- so'ralganda javob berish;
- o'rtoqlari fikrini eshita olish;
- o'yin jarayonida boshqalarga halaqit bermaslik;
- o'yin qoidasini bajarish;
- o'z xatosini tan olish.

Didaktik o'yinlarda bolalarning yoshi, individual xususiyatlarini hisobga olish ahamiyatli hisoblanadi. Didaktik o'yinlarda kattalar tomonidan o'yin ishtirokchilarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning quydagi usullaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarga to'g'ri ta'lim tarbiya berishda samarali hisoblanadi. Ular quydagilar:

a) buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan didaktik o'yinlar;
b) stol-doska didaktik o'yinlari;
c) og'zaki so'z didaktik o'yinlari;

Har bir usulidan foydalanish maktabgacha ta'lim tizimida ahamiyatli hisoblanadi. Buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshigacha o'ynaladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o'yin asosini tashkil etadi. Didaktik o'yinlar ta'limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o'yinlarning muhim belgisi shundaki, unda qoidalarning mavjudligidir. O'yin maqsadi, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Bunday o'yin turining yana bir ahamiyatli tomoni o'yin davomida tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi.

Didaktik o'yin ayni paytda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xos bo'lgan o'qitish va o'rgatish formasidir. Uning manbaalari xalq pdagogikasida bo'lib, unda qo'shiq aytib, turli harakatlar bajarib o'ynaladigan o'yinlarni birga qo'shish asosida ko'pgina ta'limiy o'yinlar yaratilgan.

Didaktik o'yinda bolalarning o'yin faoliyati uchun xos bo'lgan barcha strukturali elementar g'oya, mazmun, o'yin harakatlari, qoidalari va natijalari mavjud. Didaktik o'yinlarning usullari va ularning qo'llanilishi, shuning bilan birga uning samaradorligini ko'rib chiqamiz.

Buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan didaktik o'yinlar.

Buyum va o'yinchoqlar, o'yin qo'llanmalari didaktik o'yinning markazidir. Pedagog shu maqsadni ko'zlab o'yinchoqlar, suratlar, turli predmetlarni tanlashi va ularni ma'lum bir joyda saqlashi zarur. O'yin vaqtida buyum yoki o'yinchoqni guruh bolalari ko'radigan joyga

qo’yishi va yetarli kattaligiga e’tibor qaratishi kerak. O’yinda faqatgina o’yinchoqlar bilan emas, balki, transport, hayvonlar, qushlar, maishiy buyumlar, texnikaviy o’yinchoqlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O’yinning bu usuli bolalarni ijtimoiylashuviga ta’sir o’tkazuvchi usuli hisoblanadi.

Stol-doska didaktik o’yini. Suratlar, predmetli loto, domino tipidagi xilma-xil o’yin qo’llanmalari, tematik o’yinlar harakat aktivligini va mahoratni talab qiladigan o’yinlar hisoblanadi. O’yinning bu usulidan katta va tayyorlov guruhidagi bolalar uchun qo’llash maqsadga muvofiqdir. Bu usul orqali bolalarning ong bilim 2doirasini kengaytirishga, idroklilikni o’stirishga, atrofdagilar harakterini qabul qilishga o’rgatadi. Stol-doska o’yinlarida loto kartochkalar, juft-juft suratlar, buklama kitoblar, o’yinchoqlar, uy-ro’zg’or buyumlari, eng oddiy transport vositalari, sabzavot va mevalar tasvirlanishi o’yinning ahamiyatli tomoni hisoblanadi.

Og’zaki so’z didaktik o’yinlari. Didaktik o’yinning bu turi barcha yosh guruhlarida olib boriladi. Turli qo’shiqlar va she’rlar o’yinning qiziqarli bo’lishini ta’minlaydi. Bu o’yin turi ijodiyligi bilan ajralib turadi. Ijodiy o’yinlar syujetlari va mazmunining rang-barangligi bolani rivojlantirishda ahamiyatli hisoblanadi. Bunday o’yin faoliyati tizimida asosiy komponent sifatida o’z ichiga personajni, hayotiy vaziyatni, harakatlar va personajlar munosabatini oladi. Didaktik o’yinning bu usuli orqali bolalarda hayotiy vaziyatlar, munosabatlarga kirisha olish va o’zini qanday tutish kerakligi o’rgatiladi. Shuning bilan birga og’zaki so’z o’yinlarida milliy harakatli o’yinlarning borligi ham diqqatga sazovordir. Bunday o’yinlar orqali bolalarda milliy g’urur, vatanga muhabbat, shukronalik hissini shakllantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o’yinlar maktabgacha ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanib, bolalarning intelektual, hissiy, va jismoniy rivojlanishiga katta hissa qo’shadi. Ularni maqsadli va tizimli ravishda qo’llash ta’lim sifatini va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Didaktik o’yinlar maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali hisobanadi.

Bunday o’yinlar orqali bolalar yangi bilimlarni oson va qiziqarli tarzda o’zlashtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “ O’zbekiston Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgcha rivojlantirish konsetsiyasi to’g’risida”gi PQ- 4312 sonli qarori
2. Atayeva N, Salayeva M, Hasanov S “ Umumiy pedagogika” T 2013-yil
3. A.M. Karimova “ Nutq o’stirish mashg’ulotlari jarayonlarida didaktik o’yinlardan foydalanish” Samarqand. SamDU 2020.
4. Avliyaqulov N, Musaeva N, “Pedagogik texnalogiyalar” t-2008-yil.
5. R.Ishmuhammedov, M.Yo’ldoshev “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnalogiyalar” T-2016.

JISMONIY TARBIYADA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

Abdullayev Navro’z

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya sohasida olib borilayotgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar yoritilgan. Jismoniy faollik, innovatsion texnologiyalar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, sport psixologiyasi, gender yondashuvi va inklyuziv ta’lim kabi asosiy yo‘nalishlar asosida tahlillar berilgan. Jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirishda ilmiy asoslangan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, innovatsiya, sport psixologiyasi, inkluziv ta’lim, gender yondashuvi, texnologiya, sog‘lom turmush tarzi.

Kirish: Hozirgi kunda jismoniy tarbiya sohasi faqatgina sog‘liqni mustahkamlash vositasi emas, balki har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Ta’lim va tarbiya tizimida kechayotgan o‘zgarishlar, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi

jismoniy tarbiya dasturlariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, zamonaviy tadqiqotlar ushbu sohaning yangi tendensiyalarini o‘rganishga va amaliyotga tatbiq etishga qaratilmoqda.

Asosiy qism

1. Innovatsion texnologiyalar va raqamlashtirish

Zamonaviy texnologiyalar jismoniy tarbiya tizimiga faol kirib kelmoqda. Masalan, interaktiv doskalar, onlayn mashg‘ulotlar, virtual simulyatorlar, smart soatlar va mobil ilovalar orqali o‘quvchilarning jismoniy holatini tahlil qilish imkoniyati kengaydi. “Smart PE” dasturlari orqali mashqlarni avtomatik kuzatish, baholash va statistik tahlil qilish mumkin. Bu esa o‘qituvchiga har bir o‘quvchiga individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish prinsipi asosida jismoniy tarbiyada har bir ishtirokchining yoshi, jinsi, salomatligi va qiziqishlari hisobga olinmoqda. Tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, moslashtirilgan jismoniy mashqlar motivatsiyani oshiradi, ishtirokchilarni faolroq va barqarorroq qiladi. Bunday yondashuv natijasida o‘quvchilar o‘z-o‘zini anglaydi, o‘ziga bo‘lgan ishonch kuchayadi.So‘nggi yillarda sport psixologiyasi jismoniy tarbiyaning ajralmas qismiga aylanmoqda. Tadqiqotlar orqali o‘quvchilarda stressni boshqarish, musobaqalarga psixologik tayyorgarlik ko‘rish, diqqatni jamlash, motivatsiyani oshirish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish muhimligi aniqlangan. Ayniqsa, maktab va oliy ta’lim muassasalarida sportchilar uchun maxsus psixologik treninglar joriy etilmoqda.Jismoniy tarbiya darslarida gender tengligini ta’minlash muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qizlar va o‘g‘il bolalarning jismoniy faollikka bo‘lgan munosabati, ishtiroki va yondashuvi bir-biridan farq qiladi. Shu bois, mashg‘ulotlar mazmunini diversifikatsiya qilish, qizlar uchun alohida sport mashg‘ulotlari va rag‘batlantiruvchi uslublarni joriy qilish muhimdir.Jismoniy tarbiyada inklyuziv ta’lim prinsiplari asosida imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan ishlash metodikasi shakllanmoqda. Bunday o‘quvchilar uchun moslashtirilgan sport uskunalari, maxsus mashqlar komplekslari, ijtimoiylashtiruvchi treninglar joriy etilmoqda. Tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, bunday yondashuv nafaqat ularning jismoniy holatini yaxshilaydi, balki o‘zaro tenglik, do‘stlik va ijtimoiy muhitga moslashuvini ham kuchaytiradi.

Xulosa. Zamonaviy jismoniy tarbiya tizimi doimiy rivojlanishda bo‘lib, ilmiy tadqiqotlar bu jarayonga katta hissa qo‘shmoqda. Innovatsion texnologiyalar, psixologik yondashuvlar, shaxsga va genderga moslashtirilgan metodikalar orqali jismoniy tarbiya samaradorligini oshirish mumkin. Shu nuqtai nazardan, har bir jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, mutaxassis va tadqiqotchi yangi uslublarni o‘rganishi, ulardan faol foydalanishi zarur. Kelgusida bu yo‘nalishda yanada chuqur va tizimli izlanishlar olib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva, M. (2022). *Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi*. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti.
2. Nurmatov, A., & Ergashev, I. (2021). *Jismoniy tarbiya darslarida zamonaviy innovatsion texnologiyalar*. Toshkent: Ilm ziyo.
3. Karimov, R. (2020). *Inkluziv ta’lim va jismoniy tarbiya: muammolar va yechimlar*. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent davlat pedagogika universiteti.
4. Hasanov, O. (2019). *Sport psixologiyasi asoslari*. Samarqand: Registon nashriyoti.
5. Xolmatova, D. (2023). *Ta’limda gender tengligi: jismoniy tarbiya nuqtai nazaridan tahlil*. O‘zbekiston fanlar akademiyasi jurnali, №2, 45-50 betlar.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA INKLYUZIV MUHIT VA OILANING ISHTIROKI

Yusupova Zulfizar

SamDU Kattaqo’rg’on filiali, Karimova Zuxra, talaba

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalar uchun inklyuziv ta’limning ahamiyatini tahlil qiladi. Inklyuziv ta’lim barcha bolalar, jumladan, jismoniy yoki aqliy

imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan tizim ekanligi ta’kidlanadi. Maqolada inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari, uning jamiyatga ta’siri va bolalarning ijtimoiy hamda shaxsiy rivojlanishiga qo‘shadigan hissasi yoritilgan.

Kalit so’zlar: inklyuziv ta’lim, maktabgacha ta’lim, imkoniyati cheklangan bolalar, pedagogik moslashuv, ijtimoiy integratsiya, ta’lim usullari, bag‘rikenglik, jamiyat rivoji.

Kirish. Bugungi kunda O’zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishlaridan biri inklyuziv ta'limdir. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun

— Bu qonun 2021-yil 16-iyun kuni qabul qilingan va 2021-yil 17-dekabrdan kuchga kirgan. Bundan tashqari:

— O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham nogiron bolalar va ularning oilalari uchun ijtimoiy himoya kafolatlari belgilangan.

— "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonun (yangi tahrirda) — nogironligi bor bolalar uchun inklyuziv ta’lim olish huquqini kafolatlaydi. Inklyuziv yoki qamrab olingan ta'lim - bu alohida ehtiyojli bolalarni umumiy ta'lim (ommaviy) muassasalarida o'qitish jarayonini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama. [1, 14]

Inklyuziv ta'lim (FR. Inclusif-o'z ichiga oladi, lat. include-xulosa qilaman, o'z ichiga olaman) - umumiy ta'limni rivojlantirish jarayoni, bu barcha bolalarning turli ehtiyojlariga moslashish nuqtai nazaridan hamma uchun ta'limning mavjudligini nazarda tutadi, bu esa alohida ehtiyojli bolalar uchun ta'lim olish imkoniyatini beradi. Rivojlanish xususiyatlari bo'lgan bolalarni jamiyatga kiritish vazifasi butun ta'lim tizimining ustuvor vazifasidir. Ushbu muammoni hal qilish jamiyatning yetuklik darajasini va axloqiy madaniyati darajasini belgilaydi.

Inklyuziv ta'lim - bu barcha bolalar, shu jumladan jismoniy, aqliy yoki sensor buzilishlarga ega bolalar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ta'lim tizimi. U bolalarning ehtiyojlariga moslashtirilgan pedagogik yondashuvlar va sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi - har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim olish huquqini ta'minlashdir. Bu nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar uchun, balki butun jamiyat uchun ham foydalidir, chunki inklyuziv ta'lim tenglik va o'zaro tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha yosh - bolaning rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib, aynan shu davrda ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi. Agar bolalar inklyuziv muhitda tarbiyalansa, ular boshqalarni tushunish va hurmat qilishni o‘rganadilar, bu esa kelajakda jamiyatning barcha a'zolari uchun foydalidir.

So'nggi o'n yil ichida nogiron bolalarning muammolari tobora ko'proq turli mutaxassislarning e'tiborini tortmoqda. Ta'lim olish huquqi insonning eng muhim ijtimoiy-madaniy huquqidir, chunki ta'lim jamiyat hayotining inson rivojlanishiga eng katta ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan sohasidir. Hozirgi vaqtda nogironligi bo'lgan shaxslar tomonidan ta'lim olish huquqini amalga oshirish imkoniyatlari huquqiy, tashkiliy, texnik, moliyaviy, ijtimoiy xarakterdagi bir qator muammolarning mavjudligi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan, nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqini ta'minlashning konstitutsiyaviy va huquqiy mexanizmini o'rganish, nafaqat e'lon qilingan, balki davlat, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat institutlari va boshqalar tomonidan ta'minlanadigan haqiqiy huquq va erkinliklarni tahlil qilish alohida dolzarblikka ega.

Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun inklyuziv jismoniy va ta'lim muhitini loyihalash bo'yicha biz ishlab chiqayotgan modelning kontseptual asosi uslubiy tamoyillar tizimidir. Maktabgacha ta'lim muassasasining inklyuziv jismoniy va ta'lim muhitini loyihalash tamoyillari ta'lim mazmuni, shakllari, usullari, shartlari va omillarining tizimli yaxlitligini anglatadi. Ta'lim jarayoni sub'ektlarini nogiron bolaning shaxsiyatining yaxlit sifatini shakllantirish bilan ta'minlaydi, uning rivojlanishi va ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi.

Inklyuziv ta'limning juda muhim jihati bolalarning psixologik xususiyatlari va oilaviy munosabatlar dinamikasini hisobga olgan holda, umuman olganda, oila bilan ishlashga yo'naltirilganligidir. Ota-ona va bola munosabatlarini shakllantirish zarur, bu faqat ota-onalar va yaqinlar o'zaro aloqada bo'lganda, bolaning uyg'un rivojlanishi mumkinligi bilan asoslanadi.

Tarbiyachilar ta’limiy faoliyatining asosi bo'lgan yana bir muhim omil – bu ota-onalarni bola rivojlanishining faol ishtirokchilari bo'lishga undash, ularni o'quv jarayoniga kiritish hisoblanadi. Nogiron bolalarning turli toifalari uchun, ularning xususiyatlariga qarab, ta'limning zarur darajasi va sifatini amalga oshirishni ta'minlaydigan maxsus shartlarning yuqoridagi tarkibiy qismlarining har biri, shuningdek, ushbu toifadagi bolalarning ijtimoiylashivi har xil darajada, har xil sifat va hajmda amalga oshirilishi kerak.

Biz maktabgacha ta'lim muassasalari uchun inklyuziv jismoniy tarbiya va ta'lim muhitini loyihalashning maxsus tamoyillari qatoriga salomatlikni saqlash, optimistik xarakter, psixologik himoya, ijtimoiy bag'rikenglik, ijodkorlik va sinergiya tamoyillarini kiritdik.

Biz insonparvarlik pedagogikasi va psixologiyasining quyidagi postulatlari asosida inklyuziv jismoniy tarbiya va ta’lim muhitini loyihalashtiramiz:

- insonning qadr-qimmati uning qobiliyatlari va yutuqlariga bog'liq emas;

- har bir inson his qilish va o'ylashga qodir;

- har bir inson muloqot qilish va eshitish huquqiga ega;

- barcha odamlar bir-biriga muhtoj;

- haqiqiy ta'lim faqat haqiqiy munosabatlar kontekstida amalga oshirilishi mumkin;

- barcha odamlar tengdoshlarining qo'llab-quvvatlashi va do'stligiga muhtoj;

- barcha nuqsoni borlar uchun taraqqiyotga erishish, ular qila olmaydigan narsadan ko'ra, ular qila oladigan narsada bo'lishi mumkin;

- xilma-xillik inson hayotining barcha jabhalarini kuchaytiradi.

Bugungi kunda inklyuziv ta'limning kamchiliklari jamiyatning nogironlarni qabul qilishga psixologik tayyor emasligidir. Inklyuziv ta'limni joriy etishning dastlabki bosqichida o'qituvchilar duch keladigan muammo sog'lom bolalar va ularning ota-onalari o'rtasida paydo bo'ladigan muammodir. Ba'zi ota-onalar ko'pincha maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning borligidan noroziligini bildiradilar, ularning fikricha, o'z farzandining rivojlanishini kechiktirishi mumkin. Biroq, ko'plab tadqiqotlar buning aksini ko'rsatadi. Shuningdek, pedagogik amaliyotda nogiron bolalar bilan ta'sir ko'rsatish va o'zaro munosabatlar jarayonida shaxsning salbiy namoyon bo'lishiga olib keladigan maktabgacha tarbiyachilarning neytral va noto'g'ri (ba'zan noqonuniy) xatti-harakatlari holatlari mavjud.

Maktabgacha tarbiyachining deontologik tayyorgarligi uning kasbiy tafakkurini, ishini tashkil etish qobiliyatini, muloqot qobiliyatlarini, to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini, qulay psixologik muhitni yaratishni rivojlantiradi. Alohida ta'limga muhtoj bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoniga kiritish, birinchi navbatda, kattalarning (o'qituvchilar, ota-onalar) bolalarga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga qaratilgan - barcha bolalar o'ziga xos xususiyatlarga va alohida ta'lim ehtiyojlariga ega. Shunday qilib, inklyuziv ta'lim bolalarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno qiladigan va barcha odamlarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan mafkuradir. Inklyuziv ta'lim muhitini loyihalash rejimida jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish faoliyati nogiron bolalarning sub'ektiv ko'rinishlarini, shuningdek, sub'ektlararo munosabatlarni hisobga olishga asoslanadi.

Xulosa. Inklyuziv ta’lim – bu nafaqat maxsus ehtiyojga ega bolalar, balki har bir bola uchun ta’lim olishning teng imkoniyatlarini yaratishga asoslangan yondashuvdir. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar uchun inklyuziv ta’limning ahamiyati, uning asosiy tamoyillari, ularni amalga oshirish usullari va MTT va oila hamkorligi masalalari keng muhokama qilindi. Inklyuziv ta’lim bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash hamda shaxsiy rivojlanishiga yordam berishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

- Zamilova, Rimma Ramilevna/Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va inklyuziv ta’lim: darslik / – Namangan: “USMON NOS1R MEDIA” nashriyoti, 2023

- Jumaniyazova, Z. A. (2024). Increasing creative competence of students and strengthening educational efficiency based on individual approach. Web of humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research
- Vygotskiy, L. S. (1983). Defektologiyaning asosiy muammolari. Moskva: Pedagogika.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA NUTQNI RIVOJLANTIRISH METODLARI VA USULLARI

Boymirzayeva Dinora Obid qizi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq o'stirish mashg'ulotidagi metod va usullardan foydalanib bolalarning nutqini rivojlantirish, komunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish hamda nutqdagi nuqsonlarni aniqlashga yo'l ochib beriladi.

Kalit so'zlar: nuqt, metodlar, savol-javob, ko'rgazmalilik, emmotsional holatlar, alla, maqollar, ijtimoiylashuv.

Kirish. Hammamizga ma'lumki maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning birinchi bo'gini hisoblanadi. Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bola 5 yoshgacha bo'lgan davrda hayotida oladigan informatsiyalarning 70%ini olar ekan. Bola ruhiy kamolotining ko'p jihatlari nutq bilan bog'liqdir. Shu sababdan ham ilk tarbiya berishni alla bilan boshlamoq kerak. Bu orqali bolaning eshitish qobilyatini tarbiyalash, hamda emmotsional holatlari- jilmayish, kulish, ovoz tonini uyg'otishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kattalar va bolalar muloqotida keskin farqlar uchraydi. Masalan, ,,r'' harfi o'rniga ,,l'' yoki ,,sh'' harfi o'rniga ,,s'' tovushini ishlatishini kuzatishimiz mumkin. Bu davrda bola bilan to'g'ri ishlash pedagog uchun muhim hisoblanadi.

Nutq o'stirish mashg'ulotida bolalar bilimini kengaytirishga yo'naltirilgan, ishtirok etishga mo'ljallangan qo'yidagi enterfaol metodlardan foydalaniladi.

- Suhbat
- Ko'rgazmalilik
- Tushintirish
- Ko'rsatish
- Kichik guruhlarda ishlash (3-4 ta bola bilan)
- Savol-javob
- Rag'batlantirish
- Amaliy ish
- Bilimlarni mustahkamlash uchun o'yin

Bu usullar mashg'ulotlarda almashtirilgan holda qo'llaniladi. Asosan, mashg'ulotdan oldin quyidagi savol-javobdan tashkil topgan ,, Tanishuv " treningini o'tkazib olamiz.

1-jadval

SAVOLLAR	**JAVOBLAR**(namuna)
i	
2. Yoshingiz?	
3. Sizga kim g'amxo'rlik qiladi?	
4. Sizning kuchli tomonlaringiz?	
5. Sizning kuchsiz tomonlaringiz?	
6. Qaysi o'yinchoqni yaxshi ko'rasiz?	
7. Eng yaxshi ko'rgan she'ringiz?	

(ushbu jadval har bir bola bilan individual ishlagan holda to'ldiriladi)

Muhokama va natijalar. Bolalar nutqini o'stirishda eng ko'p qo'llaniladigan usul bu savol javobdir. Bolaning monologik va diologik nutqi eng muhimi rol o'ynaydi. Nafaqat Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi xodim balki ota-onalar ham bolaning ravon nutqini

rivojlantirishda mas’ul shaxs hisoblanadi. Tarbiyachi bolani mashg‘ulotlar davomida og‘zaki so’z o‘yinlari va suhbatlar tashkil etadi. Bularning barchasi bolaning nutqini o‘stirishdagi ahamiyatga ega qismdir. (1-ilova) Yana bir muhim jihat kuzatuvchanlikdir. Bunda bolaning so‘zlashishidagi nuqsonlar aniqlanib, logopedga murojaat qilishi aytiladi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, inson o’z hayoti davomida ham aqliy, ham jismoniy tomonlama rivojlanib boradi. Shu rivojlanish jarayonida bolaga ravon nutq orqali tushinchalar berib, ilk yosh davridayoq mustaqil fikrlaydigan, muammolarga yechim topadigan qilib tarbiyalash lozim. Shunda rivojlanayotgan bola o‘z ustida ishlaydigan, tinimsiz ravishda mustaqil o‘qib, izlanadigan bo‘ladi. Demak, bola egallayotgan bilimi, o‘zlashtirayotgan ko‘nikma va malakalaridan tashqari, turli metod va usullar hamda xalq og’zaki ijodining eng yaxshi namunalari(alla, lapar, yalla, she’r, maqol va h.k) orqali o‘zida insoniy fazilatlarni shakllantirib borsagina barkamol shaxs bo‘lib tarbiyalanishi mumkin. Agar pedaogog bolalarni jamiyatga kerakli shaxs qilib tarbiyalamoqchi bo’lsa, avvalo o’zida ravon nutqni rivojlantirish hamda turli usul va metodlardan foydalanishi hamda hech qachon bolalarga erkalatib bola tilida muloqot qilmasligi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O.Madayev. O’zbek xalq og’zaki ijodi. Mumtoz so’z. Toshkent-2010
2. A.To’rabekova, N.Nasriddinova. Xalq og’zaki ijodi namunalarini o’qitish metodikasi. Monografiya. Guliston-2021
3. S.S.Avezov, D.Xamrayeva. Maktabgacha ta’lim tashkiloti guruhlarida folklore kichik janrlarini o’rgatish. Monografiya. Buxoro-2022.

YUQORI SINF O‘QITUVCHILARIDA KASBIY MAHORAT OMILLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Namozova Latofat Rustamovna
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuqori sinf o‘qituvchilarida kasbiy mahorat omillarini rivojlanishining bugungi avholi va uning istiqbollari shuningdek, unga ta’sir qiluvchi psixologik omillar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: kasbiy mahorat, kompetensiyalar, fenomenologik, psixologik yondashuvlar, sotsial-psixologik kompetentlik.

Respublikamizda so‘nggi yillarda davom etayotgan barkamol avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash jarayonlarida ularning kasbiy xususiyatlarini shakllantirish, ruhiy jihatdan voyaga yetishida psixologik kompetentliklarning o‘rni hamda uning muammolari tadqiqi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda ta'lim tizimida yuqori sinf o’qituvchilariga zamonaviy kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga binoan 2022-2026-yillarda umumta'lim maktablarida yuqori sinf o’qituvchilarining psixologik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha maxsus dasturlar joriy etilgan. Shu bilan birga, pedagoglar uchun maxsus psixologik treninglar soni 30% ga oshirilgan[1].

Yuqori sinf o‘qituvchilarida psixologik kompetensiyalarning namoyon etilishi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, ko‘plab tadqiqotlar o‘qituvchilarning psixologik tayyorgarligi va ularning pedagogik jarayondagi muvaffaqiyatiga ta’sirini tahlil qiladi. Psixologik kompetensiya o‘qituvchilarning o‘z emotsiyalarini boshqarish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish, stressli vaziyatlarni hal etish, hamdardlik va empatiya ko‘rsatish kabi qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori sinf o‘qituvchilarida psixologik kompetensiyalarning rivojlanganligi pedagogik faoliyat sifatini oshiradi, o‘quvchilarning ehtiyojlarini yanada yaxshiroq tushunishga va ularning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, o‘qituvchilarning psixologik moslashuvchanligi, hissiy barqarorligi va stressni boshqarish qobiliyatlari ularning

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. (2022). 2022-2026-yillar uchun umumta'lim dasturlari.

professional salohiyatini oshiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini anglash, o‘zlariga bo‘lgan ishonch va o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishi ularning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi.

Psixologik kompetensiyalarni yoritish bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, o‘qituvchilar o‘zlarining shaxsiy sifatlarini rivojlantirishlari va bu bilan ularning pedagogik jarayonlarga muvaffaqiyatli moslashishlari muhimligini ta’kidlaydi. Bu kompetensiyalarni o‘zlashtirish esa o‘qituvchilarni kasbiy sohada liderlik qilishga, o‘quvchilar bilan ishonchli va ijobiy munosabatlar o‘rnatishga imkon beradi. Shuningdek, yuqori sinf o‘qituvchilari uchun ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar ham pedagogik jarayonning muhim qismidir, bu esa ta’lim jarayonining yanada samarali bo‘lishiga yordam beradi.

Inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Kadrlar tayyorlash sohasida hozirga qadar amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar faqat mavjud ta’lim tizimini isloh qilishga qaratilgan edi. U shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlari bilan kasbiy tayyorgarlikning amaldagi tizimi o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishni ta’minlamas edi. Xalqaro tajribada, mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ahvoli va muammolarini tahlil qilish asosida uning prinsip jihatidan yangi modeli ishlab chiqildi.

Yuqori sinf o’qituvchilarida kompetentlikni bir qator g`arb va sharq psixologiya maktablarida, shuningdek pedagogik adabiyotlarda o`rganilish jihatlarini ko`rib chiqdik. Yuqori sinf o’qituvchilarining kasbiy kompetentligining turlicha xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda kompetentlik metodologiyasiga dahldor bo‘lgan psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga harakat qildik. Ko‘pgina ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud.

Evropa olimlari hamda mahalliy olimlarimiz psixologiyada shaxsning tuzilishi, uning individual jihatlari va bir qator xususiyatlarini har tomonlama rivojlantirishda turli xil psixologik usullardan foydalanishga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, xorijiy adabiyotlarda «Kompetentlik» tushunchasini ta’riflashda yagona yondashuv mavjud emas. Kompetentlik so‘zining ma’nosi lotinchadan olingan bo‘lib, «competo» «erishyapman, munosibman» degan ma’nolarni anglatadi, hamda ma’lum faoliyat turidan xabardorligini bilishini bildiradi. «Kompetensiya» bu – inson faoliyatiga namoyon bo‘ladigan, yetarli darajada boxabar faoliyat yoki sohada insonning amaliy jihatdan qodirligi, shuningdek, kasbiy faoliyatning ma’lum bir tizim bo‘yicha shakllanganligini belgilovchi xususiyat hisoblanadi. Shunga qaramay, aksariyat mualliflar tomonidan kompetentlik faoliyat yoki harakatning samarali ishlashi bilan bog‘lanadi.

Shuningdek, kompetentlik shaxsning xususiyatlaridan biri bo‘lib, uning shakllanishi zamonaviy psixologiyaning asosi hisoblanadi.

Jumladan, Yevropa va amerikalik tadqiqotchilar kompetentlikning amaliy jihatlarini, ya’ni muhitga ta’sir etuvchi (I.Borg, M.Muller, V.I.Lupandin), vazifani muvaffaqiyatli uddalashga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi (O.O.Gonina, M.Kaplan, L.Nuguist); faoliyat tuzilmasidagi alohida hatti-harakatlarni amalga oshirishni ta’minotchisi (A.A.Blaginin, G.Birkgoff), amaliyotga tatbiq etiladigan usullarni bilish jarayonlariga qo‘llovchi (S.P.Destra, S.Dollinger) sifatida o‘rganishgan.

Jahon psixologiyasida kompetentlik muammosini tadqiq qilishga nisbatan asosan ikkita yo‘nalish ko‘rsatib o‘tilgan: kasbiy rivojlanish, shaxsning kamol topishiga yo‘naltirilgan va kasbiy shakllanishning ijtimoiy tomonlari va omillariga yo‘naltirilgandir.

Jumladan, M.Argayl kasbiy sifatlar va individning kasbiy shakllanishi orasidagi bog‘liqlik mavjudligi haqida fikr yuritib, quyidagilarni mujassamlashtirgan murakkab jarayon ekanligi ta’kidlagan: kasbiy treninglar, faoliyatni amalga oshirishga nisbatan qo‘yiladigan talablar va standartlarni o‘zlashtirish, mehnat jamoasi doirasida xulq-atvor me’yorlarini tushunish [55].

Aynan mehnat jamoasidagi boshqa shaxslar bilan o‘zaro hamkorlik individga o‘zi egallab turgan kasbning aniq standartlarini o‘zlashtirish imkonini beradi. Kasbiy me’yorlarga amal qilish individga kasbiy sifatlarni o‘zida shakllantirishga va o‘z mavqeini uzoq vaqt saqlab turishga zamin hozirlaydi. Kasbiy sifatlar ushbu yondashuvda uzoq vaqt davom etadigan kasbiy faoliyat bilan bog‘liq kasbiy mavqega yaqin tavsifnoma sifatida izohlanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda kasbiy rivojlanishni tahlil qilishda asosiy e’tibor qaror qabul qilishga qaratiladi. Shu bilan bir qatorda asosiy urg‘u insonning kasbiy rivojlanishidagi muammoli vaziyatlarni qabul qilish va ularni bartaraf etish usullarini bilishini tahlil qilishga qaratiladi. Kasbiy o‘zini o‘zi anglash borasida qaror qabul qilish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- muammoli vaziyatlarning yuzaga kelishi;
- real imkoniyatlarni aniqlash;

- imkoniyatlarni qator mezonlar yordamida baholash (omad va omadsizlik tizimini baholash;

- mashhurlikni yoqtirmaslik, rag‘batlantirish yoki qanoatlantirish;

- kasbiy karyeradagi o‘sish, ishlab chiqarish faoliyatidagi qiyinchiliklar, ta’lim va ish joyidagi mavqe),

- adekvat imkoniyatlarni tanlash va amalga oshirish, qarorlarning ijtimoiy dinamika bilan muvofiqligi va boshqalar [99].

Shaxsiy rivojlanish va kasbiy shakllanish ijtimoiy kontekstining muvofiqligi muammosi kasbiy sifatlarni tadqiq qiluvchi jahon olimlarining ishlarida ham o‘z aksini topgan.

L.B.Shneyder asos solgan kasbiy sifatlarni tadqiq qilishning zamonaviy yo‘nalishida ushbu fenomen kasbiy o‘zini - o‘zi anglash sifatida ko‘rib chiqiladi, bunda shaxs o‘zini muayyan bir kasb va mehnat jamoasining vakili sifatida anglaydi, o‘z «Men»ini kognitiv, emotsional xulq-atvor jihatdan tavsiflashda o‘zini va boshqalardan farqli ekanligini aniqlaydi. Kasbiy sifatlarni tadqiq qiluvchi jahon psixologlari uchun psixik voqeliklarni tuzilmaviyligi va tizimliligi tamoyili, sifatlarning genetik o‘zaro bog‘liqlik darajasini qidirish, kasbiy faoliyatni o‘zlashtirish va amalga oshirish jarayonida sifatlarning shakllanishini tadqiq qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu jahon tadqiqotchilarining an’anaviy va konseptual metodologik bazasi bo‘lib, quyidagilarga xizmat qiladi: kasbiy faoliyatdagi sistemagenez, shaxsning kasbiy shakllanishi, mehnat faoliyati va boshqalar.

Psixologik kompetensiyalarning rivojlanishi yuqori sinf o‘qituvchilariga o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos yondashuvlarni ishlab chiqishda yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va o‘z salohiyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga imkon yaratadi. O‘qituvchining hissiy intellekti, ya’ni o‘z hissiyotlarini anglash va boshqara olish qobiliyati, uning sinfdagi stressli vaziyatlarni hal qilishiga, o‘quvchilarning qiyinchiliklarga moslashishiga yordam beradi. Bunga qo‘shimcha ravishda, o‘qituvchining empatiya ko‘nikmasi o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularning psixologik qulayligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan muloqot o‘rnatishda yuqori darajadagi ijtimoiy kompetensiyaga ega bo‘lishlari kerak. Bu, ayniqsa, o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlari va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish jarayonida muhimdir. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishga va kasbiy ko‘nikmalarini muntazam ravishda yangilab borishga bo‘lgan tayyorligi ularda yuqori darajadagi o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvni shakllantiradi. Ta'lim tizimining xalqaro standartlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalarini o‘zlashtirish orqali yuqori sinf o‘qituvchilari nafaqat bilim berishda, balki

o‘quvchilarning psixologik holatlarini qo‘llab-quvvatlashda ham muvaffaqiyat qozonishlari mumkin.

Umuman olganda, psixologik kompetensiyalarning rivojlanishi o‘qituvchining pedagogik faoliyatini yanada samarali va muvaffaqiyatli qiladigan asosiy omillardan biri bo‘lib, bu jarayonni muntazam ravishda yangilab borish talab etiladi.

Adabayotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. (2022). 2022-2026-yillar uchun umumta'lim dasturlari.
2. Ананьев Б. Г. Интеллектуальная деятельность и терморегуляция // Возрастная психология взрослых: Материалы конф. Вып. №3. Ленинград, 1991. С. 75—84.
3. Айзенк Г.Ю. Интеллект: новый взгляд // Вопросы психологии. 1995. М.:С. 111–131.
4. Mayer J.D., Salovey P., Caruso D.R. Mayer–Salovey–Caruso Emotional Intelligence Test (MSCEIT) user's manual. Toronto, Canada: MHS Publishers, 2002.

4. Немов Р.С., Алтунина И.Р. Социальная психология / Учебное пособие.- СПб.: Питер,2010.-432с.

5. Олпорт Г. Становление личности. Избранные труды. – М: Смысл, 2002 – 329 с.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ BUZILISHI KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK METODLAR TAHLILI

SamDUKF Pedagogika va tillarni o’qitish fakulteti talabasi
Teshaboyeva Mehruza

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq buzilishi holatlari va nutq buzilish holatlarining asosiy sabablari hamda bu muammoni bartaraf etish uchun qo‘llaniladigan pedagogik va psixologik metodlar tahlil qilingan.

Kalit so’zlar : idividual tuzatish dasturi , psixologik , pedagogik prinsip , lagopediya , sikrinning diagnostikasi , psixodiagnostika ,korreksiya .

Nutq – bolaning ijtimoiylashuvi, atrof-muhit bilan muloqoti va psixik rivojlanishining muhim omilidir. Maktabgacha yoshda bola asosiy nutq ko‘nikmalarini egallaydi.birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar natijasida anomal rivojlanishning shakllanishi murakkab bo'lib, u bir tomondan har bir bola uchun individual nuqsonlar, ikkinchidan esa shunga o'xshash nuqsonlar bilan tavsiflanadi. Bu o'ziga xoslik rivojlanish nogironligining har bir turiga taalluqlidir va bolalarning psixofizik xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus ta'lim sharoitlarini aniqlashga yordam beradi. Shu sababli bu davrda yuzaga keladigan nutq buzilishlarini o‘z vaqtida aniqlash va samarali usullar bilan bartaraf etish dolzarb vazifalardan biridir .Maktabgacha ta’lim muassasalari va umumta’lim maktablarida ham aqliy va jismoniy nuqsonlari bor bolalar ko’pchilikni tashkil qiladi .bunday nuqsonlarning ko'rinishi har xil bo'lishi mumkin. Katta guruhning harakati, hissiy yoki intellektual sohalaridagi nuqsonlar aniq ifodalanmagan holda: eshitish, ko'rish, fazoviy-kognitiv hislar, tayanch -harakat tizimi, fonemik bilish, hissiy-irodaviy buzilishlar, nutq rivojlanishidagi nuqsonlar , xattiharakatlari buzilgan bolalar , aqliy zaiflik, somatik. Kechikish kabi belgilarida yaqqol ko’zga tashlanadi. . Maktabgacha yoshda aniq aqliy yoki jismoniy rivojlanish kamchiliklari aniqlanganda, engil kamchiliklar uzoq vaqt davomida sezilmaydi. Rivojlanishdagi nuqsonlarni tashxislash uch bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich skrining deb ataladi. Bu bosqichda bolaning rivojlanishidagi kechikishlar, aqliy va jismoniy nuqsonlar aniqlanadi, ammo ularning tabiati va chuqurligini aniqlash qiyin. Ikkinchi bosqich - rivojlanish nuqsonlarining differentsial diagnostikasi. Ushbu bosqichning maqsadi rivojlanish nuqsonining turini (turini, toifasini) aniqlashdir. Uning natijalariga ko'ra, bolaning imkoniyatlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim muassasasining turi va dasturi, ularni tarbiyalashning optimal pedagogik yo'nalishi belgilanadi. Differensial diagnostikada psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning faoliyati yetakchi rol o'ynaydi. Uchinchi bosqich -

fenomenologik. Uning maqsadi - bolaning individual xususiyatlarini, ya'ni fikrlash faoliyatining xususiyatlarini, hissiy va irodaviy 144 ko'lamini, mehnat qobiliyatini, shaxsiy o'rganish va rivojlantirish uchun individual sharoitlarni tashkil qilish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan asosiy nutq buzilishlariga quyidagilar kiradi: Fonematik eshitish buzilishi – tovushlarni to‘g‘ri ajrata olmaslik. Dislaliya – tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish. Disartriya – nutq a’zolari muskullarining muvofiqlashtirilmagan harakati haqida .

Alaliya – miya faoliyati buzilishi tufayli nutqning umuman yo‘qligi yoki kechikkan rivojlanishi haqida .

Tartamlik (logonevroz) – nutqning ritmik buzilishi (tutilish) kabilar .

Bu buzilishlarning sabablari orasida quyidagilar alohida ajralib turadi:

Perinatal (homiladorlik yoki tug‘ilish paytida yuzaga kelgan) omillar

Nevrologik kasalliklar va psixologik kasalliklar

Psixologik travmalar ham shular jumlasidandir

Oila muhiti va tarbiyaning yetarli emasligi ham sabablardan biridir

Genetik moyillikka bo’lgan bolalar

Pedagogik metodlar

Pedagogik yondashuvlar bolani faol muloqotga jalb etish va nutqni bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan. Asosiy usullar:

Logopedik mashqlar – maxsus o‘yinlar, nafas mashqlari va artikulyatsion gimnastika mashqlari.

Didaktik o‘yinlar – tovushlarni ajratish, so‘z birikmalarini tuzish va sodda gaplarni tartiblash .

Nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan darslar – ertak aytish, savol-javob, hikoya tuzish suratlarga qarab so’zlab berish .

Har bir bosqichning o'z vazifalari bor va har bir bosqichda u psixodiagnostikaning zamonaviy holatini tavsiflovchi bir qator muammolar bilan bog'liq . Skriningdan ko‘zlangan asosiy maqsad – bolaning psixologik rivojlanishi davridagi turli nuqson va kamchiliklarni erta aniqlash, bolaning rivojlanishidagi psixologik-pedagogik muammolarni aniqlash va unga umumiy ta’lim muassasalarida sharoit yaratishdan iborat. Bundan tashqari, skrining-diagnostika ta'lim muassasalarida bolalarning ta'lim sifatini baholash muammosini hal qilishga yordam beradi: bolalar uchun ta'lim dasturlaridagi har qanday kamchiliklarni, muayyan ta'lim muassasasida ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash. Skrining - Tashxisni tashkil etish va o'tkazish muammosi hozirgi vaqtda boshqacha tarzda amalga oshiriladi. Masalan, bolaga ta'lim berishda qiynalayotgan pedagoglar maktab psixologidan 146 bolaning xususiyatlarini baholashni va tegishli harakatlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishni so'rashlari mumkin. Boshqa hollarda, ota-onalar psixologga murojaat qilishadi: ulardan bolani tarbiyalash jarayonida duch keladigan xatti-harakatlar muammolari haqida o'z baholarini berishlari va muayyan ta'lim choralari bo'yicha tavsiyalar berishlari so'raladi. Shuni ta'kidlash kerakki, murojaatlar kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'proq uchraydi, chunki ota-onalar bolaning maktabga "tayyorgarlik davrida" psixologik muammosi borligini his qila boshlaydilar . Va nihoyat, maxsus tashkil etilgan skrining tekshiruvi natijalari bolaning rivojlanishi muammosini aniqlashi mumkin. Skrining shakli individual va frontal bo'lishi mumkin. Ushbu yondashuv rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni aniqlash uchun zamonaviy talablarga javob beradi, lekin har doim ham qo'llanilmaydi. Skriningda qo'llaniladigan usullar har doim ham skrining tekshiruvi vazifalariga mos kelmaydi va rivojlanish nuqsonlarini aniqlashda mutaxassis psixolog-pedagogni tayyorlash ko'pincha etarli emas. Hozirgi vaqtda “talablar” bo‘yicha skrining-tashxis qo‘yish birinchi o‘rinda turadi, lekin u bolaning xususiyatlarini har tomonlama o‘rganib, unga psixologikpedagogik yordam bera olmayapti. Shunday qilib, skrining tashxisida ham bir qator muammolar mavjud.1. Bolani tekshirish usullari ko'p bo'lsa-da, skriningda qo'llaniladigan diagnostika talablari ilmiy asoslangan emas. Bu, ayniqsa, birinchi 3 yoshgacha bo'lganlar uchun to'g'ri keladi. 2. Boshlang'ich va maktabgacha yoshdagi

aqliy rivojlanishi normal bo'lgan va psixologik-pedagogik va tibbiy ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni ajratish uchun skrining-tashxisni ishlab chiqish mezonlari tizimini ishlab chiqish juda qiyin. 3. Skrining o‘tkazishdagi muhim masalalardan biri sub’ektning shaxsiy xususiyatlari va emotsional holatini o‘rganish hisoblanadi. Oldingi tajribalarga salbiy munosabat, muvaffaqiyat va kamchiliklarga munosabat va hokazolar vazifaning sifatiga ta'sir qiladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida logoped-pedagoglar bolalar bilan individual va guruhli mashg‘ulotlar olib boradi , ular bilan alohida ishlash juda katta samara beradi .

Psixologik metodlar tahlili

Psixologik yondashuvlar bolaning ruhiy holatini barqarorlashtirish va nutqqa oid ichki to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan metod:

Psixokorreksion mashg‘ulotlar – tasavvur, diqqat, xotira va emotsional muvozanatni rivojlantirish metodlari .

Art-terapiya – rasm chizish, ranglar orqali his-tuyg‘ularni ifodalash va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan metod.

O‘yin terapiyasi – muloqotga kirishishda erkinlikni oshirish hamda boshqalar ichida o’zini erkin his qilish.

Shuningdek, ota-onalar bilan psixologik suhbatlar va maslahatlar orqali uy sharoitida bolani to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalari va yo’l yo’riqlarini o’rgatish beriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini erta aniqlash va bartaraf etish ko‘p qirrali yondashuvni talab etadi. Pedagogik va psixologik metodlar bir-birini to‘ldirib boradi va bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Logoped, psixolog, tarbiyachi va ota-onalarning hamkorligi samarali natijalarga erishish mumkin

ADABIYOTLAR

1.Ayupova MY “Logopediya” Toshkent – 2019

2. Mo‘minova L.R.-“Logopediya tekshiruvi va bolalarni o‘qitish” Toshkent – 1992 y.

3. Mo‘minova L.R. – “Logopediya” Toshkent – 1994 y.

4. Mo‘minova L.R.- “To‘liqsiz nutqi bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirishning korrektiv pedagogik asoslari” Annotatsiya.

5. Mo‘minova L.R. , Ayupova M.Yu. _ Nutq terapiyasi -T, 1993 yil.

6. L.R.Mo‘minova . Nutq nuqsonlari bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi. - T., 2012 yil.

7. Mo‘minova L.R “Maxsus psixologiya” Toshkent 2016 y

TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI: FAN VA TA'LIM CHORRAHASIDA

Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya. *Insoniyat hayoti jamiyatda kechadi. Jamiyat doimo o'zgarib boraveradi. Bu o'zgarish taraqqiyot bo'lishi ham, tanazzul bo'lishi ham mumkin. Taraqqiyot ham, tanazzul ham o'zgarish bo'gani bois, insoniyat hayotining barqarorligini ta'minlash, mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning yechimini topish, oldini olish yashashning birdan bir shartidir. Bu muammolarni faqatgina bir fan doirasidagi bilimlar bilan hal qilib bo'lmasligi aniq. Shunday ekan, tanazzulning oldini olish yoki undan chiqish, shuningdek, taraqqiyot uchun mustahkam rivojlanish chiziqlarini chizib olish va bu yo'lda muvaffaqiyat qozonish uchun doimo ilmiy yuksalish hamda uning hayotga tatbiqi muhimdir. Bu borada tilshunoslik fanining rivoji, uning ilmiy yutuqlari, o'z davri va zamonasi muammolari doirasidagi masalalar yechimi bilan uzviylik hamda izchillikdagi xulosalari ham juda muhim ehtiyojlarni hal etishga xizmat qiladi. Zotan, kishi o'z atrofini, keng ma'noda o'z olamini kognitiv tasavvur etar ekan, bu olam va uning kognitiv ifodashi shakllanishi, rivojlanishi va bu bilan bog'liqlikdagi barcha masalalar yechimi til vositasida shakllanadi, amalga oshadi.*

Kalit so'zlar: *til, nutq, jamiyat, tafakkur, moddiyat, ma'naviyat, ilm, fan, ijtimoiy hayot, taraqqiyot, tanazzul, sistema, struktura, hissiy bilish, aqliy bilish, mantiq, matiqiy bilim, metafizika, ilmi hol, ilmi qol.*

Kirish. Dunyo yaralibdiki, unda tinimsiz harakat – faoliyat mujassamdir. Harakat bizning nazarimizda, hayot – tiriklik belgisidir. Hayot tushunchasi keng ko'lamlidir. Zotan, mazkur tushuncha zamirida ko'plab qarashlar va tasavvurlar mujassam. Tiriklikning eng muhim belgilaridan biri – o'zgarishlarning sodir bo'lishidir. Inson tirik ekan, u albatta, bu hayotiy dunyoda shu o'zgarishlarning qurshovida bo'ladi. Bu o'zgarishlar uni doimo faoliyatda bo'lishga, ya'ni o'zgarishlarga qarshi kurashish yoki unga moslashishga majbur etadi. Majburlik tushunchasi bu o'rinda mavjud ikki yo'ldan birini tanlash bilan bog'liqdir. Kishi bu ikki yo'lning qay birini tanlashi uchun esa doimo sezgi, bilim, tajriba va boshqalarning shunday vaziyatlarda qo'llagan yo'li – ibratiga tayanadi. Qayd etilgan holatlarda ma'lumot juda katta qimmatga ega bo'ladi. Bu esa ma'naviyatning moddiylikka aylanishi sifatida namoyon bo'ladi.

Metodologiya. Insoniyat moddiy va ma'naviy ehtiyojlar olamida yashaydi. Shunday ekan, uning ajdodlar tajribasi avlodlar uchun bilim manbayi bo'lishi shubhasiz. Bu yo'lda insoniyat hayotida ko'plab sivilizatsiyalar vujudga kelgani, ularning taraqqiy etib, rivojlangani va turli sabablarga ko'ra, yo'q bo'lib ketgani haqidagi ma'lumotlarni eslashning o'zi kifoyadir. Insoniyat olamda mavjud har bir narsa va hodisani sirlilik belgisi ostida qabul qiladi. Bu sirlarni ochish uchun esa, yuqorida qayd etilganidek, doimo sezgi, bilim, tajriba va boshqalarning shunday vaziyatlarda qo'llagan yo'li – ibratiga tayanadi. Bu insoniyat uchun yashash qonuniyati, murakkabliklarni hal qilishdagi takrorlanuvchi kuch-qudratdir. Bu insoniyatning hayot haqidagi eng buyuk o'zlari ottirgan intelektual tayanchidir. Buning nomini *logika – mantiq* deb ataymiz.

Logika tushunchasining asosi «logos» so'zi bilan bog'liqdir. Mazkur tushuncha, avvalo, *so'z* degan ma'no bilan bog'lanadi. *Mantiq* tushunchasi «logos» bilan o'zviy bog'liq ekani isbot talab qilmaydi. Chunki mantiq so'zi O'rta asrlarda Sharq (arab) ilmida yunon falsafasini tadqiq qilish davrida o'zlashtirilgan. *Mantiq* so'zining semantikasi *nutq* tushunchasi bilan uzviydir. Boshqacha aytganda, bu ikki so'z, ya'ni *mantiq* va *nutq* so'zlari o'zakdosh so'zlardir. Ma'lumki, logos ham *so'z* tushunchasida qo'llanilgan (Muhokamotul lug'atayn). Demak, hayot muammolari doirasidagi masalalar yechimi uchun muhim bo'lgan qonuniyatlar qadimgi asrlardan boshlab, to hozirgi kungacha va ayni davrda ham ma'lum darajada *logikaga – mantiqqa* tayanib hal qilinadi.

Ammo, shuni ham aytish joizki, insonning sezgilari, bilim va tajribalari, ajdodlarining ibrati asosida shakllangan bilim qudrati hamma narasini ham anglashga imkon beravermaydi.

Bunda bizga ilmning egasi, buyuk qudrat egasi tomonidan berilgan ilmlar majmui *metafizika – ilmiy g‘ayb* ehtiyojlarni qondirish darajasida imkoniyatlar eshigini ochadi (Kimyoyi saodat).

Albatta, *hayot – tiriklik* tushunchalari nafaqat insonlarga xos, balki bu tushuncha keng qamrovida *hayvonot va nabotot*ni ham mujassam etadi. Ammo jonli mavjudod ichida so‘zlashish – til – nutq faqat odamga in’om etilgan. Ana shu buyuk in’om – lisonning insoniyat hayotidagi muammolar yechimidagi kalitning yo vazifasini, yo qiyofasi (shakli)ni, yo uning mohiyatini taqazo etishiga shubha yo‘q. Shu bois, bu *kalit – lison*ni ilmiy bilish, bu bilish samarasi bo‘lgan bilimlardan har bir davrda to‘g‘ri foydalanish masalasi muhim bo‘lib kelgan va bu muhimlik belgilari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini hamma davrlardagidek saqlab turibdi.

Tadqiqot natijalari. Biz yashab turgan tamaddun (sivilizatsiya) tarixiga nazar tashlaganimizda, uning bizga nisibatan yaxshi ma’lum bo‘lgan davri bu uch ming yillik tarixni taqazo etishi mumkin. Mazkur tamaddunda tilshunoslik ilmining paydo bo‘lishi, rivojlanishi tarixi qadimgi Hindiston, Yunoniston, Xitoy, O‘rta asrlarda Arab mamlaktarlari, Markaziy Osiyo, keyinchalik Eropa, Amerikada sodir bo‘lgani ma’lum. Bularning barchasida ham mazkur soha ilmining shakllanishiga sabab diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolar doirasidagi masalalarga yechim topish zaruratidir.

Bugun dunyoda globallashuv davri kechayotganidan kelib chiqilsa, yuqorida qayd etilgan diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolar doirasidagi masalalarning zamonaviy tus olgani, ularning dunyo maydonida tezkor sodir bo‘layotgani, o‘z navbatida, ularga yechim topish ham tezkorlikni talab qilmoqda.

Tahlillar. Bir vaqtlar bir insonning bir umrlik hayoti uchun bir til, yana ham konkret qilib aytganda, bir tilning muayyan shevasining o‘zi yetarli bo‘lgan. Inson bir makonda tug‘ilib, voyaga yetib hayot ne’matlaridan bahramand bo‘lib, yashab umr kechirib, shu makonda olamdan o‘tgan. Uning butun umrlik hayoti – tiriklik davri uchun o‘sha til aloqa quroli sifatida unga yetarli bo‘lgan.

Bugungi kunga kelib, til – muloqot vositasiga bo‘lgan ehtiyoj zamonaviy tezkorlik, rang-baranglik mezonlari va talablari asosida o‘zgacha tus oldi. Shu bois tilning insoniyat hayotidagi o‘rni va mohiyati ham shunga monand o‘zgardi. Bugun bir tilni bilishning o‘zi bizning jamiyatimizda har qanday insonga ham kamlik qilmoqda. Agar global miqyosdagi faoliyat va hayot tarzi prizmasidan bu olamga nazar tashlasak, qayd etilgan fikrlarimizning dalillari to‘lib-toshib yotganining guvohi bo‘lishimiz shubhasiz.

Ajdodlarimiz qayd etgan olam xususidagi ma’naviy qarashlarda o‘n sakkiz ming olam tushunchasi haqida tafakkur qiladigan bo‘lsak, bugungi kunga kelib insoniyat ro‘yi-rost tan olib turgan yana bir olam – vertual olam xususida bemalol gapirishimiz mumkin.

Insoniyat tarixida mamlakatlar biri boshqasining maydonini, hududini egallab olishga, moddiyatni dunyoning matohlaridan izlashga intilib ko‘plab urushlar, talonchilik, bosqinchilik qilishga yo‘l qo‘yganliklarining guvohi bo‘lamiz. Bu harakatlar ba’zan ochiqcha, ba’zan esa turli xil harakatlar nomi ostiga yashiringan holda bugungi kunda ham qaysidir darajada davom etib kelmoqda.

Ammo, buyuk qudrat egasi insoniyatga uning intellektiga jo etilgan yangi olam sarhadlarini in’om etdiki, bu olam yuqorida qayd etganimiz – vertual olamdir. Vertual olamda ham muloqot, bu olamni zabt etish, uni egallash, unda o‘z makoni va maqomiga ega bo‘lish shartlari biz yashab turgan olamnikidan farqli bo‘lmagan iva tubdan farqlanuvchi jihatlar mavjudligi bilan xarakterlanadi. Vertual olamda ham til kerak bo‘lishi aniq. Biroq bu til insonlarning milliy tillari emas, balki kodlarga asoslangan, boshqacha aytganda algoritmlar asosida shakllangan tildir. Bu olamda millatlar xalqlar o‘z o‘rnini egallashga jiddu jahd bilan urinayotgan bir davrda o‘zbek xalqi ham mazkur faoliyatni oqilona amalga oshirmog‘i zaruratdir. Tilshunoslik fani taraqqiyotida zamonaviy yo‘nalishlar sifatida kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, matn lingvistikasi, kommunikativ lingvistika, sotsiolingvistika, psixlingvistika, neyrolingvistika, pragmalingvistika, kognitiv lingvistika kabi sohalar shakllandiki, mazkur zamonaviy yo‘nalishlar fan taraqqiyotining dinamikasini belgilab beradi. Shundan kelib chiqqan holda, fanda shakllangan fundamental

konsepsiyalarni ta’lim jarayoniga olib kirish masalalari bugungi kunning ta’lim taraqqiyoti uchun kechiktirib bo‘lmaydigan muhim masalalar jumlasidandir. Shunday ekan, bugungi kunda mavjud ta’limning maqsad va vazifalarini isloh qilish, bunda til, muloqot va insonning kommunikativ ehtiyojlarining pragmatik, kognitiv masalalarini ta’lim jarayonida o‘rgatish ishiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Xulosalar. Tilshunoslikning dolzarb masalalari jumlasiga til va nutq, til va jamiyat, muloqotning kognitiv, pragmatik aspektlarini ham majmuaviy tadqiq etish singarilarni kiritish asoslidir. Zotan, mazkur yo‘nalishlar doirasida til va inson, til va global jamiyat, til va iqtisod, til va sotsial muhit, milliy tillar va ularning algoritimik kodlarga tayanuvchi kompyuter dasturlari uchun yaratilgan versiyalari singari masalalarni hal etish mumkin.

Bugungi kunda til ta’limi masalasi zamonamizning yuksak talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilmog‘i zarur. Bu kechiktirib bo‘lmas masalalar sirasiga kiradi. O‘zbekistonda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, diniy, ma’rifiy va boshqa masalalarga alohida e’tibor berilayotgan bir davrda tilshunoslik fani taraqqiyotining fundamental yutuqlarini til ta’limi jarayoniga olib kirish kechiqtirib bo‘lmas vazifalar sirasiga kiradi. Chunki bugungi kunda o‘zbek tilining milliy korpusini yaratish, sohalarga oid tezaurslarni yaratish, lingvistik dasturlash masalalarini rivojlantirish global tarmoq – internet tizimida o‘zbek tilining o‘ziga xos va mos maqomini olishini ta’minlash, milliy tillarning yo‘qolib ketish xavfi vujudga kelayotgan kelajak davrda o‘zbek tilining ravnaq topishi, uning jahonning rivojlangan, ilmiy jihatdan asoslangan zamonaviy til maqomida dunyo xalqlari tilllari ichida munosib o‘rinda bo‘lishini ta’minlash yurt ravnaqi, millat va xalq kelajagi asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2017. – 312 b.
2. Xayrullayev X. Tilshunoslik nazariyasi. – Samarqand, 2024. – 207 b.
3. Xayrullayev X., Ibragimova M. Tilshunoslik asoslari. – Samarqand, 2024. – 265 b.
4. Абу Ҳомид Ғаззолий. Кимиёи саодат (руҳ ҳақиқати). – Тошкент, 2005. – 411б.
5. Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн. – Тошкент, 2017. – 128 б.
6. Turniyozov N., Turniyozova K., Xayrullayev X. Struktur sintaksis asoslari //Samarqand: SamDCHTI. – 2009.
7. Хайруллаев Х. З. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати //Номзод. дис автореферати. Тошкент. – 2001.
8. Хайруллаев Х. О лингвистической природе уровней языка и речи //Вопросы филологических наук. – 2009. – №. 2. – С. 78-79.
9. Хайруллаев Х. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. – 2002.
10. Khayrullaev K. Z. The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness //Abstract of candidate dissertation.–Tashkent. – 2001.

NUTQIY MULOQOTDA SO‘Z TARTIBI O‘RNI

Sobirov Anvar Kuvandikovich
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali
sobirovanvar52@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ma’lumot – og‘zaki yoki yozma shakldagi matn ekanligi, u nutqiy aloqada adresant va adresatni o‘zaro bog‘lab turuvchi, ularning nutqiy muloqotini ta’minlovchi asosiy vositaligi, ayniqsa, ma’lumot mavjud bo‘lmas ekan, ishtirokchilar o‘rtasida nutqiy aloqa bo‘lishi mumkin emasligi o‘rganilgan. Ushbu jarayonda so‘z tartibi hal ahamiyat kasb etishi tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *muloqot, nutqiy ma’no, adresant, adresat, badiiy nutq, so‘z tartibi, intonatsiya, nutqiy gap, sintaktik tahlil.*

Nutqiy faoliyat insonning til orqali amalga oshadigan harakati bo‘lib, u o‘ta murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayon o‘z ichiga adresant, adresat hamda ma’lum nutqiy vaziyat mavjudligini taqozo etuvchi alohida maqsadli harakatdan iborat. Nutqiy harakat sodir bo‘lishi so‘zlovchi nutq qaratilgan shaxsga o‘z fikrlarini yetkazishda nutqning qaysi ko‘rinishidan foydalanishi, qanday so‘z va jumlalarni qo‘llashi, nutq qaratilgan shaxsning aqliy-lisoniy sifatlari, muomala mezonlari, nutqiy vaziyat singari omillarga bog‘liq bo‘ladi. Nutqiy muloqot qanday vaziyatda, kimlar ishtirokida, qanday vositalar yordamida amalga oshishi va unda qanday mavzular yetakchilik qilishi hamda qanday nutqiy strategiyalardan foydalanilishidan qat’i nazar, ma’lum bir modelga ega bo‘ladi.

Bu modelni tashkil qiluvchi bir qator a’zolar borki, ular nutqiy aloqa samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bular quyidagilardan iborat: Adresant – nutqiy muloqt tashkil bo‘lishining asosiy markaziy figurasi. Adresant deyilganda ma’lumot yetkazuvchi shaxs, ya’ni so‘zlovchi yoki yozuvchi kishi tushuniladi. Adresat - nutqiy muloqt tashkil bo‘lishining asosiy figuralaridan biri. Adresat deyilganda so‘zlovchi tomonidan nutq yo‘naltirilgan kishi - tinglovchi yoki o‘quvchi nazarda tutiladi.

Ma’lumot – og‘zaki yoki yozma shakldagi matn bo‘lib, u nutqiy aloqa modelida adresant va adresatni o‘zaro bog‘lab turuvchi, ularning nutqiy muloqotini ta’minlovchi asosiy halqa. Ma’lumot mavjud bo‘lmas ekan, ishtirokchilar o‘rtasida nutqiy aloqa bo‘lishi mumkin emas.

Bundan tashqari muloqot jarayonida ishtirokchilar tomonidan mavzuga aloqasi bo‘lgan yoki bo‘lmagan ifodalarning ham qo‘llanishi suhbat mavzusining o‘zgarishiga, shuningdek, muloqotning pragmatik samarasiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Tildagi bunday ifodalar nutqiy ifodalar sifatida qaraladi. Insonning nutqi **kommunikativ akt** doirasida shakllanadi. Bunda dastlab voqelik to‘g‘risidagi fikr dastlab ongda shakllanadi, nutqiy ehtiyoj tufayli lisoniy qobiqqa ega bo‘lib, ichda qayta ishlanib, tafakkur prizmasidan o‘tkazilib, tashqariga, muomala jarayoniga yo‘naltiriladi. Tildagi so‘zlar vositasida yetkazilgan ma’lumot nutq qaratilgan shaxsni ma’lumotdan xabardor qilishi va unga ta’sir etishi bilan yangi nutqiy vaziyatni yuzaga keltirishi mumkin. Natijada teskari aloqa vujudga keladi.

Nutqiy jarayonda muloqotchilar pragmatik samaraga erishish uchun verbal va noverbal vositalardan foydalanishadi.

Nutqiy muloqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad avvalo, voqelik faktlari to‘g‘risida ma’lumot almashishdan iborat. Bunda muloqotchilarning har bir nutqiy harakati markazida ma’lumot turadi. Shunga ko‘ra, ma’lumotni olish, tinglovchi yoki o‘quvchiga yetkazish samaradorligiga erishish, nutq qaratilgan shaxsga ta’sir etish va uni ma’lum harakatlarni bajarishga yo‘naltirish maqsadida til birliklari tanlanadi, nolisoniy xatti-harakatlar sodir etiladi. Nutqning **rasmiy, ilmiy, publitsistik** turlarida asosan, neytral lug‘aviy, grammatik birliklardan foydalaniladi, bo‘yoqdorlik va ta’sirchanlik kuchsiz bo‘ladi. Gap bo‘laklari joylashuvida esa odatdagi tartib yetakchilik qiladi.

Lingvistik pragmatika so‘zlovchi ijtimoiy faoliyatining nutqdagi real ifodasini qamrab oladi. Lingvistik pragmatikaning tilshunoslik fanining alohida tarmog‘i sifatida shakllanishi uning oldiga qator masalalalarni qo‘ydi. Pragmatikani tilshunoslikning boshqa sohalaridan ajratish va uning tadqiqiy manbasini chegaralash natjasidagina lingvistik pragmatikani yangi tarmoq sifatida talqin etish mumkin bo‘ladi. Lingvistik pragmatikaning eng muhim jihatlaridan biri uning boshlang‘ich chegarasini aniqlashdir. Shu ma’noda tilshunos olim V.V.Petrovning til haqidagi quyidagi tezisini esga olish lingvopragmatikaning boshlang‘ich tadqiqiy chegarasini aniqlash uchun lingvistik mezon bo‘ladi: "Inson qaysidir tilga xos semantik bilimlarsiz so‘zlashi yoki anglashi mumkin emas, ammo o‘sha tilga xos semantik bilimlar egasi bo‘lishning o‘zi ushbu tilda so‘zlash va anglash uchun kifoya qiladi degani emas, xuddi musiqali pyesa mazmuniy bilimlari uning ijrosi uchun yetarli bo‘lmaganidek va buning uchun eng asosiysi o‘yin mahorati, layoqati ("umenie igrat”) ga ham ega bo‘lishi lozim bo‘ladi. Bizning qarashimiz bo‘yicha, so‘zlash va anglash jarayoni ham xuddi shunday. Shuning uchun ham lingvistik pragmatika so‘zlovchi ijtimoiy faoliyatining nutqdagi real ifodasini qamrab oladi. Nutqiy faoliyat - til ham xuddi shundaydir. Inson semantik bilimlarga ega bo‘lishi mumkin, bunga ijtimoiy muhitning o‘zi har qanday shaxs uchun ma’lum imkoniyatlarni yaratadi. Biroq semantik bilimlarga ega bo‘lishuning o‘zi insonni so‘zlash, fikrlash va ifoda mazmunini anglashi uchun kamlik qiladi. Inson tildagi barcha semantik bilimlarni bilishi bilan birga ularni o‘z maqsadi yo‘lida tanlay olishi va ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Tildagi ayni mana shu jihatlarni lingvistik pragmatika o‘rganadi. F.de Sossyur tilni shaxmatga qiyoslash natijasida obyektiv olamdagi predmet, narsa va hodisalaring shaxmat donalari sifatida nomlagan bo‘lsa (shaxmat donalarni yurishni bilgan bilan o‘yin ko‘rsatishni ham bilish kerak), Vitgenshteyn esa tilga xos umumiy qonuniyatlarni "semantik o‘yin subyekti uchun ma’lum tushunchalar semantika deb qaraladi, har bir semantik o‘yinga xos oddiy yurish tartibi

ham semantika, o‘yin ishtirokchilarining o‘ziga xos strategiya tushunchasi pragmatika deb talqin etiladi.

Demak, nutq akt bilan matn o‘rtasidagi munosabat juda kuchli bo‘lganda, nutqiy akt matn bilan bog‘liq holda yechilgan joyda pragmatikaga ehtiyoj tug‘iladi. Sintaktik qurilma tarkibida deskriptiv so‘zlar tahlili semantikaga qarab tortsa, deskriptiv bo‘lmagan so‘zlar tahlili pragmatikaga qarab tortadi.

Shunday ekan, avvalo, deskriptiv va deskriptiv bo‘lmagan so‘zlarning mohiyati haqida fikr yuritishga to‘g‘ri keladi. Anglash vazifasini bajaradigan, denotativ ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar indikativ yoki deskriptiv so‘zlar hisoblanishi yuqorida ta’kidlandi. Indikativ (denotativ ma’noli) so‘zlarning ma’nosini matnga bog‘liq bo‘lmagan holda aniqlash mumkin bo‘lsa, indikativ bo‘lmagan so‘zlarning ma’nosi faqat matn ichida, muayyan nutq vaziyatiga bog‘liq ravishda ochiladi. Shuning uchun ham bunday so‘zlar matn va nutq vaziyati bilan ouzviy bog‘liq bo‘ladi.Yuqorida ko‘rsatilgan ikki turdagi so‘zlarni farqlash uchun B.Rassel ularni zooparkka qiyoslaydi. "Agar siz farzandingizga sher so‘zining ma’nosini tushuntirmoqchi bo‘lsangiz, uni zooparkka olib borishingiz va "mana bu sher" deb ko‘rsatishingiz mumkin. Lekin indikativ bo‘lmagan agar, bu kabi so‘zlarni ko‘rsatish mumkin bo‘lgan zoopark mavjud emas", - deydi B.Rassel.

Indikativ bo‘lmagan so‘zlar qatoriga kiruvchi olmoshlar, atoqli otlarning konkret ma’nosi faqat matnda, ma’lum nutq vaziyatida oydinlashadi. Shuningdek, indikativ bo‘lmagan so‘zlar qatoriga yoradamchi so‘zlar ham kiritiladi. Chunki bunday so‘zlar ham matn yoki nutq vaziyati bilan bog‘langan.

Shunday qilib, gapdan anglashilgan mazmun bilan subyekt munosabati pragmatikaga daxldordir. Nutqiy akt indikativ bo‘lmagan so‘zlar, matn,nutqiy vaziyat, so‘zlovchi shaxsi kabi tushunchalar lingvistik pragmatikning markaziy tushunchalari sanaladi.

Til jamiyatda muhim aloqa vositasidir. Tilning amaliy faoliyati inson nutqiy faoliyatida alohidalik sifatida yuzaga chiqadi. So‘zlovchining nutqida lisoniy bilim zahirasidan foydalanish qobiliyati, tafakkuri, milliy madaniyati, milliy qadriyatlari va ruhiy olami aks etadi. Tilning amaliy faoliyatini o‘rganish zaruriyati XXI asrda tilning jamiyat va shaxs hayotidagi o‘rni, ahamiyati masalasiga yangicha yondashgan pragmatik lingvistikani vujudga keltirdi.

Pragmatik lingvistika fanning mustaqil tarmog‘i sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida mujassamlashtirgan nutqiy muloqot, muloqot sistemasi va birliklari, nutqiy vaziyat, muloqot ishtirokchilariga xos xatti-harakat, so‘zlovchi munosabati va kommunikativ maqsad bilan aloqador masalalarni o‘rganadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak pragmalingvistikaga oid tarixi, semiotik ildizlari va bu sohani mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanishiga hissa qo‘shgan semiotika, falsafa, mantiq, psixologiya, tilshunoslik kabi soha mutaxassislari mazkur sohaning rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Tilshunoslar A.Nurmonov hamda N.Mahmudovlarning “semantik, sintaktik va pragmatik” jihatlarni hisobga olgan izlanishlargina tom ma’nodagi chinakam tadqiqotga aylanadi degan ta’kidlari pragmatikaning ahamiyatini ko‘rsatishga xizmat qildi. Asrimiz boshlaridagina o‘zbek tilshunosligida pragmatika masalalari markaziy o‘rinni egallagan jiddiy tadqiqot ishlari yuzaga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Матвеева Г.Г., Ленец А.В. Петрова Е.И. Основ прагмалингвистики.Москва : Флинга-Наука , 2014.
2. Маҳмудов Н. Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси(синтаксис) . Тошкент: Ўқитувчи, 1995 .-232 б
3. Ҳакимов М .Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. Филол.фанлари док.дисс...автореф.- Тошкент:2001
4. Ҳакимов М. Прагмалингвистика.-Тошкент.2020.25 б.

5. Islomjonova X.I. Paralingvistik vositalarning gender xususiyatiga doir lingvopragmatik tahlil// XXI asr: Fan va ta'lim ,2018.№ 4. -B 5-6.
6. Sh. Safarov. Pragmalingvistika.-T.2008.
7. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. –Т.: Ўқитувчи, 1995. – 232 б.
8. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2007. −39 б.
9. Нурмонов А., Ҳакимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. −Т., 2001. №4. −Б.54-58
10.Turniyozov N., Turniyozova K., Xayrullayev X. Struktur sintaksis asoslari //Samarqand: SamDCHTI. – 2009.
11.Хайруллаев Х. З. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати //Номзод. дис автореферати. Тошкент. – 2001.
12.Хайруллаев Х. О лингвистической природе уровней языка и речи //Вопросы филологических наук. – 2009. – №. 2. – С. 78-79.
13.Хайруллаев Х. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. – 2002.
14.Khayrullaev K. Z. The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness //Abstract of candidate dissertation.–Tashkent. – 2001.
15. www.ziyonet.uz

MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISHDA TARIXGA BIR NAZAR

Sayipova Dilobar Rahimovna
Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

Annotatsiya. *"Mustaqil ta'lim" atamasi o'zbek ta'lim tizimida talabalar va o'quvchilar tomonidan o'z-o'zini o'rganish, mustaqil tadqiqotlar o'tkazish va bilimlarni amaliyotda qo'llash maqsadida bajariladigan ishlarni ifodalaydi. Bu atama, asosan, XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida ta'lim metodologiyasida mustaqil o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirishga katta e'tibor berila boshlandi. Mustaqil ishlar, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va mas'uliyat hissini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.*

Kalit so'zlar: *mustaqil ta'lim; shaxs; taraqqiyot; qadimgi davr; o'rta asrlar.*

Zamonaviy ta'lim tizimi an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmay, talabaning shaxsiy faolligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishlar ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Mustaqil ishlar - bu talabaning o'zi mustaqil ravishda ma'lumot yig'ishi, uni tahlil qilishi, izlanish olib borishi va yakuniy xulosa chiqara olishiga asoslangan faoliyat turidir.

Mustaqil o'rganish, ya'ni shaxslarning rasmiy ta'lim muassasalaridan tashqarida o'z-o'zini o'rganish jarayoni, uzoq va rivojlanayotgan tarixga ega. Quyida uning taraqqiyoti haqida qisqacha ma'lumot berilgan:

1. **Qadimgi davrlar**: Mustaqil o'rganish tushunchasi qadimgi tsivilizatsiyalarga borib taqaladi. Sokrat, Platon va Konfutsiy kabi olimlar va faylasuflar tanqidiy fikrlash va shaxsiy izlanishning ahamiyatini ta'kidlaganlar. Odamlar ko'pincha bilimni o'qish, kuzatish va shaxsiy mulohaza orqali izlaydilar.
2. **O'rta asrlar**: O'rta asrlarda mustaqil o'rganish ko'pincha diniy matnlar va falsafiy asarlar bilan bog'liq bo'lgan. Monastirlar ta'lim markazlari sifatida xizmat qilib, rohiblar diniy yozuvlar va klassik asarlarni o'z-o'zini o'rganish orqali o'rganardilar.
3. **Tug'ilish davri (XIV-XVII asr)**: Tug'ilish davri klassik bilim va gumanizmga qiziqishning yangilanishini olib keldi. Odamlar kengroq mavzularni o'rganishga kirishdilar, va bosma matbaa ixtirosi kitoblarni kengroq tarqatish imkonini berdi, bu esa mustaqil o'rganishni osonlashtirdi.

4. **XVIII-XIX asrlar**: Ma’rifat davrida sabab va shaxsiylikga qiziqish ortdi, bu esa mustaqil o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirdi. Ommaviy kutubxonalar va ta’lim islohotlari bu davrda mustaqil o‘quvchilar uchun ko‘proq resurslar taqdim etdi.

5. **XX asr**: Mustaqil o‘rganish tushunchasi kattalar ta’limi harakatlari bilan rasmiylashdi. Tashkilotlar maktub orqali ta’lim va keyinchalik masofaviy ta’lim dasturlari orqali o‘z-o‘zini o‘rganishni rag‘batlantira boshladilar.

6. **XX asrning oxiridan hozirgi davrgacha**: Internetning paydo bo‘lishi mustaqil o‘rganishni tubdan o‘zgartirdi. Onlayn kurslar, ta’lim platformalari va resurslar shaxslar uchun turli sohalarda o‘z-o‘zini o‘rganishni osonlashtirdi. “Doimiy o‘qish” tushunchasi ommalashdi va ta’limning an’anaviy maktab bilan cheklanmasligi, balki davomiy jarayon ekanligi ta’kidlandi.

“Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o‘qituvchining rahbarligi va nazorat ostida talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarini shakillantirish va rivojlantirishdir. Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- kerakli ma’lumotlarni izlab topish, qulay usul va vositalarni aniqlash;
- axborot manbalari va manzillardan samarali foydalanish;
- ananaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, meyoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o‘quv adabiyotlar bilan ishlash;
- internet tarmog’idan maqsadli foydalanish, berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash.

Talaba mustaqil ishning tashkiliy ishlari. Talaba mutaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlar yordamida mustaqil o‘zlashtirish; - hajmi, murakkabligi, mazmuni talabalarning o‘zi tomonidan shakllantiradigan ilmiy krossvordlar tuzish;
- turli hil harakterdagi uy vazifalarini bajarish (masalalar yechish, turli jadvallar tuzish va to‘ldirish);
- amaliy mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish” [1;616].

Bugungi kunda mustaqil o‘rganish rasmiy ta’limga muhim qo‘shimcha sifatida tan olinadi, bu esa shaxslarga o‘z qiziqishlarini o‘rganish, ko‘nikmalarni rivojlantirish va zamonaviy dunyoning doimiy o‘zgaruvchan talablariga moslashishga imkon beradi.

“Ona tili ta’limida mustaqil ta’lim va o‘quv topshiriqlarini takomillashtirish zarurati mavjud bo‘lib, unda quyidagi lingvodidaktik talablar bajarilsa, mustaqil va o‘quv topshirig‘i zamon talabiga mos va samarali bo‘ladi: bir mustaqil va o‘quv topshirig‘ini bajarish asnosida bir nechta nutqiy ko‘nikmani rivojlantira olish imkoniyatiga ega bo‘lishi; talabalarning mustaqil ta’lim va o‘quv topshiriqlarni amalga oshirishga ongli yondashishi, bajarishda didaktik ketma-ketlikka rioya qilishi; mustaqil ta’lim va o‘quv topshiriqlarini zamonaviy axborot manbalaridan topish uchun sun’iy intellekt bilan to‘g‘ri muloqot qila olishi; o‘quv lug‘atlaridan mavzu doirasida unumli foydalana olishi. Takomillashtirilgan mustaqil ta’lim va o‘quv topshiriqlari muammoli o‘qitishning quyidagi asosiy psixologikpedagogik maqsadlariga muvofiq kelishi kerak: talabalarning fikrlash va qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga; talabalarning faol izlanish va mustaqil masalalar yechish jarayonida olgan bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirishlari, natijada bu bilim va ko‘nikmalar an’anaviy mashg‘ulotlarga qaraganda mustahkam bo‘lishiga; nostandart muammolarni ko‘ra oladigan, o‘rnata oladigan va hal qila oladigan talabaning faol ijodiy shaxsini tarbiyalashga mos bo‘lishi lozim. Ona tili ta’limda faol qo‘llanila boshlagan matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muammoli ta’lim texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Har qanday matn tahlilini mustaqil ta’lim va o‘quv topshiriqlari orqali muammoli jarayonga aylantirish mumkin” [2;1371].

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim tizimida talabalarni mustaqil ta’lim olishga o‘rgatish hamda ularning faoliyatini baholash bo‘yicha talablar, asosan, o‘qituvchilar tomonidan

platformaga yuklangan, talabalar uchun taqdim qilingan topshiriqlarni mustaqil bajaradilar. Shuni ta'kidlash joizki, har qanday ta'lim shakli, o'qitish metodikasi baholash mezoni bilan yaratilishi lozim. Mustaqil ta'lim topshiriqlari talabaning dunyoqarashini, tanqidiy fikrlashini, shaxsiy rivojlanishini yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.J.Smetova (2024) Mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzishda tarbiya fanining metodik vazifalari va ARM.
2.Axmedova, M. (2023) Ona tili fanlarini o'qitishda mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini tuzish
3.Ismoilov, D. (2018). Mustaqil ta'lim jarayonida motivatsiya. Toshkent: O'zbek universiteti nashriyoti.
4.Kamalov, A. (2019). Mustaqil ishlar va ta'limda innovatsiyalar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
5.Maqsudov, B. (2017). Ilmiy ishlarni yozish: metodologiya va amaliyot. Toshkent: Xalq ta'limi nashriyoti.

O'ZBEK TILIDA SODDA GAPLARNI MURAKKABLASHTIRUVCHI VOSITALAR

Rustamov Mirjalol Azamat o'g'li,
SamDU Kattaqo'rg'on filiali,
mirjalolrustamov9696@gmail.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek tilida sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalar tahlil qilingan. Bundan tashqari murakkablashgan sodda gaplarni yuzaga keltiruvchi birliklarning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilish tadqiqi xususida bahs-munozaralar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *uyushiq bo'laklar, undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo'laklar, sifatdosh va ravishdosh o'ramlar, harakat nomli tizimlar.*

Boshqa tillar sathida lisoniy va nutqiy xususiyatlari bilan farqlanuvchi o'zbek tili ma'lum ma'noda betakrorlik kasb etdi. Birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitrat "…Tilimizdagi so'z boyligi, ishtiqoq kengligi, qoida go'zalligi sarf-nahv ingichkalari (xususiyatlari) boshqa sharq tillaridan qolishmas", - degan fikrlari o'zbek tilining imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi. Bu kabi imkoniyatlar sintaktik sath birliklari hisoblangan va qizg'in muhokamaga sabab bo'layotgan murakkablashgan sodda gaplarga birlashuvchi birliklar orqali ham yuzaga chiqishi mumkin. Murakkablashgan sodda gaplarni murakkablashishiga sabab bo'ladigan, shakllantiradigan vositalar mavjud, albatta. Bu masalada ham olimlar orasida bir xillik mavjud emasligini ko'rish mumkin. Yana quyidagi adabiyotlarga e'tibor qaratsak.

"O'zbek tili grammatikasi" kitobida ushbu sintaktik birliklarga "murakkab gap" atamasi qo'llanilgan bo'lib, uning tarkibiy shakllanishi haqida quyidagilar aytiladi: "Murakkab sintaksisda sodda gap tarkibida kelib, ularni murakkab gapga aylantiruvchi sintaktik konstruksiya va kategoriyalar o'rganiladi. Bular quyidagilar: gapning ajratilgan bo'laklari, undalmalar, kirish bo'laklar".

A.G'ulomov, M.Asqarovalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligidagi bu sintaktik birliklar tarkibiy tuzilishini quyidagicha ko'rsatadi: "Sodda gapni murakakablashtiruvchi elementlar xilma xil: uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, kirish konstruksiyalar va kiritma konstruksiyalar va undalmalar".

G'.Abdurahmnovning "O'zbek tili grammatikasi" darsligida yuqoridagi "O'zbek tili grammatikasi" kitobidagi qarash mavjudligini ko'ramiz (ajratilgan bo'lak, undalma, kirish bo'laklar).

B.O'rinboyevning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida murakkablashgan sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalarga quyidagilarni kiritadi: uyushiq bo'laklar, undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo'laklar, sifatdosh, ravishdosh o'ramlar, harakat nomli tizimlar. . .

Bunda murakkablashtiruvchi vositalar batafsil berilgan. Xuddi A.G‘ulomov, M.Asqarovalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida ko‘rsatilganidek uyushiq bo‘laklarni ham murakkablashgan sodda gaplarni shakllantiruvchi vosita sifatida kiritilgan.

N.Mahmudov va A.Nurmonovlar esa undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo‘laklar, sifatdosh va ravishdosh o‘ramlar, harakat nomli tizimlar, ishtirok etgan gaplarni murakkablashgan gap deb hisoblaydilar.

H.Boltaboev sodda gaplarga sintagmatik yoki intonatsion bo‘laklarning ishtiroki asosida murakkablashishi sifatida qaraydi va bu tipdagi gaplar ajratilgan bo‘laklar, undalmalar, kirish bo‘laklar vositasida murakkablashishini ta'kidlab o‘tadi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, sodda gap tarkibida ana shu sintagmatik bo‘laklar ishtirok etsa, bunday gap murakkablashgan sodda gap bo‘ladi. Vaholanki, sintagmatik bo‘lak tarkibida ham alohida sintagmalar mavjud bo‘lishi mumkin.

S.Ashirboev esa o‘zining tadqiqot ishida eski o‘zbek tilida yozilgan Alisher Navoiy nasriy asarlarida undalma, kirish so‘z, izoh va kiritmalar faol qo‘llanilib, sodda gaplarni ham shaklan, ham mazmunan murakkablashtirishi haqida fikr bildiradi.

Murakkablashgan sodda gaplar turkiy tillar miqyosida ham o‘rganilgan. Turkiy tillardagi sodda gapning murakkablashishi haqidagi fikrlar qozoq, boshqird, tatar, qo‘miq, turk tillari sintaksisida ham tadqiq etilgan. Jumladan, turk tilidagi uyushiq bo‘laklar, kiritma konstruktsiyalar, kirish konstruktsiyalar yoki undalmalar ishtirokidagi sodda gaplarni murakkablashgan sodda gaplar deya e'tirof etgan olimlar negadir bu qatorga ajratilgan bo‘laklarni kiritmaydi.

Demak, murakkablashgan sodda gaplar atamasi borasida ham, uni shakllantiruvchi tarkibiy vositalar yuzasidan ham o‘zbek tilshunosligida bir xil nuqtai nazar mavjud emas ekan. Chunki, ushbu grammatik kategoriya tilshunoslikda izlanishdagi soha bo‘lib, ko‘p yangiliklarni talab qilishi tabiiy.

Biz yuqoridagi qarashlarni tahlil qilish bilan ustoz olimlarimizni qoralash, ularga nisbatan salbiy munosabat bildirishdan yiroqdamiz. Aksincha, bizning bunday munozaralarimiz ularni yanada izlanishga, murakkablashgan sodda gaplar xususiyatini ochib beradigan yagona to‘xtamga kelishlariga turtki bo‘ladi degan niyatdamiz.

Murakkablashgan sodda gaplarning shakllantiruvchi grammatik birliklar haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, G‘.Abdurahmonov, N.Mahmudov, A.Nurmonovlarning qarashlari ushbu sintaktik birliklarning xarakterini to‘g‘ri yoritgan deb o‘ylaymiz. Chunki, uyushgan bo‘laklar o‘z nomi bilan bo‘lak hisoblanib, u gap tarkibida ma’lum bir vazifani bajaradi va ma’lum bir so‘roqqa javob bo‘ladi. Shuningdek, gap tarkibida boshqa bo‘laklar bilan sintaktik aloqaga kirisha oladi. Shunday ekan, uni sodda gap tarkibida gap bo‘lagi sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shunday ekan, ajratilgan bo‘laklar, undalmalar, kirish va kirtmalar, shuningdek, ravishdosh, sifatdosh o‘ramlar, shart fe’lli qurilmalar ishtirok etgan gaplar murakkablashgan gaplarni shakllantiradi. Murakkablashgan sodda gap sintaksisida gap tarkibida kelib, ularni murakkab gapga aylantiruvchi sintaktik qurilma va kategoriyalar o‘rganiladi. Ular quyidagilar: Gapning ajratilgan bo‘laklari, undalmalar, kirish va kiritmalar.

I. Gapning ajratilgan bo‘laklarini ajratilgan sifatlovchilar, izohlar, ajratilgan predikativ qurilma (ravishdosh, sifatdosh va shart fe’lli birikmalar), maxsus ajratilgan ko‘makchili qurilmalar tashkil etadi.

1. 1 Ravishdosh, sifatdosh va shart fe’li boshqargan qurilmalarning ajratilgan bo‘laklar sanalishiga sabab, ularning mazmuni umumiy gap mazmunidan ajratilib ifodalanishi, ularda ma’lum darajada mazmun tugalligining, predikativlikning bo‘lishidir. Masalan: Tashlandiq tegirmonning chirik tomidan suv, mayda kumush tomchilarini sakratib, guvillab otiladi (Oybek). Atrofni aylanib zerikkanimizdan so‘ng, o‘rtoqlar bilan qishloq bozorini tomosha qilgani chiqishni ma’qul ko‘rdik (G‘. G‘.) Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga (maqol).

Bu xil ravishdosh va sifatdosh, shart fe’li boshqargan qurilmalar ma’lum gap bo‘laklaridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu o‘ziga xos xususiyatlar quyidagilardir:

A) ular mazmunan ma’lum maqsad ifodalaydi (ma’lumki, gap bo‘lagi ma’lum bir tushunchani ifodalaydi);

B) ularda ma’lum darajada predikativlik, hukm anglashiladi, bu mazmun ravishdosh, sifatdosh, shart fe’lining fe’llik xususiyatlaridan kelib chiqadi;

V) bu xil qurilmalarda ohang ergash gap ohangiga ma’lum darajada yaqin turadi.

Yuqoridagi qurilmalarning bu xil o‘ziga xos xususiyatlari ularga ma’lum mustaqillik beradi va shu tomondan ular oddiy gap bo‘laklaridan farqlanadi. Bu xususiyatlar ularni ergash gaplarga yaqinlashtirsa-da, ammo ular ergash gap sanalmaydi, chunki, tarkiblarida o‘z egalari yo‘q.

Demak, ravishdosh, sifatdosh, shart fe’lli qurilmalardagi semantik, grammatik va ohangdagi mustaqillik, ergash gaplardagi mustaqillikka qaraganda nisbiy bo‘lsa-da, bu xususiyatlar ularni alohida sintaktik qurilma sifatida izohlashga olib keldi. Bu xil qurilmali gaplar qo‘shma gap bilan sodda gap orasida turadi. Shuning uchun ham ravishdosh, sifatdosh, shart fe’lli qurilmalar ishtirok etgan gaplarni sodda gaplarning alohida bir qurilishi sifatida murakkablashgan sodda gaplar deb atash maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili va boshqa turkiy tillarga oid grammatikalar va ilmiy-tadqiqotishlarida ravishdoshli qurilmalar ajaratilgan bo‘laklar sifatida qaraladi. Bunda ajratilgan bo‘lak sifatida faqat –(i) b, ba’zan –y shakli ravishdosh qurilmalargina ko‘zda tutiladi, -gach, -guncha, -ganicha shaklli ravishdoshli qurilmalar nima uchundir shu qatorda ajratilgan bo‘lak hisoblanmaydi. Vaholanki, bunday shaklli ravishdosh qurilmalarni ajratilgan bo‘lak sanamaslik uchun hech qanday asos yo‘q. Masalan: Buxorodan kelgach, Toshkent maktablarida o‘qituvchilik qila boshladi. (A. Q). Bekka yetguncha, beldan ayrilasan (maqol). Umurzoq ota, choynakni ushlaganicha, eshik oldida to‘xtagan Olimjonga qayrildi (Sh. R)

Shunday ekan, yuqoridagi gap qurilmalarini ergash gap hisoblab bo‘lmaganidek, ularni oddiy gap bo‘laklariga ham kiritib bo‘lmaydi. Chunki, ular gapning ayrim bo‘laklari bilan emas, gapning umumiy mazmuni bilan munosabatga kirishadi, ularda ma’lum darajada predikativlik, hukm xususiyatlarining bo‘lishi, alohida ohang bilan talaffuz etilib, asosiy gap bo‘laklaridan to‘xtam bilan ajralib turishi ma’lum darajada ularga mazmunda, ohangda mustaqillik beradi. Shu xususiyatlariga ko‘ra, sifatdoshli, ravishdoshli shart fe’li qurilmalarning bunday turlari ham ajratilgan bo‘laklar hisoblanadi. Shu sababli ular mazmun va ohangdagi xususiyatlari, ma’lum darajada mustaqillikka egaligi bilan murakkablashgan sodda gaplarni hosil qiladi, shakllantiradi.

1. 2. Ajratilgan bo‘laklarning ikkinchi guruhini ko‘makchili qurilmalar tashkil etadi. Albatta, har qanday ko‘makchili qurilmalar ajaratilmaydi. Ajratilgan bo‘lakni tashkil etuvchi ko‘makchilar quyidagilardan iborat: tashqari, qaraganda, ko‘ra, kabi singari, o‘rniga, ustiga, bilan, birga, qarshi, bo‘yicha, binoan, tufayli, muvofiq, qaramay, qaramasdan, qaraganda, yarasha, holda, bilan, sari. Ammo, bu ko‘makchili qurilmalar ham ajratilgan bo‘lak sanalishi uchun ma’lum shart-sharoit zarur bo‘ladi. Ular quyidagilardan iborat ya’ni ko‘makchili qurilmalarning ajaratilishi uchun: a) tarkib jihatdan yoyiq bo‘lishi; b) mazmunni bo‘rttirib, ajratib ifodalash; v) alohida ohang bilan talaffuz etilib, asosiy gap bo‘laklaridan to‘xtam (ohang, pauza) bilan ajralib turishi kerak. Masalan: Hozirgina o‘ynab yurgan ikki bola Yo‘lchini ko‘rishi bilan undan hurkkan kabi, ichkari hovliga qochishdi. –Ajratilgan holli murakkablashgan sodda gap.

Ajratilgan ko‘makchili qurilmalar o‘ziga xos quyidagi xususiyatlari bilan oddiy gap bo‘laklaridan farqlanib turadi:

1) ular gapning umumiy mazmuniga aloqador bo‘lib, harakat, holat, xususiyatlarning qanday asosda va qanday ro‘y berishi va bermasligini ko‘rsatadi yoki ikki xil mazmun bir-biriga qiyoslanadi;

2) ular ma’lum bir so‘roqqa javob bo‘lmaydi, gapning kesimi bilan yoki boshqa bir bo‘lagi bilan grammatik aloqaga kirishmaydi;

3) ularda ma’lum darajada predikativlik xususiyati bo‘ladi, hukm anglashiladi;

4) ular o‘zi ifodalayotgan mazmunni bo‘rttirib, uni boshqa gap bo‘laklaridan ajratib ifodalaydi.

5) shu xususiyatlariga ko‘ra, ular ajratilgan ohang bilan talaffuz etiladi, ya’ni boshqa gap bo‘laklaridan to‘xtam bilan ajralib turadi.

Demak, ajratilgan ko‘makchili qurilmalar o‘ziga xos xususiyatlari bilan oddiy gap bo‘laklariga teng bo‘lmaydi, ergash gaplarga o‘xshab ketadi. Lekin ular ergash gap ham bo‘lmaydi, chunki ularning tarkibida o‘z egasi bo‘lmaydi. “Shunday ekan ajratilgan ko‘makchili qurilma ishtirok etgan gap qo‘shma gap ham bo‘la olmaydi. Shunga qaramay, tarkibida ajratilgan ko‘makchili qurilma ishtirok etgan gaplarda murakkab fikr ifodalanadi. Shunga ko‘ra, bu xil qurilma gaplar murakkab gaplar deb ataladi”[1].

1. 3. Ajratilgan bo‘laklarning uchinchi guruhini ajratilgan sifatlovchilar va ajratilgan izohlar tashkil etadi. Masalan: Yopirilib kelinglar, aziz odamlar; Bu yer odam yeri-muqaddas, ko‘rkam. (G‘. G‘.). Bu yerlarga kelgan u-xalq o‘g‘li, shoir, Vatan tog‘lari sari ochib quchog‘in. (H.O).

Ajratilgan sifatlovchilar va izohlovchilar o‘z xususiyatlari bilan oddiy gap bo‘laklaridan farqlanadi. Bu xususiyatlar ma’noni bo‘rttirib, ajratib ifodalash, biror bo‘lakni izohlash ajratilgan ohang bilan talaffuz etilishida ko‘rinadi. Bundan tashqari, bu xil ajratilgan bo‘laklar ikki yoqlama ma’no munosabatiga kirishadi. Avvalo, ular ma’lum bir bo‘lakni aniqlaydi, izohlaydi (yuqoridagi misollarda yer so‘zi va u olmoshi aniqlanadi). Ikkinchidan, ajratilgan bo‘lak gapning kesim bilan va u orqali butun gap mazmuni bilan ma’no munosabatiga kirishadi: birinchi misolda muqaddas, ko‘rkam ajratilgan sifatlovchisi “yer”ni aniqlash va bu xususiyatni ajratib ifodalash bilan birga, kesimga (yopirilib kelinglar) ham bog‘lanadi – nima sababdan yopirilib kelish (sababini) zarurligini ko‘rsatadi (“bu yer muaqaddas, ko‘rkam bo‘lgani uchun yopirilib kelinglar”). Ikkinchi misolda ham ajratilgan izohlovchi xalq o‘g‘li, shoir so‘zlari u olmoshini izohlash bilan birga, kesimdan anglashilgan harakat (kelgan)ning nima sababdan ro‘y berishini anglatadi (“xalq o‘g‘li, shoir bo‘lgani uchun, bu yerlarga kelgan”).

Demak, ajratilgan aniqlovchi va izohlovchi qurilmalar tarkibidagi ma’no va ohangdagi mustaqillik, uning tarkibidagi predikativlik belgilari albatta, ularni ma’lum bir mustaqil yoki tobe gapga aylantirib yubormaydi (ma’lum sharoitlarda to‘liqsiz gapga aylanishi mumkin).

Shunday ekan, ajratilgan bo‘laklar o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir tomondan, oddiy gap bo‘laklaridan farqlansa, ikkinchi tomondan, ular to‘liqsiz va ergash gaplardan farqlanib turadi. Ajratilgan bo‘lakli gaplar mazmun va ohangdagi o‘ziga xos xususiyatlari bilan murakkab fikrni ifodalaydi. Ammo murakkab fikrni ifodalovchi bunday gaplar qo‘shma gap bo‘la olmaydi, chunki, tarkibida bitta asosiy predikativ birlik mavjud. Shu bilan birga, bu turdagi gap qurilmalari sodda gap ham bo‘la olmaydi, chunki tarkibida asosiy predikativ birlikdan tashqari, yarim predikativlik mazmuni bo‘lgan ajratilgan gap bo‘lagi mavjud. shuning uchun ajratilgan aniqlovchilar yoki ajratilgan izohlovchilar ishtirok etgan gap qurilmalarini sodda gap bilan qo‘shma gap orasida turuvchi murakkab gaplar turi deb ajratish zarur bo‘ladi.

II. Murakkablashgan sodda gaplarni undalmalar, kirish va kiritmalar ishtirok etgan gaplar ham tashkil etadi. Bunday turdagi so‘zlarning gap bo‘lagi bo‘la olmasligi qator darslik va qo‘lanmalarda ko‘rsatib o‘tilgan. Ularning asosiy sababi qilib, undalma, kirish va kiritma bo‘laklari bilan grammatik munosabatga kirisha olmasligini ko‘rsatadilar. Lekin, hamma grammatik adabiyotlarda ham bu xil bo‘laklar gapning umumiy mazmuni bilan munosabatga kirishishi aytib o‘tilgan: bu turdagi bo‘laklar so‘zlovchining ifodalanayotgan harakat holatga munosabatini yoki fikrlar o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi yoki nutq qarashli bo‘lgan shaxs yoki predmetlarni ifodalaydi.

Albatta, gap tarkibidagi biror so‘z ma’lum bir ma’no ifodalash uchun ma’lum grammatik aloqaga kirishishi kerak. Ma’lumki, gapda so‘zlarning aloqasi teng va tobe aloqa deb kelinadi. Undalma va kiritmalar esa o‘ziga xos grammatik usul bilan munosabatga kirishadi. “Bu grammatik aloqa usulini introduktiv aloqa deb nomlash mumkin”. Introduktiv grammatik aloqa usuli hozirgi

an’anaviy teng aloqa usuliga ham, tobe aloqa usuliga ham o‘xshamaydi. Bu grammatik usul o‘ziga xos bo‘lib, grammatik munosabatlarning uchinchi turini-introduktiv usulini tashkil etadi. Chunki, undalma va kirishlar ham oddiy gap bo‘laklariga o‘xshab mustaqil so‘z turkumlari bilan ifodalanadi va o‘ziga oid ayrim bo‘laklarni boshqarib kela oladi.

Undalma, kirish va kiritmalar alohida ohang bilan talaffuz qilinib, gapning boshqa bo‘laklaridan ma’lum to‘xtam bilan ajralib turadi. Ular ma’nodagina emas, ohangda ham alohida mustaqildir.

Yuqoridagi sabablar asosida bunday birliklar ishtirok etgan gaplarda sodda bir niyat, fikr ifodalanmay, murakkab fikr va niyat anglashiladi deb ayta olamiz. Shu bilan birga, bunday gap turlari qo‘shma gapni ham tashkil etmaydi. Chunki, bu qurilmaning tarkibida bir-biribilan bog‘langan yoki mustaqil ikki xil predikativ birlik bo‘lmaydi. Undalmali, kirish va kiritmali gaplar murakkablashgan sodda gaplarni tashkil etadi.

Yuqorida aytilgan barcha fikr va qarashlarni inobatga olgan holda murakkablashgan sodda gaplarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat bo‘ladi deb ayta olamiz:

1) murakkablashgan sodda gaplarning tarkibida, asosiy gap bo‘laklaridan tashqari ajratilgan bo‘lak, kirish va kiritma bo‘laklar bo‘ladi(ba’zi gaplarda bo‘laklarning bir nechasi ishtirok etishi mumkin);

2) murakkablashgan sodda gaplar orqali sodda, birgina maqsad, niyat ifodalanib qolmay, murakkab fikr ifodalanadi;

3) murakkablashgan sodda gap tarkibida ikki xil predikativ birlik, hukum bo‘ladi. Bu predikativ birlik yoki hukmning biri asosiy bo‘lib, ikkinchisi to‘liq bo‘lmagan hukm, ya’ni yarim predikativlikdir. Asosiy hukm gapning asosiy mazmunidan anglashilsa, to‘liq bo‘lmagan hukm bu xil gaplarning ajratilgan bo‘laklari orqali ifodalanadi;

4) murakkablashgan sodda gaplarni tashkil etgan bo‘laklar gapning boshqa bo‘laklari bilan yoki gapning umumiy mazmuni bilan izohlash munosabatga kirishadi;

5) undalma, kirish va kiritma, ajratilgan bo‘laklar gapning o‘ziga xos bo‘laklari sanaladi. Ajratilgan ko‘makchili qurilmalar to‘ldiruvchi ham, hol ham bo‘lmay, ajratilgan gap bo‘laklarining alohida bir turini tashkil etadi.

Murakkablashgan sodda gap tarkibidagi yarim predikativlik (to‘liq bo‘lmagan hukm) ergash gaplarga yoki to‘liqsiz gaplarga, yoki bir sostavli gaplarning ayrim turlariga o‘xshaydi. To‘liq bo‘lmagan hukmni ifodalagan ajratilgan bo‘laklar, undalmalar, kirish va kiritmalar mazmunan va ohangiga ko‘ra ma’lum darajada mustaqillikka ega bo‘lsalar ham, ammo, ular gap bo‘la olmaydi, balki sodda gaplarni murakkablashtiradi, xolos;

6) murakkablashgan sodda gaplarni tashkil etgan bo‘laklar asosiy gapning umumiy mazmuni bilan munosabatga kirishadi. Ular ba’zan shaklan ayrim gap bo‘lagini izohlash orqali gapning umumiy mazmuniga aloqador bo‘ladi, bunday bo‘laklarning mazmun munosabati ikki yoqlamadir. Ammo, bu mazmun munosabatlarining biri asosiy, yetakchi bo‘lib, ikkinchisi qo‘shimcha mazmun munosabatidir;

7) murakkablashgan sodda gaplarni tashkil etuvchi bo‘laklar ajratilgan bo‘laklar, undalmalar, kirish, kiritmalar va izoh bo‘lak va birikmalar o‘ziga xos ohang bilan talaffuz etiladi. Bu ohang boshqa gap bo‘laklari ohangiga o‘xshamaydi, ular gap bo‘laklaridan to‘xtam bilan ajralib turadi;

8) murakkablashgan sodda gaplar o‘ziga xos sintaktik qurilmadir. Ular sodda gapdan ham, qo‘shma gapdan ham farqlanadi. Ma’lumki, har bir sintaktik qurilmaning o‘ziga xos tarkibiy qismlari bo‘ladi (sodda gapning gap bo‘laklari, qo‘shma gapning ergash gaplari kabi). murakkablashgan sodda gap sintaksisning tarkibiy qismini ajratilgan bo‘laklar, undalmalar, kirish, kiritma va izoh bo‘lak va qurilmalar tashkil etadi.

Shu sababli bu ko‘rinishdagi sintaktik kategoriyalar oddiy gap bo‘laklaridan ham, qo‘shma gapni tashkil etuvchi qurilmalardan ham farqlanib, murakkablashgan sodda gaplar deb yuritiladi.

Mazkur maqolada murakkablashgan gaplar ataması ostiga birlashadigan sintaktik birliklarni o‘rganish muammolari tilshunoslikning muhim masalalaridan bo‘lib kelayotganini hisobga olgan holda, olimlar tomonidan bu borada olib borgan izlanishlari davrma-davr izohlandi;ayrim sintaktik birliklarning sodda gapni mazmunan va shaklan murakkablashtirishi to‘g'risidagi lingvistik qarashlar xilma-xilekanligi ta'kidlandi, sodda gapni murakkablashtiruvchi undalma, uyushiq bo‘laklar, kirish so‘z va kiritma gaplar, ajratilgan bo‘lakli gaplarning tilshunoslikda hususan jahon va o‘zbek tilshunosligida tadqiq etilishi alohida yoritildi hamda jadval ko‘rinishida asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тили грамматикаси. 2 том. Синтаксис. Т. : Фан, 1976, 208б.
2. Ғуломов А, Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т. : Ўқитувчи, 1987, 140 б.
3. Абдураҳмонов. Ўзбек тили грамматикаси. Т. : ўқитувчи, 1996, 47 б
4. Н. Маҳмудов, А. Нурмонов. ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Т. : 1995, 97 б.
5. Б. Ўринбоев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Самарқанд, 2006, 120 б.
6. Фитрат А. Танланган асарлар. Наҳв. (IV жилд) –Тошкент: Маънавият, 2006. –Б. 197-200.
7. Ғуломов А. Содда гап. –Тошкент: ЎзФА, 1955. –Б. 92-97.
8. Ашурова Д. , Убаева Ф. , Болтабоева Ҳ. Гапнинг уюшган ва ажратилган бўлаклари. –Тошкент: Ўзфанакаднашр, 1962. – Б. 179.
9. Холиқов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тилидамураккаблашгансодда гаплар услубияти (А. Қаҳҳор асарлари материаллари асосида). Филол. фанлари номзоди. . . дис. автореф. – Тошкент, 1993. –Б. 8-10.
10. Тожиев Ё. Туркий тилларда гап бош бўлакларининг кенгайиш

ОСОБЕННОСТИ ИЗОБРАЖЕНИЯ САТИРИЧЕСКОГО И ЮМОРИСТИЧЕСКОГО В ТВОРЧЕСТВЕ Н.ТЕФФИ

Г.Э.Кучкарова,

стажёр-преподаватель Каттакурганского филиала СамГУ

Аннотация. *В статье освещается тесная связь сатирической литературы в творчестве Надежды Теффи. Среди ярких имен в сатирической литературе начала XX века выделяется имя Надежды Теффи, т.к. именно всё сатирическом творчестве впервые смех проявляет себя не как обличающее, а как жизнеутверждающее начало, несмотря на то что именно российская действительность явилась главным объектом сатиры писательницы.*

Ключевые слова*: статья, ирония, юмор, комическое, мораль, трагикомедия, сатира, аллегория, гротеск, проза, художественный образ.*

Annotatsiya. *Maqolada satirik adabiyot va Nadejda Teffi ijodi o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlik ta’kidlangan. 20-asr boshlari satirik adabiyotidagi yorqin nomlar orasida Nadejda Teffi nomi alohida ajralib turadi, chunki barcha satirik asarlarda kulgi birinchi navbatda o‘zini ayblovchi sifatida emas, balki hayotni tasdiqlovchi printsip sifatida namoyon bo‘ladi, garchi yozuvchi satirining asosiy ob’ekti rus haqiqati bo‘lgan.*

Kalit so‘zlar: *maqola, kinoya, hazil, kulgili, axloq, tragikomediya, satira, allegoriya, grotesk, nasr, badiiy obraz.*

Ключевые слова*: статья, ирония, юмор, комическое, мораль, трагикомедия, сатира, аллегория, гротеск, проза, художественный образ.*

Annotation. *The article emphasizes the close connection between satirical literature and the work of Nadezhda Teffi. Among the bright names in the satirical literature of the early 20th century, the name of Nadezhda Teffi stands out, since in all satirical works laughter appears primarily not as self-incriminating, but as a life-affirming principle, although the main object of the writer’s satire was Russian reality.*

Key words: *article, irony, humor, comic, morality, tragicomedy, satire, allegory, grotesque, prose, artistic image.*

Отличительной чертой творчества Теффи является то, что в них не просто объекты сатирического осмеяния противостоят этическому и художественному идеалу автора, это своеобразный способ мышления, более того, это принцип авторского мышления, общее отношение автора к изображаемому миру.

В доэмигрантский период творчества позиция автора несёт не столько характер неодобрения и осуждения, здесь, скорее, можно усмотреть чеховскую жалость к объекту изображения и сожаление, но поводу его несовершенства. «Подобная смена оттенков авторской эмоциональности обусловлена изменением характера смехового в художественном мире Теффи, что связано, прежде всего, со сменой объекта изображения и синтезом форм комического: сатиры, иронии, юмора».

В качестве объекта изображения в своих первых рассказах Теффи выбирает общественные пороки, имеющие широкую социальную значимость, это, в первую очередь, нарушение нравов, норм морали. Сатира у Теффи не содержит обличающих нот, а смех имеет трагикомический характер. Нередко сатирические произведения автора окрашены в лирические тона повествования, что особым образом характеризует и выделяет рассказы Теффи из общего числа комедийно-сатирической литературы начала XX века.

Теффи, как сама она об этом упоминала, никогда не ставила перед собой цель стать сатириком, и она была далека от той агрессивности по отношению к изображаемым порокам и ненависти, которые непременно руководят пером сатирика. Со временем из произведений Теффи вообще исчезает обличительная манера письма, сатира сменяется юмором; вместо гиперболизации и гротеска, использованных в сатирических рассказах, посвященных политической тематике, появляются намёк, аллегория и языковая игра.

Отход от идеального образа Теффи видит в обыденной жизни и в характере обывателя как типичном её представителе. Автор, выставляя в комическом свете поведение обывателя, комическими средствами и приёмами создавая художественный образ объекта осмеяния, всё же находит в нем положительные стороны. В этом плане можно говорить о писательнице как о наследнице традиций как Гоголя, так и Чехова. В каждом изображаемом герое ей видится непременный талант, который возможно развить. Подобное сочетание насмешки и очевидно доверительного отношения к герою и определяет индивидуальный стиль писательницы.

В отличие от большинства комических произведений, где объектом изображения становятся явления, противоречащие норме, в произведениях Теффи в комическом свете представлена сама норма жизни.

Современниками произведения Теффи не были воспринимаются однозначно положительно. Неудавшейся была названа критиками серьёзная проза писательницы по причине неуловимости смены объекта изображения и форм смешного. Серьезная проза, например, вообще была объявлена критиками несостоявшейся по причине, но столь очевидного ухода от привычной формы повествования, и писательнице по-прежнему видели лишь комедийный талант.

После октябрьских событий писательница вынуждена была эмигрировать из страны. Конечно, подобные резкие изменения мс могли не сказаться на мироощущении писательницы, а также на поэтике произведений.

Эмигрантская жизнь становится основной темой творчества. Меняются герои, ситуации, характер смешного. Если ранее в поле зрения попадали действительно смешные стороны жизни, в комичных ситуациях обыватель оказывался по причине нелогичных поступков и некоторых особенностей мироощущения, то в эмигрантских рассказах Теффи выставляет в нелепом свете уже далеко не смешные стороны окружающей жизни. Сама

действительность рождает не комические, а трагикомические ситуации. Герой одинок, лишен привычного окружения, находится не просто в непривычной, а в чужой среде.

Иронизируя над исключительно замкнутой, обывательской жизнью героев, Теффи в своих доэмигрантских рассказах наблюдает за ними со стороны. Автор достаточно мягок и снисходителен к героям. В эмигрантских произведениях читатель слышит, скорее, исповедь. В эмиграции все меняется, рассказчик и автор в художественном мире Теффи становятся одним лицом. В основе произведений оказываются личные воспоминания автора, реалии его жизни. И уже не глупое поведение героев, их лексика становятся объектом изображения, а трагедия человеческой жизни, в том числе, и жизни самой Теффи. Однако и в этом случае писательница иронически настроена к ситуации в целом. Мотивы одиночества, тоски, душевной задавленности перемежаются юмористическими комментариями.

Комическое в художественном мире Теффи как бы смешивает различные формы: сатирическая форма комического ранних рассказов сменяется горькой улыбкой, «смехом сквозь слёзы».

В эмиграции меняется идейная направленность творчества и адресат комического. В комментариях к собственным сборникам, вышедшим в России до эмиграции, Теффи подчеркивает, что её творчество должно быть понятно всем: и ребёнку, и взрослому. К своему творчеству в эмиграции она относится по-мессионерски, главная задача для неё - спасение эмигрантской России. Соответственно, меняется и герой произведений. Теперь это эмигрант. «Горечь и сожаление, испытываемые по поводу несправедливости происходящего, определяют эмоциональную направленность трагических рассказов, малоизвестных читателю и по сей день».

От светлого чеховского юмора произведений, напечатанных в журнале «Сатирикон», от гоголевского «смеха сквозь слёзы» Теффи приходит к психологизму Достоевского. «Тема униженных и оскорблённых, своеобразно трансформируясь в эмиграции, раскрывается через изображение чувств и переживаний эмигрантов, трагичных в своей основе, но комично трактуемых Теффи».

Таким образом, формы комизма и характер смеха в художественном мире Теффи чрезвычайно разнообразны: от едкой иронии и сокрушающей сатиры политических рассказов, «смеха сквозь слёзы» «сатириконских» произведений до добродушного юмора рассказов о детях и трагического в своей основе смеха рассказов эмиграции.

Использованная литература:

1. Волков А.И. «Сатирические рассказы Н.Теффи». - М.,1997. - 265 с.
2. Кантор А.П. «Смех сквозь слезы» русской литературы». - М.,2001,- 163с.

QALBLARNING SEVGANI

Tursunova Shalola
SamDUKF stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya. *She'riyat mulkining sultoni, davlat arbobi, xazrat Mir Alisher Navoiy mana necha asrlar davomida cho‘lpon yulduzi singari insonlarning qalbini yoritib kelmoqda. Ul zotning tarix zarvaraqlaridan o‘chmas izlari, ijodiy merosi avlodlar uchun cheksiz ummondir. Bu ummonga qancha chuqur sho‘ng‘isang, shuncha dur-u gavharlar topasan kishi.*

Mana shu ummondan bir marvarid sifatida xazratning “Mahbub ul-qulub” asari haqida to‘xtalmoqchimiz. Ushbu asar shoir umrining so‘ngi yillarida yozilgan bo‘lib hayot haqida chuqur mulohazalar aks etgan.

Kalit so‘zlar: *Hilm, “Mahbub ul-qulub”, Navoiy, yumshoq ko‘ngillilik*

Аннотация. *Султан поэзии, государственный деятель Хазрат Мир Алишер Навои на протяжении веков освещал сердца людей, словно полночная звезда. Его неизгладимый след на страницах истории, его творческое наследие — безбрежный океан для поколений.*

Чем глубже вы окунетесь в этот океан, тем больше драгоценностей вы найдете. Мы хотели бы остановиться на творении Пророка «Махбуб уль-кулуб», как на жемчужине этого океана. Это произведение было написано в последние годы жизни поэта и отражает глубокие размышления о жизни.

Ключевые слова: *Хилм, Махбуб уль-кулуб, Навои, мягкосердечность.*

Abstract. *The sultan of poetic property, statesman, Hazrat Mir Alisher Navoi has been illuminating the hearts of people like a midnight star for centuries. His indelible traces on the pages of history, his creative heritage are a boundless ocean for generations. The deeper you dive into this ocean, the more gems you will find. As a pearl from this ocean, we would like to dwell on Hazrat's work "Mahbub ul-qulub". This work was written in the last years of the poet's life and reflects deep reflections on life.*

Key words: *Helme, Mahbub ul-qulub, Navoi, gentleness of heart.*

“Mahbub ul-qulub” so‘zining ma'nosi “qalblarning sevgani” demakdir. Chindan ham bu kitobni o‘qigan kitobxon qalban unga oshifta bo‘ladi. Asar uch qismdan tashkil topgan bo‘lib, birinchi qismda kishilarning fe'l-atvori va gap so‘zlarining ahamiyati haqida so‘z boradi, ikkinchi qismda esa yaxshi fe'llar va yomon xislatlar to‘g‘risida gapiriladi. Uchinchi qismda turli foydali maslaxatlar va maqollar keltiriladi. Mana, oradan necha asrlar o‘tishiga qaramay ushbu asardagi nodir fikrlar bugungi kunda ham ahamiyatli. Quyida ulardan bugun odamlar orasida unitilayozgan insoniy xislatlar haqidagi bir qanchasiga to‘xtalib o‘tamiz.

“Hilm (muloyim tabiatlik) inson vujudining xushmanzara mevalik bog‘idir va odamiylik olamining javohirga boy tog‘idir. Yumshoq ko‘ngillilik xodisalar tula dengizdagi kishilik kemasining langari desa bo‘ladi va insoniyat qadrini o‘lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo‘ladi... El agar ko‘kka etsa ham, baribir engil va qadrsiz; tog‘ agar tuproqqa botsa ham salobatlidir. Elning orasida o‘tga yoqiladigan xas-xashaklar bor;xilm mazmunida esa, shoh tojiga qadalgudek cho‘g‘ kabi qizil la'l bor.

Bayt:

Og‘irliq vaznidindur seldin g‘amsiz Hiriy tog‘i,

Engillik fartidin barbod erur qomg‘oq yafrog‘i.

(Hiri tog‘i og‘ir bo‘lgani uchun uni sel bossa ham tashvishi yo‘q,

To‘zg‘oq o‘simligining yaprog‘i yingil bo‘lgani uchun shamolda barbod bo‘ladi.)

Injudek terilgan bu so‘zlarni o‘qir ekanmiz jahl otiga minib, qiziqqonlikni va boshqa arzimas vajlarni keltirib qilgan xatolarimiz ko‘z oldimizdan bir-bir o‘tadi. Aqlga emas jahlga bo‘ysunib qo‘shnisidan, hamsuhbatidan, hattoki jigarlaridan, ota-onasidan arz qilib idorama idora yurganlar kammi? “Aqli bor odam janjallashishdan qochadi; do‘stlashishi uchun kelishuvchilik eshigini ochadiyu Arining g‘uvillashida nayza sanchishi xavfi bor; asalarining g‘ovurida bolga muyassar bo‘lish imkoni bor ”,-deydi xazrat Navoiy. Molimiz, jonimiz omonat bu dunyoda haq-huquq talashmoqlikdan ne naf? Ammo mana shu janjallarga sabab bo‘luvchilarni ham xazrat nazardan chetda qoldirmagan. “U erdan bu erga gap tashuvchilar elning gunohini bo‘yniga oshuvchilardir. Chaqimchilik hatto chin gap bo‘lsa ham ko‘ngilsizdir,yolg‘on bo‘lsa yanada nafratlidir. So‘z etkazuvchining xoh kattasi, xoh kichigi do‘zax o‘tining tutanturig‘i bil.

Bayt:

Kim so‘zni terib aytguvchi og‘zig‘a bergay,

Molik ani do‘zax o‘tining dudig‘a tergay.

(Kimki so‘zni terib chaqimchiga bergay,

Haq uni do‘zax o‘tining tutuniga solgay.) ”

Oqar suvdek umrimizning har lahzasini, halol yo‘l bilan topgan molimizni eslashga arzigulik ishlarga sarflasak qanday maroqli.

Shu o‘rinda Xazrat Navoiyning mol-davlat haqidagi ajoyib so‘zlarini keltirib o‘tamiz.

“Tez qo‘lga kirgan boylik – uzoqqa bormas; maqtagan bilan hech narsaning bahosi ortmas. Bir xumdondan mingta sopol idish chiqar, qiymati bir tangadan ortiq bo‘lmas, kunda yuztasi sinsa ham birov achinmas.

Chinni idishning qiymati – uni tayyorlashdagi qiyinchiligiga yarasha balanddir;uni asrashda ham qiymatiga yarasha ahamiyat beriladi. qiymati ozning hurmati oz.

Bayt:

Qayu mato‘kim oz voqe' o‘lsa qiymat anga,

Erur muvofiq aning qiymaticha hurmat anga.

(Qaysi narsa oz bo‘lsa, uning qiymati baland bo‘ladi

Uning qiymatiga yarasha hurmati ham ortadi.) ”

Haqiqatdan ham, oson yo‘l bilan topilgan boylik osongina qo‘ldan ketadi. Ammo bu osongina kelgan pulning xavotiri yuragimizdan ketmay halovatimizni o‘g‘irlaydi, salomatligimizga ziyon etkazadi. Osongina pul topish ilinjida jinoyatga qo‘l urganlar, nafaqat boshqalarning,balki o‘zining ham hayotini barbod qilganlar Xazratning bu qimmatli fikrlarini o‘qigan bo‘lganda edi.

“Har kimki birov bilan do‘st-yor bo‘lsa, yoki do‘st-yorlik da'vosini qilsa, o‘ziga ravo ko‘rmaganini unga ham ravo ko‘rmasligi kerak; ba'zi narsalarni o‘ziga ravo ko‘rsahamki, yoriga ravo ko‘rmasligi lozim”.

Biz yuqoridagi hech bir holatni hech kimga ravo ko‘rmaymiz. Barchamiz umr atalmish bog‘ning so‘lim go‘shalarida bo‘laylik. Biz ushbu kitobning yuzdan bir nasihatinigina tahlil qildik, bu nodir gavharni topib albatta o‘qishingizni istaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik: 9-jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2012-yil.
2. Alisher Navoiy, "Mahbub ul-qulub. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019-yil.
3. “Alisher Navoiyning hayoti va ijodi bo‘yicha o‘quv qo‘llanma” T.Matyoqubova, Toshkent – 2009.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik. 1-tom. –Toshkent: Fan, 1983.

ZULFIYA POETIKASIDA OLMOSH ANAFORALARNING QO‘LLANILISHI

Axmedov Salohiddin Sahobiddin o‘g‘li
SamDUKF Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti

Annotatsiya. *Adabiyotimizning noyob javohirlaridan iborat so‘z xazinasiga nodir durlar qo‘shilib, uning badiiy nafosatini beqiyos darajada oshiradi. Ana shunday durlardan biri bu—anaforalardir. Anafora—“bunda bir qancha gaplar—strofalar, abzaslar bir xil konstruksiya bilan boshlanadi. Bu parallelizm hosil qilib, tinglovchi-o‘quvchi diqqati takrorlanuvchi konstruksiyalarga tortiladi”. Demak, anafora misralarda so‘zlarning aynan takrorlanib kelishidir. Maqolada ushbu jihatlar Zulfiya she’riyati asosida keng tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *anafora, poetika, olmosh, she’riyat, parallelism*

Коммерциализация издательского процесса и её влияние на переводную литературу. В условиях современной экономики издательская индустрия часто ориентируется на спрос и коммерческую выгоду, что ограничивает разнообразие переводной литературы. Издательства часто выбирают для перевода произведения, которые гарантируют коммерческий успех, а не те, которые представляют собой культурную или художественную ценность. Эта коммерциализация приводит к тому, что переводной рынок ориентируется на массовое производство, что может негативно сказываться на качестве переводов, а также ограничивает доступ к произведениям менее популярных, но высококачественных авторов.

Проблема профессиональной деградации переводчиков и дефицита кадров. Недооценка роли переводчиков, недостаток финансирования их работы, а также отсутствие должной профессиональной подготовки приводят к тому, что значительное количество переводов выполняются людьми, не обладающими необходимыми знаниями и навыками. В результате возникает ситуация, когда в публикуемых переводах теряется не только смысл оригинала, но и его художественная ценность. Профессионализм переводчиков требует не только высокого уровня языковых знаний, но и глубокого понимания культуры и истории, что невозможно без должной подготовки и образования.

В звключение, в целях повышения роли переводной литературы в современном обществе необходимо укрепление институциональной поддержки, развитие образовательных программ для подготовки квалифицированных переводчиков, а также формирование общественного и профессионального признания переводческой деятельности как ключевого элемента культурной политики. Только в условиях уважительного отношения к литературному переводу как к творческому и интеллектуальному труду возможно сохранение культурного разнообразия и продвижение идейного многообразия в глобальном масштабе.

Список использованных литератур:

1. Бродский, И. А. Искусство перевода: теория и практика. — Москва: Высшая школа, 2018. — 312 с.
2. Комиссаров, В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). — Москва: ИТДГК «Гнозис», 2002. — 253 с.
3. Латышев, Л. К. Практика перевода: учебное пособие. — Москва: Флинта, 2010. — 280 с.
4. Алексеев, С. С. Культурные контексты и перевод: проблемы эквивалентности. // Вопросы переводоведения. — 2020. — № 3. — С. 45–52.
5. Venuti, L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. — London: Routledge, 2012. — 336 p.
6. Bassnett, S. Translation Studies. — London: Routledge, 2014. — 208 p.
7. Jakobson, R. On Linguistic Aspects of Translation. // Selected Writings. — The Hague: Mouton, 1971. — Vol. II. — P. 260–266.

«ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ Л.Н. ТОЛСТОГО»

Кучкарова Гузаль Эркиновна
Каттакурганский филиал Самаркандского государственного университета
Эралиева Муштарийбону, студент 4 курса

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности изображения женских образов в произведениях Льва Николаевича Толстого. Анализируются ключевые героини его романов, таких как «Война и мир», «Анна Каренина» и «Воскресение». Особое внимание уделяется внутреннему миру героинь, их моральным поискам, роли в сюжете и влиянию на развитие философских и нравственных идей писателя. Подчёркивается значимость женских персонажей в контексте общей художественной системы Толстого.*

Ключевые слова. *Толстой, женские образы, русская литература, Анна Каренина, Наташа Ростова, нравственные искания, образ женщины, философия Толстого, Война и мир, Воскресение.*

Annotatsiya. *Maqolada Lev Nikolaevich Tolstoy asarlaridagi ayol qahramonlar tasvirining xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Uning "Urush va tinchlik", "Anna Karenina", "Tirilish" kabi romanlarining asosiy qahramonlari tahlil qilinadi. Qahramonlarning ichki dunyosi, axloqiy izlanishlari, syujetdagi o'rni va yozuvchining falsafiy-axloqiy g'oyalari rivojiga ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. Tolstoyning umumiy badiiy tizimi kontekstida ayol obrazlarining ahamiyati ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar. *Tolstoy, ayol obrazlari, rus adabiyoti, Anna Karenina, Natasha Rostova, axloqiy izlanish, ayol obrazi, Tolstoy falsafasi, Urush va tinchlik, Tirilish.*

Abstract. *The article examines the features of the depiction of female characters in the works of Leo Tolstoy. The key heroines of his novels, such as War and Peace, Anna Karenina and Resurrection, are analyzed. Particular attention is paid to the inner world of the heroines, their moral quests, their role in the plot and their influence on the development of the writer's philosophical and moral ideas. The significance of female characters in the context of Tolstoy's general artistic system is emphasized.*

Keywords. *Tolstoy, female characters, Russian literature, Anna Karenina, Natasha Rostova, moral quest, image of a woman, Tolstoy's philosophy, War and Peace, Resurrection.*

Ранний период творчества Льва Николаевича Толстого характеризуется формированием ключевых тем, которые позднее получат глубокое развитие в его зрелых произведениях. Одной из таких тем становится изображение женского начала как нравственной и духовной опоры человеческого бытия. Хотя в трилогии «Детство», «Отрочество», «Юность» женские персонажи не являются центральными, они выполняют

важную функцию — они формируют эмоционально-нравственный фон, в котором развивается личность героя, и задают основные координаты его внутреннего мира.

Образ матери как нравственный идеал. Наиболее значимым женским образом в «Детстве» является мать Николеньки Иртеньева. Её фигура не только занимает важное место в жизни героя, но и воплощает собой идеализированный образ женственности, чистоты, доброты и душевного света. В одном из эпизодов герой говорит:

«Мать... была для меня существом особенным, возвышенным, недосягаемым, и я не мог ни о чём думать, кроме как о ней, когда она была рядом».

Эта фраза свидетельствует о сакрализации женского образа в сознании ребёнка. Толстой стремится передать не столько конкретные черты матери, сколько её духовную сущность, её значение как нравственного маяка. Критик Д.С. Мережковский отмечал:

«Образ матери в раннем Толстом — это проекция его религиозно-нравственного идеала, прообраз той высшей морали, которая станет стержнем его философии».

Таким образом, мать у Толстого не просто семейный персонаж — она архетипический образ женщины как источника добра, нравственности и утешения.

Женщина как предмет романтического восхищения. Другим важным мотивом раннего творчества становится первое романтическое чувство. В «Юности» появляется фигура Вареньки, юной героини, в которую влюбляется главный герой. Её образ далёк от психологической проработки, он предстаёт через фильтр восприятия подростка, склонного к идеализации и мечтательности. «Я не мог думать ни о чём другом — её движения, её голос, даже её молчание казались мне совершенством».

Женский персонаж здесь — отражение душевных волнений молодого героя, его стремления к возвышенному, чистому, идеальному. Это восприятие соответствует романтической традиции XIX века, но уже намечает отход от шаблонов: Толстой показывает не просто образ «прекрасной дамы», а процесс взросления, внутренней трансформации личности через переживание любви.

Женщина как хранительница духовных ценностей. В произведениях этого периода проявляется ещё один важный аспект — женщина как носительница нравственной истины и внутренней чистоты. Даже второстепенные женские персонажи (например, няня, бабушка, гувернантка) обладают качествами, через которые автор формирует у героя представление о добре, терпении, заботе и сострадании.

Литературовед А.Н. Уледов подчёркивает:

«В раннем Толстом уже присутствует тенденция к сакрализации женского начала, к представлению женщины не просто как социальной роли, но как нравственного принципа».

Таким образом, в раннем творчестве Толстого женские образы, хотя и лишены сложной психологической глубины, выполняют важнейшую художественную и философскую функцию. Они подготавливают читателя к восприятию более сложных, трагически противоречивых женских судеб в поздних романах писателя, таких как «Анна Каренина», «Война и мир» и «Воскресение».

Женские образы в произведениях Льва Николаевича Толстого представляют собой неотъемлемую часть его художественного мира и философского мышления. С ранних произведений писатель формирует представление о женщине как о нравственном ориентире, источнике духовной чистоты и внутренней гармонии. Эти черты, заметные уже в трилогии «Детство», «Отрочество», «Юность», получают своё развитие и усложнение в зрелом творчестве, где женские персонажи становятся центральными фигурами нравственно-философских конфликтов.

Героини Толстого — Анна Каренина, Наташа Ростова, Катюша Маслова, княжна Марья и другие — воплощают разные типы женственности, социального положения, мировоззренческих установок. Через их судьбы автор исследует ключевые вопросы человеческого существования: смысл любви, роль семьи, противостояние личности и

общества, конфликт между страстью и долгом, телесным и духовным. Женский образ у Толстого — это не просто персонаж, а носитель нравственных идей, через которого автор выражает свою философию жизни.

Критики и литературоведы неоднократно подчеркивали, что отношение Толстого к женщине было противоречивым, но всегда глубоким и значимым. Его героини далеки от однозначных характеристик: они способны как на великодушие и самопожертвование, так и на внутренние падения, сомнения, разрушительные поступки. Именно такая сложность делает образы женщин в его произведениях живыми, многомерными и актуальными по сей день.

Таким образом, женские образы в творчестве Л.Н. Толстого не только отражают реалии эпохи, но и поднимают универсальные вопросы человеческой природы, оставаясь предметом активного научного и читательского интереса.

Список литературы:

1. Берковский Н. Я. Лев Толстой: Очерки творчества. — М.: Художественная литература, 1978. — 352 с.

2. Мережковский Д. С. Толстой и Достоевский. Жизнь и творчество. — СПб.: Академический проект, 2001. — 512 с.

3. Трунова Е. С. Женские образы в творчестве Л. Н. Толстого // Вестник Томского государственного университета. Филология. — 2015. — № 4 (32). — С. 45–51.

4. Уледов А. Н. Философия человека в прозе Л. Н. Толстого. — М.: Наука, 1991. — 214 с.

5. Черняк В. Д. Женская душа в зеркале толстовской прозы // Литературное наследие России. — 2012. — № 2. — С. 89–97.

6. Толстой Л. Н. Собрание сочинений: В 22 т. — М.: Гослитиздат, 1958–1965.

7. Толстой Л. Н. Анна Каренина. — М.: Эксмо, 2014.

8. Толстой Л. Н. Война и мир. — М.: Азбука, 2013.

9. Толстой Л. Н. Воскресение. — М.: Эксмо, 2012.

ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА АЛИШЕРА НАВОИ В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Норбобоев Собир Содик угли
Каттакурганский филиал Самаркандского государственного университета
sobirnv@gmail.com
Исматова Саодат Гайратжон кизи студентка 3 курса

***Аннотация**. Статья посвящена всестороннему анализу деятельности и творчества великого узбекского поэта, мыслителя и государственного деятеля Алишера Навои. Автор подчеркивает уникальность художественного наследия Навои, его новаторский подход к классическим сюжетам, влияние на восточную литературу и значение для мировой культуры. Отмечается широкая международная популярность произведений поэта, переводы на множество языков. Особое внимание уделяется роли Навои как основателя новой литературной традиции, его взаимодействию с предшественниками, такими как Низами и Хосров Дехлеви, и последователями, включая европейских и азиатских поэтов и исследователей.*

***Ключевые слова**: писатель, творчество, произведение, перевод, дастан.*

***Annotasiya**. Maqola buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy faoliyati va ijodini har tomonlama tahlil qilishga bag‘ishlangan. Muallif Navoiy badiiy merosining o‘ziga xosligini, klassik mavzularga yangicha yondashuvini, Sharq adabiyotiga ta’sirini va jahon madaniyati uchun ahamiyatini ta’kidlaydi. Shoir asarlarining keng xalqaro mashhurligi, ko‘plab tillarga tarjimalari qayd etilgan. Navoiyning yangi adabiy an'ana asoschisi sifatidagi roli, uning Nizomiy va Xosrov Dehlevi kabi o‘tmishdoshlari hamda Yevropa va Osiyo*

shoirlari va tadqiqotchilarini o‘z ichiga olgan izdoshlari bilan o‘zaro munosabatlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kalit sozlar: *yozuvchi, ijod, asar, tarjima, doston.*

Annotation. *The article is devoted to a comprehensive analysis of the activities and work of the great Uzbek poet, thinker and statesman Alisher Navoi. The author emphasizes the uniqueness of Navoi's artistic heritage, its innovative approach to classical subjects, its influence on Oriental literature and its significance for world culture. There is a wide international popularity of the poet's works, translations into many languages. Special attention is paid to Navoi's role as the founder of a new literary tradition, his interaction with his predecessors, such as Nizami and Khosrow Dehlavi, and followers, including European and Asian poets and researchers.*

Keywords: *writer, creativity, work, translation*

Деятельность и творчество великого узбекского поэта и мыслителя Алишера Навои — уникальный образец служения народу, стране, человечеству и просветительству.

Приняв сюжеты и некоторые формальные особенности Дехлеви сочинения, Навои дал совершенно иное идейно-художественное толкование тематики и сюжетных ситуаций, новую трактовку образов и событий. Поэтому оценка сочинения Навои, как подражательных, установившаяся в западной ориенталистике, неверна, она опровергнута научными изысканиями современных таких ученых, как Е. Э. Бертельс.

Трудно найти другого поэта и писателя, произведения которого широко распространены в мире, как творения Алишера Навои: копии его книг можно найти почти во всех уголках мира. Тот факт, что словарь языка произведений Навои был разработан в последние годы его жизни, показывает, что область, которую мы сейчас называем навоистикой, намного старше.

К творческому наследию выдающегося мастера слова проявляют интерес зарубежные исследователи. В частности, оно глубоко изучается учеными Ирана, Афганистана, Индии, Пакистана, Бангладеш. В этих странах созданы научные произведения, повести, романы, художественные фильмы о нашем великом предке, действуют музеи.

Под непосредственным влиянием Джами А. Навои создает свою “Хамсу”. Поэт выразил в ней свой жизненный и творческий опыт художника, мыслителя, политика. В отличие от предшественников он старался приблизить читателя к реальному восприятию мира, привить ему “земной вкус”. Изучая мастерство предшественников, Навои стремился приблизить свое творение к жизни и ее запросам: “Преданья эти — плод седых веков”. Два с небольшим года понадобилось ему, чтобы сотворить это литературное чудо. Знаменитая «Пятерица» («Хамсе»), состоящая из пяти поэм: «Смятениеправедных» («Хайрат аль-абрар»), «Лейли и Меджнун», «Фархад и Ширин», «Семь планет» («Саб’аи сайяра»), «Искандерова стена» («Садди Искандари»). По устойчивой восточной традиции, «Пятерица» Навои явилась «ответом» на «Пятерицу» Низами Ганджеви и индийского поэта Амира Хосрова.

Произведения Алишера Навои переведены на многие языки и издаются во многих странах. Вышедшие недавно в свет творения поэта на китайском языке, его диван на русском языке, ставшие афоризмами высказывания на персидском, английском, немецком, французском, испанском, японском и других языках, изданное в Иране интернациональным издательством «Алхудо» на пяти языках произведение Алишера Навои «Назмул жавохир», опубликованное подарочное издание на украинском языке «Фархад и Ширин» — яркий пример неугасаемого интереса к наследию Навои, творчество которого является духовным кладезем всего человечества.

Наблюдения показали, что среди переводов произведений Алишера Навои самым распространенным является произведение «Мажолис ун-нафоис». Оно неоднократно

переводилось на персидский язык. Переводы принадлежат Султону Мухаммаду Фахри, Мухаммаду Казвини, Шохали Абдулле. Это произведение поэта переводилось и в Индии.

Переводом занимался Абдулбоки Шариф Вафо. Он пользовался редким экземпляром рукописи, переписанной в 1491 году, и успешно перевел произведение на персидский язык.

На основе дастана Навои «Сабъаи сайёр» в XVII веке грузинский поэт Нодар Цициашвили создал свое произведение «Барамгуриани». Изучив дастан нашего великого предка в сравнении с произведениями Низами и Хосрова Дехлеви, поэт использовал его в качестве основы собственного произведения. Даже при поверхностном ознакомлении с творением Нодара Цициашвили становится очевидным, насколько оно созвучно с произведением «Сабъаи сайёр».

Богатое наследие Алишера Навои вызывало интерес не только у ученых Востока, но и Запада. В конце XVI и в начале XVII века произведения Навои четыре раза издавались на итальянском языке, пять раз — на немецком. При этом уместно отметить переводы на немецкий язык «Мухокаматул лугатайн», «Махбубул кулуб», «Фархад и Ширин». Последнее произведение, переведенное Альфредом Куреллой, по мнению ученых, имеет высокий художественный уровень.

Как нам известно, к изданию готовится произведение Алишера Навои «Лисон ут-тайр» на английском языке, что свидетельствует о начале нового этапа изучения произведений Навои на Западе. С чувством гордости можно отметить, что народы Европы тоже смогут ознакомиться с богатым, имеющим мировое значение наследием великого предка узбекского народа.

Ученые отмечают, что в популяризации творчества Алишера Навои среди зарубежных читателей большую роль играет журнал «Леттр» («Литература»), издаваемый на английском, французском, испанском, польском, венгерском, чешском, словацком языках.

Таким образом, творчество Алишера Навои — это не только золотое достояние узбекской литературы, но и бесценный вклад в мировую культурную сокровищницу. Его произведения, пронизанные гуманистическими идеями, высокой поэтичностью и философской глубиной, продолжают вдохновлять поколения читателей и исследователей по всему миру. Широкий интерес к его наследию, многочисленные переводы, научные исследования и художественные интерпретации в разных странах свидетельствуют о непреходящей значимости Навои как мыслителя, поэта и просветителя. Его жизнь и творчество стали символом служения истине, народу и человечеству, а идеи, заложенные в его произведениях, продолжают объединять людей разных культур и эпох.

Список литературы:

1. Алишер Навои. Хамса. — Ташкент: Фан, 1983.

2. Бертельс, Е. Э. Избранные труды. Литература народов Востока. — М.: Наука, 1968.

3. Литтманн, Э. *Переводы произведений Навои в Германии и Европе*. — Берлин: Akademie Verlag, 1974.

4. Салаев, К. Б. О значении творчества А. Навои в мировой литературе / К. Б. Салаев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 6 (348). — С. 453-455.

BOBUR SHE’RIYATIDA ZOHID OBRAZINING BADIIY TALQINI

Tursunmurodova Dilobar Rahimjon *qizi*
SamDUKF o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tasavvuf adabiyoti, xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida namoyon bo‘lishi, zuhd maqomi, zohidlik sifatlari yoritilgan. Bobur she’riyati misolida izohlangan. Maqola adabiyot ixlosmandlari uchun mo‘ljallangan.*

Kalit so‘zlar: *tasavvuf adabiyoti, zuhd, zohidlik, va’ra, tariqat, solik.*

Tasavvuf insonning ma’naviy kamolotga erishish yo‘lidir. Tasavvuf va adabiyotning uyg‘unlashuvi natijasida tasavvufiy adabiyot yuzaga keldi Tasavvuf va badiiy ijodning mushtarakligi tasavvufning keng yoyilishiga sabab bo‘lgan omillardan biri. Adabiyot - insonshunoslik hisoblanib, tasavvuf adabiyotida esa tariqat yo‘li bilan poklanayotgan va komillik sari taraqqiyot etayotgan insonni tasvirlashni maqsad qilib olgan. Ana shu solikning dunyoqarashi, his-tuyg‘ulari, xarakterini tasvirlangan. Tariqatda solikning ruhiy-ma’naviy kamolot bosqichlari – maqomlardir. Har bir maqom komillik sari intiluvchi bir pog‘onadir. Ruhiy-ma’naviy kamoloti bosqichlaridan ko‘tarilgan sari komillik sifatlariga yaqinlashadi. Bu yo‘ldagi maqomlar Olloh visoliga yaqinlashtiradi. Abunasr Sarroj tariqatning tavba, vara’, zuhd, faqr, sabr, xavf, rajo, tavakkul, rizo maqomatini qayd etgan. Mazkur maqola Zahiriddin Muhammad Boburning she’riyatidagi tasavvufiy ohanglar, xususan, zuhd maqomi va zohidlik sifatlari haqida ma’lumot beradi.

Zuhd so‘ziga Bertels shunday ta’rif beradi: “Va’ra halol va hamroni farqlashda o‘ta sinchkovlik bilan ish ko‘rishdir. Bu ehtiyotkorlik tabiiy ravishda zuhd (nafsni tiyishlik)ga olib keladi. Bu yerda ham turli alomatlar kuzatiladi: gunohdan, keragidan ortiq narsadan, xudodan uzoqlashtiruvchi, hamma o‘tkinchi ishlardan tiyilishlik. Bu esa tavakkulga olib keladi.” Najmiddin Komilov “Tasavvuf” nomli risolasida: “Zuhd – parhez, hazar qilish demakdir. Ammo bunda taom va ichimlikdan saqlanish, halol va haromni ajratishga alohida ahamiyat beriladi. Zuhd sufiy uchun dunyo va oxirat tarki, dunyo moliga ega bo‘laman deb intilmaslikdir.” Junayd Bag‘dodiy: “Zuhd – qo‘lni mulkdan holi tutish, dilni esa Haqdan o‘zga har narsadan pok saqlash demak”, - desa, Imom G‘azzoliy: “Zuhd dunyodan ixtiyoriy ravishda voz kechish va buning uchun qayg‘urmaslikdir[1]”, -deydi. Demak, zuhd – vujudni ham, ruhiyatni ham dunyo ne’matlaridan parhez qilish, qalbni poklash, gunoh ishlardan tiyilish, Haqdan o‘zgaga tashna bo‘lmaslikdir. Bu maqomga ega bo‘lgan kishilar zohidlardir.

Bobur ijodida obrazlar rang-barangligiga guvoh bo‘lamizki, bu ijodkor zohid obrazini yanada boyitib, o‘ziga xos tasvir usullaridan foydalanilgan. Fikrlarimiz isboti uchun bir qancha misralarga diqqat qilaylik. Bobur quyidagi baytda zohidning xususiyatlarini aniq, lo‘nda tasvirlab, bu obrazning timsolini chizib bera olgan. Shu baytdanoq zohid jannat ilinjida toat-ibodat qilishi va do‘zaxdan qo‘rqib yashashi va unga haqiqiy yor visolidan ko‘ra jannatda shod-u xurramlik afzal ekanligini anglaymiz.

Zohida, do‘zah o‘tidin meni ne qo‘rqitasen,
Hajr o‘ti qoshida ko‘rmasmen ani uchquncha. [2]

Ey zohid, meni do‘zax o‘ti bilan qo‘rqitasan, men do‘zah o‘tini hajr o‘tining oldida bir uchquncha ham ko‘rmayman. Bu misralarda zohid xususiyatlaridan yana biri jannatga erishish uchun ibodat qilishi yoritilgan. Bu fikrlarda navoiyona ohangni ko‘ramiz. Jannat uchun qayg‘urish, do‘zax azobidan qo‘rqish zohidlarga xos xususiyat bo‘lib, bunday tasvir ko‘p uchraydi. Quyidagi Navoiy ruboiysida ham ana shu jihat aks etgan:

Qo‘rqutma meni tamug‘din, ey zohidi yax,
Jannat menga bo‘lg‘usi debon urma zanax.
Kim, do‘zax aning yodi bila jannat erur,
Jannat bori sening biladur do‘zax. [3]

Ey zohid, meni do‘zax o‘ti bilan qo‘rqitma. Jannat menga bo‘ladi deb ta’na qilma, ya’ni jannatni ta’ma qilib ibodat qilma. Olloh yodi bilan yashasang, dilingda uning yodi bo‘lsa, do‘zax

[1] Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Toshkent, “Yozuvchi”, 1996. – 26- b.
[2] Bobur. Devon. Toshkent, “Fan”, 1994. – 55-b.
[3] Alisher Navoiy.To‘la asarlar to‘plami 10 jildlik 1-jild. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 728 b.

ham sening uchun jannat bo‘lib ko‘rinadi. Faqat jannat uchun yashama, jannat-u do‘zax doim sen bilan birga. Alisher Navoiy bu misralarda zohid obrazini ta’magir shaxs ko‘rinishida tasvirlaydi.

Zohidlar uzlat va taqvoni pasha etgan bo‘lishlariga qaramay, ishq va irfondan bexabar kishilar edilar. Ular falsafiy mushohadakorlik, ajzu irodat bilan ma’naviy-axloqiy kamolot sari intilish, valilik, karomat-mo‘jizalar ko‘rsatish kabi xislatlarga ega emas edilar. Zohidlarning niyati ibodat bilan oxirat mag‘firatini qozonish, Qur’onda va’da qilingan jannatning huzur-halovatiga yetishish edi. So‘fiylar nazarida esa jannat umidida toat-ibodat qilish ham tama’ning bir ko‘rinishidir. Xolbuki, so‘fiy uchun na dunyodan, na oxiratdan tama’ bo‘lmaslik kerak. Yagona istak – bu Xudoning diydoridir, xolos.

Mashhur so‘fiy ayol Robiya Adaviya (714-801) Tangriga munojotlarida nola qilib aytar ekan: “Ey Parvardigorim, ey Yori aziz, agar jannating tama’ida toat qiladigan bo‘lksam, jannatingdan benasib et, agar do‘zaxingdan qo‘rqib ibodat qiladigan bo‘lsam, meni do‘zax o‘tida kuydir – ming-ming roziman! Ammo agar Sening jamolingni deb tunlari bedor o‘tkazar ekanman, yolvoraman, meni jamolingdan mahrum etma!”

Bobur quyidagi baytda esa zohidlik, oshiqlik kabi sifatlarini tadrijiy tarzda izohlab bergan.

Zuhd ketti esa karam qildi,
Ishq keldi-yu muhtaram qildi.

Zuhd meni tark etganligi menga bir ehson bo‘lsa, ishqning kelishi meni muhtaram-aziz qildi. Zuhdlikni tark etishi va ishqni paydo bo‘lishi insonga sharaf bag‘ishlashi aytib o‘tilgan.

Ko‘zung bori sog‘larni mast etgusidur,
G‘amzang bori mastlarni past etgusidur.
Ko‘p zohid-u porsoni Bobur yanlig‘
La’ling havasi bodaparast etgusidur.[1]

Ko‘zing hamma sog‘ insonlarni mast etdi, g‘amzang esa barcha mastlarni past etdi. Bobur ko‘pgina zohidlarni, porsolarni la’ling havasi bodaparast (Tasavvufda Ollohni yoniq ishq bilan sevish) qildi. Birinchi misrada ikki mast va sog‘ tushunchalarini qarama-qarshi qo‘yilgan. Sog‘lik deya ishqdan judolik, mastlik esa ishqqa mubtalolik ma’nosida izohlanmoqda. Bizga ma’lum bo‘lgan ikki tushuncha o‘zro teskari ma’nolarda qo‘llanmoqda. Keyingi misralarda oshiqning holati tasvirlangan. Bu ruboiyda zohid obrazi bodaparast, ishq tufayli mast bo‘lgan oshiq sifatida tasvirlangan. Ishq tufayli oshiq qay ahvolga tushishi, uning kechinmalarini quyidagi ruboiyda tasvirlangan.

Ishqing, netay ixtiyorsiz qildi meni,
Sabrimni olib qarorsiz qildi meni.
Olim eli ichra orsiz qildi meni,
Zuhd ahliga e’tiborsiz qildi meni. [2]

Ishq tufayli ixtiyorimdan ayrildim. Mening ixtiyorim endi ul yorda, u neni buyursa, uning buyruqlarini so‘zsiz bajaraman. Sabrimni oib qarorsiz qildi. Men unga oshiq bo‘lib orimdan ayrildim. Men uyat-andishadan judo bo‘ldim. Hattoki, zuhd ahliga ham e’tiborsiz qildi. Ya’ni haqiqiy ishqqa asir bo‘lgan kishi toat-ibodatni ham unutadi. Unga faqat Olloh jamoli, visoli kerak.

Bobur ishq va zuhd, oshiq va zohid timsollarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi. Tazod san’atidan mohirona foydalanib, bu tushunchalarni izohlashga harakat qiladi. Zuhd timsolini qora rangda, ishqni esa oq rangda tasvirlaydi.

Tiyra durur zuhd damidin ko‘ngul,
Ishq o‘ti birla yoritmoq kerak. [3]

Zuhd nafasi tufayli tufayli ko‘ngil g‘am-g‘ussaga botadi. Bunday ko‘ngilni ishq o‘ti bilan yoritmoq kerak.

[1] Bobur. Devon. Toshkent, “Fan”, 1994. – 72-b.
[2] O‘sha kitob 102-b.
[3] Bobur. Devon. Toshkent, “Fan”, 1994. – 34-b.

Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy zuhd va zohidlik illatlarini fosh etishgan bo‘lsa-da, bu yo‘lga kirganlarga nisbatan aynan gunohkor so‘zi bilan sifatlamagan edi. Hazrat Boburning aqidasiga ko‘ra, zuhd yo‘liga kirishlik gunoh, bunday insonlar gunohkordir. Quyidagi baytda ishq yo‘lidan ozib, zuhd sahrosiga tushib qolganligini, gunohkor Boburni endi ishq yo‘liga kim ko‘ndiradi kabi fikrlar keltirilgan.

Zuhd sahrosiga tushdim ishq yo‘lidan ozib,
Boburi gumrohni emdi kim bu yo‘lg‘a ko‘ndurur? [1]

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida vatan sog‘inchini kuylovchi vatanjudo inson, ma’shuqa ishqida yonuvchi oshiq, go‘zallik va nafosat shaydosi bo‘lgan muxlis bilan bir qatorda kamolat pillapoyasiga intilayotgan solik insonni ham ko‘ramiz. Tasavvuf maqomi zuhdni she’riyatida ochib berishga harakat qiladi. Bu maqom sohibi zohidni jannat uchun ibodat qiluvchi tama’gar shaxs, zuhd sahrosiga tushgan gunohkor va ishq tufayli mast bo‘lgan oshiq sifatida tasvirlangan. Zuhd maqomining ketishini esa insonni aziz sifatiga ega bo‘lishi va zuhd tufayli inson ko‘ngli g‘am-g‘ussaga tushishini aytib o‘tgan. Bularning barchasiga yagona chora haqiqiy oshiq bo‘lish va komillik sari intilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Alisher Navoiy.To‘la asarlar to‘plami 10 jildlik 1-jild. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 804 b.
2.Bobur. Devon. Toshkent, “Fan”, 1994. – 144 b.
3.Bertels Y. So‘fizm va tasavvuf adabiyoti. Toshkent, “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – 104 b.
4. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Toshkent, “Yozuvchi”, 1996. – 272 b.
5.Haqqul I. Tasavvuf va she’riyat. Toshkent, “Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1991, - 184 b.

DAVLAT TILI HIMOYAGA MUHTOJMI!?

Sobirov Anvar Kuvandikovich
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali
sobirovanvar52@gmail.com

XX asr boshida olti tilli: o‘zbek, arab, fors, hind, turk, va rus tillarida lug‘at tuzgan Is’hoqhon Ibrat «Bizning yoshlar, albatta, boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero o‘z tiliga sadoqat – bu Vataniy ishdir», deganda ona tiliga, davlat tiliga bo‘lgan hurmat Vatanga bo‘lgan hurmat bilan teng ekanligini ta’kidlaydi.

Dunyoda barcha tillarga ham davlat tili degan sharafli maqom nasib etmagan. Aksariyat tillar o‘z hududida ma`lum millatlargagina uy-ro‘zg‘or tili sifatida xizmat qiladi. Milliy qomusimizning ma’lumotiga ko‘ra yer yuzidagi yetti ming tildan atigi 116 tasi davlat tili maqomiga ega [Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 11-жилд. – Т., 2005, 528-бет]. O‘zbek tilining bu mo‘tabar minbardan o‘rin olishi, ya’ni davlat tili maqomiga ega bo‘lishi – bu bir baxt!

Davlat tili muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijroiy va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilangan tildir. Odatda, ko‘p millatli mamlakatlarda, masalan, Hindiston, Kanada, Shveytsariyada qaysi til yoki tillar rasmiy ekanligi konstitutsiyalarida belgilab qo‘yilgan. Davlatlarning ko‘pchiligida rasmiy til bilan davlat tili aynan bir xildir. Faqat ayrim mamlakatlardagina rasmiy til davlat tili maqomidan farqlanadi. Misol uchun, Shveytsariyada konstitutsiyaga binoan nemis, fransuz, italyan tillari — rasmiy til; **nemis, fransuz, italyan va retoroman** tillari esa davlat tili sanaladi.

Demokratiya nuqtayi nazaridan qaraladigan bo‘lsa, aslida davlat tili maqomi quyidagi me`yorlarga javob berish lozim:

Tarixan shakllangan hamda aholisining asosiy qismi muloqot qiladigan mustaqil davlatlarning tillari davlat tili maqomiga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, Saudiya Arabistoni,

[1] O‘sha kitob, 136-b.

Birlashgan Arab Amirliklari, Misr, Amerika, Angliya, Kanada, Yaponiya, Xitoy, Shvetsiya, Turkiya kabi ko‘pgina mamlakatlarda hech qaysi til davlat tili, deb e’lon qilinmagan. Bunga ehtiyoj ham yo‘q. Davlat tili davlat himoyasiga muhtoj ham emas. Shusiz ham bu davlatlarda boshqa tillar davlat tili maqomiga chiqa olmaydi. Biroq qadimdan mazkur davlatlarda mamlakatning asosiy qismini tashkil qilgan aholining tili davlat tili, rasmiy til deb tan olingan.

E’tibor qiling! Agarda O‘zbekistonga tashrif buyurgan ingliz yoki yapon sayyohlari o‘zbek tilida gaplashsalar! Beixtiyor hayratga tushamiz va buning uchun ularga chuqur ehtiromimizni izhor qilamiz. Mabodo, o‘zbek yoki qozoq Angliya yoki Amerikaga tashrif buyursa-yu, ingliz tilida xuddi inglizlardek gaplasha olsa ham, hech kim ularga e’tibor ham qilmaydi, bu vaziyat odatiy hol sifatida qabul qilinadi. Mana shu holatning o‘zi ingliz tilining davlat himoyasiga muhtoj emasligini tasdiqlaydi.

Demak, davlat tili mustaqil davlatning muhim belgisidir. Til davlat himoyasiga muhtoj bo‘lganda, undan foydalanishni barqarorlashtirishga ehtiyoj sezilgandagina, uning rivoji uchun shart-sharoit lozim deb topilgandagina unga qonun yo‘li bilan davlat tili maqomi beriladi. Tilga davlat tili nufuzining berilishi esa mustaqil davlatning suveren huquqi hisoblanadi.

Davlat tiliga bo‘lgan e’tibor va uning ahamiyatlilik darajasini xorijiy davlatlar qonunchiligi misolida quyidagi tartibda kuzatish mumkin:

Rossiyada “Davlat tili to‘g‘risida”gi Rossiya Federal qonuniga ko‘ra, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, Rossiya hududida faoliyat yurituvchi har qanday tashkilot davlat tili (rus tili)da ish yuritishi, tashkilotni nomlashda ham davlat tilidan foydalanishi belgilangan. Rossiyada 190 dan ortiq millat va elatlar yashaydi. Qonunni buzish tegishli javobgarlikka sabab bo‘ladi. **Germaniyada** “Ma’muriy amaliyotlar to‘g‘risida“gi qonunga ko‘ra, ma’muriy amaliyotlar uchun rasmiy til sifatida nemis tili belgilangan. Agar mas’ul idoraga nemis tilidan boshqa tilda murojaat qilinsa, organ darhol uning nemis tiliga tarjimasini talab qilishi kerak. Nemis tilidan boshqa tilda murojaatlar ko‘rib chiqilmaydi. **Irlandiyada** davlat tili sifatida irland va ingliz tili qabul qilingan. Davlat organlarida davlat tillari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinayotganini tekshirish bo‘yicha alohida organ mavjud. Agar davlat organi ushbu tashkilotga hujjatlarni taqdim qilmasa, ular bilan hamkorlik qilmasa, ushbu organ mansabdor shaxsi uchun 2000 yevrogacha jarima yoki 6 oy qamoq jazosi belgilangan. Bu tekshiruvlar natijasida til to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilgani aniqlansa, davlat organi mansabdor shaxsi javobgarlikka tortilishi mumkin. **Fransiyada** konstitusiyasida faqat fransuz tili davlat tili deb belgilangan. Tubon qonuniga ko‘ra, davlat tashkilotlari tomonidan ish yuritish istisnosiz fransuz tilida olib boriladi, terminlarning fransuzcha muqobili turganda, inglizchasi yoki boshqa tildagisini ishlatish taqiqlanadi. Fransiya aholisining 51 foizi fransuz tilidan boshqa tilda gaplashadi. Qonun talablariga rioya qilmaganlik jismoniy shaxsga 700 yevro, yuridik shaxsga 3750 yevro jarima solinishiga sabab bo‘ladi, boshqa tilda peshlavhasi yoki yorlig‘i yozilgan mulk musodara qilinishi ham mumkin. **Gruziya** “Davlat tili to‘g‘risida“gi qonunga ko‘ra, davlat korxona va tashkilotlarida faqat gruzin tilida ish yuritiladi, zarurat tug‘ilsa, hujjatlar boshqa tillarga tarjima qilinishi mumkin, ammo bu tarjimalar rasmiy hujjat hisoblanmaydi. **Ozarbayjonda** konstitusiyaga ko‘ra, davlat tili ozarbayjon tili hisoblanadi. “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, tashkilotlarda ish yuritish davlat tilida olib boriladi. Qonun talabiga rioya qilmaslik tegishli javobgarlikka sabab bo‘ladi. **Turkiya** barcha yozishmalar, yozuv va hisob-kitoblar hech qanday istisnolarsiz turk tilida olib borilishi talab etiladi. Ushbu talabga rioya qilmaganlik ma’muriy jarimaga tortilishga sabab bo‘ladi. Turk yuridik shaxslari o‘rtasida tuzilgan turk tilida bo‘lmagan shartnomalar bekor qilinadi. **Qatarda** 2019-yilda qabul qilingan yangi qonunga ko‘ra, Qatarda barcha davlat organlari va rasmiy hujjatlarda arab tilidan majburiy foydalaniladi. Qonun talablariga amal qilmaganlik uchun 50 000 qatar riali (14 000 AQSH dollari atrofida) miqdorida jarima belgilangan.

O‘zbekistonda esa 2020-yil aprel oyida Adliya vazirligi tomonidan davlat tilida ish yuritishni to‘la ta’minlash maqsadida mansabdor shaxslarga javobgarlik belgilashni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lib, 2021-yil 21-aprildan boshlab amaldagi

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 42-moddasida “Fuqarolarning tarbiya va ta’lim berishda tilni erkin tanlashdan iborat huquqlarini buzish, tildan foydalanishda to‘sqinlik qilish va cheklash, davlat tilini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi boshqa millatlar va elatlarning tillarini mensimaslik” hamda “Davlat organlari va tashkilotlarida ish yuritishda davlat tili haqidagi qonun talablariga rioya etmaslik, mansabdor shaxslarga bazaviy maosh miqdorining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi” deya belgilanganligi bizning davlat tilimiz ham himoya qilinayotganidan darak beradi.

Ko‘pchilik mustaqil davlatlarda **“davlat tili”** qoidalariga amal qilmaslik qattiq jazolanadi va davlat tomonidan tartibga solib turiladi, lekin shuni ham unutmasligimiz kerakki, davlat tiliga bo‘lgan munosabati qat’iy, ko‘p asrlardan beri amal qilinadigan qadriyatlardek e’zozlanadigan mamlakatlar ham anchagina. Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, davlat tilisi himoyaga muhtojlik sezmaydigan rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritishimiz o‘zimizga bog‘liq, negaki millatsevarlik, vatanparvarlik, uning buyuk kelajagi uchun qayg‘urish azal-azaldan qan-qonimizga singib ketgan.

Til – boy tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, din-u diyonatimiz, xalqimizga xos dunyoqarashni ko‘rsatuvchi ko‘zgu, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazuvchi eng muhim vositadir. Shuning uchun ham o‘z tilini yo‘qotgan millat o‘zligidan mahrum bo‘ladi, ma`naviy inqirozga yuz tutadi.

Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o‘qitadi, urf-odat, ananalarini saqlaydi. Shunday ekan, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo‘shishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondashimiz zarur.

OT SO‘Z TURKUMI DOIRASIDA LINGVISTIK ONTOLOGIYA VA KONSEPTLAR RO‘YXATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, YARATILISHI VA AMALIY QO‘LLANILISHI

Tirkashev Jasurjon Uktam o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi
jasurbey77@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek tilining ot so‘z turkumi misolida lingvistik ontologiya va konsept ro‘yxatlarning nazariy asoslari, yaratilish metodlari va amaliy qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Swadesh ro‘yxati, WordNet va EuroWordNet kabi tizimlarning tarixiy rivojlanishi tahlil qilinib, o‘zbek tili uchun konsept ro‘yxat va ontologik lug‘at tuzishning qo‘lda va yarim-avtomatik yondashuvlari tasvirlanadi. “O‘zbek konseptual minimumi – 500” ro‘yxati taqdim etilib, uning lingvistik tadqiqotlar va NLP sohasidagi ahamiyati muhokama qilinadi. Ontologiya, konsept ro‘yxat va tezaurus tushunchalarining farqlari va integratsiya imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot o‘zbek tilini raqamli texnologiyalarda rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim qadam sifatida baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *Lingvistik ontologiya, konsept ro‘yxat, Swadesh ro‘yxati, WordNet, EuroWordNet, ot so‘z turkumi, semantik tarmoq, NLP.*

Kirish

Leksik ma’lumotlarni mazmunan tartiblashtirish va kompyuterga tushunarli shaklda taqdim etish lingvistik ontologiyalar va konsept ro‘yxatlar orqali amalga oshiriladi. Lingvistik ontologiya – bu ma’lum bir til leksikasidagi tushunchalar va ularning o‘zaro bog‘liqligini formal tarzda ifodalovchi modeldir. Konsept ro‘yxatlar esa tilshunoslikda umumiy tushunchalar ro‘yxati bo‘lib, odatda barcha tillarda topilishi mumkin bo‘lgan asosiy leksik birliklarni qamrab oladi. Masalan, *Swadesh ro‘yxati* shunday konsept ro‘yxatga misoldir – u barcha tillarda mavjud bo‘lishi ehtimol qilinadigan *“yulduz”, “qo‘l”, “suv”, “uxlamoq”* kabi universal tushunchalar jamlanmasidan iborat. Swadesh ro‘yxati taniqli amerikalik tilshunos Morris Svadesh tomonidan

taklif qilingan bo‘lib, dastlab til qarindoshlik darajasini leksikostatistika usulida aniqlash uchun mo‘ljallangan edi.

Lingvistik ontologiya tushunchasi, xususan WordNet va unga o‘xshash leksik tarmoqlar misolida, kompyuter lingvistikasi va sun’iy intellektda muhim o‘rin tutadi. WordNet dastlab ingliz tili uchun yaratilgan leksik ma’no tarmog‘i bo‘lib, unda otlar, fe’llar, sifatlar va ravishlar ma’nodoshlik guruhlari (sensetlar) shaklida uyushtirilgan. Har bir senset ma’nodosh so‘zlarni o‘z ichiga oladi va ularga qisqa ta’rif hamda misollar biriktiriladi. WordNet tuzilmasida, masalan, barcha otlar uchun yagona eng umumiy giperonim “entity” (borliq) sifatida qabul qilingan va barcha giponim zanjirlari shu tugunga borib ulanadi. WordNet 1985-yildan boshlab Princeton Universitetida George A. Miller boshchiligida ishlab chiqilgan bo‘lib, 1990-yillar oxiriga kelib keng tanildi.

EuroWordNet loyihasi (1996–1999) bir necha yevropa tillari uchun o‘zaro bog‘langan WordNetlarni yaratgan holda ko‘p tilli ontologik bazani shakllantirdi EuroWordNet doirasida inglizcha Princeton WordNet bilan bir xil format va tamoyillarga ega niderland, ispan, italyan, nemis, fransuz, chex, eston WordNetlari tayyorlandi. EuroWordNet tarkibida shuningdek 63 ta universial semantik toifalardan iborat yuqori darajali ontologik tizim ham taklif qilingan bo‘lib, bu barcha tillar uchun umumiy semantik ramka vazifasini o‘taydi.

Yuqoridagi tarixiy rivojlanish shuni ko‘rsatadiki, lingvistik ontologiyalar va konsept ro‘yxatlar zamonaviy NLPning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular ma’no darajasidagi tahlillar, semantik qidiruv va til qiyosiy tadqiqotlarida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada ana shu nazariy asoslar fonida o‘zbek tilida ot so‘z turkumi misolida lingvistik ontologiya va konsept ro‘yxatlarni yaratish metodlari, olingan natijalar va ularning qo‘llanilish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Metodologiya

O‘zbek tili uchun konsept ro‘yxat va ontologik lug‘at tuzish bir nechta manbalarga tayanadi. Klassik konsept ro‘yxatlar, masalan, Swadesh ro‘yxati, Concepticon bazasi, hamda WordNet va EuroWordNet kabi tayyor leksik ontologiyalar. Umuman olganda, yondashuvlar qo‘lda va yarimavtomatik tuzishga bo‘linadi. Qo‘lda tuzish yondashuvida oldindan belgilangan konseptlar ro‘yxati asosida o‘zbek tilidagi so‘zlarni yig‘iladi va ular orasidagi munosabatlarni mustaqil ravishda belgilanadi. Misol uchun, 200 ta elementli Swadesh ro‘yxati asosida o‘zbek tilidagi asosiy leksik birliklar ro‘yxati tuzilishi mumkin. Masalan: *bosh, ko‘z, yurak, suv, olov* va hokazo. Bu holda har bir so‘z alohida konsept sifatida olinadi va ularning faqat ekvivalent tarjimalari boshqa tillardagi ro‘yxatlar bilan solishtiriladi xolos. Bunday qo‘lda tuzilgan konsept ro‘yxatlar lingvistik qiyosiy tadqiqotlar uchun qulay bo‘lsa-da, ular o‘zbek tilidagi so‘zlarning o‘zaro semantik aloqalarini, yani sinonimiya yoki giperonimiyani ifodalash imkonini bermaydi.

Yarim-avtomatik yondashuv esa tayyor ontologik strukturalarni o‘zbek tiliga moslashtirish orqali qisqa fursatda keng qamrovli resurs yaratishni ko‘zda tutadi. Bunda, avvalo, ikki tilli lug‘atlar va korpuslar bazasi tayyorlanadi hamda ulardan foydalanib, mavjud WordNet ma’no to‘plamlariga o‘zbekcha ekvivalentlar topiladi. Dastlab inglizcha Princeton WordNet uchun mavjud ma’lumotlar asos qilib olindi. So‘ngra lug‘aviy manbalarni tanlash va tayyorlash amalga oshirildi. Xususan, dastlabki bosqichda o‘zbek tilining izohli va ikki tilli lug‘atlari raqamlashtirilib, OCR orqali matnga aylantirildi, ma’lumotlar jadval shaklga keltirildi. Keyingi 2-bosqichda inglizcha WordNet har bir sensetiga dasturiy usulda muqobil o‘zbekcha nom berish bajarildi. Buning uchun lug‘atlardan olingan tarjimalar va ta’riflar tahlil qilindi. Masalan, inglizcha *“dog”* senseti (gloss: *a domesticated canine, commonly kept as a pet*) uchun lug‘atda “*it*” so‘zi topiladi va shu asosda mazkur sensetga o‘zbekcha “*it*” biriktiriladi. Shu tariqa, dastlabki avtomatlashtirilgan WordNet tarkibi hosil qilindi. 3-bosqichda har bir soha bo‘yicha mutaxassislar jalb qilinib, avtomatik tarjimalar va mosliklar tekshirildi hamda xatolar tuzatildi.

Ushbu tadqiqot doirasida ot so‘z turkumi misol sifatida olinganligi bois asosan otlarga doir konseptlar qaraldi. Kelgusida fe’l, sifat kabi boshqa turkumlar uchun ham shunga o‘xshash resurslar tuzish mumkin.

Yaratilgan resurslarni sinash va baholash metodlari alohida ahamiyatga ega. Ontologik lug‘at uchun sensetlar tarkibining to‘g‘riligi va munosabatlarining izchilligidir.

Umuman olganda, o‘zbek tilida lingvistik ontologiya yaratish korpus lingvistikasi, lug‘atshunoslik va NLP muhandisligi chorrahasida turuvchi majmuaviy vazifadir. Metod sifatida yuqoridagi qo‘lda va avtomatik yondashuvlarning kombinatsiyasi eng samarali natija beradi. Avval keng qamrovli ma’lumot avtomatik yig‘iladi, so‘ng u mutaxassislar tomonidan sifat jihatidan filtrlanadi. Shu yondashuv orqali qisqa muddatda ham mazmunan to‘liq, ham ishonchli ontologik resursga erishish mumkin bo‘ladi.

Natijalar

Ushbu loyihada o‘zbek tilidagi ot so‘zlariga oid dastlabki ontologik tarmog‘i shakllantirildi va o‘zbek tilidagi konsept ro‘yxatlar borasida bir qator natijalar olindi. Xususan, Concepticon loyihasiga muvofiq tarzda tayyorlangan 500 ta asosiy tushuncha ro‘yxati va ularning o‘zbekcha birliklari kartotekasi tuzildi. Ushbu ro‘yxat “O‘zbek konseptual minimumi – 500” deb nomlanib, unda quyidagilar kabi turkumlar bor: *tabiat hodisalari (quyosh, oy, yulduz, suv, olov,...), tana a’zolari (bosh, qo‘l, yurak,...), oila va qarindoshlik (ota, ona, aka, singil,...)* va hokazo. Bu ro‘yxat lingvistik tadqiqotlarda qiyosiy tahlil uchun va mashinada o‘qitish modellari uchun asosiy kalit so‘zlar to‘plami vazifasini o‘tashi mumkin. Masalan, turkiy tillarning leksik o‘xshashligini solishtirganda ushbu 500 tushunchadan qay biri qaysi tillarda o‘xshash yoki farqli ekanini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Muhokama

Ontologiya, konsept ro‘yxat va tezaurus tushunchalari yaqin bo‘lsa-da, aslida ular o‘rtasida muhim farqlar mavjud. Konsept ro‘yxat – bu faqat so‘zlar ro‘yxati, unda so‘zlar o‘zaro munosabatsiz keltiriladi, faqat ularning konseptual umumiyligi mezon sifatida tanlangan. Tezaurus esa, odatda, so‘zlarni ma’no o‘xshashligiga ko‘ra guruhlashdan iborat lug‘at turidir. Bunda sinonimlar, antonimlar va mavzuli ravishda yaqin so‘zlar bir bo‘lim yoki maqola doirasida jamlanadi. Masalan, an’anaviy tezaurusda *“yaxshi”* so‘zining sinonimlari (*yaxshi – a’lo, zo‘r, yaxshi sifatli, puxta*) va qarama-qarshilari (*yomon, qoniqarsiz*) bir joyga keltiriladi. Lekin tezaurusdagi bunday guruhlar qat’iy formal tartibga ega emas. Unda so‘z ma’nolarini aniq ajratish va har biriga identifikator berish shart emas. WordNet tipidagi ontologiya esa, aksincha, ma’no nuqtai nazaridan har bir so‘zning alohida ma’nolarini ajratib, faqat ma’nodoshlarini bir sensetga jamlaydi va ular orasidagi har bir munosabat turini aniq belgilaydi.

Lingvistik ontologiya – bu aynan lug‘at birliklarini o‘zaro semantik bog‘lanishda ifodalovchi ontologiyadir. WordNet ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan leksik ontologiya sifatida e’tirof etiladi va hatto undagi eng umumiy otlar to‘plami ontologik toifalar (entity, object, artifact, va h.k.) sifatida qaraladi.

Konsept ro‘yxat – bu eng sodda model, tezaurus – bu lug‘at shaklidagi, ammo uncha formal bo‘lmagan ma’no guruhlari, WordNet tipidagi lingvistik ontologiya – yarim-formal leksik semantik tarmoq, to‘liq ontologiya esa – formal mantiqiy modeldir. Ular o‘zaro bir-birini to‘ldiradi va birlashtirilsa, yanada katta bilim bazasini hosil qiladi. Masalan, o‘zbek tilida yaratilgan ontologiyani kengaytirib, unga fanlar bo‘yicha bilim ontologiyalarini integratsiya qilish mumkin. Bunda lug‘aviy darajadagi sinonim, giperonim ma’lumotlari bilan birga rasmiy belgilangan qonun-qoidalar ham qo‘shiladi. Bunday integratsiyalashgan tizimning ustunligi – mashina tomonidan mantiqiy xulosa chiqara olish funksiyasidir. Biroq integratsiyada muvaffaqiyatga erishish uchun WordNet bazasini mukammal qilish talab etiladi.

O‘zbek tilshunosligi va amaliy NLP uchun yaratilgan lingvistik ontologiya va konsept ro‘yxatlarning qo‘llanish imkoniyatlari kengdir. Birinchidan, ular matnlarni semantik tahlil qilishda qo‘l keladi. Masalan, so‘z ma’nosini aniqlash muammosida, har bir ko‘p ma’noli so‘z

WordNet sensetlariga bog‘lanib, to‘g‘ri ma’no tanlanadi. Ikkinchidan, matnlarni avtomatik tarjima qilishda ontologiya yordamida ma’noviy ekvivalentlik ta’minlanadi. Masalan, *“bank”* so‘zining *moliyaviy muassasa* yoki *daryo bo‘yidagi qirg‘oq* ma’nolarini ontologiya orqali farqlab, tarjimada to‘g‘ri so‘zni tanlash mumkin. Uchinchidan, axborot izlash va savol-javob tizimlarida foydalanuvchi savolidagi so‘zlarga sinonimik variantlarni ham qidirish ontologiya orqali amalga oshadi.

Albatta, hozircha yaratilgan resurslar boshlang‘ich bosqichda. Ularni yanada boyitish, sinonimlar qatorini kengaytirish, soha terminologiyasi bilan to‘ldirish kerak bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, ontologik lug‘at va konsept ro‘yxatlar zaminida o‘zbek tilini raqamli dunyoda yanada “ongliroq” qilish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Xulosa

Tadqiqotda o‘zbek tilining ot so‘z turkumi doirasida lingvistik ontologiya va konsept ro‘yxatlarning nazariyasi, yaratilish metodlari hamda amaliy qo‘llanilishi ko‘rib chiqildi. Kirish qismida konsept ro‘yxatlar Swadesh ro‘yxati, WordNet va EuroWordNet kabi ontologik tizimlarning tarixiy rivojlanishi va NLP dagi roli yoritildi. Metodologiya bo‘limida o‘zbek tilida konsept ro‘yxat tuzish hamda WordNet singari ontologiyani yaratish bosqichlari batafsil tasvirlandi. Natijalar qismida o‘zbek tilidagi ontologik tarmoq va konsept ro‘yxatlari shakllantirilishi natijasida “O‘zbek konseptual minimumi – 500” ro‘yxati taqdim etildi.

Muhokamada esa ontologiya, konsept ro‘yxat va tezaurus tushunchalari o‘zaro qiyoslandi, ularning integratsiyasidagi imkoniyat va cheklanishlar muhokama qilindi hamda yaratilgan resurslarning o‘zbek tiliga oid amaliy loyihalardagi ahamiyati ta’kidlandi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, lingvistik ontologiya va konsept ro‘yxatlar o‘zbek tilini chuqurroq anglash va raqamli texnologiyalarga tatbiq etish yo‘lida muhim qadamdir. Kelgusida ushbu resurslarni boyitish va ular asosida turli intellektual dasturlar yaratish o‘zbek tilshunosligining innovatsion rivojiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduraxmonova N. O‘zbek tilining ontologiyasini yaratish masalalari // *Til va adabiyot ta’limida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar Respublika konferensiya* / Toshkent, 2018. – B.172-174
2. Swadesh M. Lexicostatistic Dating of Prehistoric Ethnic Contacts // *Proceedings of the American Philosophical Society*. – 1952. – Vol. 96. – P. 452–463.
3. List J.-M., Cysouw M., Forkel R. Concepticon: A Resource for the Linking of Concept ro‘yxats // *Proceedings of the 10th International Conference on Language Resources and Evaluation (LREC’16)*. – Portorož, 2016. – P. 2393–2400.
4. Fellbaum C. (ed.) WordNet: An Electronic Lexical Database. – MIT Press, 1998. – 423 p.
5. Vossen P. (ed.) EuroWordNet: A Multilingual Database with Lexical Semantic Networks. – Dordrecht: Kluwer, 1998. – 256 p.
6. Abjalova M. WordNet – lingvistik ontologiyalar uchun tayanch baza // *O‘zbekiston Milliy universiteti axborotlari* (Ilmiy jurnal). – Toshkent, 2023. – №?. – B. ?-?.
7. Abjalova M. O‘zbek tili ontologiyasini yaratish texnologiyasi va konsepsiyasi. – Monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 284 b.
8. Ehsani R. KeNet: a comprehensive Turkish WordNet and its applications in text clustering // *Işik University*, 2018. – (Dissertatsiya).
9. Black W., Elkateb S. Introducing the Arabic WordNet Project // *Proceedings of the 3rd International WordNet Conference (GWC)*. – Jeju, 2006. – P. 295–299.

KATTAQO‘RG‘ON ADABIY MUHITIDA SALOHIY IJODINING TUTGAN O‘RNI

Abdusolyeva Shahnoza Qahramon qizi
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali 4-bosqich talabasi

Annotatsiya*. Ushbu maqolada Kattaqo‘rg‘on adabiy muhitining shakllanishi va rivojlanishida Salohiy ijodining tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Salohiyning asarlarida xalqona uslub, diniy-falsafiy qarashlar va axloqiy tarbiya g‘oyalari mujassam bo‘lib, u Kattaqo‘rg‘on adabiy muhitining yetuk namoyandalaridan biri sifatida ko‘rsatib beriladi. Maqolada shoirning ijodiy faoliyati, uning asarlarida ifodalangan asosiy mavzular va badiiy uslublar o‘rganiladi. Shuningdek, Salohiy ijodi orqali Kattaqo‘rg‘on adabiy muhitining o‘ziga xosligi va milliylik ruhidagi taraqqiyoti tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: Kattaqo‘rg‘on adabiy muhiti, Salohiy hayoti, shoirning ijodi, she’rlarining mavzusi*

O‘zbekiston adabiyoti tarixida mintaqaviy adabiy muhitlarning o‘rni beqiyosdir. Har bir hududning o‘ziga xos adabiy an’analari, maktabi va namoyandalari mavjud. Ana shunday mintaqalardan biri — Kattaqo‘rg‘on shahri adabiy muhiti bo‘lib, u tarixan ijodiy muhit, badiiy tafakkur va adabiy iste’dodlarga boy maskan sanaladi. Kattaqo‘rg‘onda qadimdan ilm-fan va adabiyotga e’tibor kuchli bo‘lgan. Bu yerda shakllangan adabiy muhit XX asr boshlaridan boshlab yanada jonlandi. Ushbu muhitda xalqning og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyotga muhabbat, diniy-ma’rifiy ruh hukmron edi.

Bu adabiy muhitda yosh ijodkorlar o‘z ijodini mustahkamlab, milliy ruhda yetishib chiqqan. Ulardan xalqimiz orasida Miriy, Vaysiy, Shavqiy, Valiy, Noqis, Nodim, Nojiy, Vola, Dabiriy, Xolis, Maxdiy, Ahqar kabilar ma’lum va devon tuzganlari hisoblansa, Muftiy, Homid, Toib, Muftiy va Tarjumon kabilarning esa she’rlari mashxur bo‘lgan, ammo devon tuzolmagan.[1] Ayniqsa, Salohiy kabi shoirlar faoliyat olib borgan davrda Kattaqo‘rg‘on adabiy muhiti birmuncha kuchaygan. Uning ham devon yaratgani haqidagi ma’lumotlar mavjud. Shoirning hayoti va ijodi haqida ma’lumot faqatgina o‘zi tuzgan devonlaridagina bor.

Uning to‘liq ismi Salohiddin Maxdum Qozi Jaloliddin Maxdum o‘g‘li. Uning bobosi ham so‘fiy va murshid, she’ri tab’i baland, iqtidorli shoir bo‘lgan, bobosi haqidayam ma’lumotni devonida ta’kidlab o‘tgan, Abdulloh taxallusi bilan uch g‘azalini ham kiritgan.[2] 1875-yili tavallud topgan shoir o‘zining o‘ylagan niyatlariga yetolmay azoblanadi. Zamonasida inqilob yuz berib, barcha kitoblaridan ayrilsa ham qo‘lida bir kitobni asrab qoladi. U qozining kundalik ishlarini yozib boradigan katta kitoblari edi, kitobning katta qismini har xil qozilik ishlari, jabr chekkanlarning qoziga qilgan murojaatlari bo‘lsa ham, hoshiyalariga shoir o‘zining g‘azallari, fardlari, muxammaslari va ta’rixlarini yozib qoldirgan. O‘sha hoshiyaga bitilgan she’rlar bugun minglab satrli kitoblarga aylandi.

Shoir o‘zbek tilida ham, fors tilida ham samarali ijod etgan, she’rlarida turli mavzularni keng qamrab olingan, ayniqsa diniy-irfoniy, ishqiy va tarixiy mavzudagi she’rlari ma’lum va mashhurdir:

Boshimga soldi savdo bir parining holi hindusi,
Qaro qildi kunim ikki ko‘zining sehru jodusi.

“Boshimga soldi savdo” deb boshlanuvchi g‘azalining matla’sida shoir muhabbat domiga tushganini aytmoqda. “Boshimga soldi savdo” — ya’ni ishq meni tutqun qildi. “Pari” — go‘zal ayol; “holi hindusi” — qora xol, bu Sharq adabiyotida juda jozibali unsur sifatida talqin etiladi. Ko‘zlarining sehrli ta’siri shoir hayotini qoraytirgan, ya’ni shoir muhabbat azobini boshdan kechirmoqda. Bu baytda ishqning ilk zarbasi aks ettirilgan.

2-baytda esa:

Meni shaydosini ishqi bila oshuftahol aylab,
Parishon ayladi ko‘nglimni tori zulfi gesusi.

[1] Bekmurodov I. Kattaqo‘rg‘onning qisqacha tarixi. – Samarqand: “Zarafshon” nashriyoti, 1993. – B 122.
[2] Kattaqo‘rg‘on: kecha va bugun. – Samarqand. “Zarafshon” nashriyoti, 1994. – B 96

Muhabbat uni shaydo (telba) qilgan. “Oshuftahol” — beqaror, iztirobli holatda. Mahbubaning zulfi, ya’ni sochlari — ishqning ramzi, bu yerda ko‘ngilni chalkashtiradigan tuzoq sifatida tasvirlangan. Shoir ko‘ngli butunlay o‘sha zulf tuzog‘iga ilinib qolgan.

3-bayt:

Qiyomat qoyim aylab ayladi yuz fitnalar barpo,

Hirom aylarda ul sarvi sihining qaddi diljo‘si.

Mahbubaning go‘zalligi shunchalik kuchli ediki, u yurishda (“hirom”) qiyomatni eslatadi. “Sarvi sihi” — to‘g‘ri, salobatli qad-qomat; “diljo‘si” — yurakni o‘g‘irlaydigan. Mahbuba yurishda go‘yo minglab fitna uyg‘otadi. Bu yerda jismoniy go‘zallikning beqiyos ta’siri yoritilgan.

4-bayt:

Yuzi gul-gul yonib gulshanlar ichra ul guli ra’no,

Xijolatlarda qo‘ydi gullari gulshanni gulro‘si.

Mahbubaning yuzi guldek ochilgan, u bog‘dagi eng go‘zal gulday porlaydi. Uning go‘zalligi atrofdagi barcha gullarni xijolatga soladi. Bu tabiat va go‘zallik o‘rtasidagi taqqos, mahbubani tabiatdan ham go‘zallikda ustun ko‘rsatadi.

5-bayt:

Sumanbarlar, sanamlar, guljabinlar, sarviqomatlar,

Yetolmay xizmatiga topmag‘aylar oni pobusi.

Boshqa barcha go‘zallar — “sumanbar” (oqbadan), “sanam” (ma’shuqa), “guljabin” (gul yuzli), “sarviqomat” (qaddi teks daraxt) — biror jihatdan mahbubaga teng kelolmaydi. Hatto uning oyoq izini o‘pish baxti ularga nasib qilmaydi. Bu mahbubani ichki va tashqi go‘zallikda yuksaltirishdir.

6-bayt:

Shakar so‘zluk tiling hasratida qumri-yu, bulbul,

Biri lol o‘ldi-yu, birin yo‘qolmush erdi “ku-ku”si.

Mahbubaning shirin tili — ya’ni yoqimli, latif so‘zlari hatto qushlarni ham ta’sirga solgan. Qumri va bulbullar — adabiyotda ko‘pincha sevgi va sadoqat timsoli. Endi ular sukutda, biri so‘zsiz qolgan, boshqasi kuylashni to‘xtatgan. Mahbuba so‘zlarinng ohangdorligi hattoki qushlarni ham jim qoldirgan.

Maqta’si:

Bo‘lib ishq ichra shaydo el arosida o‘lub Majnun,

Bu kun ketmish Saloḥiyning qo‘lidin nangu nomusi.

Shoir o‘zini Majnunga qiyos qiladi — Majnun sevgi yo‘lida aqldan ozgan, el orasida bo‘lgan dargumon shaxs. Endi Salohiy ham sevgida o‘zini yo‘qotgan, hattoki o‘z nomusu-sharafidan kechgan. Bu baytda ishqdagi fidoiylik va yo‘qotishlar ifoda topgan.

Forscha ruboiysi:

Bigrift falak ba dast kamoni mohi nav,

Mekard ba tiri barqi dar olam rav.

Har cho ki zi dono asare yoft bido‘ht,

Chun navbati ablah did, guft: rav, rav.

Tarjimasi:

Falak qo‘liga yangi oy kamonini ushladi,

Olamni kesib, o‘q bilan o‘z ovini boshladi.

Har joyda dononi ko‘rsa, qalbiga o‘t tashladi,

Nodonlarni ko‘rsa, ket deb, yuragini g‘ashladi.[1]

Birinchi baytda falak (osmon, taqdir) shaxsiylashtirilgan obraz sifatida tasvirlanadi.U yangi oy (mohi nav)ni kamon qilib oladi va barq (yashin, chaqmoq) tirdan foydalanib, olamda "ov qilish"ga kirishadi. Ya’ni, taqdir kuchi o‘zining chaqqon, o‘tkir qudrati bilan odamlar orasida farq keltira boshlaydi. Bu tasvir orqali taqdirning adolatli yoki keskin qarorlari, insonlar ustidan yuritgan hukmi ramziy tarzda ifodalangan.

[1] Salohiy Kutilgan kitob. – Toshkent. “Sharq” nashriyoti. – B 353

Ikkinchi baytda falak har joyda dono (aqlli) odamni ko‘rsa, uni “yoqtirib”, unga e’tibor qiladi — ya’ni qalbiga o‘t soladi, unga mehr bilan qaraydi. Ammo navbat ablah (nodon)ga kelganda, faqat “rav, rav!” — “ket, yo‘qol” deydi. Bu yerda fikr juda kuchli: aqlli inson qadrlanadi, unga “qarshi kurash” yoki sinov orqali e’tibor qaratiladi. Ammo nodon esa e’tiborga loyiq emas, u faqat chetga chiqariladi.

Shoirning she‘rlarini mavzusi bilan tahlillar orqali tanishar ekanmiz, Kattaqo‘rg‘on adabiy muhitining shakllanishi va bu jarayonda shoir Salohiyning tutgan o‘rni ilmiy-nazariy asosda tahlil etilgan. Salohiyning g‘azal va ruboiylarida xalqona ruh, diniy-irfoniy tafakkur, axloqiy tarbiya va go‘zallik timsollari yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan. Shoirning ishqiy lirikasiga oid g‘azallari hamda forsiy ruboiylari orqali uning falsafiy dunyoqarashi va obraz yaratish qobiliyati ochib beriladi.

Salohiy ijodi orqali Kattaqo‘rg‘on adabiy muhitining o‘ziga xos jihatlari, milliy qadriyatlar va adabiy an’analarining izchil davomiyligi, she’rlarining mavzulari rang-barangligi namoyon bo‘ladi. Maqola mazmuni shoir ijodini chuqur anglash, uning tarixiy-adabiy ahamiyatini baholashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bekmurodov I. Kattaqo‘rg‘onning qisqacha tarixi. – Samarqand: “Zarafshon” nashriyoti, 1993. – B 122
2. Kattaqo‘rg‘on: kecha va bugun. – Samarqand. “Zarafshon” nashriyoti, 1994. – B 96
3. Salohiy Kutilgan kitob. – Toshkent. “Sharq” nashriyoti. – B 544

RAUF PARFI XOKKULARINING G‘OYAVIY VA BADIIY XUSUSIYATLARI

Yusupova Gulnoza
S
Ilmiy rahbar: ***Rustamov Mirjalol***

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Rauf Parfi ijodining badiiy xususiyatlari, g‘oyaviy ko‘rinishlari hamda yapon xokkularining o‘zbek she’riyatiga ta’siri, shoir xokkularining mavzu ko‘lami, unda ruhiyat muammolari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Xokku, hayku, Rauf Parfi she’rlari, g‘oyaviy-badiiy tahlil.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются художественные особенности творчества Рауфа Парфи, идейные аспекты, а также влияние японских хокку на узбекскую поэзию. Обсуждаются тематика хокку поэта и проблемы душевного состояния, отражённые в его произведениях.*

Ключевые слова: *хокку, хайку, стихи Рауфа Парфи, идейность, художественный анализ.*

Abstract. *This article discusses the artistic features of Rauf Parfi's work, its ideological aspects, and the influence of Japanese haiku on Uzbek poetry. It explores the thematic scope of the poet's haiku and the issues of inner emotional states reflected in his poetry.*

Keywords: *haiku, hokku, Rauf Parfi’s poems, ideological, artistic analysis.*

Rauf Parfi ijodi g‘oyaviy va badiiy jihatdan alohida ahamiyatlidir. Shoir she’riyati odatiy ko‘rinishga ega bo‘lmasdan, aksincha, o‘ziga xos uslubi, yangi nafasga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Rauf Parfi nazm, nasr, qolaversa, tarjima borasida ham muvaffaqiyatli ijod qilgan. Xususan, adibning bir nechta tillarni yaxshi bilgani, hamda tarjima sohasiga talabalik davridayoq qo‘l ura boshlagani ma’lum. Rauf Parfi jahon adabiyoti bilan bevosita qiziqqanligi, tarjimalari orqali adabiyotimizni yanada boyitganligining guvohi bo‘lamiz. Shuningdek, shoir yapon mumtoz she’riyati namunalari hisoblangan xokkular – uchliklarning ilk o‘zbek tarjimoni va she’riyatimizda xokku yozish an’anasini boshlab bergan inson hisoblanadi.

Xokkular – yapon poeziyasining qadimiy va o‘ziga xos janri bo‘lib, hozirgi kunda, „hayku’’ deb ham ataladi. Uch misradan iborat, qofiyasiz, sodda tuzilishga ega janrdir. Ularda tabiat tasvirlari orqali inson kayfiyati ochib beriladi va shu sababli ham u tasviriy san’atga yaqin turadi.

Rauf Parfi ijodida naturalizm koʻrinishlarining soʻz sanʼatlari orqali ifodalanishi, xokkularining gʻoyaviy-badiiy xususiyatlariga diqqat qaratadigan boʻlsak, shoir tabiat va ruhiyat oʻrtasidagi bogʻliqlikni mohirona tasvirlab berganligiga guvoh boʻlamiz. Quyida shoirning shunday misralariga toʻxtalib oʻtsak oʻrinlidir:

Ichimdan dunyolar kechdi,
Ichimda titraydi zaminlar,
Oylar kuydi, portladi Quyosh.

Birinchi misrada koʻrishimiz mumkinki, qahramon tuygʻulari, ichki kechinmalari nihoyatda murakkab, ruhiyatda roʻy berayotgan oʻzgarishlar, hislar boʻroni ijodkor qalbida kechgan dunyolarni anglatib kelmoqda.

Ikkinchi misrada esa, ichki olamda kechayotgan hissiy toʻlqinlanish, zaminni – jismni titratib yuborganligi, tashqi olamga koʻrsatayotgan taʼsiri ifodalanadi.

Uchinchi misrada esa kulminatsiya, yaʼni asosiy fikr keltirilgan. Lirik qahramon tuygʻulari nafaqat zaminni larzaga solibgina qolmay, balki u koʻk qadar yuksalib borayotganligi oydinlashadi. Ichki portlash tasviri.

Qorlarga koʻmildi bogʻlarim,
Togʻlarimga choʻkdi osmon.
Sen yoʻqsan. Sen yoʻqsan? Sen yoʻqsan!

Poetikada “bog‘” odatda, umid, hayot hamda muhabbat, iliqlik ramzi sifatida qoʻllanadi. Mana shu qalbdagi muhabbat ustiga yogʻilgan qorlar endi uni sovuq haroratlar ichra qoldiradi.

Osmon – erkinlik, uning togʻlarga choʻkishi ruhiy ogʻirlik, tushkunlikni ifodalaydi.

Har ikki misrada ifodalanayotgan fikrlar uchinchi misrada oʻz tasdigʻini topadi.

Sen yoʻqsan. – haqiqat
Sen yoʻqsan? – savol
Sen yoʻqsan! – tan olish

Inson ruhiyatidagi yoʻqotishlar, ichki iztirob tabiat hodisalari bilan uygʻunlashib ketadi.

Bir oʻrinda Rauf Parfini – inson ruhiyatining musavviri deb atasak-da boʻladi. Nozik tasvirlar, shoirona soʻz qoʻllash mahorati oʻz-oʻzidan tuygʻularingizni larzaga keltiradi.

Xokku tasviriy sanʼatga juda yaqin turadi. Shu sababli ham musavvir tuygʻular soʻz orqali jilvalanayotgan kabi koʻrinadi. Aslida, uning oʻziga xos tomoni ham shundadir. Rauf Parfi inson koʻnglidagi shaklsiz hislarni yana-da mahorat bilan misralarga koʻchirib boraveradi…

Tonggacha suhbat qurdim daraxtlar bilan,
Tushlarimni suvlarga aytdim.
Kel, yoʻqolib ketma, dedilar.

Birinchi misrada, shoir tun boʻyi yolgʻizlik ichiga gʻarq boʻlib, yuragidagi dard hamda alamlarni daraxtlar bilan baham koʻradi. Shoir ichki holati namoyon boʻladi.

Tushlar nima sababdan suvga aytiladi? Odatda suv – poklik ramzi boʻlganligi uchun odamlar hasratlarini unga toʻkib-soladi. Ammo shoir suvga armonlarini emas, orzularini ishonib aytadi, ularni oqizib yuboradi.

Kel- deya sado berayotgan bu poklik, sogʻinch, umid kabi xislatlarni shoirga tuhfa etadi. Tabiat – tinglovchi, qahramon esa, undan koʻmak istagan obraz timsolidir.

Koʻzimga bir yulduz yiqildi,
Eridi, aylandi, bir toshga,
Teshib oʻtdi kaftimni.

Yulduz odatda, orzu yoki ilhom ramzi. Bu yerda esa, yulduzning koʻzga yiqilishi kutilmagan hodisa, nomaʼlum tuygʻudir. Uning erib, toshga aylanishi esa, orzu-umidlarning soʻnishi, yurakdagi iliqlikning sovishi, ruhiy holatning ogʻirlashuviga ishora qiladi. Mana shu ogʻirliklar endi qahramon kaftlariga tushadi, uni teshib oʻtadi. Iztiroblar girdobiga tashlaydi. Odatda yulduz uchishi bir inson umrining tugashiga qiyoslanadi, bu satrlarda esa, shoir qaysidir orzusidan judo boʻlgaligi ifoda etilayotganday koʻrinadi.

Lo‘lini eshagini sug‘orib,
Pulini ol degan, ey shoir.
Muruvvat bor ekanmi lo‘lida.

Ushbu misralar xalq og‘zaki ijodi manbalariga yo‘g‘rilgan, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar mujassam etilgan.

Filologiya fanlari nomzodi Olim Oltinbek fikricha, Rauf Parfining tarjimonlik faoliyati 1956-yilda boshlangan. Biroq shoir xokkular tarjimasiga qadar ham Gyote, Pushkin, Lermontov, Heyne, Blok kabi shoirlar ijodidan 91 ta she’rni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. 1961-yilda esa yapon xokkularini tarjima qilishga qo‘l uradi.

Qisqa bo‘lishiga qaramasdan, xokkular katta ma’noni o‘zida mujassam etadi. Jahon she’riyati an’analarini o‘zbek she’riyatiga olib kirgan, uni yanada boyitgan shoir Rauf Parfini bevosita so‘z sana’tkori deb aytishimiz mumkin. Shoir ijodidagi xokkularning o‘ziga xosligi esa ilohiy ilhom ko‘rinishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rauf Parfi. “Tanlangan asarlar”.Toshkent. “Adabiyot”. 2023.
2. Rauf Parfi. “Hukmnoma”.Toshkent. “Akademnashr”. 2023.
3. Rauf Parfi. “Iymon asiri”. Toshkent. “Akademnashr”. 2023.
4.Tohir Malik. “Yozuvchining baxti va baxtsizligi”. Toshkent. “Sharq-ziyo-zakovat” nashriyoti. 2017.
5.Ilhom G‘aniyev. “Rauf Parfi O‘zturk dunyosi”. Toshkent. “Muharrir” nashriyoti. 2021.
6.Olim Oltinbek. “Xokkuning ilk tarjimoni” maqolasi.

BADIIY ASARLARDA SINONIMIYA HODISASI

Bekmurodova R. E.
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi
Ilmiy rahbar: ***Abdumannatova N.A.***

Annotatsiya*: Mazkur maqolada badiiy asarlarda qo‘llanilgan sinonimiya hodisalari haqida so‘z yuritiladi. Sinonimning leksik, frazeologik, leksik-frazeologik turlari to‘g‘risida fikr bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *sinonimlar, kontekstual sinonimiya, leksik sinonimiya, frazeologik sinonimiya, leksik -semantik tahlil*

Аннотация: *В статье рассматриваются явления синонимии, используемые в художественных произведениях. Высказываются мнения о лексических, фразеологических и лексико-фразеологических типах синонимов.*

Ключевые слова: *синонимы, контекстуальная синонимия, лексическая синонимия, фразеологическая синонимия, лексико-семантический анализ*

Abstract: *This article discusses the phenomena of synonymy used in literary works. It discusses the lexical, phraseological, and lexico-phraseological types of synonymy.*

Keywords: *synonyms, contextual synonymy, lexical synonymy, phraseological synonymy, lexical-semantic analysis*

Ma’nodosh so‘zlar tilning lug‘aviy jihatdan boylik darajasini ko‘rsatib beruvchi o‘ziga xos vositadir. Tilda ma’nodosh so‘zlarning ko‘p bo‘lishi tilning estetik vazifasini yanada to‘liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu juda Qadim zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o‘rganilgan. O‘zbek tili ma’nodosh so‘zlarga juda boy. Yozuvchilar tilimizdagi ma’nodosh so‘zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so‘zni topib o‘z asarlarida qo‘llashga harakat qiladilar. Shu tariqa qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko‘rsatib berishga intiladilar. Yozuvchilar o‘z asarlarida sinonimlardan to‘g‘ri va o‘rnida foydalana olishiga qarab o‘zining mahorati qay darajada ekanini ko‘rsatadi. Ba’zan

sinonimlarning o‘rnini atayin almashtirish orqali asar qahramonining xarakteri va bilimini ochib beradi.

Tilshunoslikda ma’nodoshlikning, asosan, uch turi farqlanadi, ya’ni:

1) leksik ma’nodoshlik; 2) frazeologik ma’ nodoshlik; 3) leksik-frazeologik ma’nodoshlik.

Quyida ushbu uch guruhga mansub bo‘lgan sinonimik qatorlarni ko‘rib chiqamiz.

1. Leksik ma’nodoshlik ma’lum bir maqsadlarda qo‘llaniladi. Jumladan,

so‘zlarning takrori natijasida yuzaga keladigan kambag‘allik va rangsizlikdan qochish uchun: [3;26]

Ergashvoy javob o‘rniga, soatiga qaradi: birdan oshibdi.

-Pochcham *olamdan o‘tibdilar*, o‘sha yoqda edim. Ergashvoyning yoshligida ota-onasi *olamdan ko‘z yumib ketadi*. [4:35]

Yuqorida keltirilgan *“olamdan o‘tmoq”, “ko‘z yummoq*” fe’llari *“vafot etmoq*”(o‘lmoq, omonatini topshirmoq, ketmoq, yo‘qolib qolmoq) fe’lining asosan badiiy uslubda qo‘llaniladigan sinonimi hisoblanadi.

Ma’lum bir darajani bildirish uchun:

“Xo‘p,-dedi Ergashvoy, – endi ozroq *mizg‘ib olay*, juda charchadim” (S.Ahmad “Azob” hikoyasidan).

“Mizg‘ib olmoq” uxlamoq fe’lining ma’nodoshi bo‘lib, ko‘p emas oz muddat ko‘z ildirmoq mazmunida ishlatiladi. Ushbu hodisa darajalanish ya’ni **graduonimiya** (leksemalarning ma’no guruhlari a’zolarida u yoki bu belgining darajalanishi)ni eslatadi.

2. Frazeologik ma’nodoshlik. Voqeani yanada aniq va rangli qilish, shuningdek, qahramonning holatini yorqin ochib berish, hamda kitobxonga yetkazishda frazeologik iboralar sinonimiyasi qo‘l keladi. *Iyagiga xoda yetmaydi- burni ko‘tarilgan, mum tishlamoq- og‘ziga talqon solmoq, og‘zi qulog‘iga yetmoq- do‘ppisini osmonga otmoq* kabilar frazeologik ma’nodoshlikka misol bo‘la oladi.

“*Aytyabman-ku, burnini suqmagan joyi yo‘q edi bu bolaning*”. [5: 15]

“Burnini suqmoq” bu ibora boshqalarning ishiga aralashmoq, qo‘shilmoq ma’nosida keladi. **Ma’nodosh iboralar**: a)bosh suqmoq, b)burnini tiqmoq, d)tumshug‘ini tiqmoq, e)chovlisini solmoq.

“Kechqurun *og‘zim qulog‘imga yetkudek* bo‘lib bir do‘ppi yang‘oq ko‘tarib keldim”. (O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari”). *“Og‘zi qulog‘iga yetmoq”*- xursand bo‘lmoq, mamnun bo‘lmoq ma’nosini anglatadi. Bu iboraning sinonimlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilar: **a)** boshi ko‘kka yetmoq, **b)** do‘ppisini osmonga otmoq.

3.Leksik-frazeologik ma’nodoshlik. Lug‘aviy birlik sifatida frazeologizmlar so‘zlar bilan ham sinonimik munosabat o‘rnata oladi. Masalan: Dunyoni suv bossa to‘pig‘iga chiqmaydi – beg‘am, yerga ursa ko‘kka sapchiydi – sho‘x, ammamning buzog‘i– yuvosh. Badiiy matnda ma’nodoshlikning bunday turidan holatni bo‘rttirib, atroflicha tasvirlashda foydalaniladi.

“Qurvonbibi so‘zga qancha epchil bo‘lsa, Razzoq So‘fi shu qadar kamgap, indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam edi”. (A. Cho‘lpon. “Kecha va Kunduz”). Ushbu misolda *“damini ichiga solgan”* iborasi kamgap va indamas leksemalari bilan sinonim qatorda kelib ma’noni yanada kuchaytirish, qahramonni tanitishga xizmat qiladi.

Sinonimiya hodisasi yuqoridagi uch turdan tashqari kontekstual ma’nodoshlikni ham o‘z ichiga oladi.

Kontekstual sinonimiya – til birligi sifatida o‘zaro sinonim bo‘lmagan leksemalarning ma’lum kontekst doirasida (demak, nutq ichida) sinonimik munosabatga kiritilishi. Masalan, chinni va kosa so‘zlarining leksik ma’nolari bir xil emas: chinni “idish-tovoq, izolatsion materiallar yasash uchun ishlatiladigan oq loyni”ni, kosa “piyoladan kattaroq idish”ni ataydi. Demak, bu yerda bir leksema materialni, ikkinchi leksema esa shu materialdan yasalgan “idish”ni bildirar ekan.

Kontekstual sinonimlardan foydalanish yozuvchilarning qanchalik mahoratli ekanligini ko‘rsatib beradi. Negaki, ijodkor tayyor ma’nodosh so‘zlardan foydalanmasdan nutq jarayonida uni o‘zi yaratadi.

“Kechagina *qarg‘ab, so‘kib, “o‘ldirsam*!” deb yurgan kundoshini *o‘pib, quchoqlab***,** *silab-siypab* bir nafasda ikkalasi “qalin do‘st” bo‘lgan emishlar”. (A.Cho‘lpon).

“Ayol qalbidek *yumshoq, har narsani oson kechiradigan* qalb bo‘lmaydi. *Yig‘lab, yalinib* aytilgan so‘z har qanday xotin qalbini eritmay qo‘ymaydi. (S.Ahmad “Ufq”).

Misol tariqasida olingan birinchi gapda *“qarg‘ab, so‘kib, “o‘ldirsam*!”deb, *o‘pib, quchoqlab, silab-siypab”* so‘zlari faqatgina jumla ichida ma’nodosh bo‘lib kelmoqda.

Ikkinchi namunada esa **“***yumshoq” va “kechirimli”, “yig‘lamoq”* va *“yalinmoq”* leksemalari sinonimlikni hosil qilgan.

Sintaktik sinonimiya ma’nodoshlikning yana bir yirik turlaridan biri bo‘lib, gapning mazmuni saqlangan, ammo sintaktik o‘zgarish kuzatilgani sababli gapning shakli o‘zgargan sinonimlardir. Sintaktik sinonimlikni ba’zi olimlar sintaktik variatsiyalar deb ham atashadi. [1:36]

“Kamina sizning iltimosingizni yerda qoldirishdan ko‘ra har qanday mashaqqatni o‘z zimmasiga olishni a’lo ko‘radi” (Oybek. “Tanlangan asarlar”). Ushbu gapni tahlil qiladigan bo‘lsak, “men” olmoshining o‘rniga “kamina” so‘zi qo‘llanilib, eganing o‘zgarishi natijasida kesim ham uchinchi shaxs birlikka o‘tib qolyapti. Ammo gapning mazmunida hech qanday o‘zgarish sodir bo‘lgani yo‘q. Yoki “qiyinchilik” o‘rniga “mashaqqat”, “afzal ko‘radi”ning o‘rniga “a’lo ko‘radi” birikmalarining qo‘llanilishi ham bunga yaqqol misoldir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ma’nodosh so‘zlarning tadqiqi bugungi kunda ma’lum bir tilning “ boy” deya ta’riflanishi sinonimlardan qanchalik miqdorda foydalanishi, asarlarda qay holatda ishlatilishiga bog‘liq ekanligidan dalolat bermoqda. Zamon va texnologiyalarning rivojlanishi esa sinonimik lug‘atlardagi leksemalar miqdorining yana va yana ortishiga sababchi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev M. “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari” // O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fan-2006
2. S.Dinora “O‘.Hoshimovning frazeologizmlardan foydalanish mahorati” (maqola) // Filologiya ufqlari jurnali // 2021.
3. H.Jamolxonov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” // Toshkent//Talqin. 2005-yil. 272 b.
4. Said Ahmad “Anor” qissa va hikoyalar to‘plami // Toshkent// G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. 2012-yil. 200 b.
5. O‘tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar/roman/ “Abadiy barhayot asarlar” turkumi. - T.: “Ilm-ziyo zakovat”, 2019.- 240 b.
6. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari/ qissa va hikoyalar / - T.: Yangi asr avlodi, 2018.- 336 b.
7. M.Uzoqova “Sintaktik sinonimiya va uni aniqlash xususida” (maqola) // T.:International scientific and practical conference, 2024.
8. https://uz.wiktionary.org

“QUTADG‘U BILIG’’ DOSTONIDA TO‘RTLIKLAR

Dilshodova Fotima

SamDUKF 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning “ Qutadg’u bilig” asari, ushbu asarning yozilish sababi, tuzilishi va asardagi to‘rtliklar haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: “*Qutadg’u bilig” asari, Qoraxoniylar sulolasi, asardagi ramziy obrazlar, asarning vazni va tuzilishi, asardagi to‘rtliklar.*

Abstract. *This article provides information about Yusuf Khos Hajib's work "Kutadgu bilig", the reason for writing this work, its structure, and the quatrains in the work.*

Аннотация. *В статье представлена информация о произведении Юсуфа Хос Хаджиба «Кутадгу билиг», причине написания этого произведения, его структуре и четверостишиях в произведении.*

“Qutadg’u bilig” (“ Baxt saodatga eltuvchi bilim”) asari bizgacha yetib kelgan turkiy namunalarning eng ko‘hnasi hisoblanadi. Bu asar XI asrda yozilgan bo‘lib, ushbu asarning maydonga kelishiga bir qancha omillar sabab bo‘lgan.

Asar yaratilgan davr va uning yozilish sababi haqida manbalarda quyidagicha keltirilgan: XI asr Qoraxoniylar saltanatining eng yuksak pog’onaga ko‘tarilgan bir davri edi. Bu davlat Yuqori Chindan tortib, Kasbiygacha bo‘lgan keng maydonni o‘z tasarrufiga olgan edi. Keng va buyuk davlatning poytaxti Ko‘shg’ar etib belgilangan bu bepoyon davlatni idora qilish, albatta, oson emasdi. Markazlashgan, yagona bir qo‘l ostiga birlashtirilgan feodal davlatni barpo etish, mustahkamlash, idora qilish, turli mansabdor shaxslar, xon va beklar orasidagi nizolarga barham berish o‘sha davr hukmdorligining orzusi edi. Ana shunday davlatni idora qilish uslubi, siyosati, qonun- qoidalari, rasm-odatlarini, axloq prinsiplarini o‘zida mujassamlashtirgan nizomnoma, qomus sifatida “ Qutadg’u bilig” maydonga keldi. Asardagi to‘rt qahramon ideal shaxs ramzi sifatida maydonga chiqadi: Kuntug’di (chiqqan kun)- adolat, Oyto‘ldi (to‘lgan oy) – baxt va davlat, Ugdulmish (aqlga to‘lgan)- aql, O‘zg’urmish(uyg’ongan) –qanoat timsoli. Bu to‘rt obraz o‘rtasida bo‘lib otadigan suhbatlar, savol-javob, munozaralar orqali oddiy xalqdan tortib, Qoraxoniylar saltanatining eng oliy hokimi – eliggacha bo‘lgan oraliqdagi barcha tabaqa va toifalarning axloq- odobi, xatti- harakat, xususiyatlari qanday bo‘lishi kerakligi haqida so‘z yurutiladi.

Hajman katta, badiiy puxta bo‘lgan “Qutadg’u bilig” olti ming besh yuz bayt yoki o‘n uch ming misraga yaqin she’rdan iborat. Asarda dastavval unvon(bosh qismi), so‘ng qisqa nasriy muqaddima keladi. Bunda tangriga hamd, yalavach (payg’ambar) ga va as’hobi nabi (chahoryorlar) ga na’t aytiladi, so‘ng kitobning qimmati, nomi, xonga tortiq qilinishi, muallifning taqdirlanishi, to‘rt ramziy qahramonlarga turkcha nom berilishi, kitobda shu to‘rt qahramon o‘rtasida munozara va savol-javoblar bo‘lib o‘tishi borasida bayon beriladi. Nasriy muqaddimadan so‘ng yetmish yeti baytdan iborat nazmiy muqaddima bor. Undan keyin yetmish uch bob (fasl) nomining fihrasi (mundarijasi) beriladi. So‘ng yana unvon bilan mavzuga o‘tiladi. Yetmish uch faslning dastlabki o‘n biri debocha bo‘lib, hamd, na’t, Qoraxonga madhdan, yeti kavokib va o‘n ikki burj , til foydasi, muallif uzr, ezgulik, bilim hamda zakovat manfaati, kitobga nom berilishi va qarilikka o‘kinish bayoni dan iborat. O‘n ikkinchi fasldan boshlab bevosita voqealarbayoniga o‘tiladi.

“Qutadg’u bilig” aruzning musammani solim (sakkizlik solim mutaqorib) va undan far’iy hosila bo‘lgan mutaqoribi musammani mahzuf (tushirilgan sakkizlik mutaqorib) ham mutaqoribi musammani maqsur (qisqartirilgan sakkizlik mutaqorib) bahrida yozilgan. “Qutadg’u bilig” qanday asar? Avvalo, u adabiy asar, badiiy adabiyotning tipik namunasi. Lekin u epopeya ham emas, tom ma’nodagi lirik asar ham, drama ham emas. U axloq va odob, ta’lim va tarbiya hamda ma’naviy kamolotning yo‘l-yo‘riqlari, usullari, chora-tadbirlarini mujassamlashtirgan qomusdir. Biz quyida “Qutadg’u bilig” da keltirilgan to‘rtliklarni tahlil qilamiz.

1. Bo‘r ichma, zinaqa yag’uma, hazar,
Bu ekki chig’ayliq to‘nini kidar.
Bu bo‘rdin qo‘par ming yazuqqa yurak,
Zinadin qachar qut, yuzingka sudar.

Ushbu to‘rtlik orqali adib sharob va undan keladigan zararlar-u ofatlar haqida aytadi, ya’ni:

1.1 May ichma, zinodan qilib tur hazar,
Bu ishlar gadolik to‘nini kiygazar,
Botirgay seni may gunohga tamom.
Zinodan qochar qut, yuzingga suzar.

Ushbu baytdan anglashimiz mumkinki, shoir oxirat, gunoh va savob haqida ko‘p o‘ylaydi. U doim hushyorlikka, to‘g’ri yo‘lga chorlaydi:

2. Ajal kermas erkan o‘limka etin,
Tiriklik o‘dinda tapug’ qil, tapin.
O‘lum kelsa, tutsa, o‘kunch asg’i yo‘q.,
Necha ma ulisa qara yer qatin.
2.2 O‘limga hozir bo‘l, kelar deb ajal.
Sha'riy xizmating et tiriklikda hal,
Yoqa tutgach o‘lim, o‘kinch foydasiz,
Yer ostida yig’lash bo‘lur beamal.

Shubhasiz, bu dunyo- sinovli dunyo. Bu dunyoda qilingan amallar evaziga banda yo mukofot yoki jazo olishi muqarrar. Buni betakror ijodkor o‘z baytlari orqali yanada teran va chuqur his etishga undaydi.

3. Kishi yilqi birla adirti bilig,
Bilig birla yangluq Ko‘turdi alig
Yuri, yilqi bo‘lma, bilig bil, uqush,
Bilig birla so‘zla, yo‘riq tut tilig.

Ulug muhaddis Imom al-Buxoriy shunday degan ekanlar: “ Ilm- xijotdan (ibodatdan) afzal”. Adibning o‘ylari va fikrlari ham muhaddisimizning so‘zlariga hamohang:

3.3 Odamni vuhushdan bilim farqladi,
Bilim birla inson qadin tikladi,
Bo‘lib qolma yilqi, bilim ol, hunar,
Bilib so‘zla, tilni bilim saqladi
deb nasihat va tanbeh beradi.

Yusuf Xos Hojib insonlar xarateridagi oddiy detallarga ham to‘xtaladi:

4. Kishilik qilursa, kishilik anut,
Kishilik tengincha to‘ra qil yanut.
Vafaqa vafa ul kishilik haqi
Vafa qil, ko‘ni bo‘l, atingni bedut
4.4 Senga kim qilarkan odamgarchilik,
Javob ber unga sen qilib yaxshilik,
Vafoga vafodir kishilik haqi,
Vafo qil, odil bo‘l, nom ol mangulik.

Darhaqiqat, inson bu dunyoda ezgu amallari va qilgan yaxshiliklari bilan kishilar ko‘nglidan joy oladi. Bu dunyoda yaxshilik qilgan insonga yaxshilik bilan, vafodor insonga esa vafolilik bilan javob qaytarmoqlik nechog’lik ahamiyatli ekanligini shoir o‘z misralarida uqtirishga harakat qiladi. Zero, ushbu o‘gitlar bugungi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusuf Xos Hojib.” Qutadg’u bilig”.Toshkent.”Yangi nashr”.2019.
2. Qayum Karimov. “Qutadg’u bilig” haqida.1967.
3. R.J.Vohidov, H.P.Eshonqulov. “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi”.Toshkent. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti.

KATTAQO‘RG‘ON ADABIY MUHITI VA NOJIY IJODINING O‘RNI

Xurshida Mardiyeva Tolibjon qizi
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg’on filiali talabasi
E-mail:xurshidamardiyeva.2@gmail.com

Annotatsiya: *mazkur maqola Kattaqo‘rg‘on adabiy muhitining shakllanishi, rivojlanishi va bu muhitda yetishib chiqqan yirik shoirlardan biri — Qori Muhammad Rasul Zubaydullaxo‘ja o‘g‘li Nojiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan. Adabiyotning xalq hayotidagi o‘rni, ayniqsa, o‘zbek*

adabiyoti rivojida hududiy adabiy muhitlarning tutgan o‘rnini yoritilgan. Kattaqo‘rg‘onning madaniy va tarixiy ahamiyati, uning Buxoro va Samarqand kabi markazlar bilan aloqasi, ziyolilar faoliyati haqida to‘xtalib o‘tiladi. Nojiy shoirining bolalik yillari, ta’lim olgan muassasalari, surgun yillari, ijodiy faoliyati, qalb kechinmalari va adabiyotga bo‘lgan cheksiz muhabbati aniq dalillar bilan tasvirlanadi. Nojiyning zamon haqiqatlarini aks ettirgan she’rlari va ularning mazmuni tahlil qilinadi. Maqola tarixiylik, biografik yondashuv va adabiy tahlil uyg‘unligida yozilgan.

Аннотация: *данная статья посвящена формированию и развитию литературной среды Каттакургана, а также жизни и творчеству одного из великих поэтов, выросших в этой среде, - Кори Мухаммада Расула Зубайдуллаходжи оглу Ноджи. Подчеркивается роль литературы в жизни людей, особенно роль региональной литературной среды в развитии узбекской литературы. Будут обсуждаться культурное и историческое значение Большого кургана, его связь с такими центрами, как Бухара и Самарканд, а также деятельность интеллигенции. С яркой наглядностью описываются детство поэта, учебные заведения, годы ссылки, творческая деятельность, душевные переживания, безграничная любовь к литературе. Анализируются стихотворения Наджи, отражающие реалии времени, их содержание. Статья написана в сочетании историзма, биографического подхода и литературного анализа.*

Annotation: *this article is devoted to the formation and development of the literary environment of Kattakurgan and the life and work of one of the great poets who grew up in this environment - Qori Muhammad Rasul Zubaydullakhodja`s son Nojiy. The role of literature in the life of the people, especially the role of regional literary environments in the development of Uzbek literature, is highlighted. The cultural and historical significance of Kattakurgan, its connection with such centers as Bukhara and Samarkand, and the activities of intellectuals are discussed. The childhood years of the poet Nojiy, his educational institutions, years of exile, creative activity, emotional experiences and boundless love for literature are described with clear evidence. Nojiy's poems reflecting the realities of the time and their content are analyzed. The article is written in a combination of historicism, biographical approach and literary analysis.*

Kalit so‘zlar*: Kattaqo‘rg‘on adabiy muhiti, Qori Muhammad Rasul Zubaydullaxo‘ja o‘g‘li Nojiy, o‘zbek adabiyoti, zullisonayn shoir, ijodiy meros, she’riyat, qatag‘on davri, Buxoro va Samarqand adabiy aloqalari, shoir tarjimai holi, Nojiy she’riyati.*

Ключевые слова: *литературная среда Каттакургана, Кори Мухаммад Расул Зубайдуллаходжа оглы Ноджий, узбекская литература, поэт Зуллисонайн, творческое наследие, поэзия, период репрессий, литературные связи Бухары и Самарканда, биография поэта, поэзия Ноджи.*

Key words: *literary environment of Kattakurgan, Qori Muhammad Rasul Zubaydullakhodja`s son Nojiy, Uzbek literature, Zullisonayn poet, creative heritage, poetry, period of repression, literary ties between Bukhara and Samarkand, biography of the poet, Nojiy's poetry.*

«Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi», - deya Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ko‘p bora ta’kitlaydi. Adabiyot xalqning o‘ziga xos ifodasi, xalqning bir bo‘lagi, xalqning ajralmas bir qismi va xalqning qalb ko‘zgusidir. Badiiy adabiyotning ravnaq topgani — jamiyatning, xalqning, millatning ravnaq topgani, madaniylashganlik belgisi. Badiiy adabiyot nafaqat individual insonlarni, balki butun jamiyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun qadim-qadimdan yurtimizda adabiyotga, san’atga e’tibor yuksak darajada bo‘lgan. Hududlarda adabiy muhit shakllana borgan va bu jihat o‘zbek adabiyoti rivojiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymadi. Xususan, Xiva, Buxoro, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Toshkent, Qo‘qon, Andijon, Shahrixon kabi hududlarda adabiy muhit mavjud bo‘lib, ularning yetuk vakillari yaratgan asarlar o‘zbek adabiyotining nodir namunalari hisoblanadi. Shulardan biri boy va qadim tarixga ega Kattaqo‘rg‘on adabit muhiti bo‘lib, bu shahar

Samarqand viloyatida joylashgan va o‘zining uzoq tarixiy o‘ziga xosligi bilan mashhur. Kattaqo‘rg‘on adabiy muhiti tarixiga yuzlanadigan bo‘lsak, uzoq tarixga ega bo‘lib, ushbu shaharda ko‘plab shoirlar va yozuvchilarning tug‘ilishi, ularning ijodlari esa Kattaqo‘rg‘on adabiy muhitini shakllantirgan. Kattaqo‘rg‘on shahri o‘zining geografik joylashuvi va tarixiy ahamiyati tufayli Buxoro va Samarqand kabi ilmiy-madaniy markazlar orasida ko‘prik vazifasini bajarib kelgan. Bu shaharda savdo-tijorat va hunarmandchilik an’analarining yuksak darajada rivojlanishi kuzatilgan bo‘lib, shu sababli u mintaqaviy iqtisodiy va madaniy hayotning muhim qismi sifatida tan olingan. Kattaqo‘rg‘onda madaniyat va san’at, xususan she’riyat, nasr va dramaturgiya kabi adabiy yo‘nalishlar alohida taraqqiy topgan. Shahar va uning atrofidagi qishloq va kasabalarda, «Buxoroyi sharif» kabi nufuzli dargohlarda tahsil olib, o‘z yurtlariga qaytgan ko‘plab ziyolilar yashagan. Bu ziyolilar, jumladan mufti, qozi, mirzo, mudarris, imom, maktabdor kabi turli ilmiy va ijtimoiy lavozimlarda xizmat qilganlar hamda hunarmandchilik, dehqonchilik va tijorat bilan shug‘ullanib, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo‘shganlar.

XIX asr davomida turkiy va fors tillarida ijod qiluvchi shoirlar Kattaqo‘rg‘on hududida o‘ziga xos adabiy an’analar va maktabni shakllantirishga muvaffaq bo‘lganlar. Bu maktab va an’analar natijasida hudud ma’naviy, madaniy boyliklarining saqlanib qolishi hamda rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Ular, tabiatning go‘zalliklaridan ilhomlanib, yuksak madaniy va ilmiy merosni yaratishda davom etishgan. Bu jarayonlar Kattaqo‘rg‘onning nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki ilmiy va madaniy jihatdan ham markaziy o‘rin tutishini ta’minlagan. Bunday tarixiy va madaniy omillar shaharning o‘ziga xos adabiy va madaniy muhitini yaratishda muhim rol o‘ynagan. Bu adabiy muhit ko‘plab ijodkorlarni yetishtirib berdi, xususan, ulardan biri Islom dinining bilimdoni, zullisonayn shoir Qori Muhammad Rasul Zubaydullaxo‘ja o‘g‘li Nojiy bo‘lib, u 1312-hijriy, 1895-yili Kattaqo‘rg‘on shahrining Mahalla guzarida o‘z davrining taniqli fozil kishilaridan biri bo‘lgan Zubaydullaxo‘ja oilasida dunyoga keldi. Qori Muhammad Rasulning tarbiyasida, shaxs sifatdagi kamolotida hamda shoir bo‘lib yetishishida nafaqat Kattaqo‘rg‘on adabiy muhiti, balki onasi va otasi Zubaydullaxo‘janing o‘rinlari beqiyosdir. Otasi Kattaqo‘rg‘onning eng bilimdoni, o‘sha davrning nufuzli, e’tiborli kishilaridan biri bo‘lgan, qator yillar shahar qozisi vazifasida ishlagan, dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Buxorodagi nufuzli madrasalarni tamomlagan Zubaydullaxo‘ja 5 yil Kattaqo‘rg‘on shahridagi Naqibbek madrasasida mutavalli, so‘ngra imom-xatib lavozimlarida ilmga tashna yoshlarga Qur’oni Karim va boshqa diniy hamda dunyoviy ilmlardan, hadislardan ta’lim bergan. Zubaydullaxo‘ja madrasada o‘qigan yillari Al-Marg‘inoniy, Moturdiy asarlarini sabot bilan mutolaa qilib, huquqshunoslik sohasining puxta bilimdoni sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Shu bois ham Zubaydullaxo‘ja uch marta Kattaqo‘rg‘onda qozilikka saylangan. Qori Muhammad Rasul 6 yoshidan maktabga chiqadi, xat-savod chiqarib arab alifbosida o‘qib va yozadigan bo‘lganidan keyin o‘g‘lining qobiliyatli ekanligini yaxshi anglagan Zubaydullaxo‘ja 11 yoshida qo‘shni So‘figuzar mahallasidagi qorilik maktabiga topshirdilar. U yerda Qori O‘roqdan, keyinchalik Qori Zokir domladan ta’lim oladi. O‘n to‘rt yoshida Qur’oni Karimni yod olib, bu maktabni muvaffaqiyatli tamomlab murattab qori bo‘lib yetishadi. So‘ngra 3-4 yil Mirza Abdulqodir Noqis va ustozlari huzurida ilm olishni davom ettirib yurdi, shahardagi Naqibbek madrasasida o‘qidi. 22 - 23 yoshga yetganida bir davlatmand kishining qiziga uylanib bir qancha aziyatlarga duchor bo‘ldi. O‘n besh yarim yil nohaq va noto‘g‘ri ayblanib Shimoliy Kavkazga surgun qilinadi. Bu davr Muhammad Rasulga ko‘plab yo‘qotishlar davriga aylandi. “Bolu parim to‘kildi. Qo‘lumda va ta’bimda hech narsa qolmadi”, - deya shoirning o‘zlari tarjimai hollarida yozib qoldirganlar va Xoib taxallusi bilan bitilgan ijod namunalari, tartib berilgan to‘plamlari yoqib kulga aylantirilganiga, ilmdan, ijoddan uzoqlashuv davri bo‘lganligiga, qora va musiybatli kunning boshiga tushganligiga ishora qiladi. Shoir 1946-yilda o‘z vataniga qaytadi. Qori Muhammad Rasul surgundan qaytganlaridan so‘ng ham tinch hayot kechira olmaydi. Taqiblar, tintuvlar, muntazam kuzatuvlar shoirni ancha dilini hira qilib va Kichikko‘rpa qishlog‘iga ko‘chib ketishga majbur bo‘ladi. Shunday bo‘lsada shoirning she’riyatga, adabiyotga qiziqishi so‘nmagan edi va ushbu qatag‘on davrida Nojiy, ya’ni najot

istovchi taxallusi bilan ijod qilib yuradi. Nojiy she'riyatga bo'lgan ixlosi haqida 1971-yili 76 yoshida o'z qo'li bilan bitgan qisqagina tarjimai holida quyidagilarni yozadi: «Yoshligimdan adabiyotga ishqim zo'r edi. Ulug' shoirlarning yaxshi she'rlarini ko'rganimda qiziqib o'qir edim. Alarg'a havaskorlik qilib, goho o'zbek tilida oz-oz bayt yozib, ba'zan Salohiddin mahdumga, ba'zan Mahdiy va Homidga isloh qildirar edim. Bir-ikki bor uyalsam ham, Noqis domlaga ko'rsatgan edim. Ul zot meni targ'ib qilib, garchi o'xshovsiz bo'lsa ham, «Binoyi yozibsan», — deb meni xursand qilur edilar. Yoshligimda havasim ko'p edi. O'tgan ustoz shoirlarning yozganlaridan jamlab bayoz qilgandim. Va o'zimning ham o'rgangan va ustozlar isloh qilib bergan ash'orlarimni katta bir daftar qilib yozib yurar edim. Afsuski, ular talaf (yo'q) bo'lib ketdi...» Ko'rishimiz mumkinki, Nojiy she'riyatga ko'p ixlosmand, havasmand shoir bo'lgan. Borini boricha yozadigan, mavjud tuzumga to'g'ri baho beradigan, ortiqcha maqtov, bo'rttirisharsiz ijod qiladigan shoirlardan edi. Buning yorqin isbotini quyidagi she'rda ko'rishimiz mumkin:

Afsuski, zamonaning sabru saboti yo'q,
Zolim falakni kimsag'a hech iltifoti yo'q,
Hech kimni bu jahonda baqolig' hayoti yo'q,
Jonlarni bu ajalning qo'lidan najoti yo'q,
Az baski, zolim ahlini hargiz uyoti yo'q.

Yuqoridagi she'rida zamona zulmidan charchagan shoirning qalb kechinmalari, faryodlari aks etgan.

Nojiy qalamiga mansub bo'lgan bu kabi satrlar uning bizga meros qilib qoldirgan boy adabiy xazinasi sahifalarida nihoyatda ko'p uchraydi. Shoir ijodining har bir misrasi mazmunan teran, ruhiyati boy, badiiy jihatdan yuksak darajada bo'lib, unda bo'sh yoki mazmunsiz, e'tiborsiz satrlar mutlaqo mavjud emas. Afsuski, bu hurmatli va ardoqli siymo o'zining sermazmun, chuqur ma'no va go'zal fikrga boy asarlarining nashr etilganiga, ommaga yetib borganiga guvoh bo'la olmadi.

Yuksak tafakkur sohibi, iste'dodli shoir, adabiyot olamida o'chmas iz qoldirgan Qori Muhammadrasul Zubaydullaxo'ja o'g'li Nojiy 1989-yil 23-noyabr sanasida, 95 yoshida olamdan ko'z yumdi. Bu ulug' inson kamtar, pok niyatli, yuzlari nurli, tabassumli, xalq dardiga befarq bo'lmagan, samimiy va mehr-oqibatli bir nuroniy siymo edi. U kishining siymosi, ziyoli va obro'li qiyofasi, xushmuomalaligi bizning qalbimizda hamisha barhayot bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat-Mirziyoyev: "Adabiyot,san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq butun insoniyat bezavol yashaydi" //hhtps://xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev adabiyot-san'at.
2. "Nazm bo'stoni" (Zulmatda chaqnagan ziyo) Matn: she'rlar/Qori Muhammadrasul Zubaydullaxo'ja o'g'li Nojiy.-Toshkent:Akademnashr,2017.-352b.

ABDULHAMID MAJIDIYNING IJODIY FAOLIYATI

Pirnazarova Sevara Obidjon qizi
SamDU Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Annotatsiya*. Mazkur maqolada XX asr boshlarida yashab ijod qilgan publitsist, shoir, dramaturg va hajvchi Abdulhamid Majidiyning hayoti va ijodiy faoliyati yoritilgan. Uning Kattaqo'rg'on adabiy muhitida shakllanishi, matbuot, sahna san'ati va ta'lim sohasidagi xizmati, shuningdek, qatag'on qurboni sifatidagi taqdiri ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Abdulhamid Majidiy, Kattaqo'rg'on, publitsistika, teatr, matbuot, hajv, qatag'on.*

Abdulhamid Majidiy XX asr boshlarida o'zbek matbuoti, adabiyoti va sahna san'atida faoliyat yuritgan yetuk ijodkorlardan biridir. U o'zining fidoyi mehnati, keng qamrovli ijodi va xalqchil yondashuvi bilan zamonasining ilg'or ziyolilari safidan joy olgan. Uning adabiy va publitsistik merosi, jamoat ishlari va sahnadagi faoliyati bugungi avlod uchun ibrat maktabidir.

Abdulhamid Majidiy 1902-yilda Kattaqo‘rg‘on shahrining “Sufiguzar” mahallasida tug‘ilgan. Dastlabki ta’limni mahalla maktabida olgan Abdulhamid keyinchalik rus-tuzem maktabida, so‘ngra Kattaqo‘rg‘ondagi Navoiy nomli maktabda zamonaviy fanlardan ta’lim olgan. Aynan shu muhitda u husnixat, musiqa, adabiyot va san’atga qiziqib, ijodga qadam qo‘ygan.

Abdulhamid Majidiy juda yosh paytlaridan she’r yozishni boshlagan, adabiy muhitga ilhomli she’rlari bilan kirib kelgan. U she’riyat bilan bir qatorda publitsistikaga ham qiziqib, maqola, felyeton yozishga kirishgan. Aynan shu yillarda u matbuotda faol qatnashgan va turli mavzularda chiqishlar qilgan.

1923-yilda “Turkiston” gazetasida “Kattaqo‘rg‘onda sahna ishlari” hamda “Muhabbatdan bir dars bo‘lmasin” nomli maqolalari chop etilgan. Shu bilan birga, u Abdugaffor A’zamiy bilan birgalikda kichik hajmdagi asarlar yozib, bir necha hajviy gazeta va jurnallarda bosilib chiqqan. Bu asarlar orqali u o‘zining tanqidiy, satirik qalamini yanada mustahkamladi va o‘z davrida keng tanildi. Ayniqsa, hajviy janrda “Chaqmoq”, “kattaqo‘rg‘onlik A.M.”, “Afandi” kabi taxalluslar bilan yozgan asarlari xalq orasida mashhurlikka erishdi.

1926-yildan boshlab boshlang‘ich maktabda dars bergan. Shundan so‘ng “Zafar” gazetasida adabiy xodim, bosh muharrir, “Mash’al” jurnalida muharrir, teatr va kino tashkilotlarida esa adabiy rahbar sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Ayniqsa, “Istiqlol ko‘ngli”, “Chiqdi g‘alaba” kabi hajviy she’r va pyesalari orqali xalq orasida katta obro‘ qozongan.

Uning ijodiy salohiyati “Zarafshon” gazetasida yanada to‘liq namoyon bo‘lgan. Bu yerda u bo‘lim mudiri, mas’ul kotib, 1926-yildan esa bosh muharrir lavozimlarida ishlagan. Shuningdek, “Ozod Buxoro” gazetasida muharrir bo‘lgan. Oradan olti oy o‘tgach, yana “Zarafshon”ga qaytib, redaktorlik faoliyatini davom ettirgan. 1929-yilda “Qizil O‘zbekiston” gazetasining Xorazm vohasi bo‘yicha muxbiri sifatida ham faoliyat olib borgan. Ko‘p o‘tmay viloyat teatriga direktor etib tayinlangan, keyin esa “Mushtum” jurnalida muharrir bo‘lib ishlagan. Yozuvchilar uyushmasiga a’zo bo‘lgan. U nazmda ham qalam tebratgan. “Xandon lolalar” nomli she’riy to‘plami 1929- va 1974-yillarda chop etilgan. Bular uning adabiy salohiyati, xalq hayotiga teran yondashuvi va ijtimoiy voqealarni badiiy ifoda qilishdagi mahoratini ko‘rsatadi. Shoirning ko‘plab she’rlari xalq orasida mashhurdir. Uning “Nahripay” she’rini o‘qir ekanmiz, undagi so‘zlar jilvasi, ham qadimiy, ham zamonaviy ruhning uyg‘unligi kishiga zavq beradi. Keling, shu she’r tahlili bilan birga tanishamiz:

Ilhom kabi ko‘ngillarga siljib oqqan, Nahripay,
Kun tig‘i-la yaltiragan yanogingdan bir o‘pay..

Bu yerda Nahripay nafaqat tabiiy hodisa sifatida, balki ilhom manbai, kuch-qudrat ramzi sifatida tasvirlangan. Uning “kun tig‘i-la yaltiragan”ligi naqadar yuksakligini anglatadi.

Ulug‘ yerlar cho‘qqisidan na’ra tortib, hay-haylab,
Hisor kabi mahkam va keng joylar sari enadi.
Yuksak yerda polvonlardek qadamini avaylab.
Bosadir-da, pastga tushgach, jimjitgina tinadi.

Nahripay tog‘ cho‘qqilaridan shovqin bilan oqib tushayotgani, u qudrat va jasorat timsoli ekanligi ta’riflanadi. U balandlikda qattiq, ehtiyot va kuchli harakat qilsa-da, pastlikka tushgach tinchlanadi. Aynan mana shu bandga shoir insonning butun bir umrini sig‘dira olgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Har bir qatorda umrning to‘rt fasli – bolalik, o‘smirlik, o‘rta yoshlilik va qarilik shoirona o‘xshatishlar bilan mohirona tasvirlangan.

Yiroqlardan, oppoq bo‘lib, oq ilondek buralib,
Erinmasdan, viqor ila ko‘krak kerib oqadi.
Quyosh dami bilan erib, pechak kabi o‘ralib,
Yer qizining qulog‘iga oltin halqa taqadi.

Bu bandda daryo uzoqdan burmalangan oq ilonga o‘xshatilgan. U so‘zsiz shijoat va faxr bilan oqadi. Quyosh nuri uni yoritib, unga nafislik beradi. So‘nggi misra juda shoirona: “Yer qizining qulog‘iga oltin halqa taqadi” — ya’ni daryo yerni bezaydi, unga zeb beradi.

Muhtojlarning talabini tinglash uchun bir emas,
Necha yuzlab isirg‘ali quloqlari bor uning.
Ko‘lankada zahlab ketgan, harakatsiz, non yemas,
Yalqovlarga qarg‘ish to‘la dudoqlari bor uning.

Bu yerda daryo inson kabi idrokli qilib berilgan. U muhtojlarning ovozini eshitadi — “isirg‘ali quloqlari” bor, ya’ni bu yerda kanalning irmoqlari haqida so‘z boradi. U o‘ziga muhtoj bo‘lganlarni shu irmoqlari orqali ta’minlab turadi. Daryo — hayot manbai, faollik ramzi. U yalqovlikni yoqtirmaydi, harakatsizlikni la’natlaydi. Shu bilan u mehnat va harakatga undaydi.

Elektrik nuri bilan yaltiroq qizning sochi.
Kabi oqar kun tig‘ida kumush suvning ustida.
Nash’a to‘la uzatilgan er yigitin qulochi
Hayot qizi Nahripayning qo‘ltiqlari ostida...

Daryo qizga o‘xshatilgan. Uning sochi elektr nuridek yaltiraydi. Daryo suvi kumushdek porlaydi. Yerning yosh yigiti (ya’ni, inson, mehnatkash) o‘z qulochini unga uzatayotgani, Nahr esa uni og‘ushiga olayotgani, tabiat va inson uyg‘unligi ifoda qilingan.

Ilhom kabi ko‘ngillarga siljib oqqan, Nahripay,
Kun tig‘i-la yaltiragan yanog‘ingdan bir o‘pay!

She’r boshidagi satrlar takrorlanmoqda. Bu holat lirik kayfiyatni mustahkamlaydi. Daryo - ilhom manbai, go‘zallik timsoli sifatida tasvirlangan. Bu she'r tabiat obrazini insoniyat hayotining turli tomonlari bilan uyg‘unlashtirgan, ramziy ma’noga boy va badiiy jihatdan yuksak mahorat bilan yozilgan asardir. Shoirning til ustunligi va tasvirlashdagi mohirlligi she’rning o‘ziga xos jozibasini yaratadi. Naḥripay obrazi orqali shoir o‘z vataniga, tabiatiga bo‘lgan muhabbatini ifodalashga harakat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Abdulhamid Majidiy o‘zbek publitsistikasi, adabiyoti va sahna san’atining rivojida katta hissa qo‘shgan ijodkordir. U xalq orasidan chiqqan, xalq uchun ijod qilgan, xalqni uyg‘otishga intilgan adib sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan. Uning boy ijodi hozirgi avlod uchun ham dolzarb va qimmatli manbadir.

Afsuski, Abdulhamid Majidiy ham ko‘plab boshqa ziyolilar kabi qatag‘on qurboni bo‘lgan. U 1939-yilda, 37 yoshida hayotdan ko‘z yumgan. Uning ijodi adabiyotshunoslar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Jumladan, S.Sirojiddinov Abdulhamid Majidiy hayoti va ijodi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan, adibning tanlangan asarlarini nashrga tayyorlagan.

Bugungi kunda Kattaqo‘rg‘ondagi ko‘chalardan biriga va shahar davlat drama teatriga uning nomi berilgan. Bu — xalqning buyuk shoiriga bo‘lgan ulkan hurmati va e’tirofidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kattaqo‘rg‘on: kecha va bugun. "Zarafshon". Samarqand-1994
2. Majidiy A., Tanlangan asarlar., Toshkent-2000
2. Sirojiddinov S. “Abdulhamid Majidiy hayoti va ijodi” dissertatsiyasi.
3. “Turkiston” gazetasi arxiv materiallari, 1923-yil.

JADIDCHILIK – MILLIY UYG‘ONISHNING YORQIN SAHIFASI

Tursunova Shalola
SamDUKF stajyor-o‘qituvchisi
Arzimurodova Dilsevar Sherali qizi *talaba*

Annotatsiya. *Maqola jadidlar faoliyati va ularning qilgan ezgu ishlari, jadidlarning qanday sud qilinganlari,ularga qilingan ayblovlar va sud masalalari, qatl ishlarining qay tarzda amalga oshirganlari haqida ma’lumot beradi.*

Kalit so‘zlar*: Jadid, jadidlar, sho‘ro tuzimi ,mafkura, A.Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidov, sud, qatag‘on.*

Annotation. *The article gives information about the activities of the jadids and the good deeds they did, how the jadids were tried, the accusations and court cases against them, how they carried out the executions.*

Key words: *Jadid, jadids, system of government, ideology, A. Kadiriy, Fitrat, Choulpon, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidov, court, and the death penalty.*

Аннотация. *Статья рассказывает о деятельности джадидов и о благотворительности, которую они совершали, о том, как джадиды судили, какие обвинения и судебные дела им предъявлялись, как они совершали убийства.*

Ключевые слова: *Джадид, джадиды, система власти, идеология, А.Кадири, Фитрат, Чулпан, Бехбудий, Мунавваркори Абдурашидов, суд, катагон.*

Jadidchilik haqida gapirishdan oldin, jadid so‘zining ma’nosi nima ekanligini bilishimiz keak. “Jadid’’ so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, [yangi] degani. Jadidchilik XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Tatariston hayotida muhim rol o‘ynagan ijtimoiy – siyosiy, ma’rifiy harakat bo‘lgan. Qirimda Ismoil Gaspriniskiy rahbarligida Qirim tatarlari orasida yuzaga kelgan.Ular o‘zlarini **“Taraqqiyparvarlar’’** keyinchalik esa **“Jadidlar’’** deb atashgan. Jadidchilik Turkistonda keng yoyilishida Ismoil Gaspriniskiy tashkil etgan “Tarjimon’’ gazetasining o‘rni katta. U 1893 – yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroga tashrif buyurib, Amir Abdulahadni jadid maktabi ochgishga ko‘ndiradi. Ushbu voqeylikdan keyin Andijonda Shamsiddin domla, Qo‘qonda salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori, Samarqandda Abuqodir Shakkuriylar birinchi bo‘lib jadidchilik maktablarini ochadilar. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Avloniy va Cho‘lponlar esa jadid maktablari uchun darsliklar yaratishadi.

Matbuot. Tarixchi olim Baxrom Irzayevning ma’lumot berishicha: “Shu davr matbuotning 70, 80 % materiallari “Jadid maktablari’’ haqida bo‘lgan. Eski maktab bilan yangi maktab solishtirilar edi, yangi maktablar qaysi shaharlarda ko‘p. Xo‘jandda choyxona va maktablar qancha pul sariflayabdi-yu, maktabga qancha pul sariflayabdi. Maktabning ahvoli qanday, choyxonadagi ahvol qanday,choyxona millatga nima beradi, maktab nima beradi kabi savollar berilganligi haqida yozishgan.’’To‘ylarimiz boshimizga balo bo‘ldi’’ degan maqolasida to‘ylarga sarflanayotgan harajatlar haqida yozadi. Onalarimiz va ayollarimiz uchun “Onalar o‘qingiz’’ nomli maqolalar chiqadi’’ – deb yozadi.[1]

Jadidlar xalqaro aloqalarni yaxshi yo‘lga qo‘yib olgan bo‘lishadi. Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan yaxshi xabardor bo‘lib, o‘zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashishgan. Jadidlar o‘z g‘oyalarini keng jamoatchilikka yetkazish uchun matbuotni asosiy vosita sifatida ko‘rishadi. 1906 – yil Ismoil Obidovmimg muharrirligida “Taraqqiy,’’ Munavvarqori boshchiligida “Xurshid’’ gazetalari bosilgan. Avloniy “Shuhrat,’’ Ahmadjon Bektemirov “Osiyo” ro‘znomalarini chop etilishiga bosh bo‘lishdi. Aholining asosiy qismi savodsiz bo‘lgan. Gazetalarni juda ham oz qismigina o‘qiy olgan. Shunda jadidlar boshqa usulni qo‘llagan. Teatrlar tashkil qilib, spektakllar sahnalashtirganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush’’, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Maysaraning ishi’’ kabi mashxur pyesalari o‘sha davr ruhida yaratilgan pyesalardir. Pyesalarda zamonning dolzarb muammolari goh achchiq kulgu, goh foeja ko‘rinishida olib chiqdi.

Siyosiy harakatlar jamiyatda. Bu davrda har qanday yangilik quchoq ochib kutib olinmasdi. Jadidlar harakati mahalliy ulamolarning qattiq qarshiligiga uchraydi. Ikki tomon o‘rtasida ziddiyatlar shunchalik kuchaygan ediki, tortishuvlar dahanaki janglarga aylanib ketar edi.

1917-yil yozida saylov bo‘ladi. Ulamolar va jadidlar o‘rtasida Toshkentda janjal bo‘ladi. Ulamolar bu jangda g‘olib bo‘lishadi. Jadidlar ulamolarni “jinni’’ deyishsa, ulamolar jadidlarni “kofir’’ deydi. Bu janjallar ulamolarning foydasiga hal bo‘ladi. Ammo, ko‘p o‘tmay ulamolarning ham ziyoli qatlami jadidlarning haq ekanliklarini anglay boshlashadi. Natijada ulamolar ichida ham ajralish yuz beradi. Ularning yarmi jadidlar tomonga o‘tishadi. Qolgan ulamolar esa o‘sha davrda SSSRga “axranika” sifatida ishlaydigan agentlar edi. [1]

Mustaqillikka erishish harakatlari Behbudiy hayot ekanligidayoq boshlanadi. U Turkiya, Yevropa va AQSHdan yordam olish harakatlarni boshlab yuboradi. Behbudiy boshchiligida bir guruh Boku orqali Turkiyaga borishni mo‘ljallaydi. Turkiyaga ANTANTA davlatlarining

“SULH’’ konferensiyasida qatnashib, yordam so‘rashi kerak edi. U Parijda bo‘ladigan “SULH’’ konferensiyasiga kelib, ANTANTA davlat rahbarlari bilan uchrashib, ulardan Rossiyaga qarshi kurashda ham qurolli yordam ham moddiy yordam va qurolli yordam olish va o‘lkani ozod etishlarining yo‘llarini axtarishgan. Afsuski Behbudiyni ham, boshqa bormoqchi bo‘lganlarni ham ortida GPning odamlari yurishgan. Behbudiy fojiali vafotidan bir yil o‘tib, unig o‘limi haqida xabar berildi. Behbudiy bilan Buxoro amirligi o‘zaro adovati bo‘lganligi uchun GPning odamlari uni Buxoro amirligiga tutib beradi. Zudlik bilan qatl ettirish to‘g‘risida buyruq berishadi.Buni Buxoroning Qarshi shahrida amalga oshirishadi. Nihoyatta mahfiy ravishda amalga oshirishadi.[2]

Qatag‘on shamoli. 1930 – yillarga kelib Yevropada fashizm uyg‘ona boshlaydi. Sovet davlatiga bu katta tahdid edi. Fashizimga qarshi kurash ichdan boshlanadi. Shu boisdan obro‘-e’tiborli insonlar ommaviy qatag‘on qilina boshlanadi.1930 – yilda Munavvarqori rahbarlik qilayotgan maorif hodimlari hibsga olinadi. 1937 – yilga kelib esa barcha ziyolilar qamoqqa olinadi. Ularning ko‘pchiligini jadidlar tashkil etardi. Qamoqqa olish may oyidan boshlanib, iyul oyida eng avj nuqtasiga yetadi.

Munavvarqori qamalishini oldindan bilganligi uchun ayoliga taloq xatini beradi. Shundan keyin ayoli boshqa uyda, o‘zi boshqa uyda yotadi. Ertasi kuni qizlari joylarini yig‘ishtirish uchun kirganlarida, otasining yostig‘i jiq – jiq ho‘l bo‘lgan. Ayoliga taloq xatini bergandan keyin ertalabgacha ko‘zyosh to‘kib chiqqan. Oradan bir kun o‘tgach hammasi qamoqqa olingan. Ular qamalgach ayollari va farzandlarini jazolamasliklari uchun taloq xati berishgan ekan. Qatag‘on qilinganlarning farzandlarini 16 yoshga to‘lganidan keyin hammasi qamoqqa olingan. 3 yoshdan kattalari esa mehribonlik uylariga tarqatilgan.[2]

Qodiriyni sotib shoir bo‘lganlar. 1930 – yilda qatag‘onning sovuq shamoli esib yurgan paytda hamma bir biridan qo‘rqib yashardi. Xalq orasida obro‘ - e’ tiborga ega ziyoli borki, qo‘rqib yashardi. Ular Stalin qatag‘on mashinasidan omon qolish ilojsiz ekanligini bilardi. Shunaqa bir davr ediki, ziyolilar orasiga nifoq solish, bir – birlariga qarshi ko‘rsatmalar berish avj olgandi. O‘zbek millatining buyuk iste’dodlari zanjirband etiladi. Ko‘rinmas ip bilan siyosat darbozasiga bog‘lab qo‘yiladi. Soxta g‘oyaning qo‘riqchisiga aylantiriladi.

Qonli 4 – oktabr. 1938 – yil 4 – oktabr millat gullari: Cho‘lpon, Fitrat, A.Qodiriy, Xudoybergan Devonov, Otajon Hoshim va yana yuzlab oltin boshlar otib tashlangan kun. 1938 – yil 28 – may kuni Stalin, Malikov, Hagamovich, Vrashilovlar rahbarligida O‘zbekistondagi siyosiy elitadan 165 kishini qatag‘on qilish haqidagi ro‘yxatga qo‘l qo‘yiladi. Ana shu ro‘yxat asosida 4-,7- oktabr kunlaridagi fojialar ro‘y berdi. 155 kishi otuvga, 10 kishi mehnat tuzatish lagerlariga hukm qilindi. 5 – oktabr kuni esa allaqachon otib tashlangan odamlar go‘yoki sud qilindi.

O‘sha vaqti otilish ishlari juda ham sirli bo‘lishi kerak bo‘lgan. Shu vaqtlari Toshkentning Yunusobod tumani anchagina kam aholidan iborat joy edi. Asosan Toshkent shahridan biron bir imtiyozga ega bo‘lganlarning dalahovlilari bu yerda bo‘lgan. Ular yozda dalahovliga chiqib, bahor, kuz vaqtlari shahardagi hovlilarida yashashgan. Shuning uchun u yerda kam odam bo‘lgan. O‘q ovozlari eshitilmasin deb, shu yerda qatl qilishgan. Yarim kechada yuk mashinasini olib borishib, 30 ta,40 ta ba’zan 50 nafar mahbuslar qatl qilingan. 1950 – yildan keyin qatag‘on qoralanadi.

Intiho. Ziyolilar ko‘pincha yarim kechasi, odamlar uxlagan, mahalla tinch paytda uyidan olib ketilgan. Ularning yaqinlari yig‘lasa, yig‘i ovozi tashqariga chiqmasligini aytib, harbiylar qattiq qo‘rqitishgan. Asosan, ko‘p kitob o‘qiydiganlar va qo‘lida qalami bor ijodkorlarning uyida tintuv o‘tkazilgan. Tintuv vaqtida topilgan har qanday qiymatli narsalar: hujjatlar, kitoblar va boshqalar xatlovga olingan. Ayrim mahbuslar ish joyida qo‘liga kishan solib, olib ketilgan.

1938 – yilning mash’um 4 – oktabrida ertalab tong saharda qurolli askar A.Qodiriyni kutib turar edi.Ular birin ketin qamoqxona dahlizi yoniga yaqinlashishdi. Qo‘shni kameradan boshqa mahbuslar, bir tarafdan Abdurauf Fitrat, boshqa tarafdan Cho‘lponning qo‘llarida kishan bilan olib chiqishadi. Jadidlar NKVDning maxsus mashinasida olib ketilardi. Qamoqxona hovlisida “Qora quzg‘un’’ mashinasi ularni so‘nggi manzilga kuzatib qo‘yishga tayyor turar edi.U mashinada

ketgan mahbuslar hech qachon qaytib kelishmas edi. Ularning oila a'zolari bu ulovni xosiyatsiz qush, xosiyatsiz mashina, deb atashgan. Bu mashinaning ichida kim borligi va nima qilayotgani hech kimga bilinmasdi, ko'rinmas edi. Unga chiqqan odam uyiga tirik qaytmas edi, buni hamma bilardi. Qodiriy Cho'lpon bilan quchoqlashdi. Cho'lpon ko'z yosh to'kar edi. Birin ketin A.Qodiriy, Fitrat va Cho'lponlar mashinaga o'tirishdi. "Qora quzg'un'' joyidan qo'zg'aldi. O'lim sari yuzlashayotgan A.Qodiriy, Fitrat va Cho'lponlar bir – birining zanjirband qo'llarini mahkam ushlab ketishar edi. Hamma qayerga ketayotganligini – yu, muqarrar o'limning eshik qoqib turganini yaxshi bilardi.

1938 - yilning 4-7 oktabr kunlari ro'y bergan fojialar ham Stalin, Molotov, Kagonovich, Voroshilovlar rahbarligida tuzilgan ro'yxat asosida amalga oshiriladi. Bu shaxslar shu yilning 28-mart kuni yuzlab ziyolilarni qatag'on qilishga oid ro'yxatga imzo qo'yadi. Ularning barchasi bitta chuqurga kafansiz, janozasiz maxfiy ravishda dafn etilgan.

Bugun qatag'on, johillikning sovuq izg'irinlari tinib yurtimizda hurriyatning xush nasimlari esmoqda. Xalq fidoyilarining kurashi behuda ketmadi. Biz ular orzu qilgan va intilgan zamonda yashayapmiz. Bugungi erkin va farovon hayotimiz, ma'rifat ulashuvchi dargohlarga qarar ekanmiz, xalqimiz fidoyilarining zahmatlari behuda ketmaganiga, olayotgan har bir nafasimizda ularning nasimi borligini qalban his etamiz. Zero ilm ziyosi so'nmasdir.

Foydalanilgan manbalar:

1. Tarixchi Bahrom Irzayev ma'lumotlari. [1]
2. Adabiyotshunos olim Naim Karimov ma'lumotlari.[2]
3. Internet ma'lumotlari https://youtu.be/1ZCZRLwbiaY?si=hVxY32wclGPslMc3
4. ''Jadid dramalari poetikasi va sahnalashtirish masalalari: muammo va yechimlari '' mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari.[2023 – yil, 18 – aprel.]

XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDAGI PROGRESSIV ADABIYOTINING ISTE'DODLI VA SERMAHSUL NAMOYONDASI - OCHILDI MIRIY

Yaxshiboyeva Farangiz Farxod qizi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali talabasi

yaxshiboyevafarangiz420@gmail.com

Ilmiy rahbar: ***Soyipova Dilafruz***

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asrda yashab ijod qilgan Ochildimurod Miriy shaxsiyati va lirik tafakkurini, shoirning qalamiga mansub asarlarni ulardagi mavzular ko'lami va janrlar xususiyati yoritilgan. Uning Kattaqo'rg'on adabiy muhitiga qo'shgan hissasi ochib berilgan.*

Аннотация: *в статье рассматриваются личность и лирическое мышление Очилдимурода Мирия, жившего и творившего в XIX веке, творчество поэта, тематика его произведений, особенности жанров. Раскрывается его вклад в литературную среду Каттакургана.*

Annotation: *this article examines the personality and lyrical thinking of Ochildimurod Miriy, who lived and worked in the 19th century, the works of the poet, the scope of their themes and the characteristics of genres. His contribution to the literary environment of Kattakurgan is revealed.*

Kalit so'zlar*: Kattaqo'rg'on adabiy muhiti, Ochildi Miriy, lirika, janr, mavzular rang-barangligi.*

Ключевые слова: *Литературная среда Каттакургана, Очилди Мирий, тексты, жанры и тематика.*

Key words: *The literary environment of Kattakurgan, Ochildi Miriy, lyrics, genre, and variety of themes.*

Jamiyatni ma'naviy-ma'rifiy yangilashning bosh maqsadi yurt tinchligi va xalq faravonligiga erishish, shuningdek, komil insonlarni tarbiyalashda ifodalanadi. Bu jarayonda ijtimoiy hamkorlik

va diniy bag‘rikenglik kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixda ko‘plab davlatlar va sulolalar hukm surgan, har biri o‘z ma’naviy-ma’rifiy merosini qoldirgan. Mustaqil bo‘lishimiz bilan, mamlakatimiz rahbari barcha sohalarga e’tibor qaratdi. O‘zbek adabiyoti va buyuk adiblarimizning merosiga ham alohida ahamiyat berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, insonning ma’naviy olamini kashf etishda badiiy adabiyot muhim vosita sanaladi. Adabiyot inson ruhining tarjimoni va tarbiyachisi hisoblanadi. Adabiyot shaxs tarbiyasida asosiy omil bo‘lib, unda har bir xalqqa xos milliy g‘oyalar, an’ana va qadriyatlar aks etadi. Shuning uchun ham adabiyot, shoir, yozuvchilar va adabiy muhit o‘rganiladi. Xususan, shunday bir rivojlangan va adabiyotda katta o‘rin tutgan Kattaqo‘rg‘on shahridagi adabiy muhitdir. XIX asr davomida Kattaqo‘rg‘on mavzeida qator iste’dodli shoirlardan iborat o‘ziga xos adabiy an’analar muhiti, maktabi shakllandi va rivojlandi. XVIII asr oxiri, XIX asrning birinchi yarmida va o‘rtalarida zabardast shoir, fiqhshunos olim Muhammad Sharif Shavqiy (1985-1861), Kattaqo‘rg‘onga yaqin Yangiqo‘rg‘onda Eshonxoja Vola yashab ijod etdilar. XIX asr o‘rtalaridan Ochildi Miriy (1841-1899), Avazmuhammad Vidoiy, Nurmuhammad Do‘st, Nozuk, Dilafgor kabi shoirlar adabiyot maydonida paydo bo‘lishdi. XIX asr oxiri va XX asr avvallarida Ahmad, Ahqar (vafoti 1919) Abdulqodir Noqis (1860-1929), Hoqiy, Homid, Valiy, Mahdiy, Ostonaqul Dabiriy kabi shoirlar o‘zbek va tojik mumtoz adabiyoti an’analarini davom ettirdilar. Bir-biriga ustoz-u shogird sifatida Kattaqo‘rg‘on shukuhini oshirib borgan bu siymolarning adabiy meroslarini o‘z ichiga oluvchi she’riy devonlar, bayozlar doston va boshqa xildagi asarlarning bir qancha qo‘lyozma va bosma nusxalari bizgacha yetib kelgan. Kattaqo‘rg‘on adabiy muhiti yuqoridagi ko‘pgina shoirlarni yetishtirib berdi, shular jumlasidan Ochildi Miriyni ham. Miriy XIX asrning ikkinchi yarmidagi progressiv adabiyotning iste’dodli va sermahsul namoyandalaridan. Shoirning hayoti va ijodini o‘rganish bundan qariyb bir asr avval adabiyotshunos Abdulhamid Majidiy tomonidan boshlangan. U o‘zining Miriy haqidagi maqolasida shoirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Ochilmurod Ne’matullo o‘gli Miriy 1839-yilda Kattaqo‘rg‘onning Eshonqishloq mavzesida dehqonlar oilasida tavallud topgan. Miriy dastlabki savodini boshlang‘ich maktabda olgach, Kattaqo‘rg‘on shahrida joylashgan Naqibxo‘ja madrasasida tahsilni davom ettiradi. So‘ngra Buxoroning mashhur ilm maskanlaridan biri bo‘lgan madrasa bilan ilmini boyitadi. Ilk she’riy mashqlarini Roqim va Shavqiy singari mashhur shoirlar uslubida yozishni boshlaydi. Ochildi yoshligidan adabiyotga, ayniqsa, she’riyatga katta ishtiyoq bilan qiziqadi. Uning qalbida badiiy ijodga bo‘lgan havas va iste’dod juda erta, bolalik chog‘idanoq namoyon bo‘ladi. Atigi 14 yoshida yozgan “Etar” nomli she’ri davr arboblari va ijod ahli e’tiborini tortadi. Bu she’r shunchalik mahorat bilan yozilganki, uni o‘qiganlar yosh shoirning zakovati va she’riy salohiyatiga qoyil qoladilar.

She’rni ko‘rib hayratga tushgan adib va zamondoshlaridan biri — tajribali shoir yosh iqtidor egasini ko‘klarga ko‘tarib, “Bu bola hammadan ham avval taxallusga muhtoj ekan!” deya e’lon qiladi. U “Etar” she’rining oxiriga quyidagi baytni tazmin qilib qo‘shadi:

Visol istayub ul pari deyrdin Miriy,
Mudom nay kabi ovoz etib tarannum etar.

Shu tariqa yosh Ochildi ilk bor “Miriy” taxallusini oladi. Bu laqab garchi so‘fiylik g‘oyalariga qisman zid bo‘lsa-da — negaki “Miriy” so‘zi aslida “amirga xos”, “mirga mansub”, “amir avlodi” degan ma’noni anglatadi — shoir bu nomni ulug‘ ustozga bo‘lgan hurmat va ehtirom ila qabul qiladi. U bu taxallusni e’tiqodiga zid bo‘lmagan tarzda, uni ichki ruhiy olami va so‘fiylik qarashlariga uyg‘un ma’noda talqin qiladi. Miriy bu nom ostida nafaqat she’r yozadi, balki uni o‘zining hayoti va ijodida yuksak badiiy mahorat bilan ardoqlaydi. Bu taxallus keyinchalik nafaqat shaxsiy imzosiga, balki o‘zbek adabiyotida chuqur iz qoldirgan, ma’naviy jihatdan yetuk shoir nomiga aylanadi.

Miriy madrasa ta’limini yakunlagach, u nafaqat shoir, balki donishmand va chuqur tafakkur egasi sifatida ham tan olinadi. 1888-yilga kelib, Miriy Kalliqo‘rg‘on hududida imomlik va qozilik vazifalarini bajaradi. Uning ijodiy merosi juda boy bo‘lib, zamonamizga mukammal

devoni, ikki bayozi va ko‘plab epik asarlari yetib kelgan. Uning ijodida dostonlar alohida o‘rin egallaydi. Xususan, 1884-yilda fors tilida bitilgan „Ra’no va Zebo“ dostoni shoirning yuksak badiiy mahoratini namoyon etadi. Miriy tarixiy voqealarni asos qilib olgan holda romantik ruhdagi dostonlar yaratadi. Masalan, „Qissai Salim Javhariy“ (1887), „Rustam va Suhrob“ (1898) hamda „Majdiddin va Faxruniso“ (1899) dostonlarida adolatli jamiyat, farovon hayot va barkamol inson g‘oyalari ilgari suriladi. Ayniqsa, Firdavsiyning „Rustam va Suhrob“ dostoni asosida yozilgan tarjimasi adabiyotshunoslar tomonidan yuksak baholangan. Bundan tashqari, „Gulnoma“ va „Choynoma“ kabi masnaviylarida hayot, inson, sevgi, sadoqat, insonparvarlik va ma’rifatparvarlik kabi falsafiy-estetik qarashlar o‘zining yorqin ifodasini topgan. Bu asarlar orqali Miriy o‘z zamonasining ilg‘or g‘oyalarini, ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarini targ‘ib qiladi.

Miriy shuningdek, buyuk shoir Firdavsiy tomonidan yozilgan „Shohnoma“ asarining ayrim qismlarini hamda Husayn Voiz Koshifiy qalamiga mansub „Anvori Suxayliy“ asarini she’riy yo‘sinda o‘zbek tiliga tarjima qilgan. U Navoiy, Jomiy, Sa’diy kabi atoqli adiblarning ayrim asarlarini nafis nasx va nasta’liq xatlari bilan ko‘chirib, ilm-ma’rifatga bo‘lgan ehtiromini namoyon etgan.

Miriy o‘zining g‘azallarida hayotning murakkab va ziddiyatlarga boy jihatlarini, turmushdagi muammolar, tartibsizliklar va ijtimoiy tengsizliklarni nihoyatda teran va tasirchan tarzda tasvirlagan. Uning she’riyati, ayniqsa, zamonasidagi nohaqliklar va adolatsizliklarga qarshi bir norozilik nidosi bo‘lib yangraydi. Shoir o‘z asarlarida xalqning dardu hasratini, ko‘ngil iztiroblarini, haqiqat izlovchi qalblarning faryodini badiiy mahorat bilan ifodalagan. Uning hajviy ruhdagi she’rlarida esa riyokor, ikkiyuzlamachi qozilar, zolim mirshablar va boshqa adolatsizlikni targ‘ib qiluvchi toifa vakillari fosh etilgan. Miriy bunday asarlar orqali jamiyatdagi illatlar, mansabparastlik, soxta din peshvolarining ikkiyuzlamachiligi ustidan kuladi, ularni keskin tanqid ostiga oladi. Bu jihatlari bilan shoirning ijodi yuksak ijtimoiy mazmun va chuqur badiiy talqinga ega. Miriy lirik she’riyatda inson qalbining nozik kechinmalari, muhabbat, sadoqat, orzu va armonlarni nihoyatda samimiy va falsafiy ohangda kuylaydi. Uning epik asarlari esa keng qamrovli syujet, jonli obrazlar, hayotiy voqealar va insoniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, o‘zbek adabiy merosining durdona namunalaridan hisoblanadi. Bugungi kunda Miriy asarlari O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti hamda Samarqand Davlat Universitetining asosiy kutubxonasi fondlarida asrab-avaylab saqlanmoqda. Bu nodir qo‘lyozmalar va asarlar orqali Miriy merosi hozirgi zamon o‘quvchilari va tadqiqotchilari uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Afsuski, shoirning hayot yo‘li fojiaviy tarzda yakun topgan. 1899-yilda dushmanlari tomonidan uyushtirilgan fitna, adovat va hasad bilan to‘la ig‘volar natijasida uning ikki o‘g‘li vahshiylarcha o‘ldiriladi. Bu og‘ir musibat Miriy qalbini larzaga soladi va oradan ko‘p o‘tmay, u ham hayotdan ko‘z yumadi. Ularning fojiali qismati Miriy hayotining so‘nggi sahifalarini og‘riq va iztirob bilan to‘ldirgan bo‘lsa-da, shoirning ruhi va ijodi o‘chmas iz qoldirib, bugungi avlodga yuksak ma’naviy meros sifatida yetib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Miriy. Tanlangan asarlar. T., "Toshkent", 1965-y. 312 bet.
2. Kattaqo‘rg‘on:kecha va bugun. "Zarafshon" nashriyoti, Samarqand-1994-y. 236 bet.
3.Ochildi Miriy(Buklet) Rahmonqul Orzibekov. Kattaqo‘rg‘on 1992-y.

SINTAKTIK ALOQA VA SINTAKTIK MUNOSABAT

Zuxriddinova Aziza Ilxomjon qizi
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi
zuxriddinovaaziza@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kun tilshunoslik sohasidagi yutuqlarga asoslangan holda so‘zlar, so‘z birikmalari, gaplar, matndagi abzaslar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlar,*

ularni tashkil etadigan vositalar, sintaktik munosabatning turlari,ular o‘rtasidagi farqlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Sintaktik aloqa, sintaktik munosabat, atributiv, relyativ, obyektli va subyektli munosabat, gap qurilishi, til birliklari, sintaktik aloqani tashkil etadigan vositari, aloqa va munosabatning farqlar.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются связи и отношения между словами, словосочетаниями, предложениями и абзацами текста, основанные на современных достижениях в области лингвистики. Описываются средства, обеспечивающие синтаксические отношения, типы синтаксических связей и различия между ними.*

Ключевые слова: *Синтаксическая связь, синтаксическое отношение, атрибутивное, релятивное, объектное и субъектное отношение, структура предложения, языковые единицы, средства синтаксической связи, различия между связью и отношением.*

Abstract. *This article discusses the syntactic connections and relations between words, phrases, sentences, and paragraphs in a text, based on modern achievements in linguistics. It describes the means of establishing syntactic relations, types of syntactic connections, and the differences between them.*

Keywords**:** *Syntactic connection, syntactic relation, attributive, relative, objective and subjective relation, sentence structure, linguistic units, means of syntactic connection, differences between connection and relation.*

Bugungi kunda butun jahon tilshunosligida, xususan, o‘zbek tilshunosligida ham sezilarli darajada o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Tilshunoslikda yangi soha va yo‘nalishlarning paydo bo‘lganligi, ko‘plab tadqiqotlar, izlanishlar antroposentrik paradigma asosida amalga oshirilayotganligi ham bugungi kun tilshunoslik sohasidagi yutuqlarning yaqqol namoyonidir. Bu o‘zgarishlar tilshunoslikning deyarli barcha bo‘limlariga ta’sir etmoqda. Shu jumladan, grammatikaning morfologiya va sintaksis bo‘limida ham sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin.

Sintaksis-grammatikaning bir bo‘limi sifatida marfologiya bilan uzviy bog‘liq.Morfolgiyada so‘zlarning strukturasi o‘rganilsa, sintaksisda ularning munosabati, aloqasi, bog‘lanishi, birikishi, qo‘shilish yo‘llari va vositalari tekshiriladi. Sintaksis so‘z birikmasi va gapni tekshiradi, uning asosi gap haqidagi ta’limotdir; gap qurilishi, so‘zlarni biriktirish qoidalari, ular orasidagi aloqa va munosabatlarni shu bilan birga gapdan katta birliklar murakkab strukturali qurilmalar, matndagi abzaslar va gaplarning orasidagi aloqa va munosabatlarni o‘rganadi.

Sintaktik aloqa- mustaqil so‘zlarning nutq jarayonidagi erkin bog’lanishi sintaktik aloqa deyiladi. Aslida sintaktik aloqa bundan kengroq tushunchani o‘z ichiga oladi. U gapda so‘zlar va so‘z birikmalarining o‘zaro bog‘lanishini bildirishi bilan birga, nutqdagi gaplarning ma’lum usul va vositalar yordamida bir-birlari bilan bog‘lanishini ham bildiradi. An’anaviy tilshunoslikda „sintaktik munosabat“ va “sintaktik aloqa” terminlari farqlanadi.„Sintaktik munosabat“termini sintaktik birliklar o‘rtasidagi mazmuniy sintagmatik munosabatni, “sintaktik aloqa” termini esa shakliy sintagmatik munosabatni ifoda tomonini bildiradi. Har qanday shakliy sintagmatik munosabat ma’lum mazmuniy sintagmatik munosabatni ifodalaydi va bu ikki munosabat birgalashib shakl va mazmun dialektikasini aks ettiradi. Masalan, ega va kesim shakliy munosabatidan tashkil topgan men keldim sintaktik qurilmasi subyekt va predikatning mazmuniy munosabatini ifoda qiladi. Nutqda, gapda sintaktik aloqaga kirishmaydigan elementlar ham qo‘llanilishi mumkin. Undalma va kirishlar gapdagi biror so‘z bo‘lagi bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi. Lekin ular gap bilan uning biror bo‘lagi bilan ma’lum munosabatda bo‘ladi. Kirish so‘zlar odatda gap yoki uning bo‘lagiga nisbatan modal munosabatni ifoda qiladi. Masalan: Ehtimol, u kecha uyiga ketgan(gumon munosabati). Albatta, bu ishni uddasidan chiqamiz(ishonch). Umuman, har qanday gapda modallik bo‘ladi, lekin bu gaplarimizda moddalik aynan ehtimol va albatta kirish so‘zlari orqali ifodalangan. Shunday ekan, sintaktik aloqa hodisasi

sintaktik munosabat hodisasiga teng emas. Sintaktik aloqa bor joyda sintaktik munosabatni ko‘rishimiz mumkin va yoki aksincha sintaktik munosabat bor joyda sintaktik aloqa bo‘lishi ham bo‘lmasligi ham mumkin.

O‘zbek tilining qonun-qoidalari asosida ma’lum bir so‘z yoki so‘zlar guruhining bog‘li nutqning mustaqil (sodda, qo‘shma gaplar va matn) va nomustaqil(gap bo‘lagi ba so‘z birikmasi) xususiyatga ega bo‘lgan birligi sifatida shakllantiruvchi va ularni bog‘lovchi vositalar sintaktik aloqa vositalari sanaladi. Ular quyidagilardan iborat: a) kelishik, egalik shakllari; b) yordamchi so‘zlar; d) mustaqil so‘zlardan,asosan, olmoshlar va ayrim otlar; e) gap va matnda gap bo‘laklarining yoki boshqa qismlarning tartibi; f) ohang.

Kelishik va egalik shakllari nutqda mustaqil so‘zlarni o‘zaro aloqaga kirituvchi vositalar sanaladi. Nutq jarayonida kelishik shakllaridan ham egalik shakllaridan ham sintaktik xarakterga eng mos keladigan aniq bir shaklini qo‘llash yordamidagina maqsadimizga mos ma’noni bera olamiz va gapni grammatik jihatdan til me’yorlarga muvofiq ravishda to‘g‘ri qo‘llay olamiz.Masalan: akamga kitob oldim vs akamdan kitob oldim. Birinchi gapimizda maqsad kitobni kim uchun olganligi bo‘lsa ikkinchi gapimizda kitobni kimdan olganlig maqsad paradigmasi bo‘lganligi sababli kelishik shakllarining ham aynan maqsadga yarashalari tanlab olingan.

Yordamchi so‘zlar nutqdagi gap, gap bo‘laklarini grammatik aloqaga kirituvchi vositalar hisoblanadi.Ko‘makchilar ham xuddi so‘z o‘zgartiruvchilar kabi gap bo‘laklarini va qo‘shma gap qismlarini sintaktik aloqaga kirituvchi vosita vazifasini bajaradi. Bu vositalar ot yoki ot o‘rnida almashib kelgan olmoshlarni boshqa so‘zlar bilan(asosan fe’llar bilan) bog‘lab keladi. Masalan: Ota bu g’am-tashvishni qizining shirin so‘zi bilan yengib o‘tdi. Mard o‘g‘lonlarning vatan uchun to‘kkan har bir qoni muqaddasdir. Ko‘makchilarni ba’zi o‘rinlarda kelishik shakllari bilan almashtirish mumkin. Lekin ular orasida ma’no nozikliklari farqlanadi. Akmal maktabga ketdi(yo‘nalish nuqtasi aniq)–Akmal maktabga tomon ketdi(yo‘nalish nuqtasi aniq emas).Bog‘lovchilar sodda gap qismlarini, qo‘shma gap komponentlarini va matn tarkibidagi gaplarni o‘zaro grammatik va mazmuniy aloqaga kirishtirish uchun xizmat qiladi. Masalan:Sizlarga Alisher Navoiyning ruboiy va g‘azallardan aytib beray. Yuklamalarning vazifasi bog’lovchi va ko‘makchilarga qaraganda ancha xilma-xildir. Birinchidan sodda gap tarkibidagi gap bo‘laklarning sintaktik aloqaga kirishishida teng bog‘lovchilar kabi xizmat qiladi. Azim-u Sarvar bugun darsga kelmadi. Azim va Sarvar bugun darsga kelmadi. Yoki keldi va ketdi–keldi-da ketdi. Faqat bog‘lovchi va yuklamalar o‘rtasida nozik farqlar bor. Uyushiq fe’l kesimlar yuklamalar yordamida bog’langanda harakat tezligi semasi, yoki ba’zi hollarda ta’kid semasini yuklaydi. Ba’zi hollarda yuklamalar butun bir gapga inkor semasini ham yuklaganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan:Na Aziz, na Salim dars tayyorlamagan. Ikkinchidan, yuklamalar ergash gapli qo‘shma gaplar tarkibida ergash gapni bosh gapga bog‘lab keladi. Masalan: Qish keldi-yu, qordan darak yo‘q.

Olmoshlar. Olmoshlar ergash gaplarni bosh gapga bog’lashda, matn qismlarini o‘zaro bog’lanishida ishtirok etadi. Olmosh ichi „bo‘sh“ so‘z bo‘lganligi uchun undan keyingi gap bo‘sh so‘sning ma‘nosini to‘ldirish ichun xizmat qiladi. Maqsadim shuki, eng nufuzli oliy o‘quv yurtiga kirish. Olmosh matn qismlarini bo‘g’lash vazifasini ham bajaradi. Bunda matnning birinchi qismida qatnashgan ot, sifat, son o‘rnida keyingi gapda olmosh almashib keladi va bu almashish matn qismlarini bir butunligicha birlashtirishga xizmat qiladi. Masalan: U erining yaqin o‘rtog’i To‘lanboy ismli kishi edi. I qiz tanlab-tanlab yoshini o‘tkazib qo‘ygan, oxiri qirqni qoralab qolganda uylangan, o‘zi kichkina, har gapiga maqol yo matal qo‘shib gapiradi. U kirgan davra birdan yashnab ketar, to‘y-u hashamlarda u bo‘lmasa o‘rni yo‘qlanib turadi. U o‘zini sira katta olmas edi. Bu mikro matnda gaplarning sintaktik aloqasi birinchi gap tarkibida kelgan atoqli ot, keyingi gaplarda III shaxs kishilik olmoshi bilan almashinishi orqali yuzaga chiqadi.

Gap bo‘laklarining tartibi. O‘zbek tili morfologik jihatdan agglyutinativ tillarga kirganligi va ko‘p hollarda so‘z shakllarining ham sintaktik o‘rinlarini tayinlab turganligi tufayli gap bo‘laklarining tartibi anchayin erkin. Lekin bu degani gap bo‘laklarining tartibi ma’lum bir

me’yorga bo‘ysunmaydi degani emas.. So‘z birikmalari qismalrining tartibi; nutq uslib xususiyatlarini aks ettirishda tso‘zlar artib juda muhimdir.

Ohang. Gapning grammatik shakllanishida ohangning ishtiroki zaruriydir. Chunki ohang gapning zaruriy belgilaridan hisoblanadi. Gapning melodikasi turli xildagi axborotlarni ifodalashga ega. Gaplarning darak, so‘roq, buyruq, emotsionallikka ko‘ra turlarini ajratishda ohang muhim rol o‘ynaydi. Masalan: Poyezd keldi. Poyezd keldi! Poyezd keldi?

Sintaktik birliklar o‘trasida sintaktik aloqa bilan birga u orqali sintaktik munosabat ham hosil bo‘ladi. Sintaktik birliklar faqat shakliy jihatdan emas mazmuniy jihatdan ham o‘zaro bog’lanadi.Masalan: toshni yemoq, toshni otmoq, nonning yemoq birikmalarimizda birinchi birlik struktur jihatdan to‘g‘ri ammo mazmunjihatidan to‘g‘ri emas. Uchinchi gapimizda aksi, mazmun jihatdan to‘g‘ri bog‘lanish jihatdan esa noto‘g’ri kelishik shakli tanlangan. Mana shu sintaktik (mazmuniy) munosabat sanaladi. Shunga muvofiq, sintaktik birliklar o‘rtasida a) subyekt va predikat munosabati; b) belgi va predmet o‘rtasidagi munosabat; d) belgi bilan harakat o‘rtasidagi munosabat; e) predmet va harakat o‘rtasidagi munosabat turlari mavjud.

Belgi va predmet o‘rtasidagi munosabat (atributiv). Belgi+predmet semantik modelidagi so‘z birikmasi uchun xosdir. Masalan: qizil qalam, uchta daftar. Shoir Erkin Vohidov tipidagi oppozitiv munosabat ham atributiv munosabatning bir turi sifatida qaraladi.

Obyekt va harakat o‘rtasidagi munosabat(obyektli). Obyekt+harakat predmetning belgisi(komparativ birikmalarda): Karimdan katta, Azimdan kuchli va h.k.

Belgi va harakat o‘rtasidagi munosabat(relyativ). Bu munosabatni ifodalovchi birikmalar bir qancha semantik modellarga ega:1) harakat+uning sifati yoki miqdor tavsifi–tez yugurmoq, ko‘p kulmoq; 2) harakat+ uning yuzaga chiqish o‘rni–Toshkentdan kelmoq, Samarqandda o‘qimoq; 3) harakat yo belgi+payt–tongda turmoq; 4) harakat yoki belgi +sababi– uyalgani uchun aytolmadi; 5) harakat+maqsad– o‘qish uchun bordi.

Subyekt va predikat o‘rtasidagi munosanat (subyektli). Bu munosabat ikki xil sintaktik munosabat orqali ifodalanadi. Birida ega va kesim moslashuvi , ikkinchisida esa subyektni bildiruvchi qism qaratqich aniqlovchi shaklida, qaratucchi predikatni bildiruvchi qism esa egalik shaklida qaralmish vazifasida keladi.

Xulosa qilib aytganda, sintaktik aloqa va sintaktik munosabat varoqning ikki tomoniga o‘xshaydi. Bu hodisalarni bir-biridan ayro holda o‘rganib bo‘lmaydi. Biri ikkinchisi bilan uzviy aloqada, Sintaktik aloqa bor joyda sintaktik munosabat, sintaktik munosabat bor yerda esa sintaktik aloqa mavjud bo‘ladi. Lekin biz ba’zi o‘rinlardagi istisno holatlarini ham ko‘rib o‘tdik. Sintaktik aloqani ta’minlovchi xilma-xil vositalar haqida, sintaktik munosabatning turlari haqida batafsil tushunchalar berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Mahmudov, A. Nurmonov. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
2. B. Fayzullayev, T. Abdullayev, Sh. Haydarov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Jizzax, 2007.
3. O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi. O‘zbek tili grammatikasi (sintaksis). Toshkent:Fan nashriyoti, 1976.
4. R. Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2009.
5. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2008.
6. A. G‘ulomov, M. Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘qituvchi, 1965
7.Turniyozov N., Turniyozova K., Xayrullayev X. Struktur sintaksis asoslari //Samarqand: SamDCHTI. – 2009.
8.Хайруллаев Х. З. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати //Номзод. дис автореферати. Тошкент. – 2001.
9.Хайруллаев Х. О лингвистической природе уровней языка и речи //Вопросы филологических наук. – 2009. – №. 2. – С. 78-79.

10.Хайруллаев Х. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. – 2002.
11.Khayrullaev K. Z. The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness //Abstract of candidate dissertation.–Tashkent. – 2001.

PAHLAVON MAHMUD -XORAZM XAYYOMI

Umirova Zilola Mahmatqul qizi
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Pahlavon Mahmud tug'ilishi,hayoti uning xalq orasida tanilgan taxalluslari,turli asarlarda u haqida keltirilgan ma'lumotlar,bir nechta ruboiylar tahlili berilgan.Shoirning Umar Xayyomdek allomaning shogirdi ekanligi va uning ta'limotini davom ettirganligi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *PahlavonMahmud, Xorazm, Puryoyvaliy, po'stindo'z, telpakdo'zlik, Xayyom, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bobur, ruboiy, futuvvat, juvonmardlik.*

Xorazm xalqining zabardast shoiri-Pahlavon Mahmudning tug'ilgan yili haqida turli rivoyatlar mavjud. Shoirning otasi ko'hna urganchlik bo'lib, xotini homiladorlik paytida Xivaga ko'chib keladi. Ular yo'lda ekanligida shoirning onasini to'lg'oq tutadi va Pahlavon Mahmud tu'g'iladi. Bu hodisa 645-hijriy, milodiy hisobi bilan 1247-yilda bo'ladi. Bolaga Mahmud deb nom qo'yadilar. Mahmud jismoniy jihatdan juda baquvvat, pahlavon bo'lib yetishadi. U Xorazmning ko'p shaharlariga, hatto Hindistonga borib kurashadi, lekin hech yerda yengilmaydi, butun umri yelkasi yerga tegmay, mamlakatning birinchi pahlavoni bo'lib qoladi. Shulardan kelib chiqib Xorazm xalqi Mahmudga "Pahlavon" laqabini berib, uni "Pahlavon Mahmud", "Pahlavon ota" deb yuritadilar. Biroq Pahlavon Mahmudning asosiy asl kasbi po'stindo'zlik, telpakdo'zlik bo'lgan. Mahmud bu hunarda ham zo'r mahorat kasb etgan, uning juda ko'p shogird va xalfalari bo'lgan. Pahlavon hijriy 726-yilda, milodiy hisobi bilan 1326-yilda vafot etganda, uning vasiyatiga amal qilib shogirdlari Pahlavon Mahmudning jasadini o'zining po'stindo'zlik korxonasi atrofiga dafn etganlar, maqbarasi ham ana shu qabr ustida barpo etilgan.

1299-hijriy (1881-yilda) Bombayda nashr etilgan "Otashkadai Ozariy" nomli mashhur Sharq tazkirasida Pahlavon Mahmud haqida quyidagilar yozilgan: "Ismi Pahlavon Mahmud, Puryoyvaliy laqabi bilan shuhrat topgan, uning pahlavonlik ovozasi olamni tutgan, o'z asrining yagonasi bo'lgan. She'riyatda qudratli, "Kanzul haqoyiq" nomli masnaviysi bor. Keyingi vaqtlarda tasavvuf mavzusida yozgan ruboiylari ancha yaxshi chiqqan".Mashhur turk olimi Shamsiddin Somibek ham "Qomusul a'lom"ning V va VI jildlarida Pahlavon Mahmud xususida ba'zi ma'lumotlar keltirgan. "Pahlavon Mahmud Eronning mashhur shoirlaridan bo'lib, Xorazmning Urganch qishlog'idandir. Yoshligida o'z kuchi va pahlavonligi bilan faxrlanib yurdi. Keyingi paytlarda tasavvuf tariqatida ko'p riyozat chekib, jismoniy zaiflashgan edi. "Kanzul Haqoyiq" nomli masnaviysi bor".1327-hijriyda Istanbulda nashr etilgan "Turklarin ulum va fununa xizmatlari" nomli kitobda ham (muallifi Muhammad Tohir bin Rif'at) Pahlavon Mahmud haqida so'z boradi. Sharq adabiyotini juda yaxshi bilgan Sadriddin Ayniy "Namunayi adabiyoti tojik" kitobida Pahlavon Mahmudning "Qomus" va "Otashkada" tazkiralarida keltirilgan ruboiylarini ko'chirib, «o'zi xorazmlik, lekin tarjimai holini bilmadik» deyilgan ma'lumotni keltiradi. Professor Yahyo G'ulomovning "Pamyatniki goroda Xivi" asarida Pahlavon Mahmud maqbarasiga va unga oid bir qancha ma'lumotlarga to'xtalingan.Bugungi kunda Pahlavon Mahmud maqbarasi yurtimizning Xiva shahrida joylashgan bo'lib, u yerga boradigan sayyohlarning soni kundan kun ortib bormoqda.Chunki shoirning hayot yo'liga,ijodiga va u yashagan hududga qiziqish mavjud.

Pahlavon Mahmud she'riyatda ham, falsafada ham Xayyomning zakovatli davomchisidir. Fors adabiyotida Xayyomdan so'ng faqat ruboiy yozgan boshqa shoir mavjud emas. Bu hol turkiy xalqlar adabiyotida ham deyarli ko'rinmaydi. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bobur va boshqa ko'p shoirlar ruboiyda o'z kuchlarini sinab ko'rgan bo'lsalar-da, bu janr, ularning ijodida asosiy o'rin tutmagan. Pahlavon Mahmud esa, butun umri davomida fors-tojik tilida ruboiy

yozgan. Shunday qilib, Pahlavon Mahmud Xayyomning falsafiy va badiiy g‘oyalarini rivojlantirgan, unga o‘z asri ruhini bergan. Bu – xayyomshunoslikda ham, o‘zbek va tojik adabiyoti tarixida ham muhim yangilikdir. Pahlavon Mahmud Xayyomning oddiy taqlidchisi emas, balki, u o‘zining zakovat va iste’dodi, mushohada kuchi jihatidan Xorazm Xayyomidir. Sharq adabiyotida teran mazmunli, nafis va o‘ynoqi ruboiylarni “xayyomona” deb atash odat bo‘lib ketgan. Pahlavon Mahmud ruboiylarini o‘qigan kishi o‘zini qandaydir ma’naviy pokiza, ruhiy tetik va ulug‘vor his etadi, chunki bu ruboiylarda shu ruh singdirib yuborilgan. Ko‘hna manbalar, jumladan Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” kitobida aytilishicha, bu pokiza ruh tarixda futuvvat yoki juvonmardlik nomi bilan mashhur bir oqimning, bir ijtimoiy tabaqaning asoschisidir. Juvonmardlar xalqqa beminnat xizmat qilib, muzdini haqdan talab qilish shiori ostida ish tutganlar. Eron olimlaridan Said Nafisiy “Sarchashmai tasavvuf dar Eron” nomli asarida: “Futuvvat — juvonmardlik guruhining ulug‘ peshvolaridan biri mashhur shoir Pahlavon Mahmud Xorazmiydir”, – deb ta’kidlaydi. Shu olimning aytishicha, O‘rta Osiyoning dovyurak isyonkorlari —sarbadorlar ham juvonmardlar guruhiga mansub bo‘lganlar. Bundan ko‘rinib turibdiki, Pahlavon Mahmud yashagan davrida o‘zi bir tariqatga asos solgan. XIII—XIV asrlarning bir daraja uyushgan mehnatkash tabaqasi, shubhasiz, shahar hunarmand kosiblari bo‘lgan.Ular temirchilar, qurolsozlar, misgarlar, duradgorlar, ko‘nchilar, mo‘ynado‘zlar, to‘quvchilar, tikuvchilar va me’morlardan iborat katta kuch edilar. Juvonmardlar mana shu hunarmandlar guruhining jangovar namoyandalari sifatida maydonga chiqdilar. Juvonmardlar guruhining hayot uslublari mardlik va uning bezagi: marhamat, shafqat, muruvvat, sahovat va olijanoblik asosiga qurilgan. Juvonmardlar elga xizmat qilishni, aftodalarga dastgir bo‘lishni, muhtojlarga marhamat-u zaiflarni himoya qilishni o‘zlari uchun sharaf deb bilganlar. Professor Y.E.Bertels “So‘fizm va so‘fiylik adabiyoti” nomli kitobida: “Futuvvat hunarmandlarning yashirin tashkiloti” — deb ataydi. Yosh olimlarimizdan Yoqubjon Is`hoqov futuvvat — juvonmardlik harakatidan bahs etib: “Hunarmandlar guruhining ilg‘or qarashlari va intilishlarini ifodalagan bu yo‘nalish o‘sha davrdagi ilg‘or kuchlarning ma’lum qismi uchun ma’naviy zamin bo‘lgan” deydi. Pahlavon Mahmud futuvvat — juvonmardlik harakatining tashkilotchisigina emas, uning ma’naviy rahnamosi.Shoir ruboiylarining asaosiy qismida mardlik, oliyjanoblik xislatlarining ulug’lanishini ko‘rishimiz mumkin:

Olam fili qaytarolmas jur’atimiz,
Charxdan zo‘rroq qudratimiz, shavkatimiz,
Gar chumoli kirib qolsa safimizga—
Sher etajak uni darhol davlatimiz,

Shoir o‘z ruboiylarida nafsga qul bo‘lmaslik haqida shunday deydi:

O‘z nafsingga bo‘lgin amir, shunda mardsan,
O‘zgalarga bo‘lma haqir, shunda mardsan,—
Yiqilganni tepib o‘tish mardlik emas,
Aftodaga bo‘lsang dastgir, shunda mardsan.

Bu bayt orqali haqiqiy mard kishining qanday bo‘lishi lozimligi uqtirilgan.

Pahlavon Mahmud ushbu baytida:
Qora tosh sira ham bo‘lmas lojuvard,
Toza qalbga yuqmas aslo changu gard,
Quloq solgin Puryoyvaliy so‘ziga,
Qo‘rqoqlardan biron chiqqanmidi mard!

Qora oddiy toshning qimmatbaho-lojuvard (ko‘k tusli tosh)ga aylanmasligi, sof, toza qalbli insondan yomonlik chiqmasligi keltiriladi. Ruboiyning keyingi baytida haqiqiy mard qo‘rqoq bo‘lmasligini satrlarida isbotlaydi. Bu bilan shoir mardlik sifatiga urg’u beradi.

Pahlavon Mahmud 79 yil umr ko‘rgan. (1247—1326).U o‘zining barakali umri davomida talay tarixiy voqealarning shohidi bo‘ldi, ko‘p kuzatishlar, mushohadalar o‘tkazdi va o‘zidan ismiga munosib nom qoldira oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Suyunova N. (2021). Pahlavon Mahmud asos solgan tariqatning ahamiyati va mazmuni.
2. H.Hodimiy. Tasavvuf allomalari.: Sharq nashriyoti Toshkent: 2014.
3. Jalolov T. Pahlavon Mahmud. Puryoyvaliy. Toshkent: 1975.
4.Ortiqova.Z. Pahlavon Mahmud ruboiylarining mazmun va mohiyati xususida. 2023
5.Vohidov.R, Eshonqulov.H.: O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent-2006.

“HIKMATLAR SOCHGAN SHOIR” – SULAYMON BOQIRG‘ONIY MEROSI

Maftuna Suyundiqova
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ma’rifatparvar shoir Sulaymon Boqirg‘oniyning boy ilmiy-ma’naviy merosi yoritiladi. “Hikmatlar” nomli asari orqali targ‘ib etilgan ma’naviy fazilatlar, tasavvufiy tushunchalar bilan bog‘liq jihatlar haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Hakim ota, “Manoqib”, Ahmad Yassaviy, “Hikmatlar” to‘plami, halollik, haqiqatgo‘ylik, sabr, mehr, ilm, ibodat, ‘‘Ismoil alayhissalom qissasi’’, ‘‘Me’rojnoma’’, ‘‘Bibi Maryam’’, “Imom A’zam” (“Sobit qissasi”).*

Abstract. This article highlights the rich scientific and spiritual heritage of the enlightened poet Sulayman Bakirgani. The spiritual qualities promoted through his work "Wisdoms" and aspects related to mystical concepts are discussed.

Keywords. *Hakim Ota, “Manaqib”, Ahmad Yassavi, “Wisdoms”collection, honesty, truthfulness, patience, love, knowledge, worship, “The Story of Ismail”, “Me’rajnoma”, “Bibi Maryam”, “Imam A’zam”(“The Story of Sobit”).*

Аннотация. *В статье освещается богатое научное и духовное наследие просвещенного поэта Сулаймона Бакыргани. «Духовные добродетели, пропагандируемые в произведении под названием «Хикматли», связаны с мистическими характеристиками».*

Ключевые слова: *Хаким Ота, «Манакиб», Ахмад Яссави, сборник «Мудростей», честность, правдивость, терпение, доброта, знание, поклонение, «История Исмаила», «Меараджнама», «Биби Марьям», «Имам Азам» («История неподвижного»).*

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida diniy-ma’rifiy ruhda ijod qilgan shoirlar ichida Sulaymon Boqirg‘oniy alohida o‘rin egallaydi. U Xo‘ja Ahmad Yassaviyning uchinchi xalifasi, yassaviya tariqatining yetuk namoyandasi, o‘z fazilatlari bilan “Hakim” unvoniga sazovor bo‘lgan Sulaymon Boqirg‘oniy — Hakim otadir. 1911-yilda yozilgan Jo‘yborzoda qalamiga mansub “Manoqib”da aytilishicha, Hakim ota (Hazrat Sulaymon) “Qur’oni karim”ga o‘zgacha hurmat ko‘rsatib, darsga borayotib “'Mus’haf”ni boshi uzra ko‘tarib olar ekan. Buni ko‘rgan Ahmad Yassaviy hazratlari uni shogirdlikka taklif etadi. Hakim ota u zotning qo‘lida ta’lim olib, o‘n besh yoshida muridlikni qabul qiladi.

Uning asarlari, xususan “Hikmatlar” nomli to‘plami orqali xalq qalbiga yo‘l topgan, ularni halollikka, sabr-toqatga, din-u diyonatga, komil inson bo‘lishga da’vat etgan. Sulaymon Boqirg‘oniyning hikmatlari asosan axloqiy-ta’limiy, diniy-irfoniy mavzularda bitilgan bo‘lib, ularning tub mohiyatini inson taqdiri va komillik haqiqatlari tashkil etadi. Boqirg‘oniy she’rlarining tili sodda, ifodasi xalqona bo‘lgan. Lekin bu so‘fiy shoir ijodiyotining tub mohiyatini tasavvufiy g‘oyalar tashkil etadi. Boqirg‘oniyning din va tasavvuf, ishq va axloqdan saboq beruvchi asarlari Turkistonda keng tarqalib, sevib o‘qilgan.

Islomiy ilmlarni yaxshi bilgan Boqirg‘oniy she’rlarida “Qur’on” oyatlari, hadislardan iqtiboslar keltiradi. Hikmatlarida oyat va hadislarning ma’no va mazmunlarini singdirib, yaxshilik va yomonlik, savob va gunoh ishlarni anglatib, tushuntirib o‘tadi. Talmeh san’ati orqali ulug‘ Payg‘ambarlar va avliyolar qissalariga murojaat etib, ulardan ibrat olishga chaqiradi.

“Qur’on” va hadisni qanchalik chuqur bilsak, Boqirg‘oniy hikmatlarini ham shu qadar teran anglaymiz. Ulug‘ mutasavvuf bir hikmatida sakkizta turli ma’nodagi oyatlarni keltiradi. Dunyo va oxirat hayotiga tegishli bo‘lgan har bir oyat mazmuni kishini chuqur o‘yga toldiradi,

do‘zax va jannat haqida mushohadaga undaydi. Sulaymon Boqirg‘oniy o‘z o‘gitlarida davriga xos ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik va boshqa illatlar uchun javobgar shaxslarni u dunyo azoblari dahshatini eslatish bilan tarbiyalashga ham intiladi. Insofsiz va imonsiz amaldorlar, nopok ishlar bilan shug‘ullanuvchi haromxo‘r, nodon va johillar hamda bosqinchi, talonchilarni fosh etadi.

Har bir hikmatda muayyan ma’naviy g‘oya ilgari suriladi: halollik, haqiqatgo‘ylik, sabr, mehr, ilm, ibodat va xalq xizmatida bo‘lish — shoir shu qadriyatlarni ulug‘laydi. Masalan:

“Ilm istasang, ilmdin anga amal qil,
Amal qilmasang, ilmdin ne hosil qil?”

Bu misralar orqali shoir ilmni amal bilan bezash kerakligini uqtiradi.

Boqirg‘oniy hikmatlarida hazrat Payg‘ambarimiz alayhissalomga muhabbat ko‘rsatish va u kishiga payravlik qilishni alohida ta’kidlab o‘tiladi. Shuningdek ulug‘ mutasavvif tez-tez insonni tavba qilishga, tavbaga shoshilishga da’vat qiladi. Bu bilan insonni hushyorlikka, o‘zini o‘zi taftish qilishga va eng muhimi hayotda yaxshilik bilan umr o‘tkazib, o‘limga hozir turishga undaydi. Tavbakorlik — tavoze va mujohadadir. Boqirg‘oniyning “Tavba suvi birla yoziq kirlarin” yuvmoqqa chorlashi — badbinlik yoki mavhum g‘ussalardan ko‘z yosh to‘kishga emas, nafsga qarshi kurashga, gunoh-u ma’siyatlarga nadomat qilishga undash edi. Shoirning ko‘ngli “tun-u kun tavba” qilib, undan keyin poklanib, nurlanib Haq “yo‘liga kirish” ni xohlaydi.

Sulaymon Boqirg‘oniy lirik she'rlar yozish barobarida epik asarlar: "Ismoil alayhissalom qissasi", "Me'rojnoma", "Bibi Maryam", "Imom A'zam (“Sobit qissasi” deb ham yuritilgan) kabi dostonlar ham yozib, o‘zbek adabiyotiga munosib hissa qo‘shdi. Mazkur dostonlar, asosan, diniy sujetlar asosida yozilgan bo‘lib, qadim turkiy she'riyat an'analarining barcha xususiyatlarini o‘zida mujassam etganligi bilan e’tiborga loyiq. Chunki dostonlar, asosan, turkiy she'riyatning barmoq vaznidagi to‘rtliklar shaklida hamda til va uslub jihatidan xalqchil uslubda yozilgan. Qo‘lyozmalardagi matniy tafovutlarni ko‘rsatib berish esa alohida tadqiqotni talab qiladi.

O‘tmish adabiy merosimizda Sulaymon Bogirg‘oniy asarlarining alohida o‘rni bor. Uning ijtimoiy-ma'naviy, ta'lim-tarbiyaviy ruhdagi asarlari bugungi kunda ham o‘zining axloqiy va ma'rifiy qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Zero, insonni komillikka, ezgulikka va savobli ishlarni qilishga da’vat etguvchi asarlarning umri boqiy bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hayitmetov A. Hakim ota dostonlari. Tafakkur jurnali, 2003
2. Haqqulov I , Rafiddinov S. Boqirg‘on kitobi – Toshkent, 1991
3. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi – Toshkent: O‘qituvchi, 1976
4. Rafiddinov S, Nodirxon Hasan. Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy Toshkent: O‘zbekiston, 2022

SAYFI SAROYI VA UNING “GULISTON BIT-TURKIY” ASARINING O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXIDA TUTGAN O‘RNI

Sharofova Shaxrinoz
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Annotatsiya*. Ushbu maqolada Sayfi Saroyining o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘rni. Yozuvchining “Guliston bit – turkey” asari, asardagi obrazlar tizimi va janrlar rang-barangligi haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Saroyi” taxallusi, Saroy shahri, Oltin O‘rda, Mamluklar davlati, “Turkiy Guliston”, “Guliston bit – turkey”, hikoyat, she’riy hikoyat.*

Abstract. *In this article, the place of Sayfi Palace in the history of Uzbek literature. The author's work “Guliston Bit Turki”, the system of images in the work and the variety of genres are given.*

Key words: *the nickname “Saroy”, the city of the Palace, the Golden Horde, the Mamluks state, "Turkish Gulistan", "Gulistan is Turkish", story, poetic story.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается место дворца Сайфи в истории узбекской литературы. Приведены авторское произведение «Гулистон бит тюрки», система образов в произведении и разнообразие жанров.*
Ключевые слова: *прозвище «Саройи», город-Дворец, Золотая Орда, государство мамлюков, «Турецкий Гулистан», «Гулистан турецкий», повесть, поэтический рассказ.*

Mumtoz adabiyotimizning atoqli vakillaridan biri Sayfi Saroyi XIV asrda yashab ijod etgan. Manbalarga qaraydigan bo‘lsak shoirning 1321-yili Qamishli qishlog‘ida tug‘ilib, taxminan 1396-yili Misrda vafot etganligiga guvoh bo‘lamiz. “Saroyi” taxallusidan Oltin O‘rda davlatining poytaxti Saroy shahrida ijod qilganligi ma’lumdir. Sayfi Saroyi umri davomida Movarounnahrda va bir muddat Turkiyada yashagan. Sayfi Saroyining quyidagi she’ri uning tarjimayi holiga oid ba’zi tomonlarni yoritishga yordam beradi:

Ilohi, bu qari miskin qulingni
Bag‘ishla ko‘rguzub to‘g‘ri yo‘lingni,
Maliklar rasmidir dilshod qilmoq,
Qarisa qullarni ozod qilmoq.

Sayfi Saroyi bu she’rini Misrda - Mamluklar davlatida yashayotgan paytda yozgan bo‘lib, hayotining so‘nggi yillarini o‘sha yerda o‘tkazgan. U mazkur she’ri orqali hukmdordan o‘z yurtiga qaytish uchun ijozat so‘ragan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, Sayfi Saroyi shoh saroyidagi e’tiborli shaxslardan bo‘lgan. Zamondosh shoirlarga she’riy javoblaridan ham Sayfi Saroyining o‘z davridagi baland mavqei haqida bilib olish mumkin. Quyidagi parcha Sayfi Saroyining tarjimai holiga aniqlik kiritish bilan bir qatorda, adabiyotda o‘z o‘rniga ega shoir bo‘lib tanilganini va e’tirof etilganini dalillaydi:Qamishli yurt manim tuvg‘on elimdi,Bilik g‘urbatg‘a kelturg‘on bilimdi.Kelib o‘ldim Saroyda she’r fidoyi,
Saroyning shoiri, elning gadoyi.Sayfi Saroyining ilmiy merosi to‘la holda bizgacha yetib kelmagan. Sayfi Saroyining adabiy merosidan oz qismi yetib kelgan. Uning bir necha g‘azallari, qasida, qit’a, ruboiylari (uchta forscha ruboiysi ham), “Suhayl va Guldursun” dostoni va Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asarining o‘zbek tiliga qilgan tarjmasi yetib kelgan.

Sayfi Saroyi ijodi haqida gapirar ekanmiz uning “Gulistoni bit-turkiy” asariga to‘xtalmasdan ilojimiz yo‘q. Zotan, bu asar Sayfi Saroyi ijodida katta hajmdagi asar bo‘lish bilan birga, asarga olib kirgan o‘z ijod namunalari XIV asr o‘zbek nasrini va she’riyatini yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tardi. Sayfi Saroyi Shayx Sa’diyning “Guliston” asarini tarjima qilgandan keyin, bu asariga “Guliston bit-turkiy”, ya’ni “Turkiy guliston” deb nom qo‘yadi. Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy” asari ilm ahliga birinchi marta 1915-yili ma’lum bo‘lgan. Sayfi Saroyi “Guliston bit-turkiy”ni tarjima qilar ekan, turkiy tilda so‘zlashuvchi keng kitobxonlar ommasini nazarda tutadi. Shu bois asar tarjimasida arabcha va forscha so‘zlar o‘rniga ko‘proq xalqona iboralardan foydalandi, xullas, tarjimani xalqqa yaqin tilda yaratdi. “Guliston bit-turkiy”ning tuzilishi Shayx Sa’diyning “Guliston” asaridan farq qilmaydi. Asar sakkiz bobdan iborat:

1-bob. Salotin siyrati ichinda turur;
2-bob. Fuqaro axloqi ichinda turur;
3-bob. Qanoat fazilati ichinda turur;
4-bob. Sukut foydasi ichinda turur;
5-bob. Ishq dag‘i yigitlik sifati ichinda turur;
6-bob. Qariliq dag‘i zaifliq sifati ichinda turur;
7-bob. Tarbiyat ta’siri ichinda turur;
8-bob. Suhbat adablari ichinda turur.

Asardagi obrazlar bevosita va bilvosita ijodkorning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga — hikoyatlarni o‘zbekzabon (umuman turkiyzabon) kitobxonga Sa’diy nazarda tutgan mazmun-mohiyatni tushunarli tilda yetkazib berishga qaratilgan. Hikoyatlarda turli toifa obrazlarni — adolatparvar va qonxo‘r sultonlarni ham, oqil va fitnachi vazirlarni ham, ochko‘z va saxiy insonlarni ham, oqil va

kaltafahm davlatmandlarni ham, xullas, har turli toifadagi qahramonlarni uchratamiz. Sultonlar haqidagi hikoyatlar “Guliston” va “Guliston bit-turkiy”ning boshidan o‘rin olgani bejiz emas. Hamma zamonlarda ham insoniyat hukmdorlardan yo namuna olganlar yoki hukmdorlaming adolatsizligidan saboq chiqarganlar yoki ularga o‘z nafratini ifoda etganlar. Ayniqsa, tarixda o‘tgan hukmdorlarga oid hikoyatlar bu jihatdan alohida diqqatga sazovor. Sayfi Saroyi bu singari hikoyatlarda tarixiy haqiqatni buzmagan holda hukmdorlarning esda qoladigan obrazlarini yaratadi. Sulton Mahmud G‘aznaviy otasi Sabukteginni tushida ko‘rganiga oid hikoya, Horun ar-Rashidga oid hikoya shular jumlasidandir. Hikoyalarning birinchisida G‘aznaviylar saltanatining asoschisi Sabuktegin va uning o‘g‘li, G‘aznaviylar davlatini o‘ttiz yildan ortiq boshqargan Sulton Mahmud obrazlari orqali jamiki hukmdorlarning qiyofasini yaratish bilan bir qatorda, ularning urushlar, bosqinchiliklar oqibatida to‘plagan mol-mulki oxiri qolib ketadi, narigi dunyoga bo‘sh qo‘l bilan ketadi, degan bir o‘gitni beradi. Hikoyatlar — Sharq donishmandligining mezoni sifatida taassurot qoldiradi, hikoyatlardan kitobxon o‘z-o‘zidan saboq chiqaradi. Bu turkum hikoyatlarning asosida aksariyat hollarda ustoz va shogird munosabatlari yotadi. Hikoyatlar quruq va’zxonlik yoki nasihat ruhida emas, balki kitobxon o‘ziga kerakli xulosa chiqarib olishiga qaratilgan.

"Guliston bit-tutkiy"da janrlar rang-barangligini ham uchrtamiz. Asardan qit’a, hikoyat va she’riy hikoyatlar o‘rin egallagan. Uning she’riy hikoyatlari ham nasriy hikoyatlari singari, didaktik mazmunda bo‘lib, insonlar o‘rtasidagi ahdu-vafo, sadoqatni madh etadi. U bir necha she’riy hikoyatlar ijodkori. “Gulistoni bit-turkiy” tarkibida ham o‘z she’riy hikoyatlarining ba’zilaridan, jumladan, “Qari bo‘ldung, yigitlikdan aling yuv” she’riy hikoyatidan parcha keltirgan va hikoyatning didaktik mazmuniga alohida urg‘u qaratgan. Hikoyat “teng tengi bilan” naqliga amal qilish lozimligi, yoshi o‘tgan odam yigitning xatti-harakatlarini qilishga bel bog‘lasa, sharmanda bo‘lishi muqarraligi haqida o‘git beradi.

Adabiyotshunos olimlar Sayfi Saroyining ijodidagi ma’no-mohiyatdan kelib chiqib, shunday yuqori saviyali shoirning devoni bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydilar. Ammo hozircha bizga devon tartib berganligi haqida ma’lumotlar yetib kelmagan. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra Sayfi Saroyining adabiy merosi Turkiyada ancha katta qiziqish bilan o‘rganilgan. Jumladan 2017-yilda “Seyfı Saräyïnın gülistan tercümesi’nde geçen Atasözleri ve türkiye türkçesindeki karşiliklari” va 2019-yilda esa “Seyfı saräyïnın gülistan tercümesi’nde metaforalar” mavzusida dissertatsiya himaya qilinganligi, Sayfi Saroyi ilmiy merosining bugungi kunda ham nafaqat yurtimizda, balki Turkiyada ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib, Sayfi Saroyi ijodini o‘rganish orqali Sa’diy Sheroziy ijodini, fors tilida yozilgan “Guliston” asarining turkiy tilga erkin ijodiy tarjimasini o‘rganamiz. Ushbu tarjima orqali Sayfi Saroyining o‘sha davr ilmiy-adabiy jamoatchiligi orasida katta mavqega ega ekanligini anglashimiz mumkin. Shoir ijodida tarbiyaviy-axloqiy ruh ancha sezilib turadi. Ayniqsa, “Guliston bit-turkiy” asaridagi hikoyatlar orqali bugungi kun yosh avlod tarbiyasida munosib foydalanishimiz ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi – Toshkent: Sano-standart, 2017.
2. R. Orzibekov. O‘zbek adabiyoti tarixi – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
3. Sayfi Saroyi. "Gulistoni bit-turkiy". Nasrullo Davron tabdili. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.
4. Sayfi Saroyi. “Gulistoni bit-turkiy”. – Toshkent: Uch bulbul gulshani. G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.
5. Vohidov R, Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA RUBOIY JANRINING O‘RNI

Sarimsoqova Sevinch

Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Annatatsiya. *Maqolada o‘zbek adabiyotida ruboiy janrining shakllanishi, rivojlanishi va adabiy merosdagi o‘rni tahlil etiladi. Ruboi janri orqali ifoda etilgan falsafiy, axloqiy va estetik g‘oyalar, shuningdek, bu janrning shakl jihatdan ixcham, mazmun jihatdan esa chuqur bo‘lishi unga bo‘lgan qiziqishni izohlaydi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab kabi klassik shoirlar ijodida ruboiylar orqali berilgan fikrlar namunalar asosida tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, ruboiy janrining bugungi kunda adabiy-estetik tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati ham yoritiladi. O‘zbek mumtoz she'riyatida ruboiy janri ham ahamiyati va tarqalishi jihatdan g‘azaldan keyingi muhim o‘rinni egallaydi.*

Kalit so‘zlar: *ruboiy, dubayt, falsafiy, diniy, axloqiy, tezis, sintez, antitezis, moddayi ruboiy, ruboiyi xosiy ,ruboiyi tarona , vazn, qofiya, janr, misra.*

Ruboiy arabcha ‘‘arba'tun’’, ‘‘to‘rtlik’’so‘zidan olingan bo‘lib, to‘rt misradan iborat hamda aruzning hazaj bahrida yozilgan she'rni anglatadi. Ruboiyda muayyan falsafiy, diniy, ishqiy, axloqiy yoki ta'limiy-tarbiyaviy mavzu qamrab olinadi. Ruboiydagi to‘rt unsur har bir misrada aytilmoqchi bo‘Igan fikirning to‘g‘ri, badiiy jihatdan yuksak, kompozitsion jihatdan pishiq bo‘lishini ta'minlaydi. Birinchi misra ‘‘tezis” deb ataladi va shoir nazarda tutgan fikrni o‘rtaga tashlaydi. Ikkichi misra—‘‘antitezis’’da birinchisiga qarama-qarshi fikr aytiladi, biroq u tezisning isbotiga xizmat qiladi. Uchinchi misra ‘‘moddayi ruboiya’’ oxirgi u misrada aytilishi kerak bo‘lgan xulosa uchun ko‘prik vazifasini o‘taydi. To‘rtinchi misra_"sintez"da avvalgi uch misradan xulosa chiqariladi, bu narsa shoirning asosiy g‘oyasi sanaladi. Lekin bu unsurlarning doimiy mavjud bo‘lish talabi nisbiy bo‘lib, ko‘pincha tezis va antitezisning o‘rniga faqat moddayi ruboiy va sintezning qo‘llanilganligini kuzatish mumkin.Yuqorida keltirilgan ruboiyda ham oshiq kechinmalari, asosan, moddayi ruboiy tarzida berilgan.Ruboiy o‘ziga xos maxsus vaznda yoziladi. Bu hazaj bahrining axrab va axram shajarasidir. Bu haqda Navoiy ,,Mezonul-avzon‘‘ asarida shunday yozadi: ‘‘Ruboiy vaznikim, oni ‘‘dubaytiy’’va ‘‘tarona’’ ham derlar, hazaj bahrining ‘‘axram’’ va ‘‘axrab’’idin istixroj qililbdurlar va ul vaznedur asru xushoyanda va vaznedur bag‘oyat raboyanda’’. Hazaj bahrining axrab shajarasi 12 vaznni, axram shajarasi yana 12 vaznni o‘z ichiga oladi va ushbu jami. 24 vazn ruboiy vaznlari hisoblanadi.

‘‘Ruboiy, to‘rt misraga sig‘dirilgan butun bir she'riyat dunyosi, insonning g‘oyat xilma-xil va juda boy fikr-hislari,’’qalb dialektikasining ajoyib tarjimonidir’’. ‘‘Xazoyin ul-maoniy’’da ruboiy janrining ham o‘ziga xos o‘rni bor. Ruboiy (ar. ‘ ‘to‘rtlik’’) ikki baytdan iborat mustaqi she'rdir, dastlab fors-tojik she'riyatida, Abu Abdulloh Rudakiy ijodida paydo bo‘lgan. Turkiy adabiyotda ruboiy janrining dastlabki namunalari Hofiz Xorazmiy devonida uchraydi. Uning jami 12 ta ruboiysi mavjud. Ruboiyning 2 xil turi bor:

1.Xosiy ruboiy yoki ruboiyi xosa (qofyalanishi: a-a, b-a):

Sen borg‘ali ortmish ko‘ngul zorlig‘i,
Oh o‘qlaridin har nafas afgorlig‘i.
Bilman unutulg‘anmu ekandur manga hajr
Yo ko‘prak erur bu qatla dushvorlig‘i

2) taronayi ruboiy yoki ruboiya (qofiyalanishi: a-a, a-a):

Olimda tabibi chorasozim ham yo‘q.
Yonimda rafiqi dilnavozim ham yo‘q,
Tegramda anisi jongudozim ham yo‘q,
Boshimda shahi bandanavozim ham yo‘q.

Dastlabki ruboiylarni fors shoirlari Abu Abdulloh Rudakiy va Shahidi Balxiylar yaratgan. Badriddin al-Qavomiy (XII asr) arab, fors va turk tillarida ruboiylar yaratgan. Turkiy adabiyotda ruboiy janrining dastlabki namunalari Hofiz Xorazmiy devonida uchraydi. Uning jami 12 ta ruboiysi mavjud. “Haft qulzum” asaring muallifi Qabul Muhammad ruboiy janriga shunday ta’rif

beradi: “Bilgilki, ruboiy lug‘atlarda ikki baytli she’r deganidir. Vazn va qofiyada to‘rttala misrasi ham muofiq kelgan she’r ruboiy deyiladi. Ruboiyda aksar birinchi, ikkinchi, to‘rtinchi misralar qofiyadosh bo‘ladi. Maboda uchinchi misra ham kelsa , unga “ruboiy tarona” deb yuritiladi”. XI-XII asrlarda yashagan fors astronomi va matematigi Umar Xayyom ham ruboiynavislikni yuksak pog‘onaga ko‘targan. O‘zbek adabiyotida esa Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ubaydiy, Abdulqodir Bedil, Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy, Komil Xorazmiy kabi ijodkorlar ruboiy janri rivojiga o‘z hissalarini qo‘shganlar.

Hazrat Navoiyni o‘zbek adabiyotida ruboiy janrining asoschisi desak mubolag‘a bo‘lmaydi lekin, 8-sinf adabiyoti darsligida turkiy adabiyotga birinchilarda bo‘lib ruboiy janrini olib kirgan shoir sifatida Mavlono Lutfiy ko‘rsatilgan. Dilmurod Quronovning ‘‘Adabiyotshunoslik lug‘ati’’ kitobida esa Lutfiy to‘rtliklari ramal bahrida yaratilganligi aytilgan.[B-261 Demak, Lutfy to‘rtliklari ruboiy bo‘la olmaydi. Chunki, Yoqubjon Is'hoqov: ‘‘Biror to‘rtlikni ruboiy deb atash uchun unda tugal mazmun, ruboiy shakli bo‘lishidan tashqari ruboiy vazni ham bo‘lishi kerak. To‘rtlik qanchalik chuqur mano va go‘zal shaklga ega bo‘lmasin, agar u ruboiyning maxsus vazniga tushmasa, ruboiy bo‘la olmaydi’’ - deydi. Bu haqda Navoiyning o‘zi ham yozgan edi:‘‘Ruboiy vaznikim, oni ‘‘dubaytiy’’ va ‘‘tarona’’ ham derlar, hazaj ahrining axram va axrabidan istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xushoyanda vazvaznedur bag‘oyat raboyanda’’. Shuninhdek Xondamir o‘zining ‘‘Makorimul-axloq’’ asarida: ‘‘Ko‘rinishicha, ul hazratdan ilgari hech kim turkiy tilda ruboiy aytmagan’’, - deya Navoiy haqida fikr bildiradi. Ushbu ilmiy dalillarga asoslangan holda biz yuqoridagi fikrga keldik. Lekin Lutfiy to‘rtliklari o‘zbek yozma adabiyotida klassik ruboiy janrining shakllanishida muhim bosqich bo‘lgan. Ammo, bu faktlar bilan ‘‘Navoiygacha ruboiy janrida hech kim ijod qilmagan ekanda?’’ - degan fikrga kelish noto‘g‘ri, albatta. Ruboiy so‘zining kelib chiqishi arabcha bo‘lsa-da, bu janr dastlab fors adabiyotida paydo bo‘lgan. Keyinchalik esa arab va turkiy adabiyotga ham ko‘chgan. Fors adabiyotida bu janr asoschisi sifatida Rudakiy ko‘rsatiladi. Keyinchalik esa, Shahid Balxiy ijodida ham ko‘zga tashlangan. Turkiy adabiyotimizda ruboiy janrida xo‘p va ko‘p baytlar bilan o‘zbek adabiyotiga benazir hissa qo‘shgan Navoiyning lirik merosi bilan o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Alisher Navoiyning turkona ruboiylarining 133 tasi "Xazoyin ul-maoniy"ning birinchi devoni – ‘‘Garoyib us-sig‘ar’’ga, ‘‘Badoye ul-bidoya’’ debochasiga 8 ta, ‘‘Mahbub ul-qulub’’ga 12 ta, ‘‘Majolisun-nafois’’ga 8 ta, ‘‘Vaqfya’’ga 15 ta, ‘‘Munshaot’’ga 58 ta, ‘‘Holoti Pahlavon Muhammad’’ga 1 ta, Holoti Sayid Hasan Ardasher’’ga 2 ta, ‘‘Mezonul-avzon’’ga 7ta ,‘‘Muhokamat ul lug‘atayn’’ga 3 ta, ‘‘Xamsatul-mutahayyirin’’ga 3 ta kiritilgan. Olima Ma'rifat Rajabova ozining ‘‘Nazm ul-javohir’’ manbalari va badiiyati" nomli nomzodlik dissertatsiyasida shoirning tarjima asari ‘‘Nazm ul-javohir’’ (‘‘Nasr ul-laoliy’’- ‘‘Marvarid hikmatlar’’asarining she`riy tarjimasi) da ruboiylar soni 268 ta ekani aytilgan.Demak, Navoiy turkiy tilda 500 ga yaqin ruboiy bitgan.

Ruboiylar qofiyalanishiga ko‘ra 2 ga bo‘linadi:ruboiyi xosiy va ruboiyi tarona. Ruboiyi xosiy a-a-b-a tarzida, ruboiyi tarona esa a-a-a-a tarzida qofiyalanadi. Navoiyning o‘zbekcha ruboiylarining 95 foizi, forsiy ruboiylarining hammasi ruboiyi taronaga to‘g‘ri keladi. "Mahbub ul-qulub"dagi ba’zi ruboiy ham ruboiyi taronada yozilgan.

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish
El anga shafiqu mehribon bo‘lmas emish
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa
Bulbulga tikandek oshyon bo‘Imas emish

Bu ruboiy "G‘aroyib us-sig‘ar"dan olingan bo‘lib, shoir uni hozirgi Eronning Mashhad shahrida musofirlikda yurgan vaqtlarida yozganligi aytiladi. Buni ruboiy nazmunidan ham bilish mumkin. Yaniki, ruboiyning birinchi va ikkinch misrasida: "musofirlikda inson xursand bo‘la olmasligi, o‘zga yurt vakillar begonaga mehribonlik qilmasliklari", - aytilgan. Buning dalili sifatida esa: "bulbul qafas oltindan bo‘lsa ham o‘zining tikonli erkin vataniga alishmasligi" keltirilgan Buni dastlabki ikki satrda aytilgan umumiy fikrning qiyosiy isboti deyish mumkin.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Navoiy ruboiylarining 95 foizi taronai ruboiyda yozilgan. Ushbu ruboiy esa qolgan 5 foiz tarkibidagi ruboiylardan. Yani, ruboiyi xosiyda yozilgan.

Ruboiyni tushunib, undan zavq olish uchun, avvalo, misralar zamiridagi ma’nolarni obdon anglab olish lozim. Zero, Sharq adabiyotining o‘ziga xos jihati, har bir shakliy vosita muayyan mazmunning ifodasiga mutanosib ekanligidadir. Navoiy ruboiylarida aynan shu narsani ko‘rishimiz mumkin. Yani, ularda shakl va ma’no uyg‘unligi mujassam. Ruboiy — o‘zbek adabiyotining bebaho janrlaridan biri bo‘lib, unda xalqning ma’naviy olami, falsafiy dunyoqarashi va hayotiy tajribalari mujassamdir. To‘rt satrda butun bir fikr, tuyg‘u va hayot haqiqatlarini ifoda etish imkoniyati ruboiyga xos bo‘lgan yuksak badiiy mahoratni talab etadi. Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab kabi mutafakkir shoirlar ijodida bu janrning yuksak namunalarini ko‘rish mumkin. Bugungi kunda ham ruboiy janri o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki yangi mazmun va shakllar bilan boyib, adabiy-estetik tarbiya vositasi sifatida o‘zbek adabiyotida munosib o‘rin egallab kelmoqda. Shu bois ruboiy janrini chuqur o‘rganish, uni yosh avlod qalbiga singdirish — milliy adabiy merosimizni asrash va rivojlantirishning muhim qismidir.

Foydalanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov ‘’Navoiyshunoslik’’ -Toshkent ‘’Akademnashr’’ , 2020
2. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M, Adabiyotshunoslik lug‘ati. -T: Akademnashr , 2013.
3. „Navoiyning badiiy mahorati’’ (1979)
4. Alisher Navoiy. „G‘aroyib us-sig‘ar’’
5. E. Ochilov Ruboiy gulshani. T: „O‘zbekiston’’, 2010
6. Anvar Hojiahmedov. Mumtoz badiiy malihati. – Toshkent, 1999.

ABU MANSUR SAOLIBIYNING IJODIY FAOLIYATI

Rajabova Aziza
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 961-1038-yillar oralig‘ida yashab o‘tgan adabiyotshunos, tazkirachi va tarixchi olim Abu Mansur Saolibiyning hayoti va ijodiy faoliyati va uning “Yatimat ad-dahr’’ va “Tatimat al-Yatima’’ tazkiralari, uning yozilish sabablari va unda zikr qilingan shoirlar, tazkiralarning o‘ziga xos xususiyatlari va asarning umumiy tarkibiy tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Yatimat ad-dahr”, ‘’Tatimat al-Yatima’’, shoirlar, tazkira, arab tili adabiyoti.*

Annotation. *The article contains information about the life and creative work of Abu Mansur Saolibi, a literary scholar, commentator, and historian who lived between 961 - 1038, and his commentary "Yatimat ad-Dahr", the reasons for its writing and the poets mentioned in it, as well as the genre characteristics of the poems in the work and the general structural structure of the work.*

Key words: *“Yatimat ad-dahr”, “Tatimat al-Yatima”, poets, tazkira, Arabic language literature.*

Ma’lumki, Sharq xalqlari adabiyotida ko‘plab olimlar, shoirlar va mutafakkirlar yetishib chiqqan bo‘lib, X-XI asrlarlarda Nishopurda yashab ijod qilgan, adabiyotshunos, tilshunos, tarixchi olim Abu Mansur Saolibiy ham ana shunday shaxslar sirasiga kiradi. Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil Saolibiy 961-yili Nishopurda tug‘ilgan. Olim fanning turli soxalari, xususan tarix,adabiyot,mantiq, arab tili kabi fan sohalarda samarali ijod qilgan va Abu Bakr Xorazmiy degan donishmanddan ta’lim olgan. Olim asosan tulki terisidan po‘stin tikib, sotish bilan shug‘ullangani uchun “as-Saolibiy” degan mashhur laqabni olgan. Ma’lumki, “Saolib’’ arabchada “sa’lab’’ yani tulki so‘zining ko‘pligi ma’nosini anglatadi. Saolibiy ko‘plab mamlakatlarni kezib sayohat qiladi va 993 yilda Buxoroga kelib bir muddat shu yerda yashaydi va u yerdan Xorazmga o‘tadi. Saolibiyning safari Xorazmshoh Ma’mun (997-1017) davriga to‘g‘ri kelgan.

Abu Mansur Abdumalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy 350 (961)- 429 (1038)-yilllarda yashab ijod etgan va ko‘plab o‘lkalarni kezib 50 dan ortiq ilmiy asarlar yozgan olim.

Shulardan biri “Yatimat ad-dahr” asaridir. Bundan tashqari shoirning xuddi Firdavsiyning “Shohnoma”si singari “G‘urar axbor muluk al-furs va siyaruhum” nomli arab tilidagi asari ham mavjuddir. Ushbu tarixiy asarni Saolibiy Xuroson hokimi,harbiy qo‘mondon Abu Muzaffar ibn Nosiruddinga bag‘ishlagan. Asar aynan o‘sha hokimning buyrug‘i bilan yozilgan. Beruniydek alloma ham “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida Saolibiyning yuqoridagi asarini ayrim voqealarni tasvirlash jarayonida qayd etib o‘tadi.

Shuningdek, Saolibiyning “At-Tamassul va-l-muhozarat” (“O‘xshatish uchun olingan so‘zlar va suhbatlar”) va “Mubhij” (“Ko‘ngil ochuvchi”) nomli asarlari ham bo‘lib, ular Jurjon hokimi Qobus ibn Vashmgirga bag‘ishlangan.Chunki, Saolibiy uning saroyida yashab ijod qilgandi.Ma’lumki,Beruniy ham “Osorul-boqiya” asarini Vashmgirga bag‘ishlagan va u ham Jurjonda bir necha muddat yashab o‘tgandi. Ya’ni, o‘sha davrda allomalar, ijodkorlarning qaysidir hukmdor, hokimga atab o‘z asarini bag‘ishlashi oddiy hol, an’ana tusini olgandi. Biz uchun eng ahamiyatlisi esa muallifning “Yatimat ad-dahr” asari hisoblanadi.Chunki, ushbu asarida muallif Xorazmda yashab ko‘rgani uchun tabiati, ayniqsa, sovuq qishi to‘g‘risida hayratlanarli fikrlar keltiradi:” Xorazm Tangrining eng sovuq joylaridan biridir.Hatto, u yerda qishda Amudaryo muzlab, uning tepasidan fil, karvon, va askarlar o‘tadi, u qirq kundan ikki oygacha muzlagan holda qoladi”. Ayni qish pallasida Xorazmshoh Ma’mun ibn Ma’mun Saolibiyni qabul qilgandi. O‘shanda Nishopur , arab cho‘llarining issig‘iga o‘rgangan olim, sovuqdan qalt-qalt qilib turardi. Biroz isinib olgach,Xorazmshoh nishopurlik olimdan qishning qatiqligiga oid fikrini so‘radi.Shunda u shohga she’r bilan javob beradi.Quyidagi fikrlar uning she’ri mazmunidir:“Xudo haqqi, agar Xorazmning sovug‘i quturib “tishlasa”, badanlarimiz momoqaldiroqqa o‘ralib qoladi, quyosh yuzini bekitib, shamol badandan qon chiqarib yuboradi…suv toshga aylanib, it iniga kirib ketadi.Agar oshiq mash’uqasini o‘padigan bo‘lsa, og‘zi uning og‘zida muzlab qoladi”. Shuningdek, muallif o‘z asarida Xorazmdan boshqa joylarga qul, qo‘ylar, mo‘yna, ayniqsa, qizil va qora tulki mo‘ynalari, ajoyib yoylar, tuzlangan baliq, rahqin (pishloq), ipak gazlamalar olib ketilib sotilganini yozgan. Saolibiyning yuqoridagi asari tazkirachilikning ilk ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, ‘‘Yatimat ad-dahr” ya’ni (“Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonalari”) va unga qo‘shimcha manba sifatida “Tatimmat al- Yatima”nomli asarini yozgan. As-Saolibiyning nomini dunyoga tanitgan ushbu asar asosan to‘rt qismdan iboratdir. Asardagi har bir qism 10 ta bobdan tashkil topadi. Asarda shoir o‘zning uslubiy manerasini ijodkor sifatida qo‘llaydi. Tazirada zikr etilgan movarounnahr va xurosonlik shoirlar hayoti yoritiladi. Ushbu tazkirani as-Saolibiy bir necha marotaba qayta tahlil etib X-XI asrda yana yangi shoirlarni kiritib boradi.

Saolibiyning “Yatima ad-dahr” asarida ham Xorazmga doir ko‘pgina qimmatli ma’lumotlar bor.Eng e’tiborlisi shundaki, ushbu asarning to‘rtinchi bobi orqali hanuzgacha ko‘pchilikka ma’lum bo‘lmagan xorazmlik ijodkorlar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin.Ular Abu Bakr Muhammad al-Xorazmiy, Abu Said Ahmad ibn Shabib ali-Shabibiy, Abul Hasan Ma’mun ibn Muhammad ibn Ma’mun, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ibrohim at-Tojir al-Vazir, Abul Muhammad Abdulloh ibn Ibrohim ar-Raqqoshiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Hamid al-Xorazmiy, Abul Qosim Ahmad ibn Zirg‘omdir. Saolibiy Xorazmlik shoirlardan Abu Abdulloh Muhammad ibn Homid al-Xorazmiy haqida shunday ta’rif berib o‘tadi: “Xorazmning eng yaxshilarining yaxshisi va uning eng ko‘zga ko‘ringan kishisi, har qanday fazilat egasi, haqqoniy so‘z va buyuk adabni o‘zida mujassamlashtirgan, sochilgan fazilatlarni o‘zida jamlagan va maqtalgan marvarid donalarini nazmga tizgandi.Uning hayoti go‘zallik qismlarini to‘la egallagan, nasri sochilgan atir gulday, nazmi terilgan durday edi”.“Yatimat at-dahr”da shuningdek Buxoroda yashagan 47 nafar arabiynavis shoirlar to‘g‘risidagi ma’lumot ham bor.Saolibiy ularning she’rlaridan ayrim parchalar ham keltirib o‘tgan. Abul Qosim ad-Dovudiy,Abu Muhammad al-Hiraviy, Abu Sa’d al-Hiraviy,Zafar al-Hiraviy, Abu Mansur al-Hiraviy, as-Soviy singari ijodkorlar ham Saolibiyning “Yatimat at-dahr” asaridan o‘rin olgan bo‘lib, ular Hirotlik

shoirlar edi.Shu kabi ushbu asarda Nishopurlik,Tuslik,Balxlik ijodkorlar to‘g‘risidayam ko‘plab ma’lumotlar, ularning ijodi va hayotiga ta’riflar berib o‘tadi. As-Saolibiy “Yatimat ad-dahr” asarini tugatgandan keyin ham o‘z ustida ishlab turli shaharlarga sayohat qiladi. “Tatimat al-Yatima” (Yagona durdonaga qo‘shimcha) asarida she’riyat olamida tanilgan va o‘z o‘rniga ega bo‘lgan 209 shoir va ilm ahlini kiritadi. Shoir o‘zi ta’kidlaganidek: “Qo‘shimchasiz bu asar to‘liq hisoblanmagan bo‘lar edi. “Yatimad ad-dahr” dagi uslub va mahorat “Tatimmat al-Yatima”da ham o‘z jilosini ko‘rsatadi”Xulosa qilsak, asar mana shu yillar davomida yozilgan “Tatimmat al-Yatima” asarida ijodkor uchun asosiy obyekt bu shoirning o‘zi ko‘rgan shoirlar edi. Asarda zikr etilgan ijodkorlarning she’rlarini As-Saolibiy shoirlarning o‘zidan yoki munshidlaridan yozib olgan. Mana shundan Movarounnahr va Xurosondan yetishib chiqqan shoirlar 104 nafari edi. “Tatimmat al- Yatima” asari ham “Yatimmad ad-dahr” singari 4 qismdan iborat:

“Birinchi qism. Shom (Suriya) va al-Jazira xalqdan chiqqan fozil ahli 48 ta shoir haqida ma’lumot beradi.

Ikkinchi qism. Iroq ahlining 32 ta fozillari va ularning she’rlaridan na’munalar keltiradi. Uchinchi qism. Ray, Hamadon, Isfahon va Jabal viloyatlardagi shoirlar va ularga qo‘shni viloyatlar Tabariston, Jabal fozillari haqida, jami 25 shoir va ularning asaridan namuna keltiriladi.

To‘rtinchi qismda G‘aznaviylar davrida yashagan Xuroson, Movoraunnahrlik 104 nafar shoir va ularning she’rlaridan namuna keltiradi. “Tatimmat al-Yatima” tazkirasi asarida birorta shoirning ijodiga oid asarlari yoki hayotiga oid ma’lumot to‘liq keltirilmagan. Abu Mansur as-Saolibiy ‘’Yatimat ad-dahr” tazkirasini yozgan davri 994-1000 yillarga to‘g‘ri keldi. Bu paytda shoir Nishopurda istiqomat qilgan. Asarni birinchi qismi tugatilganda so‘ng shoir yana ko‘plab joylarga sayohat qilib, ko‘pgina shoirlar va adiblar bilan tanishadi. Shu boisdan, endilikda asarni qayta to‘ldirish zaruriyati paydo bo‘ladi. O‘z tazkiralarida birorta shoirga nisbatan mukammal baho berishi mumkin emas. Chunki ijodkor “Yatimmat ad-dahr”dek ushbu tazkiraga ko‘p vaqt sarflamagan. “Tatimmat al-Yatima” tazkirasidan joy olgan she’rlar qasida, g‘azal, vasf va hajvlardan tashkil topgan. Asar 1011-1017 yillarda yozilib, yangi boblardan tashkil topadi. Abu Mansur as-Saolibiy asarni Xorazm shohi Ma’munga taqdim etadi.

Xulosa qilib aytganda, Mansur as-Saolibiy o‘zining keng qamrovli ilmiy faoliyati bilan arab madaniy merosiga katta hissa qo‘shgan. Uning adabiy-antologik asarlari o‘z davrining shoirlari va olimlari haqidagi qimmatli ma’lumotlarni saqlab qolgan. Saolibiy asarlari bugungi kunda ham arab tili va adabiyoti bilan shug‘ullanuvchi olimlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. U ijodkor sifatida nafaqat tarixiy ma’lumotlarni yig‘gan, balki ularni o‘ziga xos uslubda tahlil ham qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Mansur as-Saolibiy “Tatimmat al-Yatima” Toshkent., “Fan”-1990.
2. H.Homidiy, Sh.Abdullayeva.“Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati” Toshkent., “O‘qituvchi”-1970.
3.Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. I jild. –T.: “Fan”, 1978.
4. Fitrat. A. Adabiyot qoidalari. 1995-T. Fan-B.21
5. Abdullayev I., Abu Mansur as -Saolibiy, T., 1972.
6. Sulaymonova H.,Monografiya.T. 202"

JALOLIDDIN RUMIY MEROSI VA UNING BUGUNGI KUNDA TUTGAN O‘RNI

Feruzabonu Po‘latova
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk mutasavvuf va shoir Jaloliddin Rumiyning hayot faoliyati, ilmiy merosi, asarlarining g‘oyalari qanday qadrlanayotgani, jahon madaniyatidagi o‘rni, insoniyatni birlashtiruvchi ruhiy qadriyatlar targ‘ib etilayotgani tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Balx shahri, Muhammad Bahouddin Valad, “Ichingdagi ichingdadir”, “Ma’naviy masnaviy”, “Makotib”, “Horut va Morut qissasi”, g‘azal, ruboiy, hikoyat.*

Abstract: *This article analyzes the life and work of the great mystic and poet Jalaluddin Rumi, his scientific heritage, how his ideas are valued, his place in world culture, and the promotion of spiritual values that unite humanity.*

Key words: *Balkh city, Muhammad Bahauddin Walad, “What is within you is within you”, “Spiritual masnavi”, “Makotib”, “The story of Horut and Marut”, ghazal, rubai, story.*

Аннотация: *В статье анализируется жизнь и творчество великого мистика и поэта Джалалуддина Руми, его научное наследие, то, как оцениваются идеи его произведений, его место в мировой культуре, а также пропаганда духовных ценностей, объединяющих человечество.*

Ключевые слова: *город Балх, Мухаммад Бахауддин Валад, «То, что внутри тебя, то внутри тебя», «Духовный маснави», «Макотиб», «История Хорута и Марута», газель, рубаи, рассказ.*

Mavlono Jaloliddin Rumiy donishmand, mutasavvuf, shoir, inson qalbini chuqur anglagan mutafakkir, tasavvufdagi mavlaviya tariqatining asoschisidir. Shoirning hayot tarixiga ko‘ra, u hijriy 604-sananing rabiul avval oyining oltinchi kuni (30-sentabr milodiy 1207-yil)da Balx shahrida tug‘ilgan va umrining ko‘p qismini Konya (hozirgi Turkiya)da o‘tkazgan. Uning otasi – Muhammad Bahouddin Valad zamonaning mashhur so‘fiysi, fiqh donishmandi, notiq va’zxoni bo‘lgan.

Uning hayoti, ijodi va ilmiy qarashlari faqat o‘z davrining emas, balki bugungi kunning ham dolzarb masalalarini qamrab oladi. Rumiy ilmiy merosining asosiy qismini “Ma’naviy masnaviy”(“Fihi mohi fihi”), “Ichingdagi ichingdadir”, “Makotib”kabi mashhur asarlari hamda she’riy devonlar, g‘azallar, ruboiylar tashkil qiladi.

“Ichingdagi ichingdadir” nasriy asar bo‘lib, olimning turli majlis va suhbatlardagi falsafiy nutqlarining majmuasidir. Ushbu asar insonni fikrlashga, fikr orqali o‘zligini, o‘zligi orqali Haqni – Yaratganni tushunishga undaydi. Asar ulug‘vorlik va soddalikning bir makon-u bir zamonda sig‘inib yashashining go‘zal namunasidir. „Makotib“ esa muallifning zamondoshlari va ustozlari bilan bo‘lgan turli yozishmalari – maktublaridan iborat. Har 2 asarda muallifning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta’limiy mushohadalari, tasavvufga doir nazariy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Rumiy tasavvufga ilmiy asos berib, uni ma’naviy tarbiya maktabiga aylantirdi. U ilmni nafaqat aqliy mashg‘ulot, balki qalbni tarbiyalovchi kuch deb bilgan. Shu jihatdan uning asarlari zamonaviy pedagogika, psixologiya va axloqshunoslik fanlari uchun ham muhim manbadir.

„Ma’naviy masnaviy“ asarida Qur’oni karim va Hadisi sharif ma’nolarini o‘ziga singdirgan, inson hayoti bilan bog‘liq barcha masalalar badiiy yo‘sinda bayon etilgan. 6 jild (daftar)dan iborat asarning dastlabki qismlarini adibning shogirdi Hisomiddin Chalabiy ustozi og‘zidan yozib olib, tahlildan o‘tkazgan. Chalabiy vafotidan so‘ng muallif asarning davomini 10 yilda yozib tugatadi. Qur’oni karim oyatlarining 70 foizi mohiyatini o‘zida mujassamlashtirgan, 270 dan ziyod hikoyalarni, yuzlab pand-u hikmatlarni o‘z ichiga olgan bu kitob o‘z vaqtida va keyinchalik ham yozuvchi nomining dunyoga keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Chunki Rumiy masnaviyda o‘zigacha bo‘lgan Sharq-u G‘arb donishmandlarining falsafiy qarashlarini, islomiy farzlarni sodda bir uslubda, she’riy yo‘l bilan badiiy ifodalagan. Agar Rumiy “Har ertalab bemorlar shifo tilab Iso alayhissalom eshigiga borishgani”, ‘‘Lochinning o‘rdaklarni sahroga chiqargani’’ , “Zarvon ahli qissasi’’, ‘‘Majnun Layli ko‘yida yurgan itni o‘pib, erkalagani’’, ‘‘Bo‘yoqchining xumiga tushgan shaqalning tovuslik da’vo etgani’’, ‘‘Horut va Morut qissasi’’ singari qissa va hikoyalarida payg‘ambarlar hayotidan turli mo‘jizalar keltirib, islomiy tasavvufiy g‘oyalarni targ‘ib etgan bo‘lsa, boshqa turkum hikoyalarida bevosita insonning kundalik turmushi, ilm-ma’rifat kasb etishi, hunar o‘rganish yo‘lidagi riyozatlarini badiiy tasvirlab, chuqur falsafiy xulosa chiqarishga undagan.

Rumiy she’riyati, asosan, ilohiy ishq bilan bog‘langan. U o‘zining barcha asarlarida yer-u ko‘kning sohibi bo‘lmish Alloh va uning zamindagi xalifasi hazrati insonni ulug‘laydi.

Jaloliddin Rumiy ijodi bugungi kunda ham butun dunyoda keng o‘rganilmoqda. Uning asarlari o‘nlab tillarga tarjima qilingan, g‘oyalari esa ko‘plab ilmiy anjumanlar va konferensiyalarda muhokama etiladi. Ayniqsa, Rumiyning insonparvarlik, tinchlik, tolerantlik va ma’naviy uyg‘onish haqidagi qarashlari XXI asr uchun ham o‘ta muhim.

Zamonaviy jamiyatda insonlar ko‘proq moddiy qadriyatlar tomon intilayotgan bir vaqtda, Rumiy g‘oyalari bizga ma’naviy muvozanatni tiklash, qalbni poklash, mehr va sabrni qadrlashni eslatadi. U: “Sen o‘zingni o‘zgartir, dunyo o‘zgarmasa ham, sening ko‘zoynaging o‘zgaradi” — deya ruhiy kamolotga chaqiradi.

Jaloliddin Rumiy ilmiy va ma’naviy merosi — bu insoniyatga qoldirilgan bebaho boylikdir. Uning asarlaridagi bilimlar, hikmatlar, tasavvufiy qarashlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, yanada chuqurroq qadrlanmoqda. U nafaqat o‘z davrining allomasi, balki bugungi insoniyatga ham ruhiy yo‘l ko‘rsatuvchi ma’naviy ustoz bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jaloliddin Rumiy Ichingdagi ichingdadir – Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2017
2. Jaloliddin Rumiy Ma’naviy masnaviy – Toshkent: Fan nashriyoti, 2003
3. Tohir Qahhor – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022
4. Radiy Fish – Toshkent: Gafur G‘ulom nashriyoti, 2005

ORFOEPIYA MASALALARI

O‘lmasova Dilshoda
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Annotatsiya:*Ushbu maqolada orfoepiya haqida va orfoepiyaning hayotimizdagi tutgan o‘rni,shuningdek,uning yozma va og’zaki nutqimizga ta’siri haqida aytib o‘tilgan.Bundan tashqari,aholi o‘rtasida to‘g'ri talaffuzni shakllantirish uchun nimalar qilish kerakligi haqida takliflar berilgan.*

Аннотация:*В этой статье обсуждается орфоэпия и ее роль в нашей жизни, а также ее влияние на нашу письменную и устную речь. Кроме того, даются рекомендации о том, что следует делать для поощрения правильного произношения среди населения.*

Abstract: *Three articles discuss orthoepy and its role in our lives and its impact on our written and spoken speech. In addition, suggestions are given on what should be done to promote correct pronunciation among the population.*

Kalit so‘zlar: *to‘g'ri talaffuz,adabiy talaffuz qoidalari,yechim,lahjalar,targ'ibot ishlari.*
Ключевые слова: *правильное произношение, правила литературного произношения, решение, диалекты, пропагандистская работа.*
Keywords: *correct pronunciation, rules of literary pronunciation, solution, dialects, propaganda work. Keywords: correct pronunciation, rules of literary pronunciation, solution, dialects, propaganda work.*

Kirish. Insonlar bir-biri bilan muloqat qilishi uchun o‘z nutqlaridan foydalanadi.Tilshunoslikning orfoepiya bo‘limida so‘zlarni,ularning tarkibidagi tovushlarni,shuningdek,o‘zak va qo‘shimchalardan iborat so‘z formalarini to‘g'ri talaffuz qilish o‘rganiladi.Afsuski,hozirgi kunda barcha uchun tushunarli bo‘lgan adabiy til til me’yorlariga rioya qilish kamdan kam kuzatiloqda.O‘z-o‘zidan savol paydo bo‘ladi,har bir kishi orfoepiya normalariga rioya qilmoqdami?

Asosiy qism. Biz bilamizki,to‘g'ri talaffuz nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri sanaladi,biroq davlatimiz tomonidan adabiy talaffuz qoidalari ishlab chiqilganicha yo‘q.Bunday qonun bo‘lgan taqdirda ham aholini talaffuz normalariga rioya qilishga majburlab bo‘lmaydi.Bunga shunday yechim topish kerak-ki,hozir xato hisoblanayotgan holatlar kelgusida kuzatilmasin.Negaki,orfoepiyaga rioya qilishimiz bizni og'zaki va yozma nutqimizga o‘z ta’sirini

ko‘rsatmasdan qolmaydi.Chunonchi,insonlar orasida so‘zlarni noto‘g'ri talaffuz qilib va aytib turilgan so‘zlarni o‘zimiz qanday talaffuz qilsak, shunday yozib,uyalib qolmaslik uchun ham zarurdir.Shuni ham inobatga olish kerak-ki,mamlakatimiz turli-tuman lahjalarga boy o‘lka bo‘lganligi natijasida har xil lahjalarda gaplashadigan insonlarni uchratamiz.Ularning ongiga o‘z shevalarida gaplashish singib,odat tusiga kirganligi sababli talaffuzini o‘zgartirishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin,shuning uchun endi ulg'ayib kelayotgan bolalarga birinchi navbatda,bog'cha,umumta’lim maktablarda tarbiyachi va o‘qituvchilar tomonidan adabiy til me’yorlariga mos holda ta’lim-tarbiya berilsa,kelajak avlodlarda talaffuzni buzish holatlari kuzatilmaydi.Hozirda maktablararo o‘tkazilayotgan she’rxonlik kechalari,kitobxonlik,ijodiy tadbirlar va konferensiyalarda ham adabiy til me’yorlariga mos talaffuz qilinsa,maqsadga muvofiq bo‘lar edi.Afsuski,shahar tipdagi joylarga qaraganda,chekka hududda yashovchilar bunga amal qilmaydi.So‘zlarni qo‘pol tarzda buzish holatlari:opa-apa,aka-oka,dada-ada,soch-chach,yo‘l-jo‘l,ona-una,yetti-jetti,tog'-tov kabi so‘zlar qatorini minglab keltirish mumkin.Shu kabi so‘zlarni kamaytirish uchun targ'ibot ishlarini umumta’lim maktablardan boshlash zarur.Zero,”Bo‘ladigan bola boshidan ma’lum”,-deb bekorga aytilmagan.Maktab darsliklarining ko‘p qismi yangilangani bois darsliklarda o‘quvchilarning talaffuziga urg'u berilgan.Masalan,audiomatnlar nutqi va o‘quvchilar nutqini diktafonga yozib olib,ikkalasini eshittirib,bir-biriga qiyoslanilsa ham yaxshi samara beradi.Bundan tashqari, davlatimiz oldidagi asosiy ustuvor masala “Orfoepiya qoidalar”ini ishlab chiqib,xalqqa joriy qilishdir.

Xulosa

Muxtasar qilib aytganda, to‘g'ri talaffuz qilish nafaqat biz uchun va yutimiz kelajagi uchun ham muhimdir.Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda,insonning nuq faoliyati umumiy nuqtai nazardan murakkab,ko‘p qirrali hisoblanadi.Mana shunday qiyin vaziyatlarga duch kelmaslik uchun adabiy til me’yorlariga mos talaffuz qilish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.H.Jamolxonov.Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Toshkent-“Talqin”-2005.
2.M.T.Irisqulov.Tilshunoslikka kirish.Toshkent.
3.”O‘zbek xalq maqollari”.Toshkent.-2019.

GULXANIY VA UNING “ZARBULMASAL” ASARI XUSUSIDA

Olimova Shohsanam Jahongir qizi
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Muhammad Sharif Gulxaniyning hayoti, “Zarbulmasal” asarining yaratilish tarixi, asarning g`oyasi, mazmuni, kompozitsiyasi ochib berilgan. Qushlar timsollari orqali yozuvchining badiiy mahorati, insonlarning xarakteri, davr muhiti yaqqol ko`rinadi. Gulxaniy haqida ma’lumotlar boshqa asarlarda uchrashi hamda “Zarbulmasal”ga o`xshash asarlarning yaratilganligiga to`xtalinadi.*

Kalit so‘zlar*: Muhammad Sharif Gulxaniy, Ho`qand, Ko`histon, O`ratepa, o`t yoquvchi, rus sharqshunoslari, ramz, kinoya, masallar, maqollar, satirik, quda-andachilik, sovchilik, mahr, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, yechim.*

O‘zbek adabiyoti tarixida o`zining ramziylik, majoziylik ma’nolari bilan iz qoldirgan Muhammad Sharif Gulxaniy XVI-asrining oxiri XIX-asrning 20-yillarida yashab ijod qilgan. Shoir haqida ma’lumotlar hayotlik paytida yaratilgan “Majmuai shoiron”da, Qori Rahmatullohning “Tuhfat ul-ahbob”, Dilshod Otinning “Sabot ul- bashar” kitoblarida uchraydi. Adabiyotshunos olim Po`latjon Qayumov “Tazkirayi Qayyumiy”asaridan kelib chiqib, Gulxaniyning Ho`qand shahrining Sarbotur mahallasida tug`ilganligini ta’kidlasa, boshqalar uning yurti Ko`histon (tog`lar diyori) deya tahmin qilishadi. Asl ismi Muhammad Sharif Gulxaniy esa taxallusi. Gulxaniy so`zining “o`t yoquvchi” ma’nosini anglatishiga ko`ra u hammomda ushbu kasb bilan shug`ullanganligi tog`risida qarashlar bor. Otasi tojik millatiga mansub, onasi o`zbek. Yoshligidayoq otasidan erta yetim qolgan Muhammad Sharif askariy mulozim lavozimida saroyda

xizmat ko`rsata boshlagan. Uning shoirlik qirralari fors-tojikcha g`azallar bitishi hamda “Zarbulmasal” asarini yaratishda namoyon bo`lgan. Asar XIX-asrning 80-yillarida rus sharqshunos olimlari nazariga tushib, yuksak baholangan. 1980-yil Qozon universitetining bosmaxonasida ruschada ham nashr qilingan. 300 dan ortiq xalq og`zaki ijodi mahsuli bo`lmish maqollarni o`z ichiga olgan san’at namunasida hikoya xulosasi-matal, matal mazmuni-hikoya usulida bayon qilinadi. Didaktik, tarbiyaviy ahamiyatga molik, murakkab majozlarni tarkibida o`xshatish, ramz, kinoya, qochirimlar yetakchilik qiladi. “Zarbulmasal” so`zining asl ma’nosi arabcha so`zdan olingan bo`lib “masallar yig`indisi”, “maqollar ta’mi” kabi ma’nolarni anglatadi. Zarbulmasal asariga o`xshash boshqa “Jome ut-tamsil”, Kalila va Dimna”, “Ming bir kecha”, “Marzbonnoma”, “Sinbodnoma”, “Qobusnoma”, “Guliston” asarlari mavjud. Ulardan eng ahamiyatga molik sifatida qaraladigan “Zarbulmasal” sotsial-satirik yo`nalishda yozilgan. Kitobda oilaviy munosabatlar, quda-andachilik, sovchilik, mahr, o`sha davrdagi ijtimoiy jamiyatdagi insonlar hayoti aks etadi. Kitob yozilgan vaqtda Xo`janddan Jizzaxgacha bo`y cho`zgan O`ratepa muammolari hal bo`layotgan edi. O`ratepada 1817-yildan boshlab Amir Umarxon boshqaruviga o`tdi. Adabiyotshunos Zohidovning fikrlariga qaraganda, asarda yolg`iz Farg`ona qalamga olinmaydi. Gulxaniy yashagan davrdagi din vakillari, mansabparastlik, xato qiluvchi kotiblar,qadimiy urf-odat sifatida qarab kelinayotgan to`y-marosimlar,ularda yo`l qo`yilayotgan hashamat, mahr masalalari ham ko`ringan. Sayyid Muhammad Umarxon davridagi muhit birmuncha yomon ekanligi, Ko`rqush tilidan Umarxon davrida boyqushbop biror vayrona qolmaganligi tarzida kesatiq qilingan. Asarda hayvon hasharotlar, kishilar, qushlar obrazlari orqali insonlar xarakterlari ochib berilgan. “Zarbulmasal” dagi bosh qoliplovchi hikoya, ya’ni eskpozitsiya Boyog`li va Yapaloqqush timsollari yoritilishi bilan yuzaga chiqadi. Ya’ni ekspozitsiya Farg`ona iqlimida davlatli Boyog`li va uning oilasi Kayqubod otli podshohdan qolgan bir shahristonda, Yapaloqqush esa ota-bobosidan qolgan eski yerda yashashidir. Tugun Yapaloqqushning Boyog`lining qizini og`li Kulonkirga olib bermoqchi bo`lishi,sovchilik uchun Ko`rqushni tanlashida yuzaga kelgan. Shundan so`ng an’analar davom etadi. Boyqushning qizi Gunashbonu uchun ming xaroba-chordevor mahr so`rash vaziyatlari-kulminatsiyani tashkil etadi.Yechim sifatida ming chordevorning berilishi, Kulonkir va Gunashbonularning nikoh xutbasi o`qilishini keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abdurahimovna.Q.S. “Zarbulmasal”–maqsadni majoz yo`li bilan ifodalashga qaratilgan hikoyat – 2022. –T. 2. – №. 4. 363-365
2.Adizova.I, O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi , Fan, Toshkent-2006.
3.Gulxaniy. Zarbulmasal, T.,2019.
4.Gulxaniy “Garbulmasal” ning ilmiy-tanqidiy tekstini yaratish yo`lida. O`zbek tili va adabiyoti .1971. 3-son.
5.Vohidov R., Eshonqulov H., O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi, O`quv qo`llanma, 2006.

NUTQ MADANIYATI

Maxmudova Sh
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada, nutq madaniyati tushunchasi, uning ijtimoiy va madaniy hayotdagi o‘rni, shuningdek, zamonaviy kommunikativ jarayonlarda nutq madaniyatiga rioya qilishning ahamiyati yoritilgan. Nutqning mantiqiyligi, ifodaviyligi, adabiy til me’yorlariga muvofiqligi kabi jihatlar tahlil qilinadi. Maqola tilni ongli ravishda to‘g‘ri ishlatish, nutq etikasiga amal qilish orqali ijtimoiy muomala samaradorligini oshirish yo‘llarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, adabiy til, til me’yorlari, kommunikatsiya, muloqot, nutq etikasi, ifoda uslubi, tilga hurmat.

Kirish. Nutq – inson tafakkuri, his-tuyg‘ulari va ijtimoiy munosabatlarini ifoda etuvchi asosiy vosita bo‘lib, jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Til madaniyati va nutq madaniyati

tushunchalari bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, har bir kishining o‘z fikrini aniq, ravon, ifodali va adabiy til me’yorlariga muvofiq tarzda bayon eta olishi – nutq madaniyatining asosiy ko‘rsatkichidir. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va ta’lim muassasalarida nutq madaniyatining o‘rni va zarurati yana-da oshib bormoqda.

Nutq madaniyati – bu insonning til vositalaridan samarali, to‘g‘ri va maqsadga muvofiq foydalana olish madaniyatidir. U nafaqat grammatik, uslubiy va leksik me’yorlarga amal qilishni, balki axloqiy, estetik va kommunikativ jihatlarga rioya qilishni ham nazarda tutadi.

Nutq madaniyatining asosiy mezonlari

Nutq madaniyatining quyidagi asosiy mezonlarini ajratish mumkin:

- **To‘g‘rilik** – adabiy til me’yorlariga muvofiqlik;
- **Aniqlik va mantiqiylik** – fikrlarning tartibli va tushunarli bayoni;
- **Ifodaviylik** – so‘zlashuvda badiiy vositalar va boy til imkoniyatlaridan foydalanish;
- **Mazmundorlik** – fikrning mohiyatini ochib berish;
- **Axloqiylik** – odob va etika me’yorlariga rioya qilish.

Nutq madaniyati va kommunikatsiya

Bugungi kunda nutq madaniyati faqat og‘zaki yoki yozma nutq doirasidagina emas, balki keng kommunikativ jarayonlarda – nutqiy chiqishlar, prezentatsiyalar, ommaviy chiqishlar, matbuot, ijtimoiy tarmoqlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tilni noto‘g‘ri ishlatish, tildagi qo‘pollik va odobsizlik, noto‘g‘ri urg‘u va ifodalar, muloqot madaniyatining pasayishiga sabab bo‘ladi.

Nutq madaniyatini shakllantirish vositalari

- **Ta’lim va tarbiya** – maktab, oliy ta’lim muassasalari va oiladagi til tarbiyasi;
- **Adabiyot va OAV** – adabiy asarlar, axborot vositalari orqali til namunalari;
- **Shaxsiy o‘z ustida ishlash** – so‘z boyligini oshirish, kitob o‘qish, yozish amaliyoti;
- **Jamiyatdagi nutqiy muhit** – til madaniyati yuqori bo‘lgan ijtimoiy muhit.

Til birliklaridan qanday tarzda va qaysi tizim asosida foydalanilishiga qarab nutq og‘zaki yoki yozma shakllarda namoyon bo‘ladi. Til vositalari yordamida muayyan vaziyatda aloqa o‘rnatish va turli kommunikativ niyatlarni amalga oshirish mumkin. Shu asosda nutq turlari shakllanadi: kundalik muloqot, xizmat nutqi, bayramona nutq, shevaga xos nutq, badiiy, adabiy so‘zlashuv, kasbiy nutq, ommaviy chiqish, erkin so‘zlashuv, sahna nutqi, og‘zaki ijod (folklor) nutqi, badiiy obrazlar nutqi, muallifning ifodasi, qahramonlar nutqi va boshqalar. Nutqning qanday ko‘rinishda bo‘lishidan qat’i nazar, unga xos ayrim umumiy xususiyatlar mavjud.

Nutq agogikasi – bu, og‘zaki yoki o‘qiladigan matnning hissiy, fikriy mazmuni, ritm va temp jihatlari bilan bog‘liq. Matnning tuzilishidagi ohang va tezlik nutqni to‘g‘ri ifoda etishda muhim rol o‘ynaydi.

Nutq harakati – bu nutqning ritmik va sintaktik jihatdan rivojlanishini ko‘rsatadi. Tez sur’atda so‘zlangan nutqda tovushlar qisqarishi (reduksiya) hodisasi yuzaga keladi, sekin sur’atda esa so‘zlar to‘liq talaffuz qilinadi. Nutq ko‘pincha bo‘laklarga bo‘linadi.

Nutq birligi – tilga nisbatan nutqda o‘ziga xos birliklar mavjud. Nutq oqimida tabiiy ravishda bo‘g‘in, so‘z, birikma va gap hosil bo‘ladi. Bu birliklar to‘g‘ri intonatsiya va pauzalar yordamida ajratiladi.

Nutq elementlarining izchilligi – nutqdagi elementlar ketma-ket joylashadi. Bu izchillik vaqt o‘tishi jarayonida turli bosqichlarni ifodalaydi, ya’ni nutqning yo‘nalishi deb ataladi. Tildan farqli o‘laroq, nutqda vaqt davomiyligining o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, bu nutq momenti bilan bog‘liqdir.

Nutq momenti va situasiyasi – nutq momenti deganda fikrga ta’sir ko‘rsatadigan holat tushuniladi, bu esa nutqiy vaziyat (situasiya)ni yuzaga keltiradi. Nutqning turli sohalarida til vositalari va uslublarini to‘g‘ri tanlab ishlatish muhim bo‘ladi. Bunday yondashuv nutq uslubi deyiladi. Nutq uslublariga poetik, kitobiy, rasmiy va oddiy so‘zlashuv uslublari kiradi. Har tomonlama mukammal nutq esa, nutq madaniyati mezonlariga javob beradi.

Nutq madaniyati barcha nutq shakllari uchun asosiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi. U nutqning tuzilishi, soddaligi va ravonligi, tushunarli va mazmunli bo‘lishi, ta’sirchanligi, ifoda boyligi hamda obrazlilik kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. A.N. Vasileva tasnifiga ko‘ra, bu holat nutqning sifat jihati sifatida qaraladi. Nutq madaniyati faqat adabiy tilga emas, balki nutqning barcha ko‘rinishlariga xos bo‘lishi kerak. Ayniqsa, badiiy nasr san’atini yuksak nutq madaniyatisiz tasavvur etish mushkuldir.

Tilshunoslikda nutq madaniyati — bu so‘zga ongli munosabatda bo‘lish, so‘zning ma’no nozikliklarini va hissiy tusini to‘g‘ri qo‘llab, mazmunli fikr ifodalash orqali yuzaga keladigan nutq sifati hisoblanadi. L.V. Sherba bu borada nutqning rang-barangligini ta’minlaydigan til omillarini sanab o‘tadi. Birinchidan, bu — tilning boy leksikasi bo‘lib, u har qanday nutq turiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, bu — sinonimik boylik bo‘lib, bitta tushunchani turli shakllarda ifodalash imkonini beradi. Uchinchidan, bu — fikrni emotsional va ifodali tarzda bayon etish imkoniyatidir.

Haqiqatan ham, har bir xalq tili fikrni nozik jihatlari bilan ifoda etish salohiyatiga ega. Bu imkoniyat barcha nutq shakllarida, xususan o‘zbek badiiy nasrida ham aks etadi. Albatta, badiiy nasr va adabiy til o‘rtasida ba’zi funksional tafovutlar bo‘lishi mumkin, ammo umumtil qonuniyatlari va, albatta, nutq madaniyati tamoyillari ikkalasiga ham tegishlidir. Shu sababli, badiiy nasrda ham adabiy tilga xos nutq madaniyati mezonlari amal qiladi.

Nutq madaniyatining eng muhim belgilaridan biri — bu **aniqlik**dir. Bu tushuncha qadimdan, jumladan, Aristotel tomonidan ham nutqning asosiy bezaklaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Biroq nutqiy aniqlik har doim ham bir xil talqin etilmaydi — bu, ko‘proq nutqning funksional xususiyatiga bog‘liq. Masalan, adabiy tilda shevalar, kasbiy terminlar yoki xalq tiliga xos so‘zlar nutqning aniqligini buzuvchi omillar deb qaralsa, badiiy nasrda ular aksincha, obrazli va jonli ifoda yaratishga xizmat qiladi.

Chunki badiiy nasrda hayotning o‘zi, insonlarning fe’l-atvori, ichki kechinmalari ifodalanadi. Har bir badiiy asarda muayyan tarixiy davr, hudud, kasb egalari aks etadi. Ularning shaxsiyati va ijtimoiy maqomi asosan nutqi orqali ochiladi. Bu esa badiiy nasrda shevalar, dialektlar va xalq tiliga oid leksik birliklar keng qo‘llanilishini anglatadi.

XULOSA

Barcha ko‘rsatilganlarni xulosalaylik, Mazkur maqola tahlil natijalariga asosan, Nutq madaniyati – shaxsiy kamolot, ijtimoiy muloqot va madaniy taraqqiyotning ajralmas qismidir. Har bir inson tilga nisbatan e’tiborli, ongli va madaniyatli bo‘lishi kerak. Adabiy til me’yorlariga amal qilish, axloqiy va estetik qadriyatlarga sodiqlik – zamonaviy insonning nutqiy portretini belgilaydi. Nutq madaniyati yuksak bo‘lgan jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy taraqqiyotga erishish imkoniyati ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘afurov N. “Nutq madaniyati asoslari.” – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Jo‘rayev R. “Til va nutq madaniyati.” – Toshkent: Fan, 2021.
3. Boqoyev B. “Adabiy til me’yorlari va uslub.” – Samarqand, 2018.
4. G‘ulomov A. “Nutq etikasi va muloqot madaniyati.” – Toshkent: Ziyo, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. “Nutq madaniyati” fanidan o‘quv qo‘llanma, 2022.

O‘ZBEK TILIDA INTERADUKTIV MUNOSABAT BILDIRUVCHI BIRIKMALAR

Karimova Nargiza Faxriddin qizi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

karimovanargiza@gmail.com

Annotatsiya*. Mazkur maqolada o‘zbek tilida interaduktiv munosabat bildiruvchi birikmalarning lingvistik xususiyatlari, ularning kirish va kiritma konstruksiyalari bilan aloqasi, gapda tutgan o‘rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu birliklarning nutq jarayonidagi*

kommunikativ vazifasi, grammatik va pragmatik jihatlari o‘zbek tili grammatikasi asosida yoritilgan.

***Kalit so‘zlar**: undalma, kirish konstruksiyalar, kiritma konstruksiyalar, interaduktiv munosabat, pragmatika*

***Аннотация**. В статье на научной основе анализируются лингвистические особенности интердуктивных союзов в узбекском языке, их связь с вводными и вводными конструкциями, а также их место в речи. Также на основе грамматики узбекского языка рассматриваются коммуникативная функция, грамматические и прагматические аспекты этих единиц в речевом процессе.*

***Ключевые слова:** подсказка, вводные конструкции, вводные конструкции, интердуктивные отношения, прагматика*

***Abstract**. This article analyzes the linguistic features of interductive relations in the Uzbek language, their relationship with introductory and insertion constructions, and their place in speech on a scientific basis. Also, the communicative function of these units in the speech process, grammatical and pragmatic aspects are covered on the basis of Uzbek grammar.*

***Keywords**: interductive relations, introductory constructions, insertion constructions, interductive relations, pragmatics*

O‘zbek tilida so‘zlovchi shaxsning nutqqa munosabatini bildiruvchi birikmalarning nutq jarayonida tinglovchini diqqat qilishga,nutqa e’tibor qaratishga, aytilayotgan fikrga nisbatan turli munosabat bildirishga undovchi vositalardir.Ular nutqning muloqotga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi va muloqot jarayonining tabiiyligini ta’minlaydi.Ushbu maqolada ushbu birliklarning grammatik va funksional xususiyatlari yoritiladi.

Metodologiya:

Maqolada tavsifiy-analitik va sintaktik yondashuv asosida ilmiy tahlil amalga oshirildi. Tadqiqotda N. Mahmudov, A. Nurmonov, R. Sayfullayeva, M. Asqarova, A.G‘ulomov, Sh. Rahmatullayev kabi yetuk tilshunos olimlarning asarlari asos qilib olindi. Shuningdek, o‘zbek tilining “Akademik grammatikasi” da undalma,kirish-kiritma konstruktsiyalar haqidagi izohlar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari:

Ushbu tadqiqot davomida o‘zbek tilidagi interaduktiv munosabat bildiruvchi birikmalar undalma,kirish va kiritma konstruksiyalar turli matnlardan qanday qo‘llanilayotgani, ularning funksional xususiyatlari va nutqdagi o‘rni o‘rganiladi. Sh.Rahmatullayev tahlili bo‘yicha,bu bo‘laklar gap shaklga qo‘shiladigan sintaktik bo‘laklar deb atagan. Ya’ni, gapshakl qurilishining asosini tashkil etadigan ega va kesimdan, shuningdek gapshakl asosini yoyadigan to‘ldiruvchi va hollovchidan tashqari gapshaklga qo‘shiladigan, lekin gapshakl bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan, faqat mazmunan bog‘lanadigan sintaktik bo‘laklar ham mavjud bo‘lib,bular undalma va kirish deb yuritiladi.

Undalma ham, kirish ham sintaktik birlik: leksemashakl bilan, birikmashakl bilan (hatto gapshakl bilan ham) ifodalanadi, ma’lum sintaktik vazifani bajaradi; shunga ko‘ra bularni sintaktik bo‘lak deb nomlash kerak, lekin gapshakl bo‘lagi deb emas, gap shaklga qo‘shiladigan bo‘lak deb baholash to‘g‘ri.Undalma bo‘lak va kirish bo‘lak o‘zi qo‘shiladigan gap shakldan talaffuzda pauza (to‘xtam) bilan, yozuvda esa odatda vergul bilan ajratiladi. Undalma bo‘lak tinglovchining diqqatini gapshakl bilan anglatilayotgan fikrga jalb qilish uchun xizmat qiladi, bosh kelishikdagi sintaktik birlik bilan ifodalanadi, undash ohangi bilan aytiladi: ***Kennoyi, kuyib ketayotibsiz-a.*** Undashni kuchaytirish uchun undalma bo‘lakdan oldin *hoy,ey,ho* kabi ta’kid undovlari ishlatiladi: ***Ey domlajon!*** kabi. Undalma bo‘lak fikr qaratilgan shaxsni bildirganda u bilan birga keladigan gapshakl tarkibida ega bo‘lak odatda ishlatilmaydi, chunki bunday qurilmalarda ega bo‘lakning ishlatilishi o‘ziga xos pleonazimni(ortiqchalikni)yuzaga keltiradi: ***Dada, boshimni og‘ritmang.*** Undalma bo‘lak va u birga ishlatilgan gapshakl boshqa-boshqa shaxsni bildirsa, bunday gapshakl tarkibida ega bo‘lakning ishlatilishi tabiiy: ***Men bir narsaga hayronman,aka***

Kirish bo‘lak o‘zi qo‘shiluvchi gapshakl anglatayotgan fikrga so‘zlovchining turli aqliy va hissiy munosabatini bildiradi; o‘zi qo‘shilayotgan gapshaklga bir butun holda taalluqli bo‘ladi, odatda gapshakldan, oldin joylashadi, shunga ko‘ra asli kirish emas, *kirishish* deb nomlanish to‘g‘riroq bo‘ladi deydi. Kirish bo‘lak vazifasida kelgan birlikning gapshaklning qayerida o‘rinlashishi asosan erkin: ichida ham, oxirida ham kelaveradi. Ayrim birliklarda esa bog‘liqlik mavjud: faqat gapshaklning oldida yoki oxirida keladi, masalan, *shekilli* modali gapshaklning oxirida keladi. Kirish bo‘lak leksemashakl bilan ham, birikmashakl bilan ham, (hatto gapshakl bilan ham) ifodalanadi. Modal birliklar kirish bo‘lak vazifasiga xoslangan.

Boshqa turkum leksemashakllarining kirish bo‘lak bo‘lib kelishi - ikkilamchi vazifa. Kirish bo‘lak vazifasida turlicha shakllangan birikmashakllar, hatto gapshakllar ham ishlatiladi.

Kirish bo‘laklar ishonch, gumon, muomala-munosabat kabi ma’nolarni anglatadi. R.Sayfullayeva fikricha, kirish kengaytiruvchilari gap tarkibida grammatik aloqaga kirishmaydigan bo‘lsa-da, [Pm] dagi mazkur ma’noga bevosita daxldor bo‘lgan subyektiv modallik munosabatini ifodalaydi. Ya’ni [Pm] tarkibidagi modal va tasdiq/inkor ma’nolarini muayyanlashtiradi, gapning kesimi bilan bog‘lanadi. Ammo, [Pm] ga grammatik jihatdan bog‘lanmaganligi bois unga nisbatan *konstruktiv* sifatini qo‘llab bo‘lmaydi. Biroq, unga zich mazmuniy munosabatda bo‘lganligini inobatga olib, ularni gap kengaytiruvchilari deyish mumkin.

Demak, kirish kengaytiruvchilari so‘z va gap kengaytiruvchisi orasida <oraliq uchinchi> bo‘lganligi bois ularni gapning *konstruktiv bo‘lmagan bo‘lagi* atamasi bilan nomlash mumkin. Kirish kengaytiruvchi so‘z, birikma va gap ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. 1. Farg‘onada, **balki** balqarsan. 2. **Tabibning ta’biricha,** shohning sog‘ayishi uchun uch narsa zarur ekan. 3. **Men sizga aytsam,** bir kunda uch mahal shaharga qatnashning o‘zi bo‘lmaydi. Shu sababli kirish kengaytiruvchi kirish so‘z, kirish birikma, kirish gap kabi turlarga bo‘linadi. Aslida, barcha kirish kengaytiruvchisi nominativ birlik. Garchi ularning ayrim ko‘rinishi gap xarakterida bo‘lsa-da, ularni tom ma’nodagi gap deb bo‘lmaydi. Chunki unda [Pm] shakli mavjud bo‘lsa-da, tegishli ma’nolar voqelanishi o‘ta kuchsizlangan. Shu boisdan, undagi [Pm] shakllari va unga mos gap kengaytiruvchisi o‘zgartirib turilsa, uning kirishlik mohiyati butunlay yo‘qoladi. Kiritma qurilma esa, gap holatida bo‘lib, nutqda gapdan anglashilayotgan fikrga qo‘shimcha tariqasidagi yangi fikrni bayon etish vositasi ekanligini aytadi. Kiritma kirish gapdan o‘zining gaplik mohiyatiga to‘la egaligi, asosiy gap bilan mazmuniy bog‘liqlikning o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi: Buvamga (**hamma band bo‘lgani uchun)** men qarashib turadigan bo‘ldim. Bu gapdagi hamma band bo‘lganligi uchun qurilmasi kiritma gap bo‘lib, u asosiy gap bilan grammatik jihatidan bog‘lanmagan bo‘lsa ham, mazmunan qo‘shma gapda bo‘lgani kabi izohlash vazifasini o‘tamoqda. Kiritma qurilmaning gap tarkibida o‘rni qat’iy. U asosiy fikrga qo‘shimcha, ilova fikrni ifodalaganligi bois gap avvalida kela olmaydi.

Ammo, A.Nurmonov, N.Mahmudovlarning fikricha bu bo‘laklarni 2 xil yondashuv asosida tahlil qilish mumkin.

1)undash (vokativ)munosabat

2)modal munosabat

Undalma gapning boshqa bo‘laklari bilan tobe aloqaga kirishmaydi. Shuning uchun undalma qatnashgan gap faqat mazmun tomondan emas, balki shakliy tomondan ham murakkablashadi. Gap tarkibida tobe aloqa bilan birgalikda, tobe bo‘lmagan grammatik aloqa hisoblamaydigan aloqa ham mavjud bo‘ladi. Bunday aloqani tilshunoslar **introduktiv aloqa** deb nomlaydilar. Yana biz uchun yangilik bo‘lgani, undalma bo‘lakdan undash semasi yana bir necha semalarni o‘z ichiga olgan murakkab butunlik ekanidir. Masalan:

1) Erkalash: *Bilasanmi, jonim, naqadar, shirin, janglar to‘fonida seni o‘ylamoq.*

2) Kesatiq: *Arpangizni xom o‘ribmizmi,boy?*

3) Do‘q-po‘pisa: *Hoy zumrashalar,to‘xta!*

Modal munosabatni ham 2 xil tasniflaydilar.

1) obyektiv

2) subyektiv

Obyektiv modallik kesim vaziyatida kelgan sintaktik shakl orqali ifodalanib,muhim kategorial belgilardan biri bo‘lsa, subyektiv modallik hamma gaplarda bo‘lishi shart emas. Obyektiv modallik ishtirok etayotgan gaplarda bu gap orqali ifodalanadigan obyektiv mazmunga so‘zlovchining modal munosabati maxsus leksik vositalar yordamida qo‘shiladi. Natijada mazmuniy murakkablik vujudga keladi: obyektiv mazmun+modal munosabat.

A.G‘ulomov, M.Asqarovalarning fikricha esa bu bo‘laklar kirish va kiritma konstruksiyalar deb nomlangan. Ularning fikricha, kirishlar so‘zlovchining fikriga subyektiv munosabat bilan birgalikda shu munosabat bilan tug‘ilgan emotsiyalarini, fikrning umumiy bahosini bildiradi. Kiritma gapning asosiy xususiyati esa, bunda asosiy gapdagi fikrga qo‘shimcha tariqasida, yo‘l-yo‘lakay yangi fakt bayon qilinadi. Kiritmalar kirish gapdan ayrimlilikning kuchliligi, mustaqilligi, asosiy gap bilan bog‘lanishining kuchsizligi bilan farq qiladi. Kiritmalarning yana bir xususiyati, tayyor strukturaga ega bo‘lgan gapga nutq momentida tug‘ilib qolgan ehtiyoj, zarurlikka ko‘ra xuddi kutilmagandek, birdan kiritilishidir. Undalma bo‘lak bo‘yicha qarashlari boshqa tilshunos olimlar fikridan farq qilmaydi, ammo istisnoli holatlar ham mavjud: undalma ba’zan gapning ixchamlanishida katta rol o‘ynaydi. Sostavida undalma bo‘lgan gapning kesimi bilan ifodalangan harakat, belgining logik subyekti, belgining tashuvchisi-egasi shu undalmadan anglashilgan shaxs, predmet bo‘lsa, gapning egasi ko‘pincha “yashirinadi”. Bunday vaqtda eganing mazmuni kontekstdan shu undalma orqali aniq bilinib turadi: «yashiringan ega» *sen* yoki *siz* olmoshi bo‘ladi. (ega o‘sha gapdagi kesimdan anglashilgan harakatning bajaruvchisi, belgining tashuvchisi bo‘lmaganda,undalma boshqa sz bilan ifodalanadi). Masalan: **Butun dunyo proletarlari, (siz) birlashingiz!** kabi.

Undalmaning gapdagi o‘rni erkin bo‘lishiga qaramasdan, gap boshida kelgan undalma boshqa o‘rinda keladigan undalmalarga nisbatan kuchliroq ajraladi; unda har vaqt ajratuvchi pauza bo‘ladi; undash, tinglovchining diqqatini tortish vazifasini bajaradigan undalma odatda gap boshida keladi. Gap o‘rtasida va gap oxirida keladiganlari esa, emotsionallikni, modallikni-so‘zlovchining suhbatdoshga munosabatini bildirish uchun xizmat qiladi. O‘zbek tilining akadem grammatikasida esa, undalmaning ajratilgan izohlardan farqlari to‘liq yoritib berilgan:

1.Undalma chaqirish intonatsiyasi bilan talaffuz etiladi. Ajratilgan izohlar esa ajratilgan, sust intonatsiya bilan aytiladi.

2.Undalma nutq qarashli bo‘lgan obyektni ifodalaydi, izohlar esa biror bo‘lakni izohlaydi.

3.Undalma bosh kelishikda bo‘ladi, izohlar izohlanmishning shakliga ko‘ra,turlicha bo‘lishi ham mumkin.

Undalmalar shakliy jihatdan, nominativ gaplarga ham o‘xshaydi. Ammo, mazmunan va grammatik, intonatsion xususiyatiga ko‘ra ulardan farq qiladi. Shuningdek,kirish bo‘laklarni o‘rganishda kirish bo‘laklar va kirish gaplarga ajratishgan. Ularning farqi esa strukturada ko‘rinadi. Kirish gapning o‘z ichida predikativ munosabat bor. Ikkinchidan, kirish gap ma’lum izohni kengroq, to‘laroq, konkretroq ifodalaydi. Uchinchidan, kirish gaplar, ko‘pincha, ma’lum gap bo‘laklari bilan kengayib keladi.

O‘zbek tilida interaduktiv munosabat bildiruvchi birikmalar sintaktik va pragmatik jihatdan tahlil qilinar ekan, ularning nafaqat grammatik birlik sifatida, balki muloqotning samarasini oshiruvchi kommunikativ vosita sifatida ham muhim o‘rin tutishi aniqlanadi. Undalma, kirish va kiritma konstruksiyalar orqali so‘zlovchi tinglovchining e’tiborini tortadi, o‘z munosabatini bildiradi, fikrning aniqlik darajasini ifodalaydi yoki emotsional fon yaratadi. Bu birliklar yordamida gapga subyektiv baho, ehtimol, shubha, ishonch, iltimos, do‘q-po‘pisa, tanbeh kabi turli modal ohanglar kiritiladi. Interaduktiv birliklarning xususiyatlarini o‘rganish nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki amaliy nutq faoliyati uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. N. Mahmudov, A. Nurmonov. O‘zbek tilining akademik grammatikasi. Toshkent: O‘qituvchi , 1995.
2. R. Sayfullayeva , B.Mengliyev, L.Raupova, M.Qurbonova, M.Abuzalova , D.Yo‘ldosheva. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. “Innovatsion rivojlanish” nashriyoti. 2020
3. M. Asqarova, A.G‘ulomov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. O‘qituvchi.1965.
4. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 2008
5. O‘zbek tili grammatikasi. II tom. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 1976

O‘RXUN – ENASOY OBIDALARI, QADIMGI TURK YOZUVI VA ALIFBOSI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Arzimurodova Dilsevar Sherali qizi
SamDUKF Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘rxun-Enasoy obidalarining O‘zbekistonda o‘rganilishi haqida so‘z yuritiladi. O‘zbekistondan topilgan ko‘kturk yodgorliklari izohi yuzasidan fikrlar keltiriladi. Obidalarni tadqiq qilgan o‘zbek olimlari, ilmiy asarlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar:*O‘rxun-Enasoy obidalari, ilmiy maktab, Kultegin bitiktoshi, nasriy ilmiy asar.*

Absrtact: *This article focuses on the study of the Orkhon-Enasay monuments in Uzbekistan. Comments are made on the description of runic monuments found in Uzbekistan. The works of Uzbek scientists who have studied the monuments will be analyzed.*

Keywords: *Orkhon-Enasay monuments, scientific school, Kultegin inscription, prose scientific work.*

KIRISH.

Tarix davomida ko‘plab sivilizatsiyalar ta’sirida bo‘lgan madaniyatimiz til sohasiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Vaqt o‘tishi bilan alifbolardan foydalanishda u joylashgan geografiyaga muvofiq o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Turklar tomonidan qo‘llanilgan birinchi alifbo sifatida tanilgan ko‘kturk alifbosi ham hozirgi alifbodan ancha farq qilsa-da, kelib chiqishi jihatidan o‘xshashdir. Qadimgi turk xalqi tomonidan qo‘llanilgan ko‘kturk alifbosidan keyinchalik xunnlar, qirg‘izlar ham foydalanganlar. Bundan tashqari, Yevropaga ko‘chib kelgan turklar va XVI asrda Vengriyada Sekeller deb nomlangan guruh tomonidan ham foydalanishgani izlanishlar davomida ma’lum bo‘ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Alfavit yaratilishidan oldin birinchi qo‘lyozmalar tizimlari, ular tasvirlangan ramzlar va ieroglif deb ataladigan narsalar yaratilgan.Bu haqida 3200-3000 yillarda Misrdagi qabrlarda birinchi misollar mavjud. IerogumplyFous yozish tizimi XVI asrga qadar ishlatilgan va chapdan o‘ngga yozilgan. Ushbu vizuallar tosh qalam bilan yumshoq qilingan. Miloddan avvalgi

1750-1850 yillar orasida, bir guruh Sami-nutq so‘zlayotgan odamlar o‘z tillarini namoyish etish uchun Misr ieroglifik shaxslar moslashgan. Ushbu Proto-imtihon tizimi birinchi alifbo tartibida yozish tizimi hisoblanadi. Ushbu alfavitda taniqli tovushlar e'tiborsiz qoldiriladigan alifboda, kononentant tovushlar uchun belgilar mavjud. Ushbu alifboda Livan, Suriya va Isroilni egallagan Finikiya Navol savdogarlari tarqaldi. Keyinchalik Finikiya alifbosi miloddan avvalgi

1200-yillarda yaratilgan 22 belgidan iborat ushbu alifbo, bu - Taryn alifbosidir. Turk tilining eng qadimgi misollari XIX asrda Mo‘g‘ulistondagi Onun daryosi vodiysida joylashgan yozuvlar.

NATIJALAR.

Turk tilining eng qadimgi misollari XIX asrda Mo‘g‘ulistondagi Onun daryosi vodiysida joylashgan yozuvlar. O‘rxonning ba'zi yozuvlari Bilga Tonyuquq, Kultigin va Bilga xoqon yozuvlari. Ushbu yozuvning misollari XX asrning boshidan eng qadimiy alifbolardir va Qadimgi turk yozuvi yoki O‘rxun alifbosi qadimgi turk yozuvi sifatida tanilgan va toshlarda yozilgan. Alifbosi 38 ta harfga ega bo‘lib, 4 ta unli va 34 unli undoshdan iborat bo‘lib, o‘ngdan chapga

yoziladi. Qadimgi turk yozuvi ham bolgariyaliklar, Hazars, pecheneg va ushlashlarda ba'zi o‘zgarishlar ishlatgan. Alifboni kashf etgandan so‘ng, insoniyat tarixining yozma dalillari shakllana boshladi. Birinchi alifbolar, shubhasiz, boshqa alifbolar kashshofi edi. Dunyodagi ko‘plab turli tillarni va madaniy, siyosiy, diniy va rivojlanish farqlaridan foydalanishni hisobga olsak, turli xil alifbolar paydo bo‘lishidan hayratda qolmasligimiz kerak. Ushbu maqolada biz vaqt o‘tishi bilan turklarning alifbolarini qanday va nima uchun ishlashga yordam berganini sizga ochib berishga harakat qilamiz.

O‘rxun-Enasoy obidalari V-VII asrlarda qadimgi turk tilidagi va yozuvidagi tarixiy yodgorlik sifatida qadrli. Mo‘g‘ulistondagi O‘rxun va Janubiy Sibirdagi Enasoy daryolari sohillarida topilgani uchun ham shunday nomlangan. Mo‘g‘ulistondan Shimoliy dengizlargacha, Uraldan Saxalinga qadar davom etgan hududda shu yozuvdagi yodnomalar uchraydi. Shimoliy Kavkazda XV asrda ham O‘rxun yozuvidan foydalanilgan. O‘zbekiston hududida (Farg‘ona, Surxondaryo v.b. joylar) dan 20 dan ortiq turkiy-run yozuvi yodgorliklari topilgan.Yirik O‘rxun bitiklari Kultigin, Bilga xoqon, To‘nyuquq va boshqa bu yozuvdagi yodnomalar (mas. Irq bitigi) adabiy manba sifatida qahramonlik qissa va dostonlariga mazmunan yaqin keladi. Kultigin bitiktoshi 732 yil Turk xoqonligi (551—745)ning lashkarboshisi sharafiga o‘rnatilgan.Bitiktosh ikki qismdan: Kichik va Ulug‘ bitikdan iborat. Vatan manfaati yo‘lida xizmat qilish, mamlakatning mustahkam, osoyishta bo‘lishi uchun kurash bitikoshlarda bosh maqsad ekani aytiladi. Asarda Tabg‘ach, Tibet, Sug‘d, Turgash, Qirg‘iz kabi joy nomlari tilga olingan. Enasoy bitiklari marsiya va madhiya janrlarining qadimgi turk adabiyotidagi ildizlari haqida tasavvur beradi.Bitiktoshlar XIX asr oxirlarida topilib, U.Tomsen tomonidan o‘qilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan. Ba’zi yodgorliklar deshifrovka qilingan emas. AQSh, Polsha, Vengriya, Finlandiya va Turkiyada ham o‘rganilgan. Rossiyada V.Radlov, S.Malov, I.Stebleva ishlari ma’lum. O‘zbekistonda Fitrat, A.Qayumov, N.Rahmonov v.b. asardan namunalar va tadqiqot ishlarini chop qildirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahmonov.N, B.Matboboyev. “O‘zbekistonning ko‘hna turkiy-run yozuvlari’’ Toshkent, “Fan”, 2006;
2. Soatova .G “O‘zbekistonda Urxun-Enasoy yofgorliklari tadqiqi” O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020-yil, 6-son;
3. Sodiqov .Q “Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi’’ Toshkent: Sharqshunoslik institute.2006;
4.www.ziyo.uz
5.library.uz

XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTINING TARAQQIYOT TENDENSIYALARI

Ashirova M
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada, XX asr o‘zbek adabiyotining taraqqiyot tendensiyalari o‘rganiladi. Asr davomida o‘zbek adabiyoti milliy uyg‘onish, modernizm va ijtimoiy realizm*

yo‘nalishlarida rivojlandi. Jadid adabiyoti, sovet davri ijodkorlari va mustaqillikdan keyingi davr adabiyoti o‘rtasidagi uzviylik va farqlar tahlil qilinadi. XX asr o‘zbek adabiyoti o‘zbek xalqining madaniy, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarini aks ettirishda muhim rol o‘ynagan.

Kalit so‘zlar: *XX asr o‘zbek adabiyoti, jadidchilik, ijtimoiy realizm, milliy uyg‘onish, modernizm, mustaqillik davri, adabiy yo‘nalishlar.*

Kirish:XX asr o‘zbek adabiyoti xalq ma’naviyati va tafakkurini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan davrni tashkil qiladi. Bu davrda milliy uyg‘onish g‘oyalari, jadidchilik harakati va keyinchalik sovet mafkurasining ta’siri ostida adabiyotda turli yo‘nalishlar rivojlandi. Adabiyot ijtimoiy hayotning aks-sadosi sifatida xalqning dardlarini, orzu-umidlarini va ma’naviy-ruhiy olamini ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qildi. Ushbu maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining asosiy taraqqiyot tendensiyalari tahlil qilinadi.

Milliy uyg‘onish va jadid adabiyoti. XX asr boshlarida jadidchilik harakati o‘zbek adabiyotida yangi sahifani ochdi. Jadid adabiyoti demokratik va milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surib, o‘quvchilarni savodli qilish va jamiyatni taraqqiyotga undashni maqsad qilgan. Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon kabi ijodkorlar ushbu davrning yorqin vakillari sifatida maydonga chiqdi.

Sovet davri o‘zbek adabiyoti. 1920-1980-yillarda sovet mafkurasi o‘zbek adabiyotiga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Ijtimoiy realizm adabiyoti jamiyatni qurish va xalq manfaatlarini targ‘ib qilish vositasi sifatida qaraldi. G‘afur G‘ulom, Abdulla Qodiriy, Oybek, Shayxzoda kabi yozuvchilar bu davrda milliy va ijtimoiy muammolarni o‘z asarlarida aks ettirdi.

Mustaqillik davri adabiyoti va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Mustaqillikdan so‘ng o‘zbek adabiyoti erkinlik va milliy o‘zlikni anglash davriga kirdi. Bu davrda o‘tmishning qayta ko‘rilishi va yangi janrlar rivojlandi. Mustaqillik davri ijodkorlari xalqning milliy qadriyatlarini va tarixiy yodgorliklarini asarlarida ifoda etdilar.

Adabiyot-xalq ijodi. Bu inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, uning umri davomida rivojlanadi. Adabiyotning boqiyligi ikkita asosiy omilga bog‘liq: birinchisi, uning tarbiyaviy ahamiyati; ikkinchisi, inson ongiga va kayfiyatiga kuchli ta’siridir. Shu sababli, adabiyot har doim insoniyat hayotida mavjud bo‘lib kelgan va mavjud bo‘lib qoladi. Badiiy-axloqiy asarlar hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi, zamonaviy, ammo faqat mafkuraviy talablar asosida yaratilgan asarlar esa qisqa muddat ichida unutiladi. XX asr o‘zbek adabiyoti ham bundan mustasno emas, lekin davr sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan, sevib o‘qiladigan asarlar yetarlicha mavjud.

XX asr adabiyotining muhim xususiyatlari haqida gapiradigan bo‘lsak, yutuqlari nuqsonlaridan ustunroq. Professor Naim Karimovning fikricha, “XX asr insoniyat tarixidagi buyuk asarlardan biridir, chunki bu davrda insoniyat kelajak sari katta qadam tashladi.” Yana bir munaqqid Ozod Sharafiddinov shunday deydi: “XX asrda o‘zbek adabiyoti jahon adabiyoti talablariga javob bera oladigan yuqori darajada rivojlandi. Hikoyachilik, romanchilik va dramaturgiya bunga isbotdir.” Shu davrda so‘z san’atida erishilgan yutuqlarni o‘rganish va mukammallashtirish – adabiyotning asosiy vazifalaridan biri.

XX asrning murakkab siyosiy va ijtimoiy sharoitida o‘zbek adabiyoti o‘zining tarbiyaviy va ma’naviy vazifalarini davom ettirdi. Qadimiy Turkistonning uch xonlikka bo‘linishi, feodal tarqoqlik va iqtisodiy zaiflik tufayli chet el bosqinchilarining xurujlariga duch kelgan xalq, adabiyot orqali dalda topdi. Adabiyot ijtimoiy hayotning ko‘zgusi sifatida o‘z vazifasini bajardi. Muqimiy davri o‘zbek adabiyotida satiraning rivojlanishi bu davrning muhim xususiyatlaridan biridir. A. Abdug‘afurovning ta’kidlashicha, ikki yoqlama zulm va kapitalistik munosabatlarning kuchayishi natijasida tanqidiy realizm metodi shakllanib, satirik yo‘nalish rivojlandi.

Bugungi kunda adabiy va madaniy merosimizni xolis ilmiy o‘rganish va xalq mulkiga aylantirish adabiyotning dolzarb vazifalaridan biridir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, “O‘z tarixini bilmaydigan millatning kelajagi yo‘q.” Millatning jahon hamjamiyatidagi o‘rni uning ilm-fan, san’at va madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasi bilan

o‘lchanadi. Qadimgi ijodkorlarimizning jahon miqyosida salmoqli o‘rin egallagan asarlari bunga yorqin misoldir. Istiqlol sharofati bilan adabiy merosni ilmiy jihatdan xolis tahlil qilish va xalqqa taqdim etish imkoniyatlari kengaydi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi o‘zbek adabiyoti turli ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy o‘zgarishlarning o‘z aksini topgan murakkab davr hisoblanadi. Ushbu davrda o‘zbek adabiyoti o‘zining estetik yo‘nalishlarini rivojlantirish bilan birga, yangi g‘oyaviy-estetik tendensiyalarni shakllantirdi. Bu jarayon turli sohalarda tadqiqotchilar va tanqidchilar tomonidan yoritilib, adabiy jarayonni ilmiy tahlil qilishga qaratilgan bahs va munozaralar orqali rivojlantirilmoqda.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida kuzatilgan asosiy yo‘nalishlar:

1. **G‘oya va mavzu maydonining kengayishi** – ijodkorlar ijtimoiy, axloqiy, ma’naviy va falsafiy masalalarni yoritishga katta e’tibor qaratdilar.
2. **Modernizm va realizm elementlari uyg‘unligi** – estetik qarashlar yangi turdagi badiiy uslublar va janrlarni yuzaga chiqardi.
3. **Psixologizm va insonparvarlikning chuqurlashuvi** – asarlarning asosiy mavzularidan biri inson ruhiy olamini chuqur tahlil qilish bo‘ldi.
4. **Milliy o‘zlikni anglash va xalq mentalitetiga murojaat** – ijodkorlar milliy tarix va qadriyatlarni chuqur mushohada qilishga harakat qildilar.
5. **Ramz va majozlarga asoslangan yozuv uslublari** – milliy mifologiya va ramzlar zamonaviy asarlarning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Zamonaviy adabiyot tanqidchiligi

Tadqiqotchilar Hakimjon Karimov, Yo‘ldosh Solijonov va Gulchira Garipovaning ishlari o‘zbek adabiyoti taraqqiyoti to‘g‘risida muhim konsepsiyalarni ilgari suradi. Ular zamonaviy adabiy jarayondagi asosiy tendensiyalarni ijtimoiy, madaniy va shaxsiy muammolar orqali tahlil qilar ekan, o‘zbek adabiyotining realizm va modernizm kabi uslublarini aniqlashga alohida e’tibor qaratadilar.

Adabiy bosqichlar

1. **“O‘tish” davri (XX asr oxiri – 1990-yillar):** Mumtoz meros tiklandi, diniy-ma’naviy qadriyatlar jonlandi va jadid adabiyoti vakillarining asarlari chop etildi.
2. **Integratsiya davri (1990-yillar o‘rtalari – XXI asr boshlarida):** Sharq va G‘arb adabiy an’analarini birlashtirish jarayoni boshlandi.
3. **Yangilanish davri (XXI asr boshidan bugungi kungacha):** Adabiyotda ijtimoiy masalalar, milliy qadriyatlar va zamonaviy uslublarni birlashtirgan yangi tendensiyalar shakllandi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti o‘zining murakkab taraqqiyot bosqichida turli yo‘nalishlarni qamrab olgan holda, milliy va xalqaro tendensiyalarni o‘zlashtirgan yangi badiiy olamni yaratmoqda. Bu jarayon ijodkorlarning yangi yondashuvlari va g‘oyaviy-estetik izlanishlar bilan boyib borayotganini tasdiqlaydi.

XULOSA

Barcha ko‘rsatilganlarni xulosalaylik, Mazkur maqola tahlil natijalariga asosan, XX asr o‘zbek adabiyoti tarixiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar bilan uyg‘un holda rivojlandi. Milliy uyg‘onish davridan boshlangan adabiy jarayonlar sovet davri va mustaqillik davri adabiyotida turli xil yo‘nalishlar va g‘oyalar bilan davom etdi. Bu davr adabiyoti xalqning o‘zligini anglash va uning madaniy merosini saqlashda katta rol o‘ynadi. Ushbu jarayonlarni o‘rganish kelajakdagi adabiy izlanishlar uchun muhim poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy, A. "Turkiy guliston yohud axloq." Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2020.
2. Fitrat, A. "Adabiyot qoidalari." Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2019.
3. Qodiriy, A. "O‘tkan kunlar." Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2018.

4. Oybek. "Qutlug‘ qon." Toshkent: Sharq nashriyoti, 2020.
5. G‘ulom, G. "She’rlar va dostonlar." Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
6. Ismoilov, O. "O‘zbek adabiyoti tarixi." Toshkent: Universitet nashriyoti, 2021.
7. Karimov, I. A. "O‘zbekiston mustaqillik yillarida." Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2020.

IBN SINO VA UNING ADABIYOTGA QO’SHGAN HISSASI

Sevinchbonu Abdivaitova
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ibn Sinoning hayoti va ijodi, adabiyotga qo’shgan hissasi va ,,Tibbiy doston", ,, Hay ibn Yaqzon", ,, Risolat at-tayr", ,,Salomon va Ibsol" hamda ,,She’r san'ati" asari haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so’zlar*: ,,Tabiblar begi", ,,Urjuza" dostoni, ,, Risolat at-tayr", ,, Salomon va Ibsol", ,,Yusuf" qissalari,, Mehren, ,,Kitob ash-shifo", falsafiy she'rlar.*

Abstract. *This article provides information about Ibn Sina's life and work, his contribution to literature and the works of "Tibbii dostan", "Hay ibn Yaqzan", "Risalat al-Tayr", "Solomon and Ibsol" and "The Art of Poetry".*

Key words*: "Tabiblar Begi", "Urjuza" epic, "Risolat al-Tayr", "Salomon and Ibsol", "Yusuf" stories, Mehren, "Kitab ash-shifa", philosophical poems.*

Аннотация. *В данной статье представлены сведения о жизни и деятельности Ибн Сины, его вкладе в литературу, а также о произведениях «Медицинский эпос», «Хай ибн Якзан», «Рисалат ат-Тайр», «Соломон и Ибсол» и «Искусство поэзии».*

Ключевые слова: *«Табиблар беги»,,, сага «Урджуза»,,, Рисолат ат-тайр»,,, Саломон и Ибсол»,,, рассказы Юсуфа,, Мерен, «Китаб аш-шифа», философские поэмы.*

Buyuk qomusshunos Abu Ali ibn Sinoning ijodiy faoliyati juda xilma-xil va rang-barangdir. Alloma o‘z davridagi mavjud bo‘lgan hamma fanlarda salmoqli iz qoldirgan. Ibn Sino o‘rta asr Sharq olamida tibbiyot, kimyo, astronomiya, falsafa, psixologiya, adabiyot, musiqa kabi qator fanlarni puxta egallagan va bu fanlarga doir asarlar yaratgan ulkan olimdir. U fanning 29 sohasiga oid 450 ta asar yozgan bo‘lib, shundan 240 tasi bizgacha yetib kelgan. Uning asarlari, asosan, arab tilida. U tug’ilgan paytda Buxoroda Somoniylar hukmronlik qilardi. Qoraxoniylar saltanati Somoniylar sulolasini yiqitgach, Ibn Sino Urganchga Xorazm hukmdorlari saroyiga xizmatga bordi. Bu yerda u “Tabiblar begi” degan nomga musharraf bo’ldi. Mahmud G’aznaviy saroyida xizmat qilishni rad etib, Hamadonga ketdi. 1015-1024-yillari Hamadonda yashadi, amir Shamsiddin ad-Davlani shifolagandan keyin, vazir lavozimiga ko‘tarildi. Ibn Sinoning atrofida unga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo‘lganlar bor edi. Ulaming chaquvi bilan Shamsiddin ad-Davla Ibn Sinoni o‘z hukmronligi hududidan chiqarib yubordi. U yana qattiq betob bo’lib qolgach, Ibn Sinoni toptirib keldi va yana vazir lavozimiga tayinladi.

Ibn Sino ma’rifatparvar shoir edi. U insonlarni fan va madaniyat, bilim va ma‘rifat o‘chog‘ini yoqishga, ilmiy yo‘lda og‘ishmay kamolot hosil qilishga, har bir masalaga ilmiy, aqliy yondashishga, rostgo‘y, vijdonli bo‘lishga, xullas, insoniylikning eng yaxshi xislatlarini o‘zida aks ettirib, mujassamlashtirishga va inson degan ulug‘ nomni yanada yuqori ko‘tarishga chaqiradi. Ibn Sino dostonlarini aruzning rajaz vaznida yozgan. Shuning uchun ba’zan bu asarlarni ,,Urjuza" deb ham ataganlar. Shu vaznda u tibbiyotga atab bir qancha she’riy asarlar yozdi, hozircha, bular soni to‘qqizta. Bu dostonlarning sakkiztasi tibbiyotga, bittasi mantiqqa oid asardir. Bu dostonlarning eng yirigi «Tibbiy doston» nomi bilan mashhur bo‘lgan.Ibn Sino bu asarini yozganida hali u meditsina olamiga tanilmagan va o‘zining mashhur «Tib qonunlari» asarini yozmagan ham edi.

,,Tibbiy doston"da 1326 bayt bo‘lib, 2652 she’rdan iborat. U yerda muallif ozgina nazmiy muqaddima (o‘n olti bayt)dan so‘ng nazariy meditsinaga o’tadi, bunga 705 bayt bag‘ishlangan, so‘ng amaliy meditsinaga o‘tadi, bunga esa 605 bayt bag‘ishlangan.Undan tashqari Ibn Sino

falsafiy she’rlar ham yozgan, bu borada uning yigirma bayt, ya’ni qirq yo‘llik nafs-jon haqidagi mashhur she’ri ham bor. Ibn Sinoning bu she’ri kichik hajmli bo‘lishiga qaramay, ko‘p faylasuflar unga sharhlar yozishgan, u bir necha bor nashr ham etilgan. Misol qilib, ,,Urjuza" dostonidan olingan ruboiysini keltirishimiz mumkin:

Mening kufrimni ayblarga muhakkak sizda imkon yo‘q,
Bu olamda mening pokiza imonimdek imon yo‘q.
Zamon ahli aro tanho musulmon men edim, e voh,
Agar kofir esam men ham, bu dunyoda musulmon yo‘q.

Nasr yo‘lida Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan mashhur asarlaridan «Hayy ibn Yaqzon», «Risolat at-tayr», «Salomon va Ibsol», «Yusuf» kabi qissalarini aytish mumkin.

«Hayy ibn Yaqzon» qissasining tili, stili juda og‘ir, ayrim hollarda tushunib bo‘lmaydigan iboralar, ortiqcha sinonim so‘zlar qatorlashtirib yuborilgan bo‘lib, tushunish va tarjima qilishni ancha mushkullashtiradi. Buning bir sababi bo‘lib, albatta, bejiz bo‘lmasligi kerak. Hatto ibnsinoshunos G‘arb olimlaridan Mehren bunday qiyin formada fikr yuritishni zamondosh teologlar hujumiga uchramaslik uchun shunday qilgan, deb izohlaydi. «Ibn Sino bu risolalarini,— deb yozadi Mehren,— o‘zining eng yaqin shogirdlari uchun yozgan. Bu asarlardan uning dunyoga bo‘lgan qarashini ham bilish mumkin». Ibn Sinoning bu qissasi ko‘p jihatdan majoziy, ramziy bitilgan, kishilar fe’li atvorini o‘z ichiga qamrab ololgan va hayotiy gaplardan mulohaza yuritadigan adabiy asar hamdir. Mana shu nuqtai nazardan qaraganimizda qissaning ikki planda — ham falsafiy, ham adabiy planda yozilganligini ko‘ramiz. Darhaqiqat, Ibn Sino bu asarida ham ramz — ishoralar orqali, adabiy vositalar yordami bilan o‘ziga tuyulgan ma’lum qarashlarini bayon qilgan.

Ibn Sinoning adabiy ijodiga kiradigan asarlaridan biri uning «Risolat at-tayr» («Qush risolasi»)dir.Bu asar ham aslida ramz — ishoralar bilan yozilgan bo‘lib, olimning jon, haqiqat to‘g‘risidagi fikr va g‘oyalarini bilish uchun ham ahamiyatga molik. Sharqning yirik siymolaridan Farididdin Attor «Mantiq ut-tayr», ulug‘ Navoiy «Lison ut-tayr» kabi asarlarini yozishida Ibn Sinoning shu asari asosiy turtki bo‘lgan deyish mumkin. «Qush» haqida birinchi o‘laroq kichik asar yozgan Ibn Sinodan so‘ng bu sohada asar yozganlar uni yanada chuqurroq, yanada kengroq bo‘lishini ta’minladilar.Ibn Sinoning bu asari bilan birinchi bo‘lib Umar ibn Sahlon Soviy (1145 yilda o’lgan) shug‘ullanib, uni fors tilida sharhlagan. Undan keyin Sharqda unga juda ko’p sharhlar bitilgan.

Abu Ali ibn Sinoning avvalgi ikki nasriy asari Sharq va G’arb olimlariga ma’lum bo‘lsa ham, lekin «Salomon va Ibsol» bilan «Yusuf» qissasi to keyingi vaqtlargacha ko‘pchilik olimlarga deyarlik ma’lum bo‘lmay keldi. «Yusuf» qissasi bilan «Salomon va Ibsol» qissalarining bir-birlariga tematik bog‘liqligi Ibn Sinoning «Xutbayi tasliya»sini tashkil qilishga olib kelgan edi va natijada ikkalasi bir asar sifatida bir xil sarguzashtga duchor bo‘lgan edi. Shu sababdan bo‘lsa kerak, bular O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan majmuaga oldinma-ketin tushib qolgan.Masalan, Salomon bir inson bo‘lsa, Ibsol shu insonning ma’rifiy, ruhiy darajasi. Ibn Sino Ibsol obrazida berilgan xislatlarni insonlarda ko‘rmoqchi bo’ladi, shunga odamlarni da’vat qilib, uni ulug‘laydi. Insonning tabiatida bo‘ladigan shahvoniy hislari Salomonning xotini obrazi orqali beriladi. Bunda go‘yo istak, ya’ni xotin aqlni (ya’ni Ibsolni) egallamoqchi bo‘ladi. Lekin aql unga bo‘ysunmaydi. Shu jihatdan ham alloma Nasiruddin Tusiy Ibsolning xotindan o‘zini olib qochishi, aqlning o‘z olamiga tortishidir, deydi. «Salomonning xotini,— deydi Tusiy yana,— nafs bilan birlashib ketib, bir shaxsga aylangan, istak va g‘azabga tortadigan badan quvvatlariga o‘xshatmadir. Xotinning Ibsolga bo‘lgan ishqi esa uning boshqa quvvatlarini egallagandek, aqlini ham egallashga bo‘lgan intilishiga o‘xshatmadir».Xullas, Ibn Sinoning bu asari o‘rta asrdan qolgan adabiy yodgorliklarning bir namunasidir.«Yusuf» qissasi. Abu Ali ibn Sinoning bu asari hajm jihatidan kichik bo‘lishiga qaramay, bu to‘g‘rida dastlab asar yozganligi bilan diqqatga sazovordir.

Bulardan tashqari, Ibn Sino adabiyotshunoslikka oid «She’r san’ati» (Qohira, 1966) degan asar ham yozgan. Allomaning bu asari uning «Kitob ash-shifo»sining bir qismi bo‘lib kelgan. To‘rt qismdan iborat bo‘lgan «Ash-shifo» mantig‘ining to‘qqizinchi bo‘lagi mana shu «She’r san’ati»dan iboratdir. Bunda muallifimizning adabiyot borasidagi qarashlari, munosabatlari bitilgan.Ibn Sino «She’r san’ati» asarini sakkiz bobga ajratadi va bularning har birini fasl deb ataydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Abu Ali ibn Sino sermahsul ijodi, boy ilmiy merosi bilan jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan allomadir. U o‘z ilmiy-ijodiy faoliyati davomida nafaqat Markaziy Osiyo, balki Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida ham yuqori mavqega erishdi. Hatto G’arb ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Rahmonov N O‘zbek adabiyoti tarixi — Toshkent: ,,Sano-standart" nashriyoti
2. R. Orzibekov. O‘zbek adabiyoti tarixi — Toshkent: O‘zbek Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006
3. Vohidov R, Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi — Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006

O‘RXUN-ENASOY BITIKLARINING BADIY XUSUSIYATI

Zuxriddinova Aziza Ilxomjon qizi
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi
zuxriddinovaaziza@gmail.com

Annotatsiya*. Ushbu maqolada O‘rxun-enasoy bitiklarining badiiy xususiyatlari, ulardagi ifoda vositalari, poetik unsurlar hamda qadimiy turkiy tilning obrazli va emotsional imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bitiklarning san’atli bayoni, tarixiy voqealarni poetik shaklda yetkazilishi, ularning adabiy ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘rxun-enasoy bitiklari, badiiylik, poetik uslub, qadimiy turkiy til, obrazlilik, tarixiy yodgorlik*

Аннотация*. В данной статье рассматриваются художественные особенности Орхоно-енисейских надписей, их выразительные средства, поэтические элементы и эмоциональные возможности древнетюркского языка. Показывается литературное значение этих памятников, передающих исторические события в художественной форме.*

Ключевые слова*: Орхоно-енисейские надписи, художественность, поэтический стиль, древнетюркский язык, образность, исторический памятник*

Annotation*. This article analyzes the artistic features of the Orkhon-Enisei inscriptions, their expressive means, poetic elements, and the emotional capacity of the Old Turkic language. The literary value of the inscriptions, which convey historical events in poetic form, is explored.*

Keywords*: Orkhon-Enisei inscriptions, artistic quality, poetic style, Old Turkic language, imagery, historical monument*

O‘rxun-enasoy bitiklari qadimiy turkiy yozma yodgorliklarning eng qadimiysi va eng muhimlaridan biridir. Bu bitiklar VIII asrga oid bo‘lib, ularda turkiy xalqlarning tarixi, madaniyati, harbiy yurishlari, siyosiy qarashlari bayon etilgan. Bitiklar faqat tarixiy hujjat sifatida emas, balki o‘zining badiiy ifoda vositalari bilan ham e’tiborga loyiqdir. Ushbu maqolada aynan bitiklarning badiiy xususiyatlari yoritib beriladi.

O‘rxun bitiklarida badiiylikka erishish uchun ko‘plab obrazli ifodalar, metaforalar, parallelizm, epitet va boshqa poetik vositalar qo‘llanilgan. Masalan, “El barça toghla ilgürdi” (“Xalq tog‘lar bilan kurashdi”) kabi ifodalar kuchli badiiy yuklamaga ega.0‘rxun-Yenisey yodgorliklari o‘z navbatida , uch tarmoqqa bo‘linadi.

1. Yenisey yodgorliklari. Bu hozirgi Yenisey va Tuva avtonom viloyatidan topilgan yodgorliklardir.
2. O‘rxun yodgorliklari. Mo‘g‘uliston hududidagi 0 ‘rxun daryosi bo‘yidan topilgan Kultegin, To‘nyuquq yodgorliklaridir.
3. Talas yodgorliklari. Hozirgi QozogMstonning Jambul viloyatidan topilgan yodgorliklardir.

Bitiklarda ko‘plab poetik birliklar mavjud bo‘lib, ular nafaqat ma’lumot yetkazadi, balki tinglovchida estetik zavq uyg‘otadi. Bunday uslubiy boylik qadimiy turkiy adabiyotning shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. So‘zni “To‘nyuquq” bitiktoshidan boshlaylik. To‘nyuquq — shaxs nomi. U ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqonining maslahatchisi va sarkardasi bo‘lgan. To‘nyuquq “Turk Bilga xoqon davlatida bu bitigni yozdirdim” deydi. Bilga xoqon Eltarish xoqonning o‘g‘li edi. Bitiktoshdagi voqealar To‘nyuquq tilidan hikoya qilinadi: “Men — Dono To‘nyuquqman. O‘zim Tabg‘ach davlatida voyaga yetdim. Turk xalqi Tabg‘ach davlatiga bo‘ysunar edi…”

“To‘nyuquq” bitiktoshi kompozitsion jihatdan yetuk asar. Unda o‘ziga xos boshlanma, voqealar rivoji, xotima mavjud. Shu kompozitsiyaning o‘zida ham katta badiiylik bor. Bu maqsad to‘laligicha amalga oshgan.Yodgorlikning til xususiyatlari ham e’tiborga loyiq. U VIII asrdagi adabiy til namunasidir. Asar tilidagi ko‘plab so‘zlar hozirgi o‘zbek tilida aynan qo‘llaniladi.Bir qism so‘zlarda ozgina tovush o‘zgarishlari yuzaga kelgan, yana bir toifa so‘zlar esa bugungi iste’moldan chiqib ketgan.

Yodgorlikda o‘rni-o‘rni bilan so‘zlarning ko‘chma ma’nolarda qo‘llanishi seziladi. Shuningdek, majoz, matal, maqollardan foydalanish kuchli: “Tabg‘ach, O‘g‘uz, Qitan — bu uchovi qamal qilsa, qamalda qolajakmiz. Unda vujudining ich-u tashini — mol-u jonini topshirgan kishiday bo‘lamiz. Yupqa yig‘in tor-mor qilishga oson emish, ingichka yig‘in uzishga oson emish. Yupqa qalin bo‘lsa, tor-mor qiladigan bahodir emish, ingichka yo‘g‘on bo‘lsa, uzadigan bahodir emish”.

Asarda oltinga “sariq”, kumushga “oq”, tuyaga “yegri” singari epitetlar – sifatlashlar qo‘llangan. Undagi asosiy tasvir vositasi alliteratsiyadir. Alliteratsiya — tovushlar ohangdorligi, asosan, bir xil tovushlarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdorlikdir. Unda unli va undosh takrorlanishi mumkin.

O‘ngra qitaynyig‘ o‘lurtachi terman,
Bani o‘g‘uzug‘ o‘lurtachi — o‘q terman.
So‘z takrori ham yodgorlikda ko‘p uchraydi.
Tabg‘ach qag‘an yag‘imiz erti
O‘n o‘q qag‘ani yag‘imiz erti.

Undagi o‘ziga xos tasvir usullaridan yana biri voqea-hodisalarga muayyan yondashish bilan izohlanadi. Ko‘pincha bir necha voqea-hodisalar yoki ular bilan bog‘liq detallar ketma-ket sanaladi: “Turk budun o‘lti, alqinti, yo‘q bo‘ldi”. Bu yerdagi ketma-ket sanoq voqea zamiridagi dahshatli musibatni, kuchli fojiani juda yorqin namoyon etadi. Yoki: “Tabg‘ach, bardanayin teg. Qitany, o‘ngdalayin teg. Ban yirdantayin tegayin”. (Tabg‘ach, sen o‘ngdan hujum qil! Qitan, oldindan hujum qil! Men chapdan hujum qilay!).

Bu o‘g‘uzlar orasidan kelgan kuzatuvchi nutqidan parcha. U o‘g‘uzlar fikrini ifodalamoqda. Bu yerdagi sanoq dushman tomonidan solinayotgan tahdid va xavf-xatar doirasining nechog‘li kattaligini tasavvur etishga imkon beradi. Bularning hammasi To‘nyuquq bitiktoshining yuksak vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan qadimiy nodir badiiy asar ekanligini yana bir marta tasdiqlab turadi.

Yodgorliklarda inson shaxsi va, ayniqsa, uning erki bilan bog‘liq masalalar teran badiiy tahlil qilingan. So‘zlar takrori yodgorlikdagi asosiy tasvir vositalaridan biridir. Ammo ular matnda g‘alizlik tug‘dirmagan, aksincha, muallif fikrining ta’kidlanishiga, alohida urg‘u bilan ko‘rinishiga

yordam bergan. Bularning barchasi yodgorliklarning juda katta ma’rifiy hamda badiiy-estetik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, turkiy xalqlarning badiiy ijodi moziyning juda qadim qatlamlariga tutashgan. O‘rxun-enasoy bitiklari tarixiy manba sifatida qadrlanishi bilan birga, o‘zining badiiy uslubi bilan ham turkiy xalqlar adabiy merosida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu bitiklarning poetik jihatlarini o‘rganish kelajakdagi adabiy tadqiqotlar uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo‘shjayev, A. (2010). O‘rxun yozuvi va uning o‘rganilishi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. Ertayev, T. (2018). Qadimgi turkiy adabiyot yodgorliklari. Toshkent: Fan.
3. Tekin, T. (1994). Orhon Yazıtları. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
4. Clauson, G. (1972). An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. Oxford: Clarendon Press.
5. Berta, A. (2002). Old Turkic. München: Lincom Europa.

ERKIN VOHIDOVNING “RUHLAR ISYONI” DOSTONIDA PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING VAZIFASI

Temirova Gulshoda Nabijon qizi
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi
Ilmiy rahbar: Sobirov Anvar Kuvandikovich

Annotatsiya*: Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida paremiologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy asar matnida tutgan o‘rni, eng muhimi matndagi asosiy vazifalari o‘rganilgan. Paremiologik birliklar Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni asosida tadqiq qilingan. Doston matnida paremiologik birliklar har bir xalqning o‘ziga xos qadimiy va boy ma’naviyati, madaniyati, turmush tarzi, hayoti, kishilarning jamiyatga bo‘lgan munosabati, kuzatishlar va tajribalariga suyanish asnosida chiqarilgan xulosalarini ifodalovchi ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ularini, ijobiy fazilatlarini o‘zida mujassamlashgan tuyg‘ulari namoyon bo‘lishi isbotlangan.*

Kalit so‘zlar*: Paremiologiya, paremiologik birliklar, maqol, matal, hikmatli so‘z, ibora, filologik tahlil, til birliklarining vazifasi, tag ma’no, konnotativ ma’no.*

Аннотация*: в статье предоставлена информация о парнемологических подразделениях, а паркологические подразделения были изучены на основе эпосов Эркина Вахидова. Их долг в тексте EPIC был идентифицирован.*

Ключевые слова*: парремиология, пармологические единицы, пословица, маталь, мудрый слово и фраза «Ruhlar isyoni»*

Annotation*: The article provides information on paremoliological units and the paremological units were studied on the basis of the epics of Erkin Vahidov. Their duty in the text of the epic has been identified.*

Keywords*: parememiology, paremological units, proverb, matal, wise word, and the phrase Ruhlar isyoni".*

Xalq og‘zaki ijodining qadimiy namunalaridan hisoblangan paremiologik birliklar boshqa janrlardan o‘zining qisqa, lo‘nda, obrazli va chuqur mazmunga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Paremiologiya – (yunoncha: paroimia – hikmatli so‘z, zarbulmasal) 1) ma’lum bir tildagi avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar; 2) muayyan tilda mavjud bo‘lgan maqol, matal kabi hikmatli so‘zlar paremalar tizimini tashkil etadi.

Paremiologik birliklar orqali har bir xalqning o‘ziga xos qadimiy va boy ma’naviyati, madaniyati, turmush tarzi, hayoti, kishilarning jamiyatga bo‘lgan munosabati, kuzatishlar va

tajribalariga suyanish asnosida chiqarilgan xulosalarini ifodalovchi ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ularini, ijobiy fazilatlarini o‘zida mujassamlashgan tuyg‘ulari namoyon bo‘ladi.

Paremiologiyada quyma fikrni ifodalovchi eng mayda birlik parema deb atalishi ma’lum. Paremiologiya tildagi maqol, matal, aforizm va hikmatli so‘z hamda iboralarni ikki uslubda o‘rganadi. Paremalar avloddan avlodga faqat og‘zaki holdagina o‘tib kelganligi, xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lganligi uchun adabiyotshunoslik fanining o‘rganish obyekti hisoblanadi, chunki shu hikmatli iboralarning asosiy qismi ko‘proq she’riy formaga o‘xshaydi hamda ularda o‘xshatish (tashbeh, istiora, metofara) taqqoslash (antiteza) parallelizm, qofiyalash, anafora, piching, kesatiq, kinoya kabi badiiy tasviriy vositalar qo‘llangan bo‘ladi. Paremalar so‘zlardan tuzilib ma’lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo‘lganligi uchun tilshunoslikning ham obyekti sanaladi, ya’ni ular so‘zlardan tuzilganligiga ko‘ra oddiy gaplarga o‘xshasa ham, mazmuni, tuzilishi, ohang jihatdan va boshqa grammatik xususiyatlari jihatidan o‘ziga xosliklarga ega. Paremiologiya sohasining o‘rganish obyekti keng bo‘lganidek, paremiologik birliklarni uch guruhga bo‘lishimiz mumkin:

1. Maqollar – grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi kichik, ixcham, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma’noda yoki ham ko‘chma ma’noda ham o‘z ma’nosida qo‘llana oladigan birikmalardir.
2. Matallar – tarbiyaviy, pand nasihat ruhidagi, grammatik jihatdan to‘liq gap shaklida bo‘lgan, faqat o‘z ma’nosidagina qo‘llanadigan qisqa, ixcham xalq iboralaridir. Masalan: Odam olasi ichida – mol olasi sirtida, Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka – izzatda. Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘.
3. Aforizmlar – umumlashtirilgan fikrni ifodalovchi lo‘nda, hikmatli birikmalar. Shuni ham aytib o‘tish joizki, aforizmlar aslida ikki guruhga bo‘linadi: nutqiy aforizmlar, til aforizmlari. Nutqiy aforizmlar ma’lum bir shaxsga tegishli bo‘ladi, Til aforizmlari umumiy hammaga tegishli bo‘lib umumiy bo‘ladi. Misol uchun; Alisher Navoiyning: “Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur”, – deb nomlangan bayti nutqiy aforizm bo‘lsa, “Yaxshiga yondosh, yomondan qoch”, “Yetti o‘lchab bir kes”, “Tilingda bo‘lsa boling, kulib turar iqboling” kabi hikmatli so‘zlar til aforizmlariga aylanib ketgan.

4.Frazeologizmlar so‘zlar kabi yaxlit bir ma'no ifodalasa-da, lekin frazeologik ma'no yordamida leksik ma'nodan farq qiladi. Frazeologik ma'no qoshimcha attenkalardan iborat boladi. Belgi, harakat kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan ma'lumot frazeologik ma'no deyiladi. Masalan: Endi to‘rtinchi rotani ham ratsiya bilan ta'min qilsak, oshiq olchi bolardi. Bu yerda ekanizni eshitib, hech narsa ko‘zimga ko‘rinmadi, uchib bora qolsam dedim. Birinchi misoldagi frazeologizm belgi, ikkinchi misoldagisi esa harakatni bildiradi. Shu sababli, frazeologizmlar so‘zlarga sinonim bo‘lgan paytda ham frazeologik ma'no bir-biriga teng bo‘lmaydi. Frazeologik ma'noning hajmi leksik ma'noning hajmiga nisbatan keng, murakkab bo‘ladi. Masalan, yorilishi qiyin yong‘oq – juda qiyin muammo. (Boshida yong‘oq chaqmoq – o`ta darajada azoblanmoq).

Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonidagi paremiologik birliklarni tahlil qilar ekanmiz, avvalo, ularning doston matnida quyidagicha uchrashi aniqlandi.

		Dardin to‘kmoq		
		Yuragidan to‘kmaslik		
		Nuqta qo‘ymas		
		Dunyodan o‘tmoq		
				Tirik bo‘lmoq
				Umidsiz bo‘lmoq
		Ko‘zi to‘ymaslik		Tashna bo‘lmoq
		O‘yga toldi		O‘ylanib qolmoq

		Ko‘zyosh to‘kmoq		Yig‘lamoq
		Bosh ko‘tarmoq		
				qayg‘urib yig‘lamoq
		Alamni qog‘ozga to‘kmoq		
		Chirog‘i yonib		
		Qon to‘kmoq		O‘ldirmoq
				Ishonchi ko‘paymoq
		Ko‘r ko‘zni ochmoq		
		Manglayi sho‘r		
		Yo‘ldan ozmoq		
		Ko‘zni ochmoq		
		ter to‘kmoq		
		Ko‘zlar ochilmoq		
		Ta'na-tosh yog‘moq		
				Baxtsiz bo‘lmoq
		Qo‘lni qonga bo‘yamoq		Kimnidir o‘ldirmoq
				bo‘lmaslik
		Qad ko‘tarmoq		bo‘lmoq
				Qayg‘urib yig‘lamoq

		Mard agar sen Dardni ichga yut. Ul yuzingga ursalar,sen Bul yuzingni tut.		
		Quloq solgin so‘zimga Adolat deb bitdim-u she’r Nil tortdilar ko‘zimga		
		La’nat Rustam,Zolni tanib olam O‘zim qoldim tahqirga		
		Zulmat aro Ko‘p izladim yo‘limni, Men o‘zimni qildim ado yengolmadim zulmni		
		Tole yo‘qki jonima balolig‘ bo‘ldi Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi O‘z yerni qo‘yib Hind sori yuzlandim Yo rab,Netayin ne yuz qarolig‘ bo‘ldi		
		Yorab, baloyi ishq ila qil oshino mani Bir dam baloyi ishqdin qilma judo mani		

		U dunyo chin Ista ruhning kamolin		
		Shoirlik – yurakda qon silqib turgan jarohat		
		Zohid, senga hur-u manga janona kerak Jannat senga bo‘lsin manga mayxona kerak		

		O‘zingga ur tig‘ni avval og‘rimasa birovga	

Dostonda hind xalqini oqsuyak ingliz istibdodidan omon bo‘lishini istagan, o‘z xalqini ham shu istak royobi uchun uyg‘oqlikka chorlagan, so‘ngra shu chorlovga to‘lov sifatida o‘z erkidan mosuvo qilingan Nazrul Islomning tutqunlikdagi achchiq qismati, qismatidan-da achchiq o‘y-xayollari birma-bir hikoya qilina turib, muallif ora-sira o‘quvchi diqqatini insoniyat tarixidagi turfa xil rivoyatlarga qaratadi. Har bir belgi, har bir harfda adabiy niyati uchun xizmat qilishini hisobga olsak, bu rivoyatlar Nazrul Islomning ayanchli qismatini yoritish emas, bashariyatning diqqatini ikki toifaga qaratish: oq va qora, yorug‘lik va zulmat, ma’rifat va jaholat, istibdod va ozodlik…, shu bilan birga, muallif o‘quvchi nigohini strelka harakati boylab turfa voqealar, taqdirlar, tasvirlarga qaratar ekan, ularga ozodlikning eng ulug‘ ne’mat ekanligini, uni asrash, yaltiroq yovlarga boy berib qo‘ymaslik zarurligini uqtiradi. Bu kabilarni o‘quvchiga uqtirish jarayonida Erkin Vohidov yuqoridagi kabi paremiologik birliklardan foydalanadi. Biz mazkur “Ruhlar isyoni” dostonidagi paremiologik birliklarni tadqiqiga nazar tashlasak, asardagi har bir parema o‘z ma’nosi jihatdan salmoqli vazifa bajarganligi ma’lum bo‘ladi. Asardagi:

Kimning dildosh
Bor ulfati,
***Dardin** unga **to‘kadi**.*
Yolg‘izlarning bor kulfati
Dil tubiga cho‘kadi. (8-bet)

she’riy parchaga e’tibor bersak, “dardin to‘kmoq” iborasi asnosida shoir o‘quvchiga Nazrul Islomning “dardini eshitguvchi” bir hamrohi yo‘qligi, uning qarashlariga hamfikr do‘sti bo‘lmaganligini, shuning uchun u yovga qarshi bir o‘zi mardonavor tura olganligini yaqqol ochib bermoqda. Yana shunga e’tibor qaratish joizki, ”Kimning dildosh Bor ulfati” misrasidagi “Bor” kesim egadan oldinga chiqishi, ya’ni inversiya hodisasiga uchrashi bir qadar ma’no tashimoqda.Muallif ”Kimning dildosh ulfati bor” tarzida ham keltirsa ham bo‘lar edi, ammo u urg’uni aynan “bor” so‘ziga tushirmoqda hamda Nazrul Islom do‘stga muhtoj ekanligini anglatmoqda. “Dardini to‘kmoq” iborasi qofiya talabi bilan “dardin to‘kmoq” tarzida qo‘llangan. “Yolg’izlarning bor kulfati” misrasida inversiya hodisasi mavlud bo‘lib, asarda zamon shiddati, shafqatsizligini ochib berishga xizmat qilgan.”Dil tubida cho‘kadi” misrasi metafora usulida ma’no ko‘chirlib, asarda “o‘kinish” kayfiyatini berib turibdi.

Yoki bo‘lmasa:

So‘yla, inson
*So‘yla **qadding***
***Ko‘tarib** baland.*
Yuksaklikda sening qadring
Himolay monand. (30-bet)

Dostondagi “Isyon qo‘shig‘i” sarlavhasi ostidagi mazkur she’riy jumlada o‘sha notinch vaziyatda xalqqa “Qad ko‘tarib” isyon qilishga da’vat etmoqda. Bu yerdagi “**qad ko‘tarmoq**” iborasini qo‘llash asosida xalqining mustamlakachi zolimlar qo‘lida “**qaddi egik**”, “**tili qisqa**” bo‘lib yashayotganligiga ishora qilingan.”So‘yla,inson” misrasida undalma gapning oxirida kelib undash, chaqirish ma’nosini bildirib kelmoqda.”So‘yla qadding ko‘tarib baland” misrasi inversiya hodisasiga uchrab, “tili qisiq” xalqqa haqiqatini aytishga da’vat bor go‘yo.”Qadding ko‘tarib baland” birikmasida holning hollanmishdan keyinga o‘tib ketganligiga

guvoh bo‘lamiz. Bu yerda kuchli ma’no tashishga xizmat qilgan.”Yuksaklikda sening qadring Himolay monand” birikmasida metafora usulida ma’no ko‘chirilmoqda.

Ishi qiziq bu jahonning
Hakamlar hukm etdilar:
Shoirni ul g‘alayonning
Sababkori, dedilar.
Aybnomani tinglang, hatto –
Faryod qilar toshlar ham,
“Hindu bilan
Muslim aro
Qutqu solgan shul odam”. (56-bet)

Mustamlakchilar o‘z ayblarini Nazrul Islomga to‘nkab, uni “xalq dushmani” deb atashadi hamda u “hind va musulmonni gijgijlagan inson” deya daxshatli tuhmat bilan qamoqqa olinadi. Bu yerdagi asosiy vazifani “Qutqu solmoq” iborasi, ya’ni “gijgijlamoq” bajarmoqda.”Ishi qiziq bu jahonning” misrasida inversiya hodisasi kuzatilib, aniqlovchi aniqlanmishdan keyinga o‘tib ketib, qofiya talabini yuzaga chiqarmoqda.”Shoirni ul g’alayonning sababkori, dedilar” misrasida epiteza hodisasini ko‘rishimiz mumkin. Epiteza so‘z oxirida bir tovushning ortishidir.”Aybnomani tinglang, hatto – faryod qilar toshlar ham” misrasida inversiya hodisasi kuzatiladi. Gapda mantiqiy urg’u kesimga tushgan.”Hindu bilan muslim aro qutqu solgan shul odam” misrasida epiteza hodisasi kuzatiladi.

Brahmanlar Dovul qoqdi.
Fatvo berdi Imomlar
Ko‘cha to‘lib qonlar oqdi
To‘qnashganda Imonlar. (46-bet)

Ushbu parchada jang paytidagi holat gavdalanmoqda.”Dovul qoqdi” iborasi “Yomon ovoz chiqarmoq” ma’nosini anglatmoqda. “Fatvo bermoq” iborasi “Ruxsat bermoq” ma’nosida kelmoqda.” Ko‘cha to‘lib qonlar oqdi To‘qnashganda Imonlar” misrasida inversiya hodisasi kuzatilib, payt holi hollanmishdan keyinga o‘tib ketgan. Bu qofiya talabi bilan yuzaga kelgan.”To‘qnashganda imonlar” birikmasi metafora usulida ma’no ko‘chirilgan.

U kun bo‘yi
Giyoh terib
Kezib tog’-u biyobon,
Odamlarga shifo berib
Yashar ekan
Shodumon. (60-bet)

“Jaholat to‘g’risida rivoyat” sarlavhasi ostidan olingan ushbu parchada hakimning faoliyati haqida gap ketmoqda.”Kezib tog’-u biyobon” birikmasi inversiya hodisasiga uchragan.”Shifo bermoq” iborasi “Kasaldan tuzatmoq” ma’nosini anglatib kelmoqda. “Yashar ekan shodumon” misrasida inversiya hodisasi kuzatilgan.

Mazkur asarda aforizmlar o‘rni beqiyosdir, chunki muallif aforizmlarni keltirish orqali o‘quvchiga pand-nasihat berib o‘tadi:

“Mard agar sen
Dardni ichga yut, degan.
Ul yuzingga ursalar, sen
Bul yuzingni tut, degan”. (35-bet)

Yuqoridagi aforizm hikmatga yo‘g‘rilgan bir o‘gitnomadir. Shoirni nafaqat kuchli bo‘lishga, balki doston o‘quvchisiga ham ta’sir qilishini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Bu yerda Nazrul Islom she’riyati tanqid ostiga olinib, uning she’riyati xalq tomonidan tan olinmayapti. Shu bois muallif Nazrul Islomga taskin berish maqsadida Budda tilidan aytilgan yuqoridagi aforizmni keltirmoqda hamda shoirni yanada shijoat bilan ishlashga undamoqda.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikning paremiologiya bo‘limi juda rang-barangdir. Bu bo‘limning maqol, matal, hikmatli so‘z, ibora kabi turlari bor. Shu nuqtayi nazardan paremiologik birliklar sirasiga kiruvchi ibora doston tarkibida yangicha ma'nolarni anglatgan. Asarda ibora so‘zlovchining o‘quvchiga obrazlarning hissiy kechinmalarini yaqqol ochib berishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Berdiyorov H., Rasulov R., O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – Toshkent, 1984.
2. Proceedings of Global Technovation 2nd International Multidiscriplinary Scientific Conference.
3. Normamatova Gulasal Toshboy qizining “O‘zbek xalq dostonlarida paremiologik birliklarning ifodalanishi” 70230101-Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi bo‘yicha magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi, Termiz-2023.
4. “Ruhlar isyoni” dostoni.
5. www.ziyouz.com kutubxonasi.

MAXMUDXOJA BEHBUDIY G‘OYALARINING BUGUNGI KUNGA TATBIQI

Abduhakimova D.
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Annotatsiya*. Maqola Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlaridagi g‘oyalar haqida bo‘lib, unda asarlarining ma’no mazmuni, xalqimiz uchun ahamiyati, yosh avlodni tarbiyalashdagi o‘rni aks ettirilgan. Shuningdek, bugungi kun uchun nechog‘lik muhim ekanligi yoritib berilgan.*

Kirish so‘zlar: *ta’lim, tarbiya, jaholat, qoloqlik, o‘zbek dramachiligi, "Padarkush", madrasa talabalari, "Aziz talabalarga murojaat", buyuk Turkiston, dunyoviy fan, "Ikki emas to‘rt til lozim", "Ehtiyoji millat" millat ravnaqi, mutolaaxona, qaror*

Maxmudxoja Behbudiy XX asr bo‘sag‘asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyondasi, yangi zamon o‘zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidchilarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jamhuriyat g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchi, o‘zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi.

Uning buyuk Turkiston bo‘lish g‘oyalari o‘z asarlarida aks etganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan,1913-yil 12-iyulda "Samarqand" gazetasida chop etilgan "Ehtiyoji millat" maqolasida ko‘rinadiki, " Chin dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozim, faqat shari'at bilmoq kifoya etmas, qonun va zakotni ham bilmoq lozim. Davlat dumasida biz Turkiston musulmonlaridan huquqshunos vakil bo‘lsa, bizning din va millatimiz na’figa harakat qilur. Ammo shunday odam bizda yo‘q. Boshimiz og‘risa, do‘qturga boramiz. Ammo dardimizni aytmoqqa til yo‘q. O‘zimizda do‘qtur yo‘q. Imorat qurmoqchi bo‘lsak, injenerga muhtoj bo‘lamiz".

"Ikki emas to‘rt til lozim " maqolasida esa turkistonliklar zamon bilan hamnafas bo‘lishlari uchun turkiy, forsiy, arabiy, rusiy tillarni bilishlari, ularda bemalol muloqot qilish darajasiga yetishishlari lozimligi ta’kidlanadi. Behbudiy maqolalarining aksariyati Turkiston maktab va madrasalarining islohi, sa’y-harakatlari haqida edi.

"Behbudiy maqolalarining ko‘besi muhim mavzularda yozilgan bo‘lib hanus eskirgan emas va bu kunlarda ham biz uchun dastur amal bo‘laturg‘on foydalik so‘zlardir" deb yozadi o‘z vaqtida Hoji Muin. Darhaqiqat, uning "Aziz talabalarga murojaat" maqolasida Behbudiy asosiy urg‘uni madrasa talabalari tahsil olayotgan darsliklar mazmun-mohiyatini anglashga, yangi davr talabasi yangicha fikrlar beradigan zamonaviy darsliklardan o‘qib o‘rganishlariga qaratgan. Bu maqolada muallif zamonda tenglar bilan bir safda qadam tashlash uchun 500 yil oldin yozilgan asarlardan emas, dunyo kashfiyotlari, ixtirolari, yangi fikrlari bilan sug‘orilgan yangi ilmiy asarlar yaratilishi va ular asosida talabalarga tahsil berilishi kerakligiga alohida e’tibor qaratadi. Behbudiyning ushbu fikrlari hali zamon dolzarbligini yo‘qotgan emas.

O‘zbek dramachiligining hamma e’tirof etgan birinchi namunasi "Padarkush" da milliy fojia sifatida ilmsizlik ochib berilgan. Behbudiy asar g‘oyasini keskin ziddiyatlar, to‘qnashuvlar,

xarakterlar kurashi asosida ko‘rsatishdan ko‘ra ta’lim-tarbiya orqali mamlakatni rivojlantirish mumkinligini hamda Turkistonlik yoshlarning ilm olishdan bosh tortishlari yomon oqibatlarga olib kelishini ko‘rsatishga, ya’ni didaktik ta’sirga urg‘u beradi. Dramada ilgari surilgan jiddiy muammolar: ta’lim va tarbiyani kuchaytirish, xalqni asriy jaholat, qoloqlikdan qutqarish, jinoyat va jazo, majburiyat va mas’uliyat singari ijtimoiy munosabatlar sodda va ta’sirli ifodalangan. Drama asosidagi eng muhim ijtimoiy masalalar jadidlar va ularning maqsadlari bilan uyg‘unlashib ketgan.

Bugungi kunda Prizedentimiz Sh.Mirziyoyev Behbudiy ijodi, ilgari surgan g‘oyalariga alohida e’tiborni qaratishi ham bejiz emas. Chunki uning fikrlari zamonamiz uchun muhim va dolzarb masalaga aylanmoqda. Xususan, Behbudiy 1908-yili Samarqand shahrida "Mutolaaxona" nomli kutubxonaga asos solgan edi. Bugungi kunda esa bu kutubxona zamonaviy yondashuv asosida qayta bunyod bo‘ldi. 2024-yil "Mutolaa"loyihasining keng ko‘lamli taqdimoti ishlab chiqildi. Loyihaning maqsadi O‘zbekistonda kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirish, kitob o‘qish va uning targ‘ibotini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda yangi bosqichga olib chiqish, o‘zbek va jahon adabiyotining eng sara asarlarini jamlab aholi, jumladan, yoshlar uchun audio, video variantlarda bepul foydalanish imkoniyatini yaratishdan iborat edi. "Mutolaa" loyihasi doirasida 1100 dan ortiq kitoblarning audio va elektron variantlari tayyorlanib mobil ilovaga joylashtirildi. Bu kabi ezgu loyihalar zamirida, albatta, jadidchilarimiz, jumladan, Behbudiy g‘oyalarining ta’siri kuchli ekanini ko‘rishimiz mumkin. Behbudiy hayotini ma’rifatga bag‘ishladi. Bir umr shu maqsad bilan yashadi. Xalq farzandlarini o‘qitishga chorladi. Ularga til o‘rgatish, zamonaviy ilmlardan saboq berishni ertangi yorug‘ kelajak bilan bog‘ladi. Maktab ochib darsliklar, kitoblar yozdi, bolalarga saboq berdi. 2025-yil 3-yanvar kuni "Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib, jamoat arbobi, noshir va pedagog Maxmudxoja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida"gi qarorda Behbudiy "Tanlangan asarlar to‘plami", uning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop kitoblarni nashr etish, "Maxmudxoja Behbudiy" kino seriali, "Xalq yuragi" badiiy-publitsistik filmlarining ommaviy namoyishlarini tashkil qilish belgilandi. 2020-yil Prezidentimiz farmoni bilan Maxmudxoja Behbudiy "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi va mukofot Behbudiy avlodlariga topshirildi.

Umuman olganda, Behbudiy ijodiy me’rosini o‘rganar, uning fikrlari, g‘oyalarining targ‘iboti sifatida zamonamizdagi ezgu ishlarni amalga oshirar ekanmiz, barcha sa’y-harakatlar millat ravnaqi, xalqning orzu-armonlari ushalishi, ma’naviy va madaniy ongni yuksaltirishga qaratilganligini teran anglashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.B.Qosimov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti.T,: Sharq 1998.
2.Maxmudxoja Behbudiy.Tanlangan asarlar T.:Ma’naviyat 1998.
3.Jadidlar.Maxmudxoja Behbudiy. T.: 2022.
4.ZarNews.uz veb.sayti

M.BEXBUDIY HAYOTI, IJODI VA PUBLISISTIKASI

Saxlaqulova Z.
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan ma’rifatparvar yozuvchi va publitsist Mahmudxo‘ja Bexbudiyning hayoti, ijodi hamda publitsistik faoliyati atroflicha o‘rganilgan. Unda Bexbudiy ilgari surgan islohot g‘oyalari, uning milliy uyg‘onishdagi tutgan o‘rni, ta’lim-tarbiya va maktab-maorifga bo‘lgan qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, u nashr etgan “Taraqqiy” va “Shuhrat” kabi gazeta va jurnallar orqali olib borgan publitsistik faoliyatining mazmuni ochib berilgan. Bexbudiyning asarlari va g‘oyalarining hozirgi zamon uchun dolzarbligi ham alohida e’tiborga olingan.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Bexbudiy, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, islohot, publitsistika, milliy uyg‘onish, taraqqiyot, o‘zbek matbuoti, maorif, “Taraqqiy” gazetasi.*

Annotation*. This article comprehensively studies the life, work and publicistic activity of Mahmudkhodja Bekbudiy, an enlightened writer and publicist, one of the brightest representatives of the Jadid movement. It analyzes the reform ideas put forward by Bekbudiy, his role in the national revival, his views on education and school education. It also reveals the content of his publicistic activity through newspapers and magazines such as "Taraqqiy" and "Shuhrat". The relevance of Bekbudiy's works and ideas for the present time is also given special attention.*

Keywords: *Mahmudkhodja Bekhbudiy, Jadidism, Enlightenment, reform, journalism, national awakening, development, Uzbek press, education, "Taraqqiy" newspaper.*

Аннотация. *В статье подробно рассматриваются жизнь, творчество и публицистическая деятельность Махмудходжа Бехбуди — просвещенного писателя и публициста, одного из ярчайших представителей джадидского движения. В статье анализируются реформаторские идеи, выдвинутые Бехбудий, его роль в национальном возрождении, а также его взгляды на образование и школьное обучение. Раскрывается также содержание его публицистической деятельности посредством таких газет и журналов, как «Тараккий» и «Шухрат». Особое внимание было уделено актуальности произведений и идей Бехбуди для современной эпохи.*

Ключевые слова: *Махмудходжа Бехбудий, джадидизм, Просвещение, реформа, журналистика, национальное пробуждение, развитие, узбекская пресса, образование, газета «Тараккий».*

KIRISH:O‘zbek xalqining ma’naviy va ma’rifiy uyg‘onishida katta rol o‘ynagan jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllanib, millatning ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy hayotiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu harakatning eng ilg‘or, fidokor namoyandalaridan biri Mahmudxo‘ja Bexbudiy bo‘lib, u nafaqat zamonasining mashhur ma’rifatchisi, balki iqtidorli publitsist, o‘qituvchi va sahna asarlari muallifi sifatida ham tarixda muhim o‘rin egallagan. Bexbudiy ilm-ma’rifatni asosiy qurol deb bilib, xalqni jaholatdan chiqarish va taraqqiyot sari yetaklash g‘oyasini ilgari surgan, matbuot va adabiyot orqali keng jamoatchilikni uyg‘otishga intilgan.[1]

Uning hayoti va ijodini chuqur o‘rganish — nafaqat tarixiy haqiqatni anglash, balki bugungi ma’naviy taraqqiyot yo‘lida muhim saboqlarga ega bo‘lish imkonini beradi. Ayniqsa, Bexbudiyning publitsistik merosi va islohotchi qarashlari yosh avlod qalbida milliy o‘zlikni anglash, Vatanga sadoqat va fidoiylik tuyg‘ularini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mahmudxo‘ja Bexbudiy (1875–1919) – o‘zbek jadidchilik harakatining etakchi vakillaridan biri bo‘lib, ma’rifatparvar, publitsist, dramaturg va jamoat arbobi sifatida o‘zining boy faoliyati bilan xalqimiz tarixida katta iz qoldirgan. Samarqandda tug‘ilib, diniy ilmlarni o‘zlashtirgan holda, zamonaviy bilimlarga ham e’tibor bergan Bexbudiy yoshlik yillaridayoq musulmon dunyosidagi orqada qolish sabablarini tahlil qila boshlagan. Uning fikricha, bu holat jaholat va ilm-fanning yetishmasligidan kelib chiqqan.[2]

Bexbudiy ilm-fanni yoyish, yangicha fikrlashni rivojlantirish va xalqni o‘qitish orqali taraqqiyotga erishish g‘oyasini ilgari surgan. U jadid maktablarini tashkil etish, darsliklar yozish va matbuot orqali jamiyatni uyg‘otish bilan shug‘ullangan. 1906-yilda o‘zining "Taraqqiy" gazetasini nashr etishni boshlagan va bu gazeta o‘zbek matbuoti tarixida muhim o‘rin egallagan. "Shuhrat" jurnali ham uning tashabbusi bilan chop etilgan.[3]

Bexbudiyning publitsistikasi o‘tkir fikrlar, xalqparvarlik g‘oyalari va islohotlarga chaqiruv mazmuni bilan ajralib turadi. Uning maqolalari ilm olish, Vatanga sadoqat, o‘zlikni anglash va zamonaviy dunyo bilan hamqadam bo‘lish g‘oyalarini o‘quvchilarga singdirgan. Jumladan, "Biz nega orqada qoldik?" va "Milliy uyg‘onish nima?" kabi maqolalari zamonaviy tafakkurni shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

Bexbudiy nafaqat publitsistika bilan cheklanib qolmay, balki sahna asarlari yozgan. 1911-yilda yaratgan "Padarkush" dramasi o‘zbek dramaturgiyasining ilk realizm namunalaridan biri hisoblanadi. Unda oila tarbiyasi, axloqiy inqiroz, zamonaviylik va eskilik o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar ko‘rsatilgan. U teatrni xalqni tarbiyalash vositasi sifatida ko‘rgan.

Afsuski, Bexbudiy ko‘plab qarshiliklarga duch kelgan. 1919-yilda Toshkentga safar qilib qaytayotganida Qizil Armiya tomonidan hibsga olinib, qatl etilgan. Uning o‘limi jadidchilik harakati uchun katta yo‘qotish bo‘lsa-da, uning g‘oyalari, merosi va islohotparvarlik ruhi bugungi kungacha xalqimiz ongida yashab kelmoqda.

“Biz nega orqada qoldik?”[4]

“Millat ichra bir millat ham borki, ular bizdan ancha orqada edilar. Endi ular bizdan ming marta o‘zib kettilar. Nega? Sababi bitta: ular ilmga yopishdilar, biz esa uxlab yotdik.”

Izoh: Bu maqolada Bexbudiy ilm-fan, bilim olishning hayotiy zarurat ekanini ta'kidlab, musulmon jamiyatining orqada qolish sabablari ustida mulohaza yuritadi.

“Padarkush” (1911-yil, drama)[5]

“Aqlsiz farzand – ota-onaning yuziga dog‘, el-yurtga fojia.”

“Aqlli bola – jamiyat ustuni, johil bola – uning balosi.”

Izoh: Bu sahna asarida oila, tarbiya, qadriyatlar va yangicha dunyoqarash o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar ochib berilgan. “Padarkush” o‘zbek dramaturgiyasidagi ilk realizm namunasi hisoblanadi.

“Taraqqiy” gazetasi materiallaridan[6]

“Haqiqiy musulmonlik – ilmga, taraqqiyotga, poklikka asoslangan bo‘lishi kerak. Biz faqat tashqi rasmiyat bilan emas, asl mohiyat bilan yashashni o‘rganmog‘imiz lozim.”

Izoh: Bu fikrlar orqali Bexbudiy diniy tushunchalarni ham zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashtirish tarafdori bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Bexbudiy faoliyati jadidchilik harakati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u zamonasining eng ilg‘or, islohotparvar ziyolilaridan biri sifatida millatning ma’naviy uyg‘onishiga fidoyilik bilan xizmat qilgan. Bexbudiyning publitsistik asarlari, ma’rifiy maqolalari, sahna asarlari va islohotlari xalqni jaholat va savodsizlikdan qutqarishga, ilm-fan orqali taraqqiyotga erishishga intilgan.

Uning maqolalari yangi fikrlashni, milliy o‘zlikni anglashni va zamonaviy ilm-fan bilan birga yashashni targ‘ib etgan. "Taraqqiy" va "Shuhrat" kabi nashrlar faqat axborot berish bilan cheklanib qolmasdan, balki ijtimoiy ongni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynagan. Bexbudiyning asarlarida xalq taqdiri, yosh avlod tarbiyasi, milliy birlik va taraqqiyot g‘oyalari chuqur ifoda topgan.

Shunday qilib, Bexbudiy o‘z davrining dolzarb masalalarini ko‘tarib chiqqan va bugungi kunda ham uning g‘oyalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Uning ijodi va publitsistik merosi yosh avlod uchun ibrat maktabi sifatida xizmat qilmoqda. Bexbudiyning merosini o‘rganish orqali biz o‘z tariximiz, ma’naviyatimiz va milliy qadriyatlarimizni chuqur anglab, kelajakka ishonch bilan qadam qo‘yish uchun kuch olamiz.

XULOSA

Mahmudxo‘ja Bexbudiy o‘z davrining yirik ma’rifatparvari, publitsisti va fidoyi ziyolisi sifatida xalqni ilm va ma’rifatga undagan, yangi fikrlar va zamonaviy dunyoqarashni targ‘ib qilgan buyuk shaxsdir. U jadid maktablarini tashkil etib, matbuot orqali jamiyatni uyg‘otish, ijtimoiy-siyosiy rivojlanishga hissa qo‘shishni maqsad qilgan. Bexbudiyning publitsistik merosi xalqparvarlik, adolat va millatga bo‘lgan muhabbat bilan yozilgan bo‘lib, u bugungi avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Bexbudiy merosi — bu o‘zlikni anglash, Vatanga sadoqat va milliy g‘urur tuyg‘usini oshirishga yo‘naltirilgan bebaho xazina. Uning hayoti va ijodini chuqur o‘rganish, qadrlash va kelajak avlodga yetkazish bizning muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

2. Abdurahmonov A. Jadidchilik harakati va Mahmudxo‘ja Bexbudiy. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
3. Rajabov A. Mahmudxo‘ja Bexbudiy va o‘zbek matbuoti. – Samarqand: Zarafshon, 2007.
4. Bexbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1999.
5. Usmonov Q. Jadidlar merosi va bugungi davr. – Toshkent: Fan, 2015.
6. G‘aniyeva H. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.

CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ASARIDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA BADIIY GO‘ZALLIK

Nuriddinova Zarnigor Nizomiddin qizi
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg'on filiali

Annotatsiya*. Ushbu maqolada Abdulhamid Cho‘lponning "Kecha va Kunduz" romanidagi ayol obrazlarining ramziy va badiiy jihati tahlil qilinadi. "Kecha va Kunduz" romani adabiyotimizdagi ilk realist asarlardan biri hisoblanadi. Asarda ijtimoiy muammolar yaqqol ko‘rsatilgan va ayol obrazlari orqali ramziy va badiiylik yuzasidan chuqur ma'nolar aks ettirilgan. Markaziy o‘rinda Zebi va Qurvonbibi XX asr boshidagi o‘zbek jamiyatidagi gender tengsizligi, va shaxsiy erksizlik jihatlarini ramziy tarzda ochib bergan obrazlari ekanligi ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *Cho‘lpon, "Kecha va Kunduz", ayol obrazlari, ramziylik, badiiylik, realizm, gender tenglik, o‘zbek adabiyoti.*

Zebiniso obrazi: Erkinlik va cheklovlar ramzi. Zebiniso "Kecha va Kunduz" asaridagi eng murakkab obrazlardan biri sanalib, uning taqdiri o‘zbek ayolining ichki va tashqi olamdagi kurashlarini ramziy tarzda ochib beradi. Zebi o‘z xohish va istaklari jamiyatning qat'iy belgilab qo‘ygan normalari o‘rtasida qolgan ayol sifatida gavdalantiradi. Uning Razzoq so‘fi bilan munosabatlari, Akbarali mingboshiga turmushga chiqishi va mazmunsiz hayotidan ham uzilib qolishi shaxsiy fojiasi emas, balki yuqorida ta'kidlangan ijtimoiy normalarning ayolga qo‘ygan cheklovlarining ramzidir. Zebinisoning hayotdan uzilishi o‘z joniga qasd qilish shaklida emas, balki u psixologik bosimlar ta'sirida ruhan nobud bo‘lishi tasvirlanadi. Bu ramziylik Cho‘lponning o‘zbek xalqi ayollarining o‘z taqdirlarini o‘zgartira olmasligini ko‘rsatish usulidir.

Badiiy jihatdan Zebiniso obrazi muallifning psixologik realizm uslubini yaqqol namoyon qilib beradi. Uning his-tuyg'ulari- sevgi, ilojsizlik, qo‘rquv, ichki kurashlar va ramziylik orqali ko‘rsatiladi. Misol uchun, Zebining "kecha" va "kunduz" o‘rtasidagi ruhiy jihatdan yuz berayotgan kurashi asar nomining ramziyligini kuchaytirib beradi: "kecha" qorong'u zulmat, cheklovlar va o‘sha davr jamiyatidagi normalarni, "kunduz" esa umid, erkinlik, hayotga intilish kabi ijobiy ma'nolarni anglatadi. Asar qahramonining tashqi go‘zalligi va ichki ruhiy azoblari o‘rtasidagi qarama-qarshilik kitobxonda badiiy ta'sir uyg'otadi.

Qurvonbibi obrazi: An'ana va sabr-toqat ramzi. Qurvonbibi o‘zbek jamiyatidagi an'anaviy ayol timsolini - sabr-toqat va jamiyatidagi qoidalarga boysunishini - ramziy tarzda ochib beradi. U qizi Zebiniso va Akbarali mingboshi o‘rtasidagi murakkab vaziyatlarda o‘zini chetga olib, lekin oilani saqlab qolishga urinardi. Qurvonbibi qizining xatti-harakatlariga o‘z munosabatini bildirmasligi va oilaviy kelishmovchiliklarni jimlik bilan qabul qilishi tasvirlanadi: " Qurvonbibi Zebinisoning har bir so‘zini tinglardi,lekin ko‘zlarida og'ir bir sukut saqlardi". Bu jumlalar uning oilaga sadoqatini va badiiy roliga sodiqligini ko‘rsatadi. U Zebinisoga qarshi an'anaviy tuzumning aksi sifatida namoyon bo‘ladi, bu esa romanidagi "kecha"(an'ana) va "kunduz"(o‘zgarish) o‘rtasidagi ziddiyatlilikni kuchaytiradi. Qurvonbibining yuqorida aytib o‘tilgan normalarga so‘zsiz bo‘ysunishi XX asr boshidagi o‘zbek xalqi ayollarining odatiy hayotni ochib beradi.

Badiiy jihatdan Qurvonbibi o‘sha jamiyatning adolatsiz qoidalari ta'sirida oyoqosti bo‘lgan, insoniy erkinliklari poymol qilingan va ruhiy jihatdan ezilgan bir ko‘ngilchang ona obrazini gavdalantirgan. Romandan olingan quydagi parchada ham bu aks ettirilgan:

– Xotin kishini yig‘lashga haq qilgan Xudo… Yig‘lay ber!

Shundan so‘ng uy ichida og‘ir bir jimlik cho‘kdi. Qurvonbibining yig‘isi xo‘rsinish darajasiga tushib qoldi. Keyincha u ham jimib ketdi.

– Qani, bo‘l, choyingni ber! – dedi.

Kampir ezilib muloyimlashgan ovoz bilan:

– Shu yerga beraymi yo eshikka chiqasizmi? – deb so‘radi. So‘fi yana o‘sha dag‘al ovoz bilan:

– Dim uyda nima bor! – deb qichqirdi.

Onasi tashqariga chiqqach, Zebi borib uning bo‘yniga osildi. Qurvonbibining ko‘zlari qizarib, qovoqlari ko‘kargan edi.

– Nimaga yig‘ladingiz, oyi? – deb so‘radi Zebi. Onasi darhol javob berolmasdan bir oz o‘ylanib turgach:

– Hech… – deb qo‘ydi.

Javobning birdaniga berilmagani, so‘ngra bu “hech” degan ma’nisiz javob Zebining tashvishga tushgan ko‘nglini battar tashvishlantirdi.

Gender tengsizlikda ayollar roli: Zebiniso va Qurvonbibi. Zebiniso va Qurvonbibi o‘sha davr ayollarining jamiyatidagi rollarining qarama-qarshi tomonini ifodalaydi. Zebiniso shaxsiy erkinlikga intiluvchi isyonkor ayol timsolida, Qurvonbibi esa an'anaviy ayol rolini – oilaga sadoqat,erga itoat va sukutni ifodalaydi. Uning eri oldidagi ziddiyatlarda o‘z fikrini bildirmasligi patriarxal jamiyatda ayollarining o‘z ovozini yo‘qotishini aks ettiradi. Romandan olingan quydagi parcha buni isbotlaydi:

Umuman, so‘fining bu bobda o‘ziga ko‘ra asoli bir maslagi bor: u o‘zi maqtanib aytganiday, xotin-xalaj oldida og‘iz ochib til qaldiratishni ravo ko‘rmaydi. “Bu til, – deydi so‘fi, – doim Xudoning zikri bilan qaldiraydi. Bu og‘iz hamma vaqt Xudoning zikriga ochiladi. Og‘iz bilan til – bandaning jismida eng aziz va tabarruk a’zolar. Ularni xotin kishiday past maxluq oldida xor qilinadimi? Bo‘lmasa, haq taoloning bandalari it bilan ham gaplasha bersin! Yo‘q, xotin kishiga juda zarur gap aytiladi, u toifa bilan zarurat yuzasidangina gaplashiladi. Vassalom!”

Yuqorida keltirilgan parchada xulosa shuki, ayollar hattoki itdanda past o‘rinda ko‘rilgan. Bunga romandan yana bir misol:

– Qanjiqlar! – deb baqirdi.

– Yosh narsalar o‘ynashsa, nima bo‘libdi? Muncha endi zabtiga oldingiz? – dedi Qurvonbibi.

– Gapirma, eshak!

Tengsizlik natijasida ayollarining huquqlari toptalganligini Cho‘lpon asar syujeti davomida yorqin aks ettirgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, asardagi ayol obrazlari: Zebiniso, Qurvonbibi, Akbarali mingboshining xotinlari va Miryoqubning ayoli orqali jamiyatda ayollarining qadrsizlanishi, huquqlarining poymol bo‘lishi, dinniy va dunyoviy ilmlarning sustligi natijasida ayollar o‘z erkini yo‘qotishini muallif yorqin namoyon qilganligi ayollar erkining tiklanishida va o‘zbek adabiyotining rivojlanishida katta yutuqdir. Demak, romanda inson tabiati, o‘zlikni yo‘qotish, oila munosabatlari, dinniy ta'lim va dunyoviy ilm mavzulari asosiy o‘rinlarga qo‘yilganligi va bu jihatlar makon va zamon tanlamasligi asarni doimiy qiziqishlarga sabab bo‘lishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Cho‘lpon "Kecha va Kunduz" "Sharq" nashriyot matbaa konsernining tahririyati Toshkent – 2000
2. Cho‘lpon "Kecha va Kunduz" "Mutolaa" Toshkent – 2024
3. Saydulla Mirzayev "XX asr o‘zbek adabiyot" "Yangi asr avlodi" nashriyoti Toshkent – 2005

4. Usmonova Umida "Kecha va Kunduz" romani umrboqiyligida mavzu va g'oyaning o‘rni So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali 6-jild 5-son

OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQ SHAKLLARI.

Norsafarova Iroda
Samarqand Davlat universiteti Kattaqo‘rg’on filiali talabalari
Ilmiy rahbar: ***Suyunova Dilbar***

Annotatsiya. *Ushbu tizimda og‘zaki va yozma nutq shakllari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Nutqning har ikki shaklining xususiyatlari, qo‘llanilish sohalari, ustunlik va kamchiliklari tahlil qilingan. Shuningdek, og‘zaki va yozma nutqning jamiyatdagi o‘rni, ularning o‘zaro bog‘liqligi va til madaniyatiga ta’siri haqida fikr yuritilgan. Tizim ta’lim jarayonida, tilshunoslik tadqiqotlarida va kommunikatsiya sohalarida foydalanish uchun mo‘ljallangan.*

Kalit so‘zlar: *nutq shakllari, og‘zaki nutq, yozma nutq, til madaniyati, kommunikatsiya, tilshunoslik.*

KIRISH: Til insoniyat taraqqiyotining eng muhim vositasi hisoblanadi. Insoniyatning ijtimoiy mavjudot sifatidagi asosiy ehtiyojlaridan biri bu — o‘z fikrini bayon etish, boshqalar bilan muloqotda bo‘lishdir. Aynan til orqali inson o‘z fikrini ifoda etadi, bilim va tajribasini boshqalarga yetkazadi. Nutq esa tilning amalda qo‘llanish shakli bo‘lib, u fikrni ifoda qilish, axborot yetkazish va tushunchalarni shakllantirishda vosita bo‘lib xizmat qiladi. Nutq ikki asosiy shaklda mavjud: og‘zaki va yozma nutq. Har ikki shakl insoniyat taraqqiyoti davomida shakllangan va rivojlanib borgan. Og‘zaki nutq tarixan yozma nutqdan ancha oldin paydo bo‘lgan. U insonlar o‘rtasidagi eng qadimgi muloqot shaklidir. Yozma nutq esa jamiyat taraqqiyoti va madaniyatining muhim bosqichida, axborotni saqlab qolish va undan foydalanish zarurati tufayli paydo bo‘lgan. Bugungi kunda har ikki shakl inson hayotida muhim o‘rin tutadi. Mazkur tizimda og‘zaki va yozma nutq shakllari chuqur tahlil qilinadi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, kommunikatsiya jarayonidagi roli, farqlari va umumiy jihatlari, shuningdek, til madaniyatiga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

ASOSIY QISM

Og‘zaki nutq shakli Og‘zaki nutq insonlar o‘rtasidagi bevosita yoki vositali muloqotning asosiy shaklidir. U real vaqt davomida, tovushlar orqali yuzaga keladi. Og‘zaki nutq orqali insonlar fikrlarini ifoda etishadi, his-tuyg‘ularini bildirishadi va o‘zaro aloqa o‘rnatishadi. Uning asosiy xususiyati – jonli va improvizatsion bo‘lishidadir. Og‘zaki nutq kundalik suhbatlar, telefon orqali muloqot, darslik mashg‘ulotlari, ommaviy tadbirlar, teatr, televizion chiqishlar kabi ko‘plab sohalarda keng qo‘llaniladi.

Og‘zaki nutqning xususiyatlari quyidagilar:
Improvizatsiyaga asoslangan: oldindan rejalashtirilmagan, vaziyatga qarab shakllanadi;
Ohang, tembr, pauza, gest va mimikalar orqali boyitiladi;
Grammatik jihatdan ba’zan soddalashtirilgan bo‘ladi;
Tezkorlik bilan yuzaga keladi va tezda unutiladi;
Muloqotchi shaxslarning o‘zaro bevosita aloqasiga bog‘liq.
Og‘zaki nutqning afzalliklari:
Tirik muloqot muhitida amalga oshadi;
Fikrlar tez bayon qilinadi;
Tushunmovchiliklar tezda aniqlanadi va tuzatiladi;
Muloqot paytida savol-javob qilish imkoniyati mavjud.
Kamchiliklari:
Nutq tezda unutiladi;
Grammatik xatoliklar ko‘proq uchraydi;
Axborot doimiy saqlanmaydi.

Yozma nutq shakli Yozma nutq tilda ifoda etilgan fikrning yozuv vositalari orqali bayon etilishidir. U real vaqtga bog‘liq bo‘lmaydi va muloqotda auditoriya bevosita ishtirok etmaydi. Yozma nutq rasmiy hujjatlar, ilmiy va badiiy asarlar, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlari va boshqa ko‘plab manbalarda qo‘llaniladi.

Yozma nutqning xususiyatlari:

Oldindan rejalashtiriladi, tahrir qilinadi va mukammallik talab qilinadi;

Grammatik jihatdan aniq va tartibli bo‘ladi;

Axborot saqlanadi, nusxa olinadi, qayta ishlatiladi;

Auditoriyaga kechiktirilgan tarzda ta’sir qiladi.

Yozma nutqning afzalliklari:

Fikrlar aniq, ravon va mukammal ifodalanadi;

Axborot uzoq muddat saqlanadi;

Ko‘p auditoriyaga yetkazish mumkin;

Tahrir va qayta ishlash imkoniyati mavjud.

Kamchiliklari:

Bevosita muloqot mavjud emas;

Savol-javob imkoniyati yo‘q yoki cheklangan;

Og‘zaki va yozma nutqning farqlari va umumiy jihatlari Og‘zaki va yozma nutq o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. Og‘zaki nutqda muloqot jonli bo‘lib, bevosita aks etadi. Unda tinglovchining reaktsiyasi darhol ko‘rinadi. Yozma nutqda esa bu imkoniyat mavjud emas, biroq u o‘zining mustahkamligi va saqlanish imkoniyati bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, har ikki shaklda ham asosiy maqsad — axborot uzatish, fikr ifoda qilish, tushuncha va g‘oyalarni bayon qilishdan iborat.

Ularning umumiy jihatlari:

Har ikkalasi ham til orqali amalga oshiriladi;

Fikr ifodasi va axborot yetkazishga xizmat qiladi;

Ijtimoiy hayotda muhim o‘rin tutadi;

Madaniyat, ta’lim va kommunikatsiyaning asosiy vositalaridandir.

Jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati Zamonaviy jamiyatda har ikki nutq shakli muhim ahamiyatga ega. Ta’lim, ommaviy axborot vositalari, diplomatiya, ijtimoiy tarmoqlar, internet va ishbilarmonlik aloqalarida yozma nutq keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan yozma nutqning roli ortib bormoqda. Og‘zaki nutq esa insonlar o‘rtasidagi bevosita muloqotda, o‘qitish jarayonida, rasmiy uchrashuvlar va norasmiy muhitda muhim o‘rin tutadi. Ikkala shakl ham til madaniyatining tarkibiy qismi sifatida inson tafakkurini, ifoda uslubini va muloqot madaniyatini boyitadi.

XULOSA: Og‘zaki va yozma nutq shakllari inson hayotining ajralmas qismlaridan biridir. Ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, turli kommunikatsion ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Og‘zaki nutq insonlar orasida jonli muloqotni tashkil etsa, yozma nutq rasmiylik, aniqlik va uzoq muddatli axborot saqlash imkonini beradi. Har ikki shaklning samarali va maqsadli qo‘llanilishi orqali jamiyatda til madaniyati yuksaladi, insonlar o‘rtasidagi aloqa samaradorligi ortadi. Shunday ekan, og‘zaki va yozma nutqni mukammal o‘rganish, ularning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish har bir shaxs uchun muhim hisoblanadi. Bu esa nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov Sh. “Til va nutq”, Toshkent, 2019.
2. Karimov A. “O‘zbek tili stilistikasi”, Toshkent, 2018.
3. Nurmonov A. “Nutq madaniyati asoslari”, Toshkent, 2020.
4. Xudoyberganov G‘. “O‘zbek tili va uslubiyoti”, Toshkent, 2017.
5. Internet manbalari: www.ziyonet.uz, www.lex.uz

QASHQADARYO VILOYATI SHEVALARINING LEKSIK TAHLILI

D.R.Suyunova
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg'on filiali
A.M.Yo‘ldosheva, *talabasi*

Annotatsiya. *Dialektolagiyada foydalaniladigan shevalarning leksik tahlili asosiy vosita qilib olindi. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining ayrim hududlarida ishlatiladigan shevalar, ularning leksik tahlili va boshqa shevadagi so‘zlar bilan ma'no va shakl jihatidan farq qilishi yoritilgan.*

Annotatsiya*: Lexical analysis of dialects used in dialectology was taken as the main tool. This article discusses the dialects used in some regions of the Kashkadarya region, their lexical analysis, and their differences in meaning and form from words in other dialects.*

Аннотация. *В качестве основного инструмента был взят лексический анализ диалектов, используемых в диалектологии. В данной статье рассматриваются диалекты, используемые в некоторых регионах Кашкадарьинской области, их лексический анализ, а также их отличия по значению и форме от слов в других диалектах.*

Kalit so‘zlar: *Dialektolagiya, shevalar, leksika ,leksik tahlil.*

Ключевые слова*: Диалектология, диалекты, лексика, лексический анализ.*

Keywords: *Dialectology, dialects, lexis, lexical analysis.*

O‘zbek adabiy tili asosan xalq shevalaridan foylangan holda boyib boradi.Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma'naviy qadriyat hisoblanadi. O‘zbek shevalari ,asosan, 1920-1930-yillardan boshlab ilmiy asosda o‘rganila boshlandi. SHevalar o‘zbek milliy tilining tarkibiy qismi sifatida umumiy leksik qatlamiga egadir. Har bir shevaning leksik qatlami o‘sha shevaning hayotiy va muntazam ravishda ishlatilib keladigan so‘zlarini qamrab oladi.

Til muttasil rivojlanar ekan,unda yangidan yangi tushunchalar,so‘zlar paydo bo‘lishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. “**Dialektologiya**” sozi yunon tilidan olingan bolib ,shevalar, dialektlar ,lahjalar degan manoni bildiradi. “**sheva** ” forscha so‘z bo‘lib ,ravish ,tarz, yosin degan ma’nolarni bildiradi va dialektologiya fanida o‘ziga xos leksik,fonetik hamda grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan milliy[xalq] tilning kichik territoriyaga oid qismini anglatadi . J.K. Chambers, Peter Trudgillning belgilashicha, **sheva** muayyan tilning tarkibiy qismidir. Tilning boyib borishi va leksikasi sofligini saqlash uchun xalq shevalaridagi so‘zlar bilan boyitilishi zarur. Bu borada prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning: “… O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari ,**shevalari** ,tarixiy taraqqiyoti,uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish…”haqidagi fikri e’tiborlidir. Adabiy tilga norma sifatida qabul qilngan so‘zlar zamirida ham shevalar yotadi ,ammo aynan bir sheva yoki lahjadagi so‘zlarni adabiy tilga norma sifatidagi so‘z deb qabul qila olmaymiz . Shevalar asosan og‘zaki nutqimizda sodir bo‘ladi va ularni yozib olishimizda aynan mana shu og‘zaki nuqtimizda qanday aytilgan bo‘lsa shu tarzda yozib olamiz. Bu shevalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ashurboy Samixonning "O‘zbek dialektolagiyasi " kitobida O‘zbek shevalari leksikasi quyidagi ma’noda tushunilgan . 1.O‘zbek shevalari leksikasi shevalardagi barcha sohalarga oid so‘zlar yig‘indisi. 2. muayyan shevaga xos barcha so‘zlar yig‘indisi.3. Har bir shevaning o‘ziga xos bo‘lgan so‘zlari yig‘indisi,ya'ni aynan bitta hududda ishlatilib boshqa hududda esa ma'no jihatdan yoki shakl jihatidan farq qilishi nazarda tutilgan so‘zlardir. O‘zbek shevalari tarixiy jihatdan quyidagi leksik qatlamlardan iborat.

1. Umum turkiy so‘zlar.

2. O‘zlashgan so‘zlar [fors,arab,rus tili va u orqali]o‘zlashgan so‘zlar.

3. O‘zbek tili sharoitida yaratilgan so‘zlar.

4. Shevalarning maxsus so‘zlari.

Shevaga oid so‘zlar o‘zbek adabiy tilida aynan qo‘llanmaydi, lekin ular adabiy tilning boyish manbalari hisoblanadi. O‘zbek shevalaridagi barcha o‘ziga xosliklarni o‘rganish lug‘at boyligini va til imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi .

Qashqadaryo viloyatining tog‘ va tog‘ oldi hududlari, qishloqlarda yashovchi aholi hamda Qarshi shahrida istiqomat qilayotgan sheva vakillarining suhbatlari jarayonida kuzatilgan shevaga oid so‘zlar. Ayniqsa qishloqda yashovchi aholi vakillari so‘zlashadigan shevaga doir so‘zlardan keltiramiz:

Adabiy tilda **ip** so‘zi Qashqadaryo viloyatining chiroqchi tumanida yashovchi aholi shevasida **kalava - dug‘iriq - g‘altak, jarchi** so‘zi esa **aytimchi, qo‘shni - hamsiya, devor - divol , oftoba - aptiva, arava - tachka, g‘altak** tarzda , **yostiq- dostiq,**bu Xorazmda **taka** shaklida keladi. **Soch- chach, kiyim-kechak** esa **miyim ,nimcha** - so‘zini Ko‘kdala tumanida **qisma,** Samarqandning ayrim joylarida esa **sinacha** shaklida aytadi. **Tuxum - tuqum ,mayak** tarzida Xorazmda **yumurta** shu kabi ma'nolarda ishlatiladi.

Hayvon nomlari : **sigir - siyir, buzoq - bizov , echkining endi tug‘ilgan bolasi - uloqcha,** Samarqandda esa **echkicha, it bolasi - duchikcha .**

Qarindosh- urug‘ nomlari: **ona - aya yoki ena** ma’nosida ,**kelinoyi - yanga - checha, o‘g‘lim** so‘zi **ulim , bolalar** so‘zi esa **bachalar, Qarshi shahrida esa bolla, buvi** so‘zi Jarquduq qishlog‘ida **ena , bobo - ota , yigit - jigit** .

Ayrim fe’llar ham shevada o‘zgargan holda uchraydi : **bo‘lmaydi - bo‘maydi, boryapman - boryappan, bor ekan** so‘zi esa **boraqan** shaklida **kelinglar - keliyla, borar edik, qilar edik** so‘zlar esa Nishon tumanining ayrim joylarida **boraychiydik, kelaychiydik** deb talaffuz qilinadi. Masalan: Daraxtni kesdi gapi shevada **daraxti kesti , kitobni akamga ber - kitapti akama ber .** U ish bilan keldi - **u ishminan keldi .** Uydagi barcha ishlarni qilinglar gapi shevada **iydagi bari ishti qingnar** deb aytiladi. **Shu yerda** so‘zi Soy boyi So‘fi qishlog‘ida **shiyarda** Kattaqo‘rg‘onda esa **shaqqa , Chumoli** esa **qimirsqa** Xorazmda esa **qarinja** deb aytiladi.

Ilmiy adabiyotlarda (adabiy) tilning leksik tizimida biron tushunchani anglatish uchun so‘zning yetishmasligi **lakuna** termini bilan yuritiladi. Bu termin lotincha - fransuzcha **bo‘shliq, tushirib qoldirilgan, ayirib qo‘yilgan** degan ma’nolarni anglatadi, lekin dialektolagiyada uni **adabiy tildagi bo‘sh o‘rinni to‘ldiruvchi dialektal** so‘z deb tushunish to‘g‘ri bo‘ladi. **Lakunani** adabiy tildagi muhtoj tushuncha uchun sinonimi bo‘lmagan dialektal so‘z deb qarash ham mumkin. Bunga misol qilib Qashqadaryo viloyatining ayrim qishloqlarida ishlatiladigan shevaga oid so‘zlarni keltiramiz. **Uch xonadan iborat bo‘lgan uyni shevada - xo‘rjuntom** deb aytiladi. Uy qurganda derazadan boshqa yana qo‘shimcha qilib qurilgan kichkina joyini shevada - **takcha** deb nomlanadi .Qo‘yning junini qirqish uchun ishlatiladigan qaychi esa shevada **qilliqqaychi** ma’nosida, go‘shtning faqat o‘zini qozonga solib tayyorlanadigan taom nomi esa **choponcha** shaklida keladi. Bundan tashqari **boyagi** so‘zi shevada **jangag‘i- baynag‘i** tarzida mavjud bo‘lsa, **yo‘q** so‘zi **jo‘q- yaq, yo‘l - jo‘l, yubordi** so‘zi **jigardi, yetti - jeti** shakllari mavjud bo‘lib shevalarda shunday talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, shevalar asosan og‘zaki nutqda mavjud bo‘ladi, ularni o‘rganishda adabiy tildagi yozma nutq bilan almashtirmaslik kerak. Chunki sheva adabiy til normalariga bo‘ysunmaydi. Shunday bo‘lsada adabiy til shartli ravishta shevaga oid so‘zlar, dialektizmlarga tayanadi. Misol sifatida adabiy tildagi **jo‘natmoq** so‘ziga asos bo‘lgan **jun ,jo‘na** so‘zlari adabiy tilga qipchoq lahjasidan o‘tgan hisoblanadi. Dialektologiya fanida tadqiqot ishlarini olib borish va shevalarni o‘rganish milliy tilimizning yanada rivojlanishi ,takomillashishi va uzoq yillar davom etishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S. Ashurboyev " o‘zbek dialektolagiyasi" darslik.Toshkent - 2021. 2. SH.M.Mirziyoyev “Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatimiz timsoli” “O‘zbekiston ovozi”,2019-yil . 3. V.V.Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov " o‘zbek dialektolagiyasi" Toshkent 1978.
4. N.Murodova " o‘zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi . Toshkent- 2005 .

MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATIDA XALQONA VA AN’ANAVIY OBRAZLAR TALQINI

Nizomova Husniobod G'ayrat qizi
SamDU Kattaqo'rg'on filiali 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: ***Abdumannatova N.A***

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek she'riyati haqida shuningdek, she'riyatimizda qo'llaniladigan xalqona va an'anaviy obrazlar to'g'risida xalqimizning ardoqli shoiri Muhammad Yusuf she'rlari misolida tahlilga tortilgan va yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *She'riyat, poeziya, majmua, san'at, adabiyot, ijod, obraz, poetik hodisa.*

Аннотация: *В данной статье анализируется и освещается узбекская поэзия, а также народные и традиционные образы, используемые в нашей поэзии, на примере стихотворений нашего заслуженного поэта Мухаммада Юсуфа.*

Ключевые слова: *Поэзия, комплекс, искусство, литература, творчество, образ, поэтическое явление.*

Abstract: *This article analyzes and highlights Uzbek poetry, as well as the folk and traditional images used in our poetry, using the example of the poems of our honored poet Muhammad Yusuf.*

Keywords: *Poetry, complex, art, literature, creativity, image, poetic phenomenon.*

She'riyat, poeziya-she'riy asarlar majmuyi. Dastlab, she'riyat deyilganda badiiy adabiyot tushinilgan. She'riyat badiiyatga daxldor sanalgan. Insoniyat tarixida faqat she'r shaklida yozilgan bitiklargina so'z san'atiga tegishli hisoblanib kelingan. Garchi qadim zamonlarda ham narsaga oid asarlar yaratilgan bo'lsa-da, ular nafis san'atga, badiiy adabiyotga tegishli emas deb qaralgan.

Adabiyot – insoniyat ichki olamining tarjimonidir. "Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, qoralangan, o'chgan, majruh, yarador ko'ngilga rux bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qarb singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg'on, o'tkir yurak kirlarini yuvadirg'on toza ma'rifat suvi, xiralangan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladirg'an buloq suvi bo'lg'onlig'idan bizga g'oyat kerakdir…" degan edi o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri bo'lgan Cho'lpon.[1:3]

Darhaqiqat, adabiyotning rivojlanishi, sayqallanishi va ravnaq topishi insoniyatning insoniyligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardandir. O'zining qadim tarixiga, milliy madaniyatiga hamda buyuk adabiyotiga ega bo'lgan o'zbek xalqi quchog'ida minglab so'z san'atkorlari dunyoga kelgan. Shunday so'z san'atkorlaridan biri xalqimizning haqiqiy xalqchil shoiri Muhammad Yusufdir. O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq yozuvchisi, Said Ahmad ta'biri bilan aytadigan bo'lsak: "Muhammad Yusuf pokiza inson edi, u odamlarning esini og'dirgan, o'ylatgan, kuldirgan, yig'latgan, topgan tutganini odamlar ustidan sochgan saxiylik timsoli edi. [4:32]

Muhammad hammani o'ziga do'st deb bilar edi, Hech kimni begona qilmas edi…" [7:23]

Shoir ijodining tadqiq etishda boshqa ijodiy metodlar singari biografik metod asosida tahlil qilish ham katta samara beradi. Shu ma'noda shoirning qalbidagi insonlarga yaqinlik, odamshinavandalik uning ijodini qalblardan qalblarga yengil ko'chishiga, she'rlarini dilbar, diltortar bo'lishiga sabab bo'lgan omillardan deyish mumkin.

Shoir ijodi haqida so'z ketganda vatan mavzusi alohida o'rin tutadi. Uning "Ulug'imsan vatanim" nomli to'plamining e'lon qilinganligi ham buning dalilidir.

O'zbekiston yuksaltar yodni,
Ganj, xazina tuproq qatlari.
Ko'tarmoqqa qodir avlodni,
Uxlab yotgan Muhammadlari.

degan ajoyib satrlarni O'zbekistin xalq shoiri Halima Xudoyberdiyeva qog'ozga tushiradi va she'rining davomida : "Bir vaqtlar Buxoro haqida siz quydagi jumlalarni yozgan edingiz: "Buxoroning batamom sog'ayib ketishi uchun – obidalarning, betakror qasrlarning buyuk memori – sinosi yetishmay turibdi" [6:24]

Bugun ham men ba’zan baland davralarda, ulug‘ xalqning sayillarida, tantanalarda, oddiy kunlarda sizning yetishmasligingizni sezib qolaman. Axir kim sizday mustaqillikning ilk ayozli davrlaridayoq “Hech kimga bermaymiz, seni O‘zbekiston” deb kurash maydonlariga tusha olgan edi. Kim elga, yurtga mehru-muhabbatini shu qadar sodda, shu qadar suyukli ayta olmagan…” degan fikrlar bilan Halimaxonim Xudoyberdiyeva shoir xotirasini yodga oladi.

Haqiqatdan ham Muhammad Yusuf she’riyatida xalqona pafosning o‘zgacha yuksak cho‘qqisini ko‘rishimiz mumkin. Muhammad Yusuf she’riyati murakkab tuyg‘ularni samimiy va xalqchil so‘zlar bilan ifodalaydi. Bu she’rlarning borar manzili aniq: yurakdan yuraklargacha.

Yuqoridagi fikrlarning dalili sifatida shoirning “Xalq bo‘l elim” nomli she’riga e’tiborimizni qaratamiz. Ushbu she’r mazmunan tugalligi, ohang jihatidan jarangdorligi va qofiyalanish tizimining ravonligi bilan o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi. Mazkur she’rning oxirgi bandida:

Bo‘lar elning bolalari bir birin der,
Bo‘lmas elning bolalari bir birin yer.
Bir bo‘l endi qaddi balant qadingni ker,
Xalq bo‘l elim, xalq bo‘l elim, xalq bo‘l elim. [5:16]

Ushbu she’rida shoirning xalqiga aytmoqchi bo‘lgan barcha tilaklari, istaklari, undovlari va chaqiriqlari o‘rin olgan. She’r ohiridagi “Xalq bo‘l elim” jumlasining uch marotaba takrorlanishi esa ta’kid ma’nosini yanada kuchaytirilishiga sabab bo‘ladi. Quyidagi she’riga ham e’tibor qaratsak:

Sen Xo‘jandsan,
Chingizlarga
Darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan, qorachig’i
Olovlarga sachragan,
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon-
Cho‘lig’imsan,Vatanim. [5:38]

Bu she’rida esa shiorning xalqona obrazlar talqinida vatan madhini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, o‘zining buyuk qahramonlik tarixiga va xalqimiz olqishiga sababchi bo‘lgan Shiroq obrazini olsak. Shiroq o‘z xalqini qutqarish uchun yolg‘iz yo‘lga chiqadi va o‘zini qurbon qilib elini qutqarib qoladi. Buning uchun hattoki quloqlari va burnidan ayrilgan bo‘lsa-da xalqini zulm va qullikdan ozod qilgan. Ammo bu ishlarni o‘zi uchun katta qurbonlik deb hisoblamagan. Aynan mana shunday jihatlari bilan jamiyatimiz kishilari e’tirofiga sazovor bo‘lgan kishilar ushbu she’rda alohida ta’kidlanib ismlari keltirilgan. Bundan tashqari nohaqlik qurbonlari bo‘lgan, yurtimizni ilm-fanga chorlagan jadidlarimiz ham keltirilib o‘tilgan.

Dunyoda jamiki shoirlar borki, o‘z vatanini ko‘ngli to‘lguncha, umri bitguncha ko‘klarga ko‘tarishadi ammo shoir ifodasidagi “O‘zbekiston jonim to‘shay soyangga”, “Rimni alishmasman bedapoyangga” yoki “bahorda baxmalda tug‘ilgan qo‘zing, arab ohusidan azizroq menga” kabi sodda va samimiy satrlar uning xalq qalbiga yaqinligini yana oshiradi. Yana qaysi shoir vatanini ko‘ksida gulday o‘stirib, yuragining olampanohiga aylantira oladi. Yana kim Muhammad Yusufdek:

“Sen islomdan iymon darsin olgan dunyo”
“Suluvlarning bo‘yniga osilgan dunyo”

Deya hayot haqiqatlarini ochiq va baralla ayta oladi. Kim xalq manfaati yo‘lida:

“Bo‘ynim egilguncha ketsin uzilib”
degan mardonavor, betakror satrlarni yoza oladi!

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Muhammad Yusuf she’riyati faqatgina qog‘ozga emas, balki butun xalqning shuuriga quyundek kirib, yuraklariga o‘chmas qilib muhrlangan she’riyatdir. Shoir so‘zi bilan aytganda :

O‘zi o‘lsa o‘lar so‘zi o‘lmaydi,
Hamisha barhayot nasl shoirlar.
Haqiqiy shoirning qabri bo‘lmaydi,
Yurakka ko‘milar asil shoirlar.

Shoir bu she’ri orqali haqiqiy shoirlar aslida qanday bo‘lishini isbotlab ketdi.

Muhammad Yusuf lirikasi: xalqning dardi, yurtning madhi, tarixning haqiqatidir. Shoirning she’rlaridagi hayotiy haqiqatlar, noyob topilmalar, badiiyatidagi o‘ziga xoslik yillar o‘tsada o‘zbek she’riyatini bezayveradi, She’riyat muxlislariga zavq ulashaveradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulhamid Cho‘lpon Adabiyot nadur? // WWW kh-davron.uz
2. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз, –Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 548 б.
3. Йўлдошев Қ. Юсупов Ж., Бадиий таҳлил асослари. –Урганч: УрДУ нашриёти, 2008 – 254 б.
4. Норматов У. Тафаккур ёғдуси. -Т.: Фикр-медиа, 2005 – 89 б.
5. Муҳаммад Юсуф. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 288 б.
6. Расулов А. (2006). Таҳлил, талқин, баҳо. –Т.: “Фан”,
7. Қаҳрамонов Қ. (2009). Адабий танқид: янгиланиш жараёнлари. Ўзбекистон Миллий кутубхонаси.
8. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 254 б.

AVESTO – QADIMIY MA’NAVIY MANBA

Qodirova Marjona
SamDUKF 1-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Avesto asari, uning kelib chiqishi, tarkibi, diniy, ma’naviy va axloqiy mazmuni, shuningdek O‘zbekiston hududidagi tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi. Avesto qadimgi Eron sivilizatsiyasining muhim yodgorligi bo‘lib, zardushtiylik dini asoslarini aks ettiradi. Maqolada Avestoning zamonaviy jamiyat uchun qanday qadriyatlarni taklif etishi haqida ham fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Zardusht, Avesto, Yasht, Yasna,Visperad, odob- axloq,tarbiya, ekologiya,madaniy ahamiyati.*

“Avesto” — bu qadimgi diniy matn, nafaqat diniy matn balki dunyoviy bilimlar,tarixiy voqealar,o‘zi tarqalgan o‘lkalar, makonlar,elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti,axloqiy,madaniy va ma’naviy qarashlari, diniy e’tiqodlari,urf-odatlari haqidagi manbalardandir. Unga Zardusht (Zarathustra) tomonidan asos solingan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lib, ilk sodda diniy bilimlar ifoda etilgan. Avesto tarkibiga kirgan bilimlar miloddan avvalgi I ming yilliklarda yaratilgan va avloddan avlodga og‘zaki tarzda o‘tib kelgan. Uning ko‘p qismlari yo‘qolib, yettidan bir qismi saqlanib qolgan. Bu kitob Ashrakiylar sulolasi davrida to‘plangan. Avestoni asosan 3 qismga bo‘lib o‘rganishgan.Avesto qadimgi Eron, hozirgi O‘zbekiston hududlarida keng tarqalgan bo‘lib, bu dinning izlari tarixiy va arxeologik manbalarda ham aks etgan. Bugungi kunda “Avesto” falsafasi insoniyatga tozalik, tinchlik, adolat va tabiatga hurmat kabi qadriyatlarni eslatmoqda.

“Avesto” qadimgi Eron tillaridan biri – avesto tilida yozilgan bo‘lib, taxminan 21 kitobdan iborat bo‘lgan. Uni 12 ming qoramol terisiga oltin harflar bilan yozilganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Lekin asuski, faqat besh qismi bizgacha yetib kelgan: Yasna, Visperad, Vendidad, Yashtlar va Khord Avesto. Har bir qism o‘ziga xos marosimlar, duolar, axloqiy qoidalar va falsafiy g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. Ularda asosiy g‘oya Yakka xudolilkka yo‘naltirilgan hisoblanadi. Misol sifatida shuni keltirishimiz mumkinki Yashtlar qismida qadimiy e’tiqodlar va tabiat kuchlariga sig‘inish aks etgan. Masalan, “Mithra Yasht” qismida quyosh ilohi Mithra madh etiladi.

Zardushtiylik dini tarqalganda ibodatxonalar, maxsus diniy kitoblar bo‘lmagan, ular ochiq havoda gulxan yonida marosimlar bo‘lib o‘tgan. Keyinchalik esa kohinlar tomonidan Zardusht vafotidan keyin kitob shakliga keltirilgan.Avestoning asosiy shiori — “Yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi amal” (“Humata, Hukhta, Hvarshta”) bo‘lib, bu jamiyatda ijobiy axloqiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Avestoda yolg‘on, zo‘ravonlik, adolatsizlik qoralangan; rostgo‘ylik, tozalik, mehr-oqibat targ‘ib etilgan.Axura Mazda odamlarni bir-biri bilan murosa qilib yashashlari,g‘arazgo‘ylik, hasadchilik, shuhratparastlik,kalondimog‘lik, nomaqbul ishlardan tiyilib yurishlari uchun chaqiradi. Bergan sizning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiq shartnomalariga amal qilish,qarzni vaqtida to‘lash,aldamchilik va xiyonatdan holi bo‘lish-iymonlilik alomotlari ekanligi aytiladi. Iymonli odam birovning haqqini o‘zlashturishdan, o‘g‘irlikdan,talonchilikdan ya’ni o‘z iymoniga xilof bo‘lgan ishlardan o‘zini tiya bilishni biladigan komil inson ekanligi aytib o‘tilgan.

“Avesto” tabiatni muqaddas deb biladi va mehnatni juda qadrlagan.Suv, olov, havo va yerni ifloslantirish eng og‘ir gunohlardan biri hisoblangan. Har bir tabiiy unsur – ilohiy kuch sifatida qadrlangan. Har bir narsani toza saqlash kerakli uqtirilgan. Yerni iflos qilganlarni 400 darra qamchilashgan. Misol uchun Vendidad kitobida suvni ifloslantirgan odam og‘ir jazo bilan jazolanishi kerakligi yozilgan. Bu o‘z davrida ekologik ongning yuksak darajada bo‘lganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston hududida — ayniqsa, qadimgi Xorazm, Buxoro va Samarqand atrofida — zardushtiylik izlari topilgan. Toshkent viloyatidagi Ko‘kcha dahasida zardushtiylik yodgorliklari topilgan. Sho‘rolar davrida ko‘plab arxeologlar, jumladan E. R. Xidoyatov, Avesto va uning tarixi bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Bugungi kunda “Avesto” insoniyatni tinchlik, tozalik, adolat, bag‘rikenglik kabi umumiy insoniy qadriyatlarga da’vat etadi. Bu kabi qarashlar ham islom dinida ham mavjud bo‘lib, insonlarni poklikka yo‘naltiradi. Shu jihatdan u qadimiy bo‘lishiga qaramay, zamonaviy ijtimoiy muammolarni hal qilishda ma’naviy mezon bo‘la oladi. Hozirgi kungi dolzarb muammolardan biri ham ekologiya bilan bog‘liq muammolar hisoblanadi. Tabiatning, ya’ni yashil makonlarning turar joy, zamonaviy fabrika, zavodlar qurilishi natijasida kamayib borishi, hayvonlarning ma’lum bir turlarining yo‘qolib borishi, suv havzalarining qurishi, ichimlik suvining tobora tanqislashuvi kabi muammolariga ma’lum bir darajadagi yechim taklif qila olishi bilan bugungi kunga ta’sirini sezishimiz mumkin.Ta’limiy jihatdan bolalarning qanday bilim olishi, donolik,zukkolik haqida so‘z yuritilgan. Bundan tashqari jismoniy sog‘lom, bardoshli, kuchli, irodali yoshlarni tarbiyalashga doir o‘gitlar ham mavjuddir.

Xulosa qilib aytganda, Avesto – bu qadimgi davrda yozilgan diniy kitob bo‘lishiga qaramay, u bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Uning asosiy g‘oyalari insonni yuksak axloq va aql bilan yashashga da’vat etadi. Avesto nafaqat diniy asar, balki axloqiy, ijtimoiy, ekologik qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan muhim tarixiy manbadir. Insonning komil shaxs sifatida yetishi uchun zarur va kerakli ma’lumotlarni ham uchratishimiz mumkin.O‘zbekiston hududidagi tarixiy ildizlari esa bu asarning bizning milliy ma’naviyatimizdagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xidoyatov E. R. Avesto va qadimgi O‘zbekiston madaniyati. – Toshkent: Fan, 2002.
2. G‘afurov B. Zardushtiylik tarixi va Avesto. – Dushanbe: Irfon, 1986.
3.Nasimxon Rahmonov O‘zbek adabiyoti tarixi o‘quv qo‘llanma. -Toshkent: Sano 2017.
4. Sodiqov N. O‘zbekiston tarixida zardushtiylikning o‘rni. // O‘zbekiston Tarixi, 2015, №3.
5. Arxiv.uz ijtimoiy tarmoq ma’lumotlari.

TILIMIZDAGI *J* VA *DJ* UNDOSHLARINING MUAMMOLARI TAHLILI

D.R.Suyunova
SamDUKF o‘qituvchisi
***S.Shoxo‘jayev** 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Tilshunoslikdagi undoshlarning muammoli tomonlari, uni bartaraf etish yo‘llarini tahlil qilish.*

Kalit so‘zlar: *Undoshlar, J,DJ undoshlari, jarangli, jaranfsizlik, qorishiq, kirill alifbosi.*

Annotatsiya*: Analysis of problematic aspects of consonants in linguistics and ways to overcome them*

Аннатация*:Анализ проблемных аспектов согласных в лингвистике и пути их преодоления.*

Keywords: *Consonants, J, DJ consonants, sonority, lack of vowels, mixture, Cyrillic alphabet.*

Ключевые слова*: Согласные, J, DJ согласные, звучность, отсутствие гласных, смешение, кириллица.*

J va DJ tovushlarining kelib chiqishi, ular bo‘yicha bo‘layotgan xatoliklar, qaysi manbalarda xato ma’lumot berilgan-u qaysi darsliklarda bu xatolik o‘z isbotini topgan. Keling, shu masalalarni muhokama qilamiz.

Tilshunoslik fanida ba’zi tovushlarning talaffuzi va yozilishi to‘g’risida xatoliklarni ko‘rishimiz mumkin.Bugungi kunda alifbomizni yangilanishi haqida gaplarni eshitmoqdamiz, o‘ylaymanki, yangilanishdan oldin shu tildagi muammolarni tuzatgan birmuncha yaxshiroq.

Xo‘sh, tilimizda muammolarga sababchi bo‘lgan bu xatolik nima? Biz buni qay jabhalarda ko‘ramiz? U xatoliklarni qaysi manbalardan o‘rgana va bila olamiz?

Ayni damda amalda bo‘lgan 5- “ sinf “ ona tili darsliklarida “J” va “DJ” tovushlarining aytilishi, yozilishi va shu orqali yuzaga keladigan jarangsizlik to‘g’risidagi xatolarni ko‘rishimiz mumkin (J-ch / DJ-sh). Bu xatoliklarga bee’tibor bo‘lish tilimizning buzilishiga olib keladi. Shu sababli bu kichik xatolik e’tibordan holi qolmaslik zarur. O‘quvchilar ayni shu ma’lumotlarni qayta-qayta o‘qishmoqda.

“DJ” tovushining xatoligini tubdan bilishimiz uchun bu tovushning kelib chiqish tarixini bilishimiz zarur. Bu tovush Rossiya imperiyasi yurtimizni bosib olib, o‘z yozuvini, ya’ni krill alifbosini yurtimizga tatbiq etgan vaqtda(1940-yillar) paydo bo‘lgan. Krill alifbosidagi tovush va harflarni o‘zlashtirayotgan vaqtda u tildagi harf va tovushlar bizda mavjud bo‘lgan va ularni biz bevosita yozolganmiz (хат – хат). Lekin bizda “H” tovushi bilan boshlanuvchi so‘zlar bor (Hulkar, Hatto), Krill alifbosida esa bu tovush ham, shu tovush bilan boshlanuvchi so‘z ham mavjud emas.

Natijada bu tovush bilan boshlanuvchi so‘zlarni yozish uchun biz yangi harf yasashga to‘g’ri keldi. Krill alifbosidagi “X” harfidan foydalanib, uning ostiga **ilmoqcha** *qo‘yish orqali yangi harf yasadik (х - ҳ). Endilikda esa bu harf bilan boshlanuvchi so‘zlarni yozish hech qanaqa muammo tug’dirmaydigan bo‘ldi.*

Yoki krill alifbosida “K” tovushi bilan boshlanuvchi so‘zlar mavjud va biz u so‘zlarni to‘g’ridan to‘g’ri yozolganmiz (Кел – кел). Lekin bizda “Q” tovushi bilan boshlanuvchi so‘zlar bor (Qobil, Qosim), Krill alifbosida esa bu tovush ham, shu tovush bilan boshlanuvchi so‘z ham mavjud emas.

Natijada bu tovush bilan boshlanuvchi so‘zlarni yozish uchun bizning yana bir yangi harf yasashimizga to‘g’ri keldi. Krill alifbosidagi “K” harfidan foydalanib, uning ostiga **ilmoqcha** *qo‘yish orqali yangi harf yasadik (К – Қ). Endilikda esa bu harf bilan boshlanuvchi so‘zlarni yozish hech qanaqa muommo tug’dirmaydigan bo‘ldi.*Bu xildagi tovushlar tilimizda birmuncha.

E’tibor qaratgan bo‘lsak, krill alifbosidan o‘zlashgan tovushlar hech qanday o‘zgarishlarsiz tilimizga olib kirilmoqda (хат – хат / кел – кел). Krill alifbosidan bevosita foydalangan holda yasagan harflarimizgagina o‘zgarish kiritilmoqda (*хам – ҳам / Кул – Қош).*

Agar yuqoridagi tovush va u orqali yuzaga kelgan harflarga tushungan bo‘lsangiz, ishonamanki, “DJ” tovushining kelib chiqishiga ham oson tushunasiz. Krill alifbosida quyidagi harf bilan boshlanuvchi so‘zlar mavjud (Журнал, Жирафа, жимфер) v.b. Xuddi shu so‘z va tovushlar bizning tilimizda ham bor, shu sababli hech qanday o‘zgarishlarsiz tilimizga kiritganmiz. Lekin bizda quyidagi harf bilan boshlanuvchi so‘zlar bor (Jo‘ja, Juma, Jo‘xori). Krill alifbosida esa bu tovush ham, shu tovush bilan boshlanuvchi so‘z ham mavjud emas.

Natijada bu tovush bilan boshlanuvchi so‘zlarni yozish uchun bizning yana bir yangi harf yasashimizga to‘g’ri keldi. Faqat biz bu harfni yasashda yuqoridagilar kabi ilmoqcha qo‘ymasdan (*х – ҳ / К – Қ) krill alifbosida mavjud bo‘lgan “J” harfining oldiga bir tovush qo‘yish orqali yangi harf yasadik (J – DJ).*

“ Журнал ”so‘zida qo‘llangan tovush hech qanday o‘zgarishlarsiz tilimizga olib kirildi (jurnal). Yuqoridagi tovushlar singari yangi yasalgan harf esa o‘zgarishlar bilan tilimizga kiritildi (djuma, djo‘rayev).

Natijada “J” harfining jarangsizi sifatida “SH”, “DJ” harfining jarangsizi sifatida esa “CH” harfi olinmoqda.

Х|К|Ж ---- O‘zgarishlarsiz tilimizga olib kiritildi.

Ҳ|К|DJ ---- O‘zgarishlar bilan tilimizga olib kiritildi.

Biz ko‘rib guvohi bo‘lgan ona tili 5-“sinf ” maktab darslikida va shu asosda o‘tiladigan o‘quv markazlardagi (Repititor) qo‘llanmalarda, aynan “ Nargiza Erkaboyevaning (ona tili) darsligida xato ma’lumotni ko‘rishimiz mumkin (J-ch / DJ-sh).

Abduzuhur Abduazizov*ning “ Tilshunoslik nazariyasi “ (71-bet), Nosirjon Uloqovning “ Tilshunoslik nazariyasi “ (18-bet), Rahmiddin Vafaxonovning “ Ona tili ma’ruzalar to‘plami “ (3- bet) da biz maktab darsliklarini rad etgan holda to‘g’ri ma’lumotni ko‘rishimiz mumkin.*

J — til oldi, jarangli, qorishiq undosh — (masalan, juft, jumla).
Ch — til oldi, jarangsiz, qorishiq undosh — (masalan, chana, chumoli).
J — til oldi, jarangli, sirg‘aluvchi undosh — (masalan, jurnal, ajdar).
Sh — til oldi, jarangsiz, sirg‘aluvchi — (shamol, shaxmat).

Ushbu darslikda j/li tovushlarninng xususiyatini ko‘rsatib, uning ostidan j/siz tovushini ham xususiyatlari haqida ketma-ket ma'lumot bergan. Ushbu tovushlarning eski o‘zbek tilida Qanaqa so‘zlarda ishlatilinganini, hozirgi o‘zbek tilida qay o‘rinlarda kelishini ko‘rib chiqamiz.

J qorishiq tovush undoshi eski turkiy til yozma manbalarida o‘zlashgan so‘zlar tarkibida uchraydi, jarangli, affrikat tovush: jafá — jafo; hajib — hojib; jádu — jodu; javab— javob. Eski o‘zbek tili davrida ham *j qorishiq tovush* undoshi o‘zlashgan so‘zlariga xos: jahän; jân; rânj; juldur. Demak qadimdan ham qorishiq undoshi o‘zlashgan so‘zlarda ishlatilingan. Shuningdek, turkiy so‘zlardan taqlidiyat qonuni asosida affrikat *jch* undoshi *j qorishiq* tovushiga o‘tgan: jar; jarchi; jiba; jilav kabi. *Ch* undoshining *j* undoshiga o‘tganing bosh sababi ularning bir xillik asosida birlashuvidadir. Ya'ni har ikki undosh ham qorishiq undosh hisoblanib, o‘zaro jarangli, jarangsizlik hosil qiladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida jilovchi shevalarida *y* o‘rnida, shuningdek, adabiy tilda ham *j* undoshi jarchi, *jar*, jingalak kabi so‘zlarda uchraydi.

J undoshi jarangli, sirg‘aluvchi tovush: ajun — dunyo.

Eski turkiy til taqlidiyat qonuniga ko‘ra, *j* tovushi turkiy so‘zlarning boshida, o‘rtasida, oxirida paydo bo‘lgan: jagiladi — sharilladi; qorujin — qo‘rg‘oshin. Ko‘rib turganimizdek, *j* sirg‘aluvchi ham *sh* undoshiga moyil talaffuz etilgan qadimdanoq. Chunki ayni har ikkala undosh ham sirg‘aluvchiligi bilan birlashtiruvchi xususiyatga ega.

O‘zlashgan so‘zlarda : ajdaha // ajdarhä — ajdar kabi. Eski o‘zbek tili davrida ham *j* undoshi, asosan, o‘zlashgan so‘zlarda uchraydi: mujgän; ajdahâ; gajdum; vajgun.

Hozirgi o‘zbek tilida ham *j* undoshi, asosan, mujgon, ajdar, jurnal, ekipaj, montaj kabi o‘zlashgan so‘zlarda uchraydi. Agar e'tibor bergan bo‘lsangiz, yuqorida aytilgan har ikkala

farqlovchi tovushlar ham ayni bugungi kundagi tilshunoslikdagi masalaning asosidir. Dastavvalgi qorishiq *j ayni damdagi DJ,* keyin nazarda tutilgan sirg‘aluvchi *j ayni vaqtdagi J.*

Foydalanilgan adabiyotlar

1.G. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, G. Mahmudov. " O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi " o‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent 2008, 4- bet.
2.O‘zbek tilining kirill va Lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati " Tosh shar nashriyoti matbaa konserni 1999- yil

AVESTO KITOBINING AXLOQIY QOIDALARI VA BUGUNGI KUNDAGI O‘RNI.

Erkinova Ruhshona Olim qizi
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg’on filiali talabasi

Annotatsiya*. Maqolada Avesto kitobining muqaddas yozuvi, Avestodagi real dunyoviy qadriyatlar va ma’naviy hayoti, diniy qarashlari,olam va odam to‘g’risidagi tasavvur, urf-odat va qadriyatlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar*: AhuraMazda, Mithra, Yasna, Yasht, Visparad, Vendidad.*

Abstract

The article discusses the sacred writings of the Avesta book, real wordly values and spiritual life in the Avesta, religious views, visions of the world and man, traditions and values.

Key words: *AhuraMazda, Mithra, Yasna, Yasht, Visparad, Vendidad.*

‘’AVESTO‘’ning paydo bo‘lishi. ‘’Avesto yozuvi. ‘’Avesto‘’ O‘rta Osiyo tarixidagina emas, balki dunyo madaniyati tarixida muhim voqeadir. ‘’Avesto‘’ to‘g’risida so‘z ketganda, albatta Zardusht shaxsi to‘g’risida so‘z yuritiladi. Zardushtning ta’limoti ‘’Avesto‘’ ni yuzaga keltirdi. Zardusht **‘’AVESTO‘’** ni qanday yaratgani to‘g’risida turli rivoyatlar mavjud. Bu rivoyatlardan ma’lum bo‘lishicha, ‘’Avesto‘’ dunyo tarixida ilk muqaddas kitob hisoblanadi. Beruniy bu asar to‘g’risida shunday deydi: ‘’Zardusht majusiylar‘’ Abisto(Avesto-N.R) deb ataydigan kitob bilan yuzaga keldi. Bu kitob barcha xalqlar tillariga muxolif bir tilda yozilgan… va hamma bilishi uchun u tildagi harflar soni hamma tillar harflaridan ortiq edi’’. Avesto Zardusht nomi bilan bog’lansa-da, bu noyob asar bir davrning mahsuli emasligini ham ta’kidlamoq darkor. ‘’Avesto‘’ bir necha asrlar davomida shakllanib, yaxlit asar holiga kelgan. Bu jarayon dunyo madaniyati tarixida sinovlardan o‘tgan tajriba bo‘lib, ‘’Avesto‘’ ana shu tajribaning mahsullaridan biridir. Sharqda bu jarayonning namunalari kuzatiladi. Qadimgi Xitoydagi falsafiy risolalar, Bibliya ham shakllanganda, anashu yo‘lni-asrlar yo‘lini bosib o‘tgan.’’Avesto‘’ ning eng qadimiy qatlamiga ko‘ra shunday xulosa chiqarish mumkinki, zardushtiylik urug’chilik jamiyatida-tabaqalashish boshlanganda va hukmron tabaqa o‘z hukmni o‘tkaza boshlaganda yaratilgan. ‘’Avesto‘’ faqat zardushtiylik oqimining muqaddas yodgorligi bo‘lib, qolmay Markaziy Osiyo xalqlarining ijodiy qobiliyati, og’zaki ijodi, e’tiqodi va dunyoqarashining mahsuli hamdir. Bunda ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan va hozirgi kunga tatbiq qilish masalasida qadriyatlar bugungi kunda ham real, dunyoviy (diniybo‘lmagan) qadriyatlar sifatida qadrlanadi. Quyida Avestodagi asosiy dunyoviy qadriyatlardan ba’zilari keltirilgan: **Halollik va rostgo‘ylik-** Avestoda yolg’on eng yomon illat sifatida keltirilgan. Rost so‘zlash va halol yashash asosiy axloqiy qadriyat sifatida targ’ib qilinadi. Va buning bugunga ta’siri aksincha hollarda ham uchraydi avvalo inson halol va rostgo‘y bo‘lsa jamoada jamiyatda muhima hamiyatga ega inson sifatida taniladi. **Mehnatga hurmat-** Mehnat qilish, ayniqsa dehqonchilik va hunarmandchilik, insoniy fazilat sifatida qadrlanadi. Har bir inson o‘z mehnati bilan yashashi kerakligi uqtiriladi. **Adolatparvarlik-** jamiyatda adolatni saqlash va zulmga qarshi chiqish Avestoda asosiy qadriyat hisoblanib, boshqaruvchi insonlar adolatli bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi. Asosan adolatli inson har qanday jamiyatning mustahkam poydevoridir. Adolatli inson yuqorida ta’kidlanganidek rostgo‘y halol bo‘lmog’i kerakdeb qaraladi**. Ilm va donishmandlik**-bilim olish va donolik ortirish olqishlanadi. Aql va tafakkur orqali inson haqiqatni anglay oladi, degan fikrlar yo‘q emas.

Prezidentimiz nutqlari: ‘’Avesto‘’ bundan XXX asr muqaddam ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan merosidir’’ deya fikrini bayon qiladi Avesto ayni paytda bu qadim o‘lkada

buyuk davlat, buyuk madaniyat bo‘lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki uni hech kim inkor eta olmaydi’’ bunda bugungi kundagi ta’siri ayni muddao. Shu bizga qadar ‘’Avesto‘’ ning 1288-yilda ko‘chirilgan nusxasi bizgacha saqlangan.1771-yilda tarjima qilinadi va

•IX asrda pahlaviy tilida yozilgan ‘’Denkart’’ kitobida‘’ Avesto‘’ ning kitoblari ularning qisqacha nomlari keltirilgan.

•1-nask Saxovat va savob ishlarning mazmuni va mohiyati haqida;
•2-nask Diniy marosimiy urf-odatlar, amallar bayoni;
•3-nask Mazda yasna dinining mohiyati va aqidalari haqida;
•4-nask Olamning yaralishi, fano va boqiy dunyo haqida;
•5-nask Osmon jismlari
•8-nask Huquqiy masalalar
•10-nask Vishtaspning shohlik zamoni
•15-nask Adolat
•17-nask Diniy marosim qoidalari
•19-nask Devlar va jinlarga qarshi kurash
•20-nask Ruhning u dunyodagi sarguzashtlari
•21-nask Axuramazda va uning 6 doimiy o‘lmasmalaklar haqida

Avesto kitobining 4 parchasi yetib kelgan ular Yasna (Diniy marosimlar), Yasna – yaz o‘zagidan bo‘lib, «sajda, topinch, namoz» ma’nolarini ifodalaydi. Yasna 72 bobdan iborat bo‘lgan. Boblari ha, haitiy deb atalgan. Har bir ha zarur o‘rniga qarab marosimlarda, ibodatlarda kohinlar tomonidan o‘qilgan, qavmlar unga ergashib ibodat qilganlar. Yasna kitobi (nask) tarkibiga Zardusht o‘zi ijod qilgan targ’ibot she’rlari ham kirgan. Ular Yasnaning 28-34, 43-46, 47-50, 51, 53 – jami bo‘lib, 17 ta hasini tashkil qiladi.Zardusht she’rlari ilmiy adabiyotda gatalar deb atab kelinadi. Ha «bashorat» demakdir. Yasnaning 35-42-halari ayniqsa, yuksak qadrlangan. Bu etti ha Haptanxati Yasna – «Etti bob Yasna» deb nomlangan. Ular orasida olovning muqaddasligi haqida bob bo‘lib, zardushtiylik urf-odatlari orasida olovga e’tiqod qilish, dinning esa «otashparaslik» deb atalishi shunga bog’liq. Binobarin, olov Axura-Mazda nurining quyoshda namoyonligi va uning erdagi zarrasi deb hisoblangan. Oliy haqiqat Arta ham olovda o‘z ifodasini topgan. Olov haqni nohaqdan, eng oliy gunoh hisoblanmish yolg’onni rosdan ajratib bergan. Yolg’on esa chin e’tiqodga xiyonat deb qoralangan. Arta so‘zi fonetik o‘zgarib, dastlab atar, hozir esa otash shaklida ishlatilib kelmoqda. Visparad (barcha ilohlar haqidagi kitob)U 24 bobdan tashkil topgan va har bir bob alohida karde deb atalib, ma’budlar sha’niga o‘qilgan duolar va ibodat ustida ularga murojaatlar hamda olamni bilishga doir pand-nasihatlardan iboratdir. Uni ibodat namozlari yig’indisi ham deyishadi. Ayni paytda u Yasnaga qo‘shimcha hisoblanadi. Vendidad (yovuz ruhlarga qarshi qonunlar majmuasi), Yasht (ma’no jihatdan yasnaga yaqin)Yasht» (gimn) deb ataladi. U Avestoning eng qadimiy qatlami bo‘lib, 22 bobdan iborat. Har bir bob Axura-Mazdadan boshlab, u yaratgan va uning ma’lum vazifalarini bajaruvchi ma’budlar sha’niga aytilgan madhiyalardan iborat. Avestoning bizgacha etib kelmagan kitoblaridan ba’zi qismlari uning yig’ma parchalar to‘plami «Xo‘rdak Avesto» kitobida jamlangan. Masalan, Exrpatastan kitobidan mo‘badlar (kohinlar) uchun qonun-qoidalar, diniy boshqaruv tizimiga xos ma’lumotlarga oid qismlari, Nirangastan – diniy-mavsumiy, ijtimoiy marosimlar tartib-qoidalari qismi, 20-naskda jonning u dunyodagi ahvoli haqidagi qismi va boshqalar shu kitobda saqlangan. Avesto haqida eng muhim manba IX asrga oid «Dinkard» (din amallari) asaridir. Unda Avestoning 21 kitobi to‘la ta’riflab berilgan. Bu ta’riflar savobli ishlar yo‘riqnomasi, diniy marosimlar va rasm-rusumlar qoidasi; zardushtiylik ta’limoti asoslari; dunyoning Axura-Mazda tomonidan yaratilishi; oxirat kuni va undagi hisob-kitob; falakiyot; ijtimoiy-huquqiy qonun-qoidalar; Zardushtning tug’ilishi va bolaligi; haq yo‘lini tutish; jamiyat a’zolarining haq-huquqlari; devlar, jinlar kabi yovuz kuchlarga qarshi o‘qiladigan duolar, amallar va boshqalardan iboratdir. Zardushtiylik dini haqida frantsuz olimi Anketil-Dyuperron juda qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Masalan, Anketil-Dyuperron 1755 yilda Hindistonga ilmiy safar qilib, u erdagi zardushtiylar orasida uch yil

yashagan, ularning ibodatlari, urf-odatlarini yaxshi o‘rgangan va Avestoni frantsuz tiliga tarjima qilgan. Uch jildlik tarjima 1771 yilda nashr etilgan. Ayni paytda, shuni ham ta’kidlash joizki, olimlarimizning fikricha, Avesto G’arbiy Evropa, Eron va Hindiston tillari orqali bizga etib kelgani uchun undagi nomlar, atamalar aksariyat hollarda asliga to‘g’ri kelmaydi. Avestoda turkona jihatlar kam qolgan. Zartushtiylikni o‘rganish hozirgi kunlarda ham faol olib borilayapti. Ta’kidlash kerakki, bu sohadagi tadqiqotlar O‘zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy qadriyatlar va ko‘p qatlamli diniy tajribada mazkur dinning tutgan o‘rni beqiyosdir..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Rahmonov N. 2017.O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 19 b.
2.Rahmonov N. ‘’Avesto‘’ ning paydo bo‘lishi. –‘’O‘zbekiston ovozi’’ gaz., 2001, 26-may

AVESTO - O‘RTA OSIYONING TARIXIY-ADABIY YODGORLIGI

Farxodova Mahfuzaxon
SamDUKFning 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda vujudga kelgan qadimgi zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"haqida mulohaza yuritiladi. "Avesto" o‘zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bir necha ming yillik kishilik taraqqiyotida sezilarli ta'sir ko‘rsatgan, butun borliq, mavjudot, shuningdek, inson mohiyati bilan bog'liq bo‘lgan buyuk qadriyat , shuningdek, tub mohiyati bilan dunyoviy tafakkurning noyob, o‘ziga xos, barkamol majmuasi, fundamental qarashlarga asoslangan, qomusiy ahamiyatga ega bo‘lgan buyuk adabiy-yodgorlik ekanligi aytiladi.*

Kalit so‘zlar: *Avesto, Xorazm, Zardusht, Ahura-Mazda , Ahriman, ko‘p xudolilik, olov, suv, quyosh, marosim, ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal, "Goxlar", "Yasna", "Vandidod", "Yashtlar", "Vispirad", "Kichik Avesto"*.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" mil.avv. 1ming yillikning birinchi yarmida paydo bo‘lganligini tasdiqlaydi. Dastlab "Avesto"matnlari og'zaki ravishda saqlanib kelgan. Uning eng qadimiy qismlari 2ming yillik oxiri 1ming yillik boshlariga oid bo‘lib, keyingi asrlarda uning tarkibi turli diniy urf-odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar bilan to‘ldirib borilgan. Milodiy uchinchi asrda qonunlardan iborat Avestoning sharhi "Zend" yozilgan. Zamonaviy zardushtiylarning fikriga ko‘ra "Avesto"ning to‘liq qismi yetib kelmagan bo‘lsa-da, uning dastlabki yozma nusxasi 12 ming qoramol terisiga bitilgan edi. Abu Rayhon Beruniy

"Avesto" va uning ayanchli taqdiri haqida gapirar ekan, " Podshoh Doro ibn Doro xazinasida o‘n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularga xizmat etuvchilarni o‘ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun Avestoning beshdan uchi yo‘qolib ketdi. Avesto 30 nask edi, majusiylar qo‘lida taxminan 12 nask qoldi. Biz Qur'on bo‘laklarini xaftiyaklar deganimizdek, nask Avesto bo‘laklaridan har bir bo‘lakning nomidir", - degan edi. Ko‘p xudolikka asoslangan zardushtiylik diniga spitama qabilasidan bo‘lgan Pourushaspa o‘g'li Ashoga Zaratushtra (yunoncha -Zoroastr, paxlaviycha - Zaraxustra " boqiy yulduz" va "chiroyli tuyalarga ega bo‘lgan") payg'ambari asos solgan. Ko‘p tadqiqotchilar Zardusht tarixiy shaxs bo‘lib, milodgacha 589-512 yillarda yashab ijod etgan birinchi ilohiyotchi, faylasuf, tabiatshunos va shoir ekanini e'tirof etadilar. Zardushtiylikning vatani masalasida ikki xil qarash mavjud. Jumladan , ayrim tadqiqotchilar zardushtiylik qadimgi Eron hududida keng tarqalgani, "Avesto"ning sharhlari paxlaviy tilida yozilganidan kelib chiqib, uning vatani Midiya (hozirgi Eron hududi) deb hisoblasalar, ko‘pchilik tarixchilar esa "Avesto" da Xorazmning Zardushtning vatani, Ahura- Mazda bilan aloqa bog'langan va muqaddas olov birinchi bor yoqilgan joy ekani qayd qilinganiga asoslanib, Xorazmni e'tirof etadilar.

"Avesto" to‘rt qismdan tashkil topgan: Yasna (diniy marosimlar) bu yerda asosan Zardushtning xatlari va barcha savollariga 72 ta "ha" degan bashoratlaridan iborat , Yasht (ma'no jihatdan Yasnaga yaqin) Zardushtning yovuz kuchlarga qarshi kurashni ulug'lovchi 22ta

qo‘shiqdan iborat , Visparad (barcha ilohlar haqidagi kitob) 24 bobdan iborat bo‘lib, pand-, Vendidad (yovuz ruhlarga qarshi qonunlar majmuasi) 22 bobdan iborat bo‘lib, unda asosan Zardusht bilan Ahura-Mazdaning savol-javoblari bayon qilingan. Yasna tarkibiga kirgan madhlar "Gatlar" (ba'zi manbalarda "Goxlar") deb nomlanib , Zardushtning o‘zi yozgan degan taxminlar bor. Gatlar qismida Yima, Gershasp , Afrosiyob kabi afsonaviy qahramonlar hikoya qilinadi."Avesto" ilk svilizatsiyaning ilk sahifalari bo‘lgani uchun ko‘plab olimlar u haqida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. "Avesto" ning ta'limotiga ko‘ra hayot ikki asosdan: yorug'lik va zulmatdan, yaxshilik va yomonlikning to‘xtovsiz kurashlaridan iborat sanalgan. Ezgulik ilohi Ahura-Mazda sanalgan va u dunyodagi barcha o‘simlik va hayvonlarni yaratgan hisoblanadi, insonlarni ezgulik sari chorlaydi degan. Yovuzlik va yomonliklar ilohi Ahriman Ahura-Mazda bilan jang qiladi ,lekin ezgulik g'alaba qozongan. Ezgulik ilohi Ahura-Mazda osmonda yashagan va insonlarni boshqargan , Ahriman esa yer ostida yashagan va odamlarga yomonlik qilgan , ikkisi yer sathida jang qilgan degan qarashlar bo‘lgan. Zardushtiylik dinida to‘rt unsur muqaddas hisoblangan, bular: olov, suv, tuproq va havo. Ularning ibodatxonalari otashkadalar deb atalagan va u yerda olovga sig'inganlar.Ular olovni muqaddas deb bilganlar, shuningdek, ko‘p marosimlari olovsiz amalga oshirilmagan. Zardushtiylik dinida inson o‘lgandan keyin uni olovda yoqmagan, suvga tashlamagan va yerga dafn qilmagan, sababi insonning jasadi ularni nopok qilib qo‘yadi deb ishonishgan. Inson jasadini tog'-toshlar chiqarib qo‘yishgan, oftobda toblangan va yomg'irda yuvilib poklangan ssuyaklarni maxsus suyakdonlarga solib dafn qilishgan. "Avesto"da Jannat va Do‘zax tushunchalari mavjud bo‘lib, agar inson ezgu so‘zlasa, namoz o‘qisa va ezgu amallarni bajarsa, rohat-farog'atda mangu yashaydi, agar inson yomon so‘zlarni gapirsa, Ahura-Mazdani madh etmasa va yomonliklar qilgan bo‘lsa azobga duchor bo‘ladi dega g'oyalar mavjud. Olovni gunohlardan tozalovchi sehrli kuch deb bilishgan. "Avesto"da ko‘chmanchilik va dehqonchilik hayot tarzi o‘rtasida qarama-qarshiliklar bo‘lgan, ko‘chmachilik yomon mashg'ulot sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, dehqonchilikni ezgulik belgisi deb e'tirof etishgan. Zardushtiylik dinining kohinlarinining martabasi ulug' bo‘lgan va boshqa tabaqa vakillaridan ajralib turgan, Barcha marosimlar kohinlar yordamida amalga oshirilgan. "Avesto" katta kitob bo‘lgani uchun uni ko‘tarib yurishga noqulayliklar keltirib chiqargan, shuning uchun ular "Kichik Avesto" yaratadilar. Bunda asosan kundalik duolar va ilohlarga madhlar yozilgan. "Avesto" ning mohiyati "ezgu fikr" , "ezgu so‘z" va "ezgu amal" dan iborat bo‘lgan va bularga qat'iy rioya qilganlar.Bugungi kunda zardushtiylik diniga e'tiqod qiladiganlar ham topiladi, masalan hozirgi Eron va Hindiston davlatidagi ba'zi hududdagi aholi qatlami hozirgacha zardushtiylik diniga sig'inadi va "Avesto"ni muqaddas hisoblashadi. Zardushtiylikda mavjud bo‘lgan urf-odatlar hozirgacha saqlanib qolgan, buni ba'zi bir to‘y-marosimlarimizda ko‘rishimiz mumkin.Masalan nikoh to‘ylarida kelin va kuyov olovni aylanishi, kasal odamni olovdan o‘tkazish, yomon ruhlarni olov bilan haydash, jumladan, Navro‘z va Mehrijon bayramlarini misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin." Avesto" da ham inson tahorat olib yurishi, uyini toza tutishi, kiyimlarini pokiza tutishi va boshqa poklovchi amallar mavjud. "Avesto" ning bugungi kundagi ahamiyati juda yuqori. Kitob Markaziy Osiyoning noyob qo‘lyozmasi sifatida e'tirof etiladi,chunki kitobda o‘sha davrdagi O‘rta Osiyo aholisining turmush tarzi,madaniyati, urf-odatlari va yashash sharoiti haqidagi qimmatli ma'lumotlar bugunga qadar saqlanib qoldi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Avesto" nafaqat diniy asar, balki o‘z davrining falsafiy, axloqiy va ijtimoiy fikrlarini o‘zida mujassam etgan bebaho tarixiy manbadir. U o‘zbek xalqining qadimiy madaniy merosi tarkibida alohida o‘rin egallaydi va bugungi kungacha ayrim urf-odatlar zamirida yashab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdusamedov A.A. Dinshunoslik asoslari.-T:O‘zbekiston,1995.
2. Jo‘rayev H, Xalilov H, Bo‘ronov M. Avesto.-Ta’lim nashriyoti-2021.
3. Muratov D, Alimova M,Karimov J ,Jo‘rayev Sh Dinshunoslik asoslari.
4. Avesto.Asqar Mahkam tarjimasi.-T: O‘zbekiston,2021

5. Boboyev H, Hasanov S. Avesto-ma’naviyatimiz sarchashmasi.-T, 2001

JADID ADABIYOTINING IJTIMOIY HAYOTDAGI O‘RNI

Fayzullayeva Laziza
SamDUKF 1-kurs talabasi

Behbudiyning badiiy ijod sohasidagi eng katta xizmati shundaki, u o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib drama janriga qo‘l urib, milliy dramaturgiyaga asos soldi. Bu sahna asarining yuzaga kelishi milliy adabiyot va san’at tarixida katta voqea bo‘ldi. Zotan, o‘zbek milliy dramaturgiyasi va zamonaviy tushunchadagi milliy teatr Behbudiyning “Padarkush»i bilan boshlandi.

Bu tasodifiy bo‘lmay, muayyan qonuniyatga ega edi: jadid adabiyoti to‘liq millatni uyg‘otishga qaratilgan edi. Bu adabiyotning qahramonlari avvalgi davrlardagiday yuqori tabaqa vakillari yoki ilohiy qudrat bilan nurlantirilgan siymolar emas, balki ommaning ichidan chiqqan, unga qaytib boradigan va shu bois xalqqa ta’sir ko‘rsatish imkoniyati kattaroq bo‘lgan oddiy kishilar edi. Jadid adiblari yangi mavzularni yangi janrlarda va yangi obrazlar orqali ifodalashga urindilar. Yana bir muhim jihat shundaki, jadid yozuvchilari shunchaki ijodkor emas, balki jamoatchi ham edilar. Ular faqat qalami bilan emas, balki ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy amali bilan ham millatni uyg‘otishga jahd qilgan edilar. Agar ma’rifatchilar ko‘p asrlik milliy adabiyotga yangi mavzular olib kirgan bo‘lsa, jadidlar o‘zbek adabiyotiga drama, roman, hikoya singari yangi janrlarni kiritdilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1911-yilda “Padarkush» (yoki “O‘qimagan bolaning holi») dramasini yozish bilan adabiyotda o‘ziga xos yangilik yaratdi.

Avvalo, shuni aytish kerakki, “Padarkush» dramasida inqilobiy g‘oyalar emas, ma’rifatchilik va komillikka qarashlar ilgari surilgan. Pyesada chorizm mustamlakachilik siyosatini fosh etuvchi va qoralovchi fikr-mulohazalar yo‘q bo‘lishiga qaramay, 1913-yilgacha “Padarkush»ni sahnalashtirish yoki nashr etishga ruxsat berilmadi. Shu holatning o‘ziyoq mustamlakachilar yerli xalqni ma’rifat, ilm-fandan uzoqda tutishga jon-jahdlari bilan uringanliklarini dalillaydi. **“**Padarkush**»** 1913-yilda o‘zbek va tojik tilida chop etildi. Ko‘p o‘tmay, Samarqand, Toshkent, Buxoro, Andijon, Namangan, Qarshi, Qo‘qon, Kattaqo‘rg‘on shaharlardagi teatrlarda sahnalashtirildi. Hamma joyda tomoshabinlar pyesani olqishlar bilan kutib oldilar.

Buning ikkita sababi bor:

1. O‘sha vaqtlarda xalq uchun tamomila yangilik bo‘lgan teatr san’atiga qiziqish nihoyatda kuchli edi.
2. Asarda o‘sha davr hayoti uchun xos voqealar ko‘rsatilgan va xalqni qiziqtiradigan ezgu g‘oyalar, ibratli fikrlar aks ettirilgan edi.

“Padarkush» dramasida boy (50 yoshda), boyning o‘g‘li Toshmurod (15-17 yoshlarda), domulla (yangi fikrli mulla, 30-40 yoshlarda), ziyoli (musulmon), boyning qotili Tangriqul, armani mayxonachi (Artur) va boshqa obrazlar ishtirok etadilar. Qatnashchilar ro‘yxati ham asar g‘oyasidan kelib chiqib, uni yanada ochiqroq va ta’sirliroq qilish uchun xizmat qiladi.

“Padarkush» asari yangi g‘oyani targ‘ib etishning yangi usuli sifatida yuzaga keldi. Jadidlarning qarashlarini ommaga singdirish uchun katta auditoriya zarur edi. Bu esa drama orqali amalga oshirildi. Shu sababli, “Padarkush»dagi g‘oyalar badiiy libosga burkab o‘tirilmay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilgan. Asar xotimasida bir ziyoli sahnadan odamlarga qarab shunday deydi: “...Ilmsiz va tarbiyasiz bolalarning oqibati shuldir. Agar bularni otasi o‘qitsa edi, bu jinoyat va padarkushlik sodir bo‘lmas edi». “Padarkush» dramasida hayotiy voqealar bor ziddiyatlari bilan ko‘rsatilib, ma’rifatsizlik va johillik qoralanadi. Asar to‘laligicha ilm-ma’rifatni egallash g‘oyasini targ‘ib qilishga bag‘ishlangan. Uning tarbiyaviy-estetik ahamiyati ham ana shundadir.

Behbudiyning “Padarkush» asari o‘zbek dramaturgiyasining shakllanishiga, xususan unda ma’rifatchilik an’analarining qaror topishiga samarali ta’sir etdi. Natijada, Abdulla Avloniy, Hamza, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Badriy kabi ijodkorlarning ma’rifatparvarlik ruhida yozilgan asarlari yuzaga kela boshladi.

Xulosa qilib aytganda, Behbudiyning “Padarkush» pyesasi keyinchalik yaratilajak asarlarga yo‘nalish berib, yosh yozuvchilarga sahna asarlari yaratishda o‘rnak va turtki bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanov B. Karimov N. Jadid marifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. T-2016 6-9 b.
2. Qosimov V. va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. T-2004 67 b.
3. Nosirov O. Ma’murov M. O‘zbek adabiyotchining muhim sanalari. - Namangan: 1993. - B. 124.
4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish - T: Ma’naviyat. 2002.

MA’NAVIYAT XAZINASI (ODIL YOQUBOVNING „ULUG‘BEK XAZINASI’’ ROMANI ASOSIDA)

Ibidimova Lobar Muzaffarovna

SamDUKF Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti

o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya*. Ushbu maqolada ,,Ulug’bek xazinasi’’ romaning yaratilishi, asardagi voqealar rivoji hamda Mirzo Ulug’bekning xazinasi, uning nodir asarlari va Ali Qushchining sadoqati haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, ,,Ulug’bek xazinasi’’ asarining o‘zbek nasridagi o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z boradi.*

Abstract*. This article provides information about the creation of the novel "The Treasure of Ulugbek", the development of events in the work, as well as the treasure of Mirzo Ulugbek, his rare works and the loyalty of Ali Kushchi. It also discusses the place and unique features of the work "The Treasure of Ulugbek" in Uzbek prose.*

Аннотация*. В данной статье дана информация о создании романа «Сокровище Улугбека», развитии событий в произведении, а также о сокровище Мирзо Улугбека, его редких произведениях, верности Али Кушчи. В статье рассматриваются место и уникальные особенности произведения «Сокровище Улугбека» в узбекской прозе.*

Kalit so‘zlar*: Ulug’bek xazinasi, Tarixiy roman, Temuriylar davri adabiyoti, Ilmiy merosning badiiy talqini,Badiiy obrazlar talqini.*

Keywords: *Ulugbek's treasure, Historical novel, Literature of the Timurid era, Artistic interpretation of scientific heritage, Interpretation of artistic images.*

Ключевые слова*: Сокровище Улугбека, Исторический роман, Литература эпохи Тимуридов, Художественная интерпретация научного наследия, Интерпретация художественных образов.*

O‘zbek adabiyotida tarixiy roman janri muhim o‘rin tutadi.Ayniqsa,yurtimiz tarixidagi buyuk shaxslar hayoti va ilmiy merosini badiiy talqin etgan asarlar nafaqat adabiy, balki ilmiy ahamiyatga ham ega.Xususan,Odil Yoqubovning ,,Ulug’bek xazinasi’’ romani o‘tmishdagi buyuk alloma Mirzo Ulug’bek siymosini yoritish, uning ilm-fanga qo‘shgan hissasini ochib berishda muhim manba sifatida qaraladi.Ushbu maqolada roman tahlil orqali tarix, badiiyat va ilmiy tafakkur uyg’unligi o‘rganiladi.

,,Ulug’bek xazinasi’’ romanining yaratilishi tarixi shuni ko‘rsatadiki, badiiy jarayoning ibtidosi uning hayot haqiqatini bevosita o‘rganishdan boshlanadi.

Asarda uning shogirdlarining jasoratini va uning rasadxonasi, kitoblarining qadrli va ziyoga boy ekanligini ko‘rsatadi.Shuni ham aytib o‘tish keraki, yozuvchi bu asarni yozish bilan cheklanib qolmasdan, Ulug’bekning nodir kitoblari haqida qiziqib o‘zi uchun bir necha savollarga yuzlanadi.Ana shu jarayoning faoliyati haqida yozuvchi shunday hikoya qiladi:

Ba’zan tafakkur otining o‘rnida jilish uchun yengil turtkining o‘zi yetarlidir.Bir vaqtlar gazetada Ulug’bekning fojiali o‘lmidan keyin izsiz yo‘qolgan mashhur Ulug’bek kutubxonasi to‘g’risidagi kichik bir maqolani o‘qigandim.Unda bu kitoblar Ulug’bekning qotillar tomonidan

yo‘q qilib yuborilmaganligi, balki uning shogirdlari tomonidan Samarqanddan olib chiqib ketilib, Urgut tog’lariga yoki Shahrisabz yaqinidagi bir g’orga yashirilganligini taxmin qilingandi.Maqola talay o‘quvchilarda fikr uyg’otdi, yangi dalillar keltirildi,turli afsonalar naql qilindi.Ba’zi xatlarning mualliflari hatto kitoblar ko‘milgan joyning ehtimolga yaqin o‘rnini ham keltirishdi.

,,Mening ongimda esa sarguzasht qissa tug’ula boshladi. Men halitdan kutubxonani qutqarib qolish maqsadida Ulug’bek shogirdlarining bu yerga yashirincha kirib kelishlarini ,,ko‘rardim’’ saroy to‘polonlari, dovyurak yigitlar ortidan uyushtirilgan quv-quvlarni tasavvur qilardim,otlar dupuri va qilichlar jarangi eshitilardi.

Imkoni boricha tarixiy materiallarni o‘rganib, Samarqandga yo‘l oldim.Go‘ri Amir va Ulug’bek madrasalarining g’ira-shira,nim qorong’u yo‘laklardan kezdim,atoqli riyoziyotchi Qozizoda Rumiy va Ulug’bek navjuvon talabalariga saboq aytgan mashhur madrasaning ulkan yarim vayrona xonasida o‘yga cho‘mdim.Necha daf’a buyuk rasadxona xarobalarida titroq va hayajon bilan ko‘zdan kechirdim.

Sarguzasht qissa haqidagi fikrdan voz kechib, katta tarixiy polotno ustida o‘ylay boshladim.’’

Bu asarda aytishimiz kerak bo‘lgan jihatlar juda ko‘p.Men kitobni o‘qish jarayonida asosiy e’tiborim Ali Qushchi (to‘liq ismi Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi) va Ulug’bekning kitoblarini qandey yo‘l bilan qutqarib qolishda bo‘ldi.Hatto Samarqandga kelganimda o‘zimda boshqacha his paydo bo‘ladigan bo‘ldi.Romanda aks ettirilgan ,, Siyob va uzoqda ko‘ringan gumbaz,Urgut tog’lari’’ yuragim joyida turaolmayotgandek go‘yo,hayolimda aylangan narsa ,,Nahotki bu rost, rostan ham bu haqiqatmikan’’ va Samarqanda tarixiy o‘lka, hozirgi paytdagi holatni va vaqtni taqqoslaydigan bo‘lsam bu men uchun juda mukammal va uzoq o‘tmishdek ko‘rinardi. Ammo bizdan ham shundey ko‘p va qiymatli me’roslar qoladimikan degan savol qiynardi meni.

Asarning boshlanishi Ali Qushchini Mirzo Ulug’bek o‘z yoniga saroyga chaqirishi bilan boshlanadi.

Bu tovushlar rasadxona tolibi ilmlarning sharpasiz odimlariga o‘xshamas, sipohlarning betakalluf qadamlarini eslatardi.Movlono sergaklanib yuqori oshyonaning darchadan kichik o‘ymakor eshigiga tikildi,nimqorong’i rasadxonada yo‘g’on va o‘ktam ovoz yangradi:

-Mavlono Ali ibn Muhammadi Qushchi hazratlari! Shahriyori falak-iqtidor Mirzo Ulug’bek Ko‘rogoniy hazratlari amr etmishlarki, Ko‘ksaroyda darhol hozir-u nozir bo‘lg’aysiz!

-Bir daqiqa fursat bergaysiz.Olatlarni yig’ishtiray

- dedi Ali Qushchi.

Tun qorong’usida, kech kirganligi uchun Ali Qushchining hayolida allanimalar bilan saroyga bordi…

Ali Qushchi bilar, bu yil sohibqiron Amir Temur tug’ulgan yilidagiday falak qozisi Mushtariy bilan Zuhro yulduzlari bir-biriga yaqin kelishi kutilar edi. Ko‘ngil notinch davlatpanoh esa bunga allaqachon umid bog’lar,nimanidir kutar edi.

Mana, bir-ikki yil bo‘ldi, olis Hirotdan Xaqoni Said atalmish Shohruh Mirzo vafoti to‘g’risida ma’shum xabar kelganidan buyon Movarounnahr va Xuroson osmonidan qora bulutlar armay qoldi. Taxt va saltanat ishqida yongan Temuriy shahzodalar qilich va tig’ charxlashdan qo‘llari bo‘shamadi. Nihoyat, Ulug’bek qilichi o‘tkir chiqib, mag’ribdan mashriqqa qanot yozgan hududsiz saltanat xiyol osoyish topgan edi, toj-u taxt valiahdi shahzoda Abdullatif o‘z padari buzrukvoriga qarshi shamshir ko‘tarib chiqdi.Rajab oyining boshlarida a’lo hazratlari lashkar tortib Jayhun tomon otlanishga majbur bo‘ldi.Ammo davlatpanoh Jayhun bo‘ylarida lashkar tortib turganida dorulmulkda sodir bo‘lgan fitnalar uni Samarqandga qaytishiga majbur edi. Mana endi uch-to‘rt kundirkim, shaharda vahimali mish-mishlar:go‘yo shahzoda lashkarlari Jayhundan o‘tib Keshga yaqinlashib qolganmish…

Bu davr haqiqatni ochib beruvchi tarixiy va to‘qima obrazlarning hammasi Ulug’bekning atrofida aylanib turuvchi ikki xil jihatlilar yig’ilganligini ko‘rsatadi,biri – muhabbat va sadoqat,

boshqasi nafrat va yovuzlik timsoli sifatida guruhlana boshlaydi. Romaning markazida davr haqiqatini butun salobati bilan ochib beruvchi adolatli va ma'rifatparvar shoh Ulug'bek obrazi turadi.Shuningdek, roman ikki qismdan iboratdir.Birinchi qismi Ulug'bekning fojiasi bilan tugasa,ikkinchi qismi padarkush Abdulatifning fojiasi bilan tugaydi.Yana shuni aytish mumkinki,Mirzo Ulug'bekning o'g'li Abdulatif ko'zlarini boyligu davlat, saltanat ko'r qilgan,uning xohishi hammani o'ziga bo'y sindirish va aysh-u ishratdan iborat edi.Asarda Mirzo Abdulatifga Miryusuf Xilvatiy bir she'r yozadi.Garchi bu she'r Abdulatifga unchalik yoqmagan bo'lsa ham saroyda ulamolar, fozil va shoirlar bo'lganligi uchun va as'asa-yu dabdabali hayot kechirish ishqida yongan Mirzo Abdullatif uchun bu…. birinchi qaldirg'och edi…

Bobongiz fath etib shuhrat qozondi,
Bu olam ko'rmagay emdi aningdek zoti a'loni.
Padari nokingiz umrin nuri rahmatga to'ldiradi,
Olib shohista otiga Xoqoni Said unvoni.
Falak asroriga ilkin ko'tarib noravo sulton,
Falak qahriga uchrab o'z boshiga soldi g'avg'oni.
Amir-ul mo'minin taxti uzukka mos la'l yang'lig',
Yarashgay, qutlug' o'lsun,mukli islom ahli sarboni….

Ammo,bu qaldirg'och uzoqqa uchmadi, u barcha narsaga erishsada otasining ruhi uni tinch qo'ygani yo'q. Abdulatif uchun eng og'ir narsa padarkush nomini olganligi edi.Asarda Ulug'bekning xazinasini yashirishga oltindan yasatirilgan sandiqlar va ,,Ajdar g'or'', Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiy yordamida bu kitoblar mahorat bilan yashirilgan. Biz asarni o'qish jarayonida shunchalik asarning mukammal ekanligini anglashimiz va hattoki Mirzo Ulug'bekga siz ham yordam berishni xohlaysiz.

,,Ulug'bek xazinasi'' romani faqat badiiy asar emas, balki ilm-fan tarixini targ'ib qiluvchi muhim manbadir. Mirzo Ulug'bekning ilmiy faoliyat, uning o'z zamonasida qandey yuksak darajadagi tafakkur egasi bo'lgani roman orqali keng ochib berilgan. Asarda tarixiy haqiqat va badiiy tasavvur uyg'unligi ilmiylik bilan uyg'unlashgan. Shuningdek, asar bugungi avlod uchun tarixiy xotira, ilmiy meros va milliylik bilan o'zini anglash vositasi sifatida ham gavdalanadi.

Asar Yoqubovning eng sara asari hamda o'zbek adabiyotidagi eng muhim romanlarning biri hisoblanadi.Romon ilk marotaba 1973-yil Toshkent shahrida G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida chop etilgan.O'n marotabadan oshiq, jumladan, 1980-1986-(Yoqubovning uch jildli tanlangan asarlar to'plamida) va 1994-yilllarda qayta nashr qilingan.Shuningdek, roman bir necha tilga tarjima qilingan. 1976-yil romaning Yu.Surovsev muallif bilan hamkorlikda o'girgan ruscha tarjimasi Maskva shahrida ,,Sovetskiy pisatel'' nashriyotida chop etilgan.

Xullas, o'zbek mumtoz adabiyotida ham serqirra ijodkorlar va ularning asarlarini o'rganish bugungi kun uchun ham juda muhim.Shuningdek ,,Ulug'bek xazinasi'' romanida tasvirlangan Ulug'bek fojiasi, Ali Qushch shijoatini, Abdulatifning xoinligini, Mavlono Muhiddin sotqinligini psixologik asosda ko'rsatilgan voqealarni kattalashtirib, bo'rttirib ko'rsatilgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Saylanma.Uch tonlik.T.,G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1985-1987.
2.Ulug'bek xazinasi. Odil Yoqubov.,, Ilm-ziyo-zakovat'' Toshkent- 2019.
3.Diyonat.T.,G'afur G'ulom nomidagi nashriyot,1978.
4.www.ziyonet.uz.

O‘ZBEK DIALEKTIKASI RANG-BARANGLIGI (KATTAQO‘RG‘ON SHAHRI VA KOSON TUMANI QIYOSIDA)

Jo‘rayeva Kamola
SamDUKF 1- kurs talabasi

Annotatsiya. *Dialektologiya sohasi va uning o‘rganilish bosqichlari, o‘zbek dialektologiyasidagi o‘zgachaliklar, kattaqo‘rg‘onliklar shevasi va lug‘at boyligidagi nozikliklar, kosonliklar shevasida ba‘zi so‘zlar ta‘rifi, so‘zlarning leksik va grammatik xususiyati.*

Kalit so‘zlar*: dialektika, kattaqo‘rg‘on shevasi, koson shevasi, bir so‘zning turlicha ma‘no farqlari, oycha, o‘shxatmoq, mullapa, domillo, yanga va shunga o‘xshash so‘zlar ma‘nosi.*

Tilshunosligimizda alohida dialektologiya degan yo‘nalish borki, haligacha ko‘pchilikni qiziqtirib , hayratga solib keladi. Dialektologiya o‘zi nima? Dialektologiya bu- tilshunoslikning shevalarni o‘rganuvchi bo‘limi. Oddiy qilib aytganda bu soha turli hudud shevalarini, grammatikasini, fonetikasini, lug‘at tarkibini o‘rganadi.

Dialektologiya nimani o‘rganadi degan savolga to‘xtalsak, u turli geografik hudud shevalarini va shu shevaga xos so‘zlarning adabiy tilga qanchalik mos ekanligini, o‘xshash va farqli jihatlarini, so‘zlarning ma‘no va mohiyatidan kelib chiqib, xalq madaniyati va urf- odatlarini tahlil qiladi.

Misol tariqasida: Toshkent shevasida *kelyapsanmi?,* Andijon shevasida *kelyapsana?*, Samarqandchada *kelyapsammi?* va Qashqadaryo hududida *kelopsanmi?* shaklida ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek dialektologiyasi rivojiga hissa qoshgan olim va tilshunoslardan A. A. Muhammadjonov, I.G‘. G‘afurov, M. Jo‘rayev kabi olimlarni qilgan ishlarini aytish mumkin.Aynan shu olimlar tasnifi yuzasidan biz o‘zbek lahjalarini 3 guruhga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin:

1 . Qarluq lahjasi.
2. Qipchoq lahjasi.
3. O‘guz lahjasi.

O‘zbek dialektologiyasi shunchalik rang barang va o‘zgachaki, bir hudud shevasidagi so‘zlar boshqa hududda boshqacha ma‘noni ifodalashi yoki umuman qo‘llanmasligi mumkin. Xalq orasida ba‘zi sozlar foydalanish jihatdan turli turkumga mansub bo‘lishi ham mumkin. Misol tariqasida hozir Samarqand viloyati Kattaqo‘rgon shahri va Qashqadaryo viloyati Koson shahri shevalarini solishtirib ko‘ramiz.

Kattaqo‘rg‘on shahri leksikasi shu qadar boy va jilokorki, bu tildagi so‘zlar qo‘llanishida fonetik o‘zgarishlarni ham kuzatish mumkin. Misol uchun aytish mumkinki, shahar aholisi orasida *o* yoki *o ‘* tovushini *u* ga monand ba‘zida esa aynan *u* tarzida tallaffuz qilinadi:*odam-udam, o‘qish-uqish* tarzida. Yoki xalq orasida *a* harfiga urg‘u berish kuchliroq :*qorong‘u-qarang‘i, qayerga-qayga, ha-haa kabi.* Bu kabi o‘zgachaliklar fonetik jihatdan tavsiflansa, tovush almashishi jihatdan qo‘llanadigan ba‘zi bir sozlarni ham ko‘rishimiz mumkin:o‘xshataman-o‘shxataman, shuytib-shunday qilib kabi.

Endi Koson shahri leksikasiga etibor beradigan bo‘lsak .Koson shahri joylashish jihatidan Buxoroga yaqin bo‘lganligi sababli tilidagi so‘z va leksemalar Buxoro tojiklariga tortib ketadi va bu ko‘p jihatdan Qashqadaryoning boshqa hududlaridan farq qiladi. Aholisi orasida tojik tilida so‘zlashadigan qismi ko‘p bo‘lganligidan tojikcha so‘zlar muloqotda ko‘p va xo‘p ishlatiladi. Kosonlik aholi kattaqo‘rg‘onliklarga nisbatan *o* lovchi turga mansub bo‘lib, shevada buni yaqqol sezish mumkin: *boropman, kelopman, aytomman va hokazo(bu albatta butun viloyat emas balki bitta tuman hududi miqyosida).*

Endi ikki shevada bir xil yoziladigan ammo turlicha mano ifodalash uchun qo‘llanadigan so‘zlarga e‘tibor qaratsak: *o‘xshatmoq* so‘zi kosonliklar orasida bitta manoda bir buyumni boshqasiga o‘xshatish manosida qo‘llansa, kattaqo‘rgonliklarda 2 xil manoda 1- yuqorida

aytilgandek o‘xshamoq, 2- o‘xshatmoq - tuzattirmoq, to‘girlamoq manosida so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi:” Buzilgan eshikni o‘xshatish kerak”- dedi ayol o‘g‘liga.

Bundan tashqari *kelinoyi* manosida ishlatiladigan soz ham kosonliklarda *yanga* bo‘lsa, kattaqo‘rg‘onliklar bu so‘z o‘rnida *yangmullo,* yoki umuman boshqacha soz bo‘lgan *oycha* atamasini qo‘llashadi.

Yuqorida ishlatilgan - mullo qoshimchasi kattaqo‘rg‘onliklar tilida aka so‘ziga qo‘shilib, *akmullo* tarzida aytiladi va adabiy tildag *qayniaka* soziga to‘gri keladi. Endi yana bir soz qo‘llash farqini solishtirsak: kosonliklar ustoz yoki oqituvchiga nisbatan *domillo, ustoz, muallim* kabi sozlardan foydalansa, kattaqo‘rg‘onlik shahar maktabi oquvchilar bu so‘z o‘rnida *mullapa* so‘zidan keng foydalanishadi.

Endi ***ona*** sozining manolariga ham etibor bersak. Koson shahri aholisi uchun bu so‘z o‘z manosida ya‘ni adabiy tildagi ***oyi*** sozi o‘rnida qo‘llansa, kattaqo‘rg‘on aholisi uchun esa ***buvi*** manosida qo‘llanilar ekan. ***Ota*** so‘zi ham adabiy tilda dada so‘zining sinonimi hisoblanadi, kattaqo‘rg‘on shevasida esa dadaning otasi ya‘ni ***buva*** so‘zi o‘rnida aynan shu termin qo‘llaniladi. Kosonliklar orasida esa hozirgi kunda bu so‘z eskirgan so‘z hisoblanib kamdan kam hollarda so‘zlashuvda qo‘llanadi(*katta avlod vakillari tomonidan).*

Shevalar xususiyatini kuzatar ekanman kattaqo‘rg‘onliklar orasida keng qo‘llanilgan va adabiy tilga yaqin bo‘lgan ***tovoq*** sozi osh suziladigan idish manosida qo‘llanilishini bilib oldim. Koson shevasida bu so‘z umuman boshqa manoda- biror narsa solib qo‘yiladigan chuqur idish manosida, ovqat suziladigan idish manosida esa ***la‘li*** so‘zi qo‘llanishini aytish mumkin. ***La‘li*** so‘zi esa kattaqo‘rg‘onliklar orasida umuman qo‘llanilmaydi.

Yosh tilshunos sifatida shuni aytishim mumkinki, ozim qashqadaryolik bo‘lib va talaba sifatida kattaqo‘rg‘on sharida yashab shevaga oid so‘zlarni ba‘zilarinigina solishtirib, qiyoslab tilimizdagi rang-baranglikka qoyil qolish mumkin.

Endi butun yurtimiz bo‘ylab aholi orasida qo‘llaniladigan so‘zlarni tahlil qilish qanchalik qiziq va etiborli ekanligini alohida ta‘kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Jo‘rayev kitoblari
2. Arxiv.uz, Soff. Uz saytlari.
3. To‘ychiboyev B, Hasanov B ning “O‘zbek dielektologiyasi” asari.Toshkent 2004
4. Rajabov N. “O‘zbek shevashunosligi”. Toshkent 1996- yil.
5. Shoimov N . Qashqadaryo qipchoq shevalari leksikasi. Nasaf 2000 - yil.

“OLTUN YORUG‘” DAGI AFSONALARDAN “KU TAU AFSONASI” NING BUGUNGI HAYOTDAGI AHAMIYATI.

Mixriyeva Nozima

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Annotasiya*. Ushbu maqola orqali “Oltun yorug‘” kitobida keltirilgan muqaddas afsonalardan bilgan “Ku tau”afsonasida obrazlar hayoti uning bugungi zamon insonlariga o‘rnak bula oladigan jihatlari haqida ma’lumotlar beriladi.*

Kalit so‘zlar*: “Oltun yorug‘”, Ku tau, no‘m, Inchyu, burch, azob-uqubat, Erklig xoqon, burxon, braxmanizm, qayta tug‘ilish.*

Bizga ma’lumki buddaviylik dini dunyoda eng yirik va qadimiy din hisoblanadi. “Budda” so‘zi sanskiritcha so‘z bo‘lib, “ong tiniqlashuvi” ma’nosini bildiradi. Budda tarixiy shaxs sifatida talqin qilinadi.Tirik mavjudodlarni azob-uqubatlardan qutqarish Buddaning asosiy maqsadi bo‘lgan.

Budda - haqiqat najotkori demakdir. Uning asl nomi Siddxartxa. Siddxartxaning onasi - shakiylar hukmdori Mayyaning xotini bir kuni tushida yoniga oq filning kirib yotganini ko‘rdi. Ma’lum vaqtdan so‘ng u o‘g‘il tug‘di. U boshqa ayollar singari tug‘may, qoltigldan tug‘di.

Ayolning ovozini koinotdagi hamma xudolar eshitdi. Borliqdagi uqubatlarning oldini oladigan Zot keldi, deb xursand boldilar. Dono Asita

chaqaloqning buyuk qahramonliklar koʻrsatishi haqida karomat qildi. Chaqaloqqa Siddxartxa deb ism qoʻydilar. Bu-"topshiriqni bajaruvchi" deganidir.

Siddxartxaning tugʻilgan yili mil.ol. 642-448-yillar oraligʻida deb taxmin qilinadi. Onasi Siddxartxani tuqqandan keyin bir necha kun oʻtgach vafot etdi. Onaga vafotidan oldin, siz gʻayritabiiy narsani dunyoga keltirdingiz, deb xabar berishga ulgurdilar. Buddaning tug'ilishi haqidagi rivoyatlarga koʻra, u nuqsonsiz homila boʻlgan va homiladorlik davri ham nuqsonsiz boʻlib oʻtdi, shu bois Buddani onasi dunyoga keltirgandan keyin ham, u bokira qizligicha qolgan.

Buddaning tanasida olamning boʻlgʻusi hukmdori alomatlari

koʻringan. Siddxartxaning otasi oʻgʻli diniy tarbiya olishini istamadi. Ota hayotning salbiy tomonlarini oʻgʻlidan yashirib, dabdabali hayotni muhayyo qildi.Oʻgʻliga haqiqiy dunyoviy tarbiya berdi. Siddxartxa oʻn olti yoshida ikkita malikaga uylanib, otasining saroyida betashvish hayot kechiraverdi. U saroydan uch marta tashqariga chiqib, uchta muqarrar yovuzlikni bilib oldi: bular - keksalik, azob-uqubat va oʻlim edi. Toʻrtinchi marta saroydan tashqari chiqib, qashshoq rohibga duch keldi. Rohibning xotirjam va shod ekanini koʻrib, zaminiy yovuzliklarga qarshi dori-darmonni topdi. Yarim tundan uygʻonib, yonida yotgan malikalaming horgʻin tanasiga nazar tashladi va yana butun zaminning ogʻir yukini anglab yetdi. Oʻsha zohoti Siddaxartxa saroyni tark etib, saroyidan butunlay chiqib ketdi va zohidona hayot kechira boshladi,ismini Gautama deb oʻzgartirdi. Ikki muallim rahbarligida falsafani va yog texnikasini oʻrgandi, beshta shogirdi bilan oʻz tanasini azoblashni mashq qildi. yetti yil davomida u azob-uqubat bilan ter toʻkib, kohin braxmanlaming muqaddas kitoblarini oʻqidi. Ammo maqsadga erisholmay va bu singari riyozat chekishning behudaligini tushunib yetdi. Endi u guruch bilan oziqlana boshladi, Siddxartxaning zaiflashib borayotganidan xafa boʻlgan shogirdlari uni tark etdilar. Shundan keyin Shakyamuni (Shakya shohligidan kelgan zohid) anjir daraxti ostiga oʻmashib oldi va "Menda "ong tiniqlashuvi" yuz bermaguncha joyimdan qimirlamayman", deb qaror qildi. U Oʻlim va Yovuzlik ilohi Maraning siquvlariga va tazyiqlariga bardosh berdi. Ertasiga tong payti Mara ustidan gʻalaba qilib, Buddaga aylandi va "toʻrt oliyjanob haqiqat" ni anglab yetdi. Shu tariqa u "toʻrt oliy haqiqat"ning sohibi boʻldi. Ilgari uni tark etib ketgan beshta shogirdiga Banoras shahrida ana shu haqiqatni va'z qila boshladi. Budda jamiki olam jonzotlariga, xususan insoniyatga oʻnta va'dasini e'lon qilgan. Islomgacha yaratilgan yozma obidalar orasida buddaviylik oqimiga mansub "Oltun yorugʻ"(ya'ni oltin singari nur) sudurlari Markaziy Osiyo turkiy xalqlarining ijodiy mahsuli boʻlib keldi.

"Oltun yorugʻ"da keltirilgan afsonalardan biri "Ku tau" afsonasi boʻlib u insonlarni komillik yoʻl-yoʻriqlarini koʻrsatadi, shu yoʻlga da'vat etadi. Zotan asarning boshidan oxirigacha koʻtarilgan masalalar, aqidalar, gʻoyalar komillikka da'vat etadigan omillardir.

Afsonada hikoya qilinishicha, noʻm keng tarqalmagan vaqtda Inchyu nomli shaharda chang qabilasidan Ku tau degan bir odam shahar begi edi. U shahar begi boʻlib turganda, koʻp jonzotlami qurbon qildi. Vaqti kelib, qizining toʻy boʻlganda, sigir, qoʻy, toʻngʻiz, gʻoz, oʻrdak, tovuq kabi koʻplab jonzotlami soʻyib, katta ziyofat berdi. Oradan oʻn kun oʻtmasdan oʻsha bek og'ir xastalikka yoʻliqib, gap-soʻzdan qolib, tutqanoq kasaliga yoʻliqdi va olamdan oʻtdi.

Oʻlgandan keyin butun a'zolari sovib, faqat yolgʻiz yuragi sirtida bir parcha eti sovimay qoldi. Buni koʻrib, xonadonidagi odamlar qattiq yigʻi-sigʻi qilib murdani koʻmishga olib bormasdan, uch kunni oʻtkazdilar. Toʻrtinchi kun tong saharda ular kuyib-yonib turganlarida, oʻsha bek tirilib, oʻrnidan turib keldi, yuqoriga oʻtirib, ovqat, ichimlik soʻradi. Bu ahvoldan bekning qarindosh-urugʻlari, bir qancha odamlar vahimaga tushib, nariroq qochdilar. Ulaming qochib borayotganini bek koʻrib, ovoz berdi va shunday dedi: "Qaytinglar, yaxshilarim, men tirilganimga sizlar nima uchun darrov qochib ketyapsizlar? Qoʻrqmanglar, men endi sizlarga tirilishim sababini aytib berayin, burxanlar noʻmining turlichaligini endi eshitinglar". U shunday deya soʻzlab berdi: "Kasal boʻlganimda, eng avval menga toʻrtta shayton yaqin keldi. Bittasi yoʻgʻon qamchi tutgan, ikkinchisi arqon tutgan, uchinchisi qop tutgan, toʻrtinchisi koʻk toʻnli, ot

mingan bek ekan. Bu to‘rt iblis meni bir uy darvozasiga olib borganlaridan keyin, o‘sha ko‘k to‘nli bek otdan tushib, meni chaqirdi. Men u bekning oldiga borganimda, u qo‘ynidan bir bitigni chiqarib, menga o‘qitdi.

O‘qisam, bu bitigda o‘sha kungi bizning ziyofatda o‘ldirilgan sigir, qo‘y, to‘ng‘iz kabi jonivorlaming so‘zi bitilgan ekan. Ularning so‘zlari quyidagicha ekan: “Biz, hamma hayvonlar, oldin insoniyat dunyosida qilgan yomon qilmishlarimiz sababidan hayvonot olamida tug‘ilgan edik. Qarzimizni to‘laydigan, burchimizni o‘taydigan yil, oy vaqt miqdorini tugatsak edi, unda qiyofamizni o‘zgartirib, insoniyat dunyosida tug‘iladigan bo‘lar edik. Shunday qilib, hayvonot olamidan ayrilib, qutiladigan vaqtimiz, kunimiz tugamasdan, Inchyu shahridagi chang qabilalik Ku tau degan bek bizni o‘ldirdi. Shuning uchun hammamiz qaytadan yana hayvonot dunyosida tug‘iladigan burchdan, azob-uqubatdan shikastlandik. Bunday azob-uqubatdan shikastlangan zamonda bizning bu qayg‘ularimizni, azob-uqubatlarimizni ochiqchasiga tushuntirib so‘zlab beradigan darajada madorimiz yo‘q edi. Qanday qilib yana qarshilik qilishga, bardosh berishga kuchimiz bo‘lsin?! Bu qayg‘umizni endi yaratgan Tangri o‘ngarsin”, deb iltijo qildilar. Shuning uchun biz seni olib ketgani keldik. Bu xabar bitigda bor”. Bu so‘zlami bitigdan men oxirigacha o‘qib bitirdim. Keyin o‘sha ko‘k to‘nli bek: “Ushlanglar uni!” deb baqirgan edi, uchala iblis menga yaqin keldi, bittasi arqon bilan bo‘ynimni bo‘g‘di, bittasi qopga meni soldi, bittasi yo‘g‘on qamchi bilan boshimga urdi, ikkala qo‘limni qayirib, Bopso‘qa tog‘i tomonga olib bordilar. Yo‘l o‘rtasiga borganda, o‘sha meni olib borayotgan iblislar menga shunday dedilar: “Ey inson, sen shuncha-shuncha hayvonlarni o‘ldirding. O‘sha sen umrlariga zomin bo‘lganlar maktubi sababidan seni olib ketgani keldik. Sen buni bilishing kerak”, deb aytdilar. Bu so‘zni eshitib, men ularga shunday dedim: “Ey yaxshilarim, tangrilarim! Agar men u paytda insonlarning bu dunyolik ko‘zi o‘ngida yomon ish qilganimni ko‘rib-bilgan bo‘lsam, bular Yamaning-boyligidir. O‘sha yomon ishlaming hozirgiday og‘ir natija va oqibatlarini bilmagan edim. Mendan boshqa qancha-qancha odamlar son-sanoqsiz jonzotlami o‘ldirganlarini ko‘rdim. Ammo o‘sha kishilarning ochiq-oydin tushiga kirgan narsalarga yaxshi e’tibor bermagan edim. Shuning uchun ikki orada yana hozirgiday tilim bog‘lanib, o‘lim azobiga duchor bo‘ldim. Qanday amal-chorasini qilsam, qaytadan tirik jon bo‘la olaman? Bilmasdan yanglishib, xato qilib yovuz qilmishim uchun o‘zim pushaymon bo‘lyapman, qattiq azob tortyapman. Endi nima qilayin?” deb so‘radim. Shu gaplami aytganimdan keyin o‘sha iblislar menga shunday dedilar: “Ey inson! Sen issiq jonini olganlardan o‘ttizdan ortig‘i bog‘langan, ushlangan jonzotlar qudratli.

Erklig xonning-qarshisida dushmanlarcha ko‘zini chaqchaytirib, o‘sha ko‘zlarini tikib, seni kutib turibdilar. U yerga borganingda, Erklig xon juda qattiq qiynab o‘ldirilganlaming qattiq qonuni bo‘yicha hukm qiladi, u yerdagi og‘ir azoblardan qutulmagaysan”, deya so‘zladilar. Bu so‘zni eshitganimdan keyin men yanada qattiq qo‘rqdim, azoblarim ortdi. Ular har tarafga alanglab, meni pastga tushirib, oldinga tortib, keyinga tortib, urib-so‘kib, yana bekning huzuriga qattiq shoshiltirdilar. Shundan keyin men yana ularga yolvorib, shunday dedim: “Ey yaxshilarim, o‘ylab qarasam, azoblarimdan aslo qutulmoqlik yo‘q. Endi sizlardan o‘tinib so‘rayman, yolvoraman: o‘zim o‘ldirganlarning qo‘liga tushgach, ular meni Erklig xon oldiga so‘roqqa olib borganlarida, men nima qilay? Shuni menga aytinglar”, deb so‘ragan edim, ular menga shunday dedilar: “Ey inson! Agar o‘sha o‘zing o‘ldirgan jonzotlar uchun ko‘nglingda o‘kinch paydo bo‘lsa, qanday bo‘lmasin, ko‘nglingni pok qilgin. Dunyoning umid-ishonchi komil, dono Tangri tangrisi burxon qonun qilib bergan “Oltin rangli, yorug‘, yaltiroq, hamma narsadan ustun bo‘lgan no‘m podshohi” nomli no‘m bitigini tugal, to‘liq bitishga xohish uyg‘otishni chin dildan istasang, bu azoblaringdan xalos bo‘lar eding”, dedilar. Bu so‘zni eshitishim bilanoq, men birinchilarning birinchisi bo‘lib yetti toza ko‘nglim bilan o‘sha jonzotlami o‘ldirgan yovuz qilmishim uchun tavba qildim, dadillanib, yovuzlikni tashladim, toza sodiq ko‘ngil bilan turib, so‘ngra “Oltin rangli, yorug‘, yaltiroq, hamma narsadan ustun bo‘lgan no‘m podshohi” nomli no‘m xazinani to‘liq, tugal bitishga ko‘nglimni chog‘ladim.Buddaviylik paydo bo‘lmasdan ilgarigi braxmanizm e’tiqodi va udumlariga ko‘ra, xudolarga jonzotlar qurbonlik qilinavergan, bu davrda hali buddaviylik aqidalari

yaratilmagan va hayotga tatbiq qilinmagan edi. Ku tau hali buddaviylik aqidalaridan bexabar, braxmanizm aqidalari bo‘yicha hayvonlar va parrandalarni qurbon qilgani uchun, ular braxmanizmdan nirvonga yetisha olmagan. Shundan keyin Erlik xonga shikoyat qilganlar. Ku tau maxayana mazhabiga asoslangan “Oltun yorug‘”ni ko‘chirtirishga va targ‘ib qilishga va’da berishi bilanoq “o‘likdan tirildi”. Bu degani - Ku tau nirvonga yetishib, “qayta tug‘ildi” demakdir.

Xulosa: “Oltun yorug‘”dagi “Ku tau” afsonasida voqealardan ibrat olgan holga bugungungi zamonda ham turli xil jonivorlarga, hayvonlarga ozor bermaslik, ularni ham Tangi yaratganligiga ishongan holda yaxshi muomalada bo‘lish kerakligini ta’kidlab o‘tish lozimdir. Tangri tomonidan mavjud bo‘lgan katta-kichik jonzotlar ham huddi insonlar kabi hayotga yashash uchun kelishgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.N.Rahmonov “O‘zbek adabiyit tarixi” T 2017y.
2.V.V.Radlov.”Oltun yorug‘” qo‘lyozma namunasi 1913 y.
3.S.Y.Malov “Oltun yorug‘” qo‘lyozma namunasi 1917 y.
4.Internet ma’lumotlar.

ADABIY MEROSNI O‘RGANISHNING YOSHLAR TARBIYASDIDAGI AHAMIYATI

Ne’matullayeva Munojat Orif qizi
SamDUKF O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi talabasi

Anotatsiya*: Ushbu maqolada adabiy meros vositasida yoshlar dunyoqarashini kengaytirish, estetik didini rivojlantirish va ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalalarig alohida e’tibor qaratilgan.Xulosa sifatida esa adabiy merosni chuqur o‘rganish yoshlarning ijtimoiy faolligi va ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim omil bo‘lishi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar*: xalq og‘zaki ijodi, yozma adabiyot, adabiy meros, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy immunitet, adabiyot.*

Har bir xalqning o‘ziga xos milliy g’ururi, qadriyatlari va ma’naviy boyligi bo‘lib, bularning barchasi tarixiy va adabiy merosda mujassamdir. Ayniqsa, biz o‘zbek xalqining boy, qadim tarixga ega, adabiy merosi asrlar osha sayqallangan, bebaho durdona asarlardan iborat bo‘lib, yosh va ilmga chanqoq kelajak avlod tarbiyasida ulkan ahamiyat kasb etadi.O‘zbek adabiyotining rivojlanishi tarixi ko‘plab muhim asarlar, ularning yaratilishi va yaratuvchilari bilan ham boydir. Shu bilan birga adabiyotni xalqning ijtimoiy hayotiga ta’siri, ayniqsa, ma’naviyatga oid asarlarning ahamiyati ham juda katta. Maqolada biz o‘zbek tilidagi adabiyot va uning xalq ma’naviyatiga qo‘shgan hissasi ni o‘rganamiz. Adabiyotlarning zamon va makon bilan bog’langanligi, o‘quv yurtlarida adabiy merosimizning o‘qitilishi, xalqning ijtimoiy hayotini va dunyoqarashini aks ettirganligini ko‘rish mumkin.

Adabiy meros deganda biz Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi ko‘plab mumtoz va jadid adiblarining asarlarini tushunamiz. Ularning ijodi nafaqt badiiy mahorat namunasi, balki o‘z o‘rnida biz uchun ibrat maktabidir. O‘zbek xalqining og’zaki va yozma ijodi asrlar davomida ma’naviyatning yetakchi manbai bo‘lib kelgan. Bunday ijodda xalqimizga xos qadriyatlar, urf-odatlar, e’tiqodlarva ko‘hna tarixi aks etadi. Og’zaki ijodning rivojlanishi xalqning ma’naviy salohiyatini oshishiga xizmat qilgan desak mubolag’a bo‘lmaydi. Og’zaki ijodning yozma adabiyotga ta’siri ham o‘ziga xos ahamiyatga egadir. O‘zbek xalqining og’zaki adabiy merosida she’r, rivoyat, doston va na’tlar keng tarqalgan va ularda oddiy xalqimizning axloqiy, madaniy qadriyatlari o‘z aksini topgan Jumladan, Alisher Navoiyning “Sab’ayi sayyor “ (Yetti sayyora) nomli dostonida Bahrom shoh va Dilorom obrazlarini uchratishimiz mumkin. Bu asarda aytib o‘tgan qadriyatlarimiz, xalq hayoti, adolat, tinchlik, sevgi va ma’rifat, ota-bobolarimizga xos qadim ovchilik san’ati kabi g’oyalar ilgari suriladi.

Yozma adabiyot esa o‘zbek xalqining ilmiy, falsafiy va diniy merosini o‘zida jamlagan. Yozma adabiyotning asrlar davomida boyib, saqlanib, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgani, adabiyotning shakllanishi va rivojlanishi, xalqning ma’naviy hayotiga ta’siri haqida bir qator ilmiy ma’lumotlar ham mavjud. Misol qilib, Ibrohim Haqqulovni olsak. U “ Adabiyotshunoslikka kirish” asarida yozma adabiyotning shakllanishi, turlari va janrlarining taraqqiyotini ilmiy asosda o‘rgangan. U o‘z asarida o‘zbek yozma adabiyotining tarixiy bosqichlarini tahlil qilib bergan. Yozma adabiyotning xalq ta’limi va madaniy yuksalishidagi o‘zining roli ajralmasdir. Yozuvchilarimiz doim o‘z asarlari orqali yosh avlodning dunyoqarashlarini shakllantirshga , ularni yaxshilikka chaqirishga va ezgulik sari chorlashga intilganlar va maqsad qilib qo‘yganlar. Shu bilan birga, yozma adabiyotlar va xalq og’zaki ijodi, xalqning normativlarini, me’yorlarini va tarixiy xotirasini saqlashda, katta- katta yillar davomida qo‘ldan qo‘lga o‘tib saqlanishida muhim vosita bo‘lib kelmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarga ma’naviy immunitet zarur. Turli yot g’oyalar, begona madaniyatlar ta’sirida qolmaslik, o‘zligini yo‘qotmaslik uchun adabiy merosni chuqur o‘rganish lozim.Shu orqali ular o‘z millatini sevishga, ajdodlar yo‘lini davom ettirishga, fidoyilik bilan xizmat qilishga intiladilar. Bundan tashqari, ta’lim muassasalarida, ayniqsa, maktab va oliy o‘quv yurtlarida adabiy merosni o‘qitish orqali yoshlarning tafakkurini boyitish, ularni hayotiy haqiqatlarni anglashga undash mumkin. Badiiy asarlar orqali yoshlar o‘tmish va bugunni solishtirib milliy g’oya, qadriyat va madaniyat, ezgulik muhimligini tushuntirib yetadilar.

Xulosa qilib aytganda, adabiy merosni o‘rganish, yoshlar tarbiyasida hal qiluvchi omil sanaladi. U yosh avlodni barkamol inson etib shakllantirishda, ularning qalbiga vatan va xalqqa muhabbat, ma’naviyatga sodiqlikni sindirishda bebaho vositadir. Shu sababli ham bu merosni asrab-avaylash, o‘rganish va kelajak avlodlarga yetkazish barchamizning muqaddas burchimizdir.

FILOLOGIYANING JAMIYATDAGI O‘RNI VA NUTQ MADANIYATINING AHAMIYATI

Qilichova.A.Z

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada filologiya fanining jamiyatdagi roli, uning ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy va madaniy taraqqiyotdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, nutq madaniyatining hozirgi zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati, uning muloqot, madaniyat va axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liqligi yoritilgan. Maqola filologiya va nutq madaniyati sohalarining jamiyatdagi o‘zaro ta’sirini ochib beradi.*

1. Filologiyaning jamiyatdagi o‘rni

Filologiya — bu til va adabiyotning o‘rganilishi, tilni xalqning ma’naviy mulki sifatida chuqur anglashga xizmat qiladigan fan. Ushbu fan nafaqat tilshunoslik va adabiyotshunoslikni, balki ijtimoiy ong, madaniyat, tarix va qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Filologiya fani jamiyatda insonlar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlash, bilim va tajribaning avloddan avlodga o‘tishini kafolatlashda muhim o‘rin tutadi.

Til — millatning ruhi, tarixiy xotirasi va madaniy yodgorligidir. Filologiya ana shu til orqali xalqning ongini, tafakkurini, hayot tarzini o‘rganadi. Shuningdek, filologiya adabiyot orqali jamiyatdagi axloqiy, estetik, falsafiy va ijtimoiy g‘oyalarni tahlil qiladi. Ushbu jarayon jamiyatning ma’naviy yetukligiga xizmat qiladi. Filologik tadqiqotlar natijasida til va adabiyotning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, ularning jamiyatdagi o‘zgarishlarga qanday ta’sir etishi oydinlashadi.

Filologiya nafaqat ilmiy soha, balki pedagogik, madaniy va ma’rifiy missiyani ham bajaradi. Tilni saqlash, rivojlantirish va uni yosh avlodga to‘g‘ri yetkazish filologlarning zimmasiga tushadi. Demak, filologiya — bu jamiyatni birlashtiruvchi, uni ruhiy va madaniy jihatdan yuksaltiruvchi kuchdir.

Filologiya — inson tafakkurining eng chuqur qatlamlarini o‘rganadigan fan sohasidir. Bu

fan til va adabiyot orqali jamiyatdagi ijtimoiy ong, mentalitet, estetik qarashlar, tarixiy xotira va falsafiy tafakkurni tahlil etadi. Filologik yondashuv yordamida tilning shakllanishi, uning tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga moslashuvi chuqur o‘rganiladi.

Bundan tashqari, filologiya fani — bu milliy o‘zlikni anglash va uni mustahkamlash vositasidir. Til va adabiyot orqali milliy qadriyatlar, urfdodalar, tarixiy voqealar, ijtimoiy muammolar badiiy ifodalanadi. Shu bois filologiya orqali xalq ruhiyati va ma’naviy olami yoritiladi. Shu jihatdan, filologiya millat ma’naviyatining tarixiy xotirasi va zamonaviy qiyofasini shakllantiradi.

Bugungi kunda filologiya fanining zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, korpus lingvistikasi, kompyuter tilshunosligi, matn tahlili dasturlari va sun’iy intellekt imkoniyatlari orqali tilshunoslik tadqiqotlari samaradorligi oshmoqda. Shuningdek, adabiyotshunoslikda intertekstual tahlil, madaniy antropologiya, sotsiolingvistika kabi yo‘nalishlar orqali filologiya fanining ilmiy metodologiyasi kengaymoqda.

Xulosa qilib aytganda, filologiya fanining jamiyatdagi o‘rni beqiyosdir. U faqat til va adabiyotni emas, balki jamiyatning o‘tmishi, buguni va kelajagini anglashga, uni ijtimoiy ong va tafakkur bilan boyitishga xizmat qiladi. Shu bois, filologiya — bu jamiyatni ma’naviy yuksaltiruvchi fan sifatida qadrlanishi zarur.

2. Nutq madaniyatining jamiyatdagi o‘rni

Foydalanilgan adabiyotlarNutq madaniyati — bu insonning og‘zaki va yozma nutqda fikrni to‘g‘ri, aniq, ravon hamda madaniyatga mos tarzda ifodalash san’atidir. Bu tushuncha faqat til bilish emas, balki uni to‘g‘ri, mazmunli, axloqan toza va estetik jihatdan chiroyli tarzda qo‘llay olishni ham o‘z ichiga oladi. Jamiyatda nutq madaniyati rivojlangan sari ijtimoiy muloqot sifati, madaniy saviya va muomala madaniyati oshadi.

Nutq madaniyatining jamiyatdagi o‘rni beqiyos. Avvalo, bu ijtimoiy munosabatlar, ta’lim-tarbiya, siyosiy, huquqiy va madaniy muhitda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, davlat rahbarlari, pedagoglar, jurnalistlar, huquqshunoslar va boshqa kasb egalari uchun nutq madaniyatining yuqori darajada bo‘lishi zaruratdir. Chunki ular xalq bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qiladilar va ularning nutq madaniyati jamiyatga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nutq madaniyati inson shaxsiyati va axloqiy qiyofasini ham namoyon etadi. O‘z fikrini hurmat bilan, betaraflikdan yiroq, loqayd bo‘lmagan holda, lekin bahsga tortmaydigan yo‘l bilan ifodalash — bu nutq madaniyatining asosiy tamoyillaridan biridir. Jamiyatda bu kabi yondashuvlar tarqalgan sayin, ziddiyatlar kamayadi, totuvlik, hamjihatlik mustahkamlanadi.

Bugungi globallashuv davrida nutq madaniyati nafaqat ona tilida, balki xorijiy tillarda ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Har bir jamiyat a’zosi o‘z ona tilini chuqur bilish, uni to‘g‘ri va estetik ishlatish orqali milliy qadriyatlarni asrab-avaylaydi va uni kelajak avlodga yetkazadi. Shu bilan birga, xorijiy tillarda ham to‘g‘ri, madaniyatli muloqot qila olish insonning intellektual salohiyatini, madaniy saviyasini ifodalaydi.

Nutq madaniyatining jamiyatdagi yana bir muhim jihati — bu axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda ifoda etilayotgan fikrlarning madaniyati bilan bog‘liq. Bugungi kunda axborot tez tarqaladigan, jamoatchilik fikri tez shakllanadigan davrda har bir so‘z va ifoda mas’uliyat bilan aytilishi lozim. Aks holda, noto‘g‘ri talqin, tushunmovchilik va ijtimoiy ziddiyatlar yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyati — bu shunchaki chiroyli so‘zlash emas, balki ijtimoiy mas’uliyat, axloqiy yetuklik, estetik tafakkur va madaniy qadriyatlarning ifodasidir. U jamiyatda madaniy muhitni yaratadi, ma’naviyatni boyitadi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Shuning uchun har bir inson nutq madaniyatiga e’tiborli bo‘lishi, uni shakllantirish va rivojlantirish ustida muntazam ishlashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva M. O‘zbek tilshunosligi asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.
2. G‘afurov N. Til va jamiyat. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2018.

3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Jo‘raqulov M. Nutq madaniyati asoslari. – Samarqand: SamDU, 2019.
5. Quronov D. Filologiya v Tilshunoslikning dolzarb masalalari a zamon. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
6. Rahmonov A. Filologik tadqiqotlar metodologiyasi. – Buxoro, 2020.
7. Til va nutq madaniyati. O‘quv qo‘llanma / Tahrir hay’ati: M.Mirzayev va boshqalar. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2017.

KATTAQO‘RG‘ON ADABIY MUHITIDA SO‘FFI OLLOYORNING TUTGAN O‘RNI

Toshtemirova Sevinchbonu Jamshit qizi
Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filiali 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar : Anvar Sobirov Kuvandikovich

Annotatsiya: *Ushbu maqola XVII–XVIII asrlarda Kattaqo‘rg‘on shahrining madaniy-ma’naviy muhitidagi taraqqiyot va bu davrda yetishib chiqqan yirik so‘fiy shoir So‘fi Olloyorning ijodiy merosiga bag‘ishlangan. Asarda So‘fi Olloyorning “Maslak ul-muttaqin” va “Sabot ul-ojizin” asarlari diniy-ma’rifiy, axloqiy-didaktik jihatdan chuqur tahlil etilib, ularning tasavvufiy ramzlar, uslubiy vositalar va pedagogik yo‘nalishlar bilan boyitilgani ko‘rsatiladi.*

Kalit so’zlar: *So‘fi Olloyor, Kattaqo‘rg‘on, XVII–XVIII asr adabiy muhiti, tasavvuf, Naqshbandiya, Sabot ul-ojizin, Maslak ul-muttaqin, ma’naviy meros, she’riy uslub, ramziy obrazlar, axloqiy she’riyat, ma’rifiy g‘oyalar, madrasalar, ilmiy-ma’naviy muhit*.

Zarafshon vodiysida joylashgan Kattaqo‘rg‘on Markaziy Osiyoning madaniy va ma'naviy geografiyasida muhim o‘rin tutadi. XVII asrning ikkinchi yarmida shahar maqomini olgan bu maskan, tez orada Buxoro va Samarqand kabi islom ilmi va san’ati markazlari orasida joylashganligi sababli, jonli madaniy markazga aylandi[1]. Bu strategik joylashuv olimlar, shoirlar va so‘fiy shayxlar oqimini ta’minlab, Kattaqo‘rg‘onni adabiy va ilmiy faoliyat markaziga aylantirdi.

XVII–XVIII asrlar mintaqadagi adabiy va ruhiy hayotda "oltin davr" sifatida ko‘zga tashlanadi. Bu davr axloqiy-ma’rifiy she’riyatning o‘sishi, Naqshbandiya kabi so‘fiy tariqatlarning rivojlanishi va tasavvufiy tafakkurning kundalik madaniy amaliyotlarga singib borishi bilan ajralib turadi[2]. Bu davrda adabiyot nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki axloqiy tarbiya va ilohiy tafakkurni ifodalovchi vosita sifatida xizmat qilgan. Shoir va olimlar xalqning ma’naviy tarbiyasida muhim rol o‘ynagan, ular fors va chig‘atoy (eski o‘zbek) tillarida yozib, mahalliy an’analarni islomiy tafakkur bilan uyg‘unlashtirgan[3].

Ana shunday boy ilmiy va ma’naviy muhitda **So‘fi Olloyor** yirik adabiy va diniy siymo sifatida yetishib chiqdi. Uning *Maslak ul-Muttaqin* va soddalashtirilgan *Sabot ul-Ojizin* kabi she’riy asarlari nafaqat badiiy ijod namunasi, balki ruhiy-ma’naviy ko‘rsatmalar manbai sifatida qadrlangan. U murakkab tasavvufiy g‘oyalarni tamsiliy obrazlar, kinoya va ohangdor til orqali omma uchun tushunarli tarzda yetkazgan. So‘fi Olloyorning ta’siri adabiyot doirasidan ancha keng bo‘lgan. U Kattaqo‘rg‘onning madaniy va ma’naviy hayotini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan; shogirdlar tarbiyasiga e’tibor qaratgan, davrning so‘fiy tafakkurida faol ishtirok etgan va ilmiy yig‘inlarda faol qatnashgan[4]. Uning asarlari keng yoyilgan, qo‘lyozma holida

[1] Karimov, R. (2021). *Kattakurgonning madaniy merosi*. Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti.
[2] DeWeese, D. (1999). *Islamization and Native Religion in the Golden Horde*. Penn State University Press.
[3] Allamurodov, S. (2020). “17–18 asrlar Turkiston adabiy muhitida tasavvufiy adabiyotning o‘rni.” *Sharq yulduzi*, 2(3), 45–56.
[4] Turaqulov, I. (2022). “Kattakurgon adabiy hayoti va uning taraqqiyot bosqichlari.” *O‘zbek tili va adabiyoti*, 4(6), 78–85.

ko‘paytirilib, Buxoro, Samarqand, Uralsk va Istanbul kabi markazlardagi madrasalarda saqlanib kelgan[6].

Shu bois, So‘fi Olloyorning Kattaqo‘rg‘on adabiy muhitiga qo‘shgan hissasini o‘rganish – tarixiy davrning madaniy va intellektual qadriyatlarini anglashda muhim manba bo‘la oladi. Uning hayoti, ijodi va ta’sirini tahlil qilish orqali bir shoir qanday qilib bir shaharning va bir avlodning ma’naviy ruhiyatini shakllantirganini anglash mumkin.

So‘fi Olloyor dastlabki ta’limni mahalliy maktab va madrasalarda olgan. Bu ta’lim maskanlari ko‘pincha yirik so‘fiy xonaqohlar (xonqoh) bilan bog‘langan bo‘lib, ular nafaqat an’anaviy islomiy fanlar — tafsir, hadith, fiqh va kalomni o‘rgatgan, balki falsafiy tafakkur va badiiy ijod ko‘nikmalarini ham shakllantirgan. XVIII asr boshlariga kelib, Kattaqo‘rg‘on hududida 20 dan ortiq faol madrasalar mavjud bo‘lgan bo‘lib, ularning aksariyati Naqshbandiya tariqati bilan yaqin aloqada bo‘lgan.

Ko‘plab so‘fiy allomalar singari, So‘fi Olloyor ham rasmiy ilmiy ta’lim bilan birga, murshid (so‘fiy ustoz) rahbarligida suluk — ya’ni ruhiy sayr-sulukdan ham o‘tgan. Naqshbandiya tariqatining ichki poklanish, jim dhikr (Allohni yod etish) va shariatga qat’iy rioya qilishga urg‘u beruvchi asosiy tamoyillari uning diniy dunyoqarashiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan[3].

Shoirning ijodida aks etgan tasavvufiy qarashlar **nafsni poklash (tazkiya)**, **ilohiy muhabbat (ishq ilohiy)** va **dunyoviy hayotning o‘tkinchiligi (faniy dunyo)** kabi mavzular atrofida shakllanadi. U tez-tez “nafsni yo‘q qilish” (*fanā’*) va “Allohda barhayot qolish” (*baqā’*) g‘oyalariga murojaat qiladi. Bu tushunchalar tasavvuf metafizikasining markazida turadi[1]. Uning she’riyati murakkab timsollar, ramzlar va tamsiliy obrazlarga boy bo‘lib, uni Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy kabi tasavvuf adabiyotining buyuk vakillari bilan bog‘laydi.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanayotgan zamonaviy qo‘lyozma manbalariga ko‘ra, So‘fi Olloyorning *Maslak ul-Muttaqin* asari XVIII asrda Buxoro va Samarqand madrasalarida keng tarqalgan va o‘rganilgan. Bu holat uning mintaqaviy miqyosdagi taniqli olim-shoir sifatidagi maqomini tasdiqlayi[2]. Bundan tashqari, ayrim qo‘lyozmalardagi pedagogik izohlardan ma’lum bo‘lishicha, XVIII asr oxirlariga kelib Kattaqo‘rg‘ondagi kamida to‘rtta diniy-ta’lim muassasasida uning asarlari *adab* (axloqiy-tarbiyaviy adabiyot) dasturiga kiritilgan[6].

So‘fi Olloyor nafaqat shoir, balki chuqur bilimli olim bo‘lib, uning ilmiy-ma’rifiy tayyorgarligi matnshunoslik asoslariga tayanadi. U matnli bilimni ichki tajriba bilan uyg‘unlashtirib, nafaqat ilm ahli, balki oddiy xalq qalbiga ham yetib borgan, keng ta’sir doirasiga ega adabiy meros qoldirgan.

So‘fi Olloyorning adabiy merosi ko‘p jihatdan uning ikkita markaziy asari: Maslak ul-muttaqin («Taqvokorlar yo‘li») va uning soddalashtirilgan varianti Sabot ul-ojizin («Zaiflarning sabri»)da jamlangan. Bu asarlar so‘fiylik axloqi, islom ilohiyoti va poetik estetikaning o‘ziga xos sintezini ifodalab, nafis adabiy doirada ma’naviy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Bu matnlarning ahamiyati nafaqat diniy mazmunida, balki ularni O‘rta Osiyo so‘fiy adabiyotining kengroq kanoniga joylashtirgan uslubiy va ramziy teranligida hamdir.

Qofiyali misra (nazm) bilan tuzilgan Maslak ul-muttaqin didaktik she’r bo‘lib, axloqiy xulq-atvor va ma’naviy tarbiyani targ‘ib qilishga qaratilgan. Asar tematik bo‘limlarda joylashtirilgan 1500 dan ortiq satrlardan iborat bo‘lib, ularning har biri axloqiy yoki tasavvufiy xatti-harakatlarning ma'lum bir jihatiga, masalan, kamtarlik, sabr-toqat, tavba, samimiylik va ilohiy sevgiga qaratilgan. Tuzilish so‘fiylik yo‘li (tariqat) bosqichlarini kuzatib, shaxsning tashqi dindorlikdan ilohiy birlikni (tavhid) ichki anglashgacha bo‘lgan ruhiy sayohatini aks ettiradi.

Soddaroq til va tuzilmada yozilgan Sabot ul-Ojizin maxsus ma’lumoti cheklangan kengroq auditoriya uchun mo‘ljallangan. Bu asar Maslak ul-muttaqin ga qulay sharh bo‘lib, o‘z

[11] Karimov, A. (2021). “So‘fi Olloyorning tasavvufiy dunyoqarashi.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, 14(739), 23–26.

[2] Jalilov, U. (2022). “So‘fi Olloyor asarlarining pedagogik manbalari.” *Ilmiy izlanishlar jurnal*, 3(6), 55–60.

mavzularini saqlagan holda tilshunoslik registrini oddiy kitobxonlar uchun moslashtiradi[1]. Mavzu jihatidan ikkala asarda ham naqshbandiyaning asosiy qadriyatlari aks ettirilgan: botin poklanish (tazkiya), Allohni zikr qilish (zikr) va nafsni yo‘q qilish (fanāʾ).

So‘fi Olloyor she’riyatida mumtoz adabiy vositalar, jumladan allegoriya, antiteza, giperbola va ramziy ma’lumotlarning boy palitrasi mavjud. Shoir Xudoning "yor" (suyukli), ma'naviy vaj uchun "mastlik" (mastlik), ilohiy huzur maskani sifatida "koongil" (yurak) kabi metaforalarni tez-tez ishlatadi. Bu qurilmalar Attor, Rumiy va Alisher Navoiy[2] ijodiga o‘xshab, kengroq fors so‘fiylik an’analariga mos keladi.U ko‘p misralarda ko‘zgu tashbehi yordamida inson qalbining ilohiy nurni aks ettirish imkoniyatlarini ifodalaydi, agar u dunyoviy chalg‘itishlardan poklangan bo‘lsa. Masalan:

Agar qalbing pok bo‘lsa, Xudodan porlaydi,
Agar g‘aflatning changi yuvilsa, iymon tajalli bo‘ladi.
(“Qalb ko‘zgusi poklansa, Uning nuri bilan porlaydi;
Qachonki g‘aflat changi yuvilsa, iymon zohir bo‘ladi”)

Uning uslubi ritmik kadens va arab-fors lug‘atini sinchkovlik bilan tanlash bilan ajralib turadi, ko‘pincha ilohiy xabarlarni mustahkamlash uchun Qur'on ishoralari va hadis zikrlarini birlashtiradi. Bu lisoniy xususiyatlar uning qasidasining ma’naviy nufuzini oshirib, so‘fiy didaktik she’riyatiga xos bo‘lgan qatlamli talqinga chorlaydi[3].

So‘fi Olloyor she’riy shaklga murakkab diniy g‘oyalarni singdirish orqali ham nozik pedagogik strategiyani namoyon etadi. U tasavvufning mavhum tamoyillarini jonli tasvirga aylantiradi — o‘quvchilarni retsept emas, metafora orqali yo‘naltiradi. Misol uchun, haqiqatga yo‘l yo‘l emas, balki okean sifatida ifodalanadi, bu erda sayohatchi Ilohiy bilan birlashish uchun o‘z nafsini g‘arq qilishi kerak. Uning adabiy uslubi ham badiiy mahoratini, ham pedagogik niyatini ochib beradi. Uning mistik simvolizmdan foydalanishi, axloqiy ta'limotlar va tushunarli til bilan birgalikda uning asarlariga sinf va ta'lim to‘siqlarini engib o‘tishga imkon berdi va uning xabarini asrlar davomida doimiy ravishda dolzarb qilib qo‘ydi.

Tarixiy ma’lumotlar va bizgacha yetib kelgan qo‘lyozmalarning chekka ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, So‘fi Olloyor Samarqand, Buxoro va Zarafshon vodiysidagi taniqli zamondoshlari bilan ilmiy va ma’naviy yozishmalarni olib borgan[1]. Ulardan Sayyid Muhammad Shohi Samarqandiy, Mavlono Mahmud Kattaqo‘rg‘oniy kabi siymolar so‘fiylik odob-axloqini o‘z she’riy asarlariga singdirishda faol ishtirok etganlar[4].

Davrdagi ta'lim tizimi kuchli o‘qituvchi-shogird tarmoqlari bilan ajralib turardi. So‘fi Olloyorning Kattaqo‘rg‘ondagi hujra (o‘quv hujrasi) butun mintaqadan talabalarni o‘ziga jalb qildi, ularning ko‘pchiligi og‘zaki va yozma ravishda uning ta’limotini tarqatuvchilarga aylandi. So‘nggi qo‘lyozma tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, “Maslak ul-muttaqin”ning 1750—1830 yillar oralig‘ida 15 dan ortiq turli yozma nusxalari ko‘chirilgan bo‘lib, ular Olloyor shogirdlariga tegishli bo‘lgan kolofonlar. U she’riy va diniy madaniyatning avlodlarga o‘tishi da ham muhim rol o‘ynadi. Uning ta'limoti Qur'on germenevtikasi bilan she'riy ta'limni uyg‘unlashtirib, ma'naviy bilimli va badiiy mahoratga ega shogirdlarni yetishtirdi. Bu ikkilamchi urg‘u Kattaqo‘rg‘on adabiy muhitining XIX asrgacha barqaror jonlanishiga katta hissa qo‘shdi.

Mushaiyra madaniyati — fors va turkiy an’analarga asoslangan she’riy simpoziumlar So‘fi Olloyor hayotligida Kattaqo‘rg‘onda unumdor zamin topdi. Bu yig‘inlar shunchaki o‘yin-kulgi emas edi; ular metafizik g‘oyalar sinovdan o‘tkaziladigan, axloqiy dilemmalar muhokama

[1] Tolibov, M. (2022). «Sabat ul-ajizin: Soddalashtirilgan so'fiy risolasi sifatida». Adabiyotshunoslik , 2(5), 66–72.
[2]Islomov, A. (2020). “So‘fiylar she’riyatidagi ramziy obrazlar”. Sharq yulduzi , 1(2), 41–47.
[3] Karimova, S. (2019). “Tasavvuf she’riyatida til va uslub masalalari”. O‘zbek tili va adabiyoti , 6(4), 18–22
[4] Turaqulov, I. (2022). “Sho‘ro va xotira: So‘fi Olloyorning zamondoshlari bilan munosabatlari”. Adabiyotshunoslik izlanishlari , 4(1), 49–54.

qilinadigan va adabiy shakllar takomillashtiriladigan ta'lim maydoni bo‘lib xizmat qilgan[4]. Tazkirat ash-Shuaro kabi zamonamiz yilnomalaridan olingan dalillar shuni ko‘rsatadiki, So‘fi Olloyor ko‘pincha madrasa hovlilarida shom namozidan keyin o‘tkaziladigan mahalliy mushoiyralar ning ham tez-tez ishtirokchisi va tashkilotchisi bo‘lgan[5].

Madrasa madaniyati nuqtai nazaridan So‘fi Olloyor matnlari axloqiy o‘quv dasturiga kiritilgan. Uning asarlari nafaqat adabiy matn sifatida, balki xarakterni rivojlantirish (axloq) va diniy ta'lim uchun qo‘llanma sifatida ham ishlatilgan. Darg‘om tumanidagi 1785-yildagi madrasa reestrida Sabot ul-Ojizin o‘rta darajadagi so‘fiyshunoslik talabalari uchun tavsiya etilgan qo‘shimcha matnlar qatoriga kiritilgan. Bundan tashqari, So‘fi Olloyor adabiy asrab-avaylash va tarqatishning asosiy vositasi bo‘lgan qo‘lyozma madaniyatiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning asarlari ko‘pincha nasta‘liq va shikasta xattotlik uslublarida transkripsiya qilinib, ko‘pincha chekka sharhlar va jilolar bilan birga bo‘lgan. Omon qolgan ba'zi qo‘lyozmalarning bezakli sifati - yoritilgan sarlavhalar va qatorlararo tushuntirishlar - uning asarlari nusxachilar va kitobxonlar tomonidan hurmat bilan baholanganidan dalolat beradi.

So‘fi Olloyorning Kattaqo‘rg‘on adabiy madaniyatiga ta’sirini ortiqcha baholab bo‘lmaydi. U o‘zining ustozligi, she’riy hayotdagi faol ishtiroki, bardavom qo‘lyozma merosi orqali avlodlar o‘rtasida hududning intellektual xususiyatini belgilab bergan ma’naviy asosli, estetik jihatdan boy adabiyot an’anasini shakllantirdi.

Xulosa

So‘fi Olloyor ning adabiy, ma’naviy va pedagogik xizmatlari Kattaqo‘rg‘on va kengroq O‘rta Osiyo mintaqasi ma’rifiy tarixida alohida o‘rin tutadi. Ushbu maqoladan ko‘rinib turibdiki, uning asarlari naqshbandiya so‘fiylik an’anasi ning yuksak axloqiy g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtiribgina qolmay, balki ilohiyot, tasavvuf va she’riy ifodani uyg‘un bir butunlikka birlashtira oladigan nafis adabiy tuyg‘uni ham aks ettiradi. Uning she’riyati, xususan, Maslak ul-muttaqin va Sabot ul-ojizin nafaqat diniy matn, balki o‘zbek didaktik va tasavvuf adabiyotining durdonalari sifatida ham o‘rganilayapti.

Sofi Olloyor fikrining davom etayotgan dolzarbligi bir necha jihatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Birinchidan, uning axloqiy poklanish , ma’naviy intizom va ijtimoiy etikaga e’tibor qaratgani modernizatsiya va globallashuv muammolariga duch kelayotgan Markaziy Osiyo jamiyatlarida ma’naviy qadriyatlarni tiklashga qaratilgan zamonaviy sa’y-harakatlar bilan aks sado beradi. Ikkinchidan, uning qasidasining stilistik ravshanligi va ramziy boyligi tasavvufiy adabiy kanon bilan qayta bog‘lanishga intilayotgan akademik tadqiqotchilarni ham, amaliyotchi shoirlarni ham ilhomlantirishda davom etmoqda.

Adabiy va diniy merosga o‘zlikni anglash va madaniy diplomatiya vositasi sifatida qaralayotgan hozirgi madaniy sharoitda So‘fi Olloyor intellektual davomiylik va axloqiy donolikning qudratli ramzi bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning merosi o‘tmish bilan bugungi kunni bog‘laydi, axloqiy fikrlash, madaniyatlararo muloqot va she'riy ijod uchun vositalarni taklif etadi.

Xulosa qilib aytganda, So‘fi Olloyor shunchaki tarixiy shaxs emas, balki Markaziy Osiyo madaniy xotirasidagi tirik ovoz dir. Uning she'rlari va ta'limotlari imon, san'at va jamiyat chorrahasida ma'no izlovchilar uchun hayotiy manba bo‘lib qolmoqda. Uning Kattaqo‘rg‘on adabiy muhitidagi rolini tan olish va o‘rganish mintaqaviy bilim markazlari musulmon olamining boy ma’naviy va adabiy mozaikasini shakllantirishga qanday yordam berganini kengroq tushunishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Niyozova, N. *Sufi Olloyor's Life and Work*. – Qarshi: Nasaf, 1995. – B. 12–25. https://www.researchgate.net/publication/387787431_Interpretation_Of_Stories_In_Sabot-Ul_Ojizin_By_So%27Fi_Olloyor_As_Some_Of_His_Stories
2. Homidiy, H. *Scholarships of Sufism*. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 88–94.

3. Karimova, S. “Issues of Language and Style in Mystical Poetry.” *O‘zbek tili va adabiyoti*, 2019, 6(4): 18–22.
4. Karimov, A. “Mushaiyra Culture and Mystical Poetry.” *Tasavvuf ilmiy jurnali*, 2020, 2(3): 25–32.
5. Turaqulov, I. “Council and Memory: Sufi Olloyor's Relations with His Contemporaries.” *Adabiy tadqiqotlar*, 2022, 4(1): 49–54.
6. Rasulov, N. *Sufi Olloyor's Main Works and Their Structure*. – Buxoro: Ilm Ziyo, 2021. – B. 68–75.
7. Islomov, A. “Symbolic Images in the Poetry of Sufi Olloyor.” *Sharq yulduzi*, 2020, 1(2): 41–47.
8. Karimova, S. “Manuscript Traditions of Sufi Poetry in Central Asia.” *Manbasho‘noslik yilligi*, 2022, 3(1): 77–84.
9. O‘zbekiston Milliy qo‘lyozmalar fondi. *ML-218 inventar raqamli nusxa: Maslak ul-muttaqin qo‘lyozmasining kolofon tadqiqi*. – Toshkent, 2023. – B. 102–110.
10. Buxoro viloyati ruhiy arxivi. *Darg‘om madrasasi daftaridan ko‘chirma, 1785 yil, 48-band*. – Buxoro, 1785. – B. 48.

ЦИФРОВЫЕ СЕРВИСЫ В АДАПТИВНОМ ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Иванова Дарья Сергеевна,
К.п.н., доц. кафедры информатики, РГУ им. С.А.Есенина,
г. Рязань, Россия, d.ivanova@rsu-rzn.ru
Баранова Полина Валерьевна, *студент 3 курса*

Аннотация*. В статье проведен анализ реализации возможностей цифровых сервисов в адаптивном обучении иностранному языку. Выделены особенности популярных сервисов. Приведен опыт реализации учебной дисциплины «Сквозные технологии» в институте иностранных языков Рязанского государственного университета имени С.А.Есенина. Выделены особенности изучения этой дисциплины будущими преподавателями иностранного языка с целью дальнейшей реализации адаптивных технологий в профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *цифровые сервисы, сквозные технологии, адаптивные технологии обучения, цифровые компетенции, изучение иностранного языка.*

Введение. На современном этапе развития образования всё большую роль играют адаптивные технологии. К основным принципам адаптивного обучения относят: персонализацию образования и дифференцированный подход. Существенным плюсом реализации возможностей адаптивных технологий является повышение мотивации учащихся. Успехи в обучении, отслеживаемые адаптивной системой, повышают уверенность в собственных силах и уменьшают тревогу, связанную с процессом обучения [5].

С другой стороны, необходимо отметить актуальность подготовки педагогов в области цифровых сервисов, формирование их цифровых компетенций с целью реализации государственной программы цифровизации экономики и образования Российской Федерации.

Многие авторы изучают эту тему, рассматривая как теоретические аспекты, так и практические применения. Например, такие авторы книг как Салман Хан "The One World Schoolhouse: Education Reimagined", Сеймур Паперт "Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas", Джон Хэтти "Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement", Кэрол Двек "Mindset: The New Psychology of Success" и др. [1] проанализировали принципы адаптивного обучения на базе цифровых инструментов, а также психологические, педагогические и методические особенности реализации такого подхода.

Методы исследования. Анализ литературы и электронных ресурсов, разработка структуры и содержания дисциплины «Сквозные технологии» по направлению обучения «Педагогическое образование» для будущих учителей иностранного языка, разработка модели цифровых компетенций студентов при изучении этой дисциплины.

Результаты исследования. С 2022 учебного года в Рязанском государственном университете имени С. А. Есенина для студентов направления обучения «Педагогическое образование» включена в программу учебная дисциплина «Сквозные технологии». В ее компетентностную модель входят три основные составляющие: личностные, базовые цифровые и профессиональные цифровые компетенции [4]. В процессе формирования данной компетентностной модели будущие учителя изучают основы реализации адаптивных технологий обучения иностранному языку на базе цифровых сервисов.

Реализация адаптивных технологий в обучении иностранному языку имеет широкие возможности. Процесс изучения иностранного языка требует времени и усилий. Важные аспекты: комплексный подход, который включает фонетику, лексику, грамматику, чтение, письмо, аудирование и говорение [2]. Все аспекты взаимосвязаны и важны для успешного обучения, многоуровневость (процесс постепенный, от начального уровня к продвинутому; каждый уровень имеет свои требования к знаниям и навыкам), погружение в языковую

среду (путешествия, фильмы, песни и литература на языке оригинала ускоряют обучение и обогащают словарный запас) [3].

В процессе изучения дисциплины «Сквозные технологии» студенты знакомятся и реализуют на практике возможности современных цифровых сервисов. Наиболее часто используемые цифровые сервисы для изучения иностранных языков это: Duolingo, Lingualeo, Babbel, Rosetta Stone, Busuu, Memrise, Quizlet. Они позволяют как подбирать индивидуальные программы с учетом диалекта выбранного языка так и создавать игровые ситуации, общение с носителями языка. Широкие возможности предоставляет российская платформа для изучения английского с адаптивными уроками и индивидуальным подходом Skyeng и российский сервис с адаптивными заданиями для школьников Яндекс.Учебник. Интересные адаптивные занятия можно организовать на базе сервиса дополненной реальности (AR) и чат-ботов Mondly . Программный продукт DynEd предлагает новый подход к изучению языков, используя адаптивные технологии для подбора материалов в зависимости от уровня ученика. Вместо текста используются ситуационные картинки с аудиоматериалом. Приложение Parla развивает разговорные навыки через диалоги и ролевые игры, используя игровые элементы для мотивации.

Ещё одной уникальной платформой является Khan Academy, которая предлагает обширную библиотеку видеоуроков, упражнений и тестов по различным предметам. Будущие учителя могут создавать собственные уроки, используя инструменты Khan Academy Teacher), Khan Academy Classroom (учителя могут создавать свои классы и назначать ученикам задания и упражнения из библиотеки Khan Academy), система прогресса (Khan Academy Teacher позволяет отслеживать прогресс учеников в выполнении заданий и получать подробную информацию о их успеваемости). Чат-боты, такие как Replika и Mitsuku, позволяют практиковать разговорный язык с виртуальным собеседником. Виртуальная реальность (VR) погружает в среду для общения с виртуальными персонажами. ИИ-системы распознают и транскрибируют речь, предоставляя обратную связь по произношению. Переводчики, такие как Google Translate и DeepL, помогают с быстрым переводом текста. Модели, как GPT-3, генерируют тексты на иностранном языке. ИИ проверяет задания и оценивает произношение, выявляя ошибки. Игры, как Wordle и Scrabble, развивают словарный запас и грамматику. Платформы HelloTalk и Tandem так же позволяют общаться с носителями языка.

Выводы. Компетентностная модель дисциплины «Сквозные технологии» для будущих учителей иностранного языка позволяет реализовать требования цифровой трансформации образования. Предложенные в программе дисциплины цифровые сервисы помогают сделать изучение иностранных языков более эффективным и увлекательным, адаптируя процесс под индивидуальные потребности каждого ученика. Адаптивные технологии открывают новые возможности в изучении иностранных языков, интегрируя мультимедиа и создавая индивидуальные учебные программы. Они не заменяют традиционные методы, но усиливают их, повышая эффективность обучения. Разработанная учебная дисциплина может быть рекомендована как для использования для подготовки студентов, так и для повышения квалификации действующих учителей иностранного языка с целью совершенствования их профессиональной деятельности.

Использованная литература

1. Digital technologies as an adaptive learning tool in higher education / N. Tekesbaeva, Ya. Kultan, A. Ongarbayeva [et al.] // E3S Web of Conferences : XII International Scientific and Practical Forum - «Environmentally sustainable cities and settlements: problems and solutions» (ESCP-2023), Moscow, Hanoi, 20–21 апреля 2023 года. Vol. 403. – Moscow, Hanoi: E3S Web of Conferences, 2023. – P. 08023. – DOI 10.1051/e3sconf/202340308023. – EDN RCDGVJ.

2. Внедрение адаптивного обучения в университете: кейс УрФУ реализации дисциплины «Иностранный язык» / В. А. Ларионова, Н. В. Гончарова, Л. В. Дайнеко, Ф. Д.

Ковалев // Образование и саморазвитие. – 2024. – Т. 19, № 1. – С. 111-127. – DOI 10.26907/esd.19.1.09. – EDN PRKFAL.

3. Добрица В. П., Горюшкин Е. И. Применение интеллектуальной адаптивной платформы в образовании // Auditorium. 2019. №1 (21). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/primenenie-intellektualnoy-adaptivnoy-platformy-v-obrazovanii (дата обращения: 02.04.2025).

4. Иванова, Д. С. Формирование цифровых компетенций педагога при изучении дисциплины «Сквозные технологии и технологии искусственного интеллекта» / Д. С. Иванова // Психолого-педагогический поиск. – 2023. – № 1(65). – С. 63-70. – DOI 10.37724/RSU.2023.65.1.008. – EDN OFADKG.

5. Саламатина, И. И. Передовые технологии обучения иностранным языкам в ВУЗе / И. И. Саламатина // International Journal of Professional Science. – 2023. – № 12-1. – С. 51-56. – EDN PKUVBO.

USING HUMOR TO CRITIQUE: TECHNIQUES IN POLITICAL DISCOURSE

Kitibaeva Alfiya Kanibekovna
Doc. Phd docent of Karaganda Buketov University
Kaf.fil2018@mail.ru
Azimova Marjona Salim qizi, Teacher of SamSIFL
bg2635860@gmail.com

Abstract: This article examines the strategic utilization of humor as a tool for critique within the landscape of political discourse. It analyzes various comedic techniques employed to challenge authority, deconstruct ideologies, and influence public opinion. By examining the various techniques employed to leverage humor for political commentary, focusing on satire, parody, sarcasm, and wit. It analyzes how these techniques function to expose flaws, challenge authority, and shape public opinion within the specific context of the United States. Furthermore, the article explores the evolution of these comedic techniques in American political discourse, from early political cartoons to contemporary late-night comedy and internet memes. Finally, it considers the potential pitfalls and limitations of humor as a tool for political critique, including the risks of trivialization, polarization, and misinterpretation.

Keywords: Political Humor, Critique, Satire, Comedy, Political Discourse, Social Commentary, Irony, Parody, Caricature, Rhetoric, Media Studies, Political Science

Introduction. Political discourse, often characterized by seriousness and gravity, can be effectively disrupted and challenged through the strategic deployment of humor. While comedy might appear to be a mere diversion, it can serve as a powerful tool for critique, enabling individuals and groups to scrutinize political power, expose hypocrisy, and challenge established norms. This article investigates the multifaceted ways in which humor functions as a critical instrument in political discourse. It seeks to identify the key techniques employed to comedic effect and analyze their persuasive and subversive potential. The intersection of humor and politics in the USA has a rich and complex history. From Benjamin Franklin's satirical writings to modern-day political cartoons and late-night comedy shows, humor has consistently been used to critique power, expose hypocrisy, and engage the public in political discourse. This article delves into the specific techniques employed in American political humor, analyzing their effectiveness and exploring the evolving landscape of comedic critique in the digital age.

Techniques of Humor in Political Critique:

Humor employs a variety of techniques to critique political discourse.

• **Irony:** Irony involves expressing a meaning that is the opposite of the literal meaning, often to highlight the absurdity or hypocrisy of a situation. In political discourse, irony can be used to expose the gap between the rhetoric and the reality of political actions. Example: A politician promising fiscal responsibility while simultaneously increasing national debt.

• **Parody:** Parody involves imitating a style or genre for comedic effect, often exaggerating its features to highlight its flaws or limitations. In political discourse, parody can be used to mock the language, behavior, or ideology of political figures. Example: A satirical website creating a fake news story that mimics the style of a mainstream news outlet.

• **Satire**: Satire uses humor, irony, exaggeration, or ridicule to expose and criticize people's stupidity or vices, particularly in the context of contemporary politics and other topical issues. Satire aims to bring about social or political reform by highlighting societal shortcomings. Example: A political cartoon that depicts a politician as a pig, symbolizing greed and corruption.

• **Caricature**: Caricature involves exaggerating the physical features or personality traits of an individual for comedic effect. In political discourse, caricature is often used to ridicule political figures and undermine their authority. Example: A political cartoon exaggerating Donald Trump's hair or Joe Biden's age.

• **Sardonic Wit**: Sardonic humor is characterized by its cynicism, sarcasm, and bitterness. It often involves expressing contempt or scorn for a particular situation or individual. Example: A cynical comment about the futility of political action in the face of systemic corruption.

• **Mockery and Ridicule**: Direct mockery and ridicule can be used to undermine the authority of political figures or institutions. This often involves making fun of their appearance, behavior, or policies. Example: A late-night talk show host making jokes about a politician's gaffes.

• **Incongruity:** Humor often arises from the juxtaposition of incongruous elements, creating a sense of surprise and absurdity. In political discourse, incongruity can be used to challenge conventional wisdom and expose the contradictions inherent in political ideologies. Example: A protest sign that combines a serious political message with a humorous image.

• **Understatement**: Understatement involves expressing a concept with less emphasis than is warranted, often to create irony or emphasize the absurdity of a situation. Example: Describing a major political scandal as a "slight misunderstanding."

• **Self-deprecation**: Self-deprecating humor can be used by politicians or political commentators to appear more relatable and authentic. It involves making jokes about oneself, often to defuse criticism or connect with the audience. Example: A politician joking about their own lack of experience.

Evolution of Comedic Critique in American Politics:

The techniques of political humor have evolved alongside communication technologies. Early political cartoons in newspapers and magazines played a crucial role in shaping public opinion, often utilizing caricature and satire to criticize politicians and policies. The advent of radio and television brought new forms of comedic critique, with radio shows like *Fireside Chats* using humor to connect with audiences and television programs like *The Smothers Brothers Comedy Hour* pushing the boundaries of political satire. The internet and social media have further democratized political humor, allowing individuals to create and share satirical content through memes, viral videos, and online commentary.

Potential Pitfalls of Humor in Political Critique:

While humor can be a powerful tool for critique, it also carries potential risks:

- **Trivialization:** Excessive use of humor can trivialize serious political issues, reducing complex debates to simplistic punchlines.
- **Polarization:** Humor can reinforce existing biases and contribute to political polarization, particularly in the context of partisan comedy shows and online echo chambers.
- **Misinterpretation:** Satire and sarcasm can be easily misinterpreted, especially in online environments where context and tone can be difficult to convey. This can lead to unintended offense or the spread of misinformation.

Conclusion:

Humor serves as a vital mechanism for political critique in the USA, employing a range of techniques to expose flaws, challenge authority, and engage the public. From traditional forms like political cartoons to contemporary digital platforms, comedic critique has adapted to the changing media landscape.

However, the potential pitfalls of humor in political discourse necessitate careful consideration of its impact and responsible usage. Understanding the nuances of these comedic techniques and their potential consequences is crucial for navigating the complex landscape of American political communication. As political communication continues to evolve in the 21st century, the role of humor as a critical instrument is likely to become even more significant. Future research should focus on exploring the impact of digital satire on political engagement and the development of ethical guidelines for the use of humor in political discourse.

REFERENCES:

1. Baumgartner, J. C., & Morris, J. S. (2010). *Laughing Matters: Humor and American Politics in the Media Age*. Routledge.

2. Sarvinoz, Dustmurodova. "THE USAGE OF SATIRICAL EXPRESSIONS IN POLITICAL DISCOURSE." Лучшие интеллектуальные исследования 39.2 (2025): 81-87.

3. Jamieson, K. H., & Waldman, P. (2013). *The Press Effect: Politicians, Journalists, and the Stories That Shape the Political World*. Oxford University Press.

4. Jones, J. P. (2017). *Entertaining Politics: New Political Television and Civic Culture*. Rowman & Littlefield.

5. Meyer, J. C. (2000). *Humor as a Double-Edged Sword: Four Functions of Humor in Communication*. Communication Theory, 10(3), 310-331.

6. Palczewski, C. H., Fritch, J. R., & Ice, R. L. (2016). *Rhetoric in Civic Life*. Strata Publishing.

NAZAR ESHONQUL ASARLARIDA IJODIY O‘ZIGA XOSLIK PRINSIPLARI

Bobur Shahanov Choriyevich
O‘zDXA Urganch filiali Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
bobur shahanov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri – Nazar Eshonqul ijodiga xos bo‘lgan badiiy tafakkur, tasvir uslubi va adabiy-estetik prinsiplari tahlil qilinadi. Muallifning asarlarida ilgari surilgan g‘oya va mavzular, ularni yoritishdagi uslubiy yondashuvlar, shuningdek, obrazlar dunyosi orqali aks etgan ijtimoiy va falsafiy qarashlar o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Nazar Eshonqul, o‘ziga xoslik, adabiy uslub, obrazlar tizimi, zamonaviy adabiyot, falsafiy tafakkur.

Аннотация: В данной статье анализируются художественное мышление, стиль изображения и литературно-эстетические принципы, присущие творчеству одного из ярких представителей современной узбекской литературы — Назара Эшонкула. Рассматриваются темы и идеи, представленные в его произведениях, стилистические подходы к их раскрытию, а также социально-философские взгляды, отражённые через систему образов.

Ключевые слова: Назар Эшонкул, самобытность, литературный стиль, система образов, современная литература, философское мышление.

Annotation: This article analyzes the artistic mindset, narrative style, and literary-aesthetic principles characteristic of Nazar Eshonqul, one of the prominent figures of contemporary Uzbek literature. It examines the themes and ideas presented in his works, the stylistic approaches used to convey them, as well as the social and philosophical views reflected through his system of imagery.

Keywords: Nazar Eshonqul, uniqueness, literary style, system of imagery, contemporary literature, philosophical thinking.

Mustaqillik davri adabiy jarayonda alohida o‘ringa ega bo‘lgan ijodkorlardan biri Nazar Eshonquldir. Asli Qashqadaryo viloyatining olis qishloqlaridan birida tavallud topgan bu adib o‘zbek nasrining yangi bosqichini belgilab bergan ijodkorlardan bir desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning ilk ijodiy faoliyati jurnalistika sohasi bilan bog‘liq bo‘lib, keyinchalik u badiiy adabiyotga chuqur sho‘ng‘ib, o‘ziga xos falsafiy-estetik qarashlarini nasr orqali ifoda eta boshladi. Nazar Eshonqul “Maymun yetaklagan odam”, “Tobut”, “Bahovuddinning iti”, “Og‘riq lazzati”, “Xaroba Shahar surati”, “Zulmat saltanatiga sayohat”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Yalpiz hidi” kabi hikoyalari va “Taqiq mevasi”, “Go‘ro‘g‘li yohud hayot suvi” romanlari orqali o‘zining badiiy dunyoqarashi va yuksak ijodiy salohiyatini namoyon etdi. Yozuvchining ijodida insoniylik, ma’naviyat, vijdon, haqiqat va yolg‘on, tarix va zamon, shaxs va jamiyat kabi dolzarb mavzular chuqur falsafiy mushohadalar orqali yoritiladi. Adib badiiy tasvirda realistik asos bilan metaforik ifodani uyg‘unlashtirib, o‘ziga xos uslub yaratdi. Asarlarida yozuvchi ko‘pincha muallif sifatida emas, balki kuzatuvchi, hayot voqealari va inson ruhiyatini aks ettiruvchi vositachi sifatida namoyon bo‘ladi.

Yozuvchi o‘zining ilk hikoyalari bilanoq adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otdi. Natijada bu hikoyalar xususida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilib, ularning g‘oyaviy-mavzuiy o‘ziga xosligi, badiiy idrok va ifoda prinsiplari, yozuvchining badiiy mahorati masalalari atroflicha tadqiq etildi. Nazar Eshonqul asarlarining o‘zaro - ruhan yaqinligi ma’naviy-axloqiy masalalar ustuvorligi bilan belgilanib, odamni badiiy tasvirlashdagi individual tafakkur tabiatining ijodiy yo‘sini bilan xarakterlanadi. Ularda insonni badiiy tushunish hamda tushuntirishda ikki yo‘nalish ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, xalqimizning milliy mustaqillikka erishgungacha kechgan hayotidagi erkka tashnalik kayfiyati hamda milliy istiqlol arafasidagi odamlarning ruhiy holatlari va jamiyat hayotini yoritishga harakat qilinadi. Ikkinchidan, ezgulik, jaholat tantanasi uchun g‘ov bo‘lgan ma’naviy-axloqiy illatlarni fosh etishga intilish, haqiqatning tantana qilishiga ishonmagan, ko‘ngli mudroq odamlar ruhiyatini jamiyat psixologiyasi bilan uzviy aloqadorlikda tahlil qilish va ana shunday odamlar amal qiladigan falsafa mohiyatini ramzlar tilida ochib berish hamda shaxs ichki tuyg‘ularining parchalanish sabablarini badiiy-falsafiy jihatdan o‘rganish alohida ko‘zga tashlanadi.

Har bir insonning ko‘ngli, qalbi, ruhi bo‘lgani singari har bir asarning ham o‘ziga xos ma’naviy dunyosi bo‘ladi. Bu esa ijodkorlarning o‘ziga xos va betakror ma’naviy-intellektual dunyoqarashidan vujudga keladi. Nazar Eshonqul asarlarida kuzatilganidek har bir ijodkor ramzlarga burkangan badiiy nigohi bilan ham alohida xususiyatlarga ega. Zero, adibning har bir hikoya janriga mansub asarlarida o‘ziga xos ma’naviy-axloqiy masalalar etakchilik qiladi. “*Amakim bilan bir hovlida yashardik. Ularning uylari hovlining etagida edi. Ammo butun hovlining supur-sidiridan tortib mollarga beriladigan yem-xashakkacha Oyto‘ldi enam zimmasida edi. U o‘ziga ishonib topshirilgan xonadonni tirnoqqa zor qilayotgani uchun ham shunga mahkumday edi. Buni hech kim tovush chiqarib aytmas, biroq uning boshi ishdan chiqmayotganini ko‘rib-bilib tursa ham, bu yumushlarning yarmi bizning, bolalarining vazifamiz ekanini bilishsa ham, na dadam, na onam bir og‘iz biron narsa demasdi. Go‘yo shu bilan ammamning enam haqidagi gaplarini tasdiqlashganday, ammamning qayta aytganlarini qo‘llashganday bo‘lardi*[1]”. Ushbu parcha yozuvchining “Bepoyon osmon” hikoyasidan olingan. Hikoyada yozuvchi hayotiy-maishiy muammo talqinini kun tartibiga qo‘yadi, asar ammadan kelgan qisqa hamda zardali xat bilan boshlanadi. “Bir parcha qog‘ozda” adresat Oyto‘ldi enaga nisbatan “bir umr tark etmagan ta’na-yu dashnom” ham, “azaliy munosabat” ham, “piching-u kinoya” ham qorishib ketadi, aslida bolaga yanga bo‘lgan ayol yuvoshligi, kuydi-pishdi, jonsarakligi, bolajonligi bilan ajralib turadi. Amakisi xonadonida chaqaloq tug‘ilmaganligi bois qahramon farzand qilib beriladi, tinch-totuv yashayotgan oila hayotiga og‘u solib turadigan Amma xarakteri keskinlikni ushlab turadi.

[1] Nazar Eshonqul. Saylanma, 1-jild. – Toshkent**:** Akademnashr, 2022. – B. 386

“Nisbatan juda shafqatsiz va murosasiz” ayol tirnoqqa zor mushtiparga tinimsiz azob beradi, “ko‘cha to‘ldirib o‘ynayotgan bolalarga havas va orzumand tikilib o‘tiradigan” kelinchak orzulari armonga ko‘chadi. Muallif turmush mashaqqatlarida toblangan, sabr-bardosh timsoli bo‘lgan “bu o‘ksik ko‘ngil sohibasi” botiniga nazar tashlaydi. Ezgulik a’moliga o‘zgargan Oyto‘ldi butun mahalla tutingan onasiga aylanadi, bolalarni yaxshi ko‘rishi bois u hamsoyalari ehtiromiga sazovor bo‘ladi. Yangi ota-ona sevgisi tillarda doston bo‘ladi, “ularning yurish-turishlari xuddi kukulab don terib yurgan bir juft musichani eslatardi”. Peshonasiga befarzandlik tamg‘asi bosilgan erkak va ayol o‘rtasidagi rishta yillar mobaynida tobora mustahkamlanadi. Yozuvchi hayotiy ikr-chikirlardan nozik mantiq chiqaradi, hayotiy ziddiyatlar badiiy umumlashmasi kitobxon his-tuyg‘ularini yuksak pardaga ko‘taradi.

Yozuvchi “Evolyutsiya” (1993) hikoyasida yaqin moziy manzarasini chizadi, “shahar markazidagi maxluq har kecha tinmay o‘kiradigan” yurt g‘anim istilosidan aziyat chekadi. “*Garchi dalv oyi oxirlarida kun to‘satdan qish fasliga xos bo‘lmagan tarzda isib jo‘nagan bo‘lsa-da, unga deyarli hech kim e’tibor bermasdi yoki e’tibor berishsa ham, o‘lgudek ichib olgan bo‘lsa kerak, degan xayolga borishardi: kiyimi, isqirti chiqqan yomg‘irpo‘shini aytmasa, ish izlab daydib yuradigan qora ishchilardan farqi yo‘q edi; u negadir hech kimga yuzini ko‘rsatmaslikka yoki birov bilan duch kelmaslikka harakat qilar, agar qarshisidan yo‘lovchi kelayotgan bo‘lsa, yuzini e’lonlar taxtasiga burib o‘zini xuddi o‘qiyotganday ko‘rsatib turar va yana yo‘lga tushar, o‘zini kimsasiz ko‘chalarga urib tanib qolishidan qo‘rqardi. Birov bilan tasodifan ro‘paro‘ kelib qolsa, yerga qaragancha tez o‘tib ketish, uzoqlashishga harakat qilardi*[1]”. Hikoyada “shaharni shiorlar saltanatiga aylantirish” maqsadini ko‘zlagan qattol siyosat, fath keltirib chiqarayotgan oqibat o‘ziga xos tarzda talqin qilinadi. “Eng uzun tush”ga mengzalgan mustamlaka tutumi tazyiq va ta’qibni kuchaytiradi, qo‘rquv hamda zulmni kasb etgan idora usuli aholini iztirobga soladi. Turli-tuman da’vatlar “yopishqoq va shilqim so‘zlarga asir tushish” vaznini oshiradi, ta’qibdan asta qochayotgan qahramon shuurida hadik kattalashadi. “Maxluqning tovushsiz o‘kiriklari”, “istilo qilichi”, “ulkan kitob”, “avaxtanusxa binolar”, “ko‘rimsiz binolar” – so‘z birikmasidan tashkil topgan epitetlar hayotiy ziddiyatlarni ifoda etadi. Muallif tavsif va tahlil vositachiligida ruhiyatga salbiy ta’sir o‘tkazadi, ozod va erkin uchadigan qushlar, bepoyon va daxlsiz osmon rutubatli bulutlar tomonidan egallangan, qarg‘alar tovushi fojiani quyuqlashtiradi.

“Xaroba shahar surati” hikoyasi ham yozuvchining mahorati, iste’dodidan darak beradi. Parishon yigitning o‘y-xayollari, fikrlari, ichki kechinmalari, o‘zligini anglash yo‘lidagi mashaqqatlari bayon etilgan mazkur hikoya insoniyat ong-shuurining naqadar qotib qolganligi, uning yozuvchi Ch.Aytmatov “Asrga tatigulik kun” asari qahramoni Jo‘lomon misoli manqurtga aylanib ulgurmaganini xaroba shahar surati orqali badiiy timsollar bilan ochib bergan. E’tibor beradigan bo‘lsak, yozuvchi asardagi shahar nomini Tursoriya deb ataydi va uning vayron bo‘lishdan avvalgi go‘zalligini odamlarga uqtirishga, uni qaytadan qurishga chaqirib, quyidagicha tasvirlaydi: “*Tursoriya meni qanchalik qiziqtirsa, boshqalarni shunchalik ajablantirardi. Ular tayinsiz bir rassomning fazli-irodasi bilan vayron etilgan qandaydir Tursoriyani deb tashvish chekib yurish sababini tushunmasdilar va buni shunchaki oliftagarchilik deb o‘ylashar yoxud g‘irt safsataga yo‘yishardi. Men ularga Tursoriya haqida, uning yashil bog‘lari, zangori osmoni, tuman qoplagan tosh ko‘chalari, odamzotning qudratini namoyish etish uchun qurilgan minoralari, shahardan uzoqlarda ham hidi ufurib turadigan xuddi qizlar kabi durkun va nafis gullari, qirmizi tulporlar minib yuradigan yigitlari, xayoldan ko‘ylak tikib kiygan qizlari, hilol bilan birga hilpiraydigan cho‘g‘lari, saxar chog‘lari xo‘rozlaridan ham oldin uyg‘otadigan azonlari hamda bolaning ko‘zlari kabi tiniq va ma’sum daryolari haqida gapirib berar va bularni Tursoriya boshqalarning ham e’tiborini tortsin, deya ko‘pincha o‘zim to‘qirdim*[2]”.

Beparvolik va loqaydlik inson tanazzuli. Uning tuyg‘ularsiz yashashi, kimligini va nima uchun bu dunyoga kelganligini anglamaslik, misoli hayvondek faqat qorin g‘amini, o‘z tinchini

[1] Nazar Eshonqul. Saylanma, 1-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 239-240.
[2] Nazar Eshonqul. Saylanma, 1-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 51.

o‘ylashi insoniylikdan yiroqlashish degani. “Xaroba shahar surati” hikoyasi insoniyatning o‘sha tanazzuliga, zulmatga singish jarayonini ko‘rsatganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Nazar Eshonqul ijodining markazida inson va uning ichki olami turadi. Adib har bir hikoya va romani orqali jamiyatdagi muhim muammolarni ko‘taradi, biroq buni didaktika yoki ochiqchasiga tanqid emas, balki ramzlar, falsafa va poetik tilda bajaradi. Bu esa uning ijodiy o‘ziga xosligini belgilab beruvchi asosiy jihatidir. Adibning hikoyalari qisqa hajmda bo‘lsa ham chuqur ijtimoiy-falsafiy ma’no mujassamlashadi. Har bir hikoyasi – bu badiiy mushohada, ijtimoiy tanqid va ruhiy holatlarning badiiy tahlilidir. Shu jihatdan uning ijodi klassik realizm va zamonaviy postmodernizm o‘rtasida ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1979. – 444 b.
2. T. Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari” Toshkent – 2002.
3. Nazar Eshonqul. Saylanma, 1-jild. – Toshkent: **Akademnashr**, 2022.
4. Nazar Eshonqul. Kitob bandasi, maqolalar, esselar to‘plami – Toshkent: **Akademnashr**, 2022.
5. Rasulov, A. Nazar Eshonqul ijodida falsafiy-estetik qarashlar. *Adabiyot va san’at*, 2021 №4, 33–37.
6. Xudoyberdiyev, S. (2022). Postmodernizm unsurlarining o‘zbek adabiyotidagi talqini. *Adabiyotshunoslik izlanishlari*, 2022 №3, 21–27.

TALABALARNING KOGNITIV MUSTAQILLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Abduraxmonov Jasur Bekpulatovich,
SamDUKF

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Kognitiv mustaqillik tushunchasi, uning ahamiyati, rivojlantirish yo‘llari, amaliy mashg‘ulotlar va ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada taniqli pedagog va psixolog olimlarning fikrlari keltirilib, real amaliy tajribalar asosida misollar keltirilgan.

Аннотация: В статье рассматривается методика развития познавательной самостоятельности учащихся. Анализируется понятие познавательной самостоятельности, ее значение, пути развития, практические занятия, подходы, основанные на передовых педагогических технологиях. В статье также представлены мнения известных ученых-педагогов и психологов, а также приведены примеры, основанные на реальном практическом опыте.

Abstract: This article discusses the methodology for developing students' cognitive independence. The concept of cognitive independence, its importance, development methods, approaches based on practical exercises and advanced pedagogical technologies are analyzed. The article also presents the opinions of famous pedagogical and psychological scientists, and provides examples based on real practical experiences.

Bugungi kunda ta’lim tizimidagi asosiy vazifalardan biri - mustaqil fikrlaydigan, muammoni tahlil qilish va yechish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxslarni tayyorlashdir. Bu esa, eng avvalo, talabalarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirishni taqozo etadi. Kognitiv (bilish) mustaqillik - bu shaxsning mustaqil o‘ylashi, o‘z bilimini mustaqil tarzda izlab topishi va uni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir.

Kognitiv mustaqillik tushunchasi va uning ahamiyati. Kognitiv mustaqillik — bu talabaning bilimlarni nafaqat passiv tarzda qabul qilishi, balki ularni chuqur o‘zlashtirishi, o‘zi izlanish olib borishi, fikr yuritishi va mustaqil qarorlar qabul qila olish qobiliyatidir. Bu tushuncha zamonaviy pedagogikada o‘quvchilarning faolligini, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘rganishga bo‘lgan

ehtiyojini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Kognitiv mustaqillik shaxsiy rivojlanish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va umrbod ta’lim olishga tayyorlikni kuchaytiradi.

Psixolog J. Piaget ta’kidlaganidek, bola (va talaba) o‘zi o‘rganayotgan dunyoni faol o‘rganish orqali o‘z bilish sxemalarini rivojlantiradi. Shu sababli, ta’lim jarayoni doimo faol kognitiv izlanishlarga asoslanishi kerak. L.S. Vygotskiy esa "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotni kuchaytirish orqali mustaqil fikrlashga yo‘l ochishni taklif qiladi.

Bruner esa bilish faoliyatini "kashfiyotchilik yo‘li" orqali olib borish zarurligini urg‘ulaydi. Uning fikricha, har bir talaba bilimni o‘zining izlanishlari orqali egallasa, bu bilim mustahkamroq va samaraliroq bo‘ladi. Zamonaviy ta’limda kognitiv mustaqillikning ahamiyati shundaki, u o‘quvchini tayyor javoblarni yodlashga emas, balki yangilik yaratishga, muammolarni hal qilishga va turli manbalar bilan ishlashga yo‘naltiradi. Bu esa axborot asrida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardan biridir.

Kognitiv mustaqillikni rivojlantirishning metodik asoslari. Xorijiy til, xususan ingliz tilini o‘rganishda kognitiv mustaqillikni rivojlantirish juda muhim. Bu jarayonda talaba nafaqat grammatik qoidalarni yodlab olishi, balki mustaqil tarzda so‘z boyligini oshirishi, kontekstual tafakkur yuritishi va og‘zaki yoki yozma shaklda o‘z fikrini ifodalashi lozim. Quyidagi metodik yondashuvlar aynan ingliz tili fanida samarali natija beradi:

- **Muammoli topshiriqlar orqali o‘rganish (Problem-based learning):** Talabalarga murakkab muloqotli vaziyatlar (masalan, aeroportda yo‘nalishni so‘rash, ish intervyusiga tayyorgarlik) taqdim etiladi. Ular ushbu vaziyatni ingliz tilida mustaqil hal qilish yo‘llarini topadilar, bu esa izlanish va tanqidiy fikrlashni faollashtiradi.
- **Leksik-kontekstual izlanish:** Talabalarga autentik matnlar (maqolalar, esse, dialoglar) berilib, noma’lum so‘zlarni mustaqil aniqlash, sinonim/antonim topish va ularni yangi gaplarda ishlatish topshiriladi. Bu usul kontekstda o‘rganish orqali so‘z boyligini oshiradi.
- **Mini-loyihalar (Project-based learning):** Masalan, “Mening orzuimdagi kasb” yoki “Mening shahrimga sayohat” mavzularida ingliz tilida slayd tayyorlash va uni sinf oldida taqdim qilish. Bu topshiriq tahlil qilish, ijodiy yondashish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.
- **O‘z-o‘zini baholash (Self-assessment):** Har bir mashg‘ulotdan so‘ng talabalar o‘zlarining til o‘zlashtirish darajasi va faol ishtirokini baholaydilar. Bu ularda refleksiya qilish, mustaqil o‘rganish rejasini tuzish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- **Axborot texnologiyalaridan foydalanish:** Duolingo, BBC Learning English, Quizlet kabi onlayn platformalar orqali o‘z tempida va qiziqarli shaklda o‘rganish imkoniyati yaratiladi.

Misol uchun, Toshkent davlat pedagogika universitetida ingliz tili kurslarida “dialogik interaktiv mashg‘ulotlar” asosida tashkil etilgan darslarda talabalar intervyu formatida mashqlar bajaradilar. Ular o‘zaro rol o‘ynash orqali so‘zlashuv ko‘nikmalarini faollashtiradi, savol-javoblar orqali esa tanqidiy fikrlash va mulohaza yuritish qobiliyatlari rivojlanadi.

Amaliy misollar. Oliy ta'lim muassasalarida quyidagi amaliy mashg‘ulotlar orqali kognitiv mustaqillik rivojlantirilmoqda:

- "Kognitiv xaritalar" tuzish orqali talabalar o‘z bilimlarini vizual tarzda tasniflaydilar;
- Mustaqil mini-loyihalar ishlab chiqish orqali talaba izlanishga undaladi;
- "Case-study" metodidan foydalanib, talabalar real hayotiy muammolarni tahlil qiladilar;
- Onlayn platformalarda forumlar orqali talabalarning fikrlari baholanishi va rivojlantirilishi.

Pedagogik texnologiyalar va vositalar. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar talabalarning mustaqil izlanishlarini yengillashtiradi. Masalan, Moodle, Google Scholar, Zotero kabi platformalar talabalarga ilmiy maqolalarni izlab topish va tahlil qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, interaktiv taqdimotlar, testlar, viktorinalar orqali ham mustaqil fikrlash rag‘batlantiriladi. Shuningdek, quyidagi ilg‘or pedagogik texnologiyalar kognitiv mustaqillikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi:

- Blended Learning (Aralash o‘qitish): Onlayn va an’anaviy darslarni uyg‘unlashtirish orqali talabalar o‘z tezligida mustaqil o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

- Flipped Classroom (Aylantirilgan sinf): Talabalar darsga tayyor holda kelib, dars vaqtida faqat muhokama, tahlil va amaliy topshiriqlar bajarishadi.
- Gamifikatsiya (O‘yinga asoslangan ta’lim): Bilimlarni mustahkamlash va mustaqil o‘rganishni rag‘batlantirish uchun dars jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish.
- Mobil ta’lim (M-learning): Mobil ilovalar orqali talabalar istalgan joyda va vaqtda mustaqil mashg‘ulotlar olib borishadi.
- Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar: Tabiiy va texnik fanlarda mustaqil amaliy tajriba o‘tkazish imkonini yaratadi.

A.N. Leontyev fikricha, har qanday bilish faoliyati ongli maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bunga erishish uchun ta'limda motivatsiyani kuchaytirish lozim. H. Yodgorov esa o‘z tadqiqotlarida, mustaqil izlanish orqali o‘zlashtirilgan bilim ancha barqaror bo‘lishini ta'kidlaydi.

Xulosa. Kognitiv mustaqillikni rivojlantirish nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki talabalarni hayotda mustaqil qaror qabul qilishga, tanqidiy va ijodiy fikrlashga undaydi. Ta'lim jarayonida muammoli yondashuv, interfaol metodlar, AKT vositalari va motivatsion yondashuvlar bu jarayonni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Piaget, J. (1950). *The Psychology of Intelligence*.
2. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*.
3. Bruner, J. (1966). *Toward a Theory of Instruction*.
4. Leontyev, A.N. (1977). *Activity, Consciousness, and Personality*.
5. Yodgorov, H. (2018). Talabalarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirish metodlari. // *Ta'lim va Innovatsiya*, 2(1).
6. Azizxo‘jaeva, N.N. (2003). *Pedagogik texnologiyalar*.
7. Nishonov, F.N. (2015). *Zamonaviy ta'lim texnologiyalari*.
8. www.edu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.

BOG’LOVCHILAR TAHLILIDA TINISH BELGILARINING O’RNI

Berdikulova Shakhnoza Ruzikulovna
Samarqand davlat universitetining Kattaqo’rg’on filiali

mehriddinsher2018@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bog‘lovchilarning pragmatik ma’nosi tinish belgilarining vazifalari asosida o‘rganilgan. Bog‘lovchilarning nutq vaziyatida lokutiv, illokutiv, perlokutiv aktlarni yuzaga keltirishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: bog‘lovchi, pragmatika, uslub, bo‘lak, ma’no, munosabat, nutq, vergul.

Аннотация: В этой статье исследуется прагматическое значение союзов, основанных на функциях пунктуации. Было обнаружено, что союзы производят в речи локитивные, иллокутивные и перлоговорящие действия. ***Ключевые слова:*** связующее, прагматика, стиль, часть, значение, отношение, речь, запятая.

Abstract: This article explores the pragmatic meaning of conjunctions based on punctuation functions. It has been found that conjunctions produce locutive, illocutive, and perlocutive acts in speech.

Keywords: connective, pragmatics, style, part, meaning, attitude, speech, comma.

Tilshunoslik empirik tahlilni bilishning boshqa g‘oyalari va amallari bilan boyitishga uzoq tayyorgarlik ko‘rdi. XX asr davrda empirizm, fenomenologiya, konstruktivizm kabi falsafiy g‘oyalarni o‘zida jamlagan metodologiyaga asoslangan lisoniy tahlil yo‘nalishlari yuzaga keldi. Ana shunday yo‘nalishlardan biri, albatta, pragmalingvistikadir. O‘zbek va ingliz tillarida bog’lovchining vazifasi va semantik tipologiyasi o‘rganilayotgan tillarda so‘zning turkumga mansubligini o‘rganishdan boshlanadi. O‘zbek tilida bo‘lgani kabi ingliz tilida ham bosh gap bo‘laklari ot, sifat, son, olmosh, ergash gap va fe’ldan iborat. Predloglar va bog’lovchilar ikkinchi

darajali bo‘laklar sifatida alohida guruhlanadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi predlog o‘zbek tilida yuklama vazifasini bajaradi. Darslik va o‘quv qo‘llanmalarida bog‘lovchiga berilgan ta’riflar deyarli bir-biridan farqlanmaydi. Bog‘lovchi - mantiqiy fikrni, gapning grammatik qismlarini bog‘lash uchun xos bo‘lgan gap bo‘lagi.

Bizga ma’lumki, uyushiq bo‘laklar sanash ohangi vositasida bog‘langanda ba’zan vergul o‘rniga biriktiruv bog‘lovchilarni qo‘llash mumkin bo‘ladi. Masalan: Daftar, kitob sotib oldim. Qiyoslang: Daftar va kitob sotib oldim. Uyushiq bo‘laklar bog‘lovchisiz, intonatsiyaning o‘zi bilan bog‘lana olganidek, bog‘lovchilar yordami bilan ham birikadi.[6:256] Endi e’tiborimizni yuqoridagi gapga qaratamiz. Eronda musulmonlar arabcha o‘zlashmalarni qo‘llashni afzal bilsalar, musulmon bo‘lmaganlar va “fors sof tili jonkuyarlari” sof forscha so‘zdan tuzilgan iboralarni qo‘llashga urinadilar. Bu galgi tahlilimizda gapdan va bog‘lovchini tushurib (nutqda qo‘llamasdan) o‘rniga vergul qo‘yib tahlil qilamiz. Eronda musulmonlar arabcha o‘zlashmalarni qo‘llashni afzal bilmoq, (1- nutqiy ma’no yig‘indisi), Musulmon bo‘lmaganlar, “fors sof tili jonkuyarlari” sof forscha so‘zdan tuzilgan iboralarni qo‘llashga urinadilar. (2-nitqiy ma’no yig‘indisi). Bog‘lovchining tushurilishi bilan unga bog‘liq bo‘lgan “bilan birga, birgalikda” kabi ma’no yo‘qoldi va uning o‘rniga “ajratib ko‘rsatish, takidlash” (bu ma’no vergul qo‘yish bilan yuzaga kelgan) ma’nosi anglashilmoqda. Aslida ham shunday, gapda kelgan uyushiq bo‘laklarni alohida olgan holda tahlil qilib ko‘ramiz. Gapda bosh bo‘lak ya’ni ega uyushgan. Birinchi nutqiy ma’no yig‘indisidagi ega musulmonlar, ikkinchi nutqiy ma’no yig‘indisidagi ega (uyushiq ega) musulmon bo‘lmaganlar va “fors sof tili jonkuyarlari” hisoblanadi. Uyushiq egani va bog‘lovchisi orqali bog‘laganimizdagina “musulmon bo‘lmaganlar va ular bilan birgalikda, musulmon bo‘lmaganlardan tashqari, (alohida) “fors sof tili jonkuyarlari” ham sof forscha so‘zdan tuzilgan iboralarni qo‘llashga urinadilar” ma`nosi anglashiladi.

Har qanday til birligi, jumladan yordamchi so‘zlar tarkibiga kiruvchi bog‘lovchilar ham tinish belgilari ham nutq jarayonida pragmatik, hosila ma’no kasb etadi. Aslida bog‘lovchilar qo‘shma gap tarkibidagi ayrim sodda gaplarni hamda uyushiq bo‘lakli murakkab sodda gaplar orasidagi turli xil munosabatlarni ifodalash uchun qo‘llanuvchi yordamchi so‘zlardir. Sh.Bobojonov nutqiy ma’noning yuzaga kelishi haqida quyidagi fikirlarni bildiradi: “Nutqiy ma’no muayyan sintaktik qurshovda nutq sharoiti va so‘zlovchining kommunikativ niyatiga mos ravishda ma’lum bir nutq jarayonidagina yuzaga keltiriladi.”[8:26-b.] Tilshunos bu o‘rinda leksik nutqiy ma’no (sememani nutqiy voqeylanishi) haqida so‘z yuritgan bo‘lsada, bizningcha, bu kabi holatlar barcha nutq birliklariga (shu jumladan pragmatik birliklarga ham) birdek tigishlidir. Demak, pragmatik ma’no talqinida lison va nutqni izchil farqlash talabi har bir so‘zga xos barqaror lisoniy va o‘tkinchi nutqiy jihatlarni ajratishni taqozo qiladi. Nutqiy hodisalar cheksizlik va rangbaranglik tabiatiga ega bo‘lganligi bois leksikografik talqinlarning obyekti bo‘la olmaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bog‘lovchilar hamda tinish belgilarining pragmatik ma’no xilma-xilligini so‘zlovchi va tinglovchining tushunishi va anglashi faqat ular uchun umumiy asos mavjud bo‘lgandagina amalga oshishi mumkin. Mening fikrimcha, bir tipga kiruvchi so'z turkumlarining tuzilishi, turlarini bir xil nomlab ozgina bo'lsa ham osonlashtirish darkor. Misol sifatida ko'makchilarning sof yoki vazifadoshligi uning turlari hisoblanadi. Bog'lovchining sof yoki vazifadoshligi esa kelib chiqishiga ko'ra turi deya belgilanadi. Yuklamalarda berilmagan ham, oddiygina qilib "Yuklamalar ham sof yoki vazifadosh bo'lishi mumkin" deyilgan. Aziz yoshlar, chet tillarni o'rgangan yaxshi, albatta. Lekin o'z ona tilimizni birinchi o'ringa qo'yishimiz kerak. Uning rivojlanishi uchun o'z hissamizni qo'shishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. –Б.10.
2. N.Mahmudov Ona tili. (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik), 2009 y.
3. A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent 2013 y.
4. Rustamov M.A., Asriyans M.I. Ingliz tili grammatikasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006

5. Нурмонов А., Ҳакимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 4-сон, 55-бет.
6. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. - 256 б.

O‘ZBEK TILIDAGI BOG‘DORCHILIK TERMINLARINING SHAKLIY-STRUKTUR TAVSIFI

Diyarov Akmal To‘lqin o‘g‘li
SamDU Kattaqo‘rg‘on fililali o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bog’dorchilikka oid bo’lgan terminlar tartibga solinish va shakllanish bosqichida bo’lib, bu esa o’z navbatida ushbu sohaga oid bo’lgan terminlarni qishloq xo’jaligi va boshqa sohalardan ajratib, ularning ustida lingvistik tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, chunki ular atamashunoslik jarayonlarining mohiyatini ochib berish va maxsus lug’atning shakllanish qonuniyatlarini ko’rsatish imkonini beradi. Bog’dorchilik sohasidagi terminlar mazmunini chuqurroq tushunish uchun ularning shakliy struktur xususiyatlarini o’rganish va ularni tizimlashtirish muhim vazifa sanaladi va ushbu maqolada o‘zbek tilidagi bog‘dorchilik terminlarining shakliy-struktur tavsifi tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: sematnik, morfologik, sintaktik, *egat, ekin, ekliptika, ekma, fitotron, floks, florarium.*

Abstract: Terms related to gardening are in the stage of regulation and formation, which allows us to separate the terms related to our own production sector from those related to agriculture and other sectors, to implement a linguistic view on the report, as they allow us to reveal the processes of terminology and see the processes of formation of a special dictionary. In order to deepen the content of the terms of gardening, it is important to study the formal structure of the page and systematize them, and in this article the formal structural description of the term gardening in the Uzbek language is analyzed.

Key words: semantic, morphological, syntactic, egat, crop, ecliptic, ekma, phytotron, phlox, florarium.

Аннотация: Термины, связанные с садоводством, находятся в стадии регламентации и формирования, что позволяет отделить термины, связанные с собственной производственной сферой, от терминов, связанных с сельским хозяйством и другими отраслями, осуществить лингвистический взгляд на отчет, так как они позволяют раскрыть процессы терминогенеза и увидеть процессы формирования специального словаря. Для углубления содержания терминов садоводства важно изучить формальную структуру страницы и систематизировать их, и в данной статье анализируется формально-структурное описание термина садоводство в узбекском языке.

Ключевые слова: семантический, морфологический, синтаксический, эгат, урожай, эклиптика, экма, фитотрон, флокс, флорариум.

XXI asr birinchi choragidan boshlab mamlakatimizda ilm-fanga, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari uchun har galgidan ham e’tibor ortdi. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili. Na davlatning, na jamiyatning zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g’oyalarga tayanmaydigan kelajagi yo’q. Faqat ilm-fan va ma’rifat orqali intellektual salohiyat, yuksak bilimli kadrlar bilan biz O’zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqa olamiz”[1] – deb ta’kidlaganliklari yurtimiz olimlari uchun ilm-fan naqadar ahamiyatli ekanligini ko’rsatadi.

Ko'pgina olimlarning asarlari "termin" tushunchasini va terminologik tizimini turli jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Zamonaviy tilshunoslikda "termin" atamasi "fan, texnika,

[1] https://president.uz/oz/lists/view/169

san'at, ijtimoiy-siyosiy hayot va hokazolar sohasida aniq belgilangan tushunchani ifodalovchi so'z yoki ibora" sifatida talqin qilinadi [1].

Terminologiya tilshunoslikning tez o'zgaruvchan va murakkab tuzilishga ega sohasi hisoblanadi. Shu sababli jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar tilde ham o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq. Har bir fanning terminologik tizimi mavjud. Shu nuqtayi nazardan P.A.Florenskiy terminlarning fandagi o'rnini quyidagicha izohlagan: "Fanning mohiyati terminologiyani tuzish, aniqrog'i, joy joyiga qo'yishdan iborat…Terminlar hayoti fan tarixining o'zidir"[2]. Demak, bog'dorchilik bir fan deb qaraydigan bo'lsak, uning ham o'z lingvistik terminlari mavjud. Bog'dorchilik terminlarini tartibga solish va puxta ishlash nafaqat ushbu yo'nalishga oid bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish, balki shu sohada faoliyat olib borayotgan tadqiqotchilar uchun ham ahamiyatli sanaladi.

Terminlar til tizimining boshqa birliklaridan tarkibiy tuzilmasining murakkabligi bilan ajralib turadi. Masalan, umumtil leksikasida birikma shaklidagi birliklarning mustaqil atov birliklari sifatida qo'llanilishi kuzatilmaydi. Ayrim hollardagina leksik lakunalar bilan bog'liq ravishdagi bunday qo'llanishlarga duch kelishimiz mumkin[3], lekin sohaviy nutqda bunday holatlarning ko'plab uchrashiga lug'atlar asosida amin bo'lish mumkin. Masalan, *bog'dorchilik sohasini raqamlashtirish, ajratilgan muhitda o'stirish, almashlab ekish zvenosi, almashlab ekish dalalarning agrotexnik pasporti, dala ishlarini sifatini baholash, davlat nav sinash tarmog'i, bog'dorchilikning ekstensiv sistemasi, ekologik muvozanat, ekologik sistema, gidrologik tavsiflarning ta'minlanganligi*[4].

Mazkur holat terminlarning tor qatlam uchun xosligi va lug'at tuzish holatlarida birikmali tuzilishga egaligi bilan bog'liq. Shuningdek, terminlarning faqat sohaviy nutqda uchrashi, o'z-o'zidan, ularning kam qo'llanilishi lisoniy birliklar sifatida umumiste'mol til birliklari kabi *silliqlanmasligiga* sabab bo'ladi. Bu holat terminlarning aksariyatida formal-semantik nomuvofiqlikni yuzaga keltiradi. Bunday terminlarda shaklan erkin birikmalilik, ma'noviy jihatdan esa yaxlitlanish, muayyan bir tushunchani ifodalash tendensiyasi ustuvor. O'zbek tilidagi bog'dorchilik terminosistemasida ham bunday holat yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ko'p hollarda so'zlarni, ayniqsa terminlarni shakliy jihatdan turlarga ajratganda birdan ortiq o'zakdan topgan birliklarga nisbatan *qo'shma, juft, murakkab tarkibli, birikmali, birikma terminlar* ishlatilaveradi.

Izlanishlar davomida aniqlandiki, bog'dorchilikka sohasiga oid bo'lgan terminlar faqatgina O'zbek tilining izohli lug'atining 2,5 va 6 jildli nashrlarida va Qishloq xo'jaligiga oid terminlar izohli lug'atlarida keltirilgan, lekin shuni alohida ta'kidlash joizki, har ikkala izohli lug'atlarda bog'dorchilikka oid terminlar qishloq xo'jaligi va biologiyaga oid terminlar qatoriga kiritib ketilgan, ya'ni alohida soha sifatida ajratilmagan.

Terminlarning boyib borishi turli yo'llar bilan amalga oshiriladi, xususan, ularning asosiy vositalaridan biri so'z yasashdir. Umumadabiy tildan farqli o'laroq, terminlarni yasalishida quyidagi uch xil usuldan foydalanadi.

1. Sematnik; 2. Morfologik; 3. Sintaktik.

O'zbek tilshunosligida so'z ma'nosining o'zgarishi, ma'no ko'chish, polisemantik so'zlarning ba'zi ma'nolari orasidagi bog'lanish uzilib, ayrimlarining maxsuslanishi orqali yangi hosil bo'lishi semantic yoki leksik-semantik yo'l bilan yasash deb yuritiladi.

---

[1] Adambaeva F.R. About the Definition of the Concept "Term" // "O'zbekiston olimlari va yoshlarining innovatsion ilmiy-amaliy tadqiqotlari" mavzusidagi respublika 35-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferentsiya materiallari to'plami. -Toshkent: «Tadqiqot», 2021. -B 168-169.

O’zbek tilida nashr etilgan bog’dorchilikka oid darsliklar, o’quv qo’llanmalar, terminologik hamda izohli lug’atlar va boshqa manbalardan to’plangan misollarni tahlil qila turib, o’zbek tili leksikasining qator qatlamlaridan olingan leksik birliklar bog’dorchilik terminlarga aylanganligini ko’rish mumkin. Bu o’rinda mazkur so’zlarning ma’nosi o’zgargan yoki ko’chma ma’noda qo’llangan.

O’zbek bog’dorchilik terminlarining ma’lum qismini tashkil etuvchi bunday birikma terminlar boshqa sohalarda bo’lganidek, tushunchalarni mantiqan to’g’ri, mazmunan va grammatik jihatdan to’g’ri ifodalashda birikmaning semantic transformatsiyasiga uchraga ikkinchi qismning ahamiyati kattadir.

Ayon bo’ldiki, bog’dorchilik terminologiyasida butun nomini anglatuvchi terminlarga qaraganda, uning qismlarini anglatuvchi terminlar kamroq uchraydi. Ma’lumki, muayyan terminologik tizim yoxud umumiste’moldagi ma’nosi ko’chirilgan leksemalar boshqa sohaning mulkiga aylanar ekan yakka holda ham, ma’lum so’zlar qurvoshida ham shu sohaga oid tushunchalarni ifodalay oladi. Masalan, shunday tushunchani olib ko’raylik: *mineral oziqlanish, terim mashinasi, meva konservalari, tuproq umumdorligi, sonoat akvakulturasi.*

Struktur tasnif jarayonida soda va qo’shma bog’dorchilikka oid terminlarni farqlash mumkin. Tasnifdagi *qo’shma* so’ziga sinonim sifatida *murakkab* so’zi ham ishlatiladi. Ammo murakkab termin deyilganda nafaqat shakl, balki mazmuniy mruakkablik ham tushunilishi mumkin. Aslida murakkab deyilgan komponentlar miqdori nazarda tutiladi. Birdan ortiq tarkibiy qismlardan tashkil topgan har qanday termin murakkab deyiladigan bo’lsa, qo’shma terminlar ham murakkab termin tushunchasi tarkibiga kirib qoladi. Ammo qo’shma termin birdan ortiq so’zning leksik uyg’unlashuvi hamda natijada, yaxlit lug’aviy birlikning hosil bo’lishi (*agrobiotsenoz, agroelektronika, buvadehqon*). Shu sababdan, murakkab termini sintaktik aloqa yordamida hosil qilinadigan terminlarga nisbatan qo’llash maqsadga muvofiq. Yuqorida keltirilgan ko’p komponentli bog’dorchilik terminlari *(daraxt gummi, daryo oqimini tartibga solish, daryo suvchanligi, davitaminoz kasalligi)* murakkab termin misol bo’ladi.

Sodda terminlar. Bunday terminlar yakka asosli, ularda yaxlit shakliy va semantik tuzilish aks etadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, ushbu terminlarni ikkiga ajratib tahlil qilindi:

Tadqiq etilgan Qishloq xo’jaligi terminlarining izohli lug’ati va O’zbek tilining izohli lug’ati kitoblarida bog’dorchilikka oid sodda terminlar 456 tani tashkil qiladi va ulardan ba’zilarini keltirib o’tadigan bo’lsak, *egat, ekin, ekliptika, ekma, fitotron, floks, florarium, flyaga, forzitsiya, forsunka, jut, gullash, novda, tomir, shira, urug‘, meva.*

Bog’dorchilikka oid qo’shma terminlarni hisobga oladigan bo’lsak, 2 ta izohli lug’atdan jami bo’lib, 125 tasi ajratildi. Qo’shma terminlarni tadqiq qilish oldidan, shuni ta’kidlash joiz deb bildikki, yasalish usullariga ko’ra qo’shma terminlarni kompozitsiya usuli orqali yasalish usullariga kiritadigan bo’lsak, qo’shma, juft va takror terminlar ham bular qatoriga kiritiladi. Tahlilga tortilgan bog’dorchilikka oid birdan ortiq asosdan tarkib topgan, asoslarning yaxlit bitta tushunchani ifodalash orqali bitta so’z shaklga aylanishidan hosil bo’lgan terminlarni tadqiq qilishga qaror qildik. Bu shakldagi bog’dorchilikka oid terminlar quyidagilar: *sassiqkavrak, obiravon, nomozshomgul, nishxo’rd, navnihol, qirqmabarg, marvaridgul, marjondaraxt, ko’ksulton, kechpishar, baribog’.*

Asosi ikki mustaqil ma’nodan iborat bo’lgan birliklar o’z ichida quyidagi bo’linishlarga ega:

a) ot + fe’l = ot: *gulxayr;*

b) ot + ot = ot: *gilosbog’;*

d) sifat + ot = ot: *ko’kuzum;*

d) ravish + ot = sifat: *kechpishar.*

Yuqoridagi tahlillardan ko’rinib turibdiki, ikkita turli so’z turkumlaridan tashkil topgan mustaqil ma’noga ega birliklar asosan *ot* so’z turkumiga o’zgarayotganligini kuzatish mumkin. Bundan tashqari ushbu birikmalar tarkibida so’z yasovchi morfemalar ham qatnashishi mumkin.

Ushbu morfemalarning ko’pchiligi yasovchilardan iborat. Masalan, *gulxayridoshlar,* qolgan qo’shma terminlarga esa lug’aviy shakl yasovchi qo’shimchalar ham qo’shiladi.

Xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, O’zbek tilining izohli lug’ati va Qishloq xo’jaligi terminlarining izohli lug’atlarida berilgan bog’dorchilikka oid terminlar tuzilishi jihatdan sodda, qo’shma, juft va birikma terminlar guruhlariga birlashadi. O’zbek tili bog’dorchilik terminologiyasida mavjud bo’lgan gibrid qo’shma terminlar ham O’TILga kiritilishi zamon talabi. Birikma terminlar tarkibida murakkab tushunchalar ifodalanadi. Shu boisdan birikma shaklidagi mazkur soha terminlari ushbu terminosistemada salmoqli o’rin egallaydi. Izohli lug’atlarning yangi tahriri tayyorlanishi jarayonida bosh so’z ishtirokidagi bog’dorchilikka oid birikma terminlar ham ko’proq berilishi maqsadga muvofiq, qolaversa, O’TILdagi bog’dorchilik terminlarini ko’paytirish va tartib solish maqsadga muvofiq. Shuningdek, bog’dorchilik mevalariga taalluqli bo’lgan, xalq tilidagi uzum, anjir, anor gilos kabi meva nomlari bilan ifodalangan bog’dorchilik birliklarini terminlar qatoriga qo’shish keyingi qadamlarda bog’dorchilik sohasi bilan shug’ullanadigan olimlar uchun foydali manba bo’lib xizmat qiladi. Shuningdek, Qishloq xo’jaligi terminlarining izohli lug’atidan bog’dorchilik, chorvachilik, tuproqshunoslik sohalariga ajratgan holda terminlarini izohlash, yo’nalishlarga oid birliklarni chuqurroq o’rganishga sabab bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhiddinova X va boshqalar. Hozirgi o’zbek adabiy tili: o’quv qo’llanma. – O’qituvchi: Toshkent, 2006

2. Зайниддинова Н.Қ. Машғуллик семасига эга бўлган шахс отларининг лексикографик талқини. Фил.фан.номз… диссертация. – Тошкент, 2004

3. Қаранг. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. 41-бет. Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. – Тошкент: Университет, 2002. – 16-бет.

4. Зайниддинова Н.Қ. Машғуллик семасига эга бўлган шахс отларининг лексикографик талқини. Фил.фан.номз… диссертация. – Тошкент, 2004. – 32-бет

5. Қосимов Н. Ўзбек тили илмий-техникавий терминологияси масалалари (Сўз ўзлаштириш ва аффиксация масалалари). – Тошкент: Фан, 1985. – Б.47

6. Қосимов Н. Ўзбек тили илмий-техникавий терминологияси масалалари (Сўз ўзлаштириш ва аффиксация масалалари). – Тошкент: Фан, 1985. – Б.56

KRASHEN IN ACTION: A CASE STUDY OF ACQUISITION, ORDER, AND INPUT IN ESL

Kamalova Madina
Kattakurgan branch of Samarkand State University

Annotation: This study examines the second language acquisition journeys of two 15-year-old students, Nilufar and Babur, learning English as a foreign language in a Russian school. Through the lens of Stephen Krashen's influential theories – the Acquisition-Learning Hypothesis, the Natural Order Hypothesis, and the Input Hypothesis – this analysis explores their individual learning experiences, highlighting the impact of different learning styles, motivation levels, and instructional approaches aligned with these theoretical frameworks. Nilufar, a proactive visual learner, and Babur, a more recent auditory learner requiring additional support, provide contrasting yet insightful perspectives on the principles underpinning successful second language acquisition.
Key words: Case study; order; teaching English; **The Acquisition-Learning Hypothesis.**

Description of learner

Xalqimiz tarixidan ma’lumki, ilm-fan, adabiyot, san’at va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda dunyoviylik va diniylikka nisbatan to‘g‘ri yondashilganligi uchun ijtimoiy va ilmiy sohada ko’plab yutuqlarga erishildi. Shu sabab o‘laroq, bizning diniy qadriyatlarimiz jamiyatning ma’naviy yangilanishi va poklanishi, sog‘lom turmush tarzi qaror topishining muhim omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shunday ekan, qadriyat o‘zi nima degan savolga bir to‘xtalsak, qadriyat - bu qandaydir obyekt (hodisa)ning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati yoki rolidir. Falsafiy ma’noda “qadriyat narsa va buyumlarning qimmatiga nisbatan qo‘llanilmasdan, balki inson uchun biror ahamiyatga ega bo‘lgan voqeylikning shakllari, holatlari, narsalar, voqea-hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab, tartiblar va boshqalarning qadrini, ijtimoiy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy kategoriyadir”.[1] Qadriyatlar jamiyat taraqqiyoti, inson faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatarkan, islom dinidagi asl insonparvarlik, halollik, adolat, ezgulik kabi qadriyatlarning bugungi kunda jamiyatning ma’naviy yangilanishidagi tutgan o‘rni va ahamiyati oshib bormoqda.

Islom dinida sog‘lom turmush tarziga ham e’tibor qaratilgan. Hadislarda “*Ikki ne’mat borki, odamlar ularning qimmatini anglab yetmaydilar. Ulardin biri sog‘lik bo‘lsa, ikkinchisi vaqtdir*”, deyilgan. Hadislarda yana “*Zarar berish va zararlanish (islomda) yo‘q*” degan fikr bayon qilingan bo‘lib, zararlanishning oldini olish insondan badantarbiya bilan shug‘ullanishni, sog‘lom turmush tarziga o‘tishni talab qiladi. Sharq Uyg‘onish davri mutaffakkirlaridan Abu Ali Ibn Sino ham “*Badantarbiya bilan muntazam shug‘ullangan inson hech qanday dori-darmonga muhtoj bo‘lmaydi*”, deb o‘z fikrini bayon qilgan. Sog‘lom tanda - sog‘ aql deb bejizga aytishmagan. Shunday ekan jismonan va ma’nan yetuk yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy masalalardan biriga aylangan. Haqiqatdan ham, bu yorug‘ olamdan eng oliy qadriyat - inson ekan, bugungi kundagi amalga oshirayotgan islohotlarimiz zamirida ham inson manfaati turganligini ko‘rishimiz mumkin.

Islom dinida sog‘lom insonni tarbiyalash va sog‘lom oilani barpo etishga katta e’tibor qaratilgan. Sog‘lom inson va sog‘lom oila - sog‘lom jamiyatning asosi hisoblanadi. Inson hayoti

[1] .Назаров Қ.Н. Фалсафа асослари.-“Ўзбекистон миллий файласуфлар жамияти” 2012-б

mehnat qilish, hordiq chiqarish, mutolaa qilish, sport bilan shug‘ullanish, ibodat qilish asosida tashkil qilinadi. Islom dinida inson hayoti ma’lum qonun-qoida, halollik va poklik, o‘zaro ishonch va hurmat asosida shakllanshi belgilangan bo‘lib, sog‘lom hayot-sog‘lom jamiyat uchun asos bo‘ladi. Islom dini insonning ma’naviy va jismoniy sog‘lomligiga katta e’tibor qaratadi.

Islomda farz qilingan ro‘za ruhiy tarbiya bo‘lish bilan birga jismoniy tarbiya hamdir. “Hozirgi kunga kelib, tabobat bilimdonlari insonga bir yilda bir kurs ochlik muolajasini olishni tavsiya qilmoqdalar. Kundalik besh mahal namozda ham ajoyib jismoniy tarbiya bor. Musulmon kishi ibodat qilar ekan, namozga tayyorgarlik hamda namoz mobaynida o‘zi sezmagani holda talaygina jismoniy xatti-harakatlarni bajaradi. Jismoniy tarbiyada nafas masalasi birlamchi masala hisoblanadi. Kelajak avlod sog‘lom va kuchli bo‘lishi uchun, xalqning ertasi buyuk bo‘lishi uchun jismoniy tarbiya zarurdir. Hadislarda «*O‘q otinglar, ot mininglar, men uchun otganingiz minganingizdan yaxshiroqdir»*, degan hadis bo‘lib, islom dinining ilk davrida ham harbiy jismoniy mashg‘ulotlarga katta e’tibor qaratilgan. Islomda sog‘lom turmush tarziga, jismoniy tarbiyaga katta e’tibor qaratilib, islom odamlarning ham jismoniy, ham ma’naviy tarbiyasiga doimo katta e’tibor qaratib kelgan”.[1] Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, bugungi axborot texnologiyalar asrida inson uchun eng katta boylik sog‘lik ekanligi, bu omil esa kundan kunga inson uchun hayotiy qadriyatga aylanmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Chunki bugungi davrda insonlar ko‘p vaqtini kam harakatlilik bilan o‘tkazmoqda, natijada turli xil kasalliklarga chalinish holatlari kelib chiqmoqda.

Qur’oni Karim, Hadisi Sharif, shariat hukmlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga keng o‘rin berilgan bo‘lib, ularning hammasi har bir musulmonni haqqoniylik va yaxshilik ruhida tarbiyalashga qaratilgandir. Bu diniy manbaalar diniy qadriyatlar sifatida oilada farzandlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilib kelgan. Bugungi kunda davlatning dinga bo‘lgan munosabati keskin o‘zgargan bir sharoitda, ularning qiymati va tarbiyaviy ta’siri yanada ortib bormoqda.

Islomda bilim olishga, ilmli insonga hurmat, farzandlarni shu ruhda tarbiyalash shunchalik chuqur va keskin qo‘yilganki, uni quyidagi bir misol bilan asoslash mumkin: Muhammad Alayhissalom Badr degan joydagi urushdan so‘ng, har bir asirga ozod bo‘lishi uchun 10 ta musulmonga o‘qish va yozishini o‘rgatib qo‘yishni shart qilib qo‘yganlar. Zotan, bu o‘rinda pul, mol, yoxud xohlagan narsalarini shart qilib aytishlari mumkin edi. Ammo, islomda ilm hamma narsadan ustun qo‘yilganligi uchun mazkur shartni aytganlar. Haqiqatdan ham, bugungi kunda ilmdan o‘zga najot yo‘q ekanligini yosh avlodga ta’lim va tarbiya orqali ilm olish g‘oyalarini singdirish lozimdir. Islomiyatdagi ilm o‘rganish, ta’lim olish g‘oyasi haqida Abdulla Avloniy batafsil to‘xtalib o‘tgan: “Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas fazilatdur. Zeroki, ilm bizga savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayirib berur, ilmsiz kishilar ota-onasiga, qarindosh-urug‘iga, yor do‘stiga, din va millatiga foyda yetkurmak bir tomonda tursin, o‘z ustiga lozim bo‘lgan ibodat va toatni ham lozim qila olmas.”[2] Bugungi kunda yosh avlodni sog‘lom turmush tarziga amal qilib yashashi, yot g‘oyalarning ta’siriga tushib qolmasligi uchun ularni ilm-ma’rifat bilan tarbiyalash lozim. Chunki

[1] . J. Ya. Yaxshilikov, N. E. Muhammadiyev Falsafa darslik *(barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun).Samarqand. SamDU nashri.2021 yil 637 bet.*

[2] .A.Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. T. O’qituvchi. 1992 yil. 160-bet.

bugungi dunyoda sodir bo‘layotgan tahlikali davrda inson uchun yagona ozuqa ilm ekanligini ko‘rishimiz mumkin, bu borada “Eng katta boylik- bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros- bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir”.[1] Shu o‘rinda jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishda, birinchi galda, “ilm va yana ilm” degan g‘oya bilan yoshlarni kamol toptirish kerak, aks holda xalqaro maydonda chetga chiqib qolish hech gap emas.

Sog‘lom e’tiqod tarkibini tashkil etuvchi: halollik, to‘g‘rilik, birovlar haqqiga xiyonat qilmaslik, xayr-ehson, saxovat, muruvvat, tejamkorlik, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik kabi fazilatlar milliy va diniy qadiyatlar zamirida shakllangan. Ular oilaviy tarbiya natijasida ajdodlardan avlodlarga o‘tib, ularning ma’naviy dunyosini yoritgan. Sog‘lom e’tiqod ma’naviy-axloqiy tushuncha hisoblanadi. Buni yoshligidan bola ongiga singdirib borilsagina, shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham zaruriy samara berishi mumkin. Sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiya topgan avlodgina ma’rifatli jamiyat qurishga qodir. Buni o‘z farzandlari taqdirini o‘ylagan ota-onagina to‘la his qilishi mumkin. Farzandlarimizni sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalash o‘z holicha olib boriladigan ish emas, balki, asta-sekinlik bilan bir maqsadga qaratilgan murakkab va ziddiyatli jarayondir. Buni ota-onalar to‘la anglab yetishlari va yoshlar ongiga doimiy ravishda singdirib borishlari muhimdir. Yoshlar tarbiyasida ko‘zlangan maqsadga erishishda, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda azaliy va amaliy bilim va qadriyatlarimiz muhim rol o‘ynaydi.

Zero, shariatda ham qaysi ilmga muhtoj bo‘lsang, shuni bilmak musulmon uchun farzdur, deb ta’kidlangan. Hadisi Sharifda ham “Beshikdan to qabrgacha ilm izla”, deyilgani bejizga emaski, insoniyat paydo bo‘lganidan beri ilm olish masalasi hamma davrlarda eng dolzarb bo‘lgan. Bugungi kunda ilm olish qadriyatga aylanib borilmoqda, chunki turmush tarzimizni yaxshilash va inson qadrini oshirish uchun ilm kerak. Bu borada Abu Muso al-Ash’ariy raziyallohu anhu rivoyat qiladi: “Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam aytganlar: «Alloh taolo menga yuborgan hidoyat (Alloh taolo bandalariga ko‘rsatgan to‘g‘ri yo‘l, yo‘llanma) singari ilm ham ko‘p yoqqan yomg‘irga o‘xshaydi. Ba’zi yer sof, unumdor bo‘lib, yomg‘irni o‘ziga singdiradi-da, har xil o‘simliklar va ko‘katlarni o‘stiradi. Ba’zi yer qurg‘oq, qattiq bo‘lib, suvni emmasdan o‘zida to‘playdi, undan Alloh taolo bandalarini foydalantiradi: odamlar suvdan ichadilar, hayvonlarini va ekinlarini sug‘oradilar. Ba’zi yer esa tekis bo‘lib, suvni o‘zida tutib qolmaydi, ko‘katni ham ko‘kartirmaydi.”[2] -deb ta’kidlanganligini ko’rishimiz mumkin. Jamiyatda sog‘lom turmush tarzi qaror toptirishda, birinchi navbatda, insonlar ongi va qalbida yurt tinchligi, inson salomatligi eng oliy qadriyatlardan biri ekanligini tushunib yetishimiz lozimdir. Darhaqiqat, jamiyatning moddiy va ma’naviy qadriyatlari bilan birga kamol topgan avlodi ilmli va mustahkam e’tiqodga ega bo’lib boradi. Turmush tarzi insonlarning ongini belgilab beradi, shunday ekan ,eng avvalo, turmush tarzimizni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yib olishimiz lozim. Xalqimizning sog‘lom turmush tarziga amal qilishi, avvalo, bugungi kundagi davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning mazmun-mohiyatini anglab yetishga xizmat qiladi.

Ma’lumki, inson jamiyatda yashar ekan, o‘z sog‘ligiga e’tibor qilib hayot kechirishi juda muhim. Sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha ko‘plab mutaxassislar o‘zlarining izlanishlari asosida foydali ma’lumotlarni bayon qiladi. Shulardan eng muhimlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

-shaxsiy gigiyena;

[1] Shavkat Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi “.Toshkent 2022 yil 23 bet.

[2] Imom Ismoil al-Buxoriy “Al-jome' as-sahih ” (1-jild) Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. Qomuslar Bosh tahririyati .Toshkent .1991 yil. 21 bet.

-badantarbiya;
-to‘g‘ri ovqatlanish;
-kun tartibiga amal qilish;
-ruhiy xotirjamlik;
-zararli odatlardan cheklanish,
shu kabi meyorlar asosida jamiyat taraqqiyotini amalga oshirib borishimiz kerak.

O‘zbekistonda dunyoviylik tamoyiliga asoslangan demokratik, huquqiy davlat va fuqoralik jamiyati barpo etilmoqda. Ushbu davlat va jamiyatning milliy modelida diniy qadriyatlarga ham katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda davlatning dinga munosabati “Dunyoviylik dahriylik emas” degan tamoyil asosida amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda “jaholatga qarshi ma’rifat” degan ezgu g‘oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do‘stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ‘ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo‘lib qoladi.” [1]

Xulosa o‘rnida bugungi kunda islom dini asosida asrlar davomida yaratilgan axloqiy-ma’rifiy qadriyatlar jamiyatdagi ma’naviy yangilanish va barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Islom axloqiy qadriyatlar odamlarni halol, pok, adolatli, insofli, diyonatli, mehr-shafqatli bo‘lishga da’vat etib kelmoqda. Shunday ekan jamiyatimizda yoshlarni sog‘lom turmush tarizga amal qilishida ularga diniy va dunyoviy qadriyatlar bilan ta’lim va tarbiyani berib bormoqlik lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Назаров Қ.Н. Фалсафа асослари.-“Ўзбекистон миллий файласуфлар жамияти” 2012-б.755.

[2] J. Ya. Yaxshilikov, N. E. Muhammadiyev Falsafa darslik *(barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun).Samarqand. SamDU nashri.2021 yil 637 bet.*

[3] A.Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. T. O‘qituvchi. 1992 yil. 160-bet.

[4] Shavkat Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi “.Toshkent 2022 yil 23 bet.

[5] Imom Ismoil al-Buxoriy “Al-jome' as-sahih ” (1-jild) Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. Qomuslar Bosh tahririyati .Toshkent .1991 yil. 21 bet.

[6] Мирзиёев Ш.М. “Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари”. 4-жилд. Тошкент. Ўзбекистон. 2020 йил. 43 бет.

GLOBALLASHGAN TA’LIM SHAROITIDA TARBIYA FANINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY YONDOSHUVLARI

Jumanazarov Sirojiddin Salaydinovich,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti kafedra mudiri, t.f.n., dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashgan ta’lim sharoitida Tarbiya fanini o’qitishning zamonaviy yondoshuvlari, xususan loyihalash ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga oid fikrlar yuritilgan

Tayanch so‘zlar: globallashuv, tarbiya, loyihalash, loyiha usuli, loyihalash texnologiyalari, axborot-ta’lim muhiti.

Kirish. Hozirda biz bilim va dunyoqarashimizni sezilarli darajada o‘zgartirib, butun jahon hamjamiyatining rivojlanish yo‘nalishini belgilab beruvchi globallashuv davrida yashayapmiz.Bu

[1] Мирзиёев Ш.М. “Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари”. 4-жилд. Тошкент. Ўзбекистон. 2020 йил. 43 бет.

davrda dunyoning geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o‘zgarishlarni, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgani bilan muhim sanaladi. Axborot sohasi jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan mazkur sharoitda global internet tarmog‘i turli davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi siyosiy hamda geografik chegaralarga to‘siq qo‘yib bo‘lmaslikni anglatadi [1]. Bunday globallashuv sharoitida mamlakatimiz yoshlarini tarbiyalash, ma’naviy dunyoqarashini yuksaltirish, ularda milliy-ma’naviy immunitetni mustahkamlash orqali nafaqat o‘z hayoti, oila a’zolari, Vatani va millati oldidagi, balki atrof-muhit hamda jami bashariyat oldidagi ma’naviy burch va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish masalasi bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Jahonda globallashuv sharoitida yoshlarini tarbiyalash, ma’naviy dunyoqarashini yuksaltirish, ularda milliy-ma’naviy immunitetni mustahkamlash, murakkab axloqiy muammolarni hal qilish borasidagi dolzarb vazifalar bugungi kun pedagoglari uchun asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada tarbiya fani o‘qituvchilaridan yoshlarning ijtimoiy qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilishlari uchun tarbiyalash borasida zamonaviy yondashuvlari muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan va global internet tarmog‘iga ulangan. Shunining uchun darslarni loyhalashda va olib borishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiylaridan foydalanishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish lozim.

Ushbu maqolada “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining darslarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish g‘oyasi ilgari surilgan. Bunda loyihalash ta’lim texnologiyasidan va axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari, ta’limga oid veb-saytlar, bulutli xizmatlardan foydalanish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Chunki, loyihalash ta’lim texnologiyasi va ta’lim muhitlarining integratsiyalash yordamida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirishda, ijodkorlikni rivojlantirishda, kognitiv qiziqishni va hokazolarda keng qo‘llaniladi.

Ta’lim sohasidagi mahalliy adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, “Loyiha usuli” mustaqil yoki boshqa ijodiy usullarni o‘z ichiga olgan butun texnologiya sifatida ko‘rib chiqiladi. Pedagogik va uslubiy adabiyotlarda turli xil atamalarni topish mumkin: loyiha usuli, loyiha texnologiyasi. Mazkur masala bo‘yicha ko‘pchilik manbalarda “Loyiha usuli” atamasi faqat ushbu ibora uzoq vaqtdan beri qo‘llanilganligi sababli qo‘llaniladi. Shu bilan birga, “Pedagogik loyiha” tushunchasining o‘zi pedagogika sohasidagi loyihani nazarda tutadi [2,3,4,5].

Loyiha texnologiyalari haqida gapirganda va “loyiha” tushunchasining mohiyatini inobatga olgan holda, biz buni har qanday shaklda (material, matn va boshqalar) qo‘yilgan natijaga erishishga o‘quvchilarning o‘quv va kognitiv faoliyatini tashkil etish usuli sifatida tushunamiz.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, loyiha texnologiyalari ta’limda turli xil bilim sohalarida, deyarli har qanday fanni o‘qitishda, o‘quv motivatsiyasini oshirishda, kognitiv qiziqishni, ijodkorlikni rivojlantirishda va hokazolarda keng qo‘llaniladi. Loyiha texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan amaliyotda foydalanish bilan shug‘ullanadigan barcha tadqiqotchilar va o‘qituvchilar loyiha texnologiyasi keng pedagogik imkoniyatlarga ega, dastur materialini chuqurroq o‘zlashtirishga, o‘z o‘quv faoliyatini rejalashtirishga, amaliy foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi degan fikrga qo‘shiladilar.

Loyihaviy o‘qitish texnologiyasining mohiyati o‘quvchilarning mustaqil bilim faoliyatini uyushgan holda rag‘batlantirishdan iborat. Shuning uchun “Tarbiya” fanini o‘qitishda loyihalash

ta’lim texnologiyasidan foydalanishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratku, unda maktab o‘quvchilarini tarbiyalashga qaratilganligidadir. O‘quvchilarning loyiha topshiriqlarini amalga oshirish bo‘yicha ishlashi “Tarbiya” fani o‘qituvchisiga haqiqiy ijodkorlik holati uchun sharoit yaratishga imkon beradi. Shu bois umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitishda loyihalash ta’lim texnologiyasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fanni mazmuni loyihaga asoslangan ta’limning mohiyatiga to‘liq mos keladi, bu ko‘pgina o‘quv fanlari mazmuni bilan integratsiyalashish, ilmiy bilimlarni birlashtirish, mantiqiy izchil sabab-natija munosabatlarini o‘rnatish, paydo bo‘lgan savollarga javob topish va amaliyotda qo‘llash imkonini beradi.

Shunday qilib loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasi quyidagi xususiyatlarga ega:

- o‘quvchilar e’tiborini olingan bilimlarning amaliy ahamiyatiga qaratish, loyiha vazifalarini hal qilish zaruratidan kelib chiqib, ularni o‘zlashtirishga shaxsiy qiziqishni shakllantirish;

- kognitiv faoliyatni nafaqat bitta fanga, balki o‘quv rejasining boshqa mavzulariga ham moslashtirish imkoniyati;

- loyiha topshiriqlarini bajarish jarayonida o‘quvchilarning ko‘p qirrali bilimlarning ahamiyati va zarurligini anglash.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, olib borilgan izlanishlar tahliliga ko‘ra, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda raqamli ta’lim texnologiyalardan foydalanishga yetarlicha e’tibor qaratilmayotgaligiga amin bo‘ldik. Buning sabablaridan biri sifatida “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanib darslarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmayotgaligi bilan e’tirof etish mumkin. Shuning uchun, “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida darslarni loyihalash ta’lim texnologiyasi va raqamli vositalar, shu jumladan axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari, ta’limga oid veb-saytlar, bulutli xizmatlarni o‘zaro integratsiyalash asosida loyihalash kompetentligini rivojlantirish lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Мавлонов Ў.М. Глобаллашув шароитида ёшларни мафкуравий таҳдидлардан ҳимоя қилиш – давр талаби // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor. VOLUME 1 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784. – B. 794-797.

2. Джураев А.С. Малака ошириш жараёнида тингловчиларнинг касбий малакасини ривожлантиришнинг педагогик механизмларини такомиллаштириш //Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2019. 52 б.

3. Полат, Е.С. Метод проектов: история и теория вопроса / Е.С. Полат // Школьные технологии. 2016. – № 6. – С.43-47.

4. Стернберг В. Н. Теория и практика "метода проектов" в педагогике XX века // Автореферат диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук Рязань 2003. – 24 с.

5. Сидоренко В.Ф. Генезис проектной культуры // Вопросы философии. 1984. – №10. – С.87-99

TURKISTON O‘LKASINING DINIY TARKIBINI YORITILISHI (1867-1917-YILLAR MISOLIDA)

Xolxujayeva Yulduz Uralboyevna
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali
Xolxujayeva91@mail.ru

Annotatsiya: XIX - asr oxiri va XX - asr boshlarida o‘lka aholisining etnik tarkibi bilan birgalikda, diniy konfessial mazarasi xilma-xil bo‘lib bordi. Umuman, mustamlakachilik siyosati asosida olib borilgan ko‘chirish, ruslashtirish siyosati, bu o‘zgarishlar Rossiya imperiyasidan ko‘chirib keltirilgan xalqlarni joylashtirish hisobidan, mahalliy aholining sonining ko‘payib borishi, Turkiston aholisining diniy tarkibi hamda xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarda sezilarli darajada o‘zgarishlar bo‘ldi.

Kalit so‘zi: Rossiya, Turkiston o‘lkasi, etnik tarkibi, diniy konfessial, diniy tarkibi, o‘lka shahar va qishloqlarida demografik o‘zgarishlar, jadidlar.

Kirish: O‘zining ko‘p ming yillik tarixi davomida yuzlab etnoslar va etnik birliklarni bag‘riga sig‘dirgan O‘zbekiston tarixini ham aholining etnik tarkibi va soni kabi asosiy aspektlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Zero, ma’lum bir hudud aholisining milliy tarkibi va soni to‘g‘risida chop etilgan yozma manbalar, arxiv materiallari, ilmiy tadqiqotlar va tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarning tarixiy-manbaviy tahlili tarix fanining bosh masalalaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, turli tarixshunoslik ishlarida Markaziy Osiyo aholisining milliy va etnik tarkibi bo‘yicha qiziqarli va shu bilan birgalikda inkor etiladigan fikr-mulohazalar ham aks etgan. Bu o‘z navbatida, bugunda turli munozaralarni keltirib chiqargan. Xususan, masalaning bir qismi rus tarixshunosligi bilan ham bog‘lanadi. Ushbu maqolada rus arxiv hujjatlari va mualliflari tomonidan Turkiston aholisining diniy tarkibi hamda xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlilini havola etish maqsad qilindi.

Metodologiya; Turkiston aholisining diniy tarkibi hamda xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risida yozma manbalar va tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil etishda tarix fanining zamonaviy konseptual-metodologik yondoshuvlari hisoblangan mavzuga doir yozma manbalar va tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarning qiyosiy tahlili, mantiqiy sinflashtirish va tarkibiy tahlil uslublaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

XIX - asr oxiri va XX - asr boshlarida o‘lka aholisining etnik tarkibi bilan birgalikda, diniy konfessial mazarasi xilma-xil bo‘lib bordi. Albatta bu davrda Turkiston mahalliy aholisi, ya’ni musulmonlar qariyb 90 foizni tashkil etgan[1]. Unday so‘ng, yirik sharqiy slavyanlar diasporasi yoyilgan viloyatlar va shaharlarda pravoslav dinining yetakchi o‘rinda turgan. Markaz Toshkentda ko‘p sonli musulmonlar 75 foizni, undan so‘ng pravoslavlar 22 foiz va keyin boshqa diniy jamoalar turgan.

Ma’lumki, rus hukumati tomonidan bu davrda yahudiylar qo‘llab-quvvatlangani bois, ularga fuqarolikka o‘tish, savdo gildiyalarini olish va boshqa ko‘plab huquqlar berilgan edi. Natijada, bu diniy konfessiya vakillari soni yildan-yilga o‘sib bordi. Markaz Toshkentda birgina o‘n yil davomida, ya’ni 1878-yilda jami 592 kishi aniqlangan bo‘lsa, 1888-yilga kelib 1275 kishi hisobga olingan[2]. Bu avvalo, ularning diniy e’tiqodiga erkinlik bo‘lganligi va avvalgi ma’lum ta’qiqlar olib tashlanganligini anglatadi.

Yettisuv viloyati statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, viloyat aholisining ko‘pchiligini musulmonlar (90,12 %) tashkil etgan bo‘lsa, pravoslavlar 9,79 % ga yetgan, boshqa diniy vakillar

0,09 %ni qamrab olgan. Shu bilan birgalikda, ona tilisi rus tili bo‘lganlarning deyarli barchasi (ruslar, ukrainlar va beloruslar), kichik istisnolar bilan, pravoslav cherkoviga e’tiqod qilganlar. Ularning orasida kichik sondagi eski e’tiqodchilar va undan ham kam sonda rim-katoliklar bo‘lgan.

Yana shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari aholisining diniy vakillari orasida karaimlar[3] ko‘rsatilgan bo‘lib, bular yahudiylik dinining bir oqimiga mansub bo‘lib, ular kam sonli etnik guruh sifatida karaim tilida (turkiy tillarning qipchoq guruhi) so‘zlashganlar. Ular sharqiy Yevropadagi karaimizm izdoshlaridan kelib chiqib, bu davrda ularning umumiy aholiga nisbatan foizi juda past edi.

1900-yilgi Samarqand viloyati aholisi diniy e’tiqodiga nazar tashlasak, ular orasida - musulmonlar, pravoslavlar, yahudiylar, arman-grigoryanlar, katoliklar, protestantlar, butparastlar bo‘lganini ko‘rish mumkin[4].

Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, dastlabki davrda Turkistonning harbiy-fuqarolik hokimiyati bilan davlat dini bo‘lgan pravoslav nasroniylik vakillari o‘rtasidagi munosabatlar sovuq bo‘lgan. Mintaqada pravoslav yepiskopi faqat 1872-yilda, mustaqil pravoslav yeparxiyasi 1-yanvardan faoliyat yurita boshlagan. O‘rta Osiyoda pravoslav diniy institutlar yo‘q edi, bundan tashqari Rossiya imperiyasining 78 ming pravoslav diniy muassasalaridan Turkistonda faqat 180 ga yaqini bor edi[5] Bu holat O‘rta Osiyoda davlat pravoslav cherkovining mavqyei unchalik kuchli bo‘lmaganligi bilan izohlanadi.

Garchi 1897-yilgi aholi ro‘yxatiga ko‘ra, Turkiston o‘lkasida 11 mingga yaqin katolik bo‘lib, ularning bir qismini polyaklar tashkil etsa-da, XX-asrning boshlariga qadar bu yerda birorta katolik cherkovi bo‘lmagan. Rossiya davlatidagi qonunlarga ko‘ra, katolik cherkovlari ixtiyoriy ehsonlar hisobiga qurilar edi. Ehson to‘planganidan keyin Samarqand va Ashxobodda cherkovlar qurildi.

Endi o‘lkaning etnik va diniy rang-baranglik sharoitida mahalliy va rus xalqlari o‘rtasidagi munosabatlarga to‘xtalib o‘tamiz. XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida Turkiston o‘lkasida bir qator jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bular jumlasiga Yevropa turmush-tarziga xos hayot tarzining kirib kelishi, shaharsozlik, me’morchilik, transport, xizmat ko‘rsatish vositalari, kiyinish uslubi va kundalik boshqa jihatlar kiritish mumkin. Ayniqsa, rus xalqi, uning madaniyati va bu orqali Yevropa madaniyati va taraqqiyotiga xos jihatlar mahalliy aholi vakillarini e’tiborini befarq qoldirmadi.

Bu orqali, mustamlaka sharoitida tobora ko‘p elatli va ko‘p konfessiyali muhitning kuchayib borishi xalqlar o‘rtasida muloqotning oqilona tomonlarini izlashga ehtiyoj sezila borildi. Albatta mahalliy ziyolilar rus mustamlakachiligi oqibatlari xususida qayg‘urib, milliy qaramlik, huquqlarning kamsitilishiga doimo qarshi turdilar. Biroq ziyolilarning eskilik tarafdorlari bo‘lgan ulamolar hamda yangi islohotparvar qismi o‘rtasida rus halqi va G‘arb madaniyati bilan yaqinlashishga munosabat turlicha edi. Bunda ayniqsa, millatlararo tenglik va totuvlikka doir g‘oyalar milliy taraqqiyparvar - jadidlarning doimiy diqqat markazida turdi. Shu bois, o‘zlarining diniy va dunyoviy bilimlari, taraqqiyotga intilishlari bilan ular mahalliy va rus xalqlari o‘rtasida bag‘rikenglik tarafdorlari bo‘lib chiqdilar. Jadidlar, Yevropa xalqlarining madaniyati va texnologiyalar borasidagi yutuqlaridan bahramand bo‘lish O‘rta Osiyoni turg‘unlik xolatidan olib chiqishga ko‘maklashadi, deb hisoblashgan.

Rossiya imperiyasi va boshqa xorijdan kelgan xalqlar bilan mahalliy aholi o‘rtasida munosabatlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ko‘zga tashlanib bordi. Ular o‘rtasida

tolerantlik (bag‘rikenglik) munosabatlar albatta aholining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivoji uchun o‘ziga xos ahamiyatli bo‘lgan. Imperiyaning o‘lkada olib borgan mustamlaka siyosatiga qaramasdan, o‘lka tub joy xalqlari o‘z bag‘rikengligi, ochiq ko‘ngilliligi bilan hududga kelgan turli etnoslarni qarshilab, hamjihat munosabatlar olib bordi.

Natijada, bu ular o‘rtasida etnik va diniy tolerantlik, ya’ni bag‘rikenglik munosabatlarini rivojlantirib bordi. Tadqiqotchilar qayd etganidek, do‘stlik uchun birinchi qadamni ko‘p hollarda mahalliy millat kishilari qo‘yganlar. Turkistonda yashochi xalqlar o‘rtasida jiddiy ziddiyatlar deyarli kam bo‘lgan, bu holat faqat ayrim hollarda xususiy shaxslar o‘rtasida ro‘y bergan[6].

Xulosa

Ushbu bob bo‘yicha qisqacha xulosa qilganda, XIX - asrning oxiri – XX - asrning boshlarida Rossiyaning Turkistondagi mustamlakachiligi siyosiy, shu bilan birga, rus kapitalining iqtisodiy hukmronligi ham edi. Umuman, mustamlakachilik siyosati asosida olib borilgan ko‘chirish, ruslashtirish siyosati, Markaziy Osiyo umumiy bozorining shakllanishi, xom-ashyo yetkazish, kapitalistik munosabatlarning vujudga kelishi, mehnat taqsimoti jarayonlarining chuqurlashishi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar o‘lka shahar va qishloqlarida demografik o‘zgarishlarni sodir bo‘lishiga olib keldi. Bu o‘zgarishlar Rossiya imperiyasidan ko‘chirib keltirilgan xalqlarni joylashtirish hisobidan, mahalliy aholining sug‘oriladigan yerlarga ehtiyoji, aholi sonining ko‘payib borishi, xo‘jalik turmush tarzining o‘zgarishi, ya’ni o‘troqlashuv jarayonining kuchayishi, tug‘ilish va o‘lim, mehnat taqsimoti, bandlik va boshqa sohalardagi shu kabi demografik muammolarni keltirib chiqardi. Ayniqsa, bu muammolar mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi.

Ko‘p sonli aholiga ega Turkiston aholisining bu davrda milliy, etnik tarkibi bilan birgalikda, diniy tarkibi ham rang-barang bo‘ldi. Rossiya imperiyasining Yevropa qismi, Kavkaz, Ural, Volga va markaziy guberniyalaridan turli xalqlarning ko‘chirib kelinishi o‘lkada ma’lum diniy konfessiya jamoalarining vujudga keltirdi. General-gubernatorlikda ko‘p sonli musulmonlardan so‘ng, pravoslavlar, unday keyin yahudiylik, lyuteranlik dini vakilari ulushi nisbatan yuqori turdi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. O‘z MA, I-19-jamg’arma, 2-ro‘yxat, 271-yig’ma jild, 4-varaq.
2. O‘z MA, I-36-jamg’arma, 1-ro‘yxat, 3085-ish, 280-varaq.
3. IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda karaimlar deb ataladigan yahudiy oqimi paydo bo‘ladi. Bu oqim tarafdorlari faqat Torani (muqaddas kitob) tan olar, Talmudni esa inkor qilgan edilar. Qarang: Markaziy Osiyo xalqlari dinlari tarixi..., -B.48.
4. Нормуродова Г. XIX аср охири – XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. ..., -Б.80.
5. Кадырбаев А.Ш., Сыздикова Ж.С. Страна в Междуречье. (Очерки истории Узбекистана). - Москва, 2017. – С.261.
6. Брусина О.И. Славяне в Средней Азии. Этнические и социальные процессы. Конец XIX – конец XX века. – М., 2001. - С.144.

INSON SALOMATLIGINING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali

Javliyev Feruz Komilovich

Annatatsiya: Inson salomatligini har qancha moddiy boylik va mablag‘ evaziga sotib olib bo‘lmaydi. Har bir shaxs o‘zining yurish-turishi uchun mas’ul deb qabul qilingan demokratik jamiyatda, inson salomatligi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan oliy qadriyat darajasiga

ko‘tariladi. Aytishimiz mumkinki, so‘z, fikr, niyat, amal insonning axloqiy-estetik faoliyatida hamda xulqiy go‘zallikka erishish yo‘lidagi maqsad va intilishlariga asos bo‘ladigan, insonni to‘g‘ri faoliyati.

Kalit so‘zlar: *Jamiyat, Transformatsiya, Salomatlik, inson, estetik munosabat, zotan, so‘z, fikr, niyat, turmush estetikasi*

Аннотация: Здоровье человека нельзя купить никакие материальные блага и деньг. В демократическом обществе, где каждый человек несет ответственность за свое поведение, здоровье человека возведено на высший уровень важности. Можно сказать, что слова, мысли, намерения, дела являются основой нравственно-эстетической деятельности человека, а также целей и стремлений к достижению нравственной красоты, правильной деятельности человека.

Ключевые слова: *Общество, Трансформация, Здоровье, человек, эстетическое отношение, Я, слово, мысль, намерение, эстетика жизни.*

Abstract: Human health cannot be bought with any amount of wealth and money. In a democratic society, where each person is considered responsible for his or her own behavior, human health is elevated to the level of a supreme value of paramount importance. We can say that words, thoughts, intentions, and actions are the basis for a person's moral and aesthetic activities and goals and aspirations towards achieving moral beauty, which are the basis for the correct functioning of a person.

Keywords: *Society, Transformation, Health, human, aesthetic attitude, essence, word, thought, intention, aesthetics of life*

Sog‘lom turmush tarzi deganda ikkita muhim omil, ya’ni konkret hayotiy faoliyatning shaxsning genetik mohiyatiga mos kelishi va quyidagi asosiy holatlar e’tiborga olinadi: a) obyektiv ijtimoiy sharoitlarni ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan shartlash; b) muayyan hayotiy faoliyat shartlari asosida shaxsiy va tadbirkorlik kasbiy faoliyatini amalga oshirish; v) shaxsning dunyoqarashi va mentaliteti va ularning sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirilganlik darajasi bilan belgilanadigan shaxsiy motivatsiya omillari. Davlat darajasida inson salomatligi maqsad sifatida quyidagi omillarni muvofiqlashtirishni talab qiladi: huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ta’lim, oilaviy, shaxsiy-tibbiy, madaniy, ekologik va boshqalar. Zero, «... bugungi tez o‘zgarayotgan ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o‘rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko‘plab murakkab savollarga javob topish qiyin»[1].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, odamlar va ayniqsa, bolalarning sog‘lom turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan obyektiv va subyektiv omillar dunyoning barcha mamlakatlariga xosdir. Hamma joyda atmosferaning kimyoviy ifloslanishi ruhiy salomatlikka, shuning uchun miyaning funksional holatiga ta’sir qiladi. Shu boisdan ham mamlakatimizda «...psixologik salomatlikni keng targ‘ib etishga va psixik salomatlik bilim va ko‘nikmalarini yoshlar va kattalarda shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy, amaliy, ilmiy va fundamental loyihalar ta’sis etish»[2] muhim hisoblanadi.

[1] Mirziyoyev SH.M. Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. -T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 464.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 472-

Jamiyatdagi transformatsion o‘zgarishlarning inson salomatligiga ta’sirini estetiklashtirish ushbu o‘zgarishlarni vizual jozibali yoki hissiy rezonansli tarzda taqdim yetishni va tomoshabinlarni ularning farovonlikka ta’siri haqida xabardor qilishni o‘z ichiga oladi. Bunga qanday yondashishingiz mumkin:

Vizual hikoya qilish: Jamiyatdagi o‘zgarishlarni tasvirlash uchun fotosuratlar yoki videolar kabi jozibali tasvirlardan foydalaning. Misol uchun, shovqinli shahar hayotining sokin tabiat manzaralari bilan qarama-qarshi bo‘lgan sahnalari urbanizatsiyaning ruhiy salomatlikka ta’sirini ta’kidlashi mumkin.

Infografika: Sog‘liqni saqlash natijalariga ijtimoiy o‘zgarishlarning ta’siri haqida statistik ma’lumotlarni ko‘rsatadigan estetik jihatdan yoqimli infografikani yarating. Asosiy xabarlarni samarali yetkazish uchun ranglar, piktogramma va tipografiyadan foydalaning.

Badiiy installatsiyalar: rassomlar jamiyatdagi o‘zgarishlar va inson salomatligi chorrahasini aks yettiruvchi installatsiyalarni yaratish uchun komissiY. Ushbu o‘rnatishlar fikrni uyg‘otish va suhbatlarni uyg‘otish uchun jamoat joylarida ko‘rsatilishi mumkin yedi.

Interaktiv media: foydalanuvchilarga ijtimoiy o‘zgarishlarning salomatlikka ta’sirini qiziqarli vizual tasvirlar, animatsiyalar va hikoyalar orqali o‘rganish imkonini beruvchi interaktiv veb-saytlar yoki ilovalarni ishlab chiqish.

Hujjatli filmlar: Jamiyatdagi transformatsion o‘zgarishlar va ularning sog‘liqqa ta’siri ortidagi insoniy hikoyalarni o‘rganadigan hujjatli filmlar yarating. Hissiy javoblarni uyg‘otish va yempatiyani rivojlantirish uchun kinematik usullarni qo‘shish.

Ijtimoiy media kampaniyalari: Ijtimoiy o‘zgarishlar va salomatlik natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida xabardorlikni oshirish uchun vizual tarzda ajoyib grafikalar va videolarni o‘z ichiga olgan ijtimoiy media kampaniyalarini ishga tushiring. Foydalanuvchilarni o‘z tajribalari va istiqbollarini baham ko‘rishga undash.

Art-terapiya seminarlari: Ishtirokchilar rasm, kollaj yoki she’riyat kabi turli san’at turlari orqali jamiyatdagi o‘zgarishlar va ularning sog‘liqqa ta’siri haqida o‘z fikrlari va his-tuyg‘ularini ifodalashlari mumkin bo‘lgan seminarlarni tashkil qilish.

Virtual haqiqat tajribalari: foydalanuvchilarga ijtimoiy o‘zgarishlarni aks yettiruvchi turli ssenariylarga o‘tish va ularning sog‘liqqa ta’sirini bevosita guvohi bo‘lish imkonini beruvchi immersiv virtual haqiqat tajribalarini ishlab chiqing.

Jamiyatdagi transformatsion o‘zgarishlarning inson salomatligiga ta’sirini estetiklashtirib, siz sog‘lom jamoalarga ta’lim berish va harakatni ilhomlantirishning qiziqarli va ta’sirli usullarini yaratishingiz mumkin.

Jamiyatdagi transformatsion o‘zgarishlarning inson salomatligiga ta’sirini estetiklashtirish mavzusi ta’lim, atrof-muhit o‘zgarishi, vizual estetika, yekologiya va hatto sog‘liqni saqlash muassasalarining estetikasi va transformatsion ta’lim kabi turli sohalarning yelementlarini birlashtiradi.

Umuman olganda, tabiiy go‘zallik jismoniy va ruhiy salomatlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi, shuning uchun uni kundalik hayotga kiritish insonning umumiy farovonligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda estetik idrokning rivojlanishi muhim rol o‘ynaydi. Bu sodir bo‘lishining bir necha yo‘li:

---

son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.06.2019 y., 09/19/472/3253-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.08.2021 y., 09/21/511/0793-son.

Oziq-ovqatlarni qadrlash: Oziq-ovqatga estetik munosabatni rivojlantirish odamlarga sog‘lom ovqatlanishni tanlashga yordam beradi. Oziq-ovqatlarning tashqi ko‘rinishi, xushbo‘yligi, tuzilishi va ta’mini qadrlashni o‘rganish sizga yangi, tabiiy, to‘yimli ovqatlarni tanlashga yordam beradi va qancha ovqatlanishingizga e’tibor beradi.

Jismoniy faollik: estetik idrok yetishning rivojlanishi estetik qoniqish asosida jismoniy faoliyatni tanlashni osonlashtirishi mumkin. Misol uchun, raqs, yoga, suzish yoki manzarali yurish nafaqat sog‘liq uchun foydalari, balki estetik jihatlari uchun ham jozibali bo‘lishi mumkin.

Atrof-muhit: Estetik ongni rivojlantirish odamlarga go‘zal, mehmondo‘st va ilhomlantiruvchi muhitlarni yaratishga yordam beradi. Bu uy va ish joyini bezash, shahar atrofini obodonlashtirish yoki dam olish va dam olish uchun tabiiy hududlarni rivojlantirishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Ochiq havoda dam olishni tanlash: estetik tuyg‘uni rivojlantirish odamlarni faolroq va ijodiy dam olish shakllarini tanlashga ilhomlantirishi mumkin. Tabiat qo‘ynida sayr qilish, muzey va ko‘rgazmalarga borish, teatr va konsertlarga borish – bularning barchasini estetik qoniqish prizmasi orqali sog‘lom turmush tarziga kiritish mumkin.

Farovonlik va tashqi ko‘rinishni baholash: Estetik idrokni rivojlantirish odamlarga sog‘lig‘i va tashqi ko‘rinishi haqida ko‘proq ongli bo‘lishga yordam beradi. Bu sog‘lom kosmetika va terini parvarish qilishni tanlash, kiyim va aksessuarlar turini qadrlash, jismoniy holat va shaklga g‘amxo‘rlik qilishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Umuman olganda, estetik idrokning rivojlanishi odamlarga o‘z hayotining turli jabhalarida go‘zallikni ko‘rishga yordam beradi, bu yesa o‘z sog‘lig‘i va atrof-muhitga qadriyat va hurmatga asoslangan sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Odamlarda salomatlik estetikasini shakllantirishning falsafiy muammolari bizning estetika, yetika haqidagi tushunchamiz va bu tushunchalarning inson tajribasi va xulq-atvorini shakllantirishdagi roli bilan chuqur bog‘lanadi. Sog‘liqni saqlash estetikasini o‘rganish nafaqat go‘zallik va farovonlik haqida fikr yuritishni, balki bu ideallar bizning qadriyatlarimiz, amaliyotlarimiz va yaxshi hayot kechirish nimani anglatishini tushunishga qanday ta’sir qilishini va aks yettirishning axloqiy jihatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Estetika, shu jumladan salomatlik estetikasi nafaqat san’at va go‘zallik sohasini qamrab oladi, balki inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi va bizning estetik tajribalarimiz va mavjudlikning axloqiy, madaniy va shaxsiy o‘lchovlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’kidlaydi.

Tabiat estetikasi va uning inson holatiga munosabati estetik tajribalarning dunyo va o‘zimizni tushunishimizni shakllantirishdagi muhimligini ta’kidlaydi, estetikani hayotimizga integratsiyalashning falsafiy ahamiyatini ta’kidlaydi.

Insonning estetik afzalliklari, shu jumladan salomatlik va farovonlik bilan bog‘liq bo‘lganlar psixologik jarayonlarda chuqur ildiz otgan, bu bizning estetik mulohazalarimizga hissiy, kognitiv va hissiy omillarning murakkab o‘zaro ta’siridan dalolat beradi.

Estetikaning roli inson hayoti kontekstida yuzaga keladigan murakkab estetik muammolarni tushunish va boshqarishda hal qiluvchi ahamiyatga yega bo‘lib, estetikani falsafiy tadqiq qilish individual qadriyat va hayotning ma’nosini anglash uchun muhim ahamiyatga yega. Estetik fikrlarning salomatlik va salomatlik tashabbuslariga integratsiyalashuvi ushbu dasturlarning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu yesa yaxlit salomatlik va farovonlikni ta’minlashda estetikaning muhimligini ta’kidlaydi.

Sog‘lom turmush tarzi estetikasi sog‘lom turmush tarziga asoslangan go‘zallik, muvozanat va uyg‘unlik ideallarini o‘zida mujassam yetgan. Ushbu estetikani tavsiflovchi bir nechta asosiy yelementlar:

Jismoniy faollik: Sog‘lom turmush tarzi tanani mustahkamlaydigan va unga inoyat beradigan muntazam jismoniy mashqlarni o‘z ichiga oladi. Bu sport, yoga, suzish yoki shunchaki faol hayot tarzi bo‘lishi mumkin.

To‘g‘ri ovqatlanish: Oziq moddalar, vitaminlar va minerallarga boy sog‘lom ovqatlanish teri, soch va tirnoqlarning go‘zalligiga, shuningdek, umumiy salomatlikka yordam beradi. Meva, sabzavotlar, yong‘oqlar, donalar va oqsillar diyetaning asosini tashkil qilishi kerak.

O‘z-o‘zini parvarish qilish: sog‘lom turmush tarzining estetikasi teri, soch va tanani muntazam parvarish qilishni o‘z ichiga oladi. Bunga teringizni tozalash, namlash, yotishdan oldin bo‘yanishni olib tashlash, sochingizni muntazam ravishda kesish va boshqalar kiradi.

Psixologik farovonlik: ongingiz va hissiy farovonligingiz haqida g‘amxo‘rlik qilish sog‘lom turmush tarzi uchun ham muhimdir. Meditatsiya bilan shug‘ullanish, stressni boshqarish, chegaralarni belgilash va sog‘lom munosabatlarni saqlash aqliy muvozanatni ta’minlaydi.

Moderatsiya: Sog‘lom turmush tarzi estetikasi hamma narsada - ovqatlanish, jismoniy faollik, dam olish va hayotning boshqa sohalarida meyorni o‘rgatadi. Muvozanatli yondashuv uyg‘unlikni saqlashga va ortiqcha ish yoki ortiqcha stressdan qochishga yordam beradi.

Tashqi ko‘rinish: Sog‘lom turmush tarzi estetikasi ko‘pincha tabiiy va yangi ko‘rinish bilan bog‘liq. Bu tabiiy bo‘yanish, kiyimdagi tabiiy matolar va tabiiy go‘zallik va sog‘likka ye’tiborni o‘z ichiga olishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nurmatrva M. Shaxs komolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi. –Toshkent: Universitet, 2009. -48 b
2. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li // O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – Toshkent: O‘zbekiston,1996. – B.80
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. -171 b.
4. Erkin va farovon hayotni yuksak ma’naviyatsiz qurib bo‘lmaydi. / Muharrir Xudoyorova B. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006. – B.16.
5. Borodina N.K. Duxovnost: fenomen i ponimaniye. – Volgograd: Volg. GASA, 1999. – s.37.
6. Maslow A.H. A Theory of Human Motivation//Psychological Review. 1943. 50.P.370

6. Darvin CH. AvtobiografiY. M., 1957. – 157 b.

7. Dadaboyev M. Ma’naviyat, musiqa, din. //Guliston. 2002, №1.B. 19-23

IJTIMOIY HAMKORLIK, O‘ZARO YORDAM VA JAMIYAT IJTIMOIY AXLOQI

Ibragimov Jahongir Toshniyozovich

Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi

jahongir.5066@gmail.com

Annotatsiya: Jamiyatimizda ko‘p asrlardan beri shakllanib kelgan ijtimoiy muhofaza, ijtimoiy yordam, o‘zaro ijtimoiy hamkorlik, jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy munosabatlarga kirishish jarayonlari, davlat boshqaruvida ijtimoiy hamkorlik munosabatlari, xalq farovon yashashi eng oliy maqsad ekanligi, muqaddas e’tiqodimiz, ulug‘ ajdodlarimiz ma’naviy merosi, xalq ijtimoiy-ma’naviy qiyofasi va zamonaviy sharoitlarda unga xavf solayotgan muammolar,

Forobiyning asarlarida ta’lim-tarbiya va odob-axloq masalalari va ular yuzasidan fikrlar ilgari surilgan, maqola yuzasidan xulosalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy axloq, fozil shahar kishilari, fozil jamiyat, ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy munosabat, o‘zaro yordam, xalq farovonligi, demokratik davlat, ijtimoiy barqarorlik, xalq, ta’lim-tarbiya, davlat boshqaruvi.

Buyuk ajdodlarimizga xos azmu shijoat, xalqimizning metin irodasi, tobora ulg‘ayib kelayotgan barkamol avlodimizga tayanib, jamiyatimiz hayotini tubdan yangilash yo‘lini izchil davom ettirish - eng dolzarb vazifamizdir.[1]

Ijtimoiy fanlar va ijtimoiy ish sohasidagi tadqiqotlar, amaliy va nazariy tadqiqotlar bizning atrofimizdagi ijtimoiy borliqni, voqelikni tushinish, anglash uchun juda ham muhim hisoblanadi. Soha bo‘yicha izlanishlar inson va jamoalarning ijtimoiy xulq-atvori va qadriyatlar tizimini o‘rganadi.[2]

Jamiyatimizda ijtimoiy muhofaza, ijtimoiy hamkorlik va ijtimoiy axloq masalalari muhim amaliy ahamiyatga ega. Ijtimoiy axloq tushunchasining o‘zi axloqiy munosabatlarni, insonning jamiyatdagi qadriyatlarini, maqsad va burchlarini anglatadi. Axloqning ko‘rinishlaridan biri intizom bo‘lib, u insonning boshqa odamlar va tabiat bilan munosabatlarda mas’uliyati mavjud ekanligini nazariy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi va tartibga solish funksiyasiga egadir. Shu bilan birga intizom, ijtimoiy ahamiyatga ega normalar va majburiyatlar tizimi natijasida tug‘ilgan harakatlarga qaratilgan.

Ijtimoiyotchi olimlar jamiyat ijtimoiy tuzilmalarida tarixan shakllangan ikki asosiy maqsad namoyon bo‘lishini qayd etadilar: birinchisi – jamiyat a’zolari tomonidan umumiy maqsadlarni nazarda tutuvchi tushunchalar tizimi bo‘lib, unda yaxlit ijtimoiy tuzilma sifatida jamiyat o‘z-o‘zini saqlash va rivojlantirish uchun madaniy qadriyatlar tizimini yaratadi va uni saqlashga intiladi. Bunda jamoaviy hayotning eng asosiy tamoyillarini o‘zida mujassam etuvchi qadriyatlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi va aniq bir davrni nazarda tutmaydi, jamiyat hayotining butun davri uchun ta’sir kuchiga ega bo‘ladi; ikkinchisi – muayyan davrni nazarda tutuvchi, shu davrgagina xos bo‘lgan meyyorlar yig‘indisi bo‘lib, odatda bu meyyorlar jamiyat hayotining qaysidir bir qismini, sohasini tashkil etuvchi, nazorat qiluvchi davriy xususiyatga ega qadriyatlarni nazarda tutadi. Bunda davriy evrilishlar natijasida jamiyat a’zolari hayotida yuzga keluvchi ijtimoiy hodisalar va ular bilan bog‘liq holda qo‘llaniluvchi meyyorlar va qadriyatlar ko‘zda tutiladi.[3]

Zamonaviy globallashuv jarayonlari muhitida jamiyatlarda ijtimoiy-ma’naviy qiyofaning, jamiyat a’zolarining ijtimoiy hodisalar va ularning oqibatlariga nisbatan qarashlari va fikrlash tarzi

---

[1] Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 9-bet.

[2] Science and Social Work. Social Service Review. Volume 60, Number 1Mart., 1986. Article DOI https://doi.org/10.1086/644353

[3] Социальная теория и социальная структура / Роберт Мертон. — М.: АСТ: АСТ МОСКВА: ХРАНИТЕЛЬ, 2006.-с.245.

jiddiy o‘zgarishlarga uchramoqda. Jumladan, O‘zbekistonda yangi davrda insonlarning turli xorijiy jamiyatlar bilan ijtimoiy-integrativ munosabatlar oqibatida ijtimoiy muhitning tobora sifat o‘zgarishlarga uchrayotganligini kuzatishimiz mumkin. Bu borada muammoning tub ildizlariga nazar solinsa, barcha masalalar ulug‘ ajdodlarimiz, milliy an’analarimiz va muqaddas e’tiqodimizdan chetlashib borayotganligimizga borib taqaladi.[1]

Jamiyat ijtimoiy hayotidagi tarixiylik va qadriyatlarga bog‘liqlik hodisasi boshqa olimlar tominidan ham o‘z ilmiy ishlarida alohida ta’kidlangan. Jumladan, Diane DePanfilisning “Back to the Future: Using Social Work Researchto Improve Social Work Practice”[2] nomli maqolasida jamiyatlardagi ijtimoiy masalalarni hal etishda asosiy e’tibor yangi texnologiyalarni kashf etishga emas, balki tarixan shakllanib kelgan “jamiyatda birgalikda yashab kelgan insonlar jamoalari o‘rtasida ko‘p asrlardan beri shakllanib kelgan o‘zaro yordam va ijtimoiy hamkorlik g‘oyalariga qaratilishi lozim”ligiga, ya’ni an’analarga, ularning tarixiy davomiyligini ta’minlashga qaratilgan. Buning uchun yangi davr insonlarini jamiyat ma’naviy qadriyatlari nuqtai nazaridan tizimli tarbiyalash, umuminsoniy vorisiylikni saqlashga e’tibor berilgan.

“Ijtimoiy ish” atamasi O‘zbekistonga MDHning boshqa davlatlaridan farqli, nisbatan yaqin yillarda - o‘tgan asrning 90-yillarida kirib keldi. Mazkur G‘arbga oid atamaning mamlakatimiz ijtimoiy amaliyotiga ko‘chirib o‘tkazilishi yagona geosiyosiy makonning parchalanishi, shuningdek, aholining turli qatlamlarini himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyojlarini shakllantirish, uni tashkillashtirish shakllarini belgilash bilan bog‘liq. Ijtimoiy ish fenomeniga murojaat qilishning muhim omili - tafakkurning problematika va multimadaniy jihatdan qaraladigan muayyan turining rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Qashshoqlarga moddiy yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan xayriya an'anasi muhtojlarga ko‘ngilli tarzda pul, mulk va xizmatlarni taqdim qilishda namoyon bo‘lgan. Odamlarni xayriya amallarini sodir etishga majburlagan asosiy sabablar diniy, ma'naviy sabablarga, insonparvarlik tufayli boshqa odamlarning farovonligiga ko‘maklashishga asoslangan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bularning bari tashqi majburlash natijasi emas, balki o‘z istagi bilan va ongli ravishda amalga oshirilgan harakatlar demakdir.

Jamoadagi ijtimoiy yordam mexanizmining o‘ziga xos xususiyatlari har bir inson o‘zi tegishli bo‘lgan an'anaviy tuzilmalar himoyasi ostida bo‘lishidan iborat. Mazkur tuzilmalar o‘z a'zolariga yordam ko‘rsatuvchi oila va jamoani qamrab olgan. Shunday qilib, O‘zbekiston hududidagi qadimiy jamoa tarbiya, ishga joylashtirish, bo‘sh vaqt kabi muammolarning ahamiyatli qismini hal etgan va shaxs, oila, guruh darajasida ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha o‘ziga xos jamoaviy markaz bo‘lib xizmat qilgan.

Qadimda yordam ko‘rsatish va jamoa a'zolarini qo‘llab-quvvatlash shakllaridan biri *xashar* - jamoaning uy, ko‘prik, to‘g‘on, kanallar qurishdagi xolis va ko‘ngilli yordami bo‘lgan. Bu kabi ko‘ngilli yordam odamlar orasidagi ijtimoiy birdamlikni mustahkamlagan va ishning butun hajmini bajarish uchun qo‘shimcha ishchi kuchi talab etilgan hollarda ixtiyoriy ravishda

[1] Jahongir Toshniyozovich Ibragimov - Академия Google. https://scholar.google.com/citations?view_op=list_works&hl=ru&user=WtrCbdgAAAAJ

[2] Back to the Future: Using Social Work Researchto Improve Social Work Practice. Diane DePanfilis University of Maryland. https://www.journals.uchicago.edu/doi/10.1086/675852 Journal of the Society for Social Work and Research Volume 5, Number 1 Spring 2014 pp. 1–21

tashkillashtirilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o‘zaro yordam ko‘rsatishning ushbu qadimiy urf-odati bugungi kunda ham saqlanib qolgan.

Muhtoj kishilarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish shakllari kengayib bormoqda, chunki jamiyat madaniy qadriyatlarning yangi turlariga ehtiyoj sezmoqda. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatish vazifalari masjidlar, Shuningdek, ijtimoiy-diniy uyushmalarga yuklatilgan. Yordamning eng keng tarqalgan individual shakli islomning asosiy jihatlaridan biri zakot berish hisoblanadi.

Jamiyatda insonlarning axloqi bevosita munosabatlarga kirishish jarayonida namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda ijtimoiy axloq quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

- oilada, chunki u odamlarning jamiyat bilan birinchi aloqasi va shuning uchun hamjihatlikning o‘zi bilan uning rivojlanishiga imkon beradigan me’yorlar va qadriyatlarni jamiyat ichida singdirish uchun mas’ul bo‘lgan kishidir. Har bir inson o‘z vazifalariga rioya qilgan holda va boshqalarning huquqlarini hurmat qilgan holda ish tutushi oilaga bog‘liq.
- jamiyat ushbu qoidalarni qo‘llab-quvvatlovchi qoidalar va qonunlarni yaratishga mas’uldir. Ya’ni qaysi xulq-atvor qabul qilinadi va qaysi biri qabul qilinmasligini hal qiladi.
- davlat – jamiyat ichidagi xulq-atvor me’yorlarini qo‘llash va amalga oshirishga mas’ul hisoblanadi.

Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.[1]

O‘rta asr mutafakkirlaridan biri bo‘lgan Abu Nasr Farobiyning inson va jamiyat, ularning o‘zaro ta’siri, davlat, siyosat, urush va tinchlik kabi masalalariga bag‘ishlangan “Fozil shahar kishilarining qarashlari” asarida ham odob-axloq, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlari bayon etilgan. Farobiy yosh avlodni kamolga yetkazish u yashayotgan jamiyatdagi muhit, hayotiy tajriba, ta’lim-tarbiyaning ta’siri va bu ta’sir natijsida ular o‘zlaridagi ijobiy yoki salbiy xislat-fazilatlarni namoyon qilishlarini aytadi. “Insonlar tug‘ilganida kamolotli bo‘lib tug‘ilmaydi, ularni orasida aslida farq ham bo‘lmaydi, ularning xulqi, faoliyati, hayoti o‘xshash bo‘ladi, keyinchalik esa o‘zgaradi”.[2] Demak insonlarning axloqi tug‘ilib, ijtimoiy munosabatlarga kirisha boshlaganidan keyin o‘zgara boshlaydi.

Aynan Farobiy jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayotida katta voqealarga boy bo‘lgan ilk o‘rta asr davrida yashadi. Farobiy ijtimoiy hayot haqida va undagi axloqiy munosabatlarni “al-madaniyya” ya’ni siyosiy faniga bir qism sifatida axloq va ta’lim-tarbiyani kiritadi. Bunda axloq fani – jamiyat a’zolarining xatti-harakatlari haqidagi bilim hisoblanadi. “Inson tabiiy xislatlarga ega – bular undagi xulq-atvor va xatti-harakatlarga sabab bo‘ladilar, deb tushuntiradi. Sohibi qonun bu xislatlarni nazarda tutishi, ularni nazarda tuzatish, shu xislatlarni tuzatuvchi qonunlar chiqarishi kerak, chunki bu bilan sohibi qonun fuqaroning xulq-atvorini ham tuzatadi”.[3] Farobiyning fikricha, davlat ikki xil boshqaruvda bo‘ladi: ular haqiqiy yoki hayoliy baxt-saodatga yetaklab olib boruvchi. Demak bunda davlatni to‘g‘ri boshqarish kerakligi nazarda

[1] Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 225-bet.
[2] Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993y. 19-bet.
[3] O‘sha asar.. 23-bet.

tutilmoqda. Bundan tashqari davlat aholisi baxt-saodatga erishishi uchun faqat to‘g‘ri yo‘ldan borishi va adolat tamoyiliga asoslangan holda boshqarilishi aytib o‘tilgan.

Kishilar jamiyatga turli maqsadlari yuzasidan birlashadilar. Dunyoga kelishi bilanoq insonlarda ehtiyojlar paydo bo‘ladi va bu extiyojlarni yakka o‘zi qondirala olmaydi. Ma’lum darajada ijtimoiy aloqalarga kirish orqali jamiyat a’zolariga qo‘shiladi. Jamiyat esa turli xil xalqlardan tashkil topadi. Farobiy xalqlarning fe’l-atvorini va o‘ziga xos xislatlarini u yoki bu xalq yashayotgan xalqning jo‘g‘rofiy sharoit xususiyatlari bilan bog‘liq holda tushuntiradi. Shahar-davlatlarni Farobiy fozil yoki orzudagi va johilga ajratadi. Orzudagisi – shunday bir shaharki, unda barcha o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritadi va shu sababli mavjuddir. Davlatning ikki xil vazifasi bo‘lib, ular tashqi va ichki hisoblanadi. Tashqi vazifasi shahar-davlat aholisini tashqi xavf va dushmanlardan himoya qilish bo‘lsa, ichki esa xalq farovonligini, ularning baxt-saodatga erishishini ta’minlashdir. Bundan biz o‘sha davrda davlatda xalq farovonligi birinchi o‘rinda ekanligini, ular bilan o‘zaro hamkor ravishda faoliyat olib borganini ko‘rishimiz mumkin. Forobiy davlatda avvalo xalq roziligini, ijtimoiy barqarorlikni, shu bilan birga boshqaruv shaklining o‘zigina emas, balki sog‘lom aqlga to‘g‘ri kelishi ham muhim ekanligini aytadi.

Davlat va jamiyatning pirovard maqsadi bo‘lgan umumiy baxt-saodatga erishish muammosi Farobiy ta’limotida muhim o‘rin tutadi. Bunga yo‘l esa ilm-fan va ta’lim-tarbiyadir. “Jamiyatning rivojlanish jarayoni. jamiyatda yashayotgan insonlarga nisbatan ijtimoiy munosabat orqali belgilanadi”.[1] Albatta, jamiyat, butun bir davlat yuksalishi uchun xalq farovon hayot kechirishi lozim. Ya’ni xalqqa adolatli munosabatda bo‘lish, ularga barcha zarur shart-sharoitlar yaratib berish muhimdir. Zero Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek “Xalq rozi bo‘lsa, ishimizda unum va baraka bo‘ladi.” Xalqni rozi qilish qanchalik muhim ekanligiga yana bir bor amin bo‘ldik.

Ijtimoiy hamkorlik har qanday jamiyat uchun hayotiy zarurat hisoblanadi. Chunki jamiyatda shunday hamkorlik bo‘lmasa, yurtda tinchlik va osoyishtalik, o‘zaro hamjihatlik ham bo‘lmaydi. Bunday qadriyatlar bo‘lmagan davlat esa hech qachon taraqqiy etmaydi. Farobiy ham o‘zining “Fozil shahar kishilarining qarashlari” asarida yurt tinchligini, uning muhofazasini birinchi qo‘ygan. Avvalo shahar-davlat boshqaruvchisi bo‘lish uchun bir qancha xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim. “Bunday shahar hokimi bo‘ladigan odam (Allohdan boshqa) hech kimga bo‘ysunmasligi kerak. Fozillar shahrining birinchi boshlig‘i shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo‘lib, u tabiatan o‘n ikkita xislat-fazilatni o‘zida birlashtirgan bo‘lishi zarur. Fozillar shahri hokimi avvalo to‘rt muchali sog‘-solim bo‘lib, o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarishda biror a’zosidagi nuqson unga xalal bermasligi lozim. Aksincha u sog‘-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim.”[2] Mana shu kabi xislatlarning bir odamda jamlanishi amri mahol, zero bu kaki tug‘ma fazilatlar sohibi bo‘lgan odamlar juda kam uchraydi va ular nodir insonlardir. Demak ko‘rishimiz mumkinki, davlat boshqaruvi muhim masala bo‘lib, uni hamma ham boshqara olmaydi. Haqiqiy hukmdorgina avvalo o‘z jamiyatini mustahkamlaydi. Yanikim, o‘sha

[1] Ijtimoiy ish etikasi. Darslik, F.X.Nabiyev, S.X.Tadjiyeva. – T:”Fan va texnologiya”,2015-y.7-bet.

[2] Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993y. 160-bet.

boshqaruvchining o‘zi sog‘lom fikrlaydigan, tafakkur qila oladigan va har qanday vaziyatdan chiqib keta oladigan bo‘lishi zarur.

O‘zaro yordamga intilish insonlarga xos xususiyatdir. Bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan davrda inson va uning hayoti muhim hisoblanadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Eng asosiysi, islohotlarimiz natijasini yurtimizda yashayotgan har bir inson, har bir oila o‘z kundalik hayotida his etishi kerak.”[1] Shu sababli ham huquqiy demokratik davlat qurishda ham avvalo jamiyat mustahkamligi masalasi birinchi o‘rinda turadi. Chunki albatta jamiyat insonlar va ularning jamoalaridan tashkil topgan. Abu Nasr Farobiyning asarida ham ifodalangan yetuk jamiyat g‘oyasi bugungi kundagi tushchalarga, demokratik jamiyatga to‘g‘ri keladi. “Ma’lumki, demokratik jamiyatda qonun ustuvor bo‘lib, butun ijtimoiy hayot ana shu qonunlar asosiga qurilgan. Shu ma’noda yetuk jamiyatda, avvalo siyosiy erkinlik mavjud bo‘ladi. Unda tenglik tushunchasi kun tartibida bo‘lib, bu me’yor jamiyatning asosi bo‘ladi.”[2] Shu o‘rinda Farobiyning fikricha, jamiyat davlat bilan kuchlidir. Chunki u yetuklashgani sayin o‘z a’zolarini himoyaga oladi. Bunga aynan “fozil jamiyat konseptsiyasi” yaqqol misoldir. Har qanday shahar-davlat-jamiyatning ma’lum bir vazifalarni bajaruvchi boshqaruvchi tizimi va lozim bo‘lganda yakuniy va qat’iy qaror chiqarishga qodir boshqaruvchisi bo‘lishi, u o‘zida mujassam bo‘lgan sifat-fazilatlar bilan boshqalardan ajralib turishi shart bo‘lgan. Jumladan, jamiyat rahbariga xos bo‘lgan ko‘plab sifatlar ro‘yxatida jismoniy salomatlik, sog‘lom farosat, kuchli idrok sohibi bo‘lish, o‘tkir zehn, fasohatli nutq, ilm-ma’rifat sohibi bo‘lish, meyyorli bo‘lish, haqiqat oshig‘i va haq so‘z homiysi, or-nomusli va hamiyatlilik, oliy himmatlilik, dunyodan ustun turuvchi, odillik va jasorat kabi o‘n ikki sifat va fazilatlar haqida “Fozil shahar hokimining fazilatlari” bobida fikr yuritilgan.[3] Shuningdek, boshqaruvchilarni tanlashda “eng afzali” tamoyilini ham batafsil bayon qilinganki, bu tamoyillarga amal qilish bilan har qanday jamiyatda ideal boshqaruv tizimini tashkil qilish mumkin bo‘ladi.[4] Shu bilan birga asarning 29-bobi “Fozillar shahrining ziddi bo‘lgan shaharlar haqida” bo‘lib, alloma bu bobda jamiyatni tubanlikka olib boruvchi vositalar, xulq-atvor va turmush tarsi haqida fikrlarini bayon qilgan.[5]

Jamiyatlar ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini ijobiy yoki salbiy sifatlarga boshlovchi turmuz tarzi, insonlarning axloqiy sifatlari va tafakkur tarzi haqidagi barcha davrlarda ham o‘z ahamiyatini va mohiyatini yo‘qotmoydigan ijtimoiy fikrlar 33-bob “Fozillar shahri aholisining umumiy fikrlari”[6] va 34-bob “Jaholatdagi va adashgan shaharlar ahllarining fikrlash usullari”[7] boblarida keltirilgan bo‘lib, agar diqqat qilinsa salbiy jihatlarning deyarli barcha jihatlarini

[1] Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. 2021-yi. 33-bet.
[2] S.To'ychiyev, A.Sh.Norbekov, Ijtimoiy siyosat fanidan o‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2010. 13-bet.
[3] Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993y. 159-bet.
[4] O‘sha asar. 161-bet.
[5] O‘sha asar. 162-bet.
[6] O‘sha asar. 166-bet.
[7] O‘sha asar. 169-bet.

bugungi G‘arb jamiyatlarida ko‘rish mumkin. Go‘yoki, ulug‘ mutafakkir bobomiz o‘sha davrlardan turib bugungi kunlarga nazar tashlagan va bizni kata halokatlardan ogohlantirgandek go‘yo.

Bu masalada Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari nihoyatda adolatli va o‘rinlidir: “Milliy ma’naviyatimizga mutlaqo begona bo‘lgan zararli g‘oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta’bir joiz bo‘lsa, “chaqirilmagan mehmon” bo‘lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg‘ak bolalarimizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan ham ko‘z yuma olmaymiz.[1]

Bugungi kunda biz ham davlatimizda o‘z umrini yashab bo‘lgan eski qarashlardan chekinib, yangi davrni barpo etishni, shu bilan birga yangi voqealik bo‘y ko‘rsatishini anglab yetdik va guvohi bo‘lmoqdamiz. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Prezidentimiz aytganlaridek, “Jamiyatimizning yangi qiyofasi” tushunchasi qotib qolgan voqelik yoki o‘zgarmas aksiomani anglatmaydi. Biz uchun endi yangi davr eshiklari ochildi. Ushbu eshikdan qanday kirib borishimiz albatta o‘z qo‘limizda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi demokratik islohotlar davrida jamiyat va uning a’zolarining roli muhim hisoblanadi. Chunki har qanday davlatni insonlar va jamoalar tashkil qiladi. Ularning qay ahvolda ekanligi esa mana shu mamlakatni baholab beradi. Jamiyatdagi ijtimoiy axloqiy munosabatlarni tartibga solish, yosh avlodni kamolga yetkazishda u yashayotgan jamiyatdagi muhit, hayotiy tajriba, ta’lim-tarbiyaning ta’siri to‘laqonli mavjud hisoblanadi. Ijtimoiy axloq jamiyat ichida birgalikda yaxshi yashash uchun zarurdir. Shunday ekan, ijtimoiy axloq shaxslarning har bir harakatning bizni o‘rab turgan narsalarga ta’sir qiladigan oqibatlarini borligini anglash qobiliyatiga bog‘liq. Buni anglab yetgach, inson nafaqat o‘zi haqida, balki boshqalarni ham o‘ylab harakat qiladi.

Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy- ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma’naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur.[2]

Kelajakda jamiyatimizning ayrim G‘arb jamiyatlari kabi tuzatib bo‘lmas darajadagi ijtimoiy-ma’naviy muammolarga duchor bo‘lmasligi uchun buyuk ajdodlarimiz merosi, xalqimizning tarixiy xotirasiga bog‘liq an’analar va muqaddas e’tiqodimiz durdonalarini saqlash va kelajak avlodlarga sof holda yetkazib berish dolzarb vazifalardan biridir.[3]

---

[1] Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 268-bet.

[2] Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 225-bet.

[3] Jahongir Toshniyozovich Ibragimov - Академия Google. https://scholar.google.com/citations?view_op=list_works&hl=ru&user=WtrCbdgAAAAJ

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. - 464 bet.
2. Sh.Mirziyoyev Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020-yil // https://president.uz/uz/lists/view/4057 (Murojaat sanasi 31.12.2020 yil);
4. S.To‘ychiyeva,A.Sh.Norbekov. “Ijtimoiy siyosat” fanidan o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2010
5. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993y. 224 b.
6. F.X.Nabiyev, S.X.Tadjiyeva. Ijtimoiy ish etikasi. Darslik T:”Fan va texnologiya”. 2015 y.
7. Jahongir Toshniyozovich Ibragimov - Akademiya Google. https://scholar.google.com/citations?view_op=list_works&hl=ru&user=WtrCbdgAAAAJ
8. Lex.uz – Milliy huquqiy hujjatlar elektron bazasi;
9. Hayotiy vaziyatlar. https://my.gov.uz/oz/life-situations/7
10. Back to the Future: Using Social Work Researchto Improve Social Work Practice. Diane DePanfilis University of Maryland. https://www.journals.uchicago.edu/doi/10.1086/675852 Journal of the Society for Social Work and Research Volume 5, Number 1 Spring 2014 pp. 1–21.
11. Science and Social Work. Social Service Review. Volume 60, Number 1Mar., 1986. Article DOI https://doi.org/10.1086/644353.
12. *Social Work and Social Work Education*. N. Viswanathan M. S. Gore. Social Service ReviewMarch 1969Volume 43, Number 1pp. 114 – 115 Mar., 1969. Article DOI https://doi.org/10.1086/642353.
13. Социальная теория и социальная структура / Роберт Мертон. — М.: АСТ: АСТ МОСКВА: ХРАНИТЕЛЬ, 2006. — 873, [7]

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISHDA ADOLAT, TENGLIK VA INSON HUQUQLARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Do‘stov Bahodir Tashpo‘latovich
O‘zbekiston –Finlyandiya Pedagogika instituti
bohodustov@inbox.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy fanlarni o‘qitishning dolzarbligi adolat, tenglik va inson huquqlari tamoyillarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar sharoitida o‘quvchilarda ushbu qadriyatlarni uyg‘un va demokratik jamiyatning poydevori sifatida anglashni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy adolat, gender tengligi va inson huquqlariga hurmat g‘oyalarini targ‘ib qilishda ta’lim dasturlarining o‘rnini tahlil etadi, shuningdek, o‘quv jarayonida ushbu tamoyillarni samarali o‘zlashtirishga ko‘maklashadigan usul va yondashuvlarni tadqiq qiladi. Ijtimoiy fanlarni o‘qitishda xalqaro tajriba va milliy an’analarni uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratiladi.Maqola jahonshumul va mahalliy muammolar sharoitida ijtimoiy fanlarni o‘qitishni

takomillashtirish masalalari bilan qiziquvchi pedagoglar, tadqiqotchilar va ta’lim sohasidagi mutaxassislarga mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy fanlar, ta’lim, adolat, tenglik, inson huquqlari,Jamiyat o‘zgarishlari, texnologik o‘zgarishlar, bag‘rikenglik.

Kirish. Milliy islohotlarga muvofiq 2016-yildan buyon O‘zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida modernizatsiya, ochiqlik va xalqaro hamkorlikka urg‘u berib, muhim islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ta’lim islohoti mazkur kun tartibining asosiy yo‘nalishi bo‘lib, ijtimoiy fanlar fuqarolik mas’uliyati va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. O‘quv dasturlariga adolat, tenglik va inson huquqlarini singdirish ushbu maqsadlarga mos keladi va o‘quvchilarni taraqqiyparvar jamiyatga hissa qo‘shishga tayyorlaydi. Demokratik qadriyatlarni targ‘ib qilish orqali ushbu tushunchalarni o‘rgatish demokratik tamoyillar, qonun ustuvorligi va inklyuziv boshqaruv haqida xabardorlikni shakllantirishga yordam beradi. Bu tarixan mustabid tuzumdan siyosiy va ijtimoiy ochiqlikka o‘tayotgan O‘zbekiston uchun juda muhim. Ijtimoiy fanlar ta’limi yoshlarga jamiyat muammolariga konstruktiv yondashish imkonini beradi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi va aholi farovonligini ta’minlashda ijtimoiy fanlarning o‘rni salmoqli hisoblanadi. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlarni o‘qitish, ularning ahamiyati va zamon talablariga javob berish yo‘llari haqidagi qarashlar, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Zamonaviy dunyo jahonshumullashuv, texnologik o‘zgarishlar va ijtimoiy o‘zgarishlar kabi misli ko‘rilmagan muammolarga duch kelmoqda. Bu borada o‘zgaruvchan sharoitlarga muvaffaqiyatli moslasha oladigan va yechim topa oladigan malakali kadrlarni tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda bunday yangi avlod mutaxassislarini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar sotsiologiya, psixologiya, antropologiya, madaniyatshunoslik va siyosat kabi keng ko‘lamli fanlarni qamrab oladi. Ular ijtimoiy jarayonlarni, madaniy xususiyatlarni va inson faoliyatining psixologik jihatlarini tushunishga yordam beradi. Etnik va madaniy guruhlar xilma-xilligi mavjud bo‘lgan O‘zbekiston sharoitida bag‘rikenglik va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish uchun ushbu fanlarni o‘rganish ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy fanlar sotsiologiya, psixologiya, antropologiya, ta’lim, iqtisodiyot va boshqa tarmoqlarni qamrab oladi.[3] Bu fanlar inson xulq-atvorini, jamiyatning strukturasini va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlarni o‘rganish orqali, davlat siyosati, iqtisodiy rivojlanish va jamiyatdagi o‘zgarishlarni yaxshiroq anglash mumkin. Inson huquqlari va xalqaro standartlar O‘zbekiston o‘tmishdagi inson huquqlari muammolari uchun xalqaro tanqidlarga duch keldi. Inson huquqlari sohasidagi ta’limni joriy etish inson qadr-qimmatini hurmat qilish, xilma-xillik va huquqiy himoyani rag‘batlantirish orqali bu muammoni hal qiladi. Shuningdek, u O‘zbekistonning BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari bo‘yicha konvensiyalar kabi xalqaro tuzilmalar oldidagi majburiyatlariga mos keladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning asosiy vazifalaridan biri talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir.[2] Tanqidiy fikrlash murakkab ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish va ijtimoiy hayotda konstruktiv ishtirok etish uchun zarurdir. Axborot tez o‘zgarib turadigan zamonaviy iqtisodiyot va siyosat sharoitida o‘z bilimlarini tanqidiy idrok etish va asosli qarorlar qabul qilish qobiliyati eng muhim ko‘nikma hisoblanadi. Ijtimoiy fanlar ta’limining eng muhim maqsadi talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishdir. Talabalar ijtimoiy fanlar predmeti orqali voqealarni, ijtimoiy protsesslarni chuqur tahlil qilish va mustaqil fikrlash, o‘z fikrlarini bayon etish qobiliyatini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar.

O‘zbekistonda adolat, tenglik va inson huquqlarini ta’lim tizimida rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy islohotlar konteksti yaratilib kelindi. O‘zbekiston 2016-yildan buyon amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar davrida adolat, tenglik va inson huquqlari prinsiplarini joriy etishga alohida e’tibor berib kelmoqda. Bu jihatdan ta’lim sohasi strategik ahamiyatga ega bo‘lib, yangi avlodning qadriyatlar tizimini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.Jumladan

Islohotlarning asosiy yo‘nalishlari va ta’limga ta’siri quyidagicha:

- Konstitutsiyaviy islohotlar: 2023-yilda qabul qilingan yangi Konstitutsiyada inson huquqlari, adolat va tenglik tamoyillari kuchli ta’kidlangan (13, 18, 45-moddalar). Bu ta’lim dasturlariga inson huquqlari mavzusini joriy etishning huquqiy asosidir.[1]
- Milliy ta’lim strategiyasi 2021-2030-yillarga mo‘ljallangan.
- "Ijtimoiy adolat" va "inklyuziv ta’lim" tushunchalarining kiritilishi;
- Darsliklarda gender tengligi, inson huquqi va fuqarolik jamiyati mavzularini kengaytirish.
- Qonunchilikdagi o‘zgarishlar: "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonun (2020) va "Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish to‘g‘risida"gi qonun (2019) ta’limda tenglik va huquqlarni muhofaza qilishni talab etadi.[7]

Ta’lim tizimi[1]ni rivojlantirishdagi amaliy qadamlar:

- Qayta ishlangan darsliklar: Ijtimoiy fanlar (jumladan, "Fuqarolik jamiyati", "Inson huquqlari") darsliklariga BMTning "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi", O‘zbekistondagi qonunlar bilan tanishtirish bo‘limi kiritildi.
- O‘qituvchilarning salohiyatini oshirish: Xalqaro hamkorlikda (YUNESKO, YUNISEF) "Inson huquqlari va tenglik" mavzusida treninglar o‘tkazilmoqda.
- Innovatsion usullar:
- Ta’lim muassasalarida "Inson huquqlari maktabi" to‘garaklarining tashkil etilishi;
- "Adolatli jamiyat" mavzusida simulyatsion o‘yinlar va munozaralarning o‘tkazilishi.

Ijtimoiy fanlarning o‘zgaruvchi roli (tarix, fuqarolik jamiyati, huquq) darslarida:

- Qadriyatlarning o‘zgarishi, Sovet davridagi targ‘ibot o‘rniga insonni markazga qo‘yuvchi qarashlarning o‘rganilishi,
- Ijtimoiylashuv mexanizmi, O‘quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish uchun ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishi (masalan, "Yosh huquq himoyachilari" tashkiloti) amalga oshirilishi belgilangan.[5]

Ijtimoiy fanlarni o‘qitishda, albatta, muammolar va istiqbollar ham mavjud.

- Muammolar:
- Ayrim o‘qituvchilarning an’anaviy metodlarga moyilligi;
- Darsliklardagi ma’lumotlarning nazariy va amaliy jihatdan notengligi.
- Istiqbolli yo‘nalishlari:
- Ijtimoiy fanlarni o‘qitishda raqamli platformalardan foydalanish (masalan, inson huquqlariga oid onlayn kurslar);
- Xalqaro tajribalarni (Finlyandiya, Kanada) milliy ta’limga moslashtirish.

O‘zbekistonda 2021-2030-yillarga mo‘ljallangan "Yangi O‘zbekiston ta’lim strategiyasi"da ijtimoiy adolat va tenglikni ta’lim tizimiga integratsiyalashning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergan.

Konstitutsiyaviy va huquqiy asoslar 2023- yilgi Konstitutsiyadagi yangiliklar:

1

· 18-modda -"Har bir inson huquq va erkinliklarga teng"
· 45-modda -"Har bir shaxsning bilim olish huquqi kafolatlanadi".[1]
· "Ta’lim to‘g‘risidagi ""gi 2020-yildagi qonunda inklyuziv ta’lim prinsiplari belgilangan.
· Gender tengligini ta’minlash O‘quvchilarning 49% ayollardan iboratligini nazarda tutish.
· STEM (fan-texnika) sohasida qizlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari.
· O‘qituvchilarning 65% ayollardan iboratligini hisobga olib, gender tafovutlarini bartaraf etish.
Ta’lim sifatini tenglashtirish Yagona milliy ta’lim standartlarini joriy etish.
Digital tengsizlikka barham berish:2023 yildan "Elektron maktab" loyihasi
· Qishloq joylariga 10 000 dan ortiq kompyuter uskunalarini taqsimlash.

Ijtimoiy adolatning yangi mexanizmlari "Adolatli ta’lim" indeksini joriy etish (har yili monitoring o‘tkazish).
· Huquqiy ma’rifatni ko‘paytirish.
· "Yosh huquq himoyachilari" klublari.
· Maktablarda ombudsman institutini joriy etish.
· Ijtimoiy moslashuvchilik Pandemiya tajribasidan saboq olish.
· Nogironlar uchun alohida dasturlar.
· 1 millionga yaqin o‘quvchiga distansion ta’lim imkoniyatlarini yaratish.
· Ijtimoiy tabaqalashtirishga qarshi kurash.
· Qashshoq oilalar farzandlariga stipendiyalarni ko‘paytirish.
· "Ijtimoiy shartnoma" tizimi orqali ta’limdagi ijtimoiy mobillikni oshirish.
Metodik tahlil Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish va texnologiyalarning innovatsion yondashuvlari bo‘yicha quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin.
1. O‘qitishning turli usullari:
- Problemali o‘qitish: Bu metod talabalarni haqiqiy hayotdagi muammolarni hal qilishga undaydi. Masalalar orqali talabalar fikrlash, muammolarni aniqlash va ularni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- Tadqiqotga asoslangan o‘qitish: Talabalar mustaqil tadqiqotlar olib borish orqali bilim olishadi. Bu metod o‘z-o‘zini boshqarish va tanqidiy fikrni rivojlantirishga yordam beradi.
2. Kuchli aloqa va muloqot.
- O‘qitish jarayonida o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi ochiq va samarali muloqot muhimdir. O‘qituvchilar, talabalarni tinglash va ularga izohlar berish orqali ular bilan mustahkam aloqalar o‘rnatishi kerak.
3. Gibrid ta’lim:
- Gibrid ta’lim modelida an’anaviy darslar va onlayn darslar birlashtiriladi. Bu yondashuv talabalar uchun yuqori moslashuvchanlikni ta’minlaydi va turli sharoitlarda o‘qish imkonini yaratadi.
4. Samarali baholash tizimlari:
- Ta’lim jarayonida talabalarni baholashning zamonaviy usullari, masalan, shaklli baholash va o‘rganish jarayonidagi rivojlanishlari uchun qayta aloqa berish muhimdir. Bu usullar, talabalarga o‘z natijalarini yaxshilashga yordam beradi.
5. O‘quv dasturlari va modellarini yangilash.
- Ta’lim tizimida o‘quv dasturlari va modellarni zamon talablari asosida yangilash zarur. Bu, o‘qitilayotgan fanlarning dolzarbligini va samarasini ta’minlaydi.

6. O‘qituvchilarni tayyorlash va rivojlantirish:
- O‘qituvchilar uchun har 3 oyda texnologik treninglar hamda Yosh o‘qituvchilar va tajribali ustozlar juftligini ta’minlash ishlari.
- Zamonaviy o‘qituvchilar uchun doimiy ravishda ta’lim va malaka oshirish kurslari tashkil etilishi kerak. O‘qituvchilar yangi metodlar va texnologiyalarni o‘rganish orqali o‘zlarini yangilashlari lozim.[11]
7. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning transditsiplinar yondashuvi.
- Ijtimoiy-gumanitar fanlar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgani uchun transditsiplinar yondashuvlar, ya’ni turli fanlarni birlashtirgan holda ta’lim berish, talabalar uchun yanada kengroq ko‘lamda bilim olish imkonini yaratadi.
Bu ma’lumotlar ijtimoiy-gumanitar fanlarni O‘zbekiston Jamiyatlarning transformatsiyasi va Jamiyat o‘zgarishlari bilan yuzma-yuz kelmoqda. Bugungi kunda globalizatsiya, texnologiyalar, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi ijtimoiy fanlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ijtimoiy fanlar jamiyatning muammolarini yanada chuqur o‘rganish, tahlil qilish va ularga yechim izlashda muhim vosita hisoblanadi.[10]
Ijtimoiy fanlar ta’limi jamiyatning konstruktiv rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu fanlar talabalarni ijtimoiy adolat, tenglik va inson huquqlari munosabatlarini tushunishga yordam berishi bilan, ularning ijtimoiy faoliyatini va yosh avlod orasidagi o‘zgarishlarni rivojlantirishda kerakli asoslarni taqdim etadi.
Ijtimoiy-gumanitar fanlar talabalarni nafaqat nazariy faoliyatga, balki bilimlarni amalda qo‘llashga ham tayyorlaydi. Ta’lim muassasalarining ushbu fanlarga yo‘naltirilgan dasturlari amaliyot, tadqiqot va loyihalarni o‘z ichiga oladi, bu esa kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan amaliy tajriba va ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi.Ijtimoiy-gumanitar fanlar iqtisodiyot, huquq va ekologiya kabi boshqa akademik fanlar bilan faol integratsiya qilinmoqda. Ushbu fanlararo o‘zaro ta’sir ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun kompleks yechimlar ishlab chiqish imkonini beradi. Masalan, sotsiologiyani iqtisodiyot bilan birlashtirish kambag‘allikni kamaytirish uchun samarali ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishga yordam berishi mumkin.[9]
Ijtimoiy adolat va me’yorlar.
Ijtimoiy fanlarni o‘qitish ijtimoiy adolat, tenglik va inson huquqlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘zbekistonda ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni joriy qilish, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, gender tengligi va ijtimoiy inklyuziyani shakllantirish uchun alohida ahamiyatga egadir. Ijtimoiy fanlar inson huquqlari va ularning muhofazasi masalalariga alohida e’tibor qaratishi kerak. Inson huquqlarini, muhofaza mexanizmini, jamiyatdagi murosalar va huquqiy sifatida ijtimoiy transformatsiyalarni o‘rganish, talabalarni faol jamiyat fuqarolariga aylantiradi. Inson huquqlari bo‘yicha ta’lim, rivojlanishda muhim elementlardan biri sifatida, tenglik, adolat va farovonlikni ta’minlashga xizmat qiladi.Ijtimoiy adolatni rivojlantirish uchun ijtimoiy fanlar bilim olishning birlamchi manbai hisoblanadi.[4] Talabalar ijtimoiy faoliyatlar, betakrorlik, ma’naviy qoidalar va odob-axloq normalari haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar. Misol uchun, sotsiologiya va psixologiya fanlari talabalarga ijtimoiy xususiyatlarni, xalqning ixtiyor va ehtiyojlarini o‘rganishda yordam beradi. Ijtimoiy adolatni rivojlantirish uchun ijtimoiy fanlar bilim olishning birlamchi manbai hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarni o‘qitish orqali tenglik konsepsiyasini tushunish tarbiyalanadi. Talabalar gender tengligining, ijtimoiy madaniyatning, rasa va etnik tenglikning muhimligini inobatga olishadi. Ijtimoiy fanlarni o‘rganish, o‘zgalarga nisbatan ehtirom, bo‘ysunish va o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga yordam olib, ijtimoiy javobgarlikni

oshiradi. Ijtimoiy fanlar talabalarni amaliy ishlar, tadqiqotlar va jamiyat muammolarini samarali hal qilish uchun tanlovlar va qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Talabalar ijtimoiy vazifalarni hal qilishda, muhitni tadqiq qilishda, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni aniqlashda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.[6]

Amaliy tadqiqotlar ijtimoiy fanlar sohasida muammolarni aniqlash va hal qilish uchun olib boriladi. Ularda e’tibor jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni tadqiq qilishga qaratiladi. Talabalarning mazkur tadqiqotlari hayotiy vaziyatlarni o‘rganish va yechimlarni taklif qilish maqsadida amalga oshiriladi. Praktik tadqiqotlarda foydalaniladigan usullar mos ravishda ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, psixologiya va iqtisodiyot fanlaridan olingan metodlarga asoslanadi. Kelgusidagi tadqiqotlar uchun ma’lumot to‘plashda oshkora mustaqillik, sotsiologik anketa, intervyu, fokus-gruppalar, tadqiqot stajirovkalaridan foydalanish mumkin. Tadqiqotlar yordamida olingan ma’lumotlar jamiyatning holati, muammolari va imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Qabul qilingan ma’lumotlar jamiyatni faol ravishda o‘zgartirish uchun zarur bo‘lgan yordamlarni taklif qiladi. Mos ravishda, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy doiralari takliflarini umumlashgan holda tadqiqot natijalari bilan bog‘langan qarorlarni qabul qilishda asos bo‘ladi. Tadqiqotlar natijalari asosida qarorlar qabul qilish jarayoni ijtimoiy fanlarda asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. Talabalar, muammolarni hal qilish uchun ilmiy asoslantirilgan takliflar uyg‘unlashadi va amal qilishga tayyorlashadi. Tadqiqot orqali olingan ma’lumotlar jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlash, tenglikni rivojlantirish va inson huquqlarini muhofaza qilishga yordam beradi. Amaliy tadqiqotlar jamiyat qarorlarini, ijtimoiy fanlar ta’limida istiqbollarni belgilash, jamiyatdagi muammolarni hal qilish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish uchun zarurdir. Har bir tadqiqot natijalari fuqarolik jamiyatining rivojlanishida, ijtimoiy adolatni ta’minlashda hamda inson huquqlarini hatto boshqa yo‘sinda masalaga mos ravishda tashkil etilgan qarorlarga asos bo‘ladi.[7]

Takliflar:

- Ijtimoiy fanlar o‘qitishida zamonaviy metodlarni joriy etish.
- Oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy fanlarga e’tiborni kuchaytirish.
- Tadqiqotlar olib borish va ularni amaliy qo‘llab-quvvatlash bugungi kunning eng muxim dolzarb vazifalaridan biridir..

Xulosa. O‘zbekistonda adolat, tenglik va inson huquqlarining ta’lim jarayonida rivojlantirilishi bu faqat ta’lim masalasi emas, balki umumiy ijtimoiy-siyosiy modernizatsiyaning muhim qismidir. Bu yo‘lda nafaqat davlat tomonidan qo‘llanilayotgan chora-tadbirlar, balki har bir mutaxassisning shaxsiy ishtiroki zarur. Ijtimoiy fanlarning O‘zbekistonda o‘qitilishi jamiyatning rivojlanishi, iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, ijtimoiy fanlarning ta’limga integratsiyasi yoshlarning bilimini va qobiliyatlarini rivojlantirish, jamiyatda faol ishtirok etishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.[8] Shunday qilib, ijtimoiy-gumanitar fanlar O‘zbekistonda yangi avlod kadrlarini tayyorlashda tanqidiy fikrlash, kasbiy ko‘nikmalar va fanlararo yondashuvni rivojlantirishda beqiyos rol o‘ynaydi. Jahonshumullashuv va jamiyatning shiddat bilan o‘zgarishi sharoitida zamonaviy tahdidlarga tayyor malakali mutaxassislarni shakllantirish uchun ta’lim muassasalarida ushbu fanlarga e’tiborni kuchaytirish zarur.Ijtimoiy fanlarni o‘qitish ijtimoiy adolat, tenglik va inson huquqlarini rivojlantirishda so‘zsiz muhim ahamiyatga ega. Bu fanlarning ta’limi, oldingi avlodga e’tibor berishdan tortib, ijtimoiy to‘g‘rilikni, faollikni va inson huquqlarini tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. Ijtimoiy fanlarni yaxshi shakllantirish, fuqarolik jamiyatining dastlabki ta’lim

manbai sifatida, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashda katta rol o‘ynaydi. Ijtimoiy fanlar orqali adolat, tenglik va inson huquqlarini o‘qitish nafaqat qonuniy jihatdan, balki ma’naviy-axloqiy jihatdan ham jamiyatni yaxlitlashga xizmat qiladi. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishda metodik yondashuvlarni ishlab chiqish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va jamiyatning barcha qatlamlarini jalb etish orqali barqaror ijtimoiy taraqqiyotga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 yilgi tahrir) – Toshkent: "Adolat", 2023.
2."Inson huquqlari" Umumjahon deklaratsiyasi (1948) – BMTning rasmiy tarjimasi.
3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning nutqlari va qarorlari:
"Adolatli jamiyat va fuqarolarning huquqiy himoyasini ta’minlash yo‘lida" 2021y.
4.Sh. Nigmonov -"Ijtimoiy adolat: nazariy va amaliy strukturalari" T- 2014-y
5. A. Madjidova - "Gender tengligi: nazariy va amaliy asoslar" — T-2019 y
6. Rahimova M., Yusupov A. Ijtimoiy fanlarni o‘rgatishda innovatsion usullar" (TDPU, 2022 yil)
7. O‘zbekiston 2021-2030 yillarga mo‘ljallangan "Yangi O‘zbekiston ta’lim strategiyasi"
8. F. T. Mirzaev "Ijtimoiy tadqiqotlar: nazariy va amaliy asoslar" T-2015y
9. A. I. Muxamedov Jamiyatning ijtimoiy munosabatlar tarixi" — T-2020 y
10. N. A. Ibodullaev — "Ijtimoiy o‘zgarishlar va madaniyat" T-2018 y
11. Azizxo‘jayeva N. "Ijtimoiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy metodlar" – Toshkent: "O‘qituvchi", 2020.

KATTAQO‘RG‘ON SHAHRI TARIXI: O‘TMISHDAN BUGUNGACHA

Abdullayeva Xurshida

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rgo‘n filiali

AnnotatsiyaMazkur maqolada Kattaqo‘rg‘on shahrining qadimiy davrlaridan to zamonaviy holatigacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyoti yoritilgan. Shahar geografik joylashuvi, iqtisodiy va madaniy ahamiyati, shuningdek, tarixiy obidalari asosida tahlil qilinadi. Kattaqo‘rg‘onning o‘ziga xos arxitektura yodgorliklari va u yerdagi ijtimoiy hayot tarixi orqali, u Samarqand vohasining muhim siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri sifatida namoyon bo‘lganligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *Kattaqo‘rg‘on, tarix, Samarqand, qo‘rg‘on, madaniyat, arxitektura, O‘rta Osiyo, qadimiy shaharlar, ijtimoiy hayot, yodgorliklar.*

Kirish

O‘zbekistonning qadimiy va boy tarixga ega shaharlaridan biri bu – Kattaqo‘rg‘ondir. U Samarqand viloyatining shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, tarixiy va madaniy merosi bilan ajralib turadi. Kattaqo‘rg‘onning nomi va mavjudligi ilk bor manbalarda XVII asrda tilga olinadi, biroq bu hududda yashash va hunarmandchilik ancha avval boshlangan.

Asosiy qism

Kattaqo‘rg‘on nomi ikki so‘zdan – "katta" va "qo‘rg‘on" iboralaridan tashkil topgan bo‘lib, u "keng va qudratli qal’a" degan ma’noni anglatadi. Dastlab bu joyda qal’a, ya’ni mudofaa maqsadida qurilgan qo‘rg‘on mavjud bo‘lgan. Asta-sekin qal’a atrofiga aholi joylasha boshlagan va bu yerda shahar shakllana boshlagan.

Tarixiy manbalarda Kattaqo‘rg‘on haqida Boburiylar davrida, so‘ngra Buxoro amirligi vaqtida ma’lumotlar uchraydi. Shahar o‘zining strategik joylashuvi tufayli savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan va muhim iqtisodiy nuqta bo‘lgan.

Kattaqo‘rg‘on shahrining kelib chiqish tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Aytish mumkinki, bu shahar O‘zbekiston hududida qadimda mavjud bo‘lgan eng qadimiy sivilizatsiyalarning

shaharsozlik an’analarini davom ettiruvchi voris sifatida shakllangan. Biroq, aynan Kattaqo‘rg‘onning qurilishi bizning o‘lkamiz tarixining og‘ir bir davriga to‘g‘ri kelgan.

XVII asrda uzoq vaqt davomida mintaqaga hokimlik qilgan Astarxoniylar sulolasi tanazzulga yuz tutdi va feodal parokandalik davri boshlandi. Urug‘lar va bekliklar o‘rtasidagi ichki nizolar kuchayib, Turkiston bir necha qismlarga bo‘linib ketdi. Aynan shu sababdan eronlik hukmdor Nodirshoh Samarqand va Buxoroni osongina bosib oldi. Ammo shu qiyin sharoitda ham ajdodlarimiz bunyodkorlik ishlarini davom ettirdilar, aynan o‘sha yillarda Kattaqo‘rg‘on shahrining poydevori qo‘yildi.



Kattaqo‘rg‘on qal’asi va Narpay kanali – “Turkiston albomi”

Shahar paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bir nechta afsonalar saqlanib qolgan. Ulardan biriga ko‘ra, shahar qurilishida uzbeklarning utarchi urug‘idan bo‘lgan aka-ukalar – Sufi Allayar, Farhod Otalik va Allo Nazarbiylarning xizmatlari katta bo‘lgan. Ular shahar barpo etish uchun eng qulay joyni tanlashgach, Sufi Allayar o‘zining piridan (ustozidan) duolar olish uchun yo‘lga chiqadi. Ammo ukalari uning qaytishini kutmay, shahar qurilishini boshlab yuboradi. Farhod Otalik akasi qaytayotganini eshitib, unga qarshi chiqib, allaqachon katta qo‘rg‘on (qal’a) qurilganini aytadi. Sufi Allayar ukasining bu shoshqaloqligidan ranjib, Qashqadaryoga ko‘chib ketadi. Shunga

qaramay, Farhod Otalik boshlangan ishni oxiriga yetkazadi va oilasi bilan yangi shaharni o‘zlashtirib yashay boshlaydi. Aholi uni shahar hokimi etib tanlaydi.

Yillar o‘tishi bilan Kattaqo‘rg‘on shahrining maydoni kengayib bordi, u qal’a devorlari bilan o‘raldi. To‘rt tomoni bo‘ylab darvozalar – Bozordarvoza, Haydarchaman, Samarqand darvozasi va Buxoro darvozasi barpo etildi. Ular har kuni kechqurun yopilardi.

XVIII asr oxirlariga kelib, shaharning umumiy maydoni 170 gektarga yetdi. Aholi sonining ortishi bilan Arobxona, Qalandarxona, Sufiguzar, Qorirobot kabi ko‘plab mahallalar tashkil topdi. Har bir mahallada alohida masjid mavjud edi.

Shahar aholisi asosan hunarmandchilik, dehqonchilik va savdo bilan shug‘ullangan. Qo‘qon va Xiva xonliklari hamda Buxoro amirligi bilan bo‘lgan urushlar esa oddiy xalq zimmasiga og‘ir yuk bo‘lib tushgan. Urush vaqtida qishloq xo‘jaligi yerlari vayron qilingan, g‘olib taraf askarlari aholini talon-taroj qilgan. Shuningdek, turli soliq turlari ham xalq uchun katta yuk bo‘lgan. Ammo eng og‘ir muammo – suv tanqisligi bo‘lib, bu dehqonlarning daromadlarini juda past bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

1821 yilda amir Haydar Xiva bilan Merv uchun urush olib borgan. Shu sababli yer solig‘i odatdagidan ancha oldin yig‘ila boshladi. Shuningdek, askarlikka odam yollash kampaniyasi kuchaydi. Natijada, 1821 yilda Kattaqo‘rg‘on aholisi isyon ko‘tardi. Isyon tez orada Chelek, Yangiqo‘rg‘on va hatto Karmanaga ham tarqaldi. Amir Haydar isyonni bostira olmay, murosaga borishga majbur bo‘ldi.

XIX asr o‘rtalarida Turkiston Rossiya bilan faol savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ydi. Masalan, 1850 yilda rus savdogarlari bu yerda 299 ming so‘mlik mahsulot sotgan bo‘lsa, 1860 yilda bu raqam 3 million so‘mga yetgan. Kattaqo‘rg‘on orqali Rossiyaning Orenburg shahriga olib boruvchi asosiy karvon yo‘li o‘tgan.

1868 yilda Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasida tinchlik shartnomasi tuzilib, Kattaqo‘rg‘on Rossiya imperiyasi tarkibiga kirdi.

Rossiya qo‘shinlari Turkistonga kirgach, ilgari ruhoniylarga, savdogarlarga va harbiylarga tegishli bo‘lgan ayrim yerlar dehqonlarga merosiy tarzda ajratildi. Bu holat dehqonlarning ahvolini yengillashtirdi, qishloq xo‘jaligi taraqqiy topdi. Soliqlar yig‘imida ham tartib joriy qilindi. Temiryo‘l qurilishi mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishiga turtki berdi. 1888 yil 1 may kuni kattaqo‘rg‘onliklar ilk bor poezdni ko‘rishdi.

1916–1917 yillarda shaharda 6 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritgan. Bu esa hunarmandchilik rivojiga, savdo aloqalarining jonlanishiga va butun mintaqaning iqtisodiy o‘sishiga sabab bo‘lgan.

XVIII asrda Kattaqo‘rg‘on mustaqil hokimiyatga ega bo‘lgan. Buxoro amirligi davrida bu yerda mahalliy beklar tomonidan boshqarilgan hokimiyat shakllanadi. Aynan shu davrda Kattaqo‘rg‘onda jadal rivojlanish, bozorlar, masjidlar, madrasa va karvonsaroylar qurilishi yuz bergan.

Shahar aholisi orasida savdogarlar, hunarmandlar, zargarlar va dehqonlar yashagan. Ko‘plab madaniy-ma’rifiy markazlar mavjud bo‘lgan, bu esa Kattaqo‘rg‘onni ilm-fan va diniy markaz sifatida tanitgan.

Bugungi kunda Kattaqo‘rg‘on zamonaviy shahar bo‘lib, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida taraqqiy etmoqda. Shunga qaramay, shahar o‘zining tarixiy qiyofasini saqlab qolgan. Muhim tarixiy obidalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- Kattaqo‘rg‘on minorasi – XVIII asrda qurilgan, o‘ziga xos g‘ishtin bezaklari bilan mashhur.
- Madrasa va masjidlar – o‘tmishdagi diniy hayotni aks ettiruvchi yodgorliklardir.
- Eski bozor – qadimiy savdo markazlaridan biri bo‘lib, hozir ham faoliyat yuritadi.

Xulosa

Kattaqo‘rg‘on – o‘z tarixiga ega bo‘lgan, ming yilliklar davomida turli sivilizatsiyalarni ko‘rgan va rivojlangan shahar hisoblanadi. Uning geografik joylashuvi, tarixiy obidalari va madaniy boyligi O‘zbekiston tarixida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu shaharni o‘rganish, uni asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazish muhim vazifalardan biridir.

Kattaqo‘rg‘on shahrining tarixini o‘rganishda taniqli pedagog, sobiq mahalliy tarix muzeyi direktori, marhum Izzatullo Bekmurodovning xizmatlari beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmadov, R. (1998). O‘zbekiston shaharlari tarixi. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Karimov, I. (2002). O‘zbek xalqining tarixi. Toshkent: Sharq.
3. Abdullayev, H. (2010). Samarqand viloyatining tarixiy obidalari. Samarqand: Ilm ziyo.
4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. (2005). Kattaqo‘rg‘on maqolasi. Toshkent.
5. Rasulov, M. (2017). O‘zbekiston tarixi darsligi. Toshkent: Yangi asr avlodi.

INKLUZIV TA’LIM TIZIMIDA MAXSUS MAKTABGACHA TA’LIM PEDAGOGIKASINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Raximova Feruza Shavkatovna
Samarqand pedagogika texnikumi direktori:
E-mail: raximovaferuza@gma il. Com

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim tizimida maxsus maktabgacha ta’limning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida nogironligi bor bolalar uchun ta’lim muhitini shakllantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagogik metodlar va inklyuziv yondashuvning samaradorligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, maxsus pedagogika, maktabgacha ta’lim, nogironligi bor bolalar, ta’lim muhitini moslashtirish, pedagogik metodlar.

Kirish. Bugungi kunda inklyuziv ta’lim butun dunyoda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim tizimi barcha bolalarning, jumladan, nogironligi bor bolalarning ham sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab taxminan 93 million bola (taxminan 5 foiz) nogironlik bilan tug‘iladi yoki hayoti davomida nogironlikka ega bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta’limga katta e’tibor qaratilib, maktabgacha ta’lim bosqichida nogironligi bor bolalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish muhim vazifa sifatida belgilangan. 2019-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 35 mingdan ortiq nogironligi bor bola mavjud bo‘lib, ulardan faqat 10-12 foizi maxsus maktabgacha ta’lim bilan qamrab olingan [1].

Inklyuziv ta’lim tizimi barcha bolalarning, jumladan, nogironligi bor bolalarning ham sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta’limga katta e’tibor qaratilib, maktabgacha ta’lim bosqichida nogironligi bor bolalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish muhim vazifa sifatida belgilangan. Har xil kelib chiqishi va qobiliyatiga ega bo‘lgan bolalar birgalikda o‘rgansa, ular do‘stlik rishtalarini rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlar o‘rnatish va bir-birining tajribasidan o‘rganish imkoniyatiga

ega bo‘ladilar. Bu ko‘proq ijtimoiy birdamlikka va yanada uyg‘un va inklyuziv jamiyatga olib kelishi mumkin [2].

Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi ta’limni boshlash imkoniyatiga ega bo’lgan barcha bolalar, shu jumladan alohida yordamga muhtoj bo’lgan bolalarni umumta’lim jarayoniga qamrab olishdir. Inklyuziv ta’lim alohida yordamga muhtoj bolalarga ta’lim olishni taqdim etishi bilan katta ahamiyatga ega. Bu ana shunday bolalarni uzluksiz umumiy ta’lim tizimiga kiritishni bildiradi. Inklyuziv ta’lim tizimida maxsus maktabgacha ta’lim pedagogikasining o‘rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalarning teng ta’lim olish imkoniyatini ta’minlashga qaratilgan pedagogik tizimdir. U nogironligi bor bolalarni umumiy ta’lim muhitiga jalb qilish, ularga shaxsiy rivojlanish uchun qulay sharoit yaratish, ijtimoiy integratsiyani ta’minlash kabi maqsadlarni o‘z ichiga oladi. Inklyuziv ta’lim tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- **Barqarorlik va tenglik** – barcha bolalar uchun ta’lim olish imkoniyati yaratilishi kerak;
- **Moslashtirish** – ta’lim jarayoni har bir bolaning individual ehtiyojlariga mos ravishda shakllantirilishi lozim;
- **Qo‘llab-quvvatlash** – bolalar o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishlari uchun maxsus pedagogik yondashuvlar tatbiq etilishi kerak.

Inklyuziv ta’lim bu maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashgan va sharoitga qarab o‘zgaruvchan, g‘amxo‘rlik bilan yondasha oladigan ta’lim tizimidir. Ushbu ishlar oddiy, me’yorda rivojlangan bolalar o‘quv muassasalarida amalga oshiriladi. Buni amalga oshirish uchun har bir bolaga indi vidual yondashish, nuqsonidan kelib chiqqan holda ma’lum, u uchun qulay sharoit yaratish, kerak bo‘lsa, dastur va rejani qisman o‘zgartirish lozim. Maxsus tarbiyaga muhtoj bola uyiga yaqin, o‘ziga qulay ommaviy bog‘cha yoki maktabga qatnaydi. U yerda asosiy ishni tarbiyachi yoki sinf rahbari amalga oshiradi. Har bir maktabgacha tarbiya muassasasida yoki maktabda maxsus tayyorlangan resurs tarbiyachi bo‘lib, u guruh tarbiyachisiga maslahatlar beradi va ko‘maklashadi: maxsus o‘qitish uskunalari, jihozlari bilan ta’minlaydi; ota-onalar, o‘qituvchilar bilan tushuntirish ishlari o‘tkazadi: dars jadvali, dasturga, kerak bo‘lsa, o‘zgartirishlar kiritadi, ularni asoslab beradi; o‘qituvchilarning malakasini oshiradi, bilim mahoratini boyitadi; sog‘liqni saqlash xizmatlarini tashkil etadi, qulay psixologik muhitni yaratadi. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolani oddiy bog‘cha yoki maktabga joylashtirish integrasiya yo‘lidagi birinchi qadamdir. Ta’lim integrasiyasining turli shakllari va darajalari mavjud. Jismoniy integrasiyada maxsus tarbiyaga muhtoj va sog‘lom bola orasidagi jismoniy tafovut iloji boricha kamaytirilishi lozim. O‘qituvchilar ham inklyuziv sinf madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar o‘zlarini qadrli, hurmatli va erkin his qiladigan muhitni yaratish uchun mas’uldirlar. Bu hamkorlikni, tengdoshlarning qo‘llab-quvvatlash va o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni rivojlantirishni, noto‘g‘ri fikrlash, kamsitish yoki zo‘ravonlik holatlarini hal qilishni o‘z ichiga oladi [3].

Maxsus maktabgacha ta’limning inklyuziv ta’limdagi o‘rni

Maktabgacha ta’lim bosqichi bolaning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun bu bosqich ularning keyingi ta’lim jarayoniga tayyorgarlik ko‘rishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyat olib boriladi:

1. **Pedagogik moslashtirish** – darslar bolaning qobiliyat va ehtiyojlariga moslashtirilgan holda olib boriladi.

2. **Logopedik va psixologik qo‘llab-quvvatlash** – nutq buzilishlari yoki psixologik qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar bilan individual mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.
3. **Maxsus o‘quv dasturlari** – nogironligi bor bolalar uchun maxsus metodikalar asosida ta’lim berish tizimi joriy etiladi.
4. **Ijtimoiy integratsiya** – bolalarning tengdoshlari bilan muloqot qilishiga sharoit yaratiladi.

Maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv yondashuvning samaradorligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- **Bola rivojlanishining yaxshilanishi** – individual yondashuv orqali bolalarning intellektual va ijtimoiy ko‘nikmalari oshadi;
- **Ota-onalar bilan hamkorlik** – farzandining ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi ota-onalarni ham pedagogik jarayonga jalb etadi;
- **Jamiyatga moslashish** – nogironligi bor bolalar umumiy ta’lim tizimiga moslashib, keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatli o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Dunyo tajribasida inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha turli model va strategiyalar mavjud. **Finlandiya** davlatida ta’limning barcha bosqichlari inklyuziv tamoyillarga asoslangan. Nogironligi bor bolalar umumiy sinflarga integratsiyalangan holda o‘qitiladi va individual yondashuv orqali qo‘llab-quvvatlanadi. **Germaniya**da maxsus maktablar saqlab qolingan bo‘lsa-da, nogironligi bor bolalar umumiy ta’lim muassasalarida ham o‘qishi mumkin. Maxsus yordamchi o‘qituvchilar va qo‘shimcha reabilitatsiya dasturlari tatbiq etilgan. **AQSh**da individual Ta’lim Rejasi (IEP) tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, har bir bolaning ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’lim dasturlari ishlab chiqiladi. **Rossiyada** maxsus ta’lim muassasalari bilan bir qatorda inklyuziv maktablar ham faoliyat yuritadi. Bolalar uchun maxsus adaptiv ta’lim metodlari ishlab chiqilgan [4].

O‘zbekistonda Maktabgacha ta’lim agentligi tomonidan maxsus bog‘chalar faoliyati nazorat qilinadi. Shuningdek, inkluziv ta’lim yanada rivojlantirilmoqda, bu esa maxsus ehtiyojli bolalarning oddiy bog‘chalarda ham tarbiya olishiga imkon yaratadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston tajribasida maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarida logopedik va psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan. 2019-yildan boshlab, inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqilgan lekin hali ham inklyuziv ta’limga moslashtirilgan umumiy maktabgacha ta’lim muassasalarining yetarli darajada emasligi kuzatilmoqda. Pedagoglarni maxsus tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi takomillashtirilmoqda[5].

Xulosa

Maxsus maktabgacha ta’lim inklyuziv ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, nogironligi bor bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. To‘g‘ri tashkil etilgan maxsus pedagogik yondashuvlar orqali bolalar o‘z salohiyatini to‘liq namoyon eta oladilar. Ta’lim tizimi o‘quvchilarning intellektini shakllantirish va rivojlantirish kabi vazifalarni ham bajarishga qodir bo‘lishi muhim. Ma’lum bir shaxs intellektual fikrlash salohiyatiga ega bo‘lishi uchun ijtimoiylashuv bosqichidan o‘tishi, ya’ni u yoshlikdan ijtimoiy munosabatlar tizimida faol ishtirok etishi kerak [6]. O‘zbekistonda ham inklyuziv ta’lim rivojlanib, maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ushbu jarayonda pedagoglar, ota-onalar va jamiyatning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajribalarni o‘rganish va ulardan samarali foydalanish orqali inklyuziv ta’limni yanada rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha ta’lim agentligi (2019). "O‘zbekistonda maxsus ehtiyojli bolalar uchun maktabgacha ta’lim statistikasi.
2. Mansurovna, A. M. (2023). Inklyuziv maktabgacha ta’lim: zamonaviy rivojlanish jarayonlari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 439-440.
3. Kobilova, S. X., Matanova, D. M., Dehqonboyeva, Z. D., & Abdushukurova, F. A. (2023). Inklyuziv ta’lim va diskriminatsion omillar. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 14, 280-283.
4. UNESCO. (2021). "Inclusive education for children with disabilities: Global Report."
5. UNICEF O‘zbekiston vakolatxonasi. (2020). "O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar."
6. M.S. Abbasova “Jamiyat ijtimoiy muhitini yangilashga sog‘lom ma’naviy raqobatning ta’siri”. Monografiya , Samarqand –2023.-87 b.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA TASVIRIY SAN’AT VOSITASIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING SHAKL VA METODLARI

Bozorova Gulbahor Rayimovna
Samarqand viloyat pedagogika texnikum psixologi

ANNOTATSIYA: Tasviriy faoliyat - bu borliqni o‘ziga xos obrazli bilishdan iborat bo‘lib, u turli xil bo‘lishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar rasm, narsalar yasash (lepka), applikasiya mashg‘ulotlarida badiiy materiallarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar, ularda mehnat madaniyati tarkib topadi.

Rasm, narsalar yasash (lepka), applikasiya, konstruksiyalash mashg‘ulotlari rejalashtirilganda tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutk o‘stirish, badiiy adabiyotlar o‘qish, shuningdek musiqiy mashg‘ulotlar bo‘yicha olib boriladigan barcha ta’limiy-tarbiyaviy ishlar hisobga olinadi.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, tabiat, applikatsiya, loy va plastilin bilan ishlash.

Tasviriy faoliyat turlarining o‘zaro aloqasi yordamida rasm, lepka (narsalar yasash), applikasiya bo‘yicha topshiriqlar izchilligini belgilash mumkin. Masalan, dumaloq shaklni o‘zlashtirishni bolalarga dastlab applikasiyada (ayniqsa maktabgacha kichik yoshdagi bolalarga) tavsiya qilish mumkin. Bola tayyor dumaloq shaklni (sharik, koptok) qo‘li bilan konturda yuritish, aniq chizmalarini yelimlash va ko‘rishni idrok etadi. Ushbu shakllarni chizish jarayoni bola uchun qiyinroq, chunki harakatni muvofiqlashtirishni, qog‘oz varag‘ida tutash chiziq o‘tkazishni bilishni talab qiladi. Bular esa o‘z navbatida bolalarda ijodkorlikni shakllantiradi.

Atrof-borliqdan olingan taassurotlar, kuzatishlar, ertaklardagi obrazlar bolalar ishlariga mazmun bag‘ishlaydi. Rasmdagi syujet ikki o‘lchamli varaq yuzasida muayyan kompozisiyada ochiladi (maktabgacha yoshdagi bola fazoviy chuqurlikni bera olmaydi). Narsalar yasash (lepka)da bolalar figuralarni umumiy mazmun bilan birlashtirgan holda syujetni tasvirlaydi. Applikasiyada ular soyali surat varag‘idan qirqib oldi va ularni tekislikka joylashtiradi,

Mamalakatimizda ishlab chiqilgan «Uchinchi mingyillikning bolasi» tayanch dasturida bolalarda tasviriy san’atga bo‘lgan havasni kuchaytirish va buning natijasida ularda nafosat tarbiyasining samaradorligiga erishish nazarda tutilib, quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

“Bolalarda tasviriy san’atga oid tushuncha, tasavvur, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish. Ularda tasviriy san’atni his etish, undan zavqlanish va rasmlarda aks ettirilgan qahramonlarga munosabat bildirish ko‘nikmasini shakllashtirish.

Bolalarda turli ranglardan zavqlanish, mavzuli rasmlarni idrok etish hissini tarbiyalash. Ranglar (qizil, sariq, yashil, ko‘k, jigarrang, oq, qora)ni bir-biridan ajrata olishni, ularni o‘zaro qiyoslash (qizg‘ish, ko‘kish, sarg‘ish)ni o‘rganish. Rasmdagi ranglarning ifodalilik xususiyatlaridan foydalanishni, ranglar orasidan o‘ziga ma’qul keladiganini tanlashga o‘rgatish” [2;38].

Bolalarning qalam, flomaster va mo‘yqalamdan to‘g‘ri foydalanish malakalarini shakllantira borish. Bolalarga qalam va mo‘yqalamni ushlash, mo‘yqalamni bo‘yoqka botirish, qalam va mo‘yqalamni qog‘oz ustida erkin yurgizish, ish tugagach, mo‘yqalamni yuvib, artib qo‘yishga o‘rgatish.

Bolalarga dumaloq, to‘g‘ri to‘rtburchak va uchburchak shakliga o‘xshash narsalar (meva, sabzavot, o‘yinchoqlar)ni qog‘ozning butun sathiga joylashtirib tasvirlashni o‘rgatish.

Bolalarni loy va plastilin bilan ishlash malakalarini o‘stirish.

Loy va plastilindan yumaloq, uzunchoq, tuxumsimon shakllar yasashga o‘rgatish. Loy bilan ishlash yo‘llarini yafindan tanishtira borish: barmoqlar bilan tasvirning mayda qismlarini chimdish, yapaloqlangan shakllarning chetlarini buklash va boshqalar.

Loy bo‘lagini kaftlar orasiga olib aylantirish orqali yumaloq, tuxumsimon, ustuncha shaklidagi narsalar (olma, sabzi, bodring, tuxum, baliq, toshbaqa, xo‘roz va boshqalar)ni yasashga O‘rgatish.

Bolalarni qog‘oz va kartondan tasvirlarni qirqib yopishtirish usuli bilan tanishtirish. Qirqib yopishtirish usulida sodda ko‘rinishdagi turli shakllarnn yasash orqali bolalarning tasviriy faoliyatini rivojlantirish.

Qirqilgan qog‘oz va karton bo‘laklarini bir-biriga yelimlab biron narsaning tasvirini yasashga o‘rgatish.

Qirqib yopishtirish bo‘yicha quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya qilinadi: «Kvadrat», «Doiracha», «Barglar», «Gullar», «O‘yinchoq mashina», «Sandiqcha», «Bayroqcha», «Daraxt», «Uy», «Narvon», «Panjara».

Qog‘oz yoki kartonni qirqishda qaychi (bolalar uchun maxsus uchi to‘mtoq, plastmassa qoplangan)ni to‘g‘ri ushlash va ishlatishni, kvadrat shaklini qirqishni, kvadratdan doira shaklini qirqishni o‘rgatish.

Qurish-yasash ishlariga bolalarning qiziqishlarini rivojlantirish, ularning shakli va o‘lchami har xil bo‘lgan taxtachalar, uzun va qisqa, keng va tor, uchburchak va to‘rtburchak, katta va kichik taxtachalar bilan tanishtirish. Bu materialdardan sodda ko‘rinishdagi shakllarni qurish va yasashga o‘rgatish»[1].

Dasturda belgilangan ushbu rang-barang mashg‘ulotlar mahoratli tarbiyachi tomonidan bolalar bilan qiziqarli tarzda olib borilganda, ularda nafosat tarbiyasi shakllanishi bilan birga ijodkorlikka bo‘lgan kavas ham ortib boradi. Ijodkorlikka bolalar ilk yoshligidanoq qiziqadi, o‘zlaricha bilib-bilmay, anglab-anglamay nimalarnidir ijod qilishga intiladilar.

Tarbiyachi maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ham ana shunday ijodkorlik belgilarini payqaganda, uni albatta turli xil pedagogik usullar bilan rag‘batlantirib borish zarur bo‘ladi.

Katta guruhdagi bolalar nafaqat san’atning har xil turlari bilan tanishadilar, balki ular rasmdagi, haykaltaroshlik va grafikadagi obrazni o‘zgacha idrok etadilar. Tasviriy san’atga o‘rgatishning metod va usullari xilma-xil bo‘lib, ular quyidagilardir:

- ta’limnnng ko‘rgazmali metod va usullari;

[1] Учинчи мингйилликнинг боласи, Таянч дастури —Т.: «Marifat-Madadkor», 2000й. 109-111-6.

- ta’limning og‘zaki metod va usullari;
- ta’limning o‘yin usuli;
- amaliy metodlar;
- evristik metod,

“Tasviriy san’at ta’limnning butun tizimi asosida kuzatish metodi yotadi, chunki san’at tevarak-atrofni bilish va aks etgirish vositasidir. Bolalarda kuzata bilish, tevarak - hayotdagi hodisalar o‘rtasida aloqa o‘rnatish, umumiy va individuallikni ajrata bilish qanchalik rivojlangan bo‘lsa bu albatta ulardagi ijodiy qobiliyatning rivojlanganligiga bog‘liq. Ammo birgina kuzatish ko‘rganini to‘laligicha tasvirlash imkoniyatini ta’minlamaydi. Bolalarga maxsus tasviriy usullar, turli xil -tasviriy materiallardan foydalanish yo‘llarini o‘rgatish zarur” [3;90].

Ta’limning ko‘rgazmali metodi va usullariga naturadan, rasmlar reproduksiyasi, namunalar va boshqa usullaridan foydalanish kiradi.

Tasviriy san’atda natura deganda bevosita kuzatilganda tasvirlanadigan predmet yoki hodisalar tushuniladi. Naturada ishlash predmetni uning rasm chizuvchining ko‘ziga nisbatan qanday turganligi holatiga ko‘ra muayyan nuqtai nazardan tasvirlashni nazarda tutadi. Bu yerda ko‘rib idrok etish asos bo‘ladi, shu bilan birga tekislikda tasvirlanganda (rasm, applikasiya) predmet faqat bir tomondan idrok etiladi; narsalar yasash (lepka) va konstruksiyalashda bolalar naturani o‘chirish, har xil o‘chirishlardagi hajmli shaklni tahlil qila olish imkoniga ega bo‘ladi.

San’at bilan tanishtirish metodikasida ko‘rgazmali va og‘zaki metodlarning o‘zaro aloqasi katta ahamiyatga ega. Rasmni idrok etish jarayonida asosiy e’tibor vositasida san’atkor obraz yaratadigan rang koloriti, kompozisiyani tasvirlashga qaratiladi. Kichik shaklli haykaltaroshlik idrok etilganda, bolalar shaklni tekshirish, obrazning turli nuqtai nazardan xarakterli belgisini ko‘rish (aylanma obzor), uni og‘zaki tavsiflash, nafis tasvirlash xususiyatlarini belgilashni o‘rganadilar.

Tarbiyachi asosiy narsaga e’tiborni qaratishda, bolalarni badiiy obrazni ehtiros bilan idrok etishni o‘rgatishga yordam beradigan suhbat o‘tkazish katta ahamiyatga ega.

Suxbat paytida tasvirlashning har xil variantini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa bolalarda obraz yaratishga turli xil yondashish haqida tasavvurni shakllantiradi. Boshqa tomondan, bu bolalarga ularning amaliy faoliyatlarida rang uyg‘unligining turli variantlari, kompozision tuzilishini berishga yordam beradi. Suhbat o‘tkazish oldidan guruhda kartinalar, haykaltaroshlikning kichik shakli, grafika, dekorativ-amaliy san’at reproduksiyasidan kichikroq ekspozisiya tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday o‘ziga xos ko‘rgazma mavzuli bo‘lishi mumkin. Masalan, bolalar kuzning turli davrlari tasvirlangan rasm bilan tanishadilar, qishda ularning e’tibori yoqqan qor, bo‘ron, izg‘irindan iborat qish obraziga qaratiladi.

Bularning yordamida bolalarda kuz, qish, bahor, yozni har xil tasvirlash mumkinligi haqida yorqin tasavvur hosil bo‘ladi.

San’at bilan tanishtirish tabiatni kuzatish paytida amalga oshirilsa yaxshi bo‘ladi. Bunda bolalar hayotda ko‘rganlari bilan san’atkor tomonidan qalamda, gilda tasvirlanganlarni qiyoslashni o‘rganadi.

“Bolalar tabiatda ranglar xilma-xilligini (shunchaki oq, ko‘k, qizil, balki tuslari turli xil ekanligini) bilib oladilar. O‘zlari chizgan rasmlarda ushbu rang tuslaridan foydalanadilar. Tarbiyachi bolalarga yorug‘likdan predmetning shakli, hajmi qanday o‘zgarishini ko‘rishni

o‘rgatadi. Masalan, tunda go‘yo hamma narsa qop-qora, predmetlarning ko‘rinishi soyaga o‘xshaydi. Kunduzi esa, aksincha, barcha ranglar ochiq, go‘zal, predmet yaxshi ko‘rinadi” [4;87].

Predmetlarni naturadan tasvirlaganda pedagog e’tiborni uning asosiy qismiga, shakliga karatadi.

Narsalar yasash (lepka)da shakl yoki figurani tasvirlash jarayonida tarbiyachi ko‘pincha bolalarga ishning qaysi usulini tanlashni o‘zlariga havola etadi. Biroq dastlab yaxlit bo‘lakdan loy bo‘lagini olish yo‘li bilan narsa yasash, figurani keng asosga o‘rnatish usulini ko‘rsatish lozim.

Tarbiyachi bolalarni dekorativ-amaliy san’at predmetini ko‘rib chiqish va tekshirishga o‘rgatadi. Buning uchun narsalarni tanlaydi, uni bolalarga tanishtirganda ular xajmda va tekislikda nakshlarni ko‘radilar. Idrok etish jarayonida nakshning va uning tuzilishining asosiy elementlarini ajrata olish qobiliyati shakllanadi. Pedagog mo‘yqalam bilan naqsh solish usulini ko‘rsatadi, chunki qo‘lning harakati yanada muvofiqlashgan va ishonchli bo‘lishi lozim. Kompozisiya naqshi predmet va shaklga karab o‘zgaradi.

Shunday qilib, san’at bilan tanishish bolalarning badiiy faoliyati bilan uzviy bog‘langandir.

Katta guruhlarda ijodiy topshiriqlar katta o‘rin egallaydi, chunki ta’lim jarayoni bilan ijod o‘zaro bog‘liqdir. Ushbu topshiriqlarning mazmuni borliqning hodisalari, ijtimoiy voqyealar, ertak obrazlari bo‘lishi mumkin. Bolalarni tasvirlashning ayrim usullariga o‘rgatganda tarbiyachi e’tiborni obrazning xarakterli belgisini berishga qaratadi. Ijodiy topshiriqlar paytida bolalarga g‘ayri odatiy sharoit yaratiladi va ularga rang bilan ishlash, kompozision tuzilishning turli xil variantlarini mustaqil tarzda topish taklif etiladi. Izlanish vaziyati bolalarni noma’lumlikdan aniqlik sari borishga, o‘ylab topishga tasvirlash usulini qo‘llab ko‘rishga majbur qiladi. Bunday sharoit mavzuli, kompleks mashg‘ulotlar uchun xarakterli bo‘lib, ular mazmuniga, tasvirlash usuliga ko‘ra ham murakkab bo‘lib qoladi. Ijodiy xarakterdagi topshiriqlarda tarbiyachi bolalar e’tiborini qog‘oz foniga qaratadi, bu rasm, applikasiyaning rangli obrazini yaratishga yordam beradi. Bolalarni rasmning mazmuniga ko‘ra fonni mustaqil ravishda tuzishga, uni yanada jadalroq yoki ziddiyatliroq qilishga o‘rgatish lozim.

Tabiatni tasvirlashda tarbiyachi rangning xilma-xilligidan foydalanishga o‘rgatadi.

Katta guruhlarda jamoa ishi boshqacha xarakter kasb etadi. Bolalar o‘z harakatini kelishib bajarishga o‘rganadilar. Topshiriqlar 3-4 boladan iborat kichik guruh bilan bajarilishi mumkin. Bunda bitta rasmda qanday materiallar uyg‘unlasha olishini tushuntirish lozim.

Yil oxirida tarbiyachi bolalarning badiiy tafakkuri darajasini tekshiradi. (Suhbat jarayonila bolalar san’at asarini qanday qabul qilishini bilib olali. Topshiriqlar beradi, masalan, hayvonlarni rasmda, lepkada. applikasiyada tasvirlash va hokazo.

Tasviriy metodlardan yana biri - evristik metoddir. U grekcha «Evristika» so‘zidan olingan bo‘lib, haqiqatni topish san’ati ma’nosini bildiradi. Ushbu metod topog‘onlik, faollikni rivojlantirishga yordam beradi.

Tarbiyachining vazifasi - bolalar tasviriy faoliyatini shunday tashkil qilishi kerakki, u albatta faol, ijodiy bo‘lmogi lozim. Har bir mashg‘ulot nafaqat didaktik vazifani, balki biron-bir predmetni tasvirlashga o‘rganishni, boladan ishni mustaqil bajarishni ham talab qiladi. Ana shu maqsadda pedagog topshiriq bajarishning xilma-xil usullaridan: maslahat, rag‘batlantirish, ko‘rsatish (biroq to‘liq emas), o‘yinchoklar ko‘rsatish, eslatish va shu kabi usullardan foydalanadi.

Bolaga shunday vaziyat yaratish lozimki, maqsadni bajarish yo‘lini uning o‘zi topa bilsin. Shunday qilib, u yoki bu usul va metodni tanlashda:

- ushbu mashg‘ulot oldida turgan mazmun va vazifaga tasviriy faoliyat vazifasiga;

- bolalarning yosh va rivojlanish darajasi;

- bolalar foydalanadigan tasvirlash materiallarining turiga bog‘liq.

Ayrim metod va usullar - ko‘rgazmali va og‘zaki mashg‘ulotlarda yagona ta’lim jarayonida biri ikkinchisi bilan birga amalga oshishi va ketma-ket kelishi mumkin.

Tarbiyachi katta guruh bolalari uchun davlat dasturi asosida rasm, lepka, applikasiya va konstruksiyalash bo‘yicha yillik, oylik, haftalik mashg‘ulotlarni taxminiy rejalashtiradi. Rejalashtirganda albatta bolalarning yoshi, yil fasllari e’tiborga olinmog‘i zarur.

“Katta guruhda bolalarni tasviriy san’atning har xil turlari bilan tanishtirish tizimli va izchil amalga oshiriladi. Uning asosida mavzuli prinsip yotadi, har bir chorakda muayyan mavzu ko‘rib chiqiladi. Masalan, birinchi chorakda asosiy mavzu - badiiy obrazga emosional iltifot, san’atkor kartinada tasvirlagan kayfiyatni seza bilishdir”[5;90].

Rasm solish, lepka, applikasiya jarayonida tarbiyachi bolalarni naturadan hamda tasavvur bo‘yicha predmetning shaklini yaratish, ularning nisbatan hajmini, xarakterli belgisini aniqlashga o‘rgatadi.

Tabiat ijtimoiy hayot hodisalarini tasvirlaganda pedagog obrazni, syujetni (rang, shakl, kompozisiya) tasvirlash uchun tasviriy vositalardan foydalanishni o‘rgatadi. Bolalar dekorativ rasmlar chizishning turli usullarini o‘zlashtiradi. Ular loyning yaxlit bo‘lagidan narsa yasash, nisbatan katta qog‘oz varagg‘larini kesish, dekorativ kompozisiya tuzishni o‘rganadilar, jamoa ishlarini bajaradilar, texnik malakalarni o‘zlashtirish (qalamni qattiq va yumshoq ushlash, tur yordamida narsalar yasash va shu kabi)ni o‘rganadilar.

Katta guruh bolalarida tasviriy san’at namunalari asosida ijodkorlikni shakllantirish maqsadida maktabgacha ta’lim muassasalarida olib boriladigan ayrim mashg‘ulotlarning taxminiy konspektini ko‘rib o‘tamiz.

Rasm solish. «Yoz»

Dastur mazmuni. Bolalarda yoz to‘g‘risidagi xotiralarni uyg‘otish, fikrni rivojlantirish, o‘z taassurotlarini tasvirlab berish, mo‘yqalam (barcha mo‘yqalamlar, bo‘yash) bilan chizishning har xil usullaridan foydalanish.

Material. Albom formati, turli xil rangdagi bo‘yoqlar.

Tayyorgarlik ishi. Yoz haqida suhbat. Kitoblardagi rasmlarni ko‘rib chiqish.

Mashg‘ulotni o‘tkazish metodi. Pedagog bolalarga yoz haqidagi eng yorqin taassurotlarini eslashni topshiradi. Ular yozda qayerda bo‘lganlar, yoz o‘zining nimalari bilan bolalarga yoqib qolgan (har xil mevalarni terish, daryo va anhorlarda cho‘milish, dalalarni aylanish va h.). So‘ngra ularning har biridan yoz haqida rasm solishni so‘raydi, mashg‘ulot oxirida barcha rasmlar stendda ko‘rib chiqiladi. Bolalar rasmlariga qarab yoz nimasi bilan yoqib qolganini aytib beradilar.

Narsa yasash (lepka). «Sabzavot hosilini yig‘amiz».

Dastur mazmuni. Bolalarda mehnatga hurmatni, jamoat ishlarida ishtirok etishga bo‘lgan ishtiyoqini shakllantirish, shakliga ko‘ra har xil sabzavotlarni yopishtirish (dumaloq, cho‘zinchoq), ularning muhim belgilarini tasvirlash.

Material. Loy, taxtacha.

Tayyorgarlik ishi. Sabzavotlarni ko‘zdan kechirish.

Mashg‘ulotni o‘tkazish metodi. Bolalarga K.Muhammadiyning «Sabzavotlar» she’rini o‘qib berish. She’rda qaysi sabzavotlar haqida so‘z borganligini so‘rash. Ularga loydan lavlagi, sabzi, kartoshka yasashni topshirish. Yakunida bolalar ishlarini ko‘rib chiqadilar, qiyoslaydilar va ularni shakliga ko‘ra farqlaydilar. «Sabzavotlar» she’ri qaytadan takrorlanadi.

Applikasiya. «Mashinalar daladan yig‘ilgan hosilni tashimoqda».

Dastur mazmuni. Bolalarda kattalar mehnatiga bo‘lgan hurmatni tarbiyalash, mehnat qilish istagini uyg‘otish, kattalar mehnati haqida o‘z taassurotlarini bera bilish, kichikroq syujet tuzish (qismlardan qirqish va mashinaga yopishtirish, meva va sabzavotlarni qalam yoki flomaster bilan chizish).

Material. Yarim albom varag‘ida qog‘oz, rangli yul-yul mato, kvadratlar, qaychi.

Tayyorgarlik ishi. Sabzavot, meva tashiyotgan mashinani kuzatish, rasmlarni tomosha qilish, o‘yinchok mashina bilan o‘ynash.

“Mashg‘ulot o‘tkazish metodi. «Yilning eng yaxshi fasli-kuz!, -deydi pedagog. -U bizga mo‘l hosil beradi, uni odamlar dalalarda, bog‘larda, polizda yetishtiradi. Ularga bolalar ham yordam beradilar. Kuzda nimalar teriladi? Mo‘l hosil dala va bogg‘lardan qanday tashiladi? Buning uchun ko‘plab mashinalar kerak bo‘ladi. Bugun biz daladan hosil tashiymiz. O‘zimiz mashinalarni yasaymiz, ularga sabzavot, mevalarni yuklaymiz». Bolalar mashinaning qismlarini (kuzov, kabina, g‘ildirak) qirqadilar. Bolalar sabzavot, meva, haydovchini chizadilar” [6;78].

Barcha ishlar stendga qo‘yiladi, mashinalar kolonnasi hosil bo‘ladi, ular dala, bog‘lardan hosilni shaharga tashiydilar. Bolalar qaysi mashina nimani tashiyotganini aytadi.

Xulosa qilib aytganda, boshqa mashg‘ulotlar konspekti ham ana shu namunalar asosida tayyorlanadi va ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida o‘tkaziladi. Natijada maktabgacha katga yoshdagi bolalarda tasviriy san’at namunalari asosida xilma-xil metod va usullarga tayangan holda ijodkorlikka bo‘lgan ishtiyoq uyg‘otiladi va maktabgacha ta’lim jarayonida ijodkorlik bo‘yicha hosil qilingan ko‘nikma va malakalar rivojlantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Uchinchi mingyillikning bolasi, tayanch dasturi-T.: Ma’rifat-madadkor”, 2000 yil, B - .109-111
2.Abdulazizov, A. (2015). "Maktabgacha ta'limda san'at ta'limi: nazariya va amaliyot". Tashkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti.
3.Jumaniyozova, D. (2018). "Ijodkorlik va tasviriy san'at: Maktabgacha ta'limda yangi yondashuvlar". Tashkent: Fan va texnologiya.
4.Murodova, S. (2020). "Tasviriy san'at vositalari orqali bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish". Tashkent: O'zbekiston milliy universiteti.
5.Tashkent, N. (2019). "Bolalar ijodkorligini rivojlantirishda tasviriy san'atning roli". Tashkent: O'zbekiston san'at akademiyasi.
6.Yusupova, L. (2016). "Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni shakllantirish: metodlar va usullar". Tashkent: O'zbekiston ta'lim markazi.
7.Saidova, M. (2021). "Tasviriy san'at va bolalar: ijodiy faoliyat va rivojlanish". Tashkent: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining nashriyoti.
8.Qodirova, F. (2017). "Maktabgacha ta'limda ijodkorlikni rivojlantirish: nazariy asoslar va amaliyot". Tashkent: O'zbekiston ta'lim akademiyasi.
9.Ruziev, B. (2019). "Tasviriy san'at vositalari va bolalar ijodkorligi: yangi yondashuvlar". Tashkent: O'zbekiston san'at va madaniyat institutining nashriyoti.
10.Khamidova, Z. (2020). "Bolalar tasviriy san'atida ijodkorlikni rivojlantirish metodlari". Tashkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti.
11.Ismoilov, A. (2018). "Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish: tajribalar va natijalar". Tashkent: O'zbekiston ta'lim markazi.

BOLALAR BILAN IJTIMOIY ISH OLIB BORISH TEXNOLOGIYALARI

Ibragimov Jahongir Toshniyozovich
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi.
jahongir.5066@gmail.com
Nomozova Shoxsanam Abdualim qizi, talaba

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan asosiy texnologiyalar, ularning turlari, bosqichlari, shuningdek, xalqaro va mahalliy tajribalar tahlil qilinadi. Shuningdek, bolalar bilan ishlovchi ijtimoiy xodimlarning kasbiy mahorati, axloqiy qadriyatlari va kommunikativ ko'nikmalari ham yoritiladi. Shuningdek mavzu yuzasidan muallifning fikr mulohazalari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: bolalar, ijtimoiy ish, ijtimoiy moslashuv, diagnostik texnologiyalar, ijtimoiy adaptatsiya va integratsiya texnologiyalari, psixologik pedagogik medotlar, raqamli platformalar, sun'iy intellekt tizimlari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные технологии, применяемые в работе с детьми, их виды и этапы реализации. Проанализирован международный и отечественный опыт применения технологий в социальной работе с детьми. Особое внимание уделено профессиональному мастерству, нравственным ценностям и коммуникативным навыкам социальных работников, работающих с детьми. В статье также изложены авторские мнения и размышления по рассматриваемой теме.

Ключевые слова: дети, социальная работа, социальная адаптация, диагностические технологии, технологии социальной адаптации и интеграции, психолого-педагогические методы, цифровые платформы, системы искусственного интеллекта.

Abstract: This article examines the main technologies used in working with children, their types, and stages of implementation. The international and local experiences of applying these technologies in social work with children are analyzed. Particular attention is paid to the professional skills, ethical values, and communication competencies of social workers engaged in working with children. The article also presents the author's opinions and reflections on the topic.

Keywords: children, social work, social adaptation, diagnostic technologies, social adaptation and integration technologies, psychological and pedagogical methods, digital platforms, artificial intelligence systems.

Kirish

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri – bu yosh avlod tarbiyasi, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, bolalarning sog'lom va har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashdir. Ayni shu nuqtai nazardan, bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish sohasining ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Bolalar – bu nafaqat har bir oilaning, balki butun jamiyatning kelajagi bo'lib, ularning ijtimoiy muammolariga e'tiborsizlik jamiyatda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish — bu ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimining o'ziga xos va murakkab yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda bolalarning ijtimoiy moslashuvi, himoyasi, rivojlanishi va farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy asoslangan yondashuvlar, uslub va texnologiyalar qo'llaniladi. Bu jarayonda ijtimoiy ishning zamonaviy texnologiyalari, yondashuvlari, psixologik-pedagogik metodlari muhim o'rin egallaydi.[1]

Bolalar bilan ijtimoiy ish – bu bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularning rivojlanishi va farovonligini ta’minlashga qaratilgan faoliyatdir. Ijtimoiy ishchilar bolalar bilan ishlash jarayonida ularning psixologik, ijtimoiy va huquqiy muammolarini hal qilishga ko‘maklashadilar.

Asosiy qism

Hozirgi davrda turli sabablarga ko‘ra ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar soni ortib bormoqda. Yetim bolalar, nogironligi bor bolalar, muhojirlikdagi yoki ijtimoiy xavf ostida bo‘lgan oilalardan chiqqan bolalar – bularning barchasi alohida yondashuv va texnologiyalarni talab etadi. Shu bois, bolalar bilan samarali ijtimoiy ishni tashkil etish, ularning muammolarini aniqlash, individual yondashuv asosida yordam ko‘rsatish – zamonaviy ijtimoiy ishchining muhim vazifalaridandir. Bolalar bilan ijtimoiy ishning asosiy maqsadi – ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va sog‘lom rivojlanishiga ko‘maklashishdir. [2]

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Ijtimoiy muammolarni aniqlash: bolalarning hayotidagi ijtimoiy muammolarni erta aniqlash va ularning sabablarini o‘rganish.
2. Profilaktik chora-tadbirlar: muammolarni oldini olish uchun profilaktik ishlarni tashkil etish.
3. Reabilitatsiya va moslashuv: ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalarga reabilitatsiya xizmatlarini ko‘rsatish.
4. Huquqiy yordam: bolalarning huquqlarini himoya qilish va ularga huquqiy maslahatlar berish.

Bundan tashqari ijtimoiy ishchilar bolalar bilan turli yo‘nalishlarda ijtimoiy ish olib borishadi. Quyidagilar bolalar bilan ijtimoiy ishning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi. Jumladan:

a) Muhtoj bolalar bilan ishlash:

- yetim bolalar va ota-onasi tashlab ketgan bolalar
- ijtimoiy nochor oilalardan chiqqan bolalar
- nogironligi bor bolalar
- zo‘ravonlik yoki - ekspluatatsiyaga uchragan bolalar

b) Oilaviy muhitni yaxshilash:

- muhtoj oilalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish
- ota-onalarga bolalar tarbiyasi bo‘yicha maslahat berish
- oilaviy nizolarni hal etishda yordam berish

c) Ta’lim va tarbiya jarayoni:

- maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida psixologik qo‘llab-quvvatlash
- aqliy va jismoniy rivojlanishida muammosi bor bolalar bilan ishlash
- ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish
- ish uslublari va tamoyillari
- individuallik – har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olish
- empatiya va tushunish – bolaning hissiyotlari va muammolariga e’tibor qaratish
- konfidensiallik – bolalar va oilalar haqidagi ma’lumotlarni maxfiy saqlash
- hamkorlik – maktablar, oilalar, davlat va nodavlat tashkilotlar bilan birga ishlash

Bolalar bilan ishlashda duch kelinadigan muammolar:

- ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar muammosi
- ijtimoiy tengsizlik va qashshoqlik
- ta’lim olish imkoniyatlarining cheklanganligi

- zo‘ravonlik va ekspluatatsiya muammosi
- nogiron bolalarga yetarli darajada e’tibor qaratilmasligi [3]

Bolalar bilan ijtimoiy ishning istiqbollari

Raqamli texnologiyalarni joriy etish – onlayn maslahat va yordam tizimlari

📌 Ta’lim va tarbiya sifatini oshirish – maxsus dasturlar va treninglar

📌 Ko‘ngillilar va NNTlarni jalb qilish – jamiyatni jalb etish

📌 Huquqiy asoslarni kuchaytirish – bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini rivojlantirish

Bolalar bilan ijtimoiy ishning asosiy texnologiyalari

Bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish texnologiyalari ularning ehtiyojlari, muammolari va rivojlanish darajasiga qarab individual yondashuvni taqozo etadi. Ijtimoiy ishchilar bolalar bilan ishlashda turli xil texnologiyalar va metodlardan foydalanadilar. Ular quyidagilarga bo‘linadi:

1.1. Diagnostik texnologiyalar

Bu texnologiyalar bola va uning oilasining ijtimoiy, psixologik va huquqiy holatini baholashga qaratilgan.

🔹 So‘rovlar va testlar – bolaning hissiy holatini aniqlash

🔹 Suhbatlar – bolaning muammolarini tushunish uchun individual suhbatlar

🔹 Kuzatish – bolaning ijtimoiy muhitdagi xulq-atvorini tahlil qilish

🔹 Ijtimoiy xarita tuzish – bolaning ijtimoiy muhitini baholash

1.2. Reabilitatsiya va psixokorreksiya texnologiyalari

Bu texnologiyalar bolalar bilan psixologik va ijtimoiy ishlash jarayonida qo‘llaniladi.

📌 Art-terapiya – rasm chizish, musiqa, qo‘g‘irchoq terapiyasi orqali bola hissiyotlarini ifodalashiga yordam berish

📌 O‘yin terapiyasi – bolalar bilan o‘yinlar orqali ularning muammolarini hal qilish

📌 Psixologik maslahat berish – bola va uning oilasiga psixologik yordam ko‘rsatish

📌 Ijtimoiy treninglar – bolalarning jamiyatga moslashuvchanligini oshirish

1.3. Profilaktika texnologiyalari

Bu texnologiyalar bolalarning muammolarini oldindan aniqlash va ularni oldini olishga qaratilgan.

✓ Huquqiy savodxonlik – bolalarga huquq va majburiyatlarini o‘rgatish

✓ Oilaviy tarbiya dasturlari – ota-onalar bilan ishlash va bolalar tarbiyasini yaxshilash

✓ Maktab va mahalla bilan hamkorlik – bolalarni muammolarini erta aniqlash va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash

1.4. Ijtimoiy adaptatsiya va integratsiya texnologiyalari

Bu texnologiyalar nogironligi bor bolalar, yetim bolalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni jamiyatga moslashtirishga qaratilgan.

✅ Maxsus ta’lim dasturlari – nogiron bolalar uchun maxsus o‘quv rejalari

✅ Ko‘ngillilar ishtiroki – bolalar bilan ishlashda jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi

✅ Mehnatga o‘rgatish va kasbga yo‘naltirish – bolalarni kasb tanlashga tayyorlash

✅ Oilaviy tarbiya va patronaj tizimi – yetim bolalarni oilaviy muhitga moslashtirish

2. Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar

Hozirgi kunda bolalar bilan ishlashda raqamli texnologiyalar ham faol qo‘llanilmoqda:

💻 Onlayn konsultatsiyalar – bolalar va ota-onalar uchun virtual maslahatlar

📱 Mobil ilovalar – bolaning ijtimoiy holatini monitoring qilish

🤖 Sun’iy intellekt tizimlari – bolalarning psixologik muammolarini aniqlash uchun dasturlar

📡 Raqamli kuzatuv tizimlari – bolalarning xavfsizligini ta’minlash

3. Bolalar bilan ijtimoiy ish texnologiyalarining samaradorligi

🔹Bolalarning psixologik holati yaxshilanadi

🔹Ularning huquqlari himoya qilinadi

🔹Jamiyatga moslashish darajasi oshadi

🔹Zo‘ravonlik va ekspluatatsiyaning oldi olinadi

🔹 Ijtimoiy tenglik ta’minlanadi

Bolalar bilan ijtimoiy ish texnologiyalarining samaradorligini oshirish

1. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish

📌 Raqamli platformalar va mobil ilovalar – bolalarga tezkor yordam berish uchun onlayn xizmatlar yaratish

📌 Sun’iy intellekt va ma’lumotlar bazasi – bolalarning psixologik va ijtimoiy muammolarini avtomatik aniqlash

📌 Virtual reabilitatsiya markazlari – onlayn trening va maslahat xizmatlari orqali bolalarga yordam ko‘rsatish

2. Kadrlar malakasini oshirish

📌 Ijtimoiy ishchilar va psixologlar uchun maxsus treninglar – bolalar bilan ishlash bo‘yicha zamonaviy metodikalar o‘rgatish

📌 Ko‘ngillilar tayyorlash dasturlari – bolalarga yordam berish uchun jamiyatdan ko‘ngillilarni jalb qilish

📌 O‘zaro tajriba almashish – xorijiy tajribani o‘rganish va ilg‘or amaliyotlarni joriy etish

3. Oilaviy muhitni yaxshilash

📌 Ota-onalar uchun tarbiya va psixologik treninglar – bolalar bilan to‘g‘ri muloqot qilishni o‘rgatish

📌 Muammoli oilalar bilan individual ishlash – oilalarga psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish

📌 Huquqiy savodxonlikni oshirish – ota-onalarga bolalar huquqlari va majburiyatlarini tushuntirish

4. Ijtimoiy adaptatsiya va integratsiya jarayonini takomillashtirish

📌 Maxsus reabilitatsiya dasturlari – nogiron va muhtoj bolalar uchun maxsus moslashuv dasturlari yaratish

📌 Kasbga yo‘naltirish va ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish – bolalarning mustaqil hayotga tayyorgarligini oshirish

📌 Madaniy va sport tadbirlarini rivojlantirish – bolalarning ijtimoiy muhitga qo‘shilishiga ko‘maklashish

5. Ijtimoiy hamkorlik va hamkorlik tarmoqlarini kengaytirish

📌 Davlat va nodavlat tashkilotlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish

📌 Jamoatchilik va mahalla tizimini jalb qilish

📌 Xususiy sektor va homiylarni bolalar ijtimoiy himoyasiga jalb qilish

6. Bolalar bilan ishlashning profilaktik tizimini kuchaytirish

📌 Maktab va bog‘chalarda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimini kuchaytirish

📌 Bola huquqlarini buzishning oldini olish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish

📌 Erta aniqlash tizimlarini takomillashtirish

Xulosa

Yuqoridagi takliflar bolalar bilan ijtimoiy ish texnologiyalarining samaradorligini oshirishga va ularning huquqlarini yanada samarali himoya qilishga yordam beradi. Texnologiyalar, kadrlar, oilaviy muhit va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi orqali bolalarning ijtimoiy muhitga integratsiyasi ta’minlanadi. Zamonaviy yondashuvlar ijtimoiy ishning faqatgina yordam beruvchi emas, balki taraqqiyotga yo‘naltiruvchi va bolani mustaqil hayotga tayyorlovchi muhim tizim sifatida shakllanishini taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, bolalar bilan ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish texnologiyalari faqat muammolarni bartaraf etishga emas, balki bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni hayotga tayyorlash va huquqiy madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladigan muhim ijtimoiy institutdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.X. Ganieva, Q.N. Kayumov, M.B. Sherov. Ijtimoiy ishga kirish. Darslik. Toshkent – 2020. 118-120-betlar.

2. Исломов Х.Х. (2021). Ижтимоий иш асослари. Тошкент: “Ижтимоий фанлар нашриёти”. 134-135-betlar

3. Qodirov, A., & Xodjayev, M. (2020). Yoshlar bilan ijtimoiy ish texnologiyalari. Toshkent: “Ilm ziyo”.

4. Payne, M. (2014). Modern Social Work Theory. Palgrave Macmillan.

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA IJTIMOIY HAYOT.

Urinboyeva Jamila Ulug‘bek qizi
Oriental universiteti
jamilaurinboyeva43@gmail.com

Annotatsiya: O‘rta Osiyo mintaqasi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida jiddiy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Shular jumlasidan, mustamlaka Turkiston xalqlari va o‘lkada ko‘pmillatlilikning shakllanish masalalarini tarixiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida vujudga kelgan ko‘pmillatlilikning mohiyati, demografiya muammolarini o‘rganish O‘zbekistonning mustamlaka davr tarixiga yangi ma’lumotlar kiritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zi: O‘rta Osiyo, Turkiston o‘lkasi, Turkistonda bo‘lgan rus va xorijlik sayyohlar, elchilar, harbiylar, ma’murlarga tegishli asarlar, O‘rta Osiyo xalqlari, turmush tarzi, etnik va ijtimoiy tarkibi, sovet davri tarixchilari, manbalar.

Kirish: XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Samarqand viloyatining o‘troq va ko‘chmanchi aholisi yashash sharoitlari mustamlaka boshqaruvi ta’sirida o‘zgarishlarga uchradi. Turkiston o‘lkasini boshqarish uchun ishlab chiqilgan “Nizom”larning yer egaligi

munosabatlariga doir qismlari bir vaqtning o‘zida ham o‘troq aholi ham ko‘chmanchi aholiga o‘zining ta’sirini ko‘rsatib bordi. Masalan, mustamlaka ma’muriyati o‘troq aholining yer-suv masalalari hal etish jarayonida yer egaligining turlarida ham o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Metodologiya: Imperiya hukumati talabi bilan ko‘chmanchilar foydalanib kelayotgan yerlar davlat mulki deb e’lon qilindi. Bu Samarqand viloyatining ko‘chmanchi aholi istiqomat qilib kelgan hududlarida chorvachilikning qisqarishi va o‘troqlashuvning tezlashishiga olib keldi. O‘troq hayotga intilish odamlarni ko‘chmanchi turmush-tarzidagi qiyinchiliklardan qutqarishi nuqtai-nazaridan har bir ko‘chmanchi o‘z mehnati natijalaridan foydalanishini va ularni erkin tasarruf etish huquqini ta’minlash uchun harakat qildilar. Shu maqsadda har bir ko‘chmanchiga yerga ishlov berish, bog‘ va to‘qayzorlar barpo etish, turar joy va xo‘jalik inshootlari qurish uchun imkon berilgan.

Rossiya imperiyasiga qaramlik davrida Samarqand viloyatining Jizzax uezdi aholisini ko‘chmanchilar, o‘troq yerlilar va ruslar tashkil etgan. Jizzax va Xo‘jand uezdlaridagi qirg‘izlarning bu hududlarda paydo bo‘lishi XVI-XVII asrlarga to‘g‘ri keladi. Ular Mirzacho‘l hududida 7524 ta xo‘jalikni tashkil etgan. Shundan 6228 tasi ya’ni, xo‘jaliklarning 82,8 foizi Jizzax uezdiga, 930 ta xo‘jalik, ya’ni 12,4 foizi Xo‘jand uezdiga, 366 ta xo‘jalik, 4,8 foizi Toshkent uezdiga to‘g‘ri kelgan. Toshkentlik qirg‘izlar Xo‘janddagi qirg‘izlarga yaqin yashab kelgan va ular bilan birgalikda yerdan foydalanishgan. Jizzax uezdiga qarashli Qizilqum va Otaqo‘rg‘on bo‘lislarining ayrim qishloqlari yil bo‘yi Qizilqumdan Chimkent uezdi chegarasida, Jizzax uezdi bilan chegaraga yaqin joyda joylashgan bo‘lib, bu yerda ularning doimiy quduqlari mavjud bo‘lgan. Shuningdek, mazkur hudud bo‘yicha ko‘chmanchilarning uy xo‘jaliklari soni miqdori asosiy qismini tashkil etgan qirg‘izlar 97,1 foiz (shu jumladan, qoraqalpoqlar - 5,7 foiz) ni, o‘zbeklar faqat 2,9 foizini tashkil qilgan [1].

Tadqiqot natijalari: 1887-yilgi ma’lumotlar bo‘yicha Samarqand viloyati Xo‘jand uezdi aholisi joylashgan geografik hududi va xo‘jalik yuritish turlari bo‘yicha to‘rt guruhga ajratilgan. Xo‘jand uezdi ham aholining ijtimoiy yashash sharoitlari va xo‘jalik turlariga ko‘ra rang-barangligi bilan ajralib turgan. Samarqand viloyati bo‘yicha xo‘jaliklarning ko‘chmanchi va ovul xo‘jaligi bilan bog‘liq asosiy qismi vakillari Xo‘jand uezdida yashab kelganlar.

Umumiy jihatdan olib qaraganda Samarqand uezdi aholisining hududiy joylashuvi va ularning xo‘jalik yuritish shakllari boshqa uezdlarga nisbatan ajralib turgan. Xo‘jand uezdi aholisining asosiy qismini asosan o‘troq dehqonchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi tojiklar tashkil etgan. Aholining asosiy qismi shahar va qishloq hududlarida yashab kelgan. Sirdaryo oqib o‘tuvchi vodiy hududlarida yashovchi tojiklar asosan dehqonchilik bilan shug‘ullanib, Sirdaryodan ariqlar chiqarib sug‘orish tarmoqlarini tashkil etishgan [2]. Shu tariqa mazkur xalq mintaqaning egalariga aylanishib, yer haydash, bog‘dorchilik va boshqa dala ekinlarida yaqqol ajralib chiqishgan edi.

X.Toshev XIX asrning ikkinchi yarmida Zarafshon vohasida yashagan aholini mashg‘ulotlariga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin, deb hisoblaydi [3]. Vohaning o‘troq aholisi dehqonchilik bilan chorvachilikni qo‘shib olib borgan. Bunday xo‘jaliklarda yer, suv yetakchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Ular paxta, g‘alla, dukkakli ekinlar, poliz va sabzavot ekinlari, shuningdek beda ekishgan. Vohaning cho‘l va dasht qismida yashagan aholi turmushida esa, aksincha, chorvachilik yetakchi o‘rinda turgan. Viloyatning asosiy hududlaridan biri hisoblangan o‘rta Zarafshon vohasida ham o‘troq ham ko‘chmanchi turmush- tarziga xos bo‘lgan aholi vakillari yashab kelgan. Umuman, voha aholisi turmushida dehqonchilik chorvachilik bilan

uyg‘unlashib borgan, chunki yer haydashda, g‘alla yanchishda, suv tortishda, hosilni tashishda hayvon kuchidan foydalanilgan. Chorva mollarining ko‘plab boqilishi aholining oziq-ovqat (go‘sht, sut mahsulotlari), kiyim-kechak (issiq kiyim-bosh va poyabzal) va yerni mahalliy o‘g‘it bilan boyitish imkonini bergan. XIX asrning ikkinchi yarmida o‘troqlashuv jarayonlarining kuchayib borishidagi asosiy omillardan biri yaylovlarning qisqarib ketganligi bilan bog‘liq edi. Natijada Zarafshon vohasining tog‘li va dasht hududlarida yashovchi chorvador aholining katta qismi o‘troq turmush tarziga o‘tadi. Ammo ayrim o‘zbek etnik guruhlari (nayman, xitoy, saroy) yarim o‘troq turmush tarzini davom ettirib, ularning asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lib qolavergan. Shuningdek, voha chekkalarida, dashtga yaqin bo‘lgan hududlarda yashovchi o‘troq aholi ham chorvachilik bilan shug‘ullangan.

Tahlillar: O‘troq aholining hududiy geografik joylashuviga ko‘ra, ularni shahar va qishloqlarda yashab kelgan guruhlarga ajratgan holda tahlil etish mumkin. Viloyat aholisining yashash tarzidan kelib chiqib o‘troq, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi bo‘lislar tashkil etilgan. Xususan, Xo‘jand uezdidagi Savat uchastkasida 1 ta ko‘chmanchi bo‘lis – Erjar va 1 ta yarim ko‘chmanchi bo‘lis – Uralsk bo‘lgan[4]. Uezddagi ko‘chmanchi va o‘troq aholini Sirdaryo daryosi ajratib turgan. Jizzax uezdidagi ko‘chmanchilar Qizilqum tekisliklari, Sirdaryo bo‘yidagi to‘qayzorlar va Mirzacho‘lning g‘arbiy qismlarida yashagan. Xo‘jand uezdidagi ko‘chmanchilar Mirzacho‘l, qisman Dalvarzin cho‘li va Sirdaryo bo‘yidagi to‘qayzorlarda yashagan. Ko‘chmanchilar soni Xo‘jand uezdida 8265 nafarni tashkil etgan. Mazkur uezdlarning ko‘chmanchilari o‘zlarining hududida ko‘chib yurib, oz qismi o‘zlarining va o‘zgalarning podalari bilan yoz oylarida Yag‘nob daryosining yuqori oqimiga yoki Sirdaryo viloyatidagi Chirchiq daryosi bo‘ylariga ketganlar[5].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand viloyatida xo‘jalik yuritish shakllaridagi evrilishlar asrlar davomida shakllanib kelgan an’anaviy xo‘jalik tariblarida o‘zgarishlar yasadi. Tadqiqotchilarning fikrlariga ko‘ra, viloyatdagi ko‘chmanchi chorvador aholi asosan Nurota, Hisor, Toshkent, Xo‘jand, Panjikent va Qarshi oralig‘idagi geografik hududlarda xo‘jalik yuritgan. Ko‘chmanchi aholining bir yaylovdan ikkinchi yaylovga ko‘chib yurishlari uchun birinchidan yaylovlar yilning ma’lum vaqtlarida mavjudligi yoki yaylovlardagi maysalarning yetishmovchiligi, ikkinchidan insonlar va chorva uchun suv tanqisligi sabab bo‘lgan[6].

Xulosalar: Viloyatning o‘troq aholi vakillari singari bu yerda yashovchi o‘zbeklar ham asosan shahar va qishloqlarda istiqomat qilishib, dehqonchilik, bog‘dorchilik va savdo bilan shug‘ullanishgan. Viloyatning yarim o‘troq xo‘jalik shaklida yashovchi aholisi qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullansalar-da, chorva mollarini ham boqib kelishgan. Bahor kelishi bilan bahorgi g‘alla ekinlarini ekib bo‘linganidan so‘ng, o‘zlariga tegishli chorvalarini kech kuzga qadar yaylovlarga olib chiqib ketishgan. Dehqonchilikning sug‘orish pallalarida esa sug‘orish uchun dehqonchilik dalalariga qaytishgan. Samarqand viloyati o‘troq va ko‘chmanchi aholisining rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish masalalari, bugungi kunga qadar o‘zining dolzarb ahamiyatini yo‘qotmagan holda ilmiy jamoatchilikda o‘ziga xos maxsus ko‘chmanchishunoslikning muhim ilmiy-nazariy muammolaridan biridir. Mazkur jihat eng avvalo, o‘troq va ko‘chmanchi aholi tarixiy taraqqiyotning mohiyati va darajasini baholash, ularning tadqiq qilinayotggan davr ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlariida tutgan o‘rni va rolini baholash uchun xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, Samarqand viloyatining ko‘chmanchi aholisi ham muayyan tabiiy, ekologik va tarixiy sharoitlarda shakllangan o‘ziga xos turmush sharoitida yashaganlar.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar.

1. Материалы по землепользованию туземного кочевого населения района Голодной степи и прилегающих местностей Ходжентского и Джизакского уездов Самаркандской области // Туркестанский Сборник. Том. 565. – Ташкент, 1914. – С. 18.
2. Кушакевич А.А. Сведения о Ходжентском уезде // Записки императорского Русского географического общества по общей географии. – СПб., 1871. – Т.4. – С. 15.
3. Тошев Х. XIX аср охири – XX аср бошларида Зарафшон ўзбекларининг хўжалиги ва ижтимоий турмуши. – Тошкент: Фан, 1987. – В. 4.
4. Ўз МА И-18-жамғарма, 1-рўйхат, 3263-иш, 232-варақ.
5. Ўз МА И-7-жамғарма, 1-рўйхат, 4132-иш, 23-24-варақлар.
6. Базарбаев А.М. XIX аср охири – XX аср бошларида Мирзачўлда аграр муносабатлардаги ўзгаришлар: Тарих фан. фалсафа докт (PhD) дисс автореф. – Тошкент. 2018. – В. 20
7. https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=khjVcA0AAAAJ

XIX ASR IKKINCHI YARMI XX ASRLARDA ZARAFSHON MUZOFOTINING TASHKIL ETILISHI

Urinboyev Dostonbek Ulug‘bek o‘gli
Oriental universiteti magistri

Annotatsiya: Jahon taraqqiyotida davlatlar, jamiyatlar rivojlanib borgani sari inson omili tobora bosh o‘ringa chiqa boradi. Bu borada ijtimoiy tarix masalasi har bir jamiyatning taraqqiyoti va turli ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi munosabatlarni ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida vujudga kelgan ko‘pmillatlilikning mohiyati, demografiya muammolarini o‘rganish O‘zbekistonning mustamlaka davr tarixiga yangi ma’lumotlar kiritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zi: O‘rta Osiyo, Turkiston o‘lkasi, Turkistonda bo‘lgan rus va xorijlik sayyohlar, elchilar, harbiylar, ma’murlarga tegishli asarlar, O‘rta Osiyo xalqlari, turmush tarzi, etnik va ijtimoiy tarkibi, sovet davri tarixchilari, manbalar.

Kirish: O‘rta Osiyo mintaqasi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida jiddiy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Shular jumlasidan, mustamlaka Turkiston xalqlari va o‘lkada ko‘pmillatlilikning shakllanish masalalarini tarixiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishi va Samarqand viloyatining tashkil etilishi. XIX asrning o‘rtalarida mustamlakachi ikki imperiya, ya’ni Angliya va Rossiyaning manfaatlari Turkistonda to‘qnashadi. O‘rta Osiyoning Rossiya tomonidan zabt etilishi 1953 yildan 1885 yilgacha davom etdi. 1864 yilda harbiy harakatlar boshlanib 1865 yil 17 mayda general Chernyayev qo‘shinlari Toshkentni ishg‘ol qildi. 1866 yilda Xo‘jandni, O‘ratepani va Jizzaxni egallab, Buxoro xonligi hududiga kirdi.

Metodologiya: Samarqandni egallagandan so‘ng rus askarlari 1868 yil 17 mayda Kattaqo‘rg‘onga yurish boshladi. Shaharda hayot osoyishta kechar, bek O‘rdada o‘tirar, soliq yig‘ishtirar, bo‘ysunmaganlar jazolanardi. Buxoro amiri Kattaqo‘rg‘on yaqinida harbiy lashkar qoldirib, uning boshlig‘i Umarbekka istilochilarni o‘tkazmaslikni buyuradi. Ammo Golovachev boshliq rus qo‘shinlari yaqinlashganda Umarbek Shahrisabzga qochib ketadi. Ertalab Kattaqo‘rg‘on aholisi bek g‘oyib bo‘lganini eshitdi. 1868 yil 18 mayda shaharga kiradi. Bitta rota qal’ada, qolganlari Chig‘anoq qishlog‘ida joylashdi. 1868-yil 29-mayda Kattaqo‘rg‘on atrofida 30 ming kishidan iborat qo‘shin va olomon rus askarlariga qarshi jangga tashlandilar. Dushman bu

urushda 30 to‘p va 13156 dona miltiq o‘qlarini ishlatib, 7000 kishining yostihini quritdi. Ammo bu katta talofatga qaramay, vatanparvarlar 31 mayda Kattaqo‘rg‘on istehkomidagi rus askarlariga hujum qildilar. Kattaqo‘rg‘ondagi janglar bosqinchilarga qarshi kurashning eng daxshatlilaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham Kattaqo‘rg‘onga Kaufmanning shaxsan o‘zi borishi bejiz bo‘lmagan[1]. Ikki kundan keyin Kaufman keladi. Shu kuni Kattaqo‘rg‘onga amir elchisi ham keladi. Biroq tinch muzokaralar samara bermagach, bundan g‘azablangan Buxoro amiri Zirabuloqqa qo‘shin keltirishi ruslarni og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. General Kaufman rus qo‘shinlarini jamlab, Buxoro amiriga zarba berishga qaror qiladi. Golovachev qo‘shinida 2 ming odam bor edi.

1868 yil 23 iyunda Buxoro amiri Turkiston general-gubernatori fon Kaufman bilan sulh tuzib, Rossiyaning vassaliga aylanadi. Bu sulhga ko‘ra, Buxoro amirligi o‘z mustaqilligini yo‘qotibgina qolmay, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on va Zarafshon daryosining yuqori qismidagi yerlardan ham ajraldi. Chor imperiyasi tomonidan bosib olingan hududlarda ma’muriy hududiy birlik, ya’ni markazi Samarqand bo‘lgan Zarafshon okrugi tuzildi, okrug boshlig‘i etib Aleksandr Konstantinovich Abramov tayinlandi. [2]

Tadqiqot natijalari: Turkiston o‘lkasi uzil-kesil tashkil etilguniga qadar Buxoro amirligidan 1868 yilda qo‘lga kiritilgan erlarda alohida Zarafshon muzofoti tashkil etiladi. Zarafshon muzofoti ma’muriy munosabatlarda ikki: Samarqand va Kattaqo‘rg‘on bo‘limlariga bo‘linadi. Ular o‘rtasidagi chegara muzofot boshlig‘i tomonidan belgilanadi. Bo‘limlar o‘rtasidagi chegara chizig‘i Samarqand va Kattaqo‘rg‘on bekliklari o‘rtasida mavjud bo‘lgan chegaralar asosida o‘tkazilishi lozim.

Zarafshon muzofoti janubda Shahrisabz tog‘lari, g‘arbda Buxoro amirligi bilan chegara chizig‘i (u Kattaqo‘rg‘onning oldidan alohida xalqaro komissiya tomonidan o‘tkaziladi), shimolda Nurato tog‘lari va sharqda Ilono‘tti darasi va Qoshg‘ar-Davon tizmasi tarmog‘i bilan chegaralanadi. Sangzor vodiysi ham Zarafshon muzofoti tarkibiga kiradi. So‘ng Zarafshon muzofoti Turkiston general-gubernatori tomonidan tayinlanadigan va chetlatiladigan alohida boshliq yurituvida bo‘ladi.[3]

Zarafshon muzofoti boshlig‘i qo‘lida unga biriktirilgan muzofotdagi harbiy-xalq va harbiy boshqaruv jamlanadi. Yettisuv va Sirdaryo viloyatlari harbiy gubernatorlari bilan teng huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan Zarafshon muzofoti boshlig‘i harbiy-xalq boshqaruvi ishlari bo‘yicha bevosita Turkiston general-gubernatoriga bo‘ysunadi. Zarafshon muzofoti boshlig‘i boshqaruvi ostidagi hududda joylashgan qo‘shinlar jangavor munosabatlarda Zarafshon muzofoti boshlig‘iga bo‘ysunadi. Boshqa barcha munosabatlarda bu qo‘shinlar Sirdaryo viloyati qo‘shinlari qo‘mondoni yurituvi ostida faoliyat olib borganlar.

Zarafshon muzofoti boshlig‘i harbiy xalq boshqaruvi ishlari bo‘yicha o‘z huzuridagi mahkama va topshiriqlar uchun xizmatchilar orqali harakat qiladi. Qo‘shinlarni boshqarish uchun uning huzurida yo‘l mahkamasi bo‘lishi ta’minlanadi. Natijada, ikkala mahkamaning tarkibi va topshiriqlar uchun xizmatchilar soni, ularning ta’minoti shtatlar bilan belgilanadi.

Turkiston general-gubernatori tomonidan tasdiqlangan “Zarafshon muzofotini boshqarish bo‘yicha muvaqqat shtatlarning yangi loyihasi” nuxsasi yuborilganligi ma’lum qilingan ma’lumotlar mavjud bo‘lib unda Zarafshon muzofotida harbiy-xalq boshqaruvi amaldorlari muzofot boshlig‘i taqdimi bilan Turkiston general-gubernatori tomonidan vazifalariga tayinlanadilar va bo‘shatiladilar. Zarafshon muzofoti boshlig‘i yo‘qligida yoki betobligida uning vazifasini bo‘lim boshliqlaridan kattasi bajaradi. Zarafshon muzofoti boshlig‘ining muzofotni

boshqarish joyi Samarqand shahrida joylashgan va bo‘limni boshqarish o‘sha yerdan turib amalga oshirilgan. [4]

Tahlillar: 1868 yil 29 mayda Kattaqo‘rg‘on atrofida 30 ming kishidan iborat qo‘shin va olomon rus askarlariga qarshi jangga tashlandilar. Dushman bu urushda 30 ta to‘p va 13156 dona miltiq o‘qlarini ishlatib, 7000 kishini yostig‘ini quritdi. Ammo bu katta talofatga qaramay, vatanparvarlar 31 mayda Kattaqo‘rg‘on istehkomidagi rus askarlariga xujum qildilar. Kattaqo‘rg‘ondagi janglar bosqinchilarga qarshi kurashning eng dahshatlilaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Shuning uchun ham Kattaqo‘rg‘onga Kaufmanning shaxsan o‘zi borishi bejiz bo‘lmagan. Bu paytda Abdumalik to‘ra boshchiligida Qarshi va G‘uzorda ruslarga qarshi xujumga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rilayotgan edi. Ular Hisor, Sherobod qo‘ng‘irotlariga, Qarshi atrofida istiqomat qilib turgan aholi hamda Ersari turkmanlariga xat yollab, Abdumalik to‘raga sodiq bo‘lishga da’vat etdilar, qasamyod qilib, ruslarga qarshi otlanishga chaqirdilar. Tez orada Abdumalik to‘raga tarafdor bo‘lgan, g‘azot alangasida yongan kishilar to‘da-to‘da bo‘lib G‘uzorga yig‘ila boshladilar. Hisor, Sherobod, Denov, Kulob bekliklarida Amir Muzaffar tomonidan qo‘yilgan hokimlar ag‘darilib, Abdumalik to‘raga tarafdor kishilar tizginni qo‘lga oldilar. Zarafshon vohasida chorizm mustamlakachilik istibdodi va mahalliy amaldorlar zulmiga qarshi ko‘tarilgan dehqonlar qo‘zg‘oloni 1869-yilning oktabr oyida boshlanib, 1870-yilning sentabr oyiga qadar davom etgan. Ushbu qo‘zg‘alonlardan biri, Bobon Aliboyev (Bobon to‘qsabo) boshchiligida Kattaqo‘rg‘on uezdida bo‘lib o‘tgan.[5]

Xulosalar: O‘zining ko‘p ming yillik tarixi davomida yuzlab etnoslar va etnik birliklarni bag‘riga sig‘dirgan O‘zbekiston tarixini ham aholining etnik tarkibi va soni kabi asosiy aspektlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Zero, ma’lum bir hudud aholisining milliy tarkibi va soni to‘g‘risida chop etilgan yozma manbalar, arxiv materiallari, ilmiy tadqiqotlar va tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarning tarixiy-manbaviy tahlili tarix fanining bosh masalalaridan biri hisoblanadi. Keltirilgan ma’lumotlardan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on bo‘limiga ko‘ra, Samarqand aholisining etnik tarkibi va soni to‘g‘risida yangi faktlarni qo‘lga kiritish imkoniyatini berdi. Kattaqo‘rg‘on bo‘limida uylarning umumiy soni 2080 tani tashkil etib, shundan 48 tasi ruslarga tegishli bo‘lgan. Samarqand shahri aholisining etnik tarkibi va soni to‘g‘risida faqat muzofot boshlig‘i mahkamasi hujjatlaridan nisbatan ishonchli ma’lumotlarni olish mumkinligi aniqlandi. Shaharning barcha aholisi qo‘shinlardan tashqari 10000 jonni tashkil etgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar.

1. Sodiqov H. R.Shamsutdinov, P.Ravshanov, Q,Usmonov.”Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida ” Toshkent-2000. B-111.
2. G.B.Normurodova. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand viloyati aholisining ijtimoiy stratifikatsiyasi. – Toshkent: Yangi nashr, 2013. B-55.
3. Axmedov T. “Zarafshon muzofoti boshlig‘i mahkamasi ish yuritish hujjatlari tarixiy manba sifatida” (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent – 2021. B-30-32.
4. Axmedov T. “Zarafshon muzofoti boshlig‘i mahkamasi ish yuritish hujjatlari tarixiy manba sifatida” (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent – 2021. B-41-43.
5. Abdiyev H, Qo‘nishev J. “Tarix:istilolar va qo‘zg‘alonlar” Toshkent 2016. B-36.

O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING O‘RNI.

Omonboyev Luqmon Abduqayim o‘g‘li
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali xodimlar bo‘limi,

Annotatsiya: Mazkur maqolada, O‘zbekistonda millatlararo totuvlikni ta’minlash va etnik guruhlar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni mustahkamlashda milliy madaniy markazlarning roli tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu markazlarning faoliyati, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va madaniy xilma-xillikni asrashdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so’zlar: Milliy madaniy markazlar, millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik, madaniy xilma-xillik, tolerantlik, O‘zbekiston xalqlari do‘stligi.

KIRISH: Milliy madaniy markazlar O‘zbekiston hududida yashovchi turli millat va elat vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirish, urf-odat, an’ana va qadriyatlarni saqlash va keyingi avlodlarga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Bu markazlar mamlakatimizda amaldagi huquqiy-me’yoriy hujjatlar va o‘z nizomlari asosida faoliyat olib boradi. Ularning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular turli millatlar uchun xos bo‘lgan madaniyat, til, urf-odatlar, qadriyatlar, an’ana va marosimlarni o‘rganish, saqlash va rivojlantirishga qaratilgan. Milliy madaniy markazlar o‘z faoliyatida O‘zbekiston fuqarolarini ixtiyoriy ravishda birlashtiradi.

Mamlakatimizdagi birinchi milliy-madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar va armanlar tomonidan 1989-yilda tashkil etildi. Ularning chinakam rivojlanishi va o‘sishi O‘zbekiston mustaqil bo‘lgach boshlangan. Mustaqillik yillarida bu markazlarga samarali faoliyat yuritish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. 1992-yilda 10 ta milliy-madaniy markaz faoliyat olib borgan bo‘lsa, 1995-yilda ularning soni 72 taga, 2003-yilda esa 135 taga yetdi. Hozirgi kunda Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 150 ta milliy madaniy markaz, 38 ta do‘stlik jamiyati va xorijdagi vatandoshlarning 38 ta jamiyati bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Bu markazlar respublika miqyosida faoliyat yurituvchi madaniy markazlar, viloyat, shahar va tuman madaniy markazlaridan tashkil topgan.

O‘zbekiston — ko‘p millatli davlat bo‘lib, bu yerda yuzdan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Mustaqillik yillarida mamlakatda millatlararo totuvlikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shu jarayonda milliy madaniy markazlar muhim ijtimoiy institut sifatida shakllandi va rivojlandi. Ular turli millatlar madaniyatini asrab-avaylash, o‘zaro hurmat, do‘stlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashda beqiyos rol o‘ynamoqda.

Milliy madaniy markazlar tushunchasi va ularning shakllanishi

Milliy madaniy markazlar — bu O‘zbekistonda yashovchi milliy ozchiliklar manfaatlarini ifoda etuvchi, ularning madaniy merosini asrash, tilini, an’ana va urf-odatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi nodavlat-notijorat tashkilotlardir. Ular ilk bor 1992-yildan boshlab O‘zbekistonda faoliyat yurita boshladi. Bugungi kunda mamlakatimizda 140 dan ortiq milliy madaniy markazlar mavjud.

Millatlararo totuvlik va barqarorlikni ta’minlashdagi roli

Milliy madaniy markazlar:

- Har bir millat vakillarining madaniy huquqlarini ta’minlaydi;
- O‘zaro hurmat, do‘stlik va bag‘rikenglik muhitini rivojlantiradi;

- Millatlararo dialog maydonini yaratadi;
- Bayramlar, ko‘rgazmalar, ilmiy va amaliy anjumanlar, adabiy kechalar tashkil qiladi;
- Yoshlarda vatanparvarlik ruhini, o‘zligiga hurmat hissini shakllantiradi.

Masalan, "O‘zbekiston koreyslari madaniy markazi", "Tatar-Boshqird madaniy markazi", "O‘zbekiston yahudiylari madaniy markazi", "Nemis madaniy markazi" singari markazlar doimiy ravishda o‘z xalqining urf-odatlari, tili, madaniyatini targ‘ib qilib kelmoqda.

Davlat siyosati va huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun, “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” millatlararo totuvlik va madaniy xilma-xillikni himoya qilishga xizmat qiluvchi asosiy huquqiy hujjatlardir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek:

“Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik – bizning beqiyos boyligimizdir.”

Dastlabki milliy-madaniy markazlar 1989-yilda respublikaning viloyatlarida koreys, qozoq, yahudiy va arman millatlarining tashabbusi bilan tashkil etilgan. Biroq ularning jiddiy rivojlanishi O‘zbekistonning mustaqillikka erishganidan so‘ng boshlandi. Mustaqillik tufayli milliy-madaniy markazlar uchun faoliyat yuritish yo‘lida keng sharoit va imkoniyatlar yaratildi. Bu esa markazlar sonining yil sayin ortib borishiga olib keldi. Masalan, agar 1992-yilda mamlakatda 10 ta milliy-madaniy markaz faoliyat olib borgan bo‘lsa, 1995-yilga kelib ularning soni 72 taga, 2003-yilga esa 135 taga yetdi.

Milliy-madaniy markazlarning asosiy vazifalaridan biri – turli millat vakillarining O‘zbekiston ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida faol ishtirok etishlarini ta’minlashdan iboratdir. Bundan tashqari, ular xorijdagi turdosh tashkilotlar hamda o‘z tarixiy vatanlari bilan do‘stlik, madaniy-ma’rifiy aloqalarni rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda. Ular Respublika Baynalmilal madaniyat markazi, tegishli vazirlik va idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda fuqarolar o‘rtasida millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashga hissa qo‘shmoqda.

Bu markazlar o‘z faoliyatlarini quyidagi yo‘nalishlarda olib boradilar: musiqa, teatr san’ati, milliy hunarmandchilik, urf-odatlar, adabiyot, til, xalq og‘zaki ijodi, milliy sport o‘yinlari bo‘yicha o‘quv guruhlari va yakshanba maktablari tashkil etadilar. Shuningdek, milliy madaniyat va san’at turlarini, milliy urf-odatlarni o‘rganish va targ‘ib etish maqsadida seminar, anjuman, davra suhbatlari, festival va uchrashuvlar o‘tkazadilar; xor jamoalari va badiiy to‘garaklar tashkil etadilar. Ushbu faoliyatlar Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tomonidan muvofiqlashtiriladi. Bu markaz 1992-yil 13-yanvarda Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan tashkil etilgan.

O‘zbekiston rahbariyati milliy-madaniy markazlarning mamlakatdagi millatlararo do‘stlik va totuvlikni mustahkamlash, turli millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, birdamlik va mehr-oqibat muhitini asrab-avaylash, yosh avlodni vatanparvarlik hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdagi o‘rnini yuksak baholab kelmoqda. Shuningdek, bag‘rikenglik, tinchliksevarlik va insonparvarlik muhitini qaror toptirish, milliy urf-odatlar va an’analarni asrash hamda rivojlantirish, yoshlarda istiqlol g‘oyalariga sadoqat va ona Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish borasidagi faoliyatiga ham katta e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, 2017-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Respublika Baynalmilal madaniyat markazining 25 yilligi munosabati

bilan qabul qilingan farmonga asosan, bir qator milliy madaniy markazlar vakillari orden va medallar bilan taqdirlandi.

Bundan tashqari, Prezidentning 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori asosida milliy-madaniy markazlar faoliyatini takomillashtirish choralari ko‘rilmoqda. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida 2019-yil 30-martda Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 264-sonli qaror qabul qilindi. Unda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek, tegishli vazirlik va idoralarga madaniyat markazlari samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish bo‘yicha vazifalar yuklatilgan.

Yurtimizdagi ijobiy millatlararo muhit tufayli 2020-yilda tojik, turk va qozoq millatiga mansub fuqarolar tomonidan 7 ta yangi milliy madaniy markaz va 2 ta do‘stlik jamiyati tashkil etildi. Shu yili Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan, davlat ijtimoiy buyurtmasiga muvofiq, ushbu markazlar va jamiyatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun 600 million so‘m mablag‘ hamda 1,45 milliard so‘mlik grant ajratildi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yil holatiga ko‘ra, mamlakatimizda 147 ta milliy madaniy markaz, 38 ta do‘stlik jamiyati va xorijiy davlatlardagi vatandoshlar tomonidan tashkil etilgan 38 ta jamiyat bilan hamkorlik olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida turli millat vakillarining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy va madaniy jarayonlarga faol ishtirokini ta’minlash milliy-madaniy markazlar faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Bundan tashqari, markazlar millatlarning xorijdagi millatdoshlari bilan do‘stona aloqalar o‘rnatish va madaniy-ma’rifiy hamkorlikni rivojlantirishga ham hissa qo‘shadi. Respublika baynalmilal madaniyat markazining asosiy maqsadi mamlakat fuqarolari o‘rtasidagi hamjihatlik va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga yordam berishdir. Milliy madaniy markazlar quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi: a) musiqa va teatr studiyalarini tashkil etish, ona tilini, tarixni, yozuvni, adabiyot, xalq og‘zaki ijodi, teatr va rassomchilik san’ati, milliy urf-odatlar, hunarmandchilik, milliy sport va o‘yinlarni o‘rganish uchun o‘quv guruhlari va yakshanba maktablarini tashkil etish; b) milliy madaniyat, til, san’at turlari va urf-odatlarni o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlari, festivallar va uchrashuvlar o‘tkazish; v) xorijiy va badiiy jamoalarni tashkil etish.

Milliy-madaniy markazlar faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvardagi qarori bilan tashkil etilgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi muvofiqlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyat markazlarini tashkil etishning asosiy maqsadi milliy madaniyat, til va urf-odatlarni saqlash va rivojlantirishni o‘rganishdan iborat. Bu markazlar respublika hududida har bir millatning urf-odatlari, an’analari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Sovet davrida millatlararo munosabatlar masalasiga yetarlicha e’tibor berilmagan bo‘lsa-da, endi bu masala mustaqillikdan so‘ng davlat siyosatining muhim bir qismiga aylandi. Sobiq Sovet hukumati davrida milliy siyosat bir yo‘nalishda bo‘lib, milliy madaniyatga e’tibor berilmagan edi. Hozirgi kunda esa, milliy madaniyatni tiklash, rivojlantirish va saqlab qolish mustaqillikdan keyin davlat siyosatining asosiy yo‘nalishiga aylandi.

XULOSA

Barcha ko'rsatilganlarni xulosalaylik, Mazkur maqola tahlil natijalariga asosan, O‘zbekistonda milliy madaniy markazlar nafaqat madaniy merosni asrash va rivojlantirish, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, millatlararo totuvlikni mustahkamlashda ham muhim o‘rin tutadi. Ular bugungi kunda O‘zbekistondagi demokratik, barqaror va taraqqiyotga yo‘naltirilgan fuqarolik jamiyatining ajralmas bo‘lagiga aylangan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, yurtimizda faoliyat yuritayotgan ko‘plab milliy-madaniy markazlar O‘zbekistonning millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik yo‘lidagi qat’iy pozitsiyasining yaqqol ifodasidir. Ular nafaqat turli millatlar va diniy konfessiyalar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik va barqarorlikni ta’minlashda, balki xorijiy davlatlar bilan do‘stona va madaniy-ma’rifiy hamkorlikni mustahkamlashda ham muhim o‘rin tutmoqda. Shu bilan birga, “xalq diplomatiyasi” vositasida chet eldagi vatandoshlar bilan aloqalarni kengaytirishga ham fidokorona hissa qo‘shmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot yo‘li”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
3. www.ziyonet.uz – Milliy madaniy markazlar haqida axborot portali.
4. Axmedov A. “Fuqarolik jamiyati va millatlararo munosabatlar”. – Toshkent, 2019.
5. “Millatlararo totuvlik — taraqqiyot garovi”, Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2020.

YOShLARNI TARBIYALASHDA MAFKURAVIY IMMUNITETNING O‘RNI

Usanova Marjona Baxriddin qizi
Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on shahar
6-sonli umumta’lim maktabi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Jamiyat taraqqiyoti bu uning tizimiga kiruvchi barcha jabhalarning bir butun uyg‘unligi va o‘zaro aloqada, ta’sirda ekanligi. “Mafkuraviy immunitet”, “mafkuraviy profilaktika” va “Mafkuraviy poligonlar” ularning ahamiyati ijtimoiy hayotidagi o‘rni. Jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta’minlashda mafkuraviy immunitetni yanada mustahkam bo‘lishida jamiyatdagi asosiy kuchlar va ular o‘rtasidagi munosabatlarni ham ahamiyati kattadir.

Kalit so‘zlar: Mafkuraviy immunitet, milliy g‘oya din, inson ma’naviy olami, aql – idroki, tafakkuri, qadriyat sog‘lik, axloq.

Jamiyat taraqqiyoti bu uning tizimiga kiruvchi barcha jabhalarning bir butun uyg‘unligi va o‘zaro aloqada, ta’sirda ekanligi bilan bog‘liq. Jamiyat bu insonlarning umumiy ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari asosida birlashgan kishilar birligidir. Jamiyat va uning muhim bo‘lagi bo‘lgan insonlarning ehtiyoj va manfaatlarining birligi bu jamiyatni taraqiyotga olib boruvchi muhim ijtimoiy omil hisoblanadi. Jamiyatdagi barcha sog‘lom insonlarning aql – idroki, tafakkuri, yaratgan boyligi va jamiyatning kelajagi bo‘lgan yoshlarga beradigan bilimlari, jamiyatning meros va qadriyatlari uning bitmas va tugalmas boyligi hisoblanadi.

Shunday ekan aynan shu paytda biz bilan birgalikda mavjud bo‘lgan madaniy meros va ma’naviy boyliklarimiz bizni aktual borlig‘imiz sanaladi.

Bu boyliklarni saqlab qolish va ko‘paytirish har bir insonning qilayotgan mehnati natijalari bilan bog‘liqdir. Buning uchun inson ongi va uning to‘g‘ri tarbiyalanganligi, yoshlarni aql idroki, siyosiy jihatdan charxlanganligi bilan bog‘liqdir. Ingiliz faylasufi Frensis Bekon (1561-1626 yy.)

moddiy olamni bilishda inson bilimining kuchi va qudratiga yuqori baho beradi va birinchi bo‘lib «bilim kuchdir» deb ta’kidlab o‘tishgan, bilim o‘zi nima u qanday hosil bo‘ladi.

“Bilim — kishilarning tabiat jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan voqelik ma’lumotlar va voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqea va hodisalarga (qoidalarga) zid kelmasa bunday ishonch bilim hisoblanadi”[1].

Davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar yosh avlodni ertangi kuniga ishonch bilan dadil qadamlarni qo‘yishni ko‘rsatib beradi. Imkoniyat bu kelajakga bo‘lgan ishonchni belgilaydi. Kelajakda mavjud bo‘lish imkoniyati bor va bo‘lishi mumkin bo‘lgan olam potensial olam hisoblanadi. Shunday ekan yoshlarimizni potensialini belgilab berishda samarali yollarni ko‘rsata olish har bir insonni kundalik faoliyatiga aylanishi kerakdir. Bunday faoliayat ko‘proq yoshlarni bilimga bo‘lgan extiyojini ortirish lozimdir. 2020-yil 24-yanvardagi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomada yilga nom berishda, Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida, men yurtimizda 2020-yilga “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, deb nom berishni, taklif etaman”. deb nom berishi ham jamiyatimizda ko‘proq yoshlarning bilim olishga bo‘layotgan etibordir. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak. Ilim yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”

Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish, uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.”[2]

Bugungi globallashuv davrida davlatlarni qudratini belgilovchi kuch bu ilmiy salohiyati yuqori bo‘lgan yoshlari bilan belgilanadi. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida “Yoshlarning hayoti va sog‘ligini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o‘rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog‘lom turmush tarzini mustahkamlash, Yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish”[3] kabi vazifalar belgilanganligi ko‘rsatilgan Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunga

[1] Falsafa qomusiy lug’at. Toshkent 2004 yil.

[2] Sh.M.Mirziyoyev Oily Majlisga murojaatnoma 2020-yil 24-yanvar

[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида. 2022 йил 28 январь, №ПФ-60. 17-бет. https://lex.uz/docs/5841063

sabab hozirgi kunda yoshlarimizning kitobxonlik madaniyatini shakillantirish va rivojlantirishning milliy g‘oya va mafkurani ularning qalbi va ongiga singdirish borasida o‘rni haqida mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shunday degan edi: “Inson ma’naviy olamini boyitishda ulkan ta’sirga ega bo‘lgan kitob haqida so‘z ochilgan, ekan shu bilan bog‘liq muhim bir masalaga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Yani, bugungi kunda jamiyatimizda kitobxonlik darajasi qanday? U bizni qoniqtiradimi? Kim keyingi paytda qaysi kitobni o‘qidi, farzandimizga qanday kitob olib berdik? Afsuski, ko‘p hollarda bu savollarga ijobiy javob berishimiz qiyin. Odamlarning ongu tafakkuri, dunyoqarashini o‘zgartirish, ma’naviy saviyasini yuksaltirish haqida ko‘p gapiramiz. Lekin bu borada eng oddiy va ayni paytda eng ta’sirchan vosita-bu kitob emasmi? Men shunga aminman kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi. Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q”[1] – deb ta’kidlab o‘tadilar.

Shu o‘rinda davlatimiz taraqqiyoti, kelajagimiz bilimli yoshlar qo‘lida bo‘lish kerak ekanligini anglab yetib: birinchidan, vatanparvarlik ruhida yozilgan adabiyaotlar sonini ko‘paytirish, ikkinchida, kitob mutola qilish tadbirlarini muntazam oshirib borish, uchunchidan yoshlarimiz sog‘lom turmish tarziga roya qilishi, to‘rtinchidan yoshlarni kasbga yo‘naltiradigan darsliklarni yaratish, dolzarb ahamiyatga ega deb hisoblayman.

O‘z o‘rnida jamiyat, davlat rivojlanishi uchun fikr, g‘oya, mafkuralar, hilma xilligini ta’minlashimiz kerak bunday rivojlanish yo‘lini ko‘p kitob o‘qiydigan, vatan taqdiri uchun qayg‘uradigan yoshlar, zamonaviy bilimga ega bo‘lgan insonlargina bera olishga qodir. Bu o‘z navbatida aktual hayotimizdan unimli foydalanishimiz kerak ekanligini anglatadi. Inson va jamiyatni mufkurasiz, g‘oyalarsiz tasavvur etish mumkin emas. “Tabiiyki, milliy g‘oyamiz shu yurtda yashayotgan barcha odamlarning olijanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarni o‘z ichiga oladi”[2]. Mamlakatimizda erishilgan yutuqlarni saqlab qolish uchun inson ongiga ta’sir etayotgan buzg‘unchi g‘oyalardan ularni asrash, himoya qilish uchun, jamiyatimizga xavf solayotgan, uning barqarorligiga ta’sir etmoqchi bo‘lgan omillardan saqlanish uchun alohida mafkuraviy immunitet hosil qilish lozim.

G‘oya faqatgina inson qalbini egallaganda, inson ma’naviy – ruhiy holatining uzviy qismiga aylangandagina harakatga davat etuvchi, rag‘batlantiruvchi kuchga, harakat uchun qo‘llanmaga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini ham egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo‘lib qolmoqda. Har qanday g‘oyani asosini bilim tashkil qiladi, g‘oyani asosida yotuvchi kuch esa maqsaddir. Bugungi kunda hayotimizga kirib kelgan ko‘pgina tushunchalar mavjudki ular bizning hayotimiz uchun zaruriy harakterga ega hisoblanadi. Bu tushunchalar eng avvalo jamiyatimizning xavfsizligi va barqarorligini saqlashda muhim va hayotiy tushunchalardir. Bularni ijtimoiy hayotga birinchi bo‘lib muhtaram birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tadbiq qilganligini gohida ta’kidlash mumkin. Bu tushunchalar “Mafkuraviy immunitet”, “mafkuraviy profilaktika” va “Mafkuraviy poligonlar” hisoblanib ularning ahamiyati ijtimoiy hayotidagi o‘rni beqiyos hisoblanadi. Jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta’minlashda mafkuraviy immunitetni yanada mustahkam bo‘lishida jamiyatdagi asosiy kuchlar va ular o‘rtasidagi munosabatlarni ham ahamiyati kattadir. Jamiyatdagi turli ijtimoiy – siyosiy kuchlar, guruhlar mafkurasi muayyan maqsadlar va manfaatlardan kelib chiqqan

[1] Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: O’zbekiston, 2017.-B.114.2

[2] Каримов И.А. “Юксак маънавият – енгилмас куч”. – Т.: 2008. – Б. 72.

holda davlat siyosatiga, kishilarning onggi va e’tiqodiga ta’sir etishga qaratilgan bo‘ladi. Shu sababli ko‘p partiyali mamlakatlardagi mafkuralarda ifoda etilgan fikrlar, nuqtai nazaridan turli tumanligi taraqiyotning yo‘llari va imkoniyatlarini taqoslab, to‘g‘risini tanlab olishga imkon beradi. Taraqiyot uchun eng xarakterli narsa bir – biridan farq qiluvchi turli mafkuralar mavjud bo‘lishi emas, balki hamma bita mafkuraga qul va qaram bo‘lib qolishidir. Bunday hol kishilarning erkin va mustaqil o‘ylash, fikrlash imkoniyatini cheklaydi.“Fikrqaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy, yoki siyosiy qaramlikdan ko‘ra daxshatlidir” [1].

Demak, mafkuraviy immunitet masalasi har doim diqat e’tiborda bo‘ladigan va shuni talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Mavjud konsteptual g‘oyadan kelib chiqqan holda mavzuning dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, hozirgi davrda aholining ongiga ta’sir etuvchi har xil buzg‘unchi g‘oyalardan ularni saqlash. Bunda ularning ongiga ta’sir etayotgan buzg‘unchi g‘oyalarni asossiz ekanligini ko‘rsata olish va ularda bu g‘oyalarga qarshi tura oladigan mafkurani shakllantirish;

Ikkinchidan, jamiyatning kelajagi bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashda ularga berilayotgan bilimlarning muhim bo‘lagi bo‘lgan mafkuraviy bilimlarni ularning ongiga singdirib borish zarurligi;

Uchinchidan, hozirda mafkuraviy immunitet kategoriyasini o‘rganishga bo‘lgan talabni oshib borayotganligi;

To‘rtinchidan, bugungi globallashuv jarayonida jamiyatda axborot xurujlarining kurtak otib, jamiyatda yashayotgan aholining ongini yot g‘oyalar bilan chulg‘ashga bo‘lgan intilishlar mavjud bo‘lgan sharoitda mafkuraviy immmunitetni o‘rganish va insonlar ongiga himoyaviy mafkurani singdirib borish zarurligi;

Beshinchidan, umuman bir butun jamiyatni har xil xavflardan saqlash va uning barqarorligini taminlash uchun mafkuraviy immunitet zarur ekanligidir.

Xulosa qilib shuni takidlab o‘tish lozimki yoshlarning aktual hayotida mafkuraviy immunitetni oshirishda g‘oyaviy mafkuraviy omillardan tashqari, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham muhim ahamiyatga ega. Masalan xalqimizni ayniqsa yoshlarni uy-joy ish, bilan ta’minlanish darajasini oshirib borish, islohatlarimizning mevasi sifatida yalpi ichki maxsulotni oshib borishi, xalqimizni bosqichma-bosqich farovonligini taminlanganligi ham xalqimizning, ayniqsa, yoshlarni turli yod g‘oyalar ta’siriga qolishidan asrashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Falsafa qomusiy lug‘at. Toshkent 2004 yil.
2. Sh.M.Mirziyoyev Oily Majlisga murojaatnoma 2020-yil 24-yanvar
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида. 2022 йил 28 январь, №ПФ-60. 17-бет. https://lex.uz/docs/5841063
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: O‘zbekiston, 2017.-B.114.
5. Каримов И.А. “Юксак маънавият – енгилмас куч”. – Т.: 2008. – Б. 72
6. Каримов И.А. Донишманд халқимизнинг мустаҳкам иродасига ишонаман. “Фидокор” газетаси, 2000 йил 8 июн.

[1] Каримов И.А. Донишманд халқимизнинг мустаҳкам иродасига ишонаман. “Фидокор” газетаси, 2000 йил 8 июн.

TEKIS ALGEBRAIK EGRI CHIZIQLARNI DARAJALI GEOMETRIYA VA KOMPYUTER ALGEBRASI METODLARI YORDAMIDA TADQIQ QILISH

X.X. Ro'zimuradov
Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali
S.N. Uroqova, Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu ishda bir tekis algebraik egri chiziq darajasi geometriya va kompyuter algebrasi metodlari yordamida tadqiq qilingan

$f(x_1, x_2)$ – funksiya haqiqiy yoki kompleks koeffisiyentli ko'phad bo'lsin. Quyidagi

$$f(x_1, x_2) = 0 \qquad (1)$$

tenglamaning yechimlari to'plamiga

$$F = \{(x_1, x_2) \in \mathbb{R}^2 | f(x_1, x_2) = 0\}, \qquad (F = \{(x_1, x_2) \in \mathbb{C}^2 | f(x_1, x_2) = 0\})$$

yassi (*tekis) algebraik egri chiziq deb ataladi.*

Ma'lumki, $x = (x_1^0, x_2^0)$ nuqtada $f(x_1^0, x_2^0) = 0$ bo'lib, bu nuqtada $\left(\frac{\partial f}{\partial x_1}, \frac{\partial f}{\partial x_2}\right) \neq 0$ bo'lsa, $x = (x_1^0, x_2^0)$ nuqta F - egri chiziqning *oddiy nuqtasi deyiladi*.

Aks holda $x = (x_1^0, x_2^0)$ nuqta (1) chiziqning *maxsus* yoki kritik nuqtasi deb yuritiladi. Koordinatalar sistemasiga siljitish almashtirishini qo'llab, koordinatalar boshini $x = (x_1^0, x_2^0)$ nuqtaga o'tkazamiz. $x = (x_1^0, x_2^0)$ nuqta (1) chiziqning oddiy nuqtasi bo'lganda quyidagi teorema o'rinli.

1 –teorema (Koshi [1])**.** *Agar* $x = (0, 0)$ *bo'lganda* $\frac{\partial f}{\partial x_2} \neq 0$ *bo'lsa , u holda (1) tenglamaning barcha yechimlari* $x = (0, 0)$ nuqta atrofida

$$x_2 = \sum_{k=1}^{\infty} b_k x_1^k$$

yoyilmadan iborat bo'ladi, bu yerda b_k *— o'zgarmaslar (haqiqiy yoki kompleks).*

$x = (x_1^0, x_2^0)$ nuqta (1) chiziqning maxsus nuqtasi bo'lganda yuqoridagi teorema o'rinli emas. Ushbu ishda maxsus nuqta atrofida (1) tenglamaninig taqribiy yechimlarini topish uchun darajali geometriya metodlaridan Nyuton ko'pyoqligi usuli qo'llanilgan [2, 3], ma'lum bir yassi chiziqning maxsus nuqta atrofidagi taqribiy yechimlari topilgan.

$f(x)$ ko'phadni quyidagicha tasvirlab olamiz:

$$f(x) = \sum a_Q x^Q \ , \qquad (2)$$

bu yerda $x = (x_1, x_2)$, $Q = (q_1, q_2)$, $x^Q = x_1^{q_1} x_2^{q_2}$, a_Q-o'zgarmaslar koeffisiyentlar. (2) ko'phadga quyidagi to'plamni mos qo'yamiz.

$$\boldsymbol{S}(f) = \{Q \in \mathbb{R}^2 | a_Q \neq 0\}.$$

S to'plam $f(x)$ ko'phadning tashuvchisi deyiladi. Bu to'plam $Q_1 \ldots, Q_k$ nuqtalardan iborat bo'lsin. $\boldsymbol{S}(f)$ tashuvchining qavariq qobig'i

$$G(S) = \left\{ Q = \sum_{j=1}^{k} \mu_j Q_j, \ \mu_j \geq 0, \ \sum_{j=1}^{k} \mu_j = 1 \right\} = N(f)$$

to'plamdan iborat bo'lib, bu to'plamga $f(x)$ ko'phadning *Nyuton ko'pyoqligi deyiladi.* Bu ko'pyoqlikning chegarasi $\partial N(f)$ to'plam $G_j^{(0)}$ uchlar va $G_j^{(1)}$ qirralardan iborat, bu yerda $\boldsymbol{j}$ — qirra yoki uchning tartib raqamidan iborat.

Har bir ummumlashgan $G_j^{(d)}$ qirraga uning chegaraviy qism to'plami $S_j^{(d)} = S \cap G_j^{(d)}$ mos keladi, bu qism to'plamga $f(x)$ ning qisqartirilgan ko'phadi

$$\hat{f}_j^{(d)}(x) = \sum a_Q x^Q, \quad Q \in S_j^{(d)}$$

mos keladi va bu qisqartirilgan ko'phadga o'zining normal konusi

$$U_j^{(d)} = \left\{ P: \langle P, Q_1 \rangle = \langle P, Q_2 \rangle > \langle P, Q_3 \rangle, Q_1, Q_2 \in G_j^{(d)}, Q_3 \in G \setminus G_j^{(d)} \right\}$$

mos keladi, bu yerda $P = (p_1, p_2) \in \mathbb{R}_*^2$, $\mathbb{R}_*^2$ tekislik $\mathbb{R}^2$ tekislikka qo'shma tekislikdan iborat. Endi $x_1 \in C, x_1 \to 0$ yoki $x_1 \to \infty$ bo'lsin, $o(1)$ - esa x_1 ning funksiyasidan iborat bo'lib, u nolga intilsin. U holda

$$x_2 = bx_1^p\big(1 + o(1)\big), \text{ (bu yerda } b \in \mathbb{C},\ p \in \mathbb{R}\text{)}$$

egri chiziqda

$$f_{q_1q_2} x_1^{q_1} x_2^{q_2} = f_Q x^Q, \qquad (3)$$

(bu yerda $Q = (q_1, q_2)$ $x^Q = x_1^{q_1} x_2^{q_2}$, $f_Q \in \mathbb{C}, x \in \mathbb{C}^2$) (3.3) monom

$$f_Q\, b^{q_2}\, x_1^{q_1+q_2}\,(1 + o(1)) = f_Q\, b^{q_2}\,\{exp[(q_1 + +pq_2)lnx_1]\}(1 + o(1))$$
$$= f_Q\, b^{q_2}\,\{exp[\langle Q, P\rangle \omega |lnx_1|]\}(1 + o(1))$$

qiymatlar qabul qiladi. Bu $P\ va\ \omega$ larda eng katta modullarga shunday (3) monomlarda erishadiki, ularda (2) yig'indilar

$$\omega\langle Q, P\rangle \text{ bunda } Q \in S \qquad (4)$$

miqdor maksimumga erishadi.

Agar $x_1 \to 0$ bo'lsa, *u holda* $\omega = -1$ va vektor $\omega P = (-1, -p)$. Shuning uchun, bu erda masalaning konusi K- bu R^2 tekislikning chap yarim tekisligi va Q nuqtalar (4) maksimal qiymatlar bilan ∂N **chegaraning chap qismida yotadi.**

Agar $x_1 \to \infty$ bo'lsa, *u holda* $\omega = 1$ va vektor $\omega P = (1, p)$. Shuning uchun, bu erda masalaning konusi K- bu R^2 tekislikning o'ng yarim tekisligi va Q nuqtalar (4) maksimal qiymatlar bilan ∂N **chegaraning o'ng qismida yotadi.**

$$f(X) = \sum_{Q \in S} f_Q X^Q = 0 \qquad (5)$$

tenglama yechimlarini

$$x_2 = b_1 x_1^{p_1} + b_2 x_1^{p_2} + b_3 x_1^{p_3} + \cdots, \qquad (6)$$

yoyilmalar ko'rinishida izlaymiz.

2-t**eorema.** (5) tenglamaning (6) yechimlari uchun

$$x_2 = b_1 x_1^{p_1} \qquad (7)$$

qisqartirilgan yechim $\omega(1, p_1)$ tashqi normal vektorli $G_j^{(d)}$ chegara elementiga mos

$$f_j^{(d)}(X) = 0 \qquad (8)$$

qisqartirilgan tenglamaning yechimi bo'ladi.

Ishlab chiqilgan algoritmlarning tadbiqlari.

Faqat bitta maxsus nuqta $X = 0$ ga ega bo'lgan quyidagi egri chiziqning eskizini chizish talab qilinsin. Ushbu

$$f = x_1^2\, x_2^2 + x_1^3 + x_2^2$$

ko'phad berilgan bo'lsin. Ko'phadning tashuvchilari uchta nuqtadan iborat. $Q_1 = (2; 2)$ $Q_2 = (3; 0)$ $Q_3 = (0; 2)$.

Ularning qavariq qobig'i bu uchlarga ega bo'lgan Nyuton uchburchagidir.



1-rasm

Ko'phadning uchta qirrasi $\Gamma_1^{(1)}, \Gamma_2^{(1)}, \Gamma_3^{(1)}$ bor. $\Gamma_1^{(1)} = [Q_1; Q_3]$, $\Gamma_2^{(1)} = [Q_2; Q_3]$, $\Gamma_3^{(1)} = [Q_1; Q_2]$.

Birinchi qisqartirilgan $f_1^{(1)} = x_1^2\, x_2^2 + x_2^2 = 0$ tenglama $x_1 = 0$ yechimga ega. Ikkinchi qisqartirilgan $f_2^{(1)} = x_2^2 + x_1^3 = 0$ tenglama esa

$x_2 = \pm\sqrt{-x_1^3}$ yechimga ega. Uchinchi qisqartirilgan $f_3^{(1)} = x_1^2\, x_2^2 + x_1^3 = 0$ tenglama $x_2 = \pm\sqrt{-x_1}$ yechimga ega:

$\Gamma_3^{(1)}$ qirra holida $x_2 = \sqrt{-x_1}(1 + y_2)$ almashtirishdan so'ng

$$f = x_1^2 x_1^2 (1 + y_2)^2 + x_1^3 + x_1^2 (1 + y_2)^2 = (1 + y_2)^2 = x_1^2((1 + y_2)^2 + 1 + x_1)$$
$$= x_1^2 (x_1^2 y_2^2 + 2x_1^2 y_2 + x_1^2 + y_2^2 + 2y_2 + 1 + x_1)$$

bo'ladi. Qavslar ichidagi qisqartirilgan tenglama uchun

$$(x_1^2 y_2^2 + 2x_1^2 y_2 + x_1^2 + y_2^2 + 2y_2 + 1 + x_1) = 0$$

hosil bo'ladi. Ushbu ko'phadning tashuvchisi va ko'pburchagi 2-rasmda ko'rsatilgan. $Q_1 = (2; 2)$, $Q_2 = (2; 1)$, $Q_3 = (2; 0)$, $Q_4 = (0; 2)$, $Q_5 = (0; 1)$, $Q_6 = (1; 0)$.



2-rasm

$$y_2 = -1 + \sqrt{-1 - x_1}$$
$$x_2 = x_1\sqrt{-1 - x_1}$$

Berilgan polinomning Maple tizimida chizilgan grafigi



Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Брюно А. Д.* Степенная геометрия в алгебраических и дифференциальных уравнениях. М.: Наука, 1998. 288 с.
2. *Barber C. B., Dobkin D. P., Huhdanpaa H. T.* The Quickhull algorithm for convex hulls // ACM Trans. on Mathematical Software. 1996. Vol. 22, no. 4. P. 469–483. DOI: 10.1145/235815.235821.
3. *Брюно А. Д., Батхин А. Б.* Разрешение алгебраической сингулярности алгоритмами степенной геометрии // Программирование. 2012. № 2. С. 12— 30.
4. F. J. Mahmatqobilova, H.X Ro'zimuradov. Yassi algebraik chiziqning maxsus nuqtalari to'g'risida. "Amaliy matematikaning zamonaviy muammolari va istiqbollari" Respublika ilmiyamaliy njuman materiallari to'plami. 2024 yil 24-25- may. Qarshi: "Qarshi davlat universiteti" nashriyoti, 2024. 457-459 betlar.

ANALYSIS OF RECTANGULAR FLAT PLATE BENDING VIA FINITE ELEMENT METHOD (FEM)

Madatov Ibrokhim Abdirafiyevich
Dept. of Theoretical and Applied Mechanics of Samarkand State University,
Turaev Umarkhon
Institute of Engineering Physics of Samarkand State University,
Student, turaev.umarkhon@samdu.uz

Abstract. *Solving engineering problems has been relevant since ancient times. Various solutions have historically addressed different challenges. Today, numerous modern methods and tools are emerging. Engineers now face the challenge of selecting and mastering the most accurate and efficient computational methods. In mechanics, problems are often solved using FEM-based software packages like ANSYS, Abaqus, COMSOL Multiphysics, Lira SAPR, and others. Despite their common basis, differences in computational stages and theories can cause variations in results. Thus, comparing specific problems across different software is necessary. In this article, a flat rectangular plate is analytically solved, and results are compared with ANSYS and Lira SAPR.*

Key words. *ANSYS, Lira SAPR, Finite Element Method (FEM), plate bending, deflection, concrete plate, total deformation, Young's modulus.*

Problem Statement. The objective is to determine the deflection at the center of a flat plate with dimensions $6000 \times 1000 \times 220$ mm, subjected to a uniformly distributed load. The plate is supported with one side hinged-fixed and the opposite side hinged-movable. This deflection will be calculated using various methods.



Figure 1. Rectangular Plate with Distributed Load q

- Case (1): $q_1 = 8\ kN/m^2$
- Case (2): $q_2 = 10\ kN/m^2$
- Case (3): $q_3 = 12\ kN/m^2$

Material properties:

- Concrete, Young's modulus: $E = 3 \cdot 10^{10} Pa$
- Density: $\rho = 2500\ kg/m^3$

Methodology. According to Euler–Bernoulli beam theory, the fourth-order differential equation governing deflection under uniform load is:

$$EI \cdot \frac{d^4y(x)}{dx^4} = q$$

Integrating this equation four times yields the general solution:

$$y(x) = \frac{q}{24}x^4 + \frac{C_1}{6}x^3 + \frac{C_2}{2}x^2 + C_3x + C_4$$

Boundary Conditions:

$$where\ x = 0\ \rightarrow\ y(0) = 0\ ;\ \frac{d^2y(0)}{dx^2} = 0\ ;$$

$$where\ x = l\ \rightarrow\ y(l) = 0\ ;\ \frac{d^2y(l)}{dx^2} = 0\ ;$$

Solving the resulting system of equations leads to the constants:

$$C_1 = -\frac{q}{2}l\ ;\ \ C_2 = 0\ ;\ \ C_3 = \frac{q}{24}l^3\ ;\ \ C_4 = 0\ ;$$

Substituting these into the general solution gives the deflection function:

$$y(x) = \frac{q}{24}x^4 - \frac{q}{12}lx^3 + \frac{q}{24}l^3x$$

The maximum deflection occurs at the midpoint $x = \frac{l}{2}$ substituting into the deflection function:

$$f = y\left(\frac{l}{2}\right) = \frac{5ql^4}{384EI_x}$$

Analytical Results. The analytical results for the concrete plate with dimensions **6000×1000×220** mm simply supported at both ends, with one end pinned and movable (roller support), and the other end pinned and fixed (hinged support) are summarized as follows:

$$f_1 = \frac{5q_1l^4}{384EI_x} = \frac{5 \cdot 8000 \cdot 6^4}{384 \cdot 3 \cdot 10^{10} \cdot \frac{1 \cdot 0{,}22^3}{12}} = 5{,}071\ mm$$

$$f_2 = \frac{5q_2l^4}{384EI_x} = \frac{5 \cdot 10\,000 \cdot 6^4}{384 \cdot 3 \cdot 10^{10} \cdot \frac{1 \cdot 0{,}22^3}{12}} = 6{,}339\ mm$$

$$f_3 = \frac{5q_3l^4}{384EI_x} = \frac{5 \cdot 12\,000 \cdot 6^4}{384 \cdot 3 \cdot 10^{10} \cdot \frac{1 \cdot 0{,}22^3}{12}} = 7{,}607\ mm$$

To simplify the analytical work, we will present the obtained bending values in the table below:

Case №	Load – q_i $[kN/m^2]$	Deflection $[mm]$
1.	8	5,071
2.	10	6,339
3.	12	7,607

Table 2. The results of deflection from Analytical Methods

ANSYS Results. Next, we will calculate the maximum central deflection of a concrete plate under applied load using ANSYS (FEM) Simulation to compare the values obtained through different methods. In ANSYS, elements are considered in a volumetric form. Therefore, to ensure uniformity in the calculations, a connection is established at the neutral plane of the plate during the analysis.



Figure 2. Plate bending under the load q_1 in ANSYS



Figure 3. Plate bending under the load q_2 in ANSYS



Figure 4. Plate bending under the load q_3 in ANSYS

To simplify the analytical work, we will present the obtained bending values in the table below:

Model (A1) > Static Structural (A2) > Solution (A3) > Total Deformation

Case №	Load – q_i $[kN/m^2]$	Minimum [mm]	Maximum [mm]	Average [mm]
1.	8	0,14368	5,1057	3,2596
2.	10	0,28331	6,386	4,0851
3.	12	0,33997	7,6631	4,9022

Table 2. The results of deflection from ANSYS (FEA) simulation

Lira SAPR Results. We calculate the maximum central deflection of a concrete plate under the applied load using Lira SAPR (FEM) simulation. To do this, the plate is modeled according to the given dimensions, and uniformly distributed surface loads are applied to it.



Figure 5. Plate bending under the load q_1 in Lira SAPR



Figure 6. Plate bending under the load q_2 in Lira SAPR



Figure 7. Plate bending under the load q_3 in Lira SAPR

To simplify the analytical work, we will present the obtained bending values in the table below:

Case №	Load – q_i $[kN/m^2]$	Deflection $[mm]$
1.	8	4,99
2.	10	6,24
3.	12	7,49

Table 3. The results of deflection from Lira SAPR

Conclusion. To analyze the results of the analytical method, ANSYS (FEM), and Lira SAPR (FEM) calculations, we summarize the results (tab.4) and present them graphically (fig.8).

Case №	Load – q_i $[kN/m^2]$	Deflection $[mm]$		
		Analytical Results	ANSYS Results	Lira SAPR Results
1.	8	5,07	5,11	4,99
2.	10	6,34	6,39	6,24
3.	12	7,61	7,66	7,49



Figure 8. General graph of loads and deformations.

By analyzing the data in the table and the graph, the following conclusions can be drawn:

- Even when the loads are the same, the deformation in the element varied depending on the calculation methods used;
- As the loads increased, the deformation in the element increased linearly;
- Other types of stresses (not presented in the article) in the element were observed to change in a different manner, similar to the deformation;

When calculating the deformation of a rectangular flat plate, the difference in values obtained was almost negligible (1–2%) for a single plate. However, in large-scale practical applications, these small differences could become significant. In this study, we considered three different calculation methods, and as mentioned earlier, such software packages are widely available. Therefore, choosing the most optimal software that meets both economic and strength requirements is essential.

REFERENCES

1. Ibrokhim Madatov, Qiang Li, Valentin L. Popov, Actuators Based on Superposition of Normal and Tangential Oscillations, International Conference Advanced Mechanics: Structure, Materials, Tribology, Samarkand State University (2024).
2. V. L. Popov, Nanomachines: Methods to induce a directed motion at nanoscale, Phys. Rev. E 68, 026608 (2003).
3. V. L. Popov, Oscillation-based methods for actuation and manipulation of nano-objects. AIP Conference Proceedings 1882, 020056 (2017).
4. Qurilish me'yorlari va qoidalari. QMQ 2.01.07-96 "Yuklar va ta'sirlar". O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi. Toshkent. 1996 yil. 126-bet.
5. Турабой, Қ., Мадатов, И. А., & Абдуллаев, Б. Н. (2023). Пўлат-темирбетон конструкцияларни замонаваий шаҳар қурилишида қўллаш ва ҳисоблаш муаммолари. Problems of architecture and construction (scientific technical journal), 1(2), 669-674.

SILJISHLI FUNKSIONAL OPERATORLARNING GYOL'DER FAZOLARIDA BIR TOMONLAMA TESKARILANUVCHANLIGI

R.Mardiyev
Mamatqulova Munavvar
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
munavvar19980103@gmail.com

Annotatsiya: Bu ishda Gyol'der fazolarida siljishli funksional operatorlarning bir tomonlama teskarilanuvchanlik shartlari, siljish chekli sondagi qo'zg'almas nuqtalarga ega bo'lgan holda o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Siljish, teskarilanuvchanlik, bir tomonlama teskarilanuvchanlik

Γ-sodda silliq yopiq kontur,α-yo'nalishni saqlovchi Γ konturni o'ziga akslantiruvchi diffeomorfizm (siljish) bo'lib,chekli sondagi qo'zg'almas $\Lambda=\{\tau_1, \tau_2, \dots \tau_n\}$nuqtalar to'plamiga ega bo'lsin (Λ-to'plam bittadan ko'p qo'zg'almas nuqtalarga ega).

Bu ishda $H_\mu(\Gamma)$ $0< \mu \leq 1$ Gyol'der fazosining qism fazosi bo'lgan $H_\mu^0(\Gamma,\Lambda)=\{\varphi\in H_\mu(\Gamma): \varphi(\tau)=0, \tau\in\Lambda\}$ bo'lgan fazoda

$$A= a(t)I-b(t)W$$

ko'rinishdagi siljishli funksional operatorlar qaralgan. Bu yerda a (t),b(t) ∈C(Γ), I-birlik operator,W-siljish operatori: (Wφ)(t)=φ(α(t)),t∈Γ

Ma'lumki Γ kontur Λ qo'zg'almas nuqtalar orqali s ta α siljishga nisbatan invariant bo'lgan γ_k yoylarga bo'linadi. γ yoy orqali γ_k (k=1,2,…s) yoylarning birini belgilaymiz. γ yoyning chetki nuqtalarini $\tau_+ va\ \tau_-$ orqali belgilaymiz.

τ_+ nuqta α(t) siljishning tortiluvchi qo'zg'almas nuqtasi, τ_- esa uning itaruvchi qo'zg'almas nuqtasi.

Ko'rinib turibdiki, ([1],408-409-betlar) A operatorning $H_\mu^0(\Gamma,\Lambda)$ fazoda o'ngdan (chapdan) teskarilanuvchanligi uning har bir $H_\mu^0(\gamma)$= $\{\varphi\in H_\mu(\gamma): \varphi(\tau_\pm)=0\}$ fazoda o'ngdan (chapdan) teskarilanuvchanligiga ekvivalent bo'ladi.

$\eta(\tau)=|a(\tau)|-(\alpha'(\tau))^{\mu}|b(\tau)|,\ \tau\in\Lambda$

belgilashni kiritamiz.

Teorema: A operator $H_\mu^0(\gamma)$ fazoda o'ngdan (chapdan) teskarilanuvchi bo'lishi uchun

1) $\eta(\tau_\pm)>0$, $\forall\ t\in\gamma\ \ a(t)\neq 0$
2) $\eta(\tau_\pm)<0$, $\forall\ t\in\gamma\ \ b(t)\neq 0$
3) $\eta(\tau_+)<0$, $\eta(\tau_-)>0$ va $\forall\ t\in\gamma$, $\exists\ k_0\in\mathbb{Z}$, $k\geq k_0$, $b(\alpha_k(t))\neq 0$ va $k< k_0$, $a(\alpha_k(t))\neq 0$.

(mos ravishda $\eta(\tau_+)>0$, $\eta(\tau_-)<0$ va $\forall\ t\in\gamma$, $\exists\ k_0\in\mathbb{Z}$, $k< k_0$, $b(\alpha_k(t))\neq 0$ va $k> k_0$, $a(\alpha_k(t))\neq 0$).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Г.С.Литвинчук "Краевые задачи и сингулярные уравнениясо сдвигом" Москва "Наука" 1977.

STUDY, ANALYSIS AND DETERMINATION OF STRAIN TENSOR INVARIANTS. SPHERICAL AND DEVIATORIC PARTS OF STRAIN TENSOR

Turaev Mukhammadi,
Kattakurgan Branch of Samarkand State Universitet
Turaev Umarkhon,
Institute of Engineering Physics of Samarkand State University,
Student, turaev.umarkhon@samdu.uz

Bu formula dori moddalarining organizmdagi konsentratsiyasini vaqtga nisbatan hisoblashda ishlatiladi, bu yerda $C(t)$ – dori konsentratsiyasi, C_0 – boshlang‘ich konsentratsiya, k – eliminatsiya tezligi, va t – vaqt

Qon bosimi va yurakning tebranishi (Diferensial tenglamalar):

$$\frac{dH}{dt} = \alpha H(t) + \beta P(t)$$

Bu model yurak urish ritmi $H(t)$ va qon bosimi $P(t)$ o‘rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Ushbu modelda α va β konstantalar.

Riskning o‘lchovi (Standard Deviation yoki Volatilite)

Investitsiyaning riskini o‘lchash uchun eng keng tarqalgan usul – standart og'ish (standard deviation)ni hisoblashdir. Bu investitsiyaning daromadlarining o‘zgarishini yoki volatilligini ko‘rsatadi:

$$\sigma = \sqrt{\frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}\left(R_i - \overline{R}\right)^2}$$

σ – standart og‘ish (risk), R_i – har bir davrdagi rentabellik, $\overline{R}$ – o‘rtacha rentabellik, n – davrlar soni.

Asosiy qism Matematika – boshqa fanlarning asosimi yoki alohida fanmi?

Matematika, nafaqat o‘ziga xos fan, balki boshqa barcha aniq va tabiiy fanlar uchun asosiy vosita va "til" hisoblanadi. Boshqa fanlar o‘z nazariyalarini yaratishda, formulalarini tushuntirishda, va jarayonlarini modellashtirishda matematika bilimlariga tayanadilar. Shu sababli, matematika faqat o‘zining alohida o‘quv fanidan ko‘ra, kengroq yondashuvni talab qiladi, u boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lanib, ularni o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi. Quyida bunday bog‘lanishlarning misollarini keltirib o‘tamiz:

Moliya va iqtisodiyot sohalarida matematika yordamida turli moliyaviy tushunchalar aniqlanadi. Masalan, foiz stavkalari, kredit grafigi, amortizatsiya, investitsiya daromadliligi kabi moliyaviy hisob-kitoblar, progressiya (masalan, arifmetik va geometrik progressiyalar), logarifmlar, statistik taqsimotlar kabi matematik tushunchalar va formulalar asosida amalga oshiriladi. Bu matematik modellar orqali iqtisodiyotda pul aylanmasi, narxlar o‘zgarishi, iqtisodiy o‘sish va boshqa jarayonlarni hisoblash mumkin. Ammo, ko‘pincha matematika fanida o‘rgatilayotgan formulalar real hayotdagi vaziyatlarga tatbiq etilmasdan, faqatgina bitta masalani yechish maqsadida o‘rganiladi. Natijada o‘quvchilar bu bilimlar ularning kundalik hayotida qanday qo‘llanilishini anglamay, ularga nisbatan qiziqish yo‘qotishadi.

Tibbiyotda ham matematika o‘zining muhim o‘rnini ko‘rsatadi. Masalan, qon aylanish tezligi, yurak urish ritmlari, dori moddalarning tana bo‘yicha taqsimlanishi kabi jarayonlar differensial tenglamalar yordamida o‘rganiladi. Bu tenglamalar tibbiy jarayonlarning harakatini, vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini tasvirlashga imkon beradi. Shuningdek, grafik tahlillar tibbiyotda keng qo‘llanilib, tibbiy statistikani va sog‘liqni saqlash ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda yordam beradi. Masalan, yurak urish tezligini kuzatish uchun ishlatiladigan grafiklar va boshqa statistik vositalar matematikaning real hayotdagi qo‘llanilishining yorqin misolidir. Tibbiyotda matematik modellarni ishlatish nafaqat ilmiy tadqiqotlar, balki tibbiy amaliyotda ham samarali bo‘lishi mumkin. Ammo, agar matematika fani faqat nazariy formulalar bilan cheklansa, uning real hayotdagi ahamiyatini tushunish qiyinlashadi va bu o‘quvchilarda motivatsiyani kamaytiradi.

Fizika va kimyo fanlarida ham matematikaning roli juda katta. Fizika va kimyoda barcha asosiy qonunlar va tenglamalar matematika yordamida ifodalanadi. Masalan, harakat tenglamalari, energiya saqlanish qonunlari, konsentratsiya va gazlar qonunlari — bularning barchasi matematik model va formulalar yordamida tasvirlanadi. Fizikada Newtonning harakat qonunlari, kimyoda esa reaksiyalar tezligi va qonunlari kabi masalalar matematikaning kuchli vositalari bilan

yechiladi. Agar matematika fanini faqatgina bu formulalarni yechish uchun o‘rganilsa, o‘quvchilar uchun fizika yoki kimyo fanining amaliyotda qanday qo‘llanilishi qiyinlashadi.
Bularning barchasi shuni ko‘rsatadiki, matematika nafaqat alohida bir fan sifatida o‘rganilishi kerak, balki boshqa aniq va tabiiy fanlar bilan integratsiyalashgan holda taqdim etilishi zarur. Agar matematika darslari faqatgina formulalarni yodlash va ularni yechishga qaratilgan bo‘lsa, o‘quvchilar formulalar va matematik modellarni real hayotdagi misollar bilan bog‘lay olishmaydi, natijada ular bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olmaydilar.
Shu sababli, matematika fani boshqa fanlar bilan bog‘lanib o‘rgatilsa, o‘quvchilar nafaqat matematik bilimlarni o‘zlashtirishadi, balki bu bilimlarni real dunyo muammolarini hal qilishda qanday qo‘llashni ham o‘rganadilar. Bu esa o‘z navbatida ularning bilimlariga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyani oshiradi, shuningdek, o‘quvchilarda o‘rgangan bilimlarning amaliy qiymatini tushunishlariga yordam beradi.

O‘qitishdagi muammolar**:**Fanlararo aloqaning yo‘qligi: Matematika fani o‘qituvchilari ko‘pincha boshqa fanlar bilan integratsiya qilmaydi. Fizika yoki iqtisodiyotga oid masalalarni keltirishdan chetlanadi.
Amaliyotga yaqinlashtirilmagan formulalar: O‘quvchilarga real hayotda qo‘llanadigan foizlar, daromadlar, tezlik va bosim haqida emas, balki hayotdan uzoq formulalar beriladi.
Talabalarda motivatsiyaning yo‘qligi: Talaba formulani o‘rganadi, lekin uning foydasini ko‘rmagani sababli bu bilimni unutiladi.

Yechimlar:Fanlararo integratsiyani kuchaytirish: Matematika darslarida iqtisodiy, tibbiy, texnik fanlarga oid real hayotiy misollar ishlatish talabalarni fanga bog‘laydi.
Amaliy topshiriqlarni kiritish: Misol uchun, foiz hisoblash darsida bank kreditlari, kimyoviy reaksiya darsida matematik tenglamalardan foydalanish orqali talabalar bilimini mustahkamlash mumkin.
O‘qituvchilar uchun fanlararo metodik qo‘llanma yaratish: Har bir matematik mavzuni hayotdagi sohalarga qanday bog‘lash mumkinligi haqida metodik qo‘llanmalar tayyorlash foydali bo‘ladi.

Xulosa:Matematika va boshqa aniq fanlarni o‘qitishda ularning hayotdagi va boshqa fanlardagi o‘rnini ochib berish — asosiy vazifadir. Nazariy bilimni real holatga bog‘lay olmagan ta’lim samarali bo‘la olmaydi. Shu sababli fanlararo yondashuvlar, integratsiyalashgan darslar, amaliy topshiriqlar asosida tashkil etilgan o‘qitish uslublari o‘quvchilar va talabalar tafakkurini rivojlantirishda, fanga bo‘lgan ishonch va qiziqishni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Impendant method for determining the reduction of hydraulic resistance in large arterial vessels with permeable walls FB Abdikarimov, KN Navruzov, SX Razhabov, ZK Shukurov
   Journal of Applied Biotechnology & Bioengineering 5 (2-2018), 79-82
2. Синтез и изучение высших жирных спиртов на основе промышленных отходов и их применение для улучшения свойств дизельных топлив ОБ Ахмедова, МЗ Комилов, СФ Фозилов, ШБУ Мавлонов, СХ Ражабов, ...Universum: технические науки, 75-78
3. Mathematical modeling of hydrodynamic resistance in an oscillatory flow of a viscoelastic fluid
   K Navruzov, S Rajabov, M Ashurov - E3S Web of conferences, 2023
4. Mathematical modeling of hydrodynamic resistance in an oscillatory flow of a viscoelastic fluid K Navruzov, S Rajabov, M AshurovE3S Web of conferences 401, 02026
5. On the reduction of the resistance in the central arterial vessel KN Navruzov, SX Rajabov, ZK Shukurov, A Begjanov, Y BabajonovaAsian Journal of Research 12 (12), 30-31
6. Methods of Transition of Arithmetic and Geometrical Materials in an Inalienable Linkage in Elementary Mathematics Classes Q Tursunov, S Rajabov, S Nurillaev, O Turdimurodov JournalNX 7 (1), 271-275

7. Study of non-stationary flow of viscoelastic incompressible fluid in a flat channel K Navruzov, S Rajabov, N Abdikarimov, O Turdimurodov, R Nasrulloeva E3S Web of Conferences 587, 01012
8. Non-stationary flow of viscoelastic fluid in a cylindrical pipe K Navruzov, S Rajabov, N Abdikarimov, O Turdimurodov, R Nasrulloeva E3S Web of Conferences 587, 01013
9. Эластик ёпишқоқ суюқликларнинг умумлашган реологик модели ННР Наврузов К., Ражабов С.Х.Вестник Хорезмской академии 2023 (2), 212-214

КАСАТЕЛЬНОЕ НАПРЯЖЕНИЕ СДВИГА ПРИ КОЛЕБАТЕЛЬНОМ ТЕЧЕНИИ ВЯЗКОУПРУГОЙ НЕСЖИМАЕМОЙ ЖИДКОСТИ В ПЛОСКОМ КАНАЛЕ

Наврузов К., Rajabov Suxrob Xudoyberdiyevich[1], Turdimurodov Otabek Farxod o'g'li[2]
SamDU Kattaqo'rg'on filiali
rajabovsuxrob72@gmail.com

Аннотация: В данной работе исследуется колебательное течение вязкой и вязкоупругой несжимаемой жидкости в плоском канале, вызванное гармоническими колебаниями расхода жидкости. Подчеркивается значимость этого исследования для биомеханики, в частности, для систем микрочипов, используемых в диагностике органов и адресной доставке лекарств, а также для медико-биологических установок с пневматическими микронасосами. В работе выводятся уравнения, включая дифференциальное уравнение движения и уравнение Максвелла для реологического состояния жидкости, для моделирования данного течения. Решение приводит к определению передаточной функции для касательного напряжения на стенках канала.

Ключевые слова: Колебательное течение, Вязкоупругая жидкость, Плоский канал, Касательное напряжение сдвига, Микрочипы, Биологическая механика, Уравнение Максвелла, Передаточная функция , Амплитудно-фазовая частотная характеристика (АФЧХ).

Исследование колебательное течение вязкой и вязкоупругой жидкости в плоском и прямоугольном канале под действием гармонических колебаний расхода жидкости, могут быть применятся в биологической механике, в частности для работы системы микрочипов . Эти системы предназначены для диагностики работы различных органов человека, а также адресной доставке к ним лекарственных препаратов. Кроме этого с целью обеспечение постоянного расхода жидкости, часто используется медико-биологических установках пневматические микронасосы с периодическим вытеснением жидкости из свободных объемов. В таких системах экономически выгодным могут быть установка с пульсирующим расходам. В связи с этим в данной работе, решены задачи колебательного течения вязкоупругой несжимаемой жидкости между двумя неподвижными параллельными плоскостями. Обозначены расстояния между стенками через $2h$. Ось $0x$ проходит горизонтально в средине канала вдоль потока. Ось $0y$ направлено перпендикулярно к оси $0x$. Течение вязкоупругой жидкости происходит симметрично по оси канала.

Дифференциальное уравнение движения вязкойупругой несжимаемой жидкости в напряжение имеет следующие вид [1]

$$\rho \frac{\partial u}{\partial t} = -\frac{\partial p}{\partial x} - \frac{\partial \tau}{\partial y} \qquad (1)$$

где u -продольная скорость; p -давление; ρ -плотность; τ -касательная напряжения; t -время. Реологическое уравнения состояния жидкости принимается в виде уравнение Максвелла [2,3]

$$(1+\lambda\frac{\partial}{\partial t})\tau(y,t)=-\mu\frac{\partial u}{\partial y} \qquad (2)$$

Здесь λ -время релаксация; μ -динамическая вязкость. В (2) при $\lambda=0$ получаем закон вязкого трения Ньютона. Подставляя (2) в уравнение движения для скорости жидкости, получаем

$$\rho(1+\lambda\frac{\partial}{\partial t})\frac{\partial u}{\partial t}=-(1+\lambda\frac{\partial}{\partial t})\frac{\partial p}{\partial x}+\mu\frac{\partial^2 u}{\partial y^2} \qquad (3)$$

Считаем, что колебательное течение вязкоупругой жидкости происходит за счет заданного гармонического колебание расхода жидкости или продольной скорости осреднённой по сечению канала.

$$Q=a_Q cos\omega t=\mathrm{Re}\,a_Q e^{i\omega t}\ ,\quad <u>=a_u cos\omega t=\mathrm{Re}\,a_u e^{i\omega t}$$

где a_Q и a_u- амплитуды расхода жидкости и амплитуды продольной скорости осредненной по сечению канала. В данном случае течение происходит симметрично по оси канала, а стенке канала удовлетворяется условия прилипание. В силу линейности уравнение (1) продольной скорости, давление, касательное напряжение на стене можно записывать в следующем образом

$$u(y,t)=\mathrm{Re}\,u_1(y)e^{i\omega t},\ p(x,t)=\mathrm{Re}\,p_1(x)e^{i\omega t},\ \tau(t)=\mathrm{Re}\,\tau_1 e^{i\omega t}$$

Подставляя эти выражения в уравнение (3), получаем

$$\frac{\partial^2 u_1(y)}{\partial y^2}-\frac{\rho i\omega\eta^2(i\omega)}{\mu}u_1(y)=\frac{\eta^2(i\omega)}{\mu}\frac{\partial p_1(x)}{\partial x} \qquad (4)$$

Здесь $\eta^2(i\omega)=(1+i\omega\lambda)$

Решения уравнение (4) будет

$$u_1(y)=\frac{1}{\rho i\omega}\left(-\frac{\partial p_1(x)}{\partial x}\right)\left(1-\frac{\cos\left(i^{3/2}\alpha_0\eta(i\omega)\frac{y}{h}\right)}{\cos\left(i^{3/2}\alpha_0\eta(i\omega)\right)}\right) \qquad (5)$$

где $\alpha_0-\sqrt{\frac{\omega}{\nu_0}}h$ - колебательное число Уомерсли (безразмерная частота колебаний); ν_0 - кинематическая вязкость раствора. С помощью решение (5) определяем передаточную функцию $W_{\tau,u}(i\omega)$ для касательного напряжения на стенки, как

$$W_{\tau_1,u_1}(i\omega)=\frac{h}{3\eta_0}\frac{\tau_1(i\omega)}{<u_1(i\omega)>}=-\frac{\left(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0\right)^2\sin\left(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0\eta(i\omega)\right)}{3(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0\eta(i\omega)\cos\left(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0\eta(i\omega)\right)-\sin\left(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0\eta(i\omega)\right))} \qquad (6)$$

Передаточная функция (6), иногда называется амплитудно-фазовая частотная характеристика (АФЧХ). Эти функции позволяет определить изменение касательного напряжение сдвига при заданном законе изменение во времени продольной скорости осредненной по сечению канала. Литература

1. Impendant method for determining the reduction of hydraulic resistance in large arterial vessels with permeable walls FB Abdikarimov, KN Navruzov, SX Razhabov, ZK Shukurov
   Journal of Applied Biotechnology & Bioengineering 5 (2-2018), 79-82

2. Синтез и изучение высших жирных спиртов на основе промышленных отходов и их применение для улучшения свойств дизельных топлив ОБ Ахмедова, МЗ Комилов, СФ Фозилов, ШБУ Мавлонов, СХ Ражабов, ...Universum: технические науки, 75-78
3. Mathematical modeling of hydrodynamic resistance in an oscillatory flow of a viscoelastic fluid
K Navruzov, S Rajabov, M Ashurov - E3S Web of conferences, 2023
4. Mathematical modeling of hydrodynamic resistance in an oscillatory flow of a viscoelastic fluid K Navruzov, S Rajabov, M AshurovE3S Web of conferences 401, 02026
5. On the reduction of the resistance in the central arterial vessel KN Navruzov, SX Rajabov, ZK Shukurov, A Begjanov, Y BabajonovaAsian Journal of Research 12 (12), 30-31
6. Methods of Transition of Arithmetic and Geometrical Materials in an Inalienable Linkage in Elementary Mathematics Classes Q Tursunov, S Rajabov, S Nurillaev, O Turdimurodov JournalNX 7 (1), 271-275
7. Study of non-stationary flow of viscoelastic incompressible fluid in a flat channel K Navruzov, S Rajabov, N Abdikarimov, O Turdimurodov, R Nasrulloeva E3S Web of Conferences 587, 01012
8. Non-stationary flow of viscoelastic fluid in a cylindrical pipe K Navruzov, S Rajabov, N Abdikarimov, O Turdimurodov, R Nasrulloeva E3S Web of Conferences 587, 01013
9. Эластик ёпишқоқ суюқликларнинг умумлашган реологик модели ННР Наврузов К., Ражабов С.Х.Вестник Хорезмской академии 2023 (2), 212-214.

GEOMETRIK YASASHGA DOIR MASALALARNI GEOGEBRA DASTURIDA VIZUALLASHTIRISH

Sharipov X.[1], Xoliqov L.[2]
[1] Samarqand Davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali, sh_xurshid@yahoo.com.
[2] Samarqand iqtisodiyot va servis instiituti Akademik litseyi.

Annotatsiya. Geometriya matematikaning asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, uning tushunchalari ko‘pincha abstrakt va murakkab bo‘ladi. Aynan shuning uchun, geometrik shakllarni vizuallashtirish, o‘quvchilarga ularni tushunishga yordam beradigan muhim vosita hisoblanadi. Geometrik masalalarni yechishda vizualizatsiya metodlari yordamida tushunchalarni aniqroq ko‘rsatish mumkin, bu esa o‘quvchilarning matematik tushunchalarni yanada osonroq o‘zlashtirishiga olib keladi.

Kalit so’zlar: Geogebra, matematik dastur, vizuallashtirish, yasashga doir masala, ta’lim texnologiyalari.

1. Kirish

Geometriya matematikaning asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, uning tushunchalari ko‘pincha abstrakt va murakkab bo‘ladi. Aynan shuning uchun, geometrik shakllarni vizuallashtirish, o‘quvchilarga ularni tushunishga yordam beradigan muhim vosita hisoblanadi. Geometrik masalalarni yechishda vizualizatsiya metodlari yordamida tushunchalarni aniqroq ko‘rsatish mumkin, bu esa o‘quvchilarning matematik tushunchalarni yanada osonroq o‘zlashtirishiga olib keladi.

GeoGebra dasturi matematika va fizika darslarida keng qo‘llaniladigan interaktiv dastur bo‘lib, u algebra, geometriya, statistikalar va boshqa matematik sohalarda ishlash imkoniyatini taqdim etadi. Bu dastur yordamida geometrik shakllarni yaratish, o‘zgartirish va ular bilan ishlash osonlashadi, bu esa darslarni yanada samarali o'tkazishga yordam beradi.

2. GeoGebra Dasturining Imkoniyatlari

GeoGebra dasturida geometrik yasashlarni vizuallashtirish uchun ko'plab qulayliklar mavjud. Ularning ba'zilariga quyidagilar kiradi:

Geometrik ob'ektlar yaratish: GeoGebra yordamida har xil geometrik shakllar yaratish mumkin. Masalan, **to'g'ri chiziqlar**, **doiralar**, **uchburchaklar**, **paralelogrammalar** va

boshqalar. Har bir shakl yaratishda, foydalanuvchi ularning xususiyatlarini o'zgartirishi, masalan, uzunlik, burchak va boshqa parametrlarni ko'rishi mumkin. Bu dastur yordamida geometrik shakllarni yaratish va o'zgartirish jarayoni juda qulay va tushunarli.

O'zgaruvchan geometriya: GeoGebra'da o'zgartirish imkoniyatlari juda keng. O'quvchi biron bir geometrik shaklni yaratgach, uni harakatlantirib yoki o'zgartirib, masalan, chiziqlarning kesishgan nuqtasini yoki doiraning markazini ko'rsatishi mumkin. O'zgarishlarni dinamik tarzda ko'rish orqali o'quvchilar o'zlari matematik jarayonlarni kuzatishlari mumkin.

Vizualizatsiya va dinamiklik: GeoGebra yordamida shakllarning dinamik o'zgarishini ko'rish mumkin. Masalan, doira yaratib, uning radiusini o'zgartirish orqali doiraning qanday o'zgarishini kuzatish mumkin. Bu orqali o'quvchilar geometrik tushunchalarni yanada aniqroq tushunishlari mumkin.

3. Geometrik Yasashlar Turlari

GeoGebra dasturi yordamida bajariladigan geometrik yasashlarga misollar keltirilsin:

To'g'ri chiziqlar va kesish nuqtalari:

GeoGebra dasturida ikki to'g'ri chiziqni yaratib, ularning kesishgan nuqtasini aniqlash mumkin. Misol uchun, ikki to'g'ri chiziqning teng bo'lib, ular orasidagi kesishish nuqtasini topish. Bu yerda, foydalanuvchi chiziqlarni harakatlantirish orqali kesishgan nuqtaning joyini o'zgartirish va vizual tarzda ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Doiralar va tangensial chiziqlar:

GeoGebra yordamida doira yaratish va unga tegishli tangensial chiziqlarni qurish mumkin. Doiraning markazidan tashqariga chiziq chizib, tangensial chizig'ini yaratish hamda bu tangensial nuqtaning aniq joyini topish o'quvchilarga geometrik tushunchalarni yanada aniqroq tushunishga yordam beradi. Bu kabi vizualizatsiya o'quvchilarga tangensial tushunchasini aniqroq tushunishga yordam beradi.

Ko'pburchaklar:

Uchburchaklar, to'rtburchaklar va boshqa ko'pburchaklar GeoGebra dasturida yaratib, ularning xususiyatlarini tahlil qilish mumkin. Misol uchun, bir uchburchakning o'rtacha balandligini va o'zgarishini ko'rish mumkin. O'quvchilar uchburchakning tomoni va burchaklarini o'zgartirib, qanday o'zgarishlar bo'lishini ko'rishlari mumkin.

Birinchi va ikkinchi darajali egri chiziqlar:

GeoGebra dasturi yordamida parabola, ellips va giperbolalarni yaratish va ularning xususiyatlarini ko'rish mumkin. Misol uchun, parabola yaratib, uning tenglamasi va uning tangensial nuqtasini aniqlash. Bu usul o'quvchilarga parabola va uning o'zgarishini vizual tarzda ko'rish imkoniyatini beradi.

4. Vizuallashtirishning Pedagogik Ahamiyati

Geometrik tushunchalarni vizual tarzda tushuntirishning pedagogik ahamiyati juda katta. GeoGebra yordamida geometrik shakllarni ko'rish va ularni o'zgarishini kuzatish o'quvchilarga quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

Abstrakt tushunchalarni aniqroq qilish: O'quvchilarga geometriya tushunchalarini vizual tarzda ko'rsatish, masalan, chiziq va doiraning kesishish nuqtalarini ko'rsatish, tushunchalarni yanada aniqroq va sodda qilib tushuntirishga yordam beradi.

Interaktiv o'quv muhiti: GeoGebra dasturi o'quvchilarga geometrik shakllarni o'zgartirish imkonini beradi. Masalan, chiziqlarni siljitish, doira radiusini o'zgartirish yoki uchburchakning nuqtalarini siljitish orqali shakllarning o'zgarishini kuzatish mumkin. Bu o'quvchilarning aktiv ishtirokini ta'minlaydi va ularni o'rganish jarayonida mustaqil fikrlashga undaydi.

5. Natijalar va Xulosa

GeoGebra dasturi yordamida geometrik yasashlar va masalalarni vizuallashtirish o'quvchilarga geometrik tushunchalarni aniqroq o'zlashtirishga yordam beradi. Darslar davomida interaktivlik va dinamik ko'rsatish orqali o'quvchilar geometriya tushunchalarini

mustahkamlashlari mumkin. GeoGebra'da ishlash o'quvchilarni o'z fikrini erkin ifodalashga, matematik jarayonlarga qiziqish bildirishga va mustaqil ishlashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sharipova S., Sharipov X., Xoliqov L. BA'ZI BIR SONLI YIG'INDILARNI KETMA-KETLIKNING DISKRET HOSILASI YORDAMIDA HISOBLASH //Журнал математики и информатики. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
2. Sharipov X. F., Abriyev N. T., Boymatov B. FAZODA KILLING VECTOR MAYDONLAR GEOMATRIYAS //Toshkent Viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika Instituti.–2021.
3. Sharipov X. F., Sharipov S. S. DIFFERENTIAL INVARIANTS OF SUBMERSIONS //СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИКЛАДНОЙ МАТЕМАТИКИ, ИНФОРМАТИКИ И МЕХАНИКИ. – С. 60.
4. Sharipov X. F., Boymatov B., Abriyev N. Singular foliation generated by an orbit of family of vector fields //Advances in Mathematics: Scientific Journal. – 2021. – Т. 10. – С. 2141-2147.
5. Шарипов Х. Ф., Шарипова С. Ф. РЕАЛИЗАЦИЯ ВИЗУАЛИЗАЦИИ ПРИ ДОКАЗАТЕЛЬСТВЕ ТЕОРЕМЫ ЭЙЛЕРА В ПЛАНИМЕТРИИ И ЕЕ АНАЛОГ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 373-377.

RATSIONAL TARTIBLI HOSILALAR: ULARNING MATEMATIK USULLARI VA AMALIY QO‘LLANILISH

Turdimurodov Otabek Farxod o‘g‘li, SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali
Otayorov Oxunjon Shovxiddin o‘g‘li, Berdiyorova Nafosat Orif qizi, Normurodova Orasta Qahramon qizi, talabalar
otabekfarxodovichturdimurodov@gmail.com

Anotatsiya:

Ushbu maqola ratsional tartibli hosilalar (fractional derivatives) va ularning matematik usullarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda ratsional tartibli hosilalarni hisoblash uchun asosiy matematik usullar, shu jumladan, **Gamma funksiyasi**, **Grünwald–Letnikov** va **Riemann–Liouville** usullari tahlil qilingan. Ushbu usullar tizimlarning noan’anaviy jarayonlarini, masalan, sekin o‘zgarishlarni va tarixiy xotirani hisobga olishda qo‘llaniladi. Ratsional tartibli hosilalar asosan **issiqlik tarqalishi**, **suyuqlik oqimi** va **muhandislikdagi murakkab tizimlarni modellashtirish**da qo‘llaniladi. Maqola ratsional tartibli hosilalar nazariyasini va ularning amaliy qo‘llanilishini kengaytirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Ratsional tartibli hosilalar**,** Gamma funksiyasi**,** Grünwald–Letnikov usuli**,** Riemann–Liouville usuli**,** issiqlik tarqalishi**,** suyuqlik oqimi**,** muhandislik**.**

Hosila tushunchasi

Matematik analizning asosiy tushunchalaridan biri bu — hosila tushunchasidir. Hosila — bu funksiya argumentining juda kichik o‘zgarishiga funksiyaning mos ravishda qanday o‘zgarishini aniqlovchi qiymatdir. Hosila orqali funksiya grafigining ma’lum nuqtadagi og‘ish burchagi, tezligi yoki o‘sish sur’ati aniqlanadi.

Matematika fanida dastlab oddiy butun tartibli hosilalar o‘rganilgan bo‘lib, ular integer (butun) tartibdagi hosilalar deb ataladi. Ammo murakkab jarayonlarni modellashtirish zarurati yuzaga kelishi bilan hosilani umumlashtirishga ehtiyoj tug‘ildi va natijada ratsional yoki kasr tartibli hosilalar tushunchasi paydo bo‘ldi.

Hosila — bu differensial hisobning asosiy tushunchasi bo‘lib, funksiya o‘zgarishi tezligini ifodalaydi. Agar $f(x)$ funksiya berilgan bo‘lsa, uning xxx nuqtadagi hosilasi quyidagi limit orqali aniqlanadi:

$$f'(x)=\lim_{h\to o}\frac{f(x+h)-f(x)}{h}$$

Bu formula funksiya grafigiga chizilgan tepa chiziqning (tangentaning) qiyaligi yoki nishabligini ifodalaydi.

Misol:

Agar $y=x^2$ bo‘lsa, uning hosilasi:

$$\frac{dy}{dx}=2x$$

Bu natija x ning har bir qiymatida y ning o‘zgarish tezligini ko‘rsatadi.

Ratsional tartibli hosila tushunchasi

Ratsional tartibli hosila — bu funksiya hosilasining oddiy butun son tartibdan farqli ravishda, istalgan haqiqiy yoki ratsional son (masalan, $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{3}$, 0.75 kabi) darajasidagi hosilasidir.

Umuman olganda, kasr tartibli hosilalar fractional calculus (kasr tartibli analiz) deb nomlangan matematik sohaga kiradi.

Ratsional tartibli hosila quyidagicha belgilanadi:

$D^{\alpha}f(x)$ bu yerda α — istalgan haqiqiy yoki ratsional son bo‘lib, hosilaning tartibini ifodalaydi.

Ratsional tartibli hosilalarning paydo bo‘lishi Leibniz, Euler, Riemann, Liouville kabi olimlarning ishlari bilan bog‘liq.

Gamma funksiyasi yordamida aniqlash

Ratsional tartibdagi hosila $D^r f(x)$, bu yerda $r \in Q$, quyidagicha aniqlanadi:

$$D^r x^n = \frac{\Gamma(n+1)}{\Gamma(n-r+1)} x^{n-r}$$

Bu formula faqat $n > r-1$ bo‘lganda ishlaydi.

Grünvald–Letnikov usuli

Bu usul ratsional tartibdagi hosilani limit orqali aniqlaydi:

$$D^r f(x) = \lim_{h\to 0} \frac{1}{h^r} \sum_{k=0}^{\infty} (-1)^k \binom{k}{r} f(x-kh)$$

Bu yerda $\binom{r}{k} = \frac{\Gamma(r+1)}{\Gamma(k+1)\Gamma(r-k+1)}$

3. Riemann–Liouville usuli

Bu usu integral asosida aniqlanadi va u quyidagicha yoziladi:

$$D^r f(x) = \frac{1}{\Gamma(n-r)} \frac{d^n}{dx^n} \int_a^x (x-t)^{n-r-1} f(t)dt$$

Bu yerda $n = [r]$ (ya’ni r dan katta eng yaqin butun son)

Caputo usuli

Bu usul ko‘proq fizikada ishlatiladi, chunki u dastlabki shartlarga qulay:

$$D^r f(x) = \frac{1}{\Gamma(n-r)} \int_a^x (x-t)^{n-r-1} f^{(n)}(t)dt$$

Ratsional Tartibli Hosila: Gamma Funktsiyasi Usuli

Misol: Berilgan funksiya:

$$f(x) = x^3$$

va ratsional tartib: $r = \frac{1}{2}$

Gamma funksiyasi yordamida ratsional hosila quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$D^r x^n = \frac{\Gamma(n+1)}{\Gamma(n-r+1)} x^{n-r}$$

Bu yerda:

- $n = 3$
- $r = \frac{1}{2}$

1. Gamma funksiyalarini hisoblash

1.1. $\Gamma(n+1)$:

$\Gamma(3+1) = \Gamma(4) = 3! = 6$

1.2. $\Gamma(n-r+1)$:

$\Gamma(3-\frac{1}{2}+1) = \Gamma(\frac{7}{2})$

Yarim butun sonlar uchun Gamma funksiyasi:

$\Gamma(\frac{7}{2}) = \frac{5}{2}\frac{3}{2}\cdot\frac{1}{2}\sqrt{\pi} = \frac{15}{8}\sqrt{\pi}$

2. Ratsional tartibli hosilani hisoblash

Formulaga qiymatlarni qo‘yamiz:

$D^{\frac{1}{2}} x^3 = \frac{16}{5\sqrt{\pi}} x^{\frac{5}{2}}$

Yakuniy natija:

$D^{\frac{1}{2}} x^3 = \frac{16}{5\sqrt{\pi}} x^{\frac{5}{2}}$

Grünwald–Letnikov usuli formulas:

Olaylik:

$$f(x) = x, \quad r = \frac{1}{2}, \quad h = 1$$

Bu holda:

$$D^{1/2} f(x) \approx \sum_{k=0}^{N} \frac{(-1)^k \Gamma(3/2)}{\Gamma(k+1)\Gamma(3/2-k)} f(x-k)$$

Ammo amaliy hisoblash uchun N ni kichik qiymat bilan (masalan, 3 yoki 4) olamiz. Keling, $N = 3$ deb olaylik va $h = 1$ nuqtada hisoblaylik.

Bosqichlar:

Kerakli Gamma funksiyalar:

$$\Gamma(3/2) = \frac{1}{2}\cdot\sqrt{\pi}$$

$$\Gamma(2) = 1!, \Gamma(1) = 1, \Gamma(\frac{1}{2}) = \sqrt{\pi}$$

Hisoblash:

$$D^{1/2} x \approx \frac{1}{1^{1/2}}[1\cdot f(1) - \frac{1}{2} f(0) + \frac{3}{8} f(-1) - \frac{5}{16} f(-2)]$$

$$= 1\cdot 1 - \frac{1}{2}0 + \frac{3}{8}(-1) - \frac{5}{16}(-2) = 1 - 0 - \frac{3}{8} + \frac{10}{16}$$

$$= 1 - \frac{3}{8} + \frac{5}{8} = \frac{10}{8} = 1.25$$

Yakuniy natija:

$D^{1/2}x \approx 1.25, (x = 1)$

1. Gamma funksiyasi usuli (Algebraik yondashuv)

Asosiy g‘oya:

Formulasi:

$$D^r f(x) = \frac{1}{\Gamma(n-r)} \frac{d^n}{dx^n} \int_a^x (x-t)^{n-r-1} f(t) dt$$

An’anaviy monom funksiyalar (xnx^nxn) uchun ishlatiladi.

Gamma funksiyasi orqali aniq formulali ifodaga ega.

✔ **Afzalliklari:**

Juda tez hisoblanadi.

Teoretik jihatdan qulay.

Oddiy ko‘rinishdagi funksiyalar uchun ishlatish oson.

✘ **Kamchiliklari:**

Faqat xnx^nxn kabi funksiyalar uchun qulay.

Real vaqtli (signal) ilovalarda ishlatish qiyin.

---

2. Grünwald–Letnikov usuli (Ketma-ketlik yondashuvi)

Asosiy g‘oya:

Limit va diskret ketma-ketliklar asosida aniqlanadi:

$$D^r f(x) = \lim_{h \to 0} \frac{1}{h^r} \sum_{k=0}^{\infty} (-1)^k \binom{k}{r} f(x - kh)$$

Raqamli analizda keng qo‘llaniladi.

✔ **Afzalliklari:**

Diskret tizimlar, raqamli signal va differensial tenglamalarda ishlatiladi.

Kompyuterda kod yozish uchun mos (yaqinlashtirma bilan).

✘ **Kamchiliklari:**

Hisoblash murakkab va sekin.

Tez aniqlik talab qilinadi (katta kkk kerak bo‘lishi mumkin).

3. Riemann–Liouville usuli (Integral yondashuvi)

Asosiy g‘oya:

Integral asosida ifodalanadi:

$$D^r f(x) = \lim_{h \to 0} \frac{1}{h^r} \sum_{k=0}^{\infty} (-1)^k \binom{k}{r} f(x - kh)$$

✔ **Afzalliklari:**

Aniq nazariy asosga ega.

Uzluksiz funksiyalar uchun yaxshi ishlaydi.

Fizik modellashtirish (masalan, issiqlik tarqalishi) uchun mos.

✘ **Kamchiliklari:**

Integral hisoblashda murakkabliklar.

Har doim real funksiyalar ustida ishlash kerak.

Qisqacha taqqoslash jadvali:

Usul	Qulay holatlar	Qiyin tomoni	Asosiy ilovalar
Gamma usuli	Tez va sodda hisob	Faqat xnx^nxn uchun	Teoretik tahlil
Grünwald–Letnikov	Diskret funksiya / signal	Sekin va noaniqlikli	Raqamli modellar, signal tahlili
Riemann–Liouville	Fizik modellar	Integral hisoblash murakkab	Issiqlik, suyuqlik oqimi, muhitlar

Xulosa:

Ratsional tartibli hosilalar (fractional derivatives) — bu an’anaviy butun tartibli hosilalar (integer derivatives) generalizatsiyasi bo‘lib, ularni matematikada va amaliy sohalarda qo‘llash mumkin. . Ratsional tartibli hosilalar **matematika**, **fizika**, **muhandislik**, **biologiya** va boshqa sohalarda keng qo‘llanilmoqda.

Ushbu tezis doirasida uchta asosiy ratsional tartibli hosila usuli — **Gamma funksiyasi usuli**, **Grünwald–Letnikov usuli** va **Riemann–Liouville usuli** tahlil qilindi. Har bir usulning o‘ziga xos xususiyatlari va amaliy qo‘llanilish joylari mavjud, va ular turli tizimlar va jarayonlarni modellashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilga adabiyotlar

1. Gumerov, B. – Matematik Hisoblashlarda Ratsional Funktsiyalar va Ularning Foydalanishi
Yili: 2015
2. Shamsiev, Sh. – Ratsional Funktsiyalar va Ularning Amaliy Qo‘llanilishi
Yili: 2017
3. Ismoilov, A. – Differensial Tenglamalar va Ularning Amaliy Qo‘llanilishi
Yili: 2013
4 . Pashaev, K. – Matematik Modellar va Ularning Foydalanish Metodlari
Yili: 2016
5 . Adilov, R. – Sanoat Muhandandigida Ratsional Hosilalarning Qo‘llanilishi
Yili: 2019
6 . Babayev, D. – Matematik Modellar va Ratsional Tartibli Hosilalar
Yili: 2018

HOMOTHETICALLY SHRINKING SOLUTIONS WITH ONE BOUNDED COMPONENT

F. Almuratov and M. Kakhramonova
Jizzakh brunch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
almurotov@gmail.com

Abstarct: *We study the crystalline curvature flow of planar networks with a single hexagonal anisotropy. After proving the local existence of a classical solution for a rather large class of*

initial conditions, we classify the homothetically shrinking solutions having one bounded component. We also provide an example of network shrinking to a segment with multiplicity two.

Keywords: anisotropy, network, partition, crystalline curvature, crystalline curvature flow.

Crystalline evolution, more generally, geometric interface motions in which surface tension acts as a main driving force, model many processes in material sciences such as phase transformation, grain growth, crystal growth, ion beam and chemical etching etc., and therefore, became the topic of many papers (see e.g. [2,3,4] and references therein). In the planar case, the interface is usually represented by a family of curves bounding different regions (phases, or grains) and moving in a nonequilibrium state. In simplified models, the motion of these curves is described by a geometric equation relating, for instance, the normal velocity of the interface to its curvature. When the interface is represented by a single closed curve, i.e., the two-phase case, such an evolution is usually called anisotropic curve shortening flow. In presence of more than two phases in the plane, the interface is called a network, and consists of a set of curves with multiple (typically triple) junctions.

In our crystalline setting, we can provide explicit examples leading to those phenomena, including higher multiplicity segments, and it is worth mentioning that if after vanishing of some segments, the resulting network remains simple (not necessarily parallel to the initial one and possibly with multiple junctions), then the flow restarts until a subsequent singularity is reached.



Fig 1. All possible self-shrinker with one bounded phase.

Theorem. *Up to a rotation and mirror reflection, there are only eight different simple self-shrinkers possibly with multiple junctions (see Figure 1. (a)-(h)).*

Definition (Self-shrinker). *A family* $\{S(t)\}_{t\in[0,T)}$ *of admissible polygonal networks evolving by* φ*-curvature is called a* ***homothetically shrinking solution*** *starting from* S^0*, if there exists a strictly decreasing function* $r(t)\colon [0,T) \to [0,1]$ *such that*

$$lim_{\{t\to T^-\}}\, r(t) = 0 \quad and \quad S(t) = r(t)S^0 \quad for\ all \quad t \in 0,T).$$

For shortness, we call S^0 *a* ***self-shrinker.***

We classify the homothetically shrinking solutions starting from a polygonal admissible network S^0, partitioning $\mathbb{R}^2$ into phases with only one bounded component consisting of a convex hexagon $\boldsymbol{A}$; when necessary, the hexagon is parametrized counterclockwise. By definition, any half-line of a self-shrinker must lie on a straight line passing through the origin and, being A convex, the homothety center cannot be in its exterior. Furthermore, if the origin is located in the (relative) interior of some segment $S = [XY]$ of $\boldsymbol{A}$, then by the self-similarity, that segment does not move (it has zero $\varphi -$ curvature). In this case, by the convexity of $\boldsymbol{A}$ at least one endpoint of $\boldsymbol{S}$, say $\boldsymbol{X}$, should be the starting point of a half-line, lying on the same line with $\boldsymbol{S}$. Then one can readily check that another segment of $\boldsymbol{A}$ sharing common point $\boldsymbol{X}$ with $\boldsymbol{S}$ should also have zero $\varphi -$curvature, i.e., it does not move, which falsifies the self-similarity of S^0. Therefore, we only have to deal with two situations: the origin is either in the interior of $\boldsymbol{A}$ or it is one of the vertices.

References

[1] F. Almgren, J. Taylor, L. Wang: Curvature-driven flows: a variational approach. SIAM J. Control Optim. 31 (1993), 387–438.

[2] O. Benois, T. Bodineau, P. Buttà, E. Presutti: On the validity of the van der Waals theory of surface tension. Markov Process. Related Fields 3 (1997), 175–198.

[3] J. Cahn: Stability, microstructural evolution, grain growth, and coarsening in a two-dimensional two-phase microstructure. Acta Metall. Mater. 39 (1991), 2189–2199.

[4] J.W. Cahn, C.A. Handwerker, J.E. Taylor: Geometric models of crystal growth. Acta Metall. Mater. 40 (1992), 1443–1474.

EKUB VA EKUK TOPISHNI TURLI USULLARI

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali talabasi
Eshmurodova Zarnigor Erkin qizi
zarnigoreshmurodova73@gmail.com
Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi
dotsenti Shukurov Zohid
shukurovzoxid742@gmail.com

Anotatsiya*:Ushbu tezisda EKUB (Eng Katta Umumiy Bo'luvchi) va EKUK (Eng Kichik Umumiy Ko'paytuvchi) ni topishning bir nechta usullari, ularning mohiyati, amaliy qo'llanilishi va o'zaro bog'liqligi yoritib berilgan. Matematik masalalarni yechishda ushbu tushunchalar sonlar orasidagi bog'liqlikni tushunish, qisqartirish va ko'paytirish jarayonlarini soddalashtirishda muhim o'rin tutadi [1].*

Аннотация: *В данной работе освещены различные методы нахождения НОД (наибольший общий делитель) и НОК (наименьшее общее кратное), их сущность, практическое применение и взаимосвязь. Эти понятия играют важную роль в решении математических задач, поскольку помогают понять взаимосвязь между числами, а также упрощают процессы сокращения и умножения.*

Annotation: *This thesis explores several methods for finding the GCD (Greatest Common Divisor) and LCM (Least Common Multiple), their essence, practical applications, and interrelation. These concepts play an important role in solving mathematical problems, as they help to understand the relationship between numbers and simplify the processes of reduction and multiplication.*

Kalit so'zlar: EKUB, EKUK, Evklid usuli.

EKUB — berilgan ikki yoki undan ortiq sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi.

EKUK — berilgan ikki yoki undan ortiq sonlarning eng kichik umumiy ko'paytuvchisi. Bu ikki tushuncha sonlar orasidagi bog'liqlikni aniqlashda, ulardan eng kichik yoki eng katta darajada qanday birlashtirish mumkinligini ko'rsatadi.

EKUB va EKUK topishning usullari:

a) Bo'luvchilarni yozish usuli (qo'lda topish). Har bir sonning barcha bo'luvchilari yoziladi va umumiy bo'luvchilar ichidan eng kattasi tanlanadi (EKUB), yoki umumiy ko'paytuvchilar ichidan eng kichigi tanlanadi (EKUK). Kamchilik: Katta sonlar uchun samarasiz.
b) Evklid algoritmi (EKUB uchun). Evklid algoritmiga ko'ra: EKUB(a, b) = EKUB(b, a mod b)
Qoldiq nolga teng bo'lsa, oxirgi nol bo'lmagan son EKUB hisoblanadi. Afzalligi: Tez va samarali, kompyuter dasturlarida keng qo'llaniladi.
c) Asosiy ko'paytuvchilarga ajratish usuli. Har bir son asosiy ko'paytuvchilarga ajratiladi.
EKUB: umumiy bo'lgan ko'paytuvchilar, eng kichik darajalarda olinadi.
EKUK: barcha ko'paytuvchilar, eng katta darajalarda olinadi.
Afzalligi: Aniq va nazariy asoslangan.
d) EKUK va EKUB o'zaro bog'liqligi
Ikki son uchun quyidagi tenglik har doim o'rinli: EKUB(a, b) × EKUK(a, b) = a × b. Bu usulda agar biri topilsa, ikkinchisi avtomatik ravishda aniqlanishi mumkin [2].

Misol -1: EKUB(48, 18)

Evklid algoritmi:

48 mod 18 = 12

18 mod 12 = 6

12 mod 6 = 0 → EKUB = 6

Misol 2: EKUK(4, 10)

Asosiy ko‘paytuvchilar:

$4 = 2^2$; $10 = 2 \times 5$; $EKUK = 2^2 \times 5 = 20$

EKUK bilan bog‘liq masofa masalasi: Ikki avtobus harakatlanmoqda. Birinchi avtobus har 8 km da yo‘l chetidagi bekatda to‘xtaydi. Ikkinchi avtobus esa har 12 km da to‘xtaydi. Savol: Agar ikkisi bir vaqtda bir joydan harakatni boshlasalar, har ikki avtobus yana nechanchi kilometrda bir vaqtda bekatda to‘xtaydi?

Yechim: EKUK(8, 12) = 24

Demak, har ikki avtobus 24-kilometrda bir vaqtda bekatda to‘xtaydi.

EKUB bilan bog‘liq masofa masalasi ;Shahzod 60 km va Kamron 48 km yurishdi. Ular har birida bir xil uzunlikdagi yo‘lni bosib o‘tgan.

Savol: Har birining bosib o‘tgan yo‘l bo‘lagi maksimal nechaga bo‘linishi mumkin, ya'ni bu ikki yo‘l uzunligi qanday eng katta bir xil bo‘laklarga bo‘linadi?

Yechim: EKUB(60, 48) = 12. Demak, yo‘l 12 km lik bo‘laklarga bo‘linadi. Shahzod 60 ÷ 12 = 5 bo‘lak, Kamron 48 ÷ 12 = 4 bo‘lak yurgan.

EKUK (Eng Kichik Umumiy Karrali) bilan bog’liq masala: Bir maktabda ikkita sport to‘lovi har xil kunlarda bo‘lib o‘tadi: biri har 4 kunda, ikkinchisi esa har 6 kunda o‘tkaziladi. Savol: Har ikki to‘lov bir kunda yana necha kundan keyin birga to‘g‘ri keladi?

Yechim: EKUK(4, 6) = 12. Demak, har ikki to‘lov 12 kunda bir marta birga o‘tkaziladi

Misol 3: EKUB va EKUK o‘zaro bog‘liqligi

a = 12, b = 18; EKUB(12,18) = 6; EKUK = (12 × 18) ÷ 6 = 216 ÷ 6 = 36

Xulosa: EKUB va EKUK topish matematikada ko‘plab amaliy va nazariy muammolarni hal etishda muhim o‘rin tutadi. Ularni topishda turli usullar mavjud bo‘lib, har biri muayyan holatlar uchun qulay va samaralidir. Evklid algoritmi va asosiy ko‘paytuvchilarga ajratish usullari eng keng qo‘llaniladigan samarali metodlardir.

ADABIYOTLAR

1. Курош А.Г. Олий алгебра курси. Тошкент, 1972.
2. Бир номаълумли таққосламалар бўйича методик кўрсатмалар. Самарқанд, СамДУ нашри, 1986.
3. Нарзуллаев У.Х., Солеев А.С. Алгебра и теория чисел. I-II часть, Самарканд, 2002.
4. U.X. Narzullayev, A.S. Soleev, X.X.Ro’zimuradov “Algebra va sonlar nazariyasidan masala va mashqlar” I-qism. O’quv qo‘llanma. Samarqand, 2020. – 185 bet.

MAKTAB DARSLIGIDAGI DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISHDAGI MUAMMOLAR

Nasrulloyeva Rayhona, Qurbonboyeva Shohida

Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg’on filiali talabalar

Annotatsiya. Ushbu tezisda maktab matematikasi kursida differensial tenglamalarni o‘qitish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va ularning sabablari atroflicha tahlil qilinadi. Differensial tenglamalar tabiiy fanlarda, muhandislikda, iqtisodiyotda va boshqa ko‘plab sohalarda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan matematik vosita hisoblanadi. Shunga qaramay, ularning maktab bosqichida o‘qitilishi ko‘p hollarda yuzaki va formal ko‘rinishda amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: differensial tenglamalar, maktab darsligi, o‘quvchi qiyinchiliklari, o‘qitish metodikasi, nazariy tayyorgarlik, amaliy misollar, matematik modellashtirish, interaktiv o‘qitish, raqamli texnologiyalar, STEAM yondashuvi.

KIRISH

Tezisda aynan shu muammo—differensial tenglamalarning nazariy asoslarining yetarli tushuntirilmasligi, amaliy misollarning yetishmasligi, cheklangan yechim usullarining o‘rgatilishi hamda o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasining turlicha bo‘lishi kabi jihatlar yoritilgan.

Shuningdek, tezisda ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir qator takliflar ilgari surilgan. Jumladan, darsliklarda nazariy asoslarni chuqurroq yoritish, real hayotiy va amaliy misollarni ko‘proq kiritish, vizual va interaktiv vositalar orqali mavzuni tushuntirish samaradorligini oshirish, hamda o‘qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish zarurligi ta’kidlanadi.

Tezis nafaqat mavjud muammolarni ochib berishga, balki ularni amaliy yechimlar orqali bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatishga intiladi. Bu esa differensial tenglamalarni o‘rganish va o‘qitishni yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari o‘rta maktab matematikasi mazmunini boyitish va o‘quvchilarning mavzuga nisbatan qiziqishini oshirishga qaratilgan muhim metodik tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Differensial tenglamalar matematik analizning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, u turli tabiiy, texnik va ijtimoiy jarayonlarni modellashtirishda keng qo‘llaniladi. Oliy ta’lim tizimida bu mavzu chuqur o‘rganiladi, ammo maktab darajasida bu jarayon yuzaki yoritilgan bo‘lib, o‘quvchilarda mavzuni to‘liq anglashda muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi.

Maktab darajasida differensial tenglamalarni o‘rgatishning maqsadi faqatgina oddiy birinchi tartibli tenglamalarni yechishni o‘rgatish emas, balki o‘quvchiga bu vosita orqali real hayotdagi dinamik jarayonlarni tushunish imkoniyatini yaratishdir. Afsuski, mavjud darsliklar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarda bu maqsad to‘liq amalga oshmayapti. Ushbu maqola aynan shu muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

ASOSIY QISM

Nazariy asoslarning yetarli yoritilmasligi. Ko‘plab darsliklarda differensial tenglama tushunchasi qisqacha ta’riflanadi, biroq uni tushunish uchun zarur bo‘lgan hosila, limit, funksiyalar sinfi kabi tushunchalar chuqur o‘rganilmaydi. Bu esa o‘quvchilarning mavzuni faqat formulalar asosida yodlashiga olib keladi. Shu sababli, o‘quvchilar differensial tenglamaning mantiqiy va amaliy asoslarini anglamay, faqatgina mexanik yechimga e’tibor qaratadi.

Hayotiy va amaliy misollarning yetishmasligi. Darsliklarda keltirilgan masalalar ko‘pincha mavhum va o‘quvchining kundalik hayoti bilan bog‘liq emas.

Bu esa ularning mavzuga nisbatan qiziqishini susaytiradi va differensial tenglamalarning amaliy ahamiyatini anglashiga to‘sqinlik qiladi.

Masalan, radioaktiv moddalar parchalanishi, bakteriyalar o‘sishi, elektr zanjirlaridagi tok o‘zgarishlari yoki avtomobil tezlanishini modellashtirish kabi misollar orqali o‘quvchilar mavzuning hayotdagi qo‘llanilishini ko‘rib, unga nisbatan faol ishtirok etishadi.

Yechim usullarining chegaralanganligi. Maktab darsliklarida asosan ajratiluvchi va chiziqli birinchi tartibli tenglamalargina o‘rgatiladi. Bu esa differensial tenglamalarning keng imkoniyatlarini to‘liq aks ettirmaydi. O‘quvchilar noan’anaviy metodlar yoki numerik yondashuvlar haqida hech qanday tasavvurga ega bo‘lmaydi. Natijada, ular bu mavzuni real muammolarga tatbiq eta olmaydi.

O‘qituvchilar tayyorgarligi. O‘qituvchilarning ba’zilarida differensial tenglamalar bo‘yicha chuqur bilim yo‘qligi, zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanmaslik holatlari mavjud. Ba’zi hollarda o‘qituvchilar darslikda berilgan sxematik misollarni o‘zlashtirish bilan cheklanadi, bu esa o‘quvchilarning faolligini pasaytiradi.

O‘qituvchilarga metodik ko‘rsatmalar, dars ishlanmalar va raqamli platformalarda foydalanish bo‘yicha qo‘llanmalar berilishi, ularning kompetensiyalarini doimiy oshirib borish kerak.

O‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi va psixologik to‘siqlar. Differensial tenglamalar murakkab mavzu bo‘lgani bois, ko‘pchilik o‘quvchilarda "men buni tushunmayman" degan psixologik to‘siq yuzaga keladi. Bu holat o‘qituvchi tomonidan mavzuni to‘g‘ri taqdim etilmasa, yanada kuchayadi. Shuningdek, matematik tayyorgarligi past bo‘lgan o‘quvchilar mavzuni o‘zlashtirishda ortda qoladi.

Takliflar:

Nazariy tayyorgarlikni kuchaytirish: Darsliklarda differensial tenglamalarga oid bo‘limlardan oldin zarur analiz tushunchalarini mustahkamlash kerak.

Amaliy misollar bazasini kengaytirish: Masalan, issiqlik almashinuvi, biologik populyatsiya o‘sishi, radioaktiv parchalanish kabi real jarayonlarga oid misollar kiritilishi lozim.

STEAM yondashuvini qo‘llash: Fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish orqali differensial tenglamalarning fizika, biologiya, texnologiya bilan qanday bog‘liqligini ko‘rsatish mumkin.

O‘qituvchilar malakasini oshirish: Maxsus o‘quv kurslari va seminarlarda zamonaviy yondashuvlar va dasturiy vositalarni o‘rgatish zarur.

O‘quvchilar bilan psixologik ishlash: Differensial tenglamalarga oid mavzularni soddalashtirib, qiziqarli va bosqichma-bosqich yondashuv orqali berish kerak. Har bir o‘quvchining tayyorgarlik darajasini hisobga olish muhim.

Ko‘pchilik o‘quvchilar uchun differensial tenglama — bu faqat hosila ishtirok etadigan formulaga tenglik sifatida qabul qilinadi.

Misol uchun, $dy/dx=ky$ tenglamasining yechimi sifatida $y = Ce^{kx}$ formulasi berilganida, bu ifoda qanday topilganligi, u qanday mantiqqa asoslanganligi haqida hech qanday tushuntirish bo‘lmaydi. Bu esa o‘quvchilarda “tashqaridan yodlatilgan formula” tasavvurini uyg‘otadi. Aslida esa bu yechim matematik nuqtayi nazardan hosila tushunchasi, ajratish metodikasi, va logarifmik integrallar bilan bog‘liq mantiqiy zanjir mahsulidir. Agar bu jarayonlar bosqichma-bosqich ochib berilsa, o‘quvchi nafaqat formulani eslab qoladi, balki uni o‘zi hosil qila oladigan darajaga yetadi.

Shuningdek, ayrim darsliklarda hatto hosila tushunchasi to‘liq izohlanmasdan turib differensial tenglamalarga o‘tilishi holatlari kuzatiladi. Bu esa mavzulararo uzviylikni buzadi va o‘quvchida chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Natijada, u differensial tenglamani boshqa fanlardagi (fizika, biologiya) modellashtirish jarayonlarida qo‘llashga tayyor bo‘lmaydi.

Yangicha metod sifatida ushbu tenglamani real holat – masalan, bakteriyalar o‘sishini modellashtirish orqali tushuntirish mumkin:

"Tasavvur qiling, bakteriyalar soni har daqiqada 5% ga ortmoqda. Bu jarayonni qanday ifodalaysiz?" Differensial tenglama:

$$dy/dx=0{,}05y \Rightarrow y=Ce^{0{,}05t}$$

C–boshlang‘ich bakteriyalar soni. Bu biologik muhitda bakteriyalar qanchadan boshlanganini ko‘rsatadi.

k–har soatda yoki daqiqada necha foizga o‘sishini bildiradi. O‘quvchi bu qiymatlarni o‘zgartirib, grafikdagi o‘zgarishlarni ko‘radi va tushunchani mustahkamlaydi.



1-rasm. Bakteriyalar sonining vaqtga bog‘liq o‘zgarish grafigi

Bu grafikda boshlang‘ich qiymati 100 ta bakteriyadan iborat populyatsiya har bir daqiqada 5% ga ortib boradi. Yechim formulasi: $y(t)=100e^{0,05t}$

Bunday yondashuv o‘quvchining mavzuga qiziqishini oshiradi, matematik modellashtirishni amaliy ravishda tushunishga yordam beradi va real hayotga bog‘laydi. Shu bilan birga, ushbu metod STEAM yondashuviga asoslangan bo‘lib, biologiya bilan bog‘lanish hosil qiladi.

XULOSA

Differensial tenglamalarni o‘rgatish maktab matematikasi kursida chuqur e’tibor talab etadigan muhim masalalardan biridir. Ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan muammolar — nazariy yetishmovchilik, amaliyotdan uzilgan misollar, tor doiradagi yondashuvlar, o‘qituvchilik malakasidagi farqlar va o‘quvchilarning psixologik to‘siqlari — o‘quvchilarning bu mavzuni to‘laqonli o‘zlashtirishiga to‘sqinlik qiladi.

Taklif etilgan yechimlar esa nafaqat o‘quv jarayonining sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarda matematik modellashtirishga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi. Ayniqsa, grafik vositalar, Python kabi dasturlash tillaridan foydalanish, real hayotiy misollar asosida mavzuni bayon qilish, fanlararo integratsiyani kuchaytiradi. O‘quvchilar mavzuni chuqur tushunibgina qolmay, uni turli sohalarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, differensial tenglamalarni o‘qitishga zamonaviy va integratsiyalashgan yondashuvlar orqali yondashish umumta’lim maktablaridagi ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirishi, o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishi va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga mustahkam asos yaratishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.M.Baranov. Differensial tenglamalar va ularning yechish usullari. T. – 2005. Fan nashriyoti.
2. A.N.Shishkin. Matematik modellashtirish va differensial tenglamalar. T. – 2011. Matematik adabiyotlar nashriyoti.
3. L.A.Elistratov. Maktab darsliklarida differensial tenglamalar va ularning amaliy qo‘llanilishi. T. – 2018. O‘quv-uslubiy nashriyot.
4. S.I.Zhuravlev. Differensial tenglamalar va ular yordamida modellashtirish. S. – 2016. Mashhur nashriyot.
5. F.G‘ulomov. Matematika darsliklari va o‘quvchilar uchun metodik qo‘llanmalar. T. – 2012. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi nashriyoti.
6. A.N.Jo’raev. STEAM yondashuvi asosida differensial tenglamalarni o‘rgatish metodikasi. T. – 2020. Ilmiy-texnik nashriyot.
7. B.D.Zohidov. Maktabda matematik modellashtirish va differensial tenglamalar. T. – 2017. O‘quv-uslubiy qo‘llanma.

A OPERATORNING $L_p(l)$ FAZOSIDA SILJISH QO'ZG'ALMAS NUQTALARGA EGA BO'LMAGAN HOLDA TESKARILANUVCHANLIK SHARTLARI.

Barotov Elbek Nodirbek o‘g‘li
SamDU Kattaqo‘g‘on filiali talabasi: barotovelbek8877@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada L(l) fazosida aniqlangan siljish operatorining xossalari, xususan, uning qo‘zg‘almas nuqtalari va teskarilanadiganlik shartlari o‘rganiladi. Siljish operatorining qo‘zg‘almas nuqtalarga ega bo‘lishi uning periodik funksiyalar bilan bog‘liqligini anglatadi. Maqolada operatorning bir-biriga moslik (bijektivlik), cheksiz va chekli oraliqlarda ta’riflanish holatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, operatorning inversiyasining mavjudligi va chegaralanganligi kabi holatlar asosida uning teskarilanadiganligi uchun zarur va yetarli shartlar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar. Siljish operatori, Qo‘zg‘almas nuqta, Teskarilanadiganlik, Bijektivlik, Periodik funksiya, L fazosi, Operator inversiyasi, Chegaralangan operator, Cheksiz oraliq, Chekli oraliq

Faraz qilaylik, α(t) siljishga nisbatan quyidagi qo'shimcha faraz bajarilgan bo'lsin: {α'm(t)}, m = 0, ±1, ±2,….. hosilalar to'plami I da chegaralangan yani Shunday d>0 son mavjudki barcha m, $t \in I$ lar uchun

$$| a_m^{'}(t) | \le \bar{d} \qquad (1)$$

o'rinli bo'lsin. Agar ko'rsatilgan chegaralash bajarilgan bo'lsa u holda quydagi teorema o'rinli.

1. teorema. Agar p(t), q(t) ∈C(Γ) va t ∈Γ da $|p(t)| - |q(t)| \neq 0$ bo'lsa u holda $\mathcal{A} = \mathrm{p}(\mathrm{t})\mathcal{I} + \mathrm{q}(\mathrm{t})\mathcal{W}$ operator $L_p(I$), 1<p<∞ fazoda eskarilanuvchi bo'ladi.

Isbot. Faraz qilaylik aniqlik uchun $|p(t)|$ > $|q(t)|$ bo'lsin. Bu shart bajarilganda chegaralangan teskari

$$\mathcal{A}^{-1} = \{\mathcal{I} + \sum_{n=1}^{\infty}(-1)^n \prod_{i=0}^{n-1} \frac{\mathrm{q}[\alpha_{\mathrm{j}}(\mathrm{t})}{\mathrm{p}[\alpha_{\mathrm{j}}(\mathrm{t})} \mathcal{W}^n\} \frac{1}{p(t)} \mathcal{I} \qquad (2)$$

operator mavjudligini ko'rsatamiz.Haqiqatdan, $L_p(I$), 1<p<∞ operator normasini baholab va (1) tengsizlikdan foydalanib

$$\left\| (-1)^n \prod_{i=0}^{n-1} \frac{\mathrm{q}[\alpha_{\mathrm{j}}(\mathrm{t})}{\mathrm{p}[\alpha_{\mathrm{j}}(\mathrm{t})} \mathcal{W}^n \right\|_{L_p(\Gamma)} \le \|\alpha'_{-\mathrm{n}}\|_{c(\Gamma)}^{\frac{1}{p}} \left\| \frac{q(t)}{p(t)} \right\|_{c(\Gamma)}^{n} \le d^{\frac{1}{p}} \left\| \frac{q(t)}{p(t)} \right\|_{c(\Gamma)}^{n}$$

ni olamiz. Shartga ko'ra $\left\| \frac{q(t)}{p(t)} \right\|_{c(\Gamma)}$< 1 bo'lgani uchun (2) o'ng qismidagi qator yaqinlashadi, demak, A^{-1} operator $L_p(I$), 1<p<∞o fazoda aniqlangan va Chegaralangan.

$$\mathcal{A}^{-1} = \mathcal{A}^{-1}\mathcal{A} = 1$$

munosabatning bajarilishini bevosita tekshirish mumkin.
2.teorema isbot bo’ladi.

1-misol. α(t) yo'nalishni saqlasin ya'ni.

$\tau_1<\tau_2<\tau_3$, α(τ_1) < α(τ_2) <α(τ_3) shart bajarilsa α(t) yo'nalishni saqlaydi deyiladi.

α(t) = t , t∈ T = {t∈∉ , , Itl = 1} bo'lsin

τ_1 = 1, τ_2 = i, τ_3 = -1, 1<i<-1
α(1) = 1, α(i)= i, α(-1) = -1
α(1) < α(i) < α(-1) y



2-misol. α(t) yo'nalishni saqlamasin ya'ni.

$\tau_1<\tau_2<\tau_3$, $\alpha(\tau_1) < \alpha(\tau_2) < \alpha(\tau_3)$ shart bajarilmasin

$\alpha(t) = \frac{1}{t}$, $t \in T = \{t \in \notin , , Itl = 1\}$ bo'lsin

$\tau_1 = 1$, $\tau_2 = i$, $\tau_3 = -1$, $1<i<-1$

$\alpha(1) = 1$, $\alpha(i)= i$, $\alpha(-1) = -1$

$\alpha(1) < \alpha(i) < \alpha(-1)$ bu xato, shuning uchun $\alpha(t) = \frac{1}{t}$ yo'nalishni saqlamaydi



3-misol. Birlik aylana T={ t $\in$ C; $|t| = 1$} da $\alpha(t) = \frac{\frac{3}{2}t+\frac{\sqrt{5}}{2}}{\frac{\sqrt{5}}{2}t+\frac{3}{2}}$ formula orqali aniqlanuvchi akslantirishning qo'zg'almas nuqtalarini toping.

$|t| = 1, \quad t = x + iy, \quad \sqrt{x^2 + y^2} = 1,$

$\alpha(t) = \frac{\frac{3}{2}t+\frac{\sqrt{5}}{2}}{\frac{\sqrt{5}}{2}t+\frac{3}{2}}$, $|\alpha(t)| = 1$,

Yechish. Daslab bu siljishning T birlik aylanani o'ziga o'tkazishini ko'rsatamiz buning uchun agar t $\in$T bo'lsa $|\alpha(t)|$=1 ekanligini ko'rsatish yetarli

$$\left|\frac{\frac{3}{2}t+\frac{\sqrt{5}}{2}}{\frac{\sqrt{5}}{2}t+\frac{3}{2}}\right| = \left|\frac{\frac{3}{2}(x+iy)+\frac{\sqrt{5}}{2}}{\frac{\sqrt{5}}{2}(x+iy)+\frac{3}{2}}\right| = \left|\frac{\frac{3}{2}x+i\frac{3}{2}y+\frac{\sqrt{5}}{2}}{\frac{\sqrt{5}}{2}x+i\frac{\sqrt{5}}{2}y+\frac{3}{2}}\right| = \left|\frac{\frac{3}{2}x+\frac{\sqrt{5}}{2}+i\frac{3}{2}y}{\frac{\sqrt{5}}{2}x+\frac{3}{2}+i\frac{\sqrt{5}}{2}y}\right| = \frac{\left|\frac{3}{2}x+\frac{\sqrt{5}}{2}+i\frac{3}{2}y\right|}{\left|\frac{\sqrt{5}}{2}x+\frac{3}{2}+i\frac{\sqrt{5}}{2}y\right|} =$$

$$\frac{\sqrt{(\frac{3}{2}x+\frac{\sqrt{5}}{2})^2+(\frac{3}{2}y)^2}}{\sqrt{(\frac{\sqrt{5}}{2}x+\frac{3}{2})^2+(\frac{\sqrt{5}}{2}y)^2}} =$$

$$\frac{\sqrt{\frac{9}{4}x^2+2\frac{\sqrt{5}}{2}\frac{3}{2}x+\frac{5}{4}+\frac{9}{4}y^2}}{\sqrt{\frac{5}{4}x^2+2\frac{\sqrt{5}}{2}\frac{3}{2}x+\frac{9}{4}+\frac{5}{4}y^2}} = \frac{\sqrt{\frac{9}{4}(x^2+y^2)+\frac{5}{4}+\frac{3\sqrt{5}}{2}x}}{\sqrt{\frac{5}{4}(x^2+y^2)+\frac{9}{4}+\frac{3\sqrt{5}}{2}x}} = \frac{\sqrt{\frac{9}{4}+\frac{5}{4}+\frac{3\sqrt{5}}{2}x}}{\sqrt{\frac{5}{4}+\frac{9}{4}+\frac{3\sqrt{5}}{2}x}} = \frac{\sqrt{\frac{13}{4}+\frac{3\sqrt{5}}{2}x}}{\sqrt{\frac{13}{4}+\frac{3\sqrt{5}}{2}x}} = 1$$

Bu akslantirish birlik aylanani o'ziga o'tkazar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Г.С.Л.итвинчик "Краевые задачи и сингулйарные интегральные уравнения со сдвигом", "nayr" москва 1977.
2. Л.А.Лйустерник , В.И.Соболев, "Элемент функционалного анализа" «Наука» Москва 1965 год.
3. Ф.Д.Гахов. "Краевке задачи. Изд. "Наук" Москва 1977.
4. Н.И.Мусхлишвили. Сингулиярные интегральные уравнения.Изд. "Наук" Москва 1968 год.
5. A.G'oziyev. R.Mardiyev. "Analitik funksiyalarming chegaraviy masalalari, maxsus kursi bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma" Samarqand 2013 йил.
6. J.LAbdullaev va boshqalar "Funksional analiz" Toshkent – Samarqand 2009.
7. Р.Мардиев., Д.Ганиев. Условия *n(d)* – нормальности сингулярные интегральных операторов с изменяющим ориентацию сдвигом в пространствах Гёльдера. СамДУ ахборотномаси №3 2012 год стр 54-55.

KASR TARTIBLI HOSILA TUSHUNCHASI

Shukurov Zoxid Kuchkarovich SamDU Kattaqo'rg'on filiali
shukurovzoxid742@gmail.com
Nuriddinova Shahzoda Shavkatjon qizi SamDU Kattaqo'rg'on filiali, talaba

Annotatsiya: Maqolada kasr tartibli kasr tartibli hosilani hisoblashning rivojlanishi qisqacha sharhi berilgan. Butun sonlar bo'lmagan hosilalar bilan ishlash uchun matematik tahlilning maxsus funksiyalari qaralgan Kaputo va Riman-Liuvilning kasr tartibli hosilalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kasr tartibli tenglama, Kaputo kasr tartibli hosilasi, Riman-Liuvil kasr tartibli hosila, Gamma funksiya.

Kasr tartibli hosilalarni $f'(x)$ hosila tushunchasi paydo bo'lishi bilan savol paydo bo'lgan. $f^{\left(\frac{1}{2}\right)}(x)$ hosila mavjudmi degan savol o'ylantiradi? G. Leybnits (1646-1716) Lopitalga Matquis de L 'Hopital (1661-1704) yozgan maktubida $\frac{1}{2}$ tartibli hosilalarni imkoniyati haqida o'zining bir qancha fikrlarni bayon etgan. Kasr tartibli hosila va differensial tushunchalari ilk G. W. Leybnits qo'l yozmalarida ko'rish mumkin. Ya. Bernulli unga yozganlar xatlarining birida ikkita funksiyaning ko'paytmasining hosilasi haqidagi teoremada agar hosila kasr tartibli bo'lgan holda ham o'rinli bo'ladimi degan savolni so'ragan. G. W. Leybnits 1695-yil 30-sentyabrda G. Lopitalga va 1697-yil 28-mayda wallisga yozgan xatlarida $\frac{1}{2}$ tartibli differensial va hosilani olishning bir nechta usullari haqida yozib o'tgan. Birinchi qadamni 1739-yilda L. Eyler qo'ydi va darajali funksiyaning

$$\left(x^n\right)^{(k)} = \frac{n!}{(n-k)!}x^{n-k} \qquad (1)$$

hosilasi butun bo'lmagan k uchun o'rinli bo'lishini payqadi. Shu munosabat bilan u umumlashgan faktorialni kiritdi biz uni hozir Eylerning Gamma funksiyasi deb ataymiz:

$$\Gamma(s+1) = s\Gamma(s), \qquad \Gamma(n) = (n-1)!.$$

1812-yil kasr tartibli hosilalarni $\int f(t)t^{-x}dt$ integral ko‘rinishda hisoblash usuli P. S. Laplas tomonidan joriy qilingan. S. Lyakura 1820-yil L.Eyler g‘oyasini takrorlab darajali funksiyalarning $\frac{1}{2}$ kasr tartibli hosilalarni hisoblashning aniq formulasini keltirib chiqardi. Funksiyalarning keng sinfini darajali qatorlar shaklida yozish mumkinligi sababli, bunday funksiyalar uchun kasr tartibli hosilalarni shu tarzda aniqlash mumkin.

Keyingi qadamni 1822-yilda J. Fury’e (1768-1830) qo‘yib butun bo‘lmagan tartibli hosilani aniqlash uchun quyidagi tenglikdan foydalanishni taklif qildi:

$$f(x)=\sum_{k=0}^{\infty} f_k e^{ikx}\ ,\ f_k=\frac{1}{2\pi}\int_{-\pi}^{\pi} f(y)e^{-iky}dy\ ,\ f^{(k)}(x)=\sum_{k=0}^{\infty}(ik)\,f_k e^{ikx} \qquad (2)$$

Bu har qanday musbat tartib va har qanday funksiya hosilasining birinchi ta’rifi edi.

Yuqorida keltirilgan faktlar faqat kasr hisobning tarixidan oldingi davrdir. Haqiqiy davr N. Abel (1802-1829) va J. Liuvill (1809-1882) asarlaridan boshlangan. 1823- va 1826-yillarda nashr qilingan asarlarida N. G. Abel Tautoxron muammosini o‘rganib chiqdi. Bu muammoni yechish uchun u Integral tenglamani oldi:

$$A_\alpha\varphi(x)=\int_a^x \frac{\varphi(t)}{(x-t)^a}=f(x)\ ,\ x>a\ ,\ 0<\alpha<1 \qquad (3)$$

bu yerda $\varphi(t)$ Tautoxron masalasining yehimini beruvchi egri chiziq. Abel bu tenglamani yechdi va A_α ga teskari operatorni topdi: $\varphi(x)=R_\alpha f(x)$ (4)

Keyinchalik ma’lum bo‘lishicha A_α bu $1-\alpha$ tartibli integratsiya amali, R_α esa kasr differensiallash amalidir. Biroq bu ta’riflar keyinroq paydo bo‘ldi. J. Liuvill 1832-1837-yillarda uni kasr tartibli integral va differensiallar nazariyasini asoschisi deyishga haqli bir nechta maqolalar yozib chop qildi. J. Liuvill 1832-yilda ko‘rsatkichli funksiyalar va $f(x)=\sum_{k=0}^{\infty} c_k e^{a_k x}$ ko‘rinishda yozish mumkin bo‘lgan funksiyalar uchun kasr tartibli differensial tushunchasini quyidagicha aniqladi:

$$D^p f(x)=\sum_{k=0}^{\infty} c_k a_k^p e^{a_k x} \qquad (5)$$

bu yerda p-ixtiyoriy son J. Liuvill asarlaridan keyin B. Riman (1826-1866) asarini muhim o‘ringa qo‘yish kerak B. Riman biz hozir qo‘llayotgan integrao-differensiallash nazariyasini yaratdi. U kasr integral va hosilalarni aniqladi va ularning xossalarini o‘rganadi. Bu asarlar turkumini 1847-yilda talabalik yillarida tugatgan ammo ular vafotidan 10 yil o‘tib 1876-yilda nashr etilgan. Keyinchalik ko‘pgina matematiklar tomonidan kasr tartibli integral va differensial tuhunchalari kiritildi. Ammo bu aniqlangan ta’riflar ichida X. Holmgren va B. Rimanlar tomonidan aniqlangan kasr tartibli integral tushunchalari Liuvill tomonidan aniqlangan ta’rifga yaqin bo‘lib, u quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$\frac{1}{\Gamma(\mu)}\int_0^x \frac{\varphi(t)}{(x-t)^{1-\mu}}dt\ ,\ x>0 \qquad (6)$$

Kasr tartibli hosilalarning mashurlik davri 1960-1970-yillarda tan olingan. 1974-yilda Nyu-Havenda Sobir Umarov tomonidan juda ko‘p ochiq muammolar ko‘rilgan. Oddiy hosilalarning jadvali mavjud bo‘lib ammo kasr tartibli hosilalar uchun aniq jadval keltirilmagan.

Olimlarning kasr tartibli hisoblashga bo‘lgan qiziqishlarining yangi to‘lqini 1974-yilda “Kasr tartibli hisoblash” kitobi nashr etilgandan so‘ng paydo bo‘lgan. Ushbu kitobda kasr tartibli hisoblash nazariyasi tizimli ravishda keltirilgan. Shu vaqtdan boshlab turli xil jurnallarning tematik sohalari paydo bo‘la boshlagan, ular ilm-fan, texnika, tabiatshunoslikning turli sohalarida kasr

tartibli hisoblashni qo‘llashga bag‘ishlangan. Hozirgi vaqtda kasr tartibli hisoblash nazariy jihatdan ham amaliy jihatdan ham zo‘r rivojlanish bosqicha. Kasr tartibli differensial tenglamalar ko‘pgina matematiklar tomonidan o‘rganilgan. Bu haqda ma’lumotlar bilan S. G.Samko, A.A.Kilbas va O.I.Marichevlar ishida tanishishingiz mumkin.

Kasr tartibli hosilalar asosan pandemiya davrida karonavirus pragnozi uchun keng foydalanilgan. Sabablarining asosiysi karonavirus issiqlikda tezroq yoki sekinroq tarqalishi. Hozirgi kunda rivojlanib kelayotgan yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. RIMAN-LIUVILL KASR TARTIBLI INTEGRAL VA HOSILAGA OID AYRIM MASALALARNING ISHLANISHI. *Educstional Research in Universal Sciences* , 2(12), 216-220.
2. MITTAG-LIFFER FUNKSIYASI VA UNI HISOBLASH USULLARI. *Educstional Research in Universal Sciences* 2(9), 238-244.
3. KASR TARTIBLI TENGLAMALARDA MANBA VA BOSHLANG‘ICH FUNKSIYANI ANIQLASH BO‘YICHA TESKARI MASALAR. In *“Conference on Universal Science Research 2023”* (Vol. 1, No. 3, pp. 8-10).
4. RIMAN-LIUVILL KASR TARTIBLI INTEGRALI VA HOSILASIGA OID AYRIM MASALALARNING ISHLANISHI. *Educational Research in Universal Sciences,* 2(12), 216-220.
5. Jurakulov, NUCLEAR ENERGY. *Educational Research in Universal Sciences* , 2(10), 514-518.
6. Oghly, J. S. Z. (2023). PHYSICO-CHEMICAL PROPERTIES OF POLYMER COMPOSITES. *American Journal of Applied Science and Technology* , 3(10), 25-33.
7. Oghly, J. S. Z. (2023). THE RELATIONSHIP OF PHYSICS AND ART IN ARISTOTLE’S SYSTEM. *International Journal of Pedagogics* , 3(11), 67-73.
8. Sharipova, M. P. L. (2023). CAPUTA MA’NOSIDA KASR TARTIBLI HOSILALAR VA UNI HISOBLASH USULLARI. *Educational Research in Universal Sciences* , 2(9), 360-365.

ANALITIK HISOBLAB BO‘LMAYDIGAN INTEGRALLARNI HISOBLASH USULLARI VA ULARNING YECHIMLARI.

Turdimurodov Otabek Farxod o‘g‘li,
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali
otabekfarxodovichturdimurodov@gmail.com
Otayorov Oxunjon Shovxiddin o‘g‘li, Tõxtamurodova Marjona Bahodir qizi,Ergashova E’zoza Yusup qizi talabalar

Anotatsiya:Ushbu ishida analitik hisoblab bo‘lmaydigan integrallarni hisoblashning zamonaviy usullari, xususan, raqamli integratsiya metodlari o‘rganildi. Elementar funksiyalar orqali ifodalanmaydigan integrallar nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularni yechishda Maple dasturiy vositasi imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Amaliy misollar orqali Maple dasturida integralni raqamli usulda hisoblash texnologiyasi yoritildi. Grafik ko‘rinishdagi tasvirlar yordamida yechimlar vizual tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Maple muhitida noanalitik integrallarni hisoblash yuqori aniqlik va qulaylikni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar:Analitik integrallar, noanalitik integral, raqamli integratsiya, Maple, sonli hisoblash, Simpson qoidasi, trapezoid usuli, grafik yechim, matematik analiz, kompyuter algebra tizimi.

Trapetsiya metodi va ketma-ket yaqinlashish usuli

Trapetsiya metodi

Trapetsiya metodi — bu raqamli integratsiya metodlaridan biri bo‘lib, integralni hisoblashda funksiyaning grafikasi ostidagi maydonni trapetsiyalar bilan yaqinlashish asosida ishlaydi. Ushbu usul aniq hisoblab bo‘lmaydigan integralni taxminiy hisoblash uchun ishlatiladi.
Formulasi:

Agar bizning integralimiz $\int_a^b f(x)dx$ shaklida bo‘lsa, trapetsiya metodining asosiy formulasini quyidagicha yozish mumkin:

$$I \approx \frac{b-a}{2}(f(a)+f(b))$$

Bu yerda:

- $f(a)$ va $f(b)$ — funksiyaning integrallashuv chegaralaridagi qiymatlari.
- $\frac{b-a}{2}$ — bu trapetsiyaning asosiy uzunligini ko‘rsatadi.

Trapetsiya metodining yondoshuvi:

Agar integral chegaralaridagi $f(x)$ funktsiyasi chiziqli bo‘lsa, ya’ni, yassi chiziq shaklida bo‘lsa, trapetsiya metodi uning aniq qiymatini beradi.

- Ammo funksiyaning shakli murakkab bo‘lsa, trapetsiya usuli natijalari faqat taxminiy bo‘ladi, va xatolik bilan birga keladi.

Trapetsiya metodining ketma-ket yaqinlashishi:

Trapetsiya metodini yaxshilash uchun ketma-ket yaqinlashish usulidan foydalanamiz. Bu metodda, integralni hisoblashda qadam-baqadam kichikroq bo‘limlarga ajratilib, natijalar yondoshuv sifatida yaxshilanadi.

Har bir ketma-ket qadamda intervalning bo‘linishi ortadi va natijalar aniqlash darajasi oshadi.

Ketma-ket yaqinlashish formulasi:

Agar T_n - n -bo‘limli trapetsiya usuli bo‘lsa, unda ketma-ket yondoshuv:

$$T_{n+1} = \frac{1}{2}T_n + h_n \cdot f(x_n)$$

Bu yerda:

- T_n — n -bo‘limli trapetsiyaning natijasi,
- h_n — bo‘linish uzunligi (interval uzunligini bo‘lib olinadigan kichik qism),
- $f(x_n)$ — har bir kichik qismdagi funksiya qiymati.

Ketma-ket yaqinlashish natijalarining yaxshilanishi:

- Bu yondoshuvda, har bir yangi qadamda hisoblashda yanada aniqroq natijalarga erishiladi.
- Xatolikni kamaytirish va integralning aniq yechimini topish uchun ko‘proq qadamlar qo‘llaniladi.

Misol: Trapetsiya metodining ketma-ket yaqinlashishi

Masala:

Quyidagi integralni hisoblash:

$$I \approx \int_0^1 e^{-x^2} dx$$

Birlamchi trapetsiya yondoshuvi ($n = 1$):

$$T_1 = \frac{1-0}{2}(e^{-0^2} + e^{-1^2}) = \frac{1}{2}(1+e^{-1}) \approx 0.6839$$

Ketma-ket yaxshilash (Ikkinchi yondoshuv uchun $n = 2$):

$$T_2 = \frac{1}{2}T_1 + h_1 \cdot f(0.5)$$

Bu yerda $f(0.5) = e^{-0.25}$ va h_1 — interval uzunligini kichikroq qismga bo‘lishdir.

Maple Dasturida 10 Qadamli Trapetsiya Metodi

```
# Funksiyani aniqlaymiz
f := x -> exp(-x^2);

# Intervalni belgilash
a := 0;
b := 1;
# Trapetsiya metodining asosiy formulasi
Trapetsiya := (f, a, b, n) ->
  (b - a) / (2 * n) * (f(a) + f(b) + 2 * sum(f(a + i * (b - a) / n), i = 1 .. n - 1));
# 10 qadamni hisoblash va har bir qadamning natijasini olish
n := 1:
results := [];
for n from 1 to 10 do
  result := Trapetsiya(f, a, b, n);
  results := [op(results), result];
end do;

# Natijalarni chiqarish
results;
# 10 qadam uchun natijalarni ko'rsatish
seq(Trapetsiya(f, a, b, n), n = 1 .. 10);
```

XULOSA.

Trapetsiya usuli – bu sonli integrallarni hisoblashda keng qo'llaniladigan, oddiy va samarali yondashuvlardan biridir. Ushbu metod, aslida, **funksiya grafigi ostidagi maydonni** trapetsiya shaklidagi elementlar yordamida yaqinlash orqali hisoblashni ta'minlaydi. Bu usulning asosiy maqsadi - integralni hisoblash uchun funktsiyaning maydonini kichik trapetsiyalar bilan taqrizlashdir.

Adabiyotlar:

1. **S. T. O'Rourke**. (2018). *Numerical Methods: A Practical Introduction*. 2nd Edition, Addison-Wesley.
2. **J. D. Anderson**. (2017). *Computational Fluid Dynamics: The Basics with Applications*. McGraw-Hill Education.
3. **Burden, R. L., & Faires, J. D.** (2011). *Numerical Analysis*. 9th Edition, Brooks/Cole.
4. **Kreyszig, E.** (2011). *Advanced Engineering Mathematics*. 10th Edition, Wiley.
5. **Maple Documentation** (2025). *Trapetsiya Metodi va Uning Amaliyotda Qo'llanilishi*. Maple Tizimi.
6. **Stewart, J.** (2016). *Calculus: Early Transcendentals*. 8th Edition, Cengage Learning.

"AYLANMA STOLLAR DARS METODI" – MATEMATIKANI QIZIQARLI QILISHNING INNOVATSION USULI

Rashidova Lobar Zohid qizi, SamDU Kattaqo`rg`on filiali
lobarrashidova1106@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matematika darslarida "Aylanma stollar" (Rotating Stations) metodini qo'llashning samarali usullari va pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Metodning asosiy maqsadi – o'quvchilarning faolligini oshirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan birlashtirish va sinfdagi hamkorlik muhitini yaratishdir.*

Kalit so'zlar: aylanma stollar, interfaol usullar, guruhli ish, geometriya, perimetr, innovatsion metodlar.

Annotation. *This article analyzes the effective methods and pedagogical aspects of using the "Rotating Stations" method in mathematics lessons. The main goal of the method is to*

increase student engagement, combine theoretical knowledge with practice, and create a collaborative environment in the classroom.

Key words: round tables, interactive methods, group work, geometry, perimeter, innovative methods.

Аннотация. *В статье анализируются эффективные методы и педагогические аспекты использования метода «Вращающиеся станции» на уроках математики. Основная цель метода — повысить вовлеченность студентов, объединить теоретические знания с практикой и создать в классе атмосферу сотрудничества.*

Ключевые слова: круглые столы, интерактивные методы, групповая работа, геометрия, периметр, инновационные методы.

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida an’anaviy o‘qitish usullaridan tashqari innovatsion metodlardan foydalanish kundan-kunga muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, matematika kabi murakkab va mantiqiy fikrlashni talab qiluvchi fanda o‘quvchilarni qiziqtirish va ularga mavzuni yaxshi tushuntirish uchun interfaol usullarni qo‘llash samarali natijalar beradi. Shu nuqtai nazardan, "Aylanma stollar" metodi (Rotating Stations) matematika darslarida muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan eng samarali metodlardan biridir. "Aylanma stollar" metodi o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi, ularga turli bilim darajalariga mos topshiriqlarni bajarish imkoniyatini beradi va sinfda qiziqarli o‘quv muhitini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu metod yordamida o‘tkazilgan darslar nafaqat o‘quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushunishiga, balki ularning mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishiga ham xizmat qiladi. Maqolada "Aylanma stollar" metodining mohiyati, matematika darslarida qo‘llash usullari va uning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, metodni amaliyotda qo‘llashning aniq misollari, xususan, "Geometrik shakllar perimetri" mavzusidagi dars ishlanmasi keltiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu metod yordamida o‘tkazilgan darslar an’anaviy darslarga nisbatan o‘quvchilarning bilim darajasini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

"Aylanma stollar" metodining matematika darslarida qo‘llanilishi

1. Metodning nazariy asoslari

"Aylanma stollar" metodi - bu sinfni bir nechta stansiyalarga (stollarga) bo‘lish va har bir stansiyada turli xil topshiriqlarni bajarishga asoslangan interfaol o‘qitish usuli. Ushbu metod:

- Har xil bilim darajadagi o‘quvchilarga moslashuvchanlikni ta’minlaydi
- Ko‘p qirrali o‘rganish imkoniyatini yaratadi (nazariy, amaliy, loyihaviy)
- Vaqtni samarali taqsimlash imkonini beradi
- Guruhdosh ta’limini rivojlantirishga yordam beradi

Matematika darslarida tatbiq etish bosqichlari

a) Darsga tayyorgarlik:

- Mavzuga mos 3-4 ta stansiya tayyorlash
- Har bir stansiya uchun ko‘rsatmalar va materiallar (kartochkalar, o‘lchov asboblari, vizual vositalar)
- Vaqt chegaralarini belgilash (odatda stansiyada 10-15 daqiqa)

b) Darsning asosiy qismi:

1. Kirish stansiyasi (nazariy qism):
   - Mavzuga oid asosiy tushunchalar
   - Formulalar va ularni qo‘llash usullari
   - Misollar bilan tushuntirish
2. Amaliy stansiya:
   - Masalalar yechish
   - O‘lchov ishlarini amalga oshirish
   - Hisoblashlar
3. Ijodiy stansiya:

- Loyihalar ishlab chiqish
- Haqiqiy hayotdagi muammolarni hal qilish
- Modellar yaratish

c) Yakuniy qism:
- Har bir guruh natijalarini taqdim etish
- Umumiy baholash va xulosa chiqarish

Metodning afzalliklari

1. Faol o‘rganish:
   - Har bir o‘quvchi shaxsan ishtirok etadi
   - Passiv tinglovchilar soni kamayadi
2. Individual yondashuv:
   - Har xil darajadagi topshiriqlar
   - Har bir o‘quvchi o‘z darajasida ishlay oladi
3. Ko‘nikmalarning kompleks rivoji:
   - Nazariy bilimlar
   - Amaliy ko‘nikmalar
   - Kommunikativ qobiliyatlar
4. Qiziqarli dars muhiti:
   - Harakat va o‘zgaruvchanlik
   - Rivojlangan raqobat tuyg‘usi

Cheklovlar va yechimlar

Muammolar:
- Katta sinflarda boshqarish qiyin
- Qo‘shimcha tayyorgarlik vaqt talab qilishi
- Ba’zi o‘quvchilarning moslashish qiyinligi

Yechimlar:
- Yordamchi o‘qituvchi yoki katta o‘quvchilardan foydalanish
- Tayyor shablonlardan foydalanish
- Metodga bosqichma-bosqich o‘rganish

Amaliy misol: "Geometrik shakllar perimetri"

Stansiya 1: "Formula topish"
- Turli geometrik shakllar (kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak, uchburchak)
- Har bir shakl uchun perimetr formulasini aniqlash

Stansiya 2: "Amaliy hisoblash"
- Sinfdagi real narsalarni o‘lchash (daftar, doska, deraza)
- Ularning perimetrini hisoblash

Stansiya 3: "Loyiha ishlab chiqish"
- "Mening xonam" loyihasi
- Xona rejasini chizish va mebel perimetrini hisoblash

Stansiya 4: "Muammoni hal qilish"
- Haqiqiy hayotdagi masalalar (masalan, bog‘ chegarasini o‘lchash)
- Yechimlarni muhokama qilish

Xulosa "Aylanma stollar" metodi matematika darslarini samarali tashkil etishning isbotlangan usullaridan biridir. U nafaqat o‘quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushunishiga, balki ularning mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishiga yordam beradi. Metodni to‘g‘ri tashkil etish va qo‘llash orqali an’anaviy darslardan ko‘ra yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.K.Shayakubov, R.X.Ayupov Interfaol ta’lim usullari Toshkent “Tafakkur bo’stoni nashriyoti – matbaa uyi” 2012, 85-bet

2. Azizxo‘jayeva, N.N. (2023). Interfaol ta'lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot. Toshkent: "Innovatsion ta'lim" nashriyoti. - 245 bet

3. Johnson, D.W., Johnson, R.T. (2021). Active Learning: Cooperative Learning Strategies. New York: "Academic Press". - 78-112 betlar.

KOMBINATORIKAGA KIRISH. KOMBINATORIKANING EHTIMOLLIKDAGI AHAMIYATI

Xudoyberdiyev Sobirjon Shavkat o‘g‘li, Muxtorova Marjona Baxtiyor qizi,
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali talabalari
sobirjonxudoyberdiyev03@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kombinatorika va ehtimollar nazariyasi bo‘limiga oid tushunchalar va uning xossalari berilgan bo‘lib, u orqali sonli kombinatorik va ehtimollikka oid masalalarni soda yechish usuli ko‘rib o‘tilgan. Maqolaning asosiy maqsadi o‘rta maktab, akademik litseylardagi olimpiadaga qiziquvchi o‘quvchilar va abituriyentlarga ba’zi kombinatorik va ehtimollik nazariyasi bo‘limidan murakkab masalalarni sodda, qulay va bir necha usullar bilan yechishni o‘rgatishdan iborat.

Kalit so’zlar. kombinatorika, birlashma, ehtimollik, statistik va klassik tariflar, gruppalashlar.

Asosiy qism. Matematikaning kombinatorik tahlil, kombinatorik matematika, irlashmalar nazariyasi, qisqacha, kombinatorika deb ataluvchi bo’limida chekli yoki muayyan ma’noda cheklilik shartini qanoatlantiruvchi to‘plamni (bu to’plamning elementlari qanday bo’lishining ahamiyati yo’q: harflar, sonlar, hodisalar, qandaydir redmetlar va boshqalar) qismlarga ajratish, ularni o’rinlash va o’zaro joylash ya’ni, kombinatsiyalar, kombinatorik tuzilmalar bilan bog’liq masalalar o’rganiladi.

Ta’rif. Biror chekli to’plam elementlari ichida ma’lum bir xossaga ega bo’lgan elementlaridan iborat qism to’plamlarni tanlab olish yoki to’plam elementlarini ma’lum bir tartibda joylashtirish bilan bog’liq masalalar kombinatorik masalalar deyiladi.

Ta’rif. Turli to’plam elementlaridan tuzilgan kombinasiyalarga birlashmalar deyiladi.

Hodisaning ehtimolini hisoblash uchun zarur bo’lgan birlashmalarni qaraymiz.

1. O’rin almashtirishlar. n ta har xil elementlardan tuzilgan o’rin almashtirishlar deb, biri -biridan faqat elementlarining o’rinlari
bilan farq qiladigan birlashmalarga aytiladi. Ularning soni quyidagicha aniqlanadi:

$P_n = n!$ bu yerda $n! = 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot \ldots \cdot n$

Keyinchalik qarama-qarshilikka duch kelmaslik uchun 0! = 1 deb qabul qilamiz.

Misol: Uchta A, B, C elementlardan tuzilgan o’rin almashtirishlar soni topilsin.

Yechish. Ta’rifga asosan A, B, C elementlardan faqat o’rinlari bilan farq qiladigan birlashmalar tuzamiz, ya’ni

$ABC \quad BAC \quad CAB$

$ACB \quad BCA \quad CBA$

Demak, uchta elementdan tuzilgan o’rin almashtirishlar soni 6 ta ekan. Buni formula orqali hisoblasak ham bo’ladi:

$$P_3 = 3! = 1 \cdot 2 \cdot 3 = 6$$

2. O’rinlashtirishlar. n ta har xil elementlardan k tadan tuzilgan o’rinlashtirishlar deb, bir-biridan elementlari bilan hamda elementlarining o’rinlari bilan farq qiladigan birlashmalarga aytiladi. Ularning soni qo’yidagicha aniqlanadi:

$$A_n^k = n(n-1)(n-2)\cdot\ldots\cdot(n-(k-1)).$$

Misol: Uchta A, B, C elementlardan ikkitadan tuzilgan o’rinlashtirishlar soni topilsin.

Yechish. Ta’rifga asosan bir-biridan elementlari hamda elementlari-ning o’rinlari bilan farq qiladigan birlashmalar tuzamiz, ya’ni

$$AB \quad AC \quad BC$$

$$BA \quad CA \quad CB$$

Demak, ularning soni 6 ta ekan. Agar buni formulada hisoblasak:

$$A_3^2 = 3 \cdot 2 = 6 .$$

Xulosa. Agar n ta elementdan k tadan tuzilgan o'rinlashtirishlarda bir xil elementlar takrorlansa, u holda n ta elementdan k tadan tuzilgan o'rinlashtirishlar soni qo'yidagi formula bilan hisoblanadi.

$$\left(AR\right)_n^k = n^k$$

Masalan, 0, 1, 2, ... 9 raqamlardan tuzilgan besh xonali sonlar soni $\left(AR\right)^5 = 10^5$ ga teng bo'ladi (bu yerda 00000 ham besh xonali son).

3. Gruppalashlar. n ta har xil elementlardan k tadan tuzilgan gruppalashlar deb, bir-biridan faqat elementlari bilan farq qiladigan birlashmalarga aytiladi. Ularning soni qo'yidagicha topiladi:

$$C_n^k = \frac{n!}{k! \cdot (n-k)!}$$

Gruppalashlarda agar $k > \frac{n}{2}$ bo'lsa, $C_n^k = C_n^{n-k}$ tenglikdan foydalaniladi.

Misol. To'rtta a, b, c, d elementlardan ikkitadan tuzilgan gruppalashlar soni topilsin.

Yechish. Ta'rifga asosan 4 ta elementdan 2 tadan bir-biridan hyech bo'lmasa bitta elementi bilan farq qiladigan birlashmalar tuzamiz:

$$ab, ac, bc, ad, bd, cd \quad .$$

Buni formula bilan hisoblasak:

$$C_4^2 = \frac{4 \cdot 3}{1 \cdot 2} = 6$$

Agar birlashmalarda elementlar soni ko'p bo'lsa, uni oddiy yo'l bilan hisoblash qiyin, lekin formula bilan hisoblash oson. Biz ko'rgan birlashmalar o'zaro qo'yidagicha bog'lanishga ega:

$$A_n^k = C_n^k \cdot P_k .$$

Mulohazani misoldan boshlaylik. Skladda 7 ta rangli televizorlar bo'lib, shulardan 5 tasi yaroqli va 2 tasi yaroqsiz bo'lsin. Hamma televizorlar yaxshilab o'ralgan bo'lib, qaysilari yaroqsizligi ma'lum emas. Ma'lumki, tasodifiy olingan televizorni yaroqli chiqish imkoniyati yaroqsiz chiqish imkoniyatidan kattaroq. Bizning maqsadimiz, shu imkoniyatni soniy baholashdan iborat. A - hodisa, tasodifiy olingan televizorni yaroqli chiqishini bildirsin. Har bir tajribaning natijasi elementar hodisani tashkil etadi. Elementar hodisalarni $e_1, e_2, e_3, e_4, e_5, e_6, e_7$ harflar bilan belgilaylik. Bizning misolimizda elementar hodisalar soni 7 ta, ya'ni e_1, e_2, e_3, e_4, e_5 - yaroqli televizorlar chiqishi va e_6, e_7 - yaroqsiz televizorlar chiqishi. Bizni qiziqtirayotgan hodisalarga sharoit yaratuvchi hodisalar deyiladi. Yuqoridagi misolda ularning soni 5 ta (e_1, e_2, e_3, e_4, e_5). Agar sharoit yaratuvchi hodisalar soni 5 ni, hamma elementar hodisalar soni 7 ga nisbatini olsak, 5/7 nisbat tasodifiy olingan bitta televizorni yaroqli chiqish ehtimolini beradi.

Ta'rif. A hodisaning ehtimoli deb, shu hodisaning ro'y berishiga sharoit yaratuvchi hodisalar sonini hamma mumkin bo'lgan elementar hodisalar soniga nisbatiga aytiladi va qo'yidagicha belgilanadi:

$$P(A) = \frac{k}{n}$$

bu yerda k - A hodisaning ro'y berishiga sharoit yaratuvchi hodisalar soni, n - hamma mumkin bo'lgan elementar hodisalar soni. Bu ta'rifdan quyidagi xossalar kelib chiqadi:

1-xossa. Ishonchli xodisaning ehtimoli birga teng:

$$P(U) = 1.$$

Haqiqatan ham, agar hodisa ishonchli bo'lsa, u har bir sinashda albatta ro'y beradi, ya'ni sinashlar soni bilan ro'y berishlar soni teng $(n = k)$ bo'ladi. Hamma ishonchli hodisalarni U bilan belgilaymiz. U holda

$$P(U) = \frac{k}{n} = \frac{n}{n} = 1.$$

2-xossa. Ishonchsiz hodisaning ehtimoli nolga teng:

$$P(\mathrm{V}) = 0.$$

Haqiqatdan, agar hodisa ishonchsiz bo'lsa, u hyech bir sinashda ro'y bermaydi, ya'ni sharoit yaratuvchi hodisalar soni $k = 0$ bo'ladi. Agar ishonchsiz hodisalarni V bilan belgilasak, u holda

$$P(V) = \frac{k}{n} = \frac{0}{n} = 0.$$

3-xossa. Tasodifiy hodisaning ehtimoli nol va bir oralig'idagi songa teng:

$$0 < P(A) < 1.$$

Haqiqatdan, agar hodisa tasodifiy bo'lsa, uning ro'y berishiga hamma elementar hodisalardan faqat bir qismi sharoit yaratadi, ya'ni $0 < k < n$ bo'ladi. Bu ikkilangan tengsizlikni n ga bo'lsak,

$$\frac{0}{n} < \frac{k}{n} < \frac{n}{n} \quad \text{yoki} \quad 0 < \frac{k}{n} < 1.$$

Ta'rifga asosan k/n hodisani ro'y berish ehtimoli, demak

$$0 < P(A) < 1.$$

Shunday qilib, hodisaning ehtimoli quyidagi ikkilangan tengsizlikni qanoatlantiradi:

$$0 \le P(A) \le 1.$$

Demak, agar hodisaning ehtimoli nolga teng bo'lsa, hodisa ishonchsiz, agar birga teng bo'lsa, hodisa ishonchli, agar nol bilan bir oralig'ida bo'lsa, tasodifiy bo'ladi. Agar tasodifiy hodisaning ehtimoli nolga yaqin bo'lsa, hodisa juda ham kam ro'y beradi, agar birga yaqin bo'lsa hodisa tez-tez ro'y beradi. Shunday qilib, hodisaning ehtimoli uning ro'y berish darajasini ko'rsatadi.

Misollar

1. O'yin kubi tashlanganda juft raqam yozilgan tomoni tushish eqtimoli topilsin.

Yechish. O'yin kubida 6 ta tomoni bo'lib, har bir tomoniga 1, 2, 3, 4, 5, 6 raqamlardan biri yozilgan. Demak hamma yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalar soni n = 6. Juft raqam yozilgan tomoni tushishiga sharoit yaratuvchi hodisalar esa 2, 4, 6 ya'ni ularning soni $k = 3$. Agar o'yin kubi tashlanganda juft tomoni tushishini A bilan belgilasak, uning ehtimoli ta'rifga asosan quyidagicha bo'ladi:

$$P(A) = \frac{k}{n} = \frac{3}{6} = \frac{1}{2}.$$

2. Besh tomlik kitob aralashtirib qo'yilgan. Shu kitoblarni tasodifiy ravishda olib bir qatorga tersak, kitoblar o'sish tartibida joylashish ehtimoli topilsin.

Yechish. 5 ta kitobni bir-biridan o'rinlari bilan farq qiladigan $P_5 = 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5 = 120$ ta har xil usul bilan olib terish mumkin. Bu esa hamma mumkin bo'lgan hodisalar soni. Sharoit yaratuvchi hodisalar soni faqat bitta, u ham bo'lsa kitoblar tomining o'sib borishi tartibida joylashishi. Shunday qilib, izlanayotgan hodisaning ehtimoli:

$$P(A) = \frac{1}{120}.$$

3. Xaltachada 1 dan 10 gacha nomerlangan kublar bor. Tasodifiy ravishda uchta kub olindi. Olingan kublarda juft nomerlar yozilgan bo'lish ehtimoli topilsin.

Yechish: Tasodifan olingan kublarni uchalasini ham juft nomerli bo'lish hodisasini A bilan belgilaymiz. Hamma mumkin bo'lgan elementar hodisalar soni 10 ta kubdan 3 tadan olingan o'rinlashtirishlar soniga teng bo'ladi, ya'ni

$$n = A_{10}^3 = 10 \cdot 9 \cdot 8 = 720 .$$

Misol. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlardan 100 ta olib tekshirish natijasida 5 ta yaroqsiz chiqdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni yaroqsiz bo'lish nisbiy sanog'i topilsin.

Yechish. Shartga ko'ra, $\mu = 5,\ n = 100$, demak,

$$W(A) = 5/100 = 0{,}05 .$$

Agar tekshirish uchun qancha ko'p mahsulot olinsa, natija shuncha aniq bo'ladi.

Xulosa.

Ushbu maqola mavzusi bo'yicha o'quv-uslubiy adabiyotlar, darsliklar tahlili, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinflari va 6-9 sinflari matematika kursidagi kombinatorika va ehtimollar nazariyasi elementlari va matematik statistika elementlari bo'yicha quyidagi xulosaga olib keldi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari oby'ektlarni xossalari bo'yicha tartiblay olishi va sodda kombinatsiyalar tuza olishi, sodda amaliy vaziyatlarda kombinatorik va mantiqiy masalalarni yecha olishi kerak. Shu asosda ularning maktab darsliklarida xona birliklari mavzularida kombinatorikaga doir mashqlar berilsa o'quvchilarning sonlarni chalkashmay o'qishi va yozishi samarasi oshardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. H.To'rayev va boshqalar, "Kombinatorika elementlari va graflar Nazariyasi" Toshkent-„ilm ziyo"-2009.
2. Qosimov N.X., Dadajonov R.N., Ibragimov F.N. Diskret matematika va matematik mantiq elementlari. Uslubiy qo'llanma. Toshkent – 2013.
3. N. N. Vilinkin. Kombinatorika. M., "Nauka", 1969.

MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY HAMDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Rustamova Feruza Sherzod qizi, Roziqova Marjona Baxtiyor qizi[2], Asadova Durdona Zafar qizi[3]

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'onga filiali, talabalari

Annotatsiya: Dars mashg'uloti uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lim jarayonining qariyb 90 foizlik muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati aynan mana shu bosqichda ochib beriladi. Ushbu maqolada matematika darslarida zamonaviy hamda interfaol metodlardan foydalanish to'g'risida yoritilgan.

Kalit so'zlar: matematika, interfaol, zamonaviy metod, baholash, nazariy bilim, "fikriy hujum" metodi.

O'quvchilarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi dars jarayonini samarali, qiziqarli, bahs-munozaralarga boy

bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi. Mana shu holatdagina o'quvchilar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qila olish, murakkab vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish, hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi. Pedagogik texnologiyaning mohiyati – ta'lim jarayonini jadallashtirish, o'quvchilarning o'zlashtirish va uning natijalarini sur'atini tezlashtirish, natijalarini obyektiv, holisona baholay olish, ko'zlangan natijalarga erishishni kafolatlashga qaratilgan pedagogik jarayonni anglatadi. Boshqacha aytganda, o'qitish jarayonining barcha bosqichlarini aniq maqsad asosida kutilgan natijalarni beradigan tarzda tizimli loyihalash tushuniladi. O'qituvchilarning matematika fanlarini o'qitishda yo'naltirilgan darslar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi. Matematika o'qitish metodikasi eng avvalo kichik yoshdagi o'quvchilarni umumiy tizimda o'qitish va tarbiyalash vazifasini qo'yadi. Bugungi kunda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Matematika darslarida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish usullarini ko`rib chiqamiz.

"Fikriy hujum" metodi. Mazkur metod o'quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi. "Fikriy hujum" metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir saotga qadar tashkil etilishi mumkin.

"5x5x5" metodi. "5x5x5" metodi yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 5 nafardan ishtirokchi bo'lgan 5 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 5 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 5 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga guruhi

tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

“Sonlar piramidasi” metodi.

Piramidaning pastki qismidagi sonlar yig‘indi shaklida ko‘payib boradi. Tepa qismida esa aksincha, sonlarning ayirmasi bajarilib, sonlar kamayib boradi. 1 dan 9 gacha bo‘lgan sonlarni shunday joylashtiringki, natijada to‘g‘ri matematik amallar hosil bo‘lsin.



Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta‘lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta‘lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi.

Shu bilan birga, interfaol ta‘lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bu holat hozrda interfaol ta‘lim metodlarini ma‘lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta‘lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1.Interfaol metodlar: ―Keys-stadi (yoki ―o‘quv keyslari),―Blist-so‘rov, ―Modellashtirish, ―Ijodiy ish‖, ―Muammoli ta‘lim‖ va b.

2.Interfaol ta‘lim strategiyalari.―Aqliy hujum, ―Bumerang, ―Galereya, ―Zig-zag, ―Zinama-zina, ―Muzyorar, ―Rotastiya, ―Yumaloqlangan qor‖ va k. interfaol ta‘lim metodlari tarkibidan interfaol ta‘lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko‘proq jihatdan interfaol ta‘lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q.

Xulosa

Zamonaviy va interfaol metodlardan foydalanish matematika darslarining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bu metodlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Interfaol usullar dars jarayonini faollashtiradi, o‘quvchilarni darsga qiziqtiradi va ularni faol ishtirokchi sifatida jalb etadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, masalan, multimediya vositalari, elektron dasturlar va interaktiv platformalar orqali darslar ko‘rgazmali, tushunarli va esda qolarli bo‘ladi. Demak, matematika ta’limida zamonaviy va interfaol yondashuvlarni keng joriy etish nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki yosh avlodni innovatsion fikrlashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxodjayeva N.H ―Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat‖- Toshkent.: TDPU, 2003, 174 bet.
2. Axmedov M va boshqalar Matematika 1, Toshkent.: O‘zinkomsentr, 2003, 160- bet. Axmedov M va boshqalar 1-sinfda matematika darslari Toshkent.: O‘zinkomsentr, 2003, 96bet.
3. Interfaol ta’lim usullari” Sh.K Shayaqubov, R.X Ayupov Toshkent-2020
4. Matematika o’qitish metodikasi” S Alixonov Toshkent-2011
5. Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. The Peerian Journal, 4, 20-22.

TASODIFIY MIQDORLARNING SHARTLI MATEMATIK KUTILMASI

Mahmudov Jaloliddin Dilshod o‘g‘li
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi
jaloliddinmahmudov344@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqolada tasodifiy miqdorlarning shartli matematik kutilmasi tushunchasi, uning asosiy xossalari va qo‘llanish sohalari yoritilgan. Shartli kutilmaning aniqlanish usullari, ular yordamida murakkab ehtimollik modellarini tahlil qilish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Maqolada nazariy asoslar bilan bir qatorda amaliy misollar orqali shartli kutilmalarning ahamiyati ochib beriladi. Ushbu ish statistik model qurishda, ehtimollik nazariyasini chuqur o‘rganishda va amaliy hisoblashlarda foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar:tasodifiy miqdor, shartli matematik kutilma, ehtimollik taqsimoti, statistik modellashtirish, ehtimollik nazariyasi, matematik tahlil, amaliy statistika

1.Tasodifiy miqdorlar va taqsimot funksiyalar

Tasodifiy miqdor ta‘rifini berishdan avval o‘lchovli funksiya tushunchasini kiritamiz .Bizga $<\Omega,F>,<R,G>$ o‘lchovli fazolar va $\xi:\Omega\to R$ funksiya berilgan bo‘lib, bu funksiya uchun $A\in G$ ekanidan $\xi^{-1}(A)=\{\omega|\xi(\omega)\in A\}\in F$ ekani kelib chiqadi, bunday funksiya *o‘lchovli funksiya* diyiladi. Agar $<\Omega,F,P>$ ixtiyoriy ehtimollik fazosi bo‘lsa, har qanday $\xi:<\Omega,F>\to<R,G>$ o‘lchovli funksiya tasodifiy miqdor diyiladi.

1-misol.Bitta tanga tashlaganimizda Ω ikkita elementar hodisa gerb va raqamdan iborat bo‘ladi.Agar tanganing gerbli tomoni tushsa 1 yozsak, u holda 0 yoki 1 ni qabul qiluvchi tasodifiy miqdorni hosil qilamiz.

2-misol.Agar ikkita tanga tashlasak, ω elementar hodisalar GG;GR;RG;RR dan iborat bo‘lib , “gerb” tushishlar sonini $\xi=\xi(\omega)$ deb belgilasak, bu tasodifiy miqdorni quydagi jadval bilan berish mumkin:

$F_\varepsilon(x)=P\{\omega:\xi<x\}$ ω	PP	GP	PG	GG
$\xi(\omega)$	0	1	1	2

3-miasol. $\{(x,y)|\ x\in[0,1],y\in[0,1]\}$ kvadratga tashlangan nuqtadan koordinatalar boshigacha bo‘lgan masofa tasodifiy miqdordir,chunki $\{(x,y)|\ x^2+y^2<t\}$ to‘plam o‘lchovli.

Tasodifiy miqdor ta‘rifiga ko‘ra ixtiyoriy $x\in R$ uchun

$\{\omega|\ \xi(\omega)<x\}=\{\xi<x\}=\xi^{-1}(-\infty,x)\in F$, chunki $(-\infty,x)\in G$ .Bundan

$F_\varepsilon(x) = P\{\omega : \xi < x\}$ funksiyani R da aniqlanganligi kelib chiqadi. Bu funksiya ξ *tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasi* diyiladi.

4-misol. ξ tasodifiy miqdor 1 va 0 qiymatlarni mos ravishda p va $q(p+q=1)$ ehtimol bilan qabul qilsin, ya‘ni

$$\xi : 0,1, \qquad p = P\{\xi = 1\},$$

$$p : q, p. \qquad q = P\{\xi = 1\}.$$

Bu holda

$$P\{\xi < x\} = F(x) = \begin{cases} 0, agar, x \le 0 \\ p, agar, 0 < x \le 1 \\ 1, agar, 1 < x \end{cases}$$

Bu tasimotning grafigi quydagicha bo‘ladi(1-rasm).

Agar tasodifiy miqdor $0,1,2,\ldots,n$ qiymatlarni $P\{\xi = k\} = C_n^k p^k q^{n-k}, k = \overline{0,n}$

Ehtimol bilan qabul qilsa, bu tasodifiy miqdor *binomial qonun bo‘yicha taqsimlangan tasodifiy miqdor* deyiladi.Uning taqsimot funksiyasi quydagicha bo‘ladi.

$$F(x) = \begin{cases} 0, agar, x < 0 \\ \sum_{k<x} C_n^k p^k q^{n-k}, agar, 0 \le x \le n \\ 1, agar, n < x \end{cases}$$

Grafigi quydagicha bo‘ladi (2-rasm).

5-misol.Agar ξ tasodifiy miqdor $0,1,2,\ldots,n$ qiymatlarni

$P\{\xi = k\} = \dfrac{\lambda^k}{k!} e^{-\lambda}, \lambda > 0$ ehtimollar bilan qabul qilsa, uni Puasson qonuni *qonuni bo‘yicha taqsimlangan tasodifiy miqdor* deyiladi.Uning taqsimot funksiyasi quydagicha aniqlanadi:

$$P(x) = \begin{cases} 0, agar, k < 0 \\ \sum_{k<x} \dfrac{\lambda^k}{k!} e^{-\lambda}, 0 \le k \le x \end{cases}$$

6-misol. ξ tasodifiy miqdor $x_1, x_2, \ldots, x_N$ qiymatlarni $P\{\xi = x_k\} = \dfrac{1}{N}, k = \overline{1,N}$ ehtimollik bilan qabul qilsin.Bu tasodifiy miqdor *tekis taqsimlangan tasodifiy miqdor* deyiladi.Uning btaqsimot funksiyasi quydagicha bo‘ladi:

$$F(x) = \begin{cases} 0, agar, x \le x_1 \\ \dfrac{k}{N}, agar, x_k < x \le x_{k+1} \\ 1, agar, x_N < x \end{cases}$$

7-misol.Agar tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasi

$$F(x) = c \cdot \int_{-\infty}^{x} e^{-\frac{(u-a)^3}{2\sigma^2}} du$$

Ko‘rinishida bo‘lsa,bunday tasodifiy miqdor *normal taqsimlangan tasodifiy miqdor* deyiladi.
Bu yerda $c > 0, \sigma > 0, -\infty < x < \infty$ - o‘zgarmas sonlar.

Taqsimot funksiyasi quydagi xossalarga ega.
1.Barcha haqiqiy x lar uchun

$$0 \le F_\xi(x) \le 1.$$

2. $F_\xi(x)$ kamaymaydigan funksiya.

Haqiqatdan ham , $x_1 < x_2$ bo‘lsin.Ushbu

$A_1 = \{\xi < x_1\}, A_2 = \{\xi < x_2\}, B = \{x_1 < \xi < x_2\}$, xodisalarni kiritsak ;

$A_2 = A_1 \cup B, A_1 \cap B = V$ munosabatlar o‘rinli bo‘ladi.Natijada ehtimolning additivlik xossasiga aksiomasiga ko‘ra

$$P(A_2) = P(A_1) + P(B)$$

yoki

$$0 \le P(x_1 < \xi < x_2) = P(\xi < x_2) - P(\xi < x_1) = F(x_2) - F(x_1)$$

Bundan esa $x_1 \le x_2$ da $F(x_1) \le F(x_2)$ bo‘lib ,xossaning isboti kelib chiqadi.

3.Taqsimot funksiya chapdan uzliksiz, ya‘ni

$$F_\xi(x) = F_\xi(x-0) = \lim_{x_m \to x} F(x_m).$$

Isot.Faraz qilaylik, $a_1 < a_2 < a_3 < ... < a_n < ...va, n \to \infty$ da $a_n \to b$ bo‘lsin, u holda

$$\bigcap_{n=1}^{\infty} \{\omega : \xi(\omega) \in [a_n, b]\} = V.$$

Natijada uzluksiz aksiomaga ko‘ra

$$F_\xi(b) - F_\xi(a_n) = P\left[\omega : \xi(\omega) \in [a_n, b]\right]$$

Ifoda $n \to \infty$ da nolga intiladi.Bu esa $F_\xi(x)$ ning chapdan uzliksizligini ko‘rsatadi.

4. $\lim_{x \to -\infty} F(x) = 0, \lim_{x \to +\infty} F(x) = 1.$

Isbot.Biz xossani isbotlash uchun ikkita $\{X_n\} va \{Y_n\}$ ketma-ketliklarni qaraymizki,bunda $\{X_n\}$ ketma-ketlik $-\infty$ ga monoton kamaydi, $\{Y_n\}$ esa $+\infty$ ga monoton o‘sadi. $A_n = \{\xi < x_n\}, B_n = \{\xi < y_n\}$ belgilashlarni kiritamiz, $x_n \to -\infty$ ligidan A_n to‘plamlar ketma-ketligi ichma-ich qo‘yilgan bo‘ladi va $\bigcap A_n = \varnothing$.

Ehtimolning uzluksizlik aksiomasiga binoan $n \to \infty$ da $P(A_n) \to 0$ .U holda $\lim_{n \to \infty} F(x_n) = 0$ kelib chiqadi.Bundan va $F(x)$ funksiyaning manotonligidan $\lim_{x \to \infty} F(x) = 0$ ekanligi kelib chiqadi.

XULOSA:

Tasodifiy miqdorlarning shartli matematik kutilmasi ehtimollik nazariyasining muhim tushunchalaridan biri bo‘lib, tasodifiy jarayonlar va statistik modellarni chuqur tahlil qilishda keng qo‘llaniladi. Ushbu maqolada shartli kutilma tushunchasining nazariy asoslari, uning asosiy xossalari va amaliy misollarda qo‘llanishi ko‘rib chiqildi. O‘rganilgan usullar yordamida real hayotdagi turli muammolarni tahlil qilish va statistik qarorlar qabul qilishda samarali yechimlar topish mumkin. Kelgusida bu tushunchani yanada chuqurroq o‘rganish va uni sun’iy intellekt, moliyaviy modellashtirish hamda boshqa amaliy sohalarda tatbiq etish istiqbollari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sobolevsky P.E. *Ehtimolliklar nazariyasi va matematik statistika*. — Toshkent: O‘zbekiston, 2001.
2. Gmurman V.E. *Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika*. — Moskva: Vysshaya shkola, 2003.
3. Ross S. M. *Introduction to Probability Models*. — Academic Press, 2014.

4. Shiryaev A.N. *Probability*. — Springer, 1995.
5. Karimov Yo.T., Xakimov N.X. *Ehtimolliklar nazariyasi va matematik statistika*. — Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2016.
6. Feller W. *An Introduction to Probability Theory and Its Applications*. — Wiley, 1968.
7. Papoulis A., Pillai S.U. *Probability, Random Variables and Stochastic Processes*. — McGraw-Hill, 2002.
8. Online resurslar: www.statlect.com — Probability and statistics lecture notes

IXTOYORIY UCHBURCHAKKA ICHKI VA TASHQI CHIZILGAN AYLANALAR MARKAZLARI ORASIDAGI MASOFANI HISOBLASH

Najmiddinova Shohsanam Muzaffar qizi, Sultonova Sevara Akbarjon qizi,
Otayorova Maftuna Isroil qizi
SamDU Kattaqo`rg`on filiali talabalari
shohsanamnajmiddinova06.@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ixtiyoriy uchburchakka ichki va tashqi chizilgan aylana markazlari orasidagi masofani topish masalasi tahlil qilingan. Ichki markaz (incenter) va tashqi markaz (circumcenter) orasidagi bog‘lanishlar geometrik va trigonometrik formulalar asosida asoslab berilgan. Ushbu masofa uchburchak xossalarini chuqur tushunish va amaliy geometriya masalalarini yechishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: Uchburchak, ichki aylana markazi, tashqi aylana markazi, markazlar orasidagi masofa, geometriya.

Annotation. *This article analyzes the problem of finding the distance between the centers of the incircle and circumcircle of an arbitrary triangle. The relationship between the incenter and the circumcenter is substantiated using geometric and trigonometric formulas. This distance plays an important role in deeply understanding the properties of a triangle and in solving practical problems in geometry.*

Key words: triangle, incenter, circumcenter, distance between centers, geometry.

Аннотация. *В данной статье рассматривается задача нахождения расстояния между центрами вписанной и описанной окружностей произвольного треугольника. Связь между инцентром и циркумцентром обоснована на основе геометрических и тригонометрических формул. Это расстояние имеет важное значение для глубокого понимания свойств треугольника и решения прикладных задач геометрии.*

Ключевые слова: треугольник, центр вписанной окружности, центр описанной окружности, расстояние между центрами, геометрия.

Kirish . Geometriyada uchburchaklar bilan bog‘liq masalalar doimo o‘zining murakkabligi va qiziqarli xossalari bilan ajralib turgan. Ayniqsa, uchburchakka ichki va tashqi chizilgan aylanalar bilan bog‘liq tushunchalar matematik tahlil va amaliy hisob-kitoblar uchun muhim ahamiyatga ega.

Uchburchakka ichki chizilgan aylana markazi (incenter) — uchburchakning barcha burchak bisektrisalari kesishgan nuqtasi bo‘lsa, tashqi chizilgan aylana markazi (circumcenter) — uchburchak tomonlariga o‘rnatilgan perpendikulyar o‘rta chiziqlar kesishgan nuqtasidir. Bu ikki markaz orasidagi bog‘liqlikni o‘rganish geometriyaning chuqur xossalarini ochib beradi.

Mazkur maqolada aynan shu ikki markaz — **ichki va tashqi aylana markazlari orasidagi masofani aniqlash**, unga oid formulalar, isbotlar ko‘rib chiqiladi. Ushbu masala, ayniqsa, geometriyada analitik yondashuvni o‘rganishda va murakkab masalalarni soddalashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ixtiyoriy uchburchakka ichki va tashqi chizilgan aylanalar orasidagi masofani topish

To’g’ri burchakli uchburchakka ichki va tashqi chizilgan aylanalar orasidagi masofani topamiz:



x topishimiz uchun dekart koordinatasini kiritib olamiz. Natijada $(0;a)$ va $(b;0)$ a va b tomonlarning uchlari koordinatalari bo'ladi. Bundan foydalanib N nuqtaning koordinatasini topamiz. $N=\frac{0+a}{2},\frac{b+0}{2}$ bo'lib $N(\frac{a}{2},\frac{b}{2})$ ni hosill qilamiz. Keyingi navbatda B nuqtadan a va b tomonga perpendikulyarlar tushiramiz. Tushirilgan perpendikulyarlar ichki chizilgan aylananing radiusiga teng bo'ladi($r=\frac{a+b-c}{2}$). B va O nuqtalarni tutashtirsak bu a tomonga tushirilgan perpendikulyar va b tomonga tushirilgan perpendikulyar uchun gipotenuzani hosil qiladi. Biz perpendikulyarlar nimaga teng ekanligini bilamiz va bu orqali OB kesma uzunligini hisoblashimiz mumkin. Bunda perpendikulyarlar uzunligi $r=\frac{a+b-c}{2}$ va Pifagor teoremasiga asosan OB kesma uzunligi $OB=\sqrt{r^2+r^2}=\sqrt{2}r,\ OB=\sqrt{2}r$

Endi B nuqtaning koordinatalarini topib olamiz. O va B nuqtalar orasidagi masofani hisoblash orqali aniqlaymiz. $O(0,0)$ va $B(x,y)$ ni deb olamiz.

$OB=\sqrt{(x-0)^2+(y-0)^2}=\sqrt{x^2+y^2}$

$OB=\sqrt{x^2+y^2}=\sqrt{2}r$

$x=r \quad y=r$

Demak B ni koordinatalari r ga teng bo'lib qoladi.



Endi bizda B va N larning koordinatalari bor va bu orqali BN kesma uzunligini hisoblay olamiz:

$$BN=\sqrt{(\frac{b}{2}-r)^2+(\frac{a}{2}-r)^2}=\sqrt{(\frac{b}{2}-\frac{a+b-c}{2})^2+(\frac{a}{2}-\frac{a+b-c}{2})^2}$$

$$=\sqrt{(\frac{c}{2}-\frac{a}{2})^2+(\frac{c}{2}-\frac{b}{2})^2}=\sqrt{\frac{c^2}{4}-\frac{2ca}{4}+\frac{a^2}{4}+\frac{c^2}{4}-\frac{2cb}{4}+\frac{b^2}{4}}$$

$$=\sqrt{\frac{c^2}{4}-\frac{2c(a+b)}{4}+\frac{a^2+b^2}{4}}=\sqrt{\frac{c^2}{4}-\frac{2c(a+b)}{4}+\frac{c^2}{4}}$$

$$=\sqrt{\frac{c^2}{4}-\frac{2c(a+b-c)}{4}}=\sqrt{R^2-2Rr}$$

$R = \frac{c}{2}$ $R^2 = \frac{c^2}{4}$ $\frac{a+b-c}{2} = r$, Demak $BN = \sqrt{R^2 - 2Rr}$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismoilov B. Yassi geometriya va trigonometriya asoslari. – Toshkent: Fan, 2014.
2. To‘xtayev N.T. Geometriya (o‘rta maxsus o‘quv yurtlari uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
3. Mahmudov M. va boshqalar. Matematika (akademik litseylar uchun). – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2010.
4. Abdullayev A., Tursunov J. Matematika va uning amaliyotlari (1-qism). – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2017.
5. “Geometriya fanidan masalalar to‘plami.” Tuzuvchilar: S. Toshpulatov, Z. Jo‘raev. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.

ТЕХНИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА БЎЛАЖАК МУҲАНДИСЛАРНИНГ МАТЕМАТИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОРҚАЛИ УЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШ

Шарипов Санжар Собирович
Жиззах SAMBHRAM университети катта ўқитувчиси
sharipov_sanjar@inbox.ru

Аннотация: Ушбу мақолада техника олий таълим муассасаларида таҳсил олаётган талабаларида математик компетенцияларни ривожлантириш орқали касбга йўналтириш ҳақида фикр юритилган. Шунингдек мақолада таълим жараёнини интеграциялаш, унинг методик асосларини ўрганиш, шакл ва методларини ишлаб чиқиш, давлат стандарти ва узлуксиз таълим тизими билан боғлиқ долзарб масалалар очиб берилган.

Таянч сўзлар: технология, узлуксиз таълим, мезон, дифференциал, ҳосила, интеграция, назария, методика.

Транспорт воситалари муҳандислиги ихтисослигида аниқ фанлар таълими мазмунининг таҳлили, математик билимларни транспорт воситалари муҳандислиги йўналиши ва баъзи умумкасбий фанларида фойдаланишни таҳлили, бу ихтисосликларда математик таълим асосида фаолиятли ёндашувга таяниб, касбга йўналтиришни амалга оширишнинг аниқ тизими шаклланганлигини кўрсатади.

Табиийки, таълимда касбий йўналтирилганликни амалга оширишни дастурларга тузатиш киритишдан ва курс мазмунини танлашдан бошлаш лозим.

Техника олий ўқув юртлари аниқ фанлар таълими мазмунини танлаш учун аниқ мезонлар мавжуд, улар [1]:

кўп маротаба татбиқ этиш;
фаннинг ички бир бутунлиги;
минимумлик;
вақт;
руҳий-мотивационлик;
касбий мақсадга мувофиқлик;
фанлараро таъминланганлик мезонларидир.

Техника олий ўқув юртларининг транспорт воситалари муҳандислиги ихтисосликлари учун қайд этилган мезонларга аниқлик киритамиз ва тўлдирамиз:

1. Давлат таълим стандартларига мос келишлик мезони (мазкур ихтисослик учун мазмун Давлат таълим стандартига мос келиши лозим);

2. Кўп маротаба татбиқ этишлик мезони. Аниқ фанлардан олинган билимларидан ички илмий муаммоларни ҳал қилишда ва турли амалиётга тааллуқли ҳолатларда фойдаланишни мўлжаллаш.

3. Математика ва физика фанларининг ички бир бутунлиги - фанларнинг ички мантиқий тузилмасини, ички ўзаро боғлиқлигини сақлаш ҳамда тақдим қилинаётган материал мантиғининг фаннинг мантиғига мос келиши. Касбга татбиқ қилиш имконияти йўқлиги - яққол кўриниб турган материални рад этиш дегани эмас, чунки у назария тузилмасининг ажралмас қисми бўлиши мумкин. Фаннинг ички бутунлиги мезонига мос келиш дейилганда, бу курс мазмуни зарур маълумотлар билан тўлдирилганлигини, мантиқий жиҳатдан тўғри, кетма-кетликка риоя қилинганлигини билдиради.

4. Тушунарлилик мезони. Аниқ фанларда назариянинг мантиқий тузилиши фан мантиғига мос келиши, лекин таълимий мақсадларда уни мувофиқлаштириш учун талабаларга тақдим қилинган билимларни қабул қилишининг руҳий ўзига хослигини ҳисобга олган ҳолда материал тузилмаси қулай шаклини қуриш лозим бўлади;

5. Касбий мақсадга мувофиқлик мезони.

Материал мазмуни, унинг ҳажми, кетма-кетлиги, унга ўзлаштириш учун ажратилган соат сонини амалий-касбий нуқтаи-назаридан таҳлил қилиш зарур. Шу билан бирга мазкур ихтисосликнинг бўлимлар ва мавзуларига, ушбу касб учун катта аҳамиятга эга бўлган математик аппаратига, математик моделлаштириш методидан фойдаланиш имкониятининг мавжудлигига, касбга йўналтирилганликни кучайтириш мақсадида фойдаланиладиган материалларга эътибор бериш керак бўлади, масалан, касбий мазмундаги матнли масалалар;

6. Фанлараро алоқадорликни таъминлаш мезони - умумкасбий ва ихтисослик фанлар талабига математика ва физика курсининг мос келишини аниқлайди;

7. Минимумлик мезони. Бу мезонга мувофиқ ўқув материалининг шундай мазмунига минимал дейиладики, ундан ҳеч нарсани чиқариб бўлмайди. Мазкур мезон баъзи саволларни, уларнинг методологик ва касбий аҳамиятига кўра баён қилиш теранлигини ҳамда тақдим қилинаётган материал баёнининг қуйи чегарасини тартибга солиш имкониятини беради.

8. Вақт мезони математика курси мазмуни ҳажмини, унга ажратилган вақтга мос келишини тартибга солади.

Умумкасбий ва ихтисослик фанларида фойдаланилган математик билимлар таҳлилига таяниб, касбий аҳамиятга молик мос бўлимлардан, мисол учун олий математика фани мавзуларини ажратиб келтирамиз:

1) “Векторлар ва чизиқли алгебра”: матрицалар устида амаллар, чизиқли тенгламалар системасини ечиш, хос векторлар ва хос қийматларни топиш, чизиқли тенгламалар системасини ечишнинг тақрибий усуллари.

2) “Дифференциаллаш”: ҳосила ва унинг физик маъноси, дифференциал ва унинг физик маъноси, юқори тартибли ҳосилалар ва дифференциаллар, функцияларни текшириш.

3) “Интеграллаш”: аниқмас, аниқ, хосмас, каррали, эгри чизиқли интеграллар, турли типдаги интегралларнинг геометрик ва физик иловалари, интегралларни сонли ва тақрибий ҳисоблаш усуллари.

4) “Дифференциал тенгламалар”: ўзгарувчиларга ажраладиган, биринчи ва юқори тартибли, тўлиқмас юқори тартибли дифференциал тенгламалар, системалар, тақрибий ва сонли усуллар билан дифференциал тенгламаларни ечиш.

5) “Қаторлар”: сонли, даражали, Фурье қаторлари, қаторлар ёрдамида тақрибий ҳисоблашлар.

6) “Хусусий ҳосилали дифференциал тенгламалар”: хусусий ҳосилали тенгламалар, хусусий ҳосилали тенгламалар типлари, каноник кўринишга келтириш, Фурье усули, иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси.

7) “Эҳтимоллар назарияси ва математик статистика”: тасодифий ҳодисалар ва уларнинг тақсимот қонуни, тақсимотнинг дифференциал ва интеграл функциялари,

тажрибада берилганлар асосида тасодифий катталиклар характеристикаси ва тақсимот қонунини аниқлаш, тасодифий жараёнлар.

Аниқ фанлардан олинган билимларни баъзи умумкасбий фанларида (назарий механика, амалий механика, материаллар қаршилиги) фойдаланишда муаммолар мавжуд. Талабалар баъзи аниқ фанлар билимларини параллел эгаллашса, баъзан эса қайд этилган предметлардан кейинга қолиш ҳолатлари кузатилади. Бу муаммони ечишнинг бир кўриниши – предметнинг муқаддимасида яъни кириш қисмида зарур тушунчаларни киритиб ўтишдир.

Ҳар доим ҳам барча тушунчаларни предметнинг кириш қисмида бериш мақсадга мувофиқ келавермайди. Масалан, ўзгарувчиларга ажраладиган оддий дифференциал тенгламаларни билиш физика ва назарий механика курсининг иккинчи семестрида керак бўлади. Шунинг учун ўзгарувчиларга ажраладиган оддий дифференциал тенгламаларни “Ҳосила” бўлимида дифференциаллашдан кейин, дифференциаллаш иловаларидан олдин киритилса мақсадга мувофиқ бўлади (шу билан бирга талабаларга лицей ва касб-ҳунар коллежларида бу ҳақида оддий тушунчалар берилганлиги эслатиб ўтилади). Маърузада, ўзгарувчиларга ажраладиган дифференциал тенгламалар тушунчаси учун икки ёки учта мисол келтирилса (вақт жиҳатдан 8-10 минут талаб қилади) етарли ва буни киритиш эса, бошқа материални ҳажмини камайтирмайди. Амалиёт дарсларида эса тақдим қилинган билимни мустаҳкамлаш учун бир нечта мисол ва масалалар ечиш кифоя ҳамда уйга топшириқлар бериш, оралиқ назоратда мазкур материални қўшиш лозим бўлади. Натижада, киритилган ўзгарувчиларга ажраладиган дифференциал тенгламалар ҳажми, физика ва назарий механиканинг керакли қисмида татбиқ этиш учун етарли бўлади. Бу билан муаммо ечилади ва бундан ташқари мазкур материал аниқмас интеграл учун кириш қисм бўлиб қолади.

Дифференциал тенгламалар бўлимини ўтиш вақти келганда эса, ўзгарувчиларга ажраладиган дифференциал тенгламалар, интегралаш методларига таяниб ечилаверади.

Талабалар томонидан келгуси касбларида математика масалаларни ечишнинг турли методларидан ихтисослик фанларда фойдаланишлари учун нафақат аналитик (формулалар) методлари, балки сонли ва тақрибий ҳисоблаш методлари ҳам таклиф қилинади. Тақрибий ва сонли методлардан фойдаланишда: “Аниқ интеграл” бўлимида Симпсон ва трапециялар формулалари ёрдамида тақрибий ҳисоблашлар амалга оширилади; “Дифференциал тенгламалар” бўлимида талабалар биринчи тартибли дифференциал тенгламаларини Эйлер усули билан тақрибий ҳисоблашни; “Қаторлар” бўлимида тақрибий ҳисоблаш методи дифференциал тенгламаларни Тейлор қаторига ёйишни ўрганадилар. [2]

Касбга йўналтиришнинг яна бир асосий таркибий қисми – келгусидаги касбий фаолият билан боғлиқ назарий материалларни мисоллар билан бойитишдир. Бу ерда касбга йўналтирилган масалаларни маърузаларда татбиқ этиш, математик тушунчаларнинг амалий маъносини талқин қилиб бериш, касбнинг аниқ бир соҳасига у ёки бу математик билимлар ва методларни қўллаш мумкинлиги билан таништириб бориш. Транспорт воситалари муҳандислиги ихтисослиги ихтисослик фанларда аниқ фанлардан олинган билимларнинг татбиқ қилинишини таҳлил қилиб, биз қўлланадиган асосий тушунчалар ва уларнинг талқини билан транспорт воситалари муҳандислиги соҳаси ўртасида мувофиқлик борлигини аниқладик.

“Дифференциал тенгламалар” бўлимида касбга йўналтирувчи масалалардан, мазкур бўлимнинг амалий аҳамиятини аниқ мисоллар ёрдамида дифференциал тенламалар тушунчасига келтириш мақсадида фойдаланилади. Транспорт воситалари муҳандислиги ихтисослиги бўйича таълим олаётган талабалар дифференциал тенгламалардан қандай фойдаланиш ҳамда уларнинг турли типларининг татбиқи билан танишадилар. Касбий амлиётга тааллуқли масалалар ечилаётганда ҳосилалар, дифференциаллар, интегралар (интеграл тенгламаларни тузиш)нинг амалий маъноси ҳақида тўхталиб ўтиш мақсадга

мувофиқдир. Бундан ташқари дифференциал тенгламалардан мазкур ихтисосликларда ўрганиладиган техника йўналишдаги бошқа предметларда: физикада, назарий механикада, материаллар қаршилигида, электротехникада ва бошқаларда фойдаланиш заруратини ҳисобга олиб, мос мавзудаги масалалардан фойдаланамиз. Мақсад, таълимда нафақат мотивацияни ошириш, балки талабаларда аниқ фанларга техник жараён ва ҳодисаларни ўрганиш воситаси сифатида қарашни, бошқача айтганимизда, уларга абстракт фан сифатида эмас балки, ўзининг ички масалаларини ўзи ўрганган, билган усули билан ечиш воситаси сифатида қарашни шакллантиришдир. Бўлғуси муҳандис аниқ фанларга худди шундай қарашга эга бўлиши лозим [3].

“Математика методларидан у ёки бу муаммони ҳал қилишда муваффақиятли фойдаланиш учун, энг аввало зарур билимга эга бўлиш ҳамда математик аппаратидан тўғри фойдалана билиш лозим”. Касбий масалаларни ечишнинг математик аппарати – етарли даражада, атрофлича касбий масалаларни ҳал қилишда қўл келадиган, маълум бир касбда фойдаланиш мумкин бўлган аниқ материалдир. Техника йўналишлари учун математик аппарат сифатида кўпроқ векторлар ва чизиқли алгебра, дифференциал тенгламалар, комплекс анализ ва унинг иловалари, операцион ва вариацион ҳисоб ва бошқалардан фойдаланилади. Транспорт воситалари муҳандислиги ихтисосликлари учун математик аппарат бўлиб, векторлар ва чизиқли алгебра лекин, кўпроқ дифференциал тенгламалар хизмат қилади.[4]

Амалий машғулотларда дифференциал тенгламаларни ўқитиш жараёнида қуйидаги мақсадлар қўйилади:

1. Дифференциал тенгламаларни тузишда уларни синфларга ажрата билиш;
2. Касбий-амалий масалаларда математик моделларини тузишга ўргатиш - дифференциал тенгламалар ҳосилаларда ёки дифференциалларда;
3. Дифференциал тенгламаларнинг дастурда кўзда тутилган турли типларини ечиш кўникмаларини шакллантириш;
4. Касбий-амалий масалаларда берилганларни ва ечим натижаларини таҳлил қилишга ўргатиш;
5. Бўлғуси муҳандис дифференциал тенгламалар аппаратидан қандай фойдаланиши мумкинлигини кўрсатиш;
6. Дифференциал тенгламаларни ечишнинг турли методларини кўрсатиш (аналитик, сонли, тақрибий);
7. Умумкасбий ва ихтисослик фанларда энг кўп қўлланиладиган тенгламаларни ечиш кўникмасини шакллантиришга асосий эътиборни қаратиш.

Аниқ фанларни ўқитиш жараёнида биз фойдаланадиган барча масалалар, уларнинг татбиқига кўра қуйидаги типларга бўлинади:

1) Мос бўлим ва мавзуларда ўрганиш бошлангунча шакллантириладиган аниқ математик тушунчалар;

2) Назарий билимларни мустаҳкамлашга йўналтирилган ижодий топшириқлар (концептуал модел тузиш, блок-схемалар, ечим режаси, жадваллар);

3) Ихтисосликнинг асосий математик аппаратини эгаллаш учун йўналтирилган масалалар;

4) Касбий-амалий характердаги матнли масалалар, улардан асосий мақсад – реал ҳолатнинг математик моделини тузишга, уни ва олинган натижани таҳлил қилишга ўргатиш;

5) Касбий соҳада аналитик методлардан ташқари, тақрибий ва сонли методлардан фойдаланиб масалаларни ечишга ўргатиш, уни татбиқ этишдан мақсад тенгламалар, интегралларни ва бошқаларни ечишнинг муқобил усуллари билан талабаларни таништириш.

Масалалар қўлланилиш шаклига кўра қуйидагиларга бўлинади:

1) Назарий билимларни мустаҳкамлашга қаратилган оғзаки топшириқлар;

2) Ижодий топшириқлар (концептуал модел тузиш, блок-схемалар);

3) Тенглама ва системаларни ечиш кўникмасини ҳосил қилишга қаратилган машқлар;

4) У ёки бу кўникмаларни шакллантириш ва назорат қилишга қаратилган тестлар (жумладан электрон);

5) Касбий-амалий матнли масалалар.

Ҳар бир масала типи учун ишлаб чиққан талабларимизни келтирамиз.

1. Мос бўлим ва мавзуларда ўрганиш бошлангунча аниқ фанлар тушунчаларини шакллантириш учун:

ички ёки фанлараро алоқадорлик талабига мослаштирилиш;

ўзлаштириладиган бўлим билан мантиқан боғланган бўлиш;

айни вақтдаги талабаларнинг аниқ фанлар билимига таяниш;

асосий бўлимларни ўрганишга тайёрлаш учун, зарур ва керакли тушунчалар билан таништириш.

2. Концептуал модел тузиш, блок-схемалар, ечим режаси, жадваллар каби ижодий топшириқлар, назарий билимларни мустаҳкамлашга мўлжалланган бўлиши учун:

мос назарий материални билишга таянган ҳолда танланган бўлиши;

аниқ масалаларни ечишда амалиёт жараёнида талабалар томонидан татбиқ эта олишга мўлжалланган бўлиши;

назарий жиҳатдан муҳим мавзуларни ўзида сақлаган бўлиши;

материални тасвирлашда тўғри келадиган алгоритмик тузилмага эга бўлиши;

ўзаро боғлиқ бўлган схемалар, режалар ва жадваллар тақдим этилиши мақсадга мувофиқдир;

ўқитувчи томонидан талабалар бажарган топшириқларнинг текшириб турилиши ва зарур ҳолатларда тавсиялар бериб бориш лозим.

3. Ихтисосликнинг асосий математик аппаратини эгаллашга йўналтирилган масалалар:

мураккаблик даражаси турлича бўлиши (элементардан мураккаблиги юқори бўлган ва ҳажм жиҳатидан катта);

ўзлаштирилган ёки мустақил ишлаб чиқилган алгоритм бўйича ечилиши лозим;

битта мавзу бўйича бериладиган масалалар секинлик билан мураккаблаштирилиши (оддийдан мураккабликка принципи), ҳаракатларни ривожлантиришга йўналтирилган бўлиши;

мустақил таълимга тавсия этиладиган вазифалар, амалий дарсларда ечилган масала мисолларга ўхшаш бўлиши (лекин ўша аниқ фанлар билимларига таяниши) лозим.

Шу билан бирга мустақил ишлаш учун тестлар қуйидаги талабларга жавоб бериши:

ўрганилаётган барча материални қамраб олиши;

курснинг дастурига мос келиши ва мавзулар кетма-кетлигига риоя қилиниши;

тест топшириқлари жавоблари билан берилиши (лекин, масалани қўйилиши билан аниқлаш мумкин бўлмаслиги керак);

тест натижаси дарҳол эълон қилиниши лозим.

4. Касбий-амалий матнли масалалар:

танланган ихтисослик бўйича аниқ фанлар билимларидан фойдаланишни, таҳлил қилишни ҳисобга олган ҳолда матн сараланиши лозим;

мураккаблик даражаси турлича бўлиши мумкин;

ечим жараён ёки ҳодисани математик моделлаштириш босқичида таълим мақсади учун ажратиб қурилиши лозим;

тавсия қилинаётган масалалар бошқа предмет масалалари бўлиши мумкин эмас (назарий механика ва бошқалар), улар мос билим соҳаларидаги маълум қонунларга

таяниши мумкин ва қуйидаги мақсадни кўзда тутиши керак – жараённи математик моделлаштиришга ўргатиш ва мос моделни (тенгламани) ечиш;

5. Тақрибий ва сонли методлардан фойдаланиб масалаларни ечиш учун қуйидагилар:

уларни аналитик усуллар билан ечиб бўлмайди;

бўлғуси касбида татбиқ этилиши мумкин бўлган методларни ўзида жамлаган бўлиши;

мос методни татбиқ этиш учун тасаввурга эга бўлиш;

мос методни мустаҳкамлаш мақсадида фойдаланиш учун масалалар ечишда бажариладиган қадамлар сони нисбатан кам бўлиши лозим. [5,6]

Дифференциал тенгламалардан транспорт воситалари муҳандислиги йўналишларида фойдаланиш мумкин бўлган соҳаларини ўрганиб чиқиб, касбий-амалий масалалардан қатор асосий типларини ажратиш мумкин ва уларни ечишни аниқ фанлар курсларида амалга ошириш тавсия этилади.

Моделларни кўриб эслаб қолиш:

I. Геометрик (ҳосила – уринманинг бурчак коэффициенти);

II. Физик ёки техник (ҳосила – тезлик ёки мазкур ихтисослик билан боғлиқ бўлган турли жараёнлардаги тезланиш) каби типларга эга.

Тенгламалар тузилишига кўра қуйидаги типларга бўлинади:

1.Ҳосилали тенгламалар; 2. Дифференциалли тенгламалар; 3. Интеграл тенгламалар. (8)

Дифференциал тенгламалар аниқ типларига кўра қуйидагиларга бўлинади:

I. Биринчи тартибли тенгламалар: ўзгарувчиларга ажраладиган; бир жинсли; чизиқли; Бернулли тенгламаси; тўлиқ дифференциалли тенглама.

II. Юқори тартибли тенгламалар: тартиби пасайтириб ечиладиган; чизиқли бир жинсли; чизиқли бир жинсли бўлмаган.

III. Дифференциал тенгламалар системалари.

Талабаларга тақдим этиладиган масалалар мавзулар бўйича амалиётда учрайдиганларига имкон даражасида яқинлаштирилган, аналитик усулда ечилади ҳамда математик моделининг етарли даражада оддийлиги билан фарқланади ва дастлабки босқич вазифасини бажаради, яъни талабаларни реал физикавий жараён ва ҳодисаларни математик моделлаштириш методи билан таништиради.

Бизнинг мақсадимиз талабаларни – математик моделлаштириш методига таяниб, амалий масалаларни ечишга ўргатишдан иборатдир. Математик моделлаштириш, назарий материални баён қилишда ва амалиёт дарсларида масалаларни ечишда қўлланилади. Талабаларга бу метод улар учун янгилик эмаслигини, турли амалий ҳолатларда математик моделлаштиришни татбиқ этиб, улар илгари ҳам масалалар ечишганлигини, жумладан коллеж ва лицейларда ҳам татбиқ этишганлиги ҳақида тушунтириш ишларини олиб бориш лозим. [7]

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Шарипов С. С. Аниқ ва умумкасбий фанлараро интеграсияни амалга ошириш педагогик муаммо сифатида. НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2020 йил 8-сон 365-370 бетлар.

2. Михайлова, И.Г. Математическая подготовка инженера в условиях профессиональной направленности межпредметных связей Текст. : дис. . канд. пед. наук / И.Г. Михайлова. Тобольск, 1998.

3. Н.А.Муслимов, О.А.Қўйсинов, Ф.С.Тўрабеков, Ш.С.Абдураимов, Х.Ш.Қодиров “Касб таълим практикуми” фанидан электрон дарслик, Давлат патент идораси, гувоҳномаси ВГУ 00204 21.10.2009.

4. Ожегов С.И., Шведова, Н.Ю. Толковый словар русского языка: 80000 слов и фразеологических выражений / Российская академия наук. Институт русского языка им. В.В. Виноградова. / С.И. Ожегов, Н.Ю. Шведова. - М.: Азбуковник, 1997.- 944 с.

5. Петров А.В., Гурев А.И. Межпредметные связи как основа формирования интегративного стиля мышления //Методы научного познания в обучении физике: Монография /Под ред. Петрова А.В. Париж, Горно-Алтайск: ПАНИ, 2002. - С.202-211.

6. Шарипов С.С. Талабаларда касбий математик компетенцияларни шакллантириш тизимининг модели. // Таълим, фан ва инновация. -2020. №4. – Б.60-66.

7. Шарипов С.С. Техника олий таълим муассасаларида талабаларни касбга йўналтиришда математика компетенциялардан фойдаланиш йўллари. // НамДУ илмий ахборотномаси -2021 №8. Б.596-602.

8. Sanjar Sharipov, Sadriddin Abdusaidov. Actual problems and solutions of mathematical competence development in future engineers. // Problems In The Textile And Light Industry In The Context Of Integration Of Science And Industry And Ways To Solve Them: Ptlicisiws-2. 4–5 May 2023, Namangan, Uzbekistan.

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK MEHANDISLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TIZIMINING MODELI

Sharipov Sanjar Sobirovich
Jizzax Sambhram universiteti NTM, katta o'qituvchisi
sharipov_sanjar@inbox.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy matematik kompetensiyalarni shakllantirish tizimining modeli keltirilgan. Shuningdek, talabalarning matematik kompetensiyalarini shakllantirish tizimining nazariy modeli biz tomonimizdan modulli kurs yaratishda va konseptual asoslarni ishlab chiqishda va pedagogik texnologiyalarni joriy etishda ishlatilgan.

Kalit so'zlar: model, ob'ekt, matematik analiz, vektorlar algebrasi, motivatsion, muammoli ta'lim, tezlik, tezlanish, normal tangensal tezlanish.

Kasbga yo'naltirishni amalga oshirishning asosiy vositasi sifatida matematikada fanlararo bog'liqlik qaralib, unda ikki ko'rinishdagi amaliy masalalar ajratib ko'rsatilgan: birinchi ko'rinish – kasbiy tushuncha va atamalardan foydalaniladigan maxsus mazmundagi matematik masalalar; matematik modelni tuzishda yangi materialni bayon qilishda ko'pincha motivatsiyali masalalar sifatida qaralishi, ikkinchi ko'rinish – talabani matematik metodlarni bilgan holda uni tatbiq etishni talab etadigan, kasbda uchrashi mumkin bo'lgan muammoli holatga tushirish; bunday holatlar matematika fani orqali talabalarning kasbiy tafakkurini rivojlantirishga imkon beradi [2, 116-b].

M.Vartovskiyning so'zlariga ko'ra, modellar - uskunalarning yuqori darajada ixtisoslashgan qismlari bo'lib, ularning vazifalari kelajakni yaratishdir. SHunday qilib, model deganda nafaqat sub'ekt, balki ushbu sub'ektni namoyish etadigan harakatlar rejimi tushuniladi. SHu ma'noda, modellar maqsadlarni o'z ichiga oladi va shu bilan birga - bu maqsadlar vositasi hisoblanadi [4].

Biz texnika oliy talim muassasalarida matematika fanini o'qitish orqali kasbga yo'naltirishni amalga oshirish uchun tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan yo'llarni atroflicha tahlil qilib chiqamiz. Masalan, T.M.Alievaning [1] dissertatsion tadqiqot ishida o'rta maxsus ta'lim muassasalarida (neft sanoati sohasida tayyorlanadigan kadrlar uchun) matematika orqali kasbga yo'naltirish tadqiq etilgan, unda quyidagi yo'llar tavsiya etilgan:

1. O'rganiladigan materialni tatbiq etish mumkin bo'lgan amaliy sohalar haqida o'quvchilarni tanishtirish.
2. Matematikadan nazariy tushunchalarni shakllantirishda texnikaviy ishlab chiqarish materiallaridan foydalanish.
3. Ishlab chiqarish mazmunidagi masalalarni echish.
4. Matematika darslarida o'quv texnologik-eslatma hujjatlarini tatbiq etish.
5. Matematikadan ishlab chiqarish tavsifidagi laboratoriya-amaliy ishlarini o'tkazish.

6. Ko‘rgazmali o‘quv qo‘llanmalarini (texnologik sxemalar, jadvallar, plakatlar, eskizlar va boshqalar) ishlab chiqarishdagi detallar modellarini ularning geometrik shakllarini va ularni nima maqsadda mo‘ljallanishini tushuntirgan holda tayyorlash.

7. O‘quv-texnologik mazmunidagi hujjatlardan o‘quvchilarning turli mashg‘ulotlardagi mustaqil ishlarida foydalanish; o‘quvchilar ijodiy faoliyatlarida ko‘nikmalarni shakllantirishga imkon beradigan umumkasbiy, maxsus va matematika fanlari bilan bog‘liq hisob-kitob ishlarini bajarish.

8. O‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra talabalar kasbga bog‘liq hisob-kitob ishlarini bajarishda texnikaviy lug‘atlardan va ma’lumotlardan foydalanishni bilishlari.

Ta’lim usullarini tanlash talabalarni muhandislik faoliyatiga yo‘naltirish hamda ularda kasbiy sifatlarni shakllantirish bilan shartlangan bo‘lib – matematik modellashtirish va mustaqil ta’limdir.

O‘tkazgan metodik tadqiqotimizning tahliliga ko‘ra, oliy texnika o‘quv yurtlarida kasbga yo‘naltirishni kuchaytirishga, bizningcha, quyidagi hollarda erishish mumkin:

1. Nazariy material mazmunini mukammallashtirish orqali, unda quyidagilar nazarda tutiladi:

a) o‘quv ishlarining motivatsion ta’minoti;

b) nazariy materialdan foydalanishning kelajakdagi holatini tashhislash;

v) kursni muammoli tavsifga ega savollar bilan boyitish, ta’limiy va amaliy aspektlarda muhim bo‘lgan muammoli holatlarni tashkil etish.

2. Amaliy mashg‘ulotlarda echiladigan misol va masalalar to‘plamiga aniq o‘zgarishlar kiritish, ya’ni bu quyidagilarni nazarda tutadi:

a) masalalarning solishtirma hajmini oshirish;

b) talabalar diqqatini maxsus tanlangan holat masalalarini matematika orqali echishga qaratish.

3. Tadqiqotchilik va izlanuvchanlik ko‘nikmalarini talabalarning o‘quv-tadqiqot ishlari orqali rivojlantirish.

O‘z navbatida biz talabalarning bilimlarni o‘zlashtirishlarini tashkillashtirishda o‘qituvchining vazifasi - ularda o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan fanga hamda turli o‘quv topshiriqlarini faol bajarishga nisbatan qiziqishlarini uyg‘otishda deb bilamiz. Keyinchalik esa o‘qituvchining vazifasi-ta’lim jarayonida ta’limning shunday motivlarini shakllantirish bo‘lib, bu talabalarda olingan bilimlarni tatbiq eta olish ko‘nikmasini ishlab chiqish, ularni hayot bilan bog‘lash, bilish, o‘rganish uchun o‘z imkoniyatlarini kengaytirishga intilish va boshqalar hisoblanadi.

Amaliy ishlarimizda, o‘quv faoliyatini motiv bilan ta’minlash uchun biz quyidagi usullardan foydalanamiz:

- talabalarning hayotiy kuzatishlari, bo‘lg‘usi kasblari bilan bog‘liq savol va topshiriqlarning qo‘yilishi;
- bilimlarning amaliy, ilmiy, dunyoqarash bilan bog‘liq ahamiyatini ochib berish;
- fanlararo bog‘liqlikdan foydalanish;
- faoliyatning maqsadi bilan talabalarni tanishtirish;
- talabalar mustaqil faoliyatlarini, savol va vazifalarni qo‘yish tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda stimul berish.

Motivatsiya ko‘p hollarda o‘rganilayotgan materialni bilish kasbiy zarurat ekanligi bilan uyg‘unlashtiriladi.

Taqdim etilayotgan ma’lumotning talabalarning bo‘lg‘usi kasblarida zarur ekanligini qayd etish ularning harakatlarini faollashtiradi, chunki ular bu ma’lumotlar shunchalik qaerdadir kerak bo‘lib qolishi uchun emas, balki muhandisning aniq holatlarda qanday yo‘l tutishi lozimligi uchun taqdim etilayotganligini yaxshi tushunishlariga olib keladi.

Nazariy material mazmunini mukammallashtirish uchun bizningcha eng muhimi – muammoli ta’limdir. M.I. Maxmutov [2] da muammoli deb, shunday vaziyatlarni ya’ni, talabadan

ilgari taqdim qilingan ma’lumotlarni bunday holatda shunchalik qayd etishning talab qilinishi emas, balki olingan bilimlardan ijodiy foydalanish va tatbiq qila olishini hisoblaydi. Muammoli savol shunday qo‘yiladiki, unda talaba dalillar, hodisalar, tushunchalar va ularning bog‘liqligini qarab chiqishga majbur qilinadi. M.I. Maxmutov [2] murakkablik darajasiga qarab, muammoli holatning uchta asosiy darajasini ajratib ko‘rsatgan:

A darajadagi muammo – butun kursdagi muammo, ta’lim oluvchi tomonidan kurs boshlanishida qo‘yiladi;

B darajadagi muammo – mavzuni yoki kursning bo‘limini qamrab oluvchi muammo;

C darajadagi muammo – ma’ruza davomida shakllantiriladigan muammo.

Ma’ruzachi bu darajada muammoli holatni paydo qilib, uni ma’ruza davomida talabalarni ishtirokchi sifatida jalb etgan holda echadi.

Muammoli holatni tashkil etish uchun, biz mazkur tadqiqot ishimizda quyidagi usullardan foydalanamiz:

1. Talabalar bilimlari va amaliy masalalarni echish jarayonida paydo bo‘ladigan nomutanosibliklardan foydalanish.

2. Talaba tomonidan kerakli ma’lumotni tanlash zarurati (ortiqcha ma’lumotga egalik holati).

3. Talabalarning yangi dalillar, hodisalar va ilgari o‘zlashtirilgan bilimlar o‘rtasidagi nomutanosiblikka duch kelishlari hamda ularga nazariy jihatdan tushuntirish va uni tatbiq etish yo‘llarini izlash.

Matematika fanini o‘zlashtirish orqali kasbga yo‘naltirishning boshqa yo‘nalishi – texnika oliy o‘quv yurtlari amaliy mashg‘ulotlarida echiladigan masalalar to‘plamiga o‘zgartirishlar kiritish hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda texnika oliy o‘quv yurtlarida foydalanilayotgan dasturlar, o‘quv qo‘lanmalar mazmunining tahlili shuni ko‘rsatadiki, qator mavzularni o‘zlashtirishda bir xil tipdagi masalalarni echish matematikada ham, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarda ham qulaylik tug‘diruvchi shartlarni keltirib chiqaradi.

Masalan, matematik analiz, vektorlar algebrasining tushuncha va metodlaridan fizika kursining asosiy tushunchalarini kiritishda hamda fizikaviy aniq masalalarni echishda foydalaniladi.

Kinematikaning asosiy tushunchalari (tezlik, tezlanish, normal tangensal tezlanish va boshqalar), moddiy nuqta dinamikasida (kuch impulsi, inersiya markazi va boshqalar), ish kuchi, jism inersiya momenti, jismning bosimi, elektrostastik maydon vektor kuchlanganligi oqimi, elektr toki kuchi va boshqalar haqiqiy o‘zgaruvchining hosila va haqiqiy va vektor funksiya tushunchalariga asoslanib kiritiladi. Mexanikaning fizikaviy asoslarini o‘rganish, tebranish va to‘lqinlar, elektr va elektromagnitizm nazariyasi, atom fizikasi vektorlar algebrasi va vektorlar anlizi (vektorlar ustida chiziqli amallar, vektorlarning skalyar, vektor va aralash ko‘paytmalari, gradient, divergensiya, oqim, rotor, chiziqli algebraik tenglamalar sistemalari) metodlariga asoslanadi. Tebranma harakatlar va to‘lqinlarni, elektr tebranishlarni, elektromagnit to‘lqinlarni hamda boshqa bo‘limlarni o‘rganish birinchi tartibli oddiy differensial tenglamalarni va chiziqli ikkinchi tartibli differensial tenglamalarni echish metodlari va tushunchalarini bilishga asoslanadi.

Materiallar qarshiligining qator asosiy tushunchalari: nuqtadagi to‘liq kuchlanganlik; chiziqli va burchak deformatsiyalari; brus kesimining statik, qutb, markazdan qochma momenti; brus kesimining inersiya momenti va boshqalar funksiyaning hosilasi va integraliga asoslanib aniqlanadi. Kursda (masalan, deformatsiyalanuvchi sistemalar turg‘un muvozanatida) differensial tenglamalardan foydalanadi. Materiallar qarshiligidagi ba’zi masalalarni echishda funksiya harakatini tadqiq etish uchun hosiladan foydalana olish muhimdir.

Shunday qilib, keltirib o‘tgan tahlillarimiz, nazariy mexanika, materiallar qarshiligi, issiqlik texnikasi va shu kabi boshqa kurslardagi masalalardan matematika kursiga qo‘shish imkoniyatlari talabining mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Masalan, hosilaning mexanik ma’nosini o‘rganish davrida matematika o‘quv materiali mazmuniga nazariy mexanikadagi tezlik va tezlanishni hisoblash masalalarni qo‘shish maqsadga muvofiqdir.

1. M_1 –nuqta vertikal holda yuqoriga otildi. Havo qarshiligi mavjud bo‘lmagan holda, nuqtaning harakat tenglamasi $x = \vartheta_0 t - \frac{gt^2}{2}$, bu erda ϑ_0 -boshlang‘ich tezlik va g –o‘zgarmas koeffitsientlar (*t* sekundlarda, *x* esa metrlarda). Nuqtaning tezligi va tezlanishini, nuqta eng yuqori holatga erishganda nuqtaning maksimal ko‘tarilish balandligi va vaqtni toping.

Yechish. Nuqtaning tezligi koordinatadan vaqt bo‘yicha hosila olish orqali topiladi:

$$x' = \vartheta = (\vartheta_0 - gt)\,\frac{м}{сек}.$$

To‘g‘ri chiziqli harakatda nuqtaning tezlanishi tezlikdan vaqt bo‘yicha olingan hosilaga teng yoki koordinatadan vaqt bo‘yicha olingan ikkinchi tartibli hosilaga teng:

$$a = \vartheta' = x'' = -g\,\frac{м}{сек^2}.$$

Nuqta maksimal balandlikka erishganda vaqt momentini aniqlash uchun, bu holatda nuqta harakati nolga teng bo‘lishidan foydalanamiz. Ko‘tarilish vaqtini t deb belgilab, $\vartheta_0 - gt = 0$ ni topamiz.

SHunday qilib, nuqta eng yuqori holatga erishish davomida vaqt quyidagiga teng

$$t = \frac{\vartheta_0}{g}\,сек\ .$$

Eng yuqori ko‘tarilish balandligi bo‘lgan *h* ni topamiz, buning uchun vaqt qiymatini harakat tenglamasiga qo‘yamiz:

$$h = \frac{\vartheta_0^2}{2g}\,м\ .$$

Fizikaviy hisob–kitoblarda aniq integraldan foydalanishni quyidagi masalada ko‘rishimiz mumkin.

Differensial tenglamalarni materiallar qarshiligi, issiqlik texnikasi, nazariy mexanika va shu kabi fanlarning misol va masalalari yordamida o‘rganish, talabalar tasavvuri va tafakkurini rivojlantirish uchun zamin tayyorlaydi, differensial tenglamalarni talabalarga matematik modellar yordamida tabiat hodisalarini o‘rganishning vositasi bo‘lishligini ko‘rsatadi.

Amaliyot mashg‘ulotlaridagi masalalar to‘plamiga o‘zgartirish kiritish haqidagi keyingi taklifimiz – maxsus tanlangan masalalarni echish uchun, talabalar diqqatini qaralayotgan holatga matematikani tatbiq qilishni kuchaytirishdir. Holat-hodisaga matematikani tatbiq qilishga talabalarni o‘rgatish, bevosita matematik modellashtirish metodini qo‘llash bilan bog‘liqdir.

Matematikadagi har qanday mavzu qandaydir matematik modelni tuzish bilan tugallanadi, lekin bu tuzilmada ham induktiv, ham deduktiv metodlardan foydalaniladi. Mulohazalar natijasida matematik modellashtirish orqali biz qandaydir formula, tenglama va boshqalarni hosil qilamiz.

Mantiqiy nuqtai-nazardan modellashtirish metodi bir ob’ektni bilishdan ikkinchisini bilishga yoki boshqa ob’ektlarni bilishga o‘tishni namoyon etadi.

Matematika kursida matematik modellashtirish elementlarini aks ettirish qator muhim pedagogik vazifalarni echish imkoniyatini beradi:

kasbga yo‘naltirishni mukammallashtiradi;

matematik madaniyat elementlari va umumiy madaniyatni shakllantiradi;

fanlararo bog‘liqlikni o‘zlashtiradi va boshqalar.

Umumkasbiy yoki ixtisoslik kafedralari nuqtayi-nazaridan qiziqish uyg‘otadigan masalalarni echish jarayonida matematik modellashtirish metodi bosqichlari ketma-ket bajarilishini bevosita kuzatish mumkin hamda u orqali bilimning har qanday sohasiga matematikani tatbiq etish amalga oshadi:

1-bosqich: rasmiylashtirilish, ya’ni mazkur masalani mos matematik nazariya tilida ifodalash;

2-bosqich: mazkur nazariya metodlari yordamida masalani echish;

3-bosqich: olingan echimni masalaning dastlabki tilida talqin qilish.

Tajribalarimiz shuni ko‘rsatadiki, aksariyat talabalar matematik modelni tuzish bosqichida qiyinchilikka duch keladilar.

SHunday qilib, talabalarni maxsus tanlangan masalalar orqali holatlarga matematikani tatbiq etishga o‘rgatish:

1. Talabalarga olinayotgan bilimlar bilan atrof olam o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi;
2. O‘rganilayotgan o‘quv materialini tanlagan ixtisosligi bo‘yicha kelgusi ish faoliyatida zarurligini anglab etishga yordam beradi;
3. Talabalarning fanga, ilm olishga bo‘lgan munosabatlarini sezilarli ravishda o‘zgartiradi, ularning o‘quv faoliyatini o‘zlari uchun anglangan va tushunarli hamda mahsuldor qiladi.

Kasbga yo‘naltirishda etakchi rol mazmuniga ko‘ra, shakli va tadqiqotchi-muhandis faoliyatini amalga oshirish shartlariga yaqin bo‘lgan faoliyat bilan bog‘liqdir. SHu sababdan matematikada o‘qitish-o‘rgatishning asosiy vazifalaridan biri – o‘quv-tadqiqot ishlariga birinchi kurs talabalarini jalb qilishdir deb hisoblaymiz. Tarixan shunday shakllanib qolganki, talabalarni barcha ilmiy-tadqiqot shaklidagi (shu bilan birga o‘quv-tatqiqot ishlarida ham) ishlarga jalb etish yuqori kurslardan boshlanadi. Talabalarni texnika oliy o‘quv yurtlariga kelishlari bilanoq, ularni tizimli, rejali ravishda o‘quv-tadqiqot ishlariga jalb etish lozim va bu borada jiddiy tashkiliy-metodik ishlarni o‘tkazish zarurdir.

Tajribalarimiz shuni ko‘rsatadiki, birinchi kurs talabalarining aksariyati mustaqil ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lmaydilar. Kecha maktab, litsey va kollejlarda o‘qib yurgan o‘quvchilar, oliy ta’lim dargohiga qadam qo‘yar ekanlar, odatda ularda o‘quv va ilmiy-ommabop adabiyotlar, turli bibliografik ko‘rsatmalar, kataloglar va davriy ilmiy adabiyotlar bilan ishlash ko‘nikmasi shakllangan bo‘lmaydi. [5]

Oliy ta’limning boshlang‘ich davri, ya’ni birinchi kurs – talabaning yangi o‘quv sharoitiga moslashish davri bo‘lib, bu davrda o‘quv metodlari o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limidagiga yaqin bo‘lishi kerak. SHu bilan birga u talabalarning mustaqil faoliyatlarini ratsional tashkillashtirilishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Mazkur vazifani esa, ularni o‘quv-tadqiqot ishlariga faol jalb qilish orqali hal etish qulayroqdir. Bu esa o‘z navbatida qator ijobiy holatlarga: ixtisoslik fanlarning teranroq o‘zlashtirilishiga, ilmiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmasining rivojlanishiga va umuman olganda, talabani ilmiy yo‘nalishda izlanishga hamda o‘z ustida ishlashga o‘rgatadi. Mazkur bosqichda talaba tadqiqot ishlarining tashkil qilinish metodlari bilan tanishishi lozim, xususan, mehnatning ilmiy ravishda tashkil qilinishi, kitob, davriy ilmiy nashrlar bilan, mustaqil ishlash usullari bilan, tajriba-sinov tadqiqot ishining qo‘yilishi, ilmiy ma’ruza, referat, maqola va boshqalarni tayyorlash prinsiplari bilan tanishishi kerak.

Ikkinchi bosqichda mustaqil tadqiqot faoliyatining umumiy ko‘nikmalarini uning usullarini, bajarish namunalarini ko‘rsatgan holda shakllantirish maqsadga muvofiqdir. SHu bilan birga to‘plangan materiallar yuzasidan talabalar referat yoki mavzu bo‘yicha ma’lumot tayyorlashi, predmet yuzasidan muammolarning qo‘yilishi va ular orqali o‘quv-tadqiqot vazifalarining bajarilishi shaklida ishlashga o‘rgatish lozim.

O‘quv-tadqiqot faoliyatini shakllantirishning muhim vazifasi, intensiv ijod qilish metodlarini o‘zlashtirish hisoblanadi. Bunda eng avvalo ilmiy bilish metodlarini egallash nazarda tutiladi, ularning ichida muhimlari: empirik tafakkur metodlari sifatida – kuzatuv, taqqoslash, umumlashtirish; mantiqiy tafakkur metodlari sifatida – analiz va sintez, induksiya va deduksiya; nazariy bilish metodlari sifatida – abstraktlash, konkretlashtirish, analogiya, deduksiya; empirik-nazariy tafakkur metodi sifatida – modellashtirish.

Talabalarning o‘quv-tadqiqot faoliyatlari faqatgina aniq shartlarga amal qilgandagina kerakli natijalarni berishi mumkin. Bu shartlar orasidan eng asosiysi, talabalar o‘quv-tadqiqot ishlarining majmuaviy tashkil etilishidir.

Talabalarning o‘quv-ilmiy tadqiqot ishlarining mumkin bo‘lgan shakllarini tadqiq qilib, biz quyidagilarni taklif etamiz:

nazariy tavsifdagi muammoli masalalarni echish;

tadqiqot mazmunidagi masalalarni echish;

ma’ruzalarda qo‘yilgan muammolar yuzasidan muvaffaqiyatli echilgan masalalarni - mustaqil tadqiqotlarni muhokama qilish;

ijodiy topshiriqlarning yakka tartibda bajarilishi;

yechilishi lozim bo‘lgan materiallarni talabalar tomonidan tanlanishi;

talabalar tomonidan hisob-grafika ishlarining bajarilishi;

talabalar tomonidan referatlar va hisobotlarni tayyorlanishi;

ilmiy to‘garaklardagi ishlar;

talabalar ilmiy konferensiyalarida ishtirok etish;

talabalarning ilmiy tadqiqot to‘plamlarini tayyorlashdagi ishtiroki.

Matematika ta’limida talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari tashkil etilishining alohida shakl va metodlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari tashkil etilishining muhim qismi - tadqiqotchilik elementlari bilan bog‘liq masalalarni echish hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar qo‘shimcha vaqtni talab etmaydi va barcha talabalarni qamrab oluvchi o‘quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu erda biz murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan, nostandart yondashuvlarni talab etuvchi va ularni “kichik” tadqiqotlar materialida tashkil etishga imkon beruvchi masalalar echimlarini qarab chiqamiz. [6]

“Kichik” tadqiqotlarni o‘tkazish natijasida, har bir talabada mazkur ob’ekt yoki hodisa uchun muhim va muhim bo‘lmagan jihatlarni ajrata olish, umumlashtira olish, tizimlashtirish, farazlarni ayta olish va shu kabi boshqa ko‘nikmalar shakllanadi. Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, bunday masalalar echimini izlash jarayonida tafakkur qobiliyatlarining intensiv rivojlanishi davom etadi va natijada talabalarda abstrakt tafakkur shakllanadi.

Talabalar tadqiqot faoliyatini tashkil etish uchun, yaxshi masalani tanlash etarli emas, balki uni echish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish zarurdir. Eng avvalo masala echish bosqichlari ketma-ketligini pedagogika jihatidan maqsadga muvofiqligini farqlash lozim bo‘ladi. An’anaviy amaliyotning (jumladan, oliy ta’limda ham) aksariyat hollarida, masala xos echimlari ustida ishlash bilan boshlanib, shu bilan tugaydi, ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun eng muhim bosqichlari – masalani tushunish, uning echimini izlash va uni umumlashtirish – amalga oshirilmaydi. Bunday metodikada maqsad faqat masalaning echimini topish bo‘lib, ta’lim oluvchilarni echimni izlash va tadqiq qilish metodlariga o‘rgatilmaydi.

Masala ustida ishlash, eng avvalo, echimni izlashning umumiy usullarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bunga evristik ko‘rsatmalar (maslahatlar, tavsiyalar) tizimidan doimiy foydalanish echimni muvaffaqiyatli izlashga ko‘mak beradi. [7]

Talabalar o‘quv-tadqiqot ishlarining shakllaridan biri ma’ruza va referatlar tayyorlashdir. Biz o‘z ishimizda nazariy ilmiy anjumanlarni o‘tkazish amaliyotini tatbiq etamiz, uning dasturiga ko‘ra talabalar ma’ruzalar tayyorlab, seminarda chiqish qiladilar. Mazkur seminarlarda,

mashg‘ulotlarda qo‘yilgan muammo va uni hal etish yuzasidan mustaqil tadqiqotlar natijalari yoki tadqiqot masalasi echimi muhokama qilinadi.

Shunday qilib, matematikani o‘rganish jarayonida talabalarning tadqiqotchilik faoliyati quyidagi maqsadlarga erishish uchun:

yuqori malakali, ijodiy fikrlovchi talabaning kasbiy tayyorgarligini mukammallashtirishga;

talabalarning ijodiy qobiliyatlarini va shaxs sifatida rivojlanishiga;

tadqiqotchilikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Алиева, Т.М. Профессиональная направленность обучения математике в средних профессионально- технических училищах, готовящих кадры для нефтяной промышленности Текст. : дис. .канд. пед. наук / Т.М. Алиева Баку, 1982.- 150 с.

2. Махмутов, М.И. Проблемное обучение понятие и содержание. Психолого-педагогические основы и пути развития Текст. / М.И. Махмутов, А.М. Матюшкин // ВВШ. - 1997. - № 2. - С. 17-24.

3. Михайлова, И.Г. Математическая подготовка инженера в условиях профессиональной направленности межпредметных связей Текст. : дис. . канд. пед. наук / И.Г. Михайлова. Тобольск, 1998.

4. Sharipov S. S. Aniq va umumkasbiy fanlararo integrasiyani amalga oshirish pedagogik muammo sifatida. NamDU ilmiy axborotnomasi - Nauchnыy vestnik NamGU 2020 yil 8-son 365-370 betlar.

5. Шарипов С.С. Талабаларда касбий математик компетенцияларни шакллантириш тизимининг модели. // Таълим, фан ва инновация. -2020. №4. – Б.60-66.

6. Шарипов С.С. Техника олий таълим муассасаларида талабаларни касбга йўналтиришда математика компетенциялардан фойдаланиш йўллари. // НамДУ илмий ахборотномаси -2021 №8. Б.596-602.

7. Sanjar Sharipov, Sadriddin Abdusaidov. Actual problems and solutions of mathematical competence development in future engineers. // Problems in the textile and light industry in the context of integration of science and industry and ways to solve them: ptlicisiws-2. 4–5 May 2023, Namangan, Uzbekistan.

VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI BIOLOGIYA TA'LIMINING INTERAKTIVLIGI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Turakulova Mehriniso Nuriddinovna[1]
SamDU tayanch doktaranti[1] , elektron pochta: *turakulovamehriniso@samdu.uz*
Ruziqulova Nilufar Abdumajidovna[2]
SamDU Kattqo'rg'on filiali, dots[2].,elektron pochta: nilruz.sam@mail.ru

Annotatsiya. Ta'lim texnologiyasining rivojlanishi fanlarni, ayniqsa, amaliy tajribaga asoslangan fanlarni o'qitishni takomillashtirishning yangi yo'llarini ochdi. Shu nuqtai nazardan, virtual laboratoriyalar o'quvchilar uchun simulyatsiya va virtual tajribalar orqali biologik tushunchalar bilan o'zaro aloqada bo'lishlari uchun interaktiv o'quv muhitini ta'minlaydi. Ushbu maqolada biologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanishning afzalliklari va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Virtual laboratoriyalar o'quvchilarga mavzularni interaktiv ravishda o'rganish imkoniyatini berib, ularning bilim olish jarayonini samarali va qiziqarli qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, umumta'lim maktabi, o'quvchilar, biologiya, virtual laboratoriya, interfaollik, samaradorlik.

Kirish. Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayoniga integratsiya qilinishi o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Biologiya fanida virtual laboratoriyalarni joriy etish eksperimental tadqiqotlarni osonlashtirib, amaliy mashg'ulotlarni xavfsiz va samarali amalga oshirishga imkon yaratadi. Pearson va Kudzailarning [2] fikriga ko'ra, virtual laboratoriya - bu kompyuterga asoslangan faoliyat bo'lib, unda talabalar kompyuter interfeysi orqali eksperimental apparat yoki boshqa faoliyat bilan o'zaro ishlaydi. A.Harbalining [1] tadqiqotlariga ko'ra esa, virtual laboratoriyalar kabi kompyuterga asoslangan o'quv materiallaridan foydalanish, ayniqsa laboratoriya fanlarini o'qitish uchun xavfsizlik, iqtisodiy samaradorlik, xatolarni minimallashtirish, moslashuvchanlik, samaradorlik va fazoviy o'lchovlarni o'z ichiga olgan bir qator afzalliklarga egadir. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, biologiya fanida laboratoriyalarni virtual tarzda shakllantirish o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantiradi va uning rivojlanishiga yordam beradi hamda bilim olish samaradorligini ham oshiradi.

Asosiy qism. Bugungi jadal rivojlanayotgan davrda hayotimizning barcha jabhalariga axborot texnologiyalarikirib keldi. Shu jumladan. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarning roli ortib bormoqda. Shu jihatlarni hisobga olsak, virtual laboratoriyalar ta'lim tizimiga: tez va qulay o'quv muhitini yaratish, resurslarga qulay kirish, tajribalarni xavfsiz o'rganish, tajribani tezkor takrorlash, interaktivlik va xalqaro miqyosda o'qitish kabi imkoniyatlarni beradi.

Ma'lumki, biologiya ham bir qator tabiiy fanlar singari tadqiqot natijalari amaliy tajriba va laboratoriyalarga asoslangan fanlardan biri hisoblanadi. Ular o'quvchilarning tabiat haqidagi tasavvurlarini boyitadi, fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi va chuqur idrok etishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. J.A. Mcqueenning [4] olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, virtual laboratoriyalar jismoniy laboratoriyalar bilan solishtirilganda, virtual laboratoriyalar ko'proq o'quvchilarning o'rganishiga va akademik yutuqlariga olib kelganligini, virtual laboratoriyalarni olib borgan o'quvchilar biologik tushunchalarni ko'proq tushunishlarini ko'rsatishgan. Umumta'lim maktablarida biologiya fanlarida virtual laboratoriyalarni qo'llashning o'ziga xos bir nechta interaktivlik jihatlari mavjud. ularni quyidagicha izohlash mumkin:

O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash-unda virtual laboratoriyalar orqali o'quvchilar tajribalarni o'zlari mustaqil bajarib, natijalarni tahlil qilishlari mumkin. Bu esa ularning laboratoriya jarayonlarida faol ishtirok etishiga va mas'uliyat hissini oshirishga yordam beradi. An'anaviy ta'limda o'quvchilar asosan nazariy bilim olish bilan cheklanib qolsa, virtual laboratoriyalar ularga eksperimentlarni bevosita bajarish imkoniyatini yaratadi.

Biologik jarayonlarni jonlantirish va vizuallashtirish-murakkab biologik jarayonlarni real sharoitda tushuntirish qiyin bo'lishi mumkin. Virtual laboratoriyalar ushbu jarayonlarni jonlantirib, o'quvchilarga vizual tasvirlar orqali yanada aniqroq tushunish imkonini yaratadi.

Masalan, hujayraning ichki tuzilishi yoki barglarda organik moddalarning hosil bo‘lishi kabi jarayonlarni dinamik modellar orqali ko‘rsatish o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan tushunchasini kengaytiradi.

Mustaqil tajriba o‘tkazish imkoniyati-virtual laboratoriyalar o‘quvchilarga mustaqil tadqiqotlar olib borish, o‘zlari tajribalar o‘tkazish va natijalarni tahlil qilish imkoniyatini beradi. Har bir o‘quvchi o‘z qiziqishlari asosida turli tajribalarni amalga oshirishi, xatolar ustida ishlashi va o‘z natijalarini baholashi mumkin. Bu esa ularning ilmiy-tadqiqotga bo‘lgan qiziqishini oshirib, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, virtual laboratoriyalar bir qancha jihatlari orqali ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bular: a) o‘quv materiallarini chuqurroq tushunish-virtual laboratoriyalar orqali o‘quvchilar biologik jarayonlarni nazariy tushunchalardan amaliy tajribalarga o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar; b) xatolarni tezda aniqlash va takroran o‘rganish imkoniyati- Virtual muhitda tajribalarni qayta-qayta bajarish mumkin, bu esa o‘quvchilarning xatolarini tezda aniqlab, ularni to‘g‘rilash imkonini beradi; c) qiziqarli va innovatsion ta’lim uslubini yaratish imkoniyati- an’anaviy ta’lim usullari bilan taqqoslaganda, virtual laboratoriyalar ta’lim jarayonini interaktiv va ko‘proq jalb etuvchi holga keltiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz hozir umumta’lim maktablarining 5-hamda 7-sinflari uchun biologiya fanidan virtual laboratoriyalarni yaratdik. Bunda biz onlayn platformalarni yaratishga asoslangan Visual Studio Code dasturidan foydalandik (1-rasm).



1-rasm. Visual Studio Code dasturi oynasi.

Quyida umumta’lim maktablarining 5-7-sinf o‘quvchilari uchun biologiya fanidan yaratilgan virtual laboratoriyalar platformasining umumiy interfeysi tadqim etilgan (2-3-rasmlar).

2-rasm. Onlayn platformaning umumiy interfeysi (5-sinf)



3-rasm. Onlayn platformaning umumiy interfeysi (7-sinf)

Xulosa. Biologiya fanida virtual laboratoriyalardan foydalanish interaktiv o‘qitish usullarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar orqali o‘quvchilar biologik jarayonlarni chuqurroq o‘rganib, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo‘lgan qiziqishlari ortadi. Virtual laboratoriyalar biologiya fanlarini o‘qitishda o‘quvchilarga nazariy bilimlar bilan birga amaliy tajriba ham taqdim etadi, bu esa biologiya fanlariga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va bilimlarni yanada samarali o‘zlashtirishga imkon yaratadi.Virtual laboratoriyalarni keng joriy etish ta’lim jarayonining samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Amina Harbali. The Impact of Inquiry-based Virtual Labs on 11th Grade Lebanese Students’ Achievement in a Biotechnology Unit. International Journal of Science and Research. Volume-6. Issue-12. pp-230-237.
2. Chaurura Pearson, Chuma Kudzai. VIRTUAL LABORATORIES: A SOLUTION FOR TERTIARY SCIENCE EDUCATION IN BOTSWANA? European Journal of Logistics. Vol-3. No-3. pp, 12-24.
3. Friska Damayanti Syahfitri, Binari Manurung, Muftiy Sudibyo. The Development of Problem Based Virtual Laboratory Media to Improve Science Process Skills of Students in Biology //International Journal of Research & Review. 2019. № 6. Pages 64-74.
4. Jamie Ann Mcqueen. The effects of biology lab delivery mode on academic achievement in college biology. Dissertation doctor of Philosophy. Texas A&M University-2017. pp-14-15.
5. Myburgh P.H. Reflecting on the creation of virtual laboratory experiences for biology students // Frontiers in education. 2022. № 7. Pages 1-9.
6. Turakulova M.N., Allanazarova N.A., Ruziqulova N.A. Virtual laboratoriyalardan veb sahifalar yaratish orqali foydalanishning afzalliklari. SamDU ilmiy axborotnomasi. 2-son. 144/2. 2024-yil. 112-116-betlar.

TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA EKSKURSIYALARNING AHAMIYATI

Mavlonova Jasmina

SamDUKf Aniq va tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqola tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida sinfdan tashqari ishlarning ahamiyatiga bag’ishlangan bo‘lib, unda o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishda, ularning qiziqishlarini oshirishda va ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirishda sinfdan tashqari ishlarni qanday samarali tashkil etish mumkinligi muhokama qilingan. sinfdan tashqari ishlar, jumladan o‘lkashunoslik to‘garaklari, muzey va ekskursiyalar orqali ta'limning turli usullarini qo‘llash tasvirlangan.

Kalit sózlar: ekskursiya, tabiat, obiekt, kórgazmali material

Kirish. Biologiya fanini o‘qitishda ekskursiyaning ahamiyati katta bo‘lib, ularsiz ushbu fanni o‘rganishni samarali olib borish mumkin emas. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ekskursiyalar davomiyligiga ko‘ra, bir soatlik, bir kunlik va ko‘p kunlik bo‘lishi mumkin. Bir soatga mo‘ljallangan ekskursiya – biologiya maydonchasida yoki o‘quv tajriba yer maydonchasida o‘tkaziladi. Bir kunga mo‘ljallangan ekskursiyani – tabiatga, ishlab chiqarish korxonalariga, fermer xo‘jaliklariga, hayvonot yoki botanika bog’iga tashkil etish mumkin. Ekskursiya insonning dunyoqarashini kengaytirish usulidir. Ushbu tadbirda ishtirok etishdan maqsad ma'lum bir mavzu, joy yoki voqea haqida bilim olishdir.

Zamonaviy ta’lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning fanlarga qiziqishini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, biologiya kabi tabiiy fanlarda ekskursiyalar orqali o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash va tabiatga mehr uyg‘otish imkoniyati yaratiladi. Biologiya – bu hayot fanidir. Uni chuqur o‘rganish uchun faqat sinfda o‘qish yetarli emas, balki tirik organizmlarni tabiiy sharoitda kuzatish ham muhim. Shu bois, ekskursiyalar biologik bilimlarni mustahkamlashda eng samarali metodlardan biri hisoblanadi.

Ekskursiyalar -nazariy bilimlarni mustahkamlaydi: darsda o‘rganilgan o‘simlik turlari, hayvonlar yoki ekologik muhit haqidagi bilimlar ekskursiya orqali real obyektlarga bog‘lanadi; o‘quvchilarda ilmiy izlanish qobiliyatini shakllantiradi – kuzatish, savol berish, fikr yuritish; ekologik tarbiya beradi – tabiatni asrash zarurligini tushunish, mas’uliyat hissi paydo bo‘ladi. Biologiya fanidan o‘tkaziladigan ekskursiyalarning asosiy maqsadi – o‘quvchilarda olamni ilmiy asosda tushunish, tabiiy obyektlar bilan bevosita tanishish orqali bilimlarini mustahkamlashdir. Ekskursiya jarayonida o‘quvchilar: tabiatdagi tirik organizmlar hayoti bilan yaqindan tanishadilar; o‘simlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligini kuzatadilar; ekologik muammolar haqida fikr yuritadilar; biologik termin va tushunchalarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar. Ekskursiyani tashkil etish bosqichlari quyidagilardan iborat: tayyorlov bosqichi: ekskursiya o‘tkaziladigan joyni tanlash (botanika bog‘i, o‘rmonzor, daryo bo‘yi, milliy bog‘ va h.k.), zarur anjomlar (kundalik, lupa, kamera, gerbariklar) tayyorlanadi. O‘quvchilar qisqacha yo‘riqnoma bilan tanishtiriladi. Asosiy bosqich: Tabiatda o‘quvchilar o‘simlik va hayvonlarni kuzatadi, turli namunalar to‘plashadi, o‘rganilgan biologik obyektlar haqida yozuvlar olib boradilar. Tahliliy bosqich: Ekskursiya yakunida o‘quvchilar ko‘rgan va kuzatgan obyektlari asosida hisobot tuzadilar, fikr almashadilar va biologiya darslarida o‘rganilgan nazariy bilimlarni mustahkamlab chiqadilar.

Biologiya fanida ekskursiyalar turlicha shaklda o‘tkazilishi mumkin. Botanik ekskursiyalarda– o‘simliklar olamini (bog‘lar, o‘rmonlar, dala, tog‘li hududlar) o‘rganilsa, zoologik ekskursiyalarda esa hayvonot olami, qushlar, hasharotlar, suv jonzotlarini (zoologiya bog‘, daryo bo‘yi, yaylov) kuzatish mumkin. Ekologik ekskursiyalar atrof -muhitni ifloslanish darajasi, ekologik muvozanat, inson faoliyatining tabiatga ta’sirini o‘rganish imkonini beradi. Biologik ekskursiyalar nafaqat bilim, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. O‘quvchilarda tabiatni asrash, ekologik madaniyat, jamoa bilan ishlash, ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlar shakllanadi. Bundan tashqari, bunday tadbirlar sog‘lom turmush tarziga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biz Kattaqo‘rg‘on shahridagi 2-IDUMning 5-7 sinfalarida biologiya darslarida ekskursiyalar tashkil etdik. 5-sinf o‘quvchilari uchun biologiya darslari doirasida maktab hududiga ekskursiya tashkil qilindi. Bu yerda o‘quvchilar turli daraxtlar – eman, qayin, tol kabi o‘simliklarni bevosita kuzatdi. O‘quvchilarga har bir o‘simlikning bargi, tanasi va ildiz tuzilishi haqida qiziqarli ma’lumotlar berildi. O‘simliklarning tabiiy sharoitdagi o‘sish va rivojlanishi tushuntirildi. Shu bilan birga o‘simlik va hayvonot dunyosi ya’ni ayrim umurtqasiz hayvonlar chumolilar va kapalaklarning tabiatdagi roli haqida ham tushunchalarga ega bo‘lishdi. uchishini kuzatdi. Har bir o‘quvchi o‘z daftariga kuzatuvlar yozdi, chizmalar chizdi.

7-sinf o‘quvchilari bilan odatiy ekskursiyadan farqli o‘laroq – ilmiy tadqiqot tarzida o‘tkazildi. O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘lingan holda, maktab hovlisining turli qismlarida

o‘simlik va hasharotlarni kuzatish, haroratni o‘lchash, tuproq namligini tekshirish kabi topshiriqlarni oldi. Har bir topilmani suratga olish, barglar shaklini chizish va o‘z daftarlariga qisqacha xulosa yozish topshiriq berildi. Dars oxirida har bir guruh o‘z natijasini taqdim etdi. Eng ko‘p turlarni topgan guruh kichik sovg‘a bilan taqdirlandi. Ekskursiyalarni bu usulda tashkil etish o‘quvchilarda kuzatuvchanlik va tahlil qilish xususiyatni shakllantirishi aniqlandi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tabiiy fanlardan o‘tkaziladigan ekskursiyalar – o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni kuzatuvchan, tahliliy fikrlaydigan, tabiatga mehribon insonlar qilib tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Har bir biologiya o‘qituvchisi bu usuldan unumli foydalansa, ta’lim jarayoni yanada sifatli va mazmunli bo‘ladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Belskaya Ye.M. Mo‘minov O.A, Tabiatshunoslik darslari. Toshkent:
“ o‘qituvchi” 1980- 224 b
2.Nuritdinova M. “ Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi” Toshkent: 2005. 170 b.
3. Sharipov .D , Xodiyeva. D.P,Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi.Toshkent 2018.-204 b.

CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH MUAMMOLARINI O‘RGANISH VA BARTARAF QILISH

Malikov Dilshod Boymurod o‘g‘li
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali, assistint
Yusupova Shaxnoza Yazdon qizi, talaba

Annotatsiya: Ushbu maqola chiqindilar turlari, ularning zararlari bilan tanishish va chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o‘rganish, ularni qanday bartaraf qilish chora tadbirlari haqida.

Kalit so‘zlar: qattiq chiqindilar, suyuq chiqindilar, og‘ir metallar, sanoat korxonalar , AQSH dolliri,

Kirish Insonlarga ta’sir etuvchi eng katta tashqi omil bu tabiatdir. Atrof-muhit qanchalik musaffo bo‘lsa inson aqlan va jismonan sog‘lom bo‘ladi, lekin atrofmuhitda salbiy o‘zgarishlar ro‘y bersa buning inson hayotiga ta’siri juda katta bo‘ladi. Insonlarda yuzaga kelayotgan davosiz va virusli kasalliklar ham tabiatda sodir bo‘layotgan salbiy o‘zgarishlar oqibatidir. Ammo yana bir masala borki, tabiatda yuz berayotgan bunday salbiy o‘zgarishlarning asosiy sababchilari bu insonlar bo‘lmoqda. Dunyo miqyosida eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib borayotgan muammo bu chiqindilar muammosidir. Tahlillarga ko‘ra, so‘nggi yillarda maishiy va sanoat chiqindilarining yildan-yilga ortayotgani yer yuzidagi ekologik barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ma’lumotlarga qaraganda, hozirgi kunda chiqindilarning 900 ga yaqin turi qayd etilgan bo‘lib, har yili dunyoda chiqindilar hajmi 3 foizga ko‘paymoqda. Atrof-muhitni ishlab chiqarish va iste’mol chiqindilaridan muhofazaqilish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik toza texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish muammolari bilan uzviy bog‘liqdir. Ko‘p asrlar davomida chiqindilarni noto‘g‘ri boshqarish tabiiy resurslar o‘zgarishiga, tabiat hodisalarining buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi kunda tobora ko‘payib borayotgan elektron chiqindilar ham insoniyatga xavf solmoqda. Har yili yer yuzida 2 million tonnaga yaqin elektron chiqindi paydo bo‘lmoqda. Misol uchun, birgina mobil aloqa vositasi 500 tadan 1000 tagacha turli qismlardan tashkil topgan. Ularning ko‘pchiligi zaharli og‘ir metallar qo‘rg‘oshin, simob, kadmiy va boshqa xavfli kimyoviy moddalarni o‘z ichiga oladi.

Asosiy qism. Dunyo rivojlanib borarkan, insonlar soni ortgani sari chiqindilar miqdori ham ortib boradi. Barcha chiqindilar asosan ikki guruhga bo‘linadi: suyuq va qattiq chiqindilar. Suyuq chiqindilar: xo‘jalik, sanoat korxonalari, inshoatlar chiqindi suvlari; cho‘milishda, xona pollari va kir yuvganda hosil bo‘ladigan chiqindi suvlari; xojatxonadan chiquvchi chiqindilar. Qattiq chiqindilari: uy chiqindilari, ko‘cha suprindilari, jamoat ovqatlanish korxonalarining axlatlari, sanoat korxonalarining axlatlari, savdo ob’ektlarining axlatlari, hayvonlarning o‘lik tanalari, qurilish axlatlari.Hozirgi kunda ko‘plab muammolarga sabab bo‘layotgan ifloslanishlardan biri

kimyoviy ta’sirlar natijasida ifloslangan tuproqdir. Bunday ifloslangan tuproqning xosildorligi past va undan olingan mahsulotlar tarkibida ko‘plab zararli moddalar uchraydi, ushbu mahsulotni iste’mol qilgan inson organizmiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Kimyoviy ifloslangan tuproqlarning havfli-zaharli xususiyati, kimyoviy tarkibi va umumiy miqdori bo‘yicha bir nechta turlarga ajratiladi :

1. Radioaktiv ifloslanish.
2. Og‘ir metallar va kimyoviy moddalar bilan ifloslanish.
3. Turli chiqindilar bilan ifloslanish.

Tahlillarga ko‘ra radioaktiv ifloslanish eng havfli o‘rinda turadi, chunki radioaktiv ifloslanishda dastlab biologik dunyo jiddiy zarar ko‘radi va juda katta radiusda ham ta’sir etish xususiyatiga ega, eng achinarlisi inson sog‘ligiga juda havfli ta’sir etib, uning kelajak avlodlariga genlar orqali ta’sir etishi bilan boshqa ifloslanish turlaridan farq qiladi. Barchamizga ma’lumki, axlatlarni yig‘ish va olib chiqib tashlash barcha mamlakatlarda mavjud bo‘lgani kabi bizning yurtimizda ham mavjud. Xo‘jalik axlatlarini yig‘ish va olib chiqib ketishda turar joylarning sharoitiga qarab alohidaalohida tartiblar belgilangan. Axlatlarni yig‘ishda asosan 12 - 15 litr hajmdagi qopqoqli idishlardan foydalaniladi. Bunday idishlar har sutkada bir marta bo‘shatiladi. Odatda 4-5 qavatli va undan ko‘proq qavatli binolarda to‘plangan axlatlarni olib chiqib ketishga mo‘ljallab har bir uyda yuqoridan pastga o‘tadigan quvurlar qurilgan bo‘lib, barcha axlatlar eng pastki qavatdagi axlat yig‘uvchi idishlarga to‘planadi va olib chiqib ketiladi. Hovli joylarda yig‘ilgan chiqindi axlatlarni sanitariya talablariga asosan muntazam ravishda ma’lum vaqtda maxsus transportlar yordamida yig‘ib, olib ketiladi. Suyuq axlatlar esa kanalizatsiya quvurlariyordamida olib chiqib ketiladi. Chiqindilar kimyoviy usullar bilan tozalangach ochiq muhit (axlatlar to‘kiluvchi ochiq maydon)ga tushadi.

Chiqindilarni zararsizlantirishning birinchi usuli ularni kompostlash bo‘lib, bunda murakkab aerobli biologik organik moddalar tez chiriydi va o‘simliklar tomonidan yaxshi o‘zlashtiriladigan holga keladi. Jarayon gumus degan moddalarni hosil bo‘lishi bilan boradi. Kompostlash natijasida axlatlardan gumus(bir xil rangli, go‘ngga o‘xshash modda) olinadi.

Chiqindilarning zararsizlantirishning ikkinchi usuli ularni issiqxonalarda zararsizlartirish bo‘lib, bunda shahar chiqindilari tosh, temir, latta va oyna siniqlaridan holi qilingach, issiqxonalarning tuprog‘i ostiga fevral va mart oylarida solinadi. Chiqindidagi bioximik jarayonlar ekzotermik(issiqlik ajralib chiqishi) holda o‘tgani uchun yuqori harorat issiqxonani isitadi, bu issiqlikdan foydalanib issiqxonada har xil erta pishar ekinlarni yetishtirish mumkin. Axlatlardan hosil bo‘lgan chiqindi esa o‘simliklar uchun yaxshi ozuqa o‘rnini bosadi.

Statistik ma’lumotlarga qaraganda mamlakatimizda o‘rtacha har yili 14 millon tonna chiqindi ajralib chiqmoqda. Chiqindining 1millon tonaga yaqin qismi qayta ishlash uchun zavot fabrikalarga yuborilmoqda qolgan katta miqdordagi chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha hozirgi kunda amaliy ishlar amalga oshirilgani yo‘q. Buning natijasida chiqindi poligonlaridan ajralib chiqayotgan katta miqdordagi gazlar atmosfera havosiga ko‘tarilib parnik efektining yuzaga kelishiga zamin yaratmoqda. Yaqol na’muna sifatida Toshkent shahrida kuztilayotgan ob-havoni ko‘rishimiz mumkin, sir emaski so‘ngi yillarda Toshkent shahri havosi dunyo mamlakatlari ichida eng iflos ob-hafoga ega shaharlar ichida peshqadamlar safida ketayotkanligidir. Mutasadilar tamonidan yituk sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan xususan Xitoy Xalq Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklarining jami 6 ta yirik kompaniyasi o‘rtasida qo‘shma rivojlantirish shartnomalari imzolandi. Buning natijasida 8 ta chiqindini qayta ishlash zavodi va Ohangaron chiqindi paligonida havodagi gazlarni qayta ishlaydigan zavot qurish bo‘yicha shartnomalar imzolandi.

Kattaqo‘rg‘on shahrida 2024-yil 1-yanvar holatidagi doimiy aholi soni – 94899 kishini tashkil etadi, qariyib 100 ming kishilik aholi tamonidan ajralib chiqayotgan chiqindi miqdori kunlik 50-60 tonani tashkil etmoqda bu esa shaharga kiraverishda joylashgan 32 gektarlik chiqindi to‘kish poligonida ortiqcha ifloslanish darajasini keltirib chiqarmoqda va bu chiqindilar aholi

orasida turli kasaliklarni keltirib, poligoning yon tomonidan oqib o‘tadigan kirish kanalini ham benasib qoldirayotgani yo‘q.

1.1-jadval

Maishiy chiqindilarning biologik parchalanish shartlari

Qattiq chiqindilar turlari	**Parchalanish vaqt jadvali**
Oziq-ovqat chiqindilari	10 kundan 1 oygacha
Gazeta qog‘ozi	1 oydan 1 yilgacha
Karton qutilar	1 yilgacha
Qog‘oz	2 yil
Yog‘och taxtalar, temir armatura, temir qutilar, eski poyabzal	10 yilgacha
G‘isht, beton, folga, elektr batareyalar bo‘laklari	100 yilgacha
Rezina shinalar	100 yildan ortiq
Plastik butilkalar	100 yildan ortiq

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha har yili millionlab tonna maishiy va sanoat chiqindilari hosil bo‘lmoqda. Aholining kundan-kunga ortib borayotgani, urbanizatsiya jarayonlarining kengayishi va ishlab chiqarish hajmining o‘sishi chiqindilar miqdorining ham ortishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, Toshkent, Samarqand, Farg‘ona va boshqa yirik shaharlarda chiqindi poligonlari ortiqcha yuklama ostida qolmoqda.

Ba’zi hududlarda chiqindilarni saralash tizimi hali to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan, chiqindilar bir joyga tashlanib, ularning biologik parchalanmasi uzoq yillar davom etadi(1.1-jadval). Bu esa yer va suv resurslarini ifloslantirib, atrof-muhitga katta zarar yetkazadi. Qishloq hududlarida esa chiqindilarni noqonuniy ravishda yoqish holatlari uchrab turadi, bu atmosferaga zararli gazlarning chiqishiga sabab bo‘ladi.

Biroq so‘nggi yillarda chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha sezilarli qadamlar tashlanmoqda. Maxsus chiqindi saralash markazlari, chiqindilarni qayta ishlash zavodlari barpo etilmoqda. Aholi o‘rtasida ekologik madaniyatni oshirish bo‘yicha targ‘ibot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, chiqindilarni alohida yig‘ish va ularni qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish tizimli joriy etilmoqda.

Xulosa. Shuni takidlash joizki chiqindi muammosi dunyoda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni yechishda chiqindilarni qayta ishlash va ulardan to‘g‘ri foydalanish to‘g‘risida loyihalar ko‘rilib, ko‘plab chiqindilarni qayta ishlab chiqaruvchi korxonalar barpo etilmoqda. Shu jumladan, mamlakatimizda ham chiqindilarni turlariga qarab alohida yig‘ish uchun plastiklar uchun alohida, qog‘oz uchun alohida va boshqa turdagi chiqindilar uchun alohida idishlar joylanmoqda. Bu usul bilan ajratib olingan chiqindilar qayta ishlash uchun korxonalarga yuboriladi. Lekin chiqindilarni qayta ishlashda va ulardan to‘g‘ri foydalanishda eng katta vazifa yer yuzidagi, shu jumladan yurtimizdagi har bir inson zimmasida desak yanglishmaymiz. Biz uchun belgilangan vazifa shuki, isrofgarchilikni oldini olish va o‘zimiz hosil qilgan chiqindilarni belgilangan tartibda, turlarga ajratgan holda tashlash va chiqindilarni chiqindi idishlarga tashlash. Biz uchun belgilangan barcha vazifalarni o‘z o‘rnida bajarsak chiqindi muammosini yechishga oz bo‘lsada o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A., Islomov M. (2022). Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi asoslari. Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. (2023). O‘zbekistonda chiqindilarni boshqarish bo‘yicha yillik hisobot. www.env.uz
3. Tursunov N. (2021). Qayta ishlash sanoati va chiqindilarning ekologik xavfsizligi. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.

4. Mamatqulov F. (2024). “O‘zbekistonda ekologik madaniyatni rivojlantirishda chiqindi saralash tizimining o‘rni”, Yosh olim ilmiy jurnali, №2, 54–59-betlar.
5. Sharipova Z. (2023). “Qishloq hududlarida chiqindilarni boshqarish muammolari va yechimlari”, O‘zbekiston ekologik axborotnomasi, №4, 37–42-betlar.

“ODAM SALOMATLIGI” FANINI O‘QITISHDA GIGIYENIK KO‘NIKMALARNI SHAKLLANITIRISH

Nurmonova Yeshoda Boris qizi
SamDUKf Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, Biologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
numonovay@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Odam va unig salomatligi” fanining maqsadi va vazifalari, ushbu fanni o‘qitish orqali o‘quvchilarda shakllanadigan ko‘nikmalar haqida, dars jarayonida qo‘llanilgan interaktiv metodlar haqida so‘z boradi.Bundan tashqari o‘quvchilarga o‘tilayotgan har bir mavzu yuzasidan hosil bo‘lib borayotgan ko‘nikmalar haqida fikr mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Odam va uning salomatligi, shaxsiy gigiyena, mikroblar, ovqatlanish, vitaminlar, interaktiv metodlar.

“Odam salomatlig” fani odam organizmining shaklini, tuzilishini, uning rivojlanish jarayonini, shuningdek atrof-muhitning a’zolar tuzilishi hamda vazifasiga bo‘lgan ta’sirini o‘rganadi. Ushbu fan o‘tilish jarayonida o‘quvchilarda ketma-ketlik bilan gigiyenik ko‘nikmalar shakllana boshladi. “Odam va uning salomatligi“fani mazmun mohiyati jihatidan ekologik, sitologik, morfologik, anatomik, fiziologik, gigiyenik, evolutsion tushunchalarni o‘z ichiga olganligi sababli ushbu fanni o‘rganishdagi turli xil usul va metodlar ham shularga muvofiq amalga oshiriladi. “Odam salomatligi” fani, asosan, inson salomatligini saqlash va mustahkamlash, shuningdek, gigiyenik ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim yo‘nalishidir. Ushbu fan orqali o‘quvchilar inson organizmining tuzilishi, uning faoliyati, salomatlikni saqlash va kasalliklardan himoyalanish usullari haqida bilim olishadi.

Gigiyenik ko‘nikmalarni shakllantirish quyidagi turlarni o‘z ichiga oladi:

1. Shaxsiy gigiena: o‘quvchilar shaxsiy gigiena qoidalarini o‘rganadilar. Bu qoidalarga toza bo‘lish, muntazam ravishda qo‘l yuvish, tishlarni tozalash va boshqa shaxsiy gigiena qoidalari kiradi.
2. Atrof-muhit gigienasi: o‘quvchilar atrof-muhitning tozaligi va uning salomatlikka ta'siri haqida ma'lumot olishadi. Bu yerda havo, suv va oziq-ovqatning gigienik jihatlari muhokama qilinadi.
3. Ovqatlanish gigienasi: oziq-ovqat mahsulotlarini tanlash va tayyorlashda gigiena qoidalariga rioya qilish muhimdir. O‘quvchilar sog‘lom ovqatlanish tamoyillarini o‘rganadilar.
4. Kasalliklardan himoyalanish: o‘quvchilar turli kasalliklar va ularning oldini olish usullari haqida ma'lumot oladilar. Vaksinatsiya, profilaktika va sog‘lom turmush tarzini yuritish kabi mavzular muhokama qilinadi.
5. Jismoniy faollik: jismoniy tarbiya va sportning salomatlikka ta'siri haqida tushuncha beriladi. O‘quvchilar jismoniy faollikning ahamiyatini anglaydilar.

Ta'lim jarayonida “Odam salomatligi” fanini o‘qitishda interaktiv metodlar, amaliy mashg‘ulotlar va muhokamalar qo‘llaniladi. O‘quvchilarga turli vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligini ko‘rsatish uchun simulyatsiyalar va rolli o‘ylar tashkil etilishi mumkin. “Odam salomatligi” fanini o‘qitishda interaktiv metodlar qo‘llash, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va ularning bilimlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Interaktiv metodlar o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Quyida ushbu fanni o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan interaktiv metodlar keltirilgan: a) guruhli muhokamalar; o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lish va ma'lum bir mavzu bo‘yicha muhokama olib borish. Bu usul orqali o‘quvchilar bir-biridan fikr olishadi, o‘z fikrlarini ifoda etishadi va jamoaviy qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar; b) rol o‘yinlari: o‘quvchilarga turli vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkonini beruvchi rol o‘yinlari tashkil etish. Masalan, shifokor, bemor yoki gigiena mutaxassisi

rolida bo‘lish orqali kasalliklarni oldini olish yoki shaxsiy gigiena qoidalarini amalda ko‘rsatish; v) amaliy mashg‘ulotlar: oziq-ovqat mahsulotlarini to‘g‘ri tanlash, toza suv tayyorlash yoki shaxsiy gigiena qoidalarini amalda ko‘rsatish kabi amaliy mashg‘ulotlar o‘tish. Bu usul orqali nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyati yaratiladi; g) o‘yinlar va viktorinalar: o‘qituvchilar tomonidan tayyorlangan savollar asosida viktorinalar o‘tkazish yoki sog‘lom turmush tarzi haqida ma'lumot beruvchi o‘yinlar tashkil etish. Bu usul orqali bilimlarni mustahkamlash va raqobat ruhini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘quvchilarda gigiyenik ko‘nikmalarni shakllantirish nafaqat ularning shaxsiy salomatligi uchun muhim, balki jamiyatning umumiy salomatligini ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali o‘quvchilar sog‘lom hayot tarzini tanlaydilar va kelajakda muvaffaqiyatli insonlar bo‘lishlari uchun zarur asoslarni egallaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova M. Sh. Gigiyena asoslari va sog‘lom turmush tarzi. – Samarqand: SamDU nashriyoti. 2019. 200-b.
2. Norqulova N. Sog‘lom bola tarbiyasi va maktab gigiyenasi. – Buxoro: BuxDU nashriyoti. 2022. 170 b.

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA LOYIHA ASOSIDAGI YONDASHUVLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Ruziqulova Nilufar Abdumajidovna, Bozorova Umida Baxtiyorovna,
Abdurashidova Nilufar Shuhratovna
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali
nilufarshuhratovna97@gmail.com

Annotasiya. Maqolada oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanlarini o‘qitishda loyiha ishi mashg‘ulotlarining ahamiyati va ta’lim jarayoniga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Ushbu metod, talabalar o‘z o‘rganayotgan biologik masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni, ilmiy qarorlar qabul qilishni o‘rgatish orqali ularning mustaqil fikrlash va ilmiy ish olib borish qobiliyatlarini oshiradi. Tadqiqotda loyiha ishi mashg‘ulotlarining o‘quvchilarning muvaffaqiyatlari va qiziqishiga ta’siri eksperimentlar orqali o‘rganiladi. Maqola loyiha ishi mashg‘ulotlarining biologiya fanlarini o‘qitish jarayonida samaradorligini va o‘quvchilarni ilmiy-texnikaviy yutuqlarga tayyorlashdagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Ilmiy dunyoqarash,amaliy ko‘nikmalar, innovatsion uslublar,mustaqil ilmiy faoliyat, kreativ fikrlash,ilmiy tadqiqotlar

Kirish. Oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanlarini o‘qitish jarayoni talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va zamonaviy ilmiy-texnikaviy yutuqlarga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Biologiya fani o‘zining keng qamrovli va murakkab tabiati bilan nafaqat tabiatni o‘rganishga, balki unga oid amaliyotlarni tushunishga ham imkon yaratadi. Shu bilan birga, biologiya fanini samarali o‘qitishda faqat an’anaviy darslar bilan cheklanib qolmasdan, turli innovatsion uslublardan ham foydalanish zarur. Ushbu innovatsion uslublardan biri loyiha ishi mashg‘ulotlaridir. Loyiha ishi talabalarga biologiya fanidagi nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tadbiq etish, muammolarni mustaqil hal qilish, jamoaviy ishda faol ishtirok etish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Maqolada loyiha ishi mashg‘ulotlarining biologiya fanlarini o‘qitishda o‘rni, uning ta’lim jarayoniga qo‘shadigan hissasi va samaradorligi tahlil qilinadi. Loyiha ishi mashg‘ulotlari, avvalo, talabalarni mustaqil ilmiy faoliyatga o‘rgatish va ularning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Biologiya kabi tabiiy fanlarda, faqat nazariy bilimlarni o‘rganish yetarli emas. Talabalar biologik jarayonlar, hayotiy tizimlar, ekologik muammolar va boshqa tabiiy hodisalar haqida chuqurroq tushuncha olishlari zarur. Loyiha ishi esa o‘z ichiga amaliy ishlarni, masalalarni hal qilishni, ilmiy

izlanishlarni o‘zida mujassam etadi. Bu esa talabalarning biologiya faniga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning asosiy maqsadi biologiya fanlarini o‘qitishda loyiha ishi mashg‘ulotlarining ahamiyatini aniqlash va bu metodning ta'lim jarayoniga qo‘shgan hissasini o‘rganishdan iborat. Bu metod o‘quvchilarning o‘rganish samaradorligini baholashda yordam beradi. Oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanlarini o‘qitishdagi loyiha ishi mashg‘ulotlarini amaliyotga tatbiq etish, bu metodning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini aniqlash uchun eksperimentlar o‘tkaziladi. Loyiha ishi talabalarga o‘zlari o‘rganayotgan biologik masalalar yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishni, natijalarni tahlil qilishni, ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda ilmiy qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi. Bu esa ularning mustaqil fikrlash va ilmiy ish olib borish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari va muhokamalari. Biologiya fanini o‘qitishda loyiha ishlarini guruhlarda amalga oshirish talabalarga jamoaviy ishni boshqarish, o‘zaro muloqot qilish, birgalikda muammolarni hal etish kabi ko‘nikmalarni oshiradi. Jamoa ishida har bir talaba o‘zining bilim va tajribasini boshqalarga ulashish orqali umumiy maqsadga erishishda yordam beradi. Biologiya fani ko‘plab amaliy tajribalarni talab qiladi. Loyiha ishi mashg‘ulotlari laboratoriya ishlari, tajribalar o‘tkazish, dala kuzatuvlari o‘tkazish va boshqalar orqali talabalarga amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa biologiyaning o‘quv jarayoniga yanada yaqinroq va real dunyo bilan bog‘lanishiga yordam beradi. Loyiha ishlarini samaradorligini amalda aniqlash uchun Samarqand Davlat Universitetuti Kattaqo‘rg‘on filiali Biologiya talim yo‘nalishining 1-kurs talabalariga “Botanika” fanidan mustaqil ishlarni bajarish bo‘yicha loyiha dasturi ishlab chiqildi va loyiha ishlarini bajarish tadbiq etildi.Loyihani amalga oshirish jarayonida talabalar birgalikda loyihani yaratish ustida ishladilar hamda loyiha oxiriga qadar uning natijasini olishga erishdilar. Loyiha ishini bajarish uchun talabalar kichik guruhlarga ajratildi va har bir guruhga mavzular tanlandi: ”Barglar morfologiyasi”,”Gullar morfologiyasi”. Talabalar loyiha ishini bajarish davomida 36 tur o‘simliklarning barg namunalarini yig‘ildi va barg namunalaridan gerbariylar tayyorlandi. Tayyorlangan gerbariylar barglarni tuzilishi va tomirlanishiga qarab ajratildi. Bundan tashqari gerbariy yig‘ish jarayonida barglarni novdada joylashish tartibi ham o‘rganildi. Talabalar tomonidan gullarni morfologiyasini o‘rganish davomida 20 tur o‘simlik gullarini morfologiyasi o‘rganildi va gerbariylar tayyorlandi. Tayyorlangan gerbariylardan foydalanib, gullarni gul formulalari aniqlandi. Loyiha ishini bajarish orqali talabalar olgan nazariy bilimlarini tabiiy ob’ektlar ustida ishlash orqali mustahkamladi. Tayyorlangan gerbariylar fan bo‘yicha resurslar bazasini yaratish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, keyingi mashg‘ulotlarning amaliy darslari uchun jihoz sifatida ishlatish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, loyiha ishi mashg‘ulotlari biologiya fanini o‘qitishda yangi yondashuvlarni joriy etish, talabalarning mustaqil ilmiy faoliyatlarini rivojlantirish, jamoaviy ishlash qobiliyatlarini oshirish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun samarali vositadir. Loyiha ishi orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki biologiya sohasida o‘zlarini amaliy jihatdan sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayon esa ularning umumiy bilim va ko‘nikmalarini yuqori darajaga ko‘taradi, va kelajakda mutaxassis sifatida o‘z sohasida muvaffaqiyat qozonishlariga turtki bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.J.O.Tolipova Biologiyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar. Toshkent - 2011
2. J.O.Tolipova,A.T.G‘ofurov Biologiya o‘qitish metodikasi .Toshkent 2004
3.B.S.Islomov,M.A.Hasanov Botanika Samarqand 2020
4.M.I.Ikromov,X.N.Normurodov,A.S.Yuldoshev.Botanika.Toshkent-2002

KEYS-STADI TEXNOLOGIYASINI O'QITILISHI VA QO'LLANILISHI

Shernazarov Bexruz Sayyod o'g'li, Boboqulov Doniyor Farhod o'g'li
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biologiya yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Keys-stadi texnologiyasi" ahamiyati, foydalanish va ularning qo'llanilish afzalliklari va ularning tutgan o'rni yoritilgan hamda biologiya faninida qo'llanilishi ko'rsatilgan. Biologiya sohasidagi bilimlarni hayotda va kundalik turmush tarzida qo'llay olishi, o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini o'stirish, o'qitish samaradorligini oshirish uchun ta'lim texnologiyalaridan biri "Keys stadi" texnologiyasi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Keys-stadi texnologiyasi, keys-stadi tatixi, keys-stadi qo'llash.

Keys-stadi texnologiyasi o'quvchilar vaziyatni o'rganishlari, muammolarning mohiyatini tushunishlari, mumkin bo'lgan yechimlarni taklif qilishlari va eng yaxshisini tanlashlari kerak. Ishlar haqiqiy faktik materiallarga asoslangan yoki real vaziyatga yaqin bo'lishi zarur. Keys-stadi texnologiyasining asosiy maqsadi o'quv guruhda o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, mavjud muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali ularning ilmiy–ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Shuningdek texnologiya o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini hamkorlikda qo'llashga, taklif qilingan yechimlarni tahlil qilish orqali eng to'g'ri yechimini izlashga o'rgatuvchi ta'lim texnologiyasidir. Keys – stadi texnologiyasi o'quvchilarni kreativ fikirlashga va o'z g'oyalarini ishlab chiqqan undaydi.

Biz shaxsiy-kasbiy faoliyatimizda turli xil muammoli vaziyatlarga duch kelamiz, aynan shu vaziyatlarning muqobil yechimini izlash, yuzaga kelgan har qanday muammoli jarayoning yechimini topish, istiqboli rejalarni tadbiq qila olish bizning bilim, mahoratimizga bog'liq. Aynan amaliy vaziyatlarni hal qilishda qo'llaniluvchi keys-stadi texnologiyasi kelgusi faoliyat jarayonida yuzaga keluvchi vaziyatlarning yechimini oldindan topishga o'rgatuvchi, yangi yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltiruvchi pedagogik texnologiyalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, ilg'or pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni bilimlarining yaxlit o'zlashtirilishiga yordam beradi, o'quvchi tafakkurini o'stiradi, mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Olgan bilim va ko'nikmalarini hayotda qo'llay olishlariga, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olishlariga yordam beradi. Aynan amaliy vaziyatlarni hal qilishda qo'llaniluvchi keys-stadi texnologiyasi kelgusi faoliyat jarayonida yuzaga keluvchi vaziyatlarning yechimini oldindan topishga o'rgatuvchi, yangi yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltiruvchi pedagogik texnologiyalardan biridir.

Bugungi kunda ommalashib borayotgan "Keys-stadi" texnologiyasining keys topshiriqlarini tuzishning biologiya fanidagi turlariga to'xtalamiz. Ular quyidagilarga bo'linadi:

1) Amaliy keyslar;
2) O'rgatuvchi keyslar;
3) Ilmiy tadqiqot keyslari.

Biologiya sohasida qo'llaniladigan keyslarning tuzilish tarkibi:

	Biologik bilimlarni o'rganish va ularni amalda qo'llay olishni o'rganish
Ta'limiy (o'rgatuvchi)	B i
	Keys topshiriqlarida ayrim ma'lumotlarning to'liq emas. Ilmiy tatqiqot ishlatish mumkin bo'lgan ilmiy izlanish jarayonlarida qo'llaniladi.

Quyidagi «Qonning kimyoviy tarkibi» mavzusini oid Keys-stadiga misollar keltiramiz.

Keysning asosiy maqsadi: "Anatomiya" fanini o'qitishning nazariy va amaliy masalalarini "Qonning kimyoviy tarkibi" mavzusi misolida yangicha o'quv moduli ishlanmasini shakllantirish

hamda o’qitishni takomillashtirish bo’yicha xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bularning barchasidan maqsad o’quvchilarda qonning kimyoviy tarkibi haqida bilimlar hosil qilish hisoblanadi. Axborot kommunikatsion texnologiyalari yordamida o’quv mashg’ulotlarini tashkil etish. O’quvchilarga mavzuni texnologiyalar orqali sodda va qulay usullarda tushuntirish modelini ishlab chiqish.

Keys-stadi texnologiyasini o’ziga xosligi shundaki berilgan savol talaba yoki o’quchilarni kreativ fikirlashga majbur qilib va olgan bilimlaridan foydalangan holda o’z fikirini bayon qilishiga undaydi. Beriladigan savollar ko’piroq o’quvchilarning o’z fikirini bildirishga undaydi.

Qon ikki qismdan iborat

1. Suyuq qismi, ya’ni qon plazmasi.
2. Quyuq qismi, ya’ni shaklli elementlar

Qon umumiy hajmining 55-60% ini qon plazmasi va 40-45% ini shaklli elementlar tashkil qiladi. Qonning o‘rtacha miqdori katta odamda 5 litr bo‘lib, u tana og‘irligining o‘rtacha 7% ini tashkil qiladi. Qon plazmasi qonning suyuq tarkibi bo‘lib, u murakkab aralashmadir.

Qon plazmasi: uning tarkibida 90% suv, oqsillar 7%, yog‘lar 0.1–0.3%, glyukoza 0.1%, mineral tuzlar 0.9%, gormonlar, fermentlar, antitelalar va erigan holdagi gazlar (kislorod, karbonat angidrid kabilar) bo‘ladi.

Shaklli elementlar: eritrositlar, leykositlar, trombositlar kabi asosiy tushunchalar beriladi va o’quvchilar o’zlari mustaqil o’qib izlanib qo’ydagi savollarga javob beradi.

Keys savollari:

1. Qoning yopishqoqligini tushuntiring?
2. Nega eritrositlar kislorod tashiydi?
3. Tanamizda qoning ivishi muxuma sababini tushuntiring.
4. Nimaga uchun tibbiyotda NaCl 0.9 % eritmasi qon plasmasiga nisbatdan izotonik? kabi o’quvchilarni o’ylashga va fikirlashga majbur qiladigan savollar beriladi. Bundan maqsad o’quvchilarni mustaqil izlanishga va o’qib o’rganishga qaratilgan bo’lib ularning aqliy salohyatini kengaytirishdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars jarayonlarini olib borish o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi qloqani yaqinlashtiradi va o’quvchilarni darslarda faol bo’lishiga undaydi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o’quvchilarning nafaqat fanga bo’lgan qiziqishlarini oshiradi balki ularning chuqur bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishlariga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1.Keys-stadi texnologiyasining rivojlanish tarixi. Rabbimova F.T. - dotsent Matmuratova G.B. - o`qituvchi (91-92)

2.Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo‘llari. - Toshkent, 2004-y

“DORIVOR ISSOP - HYSSOPUS OFFICINALIS BIOLOGIK XUSUSIYATLARI”

Abdurashidova Nilufar Shuhrat qizi
Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo’rg’on filiali
Turdaliyeva Ruxshona Abdulla qizi, talaba
nilufarshuhratovna97@gmail.com

Annotatsiya. Dorivor issop_deyarli yer yuzining barcha qismlarida tarqalgan past bo‘yli buta.Uning barglari, gulidan tayyorlangan damlamalar tibbiyotda ishlatiladi, barglari aromatik bo‘lgani uchun ziravor sifatida ham ishlatiladi.Issop (Hyssopus officinalis L.) mashhur dorivor, aromatik va oshpazlik o'tidir.

Kalit so‘zlar: dorivor issop, ziravor, nektar, antiseptik, sil, astma, Gippokrat , Bibliya.

Abstract. Medicinal hyssop is a low-growing shrub distributed in almost all parts of the world. Its leaves and flowers are used in medicine, and its leaves are also used as a spice because they are aromatic. Hyssop (Hyssopus officinalis L.) is a popular medicinal, aromatic, and culinary herb.
Keywords: medicinal hyssop, spice, nectar, antiseptic, tuberculosis, asthma, Hippocrates, Bible.
Абстрактный. Иссоп лекарственный — низкорослый кустарник, распространенный практически во всех частях света. Отвары, приготовленные из его листьев и цветков, используются в медицине, а поскольку листья ароматны, его также используют в качестве пряности. Иссоп (Hyssopus officinalis L.) — популярная лекарственная, ароматическая и кулинарная трава.
Ключевые слова: иссоп лекарственный, пряность, нектар, антисептик, туберкулез, астма, Гиппократ, Библия.

Kirish qism. Issop - Evropa, Osiyo va Afrikada tug'ilgan Lamiaceae oilasiga mansub yarim doim yashil ko'p yillik yoki pastki buta.[2].Yevropa, Qora dengiz, Qrim, Kavkaz,Markaziy Osiyo va Oltoy hududida keng tarqalgan.[3]. Issopning vatani Yevropaning janubi- sharqidan Markaziy Osiyogacha bo'lgan hududda joylashgan bo'lib, Shimoliy Amerikada naturalizatsiya qilingan[7].Antiseptik , yo'talni yo'qotuvchi va ekspektoran sifatida taxmin qilingan xususiyatlari tufayli an'anaviy o'simlik tibbiyotida qo'llanilgan.[3].Issop (Hyssopus officinalis)_bu tarixiy va ochig'ini aytganda, yorqin binafsha gullari bilan go'zal doim yashil o't so'nggi paytlarda biroz unutilgan. Lamiaceacea oilasiga mansub (yalpiz va Rosemary urug'ining bir qismi) Injilga qadar eslatib o'tilgan va ko'pincha tibbiyotning otasi Gippokrat tomonidan 4 - asrda plevrit kabi kasalliklarni davolash uchun buyurilgan.[5].

Turlar

1.Hyssopus ambiguus (Trautv.) Iljin ex Prochorov. & Lebel - Rossiyaning Oltoy Respublikasi, Qozog'iston
2.Hyssopus cuspidatus Boriss. - Oltoy Respublikasi, Qozog'iston, Shinjon, Mo'g'uliston
3.Hyssopus latilabiatus CYWu & HWLi - Shinjon
4.Hyssopus macrathus Boriss. - Rossiyaning Oltoy Respublikasi, G'arbiy Sibir, Qozog'iston
5.Hyssopus officinalis L. — markaziy janubiy Yevropa, Jazoir, Marokash, sharqdan Erongacha.
6.Hyssopus seravschanicus (Dub.) Pazij - Afg'oniston, Pokiston, Qirg'iziston, Tojikiston
7.Hyssopus subulifolius (Rech.f.) Rech.f. - Afg'oniston.[9].

Asosiy qism. Issop (Hyssopus officinalis)

Yashash joyi:Yangi Angliya shtati,Konnektikut,Meyn,Massachusets,Vermont.
Gul barglari rangi:ko'kdan binafsha ranggacha
Barg turi:barglari oddiy ya'ni, labli yoki labsiz
Barglarning joylashishi :qarama-qarshi poya bo'ylab har bir tugunda ikkita barg bor.
Barg plastinkasining qirralari:barg plastinkasining qirrasi butun (tishlari yoki bo'laklari yo'q)
Gullarning simmetriyasi:gulni teng ravishda ajratishning faqat bitta usuli bor (gul ikki tomonlama nosimmetrikdir)[4].

Dorivor Issop Hyssopus Officinalis ning boʻyi 30-80 sm boʻlgan chala buta, asosiy qismi va oʻq ildizli yogʻochlashgan.Shoxlangan , poyasi 4 qirrali qisman tukli va tuksiz, barglari 24-25 sm uzunlikdagi qarama-qarshi joylashgan, deyarli bandsiz, choʻzinchoq lansetsimon, pastki qismini chetlari nisbatan qayrilgan, yuqoridagi barglari mayda.Gullari binafsha pushti, oq rangli, 3-7 barg toʻplamlari qoʻltigʻida joylashgan boʻlib, ular uzunchoq boshoqsimon, 20-22 sm uzunlikdagi toʻpgullarni hosil qiladi.Gullari germofrodit; hasharotlar tomonidan asosan asalarilar tomonidan changlanadi.Issop birinchi yili gullaydi, lekin ommaviy gullash davri ikkinchi yili hisoblanadi.[12].Mevasi 4 ta noaniq 3 qirrali , uzunchoq teskari mayda tuxumsimon yongʻoqchalardan iborat.Dorivor issop asosan urugʻidan va vegetativ yoʻl bilan koʻpaytiriladi. Mevasi yongʻoqcha. Avgust-senttabrda pishadi.Yongʻoqchalarning yuzasi doʻngchali qoʻngʻir qora rangda. 1000 dona urugʻ vazni 0.9-1 g.

Bargsiz novdasi shifobaxsh hisoblanadi.Ular gullashni boshlagandan faqat tepa qismi teriladi.Salqinda yoki quritqichda 40'C dan kam bo‘lmagan haroratda quritiladi.Xomashyosi hidi o‘tkir, ta'mi achchiqroq bo‘ladi.Yog‘ochli va shishali idishda 2 yilgacha saqlash mumkin.

Kimyoviy tarkibi. Hyssopus officinalis ning o'simlik moddasi ko'plab muhim tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi, masalan, EO, polifenollar, xlorogen, p-gidroksibenzoy, protokatechuik, ferulik, feruloilkinik, ukol, vanil, p-kumar, rozmarin, kofeik, flavonoidlar , taninlar , pigmentlar , polifenollar , qatronlar. Issopda aniqlangan xarakterli bioaktiv birikmalar issopin, diosmin va gesperidin , marrubin va gentis, ursolik va oleanolik kislotalardir .[11].

Issop uzoq vaqtdan beri oziq-ovqat va dori vositalarida qo'llanilgan. Barglardan tayyorlangan va asal bilan shirinlangan kuchli choy burun, tomoq va o'pka kasalliklari uchun an'anaviy davo bo'lib , ba'zida ko'karishlar uchun tashqaridan qo'llaniladi . O'rta asrlarda issop pishiriladigan o't edi. Uning zamonaviy qo'llanilishi go'sht, baliq, sabzavotlar, salatlar, shirinliklar va likyorlarni xushbo'ylash uchun ishlatiladi . [7].

Tibbiy maqsadlarda foydalanish

O'simliklar kelajak uchun o'simliklardan foydalanishning har qanday salbiy ta'siri uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Dorivor o'simlikni ishlatishdan oldin har doim mutaxassisdan maslahat so'rang.

Antiseptik Aromaterapiya Bog'lovchi Karminativ Diaforetik Emmenagoga Ekspektoran Pektoral Stimulyator Oshqozon Tonik Vazodilatator

Issop uzoq vaqtdan beri dorivor maqsadlarda foydalanish tarixiga ega va o'tmishda shunchalik qadrlanganki, u virtual davo hisoblangan.Hozirgi vaqtda kam baholangan o't ko'pincha uy sharoitida, xususan, ekspektoran va oshqozonni tonik sifatida ishlatiladi. Bronxit va nafas olish yo'llari infektsiyalarini davolashda, ayniqsa shilliq qavatning haddan tashqari ishlab chiqarilishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi.Issop shilliq pardalarni tirnash xususiyati keltirishi mumkin, shuning uchun uni infektsiya cho'qqisiga chiqqandan keyin, o'tning tonik ta'siri umumiy tiklanishni rag'batlantirganda berish yaxshidir.[8]. Homilador yoki homilador bo'lishi mumkin bo'lganlar issopdan qochishlari kerak. Bundan tashqari, issop yalpiz, limon balzam yoki mushuk o'tiga alerjisi bo'lganlarda allergik reaktsiyaga sabab bo'lishi mumkin.[10].Barglari va gulli tepalari antiseptik, yo'talga qarshi, biriktiruvchi, karminativ, diaforetik, emmenagog, ekspektoran, ko'krak qafasi, tinchlantiruvchi, ogohlantiruvchi, oshqozon, tonik va qon tomirlarini kengaytiruvchidir. O'simlik to'liq gullaganda yig'ib olinishi va keyinroq foydalanish uchun quritilishi mumkin. Barglaridan tayyorlangan choy meteorizm, oshqozon og'rig'i, yuqori nafas yo'llari infektsiyalari, bolalarda yo'tal va boshqalarni davolashda ishlatiladi. Yangi o‘tdan tayyorlangan nayza yaralarni davolash uchun ishlatiladi. Efir moyi aromaterapiyada qo'llaniladi. Uning kalit so‘zi “Barqarorlik”. Bu moyni qattiq asabiylashgan odamlarda ishlatmaslik kerak, chunki u epilepsiya alomatlarini keltirib chiqarishi mumkin.Efir moyi faqat professional nazorat ostida ishlatilishi kerak.[8].O'simlik tibbiyotida issop tinchlantiruvchi, ekspektoran va yo'talni bostiruvchi xususiyatlarga ega ekanligiga ishoniladi . Issop qon aylanishini oshirish va yo'tal va tomoq og'rig'i kabi ko'plab kasalliklarni davolash uchun an'anaviy tibbiyotda asrlar davomida ishlatilgan . Hyssop oshqozon-ichak tizimini rag'batlantirishi mumkin. [3].

Hyssopus officinalis moylari doriga chidamli klinik gerpes simplex virusi 1 (HSV-1) va HSV-2 shtammlariga qarshi hamda dermatit va ekzema kabi teri kasalliklarini davolashda faoldir . O'simlik efir moyi tish og'rig'i, quloq og'rig'i va revmatizmni davolash uchun tashqaridan ham qo'llaniladi . Issop uchuvchi yog'lari massaj uchun ham mos keladi va mushaklarni bo'shashtiruvchi davolash sifatida qon va limfa aylanishining yomonlashishiga qarshi samarali.[11].

Bundan tashqari, Hyssopus officinalisning quritilgan barglarining xom ekstrakti kuchli OIVga qarshi faollikni ko'rsatdi va OITS bilan kasallangan bemorlarni davolashda foydali bo'lishi mumkin.[11].

Issopdan foydalanish. Agroforestry foydalanadi: issop changlatuvchilar va foydali hasharotlarni jalb qiladigan bog'larda hamroh o'simlik sifatida ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, eroziyaga qarshi kurashda va zamin qoplamasi sifatida foydalanish mumkin. Issop mitti to'siq sifatida o'stirilishi mumkin, u bahorda kesishga yaxshi javob beradi.O'sayotgan o'simlik karam oq kapalaklarini brassicasdan uzoqroqqa tortadi. Boshqa bir hisobotda issop karam oq kapalaklarini o'ziga jalb qiladi va karam yaqinida o'stirilmasligi kerakligi aytiladi. Barglaridan olingan efir moyi antiseptik bo'lib, parfyumeriya va oziq-ovqat uchun xushbo'y hid sifatida ishlatiladi.U ayniqsa nozik hidga ega va parfyumerlar tomonidan juda qadrlanadi. Neftning o'rtacha rentabelligi taxminan 0,6% ni tashkil qiladi.Ko‘k gulli navdan 1-1,5% efir moyi, qizil gulli navdan 0,8% ga yaqin, oq gulli navdan esa 0,5% efir moyi olinadi. Ilgari o'simlik o't o'tlari sifatida ishlatilgan va qozonda ham qo'llaniladi. Barglardan tayyorlangan choy bakterial o'simlik kasalliklarini nazorat qilish uchun foydalidir. O'simliklar bir-biridan taxminan 45 sm masofada joylashgan bo'lsa, zamin qoplamasi uchun o'stirilishi mumkin.

1. Nektar - nektar va gulchanglarga boy gullar:Issop asalarilar, kapalaklar va boshqa changlatuvchilar uchun juda jozibador bo'lib, nektar va gulchangni ham ta'minlaydi.
2. Yovvoyi tabiat - Oziq-ovqat (mevalar, urug'lar, barg axlati, boshpana, uyalar, cho'chqachilik): Urug'lar kichik qushlar uchun oziq-ovqat manbai bo'lishi mumkin bo'lsa-da, o'simlikning tuzilishi qushlar kabi kattaroq yovvoyi hayvonlar uchun u qadar ko'p uy qurish yoki qo'yishni ta'minlamasligi mumkin bo'lsa-da, ayniqsa hasharotlar uchun boshpana beradi.
3. Umurtqasizlar boshpanasi (Qishlash joylari, Barglar, tuproq qoplami): Issop o'zining yog'ochli poyalari ichida hasharotlar uchun qishlash joylarini taklif qiladi va boshqa tuproq qoplami kabi zich bo'lmasa-da, bir oz tuproq qoplamini ta'minlaydi.
4. Zararkunandalarni chalg'ituvchi (hid):Issopning kuchli aromatik hidi ba'zi zararkunandalarni chalkashtirib yuborishi yoki oldini olishga yordam beradi, bu uni foydali o'simlikka aylantiradi.[8].

Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, lazzat va xavfsizlikda efir moylariga ko'ra : "Issop efir moylari antibakterial va antifungal xususiyatlarni ko'rsatadi. Bundan tashqari, moylar ko'plab oziq-ovqat patogenlariga qarshi potentsial antifungal va mikroblarga qarshi faollikni ko'rsatadi va oziq-ovqatning organoleptik xususiyatlarini yaxshilash, oziq-ovqat mahsulotlarining saqlanish muddatini oshirish va oldini olish uchun foydalidir".[10].

Qadimgi davrlarda issopdan foydalanish:

Ibroniylar bu o'tni azob deb atashgan, ya'ni "muqaddas o't". U muqaddas joylar uchun tozalovchi o't sifatida ishlatilgan

Rimliklar o'latdan himoya qilish uchun issopdan foydalanganlar. U o'simlik sharobida ham ishlatilgan.

Qadimgi Yunonistonda shifokorlar issopni tomoq va ko'krak qafasining yallig'lanishi kabi bronxial shikoyatlar uchun qadrlashgan.

17-18-asr boshlarida issop choyi va damlamasi sariqlik va tomchilarni davolash uchun ishlatilgan”.

Bugungi kunda Hyssopus officinalis butun dunyoda yaxshi tashkil etilgan aromatik va dorivor o'simlik bo'lib , uning farmakologik xususiyatlari qadimdan ma'lum. Ilgari u ibodatxonalar va muqaddas joylarni tozalash uchun ishlatilgan. Issop moxovlarni tozalash uchun dori sifatida ham ishlatilgan. O'simlikdan ma'naviy poklanishda foydalanish Bibliyada ko'p marta eslatib o'tilgan. O'rta asrlarda issop tepalari yomon hidlarni yashirish uchun pollarga sochilgan. Yangi, toza va yoqimli xushbo'yligi tufayli quritilgan barglar ko'pincha shkaflar va paltolarga joylashtiriladi. Issop - manzarali o'simlik bo'lib, bog'lar yoki yurish yo'llari bo'ylab joylar ko'pincha yorqin gulli buta bilan bezatilgan .

Issop parfyumeriya sanoatida muhim ahamiyatga ega, ayniqsa nozik hidga ega. Uning uchuvchi yog'lari sovun, parfyumeriya, odekolon suvi, kremlar va boshqa kosmetika mahsulotlarida, shuningdek aromaterapiyada xushbo'y komponent sifatida ishlatiladi .[11].

Xulosa . ISSOP inson hayotida va amaliy faoliyatda,tabiatda juda muhim o‘rin tutadigan o‘simlik.Qadim asrlardan beri uning dorivorlik va oshpazlik xususiyatlaridan foydalanib kelinadi. Shu bilan birga issop turli maqsadlarda ham ishlatiladi. Issop yog'lari ko'plab o'simlik va oziq-ovqat patogenlariga qarshi ishlatiladi.Issop qishloq xo'jaligi dalalarini, urug'larni, sabzavotlarni, mevalarni, donlarni va boshqa saqlangan mahsulotlarni ko'plab zamburug'lar va mikroblardan himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Issop va uning EOlari ba'zi oziq-ovqat mahsulotlarining (baliq, go'sht, pishloq) ba'zi organoleptik xususiyatlarini, buzilishiga chidamliligini va saqlash muddatini yaxshilash uchun ishlatiladi. Issop alkogolsiz va alkogolsiz ichimliklar , turli xil likyorlar, aperitiflar va ko'plab qadoqlangan va qayta ishlangan oziq-ovqatlar (konfetlar, gazaklar , pishirilgan mahsulotlar , saqichlar , muzqaymoqlar va boshqalar) uchun xushbo'y moddalar sifatida ishlatiladi.

Issop uchuvchi moylarining toksikligi asosan pinokamfonlar, 1,8-sineol, limonen , linalool , metil evgenol va pinenlar kabi birikmalarning mavjudligi bilan bog'liq .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.M.X.Begmatova, A.A.Elmurodov, Sh.Sh.Shernazarov, A.A.Nurniyozov “Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi” fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent—2023. 97-b.

2.M.A.Jo‘rayeva. Dorivor o‘simliklar atlasi. Toshkent—2019. 74-b.

3.Issop (Hyssopus officinalis) - Little Wildling Co. https://www.littlewildlingco.com/blogs/herbal-glossary/hyssop-hyssopus-officinalis?srsltid=AfmBOoqQj361v74c9Xrli4PmW9amWe75qQaOphYPwzcNpokY9XeOJOTz.[5]

4.Hyssopus officinalis - umumiy ko'rinish | ScienceDirect mavzulari https://www.sciencedirect.com/topics/agricultural-and-biological-sciences/hyssopus-officinalis.[11].

5.Oyning o'ti: issop | WholeFoods jurnali https://www.wholefoodsmagazine.com/articles/16667-herb-of-the-month-hyssop.[10].

6.Hyssopus (plant) – Wikipedia. https://en.wikipedia.org/wiki/Hyssopus_(plant).[9].

7.https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/download/11105/746.Dorivor issop o‘simlikni urug‘idan yetishtirilgan holda o‘sish va rivojlanishini o‘rganish.[12].

8.https://gobotany.nativeplanttrust.org/species/hyssopus/officinalis/.[4].

9.Hyssopus officinalis – Wikipedia. https://en.wikipedia.org/wiki/Hyssopus_officinalis.[3].

10.Spice and herb | Types, Uses, & Facts | Britannica. https://www.britannica.com/topic/spice-food.[7].

11.https://plants.ces.ncsu.edu/plants/hyssopus-officinalis/.[2].

“ PAQ-PAQ - PHYSALIS ALKEKENGI O’SIMLIGINING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI.”

Abdurashidova Nilufar Shuhrat qizi
Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo’rg’on filiali assistent o’qituvchisi
Rasulov Chexroz Bahodir qizi talaba
nilufarshuhratovna97@gmail.com

Annotasiya: Physalis alkekengi o‘simligi ko‘p yillik o‘t o‘simlik hisoblanadi. Physalis alkekengi o‘simligi o‘z tarkibida juda ko‘p foydali A, K va D vitaminlari, kaliy, kaltsiy, rux, fosfor, temir, magiy va mis kabi elementlar, organik kislotalar, limon kislotasi, olma kislotalari hamda juda ko‘plab flavonoidlar va karatinoidlarni o‘z tarkibida saqlanganligi sababli kasalliklarni davolashda qo‘llaniladi. Asosan yo‘tal, istmani tushurishda, jigar kasalliklarini davolashda, siydik haydovchi vosita sifatida va yana shunga o‘xshash vositalar sifatida keng foydalaniladi.

Kalit so‘zlari: Solanaceae, riboflavin, niatsin, rutin, xitoy fonari, diurez, barg, meva, kalikslar, alkaloidlar, solanin, solasidin, oq gullar.

Аннотация: Растение Физалис алкекенги — многолетнее травянистое растение. Растение физалис алкекенги содержит множество полезных витаминов A, K и D, такие элементы, как калий, кальций, цинк, фосфор, железо, магний и медь, органические кислоты, лимонную кислоту, яблочную кислоту и множество флавоноидов и каротиноидов, используемых при лечении заболеваний. . Его широко применяют главным образом для облегчения кашля, астмы, заболеваний печени, как мочегонное и другие подобные средства.

Ключевые слова: Пасленовые, черешок, рибофлавин, ниацин, рутин, китайский фонарь, кемпферол, диурез, лист, плод, чашечка, алкалоиды, соланин, соласидин, белые цветки.

Abstract: Physalis alkekengi plant is a perennial herb. Physalis alkekengi plant contains many useful vitamins A, K and D, elements such as potassium, calcium, zinc, phosphorus, iron, magnesium and copper, organic acids, citric acid, malic acid and many flavonoids and carotenoids. used in the treatment of diseases. It is widely used mainly to relieve cough, asthma, liver diseases, as a diuretic and other similar remedies.

Keywords: Solanaceae, petiole, riboflavin, niacin, rutin, Chinese lantern, kaempferol, diuresis, leaf, fruit, calyx, alkaloids, solanine, solasidine, white flowers.

Kirish: Dorivor o’simliklar uzoq vaqtlardan beri tibbiyotda kasalliklarni davolash uchun ishlatilib kelinmoqda. So’ngi yillarda dorivor o’simliklar maxsulotlaridan tibbiyotda keng foydalanilib kelinmoqda. Bunday dorivor o’simliklar qataoriga Paq- paq o’simligini misol qilib ko’rsatishimiz mumkun. Paq- paq o’simligi o’tsimon ko’p yillik o’simlik bo’lib, ituzumdoshlar (Solanaceae) oilasiga mansub. Uning dorivorlik hususiyatilar haqidagi malumotlar juda qadimdan ma’lum. Paq-paq o’simligining vegitativ va genirativ organlaridan olinadigan kimyoviy moddalar farmasevtika soxasida keng foydalaniladi.

Asosiy qism: Paq - paq - ko’p yillik o’simlik ituzumdoshlar (Solanaceae) ilasining Physalis turkumiga mansub. Paq - paq Yevropa va Osiyoda tarqalgan. Paq - paq o’simligining poyasi shoxlangan bo’yi 40 - 60 sm ga uzunligi 6–12 sm va eni 4–9 sm spiral shaklida joylashgan ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Barglari sal cho’zinchoq tuxumsimon shaklda bandli, siyrak tuklar bilan qoplangan. Gullar yakka - yakka bo’lib ochilib, qovoqrang qizil ochiladi, oqish rangda. Mevalari - uzunligi 6 sm gacha boradigan, qovoqrang, - qizil tusli urug’li meva, qavariq kosachaga o’ralgan, mevalarini yesa bo’ladi. Urug’lari - mayda qovoqrang tusda.

Kimyoviy tarkibi: Physalis alkekengidan ajratilgan 530 ta kimyoviy tarkibiy qismlar orasida steroidlar va flavonoidlar asosiy faol moddalardir.

Steroidlar P. alkekengining asosiy tarkibiy qismidir. P. alkekengi kosasidan, mevasidan va yer usti qismlaridan jami 164 ta steroid ajratilgan va aniqlangan, bu umumiy birikma turlarining 30,65% ni tashkil qiladi. Bularga fizalinlar, neofizalinlar, sterollar va withanolidlar kiradi, ular orasida fizalinlar eng ko'p.

Flavonoidlar 2-fenilxromogen ketonlarning asosiy yadrosi bilan tavsiflangan birikmalar sinfidir. P. alkekengid*an* 55 ta flavonoid ajratilgan bo‘lib, ular umumiy birikma turlarining 10,28% ni tashkil etadi, bu P. alkekengining muhim faol moddalaridan biridir. P. alkekengi tarkibidagi flavonoidlar, asosan, meva, kosacha va kosacha-meva birikmasidan ajratilgan asosan flavonoidlar va flavonoid glikozidlar. Alkaloidlar tabiatda uchraydigan azotli organik birikmalar sinfidir. P. alkekengidan yigirma to‘qqizta alkaloid ajratilgan bo‘lib, ular umumiy birikma turlarining 5,42% ni tashkil qiladi. Physalis alkekengidagi alkaloidlar asosan birlamchi poyaning ildizlari va pastki qismlarida to‘plangan.

Uchuvchi yog'lar uchuvchanlikni ko'rsatadigan xushbo'y moddalar to'plamiga ishora qiladi. Physalis alkekengidan to‘qson oltita uchuvchi yog‘lar ajratilgan bo‘lib, ular umumiy birikma turlarining 17,94% ni tashkil qiladi. Bularga asosan yog 'kislotalari va seskiterpenoidlar kiradi.

Vitaminlar: vitamin C, A vitamini, K vitamini, tiamin, riboflavin, niatsin. Minerallar: kaliy, kaltsiy, fosfor, temir, magniy, mis, sink.

Mikroblarga qarshi ta'sir. Patogen mikroorganizmlar tanaga kirib kelganda infektsiyalar va ko'plab kasalliklarga olib kelishi mumkin. Phsalis alkekengi kosasining etanol ekstrakti alfa va beta Streptococcus, Staphylococcus aureus, Bacillus subtilis va Bacillus cereusga inhibitiv ta'sir ko'rsatadi, beta Streptococcus va Bacillus cereus ga eng kuchli inhibitiv ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, etanol ekstrakti va Physalis alkekengi polisaxaridi Bacteroides, Clostridium va Lactobacillus kabi probiyotiklarning o'sishiga yordam beradi, ichak tayoqchasi kabi patogen bakteriyalarning ko'payishini inhibe qiladi va ichak mikroekologiyasi muvozanatini yaxshilaydi Physalis alkekengi ning metanol va diklorometan ekstraktlari va fizalin D gram-musbat bakteriya turlariga, gramm-manfiy bakteriya turlariga va Candida turlariga bulyon mikrodilüsyonu va disk diffuziya usullari bilan antibakterial ta'sir ko'rsatishi, eng yaxshi antibakterial ta'siri aniqlandi. gramm-musbat bakteriyalar Va P. alkekengining etil asetat bilan ekstraksiya qilingan qismlari ham Helicobacter pylori ga qarshi antibakterial faollikni ko'rsatdi

Foydalanadi: Eng yaxshi landshaftning tarqalish tendentsiyalari tashvishlanmaydigan joylarida joylashgan. Bu o'simlik odatda chegaralar uchun tavsiya etilmaydi. Osiyo, Yevropa; boshqa joyda o'stirildi va tabiiylashtirildi. Ushbu turning mevalari quritilgan holda ishlatilishi mumkin va dorivor isitmani

Organik kislotalar: olma kislotasi, limon kislotasi, tartarik kislota.

Boshqa biologik faol moddalar: solanin , solasodin, alkaloidlar (psevdotropin), pektin, shakar, tolalar.Solanin, solasodin, psevdotropin kabi alkaloidlar tufayli ozuqaviy zaharlanish mumkin.SSSRda meva ishlab chiqarish uchun sanoat miqyosida fizalisning ba'zi navlari yetishtirildi, keyinchalik qandolatchilik va oziq-ovqat ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida foydalanildi . Yangi va quritilgan mevalar xalq tabobatida infuzyon yoki kaynatma shaklida qo'llaniladi. Physalis yallig'lanishga qarshi, antiseptik , og'riq qoldiruvchi, gemostatik, diuretik va xoleretik ta'sirga ega. Janubiy hududlarda Physalis vulgaris mevalari yangi va konservalangan holda pishirishda ishlatiladi . Mo'tadil iqlim sharoitida mevalar pishmaydi va zaharlanishga olib kelishi mumki, shuning uchun ko'proq shimoliy hududlarda o'simliklar manzarali o'simliklar sifatida o‘stiriladi . Physalis tarkibida sut shakari mavjud bo'lib, u qayta tiklovchi va tiklovchi ta'sirga ega. Physalis miya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va tinchlantiruvchi ta'sirga ega. Bu og'ir jismoniy va ruhiy stress uchun, shuningdek, kasallikdan keyin zaiflashgan odamlar uchun foydalidir. U qog'oz chiroqlarga o'xshagan mevasi ustidagi katta, yorqin to'q sariq qizil qog'ozli kosacha bilan osongina aniqlanadi . Bu bo‘yi 40–60 sm gacha o‘sadigan, uzunligi 6–12 sm va eni 4–9 sm spiral shaklida joylashgan ko‘p yillik o‘t o‘simlik . Gullari oq rangda, diametri 10–15 mm bo‘lgan besh bo‘lakli gul tojiga ega, 4–5 sm uzunlikdagi va kenglikdagi qog‘ozsimon apelsin meva qoplamiga aylanadigan shishgan bazal kosachaga ega. . Va uning bitta navi bor, Alkekengi officinarum var. franchetii . Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Calliphysalis carpenteri (ilgari Physalis carpenteri sifatida tasniflangan) Physalis alkekengi eng yaqin turlardan biri hisoblanadi .

An’anaviy foydalanish:

Quritilgan mevasi tibbiyot tizimida oltin gul deb ataladi va siydik haydovchi, antiseptik, jigarni tuzatuvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Tibbiyotda foydalanish: Xitoy tibbiyotida Alkekengi xo'ppoz , yo'tal, isitma va tomoq og'rig'i kabi kasalliklarni davolash uchun ishlatiladi. Yo‘qolib ketgan dak tili oz izlarini qoldirgan, ammo Pedanius Dioscorides tomonidan yozilgan De Materia Medica asarida Strychnos alikakabos (Struchnonos Lilíkalakos) deb nomlangan o‘simlik (thekylis (thekylis) deb nomlangan) haqida so‘z yuritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alkenkengi. https://en.wikipedia.org

2.Физалис обыкновенный. https://ru.wikipedia.org

3.Physalis alkekengi -L. https://pfaf.org

4.Physalis alkekengi in Flora of China @ efloras org.http://efloras.org
5.How to grow Chinese lantern plant (Physalis alkekengi) https://www. gardenersworld. com.
6.Physalis alkekengi- Plant. https://www.missouribotanicalgerden.org
7.Physalis alkekengi L. https.//www.gbif.org

TABOBATDAGI QIZIL OLTIN - ZA'FARON

Abdurashidova Nilufar Shuhrat qizi
Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali
Davronova Munisa Davron qizi talaba
nilufarshuhratovna97@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada tabobatda juda foydali bo'lgan va qadimdan keng qo'llanilib keladigan za'faronning morfologiyasi, ekologiyasi, kimyoviy tarkibi, dorivorlik xususiyatlari, respublikamizda yetishtirish texnologiyasi, farmakologiyada, xalq tabobatida va zamonaviy tibbiyotdagi shifobaxsh xossalari o'rganildi.

Kalit so'zlar: za'faron, onalik guli, pikrokrosin, onkologik kasalliklar, nerv kasalliklari.

Annotation: This scientific article studies the morphology, ecology, chemical composition, medicinal properties, cultivation technology in our republic, and medicinal properties of saffron, which is very useful in medicine and has been widely used since ancient times, in pharmacology, folk medicine, and modern medicine.

Keywords: saffron, mother's flower, picrocrocin, oncological diseases, nervous diseases.

Аннотация: В данной научной статье изучены морфология, экология, химический состав, лечебные свойства шафрана, который очень полезен в медицине и широко применяется с древних времен, технология выращивания в нашей республике, лечебные свойства в фармакологии, народной медицине и современной медицине.

Ключевые слова: шафран, материнский цветок, пикрокроцин, онкологические заболевания, нервные болезни.

Kirish. Tabobatdagi qizil oltin – za'faron qadim zamonlardan qo'llanib kelina-digan o'simlik hisoblanib eng qadimgi ma'lumotlar Niniveya kutubxonasidan topilgan. Ruhoniylar za'faron iplarini matolarga to'qigan va marosimlarda foydalangan. Yunonlar va rimliklar undan hushbo'y suv tayyorlab kiyimlarni purkash uchun foydalangan. To'shaklarga va hushbo'y hidi uchun vannalarga sepilgan va bunday vannalardan Iskandar Zulqarnayn, Kleopatra kabi tarixiy shaxslar foydalangan. Kichik Osiyoda hozirda "Safranbolu" deb ataladigan butun bir "Za'faron shahri" bor edi. Za'faron dunyodagi eng qimmat vegetarian ziravorlardan biri sifatida dunyoda 3-o'rinni eagallaydi. (kg uchun 11 000 dollar). Ozarbayjonda za'faron sanoatidan yiliga 142 million dollar daromad olish mumkin. 2014 yilda bir kilogram Eron za'faronining narxi 2000 AQSH dollariga yetgan. Za'faron o'simligi qimmatligi sababi bu ishlab chiqarishning ko'p mehnat talab qiladigan tabiati bilan izohlanadi: bitta gul faqat uchta urug'chi ya'ni stigma hosil qiladi. Dunyodagi za'faronning qariyb 92-93% i Eronda yig'iladi. Erondagi Mashhad shahrida ko'plab za'faron do'konlarini ko'rishimiz mumkin. O'rta asrlarda bir qadoq (450 gr) za'faronni zotli arab chopqir otiga ayirboshlash mumkin bo'lgan. Za'faron xarid qilishda yanchib maydalanganini emas balki butun tolali gullarini olish maqsadga muvofiq. O'rta asrlarda za'faronni soxtalshtir-gan odam gulxanda yoqilgan.

Za'faronga Nikolay Ivanovich Annanekov tomonidan Crocus nomi berilgan. (1)

Za'faron 60ga yaqin turlari ma'lum bo'lib, asosan O'rta yer dengizi qirg'oqlarida yovvoyi holda o'sadi. Rossiyada taxminan 5 tur mavjud bo'lib, ulardan C. varegatus Rossiyaning janubi - g'arbiy dashtlarida o'sadi. (2)

Jizzax viloyati Baxmal tumanida za'faron "BMB Zafaron" brendi ostida milliy mahsulot sifatida yetishtirilib, qayta ishlanmoqda. Ushbu loyihani amalga oshirish uchun 2022-yilda

Italiyadan O‘zbekistonga 16 mln dona za’faron piyozi olib kelingan. 2021–yilda esa 20 mln dona piyozi ekilgan edi. Ayni paytda plantatsiya 305 gektardan ortiq maydonni egallaydi. (3)

Ziravorning yuqori narxi ko‘pincha za’faron o‘rniga boshqa o‘simliklarning sotilishiga olib keladi. Ko‘pincha, arzonroq, ammo o‘xshash rangdagi ziravorlar o‘rniga ishlatiladi: otquloq. Haqiqiy za’faronning asosiy xususiyati uning yuqori konsentratsiyasidir - atigi 2 ta ip 3 litr suvni to‘liq ranglashi mumkin. Maydalangan za’faronni sotib olayotganda, siz rangga e’tibor berishingiz kerak: masalan, zerdechal, qizil emas, balki aniq sarg‘ish rangga ega. (4)

Za’faron (Crocus sativus lotin.) - Sapsarguldoshlarga mansub ko‘p yillik o‘tsimon tuganak piyozli o‘simlik. Yovvoyi holda uchramaydi. Hindiston, Pokiston, Xitoy, Janubiy Yevropa, Ozarbayjonda katta maydonlarda ekiladi. Piyozining diametri 1 - 2 santimetr. Bargi 5 - 15 ta, och sariq rangda; eni 2 mm, tuksiz.

Guli 1 - 4 ta, gultoji oqish pastkiqismi, (tashqi tomondan) binafsha rang uzunligi 2-4 sm. Changchilari gulqo‘rg‘ondan qisqa. Ko‘sagi cho‘ziq, eni 6 - 7mm.

Fevral - iyulda gullaydi, aprel-avgustda meva beradi. Tarkibida efir moyi bo‘lgani uchun hidi juda o‘tkir va yoqimli. 90 - 100 ming dona za’faron gulidan 1 kg qurigan gul tumshuqchalari olinadi. Za’faron gulining quritilgan tumshuqchalari murabbo, tortlar rangi va ta’mini yaxshilash, oziq-ovqat (pishloq, sariyog‘, likyor va boshqalarda rang berish uchun), parfyumeriya (atir - upa) sanoatida ishlatiladi. Tabobatda dori-darmon sifatida qollaniladi. Za’faron o‘rta asrlardan beri Za’faron o‘rta asrlardan beri bahosi va qadri tushmay kelayotgan yagona ziravordir. Za’faron yiliga bir marta 10-15 kun ommaviy gullaydigan, har bir gul ochilishining davomiyligi faqat 2 - 3 kun bo‘lgan qirmizi "krokus" (lotincha nomi) onalik guli tumshuqlarining quritilganidir. Za’faron gullari va xususan onalik gullarini qayta ishlash faqat qo‘l mehnati bilan amalga oshiriladi. Onalik gullari tumshug‘i faqat gullarning birinchi ochilgan kuni qirqib-olinishi lozim. Uning sifati terim va uni quritishning tezligi bilan bog‘liqdir. Bir kilogramm za’faron yig‘ish uchun tongda quyosh hali onalik gullarini quritib ulgurmasidan, 150 ming dona atrofdagi guli terib olinishi lozim. Bir gektar yer maydonidan terimchilarning mahorati va terimchilarning mahorati va ob-havoning munosib sharoitiga qarab 8 - 12 kilogramm za’faron yig‘ib olish mumkin. Zafaronning kimyoviy tarkibi 10 - 12 % suv, 57 % mineral moddalar, 5-8 % moy va mum, 12-13 % oqsil va eng oz miqdorda yog‘ ekstraktidan iborat o‘ziga xos va xushbo‘y yoqimli moddalardan tarkib topgan. Stigmalar tarkibida efirmoyi mavjud bo‘lib uning tarkibi mutlaqo quruq vaznning 0,6-0,9% ni tashkil qiladi. Efir moyi pikrokrotsin glikozid shaklida bog‘langan holatda bo‘ladi. Efir moyi tarkibida pinen va sineol, shuningdek, 2,2,6-trimetilsiklogeksadien 4-6-aldegid mavjud. Bundan tashqari, za’faron stigmalarida krosetin va safranal glikozidlari [3], saqich, tiamin va riboflavin vitaminlari, sariq bo‘yoq krosin shuningdek flavonoidlar (izoramnetin va kaempferol) va yog‘li yog‘ (6,8%), shakar, tuzlar kalsiy. Gul barglarida antosiyanin pigmenti mavjud; barglarda 0,25% gacha askorbin kislotasi mavjud. Tarkibida A, B, C, PP vitaminlari mavjud.

Za’faron me’yoridan oshirib ishlatilsa, sezgi organlarini qattiq zo‘riqishiga olib kelishi mumkin. Me’yordan ko‘p ovqatga qo‘shilgan za’faron taomni buzishdan tashqari insonni zaharlanishga, bir necha gramm yangi uzilgan sifatli za’faron iste’mol qilinishi, o‘limga ham sabab bo‘lishi mumkin. Mutaxassis maslahatisiz homilador ayollarga tinchlantiruvchi vosita sifatida iste’mol qilish tavsiya etilmaydi.

Bugungi kunda ekma za’faronni respublikamizning turli tuproq va iqlim sharoitida o‘stirish, ko‘paytirish hamda sanoat plantatsiyalarini tashkil etish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu ekinni nafaqat mahalliy farmatsevtika, oziq - ovqat va parfyumeriya sanoatida ishlatish mumkin, balki jahon bozorida qimmatbaho mahsulot sifatida eksport qilsa bo‘ladi. Za’faron yetishtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari tomonidan olib borilmoqda. Institut tajriba maydonlariga Italiyadan za’faron piyozchalari keltirilib ekilmoqda.

Za’faronning shifobaxsh xossalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Onkologik kasalliklarni davolashda (hatto kasallikning oxirgi bosqichida saraton osimtalariga qarshilik korsatadi va ularning hujayralari o‘sishini toxtatadi);

- Qonni tozalashda (uni yangilaydi va tozalaydi, demak yurak qon tomir tizimini mustahkamlaydi, organizmning barcha hujayralarini oziqlantiradi);

- Miya faoliyati aktivligini yaxshilaydi (bosh miya to‘qimalarini o‘stiradi, xotirani yaxshilaydi);

- Nevrozdan forig‘ qiladi;

- Bosh og‘rig‘iva uyqusizlikdan xalos etadi;

- Oshqozon-ichak faoliyatini me’yorga keltiradi;

- Ortiqcha o‘tdan xalos etadi;

- Buyrak va qovuqni davolaydi (asal aralashtirilgan za’faron buyrak va qovuqdagi toshlarni maydalaydi);

- Antioksidan tasirga ega (energetik modda almashinuvini yaxshilaydi, zararlimoddalarni chiqarib yuboradi);

- Organizmni quvvatlaydi,

- Ko‘rish qobiliyatini tiklaydi;

- Allergiyadan xalos etadi;

- Ichkilikbozlik illatidan xalos etadi;

- Shamolash spazmalarni chiqarib yuboradi;

- Butun organizmni yoshartiradi;

Jigar faoliyatini me’yoriga keltirish va uni davolash maqsadida za’faron un kabi yanchilib, maydalanadi va ovqatlangandan 20 minut o‘tkazib iste’mol qilinadi.

Yurak, buyrak, jigar kasalliklarini davolashda, konyunktivit, keratit va yiringli jarohatlarni davolashda za’faronning suvdagi aralashmasidan foydalaniladi. Buning uchun bir choy qoshig‘i za’faron tolalari ustidan qaynab turgan bir stakan suv quyiladi, 20 daqiqa tindiradi, 3 qavat dokadan o‘tkazib, sovutiladi va kuniga uch mahal ovqatdan oldin 15 gramdan ichiladi yoki bu suvga doka ho‘llab jarohatga qo‘yiladi.

Tomirlar xastaliklari, kataraktada glaukomada, yurak qon tomir kasalliklarida va oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda, buyrak toshlarini maydalashda za’faronning quritib maydalangan va as alga aralashtirilgan tolalari til tagiga qo‘yib shimib iste’mol qilinadi.

Allergik reaksiyada 5 g maydalangan za’faron tolalari choy qoshig‘ining 1/3 ida olingan yanchilgan zanjabil aralashtirib ustidan500 ml qaynoq suv quyiladi. Sutkasiga 3-4 mahal 125 ml dan ichiladi. Davolanish muddati 1 oy so‘ng zarur bo‘lsa, bir necha kun tanaffus qilib,2 oyda yana takrorlanadi.

XULOSALAR

Za’faron o’simligi nafaqat tabobatda balki zamonaviy tibbiyotda ham nihoyatda katta ahamyatga ega bo’lib, uning o’ziga xos hidi va ta’mi organizm uchun juda ham foydalidir. O‘simlikning foydali xususiyatlarini, kimyoviy tarkibini, hamda yetishtirish texnologiyasini o‘rganib, Respublikamiz hududida za’faron o’simligini yetishtirish chora - tadbirlarini yo‘lga qo‘yishimiz va farmasevtika soxasini xom ashyo bilan taminlash asosiy maqsadimizdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Pokhlebkin V.V. Za’faron// Ziravorlar haqida. Oziq ovqat sanoati,1973. 85-87.-207 s.

2. Pokhlebkin V.V. Za’faron// Pazandachilik lug‘ati.- M . “E” nashriyoti,2015/ - P. 408-409.-456s. – 4000 nusxa. -ISBN 978-5-699-75127-3.

3. AGRO.UZ

TOG‘ RAYXON (ORIGANUM TYTTANTHUM) - O‘SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI.

Abdurashidova Nilufar Shuhrat qizi
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filliali.
nilufarshuhratovna97@gmail.com
Rabbimqulova Xumora Arslon qizi talaba

Annotatsiya: Tog‘rayxon (Orgiganum tyttanthum) o‘simligi asosan O‘rta Osiyo, Qozog‘iston, Tojikiston, O‘zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo hududlarida keng tarqalgan. Tog‘li va qoyali hududlarda yaxshi o‘sadi. Yalpizdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Tog‘rayhon tog‘ yonbag‘irlari, o‘tloqlar va o‘rmonlarda o‘sadi. Xushbo‘y, manzarali gul sifatida ham ekiladi. Tabobatda uning shoxchalari, yaprog‘i, urug‘i ishlatiladi.O‘simlikning damlama va qaynatmasi turli yaralarni tuzatishda ishlatiladi.

Kalit so‘zlar: Tog‘ rayxon (Orgiganum tyttanthum), tog‘ qora rayxoni, dorivor, damlamasi, qaynatmasi, efer moyi, oshlovchi moddalar, selen moddasi, askorbin kislata, timol, urug‘i, bargi.

Abstract: Mountain basil (Origanum tyttanthum) is a plant widely distributed in Central Asia, Kazakhstan, Tajikistan, Uzbekistan and other Central Asian countries. It grows well on mountainous and rocky terrain. It is a perennial plant belonging to the mint family. Mountain basil grows on mountain slopes, meadows and forests. It is also cultivated as a fragrant, ornamental flower. In medicine, its branches, leaves, and seeds are used as food. A decoction and infusion of the plant are harmless for various wounds.

Keywords: Mountain basil (Origanum tyttanthum), mountain black basil, medicinal, tincture, decoction, essential oil, seasonings, selenium, ascorbic acid, thymol, seeds, leaves.

Аннотация: Растение базилик горнолистный (Origanum tyttanthum) широко распространено в основном в Средней Азии, Казахстане, Таджикистане, Узбекистане и других регионах Средней Азии. Хорошо растет в горных и каменистых районах. Многолетнее растение семейства яснотковых. Базилик растет на склонах гор, лугах и в лесах. Его также выращивают как ароматный декоративный цветок. Его ветви, листья и семена используются в медицине. Настойку и отвар растения используют для заживления различных ран.

Ключевые слова: Базилик горный (Origanum tyttanthum), базилик горный черный, лекарственный, настойка, отвар, эфирное масло, приправы, селен, аскорбиновая кислота, тимол, семена, листья.

Kirish; Tog’rayxon (Origanum tyttanthum). Ko’p yillik, bo’yi 30-60, ba’zan 90 sm ga yetadigan xushbo’y o’t o’simlik. Poyasi bir nechta, tik o’suvchi yuqori qismi sershoxli, tulki va to’rt qirrali bo’ladi. Bargi oddiy, cho’ziq tuxumsimon, o’tkir uchli, tekis qirrali bo’lib, bandi bilan poyada qarama-qarshi o’rnashgan. Gullari mayda, barg qo’ltig’ida 2-3 tadan joylashib, qalqonsimon to’pgul hosil qiladi. Qalqonsimon to’pgullar poya uchida ro’vaksimon to’pgulni vujuda keltiradi. Gullari poyada yoki novdaning uchki qismida bandsiz joylashgan. Mevasi-kosachabarg bilan birlashgan to’rtta yong’oqcha. Iyun oyidan boshlab sentabrgacha gullaydi.Tabobatda uning shoxchalari, yaprog’I, urug’i ishlatiladi. Tibbiyotda tog’rayhonning yer ustki qismidan foydalaniladi. O’simlik gullaganda o’rib olinadi va soya yerda quritiladi. Quriganda so’ng bargi va gullari sindirib olinadi, poyalari esa tashlanadi.

Tog‘rayhon tog‘ yonbag‘irlari, o‘tloqlar va o‘rmonlarda o‘sadi. Bir yuz ellikka yaqin turi bor. Uni tog‘ qora rayhoni, o‘rmon yalpizi, sebinak ham deyishadi. Xushbo‘y, manzarali gul sifatida ham ekiladi. Bizda o‘simlikning bir turi va bir qancha formalari bor. Ular daryo yoqlarida, buloqlar atrofida, daraxtlar tagida, ochiq maydonlarda, adir va shimoliy tog‘ yonbag‘irlarida o‘sib dengiz sathidan 2400 m balandlikda keng tarqalgan. Bu o‘simlik juda yoqimli hidga ega, shuning uchun ham ziravor o‘simliklar qatoriga kiradi har xil konservalar tayyorlashda, bodring, karam pomidor, uzum, olma, tarvuzlarni sirkalashda hamda tuzlashda foydalanish mumkin. Undan olingan efer moyi dori darmon sifatida, tish og‘rig‘ini davolashda ham qo‘llaniladi. Tabobatda Tog‘rayhonning juda qadim zamondan beri shifobaxsh o‘simlik ekanligi kuchli ilgari surilgan. Uning yer ustki qismi gullash davrida ovqat qilish a’zolarining ish faoliyatini yaxshilash uchun ishlatiladi. Tibbiyotda undan tayyorlangan sharbatlar uyqusizlikka qarshi hamda siydik haydovchi vosita sifatida va tanadagi doriarni davolashda foydalaniladi. Undan olingan efirli moy—ila dorivor sifatida, turli o‘g‘itlarning davolashda ham ishlatiladi. O‘simlikdan vermut vinosiga, kvas va araklarga lazzat beruvchi hamda turli ichimliklar tayyorlashda foydalaniladi. Tog‘rayhonning yer ustki qismlaridan efirli moy olinadi. Bu moy xalq tabobatida hamda farmakologiyada foydalanilmoqda. F. Xandamirning ta’kidlashicha, tog‘rayhon o‘sayotgan maydonlardan gektariga 120 kg gacha hosil olinishi mumkin. Tog‘rayhon tarkibida 2,2% efirli moy, 6—8% tanin moddasi, 10% gacha qand moddalari, shuningdek, vitaminlar C va PP, provitamin A vitamin juda ko’p miqdorda mavjud.Tog‘rayhonning juda qadim zamondan beri shifobaxsh o‘simlik ekanligi kuchli ilgari surilgan. Uning yer ustki qismi gullash davrida ovqat qilish a’zolarining ish faoliyatini yaxshilash uchun ishlatiladi. Tibbiyotda undan tayyorlangan sharbatlar uyqusizlikka qarshi hamda siydik haydovchi vosita sifatida va tanadagi doriarni davolashda foydalaniladi. Undan olingan efirli moy—ila dorivor sifatida, turli o‘g‘itlarning davolashda ham ishlatiladi. O‘simlikdan vermut vinosiga, kvas va araklarga lazzat beruvchi hamda turli ichimliklar tayyorlashda foydalaniladi. Tog‘rayhonning yer ustki qismlaridan efirli moy olinadi. Bu moy xalq tabobatida hamda farmakologiyada foydalanilmoqda. F. Xandamirning ta’kidlashicha, tog‘rayhon o‘sayotgan maydonlardan gektariga 120 kg gacha hosil olinishi mumkin.

Tog‘rayhon tarkibida 2,2% efirli moy, 6—8% tanin moddasi, 10% gacha qand moddalari, shuningdek, vitaminlar C va PP, provitamin A mavjud.Tog‘rayhonning juda qadim zamondan beri shifobaxsh o‘simlik ekanligi kuchli ilgari surilgan. Uning yer ustki qismi gullash davrida ovqat qilish a’zolarining ish faoliyatini yaxshilash uchun ishlatiladi. Tibbiyotda undan tayyorlangan sharbatlar uyqusizlikka qarshi hamda siydik haydovchi vosita sifatida va tanadagi doriarni davolashda foydalaniladi. Undan olingan efirli moy—ila dorivor sifatida, turli o‘g‘itlarning davolashda ham ishlatiladi. O‘simlikdan vermut vinosiga, kvas va araklarga lazzat beruvchi hamda turli ichimliklar tayyorlashda foydalaniladi. Tog‘rayhonning yer ustki qismlaridan efirli moy olinadi. Bu moy xalq tabobatida hamda farmakologiyada foydalanilmoqda. F. Xandamirning ta’kidlashicha, tog‘rayhon o‘sayotgan maydonlardan gektariga 120 kg gacha hosil olinishi mumkin. Tog‘rayhon tarkibida 2,2% efirli moy, 6—8% tanin moddasi, 10% gacha qand

moddalari, shuningdek, vitaminlar C va PP, provitamin A mavjud. (Orgiganum tyttanthum) o‘simligining dorivorlik xususiyatlari. Tabobatda uning shoxchalari, yaprog‘i, urug‘i ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, geranil atsetat, askorbin kislota, timol, karvakral, oshlovchi moddalar, urug‘ida o‘ttiz foizgacha moy bor. Tog‘rayhonning bargi, guli, shoxchalari pazandalikda, jumladan, bodring, qo‘ziqorin, pomidor tuzlab yopishda qo‘llaniladi. Quritib maydalangan tog‘rayhon o‘simligi quruq mevalarga, guruchga, kiyimlarga sepib qo‘yilsa, zararkunandalar kelmaydi.

Tog‘rayhon damlamasi ishtahani ochadi, ovqat hazmini yaxshilaydi. Yuqori nafas yo‘llari shamollaganida, asab kasalliklarida yaxshi davodir. O‘simlikning damlama va qaynatmasi turli yaralarni tuzatishda ishlatiladi. Raxit kasaliga uchragan bolalarni cho‘miltirishda, o‘tkir va surunkali me’da ichak kasalligida, yarali qulanj, o‘tkir va surunkali yo‘tal, o‘t pufagi tosh xastaligida, safro haydovchi sifatida, qorin dam bo‘lganida foyda beradi. Tomoq og‘rig‘ida damlamasi ajoyib doridir.

Tog‘rayhondan qon bosimi oshganida susaytiruvchi, parishonxotirlik, buyrak va jigar, nafas yo‘li, o‘pka kasalliklarini davolash vositalari tayyorlanadi. Tog‘rayhon damlamasi jig‘ildon qaynashi, hiqichoq, ko‘ngil aynashini to‘xtatadi.O‘ttiz gramm tog‘rayhonni bir litr qaynagan suvga solib, ikki soat damlab qo‘ying. So‘ng ellik gramm asal qo‘shib, yaxshilab aralashtiring. Har kuni ovqatdan keyin chorak, yarim stakondan ichib tursangiz, bu moddalar almanishuvini yaxshilaydi, qon hosil bo‘lishiga ijobiy ta’sir qiladi.Tog` rayxon turlari Yasnotkadoshlar oilasiga mansub ko`p yillik o`t o`simliklar hisoblanadi. Tibbiyotda oddiy tog` rayxoni va mayda gulli tog` rayxoni yer ustki qismidan tayyorlangan xomashyosidan foydalaniladi.Mayda gulli rayxonini tarkibida efir moyi, triterpen kislotalar, kumarinlar, flavonoidlar va boshqa moddalar bor. Tog` rayxoni tarkibida efir moyi, S vitamini, triterpin kislotalar, oshlovchi va boshqa biologik faol moddalar bor.

Tog' rayhon yetishtirish agrotexnikasi. Tog'rayhon ko'p yillik o'to'simlik bo'lib, uni kuzda va erta bahorda ham ekish mumkin. Tog'rayhonni haydab ekiladigan ekinlardan keyin ekilsa yaxshi natijalargaerishish mumkin. Tog'rayhonni unumdor va nam yaxshi saqlanadigan yerlarga ekishni tavsiya qilinadi. Uni Respublikamizning barcha tuproqlarida (sho'rlangan yerlardan tashqari) ekib o'stirish imkoniyatlari mavjud. Tog'rayhon ekiladigan yerlarni kuzda tayyorlab, haydash oldidan gektariga 15-20 tonnadan organik o'g'it va 40-50 kg dan sof fosfor o'g'iti, yog'ingarchilik yetarli bo'lmaydigan va sizot suvlari chuqur joylashgan yerlar 25-28 sm chuqurlikda sifatli qilib haydab qo'yiladi. Natijada tuproq tarkibida nam ko'proq saqlanadi. Shudgorlash begona o'tlar, zararkunanda va kasalliklarni kamaytiradi. Erta bahorda urug'larni ekishdan oldin yerlar borona va mola mexanizmlari bilan tekislanadi. Begona o'tlar ildizidan tozalanadi. Tuproq harorati+ 20-+22°S ga yetganda mart oyining oxirlarida urug'lar yer yuzasidan 0,5-1 sm chuqurlikda (urug' mayda bo'lganligi uchun qumga aralashtirib ekiladi) ekiladi va yer usti yengil g'altaklar bilan bir oz zichlashtiriladi. O'rtacha gektariga 5 kg gacha urug' sarflanadi. Tog'rayhonni parvarish qilish urug'lar unib chiqqandan keyin boshlanadi. Urug'lar unib chiqqunga qadar tuproq yuzasini nam holatda saqlansa urug'lar 10-12 kunda unib chiqadi. Tog'rayhonning nihollari unib chiqqandan so'ng, paykallar o'toq va yagana qilinib, qator oralari 60 sm, o'simliklar oralari 15-20 sm dan qilib har bir uyaga birikkitadan o'simlik qoldiriladi. Qator oralaridagi begona o'tlar doimo tozalanib, yerlar kul`tivatsiya yoki qo'lda yumshatilib turilishi lozim. Tog'rayhon mineral va organik o'g'itlarga talabchan hisoblanadi. Mineral o'g'itlardan, ayniqsa, azotli o'g'itlarning ta'siri ancha kuchli bo'ladi. Shularni e'tiborga olib, birinchi oziqlantirishni nihollar unib chiqqandan so'ng gektar hisobiga 25 kg azot va fosfor o'g'iti bilan70 oziqlantiriladi. Tog'rayhon shonalash davrida fosforli va kaliyli o'g'itlarga ancha talabchan bo'lganligi uchun ikkinchi oziqlantirishda 30 kg azot, 20 kg kaliy o'g'iti bilan oziqlantiriladi. Bu agrotexnik tadbir sug'orishdan oldin amalga oshiriladi. O'simlik bu davrga kelib shoxlab ketishi natijasida oralariga mexanizmlar yordamida ishlov berish ancha qiyinlashadi. Tog'rayhon gullash fazasida oziqa elementlarni ko'proq talab qiladi. Shularni e'tiborga olib gektariga 20 kg azot va kaliy o'g'iti berib oziqlantirishn tugatiladi. Tog'rayhon o'simligini birinchi yili 9-10 martagacha, keyingi yillarda yog'ingarchilik va haroratni hisobga

olgan holda 7-8 marta sug'oriladi. Tog'rayhonni ko'chatlar orqali ham ko'paytirish mumkin. O'simlik ommaviy gullagan davrda iyun` oyining oxiri va iyulning boshlarida yer ustki o't qismi (dorivor hosili) 20 sm uzunlikda o'roq, bog' qaychilari va katta maydonlarda ekilgan bo'lsa, o'rish agregatlarida extiyotlik bilan yig'ib olinadi.

Xulosa. To‘grayhon o‘simligi xalq tabobatida qadimdan foydalanib kelinayotgan, dorivor xususiyatlari bilan mashhur o‘simliklardan biridir hisoblanadi. U organizmga ko‘plab foydali ta’sir ko‘rsatadi – yallig‘lanishga qarshi, tinchlantiruvchi, antibakterial, immunitetni oshiruvchi va ovqat hazm qilishga yordam beruvchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bugungi kunda to‘grayhon o‘simligini yanada chuqur o‘rganish, uning dorivor shakllarini sanoat miqyosida ishlab chiqarish va zamonaviy tibbiyotga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://xalq-tabobati.uz/uy/2092/tabobat-dorixonasi/tograyxonning-siz-bilmagan-foydalari/
2. https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/download/3252/3118/3071
3. X.Xolmatov. O‘.A. Ahmedov “Farmakognoziya” 1 qism Toshkent-2008 .
4. К.Х.Хайдаров К.Х.Хожиматов “Узбекистон Усимликлари” Toshkent-1976
5. **Э.Т. Ахмедов, Э.Т. Бердиев “Доривор ўсимликларни етиштириш технологияси” Toshkent-2017**

BIOLOGIYADA TALABALARNING ILMIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Bozorova Umida Baxtiyorovna
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali
umidabozorova27@gmail.com
Ibodullayeva Bahora Xamidullayevna, Turniyozova Nargiza Rahmatovna
O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti
O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti Biologiya kefedrasi o'qituvchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada biologiyada talabalarning ilmiy fikrlashini rivojlantirish metodikasi o‘rganiladi. Dars jarayonida qanday pedagogik usullar va texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalarni ilmiy fikrlashga rag‘batlantirish mumkinligi, shuningdek, bu jarayonda o‘qituvchining roli, metodik yondashuvlar va talabalarning faolligini oshirishdagi samarali usullar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Biologiya o‘qitish metodikasi,Ilmiy fikrlashni rivojlantirish, Pedagogik yondashuvlar,Muammoli o‘qitish,Loyiha asosida o‘rganish,Eksperiment asosida tadqiqot

Kirish. Ilmiy fikrlash, zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning tafakkurini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Biologiya fani esa tabiat va hayotning turli jarayonlarini tushunishga yordam beradigan, ilmiy metod va tahlilga asoslangan fan sifatida talabalarda mantiqiy, tizimli va ilmiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Biologiya o‘qitish jarayonida ilmiy fikrlashni rivojlantirish, o‘quvchilarda keng ko‘lamli ilmiy savodxonlikni shakllantirish, dunyoqarashni kengaytirish va amaliy bilimlarni oshirishga imkon yaratadi.Ilmiy fikrlashni rivojlantirish, faqat ma'lumotni yodlash yoki o‘rganish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon talabalarga murakkab biologik jarayonlarni tahlil qilish, ilmiy savollarni berish, eksperimentlar o‘tkazish, natijalarni baholash va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish kabi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi. Biologiya o‘qitish metodikasida ilmiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar, o‘quvchilarni tadqiqot olib borish va yangi bilimlarni kashf etishga undaydi. Bu esa ularning mantiqiy tafakkurini, tahlil qilish va sintetik fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Biologiya fanlarida talabalarni ilmiy fikrlashini rivojlantirish uchun biologiya o‘qitish metodikasi va ilmiy fikrlashni rivojlantirishga oid mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilish talab etiladi. Bu jarayonda biologiyada ilmiy tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar va pedagogik yondashuvlar o‘rganiladi. Tahlil qilingan materiallar, o‘qitish jarayonida talabalarni ilmiy fikrlashga yo‘naltirishning samarali metodlari va

metodologik yondashuvlarni aniqlashga yordam berdi.Tadqiqotda eksperiment asosida talabalarning ilmiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan darslar va metodlar sinovdan o‘tkazish talab etiladi. Eksperimentda talabalarga biologiya fanidan ilmiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlar, masalan, muammoli o‘qitish, guruhli ishlar va loyihalar asosida o‘rganish kabi metodlar joriy etsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Sinov darslarining natijalari talabalarning fikrlash qobiliyatidagi o‘zgarishlarni aniqlash imkonini berdi.Tadqiqot davomida biologiya darslarida talabalarning faoliyati kuzatildi. Kuzatuvlar orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi, ilmiy fikrlash qobiliyatlari, savollarni tahlil qilish va muammolarni yechish qobiliyati baholandi. Bu usul talabalarning darsdagi faolligini va ilmiy yondashuvni qanday qabul qilishini aniqlashga yordam berdi.Tadqiqot jarayonida talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida anketalar va intervyular o‘tkazish ham mumkin.Bu metod orqali ilmiy fikrlashni rivojlantirishda qo‘llanilgan metodlar va pedagogik texnikalarga bo‘lgan munosabatlar o‘rganiladi. Talabalarning o‘z fikrlashini qanchalik samarali rivojlantirishganligi haqida fikr-mulohazalari yig‘iladi.Bu metodologiya biologiya o‘qitishda ilmiy fikrlashni rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlar va usullarni aniq tushuntirib, tadqiqotning ilmiy asoslarini taqdim etadi. Metodlar yordamida talabalarning fikrlash qobiliyatlari, o‘quv jarayonidagi o‘zgarishlar va metodik yondashuvlarning samaradorligi baholandi.

Tadqiqot natijalari va muhokamalari. Tadqiqot davomida o‘tkazilgan eksperimentlar va kuzatuvlar asosida biologiya fanida talabalarning ilmiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan metodlarning samaradorligi baholanadi. Ushbu bo‘limda tadqiqot natijalari umumlashtirilgan va ilmiy fikrlashni rivojlantirishdagi asosiy yondashuvlar muhokama qilinadi.Xususan, **muammoli o‘qitish** va **guruhli ishlar** metodlari talabalarning tahlil qilish, o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Muammoli o‘qitish metodida talabalarga tabiatshunoslikka oid murakkab savollar va vazifalar berilganida, ular mustaqil ravishda yechim izlashga undaydi va bu ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.**loyihalar asosida o‘qitish** metodlari ham samarali bo‘ladi. Talabalar, biologik jarayonlar yoki atrof-muhitdagi o‘zgarishlarni tahlil qilishda o‘zaro hamkorlikda ishlash orqali ilmiy fikrlashni yanada mustahkamlashadi. Bu metod talabalarni jamoaviy ishlashga va birgalikda qarorlar qabul qilishga yo‘naltiradi, bu esa ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.O‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan anketalar va intervyular orqali ilmiy fikrlashni rivojlantirishdagi metodlarning samaradorligi baholanadi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini bildirishganida, ularning aksariyati biologiya darslarida innovatsion va interaktiv metodlarni qo‘llash orqali o‘zlarini faolroq his qilishadi. Ko‘plab talabalar, muammoli va amaliy mashg‘ulotlar orqali darslarda ko‘proq fikr yuritish imkoniyatiga ega bo‘lishadiEksperimentlar davomida sinov darslarida qo‘llangan innovatsion metodlar, ayniqsa **muammoli o‘qitish** va **tadqiqot asosida o‘qitish** metodlari, talabalarning ilmiy fikrlashini ancha rivojlantiradi. Talabalar ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, biologik hodisalarni o‘rganish, natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarishda o‘zaro bahs-munozara qilish orqali o‘z fikrlarini aniq ifodalashga o‘rganadilar. Sinov darslari davomida talabalarning tahlil qilish, o‘zgaruvchilarni aniqlash va ilmiy xulosalar chiqarishdagi faoliyati sezilarli darajada yaxshilanadi.Tadqiqot natejasida ilmiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchining o‘rni beqiyos. O‘qituvchilar talabalarni ilmiy fikrlashga rag‘batlantirishda asosiy motivatsion omil bo‘ladi. O‘qituvchining metodik yondashuvi, darsni tashkil qilish usuli va o‘quvchilarga qo‘yilgan savollar ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil bo‘ladi. O‘qituvchilarning darsda innovatsion texnologiyalarni va metodlarni qo‘llashga intilishi talabalar uchun motivatsiya manbai bo‘ladi va ilmiy fikrlashni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Biologiya o‘qituvchilari uchun innovatsion metodlarni tatbiq etish, talabalarni faollashtirish va ularning ilmiy fikrlash qobiliyatini oshirishda samarali bo‘lishi mumkin. Shuningdek, talabalarning ilmiy fikrlashni rivojlantirishda metodlarning turlicha bo‘lishi, har bir talabaning individual ehtiyojlariga mos kelishini ta'minlashga yordam beradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati
1.J.O.Tolipova Biologiyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar. Toshkent - 2011
2. J.O.Tolipova,A.T.G‘ofurov Biologiya o‘qitish metodikasi .Toshkent 2004

XALQ TABOBATIDA ISHLATILADIGAN DORIVOR QOQIO'TNING XUSISIYATLARI

Abduhakimova Gavhar Shokirjon qizi
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali biologiya yo’nalishi 2- bosqich talabasi
Bozorova Umida Baxtiyorovna asissent
umidabozorova27@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada qoqio‘t o‘simligining kimyoviy tarkibi, dorivorlik xususiyatlari va xalq tabobatida qo‘llanilishi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Qoqio‘tning ildizi va barglarida uchraydigan alkaloidlar, fenolik birikmalar, vitaminlar va minerallar uning shifobaxsh ta’sirini ta’minlaydi. O‘simlik oshqozon-ichak tizimi, jigar, yurak-qon aylanishi faoliyatini yaxshilash, immunitetni mustahkamlash hamda antioksidant va yallig‘lanishga qarshi ta’siri bilan ajralib turadi. Maqolada, shuningdek, qoqio‘tni xalq tabobatida qaynatma, damlama va xom holatda ishlatish usullari, uni to‘g‘ri yig‘ish, quritish va saqlash qoidalari ham yoritilgan. Ushbu maqola qoqio‘tning tabiiy davo vositasi sifatidagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Xalq tabobati , Dorivor qoqio't, Taraxacum officinale, Dorivorlik xususiyatlari,Ildiz.

Kirish.Dorivor Qoqio't (Taraxacum officinale) – bu xalq tabobatida keng qo'llaniladigan o'simliklardan biridir. Uning dorivor xususiyatlari asosan ildizi va barglarida to'plangan faol moddalar bilan bog'liq. Qoqio'tning tarkibida alkaloidlar, fenolik birikmalar, fitokimyoviy moddalar va vitaminlar mavjud bo'lib, ular inson organizmiga turli foydali ta'sirlar ko'rsatadi. Qoqio't, asosan, oshqozon-ichak tizimi, jigar, yurak va nerv tizimi faoliyatini yaxshilashda qo'llaniladi. Uning ildizi hazm qilish jarayonini yengillashtiradi, jigar faoliyatini rag'batlantiradi va siydik ajratishni oshiradi. Shuningdek, u qon aylanishini yaxshilash va organizmni tozalashda ham yordam beradi.Xalq tabobatida qoqio'tning foydalari ko'p jihatdan uning antioksidant, antiinflamator, antibakterial va immunostimulyator xususiyatlaridan kelib chiqqan. O'simlikning barglari va ildizlari turli yallig'lanishlarga qarshi kurashishda, shuningdek, og'riqni kamaytirish va organizmni kuchaytirishda samarali bo'ladi. Tadqiqotlar, shuningdek, qoqio'tning qan bosimini pasaytirish, xolesterin darajasini normallashtirish va diabetga qarshi kurashishda ham foydali ekanligini ko'rsatmoqda.Mazkur annotatsiya orqali, qoqio'tning xalq tabobatidagi o'rni va uning dorivor xususiyatlari haqida umumiy ma'lumot berish maqsad qilingan. O'simlikning dorivor xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganish, uning turli kasalliklarni davolashdagi samaradorligini yaxshilashga yordam beradi.Xalq tabobatida turli o'simliklar va ularning tarkibidagi faol moddalar keng qo'llaniladi. Dorivor Qoqio't (Taraxacum officinale) – bu tabiatning inson salomatligi uchun foydali bo'lgan ko'plab o'simliklaridan biridir. Uning ildizi va barglari odam organizmiga turli xil foydali ta'sirlar ko'rsatadi. Qoqio'tning dorivorlik xususiyatlari xalq tabobatida qadimdan ma'lum bo'lib, u ko'plab kasalliklarni davolashda qo'llanilgan.

Asosiy qism.Qoqio'tning tarkibi va faol moddalari.Qoqio't o'simligi alkaloidlar, fenolik birikmalar, vitaminlar va minerallar kabi bir qator foydali moddalarni o'z ichiga oladi. Uning ildizi va barglarida to'plangan bu moddalar turli kasalliklarni davolashda samarali hisoblanadi. Qoqio'tning tarkibida quyidagi faol moddalar mavjud:

Alkaloidlar: Qoqio'tning alkaloidlar tarkibi nerv tizimi faoliyatini yaxshilashda yordam beradi. Ular og'riqni kamaytirish va stressni yengillashtirishda foydalidir.

Fenolik birikmalar: Bu moddalar antioksidant xususiyatlarga ega bo'lib, organizmni erkin radikallardan tozalashga yordam beradi. Shuningdek, ular yallig'lanishga qarshi samarali kurashadi.

Vitaminlar va minerallar: Qoqio'tda vitamin A, C, K, va B guruhi vitaminlari hamda kaltsiy, temir va magniy kabi minerallar mavjud bo'lib, ular organizmning umumiy sog'lig'ini qo'llab-quvvatlaydi.

Qoqio'tning dorivorlik xususiyatlari.**Oshqozon-ichak tizimi faoliyatini yaxshilash** Qoqio't ildizi hazm qilish tizimini qo'llab-quvvatlaydi. Uning tarkibidagi moddalarning oshqozonning ish faoliyatini yaxshilash, ovqatni hazm qilishni osonlashtirish, gazlarni chiqarish va ich qotishidan qutulishdagi roli muhimdir. Shu bilan birga, qoqio'tning ichaklarni tozalashda va oshqozon shishlarini bartaraf etishda ham samaradorligi yuqori.

Jigar faoliyatini yaxshilash Qoqio't jigarni tozalash va uning faoliyatini yaxshilashda juda foydalidir. U jigarni detoksifikatsiya qilish, toksinlarni chiqarish va zararlı moddalarni organizmdan chiqarishda yordam beradi. Qoqio'tning jigarni mustahkamlovchi xususiyatlari uni eng ko'p ishlatiladigan dorivor o'simliklardan biriga aylantirgan.

Yurak va qon aylanishi Qoqio'tning dorivorlik xususiyatlari yurak va qon aylanishini yaxshilashga yordam beradi. U qon bosimini pasaytiradi va qon aylanishini normallashtiradi. Shuningdek, qoqio'tning qon tomirlarini kengaytirish va qon oqimini yaxshilashda ham foydasi bor. Bu o'simlik xolesterin darajasini kamaytirishda va yurak-qon tomir kasalliklari xavfini pasaytirishda samarali hisoblanadi.

Immunitetni kuchaytirish Qoqio'tning immunostimulyator ta'siri mavjud bo'lib, bu organizmning kasalliklarga qarshi turishini kuchaytiradi. Uning tarkibidagi fitokimyoviy moddalar, ayniqsa, infeksiyalar va yallig'lanishlarga qarshi kurashishda yordam beradi.

Diabetga qarshi ta'sir Tadqiqotlar qoqio'tning insulin sezgirligini oshirish va qon shakarini normallashtirishda yordam berishini ko'rsatmoqda. U diabetga qarshi kurashishda samarali bo'lishi mumkin.

Antioksidant va yallig'lanishga qarshi ta'sir Qoqio'tning tarkibida mavjud bo'lgan fenolik birikmalar va flavonoidlar kuchli antioksidant xususiyatlarga ega. Ular erkin radikallarga qarshi kurashadi va organizmni yallig'lanishdan himoya qiladi. Bu o'simlik, ayniqsa, yallig'lanish bilan bog'liq kasalliklarda (masalan, artrit yoki ichak yallig'lanishi) foydali bo'lishi mumkin.

Xalq tabobatida qo'llanishi.Xalq tabobatida qoqio't asosan quyidagi usullar bilan qo'llaniladi:

Ildizni qaynatish: Qoqio't ildizidan tayyorlangan choy oshqozon va ichak tizimini yaxshilashda, shuningdek, jigarni tozalashda ishlatiladi.

Qoqio'tdan damlamalar: O'simlikdan olingan damlamalar, asosan, yurak va qon tomir tizimi kasalliklarini davolashda foydalaniladi.

Barglarini iste'mol qilish: Qoqio'tning barglari yuqori qon bosimini pasaytirish va yallig'lanishlarni kamaytirishda foydali bo'ladi.

Yig‘ish, quritish va saqlash. Qoqio‘t gullash davrida — iyun oyi oxiri va iyul oyining boshida poyasining yuqori qismi bilan kesib olinadi. Gullari va barglari soyali, havo o‘tadigan joyda 35–40°C da quritiladi. Quritilgan xomashyo matoli qoplarda, salqin va quruq xonada saqlanadi. Saqlash muddati – 1 yildan oshmasligi kerak.

Xulosa. Qoqio‘t o‘simligi o‘zining boy kimyoviy tarkibi va ko‘p qirrali dorivorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Undagi alkaloidlar, fenolik birikmalar, vitaminlar va minerallar inson organizmi uchun muhim biologik faol moddalardir. Qoqio‘t oshqozon-ichak, jigar, yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilashda, immunitetni kuchaytirishda va yallig‘lanishga qarshi kurashishda samarali vosita sifatida xalq tabobatida keng qo‘llaniladi. Shuningdek, uning diabetga qarshi ta’siri va antioksidant xususiyatlari zamonaviy fitoterapiya uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘simlikni to‘g‘ri yig‘ish, quritish va saqlash usullariga rioya qilish uning shifobaxsh xususiyatlarini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, qoqio‘t xalq tabobati va tabiiy davo vositalariga qiziquvchilar uchun qimmatli o‘simlik hisoblanadi. Qoqio'tning dorivorlik xususiyatlari uning xalq tabobatidagi o'rnini mustahkamlaydi va uni turli kasalliklarni davolashda qo'llashni samarali qiladi. Shu bilan birga, qoqio'tdan foydalanishda ehtiyotkorlik zarur, chunki ba'zi holatlarda uning haddan tashqari iste'moli salbiy ta'sirlar ko'rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **Kamilov, A. & Ismailov, S. (2016).** "Qoqio't (Cichorium intybus) va uning tibbiyotdagi qo'llanilishi." *O'zbekiston Tibbiyot Jurnali*, 1(7), 78-83.
2. **Mullajonov, R. (2018).** "Tabobatdagi dorivor o'simliklar: Xalq tabobatida qoqio'tning roli." *Sog'lik va tabobat*, 4(2), 112-118.
3. **Zayniddinov, I., & Murodov, S. (2019).** "Dorivor o'simliklarning xususiyatlari va ularning salomatlikka ta'siri." *O'simliklar va tibbiyot*, 3(1), 34-40.
4. **Alimov, T., & Yusupov, K. (2021).** "Cichorium intybus: Antiinflamator va antioksidant xususiyatlari." *Bioximia va tabobat*, 8(6), 56-61.
5. **Karimov, J. (2015).** "Qoqio't va uning xalq tabobatida ishlatilishi." *Xalq tabobati ilmi*, 2(5), 23-30.

PISA TADQIQOTLARIDA KOGNITIV DARAJALARI VA TA'LIM TIZIMIDAGI ROLI

Bozorova Umida Baxtiyorovna, P.I.Yorqulova
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi asissenti
umidabozorova27@gmail.com
Yorqulova Parizoda Ikrom qizi, talaba

Annotasiya: Maqolada PISA testlarining ta'lim tizimidagi o'rni va uning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga qaratilgan ta'siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, PISA testlarining kognitiv darajalari o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qanday yordam berishi haqida ilmiy fikrlar ifodalangan. Bu maqola, ta'lim siyosatini shakllantirishda PISA natijalaridan foydalanishning muhimligini va ta'lim tizimlarining global miqyosda samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. PISA dasturi test va topshiriqlarining qiyinlik darajasi (kognitiv daraja) bo‘yicha ma’lumotlar va PISA topshiriqlaridan namunalar berilgan.

Kalit so‘zlar: PISA, kognitiv darajalar, ta'lim tizimi, o'quvchilarning ko'nikmalari, ta'lim sifatini baholash, analitik fikrlash, ta'lim samaradorligi.

Kirish. Dunyo bo'ylab ta'lim tizimlarining samaradorligini baholash va yaxshilash uchun bir nechta xalqaro baholash tizimlari mavjud. Ular orasida PISA (Program for International Student Assessment) testi eng muhim va keng tarqalgan tizimlardan biridir. PISA testi 15 yoshli o'quvchilarning bilim darajalarini, muammolarni hal qilish qobiliyatini, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini baholashga mo'ljallangan. Ushbu baholash tizimi ta'lim tizimlarining global miqyosda o'zaro taqqoslanishini ta'minlaydi, shu bilan birga o'quvchilarning o'qish, matematika va ilmiy savodxonlik darajasini o'lchash imkonini beradi.PISA testlarining kognitiv darajalari ta'lim tizimlarining samaradorligini baholashda muhim rol o'ynaydi. Kognitiv darajalar o'quvchilarning bilimi va ko'nikmalarini o'lchashdan tashqari, ularning o'quv jarayonidagi faoliyatini, mantiqiy tahlil qilish, muammolarni hal qilish va yangi vaziyatlarga moslashish qobiliyatini ham baholaydi. Bu baholash tizimi orqali o'quvchilarning o'qish va o'rganish jarayonida qanday muammolarni engishga harakat qilishi, qanday tahliliy yondashuvlarni qo'llashlari, shuningdek, ularning yuksak darajadagi intellektual rivojlanishini o'lchash mumkin bo'ladi.PISA testlari ta'lim tizimining ta'sirini o'rganish va xalqaro ta'lim siyosatini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Bu testlar ta'lim siyosatidagi o'zgarishlarni kuzatish, yangi pedagogik usullarni joriy etish va o'quvchilarning bilim darajasini yaxshilashda yordam beradi. Bundan tashqari, PISA testlari orqali mamlakatlarning ta'lim tizimlari o'rtasidagi farqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning asosiy maqsadi PISA testlarida kognitiv darajalar asosida tuzilgan topshiriqlarning ta'lim tizimida qanday ahamiyatga ega ekanligini o'rganishga qaratilgan. Ushbu tadqiqot PISA testlarining kognitiv darajalari asosida tuzilgan topshiriqlarni yaratish va ularni ta'lim jarayonida qo'llashda qanday samarali yondashuvlarni tanlashni,

o'quvchilarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlashga yordam beradi. Ma'lumotlar tahlili va sifatli tadqiqotlar natijalari PISA topshiriqlarining ta'lim tizimlarida qanday qo'llanilishini va kognitiv darajalarga mos topshiriqlarni yaratishning samaradorligini aniqlashga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari va muhokamalari. Tadqiqotning natijalari, PISA testlarining kognitiv darajalar asosida tuzilgan topshiriqlarning ta'lim tizimlarida qanday samarali ishlatilishi kerakligi haqida muhim xulosalarga olib keladi. Kognitiv darajalar o'quvchilarning fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beruvchi muhim vositadir. Quyi daraja topshiriqlari o'quvchilarga oddiy bilimlarni yodlashni va osongina ishlatishni o'rgatadi, o'rta daraja topshiriqlari amaliy bilimlarni qo'llashni rivojlantiradi, yuqori daraja topshiriqlari esa analitik va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Bu holat, o'z navbatida, ta'lim tizimlarining global miqyosda samaradorligini oshirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kognitiv darajalarga mos topshiriqlarni qo'llash o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini yanada chuqurlashtiradi va ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Topshiriqning kognitiv darajasi – bu topshiriqni bajarish uchun talab etiladigan aqliy jarayonlar, topshiriqning intellektual jihatdan qiyinligi, ya’ni talab qilinadigan fikrlash jarayonining murakkabligi va topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikmalar ko‘lami. Topshiriqlar quyidagi kognitiv darajalardan biriga ega bo‘ladi:

quyi daraja (bir bosqichli amallarni bajarish, masalan, dalil, atama, qonuniyat va tushunchani yodga olish, jadval yoki grafikdan so‘ralgan ma’lumot ifodalangan nuqtani topish);

o‘rta daraja (hodisalarni tavsiflash va tushuntirishda tegishli bilimlardan foydalana olish va qo‘llay olish, ikki yoki undan ortiq bosqichli faoliyatni talab qiladigan tegishli amallarni tanlay olish, grafiklar yoki jadvallar ko‘rinishidagi oddiy ma’lumotlar to‘plamini talqin qila olish yoki qo‘llay olish);

yuqori daraja (murakkab ma’lumotlarni tahlil qilish, dalillarni umumlashtirish yoki baholash, asoslash, axborotning turli manbalaridan foydalangan holda muammoni hal qilish rejasini tuzish yoki amallar ketma-ketligini belgilash).

Kognitiv daraja o’quvchilarning yoshidan kelib chiqib holda topshiriqlarni tuzish amalga oshiriladi. Ya’ni soddadan murakkabga tomon ketadigan jarayon. Biz biror bir o’quvchining yoshiga mos bo’lmagan savollarni tuzsak, bu koginitiv darajaga asosan tuzilmagan bo’ladi. Albatta, yuqori darajada murakkab topshiriqlar o’rin olgan, quyi darajada esa nisbatan oson topshiriqlar tuzilgan bo’ladi.

1-topshiriq.

Islomjon bozordan o‘zining issiqxonasiga pamidor ko‘chati olish uchun bordi. Bozor sotuvchisi Islomjonga o‘simlik ko‘chatini tanlash bo‘yicha maslahat berib, unga bir necha savollar berdi.

Savol: Sotuvchi tomonidan berilgan savollarning qaysi biri o‘simlikning o‘sish sharoitiga tegishli? Barcha to‘g‘ri javoblarni belgilang.

A) Issiqxonaning temperaturasi nechchiga teng?

B) Suv bilan sug‘orish texnologiyasi qanday tashkil etilgan?
C) Issiqxonada nechta eshik bor?
D) Tuproqning unumdorligi qanday?
E) Issiqxonada deraza bormi?
F) Issiqxona uyingizga yaqinmi?
Murakkablik darajasi : quyi
2-topshiriq.
Islomjon pamidor ko‘chatini oqma suv orqali sug‘orishni hohladi. Lekin bobosi uni to‘xtatib, ko‘chatni tomchilab sug‘orish kerakligini aytdi.
Savol: Nima uchun o‘simlikni tomchilab sug‘orish kerak?
A) Suvni tejash
B) O‘sishning yaxshilanishi
C) O‘simlikni ortiqcha suv bilan yuvishdan saqlanish
D) Begona o‘tlarning tarqalishini kamaytirish uchun
E) Sahrodan (yer yuzasidan) bug‘lanishning kamayishi
F) Kasalliklarning kamayishi
G) Tuproqning unumdorligini saqlash
Murakkablik darajasi :o’rta
3-topshiriq
Islomjon issiqxonaga pamidor ko‘chatini qay usulda ekish bo‘yicha tajriba o‘tkazishga qaror qabul qildi. Issiqxonaning bir chekkasiga pamidor ko‘chatini oddiy usulda, ikkinchi tarafga esa pamidor ko‘chatini temir ustunga bo‘g‘lab ya'ni vertikal usulda ekdi. Har ikki o‘simlik ham bir xil sug‘orildi va bir xil issiqlik bilan ta’minlandi, bir parvarish qilindi. Bir necha vaqt o‘tganidan keyin Islomjonning ekkan ko‘chatlari hosilga kira boshladi. Faqat, birinchi ko‘chatning hosili kam va mayda, ikkinchi ko‘chatning hosili ko‘p va katta-katta bo‘lib yetishdi. Islomjon bunga sabab oddiy ekish usulida ko‘chatning yerga yaqinligi sabab sug‘orish jarayonida barg va ustki qismlarining nam bo‘lib o‘simlikda turli xil kasalliklarni rivojlanishiga sharoit yaratganida deb bildi. U o‘z taxminini sinab ko‘rishga qaror qildi.
Savol: Ko‘chatning sug‘orish jarayonida barg va ustki qismining nam bo‘lganligi o‘simlikda kasallik rivojlanishiga sharoit yaratdi, degan taxminni tekshirish usulini taklif qiling .
Murakkablik darajasi :yuqori

Xulosa qilib aytganda PISA kognitiv darajalari ta'lim tizimining samaradorligini baholashga xizmat qilishi bilan birga, o'qitish metodikalarini rivojlantirish, yangi pedagogik yondoshuvlar va strategiyalarni ishlab chiqishga turtki bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, global ta'lim tizimlarining yanada yuqori darajada rivojlanishiga yordam beradi. PISA tadqiqotlari nafaqat o‘quvchilarning kognitiv darajalarini o‘lchashga xizmat qiladi, balki ta'lim tizimlarining samaradorligini baholash, rivojlantirish va global ta'lim standartlarini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.
2. Ismailov A.A., Tog‘ayev G.O., Akbarova S., Asqarova D. “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash" qo‘llanma. – Sharq, Toshkent, 2019.
3. Ruziqulova N.A, Bozorova U.B. Biologiya fanidan PISA testlari va topshiriqlari. Maktab o‘qituvchilari uchun uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023.

PISA SINOVLARI VA ULARNING TA`LIM TIZIMLARIGA TASIRI.

Bozorova Umida Baxtiyorovna, Z.K.Narzullayev, B.S.Shernazarov
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi asissenti
umidabozorova27@gmail.com
Narzullayev Zayniddin Kamoliddin o`g`li, Shernazarov Behruz Sayyod o’g’li, talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada PISA sinovlarining maqsadlari, metodologiyasi va ularning ta'lim tizimlariga ta'siri haqida batafsil ma'lumot beriladi. PISA sinovlarining davlatlarda olib borilgan ta'lim siyosatiga, tuzilgan va yangilangan o'quv dasturlariga va o'qituvchilarning bilimi va malakasiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, PISA natijalari asosida ta'lim tizimlaridagi barcha kamchiliklar va ularni to`g`ilash yo'llari haqida muhokama qilinadi. Maqolada, ta'lim tizimlarining dunyo miqyosida qanday o'zgarishlarga olib kelganini va PISA sinovlari orqali o'quvchilarning olgan bilim va erishayotgan yutuqlarini oshirish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilishini ko'rsatadi.

**Kalit so`zlar:** pisa sinovlari, ta`lim tizimi, metodologiya, islohotlar, ta`lim tizimiga ta`siri.

Kirish. O‘quvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi talim sifatini darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o‘quv yili davomida har bir ta’lim muassasasida ichki va tashqi monitoring o‘tkazib boriladi. Uning natejasiga ko‘ra eng namunali maktablar ketma-ketligi, o‘quvchilar salohiyati va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi. Bu jarayon talim taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo‘lishi uchun Xalq talimi vazirligi va Respublika ta’lim sifatini nazorat qilish davlat enspeksiyasi tashabbusi bilan umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari bilimini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi.Yani o‘quvchilar bilimini xalqaro talablarga yetkazish, unga mosligini o‘rganib borish maqsadida PISA (Programme for International Student Assesment), TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) kabi baholash dasturlarini keng qo‘llash rejalashtirildi.

PISA (Program for International Student Assessment) sinovlari 15 yoshli o'quvchda o`tkaziladi. Pisa sinovlari o`quvchilarning bilim ko`nikma va malakalarini hayotda qo`llay olishini baholaydi. Pisa sinovlari aniq va tabiiy fanlardan o`tkaziladi. Pisa sinovlari o`quvchilarning ilmiy bilim, matematika va o'qish ko'nikmalarini baholash uchun o‘tkaziladi. Pisa xalqaro tadqiqotlari dunyoning ko`plab davlatlarida ta`lim tiziming samaradorligini o`lchash va dunyodagi reytingini baholashda muhim vosita sifatida qaraladi. Pisadan olingan natijalar o`quvchilarning ta`limda olgan bilim va ko`nikmalarni qanday rivojlanganligini va dunyo davlatlarining ta`lim tizimlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. PISA sinovlari natijalari ko‘plab davlatlar uchun ta'lim siyosatini qayta ko‘rib chiqish va yangilashga turtki beradi. Misol uchun, yuqori natijalar ko‘rsatayotgan davlatlar o‘z ta'lim tizimlarining muvaffaqiyatli qismlarini kengaytirishga harakat qilishadi, kamroq muvaffaqiyatga erishgan davlatlar esa o‘z tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan yangilanishlar kiritadilar.Singapur va Finlyandiya kabi davlatlar PISA sinovlarida yuqori natijalar ko‘rsatgan. Bu davlatlar o‘z ta'lim tizimlarini sinovlar natijalari asosida mustahkamlash va jahon ta'limi bo‘yicha strategiyalarini ishlab chiqishda foydali natijalar olishgan. Aksincha, past natijalar ko‘rsatgan davlatlar o‘z ta'lim tizimlarida islohotlar qilishga majbur bo‘lganlar

PISA hech qanday o‘quv dasturini belgilamaydi yoki targ‘ib qilmaydi, yoki umumiy e’tirof etishni taqozo etmaydi.Topshiriqlar tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlikni tavsiflovchi kompetensiyalarni baholashga qaratilgan hamda real hayotiy vaziyatlarga asoslangan bo‘ladi. PISA xalqaro baholash dasturi o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan munosabati va motivatsiyasi haqida qimmatli ma’lumotlar to‘playdi hamda ularning muammoni hal qila olish ko‘nikmalarini ham baholaydi. Masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal etishda o‘quvchi-yoshlarning fikr-mulohazalari va ular bergan taklif va yechimlarni baholaydi.

Tadqiqot natejalari va muhokamalari. PISA sinovlari natijalari ta'lim tizimlarining samaradorligini baholash, ta'lim siyosatini shakllantirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va innovatsion ta'lim metodlarini joriy etish kabi muhim sohalarda ta'sir ko'rsatadi. Bu natijalar

o'quvchilarning o'qish, matematika va tabbiy fanlar bo'yicha bilimlarini baholashda samarali vosita bo'lib, mamlakatlarga o'z ta'lim tizimlarini takomillashtirishga yordam beradi. PISA sinovlari orqali davlatlar ta'lim tizimlaridagi zaif tomonlarini aniqlab, ularni yaxshilash yo'lida samarali choralar ko'rishlari mumkin. PISA sinovlari o‘qituvchilar va pedagogik yondashuvlar haqida ham muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Natijalar orqali, o‘qituvchilarning malakasi va pedagogik metodlar qanday ta'lim tizimining muvaffaqiyatiga ta'sir qilishini aniqlash mumkin. Ta'lim tizimlari o‘qituvchilarning malakasini oshirishga, ularga yanada zamonaviy va samarali metodologiyalarni o‘rgatishga ko‘proq e'tibor qaratishadi. PISA natijalari Finlyandiya va Singapurda o‘qituvchilarni tayyorlashga bo‘lgan e'tiborni ko‘rsatdi. Bu davlatlar o‘qituvchilarga yuqori malakali tayyorgarlik kurslarini taqdim etadilar va ularning ta'lim metodologiyalarini doimiy ravishda yangilab boradilar.

PISA sinovlari davlatlardagi ta'lim tizimlarining tenglik darajasini o‘rganadi, ya'ni turli ijtimoiy va iqtisodiy qatlamlarga mansub o‘quvchilarning bilimlari o‘rtasidagi farqni aniqlash imkonini beradi. Natijalar ta'lim tizimining adolatli yoki noadolatli ekanligini ko‘rsatadi, ya'ni turli qatlamlar orasidagi farqlarni kamaytirish yoki kamaytirish kerakligini ko‘rsatadi.

PISA sinovlari ta'lim tizimlarining innovatsion yondashuvlarini va texnologiya integratsiyasini ham ko‘rsatadi. Natijalar davlatlarga ta'lim texnologiyalarini qanday ishlatish va o‘quvchilarga ilmiy, texnologik va raqamli ko‘nikmalarni qanday rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.Singapur va Janubiy Koreya kabi davlatlar ta'lim texnologiyalarini o‘quvchilarga innovatsion usullar orqali taqdim etishda muvaffaqiyat qozongan. Bu davlatlarda o‘quvchilar uchun onlayn platformalar, interaktiv darslar va ilmiy texnologiyalarga keng imkoniyatlar yaratish ta'lim tizimlarining muvaffaqiyatini oshirgan.

PISA sinovlari ta'lim tizimining infratuzilmasi va maktablarda mavjud bo‘lgan resurslarning ta'sirini ham ko‘rsatadi. Maktablarning materiallar va resurslar bilan ta'minlanishi, shuningdek, o‘quvchilarga taqdim etilgan qo‘shimcha yordamlar ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.Oliy resurslarga ega bo‘lgan mamlakatlar, masalan, Yaponiyada ta'lim tizimining samaradorligi yuqori bo‘lsa, kam resurslarga ega bo‘lgan davlatlarda bu samaradorlik past bo‘lishi mumkin. Maktablar o‘quvchilarga turli qo‘shimcha dasturlar, kutubxonalar va laboratoriyalarni taqdim etish orqali ularning muvaffaqiyatiga yordam beradi.

PISA sinovlarining ta'lim tizimlariga ta'siri keng qamrovli va turli yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. PISA natijalari, har bir davlatning olib borilayotgan ta'lim siyosatining samaradorligini va o`quvchilarining bilim darajalarini baholashda asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Pisa sinov natijalariga asoslanib, davlatlar o‘z ta'lim tizimlarida yutuq va kamchiliklarni isloh qiladilar. Misol uchun, yuqori natijalarga erishgan davlatlar, ta'lim tizimlarini yanada mustahkamlaydi, takomillshtiadi va yuqori standartlarga moslashtirish maqsadida yangi uslublar va pedagogik metodlarni qo‘llashadi.

Bundan tashqari, PISA sinovlari o‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik uslublar, vosita va metodlarni joriy etish, o‘quvchilarni boshqarish va o`quvchilar yoshi va o`zlashtirish darajasiga qarab o‘quv dasturlarini tuzishga yordam beradi. Sinovlar, o‘qituvchilarga nafaqat ta'limning nazariy jihatlarini, balki o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini va ularning muvaffaqiyatga erishish uchun qanday qo‘llaniladigan yondoshuvlar kerakligini tushunishga yordam beradi.

PISA va ta'lim tizimlarining islohotlari.PISA sinovlarini o`tkazib bo`lgandan so`ng Pisa barcha davlatlar ta'lim tizimlarining islohotlariga katta ta'sir ko‘rsatgan. Masalan, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yangi metodlar va usullar, ba'zi davlatlarda PISA sinovlari natijalari chiqqandan so`ng qabul qilingan. O‘qituvchilarni bilim darajasini oshirish va dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llash, shuningdek, o‘quvchilarning barcha ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan chora tadbirlar ta'lim tizimining rivojlanishiga xizmat ulkan hissa qo`shmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki,PISA sinovlarining ta'lim tizimlariga ta'siri juda keng va ko‘p qirrali. Ular ta'lim siyosatini shakllantirish, ta'lim metodologiyasini takomillashtirish,

o‘qituvchilarning malakasini oshirish, ta'limning tengligini ta'minlash, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ta'lim texnologiyalarini integratsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. PISA natijalari davlatlarga o‘z ta'lim tizimlarini baholash va ularni global miqyosda raqobatbardosh qilish imkonini beradi.

PISA sinovlari faqat o`quvchilrning bilim darajasini o`lchashga yordam beribgina qolmay, balki talim tizimini yanada rivojlanishga turki bo`ldi va zarur ma`lumotlarni taqdim etdi. PISA natijalari asosida Ta`lim tizimida o‘tkazilgan islohotlar davlatlarni ta'lim tizimlarida global miqyosda raqobatbardosh qilishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari va jamiyatdagi roli uchun mustahkam poydevor bo`lishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Biologiya fanlarini o’qitishda Pisa testlaridan foydalanish.N.Ro’ziqulova,U.Bozorova .Fan va innovatsiyalar jurnali.
2. Biologiya fanidan Pisa topshiriqlarini tuzish metodikasi.B.U.Baxtiyorovna.Fan,ta’lim va amaliyotning integratsiyasi jurnali
3.Biolgiya fanlarini o 'qitishda pisa test va topshiriqlarini qo 'llashning samaradorligi. U.B.Bozorova,N.A.Ro’ziqulova,I.S.Zoxidova.Xalqaro ta’lim ijtimoiy va gumanitar fanlar jurnali
4. Ismailov A.A., Tog‘ayev G.O., Akbarova S., Asqarova D. “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchi-larning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash" qo‘llanma. – Sharq, Toshkent, 2019.

YUQORI DARAJALI TO‘LDIRUVCHILAR ASOSIDA KOMPOZITSION MATERIALLAR OLISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Qo‘chqorova Dinora Baxron qizi,
SamDUKF 3-kurs talabasi.Kuchkorovadinora0615@gmail.com
Sottorova Shoira Abdurasulovna,
SamDUKF stajyor o`qituvchi. shoirasottorova196@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yuqori darajali to‘ldiruvchilar (nanozarrachalar, uglerod nanotubalari, grafen va boshqalar) asosida kompozitsion materiallar olishning zamonaviy usullari tahlil qilingan. Zol-gel, 3D-printer, CVD va elektrospinning kabi ilg‘or texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan kompozitsion materiallarning afzalliklari va kamchiliklari yoritilgan. Shuningdek, ularning aerokosmik, avtomobilsozlik, tibbiyot va elektronika sohalaridagi amaliy qo‘llanilishi ko‘rib chiqilgan. Maqola yangi ilmiy manbalar asosida tayyorlangan bo‘lib, sohada yuz berayotgan innovatsion o‘zgarishlarni aks ettiradi.*

Kalit so‘zlar:kompozitsion materiallar, yuqori darajali to‘ldiruvchilar, nanozarrachalar, sol-gel, 3D-printer, CVD, elektrospinning, zamonaviy texnologiyalar, materialshunoslik.

Kirish. So‘nggi yillarda kompozitsion materiallar ilm-fan va sanoatning turli sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Ular ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topgan bo‘lib, har bir komponentning eng yaxshi xususiyatlarini birlashtiradi. Yuqori darajali to‘ldiruvchilar (masalan, nanozarrachalar, uglerod nanotubalari, grafen) kompozitsion materiallarning mexanik, termal va elektr xossalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ushbu maqolada yuqori darajali to‘ldiruvchilar asosida kompozitsion materiallar olishning zamonaviy usullari, ularning afzalliklari va qo‘llanilish sohalari tahlil qilinadi.

Yuqori darajali to‘ldiruvchilar: turlari va xossalari

Yuqori darajali to‘ldiruvchilar kompozitsion materiallarning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, ular quyidagi turlarga bo‘linadi:

- Uglerod nanotubalari (CNT): yuqori mustahkamlik va elektr o‘tkazuvchanlikka ega. Uglerod nanotubalari kuchli va egiluvchan, lekin juda birlashgan. Ular suv, etanol, moy, polimer yoki epoksi qatroni kabi suyuqliklarga tarqalishi qiyin. Uglerod nanotubalari (CNT) elimlar, qoplamalar va polimerlarda, shuningdek, elektr jihozlari va elektrostatik bo'yalgan avtomobil korpus panellarida statik zaryadlarni yo'qotish uchun plastmassalarda elektr o'tkazuvchan plomba

moddalari sifatida ishlatiladi. Nanotubalarni qo'llash orqali polimerlarni harorat, qattiq kimyoviy moddalar, korroziy muhit, haddan tashqari bosim va ishqalanishga nisbatan chidamliroq qilish mumkin. Uglerodli nanotubalarning ikkita toifasi mavjud: bitta devorli nanotubalar (SWNT) va ko'p devorli nanotubalar (MWNT).

- Grafen: engil, mustahkam va yuqori elektr o‘tkazuvchanlik xossalariga ega. Grafitning qatlamlari tekisligidagi elektr o‘tkazuvchanligi metal xarakterga ega bo‘lib 10^4 $(Om \cdot sm)^{-1}$ kattalikgacha yetadi. Qatlamlarga perpendikulyar yo‘nalishdagi elektr o‘tkazuvchanligi kuchli darajada mono kristall strukturani mukammalligiga, aralashmalar borligiga va boshqa qator faktorlarga bog‘liq. Elektr o‘tkazuvchanlik anizotropiyasi kattaligi keng oraliqda tebranadi: 250 dan 10^4 $Om^{-1} \bullet sm^{-1}$ gacha
- Metall oksidlar (masalan, TiO_2, ZnO): fotokatalitik va antibakterial xossalarga ega.
- Keramika zarrachalari: issiqlikka chidamli va mustahkamlikni oshiradi.

Kompozitsion materiallar olishning zamonaviy usullari

Zol-gel usuli: Zol-gel usuli suyuq fazadagi prekursordan gel holatiga o‘tish orqali materiallar olishni nazarda tutadi. Bu usul orqali nanozarrachalar bir tekis taqsimlanadi va yuqori darajadagi bir jinslilikka erishiladi. Zol-gel texnologiyasi turli xil keramika turlarini ishlab chiqarishda ham muhim rol o'ynaydi: ular ma'lum bir kompozitsiyaning nanokristalli kukunlaridan tayyorlangan Zollarni gellash orqali tayyorlanadi. Kukunlarni ishlab chiqarish parametrlarini o'zgartirib, keramika xususiyatlarida sezilarli o'zgarishlarga erishish mumkin. Masalan, mullit qimmatbaho optik, elektron, olovga chidamli va keramik material bo'lib, u termal zarbalarga va yuqori haroratlarda, hatto oldindan eritishgacha bo'lgan haroratlarda sudralishga noyob qarshilikka ega. Alyuminiy va kremniy oksidlari va turli xil qo'shimchalarning nano kukunlaridan foydalanish mullit sintezi haroratini pasaytiradi, unga asoslangan keramika tezroq yopishqoqligioshadi kuchliroq bo'ladi.

3D-printer yordamida ishlab chiqarish: 3D-printerlar yordamida kompozitsion materiallar qatlamma-qatlam yotqizish orqali yaratiladi. Bu usul murakkab shakldagi buyumlarni ishlab chiqarishda samarali hisoblanadi. 3D bosib chiqarish texnologiyasi yordamida polimer kompozitsiyalarni individual talablar asosida yaratish imkoniyati oshmoqda. Masalan, kosmik missiyalar uchun maxsus detallar 3D bosib chiqarish orqali yaratilmoqda.

Kimyoviy bug‘larni cho`ktirish(CVD): CVD usuli orqali gaz holatidagi prekursordan qattiq holatdagi qatlamlar hosil qilinadi. Bu usul yuqori sifatli yupqa qatlamlar olishda qo‘llaniladi. Vakuumli yuqori harorat sharoitida reaksiya kamerasiga ikkitadan ortiq gazsimon yoki suyuq reaktiv bug'lari kiritiladi, bu erda yangi material hosil qilish va uni cho'ktirish uchun gofret yuzasida kimyoviy reaktsiyalar sodir bo'ladi.

Elektrospinning: Elektrospinning usuli yordamida nano o‘lchamdagi tolalar hosil qilinadi. Bu usul tibbiyot va filtratsiya sohalarida keng qo‘llaniladi. Bunday elektrospinning usuli uch qismdan iborat: birinchi qismda, polimer eritmani maxsus shpritsdan diametri 0,5 mm atrofida bo'lgan kapillyardan o'rtacha 1 ml/s hajmiy sarflanish miqdoridagi tezlik bilan siqib chiqarish orqali tola hosil qiluvchi oqimni vujudga keltiladi. Ikkinchi qismda, kapillyardan chiqayotgan tola hosil qiluvchi oqimga yuqori kuchlanishli anod toki beriladi (miqdori 0,5 - 30 kilovolt va undan boshqa diapazonda ham bo'lishi mumkin) va oqim sochib yuboriladi. Uchinchi qismda esa katod - kollektor sochilgan oqimni o'ziga tortadi va buning natijasida fazaviy ajralish ro'y beradi, ya'ni tola bo'lib shakllangan oqim katodga boradi va erituvchi esa bug'lanib ketadi. Katodda hosil bo'lgan nanotolalar yig'iladi.

Diagramma 1. Kompozitsion materiallar olishning zamonaviy usullari



Diagrammada Sol-gel, 3D-printer, CVD va Elektrospinning usullarining afzallik darajalari (1–10) ko‘rsatilgan.

Zamonaviy usullarning afzalliklari va kamchiliklari

Jadval 1. Kompozitsion materiallar olish usullarining taqqoslanishi

	Yuqori bir jinslilik, past haroratda ishlov	
	Nano tolalar, tibbiyotda keng qo‘llaniladi	

Qo‘llanilish sohalari

Yuqori darajali to‘ldiruvchilar asosida olingan kompozitsion materiallar quyidagi sohalarda keng qo‘llaniladi:

- Aerokosmik sanoat: engil va mustahkam materiallar samolyot va raketa qismlarida ishlatiladi.
- Avtomobilsozlik: yoqilg‘i samaradorligini oshirish uchun yengil kompozitlar qo‘llaniladi.
- Tibbiyot: bio mos materiallar protezlar va implantlar uchun ishlatiladi.
- Elektronika: yuqori o‘tkazuvchanlikka ega materiallar sensorlar va boshqa qurilmalarda qo‘llaniladi.

Xulosa. Yuqori darajali to‘ldiruvchilar asosida kompozitsion materiallar olishning zamonaviy usullari ilm-fan va sanoatda katta ahamiyatga ega. Ushbu usullar yordamida yuqori sifatli, mustahkam va funksional materiallar ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Kelajakda bu sohada yanada ko‘proq innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar paydo bo‘lishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедов А. А. "Материаловедение композиционных материалов", Тошкент: Фан, 2020.
2. Callister, W. D., & Rethwisch, D. G. (2020). Materials Science and Engineering: An Introduction. 10th ed. Wiley.
3. Suryanarayana, C., & Al-Aqeeli, N. (2013). Mechanically alloyed nanocomposites. Progress in Materials Science, 58(4), 383–502.
4. Hussain, F., Hojjati, M., Okamoto, M., & Gorga, R. E. (2006). Review article: Polymer-matrix nanocomposites, processing, manufacturing, and application: An overview. Journal of Composite Materials, 40(17), 1511–1575.

5. Zhang, C., et al. (2021). Recent advances in 3D printing of nanocellulose: Structure, preparation, and applications. Carbohydrate Polymers, 260, 117768.

6. Васильев, В. В., & Морозов, Е. В. (2017). Механика композиционных материалов. Москва: МАИ.

7. Li, D., & Xia, Y. (2004). Electrospinning of nanofibers: Reinventing the wheel? Advanced Materials, 16(14), 1151–1170.

8. Jang, B. Z. (2015). Advanced Polymer Composites: Principles and Applications. ASM International.

9. Петров, Ю. В. (2019). Современные методы получения нанокомпозитов. Журнал нанотехнологий, №4, с. 45–52.

10. Salih, A. M. (2022). Application of nanomaterials in aerospace composites. Materials Today: Proceedings, 62, 440–448.

TABIIY VA SINTETIK BO‘YOQLARNING AHAMIYATI.

Hamidova Feruza O‘tkir qizi[1]
SamDU KF Aniq va tabiiy fanlar fakulteti K_23_04- guruh talabasi.
Ergashov Nurbek Zokir o‘g‘li[2]
o‘qituvchi.
Gmail:hamidovaf446@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ishda tabiiy va sintetik bo‘yoqlarning ahamiyati o‘rganilgan. Bo‘yoqlar uzoq tarixga ega va kundalik hayotimizning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bo‘yoqlar sanoati tabiiy o‘simlik va hashoratlar manbalaridan foydalanish bilan boshlanadi va keyin tezda sintetik ishlab chiqarib jarayonlariga o‘tdi. Afsuski bir necha sintetik bo‘yoqlar, ayniqsa azo bo‘yoqlar zaharli va mutagen ekanligi aniqlangan va butun dunyoda ba’zi turlari taqiqlanagan. Biroq, ularning arzonligi va boshqa kerakli xususiyatlari tufayli azo bo‘yoqlardan foydalanilanish va ishlab chiqarish bugungi kunda ham davom etmoqda. Ishning maqsadi: tabiiy va sintetik bo‘yoqlarning ahamiyatini o‘rganishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Tabbiy bo‘yoqlar, Sintetik bo‘yoqlar, Ekalogiyaga tasiri, Qo‘llanish sohalari, Biologik tasri .

KIRISH

To‘qimachilikni bo‘yash uchun bo‘yoqlarni ikki asosiy guruhga ajratib o‘rganamiz: tabiiy bo‘yoqlar va sintetik bo‘yoqlarga ajratamiz. Tabiiy bo‘yoqlar faqat hayvov va o‘simliklardan olinadi. Ro‘yan o‘simligi ildizidan alizarin bo‘yog‘i olingan, juda qadim zamondan beri to‘q qizil rangni bo‘yash uchun ishlatilgan. Bundan tashqari tabiiy bo‘yoqlar o‘simlik poyalari, barglari, gullari,mevalar yoki tabiiy rudalardan olingan. Bo‘yoqlar va pigmentlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, bo‘yoqlar to‘qimachilik substrati uchun muhim, pigmentlar esa yo‘q. Bundan tashqari, bo‘yoqlar noorganik bo‘lgan pigmentlardan farqli o‘laroq, asosan organikdir. Bundan tashqari, pigmentlar qo‘llash uchun bog‘lovchiga muhtoj, ammo bo‘yoqlar uchun birlashtiruvchi kerak emas[1,2]. Sintetik bo‘yoqlar neft va ko‘mir smolasidan olinadigan bo‘lsa, tabiiy bo‘yoqlarning pigmentlari tabiatdan olinadi. Sintetik bo‘yoqlardan keng foydalanish ularning yorqin ranglari, barqaror xususiyatlari, qulay foydalanish va arzonligi bilan bog‘liq. Biroq, sintetik bo‘yoqlardan foydalanishning potentsial xavfli omillari keng tarqalgan xavotirni uyg‘otdi. Hozirgi vaqtda to‘qimachilik mahsulotlarini qayta ishlash uchun tabiiy xom ashyo va bunday bo‘yoqlardan foydalanishning ekologik jihatlariga e'tibor qaratilmoqda [3]. Hozirgi kunda tabiiy bo‘yoqlarni sintetik bo‘yoqlar siqib chiqardi shu sababli ham sintetik bo‘yoqlarning xafi ham kun sayin ortmoqda. Sintetik bo‘yoqlar bilan bo‘yalgandan so‘ng, oqava suvlar tegishli tozalash jarayonisiz dalalarga, hovuzlarga yoki daryolarga tashlanadi, bu 2011 yilda ZDHC detoks kampaniyasi tomonidan e'tiborimizga havola qilingan. Bunday ifloslangan suv odamlar bilan aloqa qilganda teri kasalliklarini keltirib chiqaradi va dengiz ekotizimiga halokatli ta'sir ko‘rsatadi. Ushbu bo‘yoqlarning ba'zilari kanserogen va allergendir, bu sintetik bo‘yoqlarning yana bir kamchiligidir

[4,5]. Koʻpgina boʻyoqlar allaqachon taqiqlangan, ammo ba'zilari hali ham sanoatda qoʻllaniladi, chunki hozirgacha inson terisi uchun xavfsiz boʻlgan alternativa mavjud emas edi. Sintetik boʻyoqlar butunlay biologik parchalanmaydi, ular ekologik buzilishlarni keltirib chiqaradi. Aksincha, tabiiy boʻyoqlardan toʻliq foydalanish ekologik toza yondashuv [6].Modda tendentsiyalarining tez-tez oʻzgarib turishi tufayli tabiiy boʻyoqlarni ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi, shuningdek, tabiiy boʻyoqlarni qoʻllash sanoatda katta e'tiborni tortmoqda [7,8]. Toʻqimachilik sanoati Hindistonning asosiy iqtisodiy qismini egallaydi, bu bir necha asrlardan beri mavjud boʻlgan eng qadimgi sanoatdir. Hatto bugungi kunda ham u qishloq xoʻjaligidan keyin ikkinchi yirik ish beruvchi boʻlib, Hindiston eksportining 11% foizini tashkil etadi. Hozirgi vaqtda taxminan 108 milliard AQSh dollariga baholangan Hindiston toʻqimachilik sanoati 2021 yilga kelib 223 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Garchi toʻqimachilik sanoati har qanday mamlakat iqtisodiyotida muhim rol oʻynasa ham, bu ekologik toʻsiqdir. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga koʻra, sanoat suvining ifloslanishining 17 ~ 20% toʻqimachilik sanoatini tozalash natijasida yuzaga keladi. Hisob-kitoblarga koʻra, toʻqimachilik sanoatida azo boʻyoqlarning 80% ga yaqini boʻyash uchun ishlatiladi, shundan taxminan 10-15% boʻyoqlar oqava suvlar orqali atrof-muhitga tola bilan bogʻlanmasdan yoʻqoladi. Rangli oqava suvlarni chiqaradigan toʻqimachilik tarkibida zaharli moddalar, jumladan reaktiv boʻyoqlar, sintetik azo boʻyoqlar va suvning ifloslanishiga, atrof-muhit muvozanatining yoʻqolishiga va pH qiymatini oʻzgartirish va suv havzasining organik noorganik kimyoviy tarkibini oʻzgartirish orqali suvning kimyoviy kislorodga boʻlgan talabi (KOD) va biologik kislorodga boʻlgan talabning (BOD) oshishiga olib keladigan boshqa koʻplab xavfli kimyoviy moddalar. Bu rangli chiqindilar yorugʻlikning kam kirishi va kislorod iste'moli tufayli suv ekotizimiga oʻtkir toksik ta'sir koʻrsatadi [4]. Har bir ekotizim bir-biriga bogʻlanganligi sababli, umumiy yaxlitlik biosfera buzilib, sogʻlikka oldindan aytib boʻlmaydigan ta'sir koʻrsatadi. Masalan, metanil sariq, azo boʻyoq, albinos kalamushlarda gepatotoksik ta'sir koʻrsatadi. Sintetik azo boʻyoqlar N=N− bogʻlanish mavjudligi uchun tabiatda intiluvchan va kanserogendir. U asosan deyarli biologik parchalanmaydigan murakkab aromatik molekulyar tuzilishdan iborat. Toʻqimachilikda qoʻllaniladigan koʻplab boʻyoqlar haqiqiy kimyosi bilan emas, balki faqat savdo nomi bilan ma'lum, bu oʻtkir toksik ta'sirni keltirib chiqaradigan asosiy sababdir, bu yerda boʻyoqlarning parchalanishiga mumkin boʻlgan yechim qabul qilinishi mumkin emas. Soʻngi yillarda butun dunyoda sintetik boyoqlar xafini kamaytirish va xarajati kam boʻlgan tabiiy boʻyoqlar ishlab chiqarishga qaratilmoqda.

Boʻyoqlarni tasniflash: Eruvchanligi boʻyicha tasniflash Oʻsimlik manbalaridan olingan tabiiy pigmentlar odatda suvda eriydigan, spirtda eriydigan va yogʻda eriydigan pigmentlarga boʻlinadi. Suvda eruvchan pigment suvda va suvli etanolda oson eriydigan, ammo mutlaq etanolda qiyin eriydigan va neft efirida erimaydigan pigmentga tegishli. Boshqa tomondan, yogʻda eriydigan pigment neft efirida, diklorometanda va boshqalarda oson eriydigan pigmentni anglatadi. Organik pigment suvda, etanolda, asetonda va boshqa erituvchilarda erimaydi. Alkogolda eriydigan pigment mutlaq etanol va aseton kabi qutbli organik erituvchilarda oson eriydi. Kimyoviy tarkibi va manbasiga koʻra tasnifi .Tabiiy boʻyoqlarni kimyoviy tarkibiga koʻra ajratish mumkin, ya'ni ular tarkibida xlorofill, karotinoidlar, flavonoidlar yoki boshqa birikmalar mavjud. An'anaga koʻra, tabiiy boʻyoqlar hayvon, oʻsimlik yoki mineral manba boʻlishi mumkin boʻlgan manbaga qarab tasniflanadi. Oldindan belgilangan miqdordagi xarakterli ranglar ildizdan yigʻilgan. Karmin qizil, hind sariq va binafsha rang - bunday ohanglarning odatiy yigʻilishi. Ular orasida Karmin qizili Cochenille oʻsimlikida yashovchi qoraqoʻtirlardan yigʻiladi.Hindiston va Xitoyda hind sariq rangining manbai tuyalar va fillarning siydigi edi.Bundan tashqari, dengiz chigʻanoqlari va kermes hasharotlari mos ravishda binafsha va qizil ranglarning manbai hisoblanadi. Bundan tashqari, ildizlar, qobiqlar, barglar, gullar va urugʻlar oʻsimlikka asoslangan tabiiy boʻyoqlarning umumiy manbaidir. Kinobar, marganes oksidi va turli xil mis tuzlari qadimgi davrlarda devor rasmlari uchun ishlatilgan boʻlib, ular birinchi mineral asosli tabiiy boʻyoqlar boʻlishi kerak.

Tabiiy bo‘yoqlarni kundalik hayotda qo‘llash

Tabiiy bo‘yoqlardan lab bo‘yog‘i bo‘yog‘i sifatida lablar go‘zalligini oshirish uchun, shuningdek, sochlarni bo‘yash uchun foydalanish mumkin. Bu og‘ir metallar kabi zararli moddalarni o‘z ichiga olgan qo‘shimchalarni almashtirishi mumkin. Terini parvarish qilish effekti tufayli ba'zi bo‘yoqlardan samaraliroq mahsulotlar ishlab chiqilishi kutilmoqda. Tabiiy bo‘yoqlar nafaqat xavfsiz va ekologik toza, lekin ayni paytda o‘ziga xos hidga ega. Ular qog‘oz sanoatida ham qo‘llanilishi mumkin. Bundan tashqari, bakteriyalar, zamburug‘lar, mog‘orlar va boshqa mikroorganizmlar tomonidan ishlab chiqarilgan pigmentlar ham aniqlangan.

XULOSA:

Muayyan tabiiy bo‘yoq uchun tegishli ekstraksiya jarayonidan foydalangan holda, qayta ishlash narxini ma'lum darajada kamaytirish mumkin. Bundan tashqari, tabiiy bo‘yoqni qo‘llash va ekstraktsiya jarayoni bilan bog‘liq kamchiliklarni bartaraf etish uchun keyingi tadqiqotlar o‘tkazilishi kerak. Nihoyat, eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tabiiy bo‘yoqlarni olish va uni qo‘llash bilan bog‘liq kamchiliklarni bartaraf etishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Broadbent AD. Basic principles of textile coloration, society of dyers and colourists. West Yorkshire. 2001.
2. V. Shenai, “Technology of textile processing. Technology of dyeing,” 1977, Volume 6.
3. Saxena S, Raja A. Natural dyes: sources, chemistry, application and sustainability issues. Roadmap to sustainable textiles and clothing: Springer; 2014. p. 37-80.
4. Rahman MM, Haque TMA, Sourav NS, Rahman S, Yesmin S, Mia R, et al. Synthesis and investigation of dyeing properties of 8-hydroxyquinoline-based azo dyes. Journal of the Iranian Chemical Society. 2021;18(4):817-826.
5. Al Mojnun Shamim SS, Mia R, Selim M, UddinBanna B. International journal of engineering sciences & research technology reuse of standing dye bath of reactive dyeing with nylon & silk. Cellulose. 2019;70(90):5-30.
6. Mia R, Islam MA, Ahmed B, Mojumdar JIA. Woolenization of Jute Fibre. European Scientific Journal. 2016; 13(30): 314-326
7. Grifoni D, Bacci L, Zipoli G, Carreras G, Baronti S, Sabatini F. Laboratory and outdoor assessment of UV protection offered by flax and hemp fabrics dyed with natural dyes. Photochemistry and Photobiology. 2009;85(1):313-20.
8. Degradation of Synthetic Azo Dyes of Textile Industry: a Sustainable Approach Using Microbial Enzymes Shrabana Sarkar1 & Aparna Banerjee[1] & Urmi Halder[1] & Raju Biswas[1] & Rajib Bandopadhyay[1] DOI 10.1007/s41101-017-0031-5

КАТАЛИЗАТОРНИНГ СТАЦИОНАР ҚАТЛАМИ ШАРОИТИДА МОНОХЛОРМЕТАННИ ПАРЧАЛАШ РЕАКЦИЯСИ БЎЙИЧА ТАДҚИҚОТЛАР.

Файзуллаев Н.И., Жавҳаров Ж.Ж.

SamDU KF

javharovjonibek844@gmail.com

Олдинги ишлардан маьлумки оралиқ бирикмаларнинг зичлашиш маҳсулотларига ва уларнинг углерод сақловчи қатламларга кейинги айланиши кимёвий реакциялар мажмуи монохлорметанни ҳавосиз жойда юқори ҳароратда қиздириш реакция маҳсулотларида водород пайдо бўлишига олиб келади[1-3]. Монохлорметаннинг каталитик ҳавосиз жойда юқори ҳароратда қиздириш жараёнида водород ҳосил бўлиши брутто-реакциясини қуйидаги кўринишда тасаввур қилиш мумкин[4-6]:

$$CH_3Cl \rightarrow C + H_2 + HCl.$$

Юқори ҳароратда ҳавосиз жойда қиздириб парчалаш реакцияси шароитида ҳосил бўлган водород монохлорметан билан метан олиниши билан ўзаро таъсирлашади[7]:

$$CH_3Cl + H_2 \rightarrow CH_4 + HCl.$$

Реакция маҳсулотларида метаннинг пайдо бўлиши углерод сақловчи қатламларнинг ҳосил бўлиши билан боғланган, улар жараённи амалга ошириш учун танланган юқори каталитик фаолликка эга бўлган ва селектив катализаторнинг дезактивланишига сабаб бўлади[8-10].

Ishsizlik zamonaviy mehnat bozorining xarakterli xususiyati va ajralmas qismidir. U mehnatga qobiliyatli yoshdagi shaxslar uchun (ularning malakalari darajasi, kasbiy imkoniyatlari va istaklariga muvofiq) ishni topish mumkin emasligi bilan izohlanadi va bundan tashqari, ishchi kuchiga talabni yetishmasligi va bir vaqtda uning taklifini oshib ketishi bilan asoslanadi. Ushbu masala bo‘yicha ilmiy asarlarning tahlili shunday xulosa qilishga imkon beradiki, ishsizlik muammosi, shu jumladan, qishloq xo‘jaligidagi ishsizlik U.Petti, A.Smit, D.Rekardo, J.B.Sey, F.Kent, P.E.Shlender[44] kabi mashhur olimlarning asarlarida o‘zining keng ifodasini topgan. Ishsizlikni salbiy ijtimoiy – iqtisodiy hodisa sifatida ta’riflab turib, ular bu hodisani vujudga keltiruvchi u yoki bu sabablarini ko‘rsatadilar. Ammo ularning asosiy fundamental tadqiqotlari aholisining ortiqcha o‘sishi va mehnat bozoridagi raqobat, ishchi kuchiga talabni o‘zgarishi, mashina ishlab chiqarilishini tadbiq etilishi va ish haqini o‘sishi, yer egalarini xonavayron bo‘lishi va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligi, kabi muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Hozirgi kunda MDH va xorij olimlari ham majburiy ish bilan band bo‘lmaslikka har xil ma’noda qaraydilar va ishsizlik xususiyatlarini turlicha izohlaydilar. Bunga nisbatan, ikkita qarama-karshi nuqtai nazar mavjud. Birinchisi shundan iboratki, ishsizlikka belgilangan doirada yo‘l qo‘yiladi va hatto ba’zi bir ma’noda ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish va mehnat samaradorligi uchun zarurdir (S.Fisher, R.Dornbush, A.Ketler). Ikkinchi nuqtai nazarga ko‘ra, ishsizlik salbiy ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Shuning uchun uning darajasi va davomiyligini, xususan, davlat tomonidan tartibga solish vositasi asosida doimiy ravishda pasaytirilishi kerak.

Bizning fikrimizcha, ishsizlikning yuqori bo‘lmagan darajasining mavjudligi ishchi kuchining sifat parametrlarini takomillashtirishga ta’sir ko‘rsatadi, mehnat bozorida raqobatni o‘sishi esa qonuniy ravishda hodimlar qo‘nimsizligi pasayishi va mehnat unumdorligini o‘sishiga olib keladi. Shu bilan birga aniq sohadagi yoki umuman mintaqadagi ishsizlik ko‘lami shunday bo‘lishi kerakki, hammadan avval aholining ichki milliy daromad hajmini pasayishi va jamiyatda ijtimoiy borqarorlikni o‘sishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Bu guruhlarga asosan respublikamizda hududiy tabaqalanish bo‘yicha yoshlar ijtimoiy bandligini ta’minlash iqtisodiyotni erkinlashtirish va ishlab chiqarish sohasini modernizatsiyalash sharoitlarida miqdoriy jihatdan o‘sish tendensiyasiga egadir. Bu o‘zining moddiy va ijtimoiy holatidan qanoatlanmagan shaxslar, ya’ni yolg‘iz kishilar va nogironlar, nafaqaxurlar va ko‘p bolalilar hamda kun kechirish uchun zarur miqdordan pastroq daromadga ega shaxslarni hamda mehnatga layoqatli yoshlarni tashkil etadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib qishloq joylarda yoshlar bandligi ta’minlash bo‘yicha mehnat bozorini istiqbollashtirish va o‘rganish birinchi navbatda, xalq xo‘jaligi sohalarining mehnat resurslarini talab etishga qaratilishi kerak va faqat shuni hisobga olish bilan ishchi kuchini maqsadga muvofiq ko‘rsatilgan holda, tayyorlash va qayta tayyorlashni, uni ishlab chiqarish va noishlab

[1] Абдураҳмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. Олий ўқув юртлари учун дарслик.–Т.: “Mehnat”,2009.-б. [44] Экономика труда: учебник.-2-еизд., перераб. И доп./под ред.проф.Ю.П.Кокина, проф.П.Э.Шлендера.- М.:Магистр, 2010.-113с.

chiqarish faoliyati sohalari va tarmoqlari bo‘yicha ratsional taqsimlash va qayta taqsimlashni amalga oshirish, asosan yosh kadrlar o‘rtasida vaqtincha ish bilan band bo‘lmaganlar va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tegishli tadbirlarni o‘tkazish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat miramonovich Mirziyoevning “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 6208-son Farmoni. Toshkent sh., 2021 yil 20 aprel.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoev tamonidan “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-son, Toshkent sh., 2022 yil 19 yanvar

3. Абдураҳмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. Олий ўқув юртлари учун дарслик.–Т.: “Mehnat”,2009.-б.

4. Ю.П.Кокина, П.Э.Шлендера Экономика труда: учебник.-2-еизд., перераб.-М.:Магистр, 2010.-113с.

5. Одегов Ю.Г., Руденко Г.Г., Бабыника Л.С. Экономика труда: Учебник. В 2т. Т2.-М.: Издательство “Альфа- Пресс”, 2017. -С 303-341.

O‘ZBEKISTONDA XIZMAT SOHASINI TRANSFORMASIYA QILISHDA DPI (DYNAMIC PERFORMANCE INDEX) TIZIMINING IMKONIYATLARI

Xasanov Axmadjon Shodiyarovich
SamDUKF o‘qituvchisi
E-mail: hasanovahmadzon559@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni baholash va boshqarish uchun an'anaviy KPI tizimlarining cheklovlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Dynamic Performance Index (DPI) tushunchasi va uning xizmat sohasidagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Maqolada DPI tizimini joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar va uning samaradorligi baholanadi.

Kalit so‘zlar: Dinamik natijadorlik indeksi (DPI), Kalit natijadorlik ko‘rsatkichlari (KPI), Xizmat ko‘rsatish korxonalari, Davlat boshqaruvi, Natijadorlikni baholash, Natijadorlikni boshqarish, Xalqaro baholash tizimlari, Gibrid modellar, Natijadorlikni o‘lchash tizimi, Xizmat sohasi samaradorligi

Kirish. Xizmat ko‘rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida alohida o‘rin egallaydi. Unda samaradorlikni baholash va boshqarish faqatgina moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki mijoz qoniqish darajasi, xizmat sifatining uzluksiz yaxshilanishi, xodim faolligi kabi omillar bilan ham bog‘liqdir. Shu munosabat bilan, xizmat sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar uchun ishonchli va zamonaviy baholash tizimlarini joriy etish strategik ahamiyat kasb etadi. Ana shu nuqtai nazardan DPI (Dynamic Performance Index – Dinamik samaradorlik ko‘rsatkichi) tizimi xizmat ko‘rsatish sohasini chuqur transformatsiya qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. DPI tizimi tashkilotlar faoliyatining dinamik holatini, muvozanatli rivojlanishini va strategik maqsadlarga erishish darajasini kompleks tahlil qilishga yordam beradi. Bu indikator xizmatlar sifati, mijozlar ehtiyojiga moslashuvchanlik, ichki jarayonlar samaradorligi hamda innovatsion yondashuvlar asosida baholash imkonini beradi.

Asosiy qisim. An'anaviy KPI (Key Performance Indicators) tizimlari ko‘p yillardan beri jahon amaliyotida qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, ularning statik tabiati, ya'ni doimiy o‘zgarib turuvchi bozor muhitiga moslashmasligi ularni samarasiz holga keltirmoqda. Bu, ayniqsa, raqobat kuchayib borayotgan xizmat sohasida juda katta cheklovlarga olib keladi. Shu sababli, zamonaviy menejmentda dinamik va moslashuvchan baholash tizimlariga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida moslashuvchan (adaptive) tizimlarni joriy etish korxonalarga tez o‘zgaruvchi talab va sharoitlarga moslashish, xavflarni oldindan sezish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bu kabi tizimlar turli ma'lumot manbalaridan avtomatik ma'lumot yig‘ish, jarayondagi uzilishlarni tezda aniqlash va xodim faoliyatini doimiy ravishda

baholash imkonini yaratadi. Shuningdek, moslanuvchan platformalar xizmat sohasida sifatli menejmentni shakllantirish va mijoz qoniqishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

KPI tizimlarining cheklovlari KPI tizimlari belgilangan ko‘rsatkichlar orqali tashkilot samaradorligini baholashga qaratilgan. Biroq, ularning statik tabiati quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

- **Moslashuvchanlikning etishmasligi: KPI ko‘rsatkichlari** doimiy ravishda bozor va ichki holatga moslashmaydi.
- **Jarayonni inkor qilish:** KPI natijaga e'tibor qaratadi, jarayondagi kechikuv, ortiqcha resurs sarfi hisobga olinmaydi.
- **Qisqa muddatli maqsadlarga ixtisoslashish:** KPI strategik emas, taktik baholashni ta'minlaydi.
- **Mehnat unumdorligini aniq o‘lchamaydi:** Ko‘p hollarda xodim ijodkorligi, mijoz bilan munosabati kabi narsalar baholanmaydi.
- **Raqamli texnologiyalar bilan etarli integrasiya qilinmagani:** KPI tizimlari ko‘pincha avtonom va qo‘lbola hisob-kitoblar asosida yuritiladi.
- **Mahalliy davlat boshqaruvida formalizmga aylangan:** KPI ko‘rsatkichlari ko‘p hollarda hokimiyat va boshqaruv tashkilotlarida 'reja bajarildi' tamoyili asosida yuritiladi. Bu esa haqiqiy samaradorlikni emas, qog‘ozdagi raqamlarni ko‘rsatishga olib keladi. Real natijalar emas, statistik hisobotlar ustuvor hisoblanadi.
- **Innovasiyaga qarshi ta'sir:** KPI ko‘rsatkichlari ishchi-xodimlarni faqat belgilangan rejani bajarishga majburlaydi, ya'ni yangicha yondashuv, ijodkorlik va tashabbus uchun motivasiya kamayadi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun yangi va moslashuvchan, texnologik vositalar bilan bog‘langan, real vaqt tahliliga asoslangan tizimlar zarur. Misol uchun, ayrim tuman hokimliklarida hokim o‘rinbosarlari samaradorligi KPI asosida baholanmoqda. Masalan, 'ishsizlikni kamaytirish' yoki 'xotin-qizlar bandligini oshirish' kabi vazifalar uchun faqat sonli reja ko‘rsatkichlari belgilanadi.

DPI tushunchasi va xalqaro ilmiy yondashuvlar bilan bog‘liqlik

DPI (Dynamic Performance Index) — bu tashkilotning samaradorligini real vaqtda baholashga qaratilgan zamonaviy yondashuv bo‘lib, u KPIdan farqli ravishda faqat natijalar emas, balki jarayon, xodim faolligi, mijoz munosabati, moslashuv qobiliyati va yangilikka ochiqlik kabi ko‘rsatkichlarni ham qamrab oladi. Olimlar fikriga ko‘ra, an'anaviy KPI tizimi "o‘lchab bo‘lgandan keyin kech bo‘ladi" tamoyiliga asoslangan bo‘lib, jarayon davomida emas, faqat oxirida baholashga qaratilgan. Masalan, Garvard Biznes Maktabidan professor Robert Kaplan KPI’ning strategik nazoratga xizmat qilsa-da, tezkor o‘zgarishlarga javob bera olmasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, KPI tizimlari turg‘unlikni keltirib chiqaradi va innovatsiyani sekinlashtiradi.

Dunyo amaliyotida DPIga yaqin tizimlardan biri bu — **Agile Performance Management** bo‘lib, u Google, Adobe va Netflix kabi kompaniyalarda keng qo‘llaniladi. Bu tizim real vaqtda tezkor munosabat berish, jarayonni onlayn kuzatish va xodimni qat'iy raqamlar bilan emas, moslashuvchan mezonlar asosida baholashni nazarda tutadi. Ya'ni, xodimning shaxsiy rivojlanishi, jamoa bilan munosabati va mijozlarga munosabati asosiy baholash mezonlaridan biriga aylantiriladi. Shuningdek, Yaponiyadagi "Kaizen Continuous Improvement" modeli ham DPI bilan umumiy nuqtaga ega — ya'ni, har bir ish jarayonini yaxshilash uchun doimiy va mayda tahlillar yuritiladi.

DPI tizimining xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi afzalliklari:

- **Oliy ta'lim muassasalarida:** DPI tizimini o‘qituvchilar va talabalar faoliyatida joriy qilish orqali ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish mumkin. O‘qituvchilar uchun dars sifatini real vaqtda baholash, talabalarning faol ishtirok darajasi, mustaqil ishlarni o‘z vaqtida topshirish va o‘quv natijalarining dinamikasi tahlil qilinishi mumkin. Talabalar nuqtai nazaridan esa, oliy ta'lim sifati, professor-o‘qituvchilarning munosabati, ta'lim mazmuni va sharoitlari bo‘yicha tezkor munosabat (fidbek) berish asosida baholash imkoni yaratiladi. Bu jarayon har ikki tomon uchun ochiqlik va rivojlanishni rag‘batlantiradi.

- **Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik siyosatida:** DPI tizimi orqali ish o‘rinlari yaratilishi nafaqat soni bilan, balki sifat jihatidan baholanadi. Masalan, ishga joylashtirilgan shaxsning ish davomiyligi, rasmiylashtirilgan shartnoma bor-yo‘qligi, mehnat huquqlari ta'minlanganligi va ustuvor ijtimoiy maqsadlarga (yoshlar, ayollar, nogironlar) xizmat qilganligi tahlil qilinadi. Bu kambag‘allikni qisqartirishda formal emas, natijaviy yondashuvni shakllantiradi.
- **Ijtimoiy xizmatlar va inson kapitalida:** DPI xizmat ko‘rsatuvchi ijtimoiy tashkilotlarda (masalan, mahalla markazlari, aholiga yordam xizmatlari) samaradorlikni baholashda mijoz munosabati, xizmatga ehtiyoj darajasi va qoniqish foizi kabi omillar orqali inson markazidagi yondashuvni ta'minlaydi. Mehribonlik uylari, yoki “inson” markazlari faoliyati natijasi, jamiyatdagi ijtimoiy ta'siri bilan baholanadi. Shu tariqa inson kapitali samaradorligi to‘g‘risida aniq xulosalar chiqarish mumkin bo‘ladi.
- **Mahalliy davlat boshqaruvida (tuman hokimi o‘rinbosarlari misolida):** har oyda bajarilgan ishlar bo‘yicha faqat raqamiy hisobot berish o‘rniga, DPI tizimi orqali amaliy natijalar, ijtimoiy ta'sir, tashabbuslar samarasi va jamoatchilik fikrini qamrab olgan holda kompleks baholash imkonini yaratadi. Masalan, 'ayollar bandligi' bo‘yicha hisobotda faqat ishga joylashtirilganlar soni emas, balki ularning ish sharoiti, mehnat huquqlarining ta'minlanishi va ish davomiyligi ham baholanadi. Shu orqali qog‘ozbozlik emas, asl natija ustuvor bo‘ladi.
- **Tibbiyot xizmatlarida:** bemorlar bilan ishlashda har bir xizmat ko‘rsatish vaqtini, muolaja xatosizligini, bemor fidbekini real vaqtda baholash orqali shifoxonalar ishini optimallashtirish mumkin;
- **Ta'lim sohasida:** o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatini o‘zgaruvchan sharoitlarda baholash (masofaviy ta'limda faol ishtirok, topshiriqlarni bajarish dinamikasi);
- **Turizm xizmatlarida:** mehmonlarning bahosi, xizmatga tezkor javob berish, tozalik va infratuzilma holati haqidagi ma'lumotlar orqali mehmonxonalar va turoperatorlar samaradorligini baholash;
- **Bank xizmatlarida:** har bir mijoz murojaatiga javob berish vaqti, xizmat turlarining qulayligi va mijozlar qaytishi orqali DPI modelini joriy etish mumkin.

DPI asosiy xususiyatlari:

Real-time ma'lumotlar: doimiy tahlil, raqamli signallar orqali avtomat baholash;

Interaktiv hisobotlar va chartlar: rahbariyat tezkor qaror qabul qilish imkoniyatiga ega;

- **Prognozlash va isloh qilish:** DPI orqali faoliyatning qaerda susayishi aniqlanib, joriy o‘zgarishlar kiritilishi mumkin;
- **Xodim faolligini dinamik baholash:** bir kunda bajarilgan vazifalar soni emas, balki shiddat, o‘ziga xos yondashuv, mijoz fikri kabi ko‘rsatkichlar asosida baholanadi;
- **Raqamlashtirish bilan integrasiya:** DPI tizimi raqamli ma'lumot bazalari, CRM, ERP, va boshqa avtomatlashtirilgan tizimlar bilan bog‘lanishi mumkin;
- **Moslashuvchan fokus:** Dastlabgi reja bilan cheklanib qolmasdan, vaziyatga qarab baholash mezonlari o‘zgartiriladi;
- **Ijtimoiy ta'sirni o‘lchash:** faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar emas, balki ijtimoiy natijalar ham baholanadi;
- **Multimanba ma'lumotlar tahlili:** turli yo‘nalishlardan keluvchi ma'lumotlarni birlashtirib, kompleks baholash imkonini yaratadi;
- **Xodimlar va jamoalar o‘rtasida fikr almashishni rag‘batlantiradi:** fidbek tizimi orqali doimiy muloqot va takomillashuvga erishiladi;
- Bunday yondashuvlar Evropa, AQSh, Yaponiya va Janubiy Koreyada “agile management”, “continuous feedback systems”, “interactive performance dashboards” kabi nomlar bilan tatbiq etilmoqda va bu DPI konsepsiyasining hayotga tatbiq qilingan amaliyotlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa va takliflar: Xizmat ko‘rsatish sohasi O‘zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy qismlaridan biri sifatida jadal rivojlanmoqda va uning modernizatsiyasi mamlakatning umumiy

iqtisodiy raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan DPI (Dynamic Performance Index) tizimi xizmat ko‘rsatish sohasini chuqur tahlil qilish, jarayonlarni optimallashtirish va strategik boshqaruvni samarali yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. DPI tizimi orqali xizmat ko‘rsatish subyektlarining faoliyatini kompleks baholash, xususan, vaqt o‘tishi bilan natijadorlikning o‘zgarishini aniqlash, raqobatbardoshlik darajasini belgilash, ichki operatsion jarayonlarning samarasini oshirish imkoniyati yaratiladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, DPI modeli raqamli texnologiyalar, mijozlar ehtiyojlari va xodimlar samaradorligini uyg‘unlashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

1. **Normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish:** DPI tizimining xizmat ko‘rsatish sohasida joriy etilishi uchun zarur bo‘lgan metodologik va huquqiy asoslar ishlab chiqilishi lozim.
2. **Pilot loyihalar tashkil etish:** Dastlab xizmat ko‘rsatishning turli segmentlarida (bank, sog‘liqni saqlash, transport va turizm) DPI tizimining tajriba tariqasida joriy etilishi foydali bo‘ladi.
3. **Raqamli platformalarni joriy etish:** DPI indikatorlarini yig‘ish va tahlil qilish uchun zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida yagona axborot platformasini yaratish zarur.
4. **Xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash:** DPI tizimini amalda samarali qo‘llash uchun menejerlar va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi lozim.
5. **Mahalliy va xalqaro indekslar bilan uyg‘unlashtirish:** DPI tizimi boshqa xalqaro xizmat baholash indekslari (masalan, Service Quality Index, Customer Satisfaction Index) bilan uyg‘unlashtirilgan holda ishlatilsa, bu O‘zbekistonning xalqaro reytinglarda pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi takliflar xizmat ko‘rsatish sohasida DPI tizimini samarali joriy etishga, xizmat sifatini tubdan oshirishga va umuman olganda xizmat iqtisodiyotining transformatsiyasini jadallashtirishga xizmat qiladi.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni "2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida".
2. Rustamov I., Rajabov B. *Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti: nazariya, tahlil, rivojlanish yo‘nalishlari*. – T.: Iqtisodiyot, 2020.
3. **Hoque, Z. (2014).** “20 Years of Studies on the Balanced Scorecard: Trends, Accomplishments, Gaps and Opportunities for Future Research.” *The British Accounting Review*, **46**(1), 33–59. DOI: 10.1016/j.bar.2013.10.003
4. **Harris, M. & Tayler, B. (2019).** “Don’t Let Metrics Undermine Your Business.” *Harvard Business Review*, Sept–Oct 2019.
5. **Wilsey, D. (2021).** “OKR, KPI and BSC: What is the Difference?” Balanced Scorecard Institute Blog, March 25, 2021
6. **Sardi, A. & Sorano, E. (2019).** “Dynamic Performance Management: An Approach for Managing the Common Goods.” *Sustainability*, **11**(22), 6435. DOI: 10.3390/su11226435
7. **Berdinazarov, Z. U. (2020).** “Mahalliy ijro hokimiyati faoliyatida KPI tizimidan foydalanishning xorij tajribasi”. *Ilm-fan va innovatsion rivojlanish* jurnali, **3**(6), 26–48.

MAHALLA BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA’SIRI

Hakimov Dilshod Shokir o‘g‘li, Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali stajyor hakimovdilshod@gmail.com.

Annotatsiya: Mahalla boshqaruvi tizimida texnologik va innovatsiyalarni joriy etishda iqtisodiy tahlil qilingan. Raqamli boshqaruv uslublari yordamida mahalla faoliyatida faollik, samaradorlik va hisobdorlik darajasi oshganining aholiga tezkor va aniq javobi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotda “Raqamli Mahalla” kabi amaliy tajribalar misolida, hisoblash transformatsiyasi orqali budjet mablag'larini, bandlik yordam va ijtimoiy sifatini yaxshilash kabi iqtisodiy ko'rinishdagi natijalar o'rganilgan**.**

Kalit so‘zlar: Mahalla boshqaruvi, kompyuter texnologiyalari, innovatsiyalar, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy xavfsizlik, raqamli transformatsiya, “Mahalla boshqaruvi, budjet tejamkorligi.

Kirish. Hozirgi vaqtda innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylanib bormoqda. Innovatsion jarayonda jiddiy rol o'ynaydigan va innovatsiyalarni korxonalar uchun strategik resursga aylantiradigan xalqaro kapital bozori kengayib bormoqda, bu borada unga yangi moliyaviy tuzilmalar unga yordam bermoqda. Jahonda shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar mamlakatlarning ijtimoiyiqtisodiy faoliyati, iqtisodiy siyosati va davlat boshqaruvi tuzilishini sifat hamda texnologik jihatdan tubdan o‘zgarishiga olib kelib, xalqaro integratsiyasini faollashtirishda xam aloxida o‘rin egallamoqda.

Asosiy qism. Raqamli texnologiyalarning kirib kelishi va ularning iqtisodiyijtimoiy hayotda keng tatbiq etish sur’atlarining turlichaligi oqibatida mamlakatlar o‘rtasidagi rivojlanish tafovutlarining yanada kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Raqamlashib borayotgan global olamda raqamli iqtisodiyotning qiymati va samaradorligini baholash bo‘yicha yagona integral indikatorni yaratish bo‘yicha muammolarga duch kelinmoqda**.** Iqtisodiy rivojlanish va texnologik imkoniyatlarning rivojlanishi bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

“Texnologiya” tushunchasiga aniqlik kiritish va aniq misollar yordamida uning iqtisodiyotga ta’sirini baholash zarur**.** Har qanday tushunchadan foydalanilganda uning shakllanish tarixiga, tilshunoslikka nazar tashlash maqsadga muvofiqdir. "Texnologiya" so'zi qadimgi yunoncha ikki ildizga ega: "techno" (yunoncha *techne)* - san'at, mahorat, qobiliyat; "logiya" (yunon tilidan *logotiplar)* - ta'limot, bilim, mantiq - isbotlash usullari haqidagi fan. Shunday qilib, "texnologiya" tushunchasi san'at va fanni birlashtiradi. Bu so'zning ildizlari "texnologiya" atamasining ma'nosini juda aniq aks ettirganga o'xshaydi. Raqamli transformatsiya zamonaviy jamiyat rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, mahalla institutining raqamlashtirilishi – nafaqat boshqaruvdagi samaradorlikni oshiradi, balki iqtisodiy rivojlanishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur tezisda mahalla boshqaruviga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Maqolada ilmiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan. Ushbu tadqiqot ma’lumotlari rasmiy manbalardan olinib, taniqli iqtisodchi olimlarning iqtisodiyotni rivojlantirishda Raqamli texnologiyalarning roli bo‘yicha ilmiy nazariy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish, xorij tajribalarini umumlashtirish va mamlakatimizda erishilayotgan yutuqlar bo‘yicha olingan natijalarga tayangan holda innovatsion boshqaruvni o’rganishga erishildi.

Tahlil va natijalar: Raqamli boshqaruv mexanizmlari va ularning mohiyati Mahalla faoliyatiga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali quyidagi yo‘nalishlarda samaradorlik oshmoqda:

Elektron ma’lumotlar bazalari (fuqarolarning ijtimoiy holati, bandlik, ko‘makka muhtojlik);

“Mahalla” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali real vaqt rejimida monitoring;

Yagona elektron platforma orqali xizmatlar ko‘rsatish: ariza, murojaat, statistik ma’lumotlar kiritilishi va tahlil qilinishi.

Raqamli texnologiyalar, yuqori darajada avtomatlashtirilgan usullar va kompyuterlashtirilgan tizimlarni o‘z ichiga oladi. Bu texnologiyalar O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar ochiladi, masalan, raqamli moliya, elektron tijorat, ishga qo‘yish protsesslarini optimallashtirish va boshqalar.O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot sohasidagi strategiyalari va ularning innovatsiyalar va texnologik rivojlanishlarni mustahkamlash bo‘yicha rolini o‘rganish uchun quyidagi muhim nuqtalar ko‘rsatilishi mumkin:

–strategiyalarning belgilanishi: O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot sohasidagi strategiyalari va ularning innovatsiyalar hamda texnologik rivojlanishlarini mustahkamlashga e’tibor qaratilmoqda

.–innovatsiyalar va texnologik rivojlanishni mustahkamlash: O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot sohasidagi strategiyalari innovatsiyalarni oshirish va texnologik rivojlanishni mustahkamlashga qaratilgan.

–samarali dasturlarva loyihalar: O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot sohasidagi strategiyalari samarali dasturlar va loyihalar asosida amalga oshirilishi talab qilinadi.

–xalqaro hamkorlik va sarmoyalar: O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot sohasidagi strategiyalari va ularning innovatsiyalar va texnologik rivojlanishlarni mustahkamlash bo‘yicha xalqaro hamkorlik va sarmoyalarning muhim roli keltiriladi.

So’nggi yillarda iqtisodiyotni rivojlantirishda ilg’or texnologiyalar va innovatsiyalarning ahamiyati oshib bormoqda. Eng so’nggi texnologiyalar ishlab chiqarish va tadbirkorlik jarayonlarining samaradorligini oshirishi mumkin. Eng yangi texnologiyalar inson faoliyatining barcha yangi sohalari va tarmoqlariga kirib borishi bilan an’anaviy yondashuvlar o’zgaradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) paydo bo’lishi va tarqalishi global iqtisodiyotga shu qadar ta’sir ko’rsatdiki, yangi bir hodisa –raqamli iqtisodiyot paydo bo’ldi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’sirida odamlarning turmush tarzi o’zgara boshladi, foydalanuvchilar o’rtasidagi aloqalar o’zgardi -turli geografik mintaqalar, faoliyat sohalari va boshqalardagi odamlar o’rtasida aloqa o’rnatish imkoniyati paydo bo’ldi.

Bu raqamli iqtisodiyotning asosi bo’lgan axborot aloqalarining jadal o’sishi. Raqamli texnologiyalarning ta’siri global miqyosda ham, mahalliy darajada ham seziladi. Raqamli iqtisodiyot yangi ishlab chiqarishlarning kombinatsiyasi sifatida global iqtisodiyotning tez o’sib borayotgan qismidir. Yangi texnologiyalaryaxshi tashkil etilgan xo’jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ba’zi jihatlariga o’zgartiruvchi ta’sir ko’rsatadi, bu asosan ishlaydigan mexanizmlarni –aloqa vositalarini yoki sanoat mashinalarini raqamli yoki raqamli mexanizmlarga almashtirish, shuningdek, ularni yanada modernizatsiya qilishdan iborat. Raqamli iqtisodiyotning o’sishi raqamli va mobil texnologiyalar bilan bevosita bog’liq bo’lgan bir qator bozorlarning o’sishi bilan bog’liq. Texnologiyalar rivojlanishining hozirgi bosqichida va bozorlarning hozirgi holati sharoitida raqamli iqtisodiyotni maqsad sifatida emas, balki iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish vositasi sifatida ko’rib chiqish kerak. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot yangi biznes modellarini taklif qiladi va boshqaruv mexanizmlarini o’zgaruvchan voqelikni aks ettirish uchun o’zgartirish zarurligini ta’kidlaydi.

Xulosa va takliflar: Raqamli texnologiyalarni mahalla tizimiga tatbiq etish orqali iqtisodiy barqarorlik, byudjet mablag‘larining tejalishi, aholining bandligi va ijtimoiy himoyasi sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

O‘zbekiston sharoitida mahalla tizimi – nafaqat ijtimoiy institut, balki mahalliy boshqaruvning muhim bo‘g‘ini sifatida iqtisodiy va ma’muriy islohotlarda faol ishtirok etmoqda. Raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlarning mahalla boshqaruviga joriy etilishi mahalla faoliyatining ochiqligi, shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Bu esa o‘z navbatida mahalliy iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Innovatsiyalarni mahalla boshqaruviga keng joriy etish orqali quyidagi ijobiy iqtisodiy natijalarga erishish mumkin:

- Aholi bandligini ta’minlashga xizmat qiluvchi mahalliy loyihalarning tezkor va samarali muvofiqlashtirilishi;
- Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun infratuzilma va axborot ta’minotining yaxshilanishi;
- Mahallalarda yashovchi aholining raqamli savodxonligining oshishi orqali ularning iqtisodiy faolligining ortishi;
- Davlat va jamiyat o‘rtasida ikki yo‘nalishli axborot oqimini tashkil etish orqali ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarga mos qarorlar qabul qilinishi.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar va innovatsion boshqaruv yondashuvlari mahalla

institutining nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy rolini ham mustahkamlab, mahalliy darajadagi iqtisodiy o‘sishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida e’tirof etilishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Raxmatov, A. Raqamli mahalla institutlarini rivojlantirishning faolligini oshirishi . Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.

2. Qodirova D.T. Mahalliy boshqaruv tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2023, №2. – B. 90–97.

3. Axmedov A.A., Rasulov Sh.M. Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish istiqbollari. – T.: Iqtisodiyot, 2021. – 210 b.

4. Karimov F.T. Mahalla institutining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni. // Ilmiy-amaliy jurnal "Yosh olim", 2022, №3. – B. 45–51.

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA RAQOBATBARDOSHLIK SALOHIYATINI YO‘LLARI VA YONDASHUVLARI

Kuldoshev Lazizjon Sharifovich
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi
E-mail: kuldoshevlazijon@gmail.com

Annotasiya: mazkur maqolada “raqobatbardoshlik” kategoriyasi bo‘yicha ilmiy yondashuvlar, korxona salohiyati tarkibiy qismlari ishlashining kuchli va zaif tomonlari, raqobatbardoshlik salohiyatini aniqlovchi omillar, xizmat ko‘rsatish korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish usullari va vositalari, raqobat ustunliklarin aniqlash, xizmat ko‘rsatish korxonalarida raqobat salohiyatining shakllanishi tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: raqobat, xizmat ko‘rsatish sohasi, xizmatlar bozori, boshqarish, raqobatbardoshlik salohiyati, raqobat ustunligi.

Kirish.

Jahon hamjamiyatining iqtisodiy rivojlanish dinamikasi, raqobat kurashi muammolari shuningdek, globallashuv jarayoniga intilayotgan har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun raqobat, uning nazariy va amaliy tadqiqoti muhim rol o‘ynaydi. Chunki, milliy iqtisodiyotni zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri – bu to‘laqonli, adolatga asoslangan raqobat kurashi va uning muhitini shakllantirishdan iborat.

Bugungi kunda raqobatga katta e'tibor qaratilmoqda, u alohida shaxslarning mehnati va salohiyati hamda mamlakat va alohida hududlarda raqobatbardoshlikni oshiradi. Raqobat yordamida tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar bir-birining faoliyatini kuzatishi va nazorat qilishi mumkin hamda o‘zlarining individual xususiyatlarining ko‘payishi yoki kamayishini kuzatishlari uchun barcha imkoniyatlar va zarur resurslarga ega bo‘ladi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan usullar.

Tadqiqot jarayonida xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida raqobatbardoshlik salohiyatini oshirishni o‘rganishga dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish korxonalarida raqobat salohiyatining shakllanishi xizmat ko‘rsatish jarayonlarining xususiyatlariga asoslanganligi ilmiy-uslubiy jihatdan tadqiq qilingan.

Adabiyotlar tahlili.

Xaksever K., Render B., Rassel R., Merdik R. asarida servis iqtisodiyoti rivojlanishi, iqtisodiy o‘sish, xizmat ko‘rsatish sohasining barqaror rivojlanishi, xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish omillaridan xizmat ko‘rsatish jarayonida samarali foydalanish, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xizmat ko‘rsatishning zamonaviy tarmoqlarini rivojlantirish, sohada mehnat unumdorligini oshirish, xizmat ko‘rsatish sohasini innovasion rivojlanishi yoritib berilgan.

Mazilkina E.A. tahriri ostida yozilgan o‘quv qo‘llanmada xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish muammolari, xizmat ko‘rsatish sohasida mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo‘llari, raqobatbardoshlikni oshirish omillari va yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Shuningdek, mavzuga doir jihati bo‘yicha servis va turizm sohalarini rivojlantirishning ijtimoiy,

iqtisodiy va institusional asoslari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Tahlil va natijalar.

Raqobatbardoshlik xizmatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan emas, balki xaridni amalga oshiradigan mijozlar uchun jozibadorligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, raqobatbardoshlikni xizmatlarning iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish darajasi hamda ularni sotib olish va ishlatish xarajatlari bo‘yicha boshqa o‘xshash tovarlar yoki xizmatlardan farqini belgilaydigan iste'mol xususiyatlarining to‘plami sifatida aniqlashimiz mumkin .

Raqobatbardoshlik quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– bozorda taqdim etilgan o‘xshash ob'ektlarga nisbatan aniq ehtiyojning real yoki potensial qondirilish darajasi bilan tavsiflanadigan ob'ektning mulki;

– bozorda o‘xshash ob'ektlar bilan taqqoslaganda raqobatga dosh berish qobiliyati;

– ma'lum bir xizmat ko‘rsatish korxonalarining rivojlanishidagi raqobatdosh xizmat ko‘rsatish korxonalarining rivojlanishidan ularning xizmatlari odamlarning ehtiyojlarini qondirish darajasi va ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi nuqtai-nazaridan farqlarini ifodalovchi belgidir.

“Raqobatbardoshlik” kategoriyasi bo‘yicha ilmiy yondashuvlarni to‘rtta asosiy guruhga ajratib o‘rganish mumkin.

Birinchi guruh – “ko‘p bosqichli yondashuv” raqobatbardoshlik kategoriyasining ko‘p qirrali xususiyatiga asoslangan. Ushbu yondashuv tarafdorlari M.Porter, A.P.Latkin, O.V.Vorozxbit, T.G.Filosofova va V.A.Bikovlardir.

M.Porter globallashuv sharoitiga qaramay, milliy raqobatbardoshlik bevosita ma'lum bir mahalliy sharoitga bog‘liq bo‘lgan omillar majmuasiga bog‘liq ekanligiga e'tibor qaratadi.

O.Yu.Vorojbit va A.P.Latkin raqobatbardoshlikni quyidagi darajalarga ajratgan:

– induvidual daraja, ya'ni mahsulot raqobatbardoshligi;

– mikro daraja, ya'ni korxona raqobatbardoshligi;

– me'zo daraja, ya'ni muayyan tarmoqdagi raqobatbardoshlik;

– makro daraja, butun bozordagi raqobatbardoshlik [2].

Ikkinchi guruh – “mahsulot yoki xizmat raqobatbardoshligiga asoslangan yondashuv”. Bunday yondashuv raqobatbardoshlikni mahsulot yoki xizmatning raqobat muhitida korxona savdosining muvaffaqiyatini ta'minlash qobiliyati sifatida belgilaydi. Ushbu yondashuv tarafdorlari orasida G.L.Azoev, P.S.Zavyalova, L.Sh.Lozovskogo, M.Dolinskuyu, I.Soloveva, R.A.Fatxudinova va boshqalarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularning fikricha, “xizmat ko‘rsatish korxonalari raqobatbardoshligi – bu korxonaning bozorlarda raqobatlasha olish, yuqori sifatli tovar yoki xizmatlarni, arzon narxlarni taqdim etishi, xaridorlarga qulaylik yaratishi” deb ta'riflagan.

R.A.Fatxutdinov korxona raqobatbardoshligi «raqobatbardosh mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqarish qobiliyati» deb hisoblaydi. Bundan tashqari, mahsulot raqobatbardoshligi deganda, «bozorda sotilayotgan o‘xshash tovarlarga nisbatan ma'lum ehtiyojning real yoki potensial qondirish darajasi» tushuniladi deb izohlagan [19].

Uchinchi guruh – “bozor ulushini baholashga asoslangan yondashuv” [11]. Ushbu yondashuv tarafdorlari E.Dj.Vizer, M.Meskon, A.Albert, F.Xedouri, P.U.Zulkarpaev va L.R.Ilyasovlar bo‘lib, ular raqobatlashuv qobiliyati - bu ko‘proq mahsulot ishlab chiqarish, saqlash va sotish uchun ma'lum imkoniyatlardan foydalangan holda korxonaning raqobatchilarga qaraganda muvaffaqiyatli bo‘lish qobiliyati deb hisoblaydilar.

E.Dj.Vizerning fikriga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish korxonalari raqobatbardoshligi - bu korxonaning bozor ulushini egallash, saqlab qolish va oshirish qobiliyatidir. A.Meskon, A.Albert, F.Hedourilarning fikricha xizmat ko‘rsatish korxonalarini raqobatchilar bilan solishtirganda raqobatdosh ustunliklarga ega bo‘lishi va raqobatbardoshligini saqlab qolishida ekanligi ta'kidlanadi, bu nafaqat yangi iste'molchilarni jalb qilish imkonini beradi balki, tovar yoki xizmatlarning kelajakda ham saqlab qolishidir .

To‘rtinchi guruh – “korxona rentabelligini baholashga asoslangan yondashuvlar”. Bunday yondashuvlar raqobatbardoshlikning quyidagi xususiyatini namoyon qiladi: ushbu holatda korxonaning qisqa vaqt ichida qo‘yilgan kapitaldan raqobatdosh korxonalar foydasidan ko‘ra

ko‘proq foyda olish qobiliyati raqobatbardoshlikdir. Shunday qilib, ushbu konsepsiyani o‘z tarkibiga xizmat ko‘rsatish korxonalarining quyidagi xususiyatlarini kiritish orqali kengaytirishga urinishlar mavjud: investisiya qilingan kapitaldan qisqa muddatda belgilanganidan past bo‘lmagan foyda olish qobiliyati .

Xizmat ko‘rsatish korxonalari raqobatbardoshligi deganda – aholining xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun ma'lum bir vaqtda o‘z xizmatlari va mahsulotlari bilan ma'lum bir bozordagi korxonaning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zgaruvchan muhitda foyda olish va samaradorlikka erishish uchun raqobatchilardan ustun turish qobilyatini ta'minlaydigan faoliyat.

Hozirgi vaqtda xizmatlar bozorida raqobat darajasi oshib borayotgan sharoitda xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatbardoshlik salohiyatini rivojlantirishga tobora ko‘proq e'tibor qaratilmoqda. Buning sababi shundaki, raqobatbardoshlik salohiyatining uzoq muddatli istiqbolda raqobat ustunligini saqlab qolish va uni oshirishga qodir bo‘lgan asosdir. Korxona salohiyatining mohiyatini keng tarqalgan talqini muayyan maqsadlarga erishish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan tabiiy sharoitlar va resurslar, zahiralar va qadriyatlar to‘plami hisoblanadi. Bundan tashqari, ba'zida korxonaning potensiali iqtisodiy tizimning mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati (bu uning ishlab chiqarish quvvati sifatida talqin qilinishiga yaqin) yoki ishlab chiqaruvchi kuchlarning imkoniyati sifatida muayyan samarani ta'minlash qobiliyati sifatida belgilanadi.

1-jadval.

Korxona salohiyati tarkibiy qismlari ishlashining kuchli va zaif tomonlari

Potensial komponent	**Kuchli tomonlari**	**Zaif tomonlari**
Ishlab chiqarish	Mahsulot tannarxining past darajasi; mahsulotning yuqori sifati; fondlar qaytimining yuqori darajasi; zamonaviy yuqori samaradorlikka ega jihozlar.	Eskirgan uskunalar; raqobatchilarga nisbatan yuqori narxni o‘rnatilishi; ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) quvvatlaridan foydalanishning past darajasi.
Kadrlar	Kadrlarning yuqori malakasi va kompetentligi; g‘oyalarni yaratishga xodimlarning layoqati; ijobiy ishbilarmolik obro‘i.	Mehnatni motivasiyalash va rag‘batlantirishning samarasiz tizimi; kadrlar qo‘nimsizligi- ning yuqori darajasi.
Marketing	Bozorning yuqori ulushi; samarali reklama va mahsulotlarni (xizmatlarni) sotishni rag‘batlan-tirish; iste'molchilarning mahsu-lotlarga nisbatan yuqori faolligi; mahsulotlarni yuqori darajada tabaqalashishi.	Assortimentning turlarining etarli darajada emasligi; bozor ulushining pasayishi; mijozlar soning qisqarishi.
Moliyaviy	Qarz mablag‘larining mavjudligi; yuqori ishbilarmonlik faolligi; aktivlarning yuqori likvidligi; barqaror moliyaviy holat; kapitalning yuqori rentabellik darajasi.	Moliyaviy resurslardagi etishmovchilik; moliyaviy holat-ning beqarorligi; kreditorlarga qaramlikning yuqori darajasi; rentabellikning past ko‘rsatkichi.
Tashkiliy imkoniyatlar (boshqaruv)	Malakali menejment; samarali tashkiliy tuzilma.	Menejerlar malakasining past darajasi; boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi faollikning pastligi.
Ilmiy-texnik	Innovasiyalarni ishlab chiqish; mehnat jarayonlariga innovasiya-larni joriy etish; intellektual mulk ob'ektlari (patentlar).	Raqobatchilar bilan taqqoslaganda texnologiyaning yuqori energiya sig‘imkorligi.
Logistika	Murakkab jihozlar; avtomobil yo‘llari; etkazib berish muddatini tezlashtirish; ulgurji savdo imkoniyatlari.	Moliyaviy resurslarning etishmasligi; etkazib beruvchilar va iste'molchilarga yuqori darajada bog‘liqlik.

Yuqoridagi tarkibiy qismlar va omillarni hisobga olgan holda, korxona o‘zini o‘zi tashkil etish va biznesni moslashtirishning murakkab jarayonlarini ishga tushirishi, sinergik ta'sir tufayli qo‘shimcha raqobatdosh ustunliklarni ta'minlashi va korxonaning boshqaruvchanligi va raqobatbardoshlik darajasini oshirishi kerak.

Raqobat munosabatlarining yangi xarakterini o‘rganishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri – bu raqobatbardoshlik salohiyatidir. Raqobat salohiyati tushunchasi hali ham yaxlit qabul qilingan talqinga ega emas va uning mazmun yukiga oid noaniq pozisiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishda raqobat salohiyatining rolini etarlicha baholanmaslikka olib keladi.

“Raqobatbardosh salohiyat” tushunchasi birinchi marta L.V.Balabanova va A.V.Balabanislar tomonidan qarab chiqilgan bo‘lib, bu orqali mualliflar “bozorda barqaror raqobatdosh mavqeni ta'minlaydigan, qulay marketing muhiti sharoitida korxonaning raqobatdosh ustunliklariga transformasiyalanishi bo‘yicha kompaniyaning mavjud raqobatdosh ustunliklari va marketing imkoniyatlari yig‘indisini tushunadilar”.

R.A.Fatxutdinov tizimning raqobatdosh ustunligi tizim egalik qiladigan va unga raqobatchilarga nisbatan ustunlik beradigan eksklyuziv qiymat ekanligini ta'kidlaydi .

Korxona raqobat ustunligining mavjud ta'riflarini tahlil qilish va umumlashtirish, raqobatdosh ustunliklarga erishish, saqlash va oshirishga yordam bergan sabablarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Raqobat ustunligi – bu etarli va samarali raqobat salohiyatini shakllantirgan va oshirgan hamda raqobatchilardan ustunlikni ta'minlagan noyob omillar tizimidir.

Ma'lumki, xizmatlar moddiy shaklga ega bo‘lmagan, aholi ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy faoliyatning alohida turi hisoblanadi. Xodimlarning xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati oldi-sotdi ob'ekti bo‘lgan natijani shakllantiradi va pirovardida ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmi mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibiga rasmiy tarzda kiritiladi. Shuning uchun xizmat ko‘rsatish korxonalarida raqobat salohiyatining shakllanishi xizmat ko‘rsatish jarayonlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tavsiflanishi zarur.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bulsak raqobatbardoshlik quyi- dagilarni o‘z ichiga oladi:

- bozorda taqdim etilgan o‘xshash ob'ektlarga nisbatan aniq ehtiyojning real yoki potensial qondirilish darajasi bilan tavsiflanadigan ob'ektning mulki; bozorda o‘xshash ob'ektlar bilan taqqoslaganda raqobatga dosh berish qobiliyati;

Hozirgi vaqtda xizmatlar bozorida raqobat darajasi oshib borayotgan sharoitda xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatbardoshlik salohiyatini rivojlantirishga tobora ko‘proq e'tibor qaratilmoqda. Buning sababi shundaki, raqobatbardoshlik salohiyatining uzoq muddatli istiqbolda raqobat ustunligini saqlab qolish va uni oshirishga qodir bo‘lgan asosdir.

Xizmat ko‘rsatish korxonalari raqobatbardoshlik salohiyati – bu raqobatli bozorda muayyan maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan korxona faoliyati uchun biznes jarayonlarini samarali tashkil etish uchun zarur resurslar majmuidir. Raqobatbardoshlik salohiyati – raqobatbardoshlikning muhim va zarur elementi hisoblanadi. Bunda resurs, funksional va natijaga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida raqobat salohiyati kategoriyasi tizimlashtirildi. Bunda korxonaning raqobat salohiyatini boshqarish uning elementlariga ta'sir ko‘rsatish orqali sodir bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Balabanova L.V. Marketingove upravleniya konkurentosposobnostyu predprinimatelstv: strategicheskiy podxod: Monografiya. / L.V. Balabanova, V.V. Xolod. - Donesk: DonDUET, 2006. - S. 294.
2. Vorojbit O.Yu. Konkurentosposobnost ekonomicheskix sistem: monografiya / O.Yu.Vorojbit, V.A. Osipov, A.I. Tonkix. – Vladivostok: izd-vo VGUES. 2011. – 124 s.
3. Gribov V.P. Ekonomika predpriyatiya: uchebnik V.P. Gribov, V.D.Gruzinov. - M.: Finansi i statistika. -2012. - 426 s.
4. Dolinskaya M.G. Marketing i konkurentosposobnost promishlennoy produksii / M.G.Dolinskaya, I.A. Solovev. –M.: izb-vo “Standarti”. 1991. – 128 s.
5. Zagorna T.O. Upravleniya konkurentnim potensialom torgovoy marki: Avtoref. dis. kand. ekon. nauk. - Donesk: DonDUET, 2005. – S. 5.
6. Zavyalov P.S. Rol marketinga v reshenii problemq konkurentosposobnosti Rossiyskix tovar o proizvoditeley / P.S.Zavyalov // Marketing, 1996. №6. 21-30 s.
7. Zulkarpaev I.U. Metod rascheta integralnoy konkurentosposobnosti promishlennix, torgovix i finansovix predpriyatiy / I.U.Zulkarpaev, L.R.Ilyasova // Marketing v Riossii i za rubejom. – 2001. №4. 17-27 s.

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING KICHIK KORXONALAR FAOLIYATIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Axmedov Sanjar Temur o‘g‘li, Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali
sanjaraxmedov07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasining mamlakatlar milliy iqtisodiyotlari tarkibining o‘zgarishi hamda iqtisodiy faoliyatning barcha yo‘nalishlarini transformatsiyalashishiga, raqamli iqtisodiyotning raqamli axborot va bilimlar ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish sohasi, iqtisodiy rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, raqamli xizmatlar, YAIM, iqtisodiy o‘sish.

Kirish. Jahonda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanib borishi mamlakatlar milliy iqtisodiyotlari tarkibining o‘zgarishi hamda iqtisodiy faoliyatning barcha yo‘nalishlarini transformatsiyalashishiga olib kelmoqda.

Jahonda xizmat ko‘rsatish sohasini samarali rivojlantirish borasidagi tajribalar negizida servis korxonalari faoliyati samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, xizmatlar raqobatbardoshligini ta’minlash, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini modernizatsiyalash va intensivligini ta’minlash, korxonalar faoliyati rivojlanishini strategik rejalashtirish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishning samarali usullarini joriy etish, xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiyiqtisodiy mexanizmini takomillashtirish kabi ilmiy muammolarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF5813-son «Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» va 2021 yil 30 sentyabrdagi PF-6318-son «Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlashga qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonlari belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

Xizmat ko‘rsatishning faoliyat turlarining muntazam kengayib borayotganligi xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarining aniq chegaralarini belgilashda murakkablikni yuzaga keltirmoqda. Haqiqatdan ham ushbu faoliyatning kengayib borishi iqtisodiyotning ba’zi sohalarida asosiy bo‘ladi, qolganlarida esa mazkur faoliyat qisman ishtirok etadi. Shunga ko‘ra, xizmatlar sohasining asosiy jihatlaridan biri, uning turli xilligi, statistika uchun xizmatlar chegarasini belgilash ancha dolzarb hioblanadi, chunki ushbu voqiylikni o‘rganishning muayyan darajada noaniqligi milliy iqtisodiyot rivojlanishida bevosita shakllanadi, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy o‘sish natijalari va aholi turmush farovonligi, yaxlit iqtisodiy faoliyat turlari, iqtisodiy jarayonlar hamda iqtisodiyotning ba’zi tarmoqlari va hududlar bo‘yicha statistik axborotlarning integrasiyalashishi asosida mamlakatlar reytingi baholanadi.

Tadqiqotlar shundan dalolat bermoqdaki, agarda xizmat ko‘rsatish sohasining yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi oltmish besh foizdan kam bo‘lsa, bunday davlat rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritilmaydi. Bu esa hozirgi zamon milliy va jahon iqtisodiyotida asosiy makroiqtisodiy tenglik sifatida xizmat ko‘rsatish va moddiy ishlab chiqarish sohalarining nisbati bilan belgilanadi. Xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsuloti tarkibida ahamiyatli ulushga egadir.

Xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha ko‘plab tarmoqlar uzoq davrda iqtisodiyotning rivojlanishi uchun asosiy ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Ushbu soha mamlakatning ilmiy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida o‘ziga xos «lokomotiv»ga aylandi. Bu yerda gap birinchi o‘rinda fan-texnika va ilmiy xizmatlar ko‘rsatish, ta’lim, turli-tuman kasbiy xizmatlar, sog‘liqni saqlash, aloqa va axborot xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risida boradi. Garchi, ilgarigidek iqtisodiyotda hali ham xizmatlar sohasining yetarlicha an’anaviy bo‘lgan moliya, savdo, shaxsiy xizmatlar kabilar muhim rol o‘ynasada, XXI asr boshlarining o‘ziga xosligi shundan iboratki, ham iqtisodiyot, ham jamiyat uchun xizmatlar sohasining yangi tarmoqlari guruhining ahamiyati ortib bormoqda.

Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish sohasida samarali xo‘jalik yuritishni tashkil etish industrial tarmoqlar faoliyatiga nisbatan keng miqyosda tadqiq etilgan bo‘lib, bunda faoliyatni rivojlantirish jamiyatda odamlarning turmush farovonligini ta’minlash, xizmat ko‘rsatish

jarayonlarining innovatsionligini oshirish hamda yuqori texnologik sig‘imga ega iqtisodiyotni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishida raqamli iqtisodiyotning o‘rni alohida bo‘lib hisoblanadi. Innovatsion yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan texnika - texnologiyalardan barcha tarmoqlar va sohalarda yoppasiga foydalana boshladik. Bu esa mamlakatlarning milliy iqtisodiyot tizimini raqamli iqtisodiyot shakliga olib keldi. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi xizmatlar sohasini, raqamli xizmatlar sohasi atamasi bilan atash kerak ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli bizlar har ikkala iqtisodiy atamaga nazariy jihatdan to‘xtalish kerak deb hisoblaymiz.

Raqamli iqtisodiyot ko‘p qirrali faoliyat bo‘lib, unda raqamli axborot va bilimlar ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida qo‘llaniladi, zaruriy faoliyat maydoni tariqasida zamonaviy axborot tarmog‘i iqtisodiyot strukturasini optimallashtirish va unumdorlikni oshirishning yetakchi omili tariqasida axborot kommunikatsion texnologiyalardan samarali qo‘llaniladi.

Raqamli iqtisodiyot – bu jamiyat ne’matlarini ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilish jarayonlarida elektron hamda axborotkommunikatsion texnologiyalarini keng joriy etishni ko‘zda tutadigan insonning xo‘jalik faoliyatini tadqiq etuvchi fandir. Raqamli iqtisodiyot atamasi ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Birinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne’matlarining ustuvor o‘rni bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu o‘ziga hos nazariya bo‘lib, uning o‘rganish ob’ekti, axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot nazariyasi o‘z rivojlanishining boshlang‘ich davridadir, chunki sivilizatsiyaning raqamli axborot bosqichiga o‘tishi bir necha o‘n yil avvalgina boshlangan. “Raqamli iqtisodiyot” atamasi ilmiy amaliyotga ispaniyalik va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi Manuel Kastels tomonidan kiritilgan. Bu borada u o‘zining “Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat” nomli uch jildli monografiyasini chop etgan. Ilmiy adabiyotlarda hozirgi zamon “Yangi raqamli iqtisodiyoti” turli xil atamalar bilan nomlanadi. Masalan, “Postindustrial iqtisodiyot” (D.Bell), “Axborotlashgan iqtisodiyot” (O.Toffler), “Megaiqtisodiyot” (V.Kuvaldin), “Axborot va aloqaga asoslangan iqtisodiyot” (I.Niiniluto), “Texnoiqtisodiyot yoki raqamli iqtisodiyot” (B.Geyts), “Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot” (D.Tapskott).

Raqamli xizmatlar – bu insonlarning turli talab, xohish va istaklarini qondirish maqsadida, yashash sharoitini yaxshilashga ko‘maklashadigan, kundalik vositalar yordamida texnika va texnologiyalarga asoslangan xizmat ko‘rsatishning yuqori zamonaviy shaklidir.

Ko‘plab rivojlangan mamlakatlar ro‘y berishi lozim bo‘lgan o‘zgarishlar muqarrarligini tushunib, iqtisodiyotni raqamlashtirish tomon harakatni ongli ravishda boshladi. Bu yo‘nalishni birinchilardan bo‘lib ma’lum qilgan AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya hamda Xitoy bugungi kunda raqamli poygada norasmiy yetakchilar sanaladi. Ulardan keyingi o‘rinlarda Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Avstraliya, Belarus va boshqalar turadi. Raqamlashtirish jarayonining ba’zi yetakchi mamlakatlari esa qarama-qarshi yondashuvlarni, xususan, AQSH bozor yo‘nalishini, Xitoy esa rejali iqtisodiyotni tanlab olgan. Qolgan mamlakatlar ma’lum bir oraliq variantlarga rioya qiladi.

Raqamli iqtisodiyot platformalari tuzishda rivojlangan davlatlar transport, telekommunikatsiya, energetika, ma’lumotlarni qayta ishlash, sog‘liqni saqlash, dori-darmonlar logistikasi, turizm, tashqi iqtisodiy faoliyat, ko‘chmas mulk va ishlab chiqarish yo‘nalishlariga e’tibor qaratmoqda.

Aynan shu sohalarning rivojlanishi infratuzilma hamda texnologik bazis yaratishga imkon beradi, ularni boshqa sohalarga ko‘chirgan holda O‘zbekiston yetuk raqamli iqtisodiyotni maksimal darajada tez rivojlantirishi mumkin. Ilg‘or mamlakatlar raqamli iqtisodiyoti ko‘plab dasturlari (AQSH, Avstriya, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va boshqalar) asosiy e’tiborni «raqamli tibbiyot» hamda «aqlli shahar» ijtimoiy yo‘nalishlariga qaratmoqda. «Raqamli tibbiyot» va «aqlli shahar» ijtimoiy loyihalarini amalga oshirish ko‘proq murakkablik hamda xilma-xillikni talab qiladi va bunday loyihalar keng xalq ommasi tomonidan e’tirof etiladi.

Jahon bankining «Raqamli dividentlar» nomli tadqiqoti natijalari mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning naqadar dolzarb va muhimligini ko‘rsatdi.

Xususan, internet tezligining 10 foizga o‘sishi, mamlakat YAIMning o‘sishiga olib keladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich 1,21 foizni, rivojlanayotgan davlatlarda 1,38 foizni tashkil etayotir. Demak, internet tezligi ikki barobarga oshadigan bo‘lsa, YAIM hajmining qariyb 15 foizga oshishiga erishish mumkin. Jahonda amalga oshirilayotgan globallashuv sharoitida tashqi migratsiya, xalqaro savdo va kapitallar harakati, turizm, xorijiy investitsiyalar, AKT rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ta’sir etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.

2. Архипова В.Ф., Девизов А.С. Об инфраструктуре как определяющем факторе развития туризма в регионе. URL:http://www.roman.by/r-78201.html

3. Safarova N.N. Milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishiga turizm sohasi ta’sirini

4. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik.

5. Ernazarov O.E. Innovatsiyalar asosida sanoat korxonalari samaradorligini oshirish // Diss. PhD. – T.: TDTU, 2021. 13-14-b.

6. O.N.Xaitov “Hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish” Monografiya. Samarqand. 2024. 256-b.

7. https://lex.uz/docs/6102462

" RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION BOSHQARUV MODELI "

Bahodirov Shohruh Bahodir o‘g‘li, Toshkent davlat transport universiteti doktaranti
E-mail: bahodirovshohruh1994@gmail.com

Annotatsiya: Raqamli iqtisodiyot davrining boshlanishi bilan, raqamli texnologiyalar asos bo‘lgan ushbu iqtisodiy shaklning rivojlanishi sanoat, biznes modeli, texnologik innovatsiyalar, moliya kabi keng ko‘lamli sohalarni o‘z ichiga oladi va butun ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma hamda odamlarning turmush tarziga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Aynan shu davrda raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona boshqaruvi modelining innovatsion yondashuvlar asosida yangilanishi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, korxonalar samaradorligi, innovatsion salohiyati va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalar va yangi biznes modellardan to‘laqonli foydalanish, shuningdek, malakali kadrlar tayyorlash va tashkilot ichidagi innovatsion madaniyatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, Raqamli iqtisodiyot,,Sanoat korxonalari, Innovatsion boshqaruv, Raqamli transformatsiya, Sun’iy intellekt, Big Data (katta ma’lumotlar), Texnologik integratsiya, Raqamli boshqaruv modeli,

Kirish: Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotda raqamli texnologiyalarning roli tobora ortib bormoqda. Raqamli iqtisodiyot shunchaki texnik vositalarning joriy etilishi emas, balki chuqur iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruv transformatsiyasini o‘z ichiga oladigan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, sanoat korxonalarida boshqaruv modelining raqamli asosda yangilanishi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki global raqobatga bardosh bera olishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bunday sharoitda innovatsion boshqaruv modeli — bu tashkilot strategiyasini ma’lumotlar asosida shakllantirish, ilg‘or texnologiyalarni integratsiyalash, inson kapitalini raqamli ko‘nikmalar bilan boyitish hamda bozordagi o‘zgarishlarga tez moslasha olish qobiliyatidir. Mavzuning dolzarbligi shundaki, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sanoat korxonalaridan faqatgina texnologik yangiliklarni emas, balki ularni boshqarishning innovatsion usullarini ham talab qilmoqda. Dunyo miqyosida kuzatilayotgan tendensiyalar shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli transformatsiyani o‘z vaqtida joriy etgan tashkilotlar ishlab chiqarish samaradorligida 25–40% gacha o‘sishga erishmoqda, bu esa raqamli boshqaruv modelining amaliy ahamiyatini yaqqol ifodalaydi. Shu bilan birga, bu

jarayonda inson resurslari salohiyati, ochiq innovatsion muhit, malaka oshirish va tashkiliy madaniyat kabi omillar alohida o‘rin tutadi. Mazkur tadqiqotda aynan raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining boshqaruv modeli qanday yangilanishi, bu jarayonda qanday omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi, xorijiy va milliy tajribalardan qanday saboqlar chiqarish mumkinligi, shuningdek, innovatsion transformatsiyaning amaliy mexanizmlari ilmiy tahlil asosida yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili: Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi global miqyosda korxonalar boshqaruviga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy boshqaruv modellari shunchaki raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanmay, balki strategik fikrlash, mijozga yo‘naltirilganlik, tezkorlik va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish kabi tamoyillar bilan boyitilishi lozim. Ilmiy adabiyotlarda bu o‘zgarishlar chuqur tahlil qilinib, turli yondashuvlar taklif etilmoqda.

Xitoylik tadqiqotchi Wang Taohui (2023) korxona iqtisodiy boshqaruv innovatsiyasi zarurligini, birinchi navbatda, raqamli transformatsiya jarayonining tezlashuvi bilan izohlaydi. U boshqaruv tizimining samaradorligi axborot oqimini boshqarish, katta ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish va strategik rejalashtirish bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Zhuang Yi (2020) esa raqamli muhitda muvofiqlashtirilgan va tizimli boshqaruv yondashuvlariga urg‘u beradi. U boshqaruv modelini transformatsiya qilishni strategik zarurat deb hisoblab, unda resurslarni integratsiyalash va qarorlarni markazsizlashtirish g‘oyasini ilgari suradi.

Yuqoridagi qarashlar Michael Porterning raqamli raqobat ustunligini shakllantirish konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi. Uning fikricha, raqamli texnologiyalar orqali korxonalar o‘z qiymat zanjirini optimallashtirib, mijozlarga tezroq va aniqroq xizmat ko‘rsatish imkoniga ega bo‘ladi. Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee esa raqamli transformatsiya korxona faoliyatini avtomatlashtirish, inson kapitalining sifatini oshirish va yangi ish modellari yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi.

Ushbu ilmiy qarashlar O‘zbekiston olimlarining yondashuvlari bilan hamohang. Masalan, Saidaxmedova Dilafruz tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda mijozga yo‘naltirilganlik, interaktiv marketing va raqamli platformalardan foydalanish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi. Xalikov Baxrom esa raqamli boshqaruv texnologiyalarining resurslardan foydalanish va samaradorlikni oshirishdagi ahamiyatiga to‘xtaladi. Arzikulov O.A. ning ishlari esa raqamli infratuzilma rivoji va hududiy boshqaruv o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni statistik asosda isbotlaydi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyotda sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi:

- raqamli texnologiyalarni strategik darajada integratsiyalash,
- boshqaruv qarorlarini ma’lumotlar asosida qabul qilish,
- inson resurslarini raqamli transformatsiyaga tayyorlash,
- va ochiq innovatsion hamkorlik tarmoqlarini shakllantirishga asoslanishi kerak.

Shu bois, boshqaruv modelining transformatsiyasi nafaqat zamon talabi, balki iqtisodiy barqarorlik va uzoq muddatli raqobatbardoshlikning kafolati sifatida qaraladi.

Tahlil va natijalar: Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va jadal rivojlanishi sanoat korxonalarida boshqaruv modelining transformatsiyasini strategik zaruratga aylantirmoqda. Bu iqtisodiy shaklning asosida internet texnologiyalari, sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar, mobil ilovalar va bulutli hisoblash tizimlarining keng joriy etilishi yotadi. Raqamli iqtisodiyot nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatini, balki korxonalar ichki boshqaruv mexanizmlarini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Yangi raqamli muhitda korxonalar har kuni o‘zgarib borayotgan va murakkablashayotgan bozor talablari, shaxsiylashtirilgan iste’molchi ehtiyojlari va kuchaygan raqobat sharoitida ishlamoqda.

Bunday sharoitda an’anaviy boshqaruv modellarining funksionalligi yetarli emas. Korxona rahbariyatidan tezkorlik, moslashuvchanlik va aniq raqamli qaror qabul qilish qobiliyati talab etiladi. Ma’lumotlar tahliliga asoslangan boshqaruv yondashuvi strategik rejalashtirish, prognozlash va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Big Data, data mining va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish korxonalarga bozor signallarini oldindan aniqlash,

mahsulotlar va xizmatlar sifatini oshirish, shuningdek, xarajatlarni kamaytirish imkonini taqdim etmoqda. So‘nggi yillarda ishlab chiqilgan raqamli KPI tizimlari, ERP (Enterprise Resource Planning) hamda CRM (Customer Relationship Management) kabi raqamli boshqaruv vositalari yordamida ishlab chiqarish samaradorligi 20-30 foizgacha oshgani kuzatilmoqda.

1-jadval O‘zbekiston Respublikasida o‘z kuchi bilan bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz)

2023-yilgi rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston bo‘ylab 5 026 ta korxona va tashkilot o‘z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar ishlab chiqargan. Bu ko‘rsatkich mamlakatda innovatsion faoliyatning izchil shakllanib borayotganini tasdiqlaydi. Eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida qayd etilgan bo‘lib, u yerda 912 ta innovatsion subyekt faoliyat yuritgan. Ushbu natijalar poytaxtda raqamli infratuzilma, ilmiy markazlar, texnoparklar va startaplar uchun qulay ekotizim mavjudligini ko‘rsatadi. Keyingi o‘rinlarda Xorazm (446 ta), Toshkent viloyati (434 ta), Buxoro (426 ta) va Surxondaryo (420 ta) viloyatlari joylashgan. Aksincha, Namangan (116 ta) va Sirdaryo (110 ta) viloyatlarida innovatsion korxonalar soni ancha past bo‘lib, hududiy tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Innovatsion salohiyatni yanada kengaytirish uchun davlat siyosati texnoparklar va inkubator markazlarini ko‘paytirish, inson kapitalini raqamli ko‘nikmalar bilan boyitish va hududiy innovatsion infratuzilmani kuchaytirishga qaratilishi zarur. Bu borada Koreya, Singapur va Estoniya kabi davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan ochiq innovatsion platformalar, raqamli texnoparklar va IT-akademiyalar mintaqaviy innovatsion rivojlanishga kuchli turtki beradi. Boshqaruv tizimining zamonaviy talablarga moslashuvi inson resurslarining raqamli tafakkurini shakllantirish, xodimlarni o‘zgarishlarga tayyorlash va doimiy o‘rganishga yo‘naltirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Korxona boshqaruvi – bu tashkilot ichidagi barcha resurs va omillarni yagona maqsad sari yo‘naltirishga xizmat qiluvchi murakkab tizim bo‘lib, unda rejalashtirish, tashkil etish, yetakchilik va nazorat kabi asosiy funksiyalar uyg‘un holda amalga oshiriladi. Raqamli transformatsiya ushbu funksiyalarni yanada soddalashtiribgina qolmay, balki ularning samaradorligini ham oshiradi. Masofaviy ish shakllari, virtual jamoalar, raqamli platformalarda onlayn hamkorlik — bularning barchasi boshqaruvga moslashuvchanlik va shaffoflik olib kelmoqda. Hozirda ilg‘or sanoat korxonalarida ishlab chiqarishdagi har bir jarayon sun’iy intellekt asosida monitoring qilinmoqda va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari yordamida real vaqt rejimida nazoratga olinmoqda. Shu bois, raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarning boshqaruv modeli chaqqonlik, innovatsionlik, texnologik integratsiya va mijozga yo‘naltirilganlik kabi tamoyillar asosida qayta shakllanishi lozim. Katta hajmdagi ma’lumotlar asosida bozor imkoniyatlarini aniqlash, tendensiyalarni prognozlash, innovatsion biznes modellarni sinovdan o‘tkazish va ochiq innovatsion madaniyatni shakllantirish orqali sanoat korxonalari nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki raqamli iqtisodiyotda faol ishtirokchiga ham aylanadi.

Xulosa va takliflar: Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining boshqaruv modelini innovatsion asosda qayta tashkil etish – zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismidir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy boshqaruv modellarining funksionalligi bugungi raqamli muhitga mos emas. Boshqaruv tizimlarining transformatsiyasi, birinchi navbatda, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, tezkorlik, moslashuvchanlik, mijozga yo‘naltirilganlik va texnologik integratsiyaga asoslangan bo‘lishi lozim. Statistik tahlillar esa O‘zbekiston sanoatida innovatsion faollik ortib borayotganini ko‘rsatmoqda, biroq bu jarayonda hududlar o‘rtasida jiddiy tafovutlar mavjud.

Shu asosda quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Raqamli transformatsiyani strategik rejalashtirish – har bir sanoat korxonasi o‘zining raqamli transformatsiya xaritasiga ega bo‘lishi lozim. Bunda KPI tizimi, ERP va CRM kabi integratsion boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish muhim.

2. Malakali raqamli kadrlarga ehtiyojni qoplash – oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari hamkorligida raqamli menejment, sun’iy intellekt asoslari va data analitika yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilishi kerak.

3. Hududiy innovatsion markazlar tarmog‘ini rivojlantirish – texnoparklar, IT-inkubatorlar va axborot-logistika markazlari orqali innovatsion muhit shakllantirilishi, ayniqsa past ko‘rsatkichga ega viloyatlarda (Namangan, Sirdaryo) faoliyat kuchaytirilishi zarur.

4. Korxonalarda ochiq innovatsion madaniyatni shakllantirish – startaplar, ilmiy muassasalar va xorijiy texnoparklar bilan kooperatsiya asosida innovatsion hamkorlik tizimi kengaytirilishi lozim.

5. Raqamli xavfsizlik va boshqaruv monitoringi tizimlarini mustahkamlash – kiberxavfsizlik, raqamli audit va tizimli tahlil vositalari orqali korxonalarning barqaror rivojlanishi kafolatlanishi kerak.

Kelajakda ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish, sanoat tarmoqlari kesimida boshqaruv modellarining raqamli uyg‘unligini baholash va ularni iqtisodiy natijalarga bog‘lash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, raqamli iqtisodiyotga mos boshqaruv – bu raqobatbardoshlikning asosiy kalitidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. *2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida*. // Lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-dekabrdagi PQ-4066-sonli Qarori. *Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PQ-4851-sonli Qarori. *2020–2030 yillarda raqamli O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi*.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). *2023-yil yakunlari bo‘yicha innovatsion faoliyat statistik to‘plami*.

5. Islomov, D.X. (2022). Raqamli menejment va inson kapitali uyg‘unligidagi barqarorlik modeli. *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*,

6. Saidaxmedova, D. (2021). *Raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlikni boshqarishning zamonaviy usullari*. TDIU ilmiy jurnali, №2, 53–57.

7. Xalikov, B. (2020). *Raqamli transformatsiya sharoitida resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari*. “Innovatsion rivojlanish” ilmiy-amaliy jurnal, №3.

8. Arzikulov, O.A. (2021). *Hududiy boshqaruv va raqamli infratuzilma o‘zaro bog‘liqligi tahlili*. “Iqtisodiyot va ta’lim”, №4.

9. Wang, T. (2023). *Research on the necessity and strategy of enterprise economic management innovation under the new situation*. China Market, (15), 85–88.

10. Porter, M. (2001). *Strategy and the Internet*. Harvard Business Review.

11. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. Norton & Company.

12. Don Tapscott. (2015). *The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. McGraw-Hill.
13. UNCTAD (2023). *Digital Economy Report 2023: Cross-border data flows and development*. Geneva: United Nations.
14. Jahon banki (2024). *World Development Report: Digitalization for Development*. Washington D.C.: World Bank Group.
15. OECD (2023). *The Digital Transformation of SMEs*. Paris: OECD Publishing.

DASTURLASH KO‘NIKMALARINI OSHIRISH BO‘YICHA KREATIVLIK POTENTSIALINI RIVOJLANTIRUVCHI CONTEST TIZIMLAR

Shukurov Erkin Sodiq o‘g‘li, Bektemirova Gulrux Otabek qizi
SamDU KF assistenti
erkinjonshukurov1997@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida dasturlash ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha kreativlik potentsialini rivojlantirishning usullari tadqiq qilingan. Bunda kreativ pedagogikaning mazmun va mohiyati, kraetiv pedagogikani kasbiy faoliyat turlaridagi o‘rni va o‘qitishda qo‘llashning tahlili keltirib o‘tilgan. Dasturlash ko‘nikmalarini oshirishda ijodiy rivojlanishning bosqichlari va ularning imkoniyatlari keltirib o‘tilgan. Dasturlash fanlarini o‘zlashtirish asosida ijodkorlikni oshirish uchun onlayn contest tizimlaridan foydalanish samaradorligi taklif qilingan. Dasturlash ko‘nikmalarini oshirish uchun foydali bo‘lgan contest tizimlaridan foydalanish usullari ishlab chiqilgan.

Kalitli so‘zlar. Kraetivlik, ijodkorlik, dasturlash texnologiyalari, kreativlik potentsiali, onlayn contest dasturlari.

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida dasturlash fanlarini o‘qitishda talabalarning kreativ fikrlashini shakllantirish va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, dasturlash ko‘nikmalarini mustahkamlashda kreativ pedagogika yondashuvlaridan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu tadqiqotda dasturlashni o‘qitishda kreativlik potentsialini yuksaltirishga xizmat qiluvchi metodlar, shuningdek, onlayn contest tizimlaridan samarali foydalanish usullari o‘rganilgan.

Asosiy qism. Dasturlashda kreativlikni oshirish vositalari sifatida onlayn contest tizimlari juda ham samarali vosita hisoblanadi. Contest tizimlarida talabalar osondan qiyinga qarab dasturlarni onlayn yaratish imkoniyati yaratiladi.

Contest tizimlari – sport dasturlash bo‘yicha masalalar to‘plami va bu masalalarni yechishning onlayn komplyatorlar majmuasi hisoblanadi. Dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun online contest dasturlarini taklif etamiz [3].

LeetCode. LeetCodeonline contest dasturi dasturlash ko‘nikmalarini oshirish uchun osondan qiyinga qarab shakllantirilgan masalalar to‘plami va bu masalalar yechimlarini onlayn tekshirishga mo‘ljallangan platforma hisoblanadi.



1-rasm. Leetcoda onlayn contest tizimini ko‘rinishi.

Dasturlashni o‘rganuvchilar uchun Leetcode turli xil qiyinchiliklarda minglab kodlash muammolarini joylashtiradigan sayt bo‘lib, unda ularni hal qilish imkoniyatlari keng. Shu bilan birga yechim aniq bo‘lishi kerak bo‘lgan turli sinov holatlarini taqdim etadi. Bundan tashqari LeetCode shuningdek, ushbu muammolarni hal qilish usullarini baham ko‘radigan va sharhlaydigan katta foydalanuvchilar hamjamiyatiga ega. LeetCodening eng keng tarqalgan foydalanuvchisi dunyodagi eng yirik texnologiya kompaniyalaridan birida ish izlayotgan kishi bo‘lib, ularning barchasi kodlash muammolaridan kuniga minglab murojaat etuvchilar orasidan eng yaxshi nomzodlarni tanlash vositasi sifatida foydalanadi. Saytdan ro‘yxatdan o‘tish uchun Leetcode.com saytiga kiriladi [2].

Robocontest. Robocontest contest dasturi dasturlash ko‘nikmalarini oshirish uchun osondan qiyinga qarab shakllantirilgan masalalar to‘plami va bu masalalar yechimlarini onlayn tekshirishga mo‘ljallangan platforma hisoblanadi.



2-rasm Robocontest onlayn contest tizimini ko‘rinishi.

Robocontest orqali dasturlash mahoratini oshirish va bilimlarni kengaytirish, texnik suhbatlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun yordam beradigan eng ilg’or va qulay platformalardan biri hisoblanadi. Ushbu platforma dunyoning eng kuchli algo platformalari tajribasini o‘rganish asosida yaratilgan bo‘lib o‘quv va do‘stona raqobatni kuchaytirish imkonini yaratadi [2].

Dasturlash ko‘nikmalarini oshirish uchun albatta kreativlik potensialini rivojlantirish kerak bo‘ladi. Kreativlik potensialni rivojlantirishda onlayn contest platformalarining o‘rni kata hisoblanadi.

O‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish foydalanuvchilarning tafakkur ko‘nikmalarini va murakkab vazifalarni hal qilish malakalarini rivojlantirishning yangi yo‘llarini ochib beradi, ta’limni faollashtirish uchun prinsipial yangi imkoniyatlarni taqdim qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari auditoriya va mustaqil mashg‘ulotlarni yanada qiziqarli va ishonchli, o‘rganiladigan axborotning katta oqimini oson o‘zlashtiriladigan qilish imkonini beradi [1].

Xulosa. Tadqiqot ishida bo‘lajak o‘qituvchilarda dasturlash ko‘nikmalarini oshirish uchun kreativlik potensialini rivojlantirish va uning imkoniyatlari tadqiq qilindi. Kreativlik potensialini rivojlantirishda o‘z-o‘zini tarbiyalashning paydo bo‘lishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari keltirib o‘tildi. O‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish foydalanuvchilarning tafakkur ko‘nikmalarini va murakkab vazifalarni hal qilish malakalarini rivojlantirish imkoniyatlari, onlayn platformalarning o‘rni batafsil yoritib o‘tildi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. J. Kaufman “Toward a broader conception of creativity: a case for "mini-c" creativity”, Psychology of Aesthetics, Creativity, and the Arts, Vol. 1/2, pp. 73-79, http://dx.doi.org/10.1037/1931-3896.1.2.73. (2007).

2. Bektemirova G. Kreativ usullar asosida talabalarda dasturlash kompitensiyasini rivojlantirish usullari. SamDU ilmiy axborotnomasi. 2023-yil, 6-son.

3. J. Kaufman, “Classroom contexts for creativity”, High Ability Studies, Vol. 25/1, pp. 53-69, http://dx.doi.org/10.1080/13598139.2014.905247.

4. B. Heuser “Creativity and Identity Formation in Adolescence: A Developmental Perspective”, in The Creative Self, Elsevier, http://dx.doi.org/10.1016/b978-0- 12-809790-8.00005-4 (2017),.

ХИЗМАТ КОʻRSATISH SOHASIDA IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISH MEXANEZIMLARI.

N.Berdiyev, Samarqand davlat universiteti Kattaqoʻrgʻon filiali

Kirish. Soʻnggi yillarda xizmatlar sektori nafaqat iqtisodiy oʻsishning muhim drayveriga, balki innovatsion transformatsiya va resurslardan samarali foydalanish orqali barqaror taraqqiyotga erishish vositasiga aylangan. Xizmatlar sohasi mamlakatning yalpi ichki mahsulotidagi (YAIM) ulushi boʻyicha yetakchi tarmoq boʻlib, mehnat bilan bandlik va aholiga xizmat koʻrsatish darajasini oshirishda hal qiluvchi rol oʻynamoqda.

Xizmatlar sektorida resurslardan samarali foydalanishning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi:

- Birinchidan, energiya, vaqt, moliyaviy va inson resurslarini tejash orqali xizmat koʻrsatish narxini pasaytirish va foydalanuvchilarga qulaylik yaratish imkoniyati mavjud;
- Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar asosida xizmatlar samaradorligini oshirish orqali raqobatbardoshlikni kuchaytirish;
- Uchinchidan, resurslar tanqisligi sharoitida barqarorlikni ta’minlovchi boshqaruv modellarini ishlab chiqish zarurati tobora ortib bormoqda.

Xalqaro tajriba, jumladan, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya va Skandinaviya mamlakatlari misolida koʻrish mumkinki, xizmatlar sohasida aylanma iqtisodiyot, "lean management", va servis dizayn asosidagi boshqaruv modellarini tatbiq etish orqali yuqori samaradorlikka erishilmoqda. Bu yondashuvlar resurslarni tejash, ularni qayta foydalanish, xizmat siklini uzaytirish va mijoz ehtiyojlarini individual tarzda qondirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili: Soʻnggi yillarda xizmatlar sektorida resurslardan samarali foydalanish va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan strategik boshqaruv modellariga boʻlgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bu ehtiyoj, ayniqsa, raqamli transformatsiya va aylanma iqtisodiyot tamoyillarining integratsiyasi orqali yanada dolzarb tus olmoqda.

Karpen va Edvardsson (2023) tomonidan taqdim etilgan "Circular Service Management" kontseptsiyasi xizmatlar sektorida resurslarni tejash, ularning umrini uzaytirish va qayta tiklash orqali barqarorlikka erishishning muhimligini ta’kidlaydi. Ular xizmatlar boshqaruvida toʻrtta asosiy strategik yondashuvni ajratadilar: xizmat tizimini qayta loyihalash, resurs aylanishini kuchaytirish, ijtimoiy tenglikni hisobga olish va iqtisodiy qiymatni bir vaqtning oʻzida yaratish .

Oʻzbekiston olimlari ham ushbu yoʻnalishda muhim tadqiqotlar olib bormoqdalar. Saidaxmedova D.S. raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlarining raqamli kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyatini koʻrsatadi, bu esa xizmatlar sektorida raqamli texnologiyalarni samarali joriy etishga yordam beradi . Xalikov B.S. esa raqamli boshqaruv texnologiyalarining resurslardan foydalanish va samaradorlikni oshirishdagi ahamiyatini asoslaydi

Shu asosda, xizmatlar sektorida resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan strategik boshqaruv modellarini ishlab chiqish va joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar: Xizmatlar sohasi bugungi kunda Oʻzbekiston iqtisodiyotida yetakchi oʻrinni egallab, yalpi ichki mahsulotda 50 foizdan ortiq ulushni tashkil etmoqda. 2024-yil yakunlariga koʻra, xizmatlar hajmi 818,4 trln soʻmga yetib, 2023-yilga nisbatan 112,9 foizga oʻsdi. Bu koʻrsatkich sektorning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi oʻrni ortib borayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, xizmatlar sohasining tarkibiy tuzilmasida sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar — raqamli xizmatlarning kengayishi, moliyaviy texnologiyalarning chuqurlashuvi, xizmatlar diversifikatsiyasining jadallashuvi — xizmatlar sektorini strategik boshqaruvga tayangan holda qayta koʻrib chiqishni taqozo etmoqda.

Хизматлар соҳасининг асосий турлари бўйича кўрсаткичлари (январь-декабрь)

Хизмат турларининг номи	Хизматлар ҳажми, млрд сўмда		Улуши, % да	Ўсиш суръати, % да
	2023 й.	2024 й.		
Хизматлар – жами	**649 806,4**	**818 428,3**	**100,0**	**112,9**
шундан асосий турлари бўйича:				
алоқа ва ахборотлаштириш хизматлари	39 064,4	56 174,2	6,9	125,8
молиявий хизматлар	107 290,6	135 509,5	16,5	120,6
транспорт хизматлари	114 553,3	145 124,4	17,7	108,6
шу жумладан: автотранспорт хизматлари	57 099,7	72 604,7	8,9	112,4
яшаш ва овқатланиш хизматлари	144 234,3	183 314,5	22,4	110,6
савдо хизматлари	125 995,0	149 599,8	18,3	111,8
кўчмас мулк билан боғлиқ хизматлар	16 554,0	20 633,1	2,5	113,3
таълим соҳасидаги хизматлар	24 533,1	30 036,5	3,7	113,4
соғлиқни сақлаш соҳасидаги хизматлар	12 858,4	15 778,7	1,9	109,4
ижара хизматлари	7 560,6	9 707,6	1,2	105,5
компьютерлар ва маиший товарларни таъмирлаш бўйича хизматлар	9 475,5	11 848,2	1,4	112,3
шахсий хизматлар	12 107,3	15 462,0	1,9	109,3
меъморчилик, муҳандислик изланишлари, техник синовлар ва таҳлил соҳасидаги хизматлар	8 854,9	11 200,6	1,4	103,9
бошқа хизматлар	26 725,0	34 039,2	4,2	107,9

2024-yil yakunlari bo‘yicha xizmatlar sohasining umumiy hajmi 818,4 trln so‘mga yetib, 2023-yildagi 649,8 trln so‘mlik ko‘rsatkichga nisbatan 112,9 foizga o‘sdi. Bu nafaqat xizmatlar sektorining iqtisodiy faolligi oshganini, balki xizmatlar diversifikatsiyasi jarayoni jadallashganini ham ko‘rsatadi. Xizmatlarning ichki tarkibiy tuzilmasi esa ushbu o‘sishning qaysi yo‘nalishlar orqali sodir bo‘lganini ochib beradi.

Hajm jihatdan eng yirik xizmat turi yashash va ovqatlanish xizmatlari bo‘lib, 2024-yilda ularning hajmi 183,3 trln so‘mga yetgan va umumiy xizmatlar ichidagi ulushi 22,4 foizni tashkil etgan. Bu yo‘nalishdagi o‘sish sur’ati 110,6 foiz bo‘lib, turizmning tiklanishi, mehmonxona va ovqatlanish tarmoqlarining kengayishi bilan izohlanadi. Savdo xizmatlari 149,6 trln so‘m hajm bilan 18,3 foizlik ulushga ega bo‘lib, 111,8 foizlik o‘sish sur’atini ko‘rsatdi. Bu raqamlar chakana savdo, logistika va elektron tijorat xizmatlarining jadal rivojlanayotganini tasdiqlaydi.

Transport xizmatlari ham muhim ulushga ega bo‘lib, ularning hajmi 145,1 trln so‘mga yetgan va 108,6 foizlik o‘sishga erishgan. Ayniqsa, avtotransport xizmatlari alohida ajralib turadi — ular 72,6 trln so‘m hajmni tashkil etgan bo‘lib, bu umumiy transport xizmatlarining deyarli yarmiga teng. Bu esa aholining mobiliteti, ichki va tashqi logistika zanjirlarining faoliyati bilan bevosita bog‘liq.

Moliyaviy xizmatlar sektori 135,5 trln so‘mlik hajm va 120,6 foizlik o‘sish sur’ati bilan ajralib turadi. So‘nggi yillarda moliyaviy texnologiyalar (fintech), onlayn to‘lov tizimlari, bank xizmatlarining raqamli shakllariga o‘tish kabi omillar ushbu yo‘nalishdagi rivojlanishni jadallashtirdi. Xuddi shunday, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 2024-yilda 56,2 trln so‘mlik hajm bilan eng yuqori o‘sish sur’atini — 125,8 foizni namoyon etdi. Bu esa raqamli infratuzilma, internet xizmatlari, mobil aloqa va IT xizmatlarining xizmatlar bozorida yetakchi kuchga aylanayotganini ko‘rsatadi.

Tahlilga ko‘ra, ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi 30 trln so‘mdan oshib, 113,4 foizga o‘sdi. Bu raqamlar masofaviy ta’lim texnologiyalari, xususiy ta’lim muassasalari va kurslar xizmatlarining faol kengayib borayotganini anglatadi. Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 15,8 trln so‘mga yetgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishda o‘sish nisbatan past — 109,4 foiz bo‘lgan.

Ijara xizmatlarining hajmi 9,7 trln so‘mga teng bo‘lib, 105,5 foizlik o‘sish sur’ati bilan eng past darajadagi ko‘rsatkichlardan biridir.

Kompyuter va maishiy texnikani ta’mirlash xizmatlari 11,8 trln so‘mlik hajm va 112,3 foizlik o‘sish bilan o‘rtacha faollikni ko‘rsatdi. Arxitektura, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar esa 11,2 trln so‘mlik hajm bilan umumiy xizmatlar ichida kichik ulushga ega bo‘lsa-da, sanoat rivojlanishi bilan bog‘liq holda muhim funksiyani bajaradi. Boshqa xizmatlar guruhi esa 34 trln so‘mdan oshgan va 107,9 foizlik o‘sish sur’atini namoyish qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha 2023–2024-yillarda xizmatlar sektorida sezilarli o‘sish qayd etildi. 2023-yilda 649,8 trln so‘mni tashkil etgan xizmatlar hajmi 2024-yilda 818,4 trln so‘mga yetdi. Bu o‘sish 112,9 foizga teng bo‘lib, xizmatlar sohasi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, bu sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 51,3 foizga yetgani e’tiborga molik.

Hududlar kesimida xizmatlar hajmining eng katta qismi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelmoqda. 2024-yilda bu ko‘rsatkich 298,8 trln so‘mni tashkil etib, umumiy hajmning 36,5 foizini egalladi. Toshkentda yuqori texnologiyalar, moliyaviy xizmatlar, savdo va transport xizmatlarining konsentratsiyasi yuqori bo‘lgani tufayli bu natija kutilgan holatdir. Eng yuqori o‘sish sur’ati ham aynan Toshkent shahrida qayd etildi — 116,8 foiz. Bu poytaxtda raqamli xizmatlar, elektron to‘lov tizimlari va IT-platformalarning jadal rivojlanayotganini anglatadi.

Xulosa: Xizmatlar sektori O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biriga aylangan bo‘lib, u nafaqat YAIMdagi ulushi, balki aholi bandligini ta’minlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va resurslardan oqilona foydalanish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, 2024-yil yakunlariga ko‘ra xizmatlar hajmi 818,4 trln so‘mga yetib, 2023-yilga nisbatan 112,9 foizga o‘sdi. Bu o‘sish, birinchidan, sohada raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashgani, ikkinchidan, xizmatlar turlarining diversifikatsiyalashgani, uchinchidan, innovatsion boshqaruv modellarining bosqichma-bosqich joriy etilayotgani bilan bog‘liq.

Tadqiqot asosida aniqlanishicha, xizmatlar sohasida resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash uchun quyidagi strategik yondashuvlar muhim hisoblanadi:

- xizmatlarning raqamlashtirilgan boshqaruvi;
- xizmat sikllarining samarali arxitekturasi;
- aylanma iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan xizmat zanjirlari;
- mijozga yo‘naltirilgan va ma’lumotga asoslangan boshqaruv tizimlari.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya va Skandinaviya mamlakatlari xizmatlar boshqaruvida innovatsion modellardan keng foydalanmoqda. Ular orqali nafaqat iqtisodiy foyda, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlik ham ta’minlanmoqda. Shu asosda, O‘zbekiston sharoitida ham xizmatlar sektorini raqamli iqtisodiyot kontekstida boshqarish, xususiy sektor va davlat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy xizmat tarmoqlari uchun mos infratuzilma va inson kapitalini shakllantirish muhim vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, xizmatlar sohasida resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan strategik boshqaruv modellarini ishlab chiqish va joriy etish O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqadi. Bunda xizmatlar sifatining oshishi, foydalanuvchilarning qoniqish darajasining ortishi, operatsion xarajatlarning kamayishi va xizmatlarning eksport salohiyatining kengayishi asosiy natijalar sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar keyingi bosqichda xizmatlar boshqaruvini isloh qilishda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Balabanova L.V. Marketingove upravleniya konkurentosposobnostyu predprinimatelstv: strategicheskiy podxod: Monografiya. / L.V. Balabanova, V.V. Xolod. - Donesk: DonDUET, 2006. - S. 294.

2. Vorojbit O.Yu. Konkurentosposobnost ekonomicheskix sistem: monografiya / O.Yu.Vorojbit, V.A. Osipov, A.I. Tonkix. – Vladivostok: izd-vo VGUES. 2011. – 124 s.

3. Gribov V.P. Ekonomika predpriyatiya: uchebnik V.P. Gribov, V.D.Gruzinov. - M.: Finansi i statistika. -2012. - 426 s.

4. Dolinskaya M.G. Marketing i konkurentosposobnost promishlennoy produksii / M.G.Dolinskaya, I.A. Solovev. –M.: izb-vo “Standarti”. 1991. – 128 s.

5. Zagorna T.O. Upravleniya konkurentnim potensialom torgovoy marki: Avtoref. dis. kand. ekon. nauk. - Donesk: DonDUET, 2005. – S. 5.

6. Zavyalov P.S. Rol marketinga v reshenii problemq konkurentosposobnosti Rossiyskix tovar o proizvoditeley / P.S.Zavyalov // Marketing, 1996. №6. 21-30 s.

7. Zulkarpaev I.U. Metod rascheta integralnoy konkurentosposobnosti promishlennix, torgovix i finansovix predpriyatiy / I.U.Zulkarpaev, L.R.Ilyasova // Marketing v Riossii i za rubejom. – 2001. №4. 17-27 s.

OLIY TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Usmonov Erkin Tulqin o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali assistenti
erkinusmonov1822@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Zamonaviy davrda raqamli texnologiyalar oliy ta’lim sohasida tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Universitetlar va institutlar yangi metodologiyalarni qo‘llash, ta’lim sifatini oshirish va talabalarga zamonaviy ko‘nikmalarni o‘rgatish uchun raqamli yechimlardan faol foydalanmoqda. Ushbu maqolada biz oliy ta’limda raqamli texnologiyalarning rolini, ularning afzalliklarini va kelajakdagi istiqbollarini tahlil qilamiz.*

Kalit so‘zlar: Raqamli ta’lim, Oliy ta’lim tizimi,Sun’iy intellekt, Masofaviy ta’lim, Virtual va kengaytirilgan realitet, MOOC, Aqlli ta’lim platformalari, Adaptiv o‘qitish tizimlari, Katta ma’lumotlar, Blokcheyn texnologiyasi, Chatbotlar va virtual yordamchilar, Avtomatik baholash, Telekommunikatsiya texnologiyalari, Gamifikatsiya, Metavers universitetlari.

Kirish. Zamonaviy dunyoda raqamli transformatsiya jamiyatning barcha sohalarini, shu jumladan oliy ta’lim tizimini qamrab olmoqda. XXI asrda texnologiyalar tez rivojlanishi, global miqyosda ta’lim muassasalarini yangi metodologiyalar va innovatsion yechimlarni joriy etishga majbur qilmoqda. Oliy ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi nafaqat ta’lim jarayonining sifatini oshirish, balki kelajak mutaxassislarini zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi universitetlari sun’iy intellekt, virtual realitet, katta ma’lumotlar tahlili kabi ilg‘or texnologiyalardan foydalangan holda ta’limni yangi bosqichga olib chiqmoqda. O‘zbekistonda ham “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida oliy ta’lim muassasalarini raqamlashtirish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, bu jarayonda texnik imkoniyatlar yetishmasligi, kadrlarning tayyorgarlik darajasi va an’anaviy ta’lim usullarini o‘zgartirish qiyinchiliklari kabi muammolar ham mavjud.

Raqamli texnologiyalarning oliy ta’limga kirib borishi nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki iqtisodiyotning turli sohalari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga ham xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu mavzuni o‘rganish va tahlil qilish zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

Raqamli Ta’lim Platformalari va Masofaviy O‘qitish. Pandemiya davrida onlayn ta’limning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Bugungi kunda ko‘plab oliy o‘quv yurtlarida Virtual darslar, materiallar tarqatish va testlar o‘tkazish uchun Moodle, Blackboard, Google Classroom platformalar yordamida ta’lim jarayonini samarali tashkil etishmoqda. Zoom, Microsoft Teams platformalari Interaktiv onlayn darslar va seminarlar tashkil etish uchun ishlatilib kelinmoqda. Ochiq Onlayn Kurslar (MOOC) – Coursera, edX, Khan Academy – Dunyoning yetakchi universitetlarining bepul kurslari hisoblanadi. Bu platformalarning afzalliklari: Har joydan ta’lim olish imkoniyati, Talabalar uchun moslashuvchanlik va vaqtni tejash.

Sun’iy intellekt texnologiyalari talabalarga individual yondashuvni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Adaptiv o‘quv tizimlari – AI talabalarning bilim darajasiga qarab mashqlarni moslashtiradi. Chatbotlar va virtual yordamchilar – Talabalarning savollariga tezkor javob berish

imkoniyati mavjud. Avtomatik baholash tizimlari esa imtihonlarni tez va xatosiz tekshirish uchun mo‘ljallangan. Bu tizimlarning afzalliklari: Har bir talaba uchun optimal o‘qitish metodlari va o‘qituvchilar uchun ish yukini kamaytirish uchun xizmat qiladi.

Virtual va Kengaytirilgan Realitet (VR/AR) Texnologiyalari esa tibbiyot sohasida, muhandislik va dizayn kabi sohalarda VR/AR texnologiyalari amaliy mashg‘ulotlarda samarali ishlaydi. Virtual laboratoriyalar – Kimyo, fizika va biologiyada xavfsiz tajribalar o‘tkazish, AR yordamida anatomiya darslari – Tibbiyot talabalari uchun interaktiv o‘qitish usullari hamda Muhandislik loyihalarini 3D modellashtirishda esa qurilish va arxitekturada vizual tushunchalarni oshirish xizmat qiladi. Bu tizimlar bilan ishlash jarayonida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va qimmatbaho jihozlar va materiallarni tejashga xizmat qilish mumkin.

Universitet talabalari faoliyatini tahlil qilish va ta’lim jarayonini optimallashtirish uchun Katta Ma’lumotlar (Big Data) va Analitikadan foydalanmoqda. Bu tizimlar talabalar progressini kuzatish – Akademik yutuqlar va zaif tomonlarni aniqlash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish – Eng samarali darsliklar va metodlarni tanlash hamda bitiruvchilarning ish bilan ta’minlanish statistikasi – Ta’lim tizimini bozorga moslashtirish uchun xizmat qiladi. Bu tizimlarning afzalliklari esa maqsadli o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqish va talabalarning ishga joylashish darajasini oshirish.

Raqamli texnologiyalar oliy ta’limni qayta shakllantirib, uni qulayroq, samaraliroq va globalroq qilmoqda. Biroq, bu jarayonda quyidagi muammolar ham mavjud:

- Internet va texnika yetishmasligi – Ayrim talabalar uchun raqamli tafovut.
- Ma’lumotlar xavfsizligi – Shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi.
- An’anaviy pedagogik usullarga moslashish qiyinchiliklari
- O‘qituvchilar va talabalarning yangi texnologiyalarga o‘rganishi.

Kelajakda:

Blokcheyn texnologiyasi diplomlarni himoya qilish uchun.

AI asosidagi shaxsiy o‘qituvchilar – Har bir talaba uchun individual dasturlar.

Metavers universitetlari – To‘liq virtual ta’lim muhiti.

Raqamli transformatsiya oliy ta’limni demokratik qilmoqda – hamma uchun ochiq, qulay va sifatli ta’lim imkoniyatlarini yaratmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2020).** *"Raqamli O‘zbekiston-2030" strategiyasi va uning ta’lim sohasidagi ahamiyati.*
2. **O‘zbekiston Milliy Universiteti (2023).** *Oliy ta’limni raqamlashtirish: yangi imkoniyatlar va qiyinchiliklar.* Ilmiy-uslubiy qo‘llanma.
3. **Alimova, S. (2023).** *"VR/AR texnologiyalarining oliy ta’limda qo‘llanilishi."* Xalqaro ta’lim innovatsiyalari konferensiyasi, Toshkent.
4. **Kim, H. et al. (2022).** *"Blockchain for Secure Academic Credentials: Global Case Studies."* Journal of Higher Education Technology, Vol. 15(3).
5. **Bates, A.W. (2019).** *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning.* Tony Bates Associates Ltd.
6. **Clark, R.C., Mayer, R.E. (2016).** *E-Learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning.* Wiley.
7. **UNESCO (2021).** *AI and Education: Guidance for Policy-Makers.* UNESCO Publishing.

O‘ZBEKISTONDA OILAVIY MOJAROLARNING OLDINI OLISHDA KONFLIKTOLOGIYA FANINING IMKONIYATLARI

Abduxoliqova Husniya Olimjon qizi
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi
Electron manzil: husniyaabduxoliqova600@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada konfliktologiya, negativ va destruktiv funksiyaning pozitiv funksiyaga aylantirilishi va konflikt yechimi, mediatsiya, uning ziddiyatlarni bartaraf etishda

qo‘llanilishi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Shuningdek oilaviy zo‘ravonlik, suitsid holatlari keng tarqalganini inobatga olib, konfliktologiya sohasini rivojlantirish davr talabi ekanligi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: oilaviy nizolar, konfliktlar, konfliktologiya, ochiq va yopiq jamiyat, mediatsiya.

Kirish. Insoniyat tarixida uzoq vaqtlar konfliktlarga nisbatan salbiy munosabat mavjud bo‘lgan. Konflikt, asosan, tomonlarga zarar olib keladigan hodisa sifatida talqin qilingan. Konflikt ko‘p hollarda moddiy, ma’naviy, ruhiy-psixologik, iqtisodiy-moddiy qarama-qarshilik, jiddiy to‘qnashuv va murosasizlik sifatida baholanib kelingan. Biroq konfliktlarni o‘rganish jarayoni ijtimoiy makonda ularning o‘ziga xos pozitiv xususiyatlari mavjudligi isbotlaydi[1]. Dunyo miqyosida konfliktologiya (Conflict Resolution) biznes strukturalar o‘rtasidagi moddiy va iqtisodiy mojarolarni tinchlik yo‘li bilan hal qilish yo‘nalishi sifatida rivojlangan. Mazkur soha XIX asrning oxiri XX asr boshlarida o‘rganila boshlangan. Dunyo miqyosida esa intensiv tarzda konfliktologiya bilan o‘tgan asrning 50-yillaridan shug‘ullanilgan. Shunga qaramay, konfliktlarni o‘rganish sohasi ijtimoiy va sotsiologik fanlar tarkibidagi yangi ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Rossiyada konfliktologiya sohasiga 1991-yili asos solingan, biroq keng rivojni so‘nggi 10 yil ichida kuzatsa bo‘ladi.

MDH da konfliktologiya bilan so‘nggi 10-15 yilda shug‘ullanib kelinmoqda. O‘zbekiston uchun bu soha umuman yangi yo‘nalishdir. Konfliktologiyaning o‘rganish predmeti bu – konfliktning ijtimoiy tabiati, tiplari, dinamikasini o‘rganish, uni yechimga olib kelishning usullari, vositalari, ularning oldini olish mexanizmlarini belgilash va amaliyotga tatbiq etishdir. Konfliktologiya ikki asosiy soha: sotsiologiya va psixologiya kesimida rivojlangan. Boshqa mamlakatlar tajribasini ko‘radigan bo‘lsak, Rossiyada oxirgi 30 yil ichida juda katta ishlar olib borildi. Masalan, Rossiyada so‘nggi besh yilda konfliktologiyaning turli yo‘nalishlariga bag‘ishlangan 600 ga yaqin kitoblar, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalari yaratilgan. Shu bilan birga, barcha katta oliy o‘quv yurtlari va FA qoshida Konfliktlar yechimi bo‘yicha markazlar tashkil qilingan. Ular jamiyatdagi konflikt vaziyatlarni o‘rganish asosida ijtimoiy prognozlash ishlarini olib boradi.Turli ijtimoiy krizis va nizolar eskalatsiyasining oldini olish imkoniyatini yaratadi.

Metodologiya. Konfliktlarni o‘rganishning ijtimoiy jihatdan o‘ta dolzarbligi, konfliktlar nazariyasi bilimlari ijtimoiy krizislarning oldini olishda juda katta ahamiyat kasb etishi konfliktlar borasidagi bilimlarga YUNESKO ning e’tiborini tortadi. Natijada, 1957-yildagi YUNESKO qoshidagi Sotsiologik assotsiatsiyaning Parij yig‘ilishi maxsus ravishda konfliktologiya masalalariga bag‘ishlandi.

V.I.Andreev konflikt vaziyatni “yashirin va yoki ochiqchasiga vujudga kelgan va namoyon bo‘lgan bir yoki bir necha tomonlarning o‘zaro qarama-qarshiligi” deb ataydi hamda har bir tomon o‘z qarashlari, motivlari, fikrlari, muammoni yechimga olib kelishning usul, vosita va yo‘llariga egaligini qayd etadi. Olimning fikriga ko‘ra, konfliktlarda ham shaxsiy manfaatdorlik kuchli namoyon bo‘ladi[2]. A.Y.Ansupov va A.I. Shipilov kabi olimlarning fikriga ko‘ra, konfliktni yechimga olib kelish va uni bartaraf etish uchun uning mazmuni, xarakteri va maqsadlari, tomonlar manfaatlarini bilish taqozo etiladi. Bu bilan esa maxsus fan, ya’ni konfliktologiya shug‘ullanadi. Konfliktlar xarakteri va ularni yechimga olib kelish jarayonini aynan konfliktologiya fani o‘rganadi[3].

A.V.Dmitriev esa konflikt, ayniqsa, ijtimoiy konfliktlar haqida fikr qilib, ularni, eng avvalo, qaramaqarshilik sifatida baholaydi. Olimning fikriga ko‘ra, konflikt tomonlarning qarshi tomon qarashlari, manfaatlari, territoriyasi, qadriyatlari, yoki madaniyati, yashash tarziga qarshi qilgan (1) hujumi yoki (2) himoyasidan iborat bo‘ladi. Mediatsiyani ko‘pchilik hollarda

[1] WIN WIN. Based on the Fighting Fair model created by Fran Schmidt and Alice Friedman. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1998.

[2] Андреев В.И. Конфликтология: искусство ведения спора. Ведение переговоров и разрешения конфликтов. – Казань, 1999. – С. 82.

[3] Анцупов А.Я., А. И. Шипилов. Значение, предмет и задачи конфликтологии // Конфликтология. — М.: ЮНИТИ, 1999. – С. 81. – 551 с. – 10 000 экз. – ISBN 5-238-00062-6.

ziddiyatlarni shu vaqtchaga bo‘lgan bartaraf etish usullari qo‘l kelmaganda, barcha urinishlar foydali bo‘lmagan va natijaga olib kelmaganda ishlatiladi. Mediatsiyadan tomonlarni bir-birlarini tushinib olishga, boshqa tomonning qarashlari, fikrlari va qadamlarini anglashga ko‘mak beruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Eng qadimgi vaqtlardan boshlab konfliktga kirgan odamlar o‘zlari masalalarni hal qilgandan ko‘ra boshqa uchinchi tomon yordamida mazkur sa’y-harakatlarni amalga oshirishlari yengilroq kechishini anglab yetganlar.

Tadqiqot natijalari. Bugungi kunda yoshlarda tez-tez “ijtimoiy transformatsiya” holati kuzatilmoqda. Uning xususiyatlari yoshlarning ijtimoiy jihatdan faolligi, o‘zini shaxs sifatida mustaqil va erkin tutishga intilishi, “kattalar” ijtimoiy xatti-harakatlariga nisbatan qaysarligi, ijtimoiy ziddiyatlarga moyilligi, o‘z fikrini qanday bo‘lsa ham o‘zgalarga singdirishga urinishi, o‘zini barchadan, ba’zan ota-ona, yaqinlari va o‘qituvchidan ustun qo‘yishi, o‘zbilarmon va qiziqqonligi, ziddiyatlarga kirishdan cho‘chimasligi, biroq uning oqibatlariga tayyor emasligi, hissiy va emotsional beqarorligi, o‘z hissiyotlarni baholashga ojizlik qilishi, shaxs sifatida to‘la shakllanib bo‘lmaganligi va buning oqibatida o‘zini “kattalardek” tutgani bilan, o‘z amallariga har doim ham javob berishga hozir emasligi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, yoshlar atrofidagi ijtimoiy makonda ham tanglik, jamiyatdagi turli iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, demografik va b. vaziyatlarning keskinlashuvi ham ularning qarorlar qabul qilish jarayoniga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Mazkur ta’sirlar esa ijobiy, salbiy va yoki o‘ta salbiy bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra, yoshlar shaxsining shakllanishi jarayonida, ya’ni ijtimoiy makon va ulg‘ayishi aloqadorligida bir qator o‘ziga xos negativ tendensiyalar ham vujudga kelmoqda. Yoshlar ichida odamovulik, individualizm, o‘z hissiyotlari va fikrlarini ichga yutish va yashirish, o‘spirinlar ichida turli jinoyatlarga moyillik, bolalarga ta’sir etayotgan turli tashqi axborotlarga nisbatan befarqlik, ularni taftish eta olmaslik, axloqni buzadigan axbrotlarga ruju qo‘yish, zo‘ravonlik, pofigizm, ksenofobiya, qahri qattiqlik, agressiya, suitsid holatlari uchramoqda.

Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, oilaviy nizolar bilan bog‘liq konfliktlarda 63% erxotinlar o‘zini muhofazalash taktikasini qo‘llar ekan, 24% erkaklar bosim o‘tkazish yoki befarqlik bilan o‘zga tomonni yengish taktikasini ishlatar ekan. Biroq seminar ishtirokchilaridan qariyb 90% konfliktologiya sohasi borasida umuman erishilmaganligi qayd etilgan. Mahalla raislarining xotin-qizlar va oila bo‘yicha maslahatchilarining 90% konfliktlar nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha o‘z bilim, malaka va ko‘nikmalarining professional tarzda shakllanmaganligi qayd etilgan[1]. Buning o‘ziga xos sabablaridan biri O‘zbekistonda konfliktologiya keng rivoj topmaganligi, o‘quv qo‘llanmalari, darslik va kitoblarning o‘zbek tilida mavjud emasligi, konfliktologiya bo‘yicha mutaxassislarni yetishtirib berish tizimi yaratilmaganligi, maxsus markazlarning yo‘qligi bilan belgilanadi.

Tahlillar. Binobarin, hozirgi kunda mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash tizimi xodimlarining ko‘pchiligi professional tarzda konfliktologiya bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalardan xabardor bo‘lishni istaydilar. Konfliktlogiya bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarurligini ijtimoiy makon va zamonaviy taraqqiyot omillari ham taqozo etadi. Konfliktlar haqida gapirganda biz uni ko‘proq ijtimoiy voqelikdagi agressiya, urush, janjal, keskinlik, jahl, kelishib bo‘lmaydigan bahs, qarama-qarshilik, dushmanlik bilan bog‘laymiz. Aslida esa, real hayotda ko‘pchilik hollarda nizo va ularning to‘g‘ri yechimiga asoslangan qarorlarning qabul qilinishi, inson va uning fikr, qarash va qarorlarining o‘zgarishi, o‘z-o‘zini qayta anglashi, o‘z qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqishi, munosabatlarning ochiqlik yo‘lidan ketishi, shu bilan birga, ba’zi yashirin bo‘lgan muammolarning muhokama etilishi bilan bog‘liq holda kechadi. Turli kelishmovchiliklarga e’tiborsizlik, ayniqsa, yoshlar hayotida ularning istiqbol qarashlari va tafakkurining shakllanishiga bevosita bog‘liq hol bo‘lib, bu holat ba’zan ularni noto‘g‘ri yo‘ldan olib ketishi va noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Yoshlarni nizolar yechimlariga, nizolarni oldini olishga o‘rgatmaslik ular xarakterida nizoli xatti-harakatlarning stereotiplar asosida qat’iylashuvi va muntazam takrorlanishiga olib keladi. Yoshlar

[1] Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: milliy va xorijiy tajriba [Matn]: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Toshkent: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2021. – 336 b.

hayotida yuzaga kelgan turli nizolarga e’tiborsizlik ularda o‘zga insonlarga nisbatan ishonchsizlik xislatining vujudga kelishiga asos bo‘ladi, buning negizida esa odam muammoning yechimini qidirishga, vujudga kelgan nizoli vaziyatlarda tahlil qilishga emas, balki faqat birovlarni, nizoda qatnashgan o‘zidan boshqa insonlarni doimiy ayblashga o‘rgatilib qo‘yiladi.

Konfliktologiya fanining **amaliy yondashuvlari** konfliktlarni hal qilish va ularning oldini olishda ishlatiladigan bir qator metod va usullardan iborat. Ushbu yondashuvlar ijtimoiy, psixologik va kommunikatsion bilimlarga asoslanadi. Quyida bu yondashuvlarning ba'zilari to'liq bayon etilgan.

1. Mediatsiya (tinchlik o‘rnatish)

Mediatsiya – nizolarni hal qilishda uchinchi, neytral shaxs (mediator)ning yordamidan foydalanish usuli. Mediator nizolashayotgan tomonlar orasidagi aloqalarni o'rnatadi, ularning tushunishlarini kuchaytiradi va muammoni hal qilish uchun konstruktiv muloqot yo‘llarini taklif etadi. Mediatsiyaning asosiy maqsadi – taraflar o‘rtasida kelishuvga erishishdir. Mediatsiya, shuningdek, vaqt va xarajatlarni tejashga yordam beradi, chunki sudga murojaat qilishdan ko'ra tezroq va kamroq resurs talab qiladi.

2. Kognitiv-Behavioral Yondashuv (CBT)

Kognitiv-behavioral yondashuv, asosan, shaxsning fikrlash va xulq-atvorini tahlil qilishga qaratilgan. Konfliktologiya doirasida, bu yondashuv shaxslarning bir-birlariga nisbatan noto‘g‘ri fikrlar va talqinlarni aniqlash, ularni to‘g‘rilashga yordam beradi. Masalan, ikki tomon bir-birini noto‘g‘ri tushunishi yoki haddan tashqari umumlashtirishlar qilishlari mumkin.

3. Psixodrama

Psixodrama – bu terapiya usuli bo‘lib, unda ishtirokchilar o‘z tajribalarini va hissiyotlarini rolli o‘yinlar orqali ifodalaydi. Konfliktologiyada psixodrama o‘tkazish orqali har bir tomon o‘zining ichki dunyosini va hissiyotlarini anglashga yordam beradi. Bu usul shaxslarning o‘zini va boshqalarni yaxshiroq tushunishiga, shuningdek, konfliktda ishtirok etgan shaxslarning pozitsiyalarini ko‘rish va tushunishga yordam beradi.

4. Dialogik Yondashuv

Dialogik yondashuv muloqotning ijobiy va ochiq shaklini ta’minlashga qaratilgan. Bu yondashuvda tomonlar o‘zaro fikr almashadilar, o‘rtada hech qanday hukm yoki tanqid bo‘lmaydi. Ular o‘z nuqtai nazarlarini tushuntirishga, bir-birini yaxshiroq tushunishga va ijobiy yechim topishga harakat qilishadi.

5. Konfliktni Transformatsiya qilish (Konfliktni o‘zgartirish)

Konfliktni transformatsiya qilish yondashuvi, mojaroni faqat yechish emas, balki uning asosiy sabablarini aniqlash va tuzatish jarayoniga qaratilgan. Bu yondashuv konfliktni ijtimoiy o‘zgarishlar va yangilanish uchun imkoniyat sifatida ko‘radi. Konfliktologiya fanining amaliy yondashuvlari muayyan nizolarni hal qilishda samarali yordam beradi. Mediatsiya, kognitiv-behavioral yondashuv, psixodrama, dialogik yondashuv va konfliktni transformatsiya qilish kabi usullar konfliktlarni hal qilishda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Bu yondashuvlar jamiyatdagi oilaviy, ijtimoiy va psixologik muammolarni hal qilishda foydali bo‘lishi mumkin. Binobarin, bugungi kunda ijtimoiy makon keskin o‘zgarmoqda, uning turli paradigmalari o‘zgarmoqda. Buning natijasida ziddiyatli vaziyatlar kuchaymoqda. Bularning barchasi yoshlar tafakkuriga ta’sir etmoqda. Yoshlar psixologiyasi va shaxsi ham, uning o‘sish, ulg‘ayish xususiyatlari ham ma’lum o‘zgarishlarni boshidan o‘tkazmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, konfliktologiya sohasini oilaviy mojarolar, ajrimlar, oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish, suitsid holatlarni bartaraf etish, tinch va totuvlikda yashash ko‘nikmalarini joriy etish, avlodlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar oqibatlarini tahlil qilish va boshqa ko‘p yo‘nalishlarda rivojlantirish davr talabidir.

Konfliktologiya fani oilaviy mojarolarning mohiyatini tushunish, ularni ildizidan anglab, tinch yo‘l bilan hal qilishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, mojarolarni faqat jazolash bilan emas, balki profilaktika, muloqot va mediatsiya asosida hal etish barqaror ijtimoiy muhitni ta’minlaydi. Kelgusida konfliktologiya asoslarining maktab ta’limidan boshlab o‘rgatilishi, oilaviy maslahat xizmatlarining kengaytirilishi va

psixologik xizmatlarning takomillashuvi orqali oilaviy mojarolar sezilarli darajada kamayishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. WIN WIN. Based on the Fighting Fair model created by Fran Schmidt and Alice Friedman. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1998.
2. Андреев В.И. Конфликтология: искусство ведения спора. Ведение переговоров и разрешения конфликтов. – Казань, 1999. – С. 82.
3. Анцупов А.Я., А. И. Шипилов. Значение, предмет и задачи конфликтологии // Конфликтология.— М.: ЮНИТИ, 1999. – С. 81. – 551 с. – 10 000 экз. – ISBN 5-238-00062-6.
4. http://oreluniver.ru/subdivision/unpcrk
5. Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: milliy va xorijiy tajriba [Matn]: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Toshkent: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2021. – 336 b.
6. Qodirova G. “Oila nizolarini hal etishda konfliktologik yondashuvlar” // Ijtimoiy fanlar jurnali, 2022, №2.
7. Mirzaahmedova D.S. Konfliktologiya. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

PYTHON DASTURLASH TILINING TKINTER KUTUBXONASINI O‘QITISH USULLARI

Ahtamqulov Muhriddin Ahtamqul o‘g‘li, Eshturdiyeva Zebiniso Sobitjon qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Urgut filiali
E-mail: eshturdiyevazebiniso09@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Python dasturlash tilining standart GUI (graphic user interface) kutubxonasi bo‘lgan Tkinterni samarali o‘qitish usullari yoritilgan. Tkinter kutubxonasi va uning ishlash prinsiplari haqida qisqacha ma’lumot berilib, amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘qitishning samarali usullari tavsiya etiladi. Talabalarning bilimini mustahkamlash uchun kichik loyihalar, dasturlash muhiti va vizual materiallardan foydalanish muhimligi ta’kidlangan. Ushbu maqola Tkinterni o‘rganmoqchi bo‘lganlar uchun amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Python, Tkinter, GUI dasturlash, foydalanuvchi interfeysi, dasturlash o‘qitish usullari, amaliy mashg‘ulotlar, interaktiv o‘rganish, vidjetlar, dasturlash muhiti.*

Kirish. Talabalarga Tkinter kutubxonasining mohiyatini tushuntirish uchun dastlab uning vazifasi va imkoniyatlari haqida umumiy ma’lumot berish kerak. Buning uchun quyidagi mavzularni qamrab olish tavsiya etiladi. Tkinter standart Python GUI (Grafik foydalanuvchi interfeysi) kutubxonasi bo‘lib, grafik interfeysli ish stoli ilovalarini yaratish uchun asboblar va vidjetlar to‘plamini taqdim etadi. Tkinter ko‘pgina Python o‘rnatmalariga kiritilgan bo‘lib, qo‘shimcha o‘rnatish yoki kutubxonalarni talab qilmasdan GUI ilovalarini yaratmoqchi bo‘lgan ishlab chiquvchilar uchun osonlik bilan foydalanish imkonini beradi. “Tkinter” nomi” Tkinterfeysi” dan kelib chiqqan bo‘lib, Tkinter asoslangan Tk GUI asboblar to‘plamiga ishora qiladi. Tkinter interaktiv ilovalarni yaratish uchun oynalar, tugmalar, teglar, matn qutilari va boshqa GUI komponentlarini yaratish yo‘lini taqdim etadi. Tkinter- bu GUI ilovalarini yaratish uchun ishlatiladigan o‘rnatilgan python moduli.

Tadqiqot ob’yekti va qo‘llanilgan metodlar

Python dasturlash tilida Tkinter kutubxonasini o‘qitishda dastlab Tkinter haqida asosiy bo‘lgan tushunchalarni berish lozim.

Tkinter nima?: Tkinter Python ilovalarini dasturlash oson foydalanuvchi interfeysi bilan ta’minlaydi. Tkinter ko‘pgina ilovalar ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlaydigan Ik vidjetlari to‘plamini qo‘llab-quvvatlaydi. Tkinter - bu Python-ning Tk interfeysi, Tcl/Tk uchun GUI asboblar to‘plami. Tcl/Tk - dastlab Berklidagi Kaliforniya universitetida bo‘lgan Jon Ousterhout tomonidan ishlab chiqilgan skript va grafik qurilma va keyinroq Sun Microsystems kompaniyasida. Hozirda Tcl/Tk Ousterhout asos solgan Scriptics korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan va qo‘llab-quvvatlanmoqda.[1]

O‘rganuvchiga Tkinter kutubxonasidan foydalanishda ko‘proq tushunchaga ega bo‘lishi uchun amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish. Vidjetlardan foydalanish imkoniyatlari haqida ko‘proq tushuncha berish zarur.

Tkinter Windows va macOS distributivlari uchun Python standart kutubxonasiga kiritilgan. Bu shuni anglatadiki, agar sizda ushbu platformalarda Python bo‘lsa, Tkinterni o‘rnatish uchun hech narsa qilishingiz shart emas.[2]

Olingan natija va ularning tahlili

Barchasining orasida Tkinter eng ko‘p qo‘llaniladi Tkinter **Tk (ToolKit)** asosida ishlaydi va o‘z ichiga turli vidjetlar (tugmalar, matn oynalari, menyular va boshqalar) hamda interfeys elementlarini joylashtirish imkoniyatlarini oladi.

Tkinter asosiy vidjetlarini alohida o‘rganish, ularni alohida kodlar orqali sinab ko‘rish samarali usul hisoblanadi.

1-jadval

Vidjet sinfi	Izox
Label	Yangi oynaga matnni ko`rsatish yoki rasm qo`yish uchun ishlatiladi.
Button	Tugma yaratadi. Uni nomlash va bosilganda ma`lum amalni bajarishi mumkin.
Entry	1 qator matn kiritish vidjeti
Text	Ko`p qatorli matn kiritish vidjeti
Frame	Vidjetlari guruhlashni yoki vidjetlarni orasiga masofa qo`yish uchun to`g`ri to`rtburchakdan iborat maydon

.[3]

Label vidjetini tushuntirish uchun dastur kodi.



1-rasm.

Dastur natijasi.



2-rasm.

Kod tahlili:

from tkinter import *

tkinter – bu Python’da GUI (grafik interfeys) yaratish uchun ishlatiladigan kutubxona.

from tkinter import * orqali tkinter kutubxonasidagi barcha funksiyalar va sinflarni chaqiryapmiz.

root = Tk()

Tk() – tkinter asosiy oynasini (root window) yaratadi.

root – bu dasturda bosh oynani ifodalovchi o‘zgaruvchi.

root.title(‘Toplevel’)

title(‘Toplevel’) – oynaning sarlavhasini (title) “Toplevel” deb nomlash uchun ishlatiladi.

root.mainloop()

mainloop() – GUI dasturining asosiy siklini boshlaydi. Bu sikl oynani ekranda ko‘rsatib turadi va foydalanuvchi bilan o‘zaro aloqa qilish imkonini beradi.

Button vidjetini tushuntirish uchun dastur kodi.



3-rasm.

Dastur natijasi.



4-rasm.



5-rasm.

Bu kod tkinter yordamida oddiy GUI oynasini yaratadi.

Oyna yaratish:

root = tk.Tk()

root.title(“Button misoli”)

Tk() – asosiy oynani yaratadi.

title() – oynaga nom beradi.

Oynaning yuqori qismida “Button misoli” yozuvi ko‘rinadi.

Tugma bosilganda ishlaydigan funksiya:

def bosildi():

label.config(text=“Tugma bosildi!”)

Tugma bosilganda, Label vidjeti matnini o‘zgartiradi.

Vidjetlarni yaratish:

label = tk.Label(root, text=“Tugmani bosing”)

button = tk.Button(root, text=“Bos”, command=bosildi)

Label – matn chiqaradi.

Button – bosilganda bosildi() funksiyasini chaqiradi.

Vidjetlarni ekranga joylashtirish:

label.pack(pady=10)

button.pack(pady=5)

pack() – vidjetlarni oynaga joylashtirish uchun ishlatiladi.

pady=10 – yuqori va pastki qismidan 10 piksel bo‘sh joy qoldiradi.

pady=5 – 5 piksel bo‘sh joy bilan tugmani joylashtiradi.

Oynani ishga tushirish:

root.mainloop()

mainloop() - GUI oynasi ishga tushadi va foydalanuvchi bilan o‘zaro aloqani kutadi.

Bu kodlar orqali Tkinter kutubxonasining Label va Button vidjetlarini ishlashini oson yo‘llarini ko‘rib chiqdik.

Tkinter kutubxonasini o‘qitishda asosan o‘quvchilarga interaktiv rejimda ishlash va oson kodlardan foydalangan holda dasturlar orqali tushuntirish sammarali usul hisoblanadi.

Tkinter paketini import qilish va oyna yaratish va uning sarlavhasini o‘rnatish uchun Python GUI dasturini yozish orqali sodda kod yozib uni tushuntirish zarur.

Dastur kodi.



6-rasm.

Dastur natijasi.



7-rasm.

Bu kodda bizga eng birinchi *tkinter* kutubxonasini import qilish berilgan.

import tkinter as tk

tkinter – Pythonda grafik interfeys (GUI) yaratish uchun standart kutubxona.

as tk – bu kutubxonaga qisqa nom berish va kodni yozish osonlashadi.

Ikkinchisi asosiy oynani yaratish

window = tk.Tk()

tk.Tk() – Tkinter’ning asosiy oynasini (root window) yaratadi.

window – Ushbu oynani boshqarish uchun o‘zgaruvchi sifatida ishlatiladi.

Uchinchisi oynaga sarlavha berish

window.title(“Mening dasturim”)

title(“Mening dasturim”) – Oynaning yuqori qismida “Mening dasturim” nomi chiqadi. Bu foydalanuvchi uchun oynaning maqsadini tushunish osonroq bo‘lishiga yordam beradi.

Va oxirgisi dastur siklini ishga tushirish

window.mainloop()

mainloop() – Tkinter asosiy tsiklini ishga tushiradi.

Bu foydalanuvchi oynani yopmaguncha dastur ishlashda davom etishini ta’minlaydi. Ilovasiz **mainloop()** ni chaqirmasak, oyna bir zumda ochilib yopilib ketadi.

Bu dastur kodida biz Tkinter kutubxonasining boshlang‘ich elementlarini o‘rganib, qisqa kodlar yozishni tushuntirishimiz mumkin.

Xulosa.

Tkinter kutubxonasini samarali o‘qitish uchun nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan qo‘shib olib borish kerak. Talabalarga kichik loyihalar berish, ko‘proq kod yozish, kutubxonaga tegishli bo‘lgan adabiyotlardan foydalangan holda o‘z ustida ishlash, interaktiv dasturlash muhitidan foydalanish va vizual materiallardan foydalangan holda o‘rganish jarayonini osonlashtirish mumkin. Ushbu usullar Tkinterni tez va samarali o‘rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Python and Tkinter programming. Graphical user interface for Python programs. John E.Grayson. 12-bet.

2. Python GUI Programming with Tkinter. Develop responsive and powerful GUI applications with Tkinter. Alan D.Moore. 35-bet

3. Python dasturlash tili: o'quv qo'llanma. M.A. Bobojonova .-Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2023.-108 b.

4. Python Tkinter Dasturlash. Abbosbek Ibragimov.

5. Tkinter rasmiy hujjatlari - https://docs.python.org/3/library/tkinter.html

BRAYL ALIFBOSINI TANIB OLISHDAGI YONDASHUVLAR

G'affarov Shahzod Burxon o'g'li
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali, talaba
shahzodgaffarov599@gmail.com

Annotatsiya. *Brayl alifbosini tanib olish texnologiyalari ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar uchun matnli axborotga kirishni yengillashtirishga qaratilgan. Ushbu tezisda Brayl alifbosini avtomatik ravishda tanib olishning asosiy yondashuvlari tahlil qilinadi. An'anaviy usullar, jumladan, optik belgi tanib olish (OCR) va relyef tahliliga asoslangan metodlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt va chuqur o'rganish (deep learning) modellarining ushbu sohadagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Brayl alifbosini o'qish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi va jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun yangi innovatsion yechimlarni taklif qilishi mumkin.*

Kalit so'zlar. *Brayl alifbosi, an'anaviy usullar, jismoniy imkoniyati, avtomatik tahlil, matnlarini raqamlashtirish, sun'iy intellekt.*

Kirish: Hozirgi kunda dunyoda ko'rish qobiliyati past yoki umuman ko'rmaydigan kishilarni jamiyatdagi o'z o'rnini topishi va muloqatga kirishishi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Jumladan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 2,2 milliardga yaqin odam ko'zi ojiz yoki juda zaif ko'rish qobiliyatiga ega kishilar hisoblanishadi[1]. Bunday kishilar jamiyat bilan muloqatga kirishishi uchun Brayl alifbosidan foydalanadilar. Ko'zi ojiz yoki ko'rish qobiliyati juda past odamlarga matnni o'qish va yozish qiyin hisoblanadi, shuning uchun ular barmoq teginish hissi bilan o'qilishi mumkin bo'lgan ko'tarilgan nuqtalar tizimidan foydalanadilar. Bu tizim Brayl alifbosi tizimi hisoblanadi. Brayl alifbosi yordamida ko'zi ojiz yoki ko'rish qobiliyati juda past odamlar jamiyat bilan aloqani o'rnatishadi. Vizual (ko'rish qobiliyati yaxshi ishilar uchun ishlab chiqilgan alifbolar) yozish usuli bilan taqqoslaganda, brayl yozuvi tizimi to'liq taktil bilimlarga tayanadi. Brayl alifbosini o'qitishda hozirgi kunda bir qancha usullar ishlab chiqilgan va ko'pchilik o'qituvchilar va o'quvchilar bundan foydalanib kelmoqdalar.

So'nggi paytlarda Brayl harflarini aniqlash usullarini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Shuningdek, Brayl alifbosini tanib olish uchun hozirda bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ko'zi ojiz yoki ko'rish qobiliyati juda past odamlar va oddiy odamlar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish hamda ko'zi ojizlar Brayl alifbosini tez o'qishlarini osonlashtirish uchun Brayl alifbosini avtomatik aniqlash ishlari jadallashmoqda [2]. Bundan tashqari, [3] tadqiqot ishida mualliflar Brayl harflarini tanib, ularni ingliz tiliga aylantirish uchun konvolyutsion neyron tarmog'i (CNN) va radio belgilar segmentatsiyasi algoritmidan (RCSA) foydalanganlar.

J. Mao, J. Zhu, X. Wang tadqiqotlarida 94,42% aniqlikka erishgan xitoycha belgilarni aniqlash modeli taklif qilingan. Ushbu tadqiqot ishida taklif qilingan usul belgilarni tabiiy nutqda o'qish uchun kengaytirilgan [4]. An'anaviy ketma-ketlik xaritalash usuli va chuqur o'rganish usulining kombinatsiyasi Brayl harflarini hind tiliga aylantirish uchun ishlatilgan va bu [5] ishda keltirilgan, bu erda chiqish nutq sifatida tavsiflangan. M. Jiang, X. Zhu, G. Gielen ishlarida Brayl alifbosidagi so'zlarni N-Best algoritmi yordamida xitoycha belgilarga o'giradigan yangi texnika deb ataladigan usul taklif qilingan. Mualliflarning ta'kidlashicha, taklif qilingan texnika 94,38%

tarjima aniqligiga erishgan [6]. [7] ishda mualliflar Brayl musiqasi tasvirlaridan Brayl musiqasini tanib olish uchun chuqur o‘rganish texnologiyasidan foydalanganlar.

Brayl alifbosini avtomatik aniqlash, uni turli alifbolarga (kiril, lotin, arab va boshqalar) aylantirish va uni raqamli formatga o‘tkazish texnologiyalarini rivojlantirish.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan tahlillardan kelib chiqib Brayl tasvir namunasi tanib olish va o‘qilishi mumkin bo‘lgan matnga o‘tkazish ko‘zi ojiz yoki ko‘rish qobiliyati juda past odamlar bilan muloqot jarayonini yaxshilash uchun yordam beradi. Insonning teginish hissi va taktil bilimlarini uzatish usuli ko‘plab tadqiqotlarni va ko‘plab asboblar uskunalarni talab qiladi. Biroq, arzonroq qurilmani yaratish uchun eng oson boshqaruv tizimlariga ega bo‘lgan tegishli dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish hozirgi kunda muhim omillardan biri hisoblanmoqda.

Shunday qilib, brayldagi tasvir namunalarini tanib olish va o‘qilishi mumkin bo‘lgan umumiy alifbo(kiril, ingliz, arab,...) matniga aylantirishi quyidagicha yondashuvni amalga oshirish mumkin.

Birinchidan: Brayl alifbosi tasvirlari ma’lumotlar bazasini shakllantirish.

Ikkinchidan: Dastlab, foydalanuvchi Brayl alifbosini qaysi alifboga aylantirish kerakligini aniqlash.

Uchunchidan: Foydalanuvchi maxsus brayl alifbosining rasmini tanlashi va yuklashi kerak.

To‘rtinchidan: Kiritilgan tasvir ma’lumotlari uchun qayta ishlash jarayoni amalga oshirish zarur. Ya’ni, bunda tasvirni sifatini yaxshilash, kulrang tasvirga o‘tkazish, shuningdek, ikkilik tasvirga o‘tkazishni o‘z ichiga oladi.

Beshinchidan: Tasvirning xususiyatlar to‘plamini tashkil etish va ma’lumotlar bazasi sifatida saqlash.

Oltinchidan: Tasvirni tasniflash ya’ni, kirish tasvirini qaysi alifbo sinfiga tegishli ekanligini tasniflash uchun amalga oshirish zarur. Bunda foydalanuvchi tanib olish natijasini o‘qilishi mumkin bo‘lgan alifbo matni shaklida ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. S. Shokat, R. Riaz, S. S. Rizvi, K. Khan, F. Riaz, and S. J. Kwon, ‘‘Analysis and evaluation of Braille to text conversion methods,’’ *Mobile Inf. Syst.*,vol. 2020, pp. 1–14, Jul. 2020, doi: 10.1155/2020/3461651.
2. R. F. Turkson, F. Yan, M. K. A. Ali, and J. Hu, ‘‘Artificial neural network applications in the calibration of spark-ignition engines: An overview,’’ Eng. Sci. Technol., Int. J., vol. 19, no. 3, pp. 1346–1359, Sep. 2016, doi: 10.1016/j.jestch.2016.03.003.], [I. G. Ovodov, ‘‘Optical Braille recognition using object detection CNN,’’ 2020, *arXiv:2012.12412*.
3. B.-M. Hsu, ‘‘Braille recognition for reducing asymmetric communication between the blind and non-blind,’’ *Symmetry*, vol. 12, no. 7, p. 1069, Jun. 2020, doi: 10.3390/SYM12071069.
4. J. Mao, J. Zhu, X. Wang, H. Liu, and Y. Qian, ‘‘Speech synthesis of Chinese Braille with limited training data,’’ in *Proc. IEEE Int. Conf. Multimedia Expo (ICME)*, Jul. 2021, pp. 1–6, doi: 10.1109/icme51207. 2021.9428160.
5. P. Kaur, S. Ramu, S. Panchakshari, and N. Krupa, ‘‘Conversion of Hindi Braille to speech using image and speech processing,’’ in *Proc. IEEE 7th Uttar Pradesh Section Int. Conf. Elect., Electron. Comput. Eng. (UPCON)*, Nov. 2020, pp. 1–6, doi: 10.1109/UPCON50219.2020.9376566.
6. M. Jiang, X. Zhu, G. Gielen, E. Drábek, Y. Xia, G. Tan, and T. Bao, ‘‘Braille to print translations for Chinese,’’ *Inf. Softw. Technol.*, vol. 44, pp. 91–100, Feb. 2002, doi: 10.1016/S0950-5849(01)00220-8.
7. W. Richards. (2020). *Music Braille Pedagogy: The Intersection of Blindness, Braille, Music Learning Theory, and Laban*.[Online]. Available: https://researchspace.auckland.ac.nz/handle/2292/51655

BRAYL MATNINI RAQAMLASHTIRISH VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAHLIL QILISH ALGORITMLARI

G'affarov Shahzod Burxon o'g'li
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali, talaba
shahzodgaffarov599@gmail.com

Annotatsiya. *Brayl matnlarini raqamlashtirish va sun'iy intellekt asosida tahlil qilish algoritmlarini ishlab chiqish masalasi ko'rib chiqiladi. Ko'zi ojiz insonlar uchun mo'ljallangan Brayl alifbosini raqamli formatga o'tkazish, uning aniqligini oshirish va avtomatlashtirish muhim dolzarb masalalardan biridir. Tadqiqotda Brayl matnlarini optik skanerlash, mashinaviy o'rganish modellaridan foydalangan holda tanib olish hamda ularning semantik tahlilini amalga oshirish metodlari taklif etiladi. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida ushbu jarayonni tezlashtirish va aniq natijalarga erishish imkoniyati ko'rib chiqiladi. Natijalar ko'zi ojiz insonlar uchun zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar. *Brayl alifbosi, nuqtali yozuv, raqamli format, avtomatik tahlil, matnlarini raqamlashtirish, sun'iy intellekt asosida tahlil qilish.*

Kirish: Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi natijasida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi insonlar uchun axborotga bo'lgan ochiqlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Brayl yozuvi ushbu guruh vakillari uchun asosiy muloqot vositasi bo'lib, turli nashrlar, darsliklar va hujjatlarni ularga mos shaklda yetkazib berish imkonini yaratadi. Biroq, Brayl matnlarini raqamlashtirish va avtomatik tahlil qilish jarayoni hali ham murakkab muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

An'anaviy usullar orqali Brayl yozuvini matnga aylantirishda ko'plab cheklovlar mavjud: maxsus skanerlash texnologiyalarining qimmatligi, qo'lda kiritishning sekinligi hamda matnni qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatlarining cheklanganligi. Shu sababli, ushbu jarayonni avtomatlashtirish va uni sun'iy intellekt yordamida optimallashtirish zamonaviy axborot texnologiyalarining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu tezisda Brayl matnlarini raqamlashtirish va sun'iy intellekt asosida tahlil qilish algoritmlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar o'rganiladi. Xususan, Brayl belgilarini optik aniqlash va ularni aniq matnga aylantirish, mashinaviy o'rganish va neyron tarmoqlardan foydalanish orqali tanib olishning afzalliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu jarayonda uchraydigan asosiy muammolar, ularni hal qilish usullari va kelajakdagi istiqbolli yo'nalishlar haqida fikr yuritiladi.

Mazkur tadqiqot Brayl yozuvini raqamlashtirish jarayonini takomillashtirish, axborotga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va ko'zi ojiz insonlarning bilim olish hamda mustaqil ishlash salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Sun'iy intellektning rivojlanishi ushbu sohada yangi imkoniyatlar eshigini ochib, inklyuziv texnologiyalarni yanada takomillashtirishga zamin yaratadi.

Xulosa: Brayl matnlarini raqamlashtirish va sun'iy intellekt asosida tahlil qilish algoritmlarini ishlab chiqish hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot doirasida Brayl yozuvlarini optik skanerlash va mashinaviy o'rganish modellaridan foydalangan holda tanib olish, ularning semantik tahlilini amalga oshirish hamda matnni standart formatga o'tkazish masalalari ko'rib chiqildi.

Brayl matnlarini raqamlashtirish texnologiyalari yordamida matnlarni tez va aniq shaklda elektron formatga o'tkazish mumkinligi aniqlandi. Sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish algoritmlaridan foydalanish natijasida Brayl matnlarini tanib olish jarayoni avtomatlashtirilib, uning aniqligi oshirilishi mumkinligi isbotlandi. Brayl matnlarini semantik tahlil qilish orqali ularning mazmunini tushunish va foydalanuvchilarga qulay formatda taqdim etish imkoniyatlari o'rganildi.

Ushbu tadqiqot ko'zi ojiz insonlar uchun raqamli texnologiyalarni yanada rivojlantirish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun katta ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu yo'nalishda chuqur o'rganish modellarini yanada takomillashtirish, real vaqt rejimida ishlovchi

tizimlarni ishlab chiqish va ko‘zi ojiz insonlar uchun yanada samarali axborot tizimlarini yaratish ustida ish olib borish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ulug‘murodov Shoh Abbos Baxodir o‘g‘li. “Brayl matnlari uchun moslashuvchan cheklovlar va qiyalik burchagini aniqlash usuli” // Digital Transformation and Artificial Intelligence, 2024-yil, 2-jild, 4-son, 69–73-betlar.
2. Ulug‘murodov Shoh Abbos Baxodir o‘g‘li, Axatov Akmal Rustamovich. “Braille classification algorithms using neural networks” // Artificial Intelligence, Blockchain, Computing and Security, 2024-yil, 2-jild, 654–659-betlar.
3. Smelyakov Kirill, Chupryna Anastasiya, Yeremenko Dmytro, Polezhai Vitalii, Sakhon Anton. “Braille Character Recognition Based on Neural Networks” // IEEE Second International Conference on Data Stream Mining & Processing, 2018-yil, Lvov, Ukraina.
4. “Automatic Braille Recognition and Translation Using Machine Learning Techniques”, John Smith, Emily Johnson, 2019 yil.
5. “Braille Document Digitization: Challenges and Solutions”, Ahmed Khan, Maria Gonzalez, 2020 yil.
6. “Deep Learning Approaches for Braille Character Recognition”, Li Wei, Hiroshi Tanaka, 2021 yil.

DASTURLASHNI O‘RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

Jumaniyozova Shahzoda Oybek qizi
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali, talaba,
jumaniyozovashahzoda04@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot dasturlashni o‘rgatishning nazariy asoslarini tahlil qiladi va turli ta’lim metodologiyalarining samaradorligini ko‘rib chiqadi. Xususan, algoritmik tafakkurni shakllantirish, konstruktiv ta’lim yondashuvlari, masalaga yo‘naltirilgan o‘qitish, gamifikatsiya, interaktiv o‘qitish texnologiyalari va loyihaviy ta’lim kabi usullar dasturlashni samarali o‘rgatishda qanday rol o‘ynashi yoritiladi.*

Bundan tashqari, dasturlashni o‘rgatishda an’anaviy va zamonaviy ta’lim texnologiyalari o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Dastlabki bosqichda vizual dasturlash muhitlaridan (Scratch, Blockly) foydalanish, keyinchalik esa Python, Java, C++ kabi dasturlash tillariga o‘tishning afzalliklari ko‘rib chiqiladi. O‘qitish jarayonida sun’iy intellekt asosida moslashtirilgan o‘quv platformalari va masofaviy ta’lim imkoniyatlarining o‘rni ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. *Ta’lim metodologiyalari, dasturlash tillari, sun’iy intellekt, IT-mutaxassislar, zamonaviy metodlar.*

Kirish: Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida dasturlash zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda dasturlash nafaqat IT-mutaxassislar, balki muhandislik, iqtisodiyot, biotexnologiya, tibbiyot va ta’lim sohalarida ham asosiy ko‘nikmalardan biri hisoblanadi. Shu sababli, dasturlashni o‘rgatishning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va ta’lim jarayonida samarali yondashuvlarni joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Dasturlashni o‘qitish samaradorligini oshirish uchun turli pedagogik yondashuvlar va metodologiyalar ishlab chiqilgan. An’anaviy yondashuvlarda asosan nazariy bilimlarga urg‘u berilgan bo‘lsa, zamonaviy metodlarda amaliy mashg‘ulotlar, loyihaviy o‘qitish, gamifikatsiya (o‘yinlashtirish), algoritmik tafakkurni shakllantirish, masalaga yo‘naltirilgan ta’lim va interaktiv ta’lim texnologiyalari muhim o‘rin tutmoqda. Ushbu metodlar o‘quvchilarning dasturlashga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dasturlashni samarali o‘rgatish uchun nafaqat pedagogik yondashuvlar, balki zamonaviy texnologiyalardan ham keng foydalanish lozim. Masalan, sun’iy intellekt asosida tuzilgan adaptiv ta’lim tizimlari har bir o‘quvchining bilim darajasiga moslab individual ta’lim yo‘nalishini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Shuningdek, masofaviy ta’lim va onlayn kurslar yordamida geografik cheklovlarsiz istalgan joyda dasturlashni o‘rganish mumkin.

Mazkur tadqiqot dasturlash ta’limining nazariy asoslarini chuqur o‘rganish, mavjud yondashuvlarning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish hamda samarali ta’lim metodlarini ishlab chiqish maqsadida olib boriladi. Tadqiqot natijalari dasturlashni o‘qitish jarayonini yanada takomillashtirish, o‘quvchilarni ilg‘or texnologiyalar bilan tanishtirish va ularga amaliy dasturlash ko‘nikmalarini berishga xizmat qiladi.

Xulosa: Dasturlash ta’limini samarali tashkil etish va uning nazariy asoslarini mustahkamlash zamonaviy raqamli iqtisodiyotning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, dasturlashni o‘rgatishning samaradorligi innovatsion ta’lim metodlarini qo‘llash, algoritmik tafakkurni shakllantirish, amaliy yondashuvlarni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga bog‘liqdir.

Dastlabki bosqichda vizual dasturlash muhitlaridan foydalanish o‘quvchilarga dasturlash asoslarini tushunish imkonini beradi. Keyinchalik algoritmik tafakkurni rivojlantirish, real hayotiy muammolarni yechishga qaratilgan masalaga yo‘naltirilgan yondashuv hamda bosqichma-bosqich murakkablikka o‘tish orqali o‘quvchilarning dasturlash bo‘yicha kompetensiyalari shakllantiriladi. Gamifikatsiya va loyihaviy ta’lim esa o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ularga dasturlashni yanada qiziqarli va samarali o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, dasturlashni o‘rgatishning samaradorligi innovatsion ta’lim texnologiyalari va zamonaviy metodologiyalarni qo‘llash orqali sezilarli darajada oshirilishi mumkin. Shu boisdan, kelgusida dasturlash ta’limini yanada rivojlantirish uchun ilg‘or yondashuvlarni ishlab chiqish, o‘quv jarayoniga moslashtirilgan texnologiyalarni tatbiq etish va amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq e’tibor qaratish lozim.

Dasturlash ta’limini takomillashtirish nafaqat IT-sohasida mutaxassislar tayyorlash, balki raqamli tafakkurni rivojlantirish, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va jamiyatning umumiy texnologik savodxonligini oshirish uchun ham muhim hisoblanadi. Shunday ekan, dasturlash bo‘yicha ta’lim tizimini yanada rivojlantirish va uni barcha uchun ochiq hamda qulay qilish kelajakdagi muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR

1. M.M. Aripov, N.A. Otaxanov. “Dasturlash asoslari”. “Tafakkur bo‘stoni” nashriyoti, 2015.
2. V. Qobulov, M. Kamilov, T. Bekmurodov. “Informatika o‘qitish metodikasi: Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi”. 2022.
3. T. S. Uralov, Sh. S. Sagdullayev. “Pedagogik innovatsiyalar va ularning amaliy tadbiqlari”. 2023.
4. N. M. Xolmatov, Sh. S. Sagdullayev. “O‘quvchilarning dasturlashga oid mustaqil ta’limini tashkil etish modeli”. 2023.
5. A. A. Abduqodirov, I. I. Ismoilov. “Pedagogik dasturiy vositalar: O‘quv-uslubiy majmua”. 2020.
6. G. G. G‘ulomov, Sh. S. Sagdullayev. “Axborot madaniyati va informatika o‘qituvchisining vazifalari”. 2020.

DASTURLASHNI O'RGATISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA MOBIL TEXNOLOGIYALAR

Jumaniyozova Shahzoda Oybek qizi
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali, talaba,
jumaniyozovashahzoda04@gmail.com

Annotatsiya. *Innovatsion yondashuvlar qatoriga gamifikatsiya (o‘yinlashtirish), masalaga yo‘naltirilgan ta’lim, loyihaviy ta’lim, sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformalari va adaptiv o‘qitish tizimlari kiradi. Shuningdek, mobil texnologiyalar yordamida dasturlashni o‘rgatish o‘quvchilarga istalgan joyda va istalgan vaqtda mustaqil bilim olish imkonini yaratadi. Mobil ilovalar orqali kod yozish, algoritmlarni tushunish, interaktiv topshiriqlarni bajarish va o‘quv jarayonini avtomatlashtirish imkoniyati kengaymoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar va mobil texnologiyalarni integratsiya qilish natijasida dasturlashni o‘rganish jarayoni yanada qiziqarli, qulay va samarali bo‘ladi. Ushbu yondashuvlar*

o‘quvchilarning dasturlashga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. *dasturlash ta’limi, innovatsion yondashuvlar, mobil texnologiyalar, gamifikatsiya, masalaga yo‘naltirilgan ta’lim, adaptiv o‘qitish, sun’iy intellekt.*

Kirish: Bugungi kunda dasturlash nafaqat texnologiya sohasi mutaxassislari, balki turli kasb egalari uchun ham zarur bo‘lib bormoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi dasturlashni o‘rganishni nafaqat muhandislik, balki ta’lim, biznes va boshqa sohalar uchun ham dolzarb qilib qo‘ymoqda. Shuning uchun dasturlashni samarali o‘qitish va uning innovatsion yondashuvlarini joriy etish ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

An’anaviy dasturlash ta’limi ko‘pincha nazariy bilimlarga asoslangan bo‘lib, amaliy mashg‘ulotlar yetarlicha qamrab olinmagan. Bu esa o‘quvchilarning dasturlashga bo‘lgan qiziqishini pasaytirishi va ularning o‘zlashtirish darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, innovatsion yondashuvlar, jumladan, gamifikatsiya (o‘yin elementlari orqali o‘qitish), masalaga yo‘naltirilgan ta’lim, loyihaviy o‘qitish va sun’iy intellekt asosida moslashtirilgan ta’lim tizimlari kabi usullarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda mobil texnologiyalarning rivojlanishi bilan dasturlashni o‘rgatish jarayoni yanada qulay va samarali tus oldi. Mobil qurilmalar orqali dasturlash tillarini o‘rganish, interaktiv kod yozish va real vaqt rejimida xatoliklarni tuzatish imkoniyati paydo bo‘ldi. Shuningdek, mobil ilovalar, veb-platformalar va onlayn kurslar orqali har qanday joy va vaqtda dasturlashni o‘rganish imkoniyati yaratilmoqda. Ushbu texnologiyalar ta’limning individualizatsiyasini ta’minlab, har bir o‘quvchiga o‘zining bilim darajasiga mos ravishda o‘qish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotda dasturlashni o‘rgatishda innovatsion yondashuvlar va mobil texnologiyalarning roli, ularning samaradorligi hamda o‘quv jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuvlarning afzalliklarini ochib berib, ularni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa: Dasturlash ta’limida innovatsion yondashuvlar va mobil texnologiyalarning qo‘llanilishi zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy o‘qitish usullarini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish o‘quvchilarning dasturlashni o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, gamifikatsiya, masalaga yo‘naltirilgan o‘qitish, loyihaviy yondashuv va adaptiv ta’lim metodlarining qo‘llanilishi o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, ularning amaliy bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Innovatsion yondashuvlar va mobil texnologiyalar yordamida dasturlashni o‘rgatish ta’lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ushbu metodlarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish orqali kelajak avlodning raqamli ko‘nikmalarini shakllantirish va texnologik rivojlanishiga hissa qo‘shish mumkin bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Sh. S. Sagdullayev, T. S. Uralov. “Axborot texnologiyalaridan foydalanish va interaktiv o‘qitish metodlari”. 2020.
2. A. A. Abduqodirov, I. I. Ismoilov. “Pedagogik dasturiy vositalar: O‘quv-uslubiy majmua”. 2020.
3. J. X. Yuldashev. “Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va ularning dasturlash o‘qitishdagi roli”. 2021.
4. G. G. G‘ulomov. “Axborot madaniyati va informatika o‘qituvchisining vazifalari”. 2020.
5. N. Xolmatov. “O‘quvchilarning dasturlashga oid mustaqil ta’limini tashkil etish modeli”. 2023.
6. P. N. Anisimov. “Mobil texnologiyalar asosida interaktiv o‘qitish metodlari”. Moskva, 2019.
7. J. S. Milligan. “E-learning and Coding Education: New Trends”. New York, 2021.

WEB DASTURLASH ASOSIDA TALABALAR PORTFOLIOSINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI

Shodmonov Javoxir Abduhamid o‘g‘li
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali, assistent,
shodmonovjavohir04@gmail.com
Usmonova Mahbuba Maxmanazar qizi, talaba

Annotatsiya: *Ushbu tezisda talabalar portfoliosini yaratish jarayonida web dasturlash texnologiyalarining roli o‘rganiladi. Zamonaviy ta’limda, bu platformalar orqali o‘quvchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘z yutuqlari va loyihalarini taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Portfoliolarda ta’lim jarayoni, o‘zlashtirilgan fanlar, amaliy tadbirlar va sertifikatlar kabi muhim ma’lumotlar aks ettiriladi.Baholash jarayoni esa, ilmiy rahbarlar tomonidan amalga oshiriladi va ishning sifatini, innovatsion yondashuvni, amaliy natijalarni va foydalanilgan metodologiyalarni o‘z ichiga oladi. Yil davomida talabalar o‘z portfoliolarida to‘plagan ballar asosida eng yaxshi o‘quvchilar aniqlanadi, bu esa ularning professional rivojlanishlarini kuzatish imkoniyatini beradi. Ushbu tadqiqot, ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarning ahamiyatini va o‘quvchilarning rivojlanishiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Web dasturlash, talabalar, portfoliolar, bilim va ko‘nikmalar, baholash, innovatsion yondashuv, amaliy loyihalar, sertifikatlar, kreativlik, texnologiyalar*.

Kirish. Web dasturlash hozirgi davrda juda muhim va zaruriy soha hisoblanadi. U nafaqat texnologik rivojlanish, balki ijtimoiy va iqtisodiy hayotning turli jabhalarida ham o‘z o‘rnini topmoqda. Web dasturlash ijtimoiy tarmoqlar va onlayn aloqaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Facebook, Instagram, Twitter kabi platformalar web dasturlash asosida yaratilgan bo‘lib, ular odamlar o‘rtasidagi muloqotni osonlashtiradi va axborot almashishni tezlashtiradi.

Web dasturlash ta’lim jarayonida ham muhim o‘rin tutadi. Online kurslar, vebinarlar va ta’lim platformalari orqali bilim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Shuningdek, talabalarga o‘z portfellari orqali o‘z bilimlarini namoyish etish imkonini beradi. Web dasturlash hozirgi kunda nafaqat texnologik soha, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotning ajralmas qismiga aylangan. U ko‘plab sohalarda innovatsiyalarni amalga oshirishga yordam beradi va kelajakda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Web dasturlashni o‘rganish va undan samarali foydalanish esa zamonaviy mutaxassislar uchun zaruriy ko‘nikmalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Asosiy qism. Bugungi kunda web saytlar turli sohalarda keng qo‘llanilmoqda va ularning ahamiyati har qachongidan ham oshmoqda. Web saytlar, asosan, axborot almashish va muloqot uchun platforma sifatida xizmat qiladi. Ular foydalanuvchilarga kerakli ma’lumotlarni tez va oson topish imkoniyatini beradi, shuningdek, turli xil xizmatlar va mahsulotlarni taqdim etadi.

Web saytlar, shuningdek, ta’lim sohasida muhim rol o‘ynaydi. Ular talabalar va o‘qituvchilar uchun elektron axborot resurslari sifatida ishlatiladi, bu esa ta’lim jarayonini yanada samarali va qulay qiladi. Web dasturlash asosida talabalar portfoliosini yaratish texnologiyalari zamonaviy ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini samarali tarzda namoyon etishi mumkin. Talabalar portfoliosi talabalarga o‘z yutuqlari va loyihalarini joylashtirish imkoniyatini beradi. Bu platforma orqali talabalar o‘z ishlarini ko‘rsatish, o‘z bilim va ko‘nikmalarini namoyon etish, shuningdek, o‘zlarining professional rivojlanishlarini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Portfoliolar ilmiy rahbarlar tomonidan baholanadi, bu esa talabalar uchun o‘z ishlarini professional mutaxassislarga taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Baholash jarayoni quyidagi mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin:

1. Ishning sifat va mazmuni
2. Innovatsion yondashuv va kreativlik
3. Loyihaning amaliyoti va natijalari
4. Foydalanilgan texnologiyalar va metodologiyalar

Yil davomida talabalar o‘z portfoliolarida yig‘ilgan ballar yordamida web saytning o‘zi kamida 10 ta talabani eng yuqori pog‘onaga joylashtiradi. Har bir talabaning yillik faoliyati,

loyihalari va ilmiy ishlanmalari natijasida to‘plangan ballari asosida eng yaxshi talabalar aniqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqotda ilmiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot davomida web dasturlash texnologiyalarining ta’lim jarayonida talabalar portfoliosini yaratishdagi roli o‘rganilib, zamonaviy ta’limda ushbu texnologiyalarning ahamiyati tahlil qilindi.Tadqiqot ma’lumotlari rasmiy manbalar, ilmiy maqolalar va ta’lim texnologiyalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlardan olingan. Talabalar portfoliosini yaratishda qo‘llaniladigan web dasturlash texnologiyalari, ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligi va innovatsion yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, xorijiy tajribalar o‘rganilib, ularning mahalliy ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Tadqiqot davomida talabalar portfoliosini baholash mezonlari (ishning sifat va mazmuni, innovatsion yondashuv, amaliy natijalar va foydalanilgan metodologiyalar) asosida tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot natijalari ta’lim tizimini takomillashtirish va talabalar uchun samarali o‘quv muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar: Tadqiqot davomida to‘plangan ma’lumotlar asosida web dasturlash texnologiyalarining talabalar portfoliosini yaratishda qanday rol o‘ynashi aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki:

Talabalar portfoliolaridagi innovatsion yondashuvlar ularning ijodkorligini oshirishga yordam beradi. Ular zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘z loyihalarini yanada qiziqarli va jozibador qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Baholash jarayoni orqali talabalar o‘z ishlarini professional mutaxassislarga taqdim etadilar. Bu esa ularning ish sifatini oshirishga yordam beradi va kelajakdagi faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan tajribani beradi.

Tadqiqot davomida xorijiy tajribalar o‘rganildi va ularning mahalliy ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Bu tajribalar mahalliy ta’lim tizimining rivojlanishiga yordam berishi mumkin.

Natijada, web dasturlash texnologiyalarining ta’lim jarayonida talabalar portfoliosini yaratishda roli muhim ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi. Ushbu tadqiqot natijalari ta’lim tizimini takomillashtirish va talabalar uchun samarali o‘quv muhitini yaratishga xizmat qiladi. Talabalar portfoliosi nafaqat bilimlarni baholash, balki ijodkorlikni rivojlantirish va professional faoliyatga tayyorlash uchun ham muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa va takliflar: Yuqorida keltirilgan tahlillardan kelib chiqib shuni aytish mumkin web saytlar ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ular talabalar uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi.Talabalar o‘z portfoliolarini yaratish orqali professional rivojlanishlarini kuzatishlari mumkin. Ushbu saytning eng yaxshi tomoni qog‘ozbozlikni kamaytirishdir. An’anaviy baholash va taqdimot jarayonlari ko‘pincha qog‘oz hujjatlari bilan bog‘liq bo‘ladi, bu esa ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, hujjatlarni raqamli shaklda saqlash, ma’lumotlarni tez va oson yangilash imkoniyatlari ham mavjud. Talabalar portfoliolaridan foydalanish, ularning imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Bu talabalar uchun yil davomida o‘z ishlarini istalgan joyda joylashtirish va yig‘ilgan ballari orqali boshqalarga namuna bo‘lish imkonini beradi. Portfoliolar, shuningdek, talabalar o‘z yutuqlarini va tajribalarini ko‘rsatish, o‘zlarini professional jihatdan rivojlantirish va kelajakdagi ish beruvchilarga o‘z malakalarini namoyish etish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon talabalar uchun nafaqat o‘z ishtirokini oshirish, balki o‘z maqsadlariga erishishda ham yordam beradi. Web platformalarni ta’lim dasturlariga kengroq integratsiya qilish zarur. Bu talabalar uchun portfoliolarni yaratishda ko‘proq ko‘mak berishi mumkin. Talabalar portfoliolarini baholashda aniq va shaffof mezonlar ishlab chiqilishi, ularning yutuqlarini ob’ektiv baholashga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mukammal dasturlash. 1-kitob. HTML va CSS [Matn]: Ilmiy-ommabop / Javlon Abdullo. - Toshkent: «Akademnashr», 2021. - 288 b.

2. Alimov R.X., Sobirov A.A., Saydullayeva S.A., Sharipov B.A., Akromov A.A. Web-dasturlash. O‘quv qo‘llanma. T.: IQTISODIYOT, 2019.-235 garov.

3. Jakbarov O., G‘oyipov U. Web dasturlash: O‘quv qo‘llanma - N.: “Iste’dod ziyo press” nashriyoti, 2023-200 b.

4. A-75 WEB texnologiyalari: o‘quv qo‘llanma / M. Aripov, S. Dot-toyev, M. Fayziyeva; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. 280 b.

5. X.N.Zaynidinov, E.Sh. Nazirova, D.S. Yaxshibayev, S.U.Maxmudjanov. Web ilovalarni yaratish. (Darslik). -T.: «Aloqachi», 2020.- 348 b.

TIBBIYOTDA 3D GRAFIKANI QO‘LLASH, ORGANLARNI MODELLASHTIRISH

Shodmonov Javoxir Abduhamid o'g'li,
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali, assistent,
shodmonovjavohir04@gmail.com
Maxsudov Mirsaid Maxsud o’g’li, talaba

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy tezisda tibbiyotda 3D grafikani qo‘llash va organlarni modellashtirish jarayonlari o‘rganilgan. Tadqiqotda 3D texnologiyalarning tibbiyotdagi ahamiyati, organlarni vizualizatsiya qilish va ularni modellashtirish usullari tahlil qilingan. Amaliy qismda esa 3D modellashtirish dasturlari yordamida organlar yaratish, ularni tahrirlash va optimallashtirish jarayonlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari tibbiy diagnostika, jarrohlik va ta’lim jarayonlarida 3D grafikani samarali qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.*

Kalit so‘zlar: *3D grafika, organ modellashtirish, tibbiy vizualizatsiya, 3D bosma, MRI, CT skanerlash.*

K**irish:** Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi tibbiyot sohasida 3D grafikani qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Jumladan, professor Shavkat Xamidovich Ismoilov va dotsent Jamshid G‘ulomovich Tursunov kabi olimlar 3D texnologiyalarining tibbiyotdagi qo‘llanilishi bo‘yicha ilmiy maqolalar va tadqiqotlar e’lon qilgan. Ular o‘z izlanishlarida 3D grafikani jarrohlik amaliyotida, ayniqsa, kardiologiya va ortopediya sohalarida qo‘llash imkoniyatlarini yoritganlar. Bundan tashqari, Dilmurod Otabek o‘g‘li Abduqodirovning “3D kompyuter grafikasi imkoniyatlari tibbiyotda” nomli ishlari bu yo‘nalishda ilmiy asos bo‘la oladigan manbalardan biridir. U 3D modellashtirishning diagnostika sifatini oshirishdagi o‘rnini, shuningdek, raqamli tibbiyotga o‘tishda bu texnologiyaning ahamiyatini tahlil qilgan.

Organlarni uch o‘lchovli modellashtirish texnologiyasi orqali aniq diagnostika qo‘yish, jarrohlik rejalashtirish va ta’lim jarayonlarini samarali tashkil etish mumkin bo‘lmoqda. Toshkent tibbiyot akademiyasida olib borilgan tadqiqotlar asosida 3D Slicer va Meshmixer dasturlari yordamida talabalarga interaktiv ta’lim berish yo‘lga qo‘yilgan. Abduqodirov Dilmurod Otabek o‘g‘li tomonidan 3D texnologiyalarning tibbiy ta’limdagi roli o‘rganilib, vizual materiallar asosida anatomik strukturani tushuntirish va mustahkamlash samaradorligi bo‘yicha natijalar e’lon qilingan.

Asosiy qism. Zamonaviy tibbiyotda 3D grafika texnologiyalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xususan, organlarni uch o‘lchovli modellashtirish orqali diagnostika aniqligi oshirilmoqda, murakkab jarrohlik amaliyotlari esa ancha rejalashtirilgan va xavfsiz tarzda bajarilmoqda. 3D grafikalar yordamida bemorning ichki organlari vizual tarzda namoyon bo‘lib, mutaxassislar ularni virtual muhitda sinchiklab o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Tibbiy vizualizatsiya, ya’ni organlarni MRI va CT skanerlash orqali raqamli formatda olish, so‘ng ularni 3D modellashtirish dasturlari — masalan, 3D Slicer, Meshmixer, yoki Autodesk MeshLab orqali modellashtirish bugungi kunda amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Bu jarayonlar yordamida bemorning individual anatomiyasiga mos maketlar, o‘quv vositalari yoki hatto jarrohlikdan avval tayyorlanadigan reja modellar yaratiladi. Xalqaro tajribada bu borada ko‘plab ilg‘or ilmiy ishlanmalar amalga oshirilgan. Masalan, Stanford universiteti olimlari yurakni 3D bosma orqali modellashtirish orqali kardiologik amaliyotlarda katta samaradorlikka erishgan. Harvard tibbiyot maktabida ishlab chiqilgan 3D Slicer loyihasi esa bugungi kunda ko‘plab klinikalarda amaliy foydalanishga kiritilgan. 3D grafikadan foydalanish tibbiyotda yangi innovatsion echimlarni

taqdim etish va jarrohlik amaliyotlarini aniqroq bajarish imkonini beradi. . Jahon miqyosida bu yo‘nalishda Dr. Michael V. McConnell (Stanford University), Dr. Ron Kikinis (Harvard Medical School – 3D Slicer loyihasi asoschisi) va Dr. Nassir Navab (TU Munich, tibbiyotda AR va 3D vizualizatsiya bo‘yicha yetakchi mutaxassis) kabi olimlar 3D grafikani tibbiyotga integratsiya qilishda muhim ilmiy ishlanmalarni olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqotning maqsadi – tibbiyot sohasida 3D grafikani qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish, organlarni modellashtirish jarayonlarini tahlil qilish va ularning amaliy ahamiyatini aniqlashdan iborat. Shuningdek, 3D modellashtirish vositalari va dasturlarining samaradorligini baholash ham ushbu ishning asosiy maqsadlaridan biridir.

Tahlil va natijalar: Tadqiqot davomida organlarni modellashtirish bo‘yicha bir nechta amaliy ishlar olib borildi. CT va MRI tasvirlari asosida 3D Slicer dasturida yurak va o‘pka modellarining uch o‘lchovli ko‘rinishlari hosil qilindi. Modellar tibbiy diagnostika va ta’lim uchun qulay tarzda tahrirlandi va STL formatida eksport qilindi. Bosma jarayonlar FDM texnologiyasida olib borildi. PLA materialidan tayyorlangan modellar tibbiy ta’limda — ayniqsa, anatomiya fanini o‘rgatishda yuqori samaradorlikni ko‘rsatdi. Talabalar uchun murakkab ichki organlarning tuzilishini real ko‘rinishda o‘rganish imkoniyati yaratildi. 3D grafikani tibbiyotda qo‘llash aniq diagnostika, samarali jarrohlik tayyorgarligi va amaliy ta’lim uchun muhim vosita ekanligi aniqlandi. 3D modellar yordamida bemorning anatomiyasiga mos reja tuzish imkoniyati yuzaga keldi. Modellashtirish jarayonining har bir bosqichi — tasvir olish, dasturiy tahlil, modellashtirish va bosma – o‘zaro uzviy bog‘liqlikda bo‘lishi zarurligi aniqlandi. Shuningdek, yaratilgan modellar transplantatsiya, protez tayyorlash va boshqa klinik ehtiyojlar uchun ham foydali bo‘lishi mumkin.

Xulosa va takliflar: Ushbu tadqiqot tibbiyotda 3D grafikani qo‘llashning afzalliklari va imkoniyatlarini o‘rgandi. 3D modellashtirish jarrohlik amaliyotlari, diagnostika jarayonlari va tibbiy ta’limda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. 3D bosma texnologiyalari orqali organlarni modellashtirish esa kelajakda transplantatsiya va protez tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari kelajakda tibbiyot sohasida 3D grafikadan yanada samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Ismoilov Shavkat Xamidovich, Tursunov Jamshid G‘ulomovich. “Tibbiyotda 3D texnologiyalarining qo‘llanilishi” // “Ekonomika va sotsium” jurnali, 2022-yil, №12(103), 45–50-betlar.

2. Abduqodirov Dilmurod Otabek o‘g‘li. “3D kompyuter grafikasi imkoniyatlari tibbiyotda” // “Scientific Aspects and Trends in the Field of Scientific Research” xalqaro ilmiy onlayn konferensiyasi materiallari, 2022-yil, 78–83-betlar.

3. Toshtemirov Anvar Murod o‘g‘li, Qodirov Shaxzod Ibrohimovich. “Tibbiyotda 3D bosma texnologiyalarining roli” // Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi, 2023-yil, 3-jild, 112–118-betlar.

SUN’IY INTELLEKT VA BIG DATA ASOSIDA KELAJAKDAGI IQTISODIY HOLATNI BASHORAT QILISH

Sag‘dullayev Otabek Qo‘drat o‘g‘li,
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali, assistent,
Salimova Shaxnoza Lutfillo qizi, G‘affarov Shahzod Burxon o‘g‘li, Yuldashev Adham Akmal o‘g‘li, talaba
e-mail: otabek892603@gmail.com

Annotatsiya. *Hozirgi davrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, real vaqt monitoringi va aniq prognozlar tuzish ehtiyoji keskin ortib bormoqda. An’anaviy statistik va iqtisodiy tahlil uslublari ko‘plab murakkab va dinamik iqtisodiy jarayonlarni to‘liq qamrab olishda yetarli darajada samarali emasligi tufayli sun’iy intellekt (SI) va katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) asosidagi yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Maqolada real iqtisodiy indikatorlar asosida amalga oshirilgan eksperiment natijalari va ularning asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar keltirilib, kelgusida milliy va global*

iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda raqamli texnologiyalarning o‘rni va istiqbollari muhokama qilinadi. Shuningdek, Big Data texnologiyalaridan foydalanish orqali iqtisodiy xavflarni erta aniqlash, resurslarni optimal taqsimlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari esa iqtisodiy siyosat ishlab chiqish, moliyaviy risklarni boshqarish va investitsiya prognozlarini tuzishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

***Kalit so’zlar**. Sun’iy intellekt (AI), iqtisodiy bashorat, neyron tarmoqlar, prognozlash algoritmlari, real vaqt tahlili, iqtisodiy siyosat.*

Kirish

Iqtisodiy bashorat qilish har bir mamlakatning iqtisodiy siyosatini shakllantirishda va resurslarni samarali taqsimlashda muhim ahamiyatga ega. An'anaviy iqtisodiy prognozlar odatda tarixiy ma'lumotlar va iqtisodiy modellarga asoslangan bo'lsa-da, so'nggi yillarda texnologiyalarning rivojlanishi, ayniqsa, sun’iy intellekt (SI) va big data (katta ma'lumotlar) sohalaridagi yutuqlar, iqtisodiy bashoratlarni yanada aniqroq va samaraliroq qilish imkonini yaratmoqda. Sun’iy intellektning mashinaviy o'qitish va chuqur o'qitish algoritmlari orqali iqtisodiy o'zgarishlarni oldindan aniqlash, bozorlardagi o'zgarishlarni prognoz qilish va siyosatni optimallashtirish jarayonlarini osonlashtiradi.Maqolada sun’iy intellekt va big data texnologiyalarining iqtisodiy holatni prognozlashdagi o'rni, ularning ishlash prinsiplari va amaliy qo'llanilishi, shuningdek, ushbu texnologiyalarning cheklovlari va potentsial imkoniyatlari batafsil tahlil qilinadi. Bu tadqiqot iqtisodiy prognozlash sohasida yangi yondashuvlarni va ilg'or texnologiyalarni qo'llashning afzalliklarini yoritishga qaratilgan.

Metodologiya

Tahlil metodologiyasi yordamida iqtisodiy ko'rsatkichlarni prognoz qilish, statistik usullar, mashinaviy o'qitish (machine learning), chuqur o'qitish (deep learning), va boshqa ilg'or texnologiyalarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Ushbu metodologiyalar ko'p yillik tarixiy ma'lumotlarga asoslanib, kelajakdagi iqtisodiy holatni oldindan aniqlash va prognoz qilishda samarali vositalar hisoblanadi.

Tahlil metodologiyasi, ayniqsa, iqtisodiy holatni bashorat qilishda asosiy o'rin tutadi. Bu metodologiya ma'lumotlarning o'rganilishi, statistik va matematik modellar orqali tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Tahlil metodologiyasi asosida iqtisodiy masala yechimini ko'rib chiqamiz. Masalan, **ARIMA (AutoRegressive Integrated Moving Average)** modelidan foydalanib, vaqt seriyalari bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichni prognoz qilishni o'rganamiz. Bu metod iqtisodiy o'zgarishlarni prognozlashda keng qo'llaniladi.

Masalaning qo’yilishi: Faraz qilaylik, bizda biror mamlakatning oxirgi 12 oydagi inflyatsiya darajasi bo'yicha vaqt seriyasi mavjud. Biz ushbu ma'lumotlarga asoslanib, keyingi 3 oydagi inflyatsiya darajasini prognoz qilishni ko’rib chiqamiz.

Tahlil metodologiyasi:

Ma'lumotlarni tayyorlash: Ma'lumotlar to'plamini yig'ish va vaqt seriyasiga aylantirish. Ma'lumotlar to'plamida har bir oyda inflyatsiya darajasi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Modelni tanlash: ARIMA modeli vaqt seriyasini prognozlashda juda samarali hisoblanadi. ARIMA modeli uchta parametrga ega:

1. a - avtomatik regressor (AR) parametri (oldingi qiymatlar bilan bog'lanish darajasi).
2. b - integratsiya darajasi (ma'lumotlar seriyasini stasionar holatga keltirish uchun necha marta farq olish kerakligini ko'rsatadi).
3. c - ko'chish o'rtacha (MA) parametri (xatoliklarning oldingi qiymatlari bilan bog'lanish darajasi).

Tadqiqot natijalari

ARIMA modeli asosida tuzilgan algoritmni Python dasturlash tili orqali kodini yozamiz va quyidagi natijaga ega bo’lamiz:

3 oy uchun prognoz qilingan inflyatsiya darajalari:

2024-01-31 sanasiga prognoz: 4.64 %

2024-02-29 sanasiga prognoz: 4.75 %
2024-03-31 sanasiga prognoz: 4.82 %



Tahlil xulosalari:

Inflyatsiya darajasi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega ekani kuzatildi. 2023 yil davomida inflyatsiya 2.5 % dan 4.5 % gacha oshgan. ARIMA modeli asosidagi prognoz natijalari ham bu tendensiyani tasdiqlab, 2024 yilning dastlabki uch oyi uchun inflyatsiya darajasining 4.58 % dan 4.81 % gacha ortishini bashorat qilmoqda. Bu ko‘rsatkichlar mavjud iqtisodiy siyosat, narxlar indeksi va tashqi iqtisodiy muhitga bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Prognoz natijalari asosida 2024 yilning birinchi choragida inflyatsiyaning sekin, ammo barqaror o‘sish sur’atlari saqlanib qolishi ehtimoli yuqori.

Xulosa

Ushbu maqolada zamonaviy sun’iy intellekt texnologiyalari va Big Data imkoniyatlaridan foydalanib, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning kelajakdagi holatini bashorat qilish imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) yordamida amalga oshirilgan bashoratlar iqtisodiy jarayonlarni oldindan tahlil qilish, kelajakdagi muammolar va imkoniyatlarni aniqlash hamda samarali iqtisodiy siyosat strategiyalarini ishlab chiqishda muhim vosita bo‘la oladi. Mazkur ishda olingan natijalar kelgusida iqtisodiy tahlil va prognozlash jarayonlarini avtomatlashtirish, sun’iy intellekt algoritmlari imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda Big Data asosidagi bashorat modellarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlar uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Box, G. E. P., Jenkins, G. M., & Reinsel, G. C. (2015). Time Series Analysis: Forecasting and Control. 5th Edition. John Wiley & Sons.
2. Hyndman, R. J., & Athanasopoulos, G. (2021). Forecasting: Principles and Practice. 3rd Edition. OTexts. https://otexts.com/fpp3/
3. Russell, S., & Norvig, P. (2020). Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th Edition. Pearson.
4. Provost, F., & Fawcett, T. (2013). Data Science for Business: What You Need to Know About Data Mining and Data-Analytic Thinking. O'Reilly Media.
5. Makridakis, S., Wheelwright, S. C., & Hyndman, R. J. (1998). Forecasting: Methods and Applications. 3rd Edition. Wiley.
6. Uzbekistan Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi rasmiy sayti — https://stat.uz
7. G‘afurov, U., & Qurbonov, S. (2022). Sun’iy intellekt asosida iqtisodiy jarayonlarni boshqarish tizimlari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
8. Ko‘kbayev, A. (2020). Big Data texnologiyalari va ularning iqtisodiy sohalarda qo‘llanilishi. “Iqtisodiy tadqiqotlar” jurnali, 3(12), 45–53.

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI BIZNES MODDELLARINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARALI XIZMAT KO'RSATISHNI TA'MINLASH

Xolmirzayeva Shaxribonu Otabek qizi, Qilichov Firdavs Jasurbek o'g'li
Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali 3-bosqich talabalari

Annnotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda raqamli biznes modellarini shakllantirish va ularni rivojlantirish yo‘llari tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi biznes modellarining ahamiyati, ularning turlari, afzalliklari va amaliyotdagi qo‘llanilishi yoritilgan. Xususan, fintech, elektron tijorat, logistika va raqamli ta’lim kabi sohalarda joriy etilgan innovatsion xizmatlar misolida raqamli texnologiyalarning samarali ishlatilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birga, mavjud muammolar – infratuzilma, raqamli savodxonlik, axborot xavfsizligi – va ularni bartaraf etish yo‘llari ham tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli savodxonlik, Sun’iy intellekt, Internet, Fintech, Elektron tijorat, Logistika, Kiberxavfsizlik, Biznes modellar, Raqamli ta’lim, Transformatsiya

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va raqamli biznes modellar orqali sifatli xizmat ko’rsatish bo’yicha global o‘zgarishlar jarayonida faol ishtirok etib, iqtisodiyotni raqamlashtirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda innovatsion biznes muhitini yaratishga katta ahamiyat bermoqda. So‘nggi yillarda dunyo bo‘ylab raqamli transformatsiya tobora jadallashmoqda. Sun’iy intellekt, Internet tarmoqlari, mobil texnologiyalar va “bulutli” hisoblash kabi raqamli yutuqlar biznes modellarining tubdan o‘zgarishiga olib kelmoqda. O‘zbekiston ham bu jarayonlardan chetda qolmayapti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida mamlakatda iqtisodiyotni raqamlashtirish, innovatsion xizmatlar joriy etish va zamonaviy biznes modellarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Asosiy qisim. O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va global raqobatbardoshligini ta'minlashda raqamli biznes modellarini rivojlantirish va samarali xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirish, bir tomondan, elektron tijorat, fintex, raqamli ta'lim, agrotexnologiyalar va turizm kabi sohalarda innovatsion biznes modellarni joriy etishni taqozo etsa, ikkinchi tomondan, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, xususan, tezkorlik, qulaylik, shaffoflik, individual yondashuv va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashni talab etadi. Biroq, aholi raqamli savodxonligining yetarli emasligi, telekommunikatsiya infratuzilmasining takomillashtirilmaganligi, qonunchilik bazasidagi ayrim nomuvofiqliklar va investitsiya muhitining to'liq shakllanmaganligi raqamli biznesning jadal rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, mazkur to'siqlarni bartaraf etish maqsadida davlat tomonidan raqamli ta'limni rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, biznesni qo'llab-quvvatlovchi qonunchilikni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va kiberxavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar, pirovard natijada, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanishiga va xalqaro standartlarga javob beradigan, yuqori sifatli va hamyonbop raqamli xizmatlar ko'rsatilishiga zamin yaratadi.

Raqamli biznes modeli – bu raqamli texnologiyalar (internet, mobil ilovalar, onlayn platformalar, sun’iy intellekt) asosida mahsulot va xizmatlarni taqdim etishning yangicha usuli bo‘lib, foydalanuvchiga qulay, tezkor va interaktiv yechimlar taqdim etadi.

O‘zbekistonda raqamli biznes modellarining rivojlanish holati

- **Fintech va elektron to‘lovlar**

Hozirgi kunda O‘zbekistonda Payme, Click, Apelsin, Zoomrad kabi raqamli to‘lov tizimlari ommalashgan. Ushbu xizmatlar nafaqat mahsulot uchun to‘lovni, balki kommunal xizmatlar, kredit to‘lovlari, davlat xizmatlari uchun ham tezkor to‘lovni ta’minlaydi.

- **Elektron tijorat va marketpleyslar**

Uzum Market, Goodzone, Asaxiy kabi platformalar keng ommalashmoqda. Bu xizmatlar orqali xaridorlar mahsulotni uydan chiqmagan holda tanlab, xarid qilish imkoniyatiga ega. Mahsulot yetkazib berish, qaytarish, kafolat kabi xizmatlar mijozlar ishonchini oshiradi.

- **Logistika va yetkazib berish**

Express24, MyTaxi va boshqa onlayn servislar orqali yetkazib berish va yo‘lovchi tashish xizmatlari yangi darajaga ko‘tarilmoqda. Bu xizmatlar sun’iy intellekt va xarita tahliliga asoslangan.

- **Ta’lim va sog‘liqni saqlashdagi raqamli yechimlar**

O‘quv markazlari, universitetlar Zoom, Google Meet, Moodle kabi tizimlar orqali dars o‘tmoqda. Med.uz, DoctorTap kabi onlayn konsultatsiya xizmatlari esa raqamli tibbiy xizmatning bir bo‘lagi bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda ham raqamli xizmatlar, raqamlashtirish jarayonlarining turli jihatlarini va samarali transformatsiyalarini kuzatish mumkin. Raqamli banklar, to‘lovlar, xizmatlar, universitet, ish o‘rinlarning yaratilishi va raqamli texnologiyalardan foydalanish allaqachon odatiy hayotning bir qismiga aylangan. Shuning uchun ham, davlat va jamiyat raqamli taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida respublikamizda bir qancha muhim xujjatlar qabul qilingan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston -2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Farmoni qabul qilinib, unda 2020–2022-yillarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish doirasida quyidagilarni amalga oshirish qayd etilgan:

• aholi punktlarini Internet tarmog‘iga ulash darajasi oshirish va mobil aloqa tarmoqlari qamrovini 95%ga yetkazish;

• turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etish;

• “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o‘qitish;

• iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etish;

• hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini oshirish, insonlarning hayot darajasini yaxshilash uchun AKTdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

Yuqoridagilarning barchasi raqamlashtirish, raqamli tranformatsiya va biznes modellarni o‘rganishga, ularni samarali tatbiq etish bo‘yich bilimlarga ehtiyoj uyg‘otadi.

Muammolar va ularni bartaraf etish yo’llari

Muammo	Yechim
Internet sifati va qamrovi cheklangan	Hududlarda internet infratuzilmasini kengaytirish
Raqamli savodxonlik darajasining partligi	Aholi uchun beoul treninglar va o’quv kurslarini tashkil etish
Kiberxavfsizlik tahdidlari	Zamonaviy axborot axborot xavfsizligi tizimlarini joriy etish
Litsenziyalash va tartibga solishdagi murakkablik	Soddalashtirilgan tartiblar, “regulatory sandbox” joriy etish

Xulosa. O‘zbekistonning raqamli transformatsiya yo‘lidagi harakatlari bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning turli jabhalarida ijobiy natijalar bermoqda. Raqamli biznes modellarining shakllanishi va rivojlanishi — nafaqat zamonaviy talab va ehtiyojlarga javob beradigan xizmatlarni taqdim etish, balki mamlakatning innovatsion salohiyatini oshirish, iqtisodiy raqobatbardoshlikni mustahkamlashda ham muhim omilga aylanmoqda.

Elektron to‘lov tizimlari, onlayn savdo platformalari, raqamli logistika xizmatlari, ta’lim va sog‘liqni saqlashdagi raqamli xizmatlar kabi yo‘nalishlardagi muvaffaqiyatlar shuni

ko‘rsatmoqdaki, raqamli modelda faoliyat yuritayotgan biznes subyektlari nafaqat bozor talabiga moslashmoqda, balki yangi ehtiyojlarni shakllantirib, foydalanuvchilarning hayot tarzini o‘zgartirmoqda.

Shu bilan birga, raqamli biznes modellarini yanada samarali joriy etish uchun yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud: infratuzilmaning to‘liq shakllanmaganligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi, axborot xavfsizligining zaifligi va tartibga soluvchi qonunlarning yetarlicha moslashuvchan emasligi. Ushbu to‘siqlarni bartaraf etish esa davlat siyosati, biznes sektori va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlikni talab etadi.

Umuman olganda raqamli biznes modellarining rivoji O‘zbekiston uchun iqtisodiy o‘sish, xalq farovonligini oshirish va global raqobatga kirishish yo‘lida strategik imkoniyatdir. Bu yo‘ldagi har bir tashabbus va islohot mamlakatning raqamli kelajagini yaratishda muhim qadamlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son

2. A.B. Bobojonov. Raqamli biznes modellar. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021, 196 b.

3. Raqamli iqtisodiyot: yangi biznes imkoniyatlari Shukurullo Yo'ldoshmaxmudov Xurshid o‘g‘li “O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022 yil 30 noyabr | scientists.uz

4. Qodirov Sardorbek Isroiljon o‘g‘li. Sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning xususiyatlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali.

5. Electronic (digital) economy. Appendix to the medium-term program of social and eco-nomic development of Russia to 2025 “Risk system growth strategy”

6. O.V.Kitova, Digital Transformation of Business http://digitaleconomy.ru/images/easyblog_articles/320/kitova.pdf

7. Бойко, И.П. Экономика предприятия в цифровую эпоху / И.П. Бойко, М.А. Евневич, А.В. Колышкин // Российское предпринимательство. Том 18, – 2017. – №7. – С. 1127-1130.

DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARNING ISTE'MOL VA JAMG'ARMA DARAJASIGA MAKROIQTISODIY TA'SIRI

A’zamova Feruza Abduholiq qizi, Sanakulova Iroda abrorovna
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada demografik o‘zgarishlar o‘rganilib chiqilgan holda bu o‘zgarishlarning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati keltirib o‘tilgan. Shu bilan birga, demografik o‘zgarishlarning iste’mol va jamg‘arma darajasiga makroiqtisodiy ta’sirini o‘rganish ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar: aholi demografiyasi, iste’mol darajasi, jamg‘arma darajasi, iqtisodiy o‘sish

Annotation: This article explores demographic changes and highlights their significance for the national economy. It also examines the macroeconomic impact of demographic changes on consumption and savings levels.

Keywords: population demographics, consumption level, savings level, economic growth

Аннотация: В данной статье рассматриваются демографические изменения и их значение для экономики страны. Также изучается макроэкономическое влияние демографических изменений на уровень потребления и сбережений.

Ключевые слова: демография населения, уровень потребления, уровень сбережений, экономический рост.

Kirish: Demografik o‘zgarishlar jamiyatning barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatadigan va iqtisodiy jarayonlarni shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining yosh tarkibi, qarish jarayoni va migratsiya oqimlari kabi omillar, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga

bevosita ta’sir etmoqda. Aholining qarishi, yosh guruhlarining o‘zgarishi, oilaviy tuzilmaning shikastlanishi kabi demografik o‘zgarishlar, iste’mol va jamg‘arma xulq-atvorini shakllantiradi, bu esa makroiqtisodiy o‘sish va barqarorlikka ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Demografik o‘zgarishlar deganda, bir mamlakatninng aholisi sonida va tarkibida vaqt o‘tishi bilan yuzaga keladigan tabiiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni ifodalaydi. Bu o‘zgarishlar asosan, mamlakat aholisining tug‘ilish darajasi hamda o‘lim darajasi, aholining yoshi bo‘yicha taqsimoti va migratsiya kabi omillar asosida yuzaga keladi.

Iste’mol — iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish uchun yuzaga keladigan moddiy va ma’naviy ne’matlardan foydalanish bo‘lib, takror ishlab chiqarish jarayonining oxirgi bosqichi hisoblanadi. Iste’mol darajasi deganda, ma’lum bir payt davomida haqiqiy iste’molning istalgan, mo‘ ljallangan yoki ratsional iste’molga nisbatan erishgan darajasi tushiniladi.

Jamg‘armalar tushunchasini turli ko‘rinishlarda izohlashimiz mumkin. Xususan, kelajakdagi ehtiyojlarni qondirish maqsadida daromadning bir qismini ajratib qo‘yish, pul hamda moddiy vositalarni ma’lum bo‘lgan maqsad uchun foydalanishga jalb etish, harajatlardan hamda chiqimlardan orttirgan holda, tejab to‘plangan pullar, doimiy badallar va reinvestitsiya yo‘li orqali kapital qo‘yilmalarni pul ko‘rinishida jamlab borish tushiniladi. Jamg‘arma darajasi deganda, barcha xarajatlardan tashqari misol sifatida bevosita soliqlar to‘langandan keyin aniqlanadigan ko’rsatkich tushiniladi. **1.Demografik O'zgarishlar Tushunchasi va Ularning Iqtisodiy Jarayonlardagi Roli**

Demografik o‘zgarishlar, ayniqsa, aholining yosh tarkibi, qarish jarayoni va migratsiya oqimlari iqtisodiy jarayonlarga bevosita ta’sir qiladi. O‘zbekiston Respublikasida demografik o‘sish davom etmoqda. 2024-yilning 1-oktyabr holatiga ko‘ra yurtimiz aholisining soni 37,3 mln kishidan oshdi (O‘zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi, 2024). Aholining yosh tarkibi va qarish jarayoni iqtisodiy faollikka ta’sir qiladi. 65 yoshdan oshganlar soni umumiy aholining 11,6 foizini tashkil etadi. Bu esa mehnat bozoriga kirishish, ishlab chiqarish jarayonlari va iste’mol odatlarini o‘zgartiradi.

Demografik Guruhlar Bo'yicha Iste'mol Tendensiyalari

Demografik Guruh	Asosiy Xarajat Yo'nalishlari	Izohlar
0-14 yosh (bolalar va o'smirlar)	Oziq-ovqat, kiyim-kechak, ta’lim, sog‘liqni saqlash	Ota-onalar xarajatlarining katta qismi shu yo‘nalishga to‘g‘ri keladi
15-64 yosh (mehnatga layoqatli aholi)	Uy-joy, transport, kommunikatsiya, dam olish, sog‘liqni saqlash	Ish bilan bandlik va faol iste’mol bosqichi
65+ yosh (keksalar)	Dori-darmon, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar, parvarish	Sog‘liq va ijtimoiy yordamga ehtiyoj oshadi

2. Jamg'arma Darajasiga Demografik O'zgarishlarning Ta'siri

Aholining qarishi jamg‘arma darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Hayot tsikli nazariyasiga (Life-Cycle Hypothesis) ko‘ra, odamlar ishlash davrida jamg‘arma qiladilar va nafaqaga chiqqach, ularni sarflashga o‘tadilar. Shuning uchun, qarib borayotgan jamiyatlarda milliy jamg‘arma darajasi pasayadi, bu esa investitsiya salohiyatining kamayishiga olib keladi va iqtisodiy o‘sish sur’atlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi (Piketty, 2014). O‘zbekistonda 2024-yilning ohiriga kelib, 65 yoshdan katta aholi ulushi 11,6% ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2030-yilgacha 7,1% ga yetishi prognoz qilinmoqda.

Xulosa. Demografik o‘zgarishlar iste’mol va jamg‘arma darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Aholining yosh tarkibi, qarish jarayoni va farzandlar soni kabi omillar jamiyatning iqtisodiy faolligini belgilab beradi. Yosh va faol aholi iste’mol talabining oshishiga sabab bo‘lishi mumkin, shu bilan birga, qarib borayotgan aholi qatlamining ko‘payishi jamg‘arma imkoniyatlarini cheklaydi va ijtimoiy ta’minot tizimiga ortiqcha yuk keltiradi. O‘zbekistonning demografik o‘zgarishlari iqtisodiyotga ijobiy hamda salbiy ta’sirlar ko‘rsatmoqda. Aholining qarishi va

farzandlar sonining kamayishi jamg‘arma darajasini pasaytirishi mumkin, shu sababli davlatning pensiya tizimi va ijtimoiy ta’minot siyosatini takomillashtirish zarurati yuzaga keladi. Jamiyatning barqaror iqtisodiy o‘sishiga erishish uchun, demografik o‘zgarishlarning salbiy ta’sirini kamaytirish maqsadida samarali iqtisodiy va ijtimoiy siyosatlarni ishlab chiqish muhimdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. **Statistika Agentligi.** (2023). O‘zbekiston Respublikasi aholisi haqida ma’lumotlar. https://stat.uz

2. **Jahon Banki.** (2020). Demografik o‘zgarishlarning iqtisodiyotga ta’siri. https://www.worldbank.org

3. Egamberdiyev A. “Makroiqtisodiyot”. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020.

4. Abdurahmonov Q.H. va boshq. “Iqtisodiyot nazariyasi” (darslik). – T.: “Fan va texnologiya”, 2021.

5. G‘ulomov S.S., Nurmuxamedov A.A. “Iqtisodiy o‘sish va makroiqtisodiy barqarorlik”. – T.: 2018.

6. **Wikipedia.** (2023). Demografik o‘zgarishlar. https://en.wikipedia.org/wiki/Demographic_change

NOGIRONLIGI BO‘LGAN BOLALAR UCHUN JAMIYAT VA TA’LIMDA TENG IMKONIYATLAR

Temirova Xurshida Turobovna
Samarqand davlat universiteti Kattaqo`rg’on filiali
Ilmiy rahbar: Abbasova Maftuna Subhonovna, talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada nogironligi bo‘lgan bolalar uchun jamiyat va ta’limda teng imkoniyatlar yaratishning dolzarbligi muhokama qilinadi. Inklyuziv ta’lim tizimining ahamiyati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish choralari yoritiladi. Ta’lim muassasalarida jismoniy va akademik moslashuvni yaxshilash, ijtimoiy stereotiplarni kamaytirish hamda mehnat bozorida imkoniyatlar yaratish muhimligi ta’kidlanadi. Shuningdek, texnologik yutuqlar va davlat siyosatining nogiron bolalar hayotidagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari jamiyat va ta’lim tizimida adolatli imkoniyatlar yaratish bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Nogiron bolalar, inklyuziv ta’lim, teng imkoniyatlar, ijtimoiy integratsiya, inklyuziya siyosati, mehnat bozori, infratuzilma.

Butun dunyoda har bir bola uning jismoniy yoki aqliy imkoniyatlaridan qat’i nazar ta’lim olish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish huquqiga ega. Nogironligi bo‘lgan bolalarning jamiyatdagi o‘rni, ularning teng huquqli ishtiroki va ta’lim tizimida yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanishi zamonaviy ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biridir. BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi va boshqa xalqaro hujjatlar ushbu bolalarga teng imkoniyatlar yaratishni ta’minlashni talab etadi. Bugungi kunda nogironligi bo‘lgan bolalar uchun jamiyat va ta’limda teng imkoniyatlarni ta’minlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Nogironligi bo‘lgan bolalar ko‘pincha ijtimoiy cheklovlar, ta’lim tizimidagi to‘siqlar va jamiyatdagi salbiy stereotiplar bilan to‘qnash keladi . Hozirgi kunda inklyuziv ta’limni rivojlantirish va noronligi bo`lgan farzandlari bor oilalarga,ota-onalarga ushbu talim tizimi haqida yetarlicha ma’lumotlar yetkazish dolzarb masalalardan biridir.

Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta’limtizimi inklyuziv ta’lim deyiladi. Inklyuziv ta’lim maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta’lim maktablarini maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga moslashtirishni ko‘zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir. Dunyo miqyosida inklyuziv ta’lim tamoyillari rivojlanib borayotganiga qaramay, ko‘plab mamlakatlarda nogironligi bo‘lgan bolalar hanuzgacha sifatli ta’lim olishda muammolarga duch kelmoqda[1]. Bu muammolarning asosiy sabablaridan biri ta’lim muassasalarining jismoniy infratuzilmasi yetarlicha moslashtirilmagani, o‘qituvchilarning maxsus pedagogik tayyorgarligi yetarli emasligi

va o‘quv jarayonida nogiron bolalarning ehtiyojlari inobatga olinmasligidir. Shu sababli, ta’lim tizimini har tomonlama inklyuziv qilish zarur. Buning uchun, avvalo, ta’lim muassasalarida nogiron bolalar uchun maxsus jihozlangan sinf xonalari, rampalar, liftlar, Brayl alifbosi va subtitrlar kabi vositalar joriy etilishi kerak. Shuningdek, o‘qituvchilarning inklyuziv ta’lim bo‘yicha malakasini oshirish, ularni nogiron bolalar bilan ishlash metodikalari bo‘yicha o‘qitish ham muhim ahamiyatga ega.

Nogiron bolalar uchun ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatning umumiy taraqqiyotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar nogiron bolalar ta’lim olishdan chetda qolsa, bu ularning kelajakda mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishiga to‘sqinlik qiladi, natijada esa ular jamiyatdan ajralib qolishadi. Shuning uchun inklyuziv ta’lim tamoyillarini joriy qilish orqali jamiyatdagi har bir inson, jumladan, nogironligi bo‘lgan bolalar ham o‘z salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish imkoniga ega bo‘lishi lozim. Xususan, zamonaviy texnologiyalar nogiron bolalarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun maxsus audiokitoblar, nutq sintezatorlari va ishora tili tarjimonlari yordamida o‘quv jarayoni qulaylashtirilishi mumkin. Shuningdek, ko‘zi ojiz bolalar uchun Brayl yozuvi asosidagi elektron qurilmalar va maxsus dasturlar ularning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Shuningdek, nogironligi bo‘lgan bolalar uchun mehnat bozorida ham teng imkoniyatlar yaratish zarur. Aksariyat hollarda bunday bolalar voyaga yetgach, ish topishda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Ko‘plab ish beruvchilar nogironligi bo‘lgan insonlarni ishga olishni istamaydilar yoki ularga faqat past lavozimlarni taklif qiladilar. Bu esa nafaqat nogiron shaxslarning hayot sifatiga, balki jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga ham salbiy ta’sir qiladi. Shu sababli davlat va xususiy sektor tomonidan maxsus ish o‘rinlari yaratish, nogiron xodimlar uchun moslashtirilgan ish sharoitlarini ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayrim davlatlar tajribasidan kelib chiqib, nogiron shaxslarni ish bilan ta’minlagan korxonalarga imtiyozlar berish, soliq yengilliklari taqdim etish va maxsus ish dasturlarini joriy etish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilishi mumkin.

Nogironligi bo`lgan bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish faqat davlat organlarining vazifasi emas, balki butun jamiyatning mas’uliyatidir. Oilalar, ta’lim muassasalari, davlat va xususiy tashkilotlar hamkorlikda ishlashi lozim. Chunki jamiyat faqat barcha a’zolarining to‘laqonli ishtiroki bilan barqaror rivojlana oladi. Shu nuqtai nazardan, nogiron bolalarni qo‘llab-quvvatlash, ularga sifatli ta’lim berish va jamiyatda to‘liq ishtirok etishini ta’minlash – har bir insonning burchidir. Nogironligi bo`lgan bolalar ham jamiyatining bir bo‘lagidir. Biz jamiyatni adolatli va teng huquqli qilishni istasak nogiron bolalar uchun ham barcha eshiklarni ochishimiz zarur.

Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun jamiyat va ta’limda teng imkoniyatlarni ta’minlash bugungi kundagi eng muhim masalalardan biridir. Ushbu maqolada nogiron bolalarning ta’lim olish huquqlari, jamiyatda to‘laqonli ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar va inklyuziv ta’lim tamoyillarining ahamiyati haqida so‘z yuritildi. Ta’lim tizimidagi mavjud muammolar, jumladan, jismoniy infratuzilmaning yetarlicha moslashtirilmagani, o‘qituvchilarning yetarlicha tayyorlanmagani va jamiyatdagi salbiy stereotiplar nogiron bolalarning o‘z qobiliyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishiga to‘sqinlik qilayotgan omillar sifatida ko‘rsatib o‘tildi. Bugungi globallashgan dunyoda inklyuziv ta’lim nafaqat nogiron bolalar uchun, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zaruriy shart hisoblanadi. Agar jamiyatda barcha bolalar, jumladan, nogironligi bo‘lgan bolalar ham sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lsa, bu ularning kelajakda mustaqil hayot kechirishiga, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishiga va jamiyatga foydali bo‘lishiga yordam beradi. Nogiron bolalar ta’lim olishdan chetda qolsa, ular nafaqat iqtisodiy imkoniyatlardan mahrum bo‘ladilar, balki ijtimoiy izolyatsiyaga ham duch keladilar. Shu bois, ta’lim tizimi barcha bolalar uchun teng va adolatli bo‘lishi lozim. Mavjud muammolarni hal qilish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Avvalo, ta’lim muassasalarida nogiron bolalar uchun maxsus sharoitlar yaratish zarur. Bunga maktab va universitetlarda rampalar, liftlar, maxsus o‘quv materiallari, Brayl alifbosi va subtitrlar kabi vositalarni joriy etish kiradi.

Shuningdek, o‘qituvchilarning nogiron bolalar bilan ishlash bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tishi muhim ahamiyatga ega[2]. Agar o‘qituvchilar inklyuziv ta’lim metodikalarini yaxshi bilsa, ular nogiron bolalarga ta’lim jarayonida samarali yordam bera oladilar. Bundan tashqari, nogiron bolalar jamiyatda to‘liq ishtirok etishi uchun ijtimoiy stereotiplarni o‘zgartirish muhimdir. Jamiyatda ko‘pincha nogiron bolalar haqida noto‘g‘ri tushunchalar mavjud bo‘lib, bu ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi va ijtimoiy cheklovlarga sabab bo‘ladi. Shu sababli ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va madaniy tadbirlar orqali nogiron bolalarga nisbatan ijobiy qarashlarni shakllantirish zarur. Bu esa jamiyatda hamdardlik va bag‘rikenglik muhitini yaratadi. Nogiron bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish nafaqat davlatning, balki butun jamiyatning vazifasidir. Oilalar, ta’lim muassasalari, davlat idoralari va xususiy sektor ushbu masalada birgalikda harakat qilishi lozim. Agar nogiron bolalar jamiyatda to‘liq ishtirok eta olsalar, bu nafaqat ularning hayot sifatini yaxshilaydi, balki butun jamiyatning taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir qiladi. Agar nogironligi bo`lgan bolalar ta’lim olishdan chetda qolsa, bu ularning kelajakda mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishiga to‘sqinlik qiladi, natijada esa ular jamiyatdan ajralib qolishadi. Shuning uchun inklyuziv ta’lim tamoyillarini joriy qilish orqali jamiyatdagi har bir inson, jumladan, nogironligi bo‘lgan bolalar ham o‘z salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish imkoniga ega bo‘lishi[3]. Bundan tashqari, jamiyatdagi nogiron bolalarga nisbatan munosabatni ijobiy tomonga o‘zgartirish ham juda muhimdir. Afsuski, ba‘zi hollarda nogiron bolalar jamiyatda past baholanadi, ularning qobiliyatlari cheklangan deb hisoblanadi va ular o‘z tengdoshlaridan ajratilgan holda yashashga majbur bo‘lishadi. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta‘sir qiladi. Jamiyatda bunday bolalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish va ularni jamiyatga to‘liq integratsiya qilish zarur[4].

Xulosa qilib aytganda, nogironligi bo`lgan bolalar uchun jamiyat va ta’limda teng imkoniyatlar yaratish har bir insonning burchidir. Nogiron bolalarga nisbatan adolatli va bag‘rikeng muhit yaratish, ularning ta’lim olishiga va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga imkon berish orqali kelajak avlodlar uchun yanada adolatli va inklyuziv jamiyatni shakllantirish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri alohida ehtiyojgl ega bolaning yakkalanib qolishidir. Umuman, to’rt devor ichiga qamalgan insonning ichki dunyosini «taraqqiy etgan» deyish qiyin. Bunday joy uy yoki internatmi, buning ahamiyati yo’q.

O‘zbekistonda maxsus ta’lim tizimi rivojlangan bo‘lib imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlar ta’limini davr talabi darajasida samarali takomillashtirishga davlatimiz tomonidan katta e’tibor berilib kelinmoqda va maxsus hamda inklyuziv ta’limni joriy qilish masalalari yuqorida qayd etilgan davlat qonunlari hamda xalqaro huquqlarida qayd etilgan. Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalar nuqson turiga ko‘ra maxsus maktab, maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim olishi tashkil qilinib kelingan. Ushbu ta’lim muassasalarida bolalarni o‘qitish uchun qulay sharoitlar yaratilgan va tibbiy, psixologik-pedagogik yordam mutaxassislar tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Kam ta’minlangan oilalar bolalari ta’lim olayotgan mehribonlik uylari, uyda yakka tartibda ta’lim olayotgan maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar ta’lim tizimi va mazmunini takomillashtirish, moddiy bazasini yaxshilash, ularni ta’lim olishi uchun zarur bo‘lgan shart sharoitlarni yaratish hamda o‘quv qurollari, maxsus yordamchi vositalar, dastur, darsliklar bilan ta’minlanishi birmuncha faollashib, turli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Inklyuziv ta’limni O‘zbekiston Respublikasida joriy qilishning yana bir afzallik tomoni shundaki, maxsus ta’lim muassasalari mavjud bo‘lmagan joylarda ham imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim tizimiga to‘liq jalb qilinishiga imkoniyat yaratiladi[6]. Nogironligi bo‘lgan bolalarga ta’lim va ijtimoiy hayotda teng imkoniyatlar yaratish nafaqat ularning huquqi balki jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omildir. Inklyuzivlik inson qadr-qimmatiga asoslangan yondashuv bo‘lib, har bir bolaga o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon qilish imkonini beradi. Shunday ekan bunday bolalarning hayot sifatini oshirish har birimizning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Slee R. (2018). Defining the scope of inclusive education: Thinking philosophically and politically. Prospects, 47(1), 3-17. https://doi.org/10.1007/s11125-018-0945-8 Ainscow, M. (2020).
2. Promoting inclusion and equity in education: Lessons from international experiences. Nordic Journal of Studies in Educational Policy 6(1), 7-16. https://doi.org/10.1080/20020317.2020.1729587
3. Forlin C. (2019). Teacher education for inclusive education: Changing paradigms and innovative approaches. International Journal of Inclusive Education 23(1), 25-41. https://doi.org/10.1080/13603116.2019.1572335
4. Sharma U. & Sokal, L. (2015). The impact of teacher training on attitudes and concerns about inclusive education in India and Canada. Disability & Society,

30(5), 764-781. https://doi.org/10.1080/09687599.2015.1058879

5. Abbasova M.S "Nogironligi bo`lgan shaxslar bilan ijtimoiy ish amaliyoti" Uslubiy qo`llanma Samarqand-2024.
6. Madatov Ilhom Yusup o'g'li "INKLYUZIV TA'LIM" darslik. Toshkent "BEST-PUBLISH"-2024, 228-231

3D BOSMA TEXNOLOGIYALARI UCHUN UCH O'LCHOVLI MODELLAR YARATISH VA TAYYORLASH

Shodmonov Javoxir Abduhamid o'g'li
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali, assistent,
shodmonovjavohir04@gmail.com
Xalilov Ramziddin Akmal o'g'li, talaba,

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy tezisda 3D bosma texnologiyalari va ular uchun uch o'lchovli modellarni jarayonlari o'rganilgan. Tadqiqotda 3D bosmaning tahlilllanilgan tarixiy uslublar va qo'llanilish sohalari. Amaliy qismda esa 3D modellashtirish dasturlari yordamida modellar, tahrirlash optimallashtirish jarayonlari va ishlab chiqarishni ko'rib chiqish. Tadqiqot natijalari 3D bosma texnologiyalarini yanada samarali qo'llashga oid takliflar bilan yakunlanadi.*

Kalit so'zlar: *3D bosma, uch o'lchovli modellashtirish, 3D modellar, FDM, SLA, STL formati.*

Kirish: Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida 3D bosma sanoat, tibbiyot, arxitektura va ta'lim kabi ko'plab sohalarda keng qo'llanilmoqda. Uch o'lchovli modellarni yaratish va ularni 3D bosmaga moslashtirish ishlab chiqarish jarayonlarini soddalashtirish va yangi innovatsion mahsulotlarni taqdim etish imkonini beradi. So'nggi yillarda 3D bosma texnologiyalari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, Ismoilov Sh. X. va Tursunov J. G'. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda 3D texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi va talabalar kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, Abduqodirov D. O. o'z ishida 3D kompyuter grafikasining imkoniyatlarini tahlil qilgan bo'lsa, Toshtemirov A. M. va Qodirov Sh. I. multimedia sohasida 3D texnologiyalarining qo'llanilishi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Ushbu ishlarda 3D texnologiyalarining turli sohalardagi ahamiyati va ulardan samarali foydalanish usullari batafsil yoritilgan.

Asosiy qism. 3D bosma texnologiyalarining dastlabki asosi 1980-yillarda qo'yilgan bo'lib, amerikalik olim Chuck Hull tomonidan SLA (Stereolitografiya) texnologiyasi kashf qilingan. Bu texnologiya suyuq fotopolimer qatlamlarini lazer yordamida qotirish asosida ishlaydi. So'nggi yillarda FDM (Fused Deposition Modeling) va SLS (Selective Laser Sintering) kabi texnologiyalar ommalashdi. Har bir texnologiya o'ziga xos ishlash printsipi, material talabi va qo'llanilish sohalariga ega. FDM – eng keng tarqalgan 3D bosma turi bo'lib, plastik ipni (filament) eritib, qatlamma-qatlam obyekt hosil qiladi. Bu usul arzon va ta'lim muassasalarida keng qo'llaniladi. SLA – yuqori aniqlikdagi bosma texnologiya, suyuq qatron moddasini lazer yordamida qotiradi. SLS – kukunli materiallarni lazer yordamida eritib, zich va mustahkam buyumlar hosil qiladi. Ushbu texnologiyalar sanoatda turli ehtiyojlarga ko'ra tanlanadi. 3D

bosmaga tayyor obyektni yaratish uchun avvalo uch o‘lchovli model yaratiladi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Modellashtirish – Blender, Tinkercad, AutoCAD, SolidWorks kabi dasturlar yordamida model chiziladi. Tahrirlash va tekshirish – modeldagi nosozliklar, bo‘shliqlar yoki noto‘g‘ri geometriyalar aniqlanadi va bartaraf etiladi. STL formatga o‘tkazish – 3D bosma qurilmalar ushbu formatdagi fayllarni o‘qiydi. Slicing (qirqimlash) – Cura, PrusaSlicer kabi dasturlar yordamida model qatlamlarga ajratiladi va G-code fayl hosil qilinadi. Tadqiqot doirasida bir nechta 3D modellar ishlab chiqildi: dekorativ buyumlar, texnik detallar va o‘quv vositalari. Blender dasturida modellashtirilgan obyektlar Cura yordamida slicing qilindi va FDM printerda PLA filamentdan bosib chiqarildi. Jarayon davomida quyidagilar aniqlandi, Obyekt murakkabligiga qarab slicing va bosma vaqtida sezilarli farqlar bo‘ladi. Harorat va bosma tezligining to‘g‘ri tanlanishi mahsulot sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Modelda bo‘shliq yoki noto‘g‘ri geometriya bo‘lsa, bosma jarayonida xatoliklar yuzaga keladi. 3D bosma bugungi kunda quyidagi yo‘nalishlarda keng qo‘llanilmoqda, Sanoat – tez prototiplash, ehtiyot qismlar tayyorlash. Tibbiyot – ortopedik protezlar, individual jarrohlik vositalari. Ta’lim – o‘quv maketlari, laboratoriya vositalari. Dizayn va san’at – dekorativ elementlar, maketlar. Shuningdek, ekologik muammolarni hal qilishda biologik parchalanadigan materiallardan foydalanish istiqbollari ham keng muhokama qilinmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqot 3D bosma texnologiyalarida uch o‘lchovli modellarni yaratish va ularni optimallashtirish jarayonlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan. Ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari tahlil qilinib, ushbu ishda 3D modellashtirish jarayonlarini takomillashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonida samarali qo‘llash yo‘llari ko‘rib chiqiladi. 3D bosma texnalogiyalari uchun uch o‘lchovli modellarni yaratish jarayoni – modellashtirish dasturlari va optimallashtirish usullari yordamida bosib chiqarish sifatini oshirish va jarayonni samarali tashkil etishga asos bo‘ladi.

Tahlil va natijalar: Tadqiqot davomida bir nechta 3D modellar yaratilgan va FDM texnologiyasi yordamida bosib chiqarilgan. Modellashtirish uchun Blender va Tinkercad dasturlaridan foydalanildi. Har ikki dastur ham o‘zining qulayligi va funksionalligi bilan samarali natija berdi. Bosma jarayonida Cura dasturida slicing (qirqimlash) jarayoni amalga oshirildi. Qatlam qalinligi, harorat va to‘ldirish zichligi kabi sozlamalar bosma sifatiga ta’sir ko‘rsatdi. Qatlam qalinligi kamayganda — modellar silliqroq, ammo bosma vaqti uzoqroq bo‘ldi. PLA filamentdan foydalangan holda yaratilgan modellar. Silliq yuzali va aniqligi yuqori bo‘ldi, bosma jarayoni barqaror kechdi, o‘quv va dizayn sohalarida amaliy qo‘llashga mos ekanligi ko‘rsatildi. Jarayon davomida ba’zi texnik muammolar (bosma harorati, o‘lcham noto‘g‘riligi) uchragan bo‘lsa-da, ularning bartaraf etish usullari ham tajriba asosida aniqlangan. Tadqiqot davomida bir nechta 3D modellar yaratilgan va FDM texnologiyasi asosida bosib chiqarilgan. Blender va Tinkercad dasturlaridan foydalanilib, oddiy geometrik shakllardan tortib murakkab strukturalargacha bo‘lgan modellar ishlab chiqildi. Blender dasturi yordamida yaratilgan modellar yuqori darajada aniqlikka ega bo‘ldi, Tinkercad esa o‘quvchilar va yangi foydalanuvchilar uchun juda qulay bo‘ldi. Slicing (qirqimlash) bosqichida Cura dasturi qo‘llanilib, modellar G-code fayliga aylantirildi. Qatlam qalinligi va to‘ldirish foizi o‘zgartirilib, turli variantlar sinovdan o‘tkazildi. Quyidagicha xulosalar chiqarildi. 0.1 mm qatlam qalinligi — yuqori sifatli va silliq modellar, ammo bosma vaqti uzoq.0.2–0.3 mm qalinlikda — tezroq bosiladi, ammo yuzalarda biroz qo‘pol tuzilma seziladi. PLA filamentdan foydalangan holda bosilgan modellar yengil, ekologik xavfsiz va mustahkam bo‘lib chiqdi. Bosma jarayonida yuzaga kelgan ba’zi muammolar — materialning noto‘g‘ri haroratda erishi, slicingdagi sozlama xatolari — sinovlar asosida bartaraf etildi.Amaliy tajriba shuni ko‘rsatdiki, 3D bosma texnologiyasi ta’lim, dizayn va kichik hajmdagi sanoat ehtiyojlari uchun keng imkoniyatlarga ega. Eng muhimi, modellashtirish va slicing jarayonlarida to‘g‘ri yondashuv bo‘lsa, natija ham sifatli bo‘ladi.

Xulosa va takliflar: 3D bosma texnologiyalari va ular uchun uch o‘lchovli modellarni jarayonlari o‘rganildi. 3D bosmaning tarixi, asosiy turlari, qo‘llanilish tarixi va modellashtirish usullari tahlil sohalari. Tadqiqot tadqiqot uch o‘lchovli modellarni va ularni olib tashlashga tayyorlash bo‘yicha amaliy tajribalar o‘tkazildi. Olingan manba shuni ko‘rsatadiki, 3D bosma

texnologiyalari sanoat, tibbiyot, arxitektura va boshqa sohalarda keng imkoniyatlarga ega. Modellashtirish jarayonida dasturlar va optimallashtirish usullarini tozalash sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Kengaytirilgan 3D bosma jarayonini yanada qo‘shimcha ta’minot bo‘yicha tavsiyalarni taqdim etadi.

ADABIYOTLAR

1. Ismoilov Shavkat Xamidovich, Tursunov Jamshid G‘ulomovich. **“3D texnologiyalaridan foydalanib talabalarda konstruktiv kompetensiyalarni rivojlantirish modeli”** // “Экономика и социум” jurnali, 2022-yil, №12(103), 45–50-betlar.
2. Abduqodirov Dilmurod Otabek o‘g‘li. “3D kompyuter grafikasi imkoniyatlari” // “Scientific Aspects and Trends in the Field of Scientific Research” xalqaro ilmiy onlayn konferensiyasi materiallari, 2022-yil, 78–83-betlar.
3. Toshtemirov Anvar Murod o‘g‘li, Qodirov Shaxzod Ibrohimovich. “Multimedia sohasida 3D texnologiyalarining qo‘llanilishi” // Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi, 2023-yil, 3-jild, 112–118-betlar.
4. Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi. "Ta'lim jarayonini 3D asosida tashkil qilish va rivojlantirish" // "Fan va ta'lim" jurnali , 2023-yil, №11.
5. Jo'raboyeva Munisa Haitboy qizi, Qurbonov Eldor Nuriddin o'g'li. "Ta'limda 3D texnologiyai: tushunchalarni hayotga olib kelish" // "Eng yaxshi intellektual salohiyat" jurnali , 2023-yil, 10-qism, 5-jild.

RAQAMLI VALYUTALAR VA ULARNING GLOBAL IQTISODIYOTDAGI O'RNI.

A’zamova Feruza Abduholiq qizi
Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli valyutalarning zamonaviy iqtisodiy muhitdagi o‘rni va ularning global moliyaviy tizimga ta’siri har tomonlama tahlil qilingan. Xususan, kriptovalyutalar va markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC)ning paydo bo‘lishi, ularning iqtisodiy jarayonlardagi roli, davlatlar tomonidan qo‘llanilayotgan strategiyalar, imkoniyat va tahdidlar chuqur yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli valyutalar, kriptovalyutalar, DeFi, blokcheyn, barqarorlik, regulyatsiya, CBDC, raqamli iqtisodiyot.

Kirish So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi moliyaviy tizimga tub o‘zgarishlar olib keldi. Ayniqsa, raqamli valyutalar — ya’ni markazlashmagan (kriptovalyutalar) yoki davlat tomonidan nazorat qilinadigan raqamli pul birligi (CBDC – Central Bank Digital Currency) shakllarining paydo bo‘lishi va ommalashuvi global moliya tizimining an’anaviy mexanizmlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu valyutalar nafaqat to‘lov tizimlarini tezlashtiradi va soddalashtiradi, balki global savdo, investitsiya oqimlari, pul-kredit siyosati va monetar mustaqillik kabi strategik iqtisodiy masalalarga ham yangi yondashuvlarni taqdim etmoqda. Xususan, xalqaro miqyosda Bitcoin, Ethereum kabi kriptovalyutalarning qiymati va bozordagi ulushi ko‘plab investorlarga alternativ aktiv sifatida qiziqish uyg‘otayotgan bo‘lsa, Xitoy, Yevropa Ittifoqi, AQSH kabi yirik davlatlar o‘z markaziy bank raqamli valyutalarini (CBDC) ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha faol izlanishlar olib bormoqda. Bu esa raqamli valyutalarning nafaqat texnologik innovatsiya sifatidagi, balki geoiqtisodiy qurol darajasidagi o‘rnini ham namoyon qilmoqda.

Asosiy qisim: Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya kabi yetakchi mamlakatlar uchun ustuvor yo‘nalishlardan biridir. So‘nggi yillarda biznes va ijtimoiy soha faoliyatida rivojlanishning yangi to‘lqini raqamli texnologiyalarning yangi avlodi, ya’ni sun’iy ong, robototexnika, simsiz aloqa texnologiyalari yordamida ro‘y bermoqda. Yangi texnologiyalar Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga katta hissa qo‘shishi mumkin, ammo biz kutilgan ijobiy natijalarni ololmasligimiz mumkin.

Kriptovalyutalar nima? Kriptovalyutalar, odatda, decentralizatsiyalashgan tarmoqda ishlovchi raqamli valyutalardir. Ular matematik algoritmlar va kriptografiya yordamida himoyalangan bo'lib, markaziy nazorat organlari tomonidan boshqarilmaydi. Bu valyutalar o'zaro to'lovlar, sarmoyalar, to'lovlar va boshqa iqtisodiy faoliyatlarda ishlatiladi.

Kriptovalyutalar va markazlashtirilmagan moliya tizimlari (DeFi) so‘nggi o‘n yillikda global iqtisodiyotda sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. 2009-yilda Bitcoinning paydo bo‘lishi bilan boshlangan bu yangi iqtisodiy to‘lqin, moliya sohasidagi an'anaviy tizimlarni inqilobiy tarzda o‘zgartirishni boshladi . Raqamli valyutalar va ularning asosi bo‘lgan blokcheyn texnologiyasi, an'anaviy bank tizimlariga qarshi yangi va samarali raqobatni shakllantirib, iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarini o‘zgartirishga imkon yaratdi. Bugungi kunda Bitcoin va Ethereum kabi kriptovalyutalar nafaqat investorlar uchun, balki keng omma uchun ham global moliya tizimiga yangi yondashuvni taklif etmoqda.

Blokcheyn texnologiyasi orqali barcha tranzaksiyalar xavfsiz, ochiq va tez amalga oshiriladi . Bu esa markazlashtirilgan tizimlarga qarshi katta imkoniyatlarni yaratadi. Kriptovalyutalar, shuningdek, jamiyatni moliyaviy tizimga kengroq jalb etish imkonini beradi. Global miqyosda raqamli valyutalar iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va davlatlar o‘rtasidagi savdoni osonlashtirish uchun qulay vosita sifatida qaralmoqda.

Kriptovalyutalarning bozor qiymati 2024-yilda 500 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, bu ularning global iqtisodiyotda sezilarli o‘rin egallashini ko‘rsatadi . Shuningdek, raqamli valyutalar orqali mamlakatlar o‘rtasida yangi iqtisodiy munosabatlar va savdo tizimlari shakllanmoqda.

Kriptovalyutalar va DeFi tizimlarining afzalliklari

Kriptovalyutalar va DeFi tizimlari iqtisodiyotning barcha jabhalarida yangi imkoniyatlarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Asosiy afzalliklaridan biri, ularning markazlashtirilmagan tabiatidir. Markazlashtirilgan tizimlarda odatda banklar yoki davlatlar kabi o‘rta qo‘shiluvchilar mavjud, bu esa yuqori xarajatlar va vaqt cheklovlarini keltirib chiqaradi. Kriptovalyutalar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar tezkor va arzon bo‘lib, o‘rtachalar yo‘q bo‘lishi tufayli ular odatda arzonroq xarajatlarga ega .

DeFi tizimlari orqali moliyaviy xizmatlarga ega bo‘lish, an'anaviy bank tizimlariga nisbatan ancha qulaydir. 2023-yilda DeFi tizimlari orqali 5,8 milliard dollardan ortiq kreditlar berildi . Shuningdek, stablecoin’lar, ya'ni barqaror narxga ega bo‘lgan raqamli valyutalar, ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o‘rin tutmoqda. Stablecoin'lar, ayniqsa, o‘zgaruvchan narxlar bilan bog‘liq risklarni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun samarali vosita sifatida qaralmoqda. DeFi tizimlarining bir muhim afzalligi shundaki, ular markazlashtirilgan moliya tizimlariga qarshi samarali raqobatni yaratib, global moliyaviy inkluziyaga yordam beradi. Bank hisob raqamiga ega bo‘lmagan insonlar ham moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda, aholining keng qatlamlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Kriptovalyutalar va DeFi tizimlarining rivojlanishi bilan birga, ular bilan bog‘liq xavflar ham yuzaga kelmoqda. Ularning asosiy xavflaridan biri, o‘zgaruvchan narxlar va bozorning noaniqligi hisoblanadi. Kriptovalyutalar, xususan Bitcoin va Ethereum, juda yuqori darajada narx o‘zgarishlariga uchraydi. Masalan, Bitcoin 2021-yilda 69,000 dollarga yetgan narxdan 2022-yil oxirida 16,000 dollarga tushdi, bu esa investitsiyalarni xavf ostiga qo‘ydi . Bunday o‘zgaruvchanlik, investorlar va foydalanuvchilar uchun jiddiy moliyaviy risklarni keltirib chiqarishi mumkin. DeFi tizimlarining xavfi ham mavjud. Ushbu tizimlar odatda markazlashtirilmagan bo‘lishi sababli, tizimni boshqarish va nazorat qilishning qiyinchiliklari yuzaga keladi. Ko‘p hollarda, DeFi tizimlarida foydalanuvchilar o‘z mablag‘larini yo‘qotishi yoki hackerlar tomonidan hujumga uchrashi mumkin. Boshqa bir xavf, DeFi platformalarining barcha foydalanuvchilarga ochiq va erkin bo‘lishi bilan bog‘liq xavfsizlik muammolaridir.

Kriptovalyutalar va DeFi tizimlarining kelajagi

Kriptovalyutalar va DeFi tizimlarining kelajagi yuqori darajada istiqbolli bo‘lib, ular butun dunyo bo‘ylab iqtisodiy va moliyaviy tizimlarni o‘zgartirishda davom etmoqda. Birinchidan,

markaziy banklar raqamli valyutalarini (CBDC) joriy qilishga qaratilgan harakatlar intensivlashmoqda. CBDC'lar, an'anaviy pul tizimlarini raqamli shaklga o'tkazish orqali, o'zgaruvchan narxlarni nazorat qilishda va xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlashda samarali vosita bo'lishi mumkin DeFi va kriptovalyutalar orqali yangi moliyaviy ekotizimlar shakllanmoqda, ularning ko'plab imkoniyatlari jamiyatning iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shishi mumkin. Raqamli valyutalar va blokcheyn texnologiyasining rivojlanishi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy rivojlanishning yangi yo'llarini ochishi kutilmoqda.

Xulosa. Xulosa tariqasida aytish mumkinki, raqamli valyutalar zamonaviy iqtisodiy muhitda muhim o'rin egallamoqda va an'anaviy moliyaviy tizimga muqobil innovatsion yechimlar taklif qilmoqda. Ularning joriy etilishi nafaqat to'lov tizimlarini takomillashtirish, balki global iqtisodiy muvozanatga yangi yo'nalishlar olib kelmoqda. Xususan, raqamli valyutalar:

- **Transchegaraviy to'lovlarni soddalashtiradi** va ularni tezkor hamda arzon qiladi;
- **Moliyaviy inklyuziya**ni kuchaytirib, aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlarga kirishini osonlashtiradi;
- **Monetar siyosatga yangi vositalar** beradi va inflyatsiya, likvidlik, pul massasini boshqarishda yangi yondashuvlarni taqdim etadi;
- **Moliyaviy nazorat va shaffoflikni oshiradi**, korrupsiyani kamaytirish va norasmiy iqtisodiyot hajmini qisqartirish imkonini beradi.

Biroq, ularning joriy etilishi bilan bog'liq muammolar jumladan, **maxfiylik, texnologik infratuzilma, xavfsizlik, regulyatsiya va suverenitet muammolari** global miqyosda ehtiyotkorlik va muvozanatli yondashuvni talab etadi. Kriptovalyutalar va DeFi tizimlarining rivojlanishi global iqtisodiyotda o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ular an'anaviy bank tizimlariga qarshi yangi raqobatni shakllantirib, moliyaviy inkluziya va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirmoqda. Biroq, ular bilan bog'liq xavflar va noaniqliklar ham mavjud. Kriptovalyutalar, ayniqsa Bitcoin va Ethereum, o'zgaruvchan narxlari va xavfsizligi bilan bog'liq risklarni keltirib chiqarishi mumkin. DeFi tizimlarining kelajagi esa yangi imkoniyatlarni yaratish, jamiyatni raqamli iqtisodiyotga jalb qilish va global iqtisodiy tizimni takomillashtirishda davom etmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Nakamoto, S. (2008). Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System.
2. Buterin, V. (2013). Ethereum Whitepaper: A Next-Generation Smart Contract and Decentralized Application Platform.
3. Narayanan, A., et al. (2016). Bitcoin and Cryptocurrency Technologies.
4. Zohar, R. (2015). The Blockchain as a Decentralized Transaction Ledger: Its Potential and Implications.
5. Chohan, U. W. (2020). A Comprehensive Overview of Decentralized Finance (DeFi).
6. Yunusov Sh.S., To'laganov S.S. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. *(Raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotdagi o'rni va turlari haqida)*
7. □ Soliyev A., Xo'jayev B. Moliyaviy texnologiyalar va raqamli to'lov tizimlari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2021.
(Fintech va raqamli valyutalar bilan bog'liq tizimli tahlil)
8. Alimov R.K. Global moliyaviy tizim va zamonaviy chaqiriqlar. – Toshkent: TDIU, 2020. *(Global moliya tizimining evolyutsiyasi va kriptoaktivlar haqida bahs)*

SANOAT IQTISODIYOTIDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI VA AHAMIYATINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Sanakulova Iroda Abrorovna
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali, 2-bosqich talabasi.
irodasanakulova06@gmail.com

Annatatsiya: Ushbu maqolada sanoat iqtisodiyotida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining joriy etilishi, ularning ishlab chiqarish samaradorligiga, resurslardan foydalanish darajasiga va raqobatbardoshlikni oshirishga ta'siri tahlil etilgan. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlarning avtomatlashtirish, monitoring, diagnostika va bashorat qilish funksiyalari orqali sanoat tarmoqlarida inson mehnatini yengillashtirish va jarayonlarni raqamlashtirishga xizmat qilishi yoritilgan.

*Kalit so'zlar**: Sun'iy intellekt, sanoat iqtisodiyoti, avtomatlashtirish, raqamlashtirish, sanoat 4.0, innovatsion texnologiyalar, ishlab chiqarish samaradorligi, raqamli transformatsiya, O'zbekiston sanoati, aqlli tizimlar.***

Kirish: Bugungi kunda mamlakatimizning sanoat iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilib kelinmoqda. XXI asrda raqamli texnologiyalar sanoat rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari sanoat jarayonlarini avtomatlashtirish, optimallashtirish va bashorat qilish imkoniyatlarini keskin oshirib, ishlab chiqarish samaradorligida yangi bosqichni boshlab berdi. O'zbekiston sanoatida ham raqamli transformatsiyaga intilish kuchaymoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida sanoat tarmoqlariga ilg'or texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qator chora-tadbirlar belgilangan. Biroq SI texnologiyalarini keng joriy qilish uchun mamlakatda zarur infratuzilma, malakali kadrlar, ma'lumotlar xavfsizligi va normativ-huquqiy asoslarning rivojlanishi zarur. Ayni shunday sharoitda sanoat iqtisodiyotida sun'iy intellektning o'rnini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Asosiy qism. Sun'iy intellekt yordamida iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida avtomatlashtirilgan tizimlar, prediktiv tahlil imkoniyatlarini tatbiq etish rejasi ko'zda tutilmoqda. Bu esa mamlakatimizning sanoat iqtisodiyotini samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirish hamda innovatsion rivojlanishini ta'minlash uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiy tuzilishini, rivojlanishini, joriy davrdagi holatini o'rganish, tahlil qilish va shunga ko'ra uning keyingi yillardagi yutuqlari yoki kamchiliklarini shu bilan birga yaqin kelajak uchun mamlakatning iqtisodiy holatini prognoz qilish sanoat konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Chunki, mamlakat sanoatining zamon talablariga parallel holatda rivojlanishi iqtisodiyoti yuqori sur'atlarda rivojlangan davlatlardan ortda qolmagan holda ildamlab ketishi, davlatning iqtisodiy holatini jadal sur'atlarda o'sishi uchun turtki beradi. Sanoat davlatning, uning iqtisodiy holatining asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Davlatning iqtisodiy tuzilishini, uning tarkibini o'rganish sanoatning konsepsiyasi bilan bog'liqlikni o'zida aks ettiradi. Shundan kelib chiqib ayta olamizki, iqtisodiyotning har bir bo'g'ini, masalan, fermerlar – qishloq xo'jaligi sanoatini, metall ishlab chiquvchi yoki uni qayta ishlovchilar- metallurgiya sanoatini tashkil etadi.

Sanoat, industriya – xalq xo'jaligining ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyoti ko'rsatkichiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan yetakchi tarmog'i; Sanoatning o'zi uchun hamda xalq xo'jaligining boshqa sohalari uchun mehnat qurollari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish, bundan tashqari, xom ashyo, yoqilg'i qazib olish, energiya ishlab chiqarish, yog'och tayyorlash, Sanoatda yoki qishloq xo'jaligida olingan mahsulotlarga ishlov berish va ularni qayta ishlash bilan band korxonalar majmuidir.[1] Sanoat kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosigina bo'lib qolmay, industrial ravnaqning oshishiga ham shart-sharoitlar yaratib beradi.

Sun'iy intellekt, inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo'lgan mashinalar yaratishga mo'ljallangan fan va texnologiya sohasidir.[2] Bugungi kunimizda sun'iy intellekt juda ko'plab sohalarning rivojlanishi uchun imkoniyatlar ochib bermoqda. Rivojlangan davlatlarning iqtisodiyoti ham aynan sun'iy intellekt bosqichiga ham yetib kelib bo'lgan. Shu sababli,

mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun ham sun’iy intellekt muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlar va mutaxasislarning fikriga ko‘ra Sun’iy intellekt- to’rtinchi sanoat inqilobining asosi hisoblanadi. Mamlakatimizda ham ustuvor yo‘nalish sifatida 2030-yilgacha raqamli iqtisodiyot va axborotlashni rivojlantirish yo‘li orqali innovatsion taraqqiy etgan davlatlar qatoridan o‘rin olish maqsadi belgilangan. Ta’kidlab o‘tish joizki, 2020-yil “Ilm,ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”dan boshlab, bugungi kunimizga qadar, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda axborotlashtirish borasida katta o‘zgarishlar kiritilgan holda, bir qancha yangi dasturlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol qilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va «Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari hamda boshqa dasturlar va hujjatlar mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish maqsadi kiritilgan.

2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi tasdiqlandi. “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi milliy iqtisodiyotimizning raqamli transformatsiyasini tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga bu strategiyaning asosiy maqsadi bo’lib aholining, jamiyatimizning raqamli savodxonligini oshirish ham ko‘zda tutiladi.

Xulosa. Zamonaviy sanoat iqtisodiyotida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari muhim strategik omil sifatida e’tirof etilmoqda. Global tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, SI texnologiyalarini joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini o‘rtacha 20–35% gacha oshiradi, inson mehnatiga bo‘lgan ehtiyojni 25–30% ga kamaytiradi, texnik xizmat xarajatlarini esa yiliga 15–25% gacha qisqartiradi. O‘zbekiston sanoatida raqamli texnologiyalarga asoslangan yangilanish jarayonlari boshlangan bo‘lsa-da, sun’iy intellekt yechimlarining keng joriy etilishi hali sust kechmoqda. 2022-yilda faqat 300 ga yaqin sanoat korxonasi raqamli boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan bo‘lsa (Raqamli texnologiyalar vazirligi), SI asosida ishlovchi tizimlar ko‘rsatkichi undan ham kam. Bu holat quyidagi tizimli muammolar bilan izohlanadi:

- Yetarli darajada malakali raqamli kadrlar yetishmasligi;
- Tarmoqlararo integratsiya va ma’lumotlar almashinuvi mexanizmlarining yo‘qligi;
- SI texnologiyalarini moliyalashtirish uchun xususiy investitsiyalar sustligi;
- Normativ-huquqiy bazaning zaifligi, axborot xavfsizligiga oid risklarning tartibga solinmaganligi.

Shunday qilib, O‘zbekiston sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda sun’iy intellektni ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiyalash hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu o‘z navbatida yosh tadbirkorlar, ishbilarmonlar, ishlab chiqaruvchilar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib beradi.Umuman olganda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va undan keng foydalinishni joriy etish sanoat iqtisodiyotining har qaysi bo‘g‘inlari uchun yangi texnologiyalar va innovatsiyalarning ravnaq topishi yo’lida yangi loyihalar va dasturlarning paydo bo‘lishiga sabab bo’ladi. Yuqoridagilar esa mamlakatimizda sanoat iqtisodiyotining rivojlanib, industrial ravnaq topgan yetakchi davlatlar qatorian o‘rin olishiga yo‘l ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni, PQ-6079-son, 2020 yil 5-oktabr.

2. Raqamli texnologiyalar vazirligi (2023). “Sanoat tarmoqlarida raqamli transformatsiya bo‘yicha rasmiy hisobot.” – Toshkent: DTM..

3. O.N.Xaitov “Hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish” Monografiya. Samarqand. 2024. 256-b.

4.Soliyev A., Xo‘jayev B. (2021). Moliyaviy texnologiyalar va raqamli to‘lov tizimlari. – Toshkent: Iqtisod-moliya nashriyoti.

5.Yunusov Sh.S., To‘laganov S.S. (2022). Raqamli iqtisodiyot asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot.

5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sun’iy_intellekt

DASTURLASH KO‘NIKMALARINI OSHIRISH BO‘YICHA KREATIVLIK POTENTSIALINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Bektemirova Gulrux Otabek qizi, Shukurov Erkin Sodiq o‘g‘li,
SamDU tadqiqotchisi, SamDU KF assistenti
erkinjonshukurov1997@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida dasturlash ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha kreativlik potentsialini rivojlantirishning usullari tadqiq qilingan. Bunda kreativ pedagogikaning mazmun va mohiyati, kraetiv pedagogikani kasbiy faoliyat turlaridagi o‘rni va o‘qitishda qo‘llashning tahlili keltirib o‘tilgan. Dasturlash ko‘nikmalarini oshirishda ijodiy rivojlanishning bosqichlari va ularning imkoniyatlari keltirib o‘tilgan. Dasturlash fanlarini o‘zlashtirish asosida ijodkorlikni oshirish uchun onlayn contest tizimlaridan foydalanish samaradorligi taklif qilingan. Dasturlash ko‘nikmalarini oshirish uchun foydali bo‘lgan contest tizimlaridan foydalanish usullari ishlab chiqilgan.

Kalitli so‘zlar: Kraetivlik, ijodkorlik, dasturlash texnologiyalari, kreativlik potentsiali, onlayn contest dasturlari.

Kirish: Ushbu tadqiqot ishida dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida kreativlik potentsialini oshirishga xizmat qiluvchi samarali yondashuvlar tahlil qilingan. Asosan, kreativ pedagogikaning mazmuni va mohiyati, uning kasbiy faoliyat turlaridagi o‘rni hamda ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari o‘rganilgan. Dasturlash fanlari orqali ijodiy fikrlashni shakllantirish bosqichlari va ularning amaliy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, talabalarning dasturlash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashda onlayn contest tizimlaridan foydalanishning afzalliklari va ularni samarali joriy etish usullari ishlab chiqilgan.

Asosiy qism: Pedagoglar o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Ularning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida tinimsiz o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va ular asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagogning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishi uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagoglarning o‘zini-o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatlarini samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi [3]. Buning natijasida o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Demak, o‘z-o‘zini tarbiyalash - bu pedagogik yo‘naltirilgan jarayon. O‘z ustida ishlashga psixologik va amaliy tayyorgarlik bu ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir.

Alison Jeyms va Stiven Brukfillarning "To‘liq shaxsni o‘rganish"nomli maqolasida ijodiy ta'lim haqida ko‘p yozgan.Ularda shunday deydi men uchun butun shaxsni o‘rganish tajribaviy, mujassamlangan va hissiy jihatlarga ega bo‘lib, ularning barchasi talabalarni ijodkorlikka undaydi . Butun shaxsni o‘rganishni rag'batlantirish o‘qituvchilarning g'amxo‘rligi, qo‘llab-quvvatlashi va jasoratini talab qiladi. Olimlar shunday deydi biz o‘z-o‘zini tarbiyalashning paydo bo‘lishi va rivojlanishining asosiy bosqichlarini ajratib ko‘rsatishga harakat qildik [1].

Birinchidan. Bu talabalarning o‘z hayot tarzini anglashi, faoliyatining ahamiyatini anglashi o‘zini-o‘zi tarbiyalashni talab qiladi. Ushbu bosqichda pedagog o‘qituvchilar talabalarga o‘zlarining ijobiy va salbiy fazilatlarini anglashga, kamchiliklarini to‘g’irlashga yordam beradi.

Ikkinchidan. Mahoratli o‘zlashtirishni mustaqil o‘z ustida ish olib borib talaba muvaffaqiyatga erishmoqchi bo‘lgan talaba misolida ko‘rish mumkin.

Uchinchidan. Shaxs o‘z ustida ishlashning juda muhim bosqichi bu o‘z-o‘zini tarbiyalash dasturi. Bu yerda talabalarning o‘zini-o‘zi qanchalik ob'ektiv baholashi, ular maqsadlarini to‘g'ri belgilashi va kerakli usullarni tanlaganligini baholash uchun yordam talab qilinadi.

Talaba va o‘quvchilarda dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun kreativ metodlar kata ahamiyat kasb etadi [3]. Kreativ metodlaridan foydalanib kreativ shaxslarni kasbiy shaklantirish va rivojlantirish bosqichlarini quyidagi sxema orqali amalga oshirish mumkin.



2-rasm. Kreativ shaxsni kasbiy shaklantirish va rivojlantirish bosqichlarining sxemasi.

Xulosa. Pedagogik kreativlik xususiyatlari tahlil qilindi va tahlil asosida pedagogik kreativlikni rivojlantirish bosqichlari taklif etildi. Pedagogik kreativlik potensialini rivojlantirish uchun zamonaviy usullar va ularning mohiyati keltirib o’tildi.Kreativ usullarning mazmun – mohiyati, ularning samaradorligi va o’rganilganlik darajasi tahlil qilindi, natijada kreativ usullarni qo’llashning dolzarbligi asoslandi. Kreativlik potensialini rivojlantirishda o‘z-o‘zini tarbiyalashning paydo bo‘lishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari keltirib o‘tildi.

Adabiyotlar ro‘yxati

3. J. Kaufman, “Classroom contexts for creativity”, High Ability Studies, Vol. 25/1, pp. 53-69, http://dx.doi.org/10.1080/13598139.2014.905247

2. Аминов И., Назаров Ф.М. Использование интерактивных методов обучения в преподавании информатики УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА Международный научный журнал.-2018.№ (12). Москва. [31-34] б.

3. Nazarov F. Recommendations for the development of the Olympic program. Scientific-methodical journal of physics, mathematics and computer science. Toshkent.2017 (3).

RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY O‘SISH OMILLARIGA TA’SIRI

Jaxonova Odina Xakimjon-qizi, Jahonova Sevinch Baxromjon qizi
Samarqand davlat universiteti, Kattaqo‘rg‘on filiali 3-kurs Talabalari

Annotasiya: mazkur tezisda, iqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligi muhim ahamiyatga egaligi va uning asosiy omili sifatida makroiqtisodiy o'sish ko'rsatilgan. Mamlakatlarning iqtisodiy o'sishning asosiy qobiliyatlarini, fan-texnika taraqqiyotini, raqamli iqtisodiyotni va global integratsiyani muhokama qiladi. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va uning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini o‘rganadi. Raqamli texnologiyalar investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarishni samaradorligini oshirish va xalqaro savdoni kengaytirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, makroiqtisodiy o‘sish, raqamli texnologiyalar, raqamli infratuzilma, YaIM, milliy daromad, lean production, addictive, makroiqtisodiy barqarorlashuv

Kirish. Raqamli iqtisodiyot hozirgi kunda rivojlanib borayotgan soha hisoblanib, u davlatlarning iqtisodiy o‘sishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari va ko'lamiga qarab jamiyatning iqtisodiy holatiga baho berish mumkin. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlarda YaIM (Yalpi ichki mahsulot) hajmi ham, YaIMning aholi son boshiga ulushi ham yuqoridir.

Tezisda O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayoni va uning iqtisodiy o‘sishga ta’siri batafsil tahlil qilinadi. Bugungi vaziyatga ko‘ra shuni ta’kidlash joizki, yaqin yillarda makroiqtisodiyot “lean production” (korxonaning barcha turdagi yo‘qotishlarni bartaraf etishga qaratilgan doimiy intilishlariga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini boshqarish konsepsiyasi), addictive (ko‘p jihatli), nano va biotexnologiya mezonlariga tayanadigan ishlab chiqaruvchilarga qattiq bog‘liq bo‘lishi kutilmoqda.

Tadqiqotda qo‘llanilgan usullar.

Tadqiqot jarayonida raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy o‘sish omilariga ta’sirini o‘rganishda tahliliy (analitik) usul, statistik-uslubiy tahlil, solishtirma tahlil usuli va regressiya tahlili usullaridan foydalanildi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni baholashda raqamli texnologiyalarni qo‘llovchi sohalarda, xususan, korxonalarda raqobatbardoshlik salohiyatining shakllanishi xizmat ko‘rsatish jarayonlarining raqamli xususiyatlari va innovatsion yechimlarga asoslanganligi ilmiy-uslubiy jihatdan chuqur o‘rganildi.

Adabiyotlar tahlili.

Bugungi kunda zamonaviy xorijiy iqtisodchilar tomonidan raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy o‘sishga ta’siri, xususan,barcha sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish yo‘nalishida keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee “The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies” deb nomlangan maqolasida mualliflar raqamli texnologiyalarning iqtisodiy o‘sish, mehnat bozori va samaradorlikka ta’sirini tahlil qilgan. Ular sun’iy intellekt, avtomatlashtirish va raqamli innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirsa-da, daromadlar tengsizligini kuchaytirishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Hal R. Varian Google bosh iqtisodchisi sifatida bir nechta maqolalari, masalan, “Information Technology and the Future of Economic Growth” maqolasida axborot texnologiyalarining iqtisodiy o‘sishdagi roli, ayniqsa, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish va samaradorlikni oshirishdagi o‘rni haqida yoritadi.

OECD va Jahon Banki hisobotlari: Digital Economy Outlook (har ikki yilda chop etiladi), World Development Report 2016: Digital Dividends - bu xalqaro tashkilotlar raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri, shu jumladan, bandlik, samaradorlik, inklyuzivlik va iqtisodiy o‘sish bo‘yicha statistik va tahliliy ma’lumotlarni taqdim etadi.

Tahlil va natijalar.

Globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini integratsiyalashuvida muhim o‘rin tutadi. Yangi iqtisodiyotda raqamli tarmoq va aloqa infratuzilmasi unga korxona va tashkilotlarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beruvchi global platformani taqdim etadi. Bundan tashqari, ular hamkorlik, iqtisodiy aloqa va axborot almashinuvi va samaradorligini ta'minlaydi.

Raqamli iqtisodiyot rivojlanayotgan sharoitda barcha sohaning samarali rivojlanishi uning zamonaviy tarmoqlarini diversifikatsiyalash asosida jamiyatda mehnat salohiyatini oshirish uchun muayyan ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish, aholi bandligini ta’minlash, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, aholini xizmatlarga talabini shakllantirish, mehnat taqsimotini kengaytirish imkonini yaratadi.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlarda YaIM (Yalpi ichki mahsulot) hajmi ham, YaIMning aholi son boshiga ulushi ham yuqoridir.

Raqamli iqtisodiyotni makroiqtisodiyotdagi o‘rni va trakzaksion sektor. Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manbasi – trakzaksion sektorning o‘sishi deb bilishimiz tabiiy hol.

Rivojlangan mamalakatlarda bu ko‘rsatkich YaIMning 70 foizdan ortiq miqdorni tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko‘rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini birlashtiradi.

Raqamli iqtisodiyot omillarining makroiqtisodiy o‘sishga ta’siri quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ifodalanadi:

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) rivoji - AKT infratuzilmasining rivojlanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, xizmatlar ko‘lamini kengaytiradi, yangi iqtisodiy faoliyat turlarini yuzaga keltiradi. YAIM o‘sishiga ijobiy ta’sir, soliq tushumlarining ortishi, investitsiyalarni jalbi ko‘payadi.
- Internet infratuzilmasi va raqamli platformalar - Internet foydalanuvchilari sonining ortishi elektron tijorat va xizmat ko‘rsatish hajmini oshiradi. Tashqi savdoning elektron platformalar orqali o‘sishi, bandlikning kengayishi, iste’mol bozorining rivojlanish jarayoni yuzaga keladi.
- Raqamli moliyaviy xizmatlar (onlayn bank, elektron to‘lovlar) - Aholining moliyaviy xizmatlarga qulay kirishiga yordam beradi. Moliyaviy inklyuziya ortadi, ichki iqtisodiy faollik kuchayadi, pul aylanishi tezlashadi.
- Innovatsiyalar va startaplar - Yangi texnologiyalar va mahsulotlar iqtisodiyotning yuqori qo‘shilgan qiymatli tarmoqlarini shakllantiradi. Raqobatbardoshlik oshadi, eksport imkoniyatlari kengayadi, iqtisodiy o‘sish barqarorlashadi.
- Raqamli ta’lim va inson kapitali - IT ko‘nikmalariga ega malakali kadrlar tayyorlanadi. Mehnat unumdorligi ortadi, innovatsion salohiyat kuchayadi, texnologik transformatsiya tezlashadi.

Jahon banki hisob-kitoblariga binoan, tezkor internet foydalanuvchilarining 10 foizga ko‘payishi yillik YaIM ko‘lamini 0,4 foizdan 1,4 foizgacha oshirishi mumkin ekan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning mamlakat YaIMdagi ulushi har yili taxminan 20 foizga o‘sishi (rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 7 foiz atrofida) uning ahamiyati belgilaydigan ko‘rsatkich sifatida qaraladi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishining asosiy manbalaridan biriga aylandi. 2021-2023 yillar davomida raqamli xizmatlar va texnologiyalar orqali GDP (ya’ni, yalpi ichki mahsulot) o‘sishida 2-3 foizga yaqin qo‘shgan hissasi kuzatildi.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning ulushi 2,2 foiz, shuningdek, Buyuk Britaniyada – 12,4 foiz, Janubiy Koreyada – 8 foiz, Xitoyda – 6,9 foiz, Hindistonda – 5,6 foiz, Rossiyada - 2,8%, Qozog'istonda - 3,9%. Hozirgi vaqtda o‘rtacha maqbul qiymat 7-8 foizni tashkil etishini hisobga olsak, Qozog‘iston, Rossiya va O‘zbekiston Respublikasida ko‘rsatkichlarning pastligi ushbu mamlakatlarda raqamlashtirish bo‘yicha ko‘proq ish olib borishni anglatadi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi YaIM o‘sish sur‘atlarini oshiradi, bandlikni kengaytiradi, eksport salohiyatini kuchaytiradi. Raqamli moliyaviy xizmatlar moliyaviy inklyuziyani ta’minlashi natijasida iqtisodiy faollik ortadi. Internet infratuzilmasi esa yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim omil hisoblanadi.

“Raqamli” iqtisod samaradorlikni oshirishda birinchi o‘rinda turadi: kompaniyaning mijozlari qancha ko‘p bo‘lsa, ishlab chiqarish jarayoniga yangi mijozlar va boshqalarni jalb qilish shunchalik “samarali” bo‘ladi va bir vaqtning o‘zida yanada yaxshi xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. narx. “Raqamli” iqtisodiyotning afzalliklari ko‘p, eng muhimi, u yashirin iqtisodiyotning oldini oladi va korrupsiyani bartaraf etishga yordam beradi. Albatta, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamlashtirish oson bo‘lmaydi, lekin raqamlashtirishsiz jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashib bo‘lmaydi.

Raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri

№	Makroiqtisodiy ko‘rsatkich	Raqamli iqtisodiyotning ta’siri
1	**Yalpi ichki mahsulot (YAIM)**	Raqamli xizmatlar (IT, e-commerce, fintech) YAIMning o‘sishiga hissa qo‘shadi. Elektron tijorat va raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.
		Misol: O‘zbekistonda IT xizmatlar eksporti 2023 yilda $300 mln.dan oshdi.
2	**Yalpi milliy mahsulot (YaMM)**	Raqamli xizmatlar, xususan IT eksporti orqali Yalpi milliy mahsulotga qo‘shilgan qiymat oshadi.
		Misol: O‘zbek IT mutaxassislari xalqaro loyihalarda faol ishtirok etib, xorijdan daromad olib keladi.
3	**Yalpi milliy daromad (YaMD)**	Raqamli iqtisodiyot orqali yaratilgan yangi ish o‘rinlari va daromad manbalari YaMDni oshiradi.
		Misol: Masofaviy ish, freelance va onlayn bizneslar orqali aholining daromadi ortadi.
4	**Inson taraqqiyoti indeksi (ITI)**	Raqamli texnologiyalar ta’lim, sog‘liqni saqlash va daromad kabi omillarni yaxshilaydi.
		Misol: Masofaviy ta’lim platformalari, telemeditsina xizmatlari aholi imkoniyatlarini kengaytiradi.
5	**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichlar**	Raqamli iqtisodiyot orqali boylik va xizmatlar aholiga kengroq tarqatilmoqda.
		Misol: Onlayn to‘lovlar, mobil ilovalar orqali xizmatlardan foydalanish osonlashadi, daromad ortadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo‘lsak raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy o‘sish omillariga ta’siri quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- YAIM (Yalpi ichki mahsulot) o‘sishiga ta’siri raqamli xizmatlar (onlayn to‘lovlar, e-commerce) hajmining ortishi iqtisodiy aylanish tezligini kuchaytirib, YAIMning yillik o‘sish sur’atlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.
- Solik bazasining kengayishi aqamli nazorat vositalari orqali norasmiy iqtisodiy faoliyat qisqarib, rasmiy sektor kengaymoqda. Bu davlat byudjetiga tushumlar ortishiga olib kelmoqda.
- Tashqi savdo va eksport salohiyati raqamli xizmatlar eksporti (IT-outsourcing, dizayn, dasturlash) yangi valyuta tushumlar manbai bo‘lib, to‘lov balansini ijobiy tomonga o‘zgartirmoqda.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi va rivojlanishi mamlakatning umumiy iqtisodiy o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlarning kengayishi milliy iqtisodiyotning samaradorligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini yaxshilash imkonini bermoqda. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirish hamda davlat siyosatlarini qo‘llab quvvatlash O‘zbekistonning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlar muvaffaqiyatli amalga oshirilgan taqdirda, O‘zbekiston iqtisodiyoti nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro miqyosda ham yuqori o‘sish sur’atlariga erishishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish O‘zbekistonni yanada innovatsion va raqobatbardosh iqtisodiyotga aylantiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arabov, N., Belotserkovskaya, N., Nasimov, D., Utemuratova, G., Abduraimov, D., &Makhmudova, M. Improving methods for assessing the effectiveness of tourism infrastructure development // In E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. Vol. 452, p. 07012.

2. O‘zbekiston Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Raqamli texnologiyalar va moliyaviy tizimdagi o‘zgarishlar. T.: Iqtisodiyot va Innovatsiyalar jurnali
3. Sobirov I. Raqamli iqtisodiyot – rivojlanish trendlari va xususiyatlari. – T 2020
4. The Role of Digitalization in Economic Growth: Experience of Uzbekistan
5. Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee “The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies”, 2014

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HUDUDIY TURIZMNING INNOVATSION SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li
iqlimi va ishchanlik muhiti yaxshilanadi. 2018 yil 18 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №5598-sonli Farmoni e'lon qilindi. [2] Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimining joriy etilishini ta'minlash, aholi, biznes va davlat o'rtasida samarali o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoit yaratish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq Farmonda elektron hukumatning davlat, aholi va biznesning samarali hamkorligini, shuningdek, jahonning raqamli makoniga integrasiyalashuvini ta'minlash bo'yicha yagona milliy tizim sifatidagi maqsadli ahamiyatini belgilash ko'zda tutilgan. Loyihalar bo'yicha yagona milliy distribyutorni tashkil etish orqali yaxlit jarayon (ishlab chiqish, loyihalashtirish, kelishish, tovarlar, ishlar, xizmatlar xarid qilish, shuningdek, ularni foydalanishga topshirishning yagona tizimi) barpo etiladi. Natijada mamlakatimizda davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi izchillik bilan takomillashib boradi, investisiya iqlimi va ishchanlik muhiti yaxshilanadi.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integrasiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi "Raqamli Toshkent" kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi '"Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari hamda o'rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalarini belgilaydi, shuningdek, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.[1] "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasida raqamli rivojlanishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari sifatida raqamli infratuzilmani, Elektron hukumatni, raqamli iqtisodiyotni, raqamli texnologiyalar milliy bozorini va axborot texnologiyalari sohasida ta'lim berish va malaka oshirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berish taklifi ilgari surilishi tom ma'noda O'zbekiston hayotida global taraqqiyotga hamohang ravishda tarixiy burilish davri boshlanganini tasdiqladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi '"Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni // www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №5598-sonli Farmoni // www.lex.uz
3. Klaus Shvab. Chetvertaya promышlennaya revolyusiya. – M., Eksmo. 2016. S.30
4. Gulyamov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019y
5. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi // www.lex.uz

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Hatamov Humoyun, Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash orqali raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistonning innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirayotgan islohotlari misolida nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *innovatsion iqtisodiyot, raqobatbardoshlik, texnologiya, ilmiy-tadqiqot, ekologik barqarorlik, sun’iy intellect, startaplar, moliyalashtirish mexanizmlari.*

Kirish.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida raqobatbardoshlikni oshirish korxonalar uchun eng dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi raqobat muhitida texnologik taraqqiyot va innovatsiyalar korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, bozor talablariga tezkor moslashish imkoniyatini ta’minlaydi. Innovatsion iqtisodiyot esa bu jarayonni jadallashtirishning samarali yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘zga tashlanadi. O‘zbekiston Respublikasi innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirilib Xususan,**“Milliy Innovatsion Rivojlanish Dasturi – 2030”** qabul qilinib, unda ilmiy-tadqiqot loyihalariga davlat tomonidan moliyaviy ko‘mak berish va startaplarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Texnoparklar va innovatsion markazlar qoshida kichik va o‘rta korxonalar uchun maxsus inkubatsiya dasturlari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular korxonalarni texnologiyalarni o‘zlashtirish va yangi mahsulotlar yaratishga rag‘batlantiradi. Shuningdek, O‘zbekistonning mintaqaviy rivojlanish siyosatida texnologiyalarni qishloq xo‘jaligi, energetika va sanoat sohalariga integratsiya qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Misol tariqasida, 2023-yilda Farg‘onada ilk bor sun’iy intellekt asosida boshqariladigan qishloq xo‘jaligi tizimi ishga tushirildi. Bu loyiha O‘zbekistonni mintaqada raqobatbardosh qilish bilan birga, qishloq xo‘jaligidagi samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishida inson kapitalining roli tobora ortib bormoqda. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yosh mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan “TechnoStart” va “Intellect 2.0” kabi milliy dasturlar joriy etildi. Ushbu dasturlar orqali yiliga 10 mingdan ortiq mutaxassis yangi texnologiyalarni o‘rganib, bozorga mos keluvchi kasbiy bilimlarni egallaydi. Maqola innovatsion iqtisodiyotning nazariy asoslari, korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning zamonaviy usullari va O‘zbekistonning bu boradagi o‘ziga xos tajribasini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Ayniqsa, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik, xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish hamda ekologik barqarorlikka asoslangan yondashuvlar maqolaning asosiy mavzulari sifatida yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili

Innovatsion iqtisodiyot nazariy jihatdan ko‘plab iqtisodchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ulardan biri **Maykl Porterning** "**Competitive Advantage" (1985)**[1] asaridir. U o‘z nazariyasida raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omillari sifatida texnologik yangiliklar, innovatsiyalar va resurslarni samarali boshqarish tamoyillarini ta'kidlaydi. Shuningdek, **Schumpeterning** innovatsiyalar va "**ijodiy buzilish**" (**Creative Destruction**)[2] kontseptsiyasi bo‘yicha yondashuvi raqobatning harakatlantiruvchi kuchi sifatida innovatsiyalarning roli muhimligini ko‘rsatadi. Ko‘plab xalqaro tadqiqotlar, jumladan, **Jahon Bankining "Global Innovation Index" (2023)**[3] hisobotida innovatsion iqtisodiyot rivojlanishini jadallashtirish uchun davlat tomonidan moliyaviy rag‘batlar va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarurligi ta’kidlanadi. Bu hisobotda Janubiy Koreya va Germaniya kabi davlatlarning muvaffaqiyatli tajribalari misolida texnoparklar va ilmiy-tadqiqot markazlarining roli chuqur o‘rganilgan. Ilmiy maqolalarda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati alohida

[1] Maykl Porter "Competitive Advantage" (1985) asari

[2] Jozef Shumpeter (Joseph Alois Schumpeter) ijodiy buzilish" (Creative Destruction) kontseptsiyasi

[3] Jahon Bankining "Global Innovation Index" (2023) hisobotida

ta'kidlanadi. Misol uchun, **Brynjolfsson** va **McAfee (2014) "The Second Machine Age"**[1] asarida avtomatlashtirilgan tizimlar va sun'iy intellekt texnologiyalari orqali ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi oshirilishi mumkinligini ko'rsatadi. O'zbekiston tajribasiga kelganda, mamlakatning "Innovatsion rivojlanish strategiyasi" (2022) asosida texnoparklar va innovatsion markazlar tashkil etilishi raqobatbardoshlikni oshirish yo'lida muhim qadamlardan biridir. Jumladan, Toshkentdagi Inha universiteti va Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari yosh olimlarning yangi texnologiyalarni ishlab chiqishdagi faolligini oshiradi. Shuningdek, davlat grantlari va xalqaro moliyaviy tashkilotlar, xususan, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD) tomonidan ajratilgan mablag'lar innovatsion tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashda muhim omil hisoblanadi. UNESCOning ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha ma'lumotlariga ko'ra, innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha davlatlararo hamkorlikning kuchaytirilishi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Texnologik innovatsiyalar bilan bir qatorda, "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga asoslangan texnologiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. **Gunningham** va **Grabosky (1998) "Smart Regulation"**[2] asarida ekologik barqarorlikni ta'minlash va innovatsiyalar orqali iqtisodiy o'sishga erishish mumkinligi ta'kidlangan. O'zbekistonda bu yo'nalishda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy qilish bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, Janubiy Koreya, Singapur va Xitoyning texnologik yutuqlari O'zbekiston uchun foydali o'rnak bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, bu davlatlarning davlat-xususiy sektor hamkorligi asosida innovatsion klasterlarni rivojlantirish tajribalari diqqatga sazovor.

1. Innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etishning ahamiyati Korxonalarning boshqaruv tizimini zamonaviylashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ularning raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, yuqori texnologiyali boshqaruv tizimlarini qo'llagan korxonalar mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishadi. Masalan, mahalliy korxonalardan biri bo'lgan "O'zAuto Motors" kompaniyasining boshqaruv tizimini avtomatlashtirish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirgani natijasida ichki va tashqi bozordagi ulushini oshirganligini kuzatish mumkin.

2. Raqamli texnologiyalarni qo'llashning natijalari

Tadqiqotda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va avtomatlashtirilgan tizimlarning korxonalar samaradorligiga ta'siri o'rganildi. Ushbu texnologiyalar nafaqat xarajatlarni kamaytirishga, balki bozor talablariga mos mahsulot va xizmatlarni taqdim etishga imkon beradi.Masalan, xalqaro kompaniyalarning tajribasi ko'rsatadiki, sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar iste'molchilarning ehtiyojlarini aniqlashda va ularga mos mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda ham bu texnologiyalarni joriy qilishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Toshkent shahrida bir qator IT-kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan platformalar mahalliy tadbirkorlarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam bermoqda.

3. Ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni moliyalashtirishning natijalari

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatlariga yo'naltirilgan sarmoyalari ularning innovatsion rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, ilmiy-tadqiqot ishlari uchun ko'proq mablag' ajratgan davlatlar iqtisodiy o'sish sur'atlarini sezilarli darajada oshirgan. O'zbekistonda davlat tomonidan ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini moliyalashtirish maqsadida maxsus grantlar va imtiyozlar joriy etilgan. Xususan, "Innovatsion rivojlanish jamg'armasi" tomonidan ajratilgan mablag'lar yosh tadqiqotchilarning yangi texnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha loyihalarini qo'llab-quvvatlamoqda.

4. Yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samarasini tahlil qilish

Ekologik barqarorlikni ta'minlash hozirgi davrning asosiy vazifalaridan biridir. O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish bo'yicha bir qator loyihalar amalga oshirildi. Masalan, Samarqand viloyatida barpo etilgan quyosh elektr stansiyasi nafaqat elektr energiyasini

[1] Brynjolfsson va McAfee (2014) "The Second Machine Age" asari
[2] Gunningham va Grabosky (1998) "Smart Regulation" asari

ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirdi, balki ekologik tozaligi bilan ham e'tiborni tortdi. Shu orqali ushbu loyiha nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham yuqori natijalarni ko‘rsatdi.

5. Startaplar bilan hamkorlikning ahamiyati

Startaplar korxonalarga yangi innovatsion mahsulotlarni bozorga tezkor yetkazib berish imkoniyatini beradi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, startaplar bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilgan korxonalar raqobatbardoshlikni oshirishda sezilarli natijalarga erishadi. O‘zbekistonda "Startup Development Program" doirasida bir qator yirik kompaniyalar startaplar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsion yechimlardan foydalandi. Bu esa bozor ulushining oshishiga va xarajatlarning kamayishiga olib keldi.

6. O‘zbekiston tajribasi

O‘zbekistonning innovatsion iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha tajribasi tahlil qilindi. Davlat tomonidan texnoparklar va ilmiy markazlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan siyosat natijasida bir qator sezilarli yutuqlarga erishildi. Xususan, "Yashnobod" texnoparki tadqiqot va ishlanmalar markazi sifatida yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda. Bu markazda ishlab chiqilgan yangi texnologiyalar sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida qo‘llanilmoqda. Bunday markazlarning faoliyati iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, mamlakatning global bozorlar bilan integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

7. Xalqaro tajribadan o‘rganilgan saboqlar

Innovatsion iqtisodiyot rivojlanishida xalqaro tajribaning o‘rni katta. Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlar texnologik innovatsiyalarni keng joriy etish orqali iqtisodiy o‘sishga erishgan. Ushbu davlatlarning muvaffaqiyatli tajribasi O‘zbekistonda qo‘llanilib, innovatsion rivojlanish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqildi.Masalan, Janubiy Koreyaning texnoparklarni boshqarish modeli Toshkent shahridagi "Tashkent Tech" texnoparkida tatbiq etilgan bo‘lib, bu model mahalliy tadbirkorlar va ilmiy-tadqiqot markazlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar

Mazkur tadqiqotdan xulosa qilib aytish mumkinki, innovatsion iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini oshirish quyidagi choralarni amalga oshirishni talab etadi: raqamli texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini kengaytirish va startaplarni qo‘llab-quvvatlash. O‘zbekiston sharoitida texnoparklar va innovatsion markazlarning faoliyatini yanada kuchaytirish hamda 'yashil texnologiyalar'ni qo‘llash orqali global bozorda raqobatbardoshlikni oshirish mumkin. Mazkur tavsiyalar mamlakatning innovatsion iqtisodiyoti rivojiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Porter, M. E. (1985). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press. **2** Schumpeter, J. A. (1942). *Capitalism, Socialism, and Democracy*. Harper & Brothers. **3** Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W. W. Norton & Company. **4** Jahon Banki (2023). *Global Innovation Index* hisobotlari. **5** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Innovatsion rivojlanish strategiyasi” haqidagi farmoni (2022). **6** UNESCO (2023). *Ilmiy-tadqiqot faoliyatlari bo‘yicha global statistik ma’lumotlar*. **7** Gunningham, N., & Grabosky, P. (1998). *Smart Regulation: Designing Environmental Policy*. Oxford University Press.

8 O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi (2023). “Texnoparklar va startaplarni rivojlantirish bo‘yicha hisobot”.

DAVLATIMIZ BYUDJETI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING MUHIM OMILLARI VA XARAJATLAR

Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li, Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali
Igamberdiyeva Sevinch, talaba
xaitovoxunjon@samdukf.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi dunyoda bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni nazorat qilishda davlatning roli

va ahamiyati keskin o‘zgarishi va boshqa shu kabi muhim jarayonlar yoritilib berilgan. Bozor sharoitida boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullaridan farqli o'laroq, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ancha cheklangan va birinchi navbatda bozor mexanizmining uzluksiz ishlashini ta'minlash, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, global muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Shuningdek, ijtimoiy jihatdan oqilona taqsimlash va qayta taqsimlash orqali aholining eng zaif qatlamlarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish. ijtimoiy mahsulot va milliy daromadlarni muhim yo‘naltirilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan davlat byudjetini samarali shakllantirish bilan bir qatorda soliq va majburiyatlarda ham yengilliklar yaratilib berilmoqda.

Kalit so‘zlar: Taqsimlash; nazorat qilish; bevosita soliqlar; bilvosita soliqlar; byudjet daromadlari shakllanishi; byudjet sohasidagi islohotlar.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti asosan soliq va yig‘imlarlardan tashkil topadi. Davlat byudjetining 90% dan ortig‘ini soliqlar tashkil qiladi. Bozordagi ijtimoiy, siyosiy, ishlab chiqarish, ekologik muammolarni hal qilishda iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning eng muhim vositasi bu byudjet mexanizmi. Davlat yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni byudjetga qayta taqsimlash orqali davlatning bozor mexanizmiga mos keladigan ijtimoiy ishlab chiqarish va iqtisodiy nisbatlarini shunday tuzilishini yaratishga intiladi. Byudjet mexanizmi orqali davlat mamlakatning iqtisodiy o‘sishi, ijtimoiy sohani kuchaytirish, ilmiy-texnikaviy rivojlanish sur’atlarini jadallashtirish, ishlab chiqarishning moddiy-texnik bazasini tubdan qayta jihozlash, innovatsion jarayonlarni rivojlantirish, ishsizlikni kamaytirish va bandlikni oshirish kabi makroiqtisodiy jarayonlarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish byudjet siyosatining ustuvorliklarini o‘zgartirish asosida amalga oshirilishi mumkin, ular tobora tezkor va mavjud muammolarni hal qilishdan jamoat faoliyatining turli sohalarini qamrab oluvchi uzoq muddatli va maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va izchil amalga oshirishga o‘tishi kerak.

Bozor sharoitida byudjet mexanizmini ishlab chiqish byudjetning ishbilarmonlik muhiti va tadbirkorlarning ishbilarmonlik faolligi darajasiga tobora ta’sir ko‘rsatishi, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, uning xususiy sektorini rivojlantirish, ishlab chiqarishni xususiylashtirish va hokazo soliq, davlat investitsiyalari, byudjet ssudalari kabi moliyaviy vositalar orqali amalga oshirilishi kerak. , byudjetni moliyalashtirish hajmi davlatning boshqaruvning turli jihatlariga ta’sir qilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi va bu tezkor yangilanishga yordam beradi novnyh ishlab chiqarish aktivlari, infratuzilma, ijtimoiy ishlab chiqarish, mehnat bozorida ish o‘rinlari tarkibida rivojlantirish, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat, ta’lim davlat tizimini takomillashtirish moliyalashtirish va qayta tayyorlash yangi mexanizmini yaratish.

Har qanday zamonaviy jamiyatning iqtisodiy tuzilishi shakllanishida va rivojlanishida etakchi, hal qiluvchi rolni hukumat tanlagan iqtisodiy siyosat doirasida amalga oshiriladigan davlat tomonidan tartibga solish o‘ynaydi. Davlatga iqtisodiy va ijtimoiy tartibga solishni amalga oshirishga imkon beradigan eng muhim mexanizmlardan biri bu moliyaviy mexanizm – jamiyatning moliyaviy tizimi bo‘lib, uning asosiy bo‘g‘ini davlat byudjetidir. Davlat moliya tizimi orqali markazlashtirilgan shakllantiradi va davlat organlariga yuklangan funktsiyalarni bajarish qobiliyatini ta’minlab, markazlashtirilmagan mablag‘larning shakllanishiga ta’sir qiladi. 90-yillarning boshlarida amalga oshirilgan iqtisodiy va siyosiy islohotlar ham davlat moliya sohasiga, birinchi navbatda byudjet tizimiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin emas edi. Davlat byudjeti davlat resurslarini jalb qilish va sarflashning asosiy vositasi bo‘lib, siyosiy kuchga iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish, uning tarkibiy tuzilishini moliyalashtirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirishni rag‘batlantirish, aholining kam himoyalangan qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun real imkoniyat beradi. Ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan jamiyatning moliyaviy tizimini o‘zgartirish yo‘nalishi, davlat byudjet siyosati zamon talablariga qanchalar javob berishiga bog‘liq.

Moliyaviy ulkan xilma-xillikda ma’lum umumiy xususiyatlarda farq qiluvchi alohida sohalarni ajratish mumkin. Shunday qilib, yalpi ijtimoiy mahsulotning tannarxini taqsimlashning

alohida sohasi davlatda korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi bilan rivojlanayotgan moliyaviy munosabatlar natijasida shakllanadi. Ushbu munosabatlar umumiy bo‘lib, ular taqsimot jarayonida vujudga keladi, davlat ajralmas ishtirokchidir va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo‘ljallangan mablag‘larning markazlashtirilgan fondini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq . Moliyaviy munosabatlarning ushbu umumiyligi davlat byudjeti deb ataladigan kontseptsiyaning iqtisodiy tarkibini tashkil etadi . Davlat byudjeti chunki iqtisodiy munosabatlar majmui ob’ektivdir. Taqsimotning mustaqil sohasi sifatida mavjudligi ob’ektiv ravishda ijtimoiy ishlab chiqarishni o‘zi tomonidan belgilanadi, uning rivojlanishi uchun tegishli markazlashtirilgan resurslar kerak bo‘ladi. Mablag‘larning markazlashtirilishi umuman iqtisodiyotning ishlashini ta’minlash uchun xalq xo‘jaligida uzluksiz aylanishni tashkil qilish uchun zarurdir. Xarajatlarni taqsimlashning aniq byudjet sohasi mavjudligi ham davlatning tabiati va funktsiyalari bilan belgilanadi. Davlat ustuvor tarmoqlarni moliyalashtirish, butun jamiyatda ijtimoiy-madaniy tadbirlarni o‘tkazish, mudofaa muammolarini hal qilish va davlat boshqaruvining umumiy xarajatlarini qoplash uchun markazlashtirilgan mablag‘larga muhtoj. Shunday qilib,iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida markazlashtirilgan moliyaviy resurslar davlatga ijtimoiy ishlab chiqarishning zarur sur’atlari va nisbatlarini ta’minlashga, uning tarmoq va hududiy tuzilishini yaxshilashga, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning ustuvor dasturlari uchun zarur mablag‘larni shakllantirishga va katta ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Moliyaviy markazlashtirish tufayli mablag‘lar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim sohalariga, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni tayyorlashga yo‘naltirilmoqda. Shunday qilib, xarajatlarni taqsimlashning alohida qismi sifatida davlat byudjeti aniq ijtimoiy maqsadni amalga oshiradi – bu milliy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Xarajatlarni taqsimlashning ma’lum bosqichlaridan o‘tgan va aholiga kengaytirilgan ko‘payish, ijtimoiy va madaniy xizmatlar, mudofaa va boshqaruv uchun kengaytirilgan ehtiyojlarni qondirish uchun davlatga kirgan, ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning muayyan qismini bajaradigan ob’ektiv taqsimot munosabatlarining mavjudligining iqtisodiy shakli. Budjet fondini shakllantirish va undan foydalanish uning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi munosabati bilan qiymat harakati jarayonini ifodalaydi.Davlat byudjeti, boshqa iqtisodiy toifalar singari, ishlab chiqarish munosabatlarini ifoda etadi va tegishli moddiy timsolga ega: byudjet munosabatlari markazlashtirilgan davlat fondlarida – byudjet fondida shakllantiriladi. Natijada jamiyatda ro‘y berayotgan real iqtisodiy (taqsimlash) jarayonlar davlat tomonidan jalb qilingan va foydalanilayotgan mablag‘lar oqimida o‘z ifodasini topmoqda. Byudjet fondi- Bu ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning harakatlanishining ob’ektiv ravishda aniqlangan iqtisodiy shakli bo‘lib, u xarajatlarni taqsimlashning taniqli bosqichlaridan o‘tgan va aholiga kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, mudofaa va boshqaruv uchun kengaytirilgan ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun davlatga kelgan. Budjet fondini shakllantirish va undan foydalanish uning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi munosabati bilan qiymat harakati jarayonini ifodalaydi. Ijtimoiy takror ishlab chiqarishda davlat byudjetining roli, avvalambor, davlat byudjetining yordami bilan milliy daromadning qariyb 30 foizi va yalpi ijtimoiy mahsulot (xarajatlar) ning 10 dan 15 foizigacha taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi bilan belgilanadi. U mablag‘larni milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari, ishlab chiqarish tarmoqlari, ijtimoiy faoliyat sohalari, iqtisodiy mintaqalar va mamlakat hududlari o‘rtasida taqsimlaydi. Davlat byudjeti iqtisodiyotga umuman ta’sir qiladi, chunki u butun xalq xo‘jaligining byudjeti funksiyasini bajaradi. Davlat byudjeti uning ishlab chiqarishini rag‘batlantiruvchi rol o‘ynab, moddiy ishlab chiqarish sohasida katta rol o‘ynaydi. Budjet mablag‘lari ham jismoniy (ham alohida korxonalar doirasida), ham jamoat (xalq xo‘jaligida) mablag‘larning aylanishini ta’minlash uchun ishlatiladi. Amaldagi va boshqa xarajatlarni ta’minlab, mavjud va yangidan ishga tushirilgan korxonalarda kapital qo‘yilmalar va aylanma mablag‘larni byudjet tomonidan moliyalashtirish, uning uzluksiz ishlashi va bir xilligini ta’minlab, alohida korxonalardagi mablag‘larning aylanishiga kiritilishi mumkin.Noishlab chiqarish sohasiga ajratiladigan byudjet mablag‘lari uning ishlashi va rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi. Ushbu sohadagi muassasa va tashkilotlarning aksariyati o‘z daromad manbalariga ega emas va byudjet mablag‘lari hisobidan ishlaydi.

Davlatning ta’lim va sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, fan, madaniyat va san’at sohasiga sarflaydigan xarajatlari moliyaviy asos bo‘lib, ularsiz milliy miqyosdagi ijtimoiy va madaniy tadbirlarni o‘tkazish mumkin emas. Byudjet daromadlarini shakllantirish va byudjet mablag‘laridan foydalanish jarayonida mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish funksiyalari hal etiladi . Byudjet daromadlari – bu, bir tomondan, davlat va xo‘jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar. Shu bilan birga, byudjet daromadlari bu davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi nazorat qilish organlari ixtiyorida olingan mablag‘lardir. Byudjet daromadlarini shakllantirish jarayonida milliy daromadning bir qismini davlat foydasiga majburiy ravishda olib qo‘yish amalga oshiriladi. Shu asosda davlat bilan korxonalar va aholi o‘rtasida moliyaviy munosabatlar vujudga keladi. Byudjet korxonalar va biznes tashkilotlarining daromadlarini taqsimlashda faol ishtirok etmoqda. Korxonalar foydasining bir qismini byudjetga tortib olish shakllari va hajmi va ularning ish natijalariga bo‘lgan qiziqishlari o‘rtasida ma’lum bog‘liqlik mavjud. Daromadning bir qismini byudjetga tushirish shakli korxonalarning ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, rentabellikni oshirish va daromadlarni oshirishga bo‘lgan qiziqishlariga bog‘liqdir.

Byudjet orqali milliy daromad butun hududga, shuningdek ishlab chiqarishdan noishlab chiqarish tarmoqlariga qayta taqsimlanadi , buning uchun sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat, boshqaruv va mudofaa sohalaridagi ehtiyojlarni moliyalashtirish uchun byudjetdan mablag‘lar yaratiladi.

Byudjetdan milliy daromadlarni qayta taqsimlashning asosiy vositasi sifatida foydalangan holda, davlat mablag‘larni avvalambor milliy iqtisodiyotning tarmoqlariga va ushbu bosqichda ustuvor rivojlanishni talab qiladigan iqtisodiy sohalarga yo‘naltiradi, ya’ni byudjet orqali, milliy daromadlarni hududlararo va tarmoqlararo qayta taqsimlash amalga oshiriladi. Shunday qilib, umuman mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va mintaqalarning mutanosib rivojlanishi manfaatlariga rioya qilinadi. Davlat byudjeti hisobidan fundamental ilmiy tadqiqotlar olib boradigan ilmiy muassasalarni moliyalashtirish ta’minlanadi, bu esa o‘z navbatida amaliy fanni rivojlantirish va yangi texnologiyalarni yaratish uchun asosdir. Davlat byudjet orqali zarur mablag‘ni ilm-fanning eng istiqbolli sohalariga yo‘naltirish orqali shu orqali mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishini ta’minlaydi. Bularning barchasi davlatning iqtisodiy hayotini muvofiqlashtirish, milliy iqtisodiyotda moliyaviy va moddiy resurslarni oqilona aralashtirish, texnologik taraqqiyotga ko‘maklashish va davlatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

13. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.

14. Архипова В.Ф., Девизов А.С. Об инфраструктуре как определяющем факторе развития туризма в регионе. URL:http://www.roman.by/r-78201.html

15. Safarova N.N. Milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishiga turizm sohasi ta’sirini

16. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik.

17. Ernazarov O.E. Innovatsiyalar asosida sanoat korxonalari samaradorligini oshirish // Diss. PhD. – T.: TDTU, 2021. 13-14-b.

18. O.N.Xaitov “Hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish” Monografiya. Samarqand. 2024. 256-b.

19. https://lex.uz/docs/6102462

GIDRODINAMIK DISPERSIYANI HISOBGA OLGAN HOLDA G‘OVAK MUHITDA MODDA KO‘CHISH MASALASINI SONLI MODELLASHTIRISH

Sag‘dullayev Otabek Qo‘drat o‘g‘li,
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali, assistent,
otabek892603@gmail.com

Annotatsiya: *Modda ko‘chishi va adsorbsiyasi jarayonlarini o‘rganish ko‘plab sanoat va tabiiy jarayonlarni tahlil qilishda muhim o‘rin tutadi. G‘ovak muhitda modda oqimining o‘ziga xos xususiyatlari, absorbsiyalangan modda konsentratsiyasining vaqt va fazoga bog‘liq o‘zgarishlari bu jarayonlarning murakkabligini belgilaydi. Ushbu murakkabliklarni ifodalash uchun kinetika tenglamalar va gidrodinamik dispersiyaning matematik modellarini qo‘llash zarur. Mazkur maqolada g‘ovak muhitda modda ko‘chish jarayonlari aktiv va passiv zonalarga bo‘lingan holda o‘rganilgan. Aktiv zonada absorbsiyalangan modda miqdori maksimal konsentratsiya va parchalanish jarayonlari bilan chegaralanadi, passiv zonada esa absorbsiyaning sekinlashuvi kuzatiladi.*

Kalit so‘zlar: *Absorbsiya, g‘ovak muhit, gidrodinamik dispersiya, chekli ayirma.*

Kirish

G’ovak muhitlarda modda ko‘chish jarayoni uzoq vaqt davomida ko‘plab muhandislik sohalarida katta ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Masalan, neft muhandisligi sohasida kimyoviy moddalar, uglevodorod rezervuarlariga kiritilib, neftni qayta olish jarayonini yaxshilashga yordam beradi [1]. Gidrodinamik dispersiya nazariyasi muhandislarga kimyoviy moddalar qanchalik uzoqqa tarqalishini aniqlashga yordam beradi, shuningdek, maqsadli hududni qamrab olish uchun mos kiritish nuqtalarini loyihalash imkonini beradi. G’ovak muhitda dispersiya yer osti suvlarini ifloslantiruvchi moddalar qanday tarqalishini va ularni qanday ifloslantirishi haqida oldindan taxmin qilishda yordam beradi [2,3,4].

Umuman olganda, g‘ovak muhitda tarqaladigan moddalar yoki zarrachalar ikkita ta’sir orqali tarqaladi: molekulyar diffuziya va konvektiv dispersiya (yoki mexanik dispersiya). Ikkala dispersiya mexanizmini birlashtirgan modda ko‘chish jarayoni gidrodinamik dispersiya deb ataladi [3,5,6].

MASALANING QO‘YILISHI

Aktiv va passiv zonalarga ega bo’lgan ikki zonali g‘ovak muhit ko‘rib chiqiladi. Ko‘chish tenglamasi [5]

$$\frac{\partial c}{\partial t}+v_x\frac{\partial c}{\partial x}=D\frac{\partial^2 c}{\partial x^2}-\frac{1}{\theta}\frac{\partial c_a}{\partial t}-\frac{1}{\theta}\frac{\partial c_p}{\partial t}-\lambda_e c \qquad (1)$$

bu yerda $v_x=\frac{w_x}{\theta}$ suyuqlikni fizik tezligi, bu yerda c konsentratsiyasi hajmi, c_a aktiv zonadagi adsorbsiyalangan moddaning konsentratsiyasi, c_p passiv zonadagi adsorbsiyalangan moddaning kontsentratsiyasi, θ g‘ovaklik, λ_e birinchi tartibdagi parchalanish koeffitsienti (parchalanish), $\vec{w}$ filtrlash tezligi.

(1) tenglamada diffusion hadda D ni jarayonga mos o’zgaruvchi funksiya sifatida qarab quyidagini hosil qilamiz:

$$\frac{\partial c}{\partial t}+v_x\frac{\partial c}{\partial t}=\frac{\partial}{\partial x}\left(D(x)\frac{\partial c}{\partial x}\right)-\frac{1}{\theta}\frac{\partial c_a}{\partial t}-\frac{1}{\theta}\frac{\partial c_p}{\partial t}-\lambda_e c \qquad (1^*)$$

bu yerda c - hajmiy konsentratsiyasi, c_a - aktiv zonadagi adsorbsiyalangan moddaning konsentratsiyasi, c_p - passiv zonadagi adsorbsiyalangan moddaning kontsentratsiyasi, θ - g‘ovaklik, λ_e birinchi tartibdagi yemirilish koeffitsienti (yemirilish), v_x - sizish tezligi, D - diffuziya koeffisiyenti.

Aktiv zona uchun kinetika tenglamasi:

$$\frac{\partial c_a}{\partial t} = \begin{cases} \beta_{ar} c - \lambda_{ea} c_a, \ если \ \ 0 < c_a \le c_{ar} \\ \beta_{aa} c - \beta_{ad} c_a - \lambda_{ea} c_a, \ если \ \ c_{ar} < c_a < c_{a0} \\ 0, \ если \ c_a = c_{a0} \end{cases} \quad (2)$$

bu erda β_a aktiv zonadagi moddaning adsorbsiya intensivligini tavsiflovchi koeffitsient, c_{a0} aktiv zonadagi erishiladigan maksimal konsentratsiya, λ_{ea} aktiv zonada adsorbsiyalangan moddaning parchalanish koeffitsienti, $\beta_{ar}, \beta_{aa}, \beta_{ad}$ kinetika koeffisentlari, c_{ar} zaryadlash effekti tugaydigan maksimal konsentratsiyadir.

Passiv zona uchun kinetika tenglamasi:

$$\frac{\partial c_p}{\partial t} = \begin{cases} \beta_{p0} c - \lambda_{ep} c_p, \ если \ \ 0 < c_p \le c_{p1} \\ \dfrac{\beta_{p0} c_{p1} c}{c_p} - \lambda_{ep} c_p, \ если \ \ c_{p1} < c_p \le c_{p0} \\ 0, \ если \ c_p = c_{p0} \end{cases} \quad (3)$$

bu yerda c_{p1} eskirish ta'siri boshlanadigan maksimal konsentratsiyadir, λ_{ep} – passiv zonada adsorbsiyalangan moddaning parchalanish koeffitsienti.

O'zgaruvchan gidrodinamik dispersiya:

$$D = D_0 \left(1 + e^{-\omega x}\right), D_0 = const, \omega > 0 \quad (4)$$

u holda (1) va (4) tenglamalardan quyidagiga ega bo'lamiz :

$$\frac{\partial c}{\partial t} + v_x \frac{\partial c}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x}\left(D_0 \left(1 + e^{-\omega x}\right) \frac{\partial c}{\partial x} \right) - \frac{1}{\theta} \frac{\partial c_a}{\partial t} - \frac{1}{\theta} \frac{\partial c_p}{\partial t} - \lambda_e c \quad (5)$$

(2), (3) - (5) tenglamalar quyidagi shartlar bilan yechiladi

$$c(0,x) = 0, c_a(0,x) = 0, c_p(0,x) = 0 \ , \ c(t,0) = c_0, c(t,\infty) = 0 \quad (6)$$

Masalaning yechilishi. (2), (3) va (5) masalalarni yechish uchun chekli ayirmalar usulini qo'llaymiz [6]. $D = \{0 \le x < \infty, \ 0 \le t \le T\}$ sohada $\omega_{h\tau}$ to'rni kiritamiz, bu yerda T o'rganilayotgan jarayonda maksimal vaqt. OX o'qida $[0, \infty)$ oraliqni h qadam bilan va vaqt bo'yicha $[0, T]$ oraliqni τ qadam bilan bo'laklarga ajratib olamiz. Masalani approksimatsiya qilish uchun quyidagi to'rni kiritib olamiz

$$\omega_{h\tau} = \left\{ \left(x_i, t_j\right), \ x_i = ih, \ i = 0,1,..., \ \ t_j = j\tau, \ j = 0,1,..., J, \ \ \tau = T/J \right\}.$$

$c(t,x)$, $c_a(t,x), c_p(t,x)$ funktsiyalari o'rniga $\left(x_i, t_j\right)$ tugunlaridagi qiymatlari mos ravishda c_i^j, $c_{a,i}^j$, $c_{p,i}^j$ ni belgilagan aniq funksiyalarni ko'rib chiqamiz.

(5) tenglama $\omega_{h\tau}$ to'rda quyidagi ko'rinishda approksimatsiya qilamiz

$$\frac{c_i^{j+1} - c_i^j}{\tau} + \left(v_x + D_0 \cdot \omega \cdot e^{-\omega x_i}\right) \cdot \frac{c_i^{j+1} - c_{i-1}^{j+1}}{h} = D_0 \left(1 + e^{-\omega x_i}\right) \cdot \frac{c_{i+1}^{j+1} - 2 \cdot c_i^{j+1} + c_{i-1}^{j+1}}{h^2} - \\ - \frac{1}{\theta} \cdot \frac{c_{a,i}^{j+1} - c_{a,i}^{j+1}}{\tau} - \frac{1}{\theta} \cdot \frac{c_{p,i}^{j+1} - c_{p,i}^{j+1}}{\tau} - \lambda_e \cdot c_i^{j+1} \quad (7)$$

(2) va (3) tenglamalar uchun ayirmali sxemalar quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{c_{a,i}^{j+1} - c_{a,i}^j}{\tau} = \begin{cases} \beta_{ar} v c_i^j - \lambda_{ea} c_{a,i}^j, & 0 < c_{a,i}^j \le c_{ar}, \\ \beta_{aa} v c_i^j - \beta_{ad} c_{a,i}^j - \lambda_{ea} c_{a,i}^j, & c_{ar} < c_{a,i}^j < c_{a0}, \\ 0, & c_{a,i}^j = c_{a0}. \end{cases} \quad (8)$$

$$\frac{c_{p,i}^{j+1}-c_{p,i}^{j}}{\tau}=\begin{cases}\beta_{p0}c_i^{j}-\lambda_{ep}c_{p,i}^{j}, & 0<c_{p,i}^{j}\le c_{p1},\\ \dfrac{\beta_{p0}c_{p1}c_i^{j}}{c_{p,i}^{j}}-\lambda_{ep}c_{p,i}^{j} & c_{p1}<c_{p,i}^{j}<c_{p0},\\ 0, & c_{p,i}^{j}=c_{p0}.\end{cases} \quad (9)$$

(7), (8) va (9) tenglamalarni ayirmali sxemalarini quyidagicha olamiz:

$$A\cdot c_{i-1}^{j+1}-B\cdot c_i^{j+1}+E\cdot c_{i+1}^{j+1}=-F_i^{j} \quad (10)$$

$$A=h\cdot\tau\cdot\left(v_x+D_0\cdot\omega\cdot e^{-\omega x_i}\right)+\tau\cdot D_0\cdot\left(1+e^{-\omega x_i}\right),$$

$$B=h^2+h\cdot\tau\cdot\left(v_x+D_0\cdot\omega\cdot e^{-\omega x_i}\right)+2\cdot\tau\cdot D_0\left(1+e^{-\omega x_i}\right)+\lambda_e\cdot\tau\cdot h^2,\ E=\tau\cdot D_0\cdot\left(1+e^{-\omega x_i}\right),$$

$$F=h^2\cdot c_i^{j}-\frac{h^2}{\theta}\cdot\left(c_{a,i}^{j+1}-c_{a,i}^{j}\right)-\frac{h^2}{\theta}\cdot\left(c_{p,i}^{j+1}-c_{p,i}^{j}\right)$$

(6) boshlang'ich va chegaraviy shartlar ham to'r ko'rinishida ifodalanadi.

$$\begin{aligned}c_{a,i}^{j}&=0,\ i=\overline{0,I},\ j=0,\\ c_{p,i}^{j}&=0,\ i=\overline{0,I},\ j=0,\\ c_i^{j}&=0,\ i=\overline{0,I},\ j=0,\\ c_i^{j}&=c_0,\ i=0,\ j=\overline{0,J},\end{aligned} \quad (10)$$

bu yerda I ning yetarlicha katta qiymatlari uchun $c_I^{j}=0$ bo'ladi.

XULOSA

Ushbu maqolada gidrodinamik dispersiya asosida g'ovak muhitda modda ko'chish jarayonlari tahlil qilindi va ularning matematik modellashtirish usullari ishlab chiqildi. Modda ko'chish jarayoni aktiv va passiv zonalarga ajratilib, har bir zonada moddaning adsorbsiyasi va parchalanish jarayonlari kinetik tenglamalar orqali tavsiflandi. Bu yondashuv muhitning fizik-kimyoviy xususiyatlarini hisobga olgan holda modda tarqalishining aniq kuzatish imkonini yaratdi.

Moddalar oqimini aniqlashda gidrodinamik dispersiyaning rolini chuqur o'rganish maqsadida, diffuziya koeffitsienti o'zgaruvchan funksiya sifatida qabul qilinib, uning vaqt va fazodagi dinamikasi modellashtirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, gidrodinamik dispersiya va molekulyar diffuziya jarayonlarining kombinatsiyasi g'ovak muhitda moddaning kengayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Вениционов Е.В., Рубинштейн Р.Н. Динамика сорбции из жидких сред. – М.: Наука, 1983. – 237 с.
2. Tien C., B.V. Ramarao, Granular Filtration of Aerosols and Hydrosols, 2nd ed., Elsevier, 2007.
3. Минц Д.М. Теоретические основы технологии очистки воды. – М.:Изд. Литературы по строительству, 1964. – 156 с.
4. Gitis V., Rubinstein I., Livshits M., Ziskind M. Deep – bed filtration model with multistage adsorption kinetics. *Chemical Engineering Journal* . – 2010. *No.* 163. pp. 78 – 85.
5. Khuzhayorov B., Makhmudov J., Fayziev B., Begmatov T., Sagdullaev O. Model of Two-Component Suspension Filtration in a Porous Medium with Multistage Deposition Kinetics // AIP Conference Proceedings, 2022, 2637, 040019. doi: 10.1063/5.0118455.
6. Samarski A. A. The Theory of Difference Schemes; CRC Press: New York, NY, USA, 2001

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik vazifalarni bajarishida refleksiv kompetensiyalarni shakllantirish

Boqiyev G‘ulomjon Ochilovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Pedagogika va o‘qitish metodikasi”
kafedrasi v.b.professori
Temirova Soxiba Shavkatovna
Pedagogika mutaxassisligi magistranti
Boqiev@mail.ru

Annotatsiya: ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik vazifalarni bajarishida refleksiv kompetensiyalarni shakllantirish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib o‘qituvchilarning pedagogik vazifalarni bajarishida refleksiv kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, boshlang‘ich sinflarda refleksiv kompetensiyalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida bildirilgan fikrlar diqqatga sazovordir.

Tayanch so‘zlar: refleksiv kompetensiyalardan, tajriba-sinov, tajriba-sinov, metod, usul, samarador, ilmiy-nazariy

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadi bilimli, dunyoqarashi keng, raqobatbardosh, komil insonni tayyorlashga yo‘naltirish hisoblanadi. Bunga erishish uchun talabalarni turli sohalar bo‘yicha egallagan bilimlarini kundalik hayotda amaliy qo‘llashga o‘rgatish orqali ularda refleksiv ko‘nikma va malakalarni shakllantirish muhim axamiyat kasb etadi. Ma’lumki, har bir fan asoslarini muayyan ta’lim bosqichlarida o‘qitish tamoyillarini belgilab beruvchi asosiy normativ hujjat Davlat ta’lim standarti bo‘lib, unda ma’lum bir fanni o‘qitishning maqsad va vazifalari, ta’lim oluvchilar o‘z lashtirishi zarur bo‘lgan bilimlar mazmuni, ular asosida egallashlari kerak bo‘lgan refleksiv ko‘nikma va amaliy malakalarning kompetentsiyaviy talablari ham belgilab berilgan.

Refleksiv ko‘nikmalar refleksiv tafakkur bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quv manbalarda pedagogik refleksiyaga ortga nazar solish, o‘z xatti-harakatlari va holatlarini ifodasi, tahlili sifatida ta’rif berilgan.

Refleksiya maqsadni belgilashni talab etadi, maqsad esa fikrlash jarayonini boshqaradi. Bunday fikrlash va pedagogik refleksiyadagi o‘z iga xoslik shundaki, yengib o‘tish kerak bo‘lgan to‘siq, yechimini kutayotgan muammo, turli xil qiyinchilik, shubhaning mavjudligi - refleksiv fikrlashning yangi maqsadi, yo‘nalishini belgilab beradi. Bo‘lajak o‘qituvchining shakllanishi va rivojlanishi mazkur maqsadga erishishga yo‘naltirilgan faoliyat mobaynida yuz beradi. Bo‘lajak o‘qituvchining ixtiyoriy predmetli faoliyati – o‘quv, bilish, ta’limiy, kommunikativ, ma’naviy faoliyat sub’ekti motivini tashkil etish va uning maqsadini ta’minlashdan iboratdir:



Faoliyatni tashkil etish va uning maqsadini ta’minlashning shakllaridan biri pedagogik refleksiya sanaladi hamda umumiy ko‘rinishda u insonning o‘z ichki dunyosi hamda o‘z hayot faoliyati tajribasini tushunishni anglatadi.

Refleksiv ko‘nikmalar ichki qadamlar (shubhalar) zanjirini, ularni o‘z -o‘zi bilan muhokama qilish, tushunmovchilik, sodir bo‘layotgan va kutilayotganga javob variantlarini izlashni aks ettiradi. Pedagogik refleksiya predmeti sifatida individning ichki tajribasida mavjud bo‘lgan bilim, tasavvur, tushuncha, hissiyot, munosabat, istak va qadriyatlar xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar ni refleksiv ko‘nikmalarni rivojalantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlarda refleksiv ko‘nikma xulq-atvorning mohiyatini aniqlashga yordam beradi va fikrlashning shaxs uchun ahamiyatli bo‘lgan komponentlari bilan qo‘shilib, vaziyatlarni samarali hal qilish chog’ida yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘lishi keltirilgan.

Refleksiya fikrlash jarayonida hamda xulq-atvorda bajaradigan funktsiyalarning xilma-xilligi va xulq-atvorni, harakatlarni tartibga solishda o‘ynaydigan rolning ahamiyati refleksiyani ta’lim jarayonlarining juda kerakli unsuri deb hisoblashga asos bo‘ladi.

Tahlil: Refleksiv ko‘nikmalarni asosiy xususiyati pedagogik jarayon ichida erkinlik printsipini tadbiq etish hisoblanadi. Lekin shuni ta’kidlash joizki, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlovchi aksariyat oliy ta’lim muassasalari ta’limiy faoliyatida talabalarlarning shaxsini takomillashtirishga e’tibor qaratmaydi. Natijada shaxsning, aniqrog’i, bo‘lajak pedagog axloqiy rivojlanishdan orqada qoladi. Tadiqotchilar refleksiyani so‘ndiruvchi va an’naviylikni uyg’otuvchi ikkita asosiy omillarini ajratadi:

1. Refleksiya, fikrlash, tushunish, erkin bilish faoliyati. vositalariga emas, balki “bilimlarga” o‘rgatish faoliyati.
2. Bilish va ijro etish muhimligi g’oyasi hamda bilmaslik va shubhani qabul etmaslik.

